Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

ЎЗБЕК ХАЛҚ ЭРТАКЛАРИ

Уч жилдлик

O‘ZBEK XALQ ERTAKLARI

Uch jildlik

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

ЎЗБЕК ХАЛҚ ЭРТАКЛАРИ

III

„O‘QITUVCHI“ НАШРИЁТ-МАТБАА ИЖОДИЙ УЙИ
ТОШКЕНТ — 2007

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

O‘ZBEK XALQ

ERTAKLARI

III

„O‘QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT — 2007

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

TAHRIR HAY'ATI

**XODI ZARIF, MANSUR AFZALOV, ZUBAYDA HUSAINOVA,
XOLID RASUL, BAHODIR SARIMSOQOV,
MAHKAM MAHMUDOV**

TUZUVCHILAR

M. AFZALOV, X. RASULOV, Z. HUSAINOVA

Mas'ul muharrir

Mahkam Mahmudov

Muharrirlar

*X. Ubaydullayev, A. Hasanov, B. Qodirov,
S. Xo'jaahmedov*

Musavvirlar

*A. Venediktov, V. Yeremyan, V. Kaydalov, A. Levitskiy,
A. Rossal, G. Shevakov, N. Agapova*

Badiiy muharrirlar

I. Ikromov, T. Qanoatov

A $\frac{4702620101 - 14}{353(04) - 2007}$ Buyurtma varag'i – 2007

ISBN 978-9943-02-002-3

© „O'qituvchi" NMIU, 2007

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Jovur chol

Bor ekan-da, yo‘q ekan, och ekan-da, to‘q ekan, burungi zamonda chol-kampir bor ekan. Dunyoda farzand yuzini ko‘rmay, juda ham kambag‘al yashagan ekanlar. Chol o‘tin sotib, puliga chorak g‘alla olib kun o‘tkazar ekan. Daladan o‘tin tashiy-tashiy orqasi jovur[1] bo‘lib ketibdi. Shuning uchun kampiri uni Jovur chol deb chaqirar ekan. Kunlardan bir kuni Jovur chol daladan sakkiz quchoq o‘tin terib, yaxshilab bog‘lab bozorga ko‘tarib kelayotsa, bir tulki inidan boshini chiqarib:

— Jovur chol, Jovur chol, men sening o‘g‘ling bo‘laman, — debdi.

Jovur chol:

— Ey tavba, tulki ham gapirar ekan-da, — deb picha qo‘rqibdi.

Tulki:

— Ota, qo‘rqmang, men sizga farzand bo‘lmoqchiman, — debdi.

Jovur chol ko‘nib:

— Mayli bo‘lmasa, yur uyga, — debdi.

Tulki Jovur cholning oldiga chopib kelib:

— Ota-ota, o‘tiningizni men ko‘taray, — debdi.

---

[1] **Jovur** — yag‘ir.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Chol hayron bo‘lib: „Buncha o‘tinni tulki holati bilan qanday ko‘tarar ekan“, deb o‘ylab, o‘tinni yerga qo‘yibdi. Qarasa, tulki shuncha o‘tinni chumchuqni ko‘targanday qilib ko‘tarib ketibdi, uyiga kelgandan keyin chol-u kampir tulkini juda yaxshi ko‘rib qolishibdi. Shu kundan boshlab tulki Jovur chol otasiga har kuni o‘tin tashib berib, bir g‘aram qilib qo‘yibdi. Bir kuni oqshomda tulki Jovur cholning qo‘ynidan chiqib ketayotsa, chol unga:

— Tulkicha-yu tulkicha, tunda qayga borasan? — debdi.

Tulki debdi:

Momom uyiga boraman.

Chol:

Momong senga ne berar?

Tulki:

Echki sog‘ib, sut berar.

Chol:

Echkisining suti yo‘q,
Kadisining tegi yo‘q.

Tulki:

Meni, ota, aldamang,
Borgandan so‘ng bilaman.
Sut bo‘lmasa mayliga,
Momom ko‘rib kelaman, —

deb tulki jo‘nab ketibdi. Tomma-tom yurib, hammaning mo‘risidan qarab keta beribdi. Oxiri podshoning tomiga yetib, mo‘risidan qarasa, uy ichini yorug‘ qilib podshoning qizi uxlab yotganmish. Tulki qizni ko‘rib oshiq bo‘lib qolibdi. Yana tomma-tom sakrab Jovur chol qoshiga kelibdi. Jovur chol tulkining silab, erkalatib:

Kechga qolding, tulkicham,
Kech keldimi echkicham? —

debdi.

Tulki:

Borib edim qidirib,
Keldim momomni ko‘rib.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Momom bo‘libdi jinni,
Qilib berdi g‘ilmindi, —

debdi.

Chol:

Ne kelmading shungacha?
Momong bo‘pma jengacha.
Yo bo‘ldimi o‘yinchi
G‘ilmindidan keyincha.

Tulki:

Momom aytdi, bor dedi,
Cho‘pchak terib kel, dedi.
O‘rdan terdim o‘n quchoq,
Qirdan terdim qirq quchoq.
Soydan-chi, sakkiz quchoq,
Shuytib keldim kechga choq, —

debdi.

Tong otibdi. Tulki Jovur cholga:

— Ota-ota, menga xotin olib bering, — debdi.

Jovur chol:

— O‘g‘lim, kimning qizini olib beray? — debdi.

Tulki:

— Podsho bobomning qizini olib bering, — debdi.

Jovur chol:

— O‘g‘lim, podsho bobong qizini senga berarmikan, — debdi.

Tulki:

— Bersa ham, bermasa ham, „Bir tulki o‘g‘lim bor, shunga qizingizni bering“, deb bir so‘rang, — debdi.

Jovur chol tulkini juda yaxshi ko‘rar ekan. So‘zi yerda qolmasin, deb podshonikiga borib:

— Podsho bobo, mening tulki o‘g‘limga qizingizni bering, — debdi.

Podshoning achchig‘i kelib:

— Men senday qashshoq bilan quda bo‘lamanmi, o‘g‘ling tag‘in tulki bo‘lsa, — deb darrov jallodlarga buyurib, cholni o‘ldirtirib yuboribdi.

Tulki bir kuni podshoning oldiga kelib.

— Otam qani? —debdi.

Podsho:

— Otangni o‘ldirib yubordim, — debdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Tulki bir joyga borib:

— Jovur chol, Jovur chol! — deb qichqiraveribdi. Jovur cholning suyaklari u yoqdan, bu yoqdan shaldirab yig‘ilib kelib tirilibdi:

— Ha, o‘g‘lim, balli, meni tiriltirding, — debdi Jovur chol.

Tulki yana Jovur cholni podsho oldiga yuboribdi. Bu safar ham podsho Jovur cholni „Senday Jovur cholga qizimni berar emishmanmi, o‘g‘ling tag‘in tulki bo‘lsa“, deb o‘ldirtirib yuboribdi. Tulki yana bir joyga borib chaqirib Jovur cholni tiriltiribdi. Uch martaba tiriltirgandan keyin podsho tulkining bunday karomatlarini ko‘rib qizini tulkiga beribdi.

Tulki qiz yoniga kirgandan keyin po‘stinini yechib qoziqqa osib qo‘yibdi, o‘zi chiroyli bir yigit bo‘libdi. Podshoning qizi yigitni sevib qolibdi. Tulki bo‘lib yurganini yoqtirmay, bir kuni tulki uxlab yotganida po‘stinini o‘tga tashlab kuydiribdi. Tulki uyg‘onib po‘stinini so‘rabdi. Xotini:

— Sizning tulki bo‘lib yurganingizni yoqtirmadim. Chiroyli husningizga po‘stin yarashmaydi. Shuning uchun o‘tga solib kuydirdim, — debdi.

Tulki:

— Bo‘lmasa sen menga yo‘q, men senga yo‘q, — deb chiqib ketibdi.

Xotini orqasidan:

— Men sizni izlasam qayerdan topaman? —debdi.

Tulki:

— Meni izlab sarson bo‘lma, agar juda topmoqchi bo‘lsang temir choriq kiyib, temir hassa tayanib izlaysan. Hassang ignaday, chorig‘ing qog‘ozday bo‘lib qolsa, shundagina topasan, — deb jo‘nab ketibdi. Tulkining xotini ham podsholikni tark qilib, temir choriq kiyib, qo‘liga temir hassa ushlab, boshiga qalandar kuloh kiyib, darvishlikni ixtiyor qilib, tulkini qidirib ketibdi. Tulkini izlay-izlay temir choriq qog‘ozday bo‘libdi, temir hassa ignaday ingichka bo‘lib ketibdi. Bu orada bir qancha yillar o‘tibdi. Bir tog‘dan borayotsa, tulki ko‘p jo‘ralari bilan ov ovlab yurgan ekan, xotinini ko‘rib, tanib otidan tushibdi. Xotini bilan ko‘rishib, so‘rashib, xotinini o‘z shahriga olib boribdi. Aslida tulki bir katta podshoning o‘g‘li ekan. U o‘z sevgani bilan birga bo‘lgach, murod-maqsadiga yetibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Jonon piyola

O‘tgan zamonda Qo‘qon shahrida bir podsho yashagan ekan. Bu podshoning bitta-yu bitta jonon piyolasi bor ekan. Yer yuzini ming marta aylanib chiqsangiz ham bunaqangi piyolani topolmas ekansiz. U shu qadar chiroyli ekanki, qorong‘i tunni oy nuri kabi yoritar ekan.

Podsho piyolani tilla sandiqning ichida saqlar ekan. Piyola turgan uyning atrofida bir qancha qo‘riqchilar turar ekan. Agarda podshoning choy ichkisi kelsa, ishonchli odamini yuborib, jonon piyolasini oldirtirar ekan. Xizmatkor tilla sandiqni ochib, uning ichidan jonon piyolani olib borib podshoga topshirar ekan. Podshoning qo‘lidagi piyolaga kanizaklar hurmat bilan choy quyib turar ekanlar.

Podsho har choy ichayotganda piyolani aylantirib tomosha qilar ekan. Kunlardan bir kuni podsho xizmatkoriga piyolani keltirishni buyuribdi. Xizmatkor piyolani olib kelayotganida qoqilib ketib, qo‘lidagi jonon piyola chil-chil bo‘lib sinibdi. Xizmatkor esa podshodan qo‘rqib, qochib ketibdi. Podsho qancha kutsa ham xizmatkor kelmabdi. Uni topib kelgani bir necha odam yuboribdi. Ular ham qaytmabdi. Podsho vazirini yuboribdi, vazir ketayotib yo‘lda sinib yotgan jonon piyolani ko‘ribdi. „Ha, gap bu yoqda ekan, nega shu choqqacha ketgan odamlar qaytib kelmaydi desak, piyolani sindirib qo‘yib, podshodan qo‘rqib qochib ketishgan ekan. Agar qochmaganlarida podsho ularni to‘xtovsiz o‘ldirib yuborar edi. Men ham

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

podshoga borib bu sirni aytsam o‘ldirib yuborar, kel, bo‘lgancha bo‘lar“, — deb vazir piyola siniqlarini yerdan terib olib, podshoning oldiga boribdi-da:

— Podshohim, g‘azablanmang, bir hodisa ro‘y beribdi, — debdi.

Podsho:

— Qanday hodisa, tez ayt! — degan ekan, vazir:

— Bir qoshiq qonimdan kechsangiz aytaman! — debdi. Podsho:

— Kechdim, ayt! — debdi. Vazir:

— Taqsir, jonon piyolangiz sinibdi. Xizmatkor piyolani olib kelayotganda qoqilib ketib sindirib qo‘yibdi. Xizmatkoringiz qo‘rqib qochib ketibdi. Qolgan odamlar ham qo‘rqib g‘oyib bo‘libdilar. Mana sizning jonon piyolangiz! — deb piyola siniqlarini podshoga topshiribdi.

Podsho juda xafa bo‘libdi. Xafaligidan bir necha kungacha ovqat yemay ozib ketibdi, nihoyat kasal bo‘lib yotib qolibdi. Oradan qirq kecha-yu qirq kunduz o‘tgandan so‘ng podsho o‘ziga kelib, Qo‘qon viloyatidagi butun kulollarni chaqirtiribdi. Kulollar yig‘ilgandan keyin podsho ularga qarab shunday debdi:

— Ey, kulollar, yer yuziga mashhur, eng chiroyli, jonimdan ham qimmat bo‘lgan jonon piyolam sinib qoldi. Kimda-kim shu jonon piyolamni ilgarigi holiga keltirsa, istagan narsasini beraman, agarda tuzatib beraman deb, tuzatib bera olmasa, u kishining boshi o‘limda, moli talonda. Qani, o‘ziga ishongan kulollar bo‘lsa chiqa bersin.

Kulollar maslahatlashib qirq kun muhlat so‘rabdilar va siniq jonon piyolani olib ketibdilar.

Oradan qirq kun ham o‘tibdi. Kulollar ko‘p boshlarini qotirib, qancha urinsalar ham piyolani tuzata olmabdilar. Shunda podsho darg‘azab bo‘lib ularning hammasini qilichdan o‘tkazibdi.

Bir tomondan piyolani tuzatish uchun kulollar kela beribdilar. Bir tomondan tuzata olmaganlarini podsho o‘ldira beribdi.

Qo‘qon viloyatidagi kulollarning hammasi podshoning qilichidan o‘tibdi. Podsho yig‘ilgan xaloyiqqa qarab:

— Yana hech qayerda kulol qoldimi? —deb so‘rabdi.

Shunda olomon ichidan bir kishi chiqib:

— Taqsir, falon qishloqda qirqta kulol bor, lekin ular hali yaxshi kulollar qatoriga qo‘shilmagan. Shuncha nomdor kulollar nima bo‘ldi-yu, endi ular nima bo‘lar edi. Ulardan umid qilmasangiz ham bo‘ladi, — debdi.

Podsho ularni ham chaqirtiribdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Navkarlar zo‘rg‘a tirikchilik qilib yurgan qirq kulolni podsho huzuriga keltiribdi.

Podsho ularga siniq piyolani ko‘rsatib:

— Mana shu piyolani tuzatsangiz ham tuzatasiz, tuzatmasangiz ham tuzatasiz! — debdi. Kulollar:

— Bu ish bizning qo‘limizdan kelmaydi, — debdilar. Biroq podsho majbur qilgach: „Xo‘p bo‘lmasa, bir bosh qotirib ko‘ramiz“, deb piyolani olib qishloqqa jo‘nab ketibdilar. Ular yo‘lda:

— O‘ziga inongan usta kulollar nima qildi-yu, biz nima qilar edik, — deb so‘zlashibdilar.

Ular qishloqqa borgach, maslahatlashibdilar, lekin piyolani tuzatish chorasini qancha o‘ylasalar ham topolmabdilar. Qirq kulolning ichida Nosir kal degan shogird bola bor ekan. Kulollarning so‘zlashib, tortishib turganlari ustiga kelib qolibdi:

— Ey, ustalar, nega diqqat bo‘layotibsizlar, nima gap? — deb so‘rasa, ular:

— Bor, toshingni ter, ishing bo‘lmasin. Qulog‘ingning tagida shavla qaynatmasimizdan jo‘nab qol! — deb uni haydab yuboribdilar.

Oradan o‘n besh kun o‘tibdi, kal yana ustalarning xunob bo‘lib qovoq-tumshuqlarini solib, xayol surib o‘tirganini ko‘ribdi: „Ajabo, bularga nima bo‘ldi ekan, jin tegdimi, qiladigan ishlarining tayini yo‘q-ku, bekordan-bekorga g‘ijillashadi. Jinni-pinni bo‘lib qolishdimikan, har kuni bir joyda o‘tirib olib, och qolib bo‘lsa ham o‘ylashadi, tortishadi. Nima uchun bu sirni menga aytishmaydi“.

— Ey, ustozlarim, o‘zi nima gap, o‘ylaysizlar, tortishasizlar, sababini menga aytmaysizlar, menga aytsangizlar, balki birorta chora toparman, — debdi.

Ular shunchalik xayolga cho‘mgan ekanlarki, kalning kelganini ham sezmay qolibdilar. Ulardan biri kalni ko‘rib qolibdi-yu, cho‘chib o‘rnidan turib, kal bolani yana haydab yuboribdi. Kal yana kelibdi.

— Yana nega kelding. Bizning ishga aralashma, tezroq ket, kaltakdan o‘lasan, — deb o‘shqirgan ekan, ikkinchisi:

— Og‘aynilar, har kallada har xayol, kal shogirdimiz diqqat bo‘lib o‘tirganimizni ko‘rib yonimizga ikki marta keldi, birinchisida haydab yubordik. Endi haydamaylik. Axir u kal bo‘lgani bilan es-hushi joyida-ku, necha yildan beri biz bilan ishlab keladi. Ishi yomon emas-ku. Mana, o‘ttiz kun o‘tib, o‘n kun qoldi. O‘ylab bir fikrga kelolmayotibmiz. Bu kalga ham bildirib, maslahat solib ko‘raylik, balki bundan biror foydali fikr chiqib qolar, — debdi.

Boshqa kulollar bu fikrni ma’qullabdilar. Ulardan biri:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Ey, kal, podsho bizni chaqirib, mana shu siniq piyolani qo‘limizga berib, „Tuzatsalaring ham tuzatasanlar, tuzatmasalaring ham tuzatasanlar“, dedi. Biz qo‘rqqanimizdan rozi bo‘lib qirq kun muhlat oldik. Mana bugun o‘ttiz kuni o‘tdi. Ko‘p kulollar bu piyolani tuzata olmay, podshoning qilichi damidan o‘tdi. Endi navbat bizga keldi, shuni tuzata olmay, hayron bo‘lib turibmiz. Bu ahvolda qirq kunda emas, qirq yilda ham tuzata olmaydiganga o‘xshaymiz, — debdi.

— Unday bo‘lsa, — debdi Nosir kal, — men buning chorasini sizlarga aytaman. Shundagina qirq kulolning rangiga qon yuguribdi.

— Rostdan ham chorasi bor degin, aytaqol, uka! — deyishibdi.

— Rost! — debdi kal, qirq kundan keyin podshoning odamlari kelganda sizlar ularga: „Mana bu kalning otasi eng eski, mashhur kulollardan edi. Shu jonon piyolani ham o‘sha ishlagan. Kal otasi hunarining eng nozik tomonlarini o‘rganib olgan, jonon piyolani shu tuzatmoqchi edi“, deysiz.

Kulollardan biri:

— Bizga baribir, agar kal piyolani tuzata olmasa, podsho uni o‘ldiradi, — debdi. Bu gap hamma kulolga ma’qul tushibdi. Qirq kun muhlat o‘tgandan keyin podshoning odamlari kelibdi. Qirq kulolning hammasi to‘planibdi:

— Piyolani tuzatdingizmi? — deb so‘rabdi navkarlardan biri.

Kulollardan biri aytibdi:

— Ey, podsho hazratlarining hurmatli kishilari, podshoning jonon piyolasini mana shu kalning otasi ishlagan ekan. Bu kal otam ishlagan piyolani mendan boshqa hech kim tuzata olmaydi, faqat o‘zim tuzataman, deb turibdi. Otasi qanchalik usta bo‘lsa, u ham shunchalik usta. Bizga ham kulollikni shu kal o‘rgatgan.

— Tuzatasanmi, kal? —debdi podshoning odami.

— Albatta tuzataman, — debdi kal.

— Tuzatsang, yur, oldimizga tush, podshoga borib shu gapingni ayt.

— Yo‘q, podshoning oldiga bormayman, — debdi kal.

— Nimaga bormaysan? Borib piyolani qanday qilib tuzatishingni aytishing kerak, — debdi navkar.

— Bularning hammasi otda borsin-u, men piyoda boramanmi? Boradigan bo‘lsam, men ham otda boraman — debdi kal.

Kulollardan biri:

— Kel, mening otimga mingashib ol, — debdi.

— Ovora bo‘lmanglar, bormayman dedim, bormayman. Men birovning orqasiga mingashib boramanmi? Keta beringlar, boradigan bo‘lsam, bir o‘zim yakka otni minib boraman, — debdi kal.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Qirq kulol:

— Shu kal o‘lgurga bittangiz otingizni bera qoling, — deb podshoning odamlariga yalinib-yolvoribdi. Podshoning navkarlaridan biri otiga kalni mindirib, o‘zi uning orqasiga mingashibdi. Biroz vaqt o‘tgach, otliqlar saroyga kirib borishibdi. Podsho qarasa, eng ishongan, hurmatli kishisi qayoqdagi bir kalni otga mindirib, o‘zi uning orqasiga mingashib kelayotgan emish. Podshoning achchig‘i kelib:

— Ha, la’nati, seni nima jin urdi. Mening obro‘yimni to‘kib bu nima qilgan ishing! Bu kalni nega saroyga olib kirding, — debdi.

— Ey, hurmatli podshohim, — debdi navkar.— Kechirsinlar, bu kalni bir maqsad bilan olib keldik.

— Qanday maqsad? — deb so‘rabdi podsho.

— Bir qoshiq qonimdan kechsangiz aytaman, — debdi navkar.

Podsho:

— Bo‘ldi, kechdim, ayt! — debdi.

— Bu kalning otasi, — debdi navkar, — eng mashhur kulollardan ekan, sizning jonon piyolangizni ishlagan kishi ham o‘sha ekan. Bu qirq kulol piyolangizni tuzata olmasdan shu kalga beribdi.

Podsho kalga qarab:

— Tuzatasanmi? —deb so‘rabdi.

— Tuzataman, — deb javob beribdi kal.

Podsho unga qirq kun muhlat beribdi. Kal:

— Bekordan-bekorga tuzataveramanmi? —debdi.

— Xizmatingga nima talab qilasan? — debdi podsho.

— Mening gapimni yaxshilab eshitib oling: ixtiyoringizdagi ot, mol, qo‘y va boshqa hayvonlardan, parrandalardan qirq donadan ajratib berasiz. Xazinangizdagi boyliklardan: tilla, kumush, oltin va har xil qimmat toshlardan qirq xachirdan uyimga eltib berasiz, ana o‘shandan so‘ng piyolani talab qilasiz, — debdi.

Podsho kalning istagan hamma narsasini tayyorlab uyiga yetkazib beribdi. O‘limdan qutuldik, deb sevinib yurgan qirq kulolga podsho: „Kalga kafilsanlar, piyolani tuzata olmasa, senlar ham o‘lasanlar“, deganida ular tashvishga tushib qolibdilar.

Kal uyiga borgandan keyin podshodan olgan narsalarini qirq kulolga taqsim qilib beribdi-da, ularga shunday debdi:

— Ey, ustalarim, shu olgan narsalaringizni qirq kun ichida yeb-ichib tamom qilib yuboringlar, qirq kun ichida piyolani tuzatib bo‘laman, so‘ng sizlarga yana bir umr tamom bo‘lmaydigan boylik olib beraman. Xotirjam bo‘linglar! — debdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kal o‘zining kichik hujrasida yashayveribdi. Piyolani tokchaga tashlab qo‘ygancha qo‘liga ham olmabdi. Uni tuzatish xayoliga ham kelmabdi, beparvo bo‘lib yura beribdi. Kulollar esa, „U piyolani tuzatadi, tashvishlanish kerak emas“, deb yaxshi kiyimlar kiyib, noz-ne’matlardan yeb, xursand bo‘lib yura berishibdi.

Oradan yigirma kun o‘tgandan keyin kulollar: „Kal qurg‘ur piyolani tuzatdimi, yo‘qmi“, deb xabar olgani kalning hujrasiga borishibdi. Ichkariga kirishsa, kal bemalol yonboshlab yotgan emish. Piyola esa hali ham tokchada, qanday qo‘yilgan bo‘lsa, shunday chang bosib yotgan emish. Ular hayron bo‘lishibdi. Ulardan biri:

— Ho‘, kal, piyolani tuzatmabsan-ku, qachon tuzatasan? — debdi.

— Bir kun tuzataman-da, — debdi kal, — sizlar bemalol ayshingizni qilib yura beringlar!

Kulollar ortiqcha gapirib o‘tirmay, hujradan birin-sirin chiqib ketibdilar. Oradan qirq kun ham o‘tibdi. Kechqurun kulollar kalning hujrasiga kiribdilar. Qarasalar, kal hali ham cho‘zilib yotgan emish.

— Badbaxt kal, — debdi kulollardan biri, — piyolani hali ham tuzatmadingmi, tur o‘rningdan, tuzat!

— Tuzataman-da, — debdi kal ustalariga pinagini buzmay. Kal o‘rnidan turib ularga ko‘rpacha solibdi.

Kulollar o‘tirishibdi.

— Xo‘sh, — debdi kal, — odam degan biroz o‘ylashi kerak-da, sizlar mening ustam, men sizlarga shogirdman.— Bu gapni eshitish bilan qirq kulolning yuragi shuv etib ketibdi. Kal so‘zida davom etib: — Axir ustasi qila olmagan ishni shogirdi qanday qilsin, ustasi tarang-u, shogirdi garang-da. O‘sha kuni podsho oldida indamay turganimda bekorga o‘lib ketar edinglar. O‘sha kunlari qoq suyak bo‘lib qolgan edinglar. Men sizlarni ota-bobosi kiymagan ust-boshlarni kiysin, hech kim yeb-ichmagan taomlarni yeb-ichsin, oriqlab o‘lguncha, semirib o‘lsin, dedim. Yana mening oldimga nima deb keldingizlar? Aytinglarchi, bundan boshqa tag‘in tuhmatlaring bormi? Men esa, ilgari qanday bo‘lsam, hozir ham shundayman, — debdi.

Kulollar o‘zlarini qo‘ygani joy topolmay „Avval o‘lmasak ham endi o‘ldik“ deyishib jon-ponlari chiqib tarqalib ketibdilar. Kun kech bo‘libdi. Kal atrofni aylanib kelib hujrasiga kirib yotibdi. Yarim kechada kulollarning piri kelib kalni hassasi bilan uyg‘otibdi. Kal ko‘zini ochib qarasa, hech kim yo‘q, endi piyolani yasamasam bo‘lmas ekan-da, deb o‘rnidan turib, muzdek suvga yuvinib kelibdi. Asboblarini qo‘liga olib astoydil ishga kirishibdi. U bitta piyola yasabdi. Podsho piyolasidan o‘n baravar chiroyli bo‘libdi. Lekin kalning ko‘ngliga yoqmabdi. „Ko‘nglimdagidek bo‘lmadi“,

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

deb yerga bir urib chil-chil qilibdi-da, boshqasini yasabdi. Bu ham kalga yoqmabdi, yerga urib sindiribdi. Yana boshqa bir piyola yasabdi, bu hammasidan chiroyli bo‘libdi, qaragan kishining ko‘zi qamashib ketarkan. Podshoning jonon piyolasi kalning bu piyolasi oldida sopol kosaga o‘xshab qolibdi. Bu piyolaning sirti ajoyib gullar bilan bezatilgan, ichida esa yer yuzidagi bor narsalarning aksi tovlanib ko‘rinar ekan. Piyola bir chertilsa jaranglagan tovushini hamma eshitar ekan. Uning bir xislati: o‘ng tomonga qarab aylantirilsa shu xildagi piyoladan yettita piyola bo‘lib qolar ekan. Chap tomonga qarab aylantirilsa yettita piyola bitta bo‘lib qolar ekan. Piyolani kal qo‘liga olib: „Ha, mana bu ko‘ngildagiday bo‘ldi“, deb uni bir dokaga o‘rab qo‘yibdi. Tong ham otibdi. Podshoning navkarlari ot choptirib qishloqqa kirib, to‘g‘ri borib kalning eshigini taqillatibdilar. Kal ularni xursandlik bilan qarshi olibdi.

— Tuzatdingmi, kal? — deb so‘rabdi navkarlardan biri.

— Tuzatdim, — debdi kal.

Navkarlar kalni podsho saroyiga olib ketibdilar. U saroyga borib taxt tagida otdan tushmay qarab turibdi. Podsho kalning xursandligini ko‘rib „Piyolani tuzatibdi-da“, deb ich-ichidan sevinib:

— Tuzatdingmi, kal, yo tuzatmadingmi? — deb so‘rabdi.

— Tuzatdim, podshohim, — debdi kal.

— Qani, bo‘lmasa ol-chi! — debdi podsho.

Kal otdan tushib, dokaga o‘ralgan piyolani podshoning qo‘liga topshiribdi. Podsho piyolani ochayotganida tirnog‘i tegib ketibdi. Piyola jaranglabdi, uning tovushi butun saroyga yoyilibdi. Saroy ahllari bu qanday tovush, deb hang-mang bo‘lib qolibdilar.

Podsho piyolani oq doka ichidan olib ko‘rishi bilanoq, uning chiroyligiga, gul bilan ishlanishiga qoyil qolibdi. Boshi osmonga yetib, vaziridan:

— Kalga nima bersak ekan? —deb so‘rabdi.

— Hech narsa berish kerak emas, podshohim, — debdi vazir.

— Axir, — debdi podsho, — bu piyolani aytganimizdan ziyoda qilib tuzatib keldi, unga biror narsa berish kerak-da.

— Kal bunaqa piyolani har kimga qilib beraveradi, — debdi vazir.

— Nima qilamiz bo‘lmasa, — debdi podsho.

— Nima qilar edik, shu piyoladan ikkita edi. Birini yo‘qotib o‘g‘rini topa olmagan edik. Ikkinchisini esa, sindirib qo‘ygan edik.

Hozir o‘g‘ri topildi. O‘g‘ri mana shu kal ekan. Bu kal bizdan siniq piyolani tuzatgani olib, o‘rniga o‘g‘irlab ketgan piyolani keltirib berdi, deb „Jallod, ushla!“ desangiz ish tamom, vassalom, sizdan nima ketibdi. Shu bilan siz ham tinch-u, biz ham tinch. Piyolani tuzatmasdan avval ham bir qancha narsalar berib yuborgan edingiz.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Gaping to‘g‘ri, men bunga bir ko‘rsatib qo‘yay, — debdi podsho va taxt atrofida yig‘ilgan odamlarga qarab:

— Bizning jonon piyola aslida ikkita edi, bittasini o‘g‘irlatib qo‘ygan edik. O‘g‘ri topilmagan edi. Bittasi esa sinib qolgan edi. Hozir o‘g‘rini topdik, o‘g‘ri qarshimizda bezrayib turgan mana shu kal ekan. Singan piyolani tuzatmoqchi bo‘lib olib, o‘rniga o‘g‘irlab ketgan piyolani keltirib beribdi. Piyola mana! Jallod, ol o‘g‘rining kallasini! — deb qichqiribdi.

„Qilichimiz qonsiragan, bormisan qurbon“, deb jallodlar qilichlarini yalang‘ochlab kelishibdi. Kalning qo‘l-oyog‘ini bog‘lab, so‘yish uchun yotqizishibdi. Shu payt kal:

— Ey, podshohi olam, sultoni bokaram, bir iltimosim bor, — debdi.

— Qanday iltimosing bor, o‘g‘rida iltimos nima qilsin, — debdi podsho. Lekin biroz o‘ylab turib, — qani, iltimosingni ayt-chi, vaqt o‘tmasin, — debdi.

— Iltimosim shuki, — debdi kal. — Qo‘limni sal bo‘shatishsa, baribir qochib keta olmayman, mening ikki og‘iz so‘zim bor, aytsam, so‘ngra o‘ldirsangiz armonim yo‘q.

Podsho buyrug‘i bilan kalning qo‘lini bo‘shatib qo‘yibdilar.

— Ey, podshohi olam, sultoni bokaram, — deb so‘z boshlabdi kal. — O‘sha qo‘lingizdagi jonon piyolangizni menga bersangiz, men o‘lim oldida uni bir marta qo‘limga olib tomosha qilsam, keyin o‘lsam ham armonim yo‘q.

Podsho piyolani kalning qo‘liga beribdi. Kal piyolani qo‘liga olib u yoq-bu yog‘ini aylantirib ko‘rib, tomosha qilib podshodan so‘rabdi:

— Ey, taqsir! Shu piyola o‘zingiznikimi?

— Ey, badbaxt, albatta o‘zimniki! — deb javob beribdi podsho.

— Piyolangiz nechta edi? — deb so‘rabdi kal.

— Ikkita edi, — debdi podsho.

— Bittasi o‘g‘irlangan, bittasi singan edi, shundaymi? — deb so‘rabdi kal.

— Shunday, — debdi podsho.

— Tag‘in yolg‘on chiqib qolmasin? — debdi kal.

— Rostini aytmay, yolg‘onni aytamanmi, rost! — deb javob beribdi podsho.

— Tag‘in yolg‘on chiqib qolmasin? —debdi kal.

— Hoy, la’nati o‘g‘ri, men rost aytmay, yolg‘on gapirarmidim. Gapni ko‘p cho‘zma, piyolam ikkitadan ortiq emas edi.

— Ey, xaloyiq, eshiting! Podshoning piyolasi ikkita bo‘lib, biri o‘g‘irlangan-u, ikkinchisi singan ekan, — debdi kal.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Har tomondan „Eshitdik, eshitdik“, degan tovushlar kelibdi.

Shunda kal qo‘lidagi piyolani o‘ng tomonga burgan ekan, bitta piyola yettita bo‘lib qolibdi. Podsho, vazir va saroyga yig‘ilgan kishilar hayron bo‘lib qolibdilar. Kal xotirjamlik bilan podshoga qarab:

— Ey, podshohi olam, mana bu singan piyolangiz, buni siz oling! Mana bu yo‘qolgan piyolangiz, buni vaziringizga bering. Mana bu piyolani xotiningizga, bunisini qizingizga, mana bularini esa bittadan vaziringiz xotini bilan qiziga bersin, mana bu qolgan bittasini singlingizga bering, — deb yettita piyolani qator qilib tizib qo‘yibdi. Buni ko‘rgan podshoning betlari qizigan tandirdek qizarib, yer yorilmabdi-yu, yerga kirib ketmabdi.

Xalq oldida sharmanda bo‘lgan podsho g‘azablanib, vazirining kallasini oldiribdi.

— Kalni ozod qilib yuboringlar, — debdi u. Kalga zarbof kiyimlar, qimmatbaho narsalar berib, xursand qilib jo‘natibdilar.

Kal qishloqqa qaytib borib, podshodan olgan in’omlarini kulollarga bo‘lib beribdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Quloqboy

Bor ekan-da yo‘q ekan, och ekan-da to‘q ekan, bir chol bilan kampir bor ekan. Ularning farzandi yo‘q ekan. Kundan kun, oydan oy o‘tib, cholning xotini homilador bo‘libdi. Kunlardan bir kun kampirni to‘lg‘oq tutibdi. Chol shunday qarasa, xotini yettita quloq tug‘gan emish. Er-xotin bu yetti quloqni ko‘rib juda xafa bo‘libdi. Kundan kun, oydan oy o‘tibdi. Quloq bolalar o‘tiradigan, yuradigan bo‘lib, tili chiqibdi. Non-osh yetmaydigan bo‘libdi. Ularning surati quloqqa o‘xshasa ham og‘zi, ko‘zi bor, ovqat yer ekan. Har biri bir odamning ovqatini yeb qo‘yar ekan. Ovqatsiz o‘tira olmas, ovqat yemasa och qoldim deb chirqillar ekanlar. Bolalarni boqish uchun chol hech narsa topolmay qiynalibdi. Chol xotiniga aytibdi.

— Bu bolalaringning qilig‘i menga yoqmadi, qo‘llaridan ish kelmasa, ovqat deyishni qo‘ymasa, men ovqat topib berolmasam, bu qanday gap, axir. Bulardan bezor bo‘ldim-ku! Endi nima qilaman, — debdi. Xotini bilan chol ikkovi maslahat qilishibdi.

— Siz sho‘rlikka qiyin bo‘ldi, bularga ovqat topib beraman deb o‘lasizmi. Bularni yo‘qoting! — debdi kampir.

— Unday bo‘lsa, qanday qilib yo‘q qilaman? — debdi chol kampirga.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— „To‘yga olib boraman“, deb yettovini olib borib bir chuqurga tashlab, ko‘mib keling, — deb maslahat beribdi kampir.

Chol kampirning so‘zini ma’qul bilib, quloq bolalariga:

— Ey, bolalarim, yuringlar, to‘y bor, olib borayin, qornilaringizni to‘yg‘azib kelasizlar, — debdi va ularni olib jo‘nabdi.

Cholning otasidan qolgan bir parcha yerida o‘ra bor ekan. Bolalariga o‘rani ko‘rsatib:

— Shu yerga tushib o‘tiringlar, osh olib kelaman, — debdi. Ular o‘raga tushibdilar. Quloq bolalar o‘raga tushgandan keyin chol ularni tashlab qochibdi. Bolalari yig‘lab qolishibdi. Chol bir joyga borib, choponini yelkasiga tashlab, kavushini qoqib kiymoqchi bo‘lsa, uning ichidan eng kichik quloq bolasi chiqib.

— Ota, men qoldim, — debdi. Otasi:

— Sen qolgan bo‘lsang, yaxshi bo‘pti. Yur, o‘g‘lim, menga ermak bo‘larsan, — debdi. Quloqboyni qo‘liga olib uyiga kelibdi. Oqshom yetibdi. Erta bilan tong otibdi. Chol qo‘shga ketibdi. Kampir non yopibdi.

„Agar cholimga non olib borayin desam uyim ovloq qoladi. Non olib bormasam cholim och qoladi, nima qilsam ekan, men sho‘rlikning o‘g‘lim, qizim bo‘lmasa, deb, ko‘ngli buzilib yig‘labdi. Enasining yig‘laganini Quloqboy ko‘rib:

— Qizim, o‘g‘lim yo‘q deb yig‘lamang, ena, men-chi? —debdi. Enasi:

— Sen kichkinasan, qo‘lingdan hech nima kelmaydi, — debdi.

— Ena, nonni menga bering, otamga men olib boraman, — debdi u.

Onasi:

— Bolam Quloqboy, nonni qanday qilib olib borasan? —desa, quloqboy:

— Non bilan meni mana bu qovoqqa solib qo‘ying, olib keta beraman, — debdi.

Kampir Quloqboyning so‘zidan dimog‘i chog‘ bo‘lib, non bilan uni qovoqqa solib eshikdan chiqarib yuboribdi. Quloqboy qovoqni yumalatib nonni olib ketibdi. U qovoqni yumalata-yumalata otasining oldiga boribdi. Otasiga salom beribdi.

— Ey, ota, men sizga bugun non olib keldim, — debdi.

Otasining dimog‘i chog‘ bo‘lib:

— Balli, bolam, — debdi.

Shunda quloqboy nonni qovoqdan chiqarib otasining oldiga yumalatib olib boribdi. Otasi: „Nonni yeyay desam qo‘shim qoladi, qo‘sh hayday desam qornim och qoladi“, deb o‘ylabdi.

Quloqboy darrov buni payqab olibdi. Otasiga qarab:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Ey, ota, siz nonni yeng, men qo‘shingizni haydab turayin, — debdi.

Chol:

— O‘g‘lim, sen haydolmaysan-da, — debdi. Quloqboy esa:

— Ey, ota, siz nonni yeng, men haydab turaman, — deb omochning bir yorig‘ida turib qo‘shni hayday beribdi.

Bu yer katta yo‘lning yoqasi ekan. Bozordan qaytib kelayotgan ikki yo‘lovchi ho‘kizning o‘zi qo‘sh haydayotganligini ko‘rib qolibdi. Tomosha qilib turishibdi. Ulardan biri:

— Zap qiziq ish, ho‘kizlarning o‘zi yer haydamoqda. Egasi bo‘lsa bemalol nonushta qilmoqda. Bu ho‘kizlar yaxshi ho‘kizlar ekan, — debdi.

— Buni sotib olish kerak ekan. Egasi sotarmikan, — debdi ikkinchisi. Ikkisi cholning oldiga kelishibdi.

— Hormang bobo! — debdi biri.

— Bor bo‘linglar, — deb javob beribdi chol.

— Xo‘kizlaringizni sotasizmi? — deb so‘rabdi ikkinchisi.

— Sotmayman, — debdi chol,

Ulardan biri cholning holi-joniga qo‘ymay:

— Ho‘kizlaringizni menga soting, qancha pul desangiz berayin, qo‘sh haydaydigan odamim yo‘q, — deb yalinib-yolvoribdi. Qo‘yarda qo‘ymay o‘n tillalik ho‘kizlarni ellik tilladan sotib olibdi-da, qo‘shdan chiqarib haydab ketibdi. Quloqboy bilan omoch qolibdi. Bozorchilar quvonib: „Bu miyasi aynab qolgan cholni xo‘p bopladik-da“, deb keta beribdilar.

Bozorchilar o‘z qishloqlariga borib, ko‘rgan-bilganlarini, ho‘kizni arzon olganlarini bola-chaqalariga aytibdilar. Ho‘kizni sotib olgan bozorchiga qarindoshlaridan biri:

— Unday bo‘lsa, xo‘p o‘xshatibsan-da, ho‘kizlarning o‘zi yursa yuz tillaga ham arzon, — debdi.

Chol ho‘kizlarni sotib: „Xo‘p pullab oldim, o‘xshatdim, yur endi, o‘g‘lim Quloqboy“ deb bolasini ergashtirib kampirning .oldiga boribdi. Quloqboy qo‘sh haydaganini, ho‘kizni sotganini kampirga aytibdi. Kampir ham bu so‘zni eshitib, Quloqboyning ishidan dimog‘i chog‘, vaqti xush bo‘libdi. Shunday qilib, chol-kampir ho‘kizlarning pulini sarf qilib yura beribdi.

Endi gapni bozorchilardan eshiting. Ho‘kiz olgan bozorchi ho‘kizni qo‘shga qo‘shibdi, ho‘kizlar qo‘shda yurmabdi. Ko‘p harakat qilibdi, ho‘kizlar sira yurmabdi. Ho‘kizlar birov haydasa yuribdi. Qarab tursa, yurmabdi. U „Bu ho‘kizlarning tilini bilmadikmi?“ deb o‘ylabdi. Aynab, olib borib berayin desa ko‘zi qiymabdi. „Endi har nima bo‘lsa ham ho‘kizlarni xo‘p sinab ko‘raylik“, deyishibdi ular. Oradan olti oy o‘tibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Ho‘kiz olgan bozorchi bilan sherigi aynashib, ho‘kizni haydab cholning uyiga qarab jo‘nabdilar. Necha kun yo‘l yurib cholning uyini so‘rab topishibdi. Cholga voqeani aytibdilar. Chol:

— Men bu gaplaringizga ishonmayman, mening ho‘kizlarim qo‘shda yurib yer haydaganligini o‘zingiz ko‘rgansiz. Ho‘kizlarni yomon o‘rgatib qo‘ygansiz. Olganlaringizga olti oy bo‘ldi. Yomon chiqqan bo‘lsa olti oydan beri nimaga olib kelmadinglar. Endi bu so‘zlaringiz o‘rinsiz, — debdi.

Orada katta janjal bo‘libdi. Ikkovi birga qoziga borishibdi.

— Nima gap? — deb so‘rabdi qozi.

— Taqsir, men bundan olti oy ilgari ikki ho‘kizimni bu odamga sotgan edim, olti oydan beri bu odam ho‘kizimni qo‘shga qo‘shib, endi „Aynadim“, deb olib kelibdi. Men kambag‘al odam, ho‘kizlarning pulini ham yeb bo‘lganman. Hozir hech narsam qolmagan, — debdi chol.

Qozi ho‘kiz olgan bozorchiga qarab:

— Sen nima deysan? — debdi.

Bozorchi aytibdi:

— Ey, taqsir, bu odamning so‘zi ma’qul, lekin boshqa so‘z ham bor. Voqea shunday bo‘lgan: chol menga „Ho‘kizimning o‘zi yuradi“, deb sotgan. Ho‘kizining o‘zi yurmayotir, ahmoq bo‘lganimga alam qiladi, — debdi.

— O‘zi ko‘rib, bilib, meni qo‘yarda-qo‘ymay sotib olgan edi, — debdi chol.

Qozi o‘ylab turib:

— Har ikkingizning so‘zingiz aqlga sig‘maydi. Ho‘kizning o‘zi ham qo‘sh haydaydimi? Bu bo‘lmagan gap, — deb bularni qozixonadan chiqarib yuboribdi. Cholning vaqti xush bo‘lib uyiga kelibdi-da, xotiniga:

— Xotin, qolgan pulga nima olsam ekan? —debdi.

— Bug‘doy olish kerak, — deb javob beribdi kampir. Chol bug‘doy olib g‘amlab qo‘yibdi. Kunlardan bir kun kampir un tamom bo‘lganini aytibdi. Chol:

— Tegirmonga borib un tortib kelayin desam, ishim qoladi. Tegirmonga bormasam, un bo‘lmasa, nima qilaman endi, — deb xafa bo‘libdi. Quloqboy otasining xafa bo‘lganini bilib, aytibdi:

— Ey, ota, katta tuyaga bug‘doyni yuklab bering! Men tegirmonga borib, un torttirib kelaman.

Chol:

— Bolam, sen un tortib kelolmaysan-da, — debdi.

— Tortib kelaman, dedim, tortib kelaman, — debdi Quloqboy.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Otasi noiloj ikki qop bug‘doyni tuyaga yuklab beribdi. Quloqboy tuyaning qulog‘iga kirib olibdi. Tuyaning qulog‘ida turib burnidagi ipidan tortib, yetaklab, tegirmonga ketibdi. Tegirmon olis ekan. Uch kecha-yu uch kunduz yo‘l yurib boribdi. Tegirmon yonida tuyani to‘xtatib:

— Tegirmonchi, bormisan, tegirmon bo‘shmi? — deb qichqiribdi Quloqboy. Tegirmonchi eshikka chiqib qarasa, ikki qop bug‘doy ortilgan tuya turgan emish, boshqa hech kim yo‘q emish-u, faqat tegirmonchini chaqirgan tovush kelar emish. Tegirmonchi hayron bo‘libdi. „Bu qanday sir bo‘ldi“, deb turgan ekan, Quloqboy unga:

— Qo‘rqma, tuyadagi yukni tushir, ko‘p alanglama! Bug‘doyni tortib ber! — debdi. Buni eshitgan tegirmonchi qo‘rqqanidan yukni tushirib tortib, yana tuyaga yuklab, haq olmay jo‘natib yuboribdi. Yuboribdi-yu: „Bu qanday sir bo‘ldi? Bu ko‘rganim tushimmi, o‘ngimmi“, deb o‘ylab qola beribdi. Quloqboy yukni orttirib jo‘nab keta beribdi. Bir qancha yo‘l bosgach, Quloqboy dam olmoqchi bo‘libdi. Tuyani to‘xtatib, bo‘ynidan pastga sirg‘alib tushibdi. Tuya uch kundan beri och ekan. Quloqboyni yonida turgan yantoqqa qo‘shib yeb yuboribdi. Tuya bir necha kun adashib yurib, oxiri egasining uyiga yetibdi. Quloqboy tuyaning ichida turib:

— Ey, ota, tuya meni yeb qo‘ydi, tuyangizni yaxshi ko‘rasizmi yo meni yaxshi ko‘rasizmi? Meni tuyangizning ichidan chiqarib oling, — debdi.

Otasi bu so‘zni eshitib darrov tuyani cho‘ktirib, yuklarni tushirib olibdi. Tuyani bo‘g‘izlabdi. Tuyaning ichidan o‘g‘lini qidiribdi, topolmabdi. Tuyaning go‘shtini olib, ichak-chovoqlarini itga tashlabdi. Quloqboy ichak-chovoq ichida ekan, itning qorniga kirib ketibdi. It qornini to‘yg‘azib, oftobda yaslanib yotgan ekan, Quloqboy qichqiribdi:

— Ota, meni yaxshi ko‘rasizmi yoki itingizni yaxshi ko‘rasizmi? Meni yaxshi ko‘rsangiz, itning ichidan chiqarib oling! — debdi u. Chol:

— Voy, bolam, seni yaxshi ko‘raman-da, — debdi va itni o‘ldiribdi.

Itning qornini yorib Quloqboyni toza qidiribdi, topolmabdi. Kun kech bo‘libdi. Itning o‘ligi dalada qolibdi. Kechasi bir och bo‘ri kelib, uni yeb ketibdi. Quloqboy bo‘rining ichiga kirib ketibdi. Bo‘ri ov qilib, qaysi qo‘tonga borsa, Quloqboy: „Hoy, cho‘ponlar, qo‘tonga bo‘ri kelayotir, boxabar bo‘linglar!“ deb qichqirar ekan. Cho‘ponlar buni eshitib, itlarini ol-kishlab, bo‘rini quvib qo‘tonga kiritmas ekanlar. Bir necha kun o‘tibdi.

Bo‘ri juda och qolibdi, bir bo‘rini uchratib, unga:

— Ey, o‘rtoq, men shu kunlari bir baloga uchradim, qaysi yerga borib ovqatlanay desam, ichimdan „Hoy, cho‘ponlar, qo‘tonga bo‘ri

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

kelayotir, boxabar bo‘linglar!“ degan tovush chiqadi. Cho‘ponlar xabar topib meni quvib, ko‘p abgor qilayotirlar, qanday qilsam bu balodan qutular ekanman, — debdi. Ikkinchi bo‘ri:

— Ishing yomon bo‘libdi-ku, hammadan ochlik qiynaydi, — debdi. — Ey, do‘stim, endi sen kun qizigan paytda u yoqqa-bu yoqqa yugura ber, ichingdagi narsa kunning issig‘idan qiynalib, yo‘q bo‘lib ketadi.

Bo‘ri o‘rtog‘ining maslahati bilan kunning issig‘ida rosa yuguribdi, oxiri bir yo‘lning ustida suvsiz, ochlikdan ichi kuyib, o‘lib qolibdi. Shunday bo‘lsa ham Quloqboy bo‘rining ichidan chiqmabdi. Ikki otliq yo‘lovchi yo‘ldan o‘ta turib bo‘rining o‘ligini ko‘rib qolibdi. Ular otdan tushib, „Bizga xudo berdi“, deb bo‘rining terisini shila beribdilar. Yo‘lovchidan biri:

— Bu qo‘ylar qassobining terisini shilib, boylarning qo‘toniga olib boramiz. Bizga bir qo‘yning pulini beradilar, — debdi. Quloqboy bularning so‘zlarini eshitib astagina bo‘rining burnidan chiqibdi. Yo‘lovchilarning bir-biriga boylovli turgan otlaridan birining oyog‘idan o‘rmalab, qulog‘iga chiqib olibdi. Quloqboy asta-sekin otlarni hayday boshlabdi. Bir yo‘lovchi qarasa, otlar ketayotgan emish. U sherigiga:

— Ot ketdi, tez-tez ayir, — debdi. Ikkisi otga qaramay terini shila beribdi. Bir mahal bo‘rining terisini shilib bo‘lgach biri:

— Yugur, ot ketib qolmasin, — debdi. Ikkisi yugurishibdi. Ot ancha joyga ketib qolibdi. Ular yugura-yugura otga yetay deganda Quloqboy otning jilovini siltab yuboribdi. Otlar chopib ketibdi. Ikkisi otlarga yetolmabdi. Bir bo‘rining terisi deb ular ikkita otdan ayrilib qolishibdi. Quloqboy ikki otni yetaklab kechqurun bir boyning eshigiga borib to‘xtabdi:

— G‘ovni och, — deb baqiribdi. Boyning bir o‘g‘li chiqib qarasa, g‘ovning oldida ikkita ot turganmish. Odamzod ko‘rinmasmish. Qarab tursa:

— G‘ovni och! — deb tag‘in tovush chiqibdi. Boyning o‘g‘li hayron bo‘lib, qo‘rqa-qo‘rqa g‘ovni ochibdi. Otlarini ichkariga olib kirib boylabdi. Xashak solibdi. O‘zi Quloqboyni ko‘rmay bir uyga kirib ketibdi.

Quloqboy otdan tushib, mehmonxonaga qarasa, hech qanday ko‘rpacha yo‘qmish. „Ha, mayli“, deb endigina mehmonxonaga kirib turgan ekan, boyning ovozini eshitib qolibdi. Boy:

— Kelgan odam kim ekan? —deb o‘g‘lidan so‘rabdi.

— Ikki ot turibdi. Egasi yo‘q, — deb javob beribdi boyning o‘g‘li, — biroq birovning tovushi chiqadi-yu, o‘zi ko‘rinmaydi. Hayronman.

Shunda mehmonxonadan tag‘in tovush kelibdi:

— Ko‘rpacha bilan ovqat olib kelmaysanmi? Nega imillaysan!

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Ko‘r bo‘ldingmi? Ana, odam gapirayotibdi-ku! Bor, ko‘rpacha olib chiq, — deb baqiribdi boy o‘g‘liga. Boyning o‘g‘li mehmonxonaga ko‘rpacha olib kirib, qarasa, yana hech kim yo‘q. Hayron bo‘lib, ko‘rpachani to‘shab chiqib ketibdi. O‘g‘li otasining yoniga borib:

— Mehmonxonada hech kim yo‘q, — debdi. Shu vaqt mehmonxonadan yana tovush kelibdi.

— Ovqat olib kel! Bo‘l tezroq!

Bu tovushni eshitgan boy o‘g‘lini urishib ovqat berdirib yuboribdi. Boyning o‘g‘li mehmonxonaga kirib qarasa, yana hech kim yo‘q. U yoq-bu yoqqa qarabdi, hech kim ko‘rinmabdi. Ovqatni mehmonxonadan qaytarib uyga olib kiribdi. Shu paytda mehmonxonadan tag‘in tovush kelibdi:

— Nega ovqatni olib kelmaysan? Olib kel!

Boy o‘g‘lini urishib yana ovqatni yuboribdi. Boyning o‘g‘li tag‘in mehmonxonaga kirib, u yoq-bu yoqqa qarasa, hech kim ko‘rinmabdi. Ovqatni yana ichkariga qaytarib olib kirib ketibdi. Quloqboy yana qichqiribdi:

— Menga ovqat bermaysizlarmi? Nega hayalladingiz?!

Boyning o‘g‘li to‘rt marta ovqat olib kirib qaytarib chiqibdi.

Quloqboy beshinchi marta chaqiribdi. Qichqirganda boy g‘azablanib:

— O‘zing qanday balosan? Ko‘zga ko‘rinmaysan. Odamni bunday sarson qilganingdan ko‘ra o‘lganing yaxshi! — debdi. Boyning gapi unga botibdi.

— Ha, endi men sendan o‘ch olmasam yurgan ekanman, — debdi.

Kech bo‘lib, hamma uxlabdi. Quloqboy yarim kechada o‘rnidan turib boyning qo‘toniga kiribdi. Qo‘tonda bir bo‘g‘oz echki bor ekan. Ushlab olib echkini so‘yibdi. Undan ikki uloqni olib, birin-sirin sudrab kelib boyning bo‘yi yetgan ikki qizining qo‘yniga solib qo‘yibdi, hovlidan bir tebanni[1] topib boy yotgan uyning bo‘sag‘asiga qo‘yibdi. Tag‘in hovlida u yoqdan-bu yoqqa kezib, bir to‘g‘anoqni topib, qora uyning eshigi tepasiga o‘rmalab chiqib, bir yog‘ochga mahkam bog‘lab osiltirib, uydan chiqadigan odamning manglayiga tegadigan qilib qo‘yibdi. O‘zi shu uyning tomiga chiqib qichqiribdi:

— Ho boy, cho‘pon, bormisan, qo‘yga bo‘ri keldi! — Boy bilan o‘g‘illari uyg‘onib ketibdi. Shovqin-suron ko‘tarilibdi. Boyning kelinlari, qizlari ham uyg‘onibdi. Qizlar qarasa, yonida bittadan echki bolasi yotgan emish. Hayron bo‘lib dod-voy qilishibdi. Shu paytda:

---

[1] **Teban** — *juvoldiz* ma’nosida.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Bo‘l, ha, bo‘l, quv, ha, quv, bo‘ri keldi! — degan tovush yana eshitilibdi. Boyning katta o‘g‘li yotgan uydan yalangoyoqligicha shoshilib chiqayotganida teban oyog‘iga „port“ etib kirib ketibdi. „Voy, oyog‘im“, deb o‘tirib qolibdi. Boy o‘g‘lining voy-voylaganini eshitib:

— Ha, nima bo‘ldi?—degan ekan, o‘g‘li:

— Bo‘sag‘ada teban turgan ekan, oyog‘imga kirib ketdi, — debdi.

Boy o‘g‘lidan bu so‘zni eshitib, hatlab o‘ta qolay deb balandroq hatlagan ekan, manglayini to‘g‘anoqqa urib olibdi. Manglayi yorilibdi. Quloqboy bularning hammasini ko‘rib dimog‘i chog‘ bo‘lib:

— Menday mehmonga xizmat qilmasang, shunday bo‘lasan-da, — deb ularni tomosha qilib o‘tiribdi.

Boy o‘g‘li, qizi va kelinlari bo‘rini quvish uchun dalaga chiqib ketibdi. Bundan cho‘ponlar ham uyg‘onib, qo‘tonning atrofini qarashibdi, hech narsa ko‘rinmabdi. O‘rtada boyning manglayi yorilib, boyvachchaning oyog‘iga teban kirib, yara bo‘libdi. Boy xotiniga:

— Chiroqni yoq, manglayimga tekkan narsa nima ekan, — debdi. Kampir chiroqni yoqibdi. Qarasa, eshikning tepasidagi yog‘ochda bir to‘g‘anoq shalvirab osilib turgan emish.

— Bu sabilni bu yerga kim osiltirib qo‘ygan edi? — debdi. Bolalari:

— To‘g‘anoqni bizlar qo‘yganimiz yo‘q, — deyishibdi. Boyning o‘g‘li:

— Mening oyog‘imga kirgan tebanni oyoq ostiga tashlagan kim? — debdi-da, boshqalarni urishibdi. Qizlar aytibdi:

— Kimdir, birov bizning qo‘ynimizga yangi tug‘ilgan uloqni solib qo‘yibdi. Kim bu ishni qiladi? O‘zimiz bu ishni qilamizmi?

Qizlardan biri:

— Bu ishlarni birov dushmanlikdan qilgan, — debdi.

Hammasi chiroq yoqib qo‘tonlarni qarabdi. Bir echki so‘yilib yotgan emish. Boy va uning bolalari boshqa hech narsani ko‘rmay, hayron bo‘lib yana dalaga chiqib atrofni qarab, yana ichkariga qaytib kiribdilar. Boy:

— Bu qanday sir bo‘ldi? Bu ishni jin qildimi, odammi? Qanday balo bo‘ldi? — debdi. Hammasi hovlida gaplashib o‘tirganida Quloqboy eshik tepasidan sekin pastga tushibdi. Boyning to‘shagi ustiga borib qarasa, bir hamyon turgan emish, uni tishi bilan yechsa, hamyonda tilla bor emish. Tillali hamyonni zo‘rg‘a ko‘tarib o‘rmalab, uyning keragasi ostidan olib chiqib, namatning tagida turibdi.

Boy va bolalari xafa bo‘lib uxlashibdi. Quloqboy ular uxlaganidan keyin hamyondagi tillani sudrab otlar oldiga boribdi. Otning oyog‘idan tirmashib chiqib, hamyonni ot ustidagi xurjunga solibdi-da, otlarining tizginini yechib, kechasi yo‘lga chiqibdi. Shu yurganicha yo‘l yurib uch

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
kecha-yu uch kunduz deganda o‘z uyiga yetib kelibdi. Otlarni eshik oldida to‘xtatib, otasini chaqirib salom berib:

— Ey, ota, bu otlarni boylang, ustidagi xurjunda hamyon bor, uni oling! — debdi. Otasi xurjunning ichidagi hamyonni ochib ko‘rsa, tilla bor emish. Bu tillalarni ko‘rib chol bilan kampirning boshi osmonga yetibdi. Har ikkisining dimog‘i chog‘ bo‘lib, o‘g‘lidan xursand bo‘libdi. Chol-kampir Quloqboyni yaxshi ko‘rib, erkalab:

— Quloq bo‘lsa ham katta bolalardek ish qiladi. Esiz, esiz, olti Quloq bolamdan ayrilibman, — deb chol o‘lib ketgan bolalariga achinibdi.

— Ha, qolganiga shukr, — debdi kampir. Er-xotin maslahatlashib: „Quloq bo‘lsa ham o‘g‘limiz bizga yordam berayotir. Quloq bolamiz orqasidan ho‘kizimizni ko‘p pulga sotib oldik. Tillaga boy bo‘ldik. „Tegirmon tortib kelaman“, deb o‘zi yo‘qolib ketgan bo‘lsa ham oxirida qancha tilla, ikki ot olib keldi. Shu-da bir odamning topgani“, deyishibdi. „Endi Quloqjonga bir to‘y qilaylik“ deb er-xotin kengashibdi.

Oradan necha kun o‘tibdi, qarindoshlarini chaqirib, Quloqboyga to‘y qilib berishibdi.

Shunday qilib, kampir bilan chol Quloqboydan dimog‘i chog‘ bo‘lib, murod-maqsadiga yetibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Bahrom va Sherzod

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonda bir podsho bor ekan. Uning Bahrom degan bitta-yu bitta o‘g‘li bor ekan. Bahrom aqlli, hushyor bola ekan. Bu bola yoshligidan hunar o‘rganishga qiziqib, temirchilik, duradgorlik, tikuvchilik, sartaroshlik kabi oltmish to‘qqiz hunarni o‘rganibdi. Gilam to‘qishda o‘zining Sherzod degan ustasidan ham o‘tib ketibdi.

Bahrom shunday gilam to‘qir ekanki, bir katta podshoning xazinasini, boj-xirojini jamlasa ham, Bahrom to‘qigan gilamning narxiga yetmas, tovlanishda tovusni tang qoldirar, quyoshning rashkini keltirar ekan.

Podsho esa o‘g‘lining hunarini nazarga ilmas, uni davlat ishini o‘rganishga undar ekan. Lekin Bahrom otasining so‘ziga quloq solmas, saroy ishiga qiziqmas ekan. Podsho esa o‘g‘lining bu ishidan qattiq xafa ekan.

Kunlardan bir kun podsho o‘g‘lidan yana „yo‘q“ degan javobni eshitib, g‘azablanibdi va „Mening, senday o‘g‘lim yo‘q! Shahrimdan chiqib ket, bo‘lmasa kallangni olaman!“ debdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Bahrom otasining niyatini ilgaridan bilib, uzoq safar anjomlarini tayyorlab qo‘ygan ekan, bu gapni eshitgan zamon onasi va yor-do‘stlari bilan xayrlashib, shahardan chiqib ketibdi.

Yo‘l yuribdi, yo‘l yursa ham mo‘l yuribdi, necha-necha qir-u cho‘llarni bosib o‘tibdi. Qush otib ovqat qilibdi, yer qazib suv ichibdi. Kunlardan bir kuni Bahrom oy yorug‘ida katta dovondan oshib bir soylikka tushganda hayron qolibdi: ketayotganida kunchiqar tomonda oy har kungidek bitta ekan, hozir bo‘lsa kunbotar tomonda ham bir oy paydo bo‘lib qolibdi. Bahrom shu kunbotar tomondagi oyga qarab yuraveribdi. Kunduzi yotib dam olibdi, kech bo‘lib oy chiqqanda yo‘lga tushibdi... Rosa yettinchi kuni kechasi kelayotganda kunbotar tomondagi oy osmonda emas, osmonga tutashgan baland minora tepasida ko‘rinibdi. Minora Chindil degan shaharning o‘rtasida ekan. Bahrom bozorda aylanib yurib, bir hashamatli do‘kon oldida to‘xtabdi. Bu do‘kon kabobpazning do‘koni ekan. Do‘kon oldida odam tirband emish. Ichkarida kabobpaz yigit: „Ha, kep qoling, pishdi kabob, yeganlar darmonda, yemaganlar armonda!“, deb xo‘randalarni qiziqtirib, kabob pishirib turgan emish. Bahrom: „Bu hunarni ham o‘rganish kerak ekan“, deb ko‘nglidan o‘tkazibdi va kabobpazning ishidan ko‘z uzmay, zehn qo‘yib turaveribdi. Bir vaqt do‘konning oldi bo‘shab kabobpazning Bahromga ko‘zi tushibdi:

— Xo‘sh, yigit, muncha tikilib qolding... Hunar o‘rganasanmi? — deb so‘rabdi.

Bahrom quvonib ketib:

— Kabob pishirishni o‘rgating, — debdi.

— Bilasanmi men kimman? —debdi kabobpaz.

— Yo‘q, bilmayman, — debdi Bahrom.

— Men oddiy kabobpaz emasman, Chindil podshosining o‘g‘li — Korson bo‘laman, — debdi kabobpaz.

Bahrom Shahzodaning kabob pishirishini ko‘rib hayron bo‘libdi. Bahrom kabobpazlikni o‘rgatishni Korsondan yana iltimos qilibdi.

Kabobpaz Bahromni shogird qilib olmoqchi bo‘lib, uni orqadagi bir uyga boshlab kiribdi. Uyda allanechuk sassiq bir hid burqsib turar ekan. Bahrom qaytmoqchi bo‘lgan ekan, kabobpaz qo‘ymabdi. Bahrom qarasa, qo‘llariga oyboltalar ushlagan to‘rt jallod baravariga: „Qon, qon!.. Uf... cho‘lladik, qon!“ deb turgan emish. Kabobpaz

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Bahromni yetaklab, yana bir eshikni ochibdi. Ichkarida bir qancha odam birining og‘zidan biri ilib, ha desa „Men semiz emas, bu semiz... Men semiz emas, u semiz“, der emish. Bahrom esankirab qolibdi. Kabobpaz uni ichkariga itarib yuborib, eshikni tashqaridan qulflab qo‘yibdi.

Kabobpaz bu yerdagi semiz odamlardan har kuni ikkitasini tanlab olib, jallodlar qo‘liga tashlar, ularning go‘shtidan kabob pishirar ekan. Shuning uchun eshik „tiq“ etdi deguncha bechoralar jon talvasasiga tushar ekanlar.

Oradan bir necha vaqt o‘tibdi. Kabobpaz kuniga ikkitadan odam olib chiqaveribdi. Navbat Bahromga yetibdi. Bahrom o‘lishini bilib, kabobpazning oyog‘iga bosh qo‘yib zorlanibdi:

— Bir arzim bor, birodar, ne-ne orzu bilan yetmish xil hunar o‘rgandim... Menga kerakli narsalarni keltirib ber, senga bir gilam to‘qib beray, uni sotsang, puli butun umringga yetadi. Shu gilamni to‘qib bo‘lganimdan so‘ng meni o‘ldirsang roziman, — debdi.

Kabobpaz o‘ylab turib rozi bo‘libdi va shu kuniyoq Bahromning aytgan hamma narsasini keltirib, gilamni tayyor qilishga qirq kun muhlat beribdi.

Bahrom gilamni o‘ttiz sakkiz kun deganda tayyor qilibdi. Kabobpaz gilamni ko‘rib hayron qolibdi. Bahromni gilam bitgan kuni kabob qilishga olib chiqmoqchi ekan, sevinganidan yana ikki kun asrab, gilamni bitirishga belgilagan muhlatni to‘lg‘izmoqchi bo‘libdi. U saharni erta olib gilamni do‘kon oldiga osibdi.

Shahar xalqi bunday gilamni bir umr ko‘rmagan ekan. Bozor va shahar ichidagi butun xalq kabobpaz do‘koni oldiga yig‘ilibdi. Gilam savdoga qo‘yilibdi. Birov o‘n ming tilla desa, birov yuz ming tilla der emish. Gilamning narxi borgan sari ko‘tarilaveribdi. Shahardagi „manman“ degan savdogarlar, amaldorlar ham gilamni sotib olishga pul yetkazolmay, chippakka chiqib qolishaveribdi. Xullas, hech kim gilamning narxiga yetolmabdi. Kabobpaz bo‘lsa: „Mening hunarimga qoyil qoling“, degandek gerdayib, savdoni ham xalqning o‘ziga qo‘yib, qarab turaveribdi.

Endi gapni Bahromning onasidan eshiting:

Bahromning onasi o‘g‘lining dardida yig‘layverib ikkala ko‘zidan ajrabdi. Lekin eriga hech nima demas ekan. Podsho o‘z xotinini Bahrom tufayli

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
sevar ekan. Bahromni bo‘lsa yo‘qotib, qo‘l ostidagi hamma shaharlarga jarchi qo‘yibdi. Bahromdan aslo darak bo‘lmabdi. Podsho vahimaga tushibdi. So‘ngra boshqa podsholarga ham elchilar yuborib, Bahromni qidirtiribdi.

Axiri shu Chindil shahriga ham Bahromni qidirib uch elchi kelibdi. Elchilarning boshlig‘i Bahromning ustozi Sherzod pahlavon ekan. Elchilar yurt podshosidan Bahromni so‘rab turganlarida eshik ochilib, bir kishi ichkari kirib, podshoga ta’zim ila xushomad qila boshlabdi. Bu odam Chindil shahrining katta boylaridan ekan.

— Hurmatli shohim! Sizni buyuk bir martaba bilan tabriklamoqchi bo‘lib keldim. Bir qoshiq qonimdan kechsangiz, gapirsam, — degan ekan, podsho unga:

— Kechdim, gapir! — debdi. Shunda u qulluq qilib so‘z boshlabdi:

— Shu bugun erta bilan farzandingiz do‘konlari oldida bir gilam paydo bo‘lib qoldi. Hammamiz yoqa ushlab: „Ofarin“, dedik. Bunaqa gilamni shu vaqtgacha ko‘rmagan edik. Qo‘l ostingizdagi „manman“ deganlar ham, qo‘li qisqalik qilib, gilamning bahosiga yetolmadi. Gilam shundayin bebaho. Podshohi olam, sizning soyayi davlatingizda kabobpaz o‘g‘lingizdan hunarmandroq kishi bo‘lmas. Kamina qulingiz bu ishni ham o‘g‘lingiz Korsonning ishi deb o‘ylab, sizni muborakbod qilgani kelgan edim.

Podsho bunga quvonib, boyga to‘n kiygizibdi. Boy chiqib ketgandan keyin podsho o‘g‘li Korsonning hunarini tomosha qilmoqchi bo‘libdi. Elchilar, ayniqsa, Sherzod buni kutib turgan ekan.

Podsho dabdaba bilan bozorga boribdi. Elchilar ham u bilan birga borishibdi. Hamma egilib, ta’zim qilibdi. Podsho o‘g‘lining peshonasidan o‘pibdi.

Sherzod gilamni ko‘rishi bilan behad sevinibdi. Gilamda Bahromning tug‘ilganidan tortib to Korson kabobpazning zindonida yotganigacha bo‘lgan sarguzashti gul bilan yozilgan ekan. Sherzod chidayolmay, bir oh tortibdi va qilichini sug‘urib, qalqonni tutib do‘konga kiribdi. Uning ketidan qolgan ikki elchi ham kiribdi. Sherzod gilamda ko‘rsatilgan yo‘l bilan ketaveribdi. U „Qon!“ deb baqirib turgan jallodga duch kelib, to‘rttasini ham qilichdan o‘tkazibdi. „Men semiz emas, u semiz!“ deb bir-birlarini ko‘rsatib turgan odamlar oldiga kirib Bahromni topibdi. Bahrom ozib ketgan ekan. Sherzodni ko‘rishi bilan o‘rnidan turib, ikkalasi

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

quchoqlashib ko‘rishibdi. So‘ngra Korsonning hamma asirlarini ham zindondon ozod qilibdi.

Tashqarida Chindil podshosi butun askarlarini to‘plab, urushga hozirlanib turgan ekan.

Bahrom tashqariga chiqa solib, Korsonning kallasini uzibdi. To‘rt pahlavon baravariga kurash maydoniga otlanibdi.

Qirq kecha-yu qirq kunduz urush bo‘libdi. Bahrom bilan Sherzodga podsho qo‘shini bas kelolmabdi. Chindil podshosining butun lashkari va pahlavonlari qirilibdi. Podsho taslim bo‘libdi. Sherzodning ham ikki sherigi o‘libdi.

Shu tobda Bahromning esiga minorada ko‘ringan oy tushib qolibdi. Sherzoddan ruxsat olib, haligi minora tepasiga chiqibdi. Minorada qirq qiz o‘rtasida podshoning qizi to‘lin oy kabi o‘tirar ekan. Bahrom podshoning qizi shu ekanligiga ishonibdi.

Malika Bahromni ko‘rib o‘rnidan turibdi.

— Marhamat, aziz pahlavonim Bahrom, — debdi.

Bahrom:

— Salom, ey, oyjamol qiz, — debdi va go‘zal malika bilan tanishibdi.

Shunday qilib, Sherzod zolim podshoni zindonga solibdi. Bahrom esa go‘zal malikani olib, o‘z yurtiga qaytibdi, murod-maqsadlariga yetibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Murqumomo

Bir kambag‘al chol dasht-biyobonlardan o‘tin terib, uni sotib kun ko‘rar ekan. Bir kuni u tush payti o‘tin terib, charchab uxlab qolibdi. Tushida bir qush parvoz qilib uchib kelib, taxlangan o‘tin ichiga kirib tuxum qo‘yibdi-da, yana uchib ketibdi. Chol bir vaqt uyg‘onib o‘tinni ko‘tarmoqchi bo‘lsa, ichidan bir dona tuxum chiqibdi. Chol o‘rnidan turib tuxumni olib bozorga qarab jo‘nabdi. Shaharga kelib bozor tomonga ketayotsa, shu shahar podshosining vaziri taxtda qarab turgan ekan. Cholning qo‘lidagi tuxumni ko‘rib qolibdi. Darrov kirib podshoga cholning qo‘lida qimmatbaho tuxum bor, deb aytibdi. Podsho darrov yasovul yuborib, cholni olib keltiribdi. Cholning qo‘lidagi tuxum juda qimmatbaho gavhar ekan. Podsho cholga:

— Shu tuxumingni qancha mol-u dunyoga almashtirasan? — deb so‘rasa, chol:

— O‘zingizga nima ma’qul kelsa, shuni bering, — deb aytibdi.

Podsho shu tuxum evaziga juda ko‘p mol-dunyo berib, cholni rozi qilibdi. Chol uyga xursand bo‘lib qaytibdi. Cholning ikki o‘g‘li bor ekan. Birinchisining oti Majid, ikkinchisining oti Hamid ekan. Bu boyliklar

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi



«Bahrom va Sherzod» ertagiga ishlangan rasm

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

bilan ular ancha yaxshi yashay boshlabdilar. Chol yana o‘tin tergani dashtga jo‘nabdi, uxlabdi. Tushida yana o‘sha qush kelib o‘tin ichiga kirib gavhar tuxum qo‘yib ketibdi.

Chol uyg‘onib qarasa, yana bir dona gavhar tuxum turgan emish. Chol tuxumni yana podshoga olib boribdi. Podsho tuxumni olib qirq tuyaga zar, qirq xachirga oltin yuklab beribdi. Chunki haligi bir dona tuxumning bahosi bir podsholikning yetti yillik xarajatiga to‘g‘ri kelar ekan. Chol haligi zar, oltinlarni olib uyga boribdi. Butun kambag‘al-bechora, uysizlarni chaqirib uy soldira boshlabdi. Tez orada dashtda salqin, chiroyli uylar paydo bo‘lib, shahar vujudga kelibdi.

Kambag‘allarning bolalarini to‘plab maktablarda o‘qita boshlabdi. Chol shaharga podsho bo‘libdi.

Chol o‘zini shunday baxtli qilgan qushni tutib olib kelmoqchi bo‘libdi. U qushni ko‘rmas ekan. Eski choponini kiyib, sahroga chiqib o‘tin terib, yolg‘ondan uxlagan kishi bo‘lib qushning kelishini kutib turibdi. Bir vaqt qarasa, bir qush kelib o‘tin orasiga kirib ketibdi. Chol o‘rnidan turib choponi bilan o‘tin ustini yopib qushni tutib olibdi. Oltindan taxt yasatib, oltindan qafas qildiribdi. Qafasning ichiga haligi go‘zal qushni solib, taxti oldiga osib qo‘yibdi. Chol bir kuni xotiniga:

— Men bir hajga borib kelay, — deb tayyorlanib hajga jo‘nab ketibdi. Cholning o‘rniga uning xotini podsho bo‘lib qolibdi. Shu shaharda bir usta bor ekan. Cholning xotini uyni ta’mirlash uchun shu ustani chaqirtirsa, u aytibdiki:

— Agar o‘sha Murqumomo qushni menga so‘yib, sho‘rva qilib bersangiz siznikiga boraman, — debdi. Cholning xotini rozi bo‘libdi. Qafasning ichidagi yetti podsho xirojiga teng keladigan go‘zal qushni so‘yishga buyuribdi. Qushni so‘yib, qozonga solib, qaynatib qo‘yishibdi.

Shu vaqt cholning o‘g‘illari Majid bilan Hamid maktabdan qornilari och holda kelishibdi-da, qozonda qaynayotgan qushning tojisini olib bo‘lishib yeb qo‘yishibdi. Bolalar o‘ynagani ko‘chaga chiqib ketishibdi. Cholning xotini go‘shtni ustaning oldiga olib chiqib qo‘yibdi. Usta pishgan qushning go‘shtini ko‘rsa, tojisi yo‘q emish. Usta:

— Men bu go‘shtni yemayman, — debdi. Shunda xotin:

— Nima uchun yemaysiz? — deb so‘rasa, usta:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Men kitobda o‘qiganman. Agar kimda-kim Murqumomoning tojisini pishirib yesa, o‘sha odam davlatga podsho bo‘ladi, deb yozilgan, — debdi. — Bu qushning tojisini birov yeb qo‘yibdi. Endi o‘sha odam podsho bo‘ladi, — debdi-da, arazlab ketmoqchi bo‘libdi.

Cholning xotini yalinib ustani to‘xtatibdi va qushning tojisini kim yegan ekan, — deb surishtirib ketibdi.

Shu vaqt uyga o‘g‘illari kirib kelibdilar. Onasi ulardan so‘rasa, biz yedik deb aytishibdi. Shu vaqt usta xotinga „Hozir ikkala bolangni o‘ldirsang ularning jigarida toji turibdi. Menga jigarlarini berasan, shundagina sening uyingni ta’mirlab beraman, — debdi. Usta ketib qolishidan qo‘rqqan xotin jallodlardan biriga:

— Uzoq joyga olib borib Hamid bilan Majidni so‘y-da, jigarini olib kel, — deb buyuribdi. Jallod Hamid bilan Majidni otga mindirib jarning oldiga olib boribdi. Lekin bolalarni so‘yishga qizg‘anibdi. Birini so‘yay desa, „Meni so‘ying“, deb ikkinchisi yopishibdi, ikkinchisini so‘yay desa, birinchisi: „Avval meni so‘ying“, deb yalinibdi.

Bularning nolishlariga rahmi kelgan jallod o‘ylanib qolibdi. Shu vaqt jar tagidan kuchuklarning g‘ingshigan ovozlari eshitilibdi. Jallod darrov jarlikka tushib ikkita kuchukni olib chiqib, so‘yib, qornini yorib, jigarini olibdi. Bolalarni esa otlariga mindirib:

— Boshlaringiz oqqan tomonga qarab ketinglar, — deb qo‘yib yuboribdi.

Ikki bola birgalikda ketishibdi. Ularning oldilaridan ikki yo‘l chiqibdi. Bir yo‘lga „Borsa kelmas“ deb yozilgan, ikkinchi yo‘lga „Borsa kelar“ deb yozilgan ekan. Majid o‘ylab turib:

— Aka, sen „Borsa kelar“ga borgin, men „Borsa kelmas“ga boraman — debdi. Majid boshqa yo‘lga, Hamid boshqa yo‘lga jo‘nabdi.

Hamid yo‘l yursa ham mo‘l yurib, oxiri bir shaharga kirib boribdi. Xuddi shu kunlarda shaharning shohi o‘lib, xalq davlat qushini uchirib turgan vaqt ekan. Uchib yurgan qush hali otdan tushib ulgurmagan Hamidning boshiga qo‘nibdi. Kishilar kelib qarasalar, qush bir musofir yigitning boshiga kelib qo‘nib turgan emish. Qushni yana uchirishibdi. Qush yana Hamidning boshiga kelib qo‘nibdi. Bu hol uch marta takrorlanibdi. Oxiri Hamidni podsho qilib ko‘tarishibdi. Hamid podsholik davrini suraversin, endigi so‘zni Majiddan eshiting:

Majid ketaverib juda ko‘p yo‘l yuribdi. Yo‘lda uch kishi qonlariga belanib urishayotgan ekan. Majid ularni urishishdan to‘xtatibdi. So‘ngra

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

ulardan nima uchun urishayotganliklarini so‘rabdi. Ular urishishning sababini aytibdilar. Ular otadan uch o‘g‘il bo‘lib, otalari o‘lgach, ularga bir hassa, qalpoq va to‘rt tevaragiga turli so‘zlar yozilgan gilam meros qolgan ekan. Shu merosni bo‘lisha olmay urishayotgan ekanlar. Majid o‘ylanib turib:

— Xo‘p, bu narsalarning qanday xosiyati bor? — deb so‘rabdi. Shunda kattasi turib bu narsalarning xosiyatlarini so‘zlab beribdi:

— Kimki hassani ushlasa, bir qadami ming qadam bo‘ladi, qalpog‘ini kiysa, kishi ko‘ziga ko‘rinmaydi. Gilamga o‘tirib, xatlarini o‘qib xohlagan joyining nomini aytsa, o‘sha yerga olib boradi. Hassaning yana bir xususiyati shuki, ko‘r ko‘zga surtsa, ko‘zi ochiladi.

Shunda Majid:

— Men sizlarga bir shart qo‘yaman, shu shartni bajarsalaring uchala narsa o‘shanga tegadi, — debdi. Aka-ukalar ko‘nibdi.

— Kim soydagi chiroyli toshlardan bir etak terib keltirsa, bu meroslar o‘shanga tegadi, — debdi Majid. Meros narsalar Majidning oldida qolibdi.

Uchala aka-uka yugurib ketishibdi. Shu zamon Majid hassani ushlabdi, qalpoqni kiyibdi-da, gilamga o‘tirib, xatlarni o‘qibdi. Shu vaqt gilam osmonga ko‘tarilibdi. Gilam uchib to‘g‘ri bir podshoning juda shinam bog‘iga borib tushib, katta hovuz oldidagi supaga solinib qolibdi. Shu vaqtda podshoning go‘zal parilardek qizi qirq kanizi bilan bog‘da sayr qilib yurishgan ekan.

Shohning qizi supaga solingan gilamni ko‘rib, uni tomosha qilmoqchi bo‘lib o‘tiribdi. Majidni ko‘rmabdi, chunki Majid qalpoqni kiyib olgan ekan. Majid darrov gilamning xatini o‘qibdi. Gilam shu payt osmonga ko‘tarilib shohning qizini ham olib uchib ketibdi. Gilam juda uzoq uchib bir daryo yoqasiga qo‘nibdi. Majid boshidan qalpog‘ini olibdi. Qiz yigitni ko‘rib, unga salom beribdi. Majid qizni sevib qolib:

— Birga turmush qilaylik, — debdi. Podshoning qizi avval ko‘nmabdi. Oradan biroz vaqt o‘tgach, qiz rozi bo‘libdi. Yigit unga uylanibdi. Ikki yil o‘tgach, bir qiz, bir o‘g‘il ko‘ribdilar.

Majid juda mehnatsevar ekan, u tinmay mehnat qilib uy quribdi. Har kuni ovga borib, kundalik ovqatlarini topib kelar ekan. Shohning qizi otasining shahriga ketishni istabdi. Bir kuni malika gilamning

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

sirini so‘rabdi. Majid shu vaqtga qadar gilam, qalpoq, hassaning sirini aytmagan ekan. Endi ikki bolasi bilan qayerga ketardi, deb gilamning sirini aytibdi. Bir kun Majid ovga ketgach, xotini bolalarini olib gilamga o‘tiribdi va gilam tevaragidagi xatni o‘qibdi. Gilam ko‘tarilib, otasining shahriga qarab uchibdi. Gilam borib bog‘dagi supaga yozilib qolibdi. Qiz otasinikiga kelib turaversin, gapni Majiddan eshiting.

Majid ovda ko‘p o‘ljalarni olib kelsa, uyda chiroqlar yoqilgan, biroq hech kim yo‘q ekan. Uyga kirsa, sehrli gilam yo‘q. Shunda xotini bolalari bilan otasining yurtiga uchib ketganini bilibdi. Majid darrov berkitgan yeridan hassa bilan qalpoqni olibdi, qalpoqni kiyib, hassani qo‘lga olib, bolalarini izlab ketibdi.

Oxiri xotini turgan podsholikka yetib kelibdi. Shu shaharning bir chetida bir chol bilan kampir turishar ekan. Chol har kuni azonda borib podsho taxtining oldidagi maydonni supurar va shuning evaziga tirikchilik o‘tkazar ekan. Podsho saroyida yurib, u yerda bo‘layotgan ishlardan xabardor bo‘lib turar ekan. Majid borib shu chol bilan kampirnikiga tushibdi. Ular bilan hol-ahvol so‘rashgach, chol:

— O‘g‘lim, nima qilib yuribsan? — debdi.

Shunda Majid boshidan o‘tgan hamma voqealarni birma-bir so‘zlab beribdi. Chol gapni tinglab bo‘lgach, shunday debdi:

— O‘g‘lim, qayg‘urma, gilam podshoning xazinasida, bolalaring sog‘ va salomat, bog‘da o‘ynab-kulib yurishibdi. Ertaga sahar men bilan borasan. Senga xazinaga kirish yo‘llarini aytib beraman, — debdi.

Ertasiga chol Majidga xazinaga kirish yo‘lini ko‘rsatibdi.

Majid qalpoqni kiyib olgan ekan, hech kim uni ko‘rmabdi. U to‘g‘ri xazinaga kirib gilamni ko‘ribdi. Gilam yerda yozig‘liq turgan ekan. Gilamga o‘tirib xatlarni o‘qibdi. Shu vaqt gilam uchib xazina darchasidan chiqib ketibdi va borib bog‘dagi supaga tushibdi.

Hovuz bo‘yida bolalari o‘ynab yurishgan ekan. Gilamni ko‘rishlari bilan bolalar yugurib kelishibdi. Bolalarni gilamga o‘tqazib olib ketibdi. Bu holni ko‘rgan podsho va uning qizi dod-voy deganlaricha qolaveribdilar. Majid to‘g‘ri ukasi Hamid podsholigiga qarab uchibdi. Ukasi bilan ko‘rishib, gaplashibdi. Majid:

— Yur, uka, ota-onamiz oldiga boramiz. Ular sog‘-salomatmikan, — debdi. Maslahatlashib ota yurtiga qarab uchib ketishibdi. Bular uchib ketishaversin. So‘zni ota-onasidan eshiting:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Jallod onaga kuchuk jigarini olib kelgach, ustaga yediribdi. Usta yeb olgach, butun boyliklarni olib qochib ketibdi. Xotin:

— Cholim kelib bolalar qani, desa nima deyman, yaxshisi ikkita go‘r qilay-da, qaroqchilar o‘g‘illaringni o‘ldirdi, deyman, deb o‘ylab, ikkita go‘r qazitib, katta sag‘ana qildiribdi. Biriga Majid, biriga Hamid deb yozdiribdi. O‘zi esa, shu go‘r oldida „yig‘lab“ o‘tiribdi. Bir necha vaqtlar o‘tgach, chol hajdan qaytib kelibdi. Bu voqealarni ko‘rib nihoyatda qayg‘uribdi. Chol ham tarki dunyo qilib, bolalarining „go‘ri“ oldida yig‘lab o‘tiribdi. Ikkalasining ko‘zlari ham yig‘layverib ko‘r bo‘libdi. Shundan keyin bolalari gilamda uchib kelibdi. Ko‘rishsa, shaharlar vayron, izlab yurishib, go‘r oldiga kelib qarashsa, biriga Majid, ikkinchisiga Hamid deb yozib qo‘yilgan emish. Yonida esa ota-onasi yig‘lab ko‘r bo‘lib yotgan emish. Butun voqeani darrov bilib olibdilar. Ota-onasining oldiga borib ko‘rishibdilar. Majid xosiyatli hassani otasining ko‘ziga surtibdi. Otasining ko‘zi ochilibdi. Lekin onasining ko‘ziga surtmabdi. Butun bo‘lgan voqeani otasiga gapirib berishibdi. Ular gilamga ota-onasini o‘tqazishib, Hamid podsho bo‘lgan mamlakatga uchib ketishib, murod-maqsadiga yetishibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Hunarning xosiyati

Kunlardan bir kuni bir kambag‘al dehqon qarigan chog‘ida o‘g‘li Rafiqni hunar o‘rgatish uchun duradgorga shogird qilib berib, odat bo‘yicha: „Eti sizga suyagi bizga, shu bolani sizga topshirdim“, debdi. Duradgor bolani olib qolib, ishni qunt bilan o‘rganish va qiyinchiliklarni yengish kerakligini unga aytibdi. Rafiq biroz oq-qorani tanigan ekan, bir necha yil duradgorga yordamchi bo‘lib ishlab, uning hunarini puxta o‘rganibdi.

Kunlardan bir kuni Rafiq uxlab qolibdi. Tush ko‘ribdi. Tushida bir qancha qizlar kelib: „Tur, qachongacha uxlaysan“, deb hazil qilib turgan emishlar. Shu qizlardan biri juda go‘zal ekan. U qizni boshqa qizlar o‘rab olib, Rafiqqa ko‘rsatmas emish. Rafiq bir iloj qilib ko‘ribdi. Joyidan tursa, hech kim yo‘q, yo g‘iz o‘zi o‘tirgan emish. Shu kundan boshlab Rafiq qizni o‘ylab, borgan sari ozib keta beribdi. Duradgor usta ham, otasi ham hayron bo‘lishibdi. Dori-darmon qilishibdi, tuzalmabdi. Duradgor bilan bolaning otasi buning sababini bilmoqchi bo‘lishibdi. Otasi qo‘ymagandan keyin bola tushida ko‘rgan voqeani aytibdi. Shu qizni sevib qolganini bildiribdi. Otasi bilan duradgor bu bolani sayohatga yuborish maqsadida bir yog‘och ot qilib berishibdi. Bir necha kunlik oziq-ovqat tayyorlab, shu yog‘och otga mindirib jo‘natmoqchi bo‘lishibdi. Duradgor „O‘ng qulog‘ini

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

burasang tepaga chiqadi, chap qulog‘ini burasang pastga tushadi“, deb o‘rgatibdi. Bola safarga jo‘nabdi. Bir necha kun yo‘l yurib, cho‘l-u sahrolardan oshib, bir kichkina qishloqqa yetib boribdi. Otining chap qulog‘ini burab yerga tushib, qishloqqa kiribdi.

Bu qishloqning chekkasida bir kampir yashar ekan. U shu qishloqdagi bir katta hovuzga qorovul ekan. Rafiq kampir oldiga borib salom beribdi. Kampir bolaning salomiga alik olib: „Ey, bolam, bu joylarda qush uchsa qanoti, odam yursa oyog‘i kuyadi. Sen nima qilib yuribsan?“ debdi. Rafiq dadillik bilan kelishining sababini kampirga gapirib beribdi. Kampir voqeani bilgandan keyin Rafiqqa yordam qilmoqchi bo‘lib, maslahat beribdi:

— O‘g‘lim, bugun mana bu hovuzga bir qancha qizlar kelib cho‘milishadi. Sening sevganing shu qizlar orasida bo‘lsa kerak. Sen yaxshilab qara, agar o‘sha qiz bo‘lsa, ular suvdan chiqquncha sekin bildirmay ko‘ylagini olib ket. Qiz suvdan chiqqandan keyin ko‘ylagini topa olmay shu hovuz yonida qolishga majbur bo‘ladi, — debdi. Rafiq hovuz yonidagi bir daraxt tagida poylab o‘tiribdi. Azon vaqtida bir qancha kaptarlar uchib kelib, bir dumalab qizga aylanibdi-da, suvga tushib cho‘mila boshlashibdi. Rafiq qarasa, o‘sha tushida ko‘rgan qizlar emish. Qizlar orasida sevgan qizi ham bor. Sekin borib qizning ko‘ylagini olmoqchi bo‘lib turganda, qiz sezib qolib, suvdan yugurib chiqibdi-da, yigitni bir shapaloq urib, kaptar bo‘lib uchib ketibdi. Uning orqasidan qolgan qizlar ham bir yumalab kaptar bo‘lib uchib ketibdi. Rafiq kampir oldiga kelib voqeani aytib, kampirdan ularning yashaydigan makonlarini so‘rabdi.

Kampir: „Ularning makoni tog‘ning kun chiqish tomonida“, debdi. Rafiq yana yog‘och otiga minib safarga jo‘nabdi. Bir necha kun yo‘l yurib, kampir aytgan tog‘ga yetib boribdi. Tepadan qarasa, tog‘ning orqasida bir to‘da qizlarning sayr qilib o‘ynab yurganlarini ko‘ribdi. Qizlarning har qaysisi yulduz kabi porlab turgandek ko‘rinibdi. Rafiq otining chap qulog‘ini burab pastga tushibdi. Qizlar ichida o‘z sevganini ko‘rib, otini bir yerga yashirib qo‘yibdi-da, bir chekkaga borib poylab o‘tiribdi. Birozdan keyin qizlar o‘ynab yurib charchab, hammasi bir maysa joyda yotib uxlab qolishibdi. Rafiq sekin borib qizning qo‘lidagi uzugini olib, o‘zining uzugini taqib, qaytib joyiga o‘tiribdi. Qiz uyg‘onib qarasa, qo‘lidagi uzugi o‘ziniki emas. Hayron bo‘libdi, lekin bu sirni hech kimga aytmabdi. Qizlarga bildirmasdan, uzukning egasini qidiribdi. Qiz yurib-yurib Rafiq o‘tirgan daraxt tagiga borib qolibdi. Rafiqni ko‘rib:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Ey, yigit, bu yerlarda nima qilib yuribsiz? Agar otam bilib qolsa, sizni mayda-mayda qilib tashlaydi, — debdi.

Rafiq joyidan turib, dadillik bilan uni tushida yaxshi ko‘rib qolganini aytibdi. Qiz ham Rafiqni sevib qolibdi. Ular kampirning uyiga kelib, turmush quribdilar va bir qancha vaqt shu yerda yashabdilar. Bir kuni Rafiq o‘z shahriga qaytmoqchi bo‘libdi, otini minib kechasi jo‘nashibdi. Bir qancha yo‘l yurgandan keyin xotinining vaqti-soati yetib, bir o‘g‘il tug‘ibdi. Bu yerda na suv va na o‘t yo‘qligidan Rafiq o‘t va suv qidirib ketibdi. Ancha yurgandan keyin bir uydan tutun chiqqanini ko‘ribdi. O‘sha uyga kirib o‘t tilabdi. Uy egasi o‘t beribdi. Rafiq o‘tni qanday qilib olib ketishni bilmay, oxiri belbog‘ining bir uchini yondirib, oti bilan uchib kelayotganda o‘t yog‘och otga tegib, kuyib, yerga tushibdi.

Xotin uni kutib xafa bo‘lib o‘tirsa, karvonlar kelib qolibdi. Karvonlar xotinni o‘zlari bilan birga olib ketib, bir saroyda asrabdilar. Oradan bir necha yil o‘tgandan keyin o‘g‘li Rasuljon ancha katta bo‘lib qolibdi. Bir kuni xotin Rafiqning rasmini ko‘chaga osib qo‘yib, o‘g‘li Rasuljonga:

— Sen ko‘chada poylab o‘tir. Kimki shu rasmga qarab boshini ushlab tursa, darrov menga xabar ber, — debdi.

Rasuljon bir necha kunlar poylabdi. Kunlardan bir kuni Rafiq ko‘p yo‘llarni yurib shu qishloqqa kelib qolibdi.

Ko‘chada ketayotib, bir saroy eshigida osilib turgan o‘zining rasmini ko‘rib hayron bo‘lib qolibdi. Rasuljon rasmga tikilib qarab turgan odamni ko‘rib, onasiga xabar beribdi. Onasi kelib eri Rafiqni tanib ko‘rishibdi, xursand bo‘lishibdi. Rafiqning sochlari o‘sgan, ust-boshi to‘zib ketgan ekan. Xotini uni yuvintirib, yangi kiyimlar kiydiribdi. Bir kuni Rafiq ustasidan o‘rgangan duradgorlik hunarini ishlatib uchar yog‘och ot yasabdi. Bir necha kun shu saroyda yashabdilar. Rafiq xotinini sog‘-salomat olib kelganlarga rahmat aytib, o‘g‘li bilan uchar otga mingashib, o‘z shahriga jo‘nabdi.

O‘z yurtiga kelib, otasi va duradgor ustozi bilan ko‘rishibdi. Otasi o‘g‘lining sog‘-salomat izlagan qizini olib kelganiga xursand bo‘lib, to‘y-tomosha qilib beribdi. Rafiq duradgorning hunar o‘rgatganiga ko‘p rahmatlar aytibdi. Murod-maqsadlariga yetishibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Opa-uka

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir chol bor ekan. Uning xotini har ikki yilda ikkitadan bola tug‘ar ekan. Oradan bir necha yil o‘tibdi, cholning bolalari juda ko‘payib ketibdi. Bu bolalarni boqish juda qiyin bo‘lib qolibdi.

O‘zlarining ham qorinlari hech to‘ymas ekan. Kunlardan bir kun chol xotiniga:

— Bolalarni uxlatgandan keyin bir qozon atala qil, bir to‘yib ichaylik, — debdi. Xotini yarim kechada o‘rnidan turib oshga harakat qilib tursa, bir qizi turib:

— Ona, men un elab beraymi? — debdi.

Yana biri turib:

— Suv keltirib beraymi? — debdi.

Yana biri:

— O‘tin keltirib beraymi? — debdi.

Yana biri:

— O‘t yoqib turaymi? — debdi.

Shunday qilib, bolalari uyg‘onib har tomondan turib kelaveribdilar. Chol buni ko‘rib, zarda qilib ko‘chaga chiqib ketibdi. Xotini atalani pishirib, suzish oldidan bolalariga:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Otangizga ham biroz olib qo‘yay, — debdi-da, bir kosa atala olib qo‘yibdi. Atalani o‘choq boshida qoldiribdi. Bolalar atalani ichib bo‘lgach, yotib uxlabdilar. Bolalardan biri turib, o‘choq boshidagi oshni topib ichib, o‘rniga suv solib qo‘yibdi. Yotib uxlabdi. Birozdan keyin chol uyga kirsa, hammasi uxlab qolgan ekan. O‘choq boshiga borib qarasa, kosada bir narsa turgan emish. Qorong‘ida atala deb o‘ylab, ichib ko‘rsa, suv ekan. Shundan chol qattiq xafa bo‘libdi. Ertasi bolalariga:

— Bolalarim, men bilan birga yuringlar. Bugun tog‘ga borib, do‘lana teramiz, — debdi. U bolalarini ergashtirib, bir tog‘ga olib chiqibdi. Do‘lanani qoqib, bolalariga:

— Men daraxtga chiqib, do‘lana qoqaman. Yuqoriga qaramanglar, zo‘r berib tera beringlar, — debdi. Bolalar do‘lanani teraveribdilar. Chol sekin daraxtdan tushib, uyiga qarab ketaveribdi. Do‘lanani terib, yeb bo‘lgan bolalar:

— Dada, yana qoqing! — deb yuqoriga qarashsa, hech kim yo‘q. Bolalar yig‘lashib, har tomonga tarqalib ketibdilar. Shu bolalar orasidan bir qiz bilan bir o‘g‘il tog‘ning bir tarafiga qarab ketibdi. U yerda suv yo‘q ekan. O‘g‘il bola opasiga:

— Opajon, juda chanqadim, — debdi. Shunda bir joyda ko‘lmak suv ko‘rinibdi. Bola suvni ichay degan ekan, opasi:

— Ichma, bu ayiqning ichadigan suvi, — debdi. Yana biroz yurgandan keyin bir suv ko‘rinibdi.

Bola:

— Opa, suv ichaman, — debdi.

Opasi:

— Ichma, bu kiyikning ichadigan suvi, — debdi.

Bola:

— Ichsam nima bo‘ladi? — debdi.

Opasi:

— Ichsang kiyik bo‘lib qolasan, — debdi. Ukasi opasining so‘ziga kirmay, shu suvdan ichgan ekan, kiyik suratiga kirib qolibdi. Qiz hayron bo‘lib, yig‘lab-yig‘lab kiyik bo‘lib qolgan ukasini yetaklab yuribdi. Ular borib-borib, bir ko‘prikning tagiga kirib yotibdilar.

O‘sha yurtning podshosi ovga chiqqan ekan. U ko‘prik oldiga kelganda oti hurkib, ko‘prikdan o‘tmay qolibdi.

Podsho:

— Kimsan, ko‘prik tagidan bu yoqqa chiq! — debdi. Qiz kiyikni yetaklab chiqib kelibdi. Podsho qizni ko‘rib yoqtirib qolibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Podsho navkarlariga:

— Bu qizni o‘rdaga olib boringlar! Kechqurun ovdan qaytib boraman. Shungacha tursin! — debdi. Navkarlari qizni o‘rdaga olib boribdi. Kechqurun podsho ovdan qaytibdi. Qizdan hol-ahvol so‘rab, uni parvarish qilish to‘g‘risida buyruq beribdi. Podsho avvalgi xotinlaridan bola ko‘rmagan ekan. Bir necha kundan keyin xalqqa katta to‘y-tomosha qilib beribdi va qizni o‘z nikohiga olibdi. Qiz homilador bo‘libdi.

Podshoning katta xotinlari yosh xotinning homilador bo‘lganini bilib, uni yo‘qotish payiga tushibdilar. Kunlardan bir kun podsho ovga ketganda, kundoshlar kenja xotinini yo‘qotmoqchi bo‘libdilar.

Kenja xotin podshoning ovdan qaytish kunlari yaqinlashganda hovuz bo‘yida sochlarini yoyib o‘tirgan ekan. Kanizaklaridan biri kelib kenja xotinni to‘satdan hovuzga itarib yuboribdi. Qiz cho‘kib ketibdi.

Kanizakning o‘zi esa kenja xotinning kiyimlarini kiyib, unga o‘xshagan bo‘lib o‘tiribdi. Podsho ovdan qaytib, to‘ppa-to‘g‘ri kenja xotinning uyiga kiribdi. Qarasa, xotini boshqa ahvolda.

— Ey, xotin, senga nima bo‘ldi? — debdi.

Kanizak aytibdi.

— Sizni o‘ylayverib shu ko‘yga tushdim, — debdi. Podsho hayron bo‘lib, shu kecha u bilan qolibdi.

Xotin ertalab turib:

— Mening boshim qorong‘i bo‘ldi, menga o‘sha kiyikni so‘yib bersangiz, — debdi.

Podsho:

— Sen bu kiyikni mening ukam, suv ichib kiyik bo‘lib qolgan demabmiding? — debdi.

Kanizak:

— Yolg‘on aytgan edim, — debdi.

Podsho navkarlariga:

— Kiyikni so‘yinglar! — deb buyruq beribdi.

Navkarlar darrov mis qozonlarni osib, oshpichoqlarni qayrab turganlarida, birdan kiyik hovuz atrofida aylanib, tilga kelibdi:

Mis qozonlar osildi,
Oshpichoqlar qayraldi,
Chiqmaysizmi, opajon,
Hovuzingiz tagidan, —

debdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Opasi:

O‘ng yoqda oltin beshik,
Chap yoqda kumush beshik,
Tagimda zarvar gilam,
Qanday chiqay, ukajon?! —

debdi.

Podsho bu so‘zni eshitib, darhol hovuzning suvini chiqarib tashlab, quritishga buyruq beribdi. Hovuzning suvini chiqarib, tagiga qarashsa, bir darcha ko‘rinibdi, darchani ochib qarashsa, bir gumbaz ko‘rinibdi. Bu gumbazning ichiga kirib ko‘rishsa, gumbaz o‘rtasida podshoning kichik xotini o‘tirgan emish. Uning tagida zarvar gilam, o‘ng va chap taraflarida beshik. Podsho xotinining oldiga borib so‘rabdi:

— Seni kim bu yerga keltirdi?

— Meni bir kanizak hovuzga itarib yubordi. Hovuzga tushgandan keyin ko‘zimni ochib qarasam, shu uyda o‘tiribman. O‘sha onda tug‘dim. Bu ilonlarning makoni ekan. Ular menga yordam qilc i. Bu yerda salomat o‘tiribman, — debdi xotini.

Qiz ikki o‘g‘il tug‘gan ekan. Podsho xotini bilan bolalarini hovuz tagidagi gumbazdan chiqarib, el-yurtga katta to‘y qilib beribdi.

Kanizakni esa bir baytal otning dumiga bog‘lab, orqasidan ayg‘ir qo‘yib yuboribdi.

Kiyik bo‘lib qolgan bolani esa hakimlarga ko‘rsatib, davolatibdilar. Keyin bola o‘z holiga kelibdi. Opa-uka, podsho va uning ikki o‘g‘li birga umr kechirishib, murodlariga yetibdilar.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

O‘ynang, kuchugim, o‘ynang!

O‘tgan zamonda bir cholning uchta qizi bo‘lib, o‘g‘li yo‘q ekan. Kunlardan bir kuni, chol juda og‘ir kasal bo‘lib qolibdi. Cholning kasalini bironta tabib ham tuzata olmabdi. Nihoyat, tabiblar cholga olmurut shoxini qaynatib ichganidagina sog‘ayib ketishini aytishibdi. Olmurut shoxini olib kelish uchun cholning katta qizi yo‘lga chiqibdi. U yigitlarning kiyim-boshini kiyib, qora sochini qalpog‘i tagiga bostirib olib, otni minib yo‘lda ketaveribdi. Qiz yo‘lda uzoq yurgandan so‘ng, katta bir cho‘l-biyobondan chiqib qolibdi. Cho‘lda bahaybat bir sher bor ekan, qiz unga duch kelibdi. Qiz undan qo‘rqib uyiga qaytib kelibdi.

Buni ko‘rgan o‘rtancha singlisi „Men boraman“, deb otasining so‘ziga kirmay, safar taraddudiga tushibdi. O‘rtancha qiziga yo‘lda katta bir ajdaho duch kelibdi, u ham qo‘rqqanidan orqasiga qaytibdi. Cholning uchinchi kenja qizi, „Dada, endi men boraman“, debdi. Dadasi unamabdi. Biroq kenja qiz otasining gapiga quloq solmasdan jo‘nabdi. Bu qiz ham qop-qora sochini qalpog‘i ostiga bostirib olib, uzun to‘n kiyib, uning ustidan shohi belbog‘ni beliga mahkam bog‘lab, navqiron sho‘x yigitlar kabi ot minib, kuchukchasini ergashtirib, yo‘lga ravona bo‘libdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Yo‘lda ko‘p qiyinchiliklarga uchrabdi. Ajdarhc va sherlardan ham qo‘rqmay, ularning qarshisiga dadillik bilan borib, o‘tkir qilichi bilan ularni chopib o‘ldiribdi.

Kenja qiz yo‘l yuribdi, yo‘l yursa ham mo‘l yurib, bir shaharga yetib boribdi. Bu shaharning yigitlari har kuni mehmonxonada gap yeyishar ekan.

Qiz kishining suqi kiradigan darajada suluv, go‘zal ekan. Qiz shaharga yetib kelgach, uch-to‘rt yigit bilan tanishib qolibdi. Ular yigitning musofirligini bilib, uni mehmonxonaga taklif qilibdilar. U:

— Men bu yerga bir zarur ish bilan kelganman, agar o‘sha narsa topilsa, tezroq olib ketsam: mening otam og‘ir kasal. Unga faqat olmurut shoxini qaynatib ichirsak, dori bo‘lar ekan. Shunga kelgan edim, topib bersalaringiz, olib ketardim, — debdi.

Mehmonxonadagi barcha yigitlar uning o‘g‘il bola ekanligiga shubha bilan qarabdilar. Ular qizga javob bermabdilar, mehmonxonaga uni boshlab kiribdilar. Yigitlar undan qizmi yoki o‘g‘il ekanligini so‘ramoqchi bo‘libdilar, lekin mehmon xafa bo‘lmasin, deb uning qiz ekanini turli yo‘llar bilan aniqlamoqchi bo‘libdilar. Biroq qiz sir boy bermay, yigitlar bilan birga bir hafta yashabdi.

Shunda yigitlarning biri:

— Hammamiz cho‘milgani boramiz, uning o‘g‘il yoki qizligini o‘shanda bilib olamiz, — debdi. Yigitlar bu maslahatga ko‘nishibdi. Bularning gaplarini qizning kuchugi eshitib turgan ekan. Kuchuk qizning oldiga kelib, bu gaplarning hammasini unga aytib beribdi.

Qiz juda xavotir bo‘lib turganda, kuchuk:

— E, opa, sen hech xafa bo‘lma, men sizlar cho‘milgani borib, yechingan vaqtlaringizda bir vovillayman, shu paytda hamma tomonni qora tuman bosadi, sen shu vaqtning o‘zida cho‘milib chiqasan, ular bilolmay qoladilar, — debdi.

Qiz bu maslahatga ko‘nibdi. Ertasi tong otishi bilan yigitlarning hammasi non-choy ichishib bo‘lib, qizga:

— O‘rtoq, bir cho‘milib kelmaymizmi, o‘ynab ham kelamiz, — deyishibdi. Qiz rozi bo‘libdi. So‘ng hammasi cho‘milgani borishibdi. Daryoning qirg‘og‘ida hammasi yechinibdi. Qiz yechinmay turibdi. Qizning kuchugi daryoning narigi qirg‘og‘ida turib bir uvillabdi. Hech kimni ko‘rib bo‘lmaydigan tuman tushibdi. Qiz hamn darrov yechinib, o‘zini suvga tashlabdi, bir sho‘ng‘ib suvdan chiqib, tezda kiyim-boshini kiyib olibdi. Yigitlar qizni birinchi sinovda bilolmabdilar, uni o‘g‘il bola ekan, deb shaharga qaytib kelibdilar.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Ertasi kuni yana yigitlar:

— Bu yigit emas, yigit bo‘lsa, bunchalik go‘zal bo‘lmaydi, buni yana sinab ko‘rmoq kerak, — deyishibdi.

Shunda bir yigit o‘rnidan turib:

— Biz bir dona egar, bir dona qo‘g‘irchoqni chiroyli qilib yasab, eshikning ikki tomoniga qo‘yaylik, agar u egarni olsa o‘g‘il bola, qo‘g‘irchoqni olsa qiz bola bo‘ladi, — debdi. Bu maslahat ham ularga ma’qul kelibdi. Ular juda chiroyli bitta mag‘or egar bilan bitta qo‘g‘irchoqni topib olib kelishibdi. Bularning bu harakatidan qizning kuchugi xabardor ekan, buni darrov qizga aytibdi.

Qiz ertasi kuni ichkari uyning eshigi orqasida egar bilan qo‘g‘irchoq turganini ko‘ribdi, lekin qo‘g‘irchoqning behad chiroyliligiga qaramasdan, darrov egarga qarabdi va yigitlarga qarab:

— Zap egar ekanmi, bizga bersalaringiz bo‘lar ekan, sotmaysizlarmi? — debdi.

Yigitlar bir-birlariga qarashib, o‘g‘il bola ekan, deb o‘ylashibdi.

— Mayli, sizga egar kerak bo‘lsa beraylik, — deyishibdi-da, egarni qizga berishibdi. Qiz egarni olib, ichkariga kirib o‘tiribdi.

Yigitlar uning o‘g‘il bola ekaniga ishonmasdan yana sinamoqchi bo‘lishibdi.

— Endi qanday qilib sinaymiz? — deyishibdi.

Yigitlardan biri turib:

— Endi buni shunday qilib sinaymiz: hammamiz bog‘da bittadan gul olib kelib, tunda o‘rnimizga qo‘yib yotamiz, qani, uning o‘rnidagi gul so‘lib qoladimi, yo‘qmi? Agar gul so‘lmagan bo‘lsa, o‘g‘il, so‘lib qolgan bo‘lsa, qiz bola bo‘lib chiqadi, — debdi. Qizning kuchugi ularning bu maslahatini ham eshitib olib, darrov qizga aytibdi:

— Opa, seni yigitlar yana sinashmoqchi, ular sen yotganingda tagingga gul tashlab qo‘yib, sinashmoqchi bo‘lishyapti. Gul tunda so‘lib qoladi, o‘sha vaqtda darrov menga gulni tashlaysan, men u gulni tashlab, ular qayerdan olgan bo‘lsalar, o‘sha yerdan senga boshqa yangi yashnab turgan gul olib kelib beraman.

Yigitlar kech kirgandan keyin bog‘ga kirib har bittasi bittadan gul uzib kelibdi. Yigitlar bilan kuchuk ham ergashib kirib, gulni qayerdan olganlarini bilib olibdi. Kechqurun hammasi tagiga gul tashlab yotibdi. Qiz sahar uyg‘onib gulni qarasa, gul so‘lib qolganmish, u gulni darrov kuchukka tashlabdi. Kuchuk gulni tishlab olib, o‘sha gulzorga borib, yangi ochilgan guldan olib kelib beribdi. Qiz gulni o‘zining tagiga tashlab yotibdi. Tong otib, yerga yorug‘ tushgach, yigitlarning har qaysisi o‘z

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

gullarini ko‘rishibdi. Ular qarashsa, hammalarining guli sal-pal so‘lib qolibdi-yu, qizning guli kechqurun qanday bo‘lsa, erta bilan ham o‘shanday yashnab turgan emish. Yigitlar uning o‘g‘il bola ekaniga ishonishibdi.

Shunday qilib, qiz bu yerda bir necha kun turgandan keyin yigitlardan javob so‘rabdi. Yigitlar qizga olmurut shoxini topib berib, shundan keyingina unga javob berishibdi. Qiz esa olmurut shoxini olib, otini minib, kuchugini ergashtirib yo‘lga tushibdi. Yo‘lda bir necha kun yuribdi. Qiz o‘zining Zimzim shahriga borib, sog‘-salomat qaytib kelayotganiga suyunibdi. O‘zining yonida ergashib kelayotgan kuchugiga qarab:

O‘ynang, kuchugim, o‘ynang,
Zimzim shahriga borib,
Qiz bordim-u, qiz qaytdim.
O‘ynang, kuchugim, o‘ynang, —

deb kuchugini o‘ynatib ketayotganida, yo‘lda bir chol uchrabdi. U Zimzim shahriga ketayotgan ekan. Qizning bu so‘zlarini eshitib, hayron bo‘libdi. Chol shaharga yetganda, yigitlar hali uylariga kirib ketmagan ekanlar. Chol: bir otliq odam ketyapti, yonida kuchugi bor, kuchugiga:

O‘ynang, kuchugim, o‘ynang,
Zimzim shahriga borib,
Qiz bordim-u, qiz qaytdim.
O‘ynang, kuchugim, o‘ynang, —

deb, kuchugini o‘ynatib ketayotibdi, — debdi. Yigitlar esa uni sinab bilisha olmaganiga juda pushaymon bo‘libdilar.

Qiz esa yurtiga yetib boribdi. Borsa, otasi hali ham kasal ekan. Olmurut shoxini qaynatib, otasiga ichkizgandan keyin otasi tuzalib ketibdi. Shundan keyin ota-ona, opa-singil, hammasi sog‘-salomat yashab, murod-maqsadlariga yetgan ekanlar.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

«Zumrad va Qimmat» ertagiga ishlangan rasm

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kulsa – gul, yig‘lasa – dur

Bir chol bilan kampir bor ekan. Chol daladan o‘tin terib kelib, uni sotib tirikchilik qilar ekan. Chol bilan kampirning farzandlari yo‘q ekan. Kunlardan bir kuni chol daladan o‘tin olib kelayotganda, unga Xizr yo‘liqib:

— Bolang bormi? — deb so‘rabdi.

Chol:

— Yo‘q, — debdi.

Xizr unga bir qizil olma berib:

— Yarmini o‘zing, yarmini xotining yesin! Keyin xotining qiz tug‘adi. Qizing yig‘lasa, ko‘zidan gavhar to‘kiladi, kulsa, og‘zidan ochilgan gul tushadi, yursa oyog‘i tagidan tilla sochiladi. Katta bo‘lgandan keyin ozor chekadi, — debdi.

Xizr aytgandek, onadan bir qiz tug‘ilibdi. Yig‘laganida qizning ko‘zidan gavhar to‘kilibdi. Uch oylik bo‘lganidan keyin kulsa, og‘zidan ochilgan gul ham to‘kilar emish. Shu gavharlarni, shu gullarni otasi bozorga olib borib sotib, uylar qurib olibdi.

Qiz o‘n besh yoshga kirganda Buxoro podshosining o‘g‘lidan sovchi chiqibdi. Unga otasi ancha vaqtgacha bermay yuribdi. Podsho zo‘rlik qilib olmoqchi bo‘libdi. O‘tinchi oxiri qizini shahzodaga berishga majbur bo‘libdi. Lekin ko‘p qalin so‘rabdi:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Yuzta sigir, yuzta tuya, ikki yuzta ot va ming tilla bersa qizimni beraman, — debdi. Sovchilar „Xo‘p“, deb ketishibdi.

„Bermas qizning qalini ko‘p“ deganday, o‘tinchi xotiniga aytibdi:

— Men ulardan ko‘p qalin so‘radim, ular olib kelmaydilar.

Bir necha kun o‘tgach, o‘tinchi qizi uchun so‘ragan narsalarni sovchilar olib kelibdilar. Podsho bir aravada ikki erkak, yana bir aravada ikki ayol yuboribdi. Ular bilan ikkita otliq ham bor ekan. Qiz bilan birga boradigan odam yo‘q ekan.

Ikkinchi aravadagi ikki ayolga qizni qo‘shib jo‘natibdilar. Qiz va uni olib ketayotganlar yarim yo‘lga yetganda bir quduq yonida to‘xtabdilar. Aravadan tushib dam olibdilar, qiz suv ichmoqchi bo‘libdi.

Ikki ayolning biri qiz ekan. Yonidagi onasi ekan. Xotin erkaklarni nariroqqa yuborib, „kelin qochmasin“ deb, o‘zi va qizi kelin bilan birga qolibdi. Shunda suv ichib, non yemoqchi bo‘libdilar.

Qiz xotindan:

— Menga ham non bering, — deb so‘rabdi.

Xotin:

— Bir ko‘zingni o‘yib bersang, bir non beraman, — debdi. Qiz hayron bo‘libdi. Indamay o‘tiribdi. Qizning qorni juda och ekan, u toqatsizlanib yana non desa, xotin avvalgi gapini qaytaribdi. So‘ngra qizga shaftoliday non berib, uning ko‘zini o‘yib olibdi. Keyin qiz yana non so‘rabdi.

— Yana bir ko‘zingni bersang, non beramar, — debdi xotin.

Oxirida u qizning qimmatbaho kiyimlarini yechib olib, o‘z qiziga kiygizibdi. Keyin kelinning o‘rniga qizini aravaga o‘tqazibdi, kelinni esa quduqqa itarib yuboribdi. Keyin ular yo‘lga tushib ketibdi. Podshoning uyiga ikki chaqirim qolganda, podsho bir otliqni yuborib:

— Kelinni kelgan joyida aravadan tushirib, piyoda olib keling. Oyog‘idan sochilgan tillani lashkarlar terib kelsin, — debdi.

Yasovullar podshoning aytganicha kelinni piyoda olib kelibdilar. Lekin uning oyog‘idan hech qanday tilla sochilmabdi. Podsho buni bilib juda ham xafa bo‘libdi:

— Voy, uyim kuydi, oyog‘i tagida tilla yo‘q-ku!

Kelin kelgach, uni uyga kiritibdilar. Ketidan yerga qarasalar, oyoq tagida hech narsa yo‘q emish.

Kuyov uyga kiribdi, kelinni kuldirsa, og‘zidan gul ham sochilmabdi, yig‘latib ko‘rsa, ko‘zidan gavhar ham tushmabdi.

Kuyov o‘rnidan turib otasining oldiga chiqib:

— Ey, ota, uyimiz kuydi. Siz menga „Kulsa, og‘zidan gul sochiladi, yig‘lasa, gavhar to‘kiladi, yursa, oyoq ostidan tilla sochiladi“, degan

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
edingiz. Men olib bergan kelinigizni yig‘latdim, kuldirdim, yurgizdim, hech narsa bo‘lmadi, — debdi.

Endi ikki og‘iz so‘zni qizdan eshiting. Bir kambag‘al yo‘lovchi quduq yonidan o‘tayotib, qiziq hodisaga duch kelibdi. Quduq o‘rnida gavhar supa paydo bo‘libdi. Quduqqa tashlab ketilgan qizning ko‘zidan to‘kilgan gavhar bilan quduq to‘lib, uning ustida ko‘zi o‘yilgan bir chiroyli qiz o‘tirgan emish. Yo‘lovchi chol hayron bo‘lib, qizning holini so‘rabdi. Qiz boshidan o‘tganlarni aytib beribdi. Ikkisi ota-bola tutinibdi.

Qiz chol otasiga:

— Mening ko‘zimdan to‘kilgan gavharlardan shu yerga bir bino soldiring, — debdi.

Chol:

— Xo‘p, — debdi. Bir paxsasini oltindan, bir paxsasini kumushdan qilib bir bino solibdi. Chol qizni qo‘yarda-qo‘ymay uyiga olib ketibdi. Qiz bir necha oy cholning uyida yurgandan keyin, bir kuni kulibdi, uning og‘zidan ochilgan gul tushibdi. Otasi juda ham sevinibdi:

Qiz:

— Ota, shu gulni podshoning darvozasiga olib boring, gulning bahosini so‘rashsa, bahosi ikki o‘yilgan ko‘z deb ayting, — debdi. Chol podshoning darvozasi yoniga borib o‘tiribdi. Darvoza oldidagi xizmatchilar podshoning oldiga kirib:

— Bir kishi gul olib kelib o‘tiribdi, — debdilar.

Podsho gulni oldirib kelib, keliniga berib yuboribdi-da, choldan bahosini so‘rabdi, shunda chol:

— Gulning bahosi o‘yib olingan ikki ko‘z, — debdi.

Buni eshitgan podsho ichkariga kirib kelinga aytibdi. Kelin qutida turgan ikki ko‘zni olib:

— Bizga buning nima keragi bor? Mana, berib yubora qoling, — debdi-da, onasidan so‘ramay berib yuboribdi. Haligi chol sevinib ko‘zlarni olib ketibdi. Olib borib qiziga beribdi.

Qiz quvonib:

— Ota, siz eshikka chiqib turing, eshikni mahkam yopib qo‘ying, — debdi.

Eshik yopilib, uyda yolg‘iz qizning o‘zi qolganda, tuynukdan bir ko‘k kaptar uchib kirib bir silkinibdi-da, odam suratiga kiribdi. U qizning ko‘zini o‘z o‘rniga qo‘yibdi va bir dumalab kaptar holiga kelib uchib ketibdi. Shundan keyin qizning ko‘zi butunlay ochilib ketibdi. Sevinchidan qiz qichqirib yuboribdi. Qizning ota-onasi ham uyga kirib sevinibdilar. Oradan bir oy o‘tgach, qiz ertalab o‘lib, kechqurun tiriladigan bo‘lib qolibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Endi ikki og‘iz so‘zni podshonikidan eshiting. Qizning onasi yangi gulni ko‘rib qolibdi.

Qiziga:

— Gulni qayerdan olding? — debdi.

— Gulni ikki o‘yilgan ko‘zga alishtirib oldim, — deb javob beribdi qiz.

— Iye, bo‘lmasa, quduqdagi qiz o‘lmagan ekan-da, bu gul o‘shaniki. Endi sen ham o‘lasan, men ham o‘laman, — debdi onasi. Keyin u qizini qarg‘ab, chiqib ketibdi. Kampir folbinnikiga borib, fol ochtiribdi:

— Daryoning ichida bir oltin baliq bor. Baliqning ichida buloqi bor. O‘sha buloqini topib olsang, quduqda qolgan qizning jonini olgan bo‘lasan, — debdi.

Kampir podsho saroyiga kelib, kuyovini bir chetga chaqiribdi:

— Xotiningiz homilador, baliqqa boshi qorong‘i. Daryoning ichida bir oltin baliq bor, shuni tutib bering! — debdi.

Shahzoda navkarlariga buyurib, daryoning suvini oldirib, uning ichidagi katta oltin baliqni tuttirib kelibdi. Kampir uning ichidan buloqini topib olibdi.

Podshoning kelini buloqini burniga taqibdi. Kelin kunduzi buloqini taqqanda, quduqda qolgan o‘tinchining qizi o‘libdi, kechqurun burnidan buloqini olib qo‘yganda tirilibdi. Shunday ahvolda bir qancha vaqt o‘tibdi. O‘tinchining qizi bu holga chiday olmay xafa bo‘lib tilladan solingan uyga borib yotibdi.

Kunlardan bir kun shahzoda ov ovlab yurib, shu atrofga kelib qolibdi. Uning uchirgan qushi bir quyonni quvlab kelib, tilla binoning ustiga qo‘nibdi. Shahzoda o‘sha yerda nima bor ekan, qushim borib qo‘ndi, deb qarasa, bir tilla imorat ekan. Uning ichiga kirishga qo‘rqibdi, yonidagi yigitga:

— Sen kir, bunda nima gap ekan? —debdi.

Yo‘ldoshi kirib, qo‘rqib qaytib chiqibdi. Keyin shahzodaning o‘zi kiribdi. Kirsa, bir chiroyli qiz hushsiz bo‘lib yotganmish. Shahzoda uning yonida qizning kelishgan qaddi-qomatiga mahliyo bo‘lib o‘tiribdi. Shu holda kech bo‘lganini bilmay qolibdi. Kech bo‘lishi bilanoq, qiz birdan aksirib o‘rnidan turibdi. U yigitni ko‘rib:

— Siz kimsiz? — debdi.

Yigit ham qizga:

— Siz kimsiz, bu yerda nima qilib yotibsiz? — debdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Qiz yigitga boshidan o‘tganlarini birma-bir so‘zlab beribdi. Shahzoda qizning voqeasini eshitib bo‘lgandan keyin birdan:

— Voy, jonim, sen menga unashtirilgan qiz ekansan-ku! Men sening dardingda kuyib yurgan edim. Sen aytgan podsho mening otam bo‘ladi, — debdi.

Shahzoda qizdan:

— Nima qilsam sen tuzalasan? — deb so‘rabdi.

— Mening jonim daryodagi bir baliq ichidagi buloqida edi. U baliqni siz tuttirganingizdan keyin xotiningiz ichini yordirib buloqini olgan. Shu buloqini xotiningiz kunduzi taqqanda men hushsiz bo‘lib qolaman, o‘lik suratida yotaman, kechqurun burnidan olib qo‘yganda o‘zimga kelib tirilaman. U buloqini hozir olib qo‘ydi. Men o‘zimga keldim. O‘sha buloqini olib kelib bersangiz, men tuzalib ketaman, — debdi.

Yigit sevinib:

— Buloqini olib kelaman, — deb o‘rnidan turibdi. U otiga minib to‘g‘ri uyiga boribdi. Uyiga kirib tokchadagi buloqini olibdi. Xotiniga aytmasdan, yana orqasiga qaytib kelib qizga topshiribdi. Tong otibdi, lekin qiz kundagidek bugun hushidan ketmabdi. U butunlay sog‘ayib qolibdi.

Shahzoda qizni o‘zi bilan birga olib ketibdi. U qirq kecha-qirq kunduz to‘y-tomosha berib qizga uylanibdi.

Kampir bilan uning qizini otning dumiga bog‘lab, qirq chaqirim uzoqlikdagi changalzorga yuboribdi.

Qiz bilan yigit murod-maqsadiga yetibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Cho‘pon Ali

O‘tgan zamonda bir zolim, qonxo‘r xon bo‘lgan ekan. Xonning to‘rt xotini bo‘lib, bitta ham farzand ko‘rmagan ekan. Xon umrining oxirida eng kichik xotinidan bir o‘g‘il ko‘ribdi. Kundan kun, oydan oy, yildan yil o‘tibdi. O‘g‘li o‘sib ulg‘ayibdi, qomati kelishgan, aqli raso, rahmdil yigit bo‘lib yetishibdi.

Xon ko‘zining oq-u qorasi, bitta-yu bitta o‘g‘liga shamolni ham ravo ko‘rmas ekan. U o‘g‘lining rahmdilligidan, beva-bechoralarga har narsani ayamay berib yuborishidan g‘azablanar ekan. Lekin o‘g‘liga hech nima deyolmay, u bilan so‘zlashgan odamni o‘ldirtirar ekan.

Kunlardan bir kun shaharning chetidagi bir o‘rmonda yovvoyi to‘ng‘iz paydo bo‘lib, ekinlarni payxon qilib, xalqqa ko‘p zarar yetkazibdi. Hech kim to‘ng‘izni tutolmabdi. Aksincha, to‘ng‘iz o‘rmonga borgan odamlarni halok qilar ekan.

Buni eshitgan xonning o‘g‘li o‘rmonga borib to‘ng‘izni o‘ldirib kelish uchun otasidan javob so‘rabdi. Xon javob bermabdi.

Axiri xonning o‘g‘li otasiga bildirmay kiyinib, yarog‘-aslaha olib, bir o‘zi o‘rmonga otlanibdi. Darvozada turgan soqchilardan biriga:

— Men uch kunda qaytib kelsam kelganim, bo‘lmasa meni o‘ldi deb bilinglar, — debdi. Yigit o‘rmonga qarab yo‘l olibdi.

Yosh yigit o‘rmonga borib, ikki kecha-yu ikki kunduz to‘ng‘iz bilan olishibdi. Uchinchi kuni to‘ng‘iz uni ezg‘ilab, majaqlab tashlabdi. U halok

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

bo‘libdi. Xon o‘g‘lining ko‘rinmaganiga hayron bo‘lib, surishtiribdi. Hech kim aytmabdi. Axiri soqchilardan biri xonning o‘g‘li o‘rmonga ketganini va undan haligacha darak yo‘qligini aytibdi. Xon xavotir olib, o‘rmonga kishilar yuboribdi. Soqchilar, xizmatkorlar o‘rmonga borib, uni ko‘p axtarishibdi, axiri bir joyga borib qarasalar, yigitning kiyimlari va qurol-aslahalari har yer-har yerda yotgan emish, o‘zi bir daraxtning tagida o‘lib yotganmish. Yigitning halokatga uchragani ma’lum bo‘libdi. Xon: „Kimki o‘g‘lim to‘g‘risida sovuq xabar keltirsa, qornini yorib, qo‘rg‘oshin quyaman“, degan ekan. Xizmatkorlar juda xafa bo‘lishibdi. Xonga bildirish yo‘llarini o‘ylashibdi. Xonga aytsak, bizni o‘ldiradi, deb qo‘rqqanlaridan, nima qilishlarini bilmabdilar. Zolim xonning aytgan so‘zini eslab, tog‘ga chiqib ketishibdi. Tog‘da so‘zga chechan, qo‘shiqchi Ali degan cho‘pon yashar ekan. Saroy xizmatkorlari bo‘lgan voqeani cho‘ponga aytib berishib:

— Endi sen bizga yo‘l ko‘rsat, podshoga bu voqeani qanday aytamiz,— deyishibdi. Cho‘pon:

— Xafa bo‘lmanglar, hozir sizlar biroz dam olib turinglar. Bu baloni men daf qilaman, — debdi.

Cho‘pon bir daraxtni kesib, teshik dutor yasabdi. Xonning xizmatkorlari oldiga kelib:

— Qani yuringlar, xonning dargohiga boramiz, — debdi.

Ular xon saroyiga kelgandan keyin cho‘pon dutorni qo‘liga olib asta-sekin chala boshlabdi. Dutor nola qilibdi:

Yosh yigitning o‘rmonga borgani, to‘ng‘iz bilan olishgani va oxirida qahramonona halok bo‘lgani to‘g‘risida kuylabdi. Xon dutorning yurakni ezuvchi, g‘amli nolasidan o‘g‘lining halok bo‘lganini sezib qolibdi, g‘azablanib baqiribdi:

— Jallod, o‘rmonga borib kelgan bu kishilarning qornini yorib, qo‘rg‘oshin quy!

Cho‘pon o‘rnidan turib:

— Ey, xon, bu xabarni senga biz emas, mana bu dutor yetkazdi. Qo‘rg‘oshinni dutorning qorniga quya ber, — debdi.

Zolim xon nima qilishini bilmay, g‘azabiga chidolmay dutorning qorniga qo‘rg‘oshin quydiribdi.

Shunday qilib, xizmatkorlar zolim xon zulmidan qutulib qolgan ekanlar.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Zumrad va Qimmat

Bir zamonda katta bir soy bo‘yida kichkina bir uy bo‘lar ekan. Bu uyda chol, uning Zumrad degan qizi, o‘gay ona va uning Qimmat degan arzanda qizi turar ekanlar. Kampirning Zumradni ko‘rgani ko‘zi, otgani o‘qi yo‘q ekan. U hadeb qizni urib, qarg‘ab, ertadan kechgacha ishlatarkan, bechoraga birpas ham tinchlik bermas ekan.

Zumrad chiroyli, odobli, muloyim, aqlli qiz ekan. Uni bir ko‘rgan kishi yana ko‘rsam deb orzu qilar ekan. Xullas, u juda ajoyib qiz ekan. Qimmat esa ishyoqmas, injiq va dimog‘dor ekan. Uning butun kuni urish-janjal va to‘polon bilan o‘tar ekan.

Zumrad erta bilan barvaqt ko‘zasini ko‘tarib, soy yoqalab buloq boshiga borarkan, yo‘lda uchragan lola gullar boshlarini egib, unga salom berarkanlar. Zumrad maysalar ustida o‘tirib dam olganida gullar uni olqishlar, bulbullar quvonib unga hikoyalar aytib berarkanlar.

Ammo xuddi shu gullar kampirning arzandasini sevmas, uni erkalamas ekanlar, chunki bu qiz ularni yulib tashlar, xushbo‘y gullarni hidsiz deb tepkilar ekan. Shuning uchun ham ular Qimmat kelar bo‘lsa, qovoqlarini solib, yumilib qolarkanlar.

Bularning hammasi yovuz kampirning g‘azabini keltirar ekan. Kampir esa, buni Zumraddan ko‘rarkan.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Bir kun kampir Zumradni yomonlab, cholga do‘q uribdi:

— Qizing beodob, ishyoqmas, uni haydab yubor! Bo‘lmasa sen bilan bir nafas ham birga turmayman!

Chol nima qilarini bilmay qolibdi. Axiri kampir:

— Qizingni o‘rmonga oborib adashtirib kel! U bilan birga turmayman! — debdi.

Chol qizini adashtirib kelish uchun tog‘-toshlarni kezib, bir o‘rmonga boribdi. Ota-bola o‘rmon ichida uzoq yurishibdi. Axiri quyuq soyali bir joyga borib to‘xtashibdi. Keyin chol o‘tin kesgani ketibdi. Zumrad yolg‘iz qolibdi.

Shu paytda birdan shamol turibdi. Chol esa o‘rmondagi bir katta daraxtga boltasini osibdi-da, unga og‘irroq tosh bog‘lab, qattiq itarib yuboribdi. Bolta u yoqdan bu yoqqa urilib to‘qillayveribdi.

Shamol juda kuchayibdi. Bolta shamol kuchi bilan uzoq vaqt daraxtga urilib „to‘q-to‘q“ qilib tovush chiqaribdi.

Zumrad „Otam o‘tin kesayotibdi“, deb o‘ylab, otasini anchagacha kutibdi. Kech bo‘libdi, otasidan darak bo‘lmabdi. Shamol to‘xtabdi. Qiz o‘rmondagi chuchmomalarni terib yurib, bexosdan bolta osilgan daraxt tagiga borib qolibdi. Qarasa, otasi yo‘q emish.

— Voy sho‘rim qursin! Voy, otajon?! — deb uvvos solib yig‘lab, to‘rt tomonga yuguribdi. Hech kimdan darak bo‘lmabdi, qiz adashib qolibdi. O‘rmon unga yana ham vahimali bo‘lib ko‘rinibdi. Qiz qayoqqa borishini bilmay, axiri kichik bir so‘qmoqdan chopib ketaveribdi.

Zumrad uzoq yo‘l bosibdi. Qorong‘ida gullar uning yo‘lini yoritibdi. Ketaturib bir vaqt qarasa, uzoqda miltillagan chiroq ko‘rinibdi, itning hurigani eshitilibdi. Qiz o‘sha tomonga qarab yuraveribdi. Tezda kichik bir uyga yetibdi. Uyning derazasidan qarasa, bir kampir o‘tirgan emish. Qiz sevinib, kampir oldiga kiribdi, boshidan kechirgan voqealarni kampirga birma-bir aytib beribdi.

Uyga shunday chiroyli qizchaning kelganini ko‘rgan kampir juda quvonibdi. Bu kampir o‘rmonda yashaydigan sehrgar kampir ekan. Kampir qizning yig‘laganini ko‘rib:

— Ko‘p xafa bo‘lma, qizim, senga yordam beraman, — deb qizni ovutibdi. Qiz ham unga:

— Rahmat! Men sizni onamdek ko‘raman. Buyurgan ishingizni jonim bilan qilaman, — deb javob beribdi.

Shu choq kampirning uyi tepasiga juda ko‘p qushlar yig‘ilibdi, ular qizchani maqtab, sayrashibdi. Qushlar tilini bilgan sehrgar kampir yana ham quvonibdi. Xosiyatli qizga dunyoda topilmaydigan rasmli kitob va qo‘g‘irchoqlar berib:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Oppoq qizim, shirin qizim! Do‘mbog‘im, munchog‘im! — deb qizning boshini silab erkalabdi.

Ular uzoq vaqt birga turishibdi. Kampir qizchani yaxshilab parvarish qilibdi. Zumrad ozoda qiz bo‘lgani uchun uyni supur b-sidirib, oynalarni artib-surtib, hamma yoqni chinniday qilib qo‘yar ekan. Buni ko‘rib kampir yana ham quvonar ekan.

Bir kun kampir qizga osh qilib bermoqchi bo‘lib:

— Tomdan o‘tin olib tush, qizim, — debdi. Qiz dik etib o‘rnidan turib:

— Xo‘p bo‘ladi, onajon, — deb darrov tomga chiqibdi.

Tom baland ekan, undan hamma yoq ko‘rinar ekan. Qiz atrofga qarab turib, birdan o‘z uyining tomini ko‘rib qolibdi. Yuragi orziqib yig‘lab yuboribdi. Buni eshitgan kampir:

— Nega yig‘laysan, jon qizim? — deb so‘ragan ekan. Qiz:

— Ko‘zimga uyimiz ko‘rindi, otamni sog‘indim, — debdi.

Kampir uni aldab-suldab yupatibdi, ikkovlari ovqat pishirib yeyishibdi.

Erta bilan kampir qizga:

— Narsalaringni yig‘ishtir, qizim! — debdi.

Qiz qo‘g‘irchoqlarini yig‘ishtiribdi. Kampir qizga:

— Tomda qizil va oq sandiq bor, oq sandiqni qoldirib, qizil sandiqni olib tush! — debdi-yu o‘rmonga kirib ketibdi. Bir vaqtdan keyin o‘rmondan saman ot qo‘shilgan bir arava yetaklab chiqib, qizni aravaga o‘tqazibdi.

— Qizil sandiqni uyga borgandan keyin och! — deb kampir qizga bir kalit beribdi.

Qiz kampir bilan qayta-qayta xayrlashib yo‘lga chiqibdi. Bir zumda arava qizning uyi oldida hozir bo‘libdi. Shu paytda uy eshigi oldida chol o‘z qizini sog‘inib, uning dardida yig‘lab o‘tirgan ekan. Qiz mehribon otasini ko‘rishi bilan:

— Salom, otajon! — deb otasining bag‘riga tashlanibdi.

Chol benihoyat xursand bo‘lganidan anchagacha ko‘z yoshlarini to‘xtatolmabdi. Axiri yig‘idan to‘xtab, qiziga:

— Oppog‘im, meni kechir, — debdi.

Ular uyga kirishibdi. Qizning kelgani hammaga ma’lum bo‘libdi. Qo‘ni-qo‘shnilar yig‘ilishibdi. Qiz qizil sandiqni ochishi bilan hamma hayron qolibdi: qizil sandiq asl mollar bilan liq to‘la ekan. Mol shuncha ko‘p, shu qadar ajoyib emishki, Zumradning butun umriga yetib ortar emish.

Bu narsa o‘gay onani og‘ir tashvishga solibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

U cholga qizi Qimmatni ham tezda o‘rmonga olib borib adashtirib kelishni buyuribdi. Chol „Xo‘p“ deb, Qimmatni darrov o‘rmonga adashtirib kelibdi.

Kech kirganda Qimmat, xuddi Zumradga o‘xshab, bolta osilgan daraxt tagiga borib qolibdi. Adashganini sezibdi. Ho‘ng-ho‘ng yig‘lasa ham, lekin uni ovutadigan odam topilmabdi. Faqat uning ro‘parasida boyqushlar o‘tirib olib, qorong‘i, vahimali o‘rmonlar haqida sayrarmish. Bu kuylar Qimmatni vahimaga solibdi. U qo‘rqib o‘rmondan qocha boshlabdi. Qorong‘i tushgan paytda sehrgar kampirning uyiga kirib boribdi. Kampir uni yaxshi kutib olibdi, ovutibdi, mehmon qilibdi. So‘ngra qizga qarab:

— Xafa bo‘lma, qizim, o‘zim yordam beraman, — debdi.

Ammo Qimmat kampirga yaxshi so‘zlar topib aytolmabdi, chunki onasi unga yaxshi so‘zlar o‘rgatmagan ekan. Kampir uni sevmabdi, yaxshi ertaklar ham aytib bermabdi, dunyoda topilmaydigan suratli kitoblar va qo‘g‘irchoqlar ham bermabdi.

Qimmat ertadan qora kechgacha yalqovlanib o‘tiraverar ekan. Uyni yig‘ishtirib, supurmas ekan.

Bir kun kampir o‘rmondan qaytib kelib, unga:

— Tomdan o‘tin olib tush, qizim! — degan ekan, qiz:

— O‘zingiz olib tushing, malayingiz yo‘q! — debdi.

Kampir judayam xafa bo‘libdi, shunga qaramay qizni aldab-suldab tomga chiqaribdi. Lekin qiz o‘tin olib tushish o‘rniga tom boshida chinqirib yig‘layveribdi. Kampir buni eshitib:

— Nega yig‘laysan, qizim? —deb so‘ragan ekan, Qimmat yer tepinib:

— Uyimni ko‘rdim, ketaman, — deb yana ho‘ngrabdi.

Sehrgar kampir qizga:

— Juda yaxshi, tomdagi sandiqni olib tush, — debdi.

Qimmat sandiqni olib tushibdi. Keyin kampir qizga bir kalit uzata turib:

— Mana kalit, sandiqni uyingga borganingda ochasan, — debdi.

Qiz o‘sha onda yig‘isini ham unutib, oq sandiqni orqalab jo‘nabdi. Sehrgar kampir unga arava ham bermabdi, qiz og‘ir sandiqni ko‘targanicha uyiga piyoda kelibdi.

Qizning kelishini dastavval olapar it sezibdi. U Qimmatning onasi oldiga borib:

— Vov, vov, vov, — degan ekan, kampir quloq solmabdi, it yana vovullab:

— Opam kelayotirlar, orqalaganlari oq sandiq, ilon bilan liq to‘liq, — debdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kampir g‘azablanib, o‘qlog‘i bilan itni urib, o‘yog‘ini sindiribdi.

— Mening aqlli qizim qimmatli mollar keltiradi, — debdi u.

Qizining kelganini ko‘rib kampir o‘zida yo‘q sevinibdi. Qo‘ni-qo‘shnilar yig‘ilibdi, sandiqni ochmoqchi bo‘lishibdi.

Shunda kampir bilan qizi ikkisi: „Yo‘q, ochmanglar!“ deb o‘zlarini sandiq ustiga tashlabdilar. Keyin ikki qulog‘idan ko‘tarib uyga olib kiribdilar.

Yarim kecha payti ekan, kampir bilan qiz eshik-el kni yopib, sandiqni ochishibdi-yu birdaniga „Voydod, qutqaringlar!“, „Ajdar!“, „Voydod!“ deb baqirishibdi...

Sandiqda kattakon ikkita ajdar yotgan ekan. Qo‘shvosh kampir bilan uning urishqoq qizi dodlashib, uyni gir-gir aylanishibdi, qo‘rqqanlaridan qulflangan eshikni ochisholmabdi.

Ikki ajdar kampir bilan qizni yutib, darchadan chiqib ketibdi.

„Dod, voy!“ degan ovozni eshitgan qo‘ni-qo‘shnilar eshikni buzib ichkari kiribdilar. Qarasalar, hech kim yo‘q emish. Uyda yovuz kampirni ham, uning urishqoq qizini ham topolmabdilar.

Shundan so‘ng oq ko‘ngil Zumrad bilan ota ikkisi tinchgina yashab, murod-maqsadlariga yetibdilar.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Oltin olma

O'tgan zamonda ikki qo'shni yashagan ekan. Biri boy-u, lekin befarzand, ikkinchisi esa bola-chaqasi ko'p-u, biroq nihoyatda kambag'al ekan. Bola-chaqasi ko'p kambag'al qo'shnining uyi kecha-yu kunduz shovqin-suron, to'polon, vag'ir-vug'ur bo'lib, boy qo'shnisinikiga hech tinchlik bermas ekan.

Bir kun boy qo'shnisiga chiqib:

— Tinchlik berasizlarmi, yo'qmi, yeyishga ovqatlaring yo'q, hamma yoqdan qarz bo'lib yotibsanlar-ku, kechasi-yu kunduzi uylaringda kulgi, shovqin-suron, bu nima degan gap! — deb do'q uribdi. Shunda kambag'al javob qaytaribdi:

— Ey, qo'shni, bizning oltin olmalarimiz bor. Shularni dumalatib, o'ynab dimog'imizni chog' qilamiz. Shuning uchun bizning uyimizdan kulgi arimaydi, — debdi.

Bu so'zni eshitgan boy qo'shni indamay o'z uyiga kirib xotiniga:

— Xotin, sandiqni och, oltinlarni ol, men ularni zargarga olib borib ikkita oltin olma yasatib kelay, so'ngra biz ham shod-xurram bo'lib yashaymiz, — debdi.

Xotini sandiqdan oltinlarni olib eriga beribdi. Boy ularni zargarga olib borib ikkita oltin olma yasatibdi. Olmalarni olib kelib uyida er-xotin rosa

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

dumalatishibdi. Biroq har ikkisida hech qanday kulgi paydo bo‘lmabdi. Ular oltin olmalarni dumalata-dumalata charchab, endi qanday qilsak biz ham kulib, xursand bo‘lar ekanmiz, deb o‘ylashibdi. Nihoyat boy yana qo‘shnisidan so‘rabdi:

— Qo‘shni, biz ham oltin olmalarni er-xotin juda ko‘p dumalatib-dumalatib hech qanday xursandchilikka ega bo‘lolmadik. Buning siri nimada, aytib bering-chi? —debdi. Shunda qo‘shnisi:

— Ey, boy ota, bizning oltin olmalarimiz, kulgimiz, baxtimiz mana shu bolalarimiz. Biz har kuni shular bilan quvonamiz, kulamiz, yayraymiz. Natijada qiyinchiliklarimiz ham unutilib ketadi. Bular bizning bozorimiz, — degan ekan.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Bola – podshodir

O‘tgan zamonda bir podsho:

— Dunyoda mendan ham zo‘r odam bormi? — deb Jiyroncha chechan nomli kishiga aytibdi. Jiyroncha:

— Ey, taqsir, dunyoda sizdan ham zo‘r odam bor, men topib beraman, — debdi.

Podsho:

— Topib bera olmaysiz, dunyoda mendan zo‘r odam yo‘q. Istagan odamimni o‘ldiraman, zindon qilaman, — debdi. Shunda Jiyroncha chechan podshoning kichik o‘g‘lini ko‘tarib otasining oldiga qo‘yibdi. Bola otasiga:

— Ota, suv! — debdi. Podsho tura solib suv olib kelib beribdi.

Jiyroncha chechan kulib o‘tiraveribdi. Bir vaqt bola:

— Ota, sut bering! — debdi. Sut keltiribdilar. Bola:

— Ota, aralashtirib bering! — debdi. Podsho suvni sutga aralashtirib beribdi. Bola:

— Ota, suvni sutdan ajratib bering! — debdi. Shunda podshoning jahli chiqib:

— Sutni suvdan qanday ajratib bo‘ladi? —debdi. Bola yig‘lab, xarxasha qila beribdi. Shunda Jiyroncha podshoga qarabdi. Podsho:

— Haqiqatan, bola mendan ham zo‘r podsho ekan! — debdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Tan sihatlik – tuman boylik

O‘tgan zamonda bir qashshoq odam donishmand cholning oldiga kelib:

— Ota, yeyishga nonim, kiyishga kiyimim yo‘q, juda qiynaldim, nima qilishimni bilmay qoldim. Endi qayerga borib dod desam ekan? — debdi. Chol:

— Sen kambag‘almisan? — desa, u:

— Ha, bola-chaqalarim va o‘zim ochman, kiyim-kechagimiz yo‘q, — deb nihoyatda zorlanibdi.

Chol:

— Xo‘p, bo‘lmasa menga o‘ng qo‘lingni sot, necha pul beray? — desa, haligi yigit:

— Yo‘q, o‘ng qo‘lim o‘zimga kerak, sotmayman, — debdi. Shunda chol:

— Bo‘lmasa o‘ng ko‘zingni sot, — debdi. Yigit:

— Nega men o‘ng ko‘zimni sotar ekanman, u menga doimo kerak, — debdi.

Chol shu tarzda yigitning tana a’zolarini birma-bir sotgin, deb aytib chiqibdi. Yigit „yo‘q“ javobini qaytaravergach, chol yigitga:

— Ha, butun muchalaring sog‘ bo‘lsa, turmushdan zorlanib nima qilasan. Kishining tan-joni sog‘ligi — tuman boyligi-ku. „Sog‘ tanda — sog‘ aql“, deb bekorga aytmaganlar. Sog‘ bo‘lsang qanday ish bajarsang, qo‘lingdan keladi. Kuning o‘tadi, — deb javob qaytargan ekan.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

«Dono qiz» ertagiga ishlangan rasm

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Dono qiz

Qadim zamonda bir podsho o‘tgan ekan. Kunlardan bir kun podsho o‘z eliga ikkita savol beribdi.

— Shirindan shirin nima? Achchiqdan achchiq nima?

Podsho bu savolni yechish uchun odamlarga qirq kun muhlat beribdi: „Agarda hech kim savolni yecha olmasa, yurtga qirg‘in solaman“, debdi. Bu savolga hech kim to‘g‘ri javob topa olmabdi. Podsho zulmidan qo‘rqqan xalq boshqa tomonlarga qarab qochib keta boshlabdi.

Shu mamlakatda bir kambag‘al chol qizi bilan kun kechirar ekan. Ko‘chadagi shovqinlarni eshitib, qiz tashqariga chiqib qarasa, odamlar to‘p-to‘p bo‘lib qochib ketyapti. Qiz ulardan nima sababdan qochayotganliklarini so‘rabdi. Shunda qochayotganlardan biri shunday debdi:

— Podsho butun xalqqa savol bergan. Savolini yechish uchun qirq kun muhlat qo‘ygan. Agarda hech kim yecholmasa, yurtga qirg‘in soladi.

Shunda qiz otasini chaqirib unga:

— Otajon, siz podshoning oldiga borib savolini yeching va yurtni zulmdan qutqaring! — debdi. — Birinchi savolga „Shirindan shirin — bola shirin“. Ikkinchi savolga „Achchiqdan achchiq — o‘lim achchiq“, deng, — debdi.

Chol podshoning oldiga borib, savoliga javob beribdi. Podsho choldan kim aytganini so‘rabdi. Chol o‘z qizining aytganini ma’lum qilibdi. Podsho

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

qizning donoligiga hayron qolibdi. Qizning donoligini yana sinash uchun podsho odamlariga:

— Borib ayt, o‘sha qiz ho‘kizni bolalatib bersin — debdi. Bir qancha kundan keyin podsho odamlari qizning oldiga kelib

— Ho‘kizni bolalatdingmi, — deb so‘rabdilar. Shunda qiz:

— Dadam hammomga tug‘gani ketgan, kelsa javobini aytaman, — debdi. Kelgan odamlar qah-qah urib kulishib:

— Hech vaqt erkak kishi ham tug‘adimi, — deganda, qiz:

— Ho‘kiz bolalaganda, nima uchun erkak kishi tug‘masin, — deb odamlarni mot qilibdi.

Bu gapni odamlar podshoga aytib beribdilar. Podsho qizning aqlliligiga qoyil qolibdi va qirq kecha-yu qirq kunduz to‘y-tomosha berib, shu qizga uylanibdi. Kunlarning birida podsho ovga ketibdi. Darvozaning oldida odamlarning janjallashayotgan tovushi qizning qulog‘iga eshitilibdi. Qiz qarasa, ikkita qo‘ychivon mojaro qilib turgan ekan. Shunda qiz ulardan janjalning sababini so‘rabdi. Har ikkisining ham bo‘g‘oz qo‘yi bor ekan. Kechqurun bittasining qo‘yi tug‘ib, ikkinchi qo‘ying tagiga yotib olibdi. Qiz ikkovining mojarosini to‘xtatib turganda podsho kelib qolibdi. Xotinining ko‘chaga chiqib turganini ko‘rib, g‘azablanibdi va saroydan xohlagan narsasini olib otasining oldiga jo‘nashini aytibdi. Shunda qiz ketmasdan turib, podsho bilan oxirgi marta o‘tirish qilib, ziyofat berishni so‘rabdi. Podsho rozi bo‘libdi.

Qiz xilma-xil noz-u ne’matlarni podshoning oldiga qo‘yib, rosa may ichiribdi. Shunda podsho sarxush bo‘lib, yotib qolibdi. Qiz soyavon aravaga podshoni yotqizib, aravakashga bozorlarni aylantirib yurishni aytibdi. Bir vaqt podsho ko‘zini ochib qarasa, xotini bilan aravada bozorlarni aylanib yurgan emish. Shunda podsho xotinidan:

— Nima uchun meni bunday qilib olib yuribsan? —deb so‘rasa, qiz shunday debdi:

— Ey, podshohim, o‘zingiz uydan xohlagan narsangni olib, otangnikiga ket, dedingiz. Uy ichidan xohlaganim siz edingiz, endi uyga olib ketyapman, — debdi.

Podsho qizning donoligiga, aqlliligiga qoyil qolib, u bilan yana turmush kechiravergan ekan.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Bo‘z bola

Bor ekan-u yo‘q ekan,
Och ekan-u to‘q ekan.
Bo‘ri bakovul ekan,
Tulki yasovul ekan,
Qarg‘a qaqimchi ekan,
Chumchuq chaqimchi ekan.
Ko‘chmanchilik zamonda
Atoqli boy bor ekan.
Sevib olgan yoridan
Sevinchog‘i yo‘q ekan.
Davlat desang hisobsiz,
Yilqi, qo‘yi sanoqsiz.
Shuncha davlatda, esiz,
Bir o‘g‘ilga zor ekan.

Boy bolasi yo‘qligidan kecha-kunduz qayg‘urib, yegan-ichganida halovat yo‘q ekan. Sig‘inmagan mozori, madad tilamagan aziz-avliyolari qolmabdi. Oxirida xotini ikkiqat bo‘lib, bir o‘g‘il tug‘ibdi, oydek bola ekan. Boy suyunganidan ikki kecha-kunduz to‘y-tomosha qilib butun

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

yurtga osh beribdi. To‘yga yig‘ilganlar bolaga Bo‘z bola deb ot qo‘yibdilar. Bo‘z bolaning beshik to‘yi kuni onasi dunyodan ko‘z yumibdi. Boy bir yaxshi enaga topib kelib, bolani o‘z uyida boqtiribdi. Shu kunlarda bir yaxshi ko‘radigan davlat boshi echkisi tug‘ib, u echkining bolasi o‘lgan ekan. Echki har kuni daladan o‘tlab-o‘tlab, boyning uyiga kelib sut berib ketar ekan. Shu sut bilan bolani boqishar ekan.

Bo‘z bola tez kunda ulg‘ayib, katta bo‘lib, tili chiqibdi. Bo‘z bola ikki yashar bo‘lganda boy ikkinchi xotin olibdi. O‘gay ona keyinroq bir o‘g‘il tug‘gandan keyin Bo‘z bolaga hasad qila boshlabdi. Bolani yaxshi yuvib-taramay, ozoda qilib qo‘ymay, bir chekkada, eski ko‘rpada yotqizib, uning qorni ochib non desa, urishib-ziriqtirib, bir tomonga uloqtirib xo‘rlabdi. O‘gay ona Bo‘z bolani yo‘q qilib, boyning davlatiga o‘z bolasini ega qilmoq fikriga tushibdi.

Bo‘z bola yoshi ulg‘aygach, maktabga boribdi. U har kuni maktabdan kelganda otasi uni yoniga olib o‘qitib ko‘rib, shirin gaplar bilan uning ko‘nglini ko‘tarar ekan. O‘gay ona uni ko‘rolmay, o‘z bolasini boyga tiqishtirib: „Qoch, kap-katta bola bo‘lib, otang yonida o‘tirgani uyalmaysanmi? Mana, ukang otam tizzasida o‘tiramani, deb talpinyapti“, deb turtkilar ekan. Shunday bo‘lsa ham otasining yana Bo‘z bolani erkalatganini ko‘rib xotinining g‘ashi kelib, uni juda yomon ko‘rar ekan.

Bo‘z bola har doim ukasini ko‘tarib, unga mehribonlik qilgani uchun ukasi uni yaxshi ko‘rar ekan. Oradan uch-to‘rt yil o‘tgandan keyin, Bo‘z bolani boqqan echki juda ham ajoyib, chiroyli bir echkicha tug‘ibdi. Uni Bo‘z bola „Meniki“, deb qulog‘ini tishlab, o‘z qo‘li bilan boqibdi. Ona echki ham har kuni ikki-uch mahal kelib, bolasini emizib, dalaga o‘tlagani chiqib ketar ekan. Echkicha bo‘lsa Bo‘z bola bilan o‘ynashib yurar ekan. Bo‘z bola echkichani so‘zga o‘rgatibdi. O‘gay onasidan xo‘rlanganda, echkisi bilan so‘zlashib, qayg‘usini tarqatar ekan. O‘gay ona Bo‘z bolani har qancha xo‘rlasa ham u indamas ekan. O‘gay ona bunga chidolmay chora izlay boshlabdi. Uning peshonasi burishgan, xudo bilan urishgan bir kampir onasi bor ekan. U makr-hiylaga juda usta ekan.

O‘gay ona unga maslahat solibdi. Kampir aytibdi:

— Ering savdoga ketganda, har kuni Bo‘z bola non so‘raganda, unga kuygan kulcha ber, o‘z o‘g‘lingga bo‘lsa yog‘liq non ber. Ana shunaqa qilsang, Bo‘z bola sendan arazlab biror tomonga ketib qoladi yoki otasiga chaqadi, shunda sen aybni Bo‘z bolaga qo‘yib, shallaqilik qilib tursang, eringning achchig‘i chiqadi. Shunda ering bolani biror tomonga yuboradi. Sen Bo‘z boladan qutulasan-qolasan.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Eri savdoga ketgan kundan boshlab o‘gay ona kampirning aytganini bajaribdi. Bo‘z bola onasining ishiga nima qilarini bilmay xafa bo‘lib, bog‘ga chiqib o‘tirsa, echkichasi o‘ynoqlab oldiga kelibdi. Echki Bo‘z bolani xafa ko‘rib:

— Ha, Bo‘z bolaxon, nega buncha xafasiz? — debdi. Bo‘z bola unga:

— Ey, qo‘ysang-chi, so‘raganing bilan biror narsani uddasidan chiqsang ekan, men senga aytsam, qo‘y, nima qilasan so‘rab, — debdi. Echkisi bo‘lsa:

— Akajon, menga so‘zlang, balki men biror chorasini ko‘rarman, bo‘lmasa yana boshqa yo‘l toparmiz, — debdi. Echkisining bunday dono so‘zlaganiga Bo‘z bola hayron qolibdi va unga o‘gay onasining to shu choqqacha xo‘rlab kelganini, ayniqsa, otasi savdoga ketgandan keyin har kuni maktabdan kelganida bittadan kuygan kulcha bera boshlaganini, o‘z bolasiga yog‘liq non berib, uni juda xo‘rlayotganini so‘zlab yig‘labdi. Echki unga dildorlik qilib:

— Qo‘ying, kuygan kulchani menga bering, men sizga yaxshi ovqat topib beraman, — debdi. Bo‘z bola nonni echkisiga to‘g‘rab beribdi, echki nonni yeb olib, yig‘lab duo o‘qibdi. Bo‘z bola qarasa, oldida bir tovoq osh turgan emish. Bo‘z bola oshni yeb qornini to‘yg‘azibdi.

Mana shunday qilib, har kuni kuygan nonni echkiga berib, o‘zi oshni yeb o‘ynab-kulib yura beribdi.

Bu voqeani bir kun o‘gay ona ko‘rib qolib o‘z onasiga so‘zlabdi. Kampir bir oz o‘ylab turib:

— Buning ishi oson, sen ering kelar kuni o‘zingni kasallikka solib yot, ering so‘rasa: „Menga jin tegibdi“, degin. Folbin: „Bo‘z bolaning echkisini so‘yib xudoyi qilsang yaxshi bo‘lasan“, dedi, degin. Ering so‘zingni qaytarmaydi-da, echkini so‘yadi, shunda sen qutulasan-qo‘yasan, — debdi.

Xotin eri kelgan kuni onasi aytgandek qilib, yig‘lab eriga zorlanib so‘zlabdi, eri darrov qassobni chaqirib echkini so‘yishga buyuribdi. Echki dod-bedod qilib xarchand yalinsa ham quloq solmay so‘yibdilar. Go‘shtini xudoyi qilib, kallasini somonxonaga ko‘mibdilar. Bo‘z bola maktabdan kelsa, echkisi yo‘q. Ukasidan so‘rasa, ukasi:

— Otam keldilar, onam kasal bo‘ldi, echkingizni so‘ydirib xudoyi qildik, kallasini somonxonaga ko‘mdik, — debdi. Bo‘z bola qarasa, voqea ukasi aytganday. Bo‘z bola ukasiga:

— Endi bizga bu yurt harom bo‘ldi. Onamga ham, otamga ham ayt, endi mendan butunlay qutuldilar, men ketdim, — deb jo‘nabdi. Chunki

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

echkisi bir kun ilgari Bo‘z bolaga: „Ertaga otang keladi, onang meni so‘ydirib xudoyi qiladi. Meni so‘ydirgandan so‘ng sen bu yerda turma. Onang senga ziyon qiladi, boshqa tomonga ket“, degan ekan.

Bo‘z bola ketayotgan ekan, ko‘chada ikki jonajon o‘rtog‘i uchrab:

— Yo‘l bo‘lsin? — debdi. Bo‘z bola ularga hamma voqeani aytib:

— Endi men bu yerda turmayman, xayr, ketdim, — debdi. Ikki o‘rtog‘i:

— To‘xta, bo‘lmasa biz ham sen bilan birga boramiz, biz ham senga o‘xshash o‘gay ona qo‘lida ezilganlardan, sen qaygа borsang, biz ham o‘sha yerga boramiz, — deb birga jo‘nashibdi. Bo‘z bolaning otasi o‘g‘li ketib qolayotganini bilib ketidan yugurib chiqib chaqiribdi, bolalar qaramay keta beribdilar. Otasi Bo‘z bolaga, „Bo‘lmasa biror narsa olib ket“, deb shuni aytibdi:

Bo‘z bolaxon,
Bo‘z bola,
Bo‘zlarda bitgan lola.
Qo‘tondagi qo‘ylardan
Haydab ketgin Bo‘z bola.

Bo‘z bola indamay ketaveribdi.

Otasi yana yalinibdi:

Bo‘z bolaxon,
Bo‘z bola,
Bo‘zlarda bitgan lola.
Yilqidagi otlardan
Mina ketgin, Bo‘z bola.
Bo‘z bolaxon,
Bo‘z bola,
Bo‘zlarda bitgan lola.
Bo‘g‘chadagi to‘nlardan
Kiya ketgin, Bo‘z bola.
Bo‘z bolaxon,
Bo‘z bola,
Bo‘zlarda bitgan lola.
G‘aznadagi pullardan.
Ola ketgin, Bo‘z bola.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Bo‘z bolaning juda ham achchig‘i chiqib:

Qo‘tondagi qo‘ylaring,
Un-oshingga so‘yilsin.
Yilqidagi otlaring
Ma’rakangga so‘yilsin.
Bo‘g‘chadagi to‘nlaring
Tovutingga yopilsin.
G‘aznadagi pullaring
Tovutingdan sochilsin, —

deb otasining so‘ziga qaramay, badar keta beribdi. Uch og‘ayni yo‘l yurishibdi, yo‘l yurishsa ham mo‘l yurishibdi.

Qumlar bosib, cho‘l kezib,
Daryo kechib, tog‘ oshib,
Uch og‘ayni yurdilar
Gurunglashib, o‘ynashib.

Yurib-yurib bir daraxtzorga borishibdi, biroz ovqatlanib, dam olib o‘tirishgan ekan, bir daraxt shoxida bir lochinni ko‘rishibdi. Uni tutib olib keta berishibdi. Yo‘lda tog‘ orasida bir tozi it yurgan ekan, uni ham tutib olishibdi.

Yo‘lda qush bir tomonga qarab intilibdi, qarasalar bir to‘da kaklik yurgan ekan, qush shu kakliklarga intilgan ekan. Itni yuborib, kakliklarni uchirib, qushni solishibdi. Qush kakliklardan birini olib davra solib ko‘tarilib ucha beribdi. It ham qushning ketidan chopaveribdi. Bular ham qush bilan it ketidan max-maxlashib, quvib keta beribdilar. Qush borib-borib bir yerga qo‘nibdi.

Qush tushgan joyga borsalar, bir ulug‘ daryo labida xonlar saroyiga o‘xshash bir imorati oliy bor emish. Qush esa shu imoratning kungurasiga qo‘nibdi. Qushni chaqirsalar sira qaramabdi. O‘zi kelar, deb bir daraxt tagiga o‘tirib, ovqatlanib, yaslanib uxlab qolishibdi. Bulardan birining uyqusi kelmay o‘tirgan ekan, saroydan bir qiz chiqibdi, uning qo‘lida oltin obdasta bor ekan, u qiz daryodan suv olib turib yotganlarga qarab, Bo‘z bolaning chiroyiga mahliyo bo‘lib, qo‘lidagi oltin obdastasini daryoga tushirib yuboribdi. Qiz kelib, uyg‘oq yigitdan:

— Sizlar kimsizlar, qaydan kelasizlar, qayga borasizlar, bu yotgan ofatijon kim? — deb so‘rabdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Unga yigit butun boshidan o‘tgan, ko‘rgan-kechirganlarini so‘zlab, yotgan yigit o‘rtog‘i Bo‘z bola ekanini aytibdi va:

— Sen o‘zing kimsan, bu kimning joyi? —deb so‘rabdi.

Qiz:

— Bu saroy shu yurtning xoni Oytug‘dixonning qizi Oyparcha begimning maxsus saroyi, men uning cho‘risiman Xon bugun-erta qizini uzatadi, men Oyparcha begimning sochlarini yuvmoq uchun suvga chiqqan edim. Sizlarni ko‘rib, esim og‘ib, obdastamni suvga tushirib yubordim. Endi Oyparcha begimga nima deyman?! — deb yig‘labdi.

Yigitning qizga rahmi kelib, yechinib suvga sho‘ng‘ib, oltin obdastani topolmabdi. Qiz esa yig‘lab-yig‘lab saroyga kirib ketibdi.

Oyparcha begim cho‘rini koyib, kech qolganining sababini so‘rab obdasta bilan suvni talab qilibdi. Cho‘ri ko‘rganlarini so‘zlab, Bo‘z bolaning chiroyini xon qiziga maqtabdi, Oyparchaning shavqi ortib, qiziqib daryo tomonga qaratib qurilgan eshikchani ochib qarasa: aytganidek uch yigit yotibdi. Ular bir-biridan chiroyli, hammasidan ham cho‘ri qiz aytgandek o‘rtada yotgan Bo‘z bola juda ham chiroyli. Ko‘ra solib ishq o‘ti yuragiga tegib, „voh“ deb o‘zini tashlabdi. Cho‘ri qiz gulob sepib Oyparchani o‘ziga keltiribdi. Xon qizi cho‘ridan ikki olma keltirmoqni so‘rabdi. Cho‘ri ikki qizil olma keltirib beribdi. Oyparcha mo‘ljallab turib, olmani Bo‘z bolaga irg‘itib, uyg‘otibdi.

Bo‘z bola uyg‘onib qarasa, yuqori eshikchada bir qizil gul ochilib, kulib, yuz noz-karashma bilan buralib turibdi. Bu qanday qiz ekan yoki tushimmikan, deb ko‘zini uqalab qarab tursa, qiz bir qizil olmani Bo‘z bola tomon irg‘itib, eshikni bekitib, yana ochib qarabdi. Bo‘z bola ham bir ko‘rishdayoq oshiqi beqaror bo‘lib, yonidan ro‘molchasini olib, hilpiratib, yuragiga bosibdi, ya’ni xon qizining „Men seni sevaman, yaqinimga kel“, degan ishoratiga „Men ham seni sevaman“, deb yurak alangasini ishora bilan ma’lum qilibdi, irg‘ib o‘rnidan turib, saroy tagiga borib, uning kim ekanini so‘rabdi.

Ikkalasi bir-birining kim ekanligini so‘rashganidan keyin, xon qizi:

— Meni otam bir sevmagan xonzodaga bermoqchi, sen istasang boshqa tomonlarga qochib ketamiz, — debdi. Bo‘z bola:

— Mening ikkita o‘rtog‘im bor, ularni nima qilamiz? — debdi.

Qiz:

— Ular ketimizdan borarlar, sen kechqurun el uxlagan chog‘da shu yerga kel, men ikki ot bilan seni kutaman, birga qochamiz, — debdi.

Bo‘z bola „Xo‘p“ deb o‘rtoqlari yoniga qaytib, voqeani ularga aytib, kechqurun el uxlagan chog‘da do‘stlari bilan xayrlashib, saroy tomon borsa, qiz otlar bilan tayyor bo‘lib, kutib turgan ekan. Ikkalasi otlarga

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
minishib, saroy va yurti bilan xayrlashib, ota-onasi bilan xayr-ma'zurni nasiya qilib, hay-yo-hay, deb yo'lga tushibdi.

Ikkala yor jo'nadi,
Sahrolarni changitib,
Quvalashib, o'ynashib,
Tog'larda ot sakratib.

Shu yurganlaricha yo'l yurib, yo'l yurishsa ham mo'l yurib, besh kecha-yu besh kunduz deganda baland bir qo'rg'onga yetdilar, eshigidan kirib qarasalar, xonlar saroyidek oliy imoratlar-u ichida hech kim yo'q. Tavakkal qilib tushib qarasalar, uylar bezog'lik, gilamlar solingan, odam bolasidan hech zot yo'q. U yon-bu yon qarasalar, yo'qotilgan qush bilan it shu yerda ekan. Hayron bo'lib, qush va itga ovqat beribdilar, itning boshini silabdilar. Har ikkalasi u yoq-bu yoqni qarab, hamma yoqni o'zlariniki qilib olishibdi.

Bugun o'n kun bo'ladi deganda, haligi qolgan ikki o'rtoqlari ham yetib kelishib, Bo'z bolani shu qo'rg'ondan topishib, hammalari har kun galma-gal ov qilib, shu qo'rg'onda umr o'tkazib yurishibdi.

Endigi so'zni xon tomondan eshiting. Xon qizini turkman xonining o'g'liga bermoqchi ekan. Bular qochgan kunning ertasiga turkman xonining o'g'li as, asa-yu dabdaba bilan qizni kelin qilib tushirib olib ketmoqqa kelibdi. Eshitsa, xon qizi bir noma'lum kishi bilan qochgan yoki o'zi qochgan. Xon har tomonni qidirtirib kishilar yuboribdi, kuyov hayron bo'lib, qo'shin tushirib yota beribdi.

Qidiruvchilar bir qancha kunlar sarson bo'lib, oxiri yo'llari Bo'z bola turgan qo'rg'onga to'g'ri kelib qoladilar. Qarasalar, xon tomonidan qamoq qilib qo'yilgan qo'rg'ondan tutun chiqmoqda. Hayron bo'lib, bu yerga kim kelib, xondan qo'rqmay joy qilgan ekan, deb kirib qarasalar, qiz qochgan kuni xonning otxonasidan yo'qolgan otdan biri turibdi. Ular birga kelgan kampirni ichkari kirgizibdilar. Kampir sekin qaytib chiqib: „Xon qizi shunda ekan", debdi. Yasovullar bosib kirib, Bo'z bolani tutib, tut yog'ochga bog'lab, xon qizini behush qilib otga o'ngarib ketmoqchi bo'lganlarida, Bo'z bola yig'lab yigitlarga qarab shunday debdi:

Tog'dan kelgan botirlar,
Yaxshi yigit shotirlar,
Yorim olib ketmanglar,
Bizga zulm etmanglar!

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Shunqorimni soldirib,
Burgutlarga oldirib,
Tutga bog‘lab qoldirib,
Meni tashlab ketmanglar!

Birga elting bo‘lmasa,
Yo o‘ldiring bo‘lmasa,
Yigit bo‘lib, ot minib,
Nomardlikni qilmanglar!

Yigitlardan birining achchig‘i chiqib:

— Xon qizini o‘g‘irlab kelib, yana tilingni tiymaysan, — deb qilich bilan bir uribdi, qizni olib jo‘nashibdi.

Kechqurun ikki o‘rtog‘i ovdan qaytib kelsalar, Bo‘z bolani o‘ldirib, Oyparchani o‘g‘irlab ketibdilar. Bo‘z bola uchun yig‘lab, o‘ligini tutdan yechib olib, o‘tirib maslahat qilib, o‘rtog‘imizning o‘ligini begona joylarda qoldirmaymiz, deb otga ortib jo‘nashibdi. Yura-yura adashib Oytug‘-dixonning shahariga kelib qolishibdi. Endi, xon bilib qolmasin, deb Bo‘z bolaning o‘ligini bir yerga ko‘mib, ustiga qovoq ekib, uning atrofini obod qilib, chayla tikib, ikkalasi darvesh kiyimini kiyib, o‘rtoqlarining boshidan duoyi takbir qilib o‘tirishibdi.

Xon qizi saroyga keltirilgandan keyin, qiz otasiga:

— Men endi er qilmayman, — debdi.

Xon, noiloj, kuyovni qancha sarpolar bilan aldab, zo‘rg‘a jo‘natibdi. Oyparcha o‘z saroyidan boshqa yerlarga chiqmay, Bo‘z bola ishqida kecha-kunduz yig‘lab yotib olibdi. Doim ishi biror yurtdan bir darvesh yoki jahongashtalardan kelib qolsa, ularni gapga solib, Bo‘z boladan darak so‘rar ekan. Chunki u Bo‘z bolaning o‘lganini ko‘rmagan, hali tirik deb gumon qilar ekan. Darveshlar kelsa kuylatib, ko‘rgan-kechirganlaridan so‘ylatib, shuning bilan ovunar ekan. Bir kuni uning bir cho‘risi Bo‘z bola tomonidan o‘tib qolib, uning darvesh o‘rtoqlari g‘am-alamli kuylab o‘tirganlarini eshitib, Oyparchaga so‘zlab beribdi. Oyparcha darrov kishi yuborib, o‘sha ikki darveshni keltirib, gapirib, kuylab bermoqlarini so‘rabdi. Darveshlar darhol Oyparchani tanib, o‘rtoqlari Bo‘z bola eslariga tushib, ko‘z yoshi qilib yuraklaridan kuylabdilar:

Tuya ketar tog‘ oshib,
Bo‘talog‘i ergashib,
Hech jahonda bormidi,
Bo‘z boladek bo‘z yigit.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Qo‘ylar kelar mag‘rashib,
Qo‘zichog‘i ergashib,
Hech jahonda bormidi,
Bo‘z boladek bo‘z yigit.

Oyparcha ko‘nglida qidirganidan darak topganiga suyunib, darveshlarga bir hovuch oltin berib, yana aytmoqlarini so‘rabdi. Darveshlar oldingidan ham dardliroq qilib yig‘lab, kuylashibdi:

Bo‘z bolaning gavdasi
Tut yog‘ochga osildi,
Nomard yigit qo‘lida
Boshi qo‘ydek kesildi.

Bo‘z bolaxon, bo‘z yigit,
Sara yigit, er yigit.
Hech jahonda bormidi
Bo‘z boladek bo‘z yigit?!

Buni eshitib, Oyparcha begim behush bo‘lib yiqilib, birozdan so‘ng hushiga kelib, qon-qon yig‘lab, darveshlardan Bo‘z bolaning o‘ligi qayerda ekanini so‘rabdi. Darveshlar o‘zlarini tanitib, o‘likning o‘zlari turgan joyda ekanini aytibdilar. Oyparcha begim darrov arava qo‘shtirib borib, go‘rini ochib, Bo‘z bolaning o‘ligi ustiga o‘zini tashlab, oh urib jon beribdi. Oytug‘dixon buni eshitib kelib qarasa, qizi o‘lib yotibdi. Qilgan ishlariga pushaymon bo‘lib, yig‘lab-yig‘lab, Bo‘z bolani o‘ldirganlarga g‘azab qilibdi. Keyin Bo‘z bola bilan Oyparcha begim ustilariga maqbara qilib, qizining azasi bilan umr o‘tkazibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Vafo

O‘tgan zamonda bir yigit bor ekan, u otasidan qolgan mollarning yarmini sarf qilib, bir qizga uylanibdi. Qolgan davlatini xotini bilan yeb yotaveribdi. Davlat kundan-kunga kamayibdi. Kunlardan bir kuni xotini eriga:

— Endi siz bunday bekor yotavermang. Yo qolgan davlatingizni sotib savdogarchilik qiling, yoki biror xizmat qiling, — debdi. Eri:

— Men savdoga ketsam seni qanday yolg‘iz qoldiraman. Seni ko‘zim qiymaydi, — debdi. Xotini:

— Ko‘nglingizni to‘q qiling, men siz kelguningizcha uyda o‘tiraman, — debdi. Eri noiloj mollarini sotib savdoga ketmoqchi bo‘libdi.

Puliga kerakli mollarni olibdi, yo‘lga chiqishi oldidan xotini unga bir gul berib:

— Mana shu gulni oling. Agar mening boshimga biror og‘ir ish tushsa yoki men biror yomon yo‘lga kirib ketsam, shu gul o‘sha ondayoq so‘ladi. Bo‘lmasa hech qachon so‘lmaydi, — debdi.

Eri gulni olib safarga chiqib ketibdi. Yo‘lda o‘g‘rilar uchrab yigitning mollarini talab olib ketishibdi. Yigit molsiz, pulsiz o‘zining sog‘-salomat qolganiga shukr qilib bir shaharga boribdi. Shaharda sarson bo‘lib yurib

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
bir imorat qiladigan usta bilan uchrashib qolibdi. Ustaga o‘z ahvolini gapiribdi. Usta yigitni o‘ziga shogird qilib olibdi. Yigit bir yilda imorat qilishni o‘rganib, yaxshi usta bo‘lib yetishibdi. Kunlardan bir kun usta o‘lib, uning o‘rniga yigit usta bo‘lib qolibdi.

Bir kuni podsho yigitni chaqirtirib, bir katta imorat solib berishni topshiribdi. Yigit podshoga juda chiroyli katta imorat qilib beribdi. Podsho yigitdan xursand bo‘lib, ziyofatga chaqiribdi. Yigit bilan gaplashib o‘tirib, uning qaydan kelganligini, kimligini so‘rabdi-da, o‘rdasida ishlashga ko‘ndiribdi. Yigit o‘rdada ishlay boshlabdi. U tez-tez cho‘ntagidagi gulga qarab qo‘yar ekan. Vazirlar bu gulning qishin-yozin so‘lmaganiga ajablanib, podshoga aytishibdi. Podsho yigitni chaqirib, cho‘ntagidagi gulning so‘lmaslik sababini so‘rabdi. Yigit podshoga xotinining so‘zlarini aytibdi. Podsho kulib:

— Sen ahmoq ekansan, xotinlarning so‘ziga ishonib bo‘ladimi? Gul berib seni aldabdi-da, — debdi. Yigit xotinining to‘g‘riligiga chin ko‘ngildan ishonganligini aytibdi.

Kunlardan bir kuni podsho yigitning xotinini sinash uchun vazirlaridan birini yuboribdi. Vazir xotin yashagan shaharga kelib qo‘shnisidan yigitning xotini bilan uchrashtirishni so‘rabdi. Qo‘shnisi xotin oldiga vazirni olib kiribdi:

— Qizim, mening bir mehmonim bor edi, o‘shani sen uyingda mehmon qilib jo‘natsang, — debdi. Xotin bu sirga darrov tushunib: „Bunda bir hikmat bo‘lsa kerak, bularni bir boplay“, debdi-da, mehmonni qabul qilibdi. Yaxshi ovqatlar, sho‘rvalar, sharoblar tayyorlab uni mehmon qilibdi. Vazir mast bo‘lib qolibdi. Shu paytda yigitning xotini tomonidan tayinlab qo‘yilgan qo‘shni xotin darvozasini taqillatibdi.

Xotin:

— Voy, birov kelib qoldi, darrov mana bu yerga kirib turing, keyin o‘zim chaqiraman, — deb vazirni uydagi yerto‘laga tushiribdi. Bir necha kungacha vazirni yerto‘ladan chiqarmabdi. Podsho birinchi vazirdan darak bo‘lmagandan keyin, ikkinchi vazirini yuboribdi. Xotin ikkinchi vazirni ham avvalgidek yerto‘laga qamabdi. Podsho ikkinchi vazirdan ham darak bo‘lmagandan keyin, o‘zi oddiy kiyim kiyib xotinning uyiga kelibdi. U podshoni ham avvalgiday ziyofat qilibdi.

Yigit ishlab yurib xotini esiga tushib gulga qarasa, gul so‘lmagan, chiroyli, ochilib turibdi. Ancha qarab o‘tirgandan keyin podshoning gapi esiga tushib, „Podshoning aytgan gapi rost bo‘lmasin tag‘in, bir xotinimdan

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

xabar olib kelay“, deb shahariga qaytib, darvozani taqillatibdi. Bu vaqt xotin mast bo‘lgan podshoni ham yerto‘laga qamab turgan ekan. Qarasa, eri kelib qolibdi. Suyunib uyga olib kiribdi. Eri uydagi ovqatlarni ko‘rib ahvolni so‘rabdi. Xotin:

— Siz kelguncha bir qiziq ish qildim, mana shu odamlar kelaverib meni bezor qilishdi. Men ularni qamab qo‘yaverdim. O‘zingiz ulardan sababini so‘rang. Mana, ko‘ring, — deb yerto‘lani ochib uchovini chiqaribdi. Yigit ularning uchovini ham tanibdi:

— Podsho bo‘lib turib shunday ish qilgani uyalmaysizmi? — debdi. Podsho:

— Xafa bo‘lma, biz xotiningni sinamoqchi bo‘lib, shu ahvolga tushib qoldik. Sening xotining haqiqatan ham to‘g‘ri xotin ekan. Ikkovingiz qo‘sha qaring, — deb jo‘nashibdi. Er-u xotin murod maqsadiga yetibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Mahmud yamoqchi

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, o‘tgan zamonda Balx shahrida Mahmud degan bir yamoqchi qari onasi bilan yashar ekan. Ular kambag‘al yashaganliklari bois, Mahmud yamoqchi uylanishga qurbi yetmas ekan. Kunlardan bir kun Mahmud bozorda yamoqchilik qilib o‘tirganida qarshisiga bir chol kelib o‘tiribdi.

Chol Mahmuddan hol-ahvol so‘rabdi. Mahmud og‘ir ahvolda kun kechirishini, qari onasidan boshqa hech kimi yo‘qligini aytibdi. Chol Mahmudni o‘zi bilan birga sayohatga olib ketmoqchi bo‘libdi. Mahmud ham ko‘nibdi. Mahmud onasi bilan xayrlashib, chol bilan safarga chiqibdi.

Chol o‘z davrining bilimdon kishisi ekan. Chol turli kitoblarni o‘qib turar ekan, u kitobda bir sirni o‘qib qolibdi. Bu sir shundan iborat ekan: bir tepalik ostidagi yerning tagida allaqanday o‘rada doim chiroq yonib turar ekan. „Chiroqni Mahmud degan yamoqchi olib chiqsa, tuganmas xazinaga ega bo‘lishi mumkin“, deb yozilgan ekan.

Shunday qilib, chol bilan Mahmud juda ko‘p yo‘l yurib, yo‘l yursa ham mo‘l yurib, oxiri bir dasht-u biyobonga yetibdi. Chol bir balandlikka chiqib, o‘tirib dam olibdi. Chol Mahmudga qarab:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Qani, bolam, yaqinroq kelib o‘tir, — debdi. Mahmud cholning huzuriga yaqinroq kelib o‘tiribdi.

Chol Mahmudga qarab shunday debdi:

— O‘g‘lim Mahmud, onang bilan hamma vaqt kambag‘allikda kun kechirgansan. Shu vaqtgacha uylanib ham olmagansan, endi men senga bir sirni aytaman. Shundan keyin baxtli kun kechirasan. Hayoting farovon bo‘ladi. Boylikka ega bo‘lasan, uylanib ham olasan. Sen o‘z baxtingga ega bo‘lish uchun shu o‘tirgan joyimizdagi anavi toshni ko‘tarasan, yerga ketgan yo‘l bor, o‘shandagi zina bilan yerning tagiga tushasan, unda yo‘lak bor. Shu yo‘lakdan asta-sekin yursang bir katta saroyga chiqasan, saroyda qirqta xona bo‘lib, unda qimmatbaho narsalar, oltin-u, javohirlar bor. O‘sha xonalarning qirqinchisida bir eski jinchiroq bor. Shuni olib chiqsang, ana shu yerdagi boylik, xazina seniki bo‘ladi.

Cholning so‘zlarini diqqat bilan tinglab o‘tirgan Mahmud bir qancha vaqt o‘ylab o‘tiribdi. So‘ngra, tavakkal, shu cholning aytganini bir qilib ko‘ray, deb chol ko‘rsatgan joyda turgan toshni ko‘taribdi.

Qarasa, yo‘l bor. Yo‘lda yer tagiga tushib ketgan zina bor. Zinadan pastga qarab tusha boshlabdi. Undan yo‘lakka tushibdi. Yo‘lakdan bir katta yorug‘ saroyga chiqibdi. Saroyda bir qancha xonalar ko‘ribdi, undagi xonalarni birma-bir ochibdi. Ulardagi qimmatbaho tosh, oltin-u kumushlarni ko‘rib ko‘zi qamashibdi.

U eng keyin jinchiroq yonib turgan xonaga kiribdi va uni olib chiqibdi. Butun boylik xazinaga ega bo‘lib, cholga minnatdorchilik bildiribdi. Bu chol Xizr buva ekan. Mahmud shundan keyin o‘z shahriga qaytib bir qizga uylanibdi. Shunday qilib, yaxshi kun kechirib, murod-maqsadiga yetibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

«Hunarli yigit» ertagiga ishlangan rasm

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi



Nurilla boyvachcha

O'tgan zamonda Samarqandda bir katta boy o'tgan ekan. Uning Nurilla degan yolg'iz o'g'li bo'lgan ekan. Kunlarning birida boy:

— Ey o'g'lim, men o'lib ketaman, mening uch yerda dunyoim bor, — deb hammasini ko'rsatibdi. — Yotib yesang bu dunyo hech narsa bo'lmaydi. Yotib yeyishga tog' ham chidamaydi, deganlar, — debdi.

Boy o'g'lining qo'liga ming tanga pul berib:

— Shunga mol olib kelib sotgin, — debdi. Bola pulni olib jo'nab ketibdi. Yo'lda bir devonaga uchrabdi. Devona odamlarni yig'ib:

— Bir so'zim bor, kimda-kim ming tanga bersa, aytaman, — deb turgan ekan. Shunda odamlar:

— Ming tangani senga mana Nurilla boyvachcha beradi, — debdi.

Nurilla boyvachcha:

— Men boyvachcha ekanman, — deb cho'ntagidan ming tangani chiqarib beribdi. Shunda devona unga:

— O'g'lim, uyingga borsang, xotiningni uyg'otib yotgin! — debdi.

Nurilla kechqurun uyga kelibdi, otasiga:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Ota, ming tangaga loyiq mol olib qo‘ydim, yana ming tanga bersangiz, molning hammasini bitta qilib olib kelarman, — debdi. Otasi yana ming tanga beribdi. Nurilla yana yo‘lga tushibdi. Avvalgi ko‘chani qo‘yib, boshqa ko‘cha bilan yursa, yana haligi devona oldidan chiqibdi. Odamlar uni ko‘rib guvillashib: „Ana, ana, Nurilla boyvachcha bu so‘zingga ming tanga beradi“, deyishibdi.

Nurilla boyvachcha esa, bu ming tangani ham devonaga beribdi. Shunda devona aytibdi:

— O‘g‘lim, oshiq ma’shuqqa yaxshi, har kimning sevgani o‘ziga yaxshi.

Nurilla yana uyiga qaytib kelib:

— Ota, ikki ming tangaga mol oldim, yana bir ming tanga berasiz. Uch ming tangalik mol keltiraman, — debdi. Otasi yana bir ming tanga beribdi.

Nurilla yana boshqa ko‘cha bilan ketibdi. Bu gal ham uning oldidan haligi devona chiqib qolibdi. Odamlar Nurillani ko‘rib:

— Ana, Nurilla boyvachcha kelib qoldi, undan boshqa hech kim bu pulni topib berolmaydi, — deyishibdi. Nurilla yana ming tangani devonaga beribdi.

— Endi, o‘g‘lim, ertalabki nasibadan qaytma, — debdi devona. Hamma pulidan ajralgan Nurilla boyvachcha uyiga kelmasdan bir joyga borib, hovuz bo‘yida yotibdi. Birov uning oldiga kelib:

— Otangiz kasal, sizni tez kelsin, dedilar, — debdi. Shunda Nurilla xo‘p, boraman, deb u kishini jo‘natib yuboribdi. Ertasiga yana birov kelib:

— Otangiz qattiq o‘sal bo‘lib qoldi, tezda yetib borar ekansiz, — desa, Nurilla „Xo‘p-xo‘p“, deb yana bormabdi. Yana bir kishi ertasiga kelib:

— Otangiz o‘ldi, — debdi. Nurilla bu so‘zni eshitib borib, otasining o‘ligini ko‘mib, ma’rakalarini o‘tkazibdi.

Kunlardan bir kuni Nurillaning uyiga o‘g‘ri kirib:

— Ming tanga berasan! — debdi. Nurilla ming tangani berib yuboribdi. Bir kuni o‘g‘rilar yana ming tanga so‘rabdi. Yana beribdi.

O‘g‘rilar har kuni ming tangadan pul olib ketaveribdi. Otasining dunyosi tamom bo‘libdi. O‘g‘rilarga: Endi nima beraman? — desa, „Nima bo‘lsa-da, topib berasan“, deyishibdi. Nurilla hovli-joyini sotib beribdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

O‘ziga faqat bitta uy qolibdi.

— Bitta uy o‘zimga qoldi, boshqa hech narsa qolmadi — debdi.

O‘g‘rilar uni urib-urib darvozasi oldiga tashlab ketibdilar. Nurilla bechora bir vaqt o‘ziga kelib qarasa, darvoza ostida yotgan emish. U sudralib uyga kirib boribdi. Xotini yig‘lab:

— Sizga nima bo‘ldi, nima gunoh qilgan edingiz? — debdi. Nurilla ikki-uch kun yotib tuzalibdi. Nurilla mardikor bozoriga boribdi, kechgacha hech kim mardikor so‘ramabdi. Ertasiga ham borib o‘tiraveribdi, yana hech kim so‘ramabdi.

Nurilla uchinchi kuni mardikor bozorning bir chekkasida o‘tirgan ekan, bir mo‘ysafid kelib:

— O‘g‘lim, mardikor ishlaysizmi? — debdi. — Ha, ota, ishlayman, — debdi. U:

— Kuniga necha pul berayin, o‘g‘lim? — debdi.

— Necha pul bersangiz o‘zingiz bilasiz, — debdi Nurilla. — Meni och qo‘ysangiz ham mayli, ammo uyimga ketishimda qo‘limga bitta non bersangiz, o‘g‘limga olib borar edim.

Chol rozi bo‘libdi. Uni olib borib ishga solibdi. Chol kechqurun Nurillani to‘yg‘azib, qo‘liga 10 ta non tugib beribdi. Nurilla uyiga yugurib kelibdi. Borsa xotini „Hozir otang non olib keladi“, deb o‘g‘lini ovutib o‘tirgan ekan. Nurilla nonni olib kelib qolibdi. Bolaning xursandchiligi ularning ham ko‘nglini ochibdi. Ertasiga ertalabdan kelib Nurilla ishlay beribdi. Yigirma kun ishlabdi. Bir kun boy:

— Biz ertaga savdogarchilikka Qal’a degan shaharga jo‘nab ketayotirmiz. Biz bilan birga boruvchi boylarning quli bor, menda yo‘q, shunga sen borsang, qancha pul beray? — debdi. Nurilla:

— Nima bersangiz o‘zingiz bilasiz, — debdi. Boy:

— Haqing uchun o‘zingga yuz tanga, bolalaring uchun oziq-ovqat va yuz tanga pul beray, — debdi. Nurilla rozi bo‘libdi. Bularni olib, eshakka yuklab uyiga kelibdi. Bolalariga:

— Men olti oyda kelaman. Shungacha bu ovqatlarni yeb turasizlar, — debdi.

Nurilla ertasiga jo‘nab ketibdi. Xotini esa uydagi narsalarni asrab qo‘yib har kimning ishini qilib kun kechiraveribdi. Nurilla boylar bilan Qal’aga yo‘l tortibdi. Bir cho‘lga borganda suv va ovqatlari tugabdi. U yerda bir g‘or bor ekan. Savdogarlarning maqsadi shu g‘orga yetib

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

olish ekan. Ular yetib ham kelishibdi, ammo u yerda suv qurib qolgan ekan.

Savdogarlar suv olib chiqish uchun qullarini g‘orning ichiga kirgizib yuboribdilar. Kirgan qul qaytib chiqmabdi. Endi navbat Nurillaga kelibdi. Nurillaning xo‘jayini:

— Bu bola mening qulim emas, mardikorim bo‘ladi, shuning uchun buning rizoligini o‘zidan so‘rayman, — debdi. Nurilla rozi bo‘libdi.

G‘orga kirib ketibdi. Bir yerga borsa, bir dev suvning boshini boylab o‘tirgan ekan. Kirgan odamlarning hammasini shu dev quritayotgan ekan. Nurilla devning oldiga kelib salom beribdi. Dev undan nima uchun kelganini so‘rabdi. Nurilla suvga kelganini va ko‘pchilik odamlar suvsizlikdan o‘lib ketayotganini aytibdi. Dev Nurillaga:

— Mening bir savolim bor. Shu savolimga javob berolsang, suv beraman, — debdi. Dev oldidagi suvning ichida bir qurbaqa, uning yonida esa, bir pari bor ekan. Pari devga qarab kulsa, dev hech qaramas, qurbaqa vaqillasa, dev xursand bo‘lib kular ekan. Dev Nurilladan bularning qaysisi yaxshi ekanligini so‘rabdi. Nurilla devonadan sotib olgan gapining birini aytibdi:

— „Oshiq ma’shuqqa yaxshi, har kimning suygani o‘ziga yaxshi“. Dev bu javobdan xursand bo‘lib, unga mukofot uchun bir shamchiroq beribdi. Nurilla eson-omon chiqib kelibdi. Orqasidan suv ham sharillab oqib chiqibdi. Hamma savdogarlar xursand bo‘lishib, Nurillaga sovg‘alar berishibdi. Shu yerda Nurilla o‘ziga yettita tuya sotib olibdi. Dev Nurilla bilan gaplashganda „Hamma savdogarlar turli narsalar olishsa, sen faqat qora murch olgin, chunki sizlar borayotgan shaharda vabo bor, odamlar shu murchdan bir-bir yalashsa tuzaladi“, degan ekan. Karvon yana yo‘lga ravona bo‘libdi. Bir shaharga borishsa, bir yosh bola mushukni ushlab o‘tirgan ekan. Nurilla „Bu nima?“ deb so‘rabdi. Bola: „Bu yo‘lbars bo‘ladi“, debdi. Nurilla buni bir tangaga sotib olib jo‘nabdi. Bir necha kun yurib savdogarlar bir qo‘riqqa borib qo‘nishibdi. U yerda sichqon shunday ko‘p ekanki, bularning hamma qoplarini teshib tashlabdi. Nurilla „yo‘lbars“ni qo‘yib yuboribdi. Hamma sichqonlar qochib ketibdi. Savdogarlar suyunganlaridan Nurillaga in’omlar berishibdi. Nurilla savdogarlar qatorida qirqta tuya qilib olibdi. Shaharga yetib borgandan keyin u hamma mollarini sota boshlabdi. Nurilla dev bergan gavhar shamchiroqni sotmoqchi bo‘libdi. Hech

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

xaridor chiqmabdi, chunki bu gavharning bahosi juda ham qimmat ekan. Odamlar:

— Buni podshoga olib bor! — deyishibdi. Nurilla podshoga boribdi. Podsho qancha berishni so‘rabdi. Nurilla „Nima bersangiz o‘zingiz bilasiz“, debdi. Gavharning bahosi nihoyatda qimmat bo‘lgani uchun vazirlardan biri podshoga Nurillani o‘ldirib yuborishni maslahat beribdi. Podsho „Qanday qilib o‘ldiramiz?“ debdi.

Vazir:

— Ertalab biz buni bog‘ga yuboramiz. Bog‘bonga: „Kim ertalab birinchi bo‘lib kelsa o‘ldiring“, deymiz. Shu bilan o‘ldirib yuboramiz, — debdi. Ertalab tong otibdi. Podsho Nurillaga bog‘dan bir savat uzum olib kelishni buyuribdi. Nurilla ketayotgan ekan, shu shahardan orttirgan o‘rtoqlari choy ichishga taklif qilishibdi. Nurilla xizmat uchun ketayotganini aytsa ham o‘rtoqlari hech qo‘yishmabdi.

Nurillaning esiga boyagi devonaning „Ertalabki nasibadan qaytma“ degan gapi tushibdi va o‘rtoqlarining oldiga kelib choy ichibdi. Shu orada podshoning o‘z odamlaridan biri bog‘ga kelibdi. Bog‘bon bu kelgan odamning boshini shartta kesibdi. Uning orqasidan Nurilla borgan ekan, bir savat uzum berib yuboribdi.

Nurilla xizmatni bajarib podshoning oldiga kelibdi. Podsho bunga hayron bo‘lib, „Biz qasd qilgan bilan xudo qasd qilmasa bekor ekan“, deb juda ko‘p pand yebdi.

Nurilla sheriklarining oldiga kelibdi. Hamma molni sotib bo‘libdi.

Shu yerdan hamma savdogarlar o‘z ellariga qaytishibdi. Nurilla esa, o‘z xo‘jayiniga boyagi boy bergan ming tillani va mushukni berib yuboribdi. O‘zi esa qirq tuyaga yukni ortib boshqa shaharga jo‘nab ketibdi.

Savdogarlar olti oy yo‘l yurib, o‘z yurtlariga yetib kelibdilar. Boy ming tillani Nurillaning xotiniga berib, mushukni uning o‘g‘liga beribdi. Nurillaning qirq tuyaga murch ortib boshqa shaharga ketganini, yana sakkiz yildan keyin kelishini aytibdi. Shu yili bularning shahrini sichqon bosib ketgan ekan. Tegirmonlardagi hamma don va qanorlarni nobud qilgan ekan. Odamlar Nurillaning o‘g‘lidagi „yo‘lbars“ni ishga solib, har bir tegirmondan kuniga besh puddan g‘alla olib beribdilar. Bularning unlari juda ko‘payib ketibdi.

Bir kuni podshoning o‘tirgan taxtini ham sichqon bosib ketibdi. Podsho Nurillaning o‘g‘li bilan bitim tuzib, har kuniga mushuk haqi uchun ming

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

tangadan berib turadigan bo‘libdi. Ona-bola juda boy bo‘lib ketishibdi. Juda katta uy qurib, atrofini qo‘rg‘on qilib olishibdi.

Endi gapni Nurilladan eshiting:

U shu yurgancha to‘g‘ri mo‘ljallagan shahriga yetibdi. Haqiqatan ham u yerda vabo kasali bor ekan. Odamlar Nurillaning yuki nimaligini so‘rashibdi. Nurilla vaboning dorisi ekanini aytibdi. Murchning har bir donasini bir tilladan sotibdi.

Odamlar butunlay vabodan qutulishibdi. Nurilla qirq tuya tilla qilibdi, bir yil turib o‘nta qul sotib olib o‘z eliga jo‘nabdi. Yana to‘rt yil yurib yarim kechada o‘z uyiga kelibdi. Uyini hech taniy olmabdi. Juda o‘zgarib ketgan ekan. Bir to‘p qayrag‘och bor ekan, shundan tanibdi. Qayrag‘ochdan oshib tushsa, xotini oldida bir yigit uxlab yotganmish. Nurilla bu yigitni o‘ldirmoqchi bo‘libdi, ammo bir so‘rab ko‘ray, deb xotinini uyg‘otibdi. Bu yigit Nurillaning o‘g‘li ekan. U ham uyg‘onibdi. Nurilla xotini va bolasi bilan so‘rashibdi. Xotini tuyaxona ham solib qo‘ygan ekan, tuyalarni shu yerga keltirishib, yuklarini tushirib olishibdi. Shu bilan tinch yashab, murod-maqsadlariga yetishibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Noshud bola

Sag‘ir bo‘lib momomning qo‘lida qoldim. Momomning uchta buzog‘ini boqib yurdim. Uning bittasini bo‘riga oldirib yubordim. Momom urdi, qochib borib Boymoqli degan qishloqda bir kampirning echkisini boqdim. Bir kun kampir:

— Echkilar sut bermay qoldi, men boqayin, sen uloqlarni boqib, suv olib kelib yurgin, — dedi.

Bir kun kampir yo‘g‘ida bitta patir qilib, betiga moy surkab yeyman deb turib edim, kampir echkini haydab kelib qoldi. Patir bilan moyni qo‘ygani joy topolmay, telpagimning ichiga solib boshimga kiydim.

Uloqlar emib qo‘ydi, kampir boshimga bir mushtladi. Moy telpakning tagidan tirqirab chiqib ketdi. Voy miyam chiqib ketdi, deb kallamni mahkam ushlab yotdim. Kampir echkini ham boqdi, uloqni ham bog‘ladi, suvni ham o‘zi olib keldi. Men hech bir ish qilmay yotdim.

Bir kun kampir xafa bo‘lib:

— Bolam, sen echkini boqqin, men kuvni pishib olay, — dedi.

Men xayr, deb echkini boqqani chiqib ketdim. Dalaga borib uxlab qolibman, bir vaqt tursam, yarim kecha bo‘libdi. Qulog‘imga: „Bola-yu bola“, degan tovush keladi. Qarasam, echkilar yo‘q. Echkilarning barisini bo‘ri yeb ketibdi. Obbo, kampir meni o‘ldiradi deb, qochib borib, Jarqo‘rg‘onda yotdim. Tong otgandan so‘ng soy bo‘yiga tushib bordim. Bir odam arpa xirmonida qirqta tovuqning jo‘jasini boqib o‘tiribdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Bobojonim, men och qoldim, noningiz bo‘lsa bering, — dedim.

— Huv o‘sha uy meniki, borsang non beradi, — dedi.

— Tanimasni siylamas, menga bermaydi, o‘zingiz borib menga biroz non olib kelib bering, men tovuqlarni boqib turay, — dedim.

Tovuqlarni boqib o‘tirgan edim, uyqu bosa berdi. Boboning tovuqlarini qush olib ketmasin, deb barini bir ipga bir oyog‘idan bog‘lab, uchidan ushlab yotdim. Bir qush kelib qirqtasini olib ketibdi. Boboy meni uradi, deb u yerdan ham qochib ketdim. Sa’di Voqqos degan qishloqqa bordim. Bir Begmat ovchi degan qushboz bor ekan. Dalada uning xizmatini qilib yurdim. Bir kun uyiga jo‘nar ekan, qo‘limga bir miri berib:

— Qushga ovqat olib ber, — dedi. Men qushga nima ovqat olishni so‘ramabman. U ketgandan keyin qarasam qushning tagida oq narsa turgan ekan. Bu qatiq ichar ekan, deb qishloqma-qishloq yurib bir xurma qatiq olib kelib berdim. Qatiqni ichmadi. Bu nimaga ichmaydi, deb kallasini xurmaga tiqdim. Qush xurmaga boshini suqib indamasdan qoldi, men simirib yotibdi desam, o‘lib qolibdi.

Qushning o‘ligini olib, to egasi kelguncha qarab turdim. U:

— Qushni nima qilib o‘ldirding, — dedi.

— Men qatiq berdim, simirib yotibdi desam, o‘lib qolibdi, — dedim.

— E, chorvador bolasi ekansan. Qush tilini bilmas ekansan, — dedi.

Yana ovchining xizmatini qilib yura berdim.

Kundan kun o‘tdi, ovchi meni o‘zi bilan birga ovga olib chiqdi, qo‘limga bir qush, bir xalta berdi, bir tozi, bir po‘stin berdi. Po‘stinni kiftimga ko‘tarib, tozini yetaklab, xaltani qo‘ynimga solib, qushni bir qo‘limga olib bir qirga qarab o‘rladim.

Ovchi menga:

— Tulki chiqsa tozini qo‘yib yubor, kaklik chiqsa qushni qo‘yib yubor, — deb tayinladi.

Ovchi otliq, men esa yayov tog‘ga chiqdik. Po‘stinni ko‘tarib charchadim, tozining ustiga yopdim, po‘stin turmadi, bir yengini tozining kallasiga bog‘lab, tozining beliga aylantirib o‘rab qo‘ydim. Qushni ko‘tarib qo‘lim toldi, xaltaga solib ko‘tarib oldim. Borayotib edim, oldimdan tulki chiqib qoldi. Po‘stinni olguncha bo‘lmay, tozi tulkini quvib ketdi. Po‘stin parcha-parcha bo‘lib toshlarga ilinib qola berdi. Shu yaqindan ovchi kaklik uchirib: „Qushni qo‘yib yubor“, deb tovush qildi.

Qushni chiqarib uchirsam, qush borib to‘p etib yiqildi, ucholmadi, qanoti qayrilib qolibdi-da, deb olib ko‘rsam, qush dimiqib o‘lib qolibdi. Ovchi meni o‘ldiradi deb qochib ketdim.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Yurib-yurib bir boynikiga bordim. Uning xizmatini qilib yurdim. Bu boyning bir xachiri, bir yo‘rg‘asi bor ekan. Bir kun yo‘rg‘asi kasal bo‘ldi.

— O‘g‘lim, mol harom o‘lmasin, — dedi.

Men oldimga chiroq yoqib, pichoq qo‘yib yotdim. Bir vaqt turib qarasam, „patir-patir“ bo‘lib yotibdi. Chiroq o‘chib qolibdi. Borib chiroqni yoqmasdan, boshini shartta kesib yubordim. Chiroqni yoqib qarasam, xachirning boshini kesib qo‘yibman-u, kasal ot turibdi. Boy meni ertaga o‘ldiradi, deb bundan ham qochib ketdim.

Tong otganda Yangiqo‘rg‘on bozoriga bordim. Ko‘chada oralab yurdim. Bir ayol:

— Nima qilib yuribsan, bolam? — dedi. Men:

— O‘g‘li yo‘qqa o‘g‘il, qizi yo‘qqa qiz bo‘laman, — dedim.

— Unday bo‘lsa sen menga o‘g‘il bo‘lgin, — deb qo‘lidagi bolasini qoldirib, — bozordan savdo-sotig‘imni qilib kelib, bolamni va seni olib ketaman, — dedi.

Onasi ketgandan keyin bolaga uzum-puzum olib berib o‘tirdim. Onasining daragi bo‘lmadi. Qidirib-qidirib, boyagi ayolni topib oldim.

— Yur, bolangni olgin, — dedim. Ayol:

— Mening bolam emas, seni tanimayman, bolani ham tanimayman, — dedi.

Bolani ko‘tarib, ikkovimiz ushlashib, qozining oldiga bordik. Qoziga:

— Mana bu ayol bolasini mendan olmayapti, — dedim. Qozi ayolga „Bolani ol“, dedi. Ayol: „Mening bolam emas“, dedi.

Qozi: „Bolani o‘rtaga o‘tqazib qo‘yinglar, chaqiringlar, bola kimga borsa o‘shaniki“, dedi.

Onasi: „Oh beraman“, desa, bola bormadi. Men: „Kel, ukajon, uzum beray“ desam, bola menga qarab keldi. Qozi „Bolani sen ol“ deb, menga hukm qildi. Bolani ko‘tarib ketayotsam, kampir yonimga kelib: „Bolam, qo‘y, xafa bo‘lma, ikkimiz ona-bola bo‘lib qo‘ya qolaylik“, deb uyiga olib bordi. Men unikida yurdim. Oradan bir necha vaqt o‘tgandan keyin momomni ham topib olib, birga yashayverdik.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Hunarli yigit

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonda bir shaharda bir chol bilan kampir bor ekan. Ularning Mamatboy degan bitta-yu bitta o‘g‘li bor ekan.

Kampirning ota meros bir hovlisi bor ekan. Chol-kampir bu hovlini uch yuz tillaga sotishibdi va maslahatlashib o‘g‘lini savdo ishiga o‘rgatmoqchi bo‘lishibdi. Chol o‘g‘lini chaqirib:

— Bolam, biz endi qarib, kuch-quvvatdan qoldik. Sen mana bu yuz tillani olib, savdogarchilik qilgin, — debdi.

Bola yuz tillani beliga tugib, yo‘rg‘a eshakni minib: „hayyo-hay“ deb safarga jo‘nabdi.

Yurib-yurib bir shaharga yetibdi. Qarasa, bozorga yaqin bir joyda odamlar to‘planishib turgan emish, to‘da yaqiniga borib odamlarning biridan: „Nima gap“, deb so‘rasa, u odam:

— Bu yer ilm beradigan joy. Kimki yuz tilla to‘lasa, bir yil ichida ilm o‘rganib chiqadi, — debdi.

Bizning Mamatboy ham ilm o‘rganishni havas qilib yurar ekan. Bu gapni eshitgach: „Savdo ishidan nima foyda, yoshlikda ilm o‘rganib olish kerak“, deb yuz tillani to‘labdi. Havas bilan astoydil o‘qiy boshlabdi. Oradan bir yil ham o‘tibdi. Mamatboy, zehni balandlik qilib, domlasidan ham o‘zib ketibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Endi uyiga qaytmoqchi bo‘libdi. Ammo hech narsasi qolmagan, qo‘ying-chi, eshagini ham sotib yuborgan ekan. Nima qilishini bilmay hayron bo‘lib turganida, domlaning rahmi kelib unga bir eshak beribdi. Bir yarim oy deganda Mamatboy uyiga kelibdi. Ko‘pdan beri kutib o‘tirgan ota-onasi o‘g‘lini ko‘rib juda quvonibdi. Hol-ahvol so‘ragandan keyin, kampir:

— Bolam, yuking orqada kelyaptimi? — deb so‘rabdi. Bola indamabdi. Bir fursat yotib damini olgandan keyin ota-onasiga:

— Xafa bo‘lmasangizlar bir gap aytaman, — debdi. Ular:

— Mayli, ayt, bolam, — deyishibdi. Shunda bola o‘z boshidan kechirgan hamma hodisalarni aytib beribdi. Chol-kampir biroz ranjibdi.

Oradan bir hafta o‘tibdi. Ular o‘zlaricha maslahatni bir joyga qo‘yib, bolaga yana yuz tilla beribdilar. Ammo boshqa narsaga sarf qilmagin, deb tayinlab uni savdoga jo‘natibdilar. Bola cho‘l-biyobonlar, tog‘-toshlar oshib, axiri bir shaharga yetibdi. Qarasa, bir joyda odamlar to‘planishib turgan emish. Bola surishtiribdi. Ulardan biri: „Bu yer cholg‘u o‘rgatadigan joy, kimki yuz tilla to‘lasa, bir yilda ajoyib cholg‘uchi bo‘lib chiqadi“, debdi.

Bola o‘ylab turib: „Ota-onam urishsa urishar, ilm o‘rgandim, endi buni ham o‘rganib qo‘yay“, deb yuz tilla to‘lab maktabga kiribdi. Oradan bir yil o‘tibdi. Bolaning zehni o‘tkir ekan, sal fursatda ustozidan ham o‘zib ketibdi. Ustozi bolaning juda uquvli bo‘lgani, ammo ketishga hech nimasi qolmaganidan bir toy bilan yo‘lga kerakli oziq-ovqat berib, uni jo‘natibdi. Bola uch hafta deganda uyiga yetib kelibdi. Bir yildan beri ko‘z tutib, zoriqib o‘tirgan ota-ona o‘g‘lini ko‘rib juda sevinishibdi.

Kampir bolasidan hol-ahvol so‘rab bo‘lib:

— Bolam, yuking keyinda kelyaptimi? — deb so‘rabdi. Bola nafasini rostlab olgandan keyin, voqeani aytib beribdi. Buni eshitgan chol bilan kampir xafa bo‘lishibdi, bolani qattiq koyishibdi.

O‘n kundan keyin chol bilan kampir ikkisi maslahat qilishibdi. Otasi o‘g‘lini chaqirib:

— Bolam, bisotimizda atigi uch yuz tilla bor edi, ikki yuz tillani sarf qilib kelding, endi bor-yo‘g‘i yuz tillagina pulimiz qoldi, shuni ehtiyot qilib, har narsaga sarf qilmasdan, arzon mollardan olib kel, jon bolam! — deb yana savdoga jo‘natibdi. Bola ota-onasi bilan xayrlashib, noma’lum shaharga jo‘nab ketibdi. Yura-yura bir joyga yetibdi. Toyi hurkib ketib odamlar to‘planib turgan joyga borib to‘xtabdi. Bola odamlardan: „Nega to‘planib turibsizlar“, deb so‘rasa, ulardan biri: „Bu yerda shaxmat o‘yini o‘rgatiladi. Kimki yuz tilla to‘lasa, shaxmat o‘rganadi“, debdi. Mamatboy o‘ylab turib: „Yuz tilla berib ilm o‘rgandim, yuz tilla berib

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

cholg‘uchi bo‘ldim, endi yana yuz tilladan qochib, buni o‘rganmay qolaymi? Kel, tavakkal, buni ham o‘rganib olay“, deb ahd qilibdi va qo‘lidagi yuz tillani to‘lab, shaxmat o‘ynashga kirishibdi. Bir yilda shaxmat o‘yinini juda yaxshi o‘rganib, keyin yurtiga qaytibdi. Ko‘p yo‘l yurib, uyiga yetibdi. Ota-onasi bolasini sog‘inib ko‘z tutib o‘tirgan ekan, u bilan ko‘rishib bo‘lib:

— Bolam, yuking qani, orqada kelyaptimi? — deb eshikka chiqib qarasa, yana hech nima yo‘q emish. Yana hayron bo‘lishibdi. Bola bu safar shaxmat o‘yinini o‘rganganini aytib beribdi.

Chol bilan kampir ilgarigidan ham qattiqroq xafa bo‘lishibdi. Nochorlikdan Mamatni bir boyga xizmatkor qilib berishibdi. Mamatboy judayam serg‘ayrat, chaqqon bola ekan, uch kun o‘tmasdanoq, boyning xizmatkorlari orasida tanilib qolibdi. Boy ham uning chaqqon va ish-bilarmonligiga qoyil qolibdi.

Kunlardan bir kuni boy uzoq bir shahardan bir necha ming yilqi va qo‘ylarni olib kelayotgan ekan, dasht-biyobonlarda bir qancha kun yurishgandan keyin yilqi-qo‘ylari cho‘llab qolibdi. Qidirib-qidirib bir quduq topishibdi. Quduq juda eski ekan. Boy „Kim tushadi“, deb so‘rasa, xizmatkorlari churq etmabdi. Axiri Mamatboy: „Bu ishni men bajaraman“, deb beliga arqon bog‘lab, quduqqa tusha boshlabdi. Quduq juda chuqur ekan, tushib ketaveribdi. Axiri oyog‘i quduq tagiga tegibdi. Qarasa, quduq tagi keng, hamma yer qorong‘i, zulmat, qup-quruq, suv degan narsa yo‘q emish. Belidan arqonni yechib, nariroqqa borib qarasa, bitta xum turganmish va undan hadeb tilla qaynab chiqayotgan emish. Bola olib tushgan chelagini darhol tillaga to‘latib, yuqoriga uzatibdi. Bo‘shagan chelak qaytib tushibdi. Shunday qilib xumdagi tillani tamom qilibdi, keyin arqonga chirmashib yuqori chiqa boshlabdi. Shu topda boy: „Bolani hozir tortib olsam, u hoynahoy tillaning kamida yarmiga sherik bo‘ladi. Undan ko‘ra, bola shu quduqda o‘lib ketgani yaxshi“, deb arqonni shartta qirqib yuboribdi. Boy hamma tillani olib, yo‘lga ravona bo‘libdi.

Endi gapni boladan eshiting:

Mamatboy ko‘zini ochsa, o‘zini quduqda ko‘ribdi. „Attang, boy yaxshilikka yomonlik qildi. Ajalim shu yerda ekan-da“, deb juda xafa bo‘lib ichkariroqqa yuribdi. Atrofiga nazar solsa, bir yoqda bir eshik ko‘rinibdi, eshikdan kirib qarasa, ichkarisi juda yaxshi bezatilgan bir uy emish. Bu uy bir devniki ekan, unda o‘sha dev yotgan ekan. Uyning shipida bir qancha cholg‘u asboblari osig‘liq emish. Yigit devordan bir g‘ijjakni olib chala boshlabdi. Dev yetti yildan buyon kasal bo‘lib, hushsiz yotgan ekan, g‘ijjak tovushini eshitib, o‘ziga kelibdi. Yetti kun deganda tuzalib turibdi va:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— E, bola, sen kimsan? Menga ko‘p yaxshilik qilding. Tila tilagingni! — debdi. Bola qo‘rqib ketib, darhol devga salom beribdi. Dev alik olib, uning bu yerga qanday kelganini so‘rabdi. Bola devga boshidan kechirganlarini aytib beribdi. Bolaga devning rahmi kelib:

— Sen meni o‘limdan olib qolding, — debdi. Bola oldin devning tillasini quduqdan chiqarib yuborganini va shu sababli gunohini kechirishini so‘rabdi. Dev uning gunohini kechiribdi. So‘ngra Mamatboy:

— Meni yorug‘ dunyoga olib chiqib qo‘ysang bas, — debdi. Dev uni yelkasiga mindirib, bir zumda ochiq havoga chiqarib qo‘yibdi. Mamatboy dev bilan xayrlashib, yo‘lga ravona bo‘libdi.

Mamatboy tez-tez yurib boyga yetib olibdi va bilmas kishi bo‘lib, yana ilgarigidek boyning xizmatini qilaveribdi. Buni ko‘rgan boyning esi chiqib ketibdi. U ham qo‘rqqanidan noiloj o‘zini bilmaslikka solib yuraveribdi-yu, bolani yo‘q qilish payiga tushibdi.

Boy xotiniga quyidagicha xat yozibdi.

„Mendan sizlarga ko‘pdan-ko‘p salom. Yaqinda borib qolaman. Jon xotin, men borguncha shu xatni olib borgan bolani o‘ldirib yubor. Sababini borganimda aytaman“.

Xatni taxlab, muhrini bosib: „Endi buni kim uyga yetkazadi?“ desa, hech kim indamabdi, chunki boy oldinroq boshqa xizmatkorlari bilan til biriktirib qo‘ygan ekan.

Xatni oxiri Mamatboy olib ketibdi. Yura-yura bir yerga yetganida o‘ylabdi: „E, men qancha ovora bo‘lib ilm o‘rgangan edim, buning duoyi salomini bir o‘qib ko‘rmaymanmi, deb xatni ochib qarasa, gap haligiday.

Xatni darrov yirtib tashlabdi-da, o‘rniga quyidagi xatni yozibdi:

„Rafiqam G‘ilmonnisoga.

Duoyi salomdan so‘ng andog‘ ma’lum va ravshan bo‘lsinkim, men bu o‘lkada eson-omon yuribman. Nasibam bo‘lsa, yaqinda borib qolaman. Ushbu yuborgan xizmatkor bola Mamatboy juda epchil ekan, baraka topsin, men buyurgan eng muhim ishlarni yakka o‘zi muhayyo qildi. Davlatimizning ortishiga sababchi bo‘ldi. Mamatboyni yaxshilab kutib ol, darhol katta qizimizni shunga to‘y qilib ber, toki men borganimda kuyov bo‘lib kutib olsin“.

Mamatboy xatni o‘xshatib yozibdi va xat oxiriga boy nomidan imzo chekibdi. Mamatboy bir haftada yetib kelib, xatni boyning xotiniga beribdi. Xotin xatni o‘qib: „O‘zlari aytibdilar, to‘y qilmasa bo‘lmas ekan“, deb ertasigayoq to‘y-tomosha qilib, katta qizini Mamatboyga beribdi. Bir necha kun deganda, boy ham yetib kelibdi. Eshikdan uni qizi bilan kuyovi yaxshilab kutib olishibdi. Boyning joni hiqildog‘iga kelibdi-yu, ammo

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

sir boy bermapti, o‘zini zo‘rg‘a tutib yuribdi. Yigit ham bilmas kishi bo‘lib, qaynatasining hurmatini bajo keltirib yuraveribdi. Oradan bir necha kun o‘tgandan keyin boy xotinini chaqirib.

— Sen nima ish qilib qo‘yding? — deb uni koyibdi. Xotini:

— O‘zingiz aytibsiz-ku! — deb xatni ko‘rsatgan ekan, boy:

— Bu men yozgan xat emas, obbo qurg‘ur-ey, mendan ham usta ekan, — deb qoyil qolibdi. Lekin Mamatboyni yo‘q qilishni kecha-yu kunduz o‘ylab yuraveribdi.

Kunlarning birida yigit ota-onasini eslab: „Xotinim bilan bir borib kelay“, deb boydan ijozat so‘rabdi. Yurib-yurib bir katta shaharga kelibdilar. Mamatboy o‘sha shahar podshosining saroyi yonidan o‘ta turib, darvozaga ko‘zi tushibdi, darvoza tepasiga osilgan bir necha odamni ko‘ribdi. Surishtirsa, podshoning bir go‘zal qizi bor ekan. U shaxmatga juda usta ekan. „Kimki o‘yinda meni yutib chiqsa, o‘shanga tegaman“, deb shart qo‘ygan ekan. Haligilar shaxmat o‘yinida yutqazgan kishilarning tanalari ekan.

Mamatboy o‘ylab turib: „Ikki hunarim meni ikki marta o‘limdan olib qoldi, uchinchisi ham bekor ketmas. Kel, tavakkal, shu o‘yinni ham o‘ynab ko‘ray“, deb shoh qizi yoniga boribdi. Qiz uni mensimagandek bo‘lib qabul qilibdi.

O‘yin boshlanibdi. Qiz ham, yigit ham bir-biridan sira qolishmabdi. Uch kun deganda qiz yutqazibdi. Qiz bilan otasi Mamatboyning shaxmatga ustaligiga qoyil qolishibdi. Podsho yigitga qizini bermoqchi bo‘lgan ekan, yigit unamabdi. Ota-onasini shaharga oldirib kelib, kambag‘al, beva-bechora, yetim-yesirlarga muruvvat qilib turibdi.

Mamatboyning qaynatasi kunlardan bir kun Mamatboyga arzga kelibdi. Lekin kuyovini tanimabdi. Kuyov qaynatasining arzini obdan eshitib bo‘lib, keyin boyning butun qilgan ishlarini o‘ziga aytib beribdi. Boy juda yomon ahvolga tushib, o‘z qilmishlariga tavba qilibdi.

Shunday qilib Mamatboy murod-maqsadiga yetibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Boy bilan novcha[1]

Bor ekanda yo‘q ekan, och ekanda to‘q ekan, Zomin yurtida bir boy bor ekan, uning bir novchasi bor ekan. Kunlardan bir kuni boy bir narsadan ta’bi xira bo‘lib, novchasini koyibdi. Novcha arazlab Zomin qozisining oldiga boribdi. Qozi:

— Ha, nima arzing bor? — debdi. Novcha aytibdi:

— Arzim bor-u, taqsir, ovloq bo‘lsa aytaman, — debdi.

Shunda qozi o‘ylanib turib ko‘nglida: „Buning avzoyidan gapi borga o‘xshaydi, ovloq qilib gaplashib ko‘rayin“, deb oldidagi mulozimlarini chiqarib yuborib, so‘ngra haligi novchaga:

— Gapir, qani endi, — debdi. Novcha aytibdi:

— Taqsir, falonchi boyga novcha bo‘lib yurgan edim, haqimni bermay quvib yubordi. Endi shuni nima qilamiz, qozi buva? — debdi. Qozi aytibdi:

— Oyiga necha pulga yurib eding?

Novcha aytibdi:

---

[1] **Novcha** — xizmatkor.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Taqsir, to‘qqiz oyiga olti yuz tangaga yurib edim, bir pul bermasdan quvib yubordi.

Qozi o‘ylab turib:

— Unday bo‘lsa sen beradiganingni ayt: men so‘ngra uni o‘zim sozlayman, — debdi. Novcha:

— Taqsir, undirsangiz uchdan bir qismi, — debdi. Qozi aytibdi:

— Uch yuz tangasini sen ol, uch yuz tangasi bizga bo‘lsin. Sen mahkam bo‘lsang bo‘lgani. Tag‘in mabodo yarmini bersa, aldanib, ko‘nib qo‘yma, — debdi. — Boyni men aytib keltiraman. Boy kelgandan keyin unday degin, bunday degin deb, qozi novchaga so‘z o‘rgatibdi. Keyin novchaga javob berib, erta bilan Zomin bozoridagi qozixonaga kelishini uqtiribdi. Novcha shundan keyin o‘z qishlog‘iga ketibdi.

Ana endi bu kun o‘tibdi, erta bilan tongda qozi turib, choy ichibdi va otlanib, Zominning bozoriga ketibdi. U borib qozixonada o‘tiribdi. Birozdan keyin boy kelibdi. Boy qoziga:

— Taqsir, haligi novcha oldingizga kelib arz qilibdi, unday falokatlarni oldingizga keltirmay, urishib haydab yuboring, — debdi.

Shunda qozi boyni ota-onasi qolmay so‘kaveribdi.

Shu orada novcha ham kelib qolibdi. Shunda qozi boyga:

— Buning haqini yeb ketolmaysan, hozir o‘tirgan joyingda topib berasan, — debdi. Keyin boy o‘ylab turib anglabdiki, novcha qoziga bir narsani berishga va’da qilgan. Boy payt poylab turib novchaning ko‘zini shamg‘alat qilib quchog‘ini ochib, imlab qoziga ko‘rsatibdi. Qozi unga yer ostidan ko‘z tashlabdi va yerga qarabdi. Keyin biroz o‘ylab turib xayolga ketib: „Novchaning beradigan narsasi uch yuz tanga, uni ham boydan olsagina beradi, boyning imlab ko‘rsatgan narsasida bir balo borga o‘xshaydi, shu boyning va’dasidan qolmay, bir quchoq narsani va’da qildi, agar shuning hammasini bersa, bir narsali bo‘lib qolaman“, debdi qozi ichida. Shu orada qozi yana asta boshini ko‘tarib ko‘z osti bilan boyga qarabdi. Boy yana qulochini yozib, bir quchoq deb imlabdi. Shunda qozining yurak-bag‘ri undan battar ezilib ketibdi.

Qozi ko‘nglida: „Endi bu novcha padar la’natini bir so‘kayin, haqidan kechib, bir do‘q bilan yo‘q bo‘lib ketsin“, debdi. Qozi endi novchani so‘ka ketibdi:

— Padar la’nati, tuhmatchi, o‘g‘ri, yo‘qol-chi, yo‘qol, ko‘zimga ko‘rinma, hozir jazoga hukm qilib yuboraman, — deb siyosat qilibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

«Zolim podsho» ertagiga ishlangan rasm

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Keyin haligi novcha qo‘rqib, yuragi yorilay debdi. Qozi olti oylik jazoga hukm qilib yuboraman degandan keyin novchaning jon-poni chiqib ketibdi, haq olmasam ham go‘rga, deb qozixonadan orqasiga qaramay chiqib ketibdi. U ko‘zdan yo‘qolgach, qozi boyga qarab sekin ishorat qilib:

— Qani haligi aytgan narsani olib keling, — debdi. Boy o‘rnidan turib bozor oralab ketibdi. Ana endi qozining dimog‘i chog‘ bo‘lib, quvonganidan yuragi yorilguday bo‘libdi. „U bir quchoq narsa nima ekan? U bir xum tanga bo‘ladi yo bir xum tilla bo‘ladi, qachon olib kelar ekan“, deb yuragi ezilib ketaveribdi. Qozining ikki ko‘zi boyning yo‘lida bo‘pti. Ana endi qozi boyning yo‘liga qarab, ko‘zi to‘rt bo‘lib o‘tiraversin, so‘zni boydan eshiting. Boy bozor oralab ketganicha to‘g‘ri qovun bozorga boribdi. Ho‘kizning beliday bir katta tarvuzni bir miriga olib, quchoqlab jo‘nabdi. Boy hovliqib qozixonaga yetib kelibdi. Qozi o‘tirgan yeridan cho‘zilib qarab, o‘ylabdi: „Obbo boy buva tushgur-e, qoziga bir yaxshi tarvuz ham olib beray debdi-da“, deb ichida quvonib qo‘yibdi. Boy shu orada tarvuzni olib kelib qozining oldiga qo‘yibdi. Shunda qozi:

— Boy, tarvuz bozoriga ham boribsiz-da? —desa, boy:

— Axir bizning bir fe’limiz xudoga yoqib, xudo bizga shunchalik davlatni berib, boy qilib qo‘yibdi, va’da qilgandan keyin va’dada turamiz-da, taqsir, — debdi.

Boydan bu so‘zni eshitgan hamon qozining yuragi shuv etib ketibdi. Boy shu orada tarvuzni so‘yib, bir pallasini karjlab, qozining oldiga qo‘yibdi, yana bir pallasini karjlab o‘zining oldiga qo‘yibdi. „Oling taqsir“, deb qozini tarvuz yeyishga taklif qilibdi. Ular ikkovi ikki palla tarvuzni yeganicha yeb, qolganini qoldiribdilar. Keyin qozi ko‘z osti bilan har zamon-har zamon boyga qarab o‘tira beribdi.

So‘ng boy:

— Bizga javob endi, taqsir, tarvuzni bo‘lsa yedingiz, haligi onangni ko‘rgur novchaning gapiga ko‘p quloq solavermang. Kelasi bozor tag‘in bir yaxshi tarvuz olib beraman, — debdi. Qozi:

— Boy buva, boshqa gapni qo‘ying, boyagini olib keling, — debdi.

Boy:

— Taqsir, odamni kalaka qilmang, bu gapingizga men tushunmadim, bu nima deganingiz? — debdi. Qozi:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Buva, esingizdan chiqdimi, boya bir narsam bor, beraman, demadingizmi? Siz shunday qilib bir quchoq narsam bor, beraman, deganingizdan keyin, men haligi kambag‘alni so‘kib yubordim, — debdi. So‘ngra boy:

— Ha, taqsir, endi tushundim, u bir quchoq, deb ko‘rsatganim mana shu tarvuzning o‘zi edi, yedingiz-ku, — debdi.— Bu bir quchoq bo‘lmay nima, o‘zingiz ko‘rdingizki, quchog‘imga sig‘may lapanglab zo‘rg‘a ko‘tarib keldim.

So‘ngra qozi boyning va’dasiga ishonib, o‘zimning kambag‘alimdan ayrildim, shu zamonning boyining ham, kambag‘alining ham aytgan so‘ziga ishonib bo‘lmaydi, deb so‘kinibdi. Keyin boy o‘rnidan turib chiqib borayotib:

— Taqsir, har narsaga ham yengillik qilmang. Erta bozor oldingizga tag‘in bir tarvuz olib kelaman, — deb chiqib ketibdi. Qozi yana o‘ylab, haligi aytgan bir quchoq narsasini bu bozor olib kelsa ham ajab emas, deb xomtama bo‘lib qolibdi. Lekin bu bozor ham qozi boydan hech narsa ololmay, uyga qaytibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Zolim podsho

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonda bir podsho bor ekan. U, shu qadar zolim va johil ekanki, ta’biga kelgan har qanday noma’qul ishni ham qilaverar ekan.

Bir kun podsho jarchi qo‘yib chaqirtiribdi: „Kimki o‘lsa, egasi uni mozorga tomma-tom eltib qo‘ysin. Agar shunday qilmasa boshi o‘limda, moli talonda!“

Podshoning bu amri el-yurtni juda qiynab yuboribdi. Podshodan hamma bezor bo‘libdi. Bir kambag‘al keksa shoir bor ekan, u podshoning huzuriga boribdi. Podsho:

— Ha, nimaga kelding? — deb shoirga o‘dag‘aylabdi. Shunda shoir she’r o‘qib, kambag‘al, beva-bechoralarning xonavayronligini, och-yalang‘ochligini, tortayotgan azob-uqubatlarini tasvirlab, podshoning „O‘likni tomdan olib yurilsin!“ degan amri xalqni qiynab qo‘yganligini, bitta o‘likni ko‘mish uchun odamlar besh-o‘n kun sarson bo‘layotganligini aytibdi va she’rining oxirida podshodan:

— Bundan sizga nima foyda? — deb so‘rabdi.

Shoirning bu she’ri podshoni g‘azablantiribdi. „Bu miyasini yegan chol menga nasihatgo‘ylikka kelibdi!“ deb darhol shoirni zindonga tashlatibdi va „Oltmish yoshdan oshganlarning boshi kesilsin!“ deb ikkinchi farmon chiqaribdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Jallodlar uyma-uy yurib, qayerda oltmish yoshdan oshgan odam bo‘lsa, tutib o‘ldiraveribdilar. Oltmishdan oshganlardan ba’zilari turli yo‘llar bilan o‘limdan qochib qutulibdilar.

Bir kun podsho o‘ttiz yoshgacha bo‘lgan lashkarlarini otlanishga amr qilibdi va „O‘ttiz bir yoshga chiqqani bo‘lsa ham qoldirilsin: uning aqli ancha qisqa bo‘ladi“, debdi. Podshoning bir vaziri bor ekan. U podshodan:

— Shohim, nega bunday deysiz? — deb so‘rabdi.

— E, ahmoq, nodon, sen nimani bilasan? — debdi bo‘g‘ilib podsho. — Men tajribamdan o‘tkazganman: o‘ttizdan oshgan odamning aqli past, esi kam bo‘ladi. Og‘ziga nima kelsa, shuni so‘zlayveradi. Unday odamning nima keragi bor! Ikkinchi bu gapni gapirma, og‘zingga qo‘rg‘oshin quydiraman!

Podsho lashkarlari bilan uzoq safarga otlanibdi. Ular yurib-yurib bir tog‘ga yetibdilar. Tog‘ yonida bir katta daryo hayqirib oqar ekan. Podshoga bu yer yoqib qolib, shu yerda qo‘nishga amr qilibdi. Podsho kechasi daryo labida suvni tomosha qilib o‘tirsa, daryo ichidan bir juft gavhar shamchiroq ko‘rinibdi. Podsho lashkarlarning biriga o‘sha gavharni olib chiqishni buyuribdi. U podshoning aytganini qilish uchun daryoga sho‘ng‘ibdi, lekin qaytib chiqmabdi. Podsho ikkinchi kishini chaqirib, daryoga sho‘ng‘ishga buyuribdi. U ham bedarak ketibdi. Qo‘ying-chi, shu kecha yuzga yaqin odam birin-ketin suvga sho‘ng‘ib, birortasi ham qaytib chiqmabdi. So‘ngra lashkarlardan biri:

— Shohim, daryo tagiga yetib bo‘lmaydi. Shuncha sho‘ng‘igan kishilardan birortasi ham chiqmadi. Bekorga o‘lishdan nima foyda? — degan ekan, podsho g‘azablanib:

— E, esi past, daryo tagi chuqur bo‘lsa, gavhar ko‘rinib turarmidi! — deb dahshat qilib, uni o‘limga buyuribdi.

Lashkarlar orasida bir yigit bo‘lib, uning sakson yashar otasi bor ekan. Podsho oltmish yoshdan oshganlarni o‘limga buyurgan vaqtda haligi yigit otasini yashirib qo‘ygan ekan. Cholning shundan boshqa o‘g‘li yo‘q ekan. Yigit podsho bilan safarga chiqib ketayotganda chol yig‘lab bunday debdi:

— Bolam, bugun sen uzoq safarga jo‘nab ketasan. Mening sendan boshqa hech kimim yo‘q. Kelguningcha ahvolim nima kechadi? Podshoga borib ayt, meni o‘ldirsin, sen meni ko‘mib ket. Yo bo‘lmasa bir iloj qilib meni ham olib ket.

Yigit otasining holiga rahmi kelib, bir sandiq yasatib, otasini shu sandiqqa solib, olib ketgan ekan.

Daryoga sho‘ng‘ish navbati shu yigitga kelganda, darrov kelib sandiqni ochib, yig‘lab:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Ota, mendan rozi bo‘ling, — degan ekan, otasi:

— Nima bo‘ldi, bolam? — deb so‘rabdi.

O‘g‘li voqeani otasiga aytib beribdi.

Chol o‘ylab turib:

— Daryo labida daraxt bormi? — deb so‘rabdi. O‘g‘li:

— Ha, bir tup katta chinor bor, — debdi.

— Bo‘lmasa, — debdi chol, — gavhar o‘sha daraxtda bo‘lsa kerak, iloji bo‘lsa, o‘sha daraxtni bir qarab boq, o‘g‘lim, senga navbat kelsa, yugurib o‘sha daraxtga chiq, agar gavharni topsang uni lippangga tugib, o‘sha yerdan turib suvga sho‘ng‘i, keyin suvdan chiq! Gavharni podsho qo‘liga shunday qilib opchiqib bermasang, u nodon senga azob beradi.

Yigit otasi bilan rozi-rizolik tilashib, podsho qoshiga kelibdi. Podsho uni ko‘rishi bilan:

— Gavharni olib chiq! — debdi. Yigit to‘ppa-to‘g‘ri daraxt ustiga chiqib ketayotgan ekan, podsho:

— Suvga tush, dedim senga, nega daraxtga chiqasan?! — deb do‘q uribdi. Yigit aytibdi:

— Shohim, men juda qattiq sho‘ng‘iyman. Shuning uchun suvga o‘zimni daraxt tepasidan turib tashlamoqchiman. Gavhar yetti qavat yerning tagida bo‘lsa ham uni albatta olib chiqaman!

Yigit daraxtga chiqishi bilan bir juft gavharning bir qush uyasida yarqirab turganini ko‘ribdi. Uni darrov olib, beliga tugibdi-yu, o‘zini daryoga otibdi, bir sho‘ng‘ib, quruqqa chiqibdi.

Podsho: „Kimki gavharni olmasdan chiqsa, terisini shildiraman, ming xil azob bilan o‘ldiraman!“ degan ekan.

Yigit daryodan chiqib, bir juft gavharni podsho oldiga qo‘yibdi.

Podsho yigitni xursand qilish o‘rniga, unga bir xo‘mrayibdi-da:

— Atigi shumi, boshqa yo‘q ekanmi! Agar shuni olib chiqmaganingda kallangni sapchaday uzardim! Bo‘ldi, tur, yo‘qol! — deb yigitni haydab jo‘natibdi.

So‘ngra podsho bu yerdan ko‘chishga buyruq qilibdi. Ko‘chib bir joyga boribdilar. Qarasalar, suv labida juda ko‘p chumoli yurgan emish. Podsho:

— Chumolilar bu yerda nima qiladi? — debdi. Bunga hech kim javob bera olmabdi. Keyin podsho hammani yig‘ib:

— Har kuni ikkita odamdan so‘rayman. Ta’bimga yoqar javob qilsa, xo‘p-xo‘p, bo‘lmasa uni o‘limga buyuraman! — debdi.

Buni eshitgan haligi yigit yana otasi oldiga borib, voqeani so‘zlab beribdi. Chol:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— „Bir kuni tug‘ilmoq, bir kuni o‘lmoq bor“ deganlar, o‘g‘lim, — debdi, — sen podshoga borib: „Men javob beraman“, degin. Agar so‘rasa: „Daryoning tagida yog‘liq xumcha bo‘lsa kerak, chumolilar shunga aylanib yuribdi“, degin. Agar „Xumchani olib chiqib ko‘rsatasan“, deb qolsa, xo‘p degin-u, bir daraxt ustiga chiq, qo‘lingga o‘q-yoyni olib, podshoning og‘zini poylab otki, til tortmay o‘lsin. Bitta podsho deb shuncha navqironning bekorga nobud bo‘lishi yaxshi emas.

Yigit otasining oldidan chiqib, podsho yoniga kelib:

— Shohim, bu savolingizga men javob beray, — debdi va otasi o‘rgatgan so‘zlarni aytibdi. Podshoning achchig‘i kelib:

— Chumoli daryoning tagidagi yog‘liq xumchaga aylanishib nima qiladi?! Bu javobing juda bemaza javob! — debdi va jallod chaqirib:

— O‘ldir buni! — deb buyuribdi. Yigit:

— Shohim, men o‘sha xumchani daryodan olib chiqib ko‘rsatsam bo‘ladimi? — deb so‘rasa, podsho:

— Olib chiqib, ko‘rsat! — debdi. Yigit darhol daraxt ustiga chiqibdi.

Podsho: „Bu yigit daryoga o‘zini daraxt ustidan tashlaydi“, deb qarab turibdi. Yigit daraxtga chiqibdi-da, qo‘liga o‘q-yoyni olib, podshoning og‘zini mo‘ljalga olib, o‘q uzibdi. O‘q podshoning og‘zidan kirib, orqasidan chiqibdi. Podsho o‘sha zahotiyoq til tortmay o‘libdi. Hamma undan bezor bo‘lgan ekan. Lashkarlar kelib yigitni quchoqlab „Xo‘p ish qilding“, deb xursand bo‘libdi. Shunda yigit:

— Bu ishni men sakson yashar otamning maslahati bilan qildim. Afsuski, qancha-qancha otalarimizni bu zolim podsho bekorga o‘ldirib yubordi, — debdi-da, otasining nasihatini ularga birma-bir aytib beribdi. Yigitlar cholning bu ajoyib maslahatidan minnatdor bo‘lishib, uni o‘zlariga boshliq qilib ko‘taribdilar. Ular ichida bir shoirnamo odam bor ekan. U haligi cholning bunchalik o‘tkir aqliga qoyil qolib:

— Qari bilganni pari bilmas, — degan ekan.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Baliqchi bola

Burungi zamonda bir chol-u kampir bor ekan. U chol doim baliq ovlab kun o‘tkazar ekan. Har kuni ikkita baliq ushlab, birini chol-kampir pishirib yer ekan, birini sotib o‘tin olishar ekan. Oydan oy o‘tib, yildan yil o‘tib chol-kampir o‘tirib maslahat qilishibdi: „Bizdan keyin yetti yoshli bolamiz qoladi. Bu ham biz singari kambag‘allikda qiynalib o‘tmasin, boshqa biror yaxshiroq hunar o‘rgataylik“, deyishibdi. Lekin bolaga boshqa hunar o‘rgata olmay, tez kunda qazolari yetib o‘lishibdi. Bola ota-onasi o‘lganidan keyin juda qiynalibdi. O‘tirib o‘ylab, „Otamning kasbi nima ekan, biror nishonasini topolmasmikanman“, deb uyning har tomonini axtara boshlabdi. Bir devor orqasidan qarmoq topib olibdi va „Otamning kasbi shu bo‘lsa kerak“, deb chiqib baliq ovlay boshlabdi. Bola har kuni ikki baliq tutib, birini sotib o‘tin olib, birini pishirib yebdi.

Bir kuni bola chiroyli oltin baliq ushlabdi. Uni pishirib yeyishga ham, sotishga ham ko‘zi qiymabdi. Hovlisiga bir chiroyli hovuzcha qilib, baliqni shu hovuzchaga qo‘yib yuboribdi. Otasidan qolgan bir tovug‘i bor ekan, shu bilan hovlida uch jon bo‘lishibdi. Yana bola kundagicha ikkita baliq ovlab kelib birini sotib, birini pishirib yeb yashay beribdi. Kunlardan bir kuni baliq ovlab uyiga kelsa, hovlisi, uyi supurilgan, top-toza emish. Bola o‘rtoqlariga borib:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Har kuni ishdan kelganimda hovli, uylar supurilgan, joylar solingan bo‘ladi. Kim qilganini bilmayman, — debdi. O‘rtoqlari:

— Yetim deb rahmi kelib biror qo‘shning qilayotgandir, — debdi.

Bola kelib qo‘ni-qo‘shnilaridan so‘rabdi. Hech kimdan daragini bilmabdi. Yana bu ish ikki-uch kun davom etibdi. Bola ko‘chaga chiqib yana bir o‘rtog‘iga aytibdi. O‘rtog‘i:

— Uyingda nima bor? — debdi. Bola:

— Bir tovug‘im bilan o‘zim, boshqa hech narsa yo‘q, — debdi. Haligi o‘rtog‘i:

— Yana biror narsa bormi, o‘ylab ko‘r-chi, — debdi. Bola o‘ylab turib:

— Ha, hovuzchada bir balig‘im bor, — debdi. O‘rtog‘i:

— Bo‘lmasa, sen ertaga ishga bormasdan, kechgacha baliq bilan tovug‘ingni poyla, — debdi. Bola „Xo‘p“, deb tovuq bilan balig‘ini poylabdi. Devor orqasidan poylab tursa, haligi hovuzchadagi baliq bola chiqib ketishi bilan ustidagi po‘stinini yechib, bir chiroyli qiz bo‘libdi.

Bola hayron bo‘lib qarab turaveribdi. Qiz uyni ochib kirib supura boshlabdi. Shu payt bola hovliga yugurib kirib, baliqning po‘stinini o‘tga tashlabdi. Qiz hidini bilib yugurib chiqib qarasa, po‘stini kuyib yotibdi. Qiz „Attang“, deb peshonasiga bir uribdi-yu: „Xayr, mayli, bo‘lgan ish bo‘ldi“, debdi. Shu bilan qiz bola bilan shu uyda yashay boshlabdi. Bola kundagidek ikkita baliq tutib kelaveribdi.

Qizning ovozasi olamga ketibdi. Podsho huzuriga borib: „Bir kambag‘al bola olamda yo‘q chiroyli bir qiz olibdi“, deb maqtashibdi.

Podsho buni eshitib qizni ko‘rishga boribdi. Bola ishga ketgan ekan. Qizni ko‘rib qolibdi. Podsho bir jodugar kampirni chaqirib qizni olib kelish maslahatini qilibdi. Jodugar kampir:

— Bu bolani hech odamning qo‘lidan kelmaydigan ishga buyuring, u qila olmay o‘lib ketadi. Keyin siz qizni olasiz, — debdi. Podsho bolani chaqirtirib:

— Men senga bir vazifa buyuraman, bajarsang bajarding, bajarmasang seni bu yerdan yo‘qotaman, — debdi. Bola:

— Qanday vazifa, ayting, — debdi. Podsho:

— Falon joyga bir ravoq solasan, tagi yerga tegmasin, tepasi osmonga tegmasin, — deb qirq kun muhlat beribdi. Bola hayron bo‘lib, bo‘shashib uyga kelibdi. Qiz bolani ko‘rib:

— Podsho nimaga chaqiribdi? — debdi. Bola:

— Tagi yerga, tepasi osmonga tegmaydigan bir ravoq qilib berasan, dedi, — debdi. Qiz:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Shunga ham xafa bo‘lasizmi, buning ishi oson, — deb bolaning qo‘liga bir tosh berib: — Mana shu toshni o‘sha meni ushlab olgan daryoga olib borib tashlang. Bir pari chiqib, „Nimaga kelding?“ deydi, shunda „Podshoning eng kichkina qizining bir tuguni bor ekan, o‘shani olib bering“, deysiz, — debdi.

Bola daryo yoniga borib, qiz bergan toshni tashlabdi. Shu zamon bir pari chiqib, „Nimaga kelding?“ debdi. Bola:

— Shu daryo podshosi qizining bir tuguni bor ekan, o‘shani olib chiqib bering, — debdi. Haligi pari darrov tugunni olib chiqib beribdi. Bola tugunni olib kelib qizga beribdi. Qiz bolaga:

— Podsho qayerga ravoq qurmoqchi bo‘lsa, o‘sha yerga tugunni tashlab, orqangizga qaramay qaytib kelib yotavering, — debdi.

Bola qiz aytganday qilibdi. Podsho erta bilan turib qarasa, ravoq tayyormish, shunda u hayron bo‘lib: „Bu qanday odam ekan“, deb uni yana chaqirtiribdi-da:

— Mana bu daryo ustiga osma ko‘prik qilib ber. Tagi yerga tegmasin, tepasi osmonga tegmasin, — debdi. Bola xafa bo‘lib uyga qaytibdi. Qiz bolaning qovog‘iga qarab:

— Yana nima bo‘ldi? —debdi. Bola voqeani gapirib beribdi. Qiz yana bolaga tosh beribdi.

— Bu toshni olib borib shu daryoga tashlang, yana haligi pari sizga bir lo‘labolish olib chiqib beradi. Shu lo‘labolishni olib kelib, podshoning ko‘rsatgan joyiga tashlang, — debdi.

Bola toshni dengizga olib borib tashlabdi. Bir pari lo‘labolishni bolaga chiqarib beribdi. Bola lo‘labolishni olib podshoning ko‘rsatgan joyiga tashlab, qaytib kelib yotaveribdi. Podsho erta bilan turib qarasa, o‘zi aytgandan ham ziyoda ko‘prik tayyor bo‘libdi. Shunda podsho: „Endi yana bir ish topish kerak“, deb bir shumlikni o‘ylabdi-da, bolani yana chaqirtirib:

— Endi tuxumdan ho‘kiz chiqarib berasan, — debdi. Bola yana xafa bo‘lib uyga kelibdi. Bolaning xafa bo‘lib kelganini ko‘rib qiz hol so‘rabdi. Bola voqeani aytibdi. Qiz bolaga daryoga olib borib tashlang deb, yana bir tosh beribdi. Bola daryoga toshni tashlashi bilan haligi pari uchta tuxum olib chiqibdi-da, „Ehtiyot qilib olib bor“, deb buyuribdi. Bola tuxumlarni olib ketayotib, sinash uchun bir donasini sindirib ko‘ribdi. Tuxum ichidan bir ho‘kiz chiqib yo‘q bo‘libdi. Ikkita tuxumni qizga olib kelib beribdi.

— Birini nima qildingiz? — debdi. Bola qilgan ishini aytib beribdi. Shunda qiz:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Ha, mayli, bo‘lar ish bo‘libdi, endi podsho tuxumni sindir deganda, tomga chiqing-da, tuxumni o‘sha yerdan turib tashlang, — debdi.

Bola qolgan ikkita tuxumni podshoga olib borib beribdi. Podsho:

— Qani, ho‘kiz chiqarib ber, — debdi. Bola:

— Siz pastda turing, men esa tomda turib tuxumni tashlayman, bo‘lmasa sinmaydi,— deb tomga chiqib, tuxumlarni yerga tashlabdi. Tuxumlar sinib, ichidan ikkita haybatli ho‘kiz chiqib podshoni suza boshlabdi. Podsho:

— Tavba qildim, qilgan gunohimdan kech, — deb yalinibdi. Bola kechibdi. Ho‘kizlar shu zamon yo‘q bo‘lib ketibdi. Oydan oy o‘tib, kundan kun o‘tib podsho yana bolani chaqirtiribdi:

— Endi yangi tug‘ilgan bolani olib kelib gapirtirasan, — debdi.

Bola uyga qaytib podshoning gapini qizga aytibdi. Qiz yana bolaga bir tosh berib:

— Shu toshni tezda daryoga olib borib tashlang. Mening eng katta opam bor, shu hozir tug‘adi, „Opasi ko‘rar ekan“, deb bolasini olib keling, — debdi. Bola chopganicha daryoga borib toshni tashlabdi.

Daryodan bir pari chiqib „Ozgina turing, hozir tug‘adi, olib ketasiz“, debdi. Bola tug‘ilishi bilan olib chiqib beribdi. Baliqchi yangi tug‘ilgan bolani ko‘tarib kelayotsa, bola: „Pochcha, opamni ko‘ramanmi?“ debdi. Baliqchi bola hayron bo‘lib: „Ha, opangni ko‘rasan“, deb ko‘tarib kelib bolani to‘g‘ri podshoning oldiga qo‘yibdi. Podsho:

— Qani, bolani gapirtir-chi, — debdi. Haligi tug‘ilgan bola podshoga bir tarsaki qo‘yib yuborib: „Yangi tug‘ilgan bola ham gapiradimi, tuxumdan ham ho‘kiz chiqadimi, tagi yerga, tepasi osmonga tegmaydigan ko‘prik bilan ravoq ham bo‘ladimi“, deb bidillab, podshoni uraveribdi.

Podsho baliqchi bolaga yalinib:

— Xotining ham o‘zingga, mol-mulkim ham senga, o‘zing menga o‘g‘il bo‘l, — debdi. Baliqchi esa bolani daryoga — o‘z onasi yoniga tashlabdi. Keyin o‘z uyiga kelib, tinch yashab, murod-maqsadiga yetibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Karimboy bilan xizmatkor

Qadim zamonda, O‘zgan tomonda, Karimboy degan badavlat kishi o‘tgan ekan. Kunlardan bir kun, Karimboy o‘z xizmatkoriga:

— Shu ho‘kiz qo‘shga yaramay qoldi, bozorga olib borib sotib kel, — debdi.

Xizmatkor ho‘kizni yetaklab bozorga borayotganda bir daraxtdagi sassiqpopushak „pop-pop“ debdi.

— Ha, uka, ho‘kiz olasanmi? — debdi xizmatkor. Popushak o‘zicha bir nimalar deb yana popullabdi. Xizmatkor:

— Ikki yuz tangami, pulini qachon berasan, ertagami? — debdi-da, ho‘kizni daraxtga boylab, egasining oldiga qaytib kelibdi. Karimboy xizmatkordan: „Ho‘kizning puli qani?“ deb so‘rabdi.

— Ho‘kizni nasiyaga sotdim, pulini ertaga olib kelaman, — debdi.

— Kimga sotding? — debdi boy.

— Bir mallapo‘shga sotdim, — debdi.

Xizmatkor erta bilan turib haligi daraxt yoniga kelib qarasa, ho‘kiz ham yo‘q, mallapo‘sh ham yo‘q, daraxt ustida yolg‘iz bir ko‘kqarg‘a o‘tiribdi. Xizmatkor borib: „Ho‘kizning puli qani?“ — debdi. Qarg‘a „qag‘-qag‘“, debdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Ho‘, sen ho‘kizning pulini bermaysanmi? Kecha kelganimda egningda malla to‘n bor edi. Bugun egningga po‘stin, boshingga telpak kiygansan, ho‘kizning pulini bermaysanmi? — deb qo‘lini ko‘targan ekan, qarg‘a qo‘rqib, qag‘illab uchib ketibdi.

Xizmatkor etagini belbog‘iga qistirib, qarg‘aning orqasidan quvib ketibdi. Qarg‘a uchib borib bir jardagi uyasiga kirib ketibdi. Xizmatkor: „Ho‘kizning pulini ber!“ deb uyasiga qo‘lini tiqibdi. Qarg‘a uyasidan chiqmabdi. Xizmatkor pichog‘ini olib bir chekkadan uyani kavlay boshlabdi, pichoq bir narsaga tegib jaranglab ketibdi. Qarasa, bir xum tilla, shunda u „Ho‘kizning pulini undirdim“, deb bir xalta keltirib, tillani olib ketibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Botir

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, o‘tgan zamonda Botir ismli bir yigit bor ekan. Qari onasidan boshqa hech kimi yo‘q ekan. Ona-bola kundalik tirikchiliklarini zo‘rg‘a o‘tkazishar ekan. Kunlardan bir kuni uyda chaksa un ham qolmabdi. Botir yarim qop bug‘doyni ko‘tarib, un qilish uchun tegirmon izlab ketibdi. Yo‘lda xashak orasidan ikkita tuxum topib olibdi. „Bu ham xudoning marhamati“, deb cho‘ntagiga solib biroz yuribdi. Qarasa, yo‘lda bir xurmacha qatiq turgan emish. Botir sevinib, xurmachani qo‘liga olibdi. So‘ngra „Buni tegirmonga olib borsam, tegirmonchilar ichib qo‘yishlari aniq, bu yerga qo‘yib ketsam, boshqa yo‘lovchi ichib qo‘yadi“, deb o‘ylabdi-da, uni yerga ko‘mib ketibdi.

Yana biroz yurgandan keyin qarasa, yo‘lda bir xum turgan emish. „Qaytishda olib ketaman“, deb buni ham yerga ko‘mib, belgi uchun ustiga bitta cho‘p suqibdi-da, yo‘lga tushibdi. Yo‘l yurib, yo‘l yursa ham mo‘l yurib, bir tegirmonga yetibdi. Tegirmonning ichiga kirsa, hech kim yo‘q emish. Qop-qop un tiralib turganmish. Botir unlarni ko‘rib, shoshib qolibdi. Bug‘doy olib borgan qopini unga to‘ldirib, qaytmoqchi bo‘libdi. Biroq kun kech bo‘lib qolganligidan, shu kechani tegirmonda o‘tkazmoqchi bo‘libdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Tegirmon devlarniki ekan. Kech kirishi bilan devlar qo‘ng‘iroq, do‘mbiralarini chalib, bazm qilib kelishibdi. Botir avvaliga qo‘rqibdi. Keyin o‘zini tutib olib, ichida: „Kel, nima bo‘lsam bo‘ldim, bularga bir do‘q qilib ko‘ray“, deb o‘ylab, devlarga:

— Bu otamning tegirmoni edi. Sizlar buni egallab olibsiz, men sizlar bilan olishib tegirmonni qaytarib olish uchun keldim, — debdi.

Devlarning podshosi o‘rtaga tushib:

— Qani, kel bo‘lmasa, kurashaylik, — debdi. Botir dev bir ursa kul-kul bo‘lib ketishiga ko‘zi yetib juda qo‘rqibdi. Shunday bo‘lsa ham bo‘sh kelmay, do‘q qilaveribdi, devlarga qarab:

— Uchta shartim bor. Shu shartlarni bajarsangiz, maydonda kurashamiz, bajara olmasangizlar tegirmon meniki bo‘ladi, — debdi.

— Ayt shartingni, — debdi dev.

— Birinchi shartim, mana shu daraxtni qo‘l bilan siqib, suvini chiqarib yuborasiz, — debdi.

Devlar hammasi birma-bir, navbatma-navbat, daraxtni siqib ko‘rishibdi. Hech qaysisi daraxtning suvini chiqara olmabdi. Botir turib:

— Mana, menga qaranglar, — debdi-da, devlardan bekitib cho‘ntagidan ikkita tuxumni olib, daraxtga qo‘shib siqibdi, tuxum chaqilib ketibdi.

— Ana, sizlar daraxtning suvini chiqara olmadinglar, men bo‘lsam, hatto yelimini chiqarib yubordim,— debdi. Devlar hayron bo‘lib qolishibdi.

— Ikkinchi shartingni ayt, — debdi ular.

— Ikkinchi shartim, yerni bir tepganda qatig‘ini o‘ynatib yuborish, — debdi Botir.

Devlarning podshosi o‘rtaga tushib:

— Bu shartni men bajaraman, — deb g‘azab bilan yerni bir necha bor tepsa ham hech narsa chiqara olmabdi. Izza bo‘lgan dev Botirga:

— Qani endi o‘zing chiqar-chi! — debdi.

— Beri kelinglar, — deb Botir devlarni o‘zining qatiq ko‘mib qo‘ygan yeriga olib boribdi. Ko‘milgan joyni mo‘ljallab turib bir tepgan ekan, qatiq har tarafga otilib ketibdi. Buni ko‘rib devlarning o‘takasi yorilibdi.

Shunday bo‘lsa ham, uchinchi shartni eshitmoqchi bo‘lishibdi.

— Uchinchi shartim, — debdi Botir, — yerni bir tepishda o‘ra qilish.

Devlardan biri:

— Bu shartni men bajaraman, — deb yerni tepa boshlabdi. Yer o‘ra bo‘lish u yoqda tursin, bir qarich ham o‘pirilmabdi.

Shunda Botir:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Mana endi menga qaranglar, — debdi-yu, yo‘ldan topib olgan xumni ko‘mib qo‘ygan yerga borib, mo‘ljallab turib, bir tepgan ekan, xumning og‘zi o‘raday ochilib qolibdi.

Botir devlarga qarab:

— Agar qattiqroq tepsam, o‘zim ham yer tagiga cho‘kib ketar edim, shuning uchun sekin tepdim, — debdi.

Devlar qo‘rqib, tegirmonni unlari bilan Botirga tashlab qochib ketishibdi. Kechasi Botir choponini odam shaklida o‘rab, yerga yotqizib, o‘zi tegirmonni bug‘doydoniga tushib, bekinib yotibdi. Yarim kechada alamzada devlar qaytib kelishibdi. Odam shaklida bo‘lib yotgan choponni obdan urib, Botirni o‘ldiga chiqarib ketishibdi. Botir buni ko‘rib yotgan ekan. Devlar ketgandan keyin choponini olib qarasa, u dabdala bo‘lib ketgan ekan. Botir choponini yelkasiga solib, ko‘chaga chiqibdi. Devlar Botirni o‘ldi deb xursand bo‘lib, bazm qilayotgan ekanlar. Botir ularning ustiga kelib:

— Tegirmonda sichqon juda ko‘p ekan, yotganimda choponimni qiymalab, ilma-teshik qilib yubordi. Choponimni sizlardan to‘latib olaman, bo‘lmasa, hammangizni o‘ldiraman, — debdi. Devlarning ba’zilari qo‘rqib, qochib ketibdi. Qocha olmaganlari Botir oldiga kelib: „Rahm qiling! Bizlarni o‘ldirmang! Nima ish buyursangiz hammasini bajaramiz“, deb yalinib-yolboribdi. Shunda Botir devlarga qirqta tuya topib kelishni buyuribdi. Devlar bir nafasda Botirning aytganini bajo keltiribdilar.

Botir:

— Unlarni tuyalarga ortinglar! — deb buyruq beribdi.

Devlar ko‘z yumguncha Botirning aytganini qilibdilar. Botir oldingi tuyaga minib, qirq tuya unni uyiga olib kelibdi. Kampir ochlikdan o‘lim to‘shagida yotgan ekan. O‘g‘lini ko‘rib tetiklanibdi. Unlardan non yopib shirin-shirin taomlar pishirib, zoriqish nimaligini bilmay yashay boshlashibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Soqi mumsik bilan Boqi mumsik

Bir zamonda Soqi mumsik bilan Boqi mumsik degan ikki kishi yashagan ekan. Ular o‘taketgan mumsik (xasis) ekanlar. Bir-birlariga suvni ham ravo ko‘rmas ekanlar.

Bir kuni Soqi mumsik Boqi mumsiknikiga mehmon bo‘lib boribdi. Borsa, Boqi mumsikning xotini non yopayotgan ekan. U Soqi mumsikni ko‘ribdi-yu, o‘tni o‘chirib, xamirni o‘rab qo‘yib, hech nima bilmagandek bemalol o‘tiraveribdi. Boqi mumsik ham Soqi mumsikni ko‘rib ensasi qotibdi, keldingmi ham demabdi. Mehmon ham o‘tiraveribdi. Mehmonning oldiga hech narsa qo‘yishmabdi. Oxiri kech bo‘lib, yotmoqchi bo‘lishibdi. Kampir Soqi mumsik bilan Boqi mumsikka ayvonga joy qilib beribdi. Yotish oldida Boqi mumsik xotiniga, „Hali sen mehmon uxlaganida meni uyg‘otib, qornimni to‘yg‘azib qo‘ygin“, debdi. Bu gapni Soqi mumsik eshitib qolibdi. Ular yotishibdi. Soqi mumsik uxlamabdi. Boqi mumsik uxlab qolibdi. Boqi mumsikning xotini kechasi kelib erini asta chaqiribdi. Lekin u turmabdi. Shunda Soqi mumsik ovozini o‘zgartirib:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi



«Kanizak bilan podsho» ertagiga ishlangan rasm

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Mana, hozir, — debdi-yu ovqatni tushira boshlabdi. Kampir esa, uni Boqi mumsik deb hadeb ovqatni beraveribdi. Soqi mumsik qorni to‘ygach, ortgan ovqatni belbog‘iga tugib olibdi. Keyin:

— Bo‘ldi, to‘ydim, — deb joyiga kelib yotibdi-da, ertalab barvaqt turib jo‘nab qolibdi. Ertalab Boqi mumsik o‘rnidan turib xotiniga:

— Kechasi nega menga ovqat bermading, och qolib o‘layozdim-ku, — deb dag‘dag‘a qilgan ekan, xotini:

— Qanday odamsiz, ovqat berdim-ku, har safargidan ko‘p ovqat yedingiz-ku, — deb javob beribdi. Shundan so‘ng Boqi mumsik ovqatning hammasini Soqi mumsik yeb ketganini bilibdi.

Shunday qilib, Soqi mumsik Boqi mumsikni qo‘lga tushirib ketgan ekan.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

O‘pka qishlog‘i

O‘tgan zamonda bir mirshab bir choldan O‘pka qishlog‘ini so‘ragan ekan, chol turgan joyiga ishora qilib: „Siz hozir kekirdakka keldingiz, o‘pkaga borishga yaqin qoldi“, debdi. Mirshabning jahli chiqib, qilichini yalang‘ochlab: „Chopaman“, degan ekan, chol: „Chopmasdan, sekin yayov borsangiz ham yetasiz“, deb javob beribdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Dehqon

Bir dehqon qo‘sh haydab turgan ekan, podshoning qushbegisi ot minib katta yo‘ldan o‘tib qolibdi. Dehqonga ko‘zi tushib:

— Hormang! — debdi.

Dehqon eshitsa ham o‘zini eshitmaganga solib, „Xo‘sh, jonivor!“ deb ho‘kizlarini qaytarib, yerni hayday beribdi, Bek: „Qulog‘i karmi, buning, nega indamaydi yoki bu chol meni pisand qilmayaptimi“, deb o‘ylabdi va yana unga qattiqroq „Hormang!“ debdi. Dehqon boshini bir qimirlatib, yana ishini davom ettiraveribdi. Bek g‘azablanib jo‘nab ketibdi. Qo‘rg‘onga borib, xizmatkorlariga buyruq beribdi:

— Boringlar, o‘sha dehqonning qo‘lini orqasiga bog‘lab, shu yerga haydab kelinglar!

Girandalar[1] dehqonni ushlab, qo‘lini orqasiga bog‘lab, bek qoshiga olib kelishibdi.

---

[1] **Giranda** — ushlab keluvchilar.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Dehqon bekni ko‘rib:

— Assalomu alaykum, bor bo‘ling, bor bo‘ling, — debdi.

Bek:

— Ey, ahmoq chol, qo‘ling orqangga bog‘landi, oldimga kelding, endi o‘lishingni bilding. Dalada ikki marta „Hormang“, desam ham „Bor bo‘ling“, demading, — debdi.

Shunda dehqon:

— Taqsir, o‘sha vaqtda ekadigan yerimning obi-tobi joyida edi, bor bo‘ling, deyishga ham vaqtim yo‘q edi. Yer tobidan qochmasin, dedim. Endi oldingizga keldim, qancha „bor bo‘ling“ kerak bo‘lsa, ola bering, — debdi.

— Bir botmon yerdan qancha g‘alla olasan? —debdi bek.

Dehqon:

— Taqsir, agar ikkita yaxshi ho‘kizim, bir xizmatkorim bo‘lsa, bir botmon yerdan ikki yuz botmon g‘alla olaman, — debdi. Bek:

— Agar bir botmon yerdan ikki yuz botmon g‘alla olsang olganing, bo‘lmasa, boshing o‘limda, moling talonda, — debdi-da, bu so‘zni xatga yozib, muhr bostirib beribdi.

Ana endi dehqon bir botmon yerni mo‘ljallab, tizza bo‘yi qilib haydatibdi, tuprog‘ini almashtirib tobiga keltiribdi. Dehqon yerga oq jo‘xori ekibdi. Jo‘xorilar ikki quloq bo‘lganda orasiga lavlagi ham sepibdi. Lavlagi dum tortibdi, har bir lavlagi tagiga chelak-chelak go‘ng solibdi. Lavlagi barg chiqarganda, bitta qo‘ymay barglarini yulib olibdi. Jo‘xori ham yetilib shamol bo‘lsa, takalagi[1] bir-biriga urilib shovullay boshlabdi. Lavlagining har bittasi ko‘zaday-ko‘zaday bo‘lib yetilibdi. Dehqonning hosili yetilib tayyor bo‘libdi.

Bek va amaldorlari kelib:

— Qani, dehqon, bir botmon yerdan ikki yuz botmon hosil olganingni ko‘rsat-chi! — debdi.

Dehqon oq jo‘xorini yig‘ib, yanchib, o‘lchatib qarasa, yuz botmon chiqibdi.

Shunda bek:

— Ikki yuz botmon hosil olaman degan eding-ku, qani qolgan yuz botmon hosil? — debdi.

---

[1] **Takalak** — zo‘g‘atasi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Dehqon:

— Shoshmanglar, hozir ekinimning bolasini oldinglar, onasi hali yerda yotibdi, — debdi.

Bekning xizmatkorlari lavlagini yig‘ib olib qarashsa, har qaysisi ko‘zaday-ko‘zaday kelar emish. Ularni o‘lchashsa, ikki yuz yigirma botmon chiqibdi. Bek dehqon o‘z mo‘ljalidan ziyoda hosil olganini ko‘rib, alamiga chidolmay, g‘azablanib:

— Sen shuncha hosilni nima qilasan, bu hosil beklikka kerak, — debdi va xizmatkorlariga:

— Bu hosilning uchdan biri qoldirilib, qolgani qo‘rg‘onga olib ketilsin! — deb buyuribdi va otini minib, qo‘rg‘on tomonga qarab jo‘nabdi.

Dehqon mo‘l hosil olish yo‘lini bilsa ham, o‘z mehnatining natijasidan mahrum bo‘lib qola beribdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kanizak bilan podsho

O‘tgan zamonda bir podshoning to‘rtta xotini bor ekan. Ularning ichida Sarvigul degani juda chiroyli ekan. Uni podsho hamma xotinlaridan ko‘proq sevar ekan. Kunlarning birida malika o‘zining ismi go‘zalligiga mos emasligi to‘g‘risida podshoga shikoyat qilibdi. Shunda podsho „Agar bundan keyin kimki malikani Sarvigul deb atasa, tilini kesib, og‘ziga qo‘rg‘oshin quyaman“, deb farmon chiqaribdi.

Ittifoqo, farmon chiqqan kuni Sarvigul bog‘da sayr qilib yurar ekan. Uni uyqu bosibdi. Gullar orasiga qo‘yilgan so‘rida yotib uxlabdi. Bir qancha vaqtdan keyin uyg‘otmoqchi bo‘lganlarida malikaning qazo qilganligi ma’lum bo‘libdi. Kanizlarni qayg‘u bosibdi. Bu xabar saroydagi kishilarga ham tez vaqt ichida ma’lum bo‘libdi. Ammo bu xabarni podshoga yetkazish eng og‘ir, mushkul ish ekan. Chunki, birinchidan, malikaga yangi nom qo‘yilgancha yo‘q, ikkinchidan, avvalgi ismini aytib xabar qilingan taqdirda podsho o‘z farmoniga muvofiq xabar bergan kishini jazolashi turgan gap ekan. Podshoga ma’lum qilinmabdi. Lekin o‘likning yota berishi mumkin emas-ku. Buning ustiga, o‘z vaqtida xabar berilmagani uchun saroydagi kishilar yana jazolanishi mumkin. Saroy kishilari bu mushkul ishdan qutulish yo‘lini qidira boshlabdilar. Shu paytda kanizaklardan biri dadil ovoz bilan:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Men borib xabar qilaman, — debdi.

Boshqalar masxara qilib:

— Shuncha aqli rasolar turganda, senga chikora, o‘lging kelyaptimi? — deyishibdi.

— Mayli, — debdi kanizak va chopib podsho yoniga kelibdi. Podsho taxtda o‘tirarkan. Qiz eshikka yaqinlashib, eshik tirqishidan astagina ovoz bilan bir misra she’r o‘qibdi:

Sarvigulning soyasida so‘ldi gul, netmoq kerak?

Podsho bu misrani eshitgach, g‘am ostida qolib javob beribdi:

Bargidan tobut yasab, guldin kafan etmoq kerak.

Mushkul ish hal bo‘libdi. Sarvigulni ko‘mibdilar, keyin podsho shu xabarni yetkazgan kanizakni huzuriga chaqirtiribdi. Kanizak podsho qarshisida bosh egib turar ekan.

Podsho:

— Malikaning o‘limi haqidagi xabarni menga sen yetkazdingmi? — deb so‘rabdi.

— Shunday, podshohi olam! — debdi kanizak.

Podsho:

— Bu ishing uchun senga davlatimning yarmini berdim, — debdi.

— Marhamatlari uchun tashakkur, — debdi qiz.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Tuhmat balosi

Bor ekan, yo‘q ekan, och ekan, to‘q ekan, qadim zamonda, Buxoro shahrida Xondarxon degan podsho o‘tgan ekan. Podshoning vazirlari ichida Qosim jallod degan bir vazir bor ekan. Podsho uning so‘zini e’tiborga olar ekan. Ahmadjon degan bir yigit orzu-havas bilan bir boyning qizini olgan ekan. Ahmadjon xotini bilan yetti yil birga umr kechirib hech bir farzand ko‘rmabdi.

Bir kuni Ahmadjon xotiniga qarab aytibdi:

— Ey, xotin, men tengi uylanganlar farzand ko‘rdi. Ulardan birortasi bolasini ko‘tarib ko‘chaga chiqqanini ko‘rsam, yerga kirib ketaman. Men sen bilan yetti yil umr qilib, farzand ko‘rmadim. Juda xafaman. Mahallamdagi o‘rtoqlarim bilan bir sayohat qilib kelmoqchiman. Sen meni uch yil kut. Agar uch yil kutmasdan boshqa er qilsang, sendan rozi bo‘lmayman.

Yigit uch yilga yetar-yetmas uy xarajatlarini to‘g‘rilab, xotiniga:

— Ostona xatlab eshikka chiqmaysan, — deb safarga ketibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Xotini eridan homilador bo‘lib qolgan ekan. Oradan to‘qqiz oy, to‘qqiz kun o‘tgach, o‘g‘il ko‘ribdi. O‘g‘lini yaxshi tarbiyalabdi. Erining ketganiga ikki yarim yil bo‘libdi. Kunlardan bir kun bolasini allalab uxlatayotganida, erining so‘zlari esiga tushib, shunday qo‘shiq aytibdi.

Alla bolam, allayo, alla,
Jon bolam, jonim bolam, allayo, alla.
Baland-baland tepada qush o‘ltirar, alla.
Yo‘qchilik boshimga kulfat keltirar, alla.
Yo‘q bo‘lib otang, yonimda xor bo‘lguncha, alla,
Tog‘dagi arslon bo‘lay to o‘lguncha alla.
Yaxshi bo‘lsa er yigitning xotini, alla,
Shul chiqarar yigitning otini, alla.
Derazadan oy tushdi yuzimga, alla,
Sizdan boshqa yor ko‘rinmas ko‘zimga, alla.
Kecha-kunduz sabr tilayman o‘zimga, alla,
Jon bolam, jonim bolam, allayo, alla.
Otasini ko‘rmagan, yig‘isini qo‘ymagan, alla,
Jon bolam, jonim bolam, allayo, alla.

Ona bolasini uxlatib, beshikka bosh qo‘yib, uxlab qolibdi. Tushida erini ko‘ribdi. Ahmadjon kelib ko‘cha eshigini taqillatib uni chaqiribdi, yugurib chiqib, eshikni ochib ko‘chaga qarasa, eri loyga botib qolgan emish.

Eri:

— Ey, xotin, kiray desam, eshiging berk ekan, loyga botib qoldim. Kel, qo‘limdan tort! — debdi. U erining qo‘lidan ushlab tortgan ekan, erining oyog‘i tagiga yiqilib tushibdi. Xotin uyg‘onib qarasa, tong payti ekan. Beshikka bosh qo‘yib uxlab o‘tirgan emish.

„Ajabo, bu nima bo‘ldi, buni kimga aytaman. Erim ostona xatlab eshikka chiqmagin degan edi“, deb o‘ylabdi. Choy qaynatib, dasturxon yozib, choydan bir piyola ichmoqchi bo‘lib turgan vaqtida, birdan darvoza taqillab qolibdi. Bu kim ekan, deb eshik yoniga borib:

— Kimsiz? — deb so‘rabdi:

— Men, och eshikni! — degan ayol tovushi eshitilibdi. Eshikni ochib qarasa, qo‘shnisi Mastura kampir emish. Kampir bu xotinning payida yurar ekan. Ko‘rinishi do‘st bo‘lsa ham, ichdan dushman ekan.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Keling, ena, xizmat? — debdi uy egasi.

— Aylanay bolam, — debdi kampir, — uyimda gugurtim tamom bo‘lib qolgan ekan. Sizda bo‘lsa, so‘ragani chiqdim.

— Yaxshi chiqibsiz. Ichkariga kiring! Bir piyola choy iching, — debdi uy egasi. Kampir:

— Ha, mayli, ichsam icha qolay, — deb o‘tiribdi. Ikkisi choy ichishibdi. Uy egasi:

— Men sizni enamday ko‘rib yuraman. Bugun bir tush ko‘rdim. Siz shu tushimni yaxshiga jo‘yib bersangiz, — debdi.

— Ayt-chi, bolam, qani, nima tush ko‘rding? — debdi kampir.

— Tushimda erim kelib chaqirganday bo‘ldi. Quvonib, yugurib borib eshikni ochdim, chiqib qarasam, erim eshik oldida loyga botib qolgan emish. Erim: „Mening qo‘limdan ushla, tortib ol!“ dedi. Men erimning qo‘lidan tortaman desam, oyog‘i tagiga yiqilib tushdim, uyg‘onib qarasam, tushim ekan.

— Ey, bolam, — debdi kampir, — sen tushingda boyingning oyog‘i tagida loy ko‘rgan bo‘lsang, uning oyog‘i tagiga yiqilgan bo‘lsang, ikki-uch kun ichida bir tuhmatga uchraysan. Seni podshoning oldiga olib borib, bir yuz sakson gaz minoradan tashlab yuboradilar.

Xotin:

— Sening menga dushmanliging bor ekan. Endi kirsang oyog‘ingni sindiraman, dushmanliging o‘zingga yetsin! — deb gugurt bermay, kampirni uydan haydab yuboribdi.

Xotin: „Qurib ketgur, kampir mening o‘chgan o‘timni yondirib, yuragimni kuydirdi, tushimni aytmasam bo‘lar ekan“, deb o‘ylabdi. Kampirning so‘ziga, ko‘rgan tushiga eri ketganidan buyon yig‘ib qo‘ygan ipini olib sotib, uch-to‘rt gadoyga sadaqa berib kelmoqchi bo‘libdi. O‘ylab, o‘ziga-o‘zi so‘ylab: „Qanday kiyim kiyib borsam ekan? Yoshga o‘xshab kiyinib bozorga borsam, bitta-yarimta yigit ko‘z qirini tashlamasin, har holda kampirlarga o‘xshab boray“, deb eski kiyimlar kiyib uydan chiqibdi. Kalava ip bozoriga boribdi. Kalava bozorga yaqin kelib, birovdan:

— Aylanay bolam, kalava bozori qayerda? — deb so‘rabdi. U:

— Yaqin qoldi, — deb kalava bozorini ko‘rsatib yuboribdi.

Kalava bozoriga kirib ketayotsa, bir do‘kondor yigit:

— Qo‘lingizdagi nima? — deb so‘rabdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Aylanay bolam, kalava, — debdi.

— Sotasizmi?

— Sotaman.

Shunda do‘kondor:

— Olib keling, bo‘lmasa, — debdi-da, taroziga solib tortib ko‘ribdi.

— Kalavangiz o‘n qadoq ekan. Qancha so‘raysiz?

— Aylanay bolam, men nima der edim, o‘zingizga insof bersin, — debdi. Yigit:

— O‘n qadoq kalavangizga o‘n tanga beraman, xo‘p desangiz bering, — debdi...

— Mayli, — debdi xotin.

Do‘kondor:

— Men kalavangizni o‘n tangaga oldim, lekin besh tanga pulim bor ekan. Shu rastaning narigi boshida mening o‘rtog‘im bor. Sizga shu o‘rtog‘imdan besh tangangizni olib beraman, — debdi.

— Mayli, bolam! — deb javob beribdi xotin.

Endi gapni boshqa tomondan eshiting:

Podsho bir o‘g‘rini dorga osish haqida farmon bergan ekan. Do‘kondor bilan ketayotgan xotin podsho vaziri Qosim jallod o‘g‘rini kalava bozoridan haydab kelayotganini ko‘rib, qo‘rqqanidan hushidan ketib, boshidan paranjisi tushib, oyog‘iga o‘ralib yiqilibdi. Qosim jallod yuzi ochilib qolgan xotinning husn-jamolini ko‘rib, „yaxshi xotin ekan-da“, deb o‘g‘rini haydab keta beribdi. Xotin bir do‘kon taxtasining orqasiga yashirinib olibdi. Qosim jallod yo‘lda keta turib, mug‘ambir, ayyor, har yaramas ishga tayyor Olim chaqqon degan odamni uchratib:

— Sen orqangga qayt! Kalava bozorda bir xotinni ko‘rib qoldim. Shu xotinni olib kelib, men bilan gaplashtirsang, senga bir ot, yuz tanga pul beraman, — deb o‘g‘rini haydab ketibdi.

Olim chaqqon bu so‘zni eshitib kalava bozoriga chopibdi. Kalava bozoriga borsa, kalavafurushning oldida bir xotin turgan emish. Unga kalavafurush:

— Mana besh tanga, oling. Kalavani bering, — deb turganini eshitgan Olim chaqqon otdan tushib kalavafurushning yoqasidan ushlabdi.

— Birodar, men nima ish qildim. Meni yoqamdan bo‘g‘asiz? — debdi kalavafurush. Olim chaqqon kalavafurushga:

— Nega sen bu xotinga pul beryapsan? — debdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— E, bolam, bu gapni aytmang? Men bu kishiga kalava sotdim. Shunga pul beryaptilar, — debdi xotin.

— Ha, ha, kalavangiz qaysi?

— Ha, anavi, — debdi.

— Bo‘lmasa, bu kalavani olib taroziga solib ko‘r-chi, qancha kelar ekan.

Kalavafurush uning gapi bilan kalavani olib taroziga qo‘yib:

— Mana o‘n qadoq. Har qadog‘i bir tangadan, o‘n tanga berdim, — debdi.

— Bo‘lmasa sen o‘n tangaga olgan bo‘lsang, aldamaganing shu xotin qolganmi edi. Bu kalavani har kim o‘n besh tangaga oladi-yu, sen o‘n tangaga olasanmi? — debdi Olim chaqqon.

Kalavafurush:

— Siz o‘zingiz o‘n besh tangaga olasizmi? — debdi.

— Ha, olaman, — debdi.

— Oling bo‘lmasa, — debdi kalavafurush. Kalavafurushning qo‘lidan Olim chaqqon kalavani olib:

— Mana, ena, o‘n tanga, besh tangasini mening uyimdan olasiz. Shu yerdan to‘g‘ri borib, ikkinchi mahallaga yetib „Olim chaqqonning uyi qayerda? deb so‘rasangiz hamma ko‘rsatib beradi, — debdi.

Xotin kalavafurushga o‘n tangasini qaytarib berib, Olim chaqqonning so‘ziga ishonib, uning o‘n tangasini olibdi.

Olim chaqqon:

— Ena, endi siz bora bering. Mening bozorda ishim bor, — deb bozorda qolgandek bo‘lib, xotinning ketidan qorama-qora bora beribdi.

Xotin Olim chaqqonning uyiga yetib borib, eshikdan qarasa, uyda hech kim yo‘q emish. Qaytib chiqay desa, ko‘cha eshigi bekilib qolibdi.

Olim chaqqon eshikni bekitib ko‘chada turgan emish. Xotin chiqib ketmoqchi bo‘libdi. Olim chaqqon:

— Chiqarmayman seni. Shu yerda biroz turasan. Agar turmayman desang, qanoting bo‘lsa osmonga uchib ket, ilojini topsang, yerga kirib ket. Lekin seni menga bir odam tayinlagan. O‘sha odam kelib, „Shu edi“, desa, xo‘p-xo‘p, agar boshqa odam desa, keta berasan, — debdi. Xotin:

— Vo ajabo, bu qanday gap? Uyda yosh bolam qolgan, — deb ko‘ziga yosh olibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Qosim jallod o‘g‘rini dorga tortib, qaytib kelib, Olim chaqqondan:

— Nima qilding? — deb so‘rabdi.

— Eshikni ochaman, kirib ko‘ring, — deb javob beribdi Olim chaqqon.

— Qani, ochgin, ko‘ray, — debdi jallod. Olim chaqqon eshikni ochibdi. Jallod eshikdan kirib o‘zi tayinlagan xotin ekanini ko‘rib, Olim:

— Seni bir kun xursand qilarman, — debdi-da, xotinga qarab:

— Ey, yanga, cho‘ntagim to‘la tanga. Bu kecha men bilan gapirishsang, o‘n ming tanga beraman, — debdi. Xotin:

— O‘n ming tanga ekan, yuz ming tanga bersang ham, sen bilan gaplashmayman, — debdi. Jallod bu so‘zni eshitib, jahli chiqib, Olim chaqqonga:

— Hayda buni! Podsho oldiga olib boramiz, bunga podshoning jazosini berdirmasam, Qosim jallod otimni boshqa qo‘yaman, — debdi.

Xotin aytibdi:

— Mayli, meni podshoning oldiga olib bor, nima jazoga tortsa tortsin. Qosim jallod bilan Olim chaqqon xotinni podshoning oldiga olib borishibdi. Podsho:

— Qosimboy, nima gap-so‘z topib keldingiz? — deb so‘rabdi. Qosim jallod aytibdi:

— Kecha yarim kechada Chordanzi mahallasidan o‘tib ketayotsam, bir uyning ichidan gangur-gungur ovoz chiqayotganini eshitib qoldim. „Yarim kechada bu ovoz qayerdan kelayotir“, deb tomga chiqib, mo‘ridan qarasam, bu xotin qirqta yigitga musallas quyib berib o‘tiribdi. „Xap senimi? Senga ko‘rsatib qo‘ymasam“, deb tomdan tushib, eshikdan kiray desam, hovlisining orqa tomoni bog‘ ekan, bu xotin qirq yigitni bog‘ tarafdan qochirib, eshikni ochdi. Menga:

— Nima ko‘rding? —dedi. Men:

— Bu yerda o‘tirgan yigitlar qani? — deb so‘rasam. U: „Qo‘ling bilan tutgin-da, nima qilsang qila ber“, deb menga do‘q qildi. Shuning uchun sizning oldingizga keltirdim. Shunga jazo berishingizni so‘rayman, — debdi.

— Ey, ayol, yosh ekansan, mening zamonimda bunday ish uchun o‘limga buyurishimni bila turib, shu ishni qilishga qo‘rqmadingmi? — debdi.

Xotin:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Ey, podshohi olam, sultoni bokaram, men ham arzimni aytay, eshiting, — deb yolvoribdi. Podsho:

— Ayt, — debdi.

Xotin eri sayohatga chiqib ketgani, unga ikki yarim yil o'tgani, bir kun bolasini allalab uxlab qolgani, tush ko'rgani va boshidan kechirgan butun voqeasini podshoga so'zlab beribdi. So'zining oxirida: „Qilgan gunohim shul, taqsir", debdi. Podsho:

— Ey, Qosimboy, buning aytgan so'zi to'g'rimi? — deb so'rabdi: Jallod:

— Taqsir, o'g'ri „O'g'riman", yomon „Yomonman", buzuq „Buzuqman", deydimi?! Sizga men xizmat qila boshlaganimdan beri yolg'on gapirganmanmi? Agar buning gapiga ishonib, mening gapimga ishonmasangiz, o'zingiz bilasiz, — debdi. Podsho jallodga qarab:

— Bu xotinning gapi yolg'onligiga to'rtta guvoh topib kelsangiz, uni jazoga buyuraman, — debdi. Qosim jallod:

— Xo'p, bo'lmasa, men guvoh topib kelay, — deb chiqib ketibdi.

Bir qimorxonaga borib, to'rtta yutqizgan qimorbozni topib, bozor boshiga yetganda, to'rttoviga ham mullalar kiyadigan kiyim kiydirib, oshxonaga olib kirib, qornini to'yg'azibdi, gap o'rgatibdi, podshoning oldiga olib boribdi. Podsho:

— Qosimboy, bularni nimaga olib kelding? — debdi. Qosim jallod:

— Siz guvoh olib kel, deganingiz uchun guvohlikka olib keldim, — debdi. Podsho kelganlarga qarab:

— Sizlar Qosimboyga guvohmisizlar! — debdi. Qimorbozlar:

— Ha, guvohmiz, — deyishibdi. Podsho ularga qarab:

— Qosimboy bu xotinni buzuq deydi, bu xotin esa, „Men buzuq emasman", deydi. Qosimboyning gapi to'g'rimi yo xotinning gapi to'g'rimi? — debdi. Qimorbozlar:

— Ey, podsho, sizga tasadduq bo'laylik. Qosimboyning gapi to'g'ri. Biz bilamiz: bu xotin buzuq, har qanday jazo bersangiz arziydi, — deyishibdi.

Podsho:

— Xo'p, mening davrimda shu odam yomon deb to'rt odam guvohlikka o'tsa, uni qilgan ishiga qarab jazoga buyuraman, — debdi va xotinga qarab:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Buzuqliging yo‘rig‘idan seni o‘lim jazosiga buyuraman. Jazo minorasidan tashlataman yo ostiraman. Shu uch jazodan qaysi biriga rozisan, ayt! — debdi.

Xotin:

— Ey, podsho, sizga bularning tuhmati ma’qul bo‘lib, mening gapim noma’qul bo‘lsa, mening yana sizga bir arzim bor, mana shu kalitni bir odamingizga bersangiz. Mening uyimga borib eshikni ochib kirsa, beshikda qolgan bolam bor. Shu bolamni oldirtirib keltirsangiz. Agar oldirib keltirmasangiz, bolam uyda qolib, meni jazoga torttirsangiz, rozi emasman. Bolamni oldirib kelib, shu bir yuz sakson gazlik minoradan tashlating, roziman, — debdi.

Podsho shu onda xotin tayinlagan joyga odam yuborib, bolasini keltirib, xotinning qo‘liga beribdi. Xotin bolasini olib, bir yuz sakson gazlik minoraning tagiga borib, bolasini ko‘tarib turib, xalqqa qarab:

— Ey, xaloyiq, podsho meni nohaq jazoga tortayotir. Shuning uchun shu bolamni kim oladi? Agar olgan odam asrab katta qilsa, xursand bo‘ladi, xafalik tortmaydi, — debdi.

Bir chol kelib:

— Mening qizim, o‘g‘lim yo‘q edi, farzand uchun zor edim. Sen mening qizimsan, o‘g‘lim o‘rniga o‘g‘limsan. Bolangni men olay, boqib katta qilay, — deb bolani olibdi.

Podsho xizmatkorlari xotinni qopga solib, bir yuz sakson gazlik minoraning tepasidan „Hukmi podsho vojib“ deb tashlab yuborishibdi. Xotin aylanib-aylanib, azob tortmay, xuddi tomdan sakrab tushganday tikka yerga tushibdi. Xalq xotinning tirik qolganini ko‘rib hayron bo‘libdi. Xalq ichidan uch-to‘rtta odam chiqib jallodga:

— Ey, Qosimboy, berahmlik bilan nohaq tuhmat qilgan ekansiz-da, bu minoradan tashlagan odamlar parcha-parcha bo‘lib, zambardagi loyday yoyilib ketar edi. Bu xotin parcha-parcha bo‘lmay, tik tushib qoldi. Sening ga-ping nohaq gap, tuhmat, bu xotinning yolborgani to‘g‘ri ekan, — deyishibdi.

Qosim jallod turib:

— Bu xotin jodugar, sehrgar ekan, shuning uchun o‘lmadi, yana qaytadan tashlataman, — debdi.

Odamlar:

— Sen qanday odamsan? Tag‘in minoradan tashlash kerak, deysan. Senda insof bormi? Lekin biz podshoga borib aytamiz: „Siz minoradan

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

tashlashga buyurgan xotin, nohaq jazo berilgani uchun minoradan azob chekmay, sog‘-salomat tushdi, o‘lmadi“, deymiz. Podsho „Yana minoradan tashlanglar“, desa tashlaymiz, bo‘lmasa, „Yo‘q“ — deb xotinning tarafini olishibdi. Qosim jallod minora tagida qolibdi, besh-olti odam podshoning oldiga borib, bo‘lgan voqeani birma-bir bayon qilishibdi. Podsho ularga:

— Unday bo‘lsa, xotinni minoradan yana tashlanglar! — debdi.

Bir vazir turib:

— Siz bir marta hukm chiqargansiz. Xotin haq bo‘lgani uchun minoradan tushib o‘lmabdi. Endi uni ozod qilib, bolasini qo‘liga berib jo‘natish kerak. Qosim jallodni esa, begunoh bir odamga tuhmat qilgani uchun jazoga tortish kerak, — debdi. Podshoga bu gap ma’qul tushibdi.

— Boringlar, xotinni ozod qilib, choldan bolasini olib qo‘liga berib, yana unga o‘n tanga ham berib, uyiga eltib qo‘yinglar. Qosim jallod, Olim chaqqon va to‘rtta guvohini bu yerga olib kelmasdan, shahardan chiqarib haydab yuboringlar, — deb farmon beribdi. Bu odamlar minora tagiga borib, xotinni qopdan chiqarib, choldan bolani olib qo‘liga tutqazib, o‘n tanga berib jo‘natishibdi.

Qosim jallod va guvohlarni esa boshqa tomonga haydab yuborishibdi. Xotin uyiga kelib uch oy turgandan keyin eri kelibdi.

Hol-ahvol so‘rashib:

— Men hayallab qoldim. Xafa bo‘lmay yurdingmi? — debdi. Xotini u ketgandan keyin boshidan kechirgan sarguzashtlarini aytib beribdi.

Eri bundan keyin xotinini yolg‘iz qoldirmaslikka va’da beribdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Xasis boy bilan Abdurahmon o‘g‘ri

Bir zamonda bir xasis boy o‘tgan ekan. Uning ming tilla puli bor ekan. Bu pulini bitta bo‘z xaltaga solib, og‘zini mahkam tugib, hech kimga ishonmay, ipidan bo‘yniga osib, qo‘ltig‘iga tushirib olar, kechasi yotganida mahkam quchoqlab yotar ekan. Erta bilan turganida, mabodo kechasi uxlab yotganimda xotinim ochib birortasini olib qo‘ymadimikan deb, xaltani ochib, tillalarini sanab, yana bog‘lab qo‘yarkan. Boy biror joyga ketsa, tillalarni xotinining ko‘z oldida sanab sandiqqa solib qulflab, kalitini xotiniga berib ketar ekan. Hatto bozorga biror narsa olishga borsa o‘g‘riga oldirib qo‘ymayin deb, cho‘ntagiga pul solib bormas ekan. Xotiniga, agar menga pul kerak bo‘lsa, odam yuborsam, mana bu bo‘z chorsini berib yuboraman, sen shunda tillani berib yuborasan deb tayinlar ekan. Bir kuni boy bozorga boribdi. O‘zi bilan birga Matmusa degan xizmatkorini ham olib boribdi. Boy bozorni aylanib, ko‘p narsalarni ko‘rib, xaridor bo‘libdi. Oxiri bitta ot, bitta mol, qo‘y, guruch, un, sabzi-piyoz xarid qilibdi. Egalariga pul bermabdi, ular ham boyning ketidan ergashib yura beribdi. Ular boydan pullarini qistabdi. Boy:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Hozir yonimda pul yo‘q. Xizmatchim borib, uydan pul olib keladi, so‘ng pullaringizni olasiz, — debdi. Boy xizmatkoriga:

— Matmusa! — debdi. Xizmatkori:

— Labbay, xo‘jayin, — debdi. Boy Matmusaga belidan bo‘z belbog‘ini yechib uzatibdi va:

— Uyga, kelinbuvingga bor, bo‘z xaltadagi tillani bersin, tezda olib kel! — debdi.

Xasis boy erta bilan Matmusani nonushta qildirmay ergashtirib ketgan, bozorda ham ovqat olib bermagan ekan. Matmusa qorni och, yurgani ham madori yo‘q, belbog‘ni yelkasiga solib, imillab uyga ketayotgan ekan. Shu bozorda Abdurahmon degan o‘g‘ri bor ekan. U bu boyning katta puli bo‘lsa kerak, bir iloj qilib o‘g‘irlab olaman, deb bu ham boyning ketidan ergashib yurgan ekan. Boy Matmusaga haligi gapni aytganini eshitib, uning orqasidan tushibdi. Shu payt bir tomondan qo‘ng‘irog‘ini jangir-jungir qilib, bir qator tuya o‘tib qolibdi. Matmusa angrayib, tuyalarga qarab, hushi ketib turgan ekan, Abdurahmon uning yelkasidagi bo‘z belbog‘ini shilt etib ilib qochibdi. Ikki oyog‘i to‘rt bo‘lib, chopib, boyning uyiga boribdi-da:

— Kelinbuvi, kelinbuvi! — deb boyning xotinini chaqiribdi.

Boyning xotini ichkaridan tovush beribdi. Abdurahmon o‘g‘ri:

— Boy buvam bozordan xarid qildi. Sen kelinbuvingga bor, bo‘z xaltadagi tillani bersin, olib kelgin, deb yubordi, — deb bo‘z chorsini uzatibdi. Xotin tillani olib, bo‘z chorsiga o‘rab beribdi. Abdurahmon o‘g‘ri tillani olib yo‘lga tushibdi. Yo‘lning yarmidan o‘tganda Matmusaga duch kelibdi. Uni o‘tkazib turib, bo‘z chorsini yo‘lga tashlabdi-da:

— Hay, oshna! — deb chaqiribdi. Matmusa orqasiga qayrilib qaragan ekan, Abdurahmon:

— Chorsingiz tushib qolibdi, oling! — debdi. Matmusa, chorsini tushirib qo‘ygan ekanman-da, deb qaytib kelib olib, o‘g‘riga rahmat aytib keta beribdi. O‘g‘ri esa, bozorga bormay to‘ppa-to‘g‘ri uyiga qarab ketibdi.

Matmusa xo‘jayininikiga borib, uning xotinini chaqiribdi. Xotini tovush beribdi:

— Boybuvam kelinbuvingga aytgin, bo‘z xaltadagi tillani bersin, olib kelgin, dedilar. Mana, bo‘z chorsilarini berib yubordilar, — deb bo‘z chorsini uzatibdi. Boyning xotini:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Boy pulga necha marta odam yuboradi? Hali bittang kelib: „Boybuvam xaltadagi tillani bersin!“ deb, tillani olib ketdi-ku, — debdi.

Matmusa bozorga qaytib borib, xasis boyga:

— Xo‘jayin! Mendan ilgari bitta xizmatchingizni yuborgan ekansiz. U tillalarni olib ketgan ekan, men quruq qaytib keldim, — debdi. Bu gapni eshitib, boyning kayfi uchib, ikkala ko‘zi olayib, qinidan chiqay deb, turgan joyida taxtaday qotib qolibdi.

Xasis boyga narsa sotganlar:

— Boybuva! Pulimizni bering! Kech kirib ketyapti. Bozorligimizni olib tezroq uyimizga ketaylik, bizni ko‘p kuttirib qo‘ydingiz, — deyishibdi.

Boy bir vaqt o‘ziga kelib:

— Meni xudo urib qo‘yibdi. Narsalaringizni olmayman. Har kim o‘z narsasini olib keta bersin, — debdi. Odamlar:

— Ey, xasis boy! Yo‘q pulga bizni ahmoq qildingmi! — deb boyni so‘kib-so‘kib, narsalarini olib keta berishibdi.

Boy bu ishni Abdurahmon o‘g‘ridan boshqa hech kim qilmaydi, deb o‘ylabdi. Otini minibdi-yu, uyiga bormay, to‘ppa-to‘g‘ri Abdurahmon o‘g‘rinikiga borib, eshigini taqillatibdi. Abdurahmon o‘g‘ri chiqib qarasa, boy kelibdi:

— Ha, keling, boybuva! Qani otdan tushing, mehmonxonaga kiraylik. Xizmatda bo‘laylik, — debdi. Ichida: „Voy quzg‘un boy-ey! Tillani olganimni sezib kepti-da!“ deb o‘ylabdi. Boy otdan tushibdi. Abdurahmon o‘g‘ri otni yetaklab, boyni tashqari hovlisiga boshlab kiribdi.

Otni otxonaga bog‘lab, boyni mehmonxonaga olib kirib o‘tqazibdi. Oldiga dasturxon yozibdi, kechqurun palov qilib olib chiqibdi. Xasis boy o‘g‘riga dardini aytolmabdi. O‘g‘rinikida bir kecha yotibdi. Ertasiga yana ketmabdi. Uch kun o‘tsa ham ketmabdi. Besh kun o‘tsayam ketmabdi. O‘g‘ri: „Bu xasis boy qachon ketar ekan?!“ deb o‘ylabdi. Boy qirq kungacha ham ketmabdi. Abdurahmon o‘g‘ri boyning o‘zini va otini boqib, bu ham boyga sir bermay, yomon gapirmay yura beribdi. Oxiri Abdurahmon o‘g‘ri zerikibdi. Boyga:

— Boybuva! Mehmon degan bir kun yotadi, ikki kun yotadi. Ha, boring, o‘n kun yotsin. Sizning kelganingizga qirq kun bo‘ldi. Hali

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
qo‘zg‘alay demaysiz! Yo biror ish bilan kelganingizni aytmaysiz. Menda biror ishingiz bormidi? — debdi.

Boy:

— Sen menga rostini ayt! Bizning uyga borib ming tillani olib kelganmisan, yo‘qmi? Agar olib kelgan bo‘lsang, olib kelganman, degin! Bo‘lmasa: „Xotinim taloq bo‘lsin, olganim yo‘q!“ deb qasam ichgin, — debdi. O‘g‘ri mardlik qilibdi. Boydan bu gapni eshitib, xoxolab kulib yuboribdi va:

— Boy ota! Qaydan bildingiz? — deb so‘rabdi. Boy:

— Sendan boshqa usta, uchar o‘g‘ri bormi? Sendan boshqa hech kim olmaydi, — debdi. Shunda o‘g‘ri:

— Rost, boy ota! Tillalaringizni men olib edim. Bir tillasini ishlatdim. Bir kam ming tillasi turibdi, — debdi. Uyiga kirib, bir kam ming tillani bo‘z xaltasi bilan olib chiqib, boyga beribdi.

Boy tillalarni sanab, bo‘z xaltaga solibdi, og‘zini bog‘lab, cho‘ntakka solib, ketmay, yana yota beribdi. Oradan o‘n kun o‘tibdi. Abdurahmon o‘g‘ri boydan:

— Endi nimaga ketmay yotibsiz? — deb so‘rabdi. Xasis boy:

— Bir tillani ber. Bermasang, ketmay yota beraman, — debdi.

O‘g‘ri:

— Sizni otingiz bilan ellik kun boqdim. Bunga bir tilladan ko‘p ketdi. Yegan ovqatingiz, otingizga bergan beda va yemlarim uchun bir tillani olmay keta bering-da! — debdi. Boy:

— Sen meni kim deb o‘ylayapsan o‘zing? Ming tilla pulimni ellik kun ushlab turganingga haq so‘ramayapman-u, ellik kunlik ovqatimga haq so‘raysanmi? Bir tillani olmasdan ketmayman! — debdi. O‘g‘ri xotiniga kirib:

— Bu xasis boy tillasini undirmaguncha ketmayman, deyapti. Men kechasi o‘ldim deb yotib olaman. Sen sahar turib, bolalaringni uyg‘otasan. Sen: „Voy, to‘ram!“ deb yig‘laysan. Bolalar: „Voy, otam!“ deb yig‘laydi. Shunda boy ketishga majbur bo‘ladi, — debdi.

Kechqurun Abdurahmon o‘g‘ri boshini bog‘lab, boyning oldiga inqillab kirib boribdi va:

— Boybuva! Men allaqanday bo‘lib ketyapman, o‘lib qolmasam koshki edi. Siz xabardor bo‘lib turing. Jonga ishonch yo‘q. Basharti, kechasi bir ish bo‘lib qolsa, go‘r-kafanga bir-ikki tilla qarashasiz-da, — deb uyiga kirib ketibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Saharga borganda, ichkaridan „Voy, to‘ram!“, „Voy, otam!“ degan yig‘i tovushi eshitilibdi. Bu yig‘ini eshitib, o‘g‘rining qo‘ni-qo‘shnilari, qarindosh-urug‘i chiqib to‘planibdi. Biri: „Voy, tog‘am!“ deb, biri: „Voy, akam!“ deb, biri: „Voy, to‘ram!“ deb yig‘lay berishibdi.

Abdurahmon o‘g‘ri esa o‘zini o‘likka solib yotib olibdi. Tong otibdi, boy ketmabdi, qo‘liga supurgi bilan paqirni olib, hovliga va ko‘chaga suv sepib, supurib yura beribdi. Abdurahmon o‘g‘rining ta’ziyasiga mahalla-ko‘y to‘planibdi. Shunda xasis boy:

— Biz bu rahmatlik bilan juda qadrdon edik. Bitta non topsak, o‘rtada baham ko‘rib kelganmiz. Mana, mening kelganimga ellik kun bo‘ldi. Ellik kundan beri meni ketkizmaydi. Birimiz o‘lsak, ikkinchimiz o‘z qo‘limiz bilan yuvib, o‘z qo‘limiz bilan lahadga qo‘yaylik, degan shartimiz bor edi. Suvni o‘zim isitaman, o‘zim yuvib, kafanlayman, — debdi.

Odamlar:

— Barakalla! Sizlarning ahdingiz juda qattiq bo‘lgan ekan. Unday bo‘lsa, mayli, yuvg‘uchi aytmaymiz, — deyishibdi. Boy „o‘lik“ni yuvish uchun yovvoyi jiydaning sertikan novdalaridan kesib olib kelib qo‘yibdi. Qozonni osib, suvni badanni kuydiradigan darajada isitibdi. Odamlar „o‘lik“ni bir xonaga olib kirib, cho‘ziltirib qo‘yishibdi. Boy odamlarni chiqarib yuborib, uyni ichkarisidan berkitib olibdi. Qo‘liga yovvoyi jiydaning tikanli novdasini ushlab, „o‘lik“ka issiq suvni quyib, tikan bilan ishqalab, badanini qonatib, yuva boshlabdi. Abdurahmonning badani kuyib achishsa ham tishini tishiga qo‘yib, g‘ing demay yota beribdi. Shunda boy:

— Bunday qilib yotganing bilan, to bir tillani bermaguncha qutul-maysan! — deb badanini timdalab, qonatib yuva beribdi. Abdurahmon ham chidab yota beribdi. „O‘lik“ni yuvib bo‘lib, kafanlabdi.

Odamlar kirib, uni tobutga solib, go‘ristonga olib borishib, lahadga qo‘yib, ustidan tuproq tortishibdi. Boy:

— Ey, xaloyiq! Rahmatlik bilan ahdimiz bor edi. Bir-birimiz o‘lsak, go‘rning tepasidan uch kungacha ketmay, poylaymiz, deyishgan edik, — deb boy ketmasdan, go‘rni poylab qolibdi. Odamlar tarqab ketishibdi. Yarim kechaga borganda, boy go‘rni kovlab: „Qani, chiq! Bir tillani ber!“ deb kafanidan tortib, Abdurahmon o‘g‘rini tashqariga olib chiqibdi. „Bunday qilib, o‘zingni o‘likka solib yotganing bilan

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

bir tillani yeb keta olmaysan!“ deb „o‘lik“ni sudrab, chillaxonaga olib kirib, tepa beribdi. Kaltak jonidan o‘tgandan keyin, Abdurahmon o‘g‘ri ham boyning jag‘iga tushira beribdi. Ikkovi rosa mushtlashibdi. O‘g‘ri boyni urib, hamma yog‘ini ezib tashlabdi. Bularning shovqinini go‘rkov eshitib, kelib qarasa, ikkita o‘lik go‘rdan chiqib mushtlashayotgan emish. Go‘rkov qo‘rqib qochib ketibdi. Boy itday kaltak yeb, sulayib yotib qolibdi. Abdurahmon ham madori ketib yotib qolibdi.

Shu kecha qirqta o‘g‘ri podshoning xazinasiga kirib, tillalarini o‘g‘irlab chiqib, bo‘lib olish uchun hech kim yo‘q, xoli deb, go‘ristonga kelib qolishibdi. O‘g‘rilar chillaxonaga kirib, tillani bo‘lishibdi. O‘g‘rilarning boshlig‘i:

— Tillalarni bo‘lib qo‘ydim. Qani, bir bo‘lakdan olinglar, — debdi.

O‘g‘rilar bir-biriga:

— Qani, sen ol! Sen! — deyishibdi. Biri:

— Oldin pulni bo‘lgan olsin! — debdi.

Abdurahmon o‘g‘ri bularning tovushini eshitib, indamay yota beribdi. Boy esa: „E, tillaning konidan chiqib qoldim!“ — deb, o‘g‘rilarning tillasidan umidvor bo‘lib yota beribdi. O‘g‘rilarning birovi:

— Qani, tong yaqinlashib kelyapti. Bu yerdan tez ketishimiz kerak. Oladigan bo‘lsalaring, olinglar tezroq, — debdi. Tillalar ketib qoladi, deb, xasis boy vahimaga tushib, ko‘zini ola-kula qilib, tillalarga qarabdi. Uni o‘g‘rilarning biri ko‘rib qolib, qo‘rqib ketibdi.

Bittasi:

— He, bu yotgan o‘lik-da! Buning nimasidan qo‘rqasan! — debdi.

Abdurahmon o‘g‘ri ham ko‘zini ola-kula qilib yotibdi.

Shunda o‘g‘rilarning har biri bir bo‘lakdan tillani olishga qo‘l uzatayotgan ekan, xasis boy tillalar ketib qolmasin, deb qo‘rqib, o‘zini tillaga otibdi. Ketidan Abdurahmon o‘g‘ri ham o‘zini tashlabdi. Buni ko‘rib, o‘g‘rilar qo‘rqib jon-poni chiqay deb, qochib ketishibdi. Tillalarni boy bilan Abdurahmon o‘g‘ri bo‘lishib olibdilar. Shunda boy Abdurahmon o‘g‘riga:

— Endi bir tillani ber! — debdi. Abdurahmon o‘g‘ri:

— Shuncha tillalarni olib ham to‘ymadingizmi? — debdi. Boy:

— Bir tillamni bermaguningcha qo‘ymayman, berasan! — debdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Abdurahmonning achchig‘i kelib „Bermayman“, debdi. Shu yerda ikkalasi yana mushtlashib ketibdi.

O‘g‘rilar chillaxonadan chiqib qochib ketayotib: „E, biz shuncha tillani o‘likka tashlab keta beramizmi, deb yo‘ldan qaytib kelib sekin quloq solishsa, bular bir tillani talashib mushtlashib yotishgan emish. O‘g‘rilar:

— He, hamma o‘lik tirilib chiqib, shuncha tilla bittadan yetmay janjallashayaptilar, — deb qo‘rqib, ketib qolishibdi.

Abdurahmon o‘g‘ri mushtlashib charchabdi. Bu shum boydan qutulmaydiganga o‘xshayman, deb:

— He, nonko‘r, xasis boy! Shuncha tillaga to‘ymasang, ma, shu bir tilla bilan to‘ygin, — deb bir tillani beribdi.

Shundan keyin ikkovlari ham o‘rinlaridan turib, uy-uylariga jo‘nashibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Guliqahqah

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Bir podsho bor ekan. U podsho ovga chiqib ketayotsa, uzoqdan bir qizil narsa ko‘rinibdi. Podsho ikki vaziri bilan borib qarasa, qip-qizil gulning tagida uchta pari qiz o‘tirgan emish. Podsho qizlarga aytibdi:

— Sizning hunaringiz bormi?

Biri:

— Men shu qizil guldan bichib, to‘n tikaman, — debdi.

Yana biri:

— Men osmondagi qushdan nusxa olaman, — debdi.

Yana biri — podsho xushtor bo‘lib qolgan qiz aytibdi:

— Men uchar qushdan nusxa olaman ham tilla kokilli o‘g‘il tug‘ib beraman, — debdi. Podsho qizlarni shahriga olib borib ikkisini ikki vazirga olib beribdi. O‘zi „Tilla kokilli o‘g‘il tug‘aman“, degan qizni olibdi. El-yurtga to‘y beribdi. Qizning bo‘yida bo‘libdi. Kundan kun, oydan oy o‘tib, oy-kuni yaqinlashibdi. Buni bilgan kundoshlari bir shum kampirni chaqirib, unga: „Kundoshimiz tilla kokilli o‘g‘il tug‘sa,

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

uning bolasini yo‘q qilasan. Senga hammamiz bir tovoqdan tilla beramiz“, debdi. Kampir podshoning kichik xotini tug‘moqchi bo‘lib turganda, ikkita kuchukvachchani olib kelib uning yoniga qo‘yibdi. Tilla kokilli bolani bir cho‘l-biyobonga olib borib tashlabdi. Podsho xotinining to‘lg‘oq tutganini eshitib, suyunib ovdan qaytib kelayotsa, kampir uchrabdi.

— Xotinim nima tug‘di? — deb so‘rabdi.

— Xotiningiz ikkita kuchukvachcha tug‘di, — debdi kampir.

— Bo‘lmasa, xotinim bilan bolani zindonga tashlansin, — deb podsho xotini bilan kuchukni zindonga tashlatibdi.

Cho‘l-biyobonga tashlangan bolani bir kiyik kelib to‘rt yoshgacha emizibdi. So‘ngra kiyik „Meni otib o‘ldirib qo‘ymasin“, deb qochib ketibdi.

Bola tentirab yurib-yurib bir kun otasining o‘rdasiga borib qolibdi. Podshoning xotinlari ko‘rib, kampirga:

— Tilla kokilli bola kelib qoldi, bolani tezda yo‘q qilib yuboring. Hammamiz bir tovoqdan tilla beramiz, — debdi. Kampir bolani bitta eski sandiqqa solib, daryoga oqizib yuboribdi. Bola sandiqda kun ham oqibdi, tun ham oqibdi. Bir baliqchi daryo bo‘yida baliqqa qarmoq solib o‘tirgan ekan, sandiqni ko‘rib qolib, astagina suvdan tortib olibdi. Sandiqni ochib qarasa, ichida paxtadakkina tilla kokilli bir bola yotgan emish. Bolani uyiga olib kelib, tarbiyalab, katta qilibdi.

Bola bir kuni daryo bo‘yida ov qilib yurganida juda ko‘p g‘oz, o‘rdaklarni tutib olibdi. Bittasini ham o‘ldirmabdi. Bir o‘rdak daryoning u yog‘idan-bu yog‘iga suzib yurgan emish. Bola bu o‘rdakni hech tutolmay: „Endi qushimni solib olaman“ deb turgan ekan, daryoning narigi yog‘ida basavlat bir odamni ko‘ribdi. Bola uni ko‘rib „Shunday otang bo‘lsa“, deb orzu qilibdi. U yoqdan podsho esa suqsurday yigitni ko‘rib „O‘g‘ling bo‘lsa, shunday bo‘lsa“, debdi. Xullas, bir-birlariga mehrlari tushib qolibdi. Tilla kokilli bola „Kiyimlarim yirtiq“, deb uyalib, uyiga kirib ketibdi. Podsho bola tomonga o‘ta olmay: „Shu bola oldiga bora olmadim. Shu bola o‘ldirsa o‘lganimni ham bilmas edim“, deb uyiga kelibdi. Tilla kokil uyiga kelsa, uyida bir kampir kelib o‘tirgan emish. Kampir tilla kokilni ko‘rib:

— Bolam, o‘zingiz xuddi podshoning o‘g‘lidek ekansiz. Sizga bir Guliqahqah bo‘lsa yaxshi bo‘lar edi, — debdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Tilla kokil:

— O‘sha Guliqahqah qayerda bo‘ladi? — deb so‘rabdi. Kampir bolaga:

— Guliqahqah falon joyda bo‘ladi, — debdi. Tilla kokil Guliqahqahni qidirib ketibdi. Qidirib ketaveribdi-ketaveribdi. Charchab bir joyga borib o‘tirsa, unga bir chol:

— Qush uchsa qanoti, odam kelsa oyog‘i kuyadigan bu joylarda nima qilib yuribsan, bolam? Kim seni bu yerlarga yubordi? — debdi.

Bola:

— Meni bir kampir yubordi, — debdi.

— Bolam, bo‘lmasa o‘zingga ehtiyot bo‘l, zinhor-bazinhor bu yo‘ldan yurmay, ana u yo‘ldan yur, — debdi. Bola ketaveribdi, yo‘l yuribdi, yo‘l yursa ham mo‘l yuribdi. Bir joyga borsa, bir kishi maysa ustida namoz o‘qib o‘tirgan ekan. Bola ham borib o‘sha kishi yoniga o‘tiribdi. U kishi namozni o‘qib bo‘lgach, bola unga salom beribdi.

Chol:

— Bu yerga kelib salom berganing uchun mana bu yerda o‘tir, — deb bir o‘raga solib, o‘raning ustiga bir taxta qo‘yib bekitibdi. Shu yerdagi devlar uyg‘onib qolib: „Uf-fa, odam isi kelyapti, e, buva, odam isi kelyapti“, deb u yoq-bu yoqni qidirishibdi, hech kimni topisha olmabdi.

Bitta dev tishini kavlasa, bir odamning soni chiqibdi. Devlar „O‘shaning hidi ekan-da“, deb tag‘in uxlab qolishibdi. Chol Tilla kokilni o‘radan olibdi. Bola bir uyga kirsa, Guliqahqah kulib yuboribdi. Hamma yoq gul-lola bo‘lib ketibdi. Chol Guliqahqahdan bir juft olib Tilla kokilga beribdi. Tilla kokil Guliqahqahni olib uyiga borsa, haligi kampir o‘tirgan emish. Kampir o‘z-o‘ziga „O‘lmabdi, endi qirq qozonga buyuray“, debdi. Bolaga aytibdi:

— Qani endi bu Guliqahqahga qirq qozon bo‘lsa, — debdi.

Bola:

— Qirq qozon qanaqa? — deb so‘rabdi.

Kampir:

— Bolam, bir qo‘y go‘shtini solib qo‘ysang, bir yilgacha qirq qozonda qirq xil taom pishib turadi. Qaysisini xohlasang, o‘shani olib yeysan. Bir yilgacha tamom bo‘lmaydi, yilda bir qo‘yni so‘yib olsang, uni yeb tursang ado bo‘lmaydi, — debdi. — O‘sha qozonni olib kelsang

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Guliqahqah xursand bo‘ladi, — deb aldabdi. Tilla kokil ham Guliqahqahni bir pana joyga qo‘yib, o‘zi yo‘lga chiqibdi. Yo‘lda unga yana avvalgi chol yo‘liqibdi:

— E, bolam, yo‘l bo‘lsin, qayoqqa borasiz? — debdi.

Bola:

— E, ota, meni bir kampir yo‘lga solyapti. Qirq qozon degan narsa bo‘lar ekan, shunga ketayotibman, — debdi.

Chol:

— E, bolam, o‘sha kampir sening dushmaning ekan. To‘g‘ri yo‘ldan ketaver. Bir qora tosh bor, o‘shani sal ko‘tarib ko‘r, suv chiqsa, sekin joyiga tashlab, orqangga qayt. Agar qon chiqsa, toshni ko‘tarib boq! „Qirq qozonning haqiga shu qozonni mening yurtimga olib borib qo‘yinglar“, desang qozonni qirqta dev qulog‘idan ushlab, aytgan joyingga olib borib qo‘yadi, senga ziyon qilmaydi, — debdi.

Tilla kokil ketaveribdi-ketaveribdi, bir joyga borsa bir uy turgan emish. Uyning ichiga kirib qarasa, bir tosh turgan emish. Toshni sekin ko‘tarib ko‘rsa, bir chetidan qon chiqib ketibdi. Darrov toshni ko‘tara solib, „Qirq qozonning haqiga shu qozonni mening yurtimga olib borib qo‘yinglar“, debdi. Devlar qozonni olib borib qo‘yibdi. Borsa yana kampir o‘tirgan emish. Kampir: „Voy, shunda ham o‘lmabdi. Endi bir joyga yuborayki, o‘n jonidan bir joni ham qolmasin“, debdi. Bolaga:

— Endi, bu Guliqahqahga, qirq qozonga oynayi jahonnoma bo‘lsa, hamma yurtlardagi narsalarni, podsholarning joylarini ko‘rib turar edingiz, — debdi. Tilla kokil ham uning gapiga kirib, oynayi jahonnomani izlab ketibdi. Yo‘lda yana chol uchrabdi.

— Tag‘in qayoqqa ketyapsan, bolam? — deb so‘rabdi. Tilla kokil aytibdi:

— Oynayi jahonnoma degan narsa bo‘lar ekan, o‘shani olib kelgani ketayotibman, — debdi.

Chol:

— Bo‘lmasa mana shu yo‘ldan yur, yo‘lda bir chinor bor. O‘sha chinorning ustida qush bola ochgan. Tagida bir ajdar bor, shu ajdar qushning bolalarini yegani chiqqanda, mana shu tosh bilan peshonasiga qarab ur. O‘lsa, unda qush seni murodingga yetkazadi, — debdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Tilla kokil chol ko‘rsatgan yo‘ldan yuribdi. Chinorning tagiga borib yotsa, bir ajdar og‘zidan olovini sochib, daraxtga o‘ralib, qushlar turadigan shoxga chiqib ketayotgan emish. Tilla kokil chol bergan tosh bilan ajdarning peshonasiga bir uribdi. Ajdar tap etib daraxtdan tushibdi. Qush bolalarining oldiga kelsa, ajdar o‘lib yotgan emish. Qush bolalaridan: „Ajdarni kim o‘ldirdi?“ deb so‘rabdi. Bolalari: „Anavi kishi o‘ldirdi, biz qutuldik“, deyishibdi. U qush Tilla kokilga: „Tila tilagingni, beray murodingni“, debdi. Tilla kokil: „Oynayi jahonnomani olib kelishga yordam bersang“, debdi.

Qush:

— Qattig‘idan tutding-ku, bo‘lmasa mening ikki oyog‘imni mahkam ushla. Men uchib, bulutlarning ustiga olib chiqaman. O‘sha bulutning ustida bir qo‘ychivon bor. O‘sha qo‘ychivonning boshi yo‘q bir qo‘yi bor. O‘sha qo‘yni undan tilab ol. „Buning boshi yo‘q, qay yeridan so‘yadi“, deb so‘ra. Qo‘ychivon: „Sen qo‘yni haydab tur, men so‘yib beraman“, deb senga qo‘y haydaydigan tayog‘ini beradi. Shu tayoqda oynayi jahonnoma bor. Olganingdan keyin, sekin mening oldimga kel, seni uchirib ketaman, — debdi. Tilla kokil qushning aytganini qilibdi.

Qush Tilla kokilni uchirib joyiga olib kelib qo‘ybdi, ozgina patidan berib „Qachon boshingga mushkul ish tushsa, shuni kuydirsang yetib kelaman“, deb uchib ketibdi. Bola eson-omon uyiga kelibdi.

Bir kun Tilla kokil ovga chiqsa, otasi podsho ham narigi tomonda ov qilib yurgan emish. Tilla kokil daryoning bu yog‘ida ov qilib yuribdi. Daryoning o‘rtasida bir o‘rdak yurgan ekan. Podsho uni ko‘rib, Tilla kokilga:

— Qushni soling, o‘g‘lim, qushni soling, — deb qichqiribdi.

Tilla kokil:

— Yo‘q, avval kattadan, keyin kichkinadan, — debdi. Podsho uch marta qush solsa ham ovni ololmabdi. Tilla kokil bir marta qush solishi bilan o‘rdakni tutib olibdi. Tilla kokil podshoga aytibdi:

— Endi bu o‘rdakni siz oling, — debdi.

Podsho:

— Yo‘q, o‘g‘lim, ov sizniki, men olmayman, — debdi.

Bola:

— Ov olmasangiz, bizning uyga mehmon bo‘ling, men sizga o‘rdakni pishirib beray, — debdi. Podsho „Xo‘p“ deb Tilla kokilning uyiga kelibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Podsho olovsiz qaynagan qozonda har xil ovqatlar pishib turganini ko‘rib hayron bo‘libdi.

Tilla kokil podshoning oldiga har xil taomlarni qo‘yibdi. Podshoning qushi ipini uzib kelib, taomlarni cho‘qib tashlabdi.

Podsho:

— E, ahmoq, nimaga bunday qilasan? — debdi.

Qush:

— Ey, podsho, siz ahmoqmi, men ahmoqmi?! O‘zingizning bolangizni tanimay o‘tiribsiz-ku, — debdi.

Podsho hayron bo‘lib, choldan:

— Bu bola o‘zingizning o‘g‘lingizmi? — deb so‘rabdi.

— Yo‘q, taqsir, daryoda bir sandiq oqib keldi. Men uni suvdan chiqarib, ochib qarasam, shu bola yotibdi. Orqasida tilla kokili bor, buni tarbiyalab katta qildim, — debdi.

Podsho suyunib, yig‘lab:

— Sen mening o‘g‘lim ekansan, — debdi. Jodugar kampir ham shu yerda ekan. Undan surishtirsa, kampir aytibdi:

— Xotinlaringiz bir tovoqdan tilla berishdi. Men bolani cho‘lga tashlab keldim. Bola uch-to‘rt yoshligida o‘rdaga kelib qoldi. Yana tilla berishdi, men bolani daryoga oqizdim.

Podsho g‘azab bilan xotinlarini yig‘dirib kelibdi.

Ularga:

— Oshpichoq kerakmi, qirq biya kerakmi! — debdi.

Xotinlari:

— Oshpichoqni nima qilamiz, biya kerak. Sog‘ib, qimiz ichib yuramiz, — debdi. Podsho ikki xotini bilan ayyor kampirni otning dumiga bog‘lab yantoqma-yantoq olib yuribdi, go‘shtlarini burda-burda qilib yuboribdi. Tilla kokilni uyiga olib kirib, taxtiga o‘tqazibdi. Cholni vazir qilib, o‘zi „Endi bolamning davlatida o‘tiraman“, debdi.

Podshoga Tilla kokil:

— Mening onam qayerda? — debdi.

— Podsho:

— Zindonda, — debdi.

Tilla kokil:

— Zindondan onamni olib kelinglar, — debdi. Onasi bilan yig‘lab-siqtab ko‘rishibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Saroydagilarga:

— Parvarish qilinglar, — debdi.

Tilla kokil bir kun oynayi jahonnomaga qarab o‘tirsa, bir yurtda shovqin-suron emish. Qanday shovqin-suron desa, o‘sha yurt podshosining juda chiroyli qizi bor ekan, podsho qizini bir baland arkning ustiga chiqarib qo‘yibdi: „Kimki tepaga chiqib, shu qizimning uzugini qo‘lidan olsa, o‘shanga qizimni beraman“, debdi.

Tilla kokil: „Men shu oynayi jahonnomada ko‘rsatilgan qizni olaman“, debdi. Darrov qushning patini tutatibdi. Qush yetib kelibdi. Tilla kokil qushning oyog‘iga mahkam yopishib olibdi. Qush uchib borib, podshoning qizi oldiga tushibdi. Podshoning qizi Tilla kokilni sevib qolibdi. Qizga Tilla kokil aytibdi:

— Shu qushning oyog‘iga ikkovimiz yopishib olaylik, mening yurtimga olib borib qo‘yadi.

Podshoning qizi ham qushning oyog‘iga mahkam yopishib olibdi. Qush Tilla kokilni yurtiga olib kelib qo‘yibdi.

Tilla kokil qirq kecha-yu qirq kunduz to‘y-tomosha qilib, qizni nikohlab olibdi. Qizning otasiga qirq tuya tilla, qirq tuya mol berib yuboribdi. Qizning otasi qizi bilan kuyovini chaqirib, bir necha kun to‘y-tomosha qilib beribdi. Tilla kokil davr-davron surib, murod-maqsadiga yetibdi. Siz ham yeting murodga, biz ham yetaylik murodga, yomon qolsin uyatga.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Tentak podsho

Bir tentakka otasidan podsholik meros qolibdi. U tentak gap-so‘zda yo‘q ekan. Biror yig‘ilishda gapirmoqchi bo‘lsa, maza-bemaza gapni gapirib qo‘yar ekan. Bundan vazirlari ko‘p o‘sal bo‘lishar ekanlar. Ular bir kuni maslahat qilishib podshoga aytishibdi:

— Taqsir, siz gap-so‘zda yo‘qsiz, doim yomon gaplarni gapirib qo‘yib, odamni o‘sal qilasiz. Endi shunday bo‘lsin: Gapiradigan vaqtingizda bizning og‘zimizga qarab turasiz, gapingiz durust bo‘lsa, biz „him“ deb qo‘yamiz, gapiraverasiz, agar nodurust bo‘lsa, kallamizni qimirlatib „yo‘q“ deb qo‘yamiz, gapirmaysiz.

Podsho:

— Yo‘q bo‘lmaydi, agar unday qilsalaring, men bilan gaplashgan odamlar „Bu podsho hech gap bilmas ekan, vazirlarining gapi bilan ish tutar ekan“, deyishadi, boshqa yo‘l topinglar! — debdi. Shunda vazirlar:

— Bo‘lmasa, siz taxtda o‘ltirasiz, biz oyog‘ingizga ip bog‘lab, taxtning tagi bilan olib kelib ushlab o‘tiramiz. Durust gapirsangiz ishimiz bo‘lmaydi. Nodurust gapirsangiz sekin ipni tortib qo‘yamiz, — deyishibdi. Podsho bunga ko‘nibdi. Ertasi udaychi kelib:

— Taqsir, bir-ikkita elchi keldi, — debdi. Podsho:

— Ayt, kirsin! — debdi. Ungacha podshoning oyog‘iga ip bog‘lab qo‘yishibdi. Elchilar ta’zim bilan kirib turishibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Podsho:

— Xo‘sh, nima xizmat? — deb so‘rabdi.

Elchilar:

— Taqsir, bizning podshohimiz tinchlik bo‘lsin, deydi, borib, janobingiz bilan mamlakatning tinchlik, omonligidan gaplashib kelinglar, deb yuborgan edi, — deyishibdi.

Shunda podsho turib:

— Ha... Sizlarning mamlakatlaringizdagi mol, otlar yo‘g‘on-yo‘g‘on tezaklaydimi yoki mayda-maydami? — deb so‘rabdi. Vazirlar ipni bir tortib qo‘yishibdi. Kelgan elchilar bu podsho nimaga bunday dedi, deb hayron bo‘lib turibdilar. Shunda vazir ipni tortibdi-da, o‘rnidan turib:

— Ey, elchilar, agar mamlakatda tinchlik bo‘lsa, mol, otlar atrofga chiqib yaylovlarda durustroq o‘tlab, qorni ovqatga to‘ysa, durustroq tezaklaydi. Agar mamlakat notinch bo‘lib tursa, shahardan tashqari chiqqan mollarni bosmachilar so‘yib yeb tursa, hech kim mol, otini tashqariga chiqarmay qo‘yadi. Unda mol, otlar ham tuzuk ovqat yemay, mayda-mayda tezaklaydi. Bizning podshohimiz ko‘p dono odam bo‘ladilar. Sizlardan ot, mollarni qanday tezaklashini so‘rash orqali mamlakatingizning tinch-notinchligini bilmoqchilar, — deb arang to‘g‘rilabdi.

Elchilar javob qilgandan keyin podsho yana:

— Sizlarning shahringizda xotinlar tez tug‘adimi? — deb so‘rabdi. Vazirlarning joni chiqib, yana ipni qattiqroq tortib qo‘yishibdi. Elchilar javob bermabdi. Vazir:

— Taqsirlar, agar mamlakatda tinchlik bo‘lsa, hamma tinch bo‘ladi, xotinlar ham vaqtida tug‘averadi. Agar mamlakat notinch bo‘lsa, hamma tashvishda qolib, bola ham odamlarning ko‘ngliga sig‘may qoladi. Xotinlar ham kam bola tug‘adi, bizning podshohimiz mamlakatingizning tinch, notinchligini shundan ham bilmoqchi bo‘ladilar, — desa, elchilar bunga ko‘p qoyil qolib:

— Xotinlar ham to‘qqiz oyda bolalab turibdi, taqsir! Janobingiz ko‘p seraql, dono odam ekanlar, — deyishsa, podsho turib:

— He, mana bu ip tortarlar bo‘lmasa, menda bunaqa gapdan juda ko‘p edi, — degan ekan.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Oltmish og‘iz yolg‘on gap

Bor ekan, yo‘q ekan, och ekan, to‘q ekan, bir podsho bor ekan. U podshoning bo‘yi yetgan qizi bor ekan. Podsho jarchi qo‘yib:

— Kimda-kim oltmish og‘iz yolg‘on gapirsa, shu hikoya bilan qizimni gapirtirsa, o‘shanga qizimni beraman, gapirtira olmasa, o‘ldiraman, — debdi. Bu xabarni eshitib ko‘p kishilar kelib, podshoning qizini gapirtira olmay, kallalari ketibdi. Bu mamlakatda bir kal bor ekan.

Bu kal olti oy yotib o‘ylabdi. So‘ngra u oltmish og‘iz yolg‘on gapni topibdi. Yugurib podshoning oldiga kelib:

— Podshohim, men otamning belida, onamning qornida edim, o‘sha vaqtda bobomning olti yuz oltmish oltita oti bor edi. Men otboqar edim. Kunlardan bir kuni bobomning otlaridan bittasi yo‘q bo‘lib qolibdi. U bo‘g‘oz edi. Ko‘p axtardim. Tog‘ga chiqib qaradim, ko‘rmadim, tepaga chiqib qaradim, topilmadi, qalpog‘imni to‘nkarib ustiga chiqib qarasam, ot o‘n ikki toshlik yo‘lga borib tug‘ibdi. Qidirib ketayotganimda, yo‘lda Amudaryo uchradi. Daryo yetti qavat yaxlabdi. Oyog‘im bilan o‘tay dedim, o‘ta olmadim. Qo‘lim bilan o‘tay dedim, o‘ta olmadim. Boshimni qo‘yib pirillab o‘tib ketibman. Borib, baytalni topib, mindim-u, bolasini oldimga olay desam, ko‘tara olmadim, bolasini

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

mindim-u, onasini egarga o‘ngarib olib keldim. Amudaryodan bir hatlab o‘tib ketdim.

Bobomning bir eshagi, bir qaldirg‘ochi bor edi. Qaldirg‘ochi uch kecha-yu uch kunduz uchdi. Bir baliqning dumidan qanotigacha arang yetdi. Baliqning suyagidan yog‘och kesdik. Olib kelib bir saroy soldik. Bir yog‘ida bobomning o‘zi yotadi, bir yog‘ida eshagi yotadi, bir yog‘ida xotin, bola-chaqasi yotadi. Bir yog‘ida yo‘lovchi, o‘tadigan savdogarlar yotadi. Bir kuni bobomning eshagi o‘ldi. Terisini shilib oldik. Uni usta pishirib, bichib berdi. U to‘qson juft zayfana, sakson juft mardona bo‘ldi. Xuddi kun ko‘rmas joyidan bir juft etiklik kesdim. Usta tikib berdi. Bozorga bordim, bir pud yog‘ oldim. Yog‘ni surkasam, bir toqiga arang yetdi, bir toqiga yetmadi. Bir toqi arazlab ketdi. U borib-borib, bir boynikida ikki qop tariqqa mardikor yurgan ekan. Men axtarib bordim. Meni ko‘rib, u terakning tepasiga chiqib ketdi. Men chiqa olmadim. „Tushasanmi, tushmaysanmi“, deb kesak otaverib, otaverib, otgan kesagim bir-ikki botmon yerni shudgor qilib qo‘yibdi. Bu shudgor bekor ketmasin, deb tarvuz ekdim. Tarvuzlar juda yaxshi bo‘ldi. Bir tarvuz kichkina yeridan teshilibdi. Qo‘limga yetti dona shamni olib, tarvuz ichiga kirib, haligi bir toq etigimni uch kun axtardim. Tarvuz ichiga qo‘shnimizning bir tuyasi ham kirib ketgan ekan, qidirib topib chiqdim.

Etigimni aldab-suldab, terakdan tushirib oldim. Boy bilan hisob-kitob qilishdik. Boy ikki qop tariq berdi. Tariqni qopga soldik — turmadi, xaltaga soldik — turmadi. Bobomdan qolgan bir yirtiq qop bor edi, shunga soldik— turdi. Uni tuyaga ortdik — ko‘tara olmadi, otga ortdik— ko‘tara olmadi, eshakka ortdik — ko‘tara olmadi. Bobomning xo‘rozi bor edi, tariqni xo‘rozga ortdik. Xo‘roz gandiraklab-gandiraklab zo‘rg‘a olib bordi.

Ey, podshohim, hisoblab ko‘ring-chi, oltmish og‘iz yolg‘on gapingiz bir yuz yigirma og‘iz bo‘ldimi yoki yo‘qmi? — debdi.

Podsho hisoblasa, bir yuz yigirma og‘iz bo‘libdi. Podsho kalga:

— Endi sen hech kim bilmaydigan hunar o‘rganib kel, agar topib kelmasang, o‘lasan, — debdi.

Kal:

— Xo‘p, — deb to‘g‘ri onasining oldiga boribdi.

— Oyi, oyi, podshoning aytgan oltmish og‘iz yolg‘on gapini qo-tirib keldim. Podsho menga „Kishi bilmaydigan hunar o‘rganib kelgin“, deb buyurdi. Buni qanday topaman, yaxshisi meni bir ustaga olib borib topshirsangiz. Men kishi bilmaydigan hunar o‘rganib kelmasam, bo‘l-

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

mas, — debdi. Bir kuni onasi kalni bozorga olib boribdi. Bir qatlamaxo‘r bor ekan. Sandalning ichiga oyog‘ini tiqib, qatlama yeb o‘tirgan ekan. Kal uni ko‘rib, onasiga:

— Mening ustam shu odam ekan, shunga shogird tushaman, — debdi.

Kalning onasi:

— Usta bobo, shu bolam sizda shogird yursa, maylimi? Shuni bir hunarga o‘rgatsangiz, — debdi. Usta rozi bo‘libdi. „Qirq kundan keyin kelib, yo o‘zini, yo suyagini olib ketasiz“, debdi. Qatlamaxo‘r qirq kun mehmondorchilikka ketibdi. Bu cholning bir Baxtiqaro degan qizi bor ekan. Bu qiz kalga oshiq bo‘libdi. Kal qizni aldab:

— Men seni yaxshi ko‘raman, seni olaman. Otangning hiyla-nayranglarini menga o‘rgat, — debdi. Baxtiqaro o‘rgatib qo‘yibdi. Kal juda usta bo‘lib qolibdi. Bu orada bir kam qirq kun o‘tibdi. Baxtiqaro kal nomidan uning onasiga: „Ey, ona, tez keling, ertaga qatlamaxo‘r meni so‘yadi“, deb xat yozibdi. Bu xabarni eshitib, kalning onasi yetib kelibdi. U yoqdan qatlamaxo‘r ham yetib kelibdi. Kalning onasi:

— Bobojon, men o‘tin-cho‘pga ko‘p zoriqdim, kalni bersangiz, — debdi. Chol:

— Yo‘q, ertaga keling, — desa, onasi:

— Yo‘q, usta bobo, hozir bering, — debdi. Usta bobo sandiqni ochibdi. Kal qip-qizil xo‘rozday bo‘lib sandiqdan chiqibdi. Onasi kalni olib ketibdi. Yo‘lda ketishayotsa, bir joyda odamlar xo‘roz urishtirayotgan emish. Bir kishining xo‘rozi qochibdi.

— Ona, men xo‘roz bo‘lsam, meni ko‘tarib qo‘ltig‘ingizda olib borsangiz, ming tangaga sotsangiz-da, uyga ketaversangiz, ketingizdan yetib boraman, — debdi. Onasi:

— E, qo‘y, nima qilasan, yur ketamiz, — debdi.

Kal bir dumalab ot bo‘lib onasini qo‘rqitibdi. O‘tay desa onasini o‘tkazmabdi. Onasi:

— Kal!— deb qichqiribdi. Kal:

— Ona, men qanday ekanman? — debdi. Onasi qo‘rqib:

— Ey, bolam, sen soz ekansan, xo‘roz bo‘la qol, men sotib ketaqolay, — debdi. Kal xo‘roz bo‘libdi. Onasi qo‘ltig‘ida ko‘tarib boraveribdi. Haligi xo‘rozi qochgan yigit:

— Ey, momo, xo‘rozingizni sotasizmi? — deb so‘rabdi. Kampir:

— Ming tangaga sotaman, kami yo‘q, — debdi.

Haligi yigit ming tanga berib xo‘rozni sotib olibdi. Onasi jo‘nab ketibdi. Xo‘roz maydonga kiribdi. Donlab-donlab xo‘rozlar oldiga

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

boraveribdi. Bitta xo‘roz bilan olishibdi, uni bir tepib o‘ldiribdi. Ikkinchi xo‘roz bilan olishibdi, uni ham bir tepibdi, u ham o‘libdi. Uchinchisini ham shunday qilibdi. Xo‘rozni ushlay deb, egasi borsa, u qaqillab uchib, devorning narigi yog‘iga tushibdi-yu, yana kal bo‘lib ketaveribdi. Haligi odam undan:

— Hoy, kal, xo‘rozni ko‘rmadingmi? —debdi Kal:

— Bir qizil xo‘roz shu tomonga uchib o‘tdi, -- debdi. Kal onasiga yetib olibdi.

— Ey, ona, erta bozor kuni men bir bo‘taloq tuya bo‘laman, bozorga olib chiqib soting, bahomni o‘n ming tanga deng, lekin boshvog‘imni sotmang, — debdi. Ertasi kal bir dumalab bo‘taloq bo‘libdi.

Onasi bozorga olib boribdi, tuyaga qatlamaxo‘r xaridor bo‘libdi.

— Tuyang necha pul? — deb so‘rabdi. Kampir

— Tuyamning bahosi o‘n ming tanga, — debdi. Qatlamaxo‘r o‘n ming tanga berib, bo‘taloqni boshvog‘i bilan yetaklab ketmoqchi bo‘libdi. Kampir boshvog‘ini mahkam ushlab, „bermayman“ desa, chol:

— Ayt, boshvog‘i necha pul? — debdi. U boshvog‘ini ham o‘n ming tanga desa, o‘n ming tanga berib ketaveribdi. Bo‘taloq esa, onasiga qarab gapira olmay, yig‘lab boraveribdi. Qatlamaxo‘r daryo bo‘yidan bir tayoq kesib olib, singuncha tuyani urib, uyiga boribdi. Uyiga yetishi bilan:

— Hoy, Baxtiqaro, xanjarimni olib kel, bir bo‘taloq olib keldim, so‘yaman, — debdi. Baxtiqaro uyiga chopib kiribdi. Xanjarni olib chiqibdi. Qiz qarasa, bo‘taloq o‘sha kal ekan. Qiz xanjarni yengiga bekitib turib:

— Ota, xanjaringizni topa olmadim, yo‘q ekan, — debdi. Shunda chol:

— Bu yoqqa kel, tuyani ushlab tur, men o‘zim uydan topib chiqaman, — debdi. Qizi kelib tuyani ushlab turibdi. Qiz xanjar bilan bo‘taloqning bo‘yniidagi ipni kesib yuboribdi. Qiz:

— Ota, tuyangiz qochdi, — debdi, kal ko‘chaga chiqib, bir ag‘anab kaptar bo‘lib uchib ketibdi. Qatlamaxo‘r qush bo‘lib uning ketidan quvlab ketibdi. Kal borib podshoning chekkasida bir dasta gul bo‘lib ochilib tura beribdi.

Qatlamaxo‘r borib, podshoning oldida shoir bo‘lib, do‘mbira chertib, doston o‘qib, o‘tira beribdi. Podsho erib ketib shoirga:

— Ey, shoir, tila tilagingni, beraman, — debdi. Shoir:

— Men tilasam, chakkanggizdagi gulni bersangiz, — debdi. Podsho gulni olib bir iskab „xushbo‘y gul ekan“ deb uyidagi yetimini chaqiribdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Ma, bu gulni shoir boboga eltib ber, bitta iskab bersin, — debdi.

Podshoning yetimi gulni podshoning qiziga beribdi. Ular iskab ko‘rsa juda ham xushbo‘y ekan. U:

— Bu gulni bermaymiz, bu yaxshi gul ekan, — debdi. Podshoning yetimi shoirga:

— Bibim bermadilar, — debdi. Podsho:

— Ayt, bersin! — debdi. Yetim gulni shoirga keltirib beribdi.

Shoir qo‘lini uzatib, gulni olayotganda, gul tariq bo‘lib sochilib ketibdi. Qatlamaxo‘r jo‘jalik tovuq bo‘lib terib yeyaveribdi. Ikki dona tariq podsho kavushining patagi tagiga kirib qolibdi. Bittasi shaqal, bittasi kalxat bo‘libdi. Tovuqni shaqal, jo‘jani kalxat yeb qo‘yibdi.

Kal:

— Assalomu alaykum, podshohim, mana buni kishi bilmas hunar deydilar. Endi qizingizni berasizmi? — debdi. Shunda podsho qirq-kecha-yu qirq kunduz to‘y-tomosha qilib, qizini kalga beribdi. Kal murod-maqsadiga yetibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Alvasti

Bahorda qaldirg‘ochlar kelgan kuni ho‘kizni yetaklab, dalaga chiqdim, yetti qadam bosdim. To‘xtab, oyog‘im tagidagi yerni kovladim, bir parcha ko‘mir chiqdi. Ko‘mirni lattaga o‘rab, ho‘kizimning shoxiga bog‘ladim. O‘zim uyquga ketdim. Uyqudan turib, og‘ilxonaga borib, uni ochib qarasam, bir alvasti chiqdi. Novchadan kelgan, har ko‘zi tovoqday, og‘zi qulog‘ida, boshidagi telpagining qulog‘i bir qulochga yetgan, chiqdi-yu og‘ilga kirib yotdi, men qo‘rqdim. Birdan u o‘rnidan turib kelib, u yog‘imga o‘tdi, bu yog‘imga o‘tdi, boshini qiyshaytirib, sekin meni turtdi. Mening achchig‘im keldi-da, alvastining boshidagi telpagini yulib olib qochdim. Qarasam, u mening orqamdan quvib kelyapti. Oldimdan bir masjid chiqib qoldi, jon holatda o‘zimni masjidga urdim. Alvasti orqamdan kelib, masjidga kirolmay, bo‘sag‘ada turib, menga qarab:

— Endi meni sarson qilma, telpagimni ber, — deb yalina berdi.

Men „yo‘q“ dedim-da, telpagini kiyib oldim. U meni ko‘radi, men uni ko‘raman, xolos. Axir u menga:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Kel, ikkimiz do‘st bo‘laylik, — dedi. Men ham tantilik qilib: „Xo‘p“, dedim.

Masjiddan chiqdim, alvastining ketidan boraverdim. Bizlar bir-birimizni ko‘ramiz. Ammo bizlarni hech kim ko‘rmaydi. Alvasti menga:

— Do‘stim, men hozir seni bir boyning uyiga ziyofatga olib boraman. Yemasang ham, bizning hunarni tomosha qilib o‘tirgin, —dedi.

Alvasti meni bir boyning uyiga olib bordi. Ichkari-tashqari gumburlagan hovli. Po‘lat darvoza lang ochiq.

Alvasti oldin, men uning ketidan kirib bordim. Qarasam, har biri eshakdek keladigan ikki it cho‘zilib yotibdi. Sherigim bo‘lsa, itlarni tepib-tepib o‘tdi. Itlar seskanib, u yoq-bu yog‘iga qaraydi. Hech narsani ko‘rmaydi, yana mudraydi. Ichkari uyga kirdik. Bizlar bir-birimizni ko‘ramiz, ammo bizlarni hech kim ko‘rmaydi. Alvasti menga:

— To‘rga chiqib, sandiqning yonida o‘tirib, tomosha qil, — dedi. Men ham asta-asta o‘tib, sandiqning yonida o‘tira berdim. Sherigim poygohda turdi.

Qarasam, qorni katta boy ikki xotini bilan o‘tiribdi. Dasturxon yozilgan, bir lagan oshni endi yeyishib turgan ekan. Sherigim asta-sekin kelib ikki xotinning orasiga kirib o‘tirib oldi. Hadeb oshni tushiraverdi. Boy:

— Oshni oz qilibsizlar, to‘ymadim-ku, — deb, xotiniga:

— Bor, bir kosa suv keltir, — dedi. Shu paytda qarasam, alvasti yugurib borib, ko‘zaga tushib olibdi, boyning xotini suv olay desa, alvasti suv oldirmaydi. Bizlar bir-birimizni ko‘rib turibmiz, lekin ularning hech biri bizlarni ko‘rmaydi. Alvasti qo‘ynidan bir idish oldi, undan kosaga suyuq bir narsa solib berdi. Xotin kosani ikki qo‘llab boyga uzatayotganda, men qo‘limni cho‘zib, kosani turtib, tushirib yubordim. Boy hovliqib:

— Yo meni, yo seni jin chalgan, — dedi.

Boyning xotini:

— Siz o‘zingiz kosani ushlayolmay tushirib yubordingiz-ku, — dedi.

Shunday qilib men uch marta kosani turtib yubordim. Alvasti ko‘zadan chiqdi, qumursqaday bo‘lib laganga tushdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Boy xotiniga:

— Hoy, xotin, lagan ichiga buzoq tushib suzib yuribdi, sen pista po‘chog‘idan chiqayotibsan, — dedi.

Men alvastining ishini tomosha qilib, es-hushimni yo‘qotay deb turganimda boshimdan telpagimni tortib olib, alvasti qochib ketdi. Boy birdan meni ko‘rib qo‘rqib ketdi.

— Xo‘sh, mening uyimda qaydan paydo bo‘lib qolding? — deb so‘radi.

Men boshimdan o‘tgan voqealarni birma-bir aytib berdim. Unga oxiri alvasti kosaga quyib bergan iflos suvni ichirmay to‘kib yuborganimni ham aytdim.

Boy mendan bu sirlarni hech kimga aytmaslikka va’da oldi. Menga bir sidirg‘a sarpo va pul berib uyidan jo‘natdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Avom folchi

Qadimgi zamonda bir folchi bor ekan. Uning qiladigan ishi hamma vaqt kitob ko‘rib fol ochish ekan. Bir kuni u o‘lib qolibdi. Xotini qo‘shnisining xotini bilan inoq ekan. Qo‘shni xotin folchining o‘lganini eshitib, „dugonamning eri o‘libdi, borib fotiha o‘qib, ko‘nglini so‘rayin“, deb folchining uyiga chiqibdi, folchiga fotiha qilib, xotini bilan gaplashib o‘tiribdi. Folchining xotini o‘rtog‘ining oldiga osh-non qo‘yibdi. Shunday qilib, u yoq-bu yog‘iga qarasa, yuqori tokchada bir narsaga o‘ralgan kitob turgan emish. U kitobni olib, „Bu nima?“ deb, folchining xotinidan so‘rabdi. Shunda folchining xotini ko‘z yoshi qilib:

— Ey, dugonajonim, buning nimasini so‘raysiz. Sizga aytsam, bu erimning fol kitobi edi. Erim rahmatlik shu kitob bilan shaharlarga borib, ko‘chalarda o‘tirib, fol ko‘rib uncha-muncha topib kelar edi. Bizlarning qish-u yoz ovqatimiz shu kitobdan o‘tar edi. Xullas, bu kitob bizlarga sigir, mol, uy-anjom bo‘lgan, ot-oyoq, ulov bo‘lgan, — deb ko‘p hasrat qilibdi. Shunda dugonasi:

— Unday bo‘lsa, endi bu kitobni kim olib folchilik qiladi? — deb so‘rabdi. Shunda folchining xotini:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Ey, dugona, erim o‘lgandan beri bu kitob tokchada bekorga turib qoldi. Buni biladigan, ko‘radigan, ishlatadigan odam yo‘q, o‘g‘limiz yosh, — debdi. Shunda dugonasi:

— Ey, dugona, men sizga bir gapni aytsam, mening erim qurg‘ur avom, qo‘lidan hech ish kelmaydi, har kuni ko‘chalarda tentirab keladi, qish kunlari bekor yuradi. Yoz kunlari mardikor bo‘lib, o‘lay-o‘lay deb, u kundan bu kunga ikki tanga goh topadi, goh topmaydi. Topgan puli bizlarga hech nima bo‘lmaydi. Bizlarda na mol va na ortiqcha bir narsa bor, kunimiz zo‘rg‘a o‘tadi. Er-xotin bu ahvolimizga ko‘p xafamiz. Bola-chaqamiz bilan qiyin kun kechiramiz. Endi, duganojon, malol kelmasa shu fol kitobingizni menga bersangiz, men olib borib erimga bersam, shoyad shu kitobingiz sababidan bizning rizqimiz, ahvolimiz durustroq bo‘lib ketsa, — debdi. Shunda folchining xotini aytibdi:

— Eringiz bu kitobni tushunmasa qanday qilib uni o‘qiy oladi?

Shunda avomning xotini:

— Ey, dugona, erimning biror narsaga aqli yetganda edi, bu kitobni sizdan so‘ramas edim. Erimning o‘zi biror ish qilib kun kechirardik, erim avom, hech nimani bilmagani uchun men sizdan bu kitobni so‘rab, muntazir bo‘lib turibman, — deb ko‘ngli og‘riganday bo‘libdi. Buni ko‘rib folchining xotini:

— Ey, dugona, bu kitob sizdan aylansin, xafa bo‘lmang, —deb kitobni beribdi. Avom sho‘rlikning xotini kitobni olib dimog‘i chog‘ bo‘lib, dugonasi bilan biroz dardlashib o‘tirib, keyin javob olib uyiga qaytibdi. Xotin kitobni so‘rab olib kelganini eriga aytib beribdi. Eri aytibdi:

— Men bir avom bo‘lsam, bu kitobni qanday qilib ko‘rib folchilik qilaman?

Shunda xotini aytibdi:

— Men sizga nimani o‘rgatsam, shuni qilasiz.

Eri aytibdi:

— Men hech narsani bilmasam, qanday qilib folchilik qilaman?

Xotini:

— Sizniki ajab bir qiziq bo‘ldi, bu zamonda hamma odam bir ishni bilib qiladimi? Odamning ba’zisi unday, ba’zisi bunday qilib bir kunini o‘tkazib yuribdi-da. Siz bu kitobni qo‘lingizga olib, mana

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

bu shahar ko‘chasiga chiqib, registonda folchi bo‘lib o‘tirsangiz, nima ko‘p, mol yo‘qotgan ko‘p, birovi bo‘lmasa birovi kelib, sizga fol ochiradi, ketadi. Xudo bandasini quruq qoldirmaydi, birovi bo‘lmasa birovining ishi to‘g‘ri chiqib qolsa, siz mashhur bo‘lib qolasiz, — deb xotini eriga „folchilik ilmini“ o‘rgatibdi. Erini folchining suratiga o‘xshatib kiyintiribdi, boshiga bir katta sallani sozlab o‘ratibdi. Qo‘liga mayda cho‘p yog‘ochdan fol ochqich qilib beribdi, katta-katta munchoqdan tizib tasbeh qilib beribdi, keyin kitobni qo‘ltiqlatib ko‘chaga chiqarib yuboribdi. Bu bechora nima qilishini bilmay shu shaharning registoniga kelibdi. Bunday qarasa, registonda folchilar fol ko‘rib, odamlarni uymalatib o‘tiribdi. Bularni ko‘rib, buning ham chiroyi ochilib, menga o‘xshaganlar ko‘p ekan, deb bu ham bir joyni olib, kitobini oldiga qo‘yib, tasbehni olib, pichirlab, ko‘zini alang-jalang qilib o‘tiribdi. Ana shunda bir odam ot yo‘qotgan ekan, hamma yerni axtarib topolmabdi. Uyda xotini:

— Siz otimni yo‘qotdim deb xafa bo‘lib yuribsiz, ko‘chaga chiqing, ko‘chada nima ko‘p, folchi ko‘p, fol ko‘rsatib ko‘ring, zora topila qolsa, — debdi. Xotinidan bu so‘zni eshitib, rost aytasan, deb o‘rnidan turib ko‘chaga chiqibdi, registonga borib, tasodifan haligi avom folchiga ro‘para kelibdi va unga ot yo‘qotganini aytibdi. Folchi:

— Fol boshi ber, — debdi. Fol boshi, deb bir tanga beribdi. Bir tangani ko‘rib dimog‘i chog‘ bo‘lib, og‘zini qimirlatib oldidagi fol yog‘ochini qo‘liga olib, suf-kuf deb dam solib, kitobning ustiga tashlabdi.

Kitobni ochib, u yer-bu yerini ko‘rgan kishi bo‘lib, haligi ot yo‘qotganga:

— Otingizni topdim, otingiz topildi, og‘rig‘ingiz yopildi, bundan borasiz, oldingizdan bir ariq chiqadi, uni Chit ariq deydilar. Chit ariqdan o‘tsangiz oldingizdan bir katta ariq chiqadi, uning naryog‘idan bir shoh ariq chiqadi, shu shoh ariqning yuqori tarafida otingiz o‘tlab yuribdi. Borasiz-da, otingizni olasiz. Menga ko‘proq narsa bering, — debdi. Shunda haligi ot yo‘qotgan:

— Otim topilsa, bir buti sizniki, — debdi-da, jo‘nab ketibdi. U shahardan tashqariga qarab ketaveribdi. Oldidan bir ariq chiqibdi, undan o‘tganidan keyin tag‘in bir ariq kelibdi, undan ham o‘tibdi, tag‘in qistabroq yuribdi, keyin oldidan bir shoh ariq chiqibdi, shunday qarasa, bu yerda yo‘qotgan oti o‘tlab yurgan emish. Yugurib

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

borib, ey, jonivor otim, deb ushlab olib, manglaylarini silab-siypab, uyiga olib ketibdi. Otini olib kelganini xotini ko‘rib, er-xotin ikkalasining dimog‘i chog‘, vaqti xush bo‘libdi. Otini topib olgan odam sevinib, avom folchiga xabar qilibdi. Bu so‘zni eshitgan folchining ham dimog‘i chog‘ bo‘libdi. So‘ngra otini topib olgan odam va’dasiga yarasha otning to‘rtdan bir hissasini hisoblab narx qilib, pulini folchiga beribdi.

Ana endi bu so‘z kundan-kun yurtga, shaharga, elatga ovoza bo‘libdi: „Shaharga bir folchi kelgan emish, har nimani bilar emish, ushlab turganday topib berar emish“, deb gap bo‘lib, shuhrat topib ketibdi. Lekin bu sho‘rlik avom folchi yuragi dukillab: „Menga bir kun mushkul ish kelib, topib bera olmay sharmanda bo‘lib qolaman-da“, deb o‘ylab yurar ekan. Bir kun podshoning xazinasini o‘g‘ri uribdi, xazinada hech nima qoldirmay olib ketibdilar. Buni eshitib, podshoning hushi boshidan uchibdi. U hamma odamlarga: mirshab, vazir, beklarga buyuribdi:

— Xazinani topinglar, topsalaring ham topasizlar, topmasalaring ham topasizlar! Bo‘lmasa, hammalaringni jallodga buyuraman, bekorga o‘lib ketasizlar.

Ular hamma yerni axtarib xazinani topolmabdilar. Shunda pulni topolmaganlarini podshoga kelib aytibdilar. Podsho:

— Unday bo‘lsa, registonga boringlar, hamma folchilarni olib kelinglar. Fol ko‘rsin, rom ochsin, shu xazinadan yo‘qolgan dunyoni topsin, topsayam topsin, topmasayam topsin! Topolmasa, ko‘chani, registonni tang qilib yotmasin, hammasini o‘ldirmoq kerak! Ular beva-bechoralarni, kambag‘allarni so‘rib, ovora qilib, ahmoq qilib yurmasin, bizlar ham bu folchi-rammollardan qutulaylik. Fuqarolar ham qutulsin, —debdi. Podshoning mahram yasovullari borib, registondagi hamma folbinlarni chaqirib kelib, podshoning so‘zini ma’lum qilibdilar. Bularning so‘zini folchi-rammollar eshitib, hayron bo‘libdilar. Hammalari boshlarini egib, yerga qarab o‘tiribdilar. Shunda mahram, yasovullar hamma folbinlarni podshoning oldiga olib boribdilar. Podsho folchilarga qarab:

— Ey, folchilar! Endi sizlar bilinglar, ogoh bo‘linglar, bugun bizning xazinamizni o‘g‘ri uribdi, topib berasizlar, topib bermasalaring hammalaringni o‘ldirib, yorug‘ dunyodan yo‘qotaman, — debdi. Folchilar

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

indamay, damlarini chiqarmay podshodan qo‘rqib, yerga qarab turibdilar. Podsho bularga qarab, do‘q qilib:

— Xo‘sh, damlaring ichlaringga tushib qoldi, nimaga gapirmaysanlar? — debdi.

Folbinlar orasida bir qancha munajjimlar bor, ular hatto yer ostida nima borligini ham bilar ekanlar. Ular podshodan qo‘rqqanlaridan, „bilmayman“ deb, boshlarini yerga egib o‘tiraveribdilar. Ana shunda podsho aytibdi: „Endi indamay turaverasizlarmi? Mening so‘zimga nima deysizlar?“ dedi. Shunda folchilar:

— Bu ish bizlarning qo‘limizdan kelmaydi, bizni o‘ldirasizmi, kuydirasizmi o‘zingiz bilasiz. Lekin mana bu kishi bizlardan ham katta folchi, bu kishi falon kishining otini topib bergan, falon kishining ho‘kizini topib bergan, — deb avom folchini ko‘rsatishibdi. Podsho:

— Unday bo‘lsa, sen topasan, — deb avom folchiga o‘shqiribdi. Shunda bu sho‘rlik folchi unday-bunday, debdi. Bo‘lmabdi.

Podsho:

— Endi xazinani topib bermasalaring, hammangni o‘ldiraman, — debdi. Podshoning bu so‘zini hamma rammollar, folchilar eshitib, „Endi o‘ldik“, deyishibdi. Podsho tag‘in haligi avom folchiga qarab, qattiq buyruq qilibdi. Bu sho‘rlik nima deyishini bilmay, „Endi nima bo‘lsa ham o‘lgan kishiman, o‘larimda podshoning bir osh-nonlarini yeb o‘layin, kun ko‘rganning kuni ortiq“, deb o‘ylabdi-da, podshoga qarab:

— Unday bo‘lsa, menga qirq kun muhlat bering. Qirq kunlik ovqatlarimni ham bering, qirq kun bir yerda chilla o‘tiraman, odamlar bilan gaplashmay, so‘zlashmay ko‘rayin, — debdi.

Xizmatkorlar folchiga qirq kunlik ovqatni qirqta xumga solib, uyiga olib borib beribdi. Folchi borib, xotiniga:

— Sen meni o‘z holimga, tinchgina yurishimga qo‘ymading, men shunday folchilik qilib, sharmanda bo‘lib yurganimdan ko‘ra, mardikor bo‘lib, ikki tanga olib yurganim yaxshi emasmidi? Podshoning xazinasini o‘g‘ri urib ketgan ekan, bugun shahardagi barcha munajjimlarni, rammol-folchilarni yig‘ib, shuni topib berasizlar, agar topib bermasalaring hammalaringni o‘ldiraman, deb buyruq qildi. Hamma munajjimlar, folchilar „topib berolmaymiz“, deb javob berdilar. Podsho

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

meni chaqirib olib, „Sen topib berasan!“ dedi. Men ulay-bulay, deb ko‘nmadim, oxiri podsho o‘ldirmoqchi bo‘ldi. Ilojini topolmay, qirq kunlik muhlat oldim. Endi, ey, xotin, men o‘laman, qirq kunlik umrim qoldi, — debdi. Xotini bo‘lsa:

— Xudo xohlasa, xudoning o‘zi bir yoqqa boshlaydi, buning uchun xafa bo‘lmang. Qirq kun muhlat olib yaxshi ish qilibsiz, — deb unga taskin beribdi. Shunda folchi sho‘rlik aytibdi:

— Unday bo‘lsa, qirq kunlik ovqatlarni bir uyga mahkam qilib qo‘y, qirq kungacha bir gap bo‘lar, — debdi. Er-xotin xumlarni uyga olib borib, yuqori tokchalarga qo‘yishibdi. Ana endi bular xumlarni uyga olib borib bir yerga qo‘yib turaversin, endi so‘zni xazinani urib ketgan o‘g‘rilardan eshiting:

O‘g‘rilar podshoning xazinasini urib, uni olib borib bir yerga qo‘yib, o‘zlari podshoning nima qilayotganidan ko‘z-quloq bo‘lib yurar ekanlar. O‘g‘rilarning ko‘chalarda yuradigan josus-ayyorlari bor ekan. U podshoning ishlarini: folchilarni olib borganini, nima ishlar qilayotganini o‘g‘riboshiga yetkazib turar ekan. O‘g‘rilarning josusi[1] rammollarning, munajjimlarning bizlar topolmaymiz, deganlarini eshitib, dimog‘i chog‘ bo‘libdi. Lekin avom folchining: „Bu xazinani qirq kunda topib beraman“, deb muhlat olganini bilib o‘z kattalariga:

— Huv anovi falonchining otini, falon kishining ho‘kizini topib bergan folchi bor-u, o‘sha „xazinani topib beraman“, deb podshodan qirq kunlik muhlat olibdi. Bu bachchag‘ar topadi, — deyishibdi.

Shunda o‘g‘rilarning kattasi aytibdi:

— Unday bo‘lsa, u bachchag‘ardan xabar olib, oqshomlari poylab turinglar, topadigan bo‘lsa, oldini olamiz. U bilan aka-uka bo‘lamiz, topolmasa, xazinani o‘zimiz bo‘lishib olamiz.

Xufton chog‘i o‘g‘ri folchining tomiga chiqib, folchi nima qilar ekan, deb poylab turgan edi, folchi sho‘rlik:

— Xotin, bir xumni olib kel! — debdi. Xotini bir xumni olib kelibdi. Shunda folchi:

— Biri keldi, — debdi. Buni o‘g‘ri eshitib, mening kelganimni bildi, deb tomdan tushib qochib borib kattasiga aytibdi. O‘g‘rilarning kattasi:

---

[1] **Josus** — ayg‘oqchi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— U qayoqdan bilar edi. Sen o‘zing avvaldanoq yuraksiz kishisan, — debdi. U aytibdi:

— Siz ishonmasangiz ertaga boshqasini yuboring.

Bular shu maslahatda tursin. Endigi gapni haligi avom folchidan eshiting. Folchining „biri keldi“ degani, bir kunlik umrim ketdi, qirq kundan bir kun kam qirqi qoldi. Mening oldimga qirq xumdan bir xum keldi, degani ekan. Buni o‘g‘rilarning poyloqchi-josusi „Mening kelganimni bildi“, deb o‘ylab ketgan ekan. Ana shunda bu folchi xotini bilan har xil ishlarni o‘ylab, bu oqshom ham yotibdilar. Erta bilan tong otibdi, kechagiday tag‘in oqshom bo‘libdi. Kechasi xufton mahalida o‘g‘rilardan yana biri folchining tomiga chiqib, mo‘ridan poylab turibdi. Shunda folchi xotiniga:

— Olib kel! — deb ishora qilibdi. Xotini bitta xumni olib kelibdi. Folchi xotiniga:

— Ikkinchisi keldi, — debdi. Bu so‘zi xumdan ikkinchisi keldi, degani ekan. Bu so‘zni eshitgan ikkinchi o‘g‘ri:

— Obbo, mening kelganimni ham bildi, — deb gumonsirab qochibdi. Bu o‘g‘ri ham voqeani kattasiga aytibdi. Shunda o‘g‘ri boshlig‘i:

— Hammalaringning es-hushlaring yo‘q ekan, bu bachchag‘ar nimani topa olar edi. Shu yuraklaring bilan o‘g‘rilik qilib yuribsizlarmi? — deb xo‘p koyibdi. Shunda poyloqchilikka borgan o‘g‘rilar xafa bo‘lib:

— Bizning sirimiz ochilib, katta-kichik hammamiz sharmanda bo‘lmaylik, deb qo‘rqamiz, shuning uchun borib, ko‘rib, bilib kelganimizni sizga aytdik. Bizning so‘zimizga ishonmasangiz ertaga o‘zingiz borib, bilib keling. Sizning borganingizni ham, u albatta biladi, — debdilar.

Bu oqshom yotibdilar, ertasi tong otibdi. Bugun ham o‘g‘rilarning hammasi ko‘chaga chiqib, nima gap bo‘lar ekan, deb poylab yuribdilar. Bir xil odamlar „Folchi podshoning xazinasini topadi“, desa, bir xillari: „Topolmaydi“, der ekanlar. Choyxonalarda turli-tuman gaplar tarqagan ekan. Bu gaplarning hammasini o‘g‘rilarning poyloqchilari choy ichib o‘tirib eshitib olar ekanlar.

Shunda otini yo‘qotgan kishi choyxonaga kelib qolibdi. Uni hamma odamlar „Hoy, beri keling, beri keling“, deb chuvillashib chaqirib qolishibdi. Buni o‘g‘rilarning josus ayyorlari ko‘rib turgan ekan. Choyxonadagi odamlar undan otini qanday yo‘qotganini va qanday qilib

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

topganini so‘rabdilar. Bu odam voqeani bir-bir gapirib beribdi. Keyin ot yo‘qotgan odam:

— U folchi juda topag‘on ekan, mening otimni birdan, hech o‘ylamasdan topib berdi. Bo‘lmasa, men otimdan umidimni uzgan edim. Burungilarning: „Qochib qolguncha otib qol, folga ishonma, folsiz yurma!“ deganlariday men bir fol ko‘rsatay, bu ham bir gap-da, deb fol ko‘rsatgan edim. Baraka topkur, otimni osongina topib berdi. Folchi unday qildi, bunday qildi, — deb maqtay beribdi. Shunda o‘g‘rilarning josusi bu so‘zlarni eshitib turgan ekan. Uning yuragi po‘killab, bu bachchag‘ar unday bo‘lsa, bizlarni ham tutib berar ekan, deb bu yerda o‘tirolmabdi, hadiksirab o‘rnidan turib ketibdi. To‘g‘ri kattasining oldiga borib, bu yerda eshitgan, ko‘rgan va bilganlarini unga oqizmay-tomizmay aytib beribdi.

Shunda o‘g‘rilarning kattasi:

— Endi o‘zim borayin, o‘z ko‘zim bilan bu folchi nima qilayotganini ko‘rib kelayin, sizlarning barchangiz yuraksiz, qo‘rqoq ekansizlar, — debdi.

Shu kun kechqurun o‘g‘rilar maslahatlashibdilar, ular boshliq-lariga:

— Bugun siz o‘zingiz borasiz!— debdilar. O‘g‘riboshi:

— Unday bo‘lsa, sizlar bu yerda jam bo‘lib o‘tiringlar, men borib ko‘rib kelay. Agar topadigan bo‘lsa, qaytib kelib bir ilojini qilamiz, topolmaydigan bo‘lsa, podshoning xazinasini bo‘lishib olamiz! — debdi.

O‘g‘ri boshlig‘i asta-sekin yo‘l olib avom folchining uyiga boribdi. Tomning ustiga chiqib folchining ishlarini kuzatib o‘tiribdi. Lekin folchi bilan uning xotini bu o‘g‘riboshining kelganidan butunlay bexabar ekanlar. Avom folchi shunda xotiniga:

— Keltir! — debdi. Ittifoqo bu kun xotinining qo‘liga katta xum tushib qolibdi. Folchi buni ko‘rib:

— Bugun kattasi keldi, — debdi. Bu — folchinin „xumning kattasi keldi“ degani ekan. Bu so‘zni o‘g‘riboshi eshitib: „Mening kelganimni ham bildi“, deb tomdan tushib qochibdi. Shunda o‘g‘rilarning kattasi hovliqib, jo‘ralariga:

— Uning bilishi rost ekan, bugun mening ham borganimni bildi. „O‘g‘rining kattasi keldi“, deb xotiniga aytdi. Shu vaqtdan ishning oldini olish kerak, bo‘lmasa bizning sirimiz ochilib, sho‘rimiz quriydi. Biring

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

folchining oldiga borib, sirimizni ochmang, xazina falon yerda turibdi. Bundan buyon nima topsak yarmisi sizniki, zinhor-bazinhor birovga aytmang, deb aytasan, — debdi. O‘g‘rilar:

— Unday bo‘lsa, hammamiz birdan boraylik, borib folchiga aytaylik, — debdi. O‘g‘riboshi aytibdi:

— Sizlarniki ajab qiziq, hammalaring borib, folbinga o‘zingizni bildirganingizdan nima chiqadi? Bordi-yu, folbin hammamizni tutib bersa, podsho hammamizni o‘ldiradi, unda nima qilamiz? Undan ko‘ra, bir kishi yoki ikki kishi borib, xazinaning qayerda turganini aytib bersalaring bo‘ldi-da? Har nima bo‘lsa ham tezroq boringlar. Mabodo sizlarning so‘zlaringga folchi ko‘nsa ko‘ngani, ko‘nmasa, yugurib qochib kelasizlar va folchiga o‘zlaringni bildirmaysizlar. Shunda folchi xazinaning turgan joyini bilib olgandan keyin sizlarga indamaydi. Hammamiz birdan borsak, podsho folchi oldiga qorovul qo‘ygan bo‘lsa, orqamizdan kelib, ushlab olsa, o‘ldiradi. Podsho mamlakatni sarishta qilgan odam, bir marta g‘aflatda qolib, xazinani oldirdi-da, „Hamisha yeganlaring qaymoqmi, degan ekanlar“, — debdi o‘g‘riboshi.

Shunday qilib, o‘g‘rilar maslahatlashib bir kishini folbinga yuborib-dilar. Bu kelaversin, endigi gapni folchidan eshiting. Bechora folchi xotini bilan xafa bo‘lib, gaplashib o‘tirgan ekan:

— Ha, xotin, endi qirq kunlik umrim uch kun kamaydi, uch kam qirq kunda men xazinani topib berolmayman, unda podsho meni o‘ldirib yuboradi. Xumdan uchtasi ketdi, — deb qayg‘urib o‘tirar ekan. Bir mahal folchining eshigi taqillab qolibdi. Folchi „Kim?“ degan ekan, o‘g‘ri eshikning oldiga yaqin kelib, sekingina „Men“, debdi. Folchi xotini bilan eshikning oldiga yaqin kelib: „Kimsan? Eshikni ochaymi?“— debdi. O‘g‘ri:

— Eshikni ochmasangiz ham bo‘ladi, ishim zarurroq, ketaman, beriroq keling, bir gap aytaman, — debdi. Folchi xotini bilan eshik oldiga boribdi. Haligi o‘g‘ri: — E, folbin buva, bizlar kechagi pod-shoning xazinasini o‘g‘irlagan o‘g‘rilar bo‘lamiz. Biz siz bilan ota-bola tutinamiz, har nima bo‘lsa ham bizning sirimizni ochmang, biz podshoning xazinasini topib beramiz, — debdi. Shunda folbin:

— „Podshoning xazinasini topsanglar, topganlaring, topib berma-salaring o‘zlaring bilasizlar! — deb lof bilan do‘q uribdi. Shunda haligi kelgan o‘g‘ri unga yalinib-yolvoribdi:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Podshoning xazinasini biz falon yerdagi g‘orga ko‘mib qo‘yibmiz, bir tangasini ham yo‘qotganimiz yo‘q. Bu ishning oxirini kuzatib turgan edik. Endi bo‘lmadi, xazinani yo‘q qilolmadik, nima bo‘lsa ham sirimizni ochib, sharmanda qilmang, bundan buyon nima topsak, siz bilan teng bo‘lib olamiz, jon folbin buva.

Folbin aytibdi:

— Podshoning xazinasini topib berdilaring, mayli, ertaga borib xazinani ko‘ramiz. Bitta-yarimta oshiq-kam bo‘lgan bo‘lsa, sizlarda ishim yo‘q, bo‘lmasa xuddi kuningizni ko‘rsatib qo‘yaman, — deb rosa o‘g‘rini qo‘rqitibdi. Keyin o‘g‘riga:

— Sizlar bilan men birga bo‘lmayman, sizlarning bergan narsalaringning hammasi harom, — debdi. O‘g‘ri yalinib:

— Men sizga xazinaning qayerda turganini aytdim, bu yog‘ini nima qilsangiz o‘z qo‘lingizda, — deb jo‘nab ketibdi. Folbin bilan xotini o‘g‘rining ketganini bilib, dimog‘lari chog‘ bo‘lib:

— Bu juda yaxshi ish bo‘ldi, — deb uyga kiribdilar.

Erta bilan tong otibdi. Folchi xotiniga:

— Endi men podshoning oldiga borayinmi yoki birovdan xabar qilayinmi? — debdi. Xotini:

— Sizning gapingiz qiziq, o‘zingiz podshoning oldiga boring, „Xazinani topdim“, deb xabar qiling, o‘g‘rilarni so‘rasa, aytmay, unibuni bahona qiling. Kecha o‘g‘rilarning nomini so‘rab qolmadingizmi? So‘raganingizda ham birovning sirini ochib sharmanda qilish yomon ish, podsho xazinasining topilishi, sizning obro‘yingiz, — deb ko‘p so‘zlarni eriga uqtiribdi. Shunda avom folchi o‘rnidan turib, dimog‘i chog‘ bo‘lib, oyog‘i olti, qadami yetti bo‘lib, podshoning oldiga boribdi. Folbinning kelganini mahram, yasovullar podshoga xabar qilibdilar. Folbin podsho bilan uchrashgach:

— Suyunchi bering, xazinangiz topildi, — debdi. Podsho sevinganidan unga katta in’om beribdi. Podsho xazinani qanday topganini va qayerda ekanini folchidan so‘ragan ekan, u xazina ko‘milgan g‘orni tayin qilibdi. Podsho bir qancha odam bilan borib ko‘rsa, xazinaning hammasi shu g‘orda ekan. Podsho avom folchiga qoyil qolibdi. Saroyga olib kelib, unga alohida imtiyoz beribdi.

Bir kun podsho tashqariga chiqibdi va bir chigirtkani ko‘rib uni ushlamoqchi bo‘libdi, chigirtka sakrab ketibdi, podsho ushlolmabdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Tag‘in ushlamoqchi bo‘lgan ekan, ushlolmabdi. Uchinchi marta podsho qasd qilib, chigirtkani ushlab olibdi. Shunda podshoning ko‘ngliga bir xayol kelibdi. U qo‘lidagi chigirtkani qisimlab folchilardan buning nimaligini so‘rab ko‘rmoqchi, kim uni topsa, taqdirlamoqchi, topolmagan folchilarni folchilikdan haydamoqchi bo‘libdi. Folchilarga:

— Mening qo‘limdagi nima? — debdi. — Shuni topsangizlar topdinglar, topmasangiz boshlaringiz o‘limda, mollaringiz talonda, — debdi. Buni eshitgan folchi-rammollarning xushlari boshlaridan uchibdi. Podsho bularga muntazir bo‘lib yana so‘rabdi:

— Nimaga indamaysiz?

Shunda ham folchilar damlarini chiqarmabdilar. Podshodan qo‘rqib, ranglari o‘chib, tuslari qochib, bir-birlariga qarashib o‘tiribdilar, podsho bulardan uchinchi martaba so‘rabdi. Shunda munajjim va rammollar ichida bir bilimdonrog‘i bor ekan, u:

— Ey, podshohi olam, sultoni bokaram, sizga arzim bor, yo‘qolgan xazinangizni topolmadik, qo‘lingizdagini qanday qilib topamiz. Sizning qo‘lingizdagini topib berish, xazinangizni topib bergan folbin buvamning qo‘lidan keladi, — debdi.

Shunda podsho folbindan so‘rabdi, folbin boshini egib, yerga termilib turar ekan. Boshqa munajjim va rammollar o‘zaro so‘zlashib:

— Bu podshoning qo‘lidagi nima bo‘lsa ekan, olmos bo‘lsami ekan, yoqut bo‘lsami ekan, yo dur bo‘lsami ekan, har holda qimmatbaho toshlardan bo‘lsa kerak, deb har qaysisi har xil taxminlar qilar ekanlar.

Podshoga eshittirmasdan bittasi: podsholarning qo‘lida qimmatbaho uzuk bo‘ladi, bu mabodo uzuk bo‘lmasin, — debdi. Avom folchining esiga bunday qimmatbaho toshlar kelmay, „Nima desam ekan“, deb boshini xam qilib o‘tirar ekan. Shunda podsho tag‘in avom folchidan so‘rabdi. Folchi:

— Ey, podshohim! Bir dam sabr qiling, o‘ylab olayin, — debdi. Podsho kulimsirab qarab turaveribdi. Yon-tevarakdagilar nima der ekan, deb folbinlar bilan rammollarga qarab turishar ekan. Boshqa folchi va rammollar avom folchiga qarab turishar ekanlar. Podsho folchidan yana:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Qo‘limdagi nima? — deb so‘rabdi. Avom folchi endi nima bo‘lsa ham men o‘lgan kishiman, deb o‘zini qo‘lga tushgandek his etib, podshoga:

—Ey, podshohim, bir qutuldi bu malax (o‘zini), ikki qutuldi bu malax, oxiri tutildi bu malax, — debdi. Endi o‘zining qo‘lga tushganini aytmoqchi bo‘lib turganda, podsho folchining gapiga quloq solmay, qo‘lini ochib:

— Barakalla! Topding, — debdi. Shunda qo‘lidagi chigirtka uchib borib ko‘shkning ichidagi bir joyga qo‘nibdi. Hamma podshoning qo‘lidagi chigirtkani topgan folchiga hayron bo‘lib, qarab qolibdi. Beklar, mahramlar, yasovullar va fuqarolar ham buni ko‘rib:

Barakalla, zap folchi ekansan, — deb yuboribdilar. Podsho:

— Folchini in’om-ehsonlar bilan uyiga olib borib qo‘yinglar, — deb mahramlariga buyuribdi.

Er-xotin podshoning bergan narsalarini jamlab qo‘yib, dimog‘-chog‘lik qilib yuraveribdilar. Shunday qilib murod-maqsadlariga yetibdilar.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Baxtli kal

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, o‘tgan zamonda, bir shaharda bir kal bor ekan. Kalning ota-onasi va bola-chaqasi yo‘q ekan. O‘zi uzoq dalalardan o‘tin terib kelib, sotib, ovqat qilar ekan. Bir kun sahroda o‘tin terib yursa, shamol turib, uning zarbidan daraxtlar, ko‘katlar larzaga kelibdi. Kal qarasa, bo‘yi terakdek bir dev kelyapti. Kal o‘rog‘i bilan arg‘amchisini bir ko‘katning tagiga berkitib, tovushini chiqarmay yotaveribdi.

Dev kelib kalning yonidagi bir tutning kallagida turgan quruq kallani olib, duo o‘qib dam solibdi. Haligi kalla oy desa oy, kun desa kundek bir qiz bo‘libdi. Dev qizni tizzasiga o‘tqazib, uning qo‘lidan sharob ichibdi, kayfini chog‘ qilib, mast bo‘lib yiqilibdi. Birozdan keyin turib, bir duo o‘qigan ekan, qiz yana boyagiday quruq kalla bo‘lib qolibdi. Dev kallani tutning kallagiga qo‘yib, yana yo‘liga ravona bo‘libdi. Kal ham o‘rnidan turib arg‘amchi bilan o‘rog‘iga qaramay, jo‘nab qolibdi. U yo‘l yurib, yo‘l yursa ham mo‘l yurib, mo‘l yursa ham ko‘l yurib, ko‘l yursa ham cho‘l yurib, kun yurib, oy yurib, yil yurib, bir shaharga yetibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Bir oshxonaga borsa oshpaz ovqatlarini o‘t yoqmasdan pishirib turgan ekan. Kal ko‘rib hayron bo‘libdi. Kal oshpazga:

— Men sizga shogird bo‘laman, — debdi. Oshpaz:

— Menga shogird kerak emas, — debdi. Kal:

— Och qoldim, tanishim yo‘q, holim tang, — debdi. Oshpaz:

— Mayli bo‘lmasa, uyga ul-bul tashib yurarsan, — debdi.

Bir kuni kal oshpazning uyiga go‘sht-yog‘ olib boribdi, go‘sht-yog‘ni oshpazning bo‘yi yetgan qiziga bera turib, uning qo‘lidan ushlabdi. Qiz qo‘lini shuncha tortsa ham kal oyog‘ini tirab turib olibdi. Shunda qiz:

— Qo‘limni qo‘yib yubor, ko‘chadan nomahramlar o‘tib turibdi, — debdi. Kal:

— Bir gap so‘rayman, to‘g‘ri aytsang qo‘yib yuboraman, — debdi.

— Gaping nima, ayt!

— Otang qanday qilib o‘t yoqmay osh pishiradi?

— Qo‘limni qo‘yib yubor, ichkarida aytaman.

Kal qo‘yib yubormabdi. Oxiri qiz aytishga majbur bo‘libdi:

— Otamning bir duosi bor, shuni o‘qisa, osh pishaveradi.

Kal qizning qo‘lini qo‘yib yuborib, o‘zi bozorga ketibdi.

Oy o‘tib, yil o‘tib, haligi ish qizning esidan chiqqandan keyingina, yana bir kuni go‘sht-yog‘ olib kelibdi. Uni olgani yana qiz chiqibdi, kal uning qo‘lidan ushlab, „dod“ desa ham qo‘yib yubormabdi.

— O‘sha otangning duosini o‘rgatib qo‘ysang, qo‘yib yuboraman.

— Otam bilsa, ikkalamizni ham tirik qo‘ymaydi.

Shunda kal qizning qo‘lini undan ham qattiqroq tortibdi. Qiz yalinibdi:

— Mayli, o‘rgatib qo‘yay, — deb rozi bo‘libdi. Kal shundan keyingina qizning qo‘lini qo‘yib yuboribdi. Qiz kalga otasining duosini o‘rgatib qo‘yibdi. Kal o‘rgangan duosini o‘qib, kaptar bo‘lib, osmonga uchibdi. Oshpaz ham lochin bo‘lib osmonga chiqibdi. Kalning orqasidan quvib qolibdi. Oshpaz quvib, yetay-etay deganda, bir joyda bir qancha hukmdorlari bilan bir podsho ziyofatda o‘tirgan ekan. Kal bazmning o‘rtasiga tushibdi-da, qizil gul bo‘lib ochilibdi. Oshpaz ham kelib bir daraxt shoxiga qo‘nib, bulbul bo‘lib sayrabdi. U chunon sayrabdiki,

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

podsho bilan yonida o‘tirganlar sel bo‘lib oqibdi. Podsho bulbulga qarab:

— Tila-tilagingni, — debdi. Bulbul:

— O‘sha oldingizdagi gulni tilayman, — debdi. Podsho:

— Ushla, nokas, — deb gulni irg‘itib yuborgan ekan, gul bir hovuch tariq bo‘lib, sochilib ketibdi. Haligi bulbul bolali tovuq bo‘lib, tariqni terib yebdi. Kavushlarning ichida bittasi qolgan ekan, yana kaptar bo‘lib uchib ketibdi. Oshpaz lochinga aylanib, orqasidan quvibdi.

Bir joyda yonar tog‘ bor ekan, kal bir duo o‘qigan ekan, o‘t-tutun bo‘libdi, kal o‘tib bir xashak tagiga berkinib qolibdi, oshpaz to‘g‘riga o‘tib qidirib ketaveribdi.

Kal bir duo o‘qib, odam bo‘lib, o‘z shahriga jo‘nabdi.

Boyagi dashtdagi kalla turgan tutga boribdi. Kallani olib, duo o‘qibdi, haligi kalla bir qiz bo‘libdiki, uning husni jamoli oldida oy xiralik qilar ekan. Qiz ko‘zini ochib:

— He, kal, men seniki bo‘ldim, endi uyingga ketaylik, — debdi.

Kalning uyiga boribdilar. Kal qizni o‘ziga nikohlatib olibdi. Kal yana o‘tin terib, ovqat qilib yuraveribdi.

Bir kuni o‘tin terib yursa, dasht yonidagi katta daryodan bir gul oqib kelaveribdi. Kal arg‘amchiga xashak bog‘lab, suvga tashlabdi, gulni ilintirib, o‘ziga qaratib tortibdi. Gulni olib turib o‘ylabdi.

O‘sha kunlarda shahar podshosi qizining chiroyiga mahliyo bo‘lib: „Dunyoda mening qizimdan chiroyli qiz bormikin?“ deb e’lon qilgan ekan. Kal gulni ko‘tarib, podsho o‘rdasiga boribdi. Podsho qizi bilan qirq pog‘onali ravoqda o‘tirgan ekan. Kal bir pog‘onaga chiqib qo‘yniga bir qarab, ravoqdagi podshoning qiziga bir qarabdi. Yana bir pog‘onaga chiqib, bir qo‘yniga qarab, bir podshoning qiziga qarabdi. To‘rt-besh pog‘onaga borganda podsho jallodni chaqirib, unga kalni oldirib chiqib, ravoqdan pastga tashlab, o‘ldirishni buyuribdi. Jallod kalni olib chiqib tashlayotganda kal podshoga:

— Arzim bor, — debdi.

Podsho:

— Nima arzing bor? — debdi. Shunda kal:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Siz dunyoda mening qizimdan chiroyli qiz bormikin, deb aytgan edingiz. Men bir gul topgan edim, shuni olib kelib, sizning qizingiz chiroylimi yo gul chiroylimi, deb solishtirib ko‘rayotgan edim, — debdi-da, qo‘ynidagi gulni olib beribdi. Podsho vazirga gulni berib:

— Chorbog‘ga olib borib ko‘ring-chi, shu guldan bormikin, — debdi.

Podshoning chorbog‘ida turli-tuman gullar bo‘lar ekan. Vazir gulni solishtirib ko‘ribdi. Haqiqatan u guldan yo‘q ekan. Podsho gulni olib, eng kichik xotiniga beribdi. Podshoning to‘rtta xotini bor ekan. Bir kun to‘rt xotini podshoning etagidan ushlab olib: „Bizga ham bittadan shunaqa gul topasiz, bo‘lmasa bizning javobimizni berasiz. Hammamizdan ham shu xotiningiz yaxshimi?“ deb janjal chiqaribdilar. Podsho kalga:

— Gul keltirmay o‘l, boshimni baloga qo‘yding. Yana shu guldan bir kam to‘rtta topib kelasan, bo‘lmasa o‘lasan, — debdi. Kal qirq kunga muhlat olib ketibdi.

Kal o‘tin terib, sotib, ovqat qilib yuraveribdi. Bir kam qirq kun o‘tib ertasi kun deganda, kechasi kal oh tortib yuboribdi. Xotini:

— Xo‘sh, nimaga oh tortasiz? — debdi. Kal:

— Ertaga mening ajalim yetadigan kun, — deb podshoga bergan va’dasini so‘zlab beribdi. Xotini:

— Ish oson ekan, — deb erta bilan kalga:

— Bir bog‘ ho‘l govron olib keling, — debdi. Kal govronni olib kelibdi. Xotini uyni qorong‘i qilib bekitibdi. Govronni bir tokchaga qo‘yibdi. Kalga:

— Meni shu govron bilan urasiz, men „dod“ deb uyning ichini aylanaman. Govronning singanini bo‘sh tokchalarga tashlaysiz, — debdi. Kal unamabdi. „Sizga tirnog‘imni ham tegizmayman“, debdi. Xotini:

— Mayli, uravering, agar meni yaxshi ko‘rsangiz, mening o‘lishimni xohlamasangiz, ayamay uravering, menga zarar qilmaydi, — debdi. Kal „Xo‘p“, deb uraveribdi. Xotini „dod“ desa ham qo‘ymabdi. Bir vaqt xotini kalga:

— Uyning eshigini oching! — debdi. Kal eshikni ochsa, haligi xotinining badaniga tegib singan govronlar, bir kam to‘rtta boyagi guldan bo‘lib qolibdi. Xotiniga hech narsa bo‘lmabdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kal gullarni ko‘tarib podsho oldiga jo‘namoqchi ekan, uchta jallod kelib: „Podsho seni chaqirdi!“ debdi. Kal gulni ko‘tarib podsho huzuriga boribdi. Gulni unga beribdi, o‘limdan qutulibdi. Shunda jallodlar kalning uyida chiroyli xotini bor ekanini podshoga aytibdilar. Podsho u xotinni qanday qilib qo‘lga olish haqida ziyrak vaziri bilan maslahatlashibdi. Vazir:

— Ishi oson, siz tishim og‘ridi, deb yotasiz, tabib kelib, ayiq suti dori, deydi. Kalni ayiq suti olib kelishga buyuramiz. To‘qayzorlarda yo‘lbars, ayiqlarga yem bo‘lib o‘lib ketadi. Xotini sizniki bo‘ladi, — debdi.

Podshoga bu maslahat yoqib, vazir aytgandek qilibdi. Kalni chaqirtiribdi. Kal qirq kunga muhlat olibdi. Bir kam qirq kun deganda, kechasi bir oh uribdi. Xotini sababini so‘rabdi. Kal avvalgiday yana voqeani so‘zlab beribdi. Xotini yana:

— Xafa bo‘lmang. Erta bilan turib bitta kosani qo‘ltiqqa tiqib, falon to‘qayga borasiz. U joyda ayiqlar podshosining oyog‘iga cho‘gir kirib, shishib, yurolmay yotibdi. Uzun bir qamichni uchlik qilib, ayiqning oyog‘idagi yarani teshib yuborasiz, zardob chiqib, patos oqib, ayiq ko‘zini ochadi,— „Tila-tilagingni“ desa, siz bir kosa sut tilaysiz, — deb maslahat beribdi.

Kal xotinining aytganiday qilib, sutni podshoga olib boribdi.

Podsho veziriga:

— Yana omon keldi, endi nima qilamiz? — debdi. Vazir:

— Yana hiyla qilib, belim og‘ridi, deb yotasiz. Tabib bel og‘rig‘ining tuzalishi uchun Ko‘hiqofdagi Guliqahqah parining oltin supasida yotsangiz tuzalasiz, deydi. Kalni yuborasiz, kal o‘sha yoqda o‘lib ketadi, — debdi.

Podsho vazir aytganiday qilib kalni chaqiribdi. Kalga supani olib kelishni buyuribdi. Supa oltindan ekan, uning yonida oltin teragi, terak ostida zabarjaddan ko‘rpa-to‘shak, yostiq bor ekan. Terak shoxlari zumrad, barglari marvariddan ekan.

Kal ertaga qirq kun bo‘ladi, deganda oh uribdi. Xotini ahvolini so‘rabdi. Xotiniga voqeani so‘zlab beribdi.

Xotini:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Oson ekan, — debdi.

Tong otibdi. Xotini kalning qo‘lidan ushlab: „Ko‘zingizni yuming!“ debdi. Kal ko‘zini yumibdi.

— Ko‘zingizni oching! — debdi. Kal ko‘zini ochib qarasa, xotini bilan haligi oltin supada o‘tirgan emish. Xotini kalni bir joyga bekitib qo‘yib, Guliqahqah parini chaqiribdi. Guliqahqah pari Ko‘hiqof parilarining podshosi ekan. Kalning xotini Guliqahqah parining singlisi Qunduz pari ekan. Qunduz parini o‘n yil ilgari bir dev yaxshi ko‘rib, olib qochib ketgan ekan. Guliqahqah singlisi Qunduzni ko‘rib sevinganidan qichqirib yig‘labdi. Tamomi parilar to‘planibdilar.

— Seni u zolimning qo‘lidan kim qutqardi? — deb so‘rabdi. Qunduz pari bir qoshiq qonini so‘rab olgandan keyin, haligi kalni chiqarib ko‘rsatibdi. „Shu qutqardi“, debdi. Shu bilan Guliqahqah pariga terak bilan supa uchun kelganini aytib beribdi. Guliqahqah pari bir hujrani ochib, bandda yotgan uch devni chaqiribdi:

— Shu supani terak, o‘rin-ko‘rpalari bilan qancha vaqtda falon podshoning bog‘iga olib borasan? — debdi. Devlar:

— Bir soatda, — debdilar. U devlarni o‘z o‘rniga kirgizib qo‘yib, boshqa devlarni chaqiribdi. Oxiri beshinchi hujradagi ikki dev, uch daqiqada olib borishini aytibdilar.

— Ko‘tar!— debdi Guliqahqah pari. Supada Guliqahqah pari, Qunduz pari va kal o‘tirar edilar. Kal ko‘zini yumib ochsa, haligi podshoning bog‘ida turibdilar. Har uchalasi kalning uyiga ketibdi. Erta bilan podshoning jallodlari kalni shohning huzuriga eltibdilar. Shoh kalga:

— Hozir o‘lasan! — debdi. Kal:

— Hovlini ko‘ring! — debdi. Podsho hovliga qarasa, supa turibdi.

Podsho supa kelganiga sevinmabdi, balki xafa bo‘libdi. Chunki kal tirik kelgan ekan. Podsho vaziridan yana tadbir so‘rabdi. Vazir:

— Yurtga sarjin soling!— debdi.

Ming sarjin o‘tin yig‘ilibdi. Ikki terak bo‘yi qilib terilibdi. Ustiga kalni chiqarib fonar yog‘i quyishni buyuribdi. Shu holda o‘tin tagidan o‘t qo‘yilibdi. Guliqahqah bilan Qunduz parilar osmonga chiqib kalni tutun ichidan olib, uchib ketishibdi. Bir necha kun o‘tgandan keyin bir duo

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

o‘qib, yangi uzilgan bir qovun paydo qilibdilar. Qovunning ikkita bargi bor ekan, bandidan suv oqib turar ekan. Qovunni kalga qo‘ltiqlatib, uni kul ichiga yashirib qo‘yibdilar.

Ertasiga podsho kalning o‘limiga shodiyonalik qilib, butun xalqni to‘plab turgan vaqtida, birdan qovun qo‘ltiqlab kul ichidan kal chiqib kelibdi. O‘sha vaqtda endigina yerdan qor ketgan, hali qovun pishadigan vaqt emas ekan. Podsho hayron bo‘libdi.

Kal podsho bilan so‘rashib:

— Men jannatga bordim. Ota-onangiz o‘sha joyda qovun ekkan ekan. Qovun pishibdi, sizni qovun sayliga olib borish uchun meni yubordilar, — debdi.

Yurtga yana o‘tin solig‘i solinibdi. O‘tinni to‘rt terak bo‘yi qilib teribdilar. Uning ustiga kal bilan podsho chiqib o‘tiribdi. Fonar yog‘i quyilibdi, o‘t qo‘yilibdi. Tutun ichida ikki pari kelib, kalni ko‘tarib ketibdi. Podsho kuyib kul bo‘libdi.

Podshoning kelaman, degan va’dasiga bir kun qolganda, kechasi kal kul ichiga kirib yotibdi. Podshoni qarshi olish uchun yig‘ilgan hukmdorlar qarab turganda, qo‘lida xat ushlagan kal kul ichidan chiqib kelibdi. Xat o‘qilsa:

Podsho vaqtincha ota-onasi oldida qolibdi, o‘rniga kalni podsho qilibdi. Kal podsho bo‘libdi, yurtda adolat o‘rnatib, davr-davron suribdi, murod-maqsadiga yetibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Ayyor bilan sodda

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonda bir ayyor bilan bir sodda bo‘lgan ekan. Kunlardan bir kun ular safar qilmoq uchun yo‘lga chiqibdilar. Yo‘lda ketayotib, bir xumchada oltin topib olibdilar. Oltinni ikkisi bo‘lishib olmoqchi bo‘lishibdi. Biroq ayyor soddaga oltinlarni berishni xohlamabdi-da, soddani aldash yo‘liga tushibdi.

Ayyor soddaga shunday debdi: „Agar biz bu oltinni shaharga olib kirsak, kishilar bilib qolib oltinni tortib oladilar. Yaxshisi oltinni ko‘maylik-da, kerak vaqtida, oz-ozdan olib sarflaylik“. Shunda sodda bunga ko‘nibdi. Oltinni ko‘mibdilar.

Kunlar o‘tib, soddaga oltin kerak bo‘lib qolibdi. Buni ayyorga kelib aytgan ekan, ayyor menga ham kerak edi, debdi. Shunda ikkisi birga oltin ko‘milgan joyga borib qarasalar, ko‘milgan oltin yo‘qmish. Ayyor oltinni o‘zi o‘g‘irlab berkitib qo‘ygan ekan. Lekin shunga qaramasdan, soddaga tuhmat qilibdi. Shundan so‘ng ikkisi qozi oldiga

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
boribdilar. Butun voqeani qoziga aytibdilar. Qozi ayyorning gapiga ishonmabdi. „Ishonmasangiz daraxt ostiga ko‘mganmiz, o‘sha daraxt guvohlik beradi“ deb aytibdi, ayyor shunda uyiga kelib, qari otasiga: „Sen guvoh bo‘lasan“, debdi.

Otasi unga unamabdi. Ayyor otasiga yalinib yurib, uni ichi po‘k daraxt ichiga kirgizib qo‘yibdi. Sodda qozini yetaklab daraxt tagiga boribdi. Shunda qozi so‘rasa, daraxt ichidan, „Oltinni qo‘ygan odam olib ketgan“, debdi. Shunda qozi, bu daraxt ichida shayton borga o‘xshaydi, deb daraxt tagiga o‘t qo‘ydiribdi. O‘t yoqilgach, daraxt ichidagi chol dod solibdi. U chol: „Meni qutqazinglar, meni o‘g‘lim majbur qilgan“ degach, o‘tni o‘chirishib, cholni olib chiqibdilar.

Soddaga oltinning hammasini beribdilar. Shunday qilib, ayyorlik bilan oltinni olaman degan ochko‘z ayyor oltindan ayrilib qolgan ekan.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Yetti ahmoq

Bir kuni yetti ahmoq bozorga chiqishibdi. Yurib-yurib qornilari ochibdi. Ular pul yig‘ishib, yettita xurmacha qatiq va yettita non olishibdi. Endi olgan narsalarini yeyish uchun joy izlashib, bir chekkaga o‘tishibdi. Ular atrofga qarasalar, qo‘llarini yuvish uchun suv ko‘rinmabdi. Shunda ularning eng kattasi boshqalariga suv keltirishni buyuribdi. Ular bir-birlariga sansalorlik qilib, hech qaysisi unamabdi.

Shunda ahmoqlar bir-biriga shart qo‘yishibdi. „Agarda kim gapirsa, o‘sha qo‘lga suv olib kelib quysin“, deyishibdi. Shunday qilib, ahmoqlar indamasdan o‘tiraverishibdi.

Shu payt, bir gadoy kelib tilanibdi. Unga hech kim javob bermabdi. U nonni olib yeb, qatiqni ichib idishning yuqini ahmoqlar betiga surkab ketibdi.

Birozdan keyin bir it kelib, qolgan non ushoqlarini yesa ham ular indamay o‘tiraverishibdi. It non ushoqlarini, idish yuqlarini yalabdi. Oxiri itning qorni to‘ymay qolib, bir chekkadan ahmoqlarning betidagi gadoy surkab ketgan qatiqlarni yalay boshlabdi. It oltita ahmoqning betini yalab yettinchisini yalayotganda, itning tili og‘ziga kirib ketibdi. Shunda haligi ahmoq: „Ket!“ deb yuboribdi. Oltita ahmoq birdaniga: „Tur, qo‘lga suv keltir!“ deb qichqiribdi. Qarashsaki, oldilarida na non bor va na qatiq.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kuygan chol

O‘tgan zamonda bir chol bilan kampir yashagan ekan. Ularning bitta eshaklari bor ekan. Bu eshakni sug‘orish, ovqatlantirish sansalor bo‘lib, doimo ular bir-birlari bilan urishar ekanlar. Bir kuni chol zerikib kampirga:

— Hadeb mojaro qilib urishgandan ko‘ra, senga aytadigan bir gapim bor. Uch kunga muhlat qo‘yamiz. Kimki uch kunga qadar gapirsa, eshagimizni sug‘orish, ovqatlantirish o‘shaning bo‘yniga tushadi, — debdi.

Bu gap kampirga ma’qul tushibdi. Ular ikki kun bir-birlari bilan gaplashmay qo‘yishibdi. Uchinchi kuni kampir zerikib qo‘shnisinikiga chiqib ketsa, uylariga o‘g‘ri kirib hamma yoqni ship-shiydam qilib ketibdi, shunda ham chol indamabdi. Kampir kelib ko‘rsa ahvol shunday, u qo‘shnisinikiga chiqib, unga butun bo‘lgan voqealarni aytibdi.

Qo‘shnisining rahmi kelib, qizidan bir kosa issiq sho‘rva chiqarib berishni so‘rabdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Qiz bir kosa sho‘rvani ko‘tarib chiqsa, voqea haligidek emish. Qiz cholga:

— Ha, tog‘a, nimaga bunday qilib o‘tiribsiz? — desa, chol boshini ko‘rsatib, „To namatgacha olib ketishdi“, deb ishora qilibdi, qiz sho‘rvani boshimga to‘k deyapti, deb o‘ylabdi-da, issiq sho‘rvani boshiga quyib, boshini kuydirib qo‘yibdi. Buni eshitib kampir chiqibdi:

— Ha, nimaga bundaqa qilib o‘tiribsiz? — deganda, chol:

— Ana, yutqizding, kampir, endi eshak sug‘orish, ovqatlantirish o‘zingning bo‘yningga tushdi, — debdi. Shunday qilib, ular bor-yo‘g‘idan ajralishib qolgan ekanlar.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi



«Ayyor va sodda» ertagiga ishlangan rasm

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Topqinchilar

Bir zamonda bir topqinchi dehqon bor ekan. U birov biror narsani yashirib qo‘yib, „Bu nima?“ deb so‘rasa, ko‘rmasdan topib berar ekan. U, kunlarning birida, o‘lim yostig‘iga bosh qo‘yib, dunyo bilan xayrlashibdi. Dehqon o‘lgandan keyin ikki ho‘kiz bilan biroz yer uch o‘g‘liga qolgan ekan. Uch og‘a-ini bir kuni bir yerga yig‘ilib: „U yerni bo‘lib, ovoti menga, novvoti senga“, deb janjallashib turmaylik. Birimiz qo‘sh qo‘shib yerni tayyorlaylik, birimiz ekin ekib, chopig‘ini chopib, hisobini topib pishiraylik. Birimiz o‘rib olib xirmonga solib yanchib, sovurib, bog‘lab, hosilini qoplab bo‘lib olaylik“, deb kelishibdi. Hash-pash deguncha, bahor ham kelib qolibdi. „Qani, endi qo‘shni kim qo‘shadi?“ deb, ular bir-biriga maslahat solibdi. Kichigi turib:

— Qo‘sh qo‘shmoq bizdan bo‘lsin, — deb ho‘kizlarni olib, bo‘yinturuqni ilib, dalaga borib, besh kun qo‘sh haydab, uyga kelibdi. Ho‘kizlarini tashqariga bog‘lab, yem-xashakni joylab, yotib uxlab

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
qolibdi. Kechasi darvoza ochiq qolib, o‘g‘ri kelib ikkala ho‘kizni olib ketibdi. Qo‘shchi ertasi uyg‘onib qo‘shga boray desa, ho‘kizlari bog‘langan joyida yo‘q emish. Hayron bo‘lib, yota beribdi.

Ertalab ichkaridan ikkala akasi chiqib:

— Nega qo‘shga bormading, ho‘kizlar qani? — debdi. Qo‘shchi ukasi:

— Kechasi o‘g‘ri kelib, ho‘kizlarni olib ketibdi, — debdi. Akalari:

— O‘g‘rini ko‘rmadingmi? — debdi.

Ukasi:

— Ko‘rmadim, — deb javob beribdi.

Shunda eng katta akasi:

— Otamiz bir narsani ko‘rmasdan topadigan topqinchi edi. Otamizning xususiyati bizda bo‘lsa, ho‘kizlarni topsak kerak. Uka, ko‘rmagan o‘g‘rini nimaga o‘xshatding? — debdi.

Kichik ukasi:

— Ko‘rmagan o‘g‘rining ko‘zini ko‘kka o‘xshatdim, — debdi.

O‘rtancha akasi:

— Agar shu o‘g‘rining ko‘zi ko‘k bo‘lsa, soqoli sariq bo‘lsa kerak, — debdi.

Katta akasi turib:

— Agar o‘g‘rining ko‘zi ko‘k, soqoli sariq bo‘lsa, oti Muso bo‘lsa kerak, — debdi.

Bundan keyin uchalasi:

— Ko‘chalar, bozor, guzarlarni qaraylik, u yerdan kimning ko‘zi ko‘k, soqoli sariq bo‘lsa, to‘xtatib otini so‘raylik, — deb maslahatlashib, ko‘chama-ko‘cha, guzarma-guzar, bozorma-bozor qidirib yurganlarida, ko‘zi ko‘k, soqoli sariq bir odam ko‘rinibdi. Bular u odamning oldiga borib:

— Aka, otingiz nima? — deb so‘rabdilar, u odam:

— Otim Muso, — deb javob beribdi. Og‘aynilar uni mahkam ushlab, biqiniga mushtlab, „Ho‘kizimizni topib ber!“ deyishibdi. U odam:

— Men sizlarning ho‘kizlaringizni olganim yo‘q, — debdi. Keyin uch birodar „Ho‘kizlarni topib berasan“, deb yana mushtlay beribdi. Bu g‘avg‘oga to‘rt tomondan yig‘ilgan odamlar janjalning sababini so‘rabdilar.

Uchta og‘ayni:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Biz ho‘kizimizni o‘g‘irlatdik. Bu odam o‘g‘irlagani uchun tutdik. Mollarimizni topsa topgani, topmas ekan, o‘g‘riligini yopgani, — deyishibdi.

Odamlardan biri:

— Nima sababdan bu kishini o‘g‘ri deysizlar? Qanday asoslaring bor? — deb so‘rabdi.

Og‘aynilarning kattasi turib:

— Biz qo‘limiz bilan ushlamasak ham, ko‘zimiz bilan ko‘rmasak ham topadigan topqinchi-bilgirmiz. O‘g‘ri shu, ho‘kizlarimizni shundan toptirib olib, undan keyin qo‘yib yuboramiz, — debdi. Yig‘ilgan odamlar:

— Bu janjalni podsho yechmasa, biz yecholmas ekanmiz, — deyishibdi.

Bu so‘z bilan uchta og‘ayni haligi odamni sudrab, to‘rtta bo‘lib podsho oldiga borishibdi. Podsho:

— Nima arzingiz bor? — deb so‘rabdi.

Muso ta’zim bajo keltirib:

— Ey, podshohi olam, birov yo‘lda ketayotsa, birovi yo‘lda kelayotib „Oting nima?“ desa, „Muso“ desa, „Ho‘kizimni topib ber, desa, ushlasa, biqiniga mushtlasa, shunday dashnom bersa, tutib olib kelsa, yur bu yoqqa“, deb oldiga solib kelsa. Ey, hukmi jahon, bunday zulmga jazo bormi? Arzim shu, taqsir, — debdi.

Bu gapga podshoning g‘azabi kelib: „Jallod!“ deb chaqiribdi. Jallod yetib kelib: „Qilichim o‘tkir, tig‘im burro, xizmat“, debdi. Podsho uchta og‘a-inini o‘limga buyuribdi. Jallod ularni oldiga solib chiqib ketayotganda, podshoning yonida o‘tirgan vaziri:

— Taqsir, birovidan gap so‘radingiz, ammo u uchovidan hech gap so‘ramadingiz. Ulardan ham bir og‘izdan gap so‘rang. Qani, nima deb javob berar ekanlar. Ularning ham dalili bordir, — debdi.

Bu so‘zdan keyin podsho bu uchta aka-ukani qaytarib keltirib, ulardan so‘rabdi:

— Yo‘lda ketayotgan odamga „Sening oting nima?“ deganlaringda, „Otim Muso“, deganda, „Ho‘kizlarni topib ber“ deb nima vajdan bu odamni mening oldimga olib keldinglar, qani, arzlaringni aytinglar, — debdi.

Katta aka turib:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Bizning otamiz topqinchi edilar. U kishi ko‘zi bilan ko‘rmagan narsani „Bu nima?“ desa, topib berar edilar. Otamiz o‘lib, undan bizga ikki ho‘kiz qolgan edi. Kichik ukam kechasi uxlab yotganida ho‘kizlarni o‘g‘ri olib ketdi. Biz ukamizga „Tur, qo‘shga bormaysanmi?“ desak, u „Ho‘kizlarni o‘g‘ri olib ketib qoldi“, dedi. Keyin men „Bizning otamiz ko‘zi bilan ko‘rmagan narsani topib beradigan topqinchi edilar. Shu otamizning topqinchilik xislati bizda bo‘lsa, „Sen o‘g‘rini nimaga o‘xshatding?“ deb kenja ukamdan so‘rasam, u turib: „Menimcha o‘g‘rining ko‘zi ko‘kka o‘xshaydi“, dedi. O‘rtancha ukam: „Uning ko‘zi ko‘k bo‘lsa, soqoli sariqqa o‘xshaydi“, dedi. Men turib: „Uning ko‘zi ko‘k bo‘lsa, soqoli sariq bo‘lsa, oti Muso bo‘lsamikan?“ dedim. Shundan keyin ko‘zi ko‘k, soqoli sariq, oti Muso bo‘lsa, o‘sha odam o‘g‘ri deb, bozor, guzarda izlab yurib edik, bir ko‘chada ko‘zimizga shu odam ko‘rinib qoldi. Razm solib qarasak, ko‘zi ko‘k, soqoli sariq ekan. Yaqiniga kelib: „Oting nima?“ desak, „Muso“ dedi. Biz topqinchilik vajidan shu turgan odamning olganligiga ko‘nglimiz qaror topib, huzuringizga keltirdik. Bo‘lgan ahvol shu, — deb gapini tugatibdi.

Podsho:

— Bo‘lmasa, to‘rtovingizni bir uyga qamab qo‘yaman. Bir kosa tagiga bir narsani yashirib qo‘yaman, to‘rtovingni olib chiqib, yigirma qadam nariroqqa qo‘yaman. „Shu kosaning tagida nima?“ deb so‘rayman, shu kosa tagidagi narsaning nima ekanligini uchoving topsang, bu turgan kishining olganligiga ishonib, hukm qilaman. Agar topolmasalaring hukmim hukm, sizlarni jallodning qo‘liga topshiraman, — debdi. Uch og‘ayni rozi bo‘libdi.

Podsho to‘rtovini bir uyga qamab qo‘yishni buyuribdi. So‘ngra podsho bir anorni keltirib, ustiga bir kosani to‘ntarib, to‘rtovini olib kelishni buyuribdi. Ular kelib podshodan yigirma qadam narida to‘xtashibdi. Podsho:

— E, topqinchilar, bu kosaning tagiga yashirilgan narsa nimadir? — deb so‘rabdi. Og‘a-inilarning kattasi turib:

— Kosa, uni bu yoqqa olsa, tagida yumaloqqa o‘xshagan narsa qolsa kerak, — debdi. Keyin o‘rtanchasi turib:

— Kosa, uni bu yoqqa olsa, tagida yumaloqqa o‘xshagan narsa qolsa, u yumaloq bo‘lsa, ichi qizil bo‘lsa kerak, — debdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Eng oxirida kichigi turib:

— Kosa, uni bu yoqqa olsa, tagida yumaloqqa o‘xshagan narsa qolsa, u yumaloq bo‘lsa, ichi qizil bo‘lsa, anorning o‘zi bo‘lsa kerak, — deganidan keyin, podsho kosani olib Musoga:

— Bularning topqinchiligi rost ekan, bularning gapi to‘g‘ri, sen ho‘kizni olgan o‘g‘ri. Ho‘kizlarni olganmisan, olmaganmisan, rostini ayt, — debdi.

Muso:

— Dushanba kuni olganman, — deb, o‘g‘riligini bo‘yniga olibdi. Shunday qilib, uch og‘aynilar o‘limdan qutulib qolibdilar. Muso jazoga tutilib qolibdi. Podsho ho‘kizlarini toptirib, oldiga solib yuborgan ekan. Ular haydab ketgan ekan, murodiga yetgan ekan.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Xasis boy va uning o‘g‘illari

Qadim zamonda bir xasis boy yashagan ekan. Uning uch o‘g‘li bor ekan. Ular ham otasi singari xasis ekan. Mol-dunyo topishda har qanday razillikdan qaytmas, borgan sari boyishni istar ekan.

Kunlardan bir kuni ular mol orttirish, boyliklariga boylik qo‘shish maqsadida yo‘lga chiqishibdi. Yo‘lda ketayotib, bir oltin g‘isht topibdilar. G‘ishtning bir chetidan sindirib, eng kichik ukasiga berib, ovqat olib kelishga yuborishibdi. Ukasi ketgandan keyin akalarining fikri buzilibdi: „Agar oltinni uchga bo‘lib ukamizga ham bersak, o‘zimizga juda oz tegadi. Yaxshisi, oltinni ikkiga bo‘lib olib, ukamiz kelishi bilan uni o‘ldiraylik“, deyishibdi.

Ukasi ham bozorga ketayotib: „Agar bu oltinni uch kishiga bo‘lsak, har birimizga ozginadan tegadi. Undan ko‘ra, oltinni men o‘zim butunicha olsam, buning uchun akalarimni o‘ldirishim kerak. Men mana shu olib kelgan ovqatga zahar solay, yeb o‘lsin. So‘ngra oltin bir o‘zimga qoladi, davlatim ko‘payib, dong‘im uzoqlarga ketadi“, deb o‘ylab, olib kelayotgan ovqatining ichiga zahar solib, akalarining oldiga kelibdi. Akalari ukasi kelishi bilan uni bo‘g‘ib o‘ldirishibdi. Qorinlari ochib ukasi olib kelgan ovqatni yeb, ikkala aka ham o‘lib qolibdi.

Shunday qilib, ochko‘z boyning tarbiyasini olgan bolalar ham mol-dunyo, davlat deb jonlaridan ajralibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Qirq yolg‘on

Bor ekan, yo‘q ekan, qadim zamonda bir boy bor ekan. U juda boy ekan, bir chuqurda achib qolgan loy ekan, sira suv o‘tmagan soy ekan, birov minmagan toy ekan, yomg‘ir yog‘ganda bulutning orasida qolgan oy ekan, qozonga solsa, dog‘ bo‘lmagan moy ekan, kigiz-ko‘rpasi yo‘q, odam yotmagan joy ekan, birov ichkisi kelmagan choy ekan. Bu boy shunaqa dong‘i ketgan mashhuri olam ekan.

Boy yurib-yurib bir kuni nima ham bo‘lib o‘lgan ekan. Uchta o‘g‘li uch oy-u o‘n kungacha ovora bo‘lib, haqlarini bo‘lgan ekan. Bu o‘g‘illarning bittasiga yetti-sakkiz pog‘onali shoti, bittasiga eski childirma, bittasiga yotsa turolmaydigan, tursa yurolmaydigan uchta ko‘r eshak tekkan ekan. Uchovining uch oy, o‘n kunda bo‘lib olgan bor narsasi shu ekan. Bir kun shoti tekkan ukasi akasi bilan urishib qolgan ekan. „Sizlarning oldilaringizda turganim shu bo‘lsin“, deb otasidan qolgan shotisini olib, yelkasiga solib ketgan ekan. Namangan daryosining yoniga yetgan ekan. Daryoga borgandan keyin „Meni o‘tkazib qo‘ying“ deb, kemachiga aytgan ekan.

Kemachi:

— Shotiga bir miri, o‘zingga bir miri berasan, bo‘lmasa o‘tkazmayman, — degan ekan. Shoti egasi:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— O‘tkazib qo‘ysang, bir miri beraman, boshqa bera turgan pulim yo‘q, — degan ekan.

Kemachi ko‘nmaganidan keyin, shotini tashlab, ustiga irg‘ib minib olib, kemachidan burun daryoning narigi yog‘iga o‘tib olibdi. U daryodan o‘tib, shotini olibdi, yelkaga solibdi, jo‘nab qolibdi. Nariroqqa borsa, Namanganning o‘rik-olmasi pishib, to‘kilib, tagiga tushib turgan ekan. To‘kilganini olib, savatga solib, odamlar tepasiga chiqib qoqolmay turganida u shotisi bilan yetib kelgan ekan. Odamlar uni ko‘rib:

— O‘rtoq, shotini bizga ijaraga qo‘y, mana bu mevalarning tepasiga chiqolmay yotibmiz, chiqsak, tusholmay yotibmiz. Olmaga olti pul, o‘rikka to‘rt puldan ijarani ola ber, yeganing yana o‘zingniki, — debdilar.

U xursand bo‘lib, shu aytgan bahoga shotini ijaraga qo‘yib, chaqalarga cho‘ntagini to‘lg‘azib, shotini olib, yelkaga solib, jo‘nab, uyiga yetib qopti. Uyiga kelsa akalari:

— Xo‘sh, qayda yurding, nima qilib kelding? — debdilar. U:

— Sizlar meni hech ish bilmaysan, deb xo‘rladilaring. Mana men, musofirchilikda yurib, shuncha pul topib keldim, — deb cho‘ntagidan tangalarni olib, o‘rtaga tashlabdi.

Buni ko‘rgan akalari „Buni qaydan olding?“, deb so‘rabdilar. Ukasi musofirchilikdan topganini aytibdi. Uni ko‘rib childirma tekkan merosxo‘r akasi:

— Otamdan qolgan childirmani olib ketay, o‘sha yoqda qolib ketay, — deb childirmani olib, safarga chiqib ketgan ekan, biyobon cho‘lga yetgan ekan. Qayoqqa borishini bilmasdan, bir joyga borsa, suvi yo‘q eski tegirmon ko‘rinib qolgan ekan. Tegirmonning ichiga kirib yotay desa, uning ichi chang-tuproq ekan. U yoqda yotsam chang bo‘laman, bu yoqda yotsam gard bo‘laman, undan ko‘ra, do‘lning[1] ichiga kirib yotayin deb, do‘lning ichiga kirib yotib qolgan ekan. Bu joy ayiq-maymunlarning kirib yotadigan joyi ekan.

Hademay, tegirmon ichiga ayiq-maymunlar kirib kelaveribdi, ichi zich to‘libdi. Hammadan keyin yo‘lbars kirib kelib, do‘lning ichiga kirib yotay deb turganda, oyog‘i do‘lda yotgan childirmaga tegibdi. Childirma „darang“ etib qattiq ovoz chiqaribdi. Yo‘lbars qo‘rqqanidan o‘zini yerga otibdi. Sakkiz maymun, to‘qqiz ayiq: „Kattakonimiz muncha qo‘rqdi,

---

[1] **Do‘l** — tegirmon toshi ostiga o‘rnatilgan konus shaklidagi idish, xampa. Tegirmon toshi aylanganida un shu idishga tushadi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

buning ichida bir balo bor shekilli“, deb o‘zlarini ochilgan eshikka urgan ekan, eshik juft bo‘lib yopilib qolibdi. Shu shovqinda yigit uyg‘onib qolibdi. U eshikni ochib chiqib ketay desam, ayiq-maymunlar o‘zimni yeb qo‘yadi. Ayiq-maymunlar o‘z bilgicha eshikni ocholmaydilar, tashqariga qocha olmaydilar. Indamay tursam, bular meni yeb qo‘yadi, deb childirmani olib chalaveribdi. Ayiq-maymunlar qo‘rqqanidan o‘zlarini goh u yoqqa, goh bu yoqqa urib sarosimada qolibdi. U bo‘lsa, hadeb childirmani chalaveribdi. Shu bilan tong otib qolibdi.

Tong vaqtida, bir savdogar qirq tuya moli va xizmatkorlari bilan o‘tayotib, childirmaning tovushini eshitib qolibdi. Savdogar tuyalarini to‘xtatib, xizmatchilariga: „Sizlar tuyani boqib o‘tlatib turinglar, men tegirmonga kirib chiqay, u yerda bazm bo‘layotganga o‘xshaydi“, deb kelib tegirmonning eshigini ochib yuborgan ekan, tegirmonga qamalib, chiqolmay turgan jonivorlarning hammasi o‘zini eshikka urib, kattalari savdogarning boshidan sakrab, kichiklari oyoqlari orasidan o‘tib qochib ketibdi. Buni ko‘rgan savdogar qo‘rqqanidan rangida qon qolmay, anqayib qolibdi. Childirmaning egasi tashqariga chiqsa, eshik yonida birov turgan ekan. Yigit childirmani yerga urib savdogarning yoqasidan bo‘g‘ib qolibdi. Savdogar:

— Nega mening yoqamdan bo‘g‘asan? — deb so‘rabdi.

U:

— Eshikni ochib, ayiq-maymunlarni sen qochirib yubording, bu yoqqa yur, — debdi.

Savdogar:

— Meni qayoqqa olib borasan? — debdi.

Childirmachi:

— Meni xon chaqirtirib olib, „Sen childirma chalishga usta ekansan, shu ayiq-maymunlarni o‘rgatib berasan“, deb menga shu ayiq-maymunlarni yig‘ib bergan edi, men ularni shu yerga qamab, mashq berib, o‘yin o‘rgatib turgan edim. Xon „Qirq kunda qirq xil o‘yin o‘rgatasan“, degan edi. Men bularga yigirma besh kun ichida yigirma besh xil o‘yinni mashq berib, o‘rgatib qo‘yib edim. Endi o‘n besh kuni qolganda, eshikni ochib, hammasini qochirib yubording. Bularni sen qaydan topib berasan. Agar topib berolsang topib bergin, topib berolmaydigan bo‘lsang, men seni xonning oldiga boshlab boraman, — deb do‘q qilibdi. Savdogar uning bu gapiga:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— O‘rtoq, men bilmay qolibman, anavi turgan qirq tuya mol meniki, shundan yigirma tuyasini moli bilan ol. Meni bu g‘alvadan qutqar, —degan ekan, childirmachi:

— Bekor aytibsan, bu hazil ish emas, yur bu yoqqa, — debdi. Savdogar yalinib:

— O‘ttiz tuyasini oling, bizni qo‘yvoring, — degan ekan. U yana:

— Men bularni o‘rgatganimga xon menga ko‘p in’om bermoqchi edi. Buning ustiga yana javobgarligi bor, xonning oldiga yur! — degan ekan, savdogar:

— Bo‘lmasa, shu qirq tuya molimning barchasini olaqol, indamay qo‘yaqol, — debdi.

Childirmachi:

— Bu bilan bo‘lmaydi. Gapni ko‘paytirma, bu yoqqa yur! — degan ekan. Savdogar shoshganidan:

— Bo‘lmasa, endi, shu tagimdagi otimni ham olaqol, meni shu ishdan qutqaraqol, — debdi. Shunda childirmachi:

— Bu mollarni xonga o‘zim topshiraman, siz bu yoq bilan keta qoling, — debdi.

Shuning bilan savdogar qirq tuyasi bilan molidan ajrab, bir yoqqa ketib qolibdi, butun mol va tuyalarini olib, childirmachi ikkinchi yoqqa ketib qolgan ekan, uyiga yetib qolgan ekan.

Uning aka-ukasi ko‘rib, „Buncha molni qaydan olding?“ deb so‘ragan ekan. U:

— Musofirchilik yaxshi bo‘lar ekan. Shuncha molni topib keldim, — degan ekan. Buni ko‘rib uchta ko‘r eshak tekkan birodari:

— Musofirchilik bunday yaxshi bo‘lar ekan, men ham mol topib kelay, — debdi. U eshakni minib, laq-u luq ilib olib, katta yo‘lni bilib olib, ikkita eshakni oldiga solib haydab ketgan ekan. Shunday qilib, yo‘l yurib ketgan ekan, uzoq joyga yetgan ekan. Bir vaqt eshaklari och qolib, yotsa turolmaydigan, yo‘lga yurolmaydigan bo‘lib qolibdi. Nariroqqa borsa, bir sichqon ko‘rinibdi. U sichqonga qarab:

— Sichqonboy, — debdi. Sichqonboy:

— Ha, nima deysiz, hoy, — debdi.

— Mana bu eshagim yotib turolmaydi, yo‘liga yurolmaydi, shuni sen olgin. Bir kuni bo‘lmasa, bir kuni foydang tegib qolar, — debdi.

Sichqon:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Foydam tegsa tegib qolar, ha, qoldirsang qoldirib qo‘ya qol, — debdi. Shu so‘z bilan u bir eshagini sichqonga berib ketib qolsa, nariroqqa yetib qolsa, bir qo‘ng‘iz otning tezagini yumalatib kelayotgan ekan. U qo‘ng‘izga qarab:

— Qo‘ng‘izboy, — debdi, — mana shu eshagim yurolmay qoldi, u menga katta dardisar bo‘ldi. Shuni olsang bir kun bo‘lmasa bir kuni foydang tegib qolar, — debdi. Qo‘ng‘iz:

— Ha, foydam tegsa tegib qolar, tashlab keta qol, — debdi.

Qolgan eshagini minib jo‘nab qolibdi. Bir muncha joyga yetib qolibdi, eshagining oyog‘i loyga botib qolibdi. O‘zi yotib qolibdi. U hayron bo‘lib tursa, ro‘parasidan uyqu paydo bo‘libdi. U uyquga qarab:

— Uyqu, eshagim yo‘lda yurolmay, menga katta dardisar bo‘lib qoldi. Shuni o‘zing olaqol, bir kuni foydang tegib qolar, — debdi. Uyqu:

— Odamning ko‘ziga yaqin borolmay, uxlatolmay hayron bo‘lib yurib edim. Mayli, tashlab ketaqol, — debdi.

Merosxo‘r qolgan eshagini uyquga berib, ketib qolsa, bir shaharga yetib borsa, bir baqqolni ko‘rib qolibdi. Baqqolning yoniga borib non tilagani uyalib, ro‘parasiga o‘tirib olibdi. Baqqol:

— Sen bu yerda nima qilib o‘tiribsan? — deb undan gap so‘rabdi.

Bola:

— Otam o‘lgan, onam o‘lgan yetim, uyalmagan betim, o‘g‘li yo‘qqa o‘g‘il, qizi yo‘qqa qiz bo‘laman, deb yuribman, — debdi.

Baqqol:

— Bo‘lmasa menga o‘g‘il bo‘l, mening o‘g‘il-qizim yo‘q edi, — debdi. Bola uning bu taklifiga ko‘nibdi. Keyin baqqol uni uyiga boshlab boribdi, ko‘rpachaga o‘tqazibdi, non-pon yegizibdi, shuning bilan bola boqqolnikida yotib qolibdi.

Ertasiga bolaga ob-u ovqat yegizib, unday-bunday degizib, oltita molni olib, oldiga solib, „Mana shu molni haydab ketasan, bir chaqirimcha joyga yetasan, u yog‘ida cho‘l bor, bu yog‘ida ko‘l bor, ehtiyot bo‘l, mollar cho‘kib-netib ketmasin“, deb tayinlab bolani yuborgan ekan.

U shaharning xoni katta bir bog‘ning darvozasiga bir nog‘ora ildirib qo‘ygan ekan. Har kim uni chalsa, qirq yolg‘onni aytishga majbur qilingan ekan. Yolg‘onning uddasidan chiqqan kishi xonning qizini olar ekan. Uddasidan chiqmagan o‘ldirilar ekan. Bu to‘g‘rida podsho jarchi chaqirtirib qo‘ygan ekan. Bu gapni baqqol bolaga tayinlamagan ekan. Bola mollarini haydab ketayotgan vaqtda, nog‘orani ko‘rib qolgan ekan. U „Akam

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

nog‘ora chalganidan bir kechadayoq boyib qolgan edi, men nimaga chalmayman“, deb nog‘orani chalib yuborgan ekan. Buni eshitgan bir sipohi kelib: „Qani, bu yoqqa yur“, deb uni haydab xonning oldiga keltiribdi. Xon bolaga qarab:

— Qirq yolg‘onni to‘qiysan, to‘xtatmasdan o‘qiysan, agar biri kam qirq bo‘lsa ham, o‘ldirib yuboraman, — degan ekan.

Bola biroz o‘ylab turib, shunday deb so‘z boshlabdi:

— Bor ekan, yo‘q ekan, bir katta to‘qay bor ekan. Bu to‘qayning ichida na cho‘p, na giyohdan asar bor ekan. U to‘qayning ichida uchta mergan topganini har kimga bergan, to‘kilib qolsa tergan, qulochini kergan, birining oti Abdusamad akaning o‘g‘li Erali Ergan, birining oti Mirsayid akaning o‘g‘li Sherali Shergan va birining oti Nurmat akaning o‘g‘li Nurali Nurgan, gapni har yoqqa burgan ekan. Uchalasi hech nimasi yo‘q to‘qayga borishib, ov ovlashib, hech kimni topolmay, nechta ovni otolmay yurgan ekanlar. Qimorboz ekanlar, oshiq tashlashib dovlashib, suvi yo‘q ariqdan baliq ovlashib, o‘t yoqmasdan baliqni pishirishib, uni yemasdan ilgari lunjini shishirishib, shuning bilan to‘yishib, maslahatni bir joyga qo‘yishib yurgan ekanlar. Biroz fursat o‘tgandan keyin ular: „Uchovimiz bir joyda yurib, bir nima ko‘rinib qolsa, uchovimiz baravar o‘q otib, qaysimizning o‘qimiz tekkanini bilmasdan, bir-birimiz bilan janjallashib o‘tirishimiz yaxshi emas, uchovimiz uch yoqqa yuraylik, nimani topsak o‘rtaga solishib, baravar bo‘lishib, indamay qolishib ketaveraylik; hammamiz ekilmagan katta tolning tagida topishaylik“, deb maslahat qilishib, uchovi uch tomonga ketgan ekan. Bittasi nariroqqa borsa, katta gumbazga katta qush qo‘nib turgan ekan. U: „Bu qush chiroyli qush ekan, uni o‘ldirmay tiriklay ushlab olay“, deb kamonini tashlab, hunarini xushlab, asta-sekin borib, qushning oyog‘ini mahkam ushlab olgan ekan. Qush baquvvat — polvon qush ekan, uni ko‘tarib osmonga olib chiqib ketibdi. Juda yuqoriga yetibdi. Merganimiz qushning oyog‘ini qo‘yvorib o‘zini tashlavoray desa, o‘lishga aqli yetib qolibdi. U ko‘zlarini yumib ketaveribdi. Ketganda, qancha yerga yetganda, oyog‘i yerga tekkanday bo‘libdi. Ko‘zlarini ochib qarasa, qush bir xumga qo‘nib turibdi, uning oyog‘i yerga tegib turibdi. Mergan xumga qarasa, uning ichi liq to‘la tanga, hammasi manga, debdi, qo‘yniga, hamma yog‘iga solibdi, o‘zini o‘zi ko‘tarolmaydigan bo‘lib qolibdi. U qushning oyog‘ini tag‘in ushlab olib, „Quv!“ degan ekan, qush osmoni falakka ko‘tarilib uchib ketib qolibdi, boyagi gumbazga asta-

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

sekin yetib qolibdi. U qushdan ajraganidan keyin kamonini olibdi, yelkasiga solibdi. Shuning bilan mergan ketib qolibdi, ekmagan katta tolning soyasiga yetib qolibdi. U yerda dam olib o‘tirgan ekan, haligi merganlar ikkita yo‘q quyonni ushlashib, bir-biri bilan mushtlashib, kelib qolibdi. Ular bunga qarab: „Qani, nima topib kelding?“ debdilar. U qo‘ynidan, belidan tangalarni olib o‘rtaga tashlabdi. Ular ikkovi buncha tangalarni sanab, hisobidan qanday chiqamiz, undan ko‘ra hovuchlamasdan qismlab bo‘lib olaqolaylik“, deb, yigirma qismdan oltmish qismni bo‘lishib olib, cho‘ntakka solibdilar. Ikkala mergan tangalarni joylashtirganlaridan keyin, „Buni qaydan olding?“ deb tanga keltirgan merganni qisti-bastiga olibdilar. Ularning bu savoliga tanga keltirgan: „To‘qayning narigi chetiga borsam, bir gumbazning tepasida bir katta qush turgan ekan. Men qushni ushlab olay desam, qush meni ushlab olib, osmonga ko‘tarib ketdi. Men indamay ketaverib edim, bir joyda oyog‘im yerga tegib qoldi. Ko‘zlarimni ochib qarasam, qush bir xumga qo‘nib turibdi. Qarasam, uning ichi to‘la tanga ekan. Tangani qo‘ynimga va cho‘ntaklarimga solib, qushning oyoqlarini tag‘in ushlab oldim. Shu qush meni haligi gumbazga keltirib qo‘ydi, keyin bu yerga kelib sizlarni topdim. Endi indamay ketaveringlar“, debdi. Ikkala mergan: „Xumda yana qoldimi?“ debdilar.

— Anchasi qolgan, — debdi kenja mergan. Bittasi:

— Bo‘lmasa, ertaga men olib kelaman, — debdi. Unisi turib:

— Men olib kelaman, — debdi. Tanga keltirgani:

— Janjal qilmanglar, ertaga uchovimiz ham boraylig-u, ko‘targancha olaylig-u, bir-birimizga indamay qolaylik, — debdi. Ovchidan biri:

— U qush uchovimizni ham ko‘tara oladimi? — debdi. Borib kelgan:

— Ha, ko‘taradi, u polvon qush, — debdi.

Shu gap bilan uchovi ketgan ekan, bular qarasalar, qush o‘sha gumbazda turgan ekan. Ilgari borib kelgan:

— Men borib qushning oyog‘ini ushlagan vaqtimda, biring mening orqamdan borib oyog‘imdan ushla, undan keyin biring keyingingning oyog‘ini ushla! — debdi.

Shunday qilib, bular qushning va bir-birining oyoqlariga tirmashgan ekan, qush bularni bay-baylatib, hay-haylatib, osmonga ko‘tarib ketgan ekan. Bular juda baland ko‘tarilganda, eng pastdagi mergan yerga qarasa, yer ko‘rinmabdi. Eng pastdagi ovchi qushning oyog‘ini ushlagan yuqoridagi ovchiga qarab:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Sening gaping bilan biz bunchalik ovora bo‘lib ketayotibmiz. Xumning kattaligi qanday bor, — deb so‘ragan ekan, qushning oyog‘ini ushlagan ovchi, „xumning kattaligini ko‘rsataman, deb qulochini kerganda qushning oyog‘ini qo‘yib yuboribdi. Bular aylanib-aylanib tushib, biri shaftolining shoxiga, biri o‘rikning shoxiga, biri olmaning shoxiga ilinib qolgan ekan.

— Shu gapning birorta rostini topib bering, men obketay, etakka solib ketay, — deb xonga ta’zim qilgan ekan. Xon:

— Sen qirq yolg‘on so‘rasam, ming yolg‘onga o‘xshatib gapirding, — deb kuyov qilmoqchi bo‘lgan ekan. O‘n kecha-kunduzli to‘y-tomosha bo‘lib turgan vaqtda, bir vazirning o‘g‘li xonning qizini olishga harakat qilib yurgan ekan, lekin o‘zi nog‘ora chalolmay, qirq yolg‘onni udda qilolmay, qizni ololmay yurgan ekan. Vazirning o‘g‘li bu to‘yni eshitib qolib, bir kampirning oldiga borib, yig‘lab „Qizni bu musofirdan ajratib menga olib berishning yo‘li bormi?“ deb, yo‘l qidirib maslahat solgan ekan. Kampir vazirning o‘g‘liga qarab:

— Bolam, sen buni hazil fahmlaysanmi, sen menga bosh-oyoq sarpo, yuz tilla pul bersang, qo‘lini tekkizmasdan olib beraman, — degan ekan. Vazirning o‘g‘li:

— Yuz tilla pul bilan bosh-oyoq sarpo sizdan aylansin, — deb ularni kampirga yetkazib bergan ekan.

To‘yning sakkiz kuni o‘tganda, kampir shu pul va kiyimlarni olib, paranji-chimmatini yopinib ketgan ekan, to‘yxonaga yetgan ekan. U bitta xizmatchisining oldiga borib:

— Aylanay bolam, siz kuyov yigitni chaqirib bering, bitta opangiz, qulluq bo‘lsinga keldi, deb ayting, — debdi. U xizmatchi kuyovning oldiga borib:

— Anov yerda sizni bir opangiz yo‘qlab turibdi, — debdi. Shu gapga kuyov chiqib:

— Nima deysiz, opajon? —debdi. Kampir:

— Bu yoqqa keling, bolam, bu yoqqa keling, — deb orqasidan ergashtirib, odam yo‘q joyga kelgizib, „O‘tiring, bolam“, deb o‘tqazib:

— Xonbachchadan uylanibsiz, qulluq bo‘lsin, aylanayin jon bolam, — debdi.

Kuyov:

— Qulluq, — debdi.

— Aylanay bolam, xonbachcha bilan hamgap bo‘lishning taomilini bilasizmi? —deb so‘rabdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kuyov:

— Yo‘q, men bilmayman, — debdi.

Kampir:

— Bilmasangiz o‘rgatib qo‘yay, yosh ekansiz, bekorga o‘lib ketmang, shuni o‘rgatgani keldim, jon bolam, — debdi.

Kuyov:

— Voy, aylanay, jon onam, o‘rgatib qo‘ying bo‘lmasa, — debdi.

Kampir:

— Taomili shuki, xonning qizini nikoh qilib, siz qiz bilan bo‘lganda qirq kungacha teskari qarab yotasiz, uyga kirganingizda yerga qarab kirasiz, chiqqaningizda ham yerga qarab chiqasiz. Shu qirq kun ichida xonning qiziga hech qaramaysiz. Tomoq yesangiz ham teskari qarab o‘tirib yeng. Taom yeb bo‘lgandan keyingina bet-qo‘lingizni yuvasiz, — deb gapni burro qilib buriltirib, qulog‘iga uriltirib, chiqib ketgan ekan, ikki kun o‘tgan ekan. Shuning bilan xon qizini u yigitga nikoh qilib bergan ekan.

Kuyov kirib qizning yonida teskari qarab yota beribdi. Kampirning aytganini bajarib, uyga kirgandan ko‘chaga chiqquncha yerga qarab, ovqatdan keyin bet-qo‘llarini yuvib yuraveribdi. Besh-to‘rt kun o‘tganda, qiz qo‘ni-qo‘shninikiga chiqib yurganda, ular qizdan kuyovning ahvolini so‘rabdilar. Qiz xafa bo‘lib: „Kuyov bo‘lmay, axir omon bo‘lsin, menga sira aylanib qaramaydi, erta bilan o‘rnidan turganda, bet-qo‘lini yuvib, soqolini taramaydi. Shundan bilamanki, u otamning buyurgan ishiga ham yaramaydi“, degan ekan. Bu gap qo‘shnidan-qo‘shniga, quloqdan-quloqqa tarqab, xonga ham eshitilibdi. Bu gapni eshitgan xon darg‘azab bo‘lib, kuyovni oldiga chaqiribdi. Xon bu haqda vazirlariga qarab:

— Kuyovimiz hech yoqqa qaramas emish, uch kun-to‘rt kunda betini zo‘rg‘a yuvib, soqolini taramas emish. Uni kuyov qilganimga pushaymonim bor. Shu ishni nima qilsak bo‘lar ekan. Sizlar nima deysizlar, — degan ekan. Vazirlar „O‘zingiz bilasiz“, degan ekanlar. Xon:

— Agar o‘zim bilaturgan bo‘lsam, shuni hukmikushga buyursammikin deb, o‘ylayapman, — debdi. Vazirlardan bittasi turib:

— „Falon xon kuyovini o‘ldiribdi“, degan isnod gapning xalq o‘rtasida tarqalishi yaxshi emas. Undan ko‘ra, o‘ziga o‘n tuya molni berib yigirma tuya qilib kelsang kelgin, bo‘lmasa o‘sha yoqda yegin, deymiz. Shuning bilan o‘sha yoqda qolib ketar. Keyin boshqani kuyov qilib olarmiz, — deb maslahat bergan ekan.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Shu maslahat bilan bolaga o‘n tuya mol berib, ketkizib yuborgan ekan. Bola jo‘nab ketgandan keyin, oradan ikki oy o‘tgan ekan. Kunlardan bir kun vazirning o‘g‘li xonning qizini olishga sovchi yuboribdi. Xon vazirning o‘g‘liga qizini bermoqchi bo‘libdi. Vazirning o‘g‘li to‘y-tomosha qildirib, qizni olgan ekan.

Ilgarigi kuyov uch eshagini sichqonga, qo‘ng‘izga, uyquga bergan edi. Ular shum kampirning hiylasidan xabardor bo‘lib, eshaklarning haqini bo‘ynidan soqit qilish to‘g‘risida maslahat qilishibdi. Nikoh kechasi ular uyga kelishibdi. „Kuyovni uxlatish bizdan bo‘lsin“, deb uyqu kuyov kirishi bilanoq, uni qotirib uxlatib qo‘yibdi. Sichqon bo‘lsa, uning butun badanlarini tishlab, ko‘kartirib qo‘yibdi. Qo‘ng‘iz ham jim turmay, kuyovning ichiga kirib olib, uni behuzur qilgan ekan. Erta bilan vazirning o‘g‘li ketib, kelmay qolgan ekan.

Oradan uch-to‘rt kun o‘tgandan keyin birov tasira-tusir ot choptirib kelib, xonning oldiga kirib:

— Taqsir, suyunchi bering, — debdi. Xon:

— Nima suyunchilik gap topib kelding, gapir, — debdi. U odam:

— O‘n tuya mol berib, yigirma tuya mol bilan kelgin degan kuyovingiz yigirma tuya mol qilib kelibdi, — debdi. Xon unga qancha suyunchi berib ketkizib, nariroqqa yetkazib, uning istiqboliga odam chiqartiribdi. Shuning bilan birga, „Kimki podshoning qizi kuyovga tegib chiqqan“, degan gapni gapirsa, boshi o‘limda, moli talonda, deb shaharga jarchi qo‘yibdi.

Kuyov kelgandan keyin, xon qaytadan to‘y-tomosha qildirib, qizini ilgarigi kuyoviga bergan ekan. Shuning bilan u kuyov bo‘lib indamay qolgan ekan.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi



«Donishmand cho‘pon» ertagiga ishlangan rasm

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Garang

Bor ekan, yo‘q ekan, Qo‘qon tomonda Yangi qishloq bilan Toshkent guzari o‘rtasida Tojik qishloq degan joy bor ekan. U Tojik qishloqda Boymat degan bir boy bor ekan. U boyning yuzta qo‘yi bor ekan. Boy qulog‘i eshitmaydigan kar ekan.

Bir kuni boy qo‘ychivonini „Qo‘yni tuzuk boqmaysan“, deb so‘kib, kaltak bilan urib, tumshug‘ini burib, nariroqqa ketkizvorgan ekan.

„Qo‘yim och qolmasin“, deb haligi garang boyning o‘zi qo‘yini olib, oldiga solib, haydab ketkizib, dalaga yetkizib, qo‘yni yayratib yoyib, o‘zidan koyib, bir tolning tagida uxlab qolgan ekan.

Uyg‘onib, o‘rnidan turib, aqqa-baqqa qarasa, qo‘yi ko‘rinmas emish. „Bu qo‘yni qanday qilib topaman“, deb ko‘p xafa bo‘lib aqqa-baqqa qarasa, uzoqdan bir odam kelayotgan ekan.

U kelayotgan ham garang ekan. U garangga bu garang: „Ho‘... o‘rtoq, o‘sha yoqda qo‘y-po‘y ko‘rdingmi?“ deb so‘rabdi. „Qayerdan kelayotibsan?“ deb so‘radi shekilli, deb qo‘lini ishora qilib „Men, xo‘... Achavotdan kelyapman“, deb qo‘lini siltabdi ikkinchisi.

Garang boy „Qo‘y shu yoqda bo‘lsa kerak“, deb nariroqqa borib, qo‘yni ko‘rib qolibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Qo‘ylarning bir chuqurda o‘tlab yurganini ko‘rib, xursand bo‘lib, haligi garangni yetaklab, qo‘ylari oldiga olib boribdi. Garang boy unga: „Siz mening qo‘ylarimni mana bu yerda yurganini ko‘rsatib qo‘ymaganingizda, men boshqa yoqni izlab ketardim. Qo‘ylarni ko‘rsatib qo‘yganingiz uchun mana bu cho‘loq qo‘yni sizga berdim, olib borib, bola-chaqangiz bilan meni duo qilib, so‘yib yeng“, debdi.

Garang kishi bu so‘zlarni eshitmay: „Men sening qo‘yingga tosh otganim yo‘q. O‘zi cho‘log‘-u, nega menga tovonini to‘lagin, deb aytasan“, debdi.

Garang boy:

— Mening qo‘yimni „Ho‘, atta“, deb ko‘rsatganing uchun shu cho‘loq qo‘yni beraman. Semizini bermayman, — deb ikkovi surishib, bir-birovi bilan urishib turganida bir odam shu yerdan eshak minib o‘tib ketayotgan ekan. U ham garang ekan.

— Aka, mana bu kishiga „Ho‘ ana u yerda qo‘ying yotibdi“, deganiga shu cho‘loq qo‘yni bersam, semizini berasan, deb janjal qilib o‘tiribdi, shu degani tuzukmi? Shu cho‘loq qo‘yni olsa, indamay qolsa bo‘lmaydimi? — debdi.

Garang kishi esa:

— Tosh otganim yo‘q, o‘zi asli cho‘loq bo‘lgan qo‘yning tovonini bergin, deb meni ushlab, jag‘imga mushtlab o‘tiribdi. Shu qilgani durustmi? — debdi.

— Bu eshagimni uch tillaga sotib olganimni mahalladagilarning hammasi biladi, — deb eshak mingan garang ikki garangning gapini eshitmasdan, eshakdan tushib bular bilan mushtlashib, bir-birini ushlashib, nariroqqa borsa, bir paxsakash paxsa urayotgan ekan, sherigi arazlab ketib qolgan ekan, paxsakash ham garang ekan. Uchalasi unga arz qilibdi.

Garang boy:

— Qo‘yni „Hu ana shu yerda“ deb ko‘rsatganiga cho‘loq qo‘yni bersam, olmasdan, semizini ber, deb meni qistab o‘tiribdi, — debdi.

Ikkinchi garang esa, „Men tosh otganim yo‘q, cho‘loq bo‘lgan qo‘yning tovonini to‘lab ber, deb turibdi“, debdi.

Eshak mingan garang: „Shu eshakni uch tillaga sotib olganimni mahallada hamma biladi, eshak o‘zimniki, mana bu meniki, deb olmoqchi-yu, eshak meniki deb bunisi mendan eshakni shunga olib bermoqchi-yu, men piyoda qolmoqchi. Shuni siz ajrim qilib bersangiz“ desa, bularning gapini paxsakash garang eshitmasdan: „Egasi o‘lchab bergan, ellik yetti quloch devor, egasi kelib „barakalla“, deb ketadi. Sen loyini pishirmabsan, qiyshiq-qing‘ir uribsan, deysan“, deb belkuragi bilan uchovini

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

urib, boshini yorib, to‘rttovi bir-biri bilan mushtlashib, bir-birini ushlashib, qozining oldiga borgan ekan.

Borishsa, qozi ham garang ekan. Qoziga to‘rtovi enkayib ta’zim qilibdi. Qozi:

— Arzlaring bo‘lsa, aytinglar! — debdi.

Eng oldin qo‘ylik boy arz qilibdi: „Men dalada qo‘y boqib yurib o‘nta qo‘yni yo‘qotib qo‘ygan edim. Qo‘yimni yo‘qotib aqqa-baqqa qarab tursam, ko‘zimga bu kishi ko‘rinib qoldi. Ushog‘da qo‘y-po‘y ko‘rdingmi desam, „Qo‘ying hu... anitta yuribdi“, dedi. Borib qo‘yni ko‘rib, xursand bo‘lib, cho‘loq qo‘yni bersam, olmaydi „Semizini berasan“, deydi. Shu degani tuzuk bo‘ladimi, taqsir? Shu cho‘loq qo‘yni olsa, tinch qolsa bo‘lmaydimi?“ debdi.

Qozi bularning gapini eshitmasa ham, lablarini qimirlatayotganini ko‘rib, kallasini likillatib, garangligini bildirmay, bularni nariroqqa jildirmay turganida, ikkinchisi arz qilib ketibdi:

— Taqsir, shu insofdanmi, men indamay o‘tib ketayotuvdim, mening etagimdan ushlab cho‘loq qo‘yni ko‘rsatib, sen shu qo‘yga tosh otib cho‘loq qilgansan, deb menga shu qo‘yning tovonini berasan, deb ushlab, boshimga mushtlab, tuhmat qilib o‘tiribdi! Shunga nima deysiz? — debdi.

Eshak mingan garang arz qilib ketibdi:

— Taqsir, mening uch tillaga sotib olganimni butun mahalla biladi. Eshakni mana bular olmoqchi, meni piyoda qo‘ymoqchi, shu tuzukmi? — debdi.

To‘rtovining so‘zini eshitmasdan, qozi bularning arziga javoban:

— To‘rtoving kelgan bo‘lsalaring, bu gaplaringning mazmunidan men shuni bildimki, ikkitalaring yangi oy ko‘rgan bo‘lsalaring kerak, ikkitalaring guvohlikka o‘tgani kelganga o‘xshaysizlar. Bo‘lmasa, asliga qaraganda arafa ertaga bo‘lishi kerak edi. Endi ikkitalaring yangi oy ko‘rib kelgan bo‘lsalaring, ikkitalaring guvoh bo‘lib kelgan bo‘lsalaring, o‘zlaring borib karnaychilarga xabar beringlar. Qozi ruxsat berdilar, bugun arafa bo‘lsin, deb aytinglar. Boringlar, karnaychilarni xabardor qilinglar, — debdi.

Shu to‘rt garangning gapi bilan, qozining garangligidan o‘sha yili ro‘zaning yigirma sakkizida arafa, yigirma to‘qqizida hayit bo‘lib qolgan ekan.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Donishmand cho‘pon

O‘tgan zamonda bir podsho bo‘lgan ekan. U hamma narsadan ham otni yaxshi ko‘rar ekan. Kunlardan bir kun podsho otxonaga kirib qarasa, otlari ancha oriqlab qolgan emish. Podsho otboqarini chaqirib:

— Otlar nima uchun oriqlab qoldi? — deb so‘rabdi. Otboqar podshoning g‘azabidan qo‘rqib:

— E, janobi oliylari, otlaringiz bir necha kundan buyon yem-beda yemay, zo‘r berib kishnaydilar. Shahardan chetroqda boshqa otlar bo‘lsa kerak. O‘sha otlarning ovoziga bular beda yemasdan qo‘ygan bo‘lsalar kerak, deb o‘ylayman, — debdi.

Podsho o‘ng qo‘l vazirini chaqirib:

— E, dono vazir, navkarlar bilan shahar tashqarisiga chiq, boshqa otlarni kishnab otlarimning tinchligini buzmaydigan qilib kel, — debdi. Vazir podshoga ta’zim qilib:

— E, podshohim, farmoningiz bekam-u ko‘st o‘z yerida qaror topgay, — deb navkarlari bilan shahardan tashqariga chiqib ketibdi, yurib-yurib, shahardan yigirma-o‘ttiz chaqirim narida bo‘lgan bir tog‘ga yetibdi.

Tog‘ga chiqib ko‘rsalar, bir cho‘pon yilqilarini o‘tloqqa qo‘yib, o‘zi bir katta xarsang toshning ustida cho‘zilib yotgan emish. Vazir cho‘ponning oldiga borib:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— E, ahmoq cho‘pon, hamma yilqilaringni o‘tloqqa qo‘yib yuborib, kishnatib, ularning ovoziga mast bo‘lib yotibsan. Shaharda bo‘lsa, sening otlaringning kishnashini eshitib, podshoning otlari beda yemay ozib qolmoqda. Men senga tezda otlaringning og‘izlarini bog‘lab qo‘yishni buyuraman. Agarda buyrug‘imdan bo‘yin tovlar ekansan, o‘zingni jallodga, otlaringni podshoga tortiq qilaman, — debdi.

Cho‘pon hayron bo‘lib, noiloj vazirning aytganlarini qilishga majbur bo‘libdi, yilqilarning og‘izlarini latta bilan bog‘labdi. Keyin otlarini bu falokatdan qutqazish yo‘lini o‘ylab, bir qarorga kelibdi. Yaylovda yurgan bir katta tuyani va soqoli ikki qarich keladigan bir takani ushlab kelib, dadasidan qolgan bir eski kamon bilan o‘qlarini olib, shaharga qarab ravona bo‘libdi. Cho‘pon shahar qal’asidan ichkariga kirib rastaga boribdi. Rastada nog‘ora chalib o‘tirganlarning nog‘orasini otib yora beribdi. Nog‘orachilar cho‘ponning bu ishidan sarosimaga tushibdilar, o‘rdaga borib cho‘ponning ustidan arz qilibdilar. Podsho o‘z yonidagi vaziriga cho‘ponni ushlab, huzuriga keltirishni buyuribdi. Vazir navkarlar bilan shahar bozoriga borib qarasa, tuyaga minib, bir takani o‘ngarib olgan bir cho‘pon yigit duch kelgan nog‘orani kamon bilan otib, yorayotgan emish. Vazir navkarlariga:

— Bu beboshni ushlanglar! — deb buyuribdi. Navkarlar cho‘ponni tuyadan tushirib, qo‘lini orqasiga bog‘lab, tuyasi bilan takasini yetaklab podsho huzuriga olib kelibdilar.

Podsho cho‘pondan:

— Sen kimsan, nima uchun shahar nog‘orachilarining nog‘oralarini kamon otib, yorib tashlayapsan? — deb so‘rabdi.

Cho‘pon:

— Men shahar yaqinidagi tog‘da yashovchi xalqdan elchi bo‘lib keldim, —debdi.

Podsho cho‘ponning ustidagi eski choponiga, oyog‘idagi yirtiq chorig‘iga tikilib, elchiligiga ishonmabdi:

— Elchilik qilishga sendan boshqa tuzukroq odam yo‘q ekanmi? — debdi. Cho‘pon hayron bo‘lib, podshodan so‘rabdi:

— Sizga qanday tuzukroq odam kerak? Men ham oyoq-qo‘lli odamman-ku, —debdi. Podsho g‘azablanib:

— Men sendan kiyimi yangiroq, bo‘yi balandroq, soqoli uzunroq odam yo‘q edimi, deb so‘rayapman, — debdi. Cho‘pon javob berib:

— Sizga bo‘yi baland, kiyimi yangiroq kerak bo‘lsa, mana mening tuyam, u yaqinda tullagan, bo‘yi ham baland. Agarda soqoli uzunrog‘i kerak bo‘lsa, mana mening takam, naq soqoli ikki qarich. Agar sizga

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
aqlliroq odam kerak bo‘lsa, mana mening o‘zim. Menga har qancha savolingiz bo‘lsa beravering, — debdi.

Podsho cho‘ponning bu javobidan keyin:

— Hay, mayli, bo‘lmasa sen elchi ekansan, nima uchun shahardagi nog‘oralarni yorib tashlading? —deb so‘rabdi.

Cho‘pon:

— Shahringizda har kuni nog‘ora chalinadi. Nog‘ora ovoziga bizning yaylovdagi yilqilarimiz hurkib, tek turmay qo‘ydilar. Nog‘oralarning ovozini o‘chirsam, zora yilqilarim tek tursalar, deb ko‘ringan nog‘oralarni yora berdim, — debdi. Podsho cho‘ponning javobidan kulib:

— Shahardan yigirma-o‘ttiz chaqirim uzoqda bo‘lgan otlarning nog‘ora ovoziga tek turmasliklari hech aqlga to‘g‘ri keladimi? Bu bo‘lmagan gap, — debdi. Cho‘pon ham podshodan:

— Shahardan yigirma-o‘ttiz chaqirim narida bo‘lgan otlarning kishnashiga shahardagi otlarning beda yemasdan oriqlashlari hech aqlga to‘g‘ri keladimi? — debdi. Podshoning o‘ng qo‘l vaziriga bergan buyrug‘i esiga tushibdi. Bu cho‘ponni so‘z bilan yenga olmasligiga aqli yetib, cho‘ponga:

— Tila tilagingni! — debdi. Cho‘pon:

— Agar loyiq ko‘rsangiz, meni cho‘ponlikka oling, otlaringizni yaxshi boqaman — debdi. Podsho dangasa cho‘ponni haydab, o‘rniga shu mehnatsevar cho‘ponni ishga olibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Ahmoq jo‘ralar

Bor ekan-u yo‘q ekan, qirq kal bor ekan. Kallardan biri juda rashkchi ekan. Uning oti Yuz Muhammad kal ekan. Kalning o‘rtoqlari uni shu nom bilan chaqirar ekanlar. U bir kun o‘rtoqlariga: „Agarda mening otimni o‘zgartirsalaring men bir sigirimni dangona qilib beraman“, debdi. O‘rtoqlari: „Otingni o‘zgartiramiz“, deb kalning nomini Yuz Mahamat qo‘yibdilar. Kal darrov sigirini so‘yib dangona qilib beribdi. O‘rtoqlari dangonani yeb bo‘lishgach, yana kalning ilgarigi ismi bilan Yuz Muhammad kal, deb chaqiraveribdilar. Shunda kalning achchig‘i kelib, so‘ygan molining terisidan tirkish qilib olibdi. Eshagiga minib bir qishloqqa boribdi.

— Tirkish keldi-yo, tirkish keldi-yo, — deb tursa, bir dehqon uning oldiga kelibdi. Dehqon qo‘sh haydayotganda tirkishi uzilib ketgan ekan. Dehqon kalga:

— Ho‘, yigit, bitta tirkishingdan ber, — debdi-da, belbog‘ini yechib kalga uzatib:

— Hu, anavi hovli mening uyim, shu belbog‘ni qo‘shchi berdi, desang senga xotinim g‘alla beradi, — debdi.

Kal:

— Xo‘p, — deb belbog‘ni olib, hovliga qarab ketibdi. Hovliga borib:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Mana bu belbog‘ni qo‘shchi bobom berib yubordilar, mendan tirkish oldilar, haqiga g‘alla berar ekansiz, — debdi. Dehqonning xotini bir g‘alvir g‘allani olib chiqib, kalning belbog‘iga ag‘darayotganida, uning ko‘zi oshxonada bir erkak turganini ko‘ribdi. Kal darrov, „Bu qo‘shchi bobomning xotinining xushtori bo‘lsa kerak“, deb o‘ylab, belbog‘ining bir chetini qo‘yib yuboribdi. Belbog‘idagi g‘alla yerga to‘kilib ketibdi. Kal o‘tirib, bir chekkadan teraveribdi. Xotin qo‘rqib:

— Yana g‘alla beray, — debdi. Kal:

—Boshqa g‘allaning keragi yo‘q, shuning o‘zi yetadi, men rizqimni terib olib ketaman, — deb kechgacha g‘alla terish bilan ovora bo‘libdi. Kal oshxonadan hech ko‘zini uzmabdi. Ayol esa, haligi erkakni bir xumga solib, ustiga qopqog‘ini yopib qo‘yibdi. Shu payt qo‘shchi ishdan qaytib kelibdi. Qarasa, haligi yigit hali ham g‘alla terayotgan emish. Qo‘shchi xotinini qattiq koyibdi.

— Sen g‘alladan ko‘proq bermadingmi? Bechoraga juda azob beribsan-ku. Endi oshxonaga joy solib ber. Kech bo‘ldi. Shu joyda yotib qola qolsin, — debdi. Xotini „Xo‘p“, deb, oshxonaga joy qilib beribdi.

O‘zi esa, qo‘shchiga choy, non keltirib beribdi. Charchab horigan qo‘shchi darrov uxlab qolibdi. Haligi kal voqeani anglash uchun bu oqshom uxlamabdi. Ko‘zini yumib uxlagansimon bo‘lib yotibdi. Bir vaqt haligi ayol o‘rnidan turib xum tepasiga kelib, uni ochib:

— Ovqat yeysizmi? — deb so‘rabdi. Xumda turib haligi erkak:

— Yeyman, — debdi. Ayol darrov oshxonaga borib tuxum quymoq qilib, uni tovoqqa solibdi. Shu payt qo‘shchi uyg‘onibdi. Xotin yugurib qo‘shchining oldiga boribdi. Kal darrov o‘rnidan turib quymoqni paqqos yeb qo‘yibdi. Xotin qo‘shchini uxlatib oshxonaga boribdi, qarasa, tovoqda quymoq yo‘q emish.

— Bu savil qolgur ola pishak quymoqni yeb qo‘yibdi-ku, — deb uni urib quvibdi. Yana qozonga yog‘ solib, o‘choqqa olov yoqibdi.

Yog‘ qiziganida qo‘shchi yana uyg‘onibdi.

Xotin yana qo‘shchiga yuguribdi. Kal o‘rnidan turibdi-da, qozonga qarabdi. Yog‘ qizib yotgan emish. Kal darrov xumning qopqog‘ini ochib, qozondagi yog‘ni haligi odamning ustidan ag‘daribdi. Qopqog‘ini yana yopib, o‘z joyiga yotib, bahuzur uxlayveribdi.

Tong otibdi, xotin qo‘shchini nonushta qildirib, qo‘shga jo‘natibdi. Kelib xumni ochib qarasa, haligi erkak kishi osmonga qarab o‘lib yotgan emish. Xotin qo‘rqib kalni uyg‘otibdi. Kalga bo‘lgan voqeani aytibdi va:

— Xumdagi o‘lgan odamni go‘ristonga olib borib ko‘mib kel! Bir qop bug‘doy beraman, — debdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Bu gap kalga yoqmabdi, bir yog‘iga ag‘darilib yotaveribdi. Yana xotin kelib:

— Ko‘mib kel, baraka topkur, — deb yalinibdi. Kal:

— Bir sanoch tilla bersang, ko‘mib kelaman, — debdi. Xotin bir sanoch tilla berishga rozi bo‘libdi. Kal bir sanoch tillani olib, o‘likni xumdan tortib olib orqasiga ko‘taribdi. Kal o‘likni darvozaga olib chiqib, belini bog‘lab, qo‘liga tayoq berib ketibdi. Kal o‘z qishlog‘iga borsa, jo‘ralari uni o‘rab olishibdi.

— Ey, jo‘ralar, — debdi kal, — sizlar menga juda yaxshi ish qildinglar. Dunyoda tirkish pul ekan. Molimning terisini mana shuncha tillaga sotdim, — debdi. Haligi jo‘ralari tillani ko‘rib, o‘lguday alam qilib, hammasi uyiga borib, molini so‘yibdi, terisini tirkish qilib olibdi. Qishloqqa borib:

— Tirkish keldi-yo, tirkish keldi-yo, — deb yuraveribdilar. Qishloq odamlari ularni ko‘rib ermak qilibdi. Ular bitta ham tirkish sotolmabdilar. Hammasining achchig‘i chiqib, endi uning kapasini kuydirib tashlaymiz, u bizni aldagan ekan, deb kalning kapasiga o‘t qo‘yibdilar. Kal Yuz Muhammad darrov kapasining kulini qopga solib, eshagiga minib ketaveribdi. Kal uzoq yo‘l yuribdi. Bir joyga borsa, yo‘lda bir boyning xotini charchab qolib, dam olib o‘tirgan ekan. Kal uni ko‘ribdi. Boyning xotini kalga:

— Ey, kal, bizni kira qil, — debdi. Kal shunda:

— Mening eshagimga ortilgan narsa nozik narsa, xotin kishi minsa, kul bo‘lib qoladi, —debdi. Boyning xotini:

— Agarda kul bo‘lib qolsa, nozik narsangga narsa beraman, — debdi. Kal ko‘nibdi. Kal eshagiga boy xotinini mindirib uyiga olib borib qo‘yibdi. Kal darrov xotinni eshakdan tushirib:

— Shoshmang, qopni ochib ko‘ray-chi, — debdi. Qopning og‘zini ochib qarasa, bir qop kul emish:

— Minma, dedim, minding. Bir qop tillam kulga aylanibdi, — debdi. Boy xabardor bo‘lib:

— Nima bo‘ldi, nima bo‘ldi, — deb yugurib chiqibdi. Boobro‘ boy ekan, „Odamlar bilsa uyatga qolaman“, deb bir qop kulning o‘rniga bir qop tanga beribdi.

Kal tangani eshagiga ortib, yana qishlog‘iga jo‘nabdi. Jo‘ralari yana kalni o‘rab olishibdi. Kal:

— Yana yaxshi ish qildinglar, dunyoda kul pul ekan. Bir qop kulimni bir qop tangaga sotdim, —debdi. Jo‘ralari bir qop tangani ko‘rib, o‘lguday izza bo‘lib, hammasi kapasini kuydiribdi. Qishloqma-qishloq yurib:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Kul keldi-yo, kul keldi-yo, — deb yuraverishibdi. Qishloq xalqlari:

— Kulni kultepaga to‘k-da, — deb ermak qilishibdi. Ularning juda achchiqlari chiqib, „Endi kal Yuz Muhammadni o‘ldiramiz,“ deyishibdi. Bu ish kalga oldindan ma’lum ekan. Ularni ko‘rgach, bir cho‘lga qarab qochibdi. Yo‘lda unga bir podachi uchrabdi. Podachi kaldan:

— Nimaga buncha qochasan? — deb so‘rabdi.

— Meni qozi qilmoqchilar. Men xohlamay, qochib kelayotibman, — debdi kal. Podachi:

— Sen mening suruvimni boqib tur, men qozi bo‘laqolay, — debdi. Kal darrov ust-boshini yechib, podachining kiyimlarini kiyib olibdi. Podachiga:

— Qochaver, — debdi. Podachi qochaveribdi. Jo‘ralari yetib kelib podachini ushlab kal Yuz Muhammad shu, deb daryoga oqizishibdi. Hammasi endi bu kaldan qutuldik deb, bazm-ziyofat qilishibdi. Oradan bir necha kun o‘tgach, haligi kal bir qo‘ton qo‘y-echkini haydab o‘z hovlisiga kirib kelibdi. Jo‘ralari hayron bo‘lib, „Bu qurg‘ur daryodan ham tirik chiqibdi-ya“, deb turishganda kal jo‘ralariga shunday debdi:

— Meni tashlagan daryoning tagida qo‘y-echkining koni bor ekan. O‘zim yakkalik qilib ozgina haydab chiqdim. Agarda ko‘pchilik bo‘lsak, ko‘p qo‘y haydab chiqar edik, — desa, jo‘ralari ishonib:

— Bizlarni ham o‘sha joyga olib bor, — deyishibdi.

Kal qo‘y-echkiga suv bermay, qantaribdi. Ularni daryoga qarab haydabdi. Jo‘ralari ham uning ketidan borishibdi. Suv ichmagan qo‘y, qo‘zi, echkilar o‘zini birdan suvga uribdi. Tiniq bo‘lib oqayotgan suv ichidan qo‘y, echkilar ko‘rinibdi. Birdan bir kam qirq kal o‘zini oldinma-ketin qo‘y-echki olaman, deb daryoga otibdi. Hammasi suvga botib ketibdi. Yuz Muhammad sog‘ qolib, murod-maqsadiga yetibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Chol bilan kampir

O‘tgan zamonda bir chol bilan kampir bor ekan. Bularning tirikchiligi o‘tin sotib kun kechirish ekan. Kampir har kuni ko‘moch qilib berar ekan. Chol har kun o‘tin terib kelar ekan.

Bir kuni chol o‘tin tergani borib, buloqning bo‘yida uxlab qolibdi. Tushida birov „Tur, ana uni ol!“ debdi. Qarasa, buloqning ichida bir supra aylanib turibdi.

— Uni nima qilaman? — debdi chol.

—„Ochil, supram!“ deb aytgin, — debdi haligi odam.

Chol „Ochil, supram“ desa, noz-u ne’matlar paydo bo‘libdi. Chol „Ochil, supram“ni bir o‘rtog‘inikiga olib borib:

— „Ochil, supram!“ deb aytmagin. Uyingga kiritib qo‘y, hali olib ketaman, — debdi. Haligi o‘rtog‘i tagiga, o‘tirishga hech narsa olib chiqib bermabdi. Uyga kirib suprani ochiltirib olibdi. Chol:

— „Ochil, supram“ni olib chiqib ber!— debdi. O‘rtog‘i almashtirib boshqa supra beribdi. Chol uyiga borib, kampirga maqtanibdi. „Ochil, supram!“ desa hech balo chiqmabdi. Cholning jahli chiqib:

— E, kampir, tag‘in ko‘moch qilib ber! — debdi.

Ko‘mochni beliga solib ketibdi. Chol yana buloq bo‘yida uxlab qolibdi. Tushida birov: „Tur, ana uni ol!“ debdi. Qarasa, bir gaz aylanib turganmish.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Nima qilaman? — debdi.

— Olib, „Gazla, gazim!“ desang, shoyi, atlas gazlab tashlaydi.

Uni olib o‘rtog‘inikiga boribdi. O‘rtog‘i mehmon qilibdi. Chol gazni berib, „Gazla, gazim!“ deb aytmagin, debdi. O‘rtog‘i uyida toza gazlatibdi va uyini mollarga to‘ldirib olibdi. Chol o‘rnidan turib, „Gazni ber!“— debdi. O‘rniga boshqa gaz beribdi. Kampirning oldiga kelib „Gazla, gazim!“ desa, hech narsa gazlamabdi. Chol g‘azablanib:

— Yana ko‘moch qilib ber! — debdi.

Ko‘mochni beliga solib, buloq bo‘yiga qarab jo‘nabdi. Buloq bo‘yida yana uxlab qolibdi. Tushida birov: „Tur, ana uni ol!“ debdi. Qarasa, bir tovoq aylanib turganmish.

— Quruq tovoqni nima qilaman? — desa:

— „Pishdi palov“, deb aytgin, — deb o‘rgatibdi.

Olib chiqib „Pishdi palov“ desa, ustida go‘shti bilan osh pishibdi. Chol palovni yeb, qornini to‘yg‘azib, o‘rtog‘inikiga jo‘nabdi. O‘rtog‘i suyunib, katta ziyofat qilibdi. Chol:

— „Pishdi palov“ demagin, — debdi. O‘rtog‘i tovoqni uyga olib kirib ketibdi. Bola-chaqasini toza to‘yg‘azibdi. Erta bilan turib chol:

— Tovog‘imni olib chiqib ber! — desa boshqa tovoq olib chiqib beribdi. Chol kampirning oldiga boribdi. Tovoqqa „Pishdi palov“ desa, hech narsa chiqmabdi. Chol g‘azablanibdi. Kampir ikkisi urishibdi.

Kampir:

— Bir to‘p o‘tin keltirganingda, ovqatimiz pishardi. Har kuni quruq kelaverasanmi? —deb qarg‘abdi.

— E, kampir, bugun sirni bilaman, — debdi.

Kampir ko‘moch qilib beribdi. Chol buloq boshiga borib uxlab qolibdi. Tushida birov: „Tur, ana uni ol!“ debdi. Qarasa, bir qovoq aylanib turibdi. „Quruq qovoqni nima qilaman?“ desa, „Chiq qovoqdan!“ deb aytgin, debdi. Chol „Chiq qovoqdan!“ desa, bir narsa chiqib haligi cholni urib, hamma yog‘ini yoribdi. „Kir qovoqqa!“ degandan keyin qovoqqa kiribdi. Chol qovoqni qo‘ltiqlab o‘rtog‘inikiga boribdi. O‘rtog‘i juda quyuq ziyofat qilibdi. Mazasiga tushunib qolgan ekan.

Chol:

—„Chiq qovoqdan!“ deb aytmagin,— debdi. Chol uxlab qolibdi. O‘rtog‘i uyiga olib kirib bolalari bilan o‘rtaga qo‘yib, „Chiq qovoqdan!“ deb yuboribdi. Qovoqdan yalang boshli kuchli narsalar chiqib, ularning yelkasiga minib olib, uraveribdi. O‘rtog‘ining boshi yorilib, ko‘zi chiqibdi.

— Chol, ajratib olgin! Hamma narsangni topib beraman, — debdi.

Chol „Kir qovoqqa!“ debdi. Kiribdi. Cholga o‘rtog‘i supra, tovoq, qovoq, gazlarini topshiribdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Chol kampirning oldiga og‘zi qulog‘ida qaytib kelibdi. Kampirning oyog‘i oltita, qo‘li yetita bo‘lib, suyunib ketibdi.

Chol podshoni ziyofatga chaqiribdi. Podsho:

— O‘zini eplayolmagan chol qanday qilib bizni mehmon qilsin, — debdi. Vazir:

— Ey, dono podsho, sizni mehmon qilishga chaqirgan kishi qo‘lidan kelgancha ziyofat qiladi-da, — debdi.

Podsho vazir, yigitlari bilan ziyofatga boribdi. Chol har ot boshiga shoyilardan to‘rva qilibdi. Ularning ichiga yem solibdi.

Shoyilardan ko‘rpachalar solib podshoni o‘tqazibdi. Podshoning oldiga mevalarni to‘kib tashlabdi. Podsho:

— Bu taomlar qaydan chiqadi, shuni borib bilib kelgin! — deb vaziriga buyuribdi.

Vazir borib quloq solib tursa. „Pishdi palov“, „Ochil, supra“, „Gazla, gazim!“ deb aytib turganmish. Vazir podshoga kelib buni aytibdi. Podsho ichida tuginib qo‘yibdi. Ziyofatdan so‘ng:

— Ertaga biznikiga ziyofatga, — debdi.

— Ha, xo‘p, — deb chol javob beribdi.

Ertasiga podshodan xabar kelibdi. Cholga o‘nta askarni yuboribdi. Chol „Bormayman“, deb javob qaytaribdi.

Podsho odam yuborib, yana chaqiribdi, chol rad etibdi. Podsho yana lashkar yuborib, po‘pisa qilibdi. Shunda cholning jahli chiqib, qovoqqa qarab:

— „Chiq qovoqdan!“ — debdi. Qovoqdagilar chiqib askarlarning boshini yorib, ko‘zini chiqaribdi. Ikkitasi zo‘rg‘a tirik qolib podshoga boribdi. Podsho g‘azablanib, lashkaridan elliktasini yuboribdi.

Bularni ham urib jo‘natibdi. So‘ngra butun askari bilan o‘zi chiqibdi. Bularni ham yengibdi. Podshoning o‘rniga cholning o‘zi podsho bo‘lib qolibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Qozining makri

Bir podsho bor ekan. Odamlar orasida xasislik bilan nom chiqargan ekan. Uning bir o‘g‘li bor ekan. U otasiga qaraganda birmuncha saxovatli ekan. Bir kun shahzoda bir bechora odamga ozroq oltin hadya qilibdi. Buni podsho bilib qolib, o‘g‘lini tergabdi:

— E, o‘g‘lim, xalqdan pul yig‘ish o‘rniga pul berasanmi? Bunday qila bersang dunyo qayerdan to‘planadi? Sen odamlardan pul yig‘ishni o‘rgan, — debdi. Shahzoda otasining bu so‘zini ma’qul, deb podsho huzuridan chiqibdi. Keyin odamlarning hojatini chiqarib yura beribdi. Podsho bir kun o‘g‘lini yoniga chaqirib:

— E, o‘g‘lim, nega sen mening maslahatimni quloqqa olmading? — debdi.

O‘g‘li:

— Otajon, gapingizni jon-dilim bilan quloqqa olaman-ku, lekin muhtoj odamlar uchragandan keyin rahmim keladi, — deb javob beribdi.

Podsho:

— Sen mening maslahatimni qulog‘ingga olmasang, senday o‘g‘il menga kerak emas, — deb o‘g‘lini shahardan haydab yuboribdi, yigit bechora qayerga borishini bilmay, tog‘ma-tog‘, cho‘lma-cho‘l yurib, bir

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

shaharga kelibdi. Ertadan kechgacha yurib och qolibdi. Ovqat yeyay desa puli yo‘q ekan. Mardikorlik ham qilolmay, gadoychilik qilishga majbur bo‘libdi. Ko‘chama-ko‘cha aylanib qaysi eshikka borsa, tilanchilik qilolmay, gadoylarga xos bo‘lgan so‘zlarni aytolmay qaytar ekan.

Shom yaqinlashibdi. „Tavakkal“ deb bir darvozani taqillatibdi. Eshikning orqasidan bir qizning: „Kimsiz?“ degan tovushi kelibdi. Yigit: „Men“ deb javob beribdi. Qiz eshikni ochib qarabdi. Yigit qizni ko‘rib o‘zidan ketib qolibdi. Yigit bir zamon o‘ziga kelib qarasa, vayronada yotgan emish, belida yangi belbog‘ emish. Uni yechib qarasa, uch-to‘rtta non, uch-to‘rtta tilla bor emish. Buni ko‘rib hayron bo‘libdi. Non bilan tillani o‘sha qiz bergan bo‘lsa kerak, deb o‘ylabdi. Bu vayrona qizning uyiga yaqin bo‘lgani uchun yana qizni ko‘rib qolarman, deb ketmasdan yota beribdi.

Yarim kechada shahar qozisi mehmondorchilikdan qaytib kelayotganda qulog‘iga bir ovoz eshitilibdi. Qozi bu yerda nima bor ekan, odam desam odamga o‘xshamaydi, bu yerdan o‘tishim qiyinga o‘xshab qoldi, deb hayron bo‘libdi. Qo‘rqib sekin-sekin oldinga qarab qadam bosibdi. Keyin duo o‘qib, yana dadillik bilan qadamini tezlatibdi. Qozi ko‘chaning chetida bir qora narsani ko‘rib, esi chiqib ketibdi. Kayfi uchib ketganidan o‘qib turgan duolari ham yodidan chiqib qolibdi. Tong g‘ira-shira yorishgach, atrofga qarasa, hech narsa ko‘rinmabdi. So‘ngra bir amallab uyiga yetib olibdi. Uyida o‘tirganida ham haligi maydonda eshitgan ovoz qulog‘ida jaranglar emish. Haqiqatni bilmoqchi bo‘lib, bir xizmatkori bilan vayrona bo‘lib yotgan maydonga borib qarasa, unda sochlari o‘sgan, devonasifat bir yigit o‘tirgan emish. Qozi yigitdan:

— Bolam, qayerliksan, bu yerda nima qilib o‘tiribsan? —deb so‘rabdi. Yigit uni eshik ochgan qizning otasi deb gumon qilib odob bilan:

— Men musofirman, bu shaharda hech kimim yo‘q, shu yerda yotibman, — debdi. Qozi:

— Bo‘lmasa, menga xizmatkor bo‘lib yurasanmi, ovqating ham bemalol bo‘ladi, vaqti kelsa uylantirib ham qo‘yaman, — debdi.

Yigitning es-hushi eshik ochgan qizda ekan-u: „Uylantirib qo‘ymasang ham o‘sha qiz sening qizing bo‘lsa, uzoqdan ko‘rib yursam mayli“ deb, qoziga:

— Xo‘p, sizga xizmatkor bo‘lsam yaxshi bo‘ladi, — debdi. Qozining uyida yurib, kunduzi ishlasa, kechasi uxlamay tong ottirib chiqibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Qozi: „Bu yigitda qanday sir bor ekan“, deb o‘ylabdi. Yigitdan:

— O‘g‘lim, nega kechasi uxlamay tong otguncha yurib chiqasan? — deb so‘rabdi.

Yigit gadoylik qilib yurganda eshik ochgan bir qizga oshiq bo‘lib qolganini, o‘shaning xayolida uxlay olmasligini aytib beribdi. Qozi yigitga:

— O‘g‘lim, hech tashvish tortma. Men bir hiyla bilan senga qizni olib beraman, o‘n kun sabr qil, — debdi. O‘n kun o‘tibdi. Qozi yigitni bir uyga olib kirib, yangi tikilgan sarpolarni kiygizib bo‘lgach, yigitga aytibdi:

— O‘g‘lim, endi tayyorlab qo‘yilgan otni min, mana bu xatni qo‘lingga ol. Bu xat podsho nomidan sen sevgan qizning otasiga yozilgan. Podsho boshqa shaharda turadi. Hozir seni shahar darvozasidan chiqarib qo‘yaman. Men bugun qizning otasinikida bo‘laman. Sen shoshilib otni yugurtirib kelasan. Meni tanimagan kishi bo‘lib, xatni qo‘limga berasan, u yog‘ini o‘zim bilaman, — debdi.

Qozi yigitni shahar darvozasidan chiqarib qo‘yibdi. Yigit peshin paytida shaharga kirib, dastlabki kelgan kunlarida gadoylik qilib borib, behush bo‘lib yiqilgan eshikni taqillatibdi. Qizning otasi yigitning savlatini ko‘rib, kayfi uchib ketibdi, darrov uni uyiga olib kiribdi. Qozi yigitni ko‘rishi bilanoq:

— Ey, keling, shahzoda, qayerdan shamol uchirdi? — deb yigitni yoniga o‘tqizibdi. Yigit qozining qo‘liga xatni beribdi. Qozi xatni o‘qib:

— Qulluq, shahzoda, qulluq, — debdi, xatni qizning otasiga uzatibdi. Qizning otasi xatni hurmat bilan olib o‘qibdi. Darrov shaharga osh berib, to‘y-tomosha qilibdi, qizni yigitga nikoh qilib beribdi. Yigit qizning yoniga kirish oldida qozi unga:

— Siz mehmonxonada o‘tirib turing, men uyga borib, sizga yaxshi sarpolar olib kelaman, ularni kiyganingizdan keyin, o‘zim fotiha beraman, — deb chiqib ketibdi.

Yigit qozining qilgan ishiga hayron qolib: „Dunyoda bunday yaxshi odamlar bor ekan, qozining bu yaxshiligini sira esdan chiqarmayman, o‘la-o‘lgunimcha xizmatini qilaman“, deb, uni kutib o‘tiribdi. Yarim kechada qozi bir bo‘xcha sarpo olib kelib:

— Mana bu dam solingan sarpolarni kiyib qizning oldiga kiring, — debdi. Yigit shoshib-pishib ustidagi yaxshi kiyimlarini yechib qoziga

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

«Ikki o'rtoq» ertagiga ishlangan rasm

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

beribdi. Qozi: „Qo‘sha qaringlar!“ deb kiyimlarni olib chiqib jo‘nabdi. Yigit sarponi kiyay deb bo‘xchani ochib qarasa, o‘zining dalvay-dalvay bo‘lib ketgan kiyimlari emish.

Yigit badanidan muzdek ter chiqib, mazasi qochibdi. „Nahotki, qozi menga shunday yomonlik qilsa, men qoziga nima qilgan edim“, deb noiloj o‘z kiyimlarini kiyib olibdi.

Qiz uyiga non tilab kelgan gadoy yigitni ko‘rib, hayron qolibdi.

— Siz bu yerga qanday qilib kirdingiz? — deb so‘rabdi. Yigit qizga boshidan o‘tganlarni, qozining qilgan ishlarini so‘zlab beribdi.

Qiz ham yigitni birinchi ko‘rgandayoq yaxshi ko‘rib qolganini aytib, uning kelganiga suyunibdi.

— Parvo qilmang, men sizni qanday qilib topsam ekan? — deb o‘ylab yurgan edim, baxtimga o‘zingiz yetib keldingiz, — debdi. Darrov yigitga yaxshi kiyimlar kiygizibdi. Ikkisi xursand bo‘lib so‘zlashib o‘tirishibdi. Qiz bu sirni hech kimga bildirmabdi. Qizning otasi ham kuyovni juda hurmat qilibdi.

Kunlardan bir kun qiz yigitga aytibdi: „Men qozini bir laqillatib, kulgi qilib kelay, boshqa odamlar gaplashib kulishib yurar“ debdi.

Qiz juda yasanib, pardoz-andoz qilib, paranjisini qiyshiq yopinib, qozining uyiga boribdi. Qozi mehmonxonada o‘tirgan ekan. Kavushini g‘irchillatib, uning oldidan ichkari hovliga o‘tib ketibdi. Qozi: „Yopiray, buning yurishi shunday bo‘lsa, o‘zi qanday ekan?“ deb o‘ylabdi. Shunda qiz ichkaridan qaytib chiqib:

— Assalomu alaykum, qozi pochcha! Men yanglishib ichkari hovliga o‘tib ketibman, —debdi. Qozi shoshilib, hovliqib:

— Vaalaykum assalom, menda nima ishingiz bor, qizim. Qani, beriroq keling, — deb chaqiribdi.

— Qozi pochcha, mening sizga arz-dodim bor edi, — debdi qiz.

— Ayting, bolam, ayta bering, — debdi qozi.

— Men usta Oloviddin yog‘chining qizlari bo‘laman. Otam bilan onam meni juda yaxshi ko‘rishadi. Shuning uchun menga ko‘p yerdan sovchi kelsa, onam yoki otam: „Qizimning boshi kal, ko‘zi ko‘r, qulog‘i kar, oyog‘i shol, qo‘li tutmaydi, ishi bitmaydi“, deb meni erga bermaydilar. Sovchi: „Bunday qiz bizga kerak emas“, deb qaytib ketadi. Onam menga hazillashib: „Qizim, seni boshimga yostiq qilaman“, deydilar. Sirtimdan kulsam ham ichimda kuyaman, amakimning bir kal o‘g‘li

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
bor, o‘zi yalqov, irkit, bilishimcha, meni shunga berishmoqchiga o‘xshaydi. Shuning uchun sizga arzga keldim, — debdi.

— Yoshingiz nechada, qizim? —deb so‘rabdi qozi.

— Yoshim o‘n sakkizda, qozi pochcha.

— Bay, bay, bay, men o‘zim otangiz bilan gaplashaman, — debdi qozi.

Qiz:

— Gaplashsangiz gaplashing, taqsir, siz guvoh bo‘ling, mana ko‘zim, yuzim, qo‘limni ko‘ring, — deb chachvonini ko‘tarib, yuzini qoziga ko‘rsatibdi.

Qozi qizning oppoq qo‘llarini, oydek yuzlarini ko‘rib, og‘zi ochilib qolibdi, shoshilib, titrab, qaqshab:

— Qizim, sizning otangiz bilan gaplashmasam bo‘lmaydi, albatta gaplashaman, lekin mening ham sizga bir arzim bor, qabul qilsangiz, — debdi.

— Qanday arzingiz bor? — deb so‘rabdi qiz. Qozi aytibdi:

— Men sizning xizmatingizda bo‘lsam, qabul qilsangiz.

— Qabul qilaman, lekin uchta shartim bor, — debdi qiz: — birinchi shartim, xotiningizni qo‘yasiz, men kundoshlikni yomon ko‘raman, ikkinchidan, uy-joylaringizni hozirgi xotiningizga xat qilib berasiz, uchinchidan, menga atab yaxshi hovli olasiz.

Qozi qizning qo‘ygan shartlarini bajarishga rozi bo‘lib, qasam ichibdi. Qiz, „Xayr“ deb eshikka chiqib ketaturib to‘xtabdi, qayrilib qoziga:

— Tag‘in otamning gapiga uchib, aynib qolmang, — deb kulib qo‘yibdi. Qozi:

— Agar yer yuzining odami guvohlikka o‘tsa ham ishonmayman, hamma aytganlaringizni qilaman, — debdi.

Qozi ichkariga kirishi bilan xotini tagiga ko‘rpacha solish uchun o‘rnidan turibdi. Qozi:

— Xotin, xotin, seni qo‘ydim, — debdi. Xotini:

— Voy o‘lay, u nima deganingiz? — debdi.

O‘g‘li ham:

— Ota, sizga nima bo‘ldi? — debdi. Qozi:

— Onangni qo‘ydim, sen ham uqib ol! — debdi.

Shu paytda uydan chiqib ketib, ikkita domlani boshlab kiribdi. Xotinini qo‘ygani haqida taloq xatni yozdiribdi. Hovli-joyini xotiniga xat qilib

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

beribdi. Ikkita odam yuborib, usta Oloviddin yog‘chini olib keltiribdi. Usta Oloviddin, „Qozi meni nimaga chaqirdi ekan, qarzga bergan pulini qistasa kerak“, deb qo‘rqib, xayol surib kelibdi. Qozi uni juda izzat qilib, qalin og‘aynidek kutib olibdi. Oldiga turli mevalar, taomlar qo‘yibdi. Dasturxondan keyin qozi sekin so‘z boshlabdi.

— Usta, mening sizga bir arzim bor, — debdi,

Usta: „Qozi bergan qarzini so‘rab qoladimi?“ deb xavotirlanib:

— Taqsir, — debdi, — nima arzingiz bo‘lsa bajon-u dil qabul qilaman.

Qozi:

— Meni kuyovlikka qabul qilsangiz, — debdi. Usta hayron qolib:

— Taqsir, meni mazax qilayotibsizmi? Mening qizimni birov maqtagandir. Bunday gapni menga gapirmang. Qizimning boshi kal, oyog‘i shol, ko‘zi ko‘r, qo‘li tutmaydi, ishi bitmaydi, bir dardi bedavo, xudoning maxluqi, — debdi.

Qozining jahli chiqib: „Nima bo‘lsa ham olaman, qizingni bersang berding, bo‘lmasa, pulimni ijarasi bilan berasan“, — debdi. Usta rozi bo‘lib:

— Taqsir, keyin mendan xafa bo‘lmaysiz, — debdi. Qozi juda xursand bo‘lib:

— Ish degan bunday bo‘ladi, mana bu to‘y pulingiz, — debdi. Ustaga besh yuz tilla pul beribdi. Usta qozidan bergan pulini qaytib olmaslik uchun so‘z olibdi. Usta uyiga borib:

— Xotin-xotin, qizimizning taxti bo‘lmasa ham baxti bor ekan. Qozi bizga kuyov bo‘ldi, mana bu qalin puli, — debdi. Besh yuz tillani xotiniga ko‘rsatib, bo‘lgan voqeani xotiniga aytib beribdi.

Bir necha kundan keyin qozi yurtga osh berib, to‘y qilibdi. Nikoh kechasi qizni ikki kishi zambilda olib kirib qozining ro‘parasiga qo‘yibdi. Qozi nima ekanini bilmay hayron bo‘lib tursa, zambilda bir narsa qimirlabdi. Qozi o‘rnidan turib: „Bu nima ekan“, deb ochib qarasa, bir majruh qiz yotgan emish, qosh-ko‘zi ham bilinmas emish. Qozining kayfi uchib, uydan qochib chiqibdi, ustani chaqirib keltiribdi. „Qizingni olib ket!“ debdi. Usta:

— Ha, xushtorlik shundaqami? Men butun aybini aytib berganman. Endi nima qilsangiz qilavering! —debdi. Qozi yalinib-yolvoribdi, olib ketishini so‘rab yana besh yuz tilla berib, qizni uyidan jo‘natibdi. Bu

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

xabar butun shaharga tarqalibdi. Bu voqeani uddaburon qizning otasi eshitib, uyiga kelib hikoya qilib beribdi.

— Qozini bir qiz aldabdi-ya, xo‘p qiziq bo‘libdi, — deb so‘zini tugatibdi u. Qiz otasiga:

— Qozining bizda xusumati bor edimi, ota? —deb so‘rabdi.

Otasi:

— Seni bir so‘ratganda bermagan edim, shundan beri menga yomon ko‘z bilan qarab kelar edi. Ajab bo‘ldi, yurt ichida ikki pullik obro‘si qolmadi, — debdi.

Qiz bu yigitning musofirligi, bu shaharga kelishining sababi, ikkovi bir-birini sevib qolganligi, qozining qilgan makr-u hiylasi, qozining qilmishiga qarshi o‘zining qilgan ishlarini otasiga gapirib beribdi. Otasi:

— Mayli, bolam, seni bersak shunday yigitga berar edik-da, qo‘sha qaringlar, — debdi.

Yigit qiz bilan murod-maqsadiga yetibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Ikki o‘rtoq

Bir mergan yo‘ldan o‘tib borayotgan ekan. Merganning qo‘lida g‘ozi bor ekan. Yo‘lda qorni ochib kelayotgan ikki o‘rtoq:

— Shu merganning g‘ozini yeb bo‘lmasmikan? — debdi. Ikkisi maslahatlashib, merganni chaqirishibdi. Mergan kelibdi. Mergandan g‘ozini so‘rashibdi. Mergan:

— Yaxshi, ola qoling, birga yeysiz, — deb g‘ozni beribdi.

Ikki o‘rtoq g‘ozni qozonga solib pishirishibdi. Keyin:

— Endi uxlaymiz, kim yaxshi tush ko‘rsa, g‘ozni o‘sha yeydi, — deyishibdi. Mergan ham rozi bo‘libdi.

Uchovi uxlashga yotibdi. Ikki o‘rtoq uxlab qolibdi. Mergan uxlamay yotgan ekan. Pishgan g‘ozni yeb qo‘yibdi. Ikki o‘rtoq uyqudan uyg‘onishibdi. O‘rtoqlarning biri ikkinchisidan:

— Sen nima tush ko‘rding? — deb so‘rabdi.

Ikkinchisi:

— Men osmonda uchib ketayotgan emishman, sen-chi? — debdi.

— Men dengizda suzib ketayotgan emishman, — debdi.

So‘ng ular mergandan so‘rashibdi:

— Sen nima tush ko‘rding?

Mergan aytibdi:

— Men biringizning osmonda uchib ketayotganingizni, ikkinchingizning esa, dengizda suzib ketayotganingizni ko‘rdim. Ikki o‘rtada g‘oz qolib ketmasin deb, yeb qo‘ya qoldim.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Yamoqchi bilan Shog‘arib

Bor ekan-da yo‘q ekan, och ekan-da to‘q ekan. Bir zamonda Valixon degan bir podsho bor ekan. Uning shahrida Xoldor degan yamoqchi ham bor ekan.

Podsho: „Men mamlakatda adolat o‘rnatayin, yurt-elni kezayin, fuqarolarning gap-so‘zini eshitayin. Qani, ular nimalarni orzu qilar ekan, shunga qarab ish ko‘rayin“, — debdi. Podsho kech bo‘lganda eski-tuski kiyimlarini kiyib, boshiga yirtiq sallani o‘rab, faqir kishiga o‘xshab chiqib ketar ekan, odamlarning gap-so‘zlarini eshitib qaytar ekan.

Podsho bir kuni kechasi bir mahallada aylanib yursa, bir do‘kondan ashula tovushi eshitilibdi. Sekin borib quloq solsa, o‘choqqa osilgan qozonda shaqirlab ovqat qaynayapti, bir odam uning ovoziga o‘yinga tushib:

Sabzing bilan go‘shtingga,
Qayna, palovim, qayna!
Qurbon bo‘lay o‘zingga,
Qayna, palovim, qayna!

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Biqir-biqir ovozing,
Qayna, palovim, qayna!
Mast bo‘laman men o‘zim,
Qayna, palovim, qayna!..

deb qo‘shiq aytyapti. Podsho bu odamning ishidan ta’sirlanib: „Bilayinchi, bu odam nimaga bunday qilar ekan?“ deb do‘konning eshigini taqillatibdi. Ichkaridan:

— Kim u taqillatayotgan? — degan ovoz eshitilibdi. Podsho:

— Men, Shog‘aribman. Oching eshigingizni! — debdi.

Do‘konning eshigi ochilibdi, podsho ichkariga kiribdi. Qarasa, yamoqchining do‘koni ekan. Yamoqchi bilan so‘rashib:

— O‘zingizdan o‘zingiz nimalar deyapsiz? — degan ekan. Yamoqchi:

— E, Shog‘arib! Bola-chaqa yo‘q! So‘qqa boshman, har kuni bitta palovning puliga loyiq ish qilaman. Xarajat qilib kelib, qozonni qaynataman. Palovxon to‘raning qaynagan ovoziga xursand bo‘lib, o‘yinga tushaman. Valixon podshoning davrida bizga bundan boshqa nima xursandchilik qoldi?! — debdi.

Bu gaplarni eshitib, podsho hayron bo‘libdi. Undan:

— Ko‘proq ishlab ko‘proq pul topsangiz bo‘lmaydimi? — deb so‘rabdi. Yamoqchi aytibdi:

— Shu zamonda nima og‘ir? Valixon podshoning oliq-solig‘i og‘ir! Ko‘p ishlasang, oliq-solig‘i ham ko‘p bo‘ladi. Menga bitta palovga loyig‘i yetadi! — debdi. Podsho:

— Shukr qilsangiz-chi! Agar Valixon podsho yamoqchilikni taqiq qilib qo‘ysa, qanday kun ko‘rasiz? — debdi. Yamoqchi:

— Agar Valixon podshoga bizning hunarimiz ko‘p ko‘rinib, taqiqlab qo‘ysa, u holda qul o‘lmas, rizqi qurimas. Bir tirikchilik o‘tar. Uning g‘amini yemang, o‘tiring, oshni birga yeymiz, — debdi. Shog‘aribni ko‘rpachaga o‘tqazib, qo‘liga suv quyibdi. Ikkalasi oshni yeyishibdi. Choyni ichishibdi. Shundan keyin Shog‘arib: „Rahmat! Biz ketdik endi“, deb o‘rnidan turib, chiqib ketibdi. Yamoqchi esa: „Xudoga shukr! Bugungi oshni Shog‘arib bilan birga yedim!“ deb xursand bo‘lib qolaveribdi. Podsho ham o‘rdasiga qaytib borib yotibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Podsho erta bilan turib, o‘ylanibdi: „Yamoqchi ko‘p ishlashning nima hojati bor? Kunim o‘tsa bo‘ldi, dedi-ya! Qani, yamoqchilikni taqiqlab qo‘yay-chi! Kuni qanday o‘tar ekan?!“ debdi. Vazirini chaqirib kelib, fuqaroga buyruq chiqarishni buyurib:

— Mening shahrimda hamma yangi oyoq kiyim kiysin. Eskisini kiymasin. Hech kim yamoqchilik qilmasin. Agar kimki yamoqchilik qilsa, uyi talonda, o‘zi zindonda! — debdi.

Vazir buyruqni yozibdi. Podsho qo‘l qo‘yib, muhrini bosibdi. Vazir jarchiga buyuribdi. Jarchi shaharda qichqirib yurib, buyruqni hammaga eshittiribdi.

Podshoning buyrug‘ini Xoldor yamoqchi eshitib: „Podsho yamoqchilikni taqiq qilib qo‘ygan bo‘lsa, buguncha sabr qilay. Sabr tubi sariq oltin deganlar. Xudo bir yo‘lga boshlar!“ deb ko‘rpani to‘rt qavat solib, yotib, kechgacha uxlabdi. Asrdan keyin o‘rnidan turib: „Endi birorta choy qaynatib, qotgan-qutgan non bo‘lsa yeb, bu kechani o‘tkazay!“ deb, qo‘shnisining hovlisiga o‘t so‘rab chiqibdi. Qo‘shnisining eshigini ochib kirsa, qo‘shnisining xotini bir begona yigit bilan turgan ekan. Yamoqchini ko‘rib qo‘rqib ketibdi:

— Jon tog‘a! Birovga aytmang, — deb haligi yigit cho‘ntagidan bir so‘m chiqarib berib, o‘zi chiqib ketibdi.

Yamoqchi pulni olib, suyunib: „Xudo yetkazdi!“ deb, bu pulga palovga loyiq go‘sht, yog‘, guruch, sabzi-piyoz va ikkita non olib kelibdi. Go‘sht, sabzi-piyozni to‘g‘rabdi. Qozonni osib, oshni boshlabdi.

Valixon podsho kechqurun: „Qani, yana boray-chi! Bugun yamoqchining holi nima bo‘ldi ekan!“ deb borib quloq solsa, do‘konda yana palov biqirlab qaynayapti, yamoqchi esa, uning ovoziga qo‘shiq aytib, o‘yinga tushyapti. Podsho taajjublanib, eshikni taqillatibdi. Yamoqchi:

— Ha, o‘yinimni buzding-a! Kimsan o‘zing! — debdi. Podsho:

— Shog‘aribman! — debdi. Yamoqchi eshikni ochib:

— E, Shog‘arib! Keling!— deb ichkariga kirgizibdi. Podsho kirib gap boshlabdi:

— Nimalar qilyapsiz?

— He, oshimning shaqirlab qaynaganiga xursand bo‘lib o‘yinga tushayotuvdim. O‘yinni ham buzdingiz, — debdi. Shog‘arib:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Podsho yamoqchilikni taqiqlab qo‘ydi. Bari yamoqchilar „dod!“ deyishyapti. Siz pulni qaydan topdingiz? — debdi. Xoldor yamoqchi:

— Ha, kecha siz, agar Valixon podsho yamoqchilikni taqiqlab qo‘ysa, nima qilasan, degan edingiz. Men bir tirikchilik bo‘lsa, o‘tib ketar degan edim. Yamoqchilikning taqiqlanganini eshitib, kechgacha uxlab yotdim. Kechqurun o‘rnimdan turib, qo‘shnimnikiga o‘t so‘rab chiqsam, qo‘shnimning xotini bir begona yigit bilan turgan ekan. Ustiga kirib qolibman. Meni ko‘rib qo‘rqib ketdi. „Birovga aytmang!“ deb yalinib, qo‘limga bir so‘m pul berdi. „Xudo yetkazdi!“ deb, bozorga chiqib xarajat qilib keldim. Qo‘shnimning xotini u yigit bilan gaplashmasa, bu palov qayerda edi? — debdi.

Shog‘arib aytibdi:

— Agar sizning u yigitdan pora olib, qozon qaynatganingiz podshoning qulog‘iga yetib qolsa, podsho sizni chaqirib so‘roq qilsa, nima javob qilasiz? — debdi. Xoldor yamoqchi:

— Bu gapni sizdan boshqa hech kimga aytganim yo‘q. Agar siz borib aytib qo‘ymasangiz, kim aytar edi? — debdi. Shunda Shog‘arib:

— E, bizdek g‘aribga podsho bilan gaplashish yo‘l bo‘lsin! Men uning ko‘chasidan ham o‘tolmayman. Hamma yoq podshoning qulog‘i, devoringizning kesagi ham podshoning qulog‘i, — debdi.

Osh pishibdi. Har ikkovlari birlikda choyni ichishibdi. So‘ng Shog‘arib rahmat aytib, xayrlashib chiqib ketibdi.

Namoz vaqti bo‘lsa ham yamoqchi hali uyqudan turgani yo‘q ekan. Eshigi taqillab qolibdi. Yamoqchi uyg‘onib turib eshikni ochsa, shomurtini shopday qilib, podshoning mirg‘azablari turibdi. Ular:

— Seni podsho chaqirtirdi. Tez oldimizga tush! — deyishibdi. Yamoqchining kayfi uchib, iliklari qaltirab ketibdi:

— Mening hech gunohim yo‘q-ku! Meni olib bormanglar, —deb yalinibdi. Mirg‘azablar: „Hozir yurasan!“ deb do‘q qilib haydab olib ketishibdi va Valixon podshoga to‘g‘ri qilishibdi. Yamoqchi podshoga qo‘l qovushtirib turibdi. Podsho so‘rabdi:

— Qanaqa xiyonat qilding?

Yamoqchi:

— Taqsir, men xiyonat qilganim yo‘q? — debdi.

Podsho aytibdi:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Sen xiyonatkor bo‘lmasang, podsholik ishiga aralashib, birovlardan pora olib yermiding?

Yamoqchi juda qo‘rqibdi:

— E, podshohim! Men poraxo‘rlik qilganim yo‘q! — debdi.

Podsho:

— Poraxo‘rlik qilmasang, bu kecha palovni qayerdan topding? — debdi. Yamoqchi:

— Siz yamoqchilikni taqiqlab qo‘ygan ekansiz. Kechgacha ish qilmay yotdim. Kechqurun choy damlab, qotgan-qutgan non bo‘lsa yeb yotay deb, qo‘shnimnikiga o‘t so‘rab chiqsam, xotini bir begona yigit bilan turgan ekan. Meni ko‘rib qo‘rqib ketdi-da: „Birovga aytmang“, deb haligi yigit bir so‘m berdi. Shu pulga palov qilib yegan edim, — debdi. Podsho aytibdi:

— Bunaqa buzuqchilikni taqiqlash podsholikning ishi bo‘ladi.

Sen bu ishni podsholikka bildirmay, porani o‘zing yeb ketibsan, gunohkorsan! — deb g‘azab qilibdi. Yamoqchi qo‘rqib: „Podsho endi meni o‘ldirar ekan-da!“ deb o‘ylabdi.

Podsho aytibdi:

— Sen shu qilgan gunohing uchun eshigimning tagida bir yil qorovullik qilib berasan!

Xoldor yamoqchi: „O‘lmay qolganimga shukr! Qorovullik qilsam, qilib beray!“ deb o‘ylab:

— Xo‘p, taqsir! — debdi. Podsho yamoqchining qo‘liga bitta qilich beribdi va:

— Bor! Sen hov anavi darvozaning yonida poyloqchi bo‘lib tur! O‘g‘ri kelsa, chopasan! — debdi. Yamoqchi borib, kechgacha poyloqchilik qilibdi. O‘g‘ri kelmabdi. Kechgacha podsho unga ovqat bermabdi. Yamoqchining qorni ochibdi. Kechqurun uni podsho yana huzuriga chaqirtiribdi.

Yamoqchiga katta bir otni ko‘rsatibdi va:

— Shu otni uyingga oborib, chaksa yem, uch bog‘ beda berib, boqib, erta bilan olib kel, — deb buyuribdi. Yamoqchi otni minib, chiqib ketibdi. Yo‘lda: „Podshoning poyloqchisi shunaqa och ahvolda ishlaydimi? Qorning ochib, o‘lar holga kelganing yetmay, endi mana bu otni boqib kelasan, degani ortiq bo‘ldi-ku. Men bunga chaksa yem bilan uch bog‘ bedani qayerdan topdim“, deb xafa bo‘lib keta beribdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Yo‘lda ketayotsa, bir g‘alvirfurush do‘konda ish qilib o‘tirgan ekan. Unga podsho bergan qilichni ikki so‘mga garovga qo‘yibdi. Puliga palovga yetkudek xarajat qilibdi, ikki bog‘ beda, yuz paysa yem olib uyiga kelibdi. Otga yemni yedirib, go‘sht-yog‘ni to‘g‘rab, palovni boshlab yuboribdi.

Valixon podsho: „Yamoqchini kun bo‘yi och qo‘ydim. Boz ustiga boqib kelasan, deb otimni ham berib yubordim. Qani, borib ko‘rayinchi, yamoqchi bugun nima qilar ekan?“ deb kechasi yamoqchining do‘koniga borib, quloq solibdi. Quloq solsa, do‘konda yana palov qaynayapti-yu, yamoqchining vaqti chog‘:

Qozonimni qaynatgan,
Qayna, palovim, qayna!
Podsholikning qilichi.
Qayna, palovim, qayna!..

— deb o‘yinga tushyapti. Podsho yamoqchining bu ishidan zavqlanib, kulibdi va eshikni taqillatibdi:

— Kimsan?

— Shog‘aribman!

Yamoqchi eshikni ochibdi. Shog‘arib kiribdi. Yamoqchi u bilan so‘rashib, ko‘rpachaga o‘tqazibdi. Shog‘arib undan hol-ahvol so‘rabdi. Yamoqchi:

— E, Shog‘arib! Bugun bir o‘limdan qoldim, erta bilan podshoning mirg‘azablari podshoning oldiga haydab bordi. Podsho: „Sen pora olibsan!“ deb o‘ldirib qo‘yishiga bir baxya qoldi. Yana o‘ziga insof berdimi, o‘ldirmay eshigiga poyloqchi qilib qo‘ydi. Kechgacha poyloqchilik qildim. Biror odam kelib: „Nima qilib o‘tiribsan, qorning ochmadimi?“ deb so‘ramadi. Juda och qoldim. Kechqurun podsho otini berdi. Shu otni oborib, chaksa yem, uch bog‘ beda bilan boqib kelasan, dedi. Nima qilay! Uyda hech narsam yo‘q. Qilichni g‘alvirfurushga garovga qo‘yib, oshga xarajat qildim, podshoning otiga yem, beda olib keldim, — debdi.

Shog‘arib:

— Xo‘p, qilichni garovga qo‘yibsiz. Ertaga borib, yana poyloqchilik qilasiz. Shunda o‘g‘ri kelib qolsa, podsho sizga: „Chop o‘g‘rini!“ desa, u holda nima qilasiz? — debdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Yamoqchi aytibdi:

— Ha, uning g‘amini yemang! Keling, oshni yeylik! Oshdan keyin yog‘ochdan qilich yasab, qiniga solib qo‘yaman! — debdi. Osh yeyilibdi, choy ichilibdi, Shog‘arib xayrlashib chiqib ketibdi.

Erta bilan yamoqchi podshoning otini qashlab, egarlab, yuganlab, ustiga minib, yog‘och qilichni taqinib, o‘rdaga yetib boribdi. Otni podshoga to‘g‘ri qilib, ta’zim qilib turaveribdi. Podsho:

— Bor, kechagi joyingga! O‘g‘ri kelsa, chopasan!— debdi. Yamoqchi kechagi joyiga borib: „Xudoyo sharmanda qilmagin!“ deb, yuragi po‘killab tura beribdi.

Bir vaqt podshoning odamlari: „O‘g‘ri tutdik!“ deb ikkita odamning qo‘lini orqasiga bog‘lab olib kelishibdi. Podsho aytibdi.

— Hov anavi yangi yigitni chaqiringlar! Kelib, bu o‘g‘rilarni chopsin!

Yamoqchini chaqirib kelishibdi. Podsho yamoqchiga:

— Chop, o‘g‘rilarni! — deb buyruq beribdi. Yamoqchi qo‘rqib turib qolibdi. Yana:

— Chop, — deb buyuribdilar. Yamoqchi: „Bor, endi o‘ldim!“ deb yog‘och qilichni qinidan chiqarib, o‘g‘riniig yelkasiga bir solibdi. Yog‘och qilich sinib ketibdi. Bu ahvolni ko‘rib podsho „qah-qah“ urib, kulib yuboribdi, shu yerda turganlarning hammasi qotib-qotib kulishibdi, o‘g‘rilar ham kulib yuborishibdi. Bechora yamoqchi: „Men endi o‘ldim. Podsho bu o‘g‘rilarga: „O‘zini chop!“ deb buyuradi. O‘g‘rilar meni chopadi!“ deb titrab turibdi. Shunda podsho kulgidan to‘xtab:

— Yasha, yamoqchi! O‘lma, sening ishlaringga qoyilman! Ol! Ot ham seniki, qilich ham seniki! Bor, ketaver endi!— deb otni mindirib, o‘rdadan chiqartirib yuboribdi.

Yamoqchi o‘lmay qolganiga yuz shukrlar qilib xursand bo‘lib, uyiga yetib kelibdi. Otni bog‘labdi. Bozorga chiqib, g‘alvirfurushga qilichni birato‘la pullabdi. Ortgan puliga otga yem, beda, palovning xarajatlarini olib qaytib kelayotsa, jarchi bozorni aylanib:

— Podshohi a’zamdan ruxsat bo‘ldi, yamoqchilar yamoqchiligini qila bersin! — deb chaqirib yurganmish. Yamoqchi: „Eh, xayriyat!“ deb, uyiga yetib kelib, otini boqa beribdi.

Podsho kechasi yana kelibdi. Quloq solsa, qozonda palov qaynayapti-yu, yamoqchi uning ovoziga suyunib, qo‘shiq aytib, o‘ynayapti. Podsho eshikni taqillatibdi. Yamoqchi:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Kimsan? —debdi.

— Shog‘aribman! — debdi podsho.

Yamoqchi borib eshikni ochibdi. Shog‘arib kirib o‘tiribdi va:

— Usta Xoldor! Bugun juda ham vaqtingiz chog‘! — debdi.

Yamoqchi:

— He, asti so‘ramang! Bugun juda qiziq ishlar bo‘ldi, — deb podshonikida bo‘lgan ishning hammasini Shog‘aribga aytib beribdi va: — „Qul o‘lmas, rizqi qurimas“, degan ekanlar. Mana bugun ham qozonim qaynayapti, — debdi. Osh pishibdi, oshni ikkalasi birga yeyishibdi.

Shog‘arib:

— Endi men ketaman! Siz bir dono kishidan so‘rab ko‘ring! Siz tantimi, podsho tantimi! — deb chiqib ketibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Mulla Tappak

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir chol bilan kampir bor ekan. Ularning turmushi juda ham xarob ekan. Bir vaqtga kelib chol bilan kampir uch kun och qolibdi. Kampir ochligiga chidolmay, qo‘shnisinikiga chiqib, qornini to‘yg‘azib, eri esiga tushib, bir burda non olib chiqibdi. Nonni eriga beraturib shunday debdi:

— Endi, siz ishlamasangiz, men ishlamasam, nima qilishimizni ham bilmay qoldim.

Kampir o‘ylanib turib:

— Siz o‘qimagan bo‘lsangiz ham, men sizni domla qilaman, bugundan boshlab boshingizga salla, qo‘lingizga uzun tasbeh va bitta g‘ishtni chorsiga o‘rab, sizni sandalga o‘tqazib qo‘yaman, siz bo‘lsangiz sandalda o‘tirib, tasbehni qo‘lingizga olib, og‘zingizni pichirlatib o‘tira bering, — debdi.

Kunlarning birida qo‘shnisining bolasi og‘rib qolibdi va bolasini ko‘tarib, qo‘shnisinikiga chiqibdi. U joyda, sandalda bir odam boshiga oppoq sallani o‘rab, qo‘liga tasbehni olib, hadeb pichirlab o‘tirgan emish. Bolasini ko‘targan xotin cholni ko‘rib qolibdi-da, uning xotinidan so‘rabdi:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Qo‘shni, pochcham domlami? — debdi. Xotin esa:

— Voy, endi bildingizmi, mening erim juda ham katta domla-yu, uning domlachiligini hech kim bilmay yurar edi, — debdi. Shunda qo‘shnisi turib:

— Bo‘lmasa, aytib ko‘ring-chi, mening bolamga dam solib qo‘ymasmikinlar? — debdi. Haligi o‘tirgan domla bolani olib dam solibdi.

Shu payt yig‘lab turgan bola tinchib qolibdi, bolaning onasi juda ham xursand bo‘lib, domlaga pul berib, chiqib ketibdi. Ertasiga bu gap butun qishloqqa tarqalibdi. Shu kundan boshlab dam solgan cholga „Mulla Tappak“ deb nom qo‘yishibdi.

Er-xotin juda ham yaxshi turmush kechira boshlashibdi.

Kunlardan bir kun podsho qo‘lidagi uzugini yo‘qotib, vazirini chaqirtirib: „Mening yo‘qolgan uzugimni qanday bo‘lmasin topib berasan, bo‘lmasa boshing o‘limda“, — debdi. Shundan so‘ng vazir nima qilishini bilmay, butun domlalarni chaqirtirib, podshoning uzugi yo‘qolganini va uni qanday topish yo‘lini so‘rabdi, lekin hech kim uzukni topolmabdi. Shunda podsho shaharda bu domlalardan boshqa domla qolmadimikan, deb vazirdan so‘rabdi. Shunda vazir turib: Bitta „Mulla Tappak“ degan domla qoldi, undan boshqa hech kim qolgani yo‘q“, — debdi. Buni eshitgan podsho „Mulla Tappak“ domlani chaqirtirib, o‘zining yo‘qolgan uzugi to‘g‘risida aytib: „Agar shu uzukni topmasang, seni o‘ldiraman, buni topish uchun senga uch kun muhlat beraman, topsang ham topasan, topmasang ham topasan“, debdi. Shunda „Mulla Tappak“ domla nima qilishini bilmay, „Bo‘lmasa meni bitta uyga olib kiringlar va uch kun mening oldimga hech kim kirmasin“, debdi. Shunday qilib „Mulla Tappak“ domla, shu uyda ikki kun o‘tiribdi. Uchinchi kuni domla juda ham xayol surib: „Baribir meni podsho o‘ldiradi“, deb o‘ylanib o‘tirgan, vazir bo‘lsa, shu vaqtda „Qani domla, nima qilyapti ekan“, deb poylab yurgan ekan.

Domla nima qilishini bilmay, o‘rnidan turib, ikki qo‘lini ko‘kragiga qo‘yib: „Voy jon, voy jon, endi sen tutilding“, deyapganmish. Vazir uni ko‘rib, qo‘rqib ketibdi va: „Endi uzukning mendaligini va otimni ham topdi, agarda men uning oldiga kirib aytmasam, podsho bilib, meni o‘ldiradi“, deb o‘ylab shoshilib domlaning oldiga kirib o‘zini tanitibdi. Vazirning ismi „Voyjon“ ekan. Voyjon butun voqeani aytib, uzukni „Mulla Tappak“ domlaning qo‘liga berib:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Endi nima qildik, qanday qilib uzukni podshoning qo‘liga beramiz, — deb maslahat so‘rab turganda, domla xursand bo‘lganidan nima qilishini bilmay:

— Podshoning tovuqlari bormi? Siz menga bir belgili tovuqni olib kelib bering, o‘zim to‘g‘rilayman, — debdi.

Vazir bir tovuqni olib kelib, „Mulla Tappak“ domlaning qo‘liga topshiribdi. Domla uzukni nonning ichiga o‘rab tovuqqa berib, tovuqni boshqa tovuqlarning ichiga qo‘shib yuboribdi. Ertasiga podsho domlani chaqirtirib, uzukni so‘rabdi. Shunda domla:

— Uzugingiz parrandalar suratida o‘tyapti, agarda mumkin bo‘lsa, siz butun parrandalaringizni ko‘z oldimdan o‘tkazsangiz, — debdi.

Podsho butun parrandalarini domlaning oldidan o‘tkazibdi, shunda belgilangan tovuq kelganda, domla „Xuddi shu tovuqni ushlanglar“, deb tovuqni so‘yishga buyuribdi. Tovuqni so‘yib, jig‘ildonini yorib, qarashsaki, podshoning uzugi chiqibdi. Podsho uzugini ko‘rib, ko‘p xursand bo‘lib, „Mulla Tappak“ domlaga ko‘p pul berib, uyiga jo‘natibdi. Shu bilan „Mulla Tappak“ domla xotini bilan boy bo‘lib, yaxshi turmush kechira boshlabdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

«Eralixon va uch o'g'ri» ertagiga ishlangan rasm

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Botmon daxsar[1]

Qadim zamonda bir laqma odam o‘tgan ekan. Bir kun unga xotini bir xumcha berib: „Botmon daxsar“, yog‘ olib keling“, deb buyuribdi. Laqma botmon daxsar esimdan chiqmasin, deb yo‘lda keta-ketguncha „botmon daxsar, botmon daxsar“ deb keta beribdi. Dalada xirmon qilayotgan bir kishi laqmaning „botmon daxsar, botmon daxsar“, deb ketayotganini eshitib:

— Nimaga „botmon daxsar“ deysan, shuncha sepilgan bug‘doydan atigi botmon daxsar bug‘doy oladi, deb o‘ylaysanmi, nafasing qursin. „Xirmonga baraka“ degin, — deb laqmani tutib ura beribdi.

Laqma qo‘rqqanidan „botmon daxsar“ degan gapni esidan chiqarib qo‘yib, „xirmonga baraka“, „xirmonga baraka“ deb ketibdi. Yo‘lda bit boqib o‘tirgan bir xotinga uchrabdi. Xotin laqmaning „xirmonga baraka“ deb kelayotganini eshitib:

— O‘zim bitimdan qutulolmayotibman-ku, nega sen „xirmonga baraka“ deysan? — deb laqmaning boshiga kosov bilan tushiribdi.

Laqma:

— Nima dey axir? — deb so‘rabdi.

---

[1] **Botmon daxsar** — miqdor o‘lchovi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Xotin:

— Baring o‘l, biring qolma, de, — debdi. Laqma yo‘lda „baring o‘l, biring qolma“, „baring o‘l, biring qolma“ deb ketayotgan ekan, tobut ko‘tarib ketayotgan kishilarga uchrab qolibdi. Ulardan biri laqmani tutib, ura boshlabdi.

— Shu haftada mahalladan yetti o‘lik chiqdi-ku, sen tag‘in „baring o‘l, biring qolma“ deb aytasanmi, undan ko‘ra „bandalik-da“ deb ketgin, — debdi.

Laqma bir qancha yo‘l yurib, bir to‘y bo‘layotgan mahallaga borib qolibdi. Undan: „bandalik-da“ deb o‘tib ketayotsa, bir kishi kelib laqmaning yoqasidan tutibdi:

— Bu mahallada katta to‘y bo‘layotibdi-ku, sen nima uchun bunday so‘zni aytasan, undan ko‘ra „xarala-tarala“ deb ayt, — debdi.

Laqma „xarala-tarala“ deb keta beribdi. Bir to‘qayzorga „xarala-tarala“ deb kirgan ekan, bir merganning poylab turgan qushini uchirib yuboribdi. Mergan laqmani so‘kib:

— Yurganda oyog‘ingni sudrab bos, sekin yur, — debdi. Laqma ham merganning aytganidek oyog‘ini sudrab ketayotgan ekan, yo‘lda bir bo‘zchining tandasiga oyog‘i ilinib, uni sudrab ketibdi. Bo‘zchining jig‘ibiyroni chiqib:

— Yursang sakrab-sakrab yur, — deb laqmani urishibdi. Chol bir ko‘prikka kelib bir sakrabdi. Ko‘prik taqir-tuqur etib ketibdi. Laqma „suvga birov tushib ketdi shekilli“ deb, ariqqa tushib qidira beribdi. Yo‘lda ketayotgan bir yo‘lovchi suvdan narsa qidirayotgan laqmaga hayron bo‘lib:

—Hoy birodar, suvga nimang tushib ketdi? — deb so‘rabdi.

Laqma:

— Juda qimmatbaho narsam tushib ketdi. Qidirishvor, — debdi, yo‘lovchi ham qidirib-qidirib hech narsa topolmay suvdan chiqibdi. Yo‘lovchi oyog‘iga qarab:

— Voy-bo‘y oyog‘imga botmon daxsar loy ilashib chiqibdi-ku, — deb kulibdi. Laqma suvdan sakrab chiqibdi, yog‘ esiga tushib „botmon daxsar“, „botmon daxsar“ deb keta beribdi. Yo‘lovchi laqmaning orqasidan hayron bo‘lib qarab qolibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Andijonlikning hikoyasi

Men o‘zim andijonlikman. Yoshim o‘n yettiga yetganda otam: „Yoshing yetib, beling qotdi, o‘g‘lim, ovqatingni o‘zing topishga qodirsan“, deb meni shu shahardagi bir boyga xizmatga berdi. Taqdirga tan berib, boyning eshigida ertadan kechgacha tinmay xizmat qila boshladim. Bir kun kechasi uyg‘onib qarasam, men yotgan boloxona tutunga to‘lib ketibdi. „Yopiray, nima bo‘ldi“ deb tanchaga qarasam, atlas ko‘rpaning bir uchi tanchaga tushib sasib yotibdi. Tura solib yonib yotgan ko‘rpadagi olovni o‘chirdim. „Obbo, endi boyga nima javob beraman“, deb o‘ylab qoldim. Ertalab turib boyga bo‘lgan voqeani aytgan edim, boy: „Hech nima qilmaydi, uch oylik xizmatingning haqidan kechasan“, deb qo‘ydi. Men ham tupugimni qult etib yutib qo‘ydim.

O‘rtadan bir qancha oylar o‘tdi. Bir kun saharlab meni uyg‘otdi. „Nima kerak, boy aka!“ deb cho‘chib uyg‘onib o‘rnimdan turgan edim, boy:

— O‘g‘lim, bu kun men tulki oviga chiqmoqchiman. Sen ham men bilan borasan, — dedi. „Xo‘p bo‘ladi“, dedim. Choydan keyin otlarga mindik. Men ham qo‘limga bir burgut oldim. Ikki tozi itni oldimizga solib, dala tomonga qarab otlarni yeldirib ketdik. Tush vaqtida bir dashtga

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

borib yetgan edik, boy akamning iti bir tulkini quvlab ketdi. Boy ham itning ketidan quvlab ketdi. Dashtda yakka o'zim qoldim. Bir soatlardan keyin mening itim ham bir tulkining ketidan quvib ketdi. Men ham otga bir qamchi urib, itimning ketidan ketdim. Bir qancha vaqtdan keyin itim tulkini yo'qotib, qaytib keldi. Otni to'xtatib, qo'limga qarasam, qo'limdagi burgut o'lib yotibdi. Nima balo bo'ldi, deb o'ylab qarasam, burgutni qamchi deb, ikki oyog'idan ushlab otga ura beribman, ov kishini mast qilib qo'yadi-da! Shu mahalda xo'jayinim ko'rinib qoldi. Bo'lgan voqeani aytgan edim: „Hech nima qilmaydi, keyin hisoblashamiz", deb qo'ydi.

Yarim soatchadan keyin yana mening itim bir tulkini quvib ketdi. Otim nihoyat darajada tez chopib kelayotganda, bir ariqqa qoqilib yiqilib qoldi. „Hayt-hayt" deb, chiqargunimcha ot o'lib qoldi. Otdan egar-to'qimini olib, egarni itga urdim. O'zim charchaganim uchun egarlarni ko'tara olmas edim. Bir mahalda itim bir quyonni ko'rib quvlab ketdi. O'n besh qadam bosmasdan itning bo'yniga uzangi o'ralib qoldi. Men yugurib borgunimcha it ham bo'g'ilib o'lib qoldi.

Xafa bo'lib, sovuq terga tushib ketdim. O'zimni mahkam tutib, egar bilan to'qimni o'z orqamga ortib, bir tayoqni hassa qilib, „hayt", deb yo'lga tushdim. Oz yurib, ko'p yurib bir sadaning soyasiga borib yetdim. Charchaganligimdan biroz ko'zim ilingan ekan. Bir odam meni turtdi. Cho'chib uyg'onib qarasam, qarshimda boy turibdi.

— Ishing qalay, ot qani, nima uchun egarlarni olib yuribsan, nima bo'ldi, padaringga la'nat?! — deb baqira boshladi. Bo'lgan voqealarni aytib berdim. Boyning rangi o'chib, qoni qochib, keyin qizardi:

„O'zing umr bo'yi ishlasang ham qilgan ziyoningni to'lay olmaysan", deb ming'illab qo'ydi. Bir umr boyga bog'lanib qolishdan qo'rqib, qochmoqchi bo'ldim. Boy dam olishga yotdi, biroz ko'zi ilingan edi, men tiraqaylab qochdim. Ikki yuz qadamcha chopib borganimdan keyin boy uyg'onib, orqamdan quvlay boshladi. Men qochdim, u quvladi, men qochdim, u quvladi. Kechga yaqinlashib qolganda meni ushlay olmasligiga ko'zi yetib, orqasiga qaytdi. Men to'xtamasdan keta berdim, keta berdim. Dasht demasdan, cho'l demasdan keta berdim. Yurib-yurib, bir qishloqqa borib yetdim. Bir eshikni sekin taqillata boshladim. Ichkaridan:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Eshikni kim taqillatyapti? — degan bir xotinning tovushi eshitildi.

— Yanga, eshikni oching, — dedim. Xotin eshikni ochdi.— Mening hech kimim yo‘q, yanga, kechasi yotib qolishga joy bering, — deb yalindim. Xotin uyiga olib kirdi. Ovqatlandim. Keyin yotishga joy solib berdi. Ertalab turib ketmoqchi bo‘ldim.

— Shu uyda qolaqol, bizning hunarga yordam ber, — deb kampir bilan qizi yalinib meni olib qolishdi. Men ham shu uyning o‘g‘li bo‘lib qolmoqchi bo‘ldim. Keyin ularning hunarini surishtirib qarasam, hunarlari kafanchilik ekan. Kechasi mozorga borib yangi ko‘milgan go‘rlarni ochib, kafanlarini olib sotishar ekan.

Ertagi kuni kechasi kampir meni uyg‘otdi. Qo‘limga fonus berib:

— Yur men bilan birga, — dedi. Mozorga borib yetgandan so‘ng, kampir menga yangi bir go‘rni qazishni buyurdi. Men „Qazimayman“, deb tixirlik qilsam ham bo‘lmadi, bir balodan qutulib, ikkinchi baloga yo‘liqqanligimni angladim, kampir go‘rga tushganda, men qochdim. U orqamdan quvladi, men qochdim. Mozorma-mozor, tomma-tom qochmoqqa boshladim. Chopib ketayotganimda tap etib o‘raga tushib ketdim. O‘raning ichi keng va qorong‘i ekan. Juda qo‘rqib ketdim. Bir qo‘rqinchli tovush shivirlab, „sen kimsan?“ deb so‘radi. Men ham titragan holimda: „Sen kimsan?“ deb so‘radim. U javob bermadi. Bir soatcha o‘raning bir chetiga bekinib o‘tirdim. Keyin qorong‘iga ko‘zim o‘rganib, bir odamni ko‘rdim: o‘zimning kim ekanligimni, qanday qilib bu yerga tushib qolganligimni noma’lum kishiga hikoya qildim. U ham gapira boshladi:

— Bu yer o‘ra emas, tegirmon. Men ham tuynukdan tushib ketdim. Bu yerdan chiqib ketish qiyin emas, mana bu qopdagi unlarni taxlab zinapoya qilamiz, keyin chiqamiz, — dedi. Qoplardan tuynukka zinapoya qildik. Zinapoya bitgandan so‘ng, „Men oldin chiqaman“, deb u aytdi, „Men oldin chiqaman“, deb men aytdim. Yarim soatcha janjallashgandan so‘ng, uning oldin chiqishiga rozi bo‘ldim. U zinapoyadan chiqib ketishi bilan, zinapoya buzilib ketdi, tegirmonda yolg‘iz o‘zim qoldim. Tegirmonning bir chetiga biqinib o‘tirdim, shu mahalda tegirmonning eshigi „g‘iyt“ etib ochildi. Eshikdan ikki ayiq kirib keldi. Men juda qo‘rqib ketib, devorda turgan childirmani olib „dapir-dupur“ qilib chala boshladim. Ayiqlar qo‘rqib, u yoq-

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

dan-bu yoqqa yugura boshladilar. Men azongacha childirma chalib, ayiqlarni o‘ynatib chiqdim. Bir mahalda eshik yana „g‘iyt“ etib ochilishi bilan ayiqlar eshikdan chiqib qochib ketishdi. Eshikni ochgan kishi bir boy ekan. O‘n arava bug‘doy olib kelib, tegirmonda tortmoqchi ekan.

Men boyni bir qiziq holga solay, deb yugurib borib boyning yoqasidan ushladim-da, baqira boshladim:

— Men ayiqlarni o‘rgatayotgan edim, nima uchun mening ayiqlarimni qochirib yubording. Menga qancha ziyon qilding. Men xonga arz qilaman, — dedim. Boy qo‘rqib ketib:

— Bir arava bug‘doy beraman, — dedi. Ko‘nmadim. Ikki arava bug‘doy bermoqchi bo‘ldi, ko‘nmadim. O‘n arava bug‘doy bermoqchi bo‘ldi, „Xo‘p“ dedim. Yer oldim, uylandim, bug‘doylarni yerga sepdim, yaxshi dehqon bo‘ldim.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Eralixon va uch o‘g‘ri

Xivada Eralixon degan podsho o‘tgan ekan. U kechasi eski liboslar kiyib, shahar ko‘chalarini aylanar ekan. Bir kecha uch nafar o‘g‘riga uchrabdi. U o‘g‘rilarga o‘zining ham „o‘g‘rilik qilish“ maqsadida yurganini bildiribdi. O‘g‘rilarning har qaysisi o‘z san’atini bayon qilibdi. Birinchisi hayvon tilini biladigan; ikkinchisi qirq tomning tepasida yurib, qaysi birida oltin borligini biladigan; uchinchisi bir ko‘rgan kishini qirq yildan keyin ham taniydigan ekan. Bular Eralixonning hunarini so‘rabdilar. Eralixon:

— Mo‘ylovimni burab ishora qilsam, dorga osilayotgan kishi ozod bo‘ladi, — debdi.

To‘rtovi maslahatlashibdi. Eralixon podsho xazinasini teshish uchun maslahat beribdi.

To‘rtovi o‘rdaning tomiga chiqib, oltin tekshiruvchining ishorati bilan tomni teshibdilar. Shunda it hura boshlabdi. Sheriklaridan biri hayvon tilini biladigandan: „It nima deyapti?“ deb so‘rabdi.

— It „to‘rtovingdan biring Eralixon“, deyapti, — debdi u.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Ular e'tibor qilmay, xazina teshib to'rt yaxdon[1] oltinni ko'tarib, qabristonga borib eski go'rga joylabdilar.

Ularni qo'yib, Eralixon saroyga jo'nabdi. Saharda podsho xazinasiga kirib, olti yaxdon oltin o'g'irlanganini ko'ribdi.

Xazinachi ikki yaxdon oltinni o'ziga olib, olti yaxdon o'g'irlanganini Eralixonga xabar beribdi...

Eralixon tekshirib, o'sha kuni qabristondagi mazkur o'g'rilarni to'rt yaxdon oltin bilan o'rdaga keltirib dorga osishga hukm qilibdi. Shunda tanuvchi o'g'ri Eralixonga tikilib turib:

— Qani mo'ylovingizni burab, bir ishora qiling! — deganda, Eralixon kulib uchovini bo'shatib yuboribdi. Xazinachini esa dorga ostiribdi.

---

[1] **Yaxdon** — charmdan yasalgan sandiq.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Qaysi yerda chivin yo‘q

Burungi zamonda Husayn Boyqaro degan podsho yashagan ekan. Vaziri Sheraliga: „Qaysi yerda chivin bo‘lmaydi?“ deb savol beribdi. Sherali o‘ylanmasdan:

— Odam yo‘q yerda chivin bo‘lmaydi, — deb javob beribdi.

Shunday qilib, bular ikkisi otga minib, odam yo‘q yerlarni qidirib ketishibdi. Yo‘l yurib, yo‘l yursalar ham mo‘l yurib, bir sahroga chiqishibdi. Shu yerda biroz dam olmoqchi bo‘lib o‘tirishibdi.

Sherali choy qaynatibdi, ikkisi choy ichib o‘tirgan vaqtida bir chivin „viz“ etib Husayn Boyqaroning piyolasi yonidan o‘tib, etagiga qo‘nibdi. Husayn Boyqaro aytibdi:

— Sherali, odam yo‘q yerda chivin bo‘lmaydi degan eding, mana bu yerda chivin uchib yuribdi-ku, — debdi. Sherali:

— Ha, siz bilan biz odam emasmizmi? — deb javob beribdi.

Husayn Boyqaro Sheraliga kissasidan ming tilla chiqarib beribdi.

— Barakalla, rost aytding, — debdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Bajarib bo‘lmaydigan buyruq

Bir podsho xizmatchisiga bir imorat qilib berishni buyuribdi:

— Imorat shunday bo‘lsinki, tepasi osmonga, tagi yerga tegmasin, — debdi. Xizmatkor javob berib:

— Xo‘p, mayli, men buni bajaraman. Siz ham mening ishlaydigan joyimga suyuq ovqat olib borish uchun bir savat to‘qitib bering, — debdi. Podsho o‘ylanib qolibdi. Xizmatkor:

— Ha, nimaga o‘ylanib qoldingiz? — debdi. Podsho:

— Savatda suyuq ovqat turadimi, ahmoq? — deb urishibdi. Xizmatkor:

— Ey, podshohim, bo‘lmasa, havoga imorat qurib bo‘ladimi? — deb javob bergan ekan.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Lofchining qizi

Toshkentda bir lofchi bor ekan. U o‘zini birdan-bir lofchi deb bilar ekan. U bir kuni Qo‘qonda ham bir katta lofchi borligini eshitibdi. Uni mot qilib kelish uchun Qo‘qonga jo‘nabdi.

Qo‘qonga borgach, lofchining uyini qidirib topibdi. Eshikni taqillatibdi. Lofchi uyida yo‘q ekan. Ichkaridan bir qiz chiqib:

— Dadam uyda yo‘q, nima ishingiz bor edi? — deb so‘rabdi.

— Ha, men Toshkentdan otangizni ziyorat qilish uchun keldim. Otangizga sovg‘a qilib bir guldor gilam ham olib kelgan edim. Shu gilamning bir uchi Toshkentda, bir uchi shu yergacha yetadi. Shuni qabul qilib oling, — debdi. Qiz:

— Ha, juda yaxshi, mayli, keltira qoling. Bizning ham bir gilamimiz bor edi. Yaqinda cho‘g‘ tushib kuyib qoldi. Shunga yamoq bo‘lar, — debdi.

Buni eshitgan Toshkentlik lofchi:

— Hali qizi shunday lofchi bo‘lsa, otasini ko‘rib nima ham qildim, — deb o‘z shahriga qaytib ketgan ekan.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

O‘g‘ri va podshoh

Bor ekan, yo‘q ekan, avvalgi zamonda bir podsho bo‘lgan ekan. Podshoning xazinasiga bir o‘g‘ri kiribdi va qo‘lga tushib qolibdi. Podsho o‘g‘rini shahar chekkasidagi bir daryo bo‘yiga olib borib, qopga solib, avval toza urishni, so‘ng daryoga tashlab yuborishni buyuribdi. Podshoning buyrug‘iga binoan, o‘g‘rini daryo bo‘yiga olib borishibdi. Lekin uni urgani kaltak topisha olmabdi. Qopning og‘zini bo‘g‘ib qo‘yib, kaltak qidirib ketishibdi.

Shu vaqtda ikkinchi bir shaharning podshosi o‘zining vazirlari bilan ovga chiqib qaytayotgan ekan, daryo bo‘yidagi qopning ichida birovning hadeb: „Men dengizlar podshosi bo‘lmayman“, degan ovozini eshitib qolibdi. Buni eshitgan podsho yaqin kelib, voqeani aniqlamoqchi bo‘libdi va qopdagi odamdan nima uchun uni qopga solganlarini so‘rabdi. O‘g‘ri: „Meni dengizlar podshosi bo‘lasan, degan edilar, unamadim, shundan so‘ng meni qopga solib, daryoga tashlaymiz, deb bu yerga olib keldilar“, debdi. Podsho:

— Bo‘lmasa sen qopdan chiqqin, men sening o‘rningga qopga tushay, yer yuzida podsho bo‘ldim, endi dengizga ham o‘zim podsho bo‘lay, —

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

debdi. Podsho vazirlarini shaharga jo‘natib, o‘zi qolib qopga tushibdi. O‘g‘ri qutulganiga xursand bo‘lib, qocha boshlabdi.

Kaltak qidirib ketgan odamlar kelib, qopdagi podshoni urib-urib, dengizga tashlabdilar.

O‘g‘ri qochib ketayotib juda ko‘p qo‘y boqib yurgan cho‘ponga duch kelibdi. Cho‘ponlar qo‘ylarni boqish uchun yana bir odam istab yurgan ekanlar. O‘g‘ri shunga to‘g‘ri kelibdi va cho‘pon bo‘lib, ular bilan qo‘y boqa boshlabdi. Bir necha kun o‘tibdi. Bir kun sahar paytida, hamma uxlayotgan vaqtda bir o‘zi qo‘ylarni haydab shaharga kirib boribdi. Buni ko‘rgan vazir hayron qolib, undan:

— Seni podsho o‘limga buyurgan edi. Sen bo‘lsang shuncha qo‘yli bo‘lib qolibsan, bu ish qanday bo‘ldi? — deb so‘rabdilar. O‘g‘ri:

— Meni qopga solib daryoga tashlagan edilar, daryo tagiga tushsam juda ko‘p qo‘ylar yurgan ekan, zo‘rg‘a shularni haydab chiqardim, qolganlari esa, daryo ichida qoldi, — debdi.

Qolgan qo‘ylarni olib chiqish maqsadida podsho bilan vazir o‘zlarini daryoga tashlabdilar.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Zulm va qasos

Bor ekan, yo‘q ekan, bir podsho bor ekan. Uning bitta-yu bitta qizi bor ekan. Kunlarning birida podshoning xotini vafot etibdi. Undan bitta tilla kavush qolibdi. Podsho mamlakatga jar soldiribdi: „Ushbu tilla kavush kimga to‘g‘ri kelsa, podsho o‘shani xotinlikka oladi“, debdi.

Sovchi ayollar tilla kavushni ko‘tarib eshikma-eshik yurib, butun mamlakatdagi qizlarga kiygizib chiqibdi, kavush hech kimning oyog‘iga to‘g‘ri kelmabdi.

Sovchilar podsho huzuriga kelib: „Hurmatli podshohim! Biz kirmagan eshik, u kavushni kiymagan qiz qolmadi, endi nima qilamiz“, debdilar. Shunda podsho:

— Rost aytinglar, hech kim qolmadimi? Nahotki mening mamlakatimda shu kavush to‘g‘ri keladigan qiz topilmasa,— debdi.

Sovchi xotinlardan biri:

— Hurmatli podshohim! Faqat o‘zingizning qizingiz qoldi, xolos, — debdi.

Podsho:

— Boringlar, kavushni qizimga kiydirib ko‘ringlar, agar oyog‘iga to‘g‘ri kelsa, qizim bo‘lsa ham olaman, — debdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Xotinlar saroyga kirib, kavushni qizga kiydiribdilar. Kavush qizga to‘g‘ri kelibdi. Shundan keyin podsho o‘z qizini olish uchun qirq kecha-yu qirq kunduz to‘y qilishga buyruq beribdi. Podsho to‘y-tomoshada kayf-safo surib tursin. Endi gapni qiz bechoradan eshiting:

Qiz nima qilishini bilmay kecha-kunduz yig‘labdi. Oxiri o‘zicha bir fikrga kelibdi. Qiz turgan saroyga yaqin joyda kigiz bosuvchi usta bor ekan. Qiz otasining xazinasiga kirib, ikki yengiga tilla to‘ldirib chiqibdi va kigizchi kishining uyiga boribdi. Unga boshidan o‘tgan voqeani yig‘lab aytibdi. Keyin u kishidan: „Menga bitta odam qiyofasida kigiz to‘qib bering. Men uni kiyib shahardan tashqariga chiqib ketaman. Bu ishni faqat siz biling-u, men bilay. Kigiz qirq kungacha bitsin“, deb iltimos qilib, ikki yengidagi tillani usta oldiga to‘kibdi. Usta ham qizning ko‘z yoshlariga rahm qilib, rozi bo‘libdi.

Kunlardan kun o‘tib, bir kam qirq kunda kigiz tayyor bo‘libdi. Qiz kigizni kiygach, odamga ham, maxluqqa ham o‘xshamay qolibdi. Qiz kechasi hech kimga bildirmay kigizni kiyib, shahardan chiqib ketibdi. Bechora qiz cho‘l kezib, tog‘lar oshib, daryolar kechib, uzoq tun va kunlar horib-charchab yo‘l yuribdi. Yo‘l yursa ham mo‘l yurib, boshqa bir mamlakatga kirib boribdi. U mamlakatning bir yosh shahzodasi bo‘lar ekan. U qush uchirib, shu qush kimning boshiga qo‘nsa, shuni olaman, degan ekan. Kigiz kiygan qiz bir qishloqqa yaqin yerda charchab dam olib o‘tirgan ekan. Shu payt shahzodaning qushi kelib kigiz ustiga qo‘nibdi. Shahzoda bir necha yigitlar bilan qushning orqasidan quvib kelsa, qush bir narsa ustiga qo‘nib turgan emish. U na odamga, na maxluqqa o‘xshar emish. Shahzoda hayron bo‘lib, achchiqlanib, qushni boshqatdan uchiribdi, qush yana kelib kigiz ustiga qo‘nibdi. Yigit qushni yana boshqatdan uchiribdi. Qush aylanib yana o‘sha kigiz ustiga qo‘nibdi. Oxiri shahzoda kigizga: „Ey, sen kimsan? Odam desam hamma joying yung, hayvon desam odam shaklidasan, ins-jins desam g‘oyib bo‘lmaysan? O‘zing nimasan?“ deb so‘rabdi. Shunda kigiz: „Xudo meni shunday tusda yaratgan, men shunday qo‘rqinchli bo‘lganim bilan kishiga zarar yetkazmayman. Agar iloji bo‘lsa meni hovlingizga olib ketsangiz, xizmatingizni qilib yuraman“, debdi.

Shahzoda uyiga kelib bo‘lgan voqeani onasiga aytibdi. Onasi:

— Mayli, bolam, u ham xudoning maxluqi, olib kelaqol; suv tashib, o‘tin yorib yurar, — debdi. Shahzoda kigiz qizni uyga olib kelibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Qiz bechora kechgacha tinmay xizmat qilib yura beribdi. Uni hech kim nazar-pisand qilmabdi, u ham ko‘pchilikka aralasha olmabdi, uni ko‘rgan odam qo‘rqar ekan. Agar shahzodaning uyiga biror odam kelsa yo qo‘shnilardan biri chiqib qolsa, „kigizlaringni ushlab turinglar“, der ekan.

Shahzoda: „Men qush uchirsam-u, kigizga qo‘nsa, demak, mening baxtim yo‘q ekan. Men endi dunyodan shunday o‘taman“, deb o‘z podsholigini qila beribdi.

Kunlarning birida boshqa bir mamlakatning podshosi shahzodani to‘yga taklif qilibdi. Shahzoda kigiz qizga uy poylatib, onasi va ukalari bilan to‘yga ketibdi. Ular jo‘nagandan keyin, qiz ham darrov kigizni yechib, ular orqasidan o‘zini ko‘rsatmay keta beribdi. To‘yxonada shahzodani juda izzat-hurmat bilan kutib olishibdi. Ularning orqasidan qiz ham kirib boribdi.

Qizni shahzodadan ham ortiq hurmat bilan kutib olishibdi. To‘yda o‘tirgan yigitlar qizning qaysi mamlakatdan kelganini bilishga shoshilibdilar. Qizni olib kirib eng yuqori joyga o‘tqazibdilar. Uning oldiga turli xil noz-ne’matlar va taomlar qo‘yibdilar. Butun uy ichidagilarning ko‘zi qizda bo‘libdi. Qiz o‘tirgan uyda shahzoda va uning onasi ham o‘tirgan ekanlar. Lekin ular qizni tanimabdilar. Shahzoda esa qizni sevib qolibdi. Qiz bilan so‘zlashib, unga bitta uzugini beribdi. To‘y tugamay turib, qiz ketishga ruxsat so‘rabdi. Lekin unga javob berishmabdi. Qiz: „Vaqtli ketmasam bo‘lmaydi“, deb turib olibdi. Ular: „Birontamiz olib borib qo‘yaylik“, desalar ham ko‘nmabdi. Nihoyat, qiz o‘rnidan turib, to‘ydagilar bilan xayrlashib uyga qaytibdi. Qizning chiqib ketishi bilanoq, „Go‘zal qizdan ortib qolgan taomlar tabarruk“ deb, bir uy xotin dasturxondagi taom va mevalarni bo‘lishib olibdi. Qiz uyga kelib darrov kigizni kiyib olib, hech narsa ko‘rmaganday uy ishlari bilan shug‘ullanib o‘tiribdi. Kech bo‘lgach, shahzoda bilan onasi ham to‘ydan qaytishibdi. Shahzoda bilan onasi to‘yxonada ko‘rgan go‘zal qizni bir-biriga maqtashibdi. Shahzoda: „Men o‘sha qizni qayerdan bo‘lsa ham topib kelaman“, degan qarorga kelibdi. Shahzodaning onasi:

— Kigiz, mana bu dasturxon ichida senga har xil taomlar olib keldim. To‘yga bir chiroyli qiz keldiki, uning go‘zalligi hech kimda yo‘q. Qani o‘shanday kelinim bo‘lsa. Undan qolgan ovqatlar senga tabarruk, deb olib keldim, dasturxonni ochib, olib yegin, — debdi.

Ertasiga ertalab shahzoda qizni axtarib ketmoqchi bo‘lib, yo‘l uchun non buyuribdi. Shahzodaning onasi non yasayotganda, kigiz:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi



«Rustam» ertagiga ishlangan rasm

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Jon buvi, men ham non yasay, — debdi. Shunda buvisi:

— Qo‘y, sen non yasama! Sening qo‘lingda yasalgan nonni kim yeydi! — debdi. Kigiz ko‘nmabdi: „Hech kim yemasa, mayli, o‘zim yeyman“, debdi-da, bitta non yasab, uning ichiga qo‘lidagi uzugini solib qo‘yibdi. Shahzoda safarga tayyorlanibdi. Uning jo‘nashi oldidan kigiz:

— Aka! Nonning ichida bitta men yasagan non bor, o‘shani yemasdan teng ikkiga bo‘lib suvga tashlang, — debdi.

Shundan keyin shahzoda ona va ukalari bilan xayrlashib safarga jo‘nabdi. U yo‘l yurib, yo‘l yursa ham mo‘l yurib, yetti kun deganda bir tog‘ga yetib boribdi. Nihoyatda charchab, qorni ochgan ekan. Bir yerga o‘ltirib, biroz ovqatlangisi kelibdi. Xurjunidan non olmoqchi bo‘lib qo‘lini solgan ekan, qo‘liga yung aralashgan non chiqib qolibdi. Shahzoda nonni teng ikkiga bo‘lsa, o‘rtasidan uzuk chiqibdi. Shahzoda uzukni tanibdi. Sevinib orqasiga qaytibdi. Yetti kun deganda uyiga qaytib kelibdi. Safardan tez qaytgan shahzodani ko‘rgan onasi hayron bo‘libdi. Safardan tez qaytish sababini onasi so‘ramabdi. Shahzoda ham sirni onasiga aytmabdi. Ertasiga ertalab taxtga chiqish oldidan:

— Ona, mastava qiling-da, kigiz qizdan chiqarib yuboring, — debdi.

— Voy, bolam, uning qo‘lidan qanday ovqat ichasan, o‘zim olib chiqib beraman yoki o‘z ukang olib chiqib berar, — debdi. Shahzoda:

— Yo‘q, ona, aytganimni qiling, — debdi-da, taxtga chiqib ketibdi.

Shahzodaning onasi mastavani tayyorlab, kosaga quyib, kigizga olib chiqib berishni buyuribdi, kigiz ko‘nmabdi. Onasi: „Men aytgandan keyin olib chiqib ber!“ debdi. Oxirida qiz shahzodaga ovqat olib chiqishga majbur bo‘libdi. Zinadan chiqayotganida ataylab oshni to‘kib yuboribdi va uyga qaytib kiribdi. Kampir kosaga yana osh quyib beribdi. Kigiz qiz bu safar ovqatni to‘kmay taxtga olib chiqib shahzodaga beribdi. Shahzoda qizdan kigizni yechishni so‘rabdi. Qiz ko‘nmabdi. Shahzoda yana qayta-qayta iltimos qilibdi. Oxiri qiz yechinishga majbur bo‘libdi. Shunda shahzoda ko‘rsa, to‘yda ko‘rishgan o‘sha chiroyli qiz. Shunda sevinib ketibdi. O‘z baxtidan xursand bo‘lib, qiz bilan ancha vaqtgacha suhbatlashib o‘tiribdi. Kigizning kechikkanidan xavotirlangan ona kichik o‘g‘lini uning orqasidan chiqaribdi. Bola eshik tirqishidan qarasa, akasi to‘yda bo‘lgan chiroyli qiz bilan mastava ichib o‘tirgan emish. Bola darrov

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

orqasiga qaytib, onasiga xabar beribdi. Buni eshitgan ona quvonib tashqariga chiqib, taxtga qarasa, o‘sha chiroyli qizni ko‘ribdi. Ona qiz bilan quchoqlashib ko‘rishibdi. Qiz boshidan o‘tgan voqealarni avvalidan oxirigacha so‘zlab beribdi. Shahzoda qirq kecha-yu qirq kunduz to‘y qilib, qizga uylanibdi.

Shunday qilib, ular shod-xurram hayot kechirib tursinlar, endi ikki og‘iz gapni qizning otasi — podshodan eshiting.

Qirq kecha-yu qirq kunduz to‘y-tomoshadan keyin podsho qarasa, qiz yo‘q. Butun shaharga jar soldirib, qizni qidirtirib, uni hech qayerdan topolmabdi.

Qizni qidirib, qirq yigiti bilan shahardan chiqib ketibdi. Ular yo‘l yursa ham mo‘l yurib, kunlarning birida, oziq-ovqatlari tugab, o‘zlari nihoyatda charchab qolibdilar. Podsho qirq yigiti bilan qirq o‘g‘riga duchor bo‘libdi. Podsho yigitlari o‘g‘rilar bilan urisha boshlabdi. Shunda podsho qochib qolibdi. O‘g‘rilar esa podshoning yigitlarini qirib tashlabdi.

Podsho qalandar sifatida shaharma-shahar kezib, kunlardan bir kun qizining shahriga borib qolibdi. U shaharda qalandarlik naqshini aytib yura beribdi. Bir kun qiz qalandarning dong‘ini eshitibdi. Shahzodadan qalandarni o‘z saroyiga keltirishni iltimos qilibdi. Shahzoda qalandarni chaqirtiribdi. Qiz qalandarni ko‘rishi bilanoq o‘z otasi ekanini bilibdi-da, darhol jazolashni buyuribdi. Shahzoda ko‘nmabdi. Lekin qiz otasining o‘z qiziga qattiq zulm qilganini yana qayta gapirib beribdi-da, uni jazolashga buyuribdi.

Shunday qilib, qiz shahzoda bilan umr kechirib, murod-maqsadiga yetibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Uch yolg‘onda qirq yolg‘on

Bor ekan, yo‘q ekan, och ekan, to‘q ekan, bo‘ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, g‘oz karnaychi ekan, o‘rdak surnaychi ekan, qarg‘a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan...

Qadim zamonda bir podsho bor ekan, uning bo‘yi yetgan qizi bor ekan. Podsho qizini erga bermoqchi bo‘libdi. Har yurtdan shahzodalar, bekzodalar talabgor bo‘lib kelibdi. Qiz rozi bo‘lmabdi. Podsho qizini chaqirib so‘rabdi:

— Ey, nuri diydam, ko‘zimning oq-u qorasi, ham o‘g‘lim, ham qizim sensan. Hamma podsholarga xabar berdim. Ixtiyoringni o‘zingga qo‘ydim. Nima sababdan kelgan shahzodalarning hech birini xohlamading.

Qiz aytibdi:

— Ey, padari buzrukvorim, sizning davlatingizda yeyish-ichishdan kamligim yo‘q, mening bir shartim bor, kim shu shartimni bajarsa, o‘shanga bering.

— Sharting nima?

— Shartim shuki, hàr kim uchta yolg‘on topsin, har qaysisida qirqta yolg‘on bo‘lsin, mana shuni kim do‘ndirib aytsa, meni o‘shanga bering.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Podsho taxtga chiqib, vazir-vuzarolarini yig‘ib: „Har kim uch yolg‘on topsa, har qaysisida qirq yolg‘on bo‘lsa, qizimni o‘shanga beraman. Xaloyiqqa jarchi qo‘yinglar“, debdi.

Vaziri a’zam podshoga qulluq qilib. Eron-u Turonga, Farang-u Afg‘onga jarchi jo‘natibdi. Buni eshitib, „Yolg‘onni biz boplaymiz“ deb, har yoqdan shahzoda va bekzodalar kelaveribdilar. Podsho jami ulamo, fuzalolarini yig‘ib: „Kimki uch yolg‘onda qirq yolg‘onni topib kelsa, yolg‘on bo‘lsa, yolg‘on deysizlar, rost bo‘lsa, rost deysizlar, agar rostini yolg‘on desangizlar boshingizni kesib, molingizni talataman“, debdi.

Manaman degan yigitlar topib kelgan yolg‘onni aytibdi, gapining burdi bo‘lmabdi. Podsho ulamolaridan: „Yolg‘onmi, rostmi“, deb so‘rasa, ulamolar:

— Taqsir, bu gap dunyoda bor, — der ekanlar.

Necha-necha podsholar, shahzodalar kelib qaytib ketibdi. Shu shaharda bir kampirning bir o‘g‘li bor ekan. Har kimning eshigida xizmat qilib yurar ekan. Shu kunlari tog‘ga o‘tinga chiqib ketgan ekan, kelib qolibdi. Kampirdan qizning shartini eshitib:

— Voy, la’natilar, shu ham gap bo‘ldimi, men borib, gapni do‘ndirib, podshoning qizini ko‘ndirib olmasam, yigit emasman, — deb podshonikiga qarab, jo‘nab qolibdi. Onasi esa:

— Hoy bolam, onang o‘rgilsin, borma! Aziz boshingni bir baloga solma. Jon bolam, qayt! — deb orqasidan baqirib qolibdi.

— Qo‘rqmang, men darrov qaytaman, — deb yigitcha shattak olib jo‘nab ketibdi. Arkning tagiga yetibdi.

— Ha, nimaga kelding? — deb darvozada turganlar do‘q qilib uni kirgizmabdilar. Yigit aytibdi:

— Podshoga arzim bor.

— Nima arzing bor, yo sen ham yolg‘onni topdim, deb keldingmi? Ketaver, yo‘lingdan qolma! Bekorga o‘lib ketasan.

— Podshoning qizini havas qilmay o‘l, — deb yasovullar quvlab solibdi.

Yigit:

— Bizning xo‘jayinning podshoga to‘laydigan ikki yuzta qo‘yi bor ekan, shuni aytgani keldim, — deb qo‘l qovushtirib turibdi. Bir mahram yugurib kirib:

— Taqsir, bir yigit keldi, „Xo‘jayinimning podshoga to‘laydigan ikki yuzga yaqin qo‘yi bor, shuni aytgani keldim“, deydi, — debdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Chaqir, bu yoqqa! — debdi podshoh.

— Kimsan, xo‘jayining kim?

Yigitcha cho‘kka tushib gap boshlabdi:

— Taqsir, men kambag‘al, yetimman. Otadan bitta edim, o‘la-o‘la uchta qoldik. Uchala og‘a-ini birov-birovimizni bilmas ekanmiz. Bir kun topishib, so‘rashib qoldik. Bunday qarasam, birimizning yoqamiz yo‘q, birimizning yengimiz yo‘q, birimizning etagimiz yo‘q. „Ko‘r ko‘rni qorong‘ida topar“, deb uchalamiz topishib, bir ulfat bo‘lib, yo‘ldan yurmay, chetga chiqmay, ketaverdik. Bunday qarasak, bir yerda uchta tanga yotibdi. Ikkitasi siyqa-siyqa bo‘lib ketgan, bittasining muhri yo‘q. Muhri yo‘g‘ini etagi yo‘qning bariga solib ketaverdik. Yo‘l yurdik, yo‘l yursak ham mo‘l yurdik, borib-borib bir soyga tushdik. Soyga qarasak, uchta baliq ko‘rindi, ikkitasi o‘lik, bittasining joni yo‘q. Joni yo‘g‘ini olib, etagi yo‘qning bariga soldik. Soydan chiqib yo‘lga tushdik, ketaverdik-ketaverdik. Oldimizdan uchta uy chiqdi: ikkitasining tomi yo‘q. Bittasi yap-yalang‘och. Yap-yalang‘ochiga kirib borsak, uchta qozon turibdi, ikkitasi ilma-teshik, bittasining tagi yo‘q. Tagi yo‘g‘iga etagi yo‘qning baridagi joni yo‘q baliqni solib pishirmoqchi bo‘ldik. Changalzorni axtarib bir bog‘ o‘tin topolmay, o‘t yoqmasdan baliqni pishirdik, o‘tinni ayamay yoqa beribmiz, yoqa beribmiz, suyaklari hil-hil bo‘lib ketibdi, go‘shtiga issiq o‘tmabdi. Uch og‘ayni yeyaveribmiz, yeyaveribmiz, qornimiz to‘yib ketibdi. Ketamiz deb eshikdan sig‘may, teshikdan chiqib jo‘nab qoldik. Yo‘l yurdik, yo‘l yursak ham mo‘l yurdik. Bir cho‘lga chiqib qoldik. Bir joyda bitmagan o‘tning tagida tug‘magan quyonning bolasi yotgan ekan. Ekilmagan tolning kesilmagan poyasidan bir ho‘l govronni yasab, sob qildik, uch dumalab yiqildi, ushlab so‘yvordik, olti botmon yog‘ qildi, olti botmon go‘sht, go‘shtini pishirmay, qotirmay uchalamiz yeb bo‘ldik. Ikkitamiz to‘ymadik, bittamiz och qoldik, ikkita akam xafa bo‘lib, arazlab ketib qoldi, „yog‘ o‘zimga qoldi“ deb choriqni yechib, olti botmon yog‘ bilan choriqni moyladim, bittasiga yetdi, bittasiga yetmadi. Charchagan ekanman, uxlab qolibman. Bir vaqt g‘ovur-g‘uvur to‘polon paydo bo‘ldi. Sakrab o‘rnimdan tursam, moylangan chorig‘im bilan moylanmagan chorig‘im mushtlashib, solishyapti. Ikkovining jag‘iga bir tarsakidan urib, tag‘in yotib uxladim. Bir vaqt uyg‘onib qarasam, moylangan chorig‘im mening choponimni ustimdan tortib olib, o‘zining ustiga oy-qora qilib yopinib, uxlab qolibdi, moylanmagan chorig‘im arazlab ketib qolibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Moylangan chorig'imni uyg'otib kiyib oldim, etagi yo'q choponni bar urib uyga keldim. Men ketayotganda uyda kampir onam bilan bir xo'rozim qolib edi. Borsam na choriq bor, na kampir bor, na xo'roz bor. „Bu qanday mushkul ish bo'ldi, endi, bularni qayoqdan topdim", deb dargohingizga arz qilgani kelgan edim. Darvozada turgan amaldorlaringiz kirgizmadi, — deb boshini solib turibdi.

Podsho ulamo-fuzalolariga qarabdi. Ular o'rnidan turib podshoga qulluq qilib:

— Taqsir, bu yigitning hamma gapi yolg'on. Lekin bu yigit qo'yni ham yo'qotdimga chiqaradi, — debdi. Yigit gap boshlab ketibdi:

— Yo'q, taqsir. Amaldorlar dargohingizga kirgizmagandan keyin ko'nglim buzilib, kampir bilan xo'rozni, bir poy choriqni izlab ketib qoldim. Yo'l yurdim, yo'l yursam ham mo'l yurdim, bir qishloqqa yetdim.

Axtarib, surishtirib yurib, xo'rozni topib oldim. Bir boynikida dehqonchilik qilib yurgan ekan. Ko'rishib, omonlashib, hol-ahvol so'rasam, olti oy ishlagan haqi bitta juvoldiz bo'libdi, uni ham xo'jayini nasiya qilibdi. Xo'jayini bilan urishib, janjallashib, juvoldizni undirib oldim, xo'rozga: „Yur, ketamiz", desam, „Tag'in olti oyga yurganman, uch oy o'tdi, qolgan uch oyini bitirib, haqimni olib, o'zim boraman", dedi. Juvoldizni olib, xo'roz bilan xayrlashib uyga kelsam, uy ham yo'q. Toza diqqat bo'lib, uyni, kampirni, bir poy choriqni izlab chiqib ketdim. Tepaga chiqib qaradim, ko'rinmadi, qirga chiqib qaradim. Tog'ga chiqib qaradim, ko'rinmadi. Qaytib bir soyga tushdim. Juvoldizni yerga sanchib, ustiga chiqib qarasam, Sirdaryoning bo'yida kir yuvib o'tiribdi. Juvoldizni olib necha tog', necha qir, necha yo'l oshib, oldiga bordim. Meni yo'qotib qo'yib, onam birovnikida cho'rilik qilib yurgan ekan. „Yuring ketamiz", desam, „Haqimni olmay ketmayman", dedi. Uch yilda ishlagan haqi uch oylik rizqi bo'libdi. „Sen ketaver, yana uch oy xizmat qilib, o'zim boraman", dedi.

Etagi yo'q choponimni bar urib, peshonamga bir chertib, kampirning oldidan burilib, daryoning ko'prigiga qarab yo'l oldim. Borsam, daryo toshib, ko'prikni suv olib ketibdi. Saratonning kuni terlab, tashna bo'lib qolibman. Suv ichay desam, daryo muzlab yotibdi, toshloqda bitta kesak ham topolmay kalla bilan muzni urdim, muz yorildi, kallamni muzga tiqib suvdan ichib jo'nadim. Bir vaqt ketaturib, juvoldizim esimga tushib qoldi. Daryodan suv ichganimda o'sha yerda qolaveribdi. Qaytib daryoning bo'yiga keldim, qarasam, juvoldiz yo'q. „Endi bundan ham ajraldik",

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

deb kampirning oldiga bordim. Borsam kampirning uch oyi bitgan ekan. Xo‘jayinidan haqini talab qilsa, xo‘jayini: „Senga ham haqmi?“ deb, kampirni urib, o‘ldirib qo‘yibdi. Dod-faryod qilib: „Qanday mushkul kunga qoldim“, deb dargohingizga arz qilgani keldim. Darvozada turganlar kirgizmadi, — deb boshini solib turibdi. Podsho ulamolariga qarabdi, ulamolari yigitga qarabdi. Yigit podshoga qarabdi. Ulamolardan biri turib, podshoga qulluq qilib:

— Taqsir, bu yigitning gapiga ishonmang, qo‘yni so‘rang, shu yigit bo‘ladigan bo‘lsa, sal turib qo‘yni ham „yo‘qoldi“, „o‘lib qoldi“ga chiqaradi, — deb turibdi. Yigit gapga kirib:

— Yo‘q, taqsir, — debdi, — dargohingizga kirgizmagandan keyin, o‘zim borib chatoqlik qilib ko‘rayin, deb kampirni o‘ldirgan xo‘jayinning oldiga bordim. „Kampirning haqini ber, o‘ligining xunini ber“, deb yoqasidan sudrab xalqning oldiga olib chiqdim. Ko‘pchilik o‘rtaga tushib bazo‘r bir eshak undirib berdi. Eshakni minib qaytib kelayotsam, yo‘ldan qirq karvon o‘taverdi. Karvonboshi menga qarab: „Huv yigit, eshaging yag‘ir bo‘lib qolibdi. Tushib to‘qimini boshqatdan yaxshilab urib ol“, dedi. Tushib qarasam, yelkasi o‘yilib ketibdi.

„Ho‘v aka, bunga nima dori“, desam, u „Yong‘oq dori, mana shu yong‘oqni kuydirib, yag‘iriga qo‘ysang, tuzaladi“, deb qo‘limga bitta yong‘oq berdi. Yong‘oqni kuydirib, eshakning yag‘iriga qo‘ydim, to‘qimni urayin deb tursam, yag‘irdan yong‘oq ko‘karib chiqib kelyapti. Hash-pash deguncha ko‘tarilib ketib, gullab tuga boshladi. Bunday qarasam, pishib qolibdi. „Ustiga chiqib qoqsam, eshakning beli mayib bo‘lar, buni kesak bilan urib qoqib olayin“, deb eshakni bir shudgorga olib keldim. Kesak ko‘p, bilakni shimarib olib, shu kesakni otaman... na otgan kesagimning bittasi qaytib tushadi, na bitta yong‘oq tushadi. Men ham charchamay otaverdim. Bir vaqt shudgorda kesak qolmadi, endi o‘zim chiqmasam bo‘lmadi“, deb yong‘oqning ustiga chiqsam, uch botmon shudgor bo‘b qolibdi, bir chekkasida shildirab suv oqib turibdi. „Zap tarvuz ekadigan yer bo‘libdi“, deb tarvuz ekib qo‘ydim. Har tarvuzlar bo‘ldi deng, quchoqqa sig‘maydi. Suvning bo‘yiga o‘tirib, tarvuzning bittasini so‘ymoqchi bo‘ldim. Pichoq bilan ozgina chaqmoqlab, chaqmoqlaganimni pichoqning uchi bilan turtib olaman degan edim, o‘yilib pichoq tarvuzning ichiga tushib ketdi. Engashib olmoqchi edim, o‘zim ham tushib ketdim. Pichoqni izlab yursam bir odam yo‘liqdi: „Aka, yo‘l-po‘lda bitta pichoq ko‘rinmadimi“, desam, „Hali bitta pichoqni

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

qidirib yuribsanmi, biz qirqta karvon edik, har birimizning qirqtadan tuyamiz bor edi. Yo‘qotib topolmay yuribmiz“, dedi.

Bu mushkulni yechish uchun ham dargohingizga arz qilib keldim, — deb boshini solib turibdi. Podsho o‘ylab qolibdi. Ulamolardan bittasi turib, podshoga qulluq qilib:

— Taqsir, bu yigitning yo‘qolgan narsalarini xazinangizdan berib jo‘natvoring, — debdi.

Podshoning qizi eshikning orqasidan quloq solib turgan ekan. Qiz otasining oldiga chiqib:

— Mening uch shartimni shu yigit bajardi, shunga tegaman, — debdi.

Shunda yigit irg‘ib o‘rnidan turib, podshoga ta’zim qilib:

— Taqsir, falon tog‘da falonchi boyning qo‘yini boqdim, o‘zimning hisobimda haqim ikki yuz qo‘y bo‘ldi. Xo‘jayinim shu qo‘yni bermay, meni haydab yubordi. Podshohim, siz undirib olasiz, shu ikki yuz qo‘yni to‘yonaga qo‘shdim, — debdi.

Podsho to‘y-tomosha qilib, qizini yigitga beribdi. Bular murod-maqsadiga yetibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Rustam

Zabiliston mamlakatida Kayoniy avlodidan bo‘lgan Somi Narimon degan podsho o‘tgan ekan. O‘n yetti xotin olsa ham bola ko‘rmagan ekan. Ko‘hiqofdan Malika ismli yana bir xotin olibdi. Xotini homilador bo‘libdi. Kanizak Somi oldiga borib:

— Ey, podsho, shu vaqtgacha o‘g‘il ko‘rganingiz yo‘q. Agar xotiningiz o‘g‘il tug‘sa qirq kun chillasi chiqquncha sizga ko‘rsatmaymiz, — debdi.

Somi Narimon:

— O‘g‘il tug‘sa, bir yilgacha ko‘rsatmasangiz ham mayli, — debdi.

Vaqt-soati yetib, Malika bir o‘g‘il tug‘ibdi. Kanizak bolani qo‘liga olib qarasa, kuchuk bolasiga o‘xshaydi. Kanizak bilan Malika: „Somi ko‘rsa ikkalamizni ham nimta barobar qilib o‘ldiradi“, deb qo‘rqishibdi. Tong otibdi. Kanizak Somidan suyunchi olibdi. Somi Narimon:

— Va’dam va’da, qirq kungacha bolani ko‘rmayman, — debdi. Malika bilan kanizak mahramni chaqirib:

— Ey, mahram, kimning xotini o‘g‘il tug‘gan bo‘lsa olib keling, — deb bir hovuch tilla beribdi. Mahram novvoylar oqsoqolining xotini tug‘ganligini bilib, borib bolani so‘rabdi... Xotin: „Oldin tillani olib

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

keling, keyin bolani beraman“, debdi. Mahram kanizakdan bir tuynok[1] tilla olib kelib, novvoyning oqsoqoliga beribdi. Mahram bolani olib kelib kanizakka topshiribdi. Kanizak yaxshi, xushsalobat bolani Malikaning qo‘yniga solibdi. Malika o‘z o‘g‘li bechora Zolni yetimcha qilib bag‘ridan olib yerga tashlabdi. Kanizak Zolni „Daryoyi Nilga tashlab yuboring“, deb mahramga beribdi, Malika bilan kanizak tashvishdan xoli bo‘libdi.

Mahram go‘dak Zolni qo‘yniga solib, yo‘lda ketayotganda rahmi kelib „Qaysi qo‘lim bilan daryoga tashlayman“. deb daryo bo‘yidagi changalzorga tashlabdi. Yosh go‘dak-chaqaloqning kimsasiz changalzorda yig‘lashi shu atrofda o‘tlab yurgan yosh ona kiyikka eshitilibdi. Kiyik kelib chaqaloqni o‘z bag‘riga bosibdi, uni ertalabgacha emizibdi.

Ko‘hiqofda yashaydigan Semurg‘ kunlarning birida parilar podshosining majlisida o‘tirgan ekan. Zol uning esiga tushib qolibdi. Chunki bu qush dunyoda bo‘ladigan voqealarni bilar ekan. Zolning tug‘ilish muddati, uning olamdagi voqealarni o‘n yil ilgari biladigan hukamo bo‘lishi va ming yil yashashi Semurg‘ga ma’lum ekan. Semurg‘ hisoblab ko‘rsa, Zolning tug‘ilganiga yetti kun bo‘libdi. Tajriba qilib ko‘rsa, Zol Malikaning yonida yo‘q emish, bolani bir changalzorda kiyik emizib yotgan emish. Semurg‘ tezda to‘qayga yetib kelib, bolani topibdi. Uyiga olib kelib, kiyik va echki suti bilan boqib, Zolni katta qilibdi. Zol o‘n to‘rtga kirganda ilm o‘rganibdi. Qirq yil o‘qigan kishilar bilan baravar bo‘lib olibdi. Somi Narimon uyidagi novvoydan olib kelingan bola ham o‘n to‘rt yoshga kiribdi.

Bir kuni Somi Narimon majlis chaqiribdi. Majlisga Semurg‘ ham kelibdi. Majlisda o‘tirgan Semurg‘ Somi Narimonga qarab:

— Bu o‘tirgan bola sizning o‘g‘lingiz emas, novvoyning o‘g‘li, — debdi. Bu gapga majlisda o‘tirgan kishilar qarshi turibdi. Somining achchig‘i kelibdi. Semurg‘ podshoga:

— Shu bolaning qo‘liga bir tovoq bilan non berib, „Uyga olib kir“, deb ayting. Agar bola tovoq bilan nonni qo‘lida olib ketsa, sizning bolangiz, tovoqni boshiga qo‘yib olib ketsa, novvoyning bolasi bo‘ladi, — debdi. Somi bolani chaqirib bir tovoq bilan non berib: „Shu tovoq bilan nonni uyga olib kir“, debdi. Bola nonni qo‘liga olib uyning yarmiga borganda tovoqni boshiga qo‘yibdi.

---

[1] **Tuynok** — *tuguncha* ma’nosida.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Novvoyning o‘g‘li ekanligiga endi ishondingizmi? Sizning o‘g‘lingiz Zol mening qo‘limda. Hozir o‘n to‘rt yoshga kirdi. Ishonmasangiz, kirib Malikadan so‘rang. „Rostini aytsang o‘ldirmayman“, desangiz aytadi, — debdi Semurg‘. Somi Malika yoniga kirib:

— Ikkovingizdan bir savol so‘rayman, rostini aytmasangiz chopib tashlayman, shu bola kimniki? — debdi. Malika bilan kanizak „Rostini aytmasak bizni chopib tashlaydi“, deb qo‘rqib, ikkovi baravar ta’zim qilib turishibdi. Kanizak turib:

— Ey, taqsir, bu Malika bir kuchuk bola tug‘gan edi. Uni daryoyi Nilga tashlang, deb mahramga bergan edik, tirikmi-o‘likmi bilmaymiz. O‘rniga novvoyning o‘g‘lini tilla berib, olib kelgan edik,— debdi. Somi chiqib Semurg‘ning gapi to‘g‘ri ekanligini aytibdi. Semurg‘ uchib Zolning oldiga borib:

— Ey, Zol, tur! Dadangning oldiga olib boraman, — debdi. Zol esa otasini bilmas ekan. Semurg‘ Zolni otasi oldiga, majlisga olib kelibdi. Odam ko‘rmay vahshiyga o‘xshab katta bo‘lgan Zol kishilardan qo‘rqibdi, xalq esa undan qo‘rqibdi. Shunday qilib, Zol otasi oldida yurib, yigirma yoshga kiribdi. Malika o‘g‘li Zolga yadilardan[1] xotin olib beribdi. Xotini homilador bo‘lib yetti oylik bo‘lganda bolaning og‘irligidan xotinning oyog‘i bir enlik yerga kiribdi, sakkiz oylik bo‘lganda besh enlik yerga kiribdi. Malika yura olmay qolibdi. Zol xotinining yura olmaganini ko‘rib, to‘rt g‘ildirakli aravaga ot qo‘shib, Malikani olib yuribdi. Vaqt-soati yetibdi. Semurg‘ boshliq qirq hukamo jam bo‘lib bolani yorib olishibdi. Rustam dunyoga kelibdi. Semurg‘ boshliq qirq hukamo Malikaning ro‘dasini[2] kiyik suti bilan yuvib tikibdi. Semurg‘ qanotidan bir misqol qon oldirib Malikaning dimog‘iga hidlatib, hushiga keltiribdi. Rustamni govmishning suti bilan boqibdi.

Somi Narimon dunyodan o‘tibdi. O‘rniga amakivachchasi Kaykovus podsho bo‘libdi. Zol hukamolik ishida qolibdi. Rustam katta bo‘lib, Kaykovusga xizmat qilib yuribdi, kunlardan bir kun, Rustam Kaykovusdan bir oyga javob olib ovga chiqibdi.

Mozandaron degan joyda, daryo bo‘yida bir qari chol yashar ekan. Uning o‘n to‘qqiz yoshli xushsurat, sohibjamol qizi bor ekan. Chol namozgar vaqtida qizini chaqirib:

---

[1] **Yadi** — otasi dev, onasi pari.

[2] **Ro‘da** — ichak.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Bir choynak choy olib chiq, qizim, — debdi. Qizi otasining oldiga bir choynak choyni qo‘yib, qaytibdi. Chol qizining katta bo‘lib qolganini ko‘rib: „Tandir ham issig‘ida oladi, vaqtida qizimni erga bersam bo‘ladi“, deb o‘ylabdi.

Shu payt Rustam ov qilib yurib, daryoyi Nildan o‘tib Changali Mozandaronga kiribdi. Ro‘parasidan bir kiyik chiqibdi. O‘q otsa tegmabdi. Achchig‘idan kiyikni quvib, qaytara olmay, adashib, boshqa diyorga o‘tib, bir to‘qayga kirib ketibdi. Qilgan ovlarini otiga ortib to‘qaydan chiqibdi.

Qarasa, makoni uzoqda qolibdi. Uzoqdan bir qishloq ko‘rinibdi: „Xayr, bir kecha musofirga qo‘noq berar“, deb qishloqqa qarab yuribdi. Chol daryoning yonida o‘tirgan ekan. Rustam cholga yaqin kelib, salom beribdi. Chol o‘rnidan turib:

— Keling, pahlavon mehmon, — debdi. Rustam:

— Otajon, men ovga chiqqan edim. Diyorim uzoqda qoldi, bir kecha musofirga qo‘noq bersangiz, — debdi. Chol:

— Xo‘p, mayli, o‘g‘lim. Qaysi avloddansan? — debdi. Rustam:

— Men Kayon avlodidan, Zolning o‘g‘li, Somning nevarasi, Rustam bo‘laman, — debdi. Chol:

— Xo‘p, polvon o‘g‘lim, juda yaxshi, — deb mehmonni uyiga taklif qilibdi. Otini otxonaga olib kirib, o‘z biyasi yoniga bog‘labdi. Bir qo‘y so‘yib, mahalla odamlarini chaqirib, Rustamni ziyofat qilibdi.

Chol Rustamga qarab:

— O‘g‘lim, senga bir arzim bor, — debdi. Rustam:

— Ayting, ota, — debdi.

— Bir qizim bor. Shu qizimni senga bersam, seni o‘g‘illikka qabul qilsam, —debdi. Rustam o‘rnidan turib qulluq qilibdi. Chol yana:

— O‘g‘lim, qizimning bir aybi bor. Ikkita ko‘zi yo‘q, ikkita qo‘li yo‘q, ikkita oyog‘i ham yo‘q, — debdi. Rustam:

— Shunday bo‘lsa ham qabul etdim, — debdi. Rustam cholning qizi Gulchehrani nikohlab olibdi. Rustam qizni ko‘rib, hayron qolibdi. „Yetti iqlimda bunday chiroyli qiz yo‘qdir, chol aksini gapirib, meni aldabdi“, deb ko‘nglida o‘ylabdi. Qirq kun qalliq o‘ynabdi. Podshodan bir oyga olgan javob vaqti tamom bo‘lib, choldan ketishga ijozat so‘rabdi. Rustam cho‘ntagidan bir tumor chiqarib cholga beribdi:

— Ey, otajon, xotinim qiz tug‘sa, shu tamg‘ani chekkasiga bosib chap beliga bog‘lab qo‘ying, agar o‘g‘il tug‘sa, o‘ng yelkasiga bosib,

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

o‘ng beliga bog‘lab qo‘ying. Bizning avlodimizda shu tamg‘a yuradi. Shundan bir-birimizni topib olamiz, — debdi. Chol bilan xo‘shlashib, otiga minib jo‘nabdi. Gulchehra bechora ko‘z yoshini to‘kib qolibdi. Oylardan oy o‘tib, Gulchehra bir o‘g‘il tug‘ibdi. Gulchehraning otasi bolaning otini Suhrob qo‘yibdi. O‘sha kuni biya ham tug‘ibdi. Suhrob o‘n to‘rt yoshga kiribdi. Bir kuni u maktabdan kelayotib bolalar bilan urishib, bir bolaning oyog‘ini chiqaribdi. Bolalar: „Yetimcha, otasi yo‘q“, deb uni haqorat qilib, yig‘latishibdi. Suhrob yig‘lab uyiga kiribdi.

Chol:

— Yig‘lama, o‘g‘lim, yaqinda otang kelib qoladi, — deb bolani yupatibdi. Suhrob yana bir kuni maktabdan kelayotib tosh o‘ynabdi.

Toshi borib oftobda charx yigirib o‘tirgan bir kampirning charxiga tegib sindiribdi. Kampir qo‘liga tayoq olib kelib bolalardan:

— Kim tosh otdi? —debdi. Bolalar:

— Suhrob otdi, — deb bolani ko‘rsatishibdi. Kampir yugurganicha kelib, Suhrobning boshiga besh-olti tayoq urib: „Sening otangning tayini yo‘q“, deb haqoratlabdi. Suhrob yana yig‘lab uyiga kirib, onasini mahkam ushlab:

— Otamni topib bering!— debdi. Gulchehra o‘g‘liga:

— O‘g‘lim, otang Kayon avlodidan, Somining nevarasi, Zolning o‘g‘li Rustam. Uni Zabiliston bilan Gulistondan topasan, — debdi.

Suhrob onasidan bu gapni eshitib, otasini qidirib bormoqchi bo‘libdi. Gulchehra o‘g‘li Suhrobga o‘zi bilan bir kunda tug‘ilgan Raxsh degan otni egarlab beribdi. Suhrob onasi va bobosi bilan xayrlashib, otasini qidirib Zabilistonga qarab ketibdi. Yoshlik qilib yo‘lni bilmay adashib, O‘kuz daryosidan o‘tib, Buxoro tomonga ketibdi. Yo‘l yurib, yo‘l yursa ham mo‘l yurib, echki-qo‘y boqadigan qozoqlarning yeriga kelib qolibdi. Qarasa, bir barno qiz quduqdan suv olib, qo‘y-echkilarni sug‘orib turganmish. Suhrob Raxsh otini o‘ynatib qiz yoniga kelib:

— Ey, singlim, bir oyoq suv bering, — debdi. Qiz Suhrobni ko‘rib, unga muhabbati tushib qolibdi. Quduqdan tortayotgan suvini qaytarib:

— Ey, mard yigit, suvni o‘zing tortib olib ich, birovdan tilab ichasanmi, — debdi. Suhrobning achchig‘i kelibdi. Raxsh otiga qattiq bir qamchi urib, quduq yoniga kelibdi. Quduqdan suvni bir qo‘li bilan tortmoqchi bo‘libdi, torta olmabdi, ikki qo‘llab tortib, yana torta olmabdi. Hatto uzangidan oyog‘ini chiqarib ko‘rib tortsa ham bo‘lmabdi. Qizning

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

oldida o‘sal bo‘libdi. Otidan tushib, bazo‘r mashaqqat bilan tortib suv olib ichibdi. Suhrob qiz bilan hazillashib:

— Menga tegasanmi? — debdi. Qizning ismi Zavvora ekan.

Zavvora:

— Ey, mard yigit, agar to‘shimni yerga tekkiza olsangiz, men sizga tegaman, — debdi. Suhrob ham rozi bo‘lib, ikkovi olishmoqchi bo‘lishibdi. Qiz beliga kamar bog‘lab maydonga tushibdi. Suhrob ham tushib bel olishibdi. Qiz Suhrobni shoshirib qo‘yibdi. Qiz Suhrobdan yiqilmay, o‘z ixtiyori bilan yiqilibdi.

— Ey, mard yigit, o‘zimni Sizga bag‘ishladim, — debdi.

Zavvora onasiga xabar beribdi. Ota-onasi kuyov qilibdi. Suhrob qirq kun qalliq o‘ynabdi. Qizga otasini qidirib ketayotganligini, yana qaytib kelib topishini aytibdi. Qizning otasiga cho‘ntagidan bir tumor olib berib:

— Xotinim qiz tug‘sa, chap yelkasiga, o‘g‘il tug‘sa, o‘ng yelkasiga bosing, — deb beribdi. Chol va xotini bilan xayrlashib ketibdi. Yo‘l yurib, yo‘l yursa ham mo‘l yurib, Xonbaliq[1] degan joyga boribdi. Shu vaqtda Xoqoni Chindan Afrosiyob Kaykovusga qarshi urushga ketayotgan ekan. Daryo bo‘yidan ketayotgan bir yigitni ko‘rib, xizmatkorlaridan birini shu yigitning kim ekanini bilib kelish uchun yuboribdi. Elchi yigitning oldiga kelib:

— Ey, yigit, bu yerlar Turon mulki, Chinga qaraydi. Nima uchun beijozat daryodan o‘tding, kimning o‘g‘lisan? — debdi. Suhrob:

— Men Changali Mozandarondan bo‘laman. Otam Rustamni axtarib Zabilistonga boraman, — debdi.

Elchi yigitning qayerdan kelganligini, kimligini Afrosiyobga borib xabar beribdi. Afrosiyob: „Bu bola Zabilistonga borib otasini topsa, bizdan Turon mulkini olib qo‘yar edi. Yaxshiki adashib o‘zi kelib qoldi. Bundan keyin ishim oldinga yuradi“, deb o‘ylabdi. Yana elchini yuborib, Suhrobni keltiribdi. Ziyofat qilib, Suhrobni qo‘lga tushiribdi. Suhrobni olti oy juda yaxshi boqibdi. Yettinchi oyda Zabilistonga, Kaykovusga qarshi yurish qilibdi. Suhrobni o‘zi bilan birga olib, urush maydoniga kiribdi. Zabiliston tomonidan Rustam urush maydoniga kiribdi. Rustam o‘z oldida bir go‘dak bola turganini ko‘rib achchig‘i kelibdi. Suhrob otasi Rustam bilan kurashib, uning tizzasini yerga tekkizibdi. Bog‘lab olay deganda, qari sipohigar

---

[1] **Xonbaliq** — *xon shahri* degani.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

ekan, deb, rahmi kelib qo‘yib yuboribdi. Rustam: „Onadan tug‘ilib bir musht yeganim yo‘q edi. Nima uchun meni bir go‘dak yiqitdi. Ertaga yana maydonga kirib bu bolaning qonini ichmasam, dunyoda o‘zimni Rustam atamayman“, debdi. Ertasi yana urush bo‘libdi. Rustam Suhrobning oyog‘iga bir urib yiqitibdi. Shunda Suhrob Rustamga qarab:

— Ey, nomard chol, men seni hurmat qilib, kecha bog‘lab olib chiqib ketmasdan, yechib qo‘ydim. Bugun sen nimaga nomardning ishini qilasan? — debdi. Rustam achchiqlanib xanjarini sug‘urib olib bolaning ko‘kragiga bir uribdi, qoni yerga to‘kilibdi. Suhrob:

— Ey, nomard, g‘uncham so‘lgani yo‘q, o‘n gulimdan bir gulim ochilgani yo‘q. Yosh umrimni xazon qilib juvonmarg qilding. Mening otam Kayon avlodidan Zolning o‘g‘li Rustam. Agar otam eshitsa, sendan bir qatra qonimga ming qatra qon talab qiladi, — debdi. Rustam:

— Rustamning o‘g‘li ekanligingga biror hujjating bormi, farzand, — debdi. Suhrob:

— Men Changali Mozandarondagi ko‘hna cholning qizi Gulcheh-radan bo‘lgan Suhrob bo‘laman, — debdi.

— Ey, farzand, unday bo‘lsa biror nishoning bormi, ko‘rsat, — debdi. Suhrob:

— O‘ng yelkamda tamg‘am bor, o‘ng bilagimda bozubandim bor, — deb ko‘rsatibdi. Rustam tamg‘ani ko‘rib, qilgan ishiga pushaymon bo‘lib, dod-faryod qilibdi. Rustamning dodini Semurg‘ eshitib, Kayon avlodi Zol bilan birga Suhrobning yoniga kelibdi. Semurg‘ Rustamga:

— Qanotimga xanjar ur: yetti misqol qonimdan olib Suhrobning og‘ziga quy, — debdi. Rustam Semurg‘dan qon olib Suhrobning og‘ziga quyibdi. Suhrob o‘lmay qolibdi. Yarasini yuvib, qornini bog‘lashibdi.

Hukamolar: „Xazinadan nushdori olib kelib yarasiga surkalsa, o‘lmay qoladi“, deyishibdi. Doriga odam yuborishibdi. Yuborgan odamlar Kaykovusga borib dorini so‘rabdilar. Kaykovus: „Agar Suhrob tirilsa, Zol podsho bo‘ladi, Semurg‘ hukamolik qiladi. Undan keyin yetti iqlim Suhrob bilan Rustamning changalida qoladi“, deb o‘ylab, kelgan elchiga nushdorini bermay qaytaribdi. Elchi kelib nushdorini bermaganligini aytibdi. Rustam Raxsh otiga minib, tezlik bilan borib, xazinani sindirib kirib, nushdorini olib kelibdi. Suhrob yoniga yetti qadam qolganda jon beribdi. Rustam bu holni ko‘rib, o‘zini yerga urib, jinni bo‘libdi. Rustamning qo‘l-oyog‘ini bog‘lab tashlashibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Semurg‘ boshliq hukamolar Suhrobni tiriltirish harakatiga tushibdilar. Hech kim tiriltirish chorasini topa olmaganidan keyin Semurg‘ turib aytibdi:

— Ko‘hiqofning narigi tomonida Quyisarandib degan joyda bir tobuti sokina bor. Shu tobuti sokinani olib kelib Suhrobni yuvib-tarab shunga solamiz. Tobutni Rustamning boshiga qo‘yib, o‘ng qo‘lini tobutga bog‘laymiz, chap qo‘lini beliga bog‘lab qo‘yib yuboramiz. Rustam: „Yo, Suhrob!“ deb yig‘lab qirq kun tobutni boshida ko‘tarib yuradi. Qirq kundan keyin bola tirilib yerga tushadi, — debdi.

Hukamolar bu gapni ma’qul topishibdi. Semurg‘ borib tobutni olib kelibdi. Suhrobning jasadini tobutga solib, Rustamning boshiga qo‘yishibdi. Rustam „Yo, Suhrob!“ deb qirq kun faryod uribdi. Dushmanlari Suhrobning tirilishiga bir kun qolganini bilib, bir jodugar kampirga mol-u dunyo va’da qilib, Rustamning oldiga chiqarishibdi. Jodugar kampir suv bo‘yiga borib, qozon osib, qora kigizni yuva beribdi. Rustam: „Yo, Suhrob!“ deb yig‘lab tobutni ko‘tarib kelib qolibdi.

Rustam kampirning qora kigizni hadeb yuvib o‘tirganini ko‘rib:

— Ey, kampir, qora kigizni yuvgan bilan oqaradimi? — debdi.

Kampir:

— Ey, Rustam, dunyo bunyod bo‘lgandan beri o‘lgan odam tirilganmi? Tobutni ko‘tarib yurganingga qirq bir kun bo‘ldi, vaqtidan o‘tdi. Suhrobga azob berma, tobutni daxmayi Shohonga qo‘y, — debdi. Rustam: „Kampir rost aytadi, bugun ko‘tarib yurganimga qirq bir kun bo‘ldi. Tirilmadi“, deb tobutni yerga qo‘yishi bilan Semurg‘ yetib kelib, kampirni daryoga tashlabdi. Suhrobni daxmayi Shohonga dafn qilibdi. Rustamning bo‘ynida „O‘g‘lini o‘ldirdi“ degan nom qolibdi.

Suhrobning o‘lganini Changali Mozandaronda onasi Gulchehra eshitib, zor-zor yig‘lab, o‘g‘lini axtarib Turon mulkiga qarab ketibdi.

Suhrobning xotini Zavvoradan tug‘ilgan Barzo yetti yoshga kiribdi. Zavvora eski kasbini qilib, quduqdan suv tortib, mollarini sug‘orib, kunini ko‘rar ekan, Gulchehra ham Suhrob adashgan joyga kelib adashib, Zavvora oldiga kelib qolibdi. Qarasa, bir ayol quduqdan suv tortyapti, yonida bir bola. Gulchehra xachirining boshini tortib, ayoldan bir piyola suv tilabdi. Zavvora „Musofir xotin ekan“, deb darrov bir piyola suv olib, Gulchehraga beribdi. Gulchehra Barzoni ko‘rganda o‘g‘li Suhrobni ko‘rganday bo‘lib, bir oh tortibdi. Zavvora:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi



«Shoxli Iskandar» ertagiga ishlangan rasm

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Ey, onajon, nimaga oh tortdingiz? —debdi.

— Suhrob degan o‘g‘lim bor edi. Badbaxt Afrosiyob otasi Rustamga to‘g‘ri qilib, o‘ldirtiribdi. Suhrobning siyoqini sening o‘g‘lingda ko‘rib, oh tortdim, — debdi Gulchehra.

— E, onajon, mening otim Zavvora, Suhrobning xotini bo‘laman. Barzo uning o‘g‘li, keling, otdan tushing, — deb Gulchehrani quchoqlab yig‘labdi. Bular ona-bola bo‘lib, Barzoni tarbiya qilib, shu yerda yashay boshlashibdi. Barzo o‘n olti yoshga kiribdi. Bir kuni Gulchehra Zavvoraga:

— Ey, Zavvora, sipohigarchilik qursin. Endi biz bolani dehqonchilikka o‘rgataylik. Otasining dog‘ini ko‘rdik, bolasining dog‘ini ko‘rmaylik. Molimizga ovqat, tovug‘imizga don, o‘zimizga ham ovqat bo‘lar, yerga qovun ekaylik, — debdi. Shunday qilib, bir-ikki yil qovun ekib, Barzoga dehqonchilikni o‘rgatishibdi. Shu yerlik xalqlar bulardan qovun olib yurarkan. Shu sababdan bu joyni Qovunchi deb atabdilar.

Barzo ekkan qovuniga suv ololmay ko‘p odamlar bilan mushtlashib, xafa bo‘lib onasi oldiga kiribdi. Shunda Gulchehra:

— Ey, bolam, xafa bo‘lma. Bu yerlar sen qovun ekib Qovunchi atalib qoldi. Endi sen Toshkentga borib Kayusolar chiqargan suvdan olib kel, — debdi. Barzo Toshkentga borib suvboshilarga uchrabdi. Suvboshi yuz hissa suvdan bir hissa suv beribdi. Barzo o‘zi ariq kovlab keltiribdi. Shu bilan qovun ekib yota beribdi.

Bir qancha vaqtdan keyin Afrosiyob Rustam bilan urush boshlabdi. Askarlari otlari bilan Barzoning qovuniga kiribdi. Barzoning achchig‘i kelib bir askarini tayoq bilan urib o‘ldiribdi. Qovun tepasida qattiq jang boshlanibdi. Barzo o‘lgan askarning qilichini olib yigirmata askarni o‘ldiribdi. Askarlar Afrosiyobga borib arz qilibdilar. Afrosiyobning achchig‘i kelib:

— Turon mulkida mendan boshqa kuchli hech kim yo‘q. U qanday odam ekan, menga qarshilik qiladigan, — deb, o‘zi Gulchehra bilan Zavvora oldiga ot choptirib kelib:

— E, ona, bolangizni qaytaring, — debdi. Gulchehra bilan Zavvora Barzoni yetaklab olib kelishibdi. Afrosiyob:

— Bu bolani bizga bering, sipohigarchilikka o‘rgatamiz, — debdi. Gulchehra:

— Bolani faqat o‘zimiz bilan birga yurish sharti bilan beramiz, — debdi. Afrosiyob rozi bo‘libdi. Barzoni onalari bilan birga daryoyi

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Omudning bo‘yida Suhrobni boqqan joyga olib borib olti oy boqibdi. Yettinchi oyida Rustamga qarshi urush boshlabdi. Zabuldan Rustam kelib, jang boshlanibdi. Gulchehra Zavvoraga:

— Biz hozir Afrosiyobdan ham, Rustamdan ham o‘chimizni olamiz, — debdi. Afrosiyob Barzoni Rustamga qarshi maydonga solibdi. Rustam Barzoni ko‘rib, yana achchig‘i kelibdi.

— Ey, Afrosiyob, bu qanday masxarabozlik, o‘tgan urushda bir go‘dakni olib kelding. o‘ldirib qo‘ydim, o‘zimning o‘g‘lim chiqib, la’natlarga yo‘liqdim. Bu gal ham bir go‘dak, qozoq bolani topib kelding, — debdi. Barzoning achchig‘i chiqib, Rustamni bir urib yetti qadam orqaga suribdi. Rustamning ham g‘azabi kelib bel tutishibdi. Rustam Barzoning oyog‘iga urib bo‘g‘izlashga harakat qila boshlabdi. Shunda chodirdan irg‘ib chiqqan Gulchehra Rustamning xanjar ushlagan qo‘lidan mahkam tutib, og‘ziga bir shapaloq tortibdi. Rustam:

— E, zaifa, mardlar maydonida nima beodobchilik? — debdi. Gulchehra:

— Ko‘r bo‘lgur, otasini o‘ldirding, endi bolasini o‘ldirasanmi, nomard! — debdi. Rustam:

— Ey, xotin, sen kimsan, o‘zingni tez tanit, — debdi. Gulchehra yuzidan pardasini ko‘tarib:

— Changali Mozandarondagi ko‘hna cholning qizi Gulchehraman, ko‘zingni kattaroq och! Bu bola Suhrobning o‘g‘li Barzoyi Dajam — dehqon, — debdi. Barzo onasiga:

— Ey, onajon, nimaga ilgari Afrosiyob olib ketgan vaqtda menga aytmadingiz, — deb Afrosiyobga qarshi borib, askarlarini kaptar to‘zitganday to‘zitib, Xoqoni Chin tomonga haydab yuboribdi. Shundan keyin hammalari topishib, Qovunchida yashay boshlashibdi. Qovunchi shahar bo‘libdi, uni o‘zlariga poytaxt qilishibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Doro va Iskandarbek

Bir vaqtda Doro degan katta podsho o‘tgan ekan. U bir podshoning qiziga uylangan ekan. U qizga Doroning bir vaziri ham oshiq bo‘lib qolibdi. Doro podsho namoz o‘qiyotganida, vazir u ayolni yo‘q qilish payiga tushibdi-yu, bir xat yozib Doro podsho kavushining ichiga solib ketibdi. Doro podsho buni bilmay qolibdi, namoz o‘qib bo‘lgach, kavushini kiygani kelibdi. Doro qarasa, kavishining ichida bir xat yotganmish. U xat yerdan keldimi, osmondan tushdimi, bilolmabdi. Xatni o‘qib ko‘rsa, shunday so‘zlar yozilgan emish: „Ayolingizni tezda yo‘qoting, podsholikda nopok ayol turmasin!“

Xotini homilador ekan. Podsho surishtirmay bir qancha buyum-aslahalar berib, xotinini haydab yuboribdi. Xotin bir chordevorga borib o‘g‘il tug‘ibdi. O‘g‘lining otini Iskandarbek qo‘yibdi. Bir xatga bolaning nomini hamda: „Kimki shu bolani topsa, shu buyumlarni olib, bolani boqsin“, deb yozib, chaqaloqning boshiga bir qancha qimmatli buyumlar qo‘yib, otasi podsholik qiladigan mamlakatga ketibdi. Bir podachi echkilarini shu yerga olib kelib qolibdi. Uning echkilaridan biri kelib Iskandarbekni emizib ketibdi. Podachi buni bilmabdi. U bir momoning echkisi ekan. Podachi kechqurun uyga qaytganda, momo ko‘radiki,

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

echkisining suti yo‘q. U podachidan: „Echkining suti qani?“ deb so‘rabdi. Podachi: „Echkining sutini men qaydan bilay‘, deganda, kampir uni koyibdi. Ertasi ham podachi echkilarni shu yerga o‘tlatgani olib kelibdi. Yana echki chaqaloqni emizibdi. Podachi buni bilmay qolibdi. Kun kech bo‘libdi. Podachi podalarni uylariga qaytarib, „oshhalolga“[1] boribdi. Momo echkisini sog‘ay desa, bugun ham suti yo‘q. Bugun kechagidan ko‘ra qattiqroq urishibdi. Ertasiga podachi bilan birga o‘zi chiqib echkisini boqib kelmoqchi bo‘libdi.

Bir vaqt echki birdan chordevorga kirib ketibdi. Podachi bilan momo bunday kelib qarasa, echki bir bolani emizayotgan emish. Momo dimog‘i chog‘ bo‘lib, u bolani o‘g‘il qilib olibdi. Momoning qo‘lida bola tarbiya topib, yildan-yilga ulg‘aya boribdi.

Olti-yetti yoshlarga kiribdi. Bola hunarga ko‘p qiziqibdi, ustaxonalarga borib, duradgorlik, miltiq yasash, qilich yasash ishlarini o‘rganibdi. U bir kun qilich yasayotgan ustada bir katta qilichni ko‘rib, uni qo‘liga olishga ruxsat so‘rabdi. Usta:

— Bu bahodirlarning qilichi, uni ko‘tarish sening qo‘lingdan kelmaydi! — debdi. Bola qilichni bir ko‘rib beraman, deb qistay bergach, ustalardan biri „Qilichni bering, bolaning ko‘ngli qolmasin!“ debdi. Iskandarbek qilichni qo‘liga olib bir silkib ko‘rishi bilan, qilich uch-to‘rt bo‘lak bo‘lib ketibdi. Ustalar bu bola momoning o‘g‘li ekanini bilib, qilich haqini to‘lattirib olibdilar. Momo bolani koyibdi. Shunda bu voqeadan bir vazir ham xabardor bo‘lib turgan ekan, qilichning pulini to‘lab, momodan bolani so‘rab olib ketibdi. Vazirning shu qatori bir o‘g‘li bor ekan. Iskandarbekni olib borib unga qo‘shib qo‘yibdi, ular ikkovi o‘ynab yurisha beribdi.

Shu vazir podshosining bir go‘zal qizi bo‘lib, uning qirqta kanizi bor ekan. Podshoning qizi bir yigit bilan gaplashib yurar ekan. Yigitni qiz kiyimida saqlar ekan. Bu sirni hech kim bilmas ekan. Ular bir kun daryo labiga cho‘milgani boribdilar. Shunda daryodan bir katta baliq chiqib qarab turgan ekan, u qiz baliqni nomahram, deb qocha boshlabdi. Baliq qah-qah urib kulibdi. Qiz bunga hayron bo‘lib, qayrilib baliqqa qarabdi va uning nima sababdan kulayotganini so‘rabdi. Shunda baliq tilga kirib: „Sen gaplashib yurgan begona yigit nomahram bo‘lmay, men bir

---

[1] **Oshhalol** — podachining xonadonlardan yig‘ib oladigan oshi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

baliq nomahram bo‘laymi? Gapingga kulmay bo‘ladimi“, debdi. Shunda baliqning gapiga qiz hayron bo‘lib, otasining oldiga boribdi. Qiz otasiga shunday deb talab qilibdi: „Ota, kecha men daryo labiga borgan edim, unda bir baliqni ko‘rdim. Meni ko‘rishi bilan qah-qah urib kulib yubordi. Buning nima sababdan kulganini men bilolmadim. Shuning sababi nima ekan, bilib bersangiz“. Otasi darrov vazirni chaqirib qizi aytgan masalani o‘rtaga qo‘yibdi va buni uch kun ichida bilib berishni buyuribdi. „Agar uch kun ichida bilib kelmas ekansan, kallangdan umidvor bo‘lma!“ deb do‘q qilibdi.

Oradan ikki kun o‘tibdi, vazir sirni bilolmabdi. Vazir qo‘rqqanidan o‘z o‘g‘li bilan Iskandarbekni har tomonga qochirib yuboribdi. Vazirning o‘g‘li bir mamlakatga borib qolibdi. Uning hayron bo‘lib yurganini bir momo sezib: „O‘g‘lim, qayerdan kelgansan, nima uchun bunday qilib yuribsan?“ deb so‘roqlabdi.

Vazirning o‘g‘li otasining kimligini va uning boshiga tushgan mushkul ishni, otasi qo‘rqib bolalarini har tomonga qochirib yuborganini aytibdi. Shunda kampir o‘ylab turib: „Bu sirni bilish oson, g‘am yema, bolam, bunga men chora topaman“, debdi. Kampir darhol vazirning o‘g‘li bilan vazirni qidirib boribdi. Vazir kampirni podsho huzuriga olib borib baliqning ne sababdan kulganini shu kampir biladi, deb podshoga uqtiribdi.

Momo bir xoli uy toptirib podsho bilan vazirni boshlab kiribdi, podshoga: „Qizingizni va uning dugonasini chaqiring“, debdi. Podsho qizi bilan dugonasini chaqirtirib kelibdi. Kampir:

— Bir qoshiq qonimdan kechsangiz sirni aytaman, — debdi. Podsho bir qoshiq qonidan kechibdi. Shunda kampir qizning dugonasini yechintirib ko‘rishni so‘rabdi. Yechintirib ko‘rsalar, u qizlar kiyimini kiygan yigit ekan. Podsho g‘azab bilan darhol o‘z qizining va yigitning kallasini uzibdi.

Endi gapni Iskandarbekdan eshiting: Iskandarbek tilanchilik qilib, o‘z onasining oldiga borib qolibdi. Onasi qarab bolani o‘ziga o‘xshatibdi. Keyin ko‘ngli buzilib ketibdi: „Attang, men chordevorga tashlab ketgan bolam o‘lmagan bo‘lsa, shunday tilanchi bo‘lsa ham dunyoda yurgan bo‘lar edi“, deb o‘ylabdi. Shu mahal onaning esiga bolaning nomini so‘rash tushibdi. So‘ragan ekan „Iskandarbek“ degan so‘zni eshitibdi. Ona o‘z bolasi ekanligini tanib, u bilan quchoqlashib ko‘rishibdi, bolani

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

bag‘riga olib, ancha vaqt yig‘labdi. O‘g‘lini podsho buvasiga ko‘rsatmay, bir yashirin xonada saqlab parvarish qilibdi.

Podsho buva bir kun bir tush ko‘ribdi, tushida hovlisida bir oy paydo bo‘lib, butun olamni yoritib yuborganmish. Podshoning bir qari piri bor ekan, u o‘z tushini shu piriga aytibdi. Piri shunday deb ta’bir beribdi: „Sening avlodingdan Iskandarbek degan bir bola paydo bo‘ladi. U butun yer yuziga podsho bo‘ladi“. Bir kun bu tushning ta’birini podsho o‘z qiziga aytgan ekan, qizi shodligini otasidan yashirolmabdi. „Ota, bir qoshiq qonimdan kechsangiz, bir sir bor, aytaman“, debdi. Otasi „Bir qoshiq qoningdan kechdim, qizim, ayt!“ debdi.

Shunda qizi: „E, ota, mening erim tuhmatga uchib, besabab bir qancha mol-anjomlar bilan qo‘yib yuborganda, men homilador edim, yo‘lda ko‘zim yoridi. Bolani nima qilishni bilmay, noiloj bir chordevorga yotqizdim, boshiga qimmatli mol-anjomlarni qo‘ydim va nomini Iskandarbek qo‘yib, bir xatga: „Bolaning nomi Iskandarbek, shu bolani kim boqsa, shu qimmatli mollar o‘shaniki bo‘ladi“, deb yozdim. Mendan keyin bolani bir echki kelib emizibdi. U echki bir momoning echkisi ekan. Momo echkisi nima sababdan kam sut berayotganini bilish uchun echkini poylabdi, ko‘rsalarki, echki podalar ichidan ajralib, bir chordevorga kirib ketibdi. Keyin ular Iskandarbekni topibdilar“, deb Iskandarbekning tarixini gapirib beribdi. Buvasi Iskandarbekni o‘qitib uni o‘z askarlariga lashkarboshi qilib qo‘yibdi.

Endigi gapni Iskandarbekning o‘z otasi — Doro podshodan so‘-rang.

Doro katta podsho ekan. U kamida besh-oltita boshqa podsholarga soliq solar ekan. Doro podshoga Iskandarbekning buvasi ham qaram ekan. U ham bu yil katta soliq to‘lashi kerak ekan. Doro podsho soliq to‘lashni qistayveribdi. Iskandarbekning otasi yosh pahlavon lash-karboshiga ishonib soliq to‘lashdan bosh tortibdi. Shu orada Doro podsho vafot etibdi. Uning o‘rniga katta xotinidan bo‘lgan katta akasi o‘tiribdi. Katta akasi Iskandarbekning buvasidan o‘ch olmoqchi bo‘libdi. Chunki u Doro podsho o‘lganda fotiha o‘qishga ham kelmagan ekan. Doroning katta o‘g‘li qo‘shin to‘plab, Iskandarbekka urush e’lon qilibdi. Iskandarbek ham o‘z qo‘shinlarini to‘plab, o‘gay akasiga qarshi yurish qilibdi. Iskandarbekning buvasi o‘z nabirasining kuchini sinab ko‘rish uchun,

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

uning o‘z akasiga qarshi borayotganini bildirmabdi. Iskandarbek qo‘shinlari shiddatli jang qilib, o‘z akasining qo‘shinlarini yengay debdi. Shunda akasining munofiq vazirlaridan biri uxlab yotganida o‘z podshosining kallasiga qilich solib, buni Iskandarbekka ma’lum qilibdi. Buvasi bundan xabardor bo‘lib, sirni Iskandarbekka aytibdi. „Bu podsho sening o‘z akang, men kuchingni va g‘ayratingni sinash niyatida sening urush ochishingga qarshi turmagan edim“, debdi. Shunda Iskandarbek akasiga qilich solgan munofiq vazirga „Podshoning yotgan joyiga meni olib bor!“ debdi. Vazir olib borganda akasining joni hali chiqmagan ekan. Iskandarbekni tanigach, akasi vazirning munofiqligini, uning niyati taxtga chiqish ekanligini uqtiribdi, keyinchalik bu vazir Iskandarbekka ham shunday xiyonat qilishini aytibdi. Iskandarbekka: „Podsholik senga qoldi, podsholikda falon joyga bekitib boqiladigan bir ot bor va falon joyda saqlanib qo‘yilgan bir go‘zal qiz bor, shularni birinchi navbatda o‘z himoyangga ol!“ deb vasiyat qilib, jon beribdi. Iskandarbek akasi aytganlarini qilibdi, munofiq vazirni o‘ldiribdi, butun mamlakatga o‘zini podsho deb e’lon qilibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Shoxli Iskandar

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonda bir Iskandar degan podsho o‘tgan ekan. Iskandarning sochini olgan har bir sartaroshni u o‘limga buyurar ekan. Buning sababini hech kim bilmas ekan. Nihoyat, podshoning sochini olishga sartarosh topilmay qolibdi.

Qidirib-qidirib bir chol sartaroshni topib, podsho saroyiga keltiribdilar.

Iskandar sochini oldirib bo‘lib, chol sartorshni ham o‘limga buyuribdi. Shunda chol ko‘z yoshi qilib podshoga yolvoribdi:

— Shohim, rahm qiling, yetim nabiralarimning rizqini qiymang!

Iskandar: „Bu sirni hech kimga aytmaysan!“ deb cholga qasam ichiribdi. Sir shu ekanki, Iskandarning boshida shoxi bor ekan. Podshoning shoxi borligini chol hech kimga aytmay, yuragida bir dardday saqlab yuraveribdi. Axiri hech toqat qilolmay, bu sirni biror kishiga aytib, yuragini bo‘shatgisi kelibdi. Lekin aytsa, boshi kesiladi, noiloj, bosh oqqan tomonga qarab ketibdi. Yurib-yurib bir tog‘ga yaqinlashibdi va tog‘ etagida qurib qolgan bir quduqqa duch kelibdi, quduq yaqinida damini olib o‘tiribdi. Atrofga qarab hech kim yo‘qligiga ishonib, quduq tepasiga kelibdi-da, quduqqa boshini suqib:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Iskandarning boshida ikkita shoxi bor! — debdi. Shu bilan yuragini qisib yotgan haligi sirdan qutulib, yengil tortib, uyiga qaytibdi.

Bir necha kundan keyin sartarosh sir aytib qo‘ygan quduqdan uzun bir qamish o‘sib chiqibdi.

Tog‘ tagida qo‘y boqib yurgan yigit qamishni kesib, undan nay yasabdi. O‘zi yaxshi ko‘rgan kuyini chalmoqchi bo‘lib nayni puflasa, kuy o‘rniga: „Iskandarning boshida ikkita shoxi bor“, degan ovoz chiqaveribdi.

Cho‘pon ko‘ngil qo‘yib yasagan nayini tashlagisi kelmay, chalib yuraveribdi. Iskandarning ikkita shoxi borligi elga tarqalaveribdi.

Bu voqea Iskandarning qulog‘iga yetibdi. Podsho darhol chol sartaroshni tuttirib keltiribdi. Podsho ayg‘oqchilari cho‘ponni ham tutib kelibdilar.

Cho‘pon bilan chol ikkisi podsho oldida qaltirab turishib, bo‘lgan voqeani aytib bir qoshiq qonlaridan kechishni so‘rabdilar.

Ammo podsho sartarosh bilan cho‘ponning boshlarini kestiribdi va nayni sindirib tashlabdi. Lekin podshoning shoxli ekanligi el orasiga tarqalib, uzoq zamonlargacha og‘izdan og‘izga ko‘chib yuribdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Luqmoni hakim

Bor ekan, yo‘q ekan, och ekan, to‘q ekan, bir zamonda Iskandar degan podsho o‘tgan ekan.

Iskandar Yamandan Yasargacha (kun chiqishdan kun botishgacha) joyni so‘ragan ekan. Podshoning gapdon bir vaziri bor ekan. Podsho bir kun vazirlari bilan o‘tirganda:

— Bir so‘zim bor, sizlarga aytaman. Aytgan so‘zimni uddasidan chiqasizlarmi? —debdi. Shunda vazirlar:

— Gapiring, gapiring, biz eshitaylik, — deb ta’zim qilib turishibdi.

Podsho:

— Men yer yuzini so‘rayman, bu sizlarga ma’lum, endi sizlar mening vazirim bo‘lsalaring, osmonning ustida, yerning ostida odamzod bo‘lar emish, degan gaplar bor. Osmonning ustidagi odamlarni yerga tushirish, yer tagidagi odamlarni yuqoriga chiqarib, shularning ham ixtiyorlarini menga qaratishlaringizni so‘rayman. Ularning so‘zlarini menga olib bersalaringiz. Agarda mening topshirgan topshirig‘imni bajarsalaringiz chin vazirlik o‘rinlaringizda qoldiraman, — debdi.

Vazirlar:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Jonimiz sizga tasadduq bo‘lsin. Bu gapni endi gapirdingiz bizga, endi sizga gapimiz, qiladigan nafimiz shu, topshirgan vazifangizga bizdan javob eshiting. Bu gap, yo‘q gap — osmon uzoq, yer qattiq, ilojimiz yo‘q, sizga beradigan xirojimiz yo‘q. Har qanday topshiriq topshirgan vaqtingizda biz bajargan edik. Lekin bu topshiriqni bajara olmaymiz, — deyishibdi.

Podsho vazirlarining javobiga nima deyishini bilmay turganda, vazirlari ichidan gapga usta Toyirjon degan vazir chiqib shunday debdi:

— Taqsir, siz bu topshiriqni topshirish bilan qanday fikrni o‘ladingiz? Lekin men sizning topshirgan vazifangizni bajarish uchun bir misol aytaman.

Podsho:

— Qani ayt-chi, eshitay! — debdi.

Toyirjon:

— Daryolarning ichida kattakon daryo bor, uni sho‘r daryo deyishadi. Sho‘r daryo bo‘lsa ham juda kattakon zo‘r daryo! Men bul daryoning tagida, suv ichida odami obi, odami lobi, odami sobi degan odamlar bor deb eshitganman. Endi shu daryoning tagida odam borligini bilaylik, ularni qo‘lga olishning ilojini qilaylik, — debdi. Podsho:

— Qanday qilib ilojini topsalaring, qilinglar! — debdi. Vazir Toyirjon:

— Bir shishadan uy yasaymiz, necha botmon temirdan zanjir yasaymiz, shishaga zanjirni bog‘laymiz. Zindondan bir odamni olib chiqib shishali uyga nafasi qaytmaydigan qilib joylab, suvga tosh tashlaganday tashlaymiz. Zindondan olib chiqilgan odamga aytamizki, shu daryoning tagiga tushasan, daryo tagida odam borligini bilib chiqasan, bilib chiqsang, har qanday jinoyat qilgan bo‘lsang ham seni zindondan ozod qilamiz, deymiz, — debdi.

Bu so‘zlar podshoga ma’qul tushibdi. Podsho veziriga:

— Bu so‘zlaring ma’qul, barakalla. Har qanday yo‘l bilan bo‘lsa-da, bilishimiz kerak, — deb shishadan bir uy yasatibdi-da, zanjirni tayyor qilib, zindonda umrbod yotadigan odamni olib chiqib: — Shu daryoga tushib odam bor-yo‘qligini bilib chiq. Keyin seni bo‘shataman, — debdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Shunday qilib, zindondan olib chiqilgan odamni shisha uyga solib, zanjir bilan bog‘lab, tosh tashlaganday qilib daryoga tashlab yuboribdilar. Daryoga tashlangan odam daryoning eng tagiga yetganda, daryo tubidagi odami obi, odami lobi, odami sobilar shishaning ichidagi odamni ko‘rib, darg‘azab bo‘lib:

— Senday maxluq bizning ichimizda yo‘q. Sen o‘zingni bizga ma’lum qil, bizga kim ekanligingni ayt, aytmasang har narsa qilishga kuchimiz yetadi, — deyishibdi.

Shisha ichidagi odam ularga:

— Men sizlarga yuqoridan tushgan elchiman, yuqoridagi podsho meni sizlarga elchilik maqsadida tushirdi. Shu daryoning tagida odamlar yasharmikin yoki yashamasmikin? Agarda odamlar yashasalar, podsholari bo‘lmasa, arzlarini menga aytsalar, degan maqsadda meni tushirdilar. Sizlar nima deysizlar? — debdi.

Shunda daryoning tagidagi odamlar bu xabarni eshitib:

— Yuqoridagi, yer yuzidagi podsho yer yuzini so‘rayotgan esalar, nahot bizlarni ham o‘zlariga qaratmoq maqsadida bo‘ladilar, — deb hayron bo‘lishib, shishadagi odamga:

— Mayli bo‘lmasa, siz elchi ekansiz. Sizga biz shu narsani beramiz, podshohingizga olib chiqib bering. Shu kosadagi unni non qilib — o‘zlari yesin, so‘ng kosaning ichiga tanga yoki tillani to‘lg‘izsin, agar yer yuzida shu kosani tanga yoki tillaga to‘ldirsa, biz bu yerda bilamiz, so‘ngra arzimizni aytamiz, agar to‘ldira olmasa ovora bo‘lmasin, biz arzga bormaymiz, — deb so‘zlarini tamom qilishibdi.

Bu so‘zlarni eshitib haligi odam bir kosa unni olib daryo tagidan chiqibdi.

— Qani, nima xabar topib chiqding, — deyishganda, mana shu nishona, mana shu kosa, mana shu gap. Mana shu kosa ichidagi unni olib non qilib yoptirib yer ekansiz, so‘ngra kosani tangaga yoki tillaga to‘lg‘azar ekansiz. Agar kosani tangaga yoki tillaga to‘lg‘azsangiz, sizga arziholga chiqar ekanlar, bo‘lmasa siz bu yerda, ular u yerda qola berar ekanlar, — debdi daryo tagiga tushirilgan kishi.

Podsho bu kosani ko‘rib, daryoning tagida tanga, tilla yo‘q ekan-da, deb ko‘ngliga keltirib: „Bir hovuch tanga solsa, to‘ladi-yu“, deb o‘ylabdi. Unda Toyirjon vaziri:

— Daryoning tagida tanga va tilla yo‘q emasdir, bordir, ammo bu kosaning bir hikmati bordir, — debdi. Podsho:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Qanday hikmati bo‘lar ekan? —deb so‘rabdi.

Toyirjon:

— Unni olsak, bir to‘ppi tangani olib kosaga solsak, nima hikmati borligini bilamiz-qo‘yamiz, — debdi.

Podsho:

— Bo‘lmasa shunday qilib ko‘raylik, — deb kosani o‘rtaga qo‘yishib, g‘aznachini chaqirib, „Bir etak tanga olib kel, menga“, debdi. G‘aznachi tangani olib, etagiga solib kelib:

— Nima qilay? — debdi.

— Kosaga bir hovuch tilla sol! — debdi. Ular bir etak tangani kosaga solib tamomlashibdi. Kosaning ichidagi tanga ko‘rinmay qolibdi. Podsho:

— Men, bas, demaguncha olib chiqib tangani kosaga sola beringlar! — debdi. Podsho bas demabdi, g‘aznachi etak-etak tanga olib chiqib kosaga solaveribdi. Kosada tanga ko‘rinmay qola beribdi. Podshoning jahli chiqib, folchi va qurandozlarini chaqirtiribdi.

Qurandozlar ta’zim bilan:

— Chaqirtirgan ekansiz, xizmatingizga keldik, — debdilar.

Podsho:

— O‘tiringlar, men sizlarni chaqirtirganimning boisi shuki, sho‘r daryoning tagiga bir elchi tushirgan edim. Shularni ham so‘rasam degan edim. Tushirgan elchimning qo‘liga bir kosa berishibdi. Shul kosani tanga yoki tillaga to‘lg‘azsalar, bizni so‘rasalar mayli, o‘zimiz chiqib arzimizni aytamiz. Agar kosani to‘ldirmas ekanlar, biz arzimizni chiqib aytmaymiz, deyishibdi. Biz kosaga ko‘p tanga soldik, kosani to‘ldira olmadik. Shuning ma’nosi nima, bilib beringlar!— debdi.

Folchi va qurandozlar:

— Biz shashqol tashlaymiz. Tashlangan shashqolning me’yoriga qarab gapiramiz, — deyishibdi. Podsho:

— Ishqilib nima ma’nosi bor ekanini aytsangizlar, bas, — debdi.

Folchilar va qurandozlar shashqol tashlab podshoga ta’zim qilib, bul kosani sizga tajribaga bergan ekanlar. Ya’ni yer yuzini so‘rayotgan podsho endi bizni ham so‘rayman, degan bo‘lsalar, bu kosa, ya’ni to‘lmagan kosa tuproqqa to‘lmasa, boshqa narsaga to‘lmaydi. Biz bilan ishlari bo‘lmasin, degan ma’noda ekan. Ya’ni kosaga tuproq solsa,

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

kosaga solingan tuproqda tanga ko‘rinib qolsa, ko‘rinib qolgan tangani g‘aznalariga solsalar, ul kishi u yoqda qolsalar, biz bu yoqda qolsak. Biz bilan ishlari bo‘lmasa, degan ekan, — deb podshoga bul gapni bayon qilibdilar.

Podsho shu qurandozlarning so‘zi bilan kosaga tuproq solgan vaqtda tanga kosaning atrofida ko‘rinib qolibdi. Podsho tangani olib, g‘aznaga solib indamasdan qolibdi, shunda o‘ylab-o‘ylab bu kosadan ko‘rgan ish bu bo‘ldi, endi undan nima chiqar ekan deb, unni olib xotiniga berib non qilib yopib berishni buyuribdi. Podshoning xotini xamir qilib tandirga yopaman desa, hadeb oqib keta beribdi. Podshoning xotini hayron bo‘lib, boshqa undan xamir qilib non yopib chiqarib beribdi.

Podsho nonni yeb „Hech asorat, foydali narsa yo‘q“, debdi. Endi podsho u yoqda qola bersin, gapni boshqa tomondan eshiting.

Shul vaqt podshoning eshigiga bir devona tilanib kelibdi. Podshoning xotini haligi tandirning tepasida yopilmay qolgan nonni xayr qilib berib yuboribdi. Devona nonni olib, xurjunga solib, ketib qolib, bir ariqning yonidagi tolning salqiniga yetib qolib, nonni ariqdagi suvga ivitib yeb o‘tirganda, tol egilib:

— Ey, devona, mendan gap so‘rab ket! — debdi. Devona hayron bo‘lib bu toldan nechuk ovoz chiqdi, deb:

— Gapir, nima gaping bor! — debdi.

Tol aytibdiki:

— Men shundaymanki, kimki sil kasaliga yo‘liqqan bo‘lsa, mening salqinimda o‘tirsa, shuning dardini ketkizishga quvvatim keladi.

Devona „Ha, ha“, deb keta turib, yo‘lda tut daraxtini uchratibdi. Tut:

— Ey, devona, bir so‘zim bor... — debdi.

— Ha, nima so‘zing bor, — debdi devona.

Tut:

—Jami daraxtlar ichida mening davoyim beqadr. Lekin mening po‘stlog‘imni shilib olib qozonga solib, qaynatib suviga cho‘milgan odamga yara chiqartirmayman, — debdi.

Devona „Ha-ha“, deb kulib ketib qolibdi.

Nariroqqa yetib borsa, devonaga ajriq o‘t uchrabdi.

— Mening ham so‘zim bor, — debdi ajriq.

— Nima so‘zing bor, — debdi devona.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Meni kovlab olib tomirimni oftobda quritib, talqon qilib yegan odamning ichidagi butun illatini yo‘qotishga quvvatim keladi, — debdi. Xullas, butun yer yuzidagi giyohlar o‘zlarining nimaga davo ekanliklarini bu kishiga birma-bir bayon qilib aytgan ekanlar.

Ko‘kargan giyohlarning so‘zi bilan bu kishi har qaysisidan ozgina-ozgina yig‘ib olib devonalikni tashlab, tabibchilik qilgan ekan.

Bu kishining tabibchilik hunaridan ko‘p odamlar shifo topib kelganliklari uchun unga, „Luqmon-devona“, „Luqmon hakim“ deb nom qo‘yishgan ekan. Lekin u odam devonalik qilib yurgan vaqtlarida bopandalik[1] ham qilgan ekan. U yildan bu yilga shu podsho Iskandarning kiyadigan kiyimlarini to‘qib berishning kafilini olgan ekan. Hech bir bopanda ish to‘qib, u kishidek podshoga ma’qul qila olmagan ekan. Shunday bo‘lsa-da, podshoning bergan in’omi bu kishini ta’minlamagandan, devonalik ham qilib yurar ekan.

Bir kun podsho Luqmon hakimga: „Mana bu in’omni oling, jo‘nab qoling, endigi kelishingizda o‘g‘limga va menga yetarli kiyimlik to‘qib keling!“ deb topshiriq beribdi. Luqmon hakim, „Xo‘p“, deb chiqib ketibdi.

Luqmon hakimning ham podsho o‘g‘lidek o‘g‘li bor ekan.

Luqmon hakim o‘ylab „Podshoning o‘g‘li kiyadi-yu, mening o‘g‘lim kiymaydimi?“ deb havas qilib uch kiyimlik to‘qib o‘g‘liga loyiq qilib olib qolib, podshoning o‘ziga va o‘g‘liga yetarli kiyimlik olib borib beribdi. Podsho har vaqtdagidek Luqmon hakimga in’om berib jo‘natib yuboribdi.

Podsho bir kuni vazirlarini chaqirib:

— Ovga chiqib biror narsa ovlab kelaylik, — deb ovga chiqibdi.

Podsho ovini ovlab, dovini dovlab qaytib Luqmon hakimning mahallasidan o‘tib ketayotganda Luqmon hakimning o‘g‘lini ko‘rib qolibdi. Luqmon hakimning o‘g‘li podshoning o‘g‘li kabi kiyinib, ko‘chada varrak uchirib yurgan ekan. Podsho uni o‘z o‘g‘li deb o‘ylabdi. Vazirlaridan so‘rasa, ular:

— U sizning o‘g‘lingiz emas, bu bola Luqmon hakimning o‘g‘li, — deyishibdi. Podsho:

---

[1] **Bopanda** — to‘quvchi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Mening kiygan kiyimim bilan o‘g‘limning kiygan kiyimi nusxasidan o‘g‘liga kiygizib, mening yuz-xotirimni qilmagani uchun men unga jazo tayin qilaman, — debdi. Vazirlar:

— Nima desangiz o‘zingiz bilasiz, — debdilar. Podsho:

— Bunga beriladigan jazo shuki, o‘g‘li bilan o‘zining qo‘l-oyog‘ini bog‘lab, Oqtepa degan cho‘lga tashlaysizlar. Cho‘l o‘rtasiga terak bo‘yi chuqur kovlab, ota-bolani tiriklayin shu chuqurga tashlaysizlar! Ustini yog‘och va tuproq bilan to‘ldirasizlar. So‘ngra bir oy poylab, ikki oygacha tuproq joylab, tuproq ustini loylab, so‘ngra oldimga borasizlar, — deb uyiga ketibdi.

Vazirlar Luqmon hakim bilan o‘g‘lini olishib, Oqtepa cho‘liga ketgan ekanlar. Shu bilan Luqmon hakimni ketkizib, Oqtepa biyobon cho‘liga yetkazib, terak bo‘yi kovlashib, ikki arava terakni keltirishib, Luqmon hakim bilan o‘g‘lini chuqurga tashlashib, hunarlarini xushlashib, ustini bekitib, tuproq to‘kishib, vazirlar xayol surishib turganlarida, bir odam xo‘tik bilan o‘tin terib yurganini ko‘rishibdi. Uni chaqirib olib, gapga solib:

— Shu yerga ikki oygacha tuproq to‘kish kerak. Shu xizmating uchun qancha so‘raysan? —deyishibdi.

Gaplashib bo‘lishganidan keyin ikki oygacha tuproq to‘ktirib, atrofini joylashib, ustini loylashib, bir oy poylashib, podshoning oldiga borishib:

— Buyurilgan topshiriqni o‘rniga qo‘yib keldik, — deb ta’zim qilib turishibdi. Podsho:

— Barakalla! — debdi.

Oradan o‘n-o‘n besh yil o‘tgan. Iskandar podsho o‘lgan. Podshoni ko‘mishgan. Podshoning o‘g‘lini xalq podsho qilib ko‘targan.

Shundan so‘ng xalqning xohishi bilan podshoning o‘g‘li uylangan. Bir yildan so‘ng bir o‘g‘il ko‘rgan. O‘g‘li yetti yoshga to‘lgan. Bir kun podsho ovqat yeb turganda, bir suyak uning halqumiga tiqilib dasturxonga yiqilgan, o‘g‘li bilan xotini tashqariga chiqib:

— Podsho ovqat yeb turib, tomoqlariga suyak tiqilib, yiqilib qoldilar, — deb xabar berib, — tabib keltiringlar! — degan.

Tashqaridagilar darrov besh-oltita tabibni olib kelishib podshoning oldiga yetkizishibdi. Podshoning bu holini ko‘rib, tabiblar:

— Biz bu kasalning ilojini qila olmaymiz, — deyishibdi. Vazirlardan biri:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Luqmon hakimning qadrlari o‘tdi-ku, — deganda, podsho:

— Luqmon hakimning ma’nisi nima? — deb so‘rabdi.

Vazir turib:

— Otangizning davrida o‘tgan bir hakim edi. Uning o‘lgan odamni ham tiriltirib olishlikka quvvati yetar edi. Otangiz bir zulm bilan Oqtepa cho‘liga ko‘mdirib yuborgan, — debdi.

Vazirlardan biri aytibdi.

— Agar chindan ham Luqmon hakim bo‘lsalar, tirikdurlar. Biz borib qaraylik, — deb necha kishi biyobon cho‘lga borib qarasalar, bu kishining tepasiga to‘kilgan tuproqni shamol uchirib har tarafga to‘zg‘itib yuborgan ekan. Izlashib topolmay, hayron qolishibdi. Vazirlardan biri turib:

— Luqmon hakimning ustiga Abdurayim o‘tinchi eshagi bilan ikki oy tuproq tashigan. Shuning uchun biz Abdurayim o‘tinchini topaylik. Eshagini so‘rab olamiz-da, ustiga bir qop tuproq ortamiz, qayerga borib to‘xtasa, o‘sha joyni kovlaymiz va Luqmon hakimni topamiz, — deb eshakni izlashga kirishibdilar. Abdurayim o‘tinchini topib eshagini so‘rab olishibdi. Biyobon cho‘lga yetkizishib, ozgina tuproq olib, qopga solib eshakning ustiga ortishib, eshakni haydab boraverishibdi. Eshak bir joyga borib taqqa to‘xtabdi, yetaklasalar ham yurmabdi. Eshak to‘xtagan yeridan uch-to‘rt ketmon kovlashsa, bir yerdan teshik ochilibdi. Ichkaridan ovoz chiqibdi:

— Kimsan! Menga shabada kirgizma! Suvning ko‘pigidek ilvillab yotibman. Menga zarar yetkazma!

Bular:

— Sizga bizni podsho yubordi. Podshoning tomog‘iga suyak tiqilib qoldi. Shuning dorisi nima? — deb so‘rashibdi.

— Bu kasalga men o‘zim bormasam bo‘lmaydi, — degan ovoz chiqibdi. Ular:

— O‘zingiz boraman deysiz, suvning ko‘pigidek ilvillab qolganman deysiz, unday bo‘lsa qanday borasiz! — deyishibdi.

Luqmon hakim:

— Agar meni olib borish uchun kuchlaringiz yetsa, bu teshikni bekitib ketinglar. Qirq qadoq yog‘, qirq qadoq go‘sht, qirq qadoq piyoz, qirq qadoq tuz, qirq pog‘onali shoti va qirqta qiz olib kelasizlar.

Olib kelgan pog‘onali shotini qo‘lim yetarli joyga tushirasizlar, olib kelgan qizlarni har pog‘onaga o‘tqazib qo‘yasiz, shunda men

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

u qizlarning qo‘llaridan ushlab yuqoriga chiqaman. Ovqat yeyolmayman. Piyozdog‘isi dimog‘imga kirsa, ovqat yegan hisobda o‘taman va kuchga kiraman, podsho oldiga yetaman, — debdi.

Ular bu gaplarni xiyol o‘tmay, podshoga yetkazishibdi. Bu gaplarni eshitgan podsho buyruq beribdi. Usta shotini tayyor qilguncha, ko‘chama-ko‘cha, guzarma-guzar, mahallama-mahalla yurib bo‘yi yetgan qizlarni to‘plashibdi. Shu bilan shoti ham, qirq qiz ham, boshqa aytgan narsalari ham tayyor bo‘libdi. Bularning hammasini aravaga joylab, Luqmon hakim yotgan joyga yetkazishibdi. Shotini tushirib har pog‘onaga bittadan qizni o‘tqazib qo‘yishibdi. So‘ngra Luqmon hakim qizlarning qo‘llarini ushlab quvvat topib, qizlar bequvvat bo‘lib, sap-sariq za’faronday bo‘lib, pog‘onadan yiqilib tusha beribdilar. Chuqurdan Luqmon hakim chiqibdi. Lekin o‘g‘li chuqurda qolibdi. Piyozdog‘ni qovurib turganda isi Luqmon hakimning dimog‘iga urib, shundan bahra olib, podshoning oldiga yetibdi.

Luqmon hakim podshodan hol so‘rab:

— O‘g‘lim, nima dardingiz bor! Ayting! — debdi. Podsho:

— Shoshilib ovqat yeb turganimda tomog‘imga suyak tiqildi.

Shuning iloji qanday? — debdi. Luqmon hakim:

— Buning iloji, o‘g‘lingizni so‘yib qonini ichkazaman, shu dori bo‘ladi. Boshqa dori hech tuzata olmaydi, — debdi. Podsho bu gapga, unamabdi. O‘lsam o‘zim o‘lay, lekin o‘g‘limning so‘yilishiga noroziman, — debdi. Shunda Luqmon hakim vazirlariga gap o‘rgatib:

— Bir o‘g‘ilning bahridan o‘ting, tag‘in boshqa o‘g‘il ko‘rasiz, deb podshoni ko‘ndiringlar! — debdi.

Vazirlar shu so‘zlar bilan podshoni ko‘ndiribdilar. So‘ngra bolaning ust-boshini yechishib, otasining oldiga yotqizib, bo‘g‘izlashga tayyorlab qo‘yganlar. Keyin bolani podsho oldidan olib chiqib, unga ko‘rsatmay nariroqqa yotqizib, uning o‘rniga bir echkining bolasini keltirib, uning tomog‘iga pichoq tortibdilar, shunda echki „ba, ba“ deyishi bilan podsho „Voy bolam, voy bolam“, deb qichqirib yuboribdi. Shu mahal uning tomog‘iga tiqilib qolgan suyak og‘zidan otilib chiqib ketibdi.

Podsho „Voy bolam, voy bolam“, deb esini yo‘qotib turgan vaqtida, bolasi o‘ynab yurganini ko‘rib qolibdi. Podsho Luqmon hakimga do‘q qilib:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Nega meni shuncha qiynading?! — desa, Luqmon hakim:

— Boshqa ilojim yo‘q edi. Mana endi bolang va o‘zing ham omon bo‘lgin, mening tabibligim shu, — debdi, Podsho:

— Murod-maqsadimga yetdim. Tilang, tilagingizni beray, — debdi. Luqmon hakim:

— Gapni gapga urishtirib, so‘zni so‘zga solishtirib, haqni yoki no-haqni tekshirib ish qilsang, menga shu yetarli. Boshqa tilagim yo‘q, — debdi. Podsho:

— Otam siz bilan o‘g‘lingizni shunday yomon jazoga buyurgan ekanlar. O‘g‘lingiz qani? — deb so‘rabdi. Luqmon hakim:

— Barakalla, bu gaping ma’qul gap bo‘ldi. Bir devorning kavagida kaptar bola ochgan ekan. O‘g‘lim yoshlik qilib shu kaptarning bolasini olaman desa, qo‘li yetmabdi, shunda do‘ppisini kavakka tiqib, shotiga ketgan ekan. Kelguncha kaptarning bolasi o‘lib qolibdi. Shuning jabriga qoldi, — deb podshoning so‘roviga javob berib, uyiga ketgan ekan, o‘g‘li bilan qirq qizni olib, davolab murodiga yetgan ekan.

Luqmon hakim uyiga kelganini butun oshna-og‘ayni, qavm-qarindoshlari eshitib, ko‘rgani kelib, o‘rtaga olishib gapirtirib o‘tirishibdi. Kelgan oshna-og‘aynilardan biri:

— Luqmon hakim, bir ko‘rgan-kechirganingizni gapirib bersangiz, — debdi. Luqmon hakim „Xo‘p“ deb so‘z boshlabdi:

Hasratim daftarga sig‘mas bitolmayman, uka,
Og‘zimdagi bor narsani chaynab yutolmayman, uka,
Ko‘rganimda ko‘z yoshimni to‘xtatolmayman, uka.
Ko‘rmayin bosdim tikanni tortib keldim dardini,
Ko‘rsam edim, bosmas edim, tortmas edim dardini,
Xor-zorlik torta-torta tanda toqat qolmadi.
Keldim kulbam aro, ko‘rdim sizlarni,
Yurakda armon qolmadi.

Shu bilan Luqmon hakim o‘z tabibligini davom ettirib, ko‘p vaqtlar yashab yurgan chog‘larida o‘zlaridan o‘zlari notob, betob bo‘lib yotib qolgan ekanlar. Oshna-og‘aynilar, qavm-qarindoshlar va bu kishidan davolanganlar Luqmon hakimning betob bo‘lib qolganini eshitib ko‘rgani kelibdilar. Ular Luqmon hakimdan:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Siz bizga hayron qolarli foydalanadigan so‘zlardan gapirib bersangiz, — deb so‘rashibdi. Luqmon hakim:

— Qish chillasida oqib turgan sovuq suvga cho‘milgan kishining ariq labida o‘lib qolmaganiga hayron qoldim. Issiq suv bilan o‘lgan o‘likni yuvgan vaqtda tirilib ketmaganiga hayron qoldim. Tobi yo‘q odam hammomga tushib, hammomdan chiqqan vaqtda uchib ketmaganiga hayron qoldim. Har qanday odam yalpizning tomirini kovlab olib, suvga solib, yuvib, oftobda quritib, sutga solib, shuni qaynatib ichsa odamning ichida toshi bo‘lsa, shul toshni eritib yuboradi. Ikkinchi halilayi zangi degan giyoh bo‘ladi, uni olib, kuvachaga solib, tuyib, talqon qilib, kap otib yursa, har qanday odamni quvvatli, kuchli qiladi. Har qanday odam yo‘tal bo‘lsa, shunday dardga behi olsa, behining ichidagi urug‘ini olib, urug‘ o‘rniga dumba yog‘ solsa, so‘ng pishirib yesa, yo‘tal bo‘lgan odam tuzaladi, yana har qanday odam har haftada hammomga tushib tursa, sog‘lom-baquvvat bo‘lib yuradi. Sizlarga gapim, qilgan nafim shu, — deb so‘zini tamom qilgan.

Kelgan oshna-og‘aynilar, qavm-qarindoshlar bu so‘zlarni eshitib, o‘z uylariga ketgan ekanlar, Luqmon hakim bir-ikki kundan so‘ng o‘z ajali bilan o‘lgan ekan.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kimyogar

O‘tgan zamonlarda Buxoroning Devonbegi hovuzi yonida, havoning issiq kunlarida ellik yoshlarga kirgan bir chol sopol ko‘zachada o‘tgan-ketganlarga suv berib o‘tirar ekan. Yo‘lovchilar uning suvini ichgach, pul bermoqchi bo‘lganlarida, uzatilgan pullarni o‘z qo‘li bilan qaytarib: „Rahmat, pulingiz kerak emas, ikki og‘iz so‘zingiz kerak, xolos“, der ekan. Buni eshitgan ayrim kishilar qiziqib: „Nima deb aytaylik?“ deganlarida chol: „Abu Ali ibn Sinoning padariga la’nat“, desangiz bo‘ladi, der ekan.

Kunlarning birida bir yosh mullavachcha suv ichgach, cholning bu so‘zini eshitib, hayron qolibdi, yo‘l bo‘yi o‘ylanib ketibdi. Mullavachcha vatani Xorazmga borgach, o‘qiyotgan madrasasining mudarrisiga ko‘rgan va eshitganlarini so‘zlab beribdi. Bu gap mudarrisni ham qiziqtiribdi. Mudarris bir kuni Buxoroga kelsa, mullavachcha aytgan chol hamon suv berib, kishilarni Abu Ali ibn Sino nomiga la’nat o‘qishlariga undab o‘tirar ekan. Mudarris suv ichib, cholga oltin tashlabdi, chol oltinni olmabdi. Kechga yaqin mudarris yana kelib suv ichgach, oltin berib,

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

choldan bir kecha mehmon bo‘lishni so‘rabdi. Suv sotuvchi chol musofirga rahmi kelib uyiga boshlab boribdi. Kechki ovqatdan so‘ng mudarris gap boshlab, uning Ibn Sino nomiga la’nat ayttirishining sababini so‘rabdi, chol ko‘p qarshilik ko‘rsatsa hamki oxiri aytishga majbur bo‘libdi.

Chol o‘z sarguzashtini boshlab, shunday debdi:

— Bundan bir necha yil oldin rahmatlik otam o‘limi oldidan meni oldiga chaqirtirib, behad ko‘p qo‘y, echki, sigir, ot, dang‘illama hovlilarni meros qoldirdi va umrbod ota kasbi — savdogarchilik qilishimni vasiyat qildi. Men ham turli shaharlarga borib, davlat orttira boshladim. Kunlardan birida Balx shahrida mollarimni pullagach, kechki bozorda, bir kitob savdosi ustidan chiqib qoldim. Kishilardan: „Bu qanaqa kitob?“ deb so‘rasam, ular: „Bu kitobni o‘qib tushungan kishi tuproqdan oltin qilarmish“, deyishdi. „Men yonimdagi bor pulimni berib, o‘sha la’nati kitobni oldim, uni o‘qidim. Buxoroga kelib kitobda ko‘rsatilgan jamiki kimyoviy dorilarni topdim, bu dorilarga butun davlatimni sarfladim. Oxiri bir kuni shu dorilarni kitobda ko‘rsatilgandek bir-biriga qo‘shib, idish ostiga qo‘ydim-da, o‘t yoqdim, yetti kun kutdim, keyin ochib ichida oltin bitgandir desam, oltin emas, bir hovuch kul turibdi. Mana shu kitob tufayli bor davlatimdan, hovli-joyimdan ajraldim. Ana shundan beri shu kitobni yozib, meni o‘tday kuydirgan Abu Ali ibn Sinoga la’nat o‘qish bilan o‘zimni ovutib yuribman.

Mudarris bu gaplarni eshitgach, choldan biroz sut, guruch va boshqa narsalarni olib kelishni so‘raydi, so‘ngra shu keltirilgan narsalardan shirin ovqat tayyorlab sotishni aytadi va o‘zi qaytib Xorazmga ketadi.

Bu lazzatli ovqatni birinchi marta ko‘rgan Buxoro xalqi talab ketadi, chol bu ovqatning keltirgan foydasini ko‘rib, kuniga ikki-uch martalab pishiradigan bo‘ladi.

Oradan ko‘p vaqt o‘tmay mudarris Xorazmdan chiqib: „Chol yana Abu Ali ibn Sinoga la’nat o‘qiyotganmikin yoki bas qildimikin“, deb Buxoroga keladi. Buxoroga kelib o‘zi ko‘rsatgan ovqatni har bir ko‘chada ko‘radi, so‘ngra cholning oldiga keladi, chol esa ovqatlarni hamma kishilar pishirayotganligini va oqibatda qadri ketib zarar ko‘rayotganligini aytadi. Mudarris cholga yana pul berib, bundan bir

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

necha yil oldin Balx shahrida olgan kitobda ko‘rsatilgan giyohlardan olib kelishni so‘raydi. Mudarris kitobda ko‘rsatilganidek qilib ularni idishga solib uch kun qizdirgan ekan, uchinchi kuni oltin paydo bo‘libdi. Shunda mudarris bir butun oltinni cholga uzatayotib: „Mana bu oltinni sizning kuli ko‘kka sovurilgan davlatingiz evaziga beraman. Siz bu oltinga har qancha davlat topishingiz mumkin. Siz oddiy lazzatli ovqat sirini uddalay olmasdan, hammaga tarqatdingiz. Agarda oltinning sirini bilganingizda uni tuproq bilan teng qilar ekansiz. Oltinning siri siz pul berib olgan kitobda emas, ilmda, mansabni pulga olish mumkin, lekin ilmni sotib olib bo‘lmaydi. Bu kitobni yozgan kishi o‘ttiz-qirq yillik ilmiy tajribaga asoslanib yozgan. Mana shu kitobni yozgan Abu Ali ibn Sino men bo‘laman, bundan keyin mening nomimga la’nat aytishni to‘xtatarsiz, deb umid qilaman“, deb chiqib ketgan ekan.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Ayoz

O'tgan zamonda Xundarxon degan bir podsho o'tgan ekan. Uning Malikaxon degan xotini bor ekan. Podsho bu xotinidan to'qqiz qiz ko'rgandan keyin, xotini yana homilador bo'libdi. Bir kun podsho xotiniga:

— Men sen bilan shuncha yil umr qilib, oh-voh bilan o'tdim. Har safar homilador bo'lganingda, bu gal o'g'il tug'ar deb yuraman, lekin qiz tug'asan. Bu safar ham qiz tug'sang, jahl ustida seni o'ldirib qo'ymayin deb, ovga chiqib ketyapman. O'g'il tug'sang, mening orqamdan xabar yubor, bordi-yu, qiz tug'sang, kelgunimcha uyni bo'shatib qo'y, — deb otiga minib jo'nabdi.

Shu kuni yarim kechada podshoning xotini yana qiz tug'ibdi. Malika momo xotinga:

— Otasi: „Qiz tug'sang, kelgunimcha uyni bo'shatib qo'y", degan edi. Menga bolani yo'rgaklab bering, men boshim oqqan tomonga ketayin, — debdi.

Kampir:

— Ey, jon bolam, shunday saltanat-dabdabani tashlab, ikki ko'zingni yoshlab, qayoqqa borasan? Sen mening gapimga kirgin-da, o'n besh tilla

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

pul bilan qizingni menga ber. Shu atrofda besh-oltita homilador xotin: „Momo, bizdan xabar olib turing“, deb aytgan edi. Shulardan birontasi o‘g‘il tug‘gan bo‘lsa, o‘n besh tillani berib, qizingni alishtirib kelaman, — debdi.

Malika suyunib o‘n besh tilla berib:

— Ilohim, toleimga birortasi o‘g‘il tug‘gan bo‘lsin, — deb kampirni jo‘natibdi.

Kampir bola bilan o‘n besh tilla pulni olib, bir eshik yonida to‘xtab uni taqillatibdi. Uydan bir bola chiqib:

— Ey, ena, nimaga chaqirdingiz? — deb so‘rabdi.

— Sening onang ikkiqat edi, „Mendan xabar olib turing“, degan edi. Onangdan xabar olgani keldim, — debdi. Bola:

— Dadam bir yoqqa ketgan edi, onam inqillab yotibdi, yaxshi kelibsiz, ichkariga kiring, — debdi.

Kampir ichkariga kiribdi, homilador xotin qiynalib yotgan ekan, unga qarashibdi. Keyin xotin bir o‘g‘il tug‘ibdi. Kampir unga:

— Ey bolam, sen o‘g‘il tug‘ding. Mana bu qiz podshoning qizi edi. Sen o‘n besh tillani ol, o‘g‘lingni menga ber. Ering kelsa, qiz tug‘dim deysan-qo‘yasan. Men o‘g‘lingni podshoning xotiniga olib borib beraman, — debdi.

U xotin ham to‘rtta o‘g‘il tug‘gan ekan. Eri: „Bitta ham qiz tug‘mading“, deb yurar ekan. Xotin xursand bo‘libdi, o‘n besh tilla bilan qizni olib, o‘g‘lini kampirga berib yuboribdi. Kampir o‘g‘ilni olib, qo‘yniga solib, malikaning yoniga boribdi. Podshoning xotini bolani qo‘liga olib quvonibdi, podshoga chopar yuboribdi.

Podsho malikaning tug‘ganini eshitib, borgan kishiga ko‘p suyunchi beribdi, ovdan qaytib: „Men ham o‘g‘il ko‘rar ekanman“, deb xursand bo‘lib, qirq kecha-yu qirq kunduz to‘y qilib beribdi. Bola uch yashar bo‘lganda, podsho xatna to‘yi qilibdi.

Bola olti yashar bo‘lganda podsho katta dasturxon qilib, bolani qo‘lidan yetaklab maktabga olib boribdi. Domlaga: „Eti sizniki, suyagi bizniki, yaxshi o‘qiting“, deb tayinlabdi.

Domla, „Bolani urib-so‘ksam, ko‘ngliga ozor bersam, borib otasiga aytadi, podsho meni hukmikushga buyursa, hech kim meni ajratib ola olmaydi“, deb o‘ylabdi. Bolani yetti qavat ko‘rpachaning ustiga o‘tqazib, ko‘p izzat-ikrom bilan o‘qitib yuribdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Oradan bir oy o‘tgandan keyin podsho o‘g‘lidan:

— O‘g‘lim, domlangiz qalay? —deb so‘rabdi. O‘g‘li:

— Ey, ota, domlam meni yaxshi ko‘radilar, yetti qavat ko‘rpachaga o‘tqazib o‘qitadilar, — debdi. Podsho bolaning gapiga razm solib:

— O‘g‘lim, endi domlaning oldiga sira bormang. U sizni o‘qita olmas ekan, — debdi. Ertasigayoq o‘g‘lini boshqa maktabga olib boribdi.

Podshoning o‘g‘li maktabga borib yuribdi. Oradan besh-olti kun o‘tgandan keyin podsho o‘g‘lidan:

— O‘g‘lim, u domlangiz qalay? — deb so‘ragan ekan. Bola:

— Bu domlam u domladan ham yaxshi ekan, — debdi. Podsho:

— Bo‘lmasa endi bu domlangiznikiga ham bormang, — debdi.

Oradan uch-to‘rt kun o‘tgandan keyin podsho dasturxon qildirib, bir piyola tanga olib, yana bir domlaning darsxonasiga olib boribdi.

Domla podshoga:

— Fuqaroingizning bolalarini qanday o‘qitsam, sizning o‘g‘lingizni ham shunday o‘qitaman. Ilm degan narsa qiyinchilik bilan egallanadi. Shunga rozi bo‘lib, qo‘lingizdan qog‘oz bersangiz o‘qitaman, bo‘lmasa yo‘q, — debdi.

Podsho rozi bo‘libdi, o‘g‘lini maktabga berib ketibdi. Bola maktabga bormay desa, otasidan qo‘rqadi, maktabga borsa, domla zax yerga o‘tqazib qo‘yib, „Tez-tez o‘qi“, deb qistaydi.

Shu ahvolda bola olti yil o‘qib, o‘n ikki yoshga kiribdi. Bir kuni bola otasiga domladan shikoyat qilib:

— Domlaning qiynog‘idan zerikdim, men endi o‘qib bo‘ldim, shu ilm ham menga yetadi, — debdi.

Podsho:

— E, o‘g‘lim, hali yoshsiz, ko‘p o‘qishingiz kerak, — desa, o‘g‘li:

— Men o‘zim katta mulla bo‘lib qoldim, endi o‘lsam ham o‘qimayman, — debdi.

— Agar mulla bo‘lib qolgan bo‘lsangiz, maktabga borish, bormaslik sizning ixtiyoringizda. Dunyoda to‘rt yomon narsa bor, shu narsalarni aytib bersangiz, sizning mulla bo‘lib qolganingizni e’tiborga olaman, aytib bera olmasangiz, yana shu domlangizda o‘qiysiz, — debdi podsho.

Bola maktabga bormay: „Shu to‘rt yomon narsani bilib, otamga aytib bermasam, domladan qutulmas ekanman“, deb dalaga chiqib qo‘sh haydab yurgan bir dehqonning yoniga borib:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Yur bu yoqqa! — debdi. Dehqon:

— Sen o‘zing kimsan, menga „Yur bu yoqqa“, deyishga nima haqqing bor!? — debdi.

— Meni bilmaysanmi? Men podshoning o‘g‘li bo‘laman! — debdi.

— Podshoning o‘g‘li bo‘lsang bo‘libsan-da, nega menga „Yur bu yoqqa“, deysan, — debdi.

— Otam „Dunyoda to‘rt yomon narsa bor, shuni bilib kelgin“, degan edi. Shuning bittasini topdim. Bu — sen. Agar yaxshi odam bo‘lsang, silliq yerning yuragini yorib, g‘adir-budir qilarmiding, yur bu yoqqa! — deb dag‘dag‘a qilibdi.

Shunda dehqon:

— Sen meni otangning oldiga olib bormagin. To‘rt yomon narsani o‘zim aytib beray. Ammo otang mening aytganimni bilmasin. Otang: „Topib keldingmi, qani ayt!“ desa, qushlarning ichida kalxat yomon, hayvonlarning ichida xachir yomon, to‘qayda to‘ng‘iz yomon, odamlar orasida laqmasi yomon, degin, otang xursand bo‘ladi, — debdi.

Bola bularni bilib ketgan ekan, otasining oldiga yetgan ekan.

— E, o‘g‘lim, nimaga kelding? — deb otasi so‘rabdi.

— Siz aytgan to‘rt yomonni topib keldim: qushlarning ichida kalxat yomon, hayvonlarning ichida xachir yomon, to‘qayda to‘ng‘iz yomon, odamning ichida laqmasi yomon, — debdi.

— O‘g‘lim, bu gapni o‘rgatganning o‘zi yomon. Kimki senga bu gapni o‘rgatgan bo‘lsa, yoningda turgan navkarni olib borib, o‘sha odamni ko‘rsat, bu yerga uni olib keladi, — deb o‘g‘lining yoniga bir odam qo‘shib yuboribdi. Bola navkarni dalaga olib chiqib qo‘sh haydab turgan odamni ko‘rsatibdi:

— Ana shu odam, — debdi. Podsho yuborgan odam dehqonning yoniga boribdi:

— Bu bolaga gap o‘rgatganingiz uchun podsho sizni chaqiryaptilar, yuring, — debdi, dehqon navkar bilan podshoning oldiga boribdi.

— Bizning o‘g‘ilga to‘rt og‘iz gapni siz o‘rgatdingizmi?

— O‘g‘lingiz so‘ragan edi, aytdim.

— Sizning otingiz nima?

— Mening otim Ayoz.

— Ey, Ayoz, o‘zingni bil, o‘zgani qo‘y. Men o‘qishdan qolmasin deb, undan hech kim bilmaydigan gapni talab qilgan edim. Sen shunday

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
gapni bilar ekansan. Sendan ancha maslahat chiqadiganga o‘xshaydi. Mening o‘nta vazirim bor, seni ham vazirlikka oldim, — deb o‘ziga vazir qilib olibdi.

— O‘g‘lim, sizning birovdan o‘rganib olgan gapingiz e’tiborga olinmaydi, endi siz maktabingizdan qolmang, — deb podsho o‘g‘lini yana maktabga jo‘natibdi.

Ayoz podshoga vazir bo‘lib qolgan ekan

Oradan uch-to‘rt kun o‘tgandan keyin podshoning xizmatchisi uning otini sug‘orish uchun yetaklab olib o‘tib ketayotgan ekan, podsho ichida „Yangi vazirni bir sinab qo‘yay“, debdi-da:

— Ayoz, bu ot qalay, senga yoqadimi? — debdi. Ayoz:

— Otingiz otjon ekan-u, enasi moljon ekan-da, — debdi.

— Buni otjon deganing yaxshi, enasi moljon ekan, deganing nimasi? — debdi podsho. Shunda Ayoz:

— Taqsir, shu otni sizga kim olib kelgan bo‘lsa, o‘shandan so‘rang. Bu otning enasi otmi, molmi ekanini keyin bilasiz, — debdi.

Podsho darrov otni tortiq qilgan odamni chaqirtirib kelib, undan so‘rabdi:

— Bu otning enasi otmi yoki molmi?

Otning egasi aytibdi:

— Rostini aytsam, bu otning otasi ham ot, onasi ham ot. Ammo, onasi tug‘gandan keyin, uch-to‘rt kun o‘tgach, o‘ldi. Toy enasini emolmay qoldi. Shunda nima qilishimni bilmay, sigir suti berib boqdim. Katta bo‘lgandan keyin, kambag‘alchilik asar qilib, sotmoqchi bo‘ldim.

Bozorga olib borib sotishga ko‘zim qiymay, sizga tortiq qildim. Ozdir-ko‘pdir in’om berdingiz, oldim, — debdi.

Podsho unga javob berib, Ayozdan so‘rabdi:

— Bu otning sigir suti ichib katta bo‘lganini qanday bilding?

— Xizmatchingiz otni ariqqa olib borib sug‘ordi. Qarab tursam tumshug‘ini bu yoqqa burib, keyingi oyog‘ini ariqqa qarab silkidi. Ot bolasi bunday qilmas edi-ku, deb taxmin qildim, — debdi. Podsho bu javobdan qanoat hosil qilib:

— Xazinachi, xazinadagi ikkita gavhar shamchiroqni olib chiqib, Ayozning oldiga qo‘y! — debdi.

Xazinachi shamchiroqni olib chiqib, Ayozning oldiga qo‘yibdi. Podsho:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Buni senga in'om qilib qo'yganim yo'q, buning qaysi biri toza, qaysi biri past ekanini aytib ber, — debdi.

Ayoz gavharga qarab turib, ular past deb yurganini toza, toza deb yurganlarini past degan ekan, podshoning achchig'i kelib:

— Ey, Ayoz, sen shunga qolganda ayniding. Qizil, sariq bo'lib tovlanadigan gavharni past deb, nega past gavharni toza deysan? — debdi.

— Ey, podsho, achchig'ingiz kelmasin. Buning tovlanishiga sabab, uning ichida qurti bor. Qurt u yoqqa-bu yoqqa ag'anaganda, gavhar tovlanganga o'xshab ko'rinadi, u gavhardan bu gavhar past, — debdi.

Podsho vazirlariga:

— Shu gavharning ichida qurti bor degani uchun sindiringlar, ko'raman, — debdi.

Vazirlar bir-birlariga qarab, sindirishga yuraklari betlay olmay turishganida, Ayoz bir toshni olib, gavharning o'rtasiga urib, ikki bo'libdi. Gavharning ichidan bir qurt chiqib, o'rmalab ketayotganini podsho ko'ribdi, lekin gavharning singaniga achinib:

— Gavharni nimaga sindirding?! — debdi.

— Gavharni men sindirganim yo'q, vazirlaringiz sindirdi, — debdi.

Shunda podsho.

— O'zing sindirib, men sindirganim yo'q, vazirlaringiz sindirdi, deganing nima deganing? — debdi.

Ayoz aytibdi.

— Taqsir, men sindirsam nihoyati bir dona gavharni sindiribman. Sizning so'zingizni sindirganim yo'q-ku, bular sindirdi.

Podsho uning so'zini e'tiborga olib:

— Kamol top, Ayoz!— debdi. Shunday qilib uch-to'rt kun o'tganda vazirlarning rashki kelib, Ayozni podshoga yomon ko'rsatish uchun:

— Kecha kelgan vaziringizni bizdan ortiq ko'rasiz, biz buning bilimdonligini sinaymiz, — deyishibdi. Podsho:

— Qanaqasiga sinab ko'rsalaring, ko'ringlar, — debdi.

Shunda vazirlar Ayoz o'tiradigan ko'rpachaning tagiga bir yupqa qog'ozni tashlab, askiya-safsata qilib o'tirishganda, Ayoz kelib, ko'rpachaga o'tiribdi. U sukutga ketibdi. Podsho buni ko'rib:

— Nega xayoling parishon? — deb so'ragan ekan, Ayoz:

— Bilmayman, yer piyozning po'stidek ko'tarildimi yoki osmon sal pastga tushdimi, deb o'ylayapman, — debdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Shunda vazirlar:

— Taqsir, endi sizning oldingizda Ayoz tursin, biz turmaymiz, — deyishibdi. Podsho:

— Mening ishim bir Ayoz bilan bitmaydi. Sizlar Ayozni g'ash ko'rsalaring, men ham Ayozning vazirligidan kechdim, — degan ekan.

Podsho vazirlarining ko'ngli uchun Ayozni zindonga solgan ekan.

Bir kun ertalab vazirlar podshoning oldiga salomga kirishganda podsho chalqancha yotgan ekan. U vazirlarga qaramay:

— Olib keling! — debdi.

Vazirlarning nimani olib kelishga aqllari yetmabdi. Uch kun o'ylashibdi. Oxiri to'g'ri Ayoz yotgan zindonga borib Ayozni chaqirishibdi. Ayoz zindonda turib:

— Kimsizlar, — debdi.

— Biz vazirlarmiz. Podsho bizga „Olib keling" dedi, ammo nimani olib kelishni aytmadi. Biz uch kundan beri nima olib borishni bilmay, uning ro'parasiga bora olmayapmiz. Podshoga nima olib borsak ekan, deb sizdan so'ragani keldik.

— Podsho yerga qarab „Olib keling" dedimi, osmonga qarab „Olib keling" dedimi? — deb so'rabdi Ayoz. Vazirlar:

— Chalqancha yotgan vaqtlarida, uyning atrofi, shipiga qarab aytdilar, — debdi.

Ayoz:

— Chalqancha yotib, uyning atrofi, shipiga qarab aytgan bo'lsa, bitta duradgor, bitta sirchi, bitta suvoqchi, sartarosh olib boringlar. Ammo men aytganimni bilmasin, — debdi.

Vazirlar Ayoz aytgan to'rtta ustani podshoning oldiga olib borishibdi. To'rt usta podshoga ta'zim qilibdi. Podsho:

— Sizlar kimsizlar? — deb so'ragan ekan.

Ulardan biri:

— Taqsir, vazirlaringiz olib keldi. Birimiz duradgor, birimiz sirchi, birimiz suvoqchi, birimiz sartarosh, — debdi.

Shunda podsho:

— Sen duradgor bo'lsang, anavi uyning to'rtta vassasi egri bo'lib qolgan, shu vassalarini olib tashla, o'rniga to'g'ri vassa qo'y. Sen sirchi bo'lsang, darrov o'shani sirla. Sen suvoqchi bo'lsang, anavi g'adir-budur bo'lib turgan joyni tekislab, u devor bilan bu devorni suvab qo'y. Sen

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

sartarosh bo‘lsang, shu uchovi ishni bitirguncha mening sochimni olib qo‘y, — debdi.

To‘rtta usta ishni bitirib ketganda, nariroqqa yetganda, podsho vazirlaridan so‘ragan ekan:

— Kimning aqli bilan mening oldimga bu to‘rtta ustani olib keldinglar, aniq aytinglar!

Vazirlar aytibdi:

— Taqsir, biz o‘z aqlimiz bilan ularni olib keldik.

Podsho:

— Rostini aytinglar, sizlardan bunday maslahat chiqishiga hali ko‘p qovun pishig‘i bor, — debdi, ularga ko‘p dashnom beribdi: — Buni sizlarga Ayoz o‘rgatgan, sizlardan bunday fikr chiqmaydi.

Vazirlar:

— To‘g‘ri, shohim, Ayoz aytdi. „Mening aytganimni podsho bilmasin“, degani uchun sizga aytmagan edik, — deyishibdi. Podsho:

— Unday bo‘lsa, Ayozni zindondan ozod qilinglar, u sizlarning yeydiganlaringni yeb, ichadiganlaringni ichib qo‘ygani yo‘q, — debdi.

Podsho Ayozni o‘sha topda oldirib kelib, yana o‘z o‘rniga vazir qilib qo‘ygan ekan.

Ayoz vazir bo‘lib yurganda, besh-olti kun turganda vazirlardan bittasi: „Ayoz ketadi, uyiga borib yotadi. Buni bir poylay-chi, uyida nima ish qilar ekan“, deb o‘ylab, Ayozni poylabdi.

Ayoz uyiga borgandan keyin, vazirlik libosini yechib, sandiqqa solib, sholi poxolga chalqancha yotibdi, qoziqqa ilib qo‘ygan eski chorig‘iga qarab naql o‘qibdi:

— Ey, Ayoz, vazir bo‘ldim deb, o‘tgan kuningni unutma, eski chorig‘ingni quritma.

Ayoz orqasidan poylab yurgan vazir uning bu naqlini eshitib olib, to‘g‘ri podshoning oldiga boribdi:

— Ey, taqsir: go‘shtning asli qartadir, asl zotiga tortadir. Vaziringiz Ayozning eshigini qo‘yib, teshigidan poylab qarab tursam, ishdan uyiga qaytgach, siz bergan kiyimlarni yechib, sandiqqa solib, tagiga bir bog‘ sholi poxolni solib, chalqancha yotgan joyida qoziqqa ilib qo‘ygan eski chorig‘iga qarab: „Ey, Ayoz, podshoga vazir bo‘ldim deb, o‘tgan kuningni unutma, eski chorig‘ingni quritma“, deb vaysab yotar ekan, — deb chaqibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Ertasiga Ayoz podshoning oldiga ta'zimga kiribdi. Podsho:

— Ey, Ayoz, sen qo'sh haydab yurganingda kiyadigan chorig'ingni uyingning qozig'iga ilib qo'ygan ekansan, kech qurun o'rdadan uyingga borib, mening bergan kiyimlarimni bu yoqqa qo'yib, bir bog' poxolni tagingga solib, chorig'ingga qarab vaysaganing nimasi? Shu gap rostmi? —deb so'rabdi.

— Ha, taqsir, rost, — debdi Ayoz.

Podsho:

— Rost bo'lsa, senday vazirning menga keragi yo'q, bor ket! — debdi-da, vazirlik kiyimlarini ustidan yechtirib olib, eski choponini egniga solib jo'natib yuboribdi.

Ayoz yo'lda ketayotganida saksonga kirgan bir chol uchrab qolibdi. Cholning yonidan o'tib, uni qoldirib ketish odobdan emas, deb o'ylabdi. U chol bilan barobar ketayotib:

— Ota, yo'l bo'lsin? — debdi.

Chol:

— Nima bo'lsa pul bo'lsin, — debdi.

— Ota, uzoq yo'lni yaqin qilib ketaylik, — desa, chol indamabdi.

Yana biroz yurib:

— Ota, ot bo'lmasa ham, toy minib ketaylik, — debdi. Cholning g'ashi kelib, indamabdi. Sal yo'l bosgach, cho eshikka kirib ketibdi.

Ayoz yo'lida davom etibdi.

Cholning o'n sakkiz yashar bir qizi bor ekan, qiz otasidan:

— Ota, qayoqqa borib keldingiz? — deb so'rabdi. Otasi:

— Ko'chalarni aylanib, tomosha qilib keldim, — debdi. Qiz:

— Xo'sh, ko'chada nima gaplar bor? — deb so'rabdi.

— Hech gap yo'q. Yo'lda bir betamiz odam bilan hamroh bo'lib qolgan ekanman: „Uzoq yo'lni yaqin qilib ketaylik; ot bo'lmasa ham, toy minib ketaylik", deb, to uyga kelgunimcha gapirib keldi, — debdi.

Qizi aytibdi:

— Ey, ota, „Uzoq yo'lni yaqin qilib ketaylik", degani gapirishib ketaylik, degani. „Ot bo'lmasa ham, toy minib ketaylik", degani keksa ekansiz, bitta-yarimta yog'ochdan hassa qilib beray, degani. Siz o'sha yigitni taniysizmi?

— Uning aytgan gapiga g'ashim kelib, aftiga ham qaramabman, ko'rsam ham tanimayman.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

«Hotam» ertagiga ishlangan rasm

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Bo‘lmasa siz mana bu ikki pulni oling, bozorga boring, „Ikki pulga uch xil yeydigan ovqat bormi?“ deb boqqolma-boqqol yuring.

O‘sha yigit bozorda yurgan bo‘lsa, ikki pulga uch xil yeydigan narsa olib beradi, olib keling. O‘sha narsani olib bergan odamga: „Siz mana bu choyxonada turing“, deb tayinlab keling, — debdi.

Chol ikki pulni olib, bozorga borib: „Ikki pulga uch xil yeydigan ovqat bormi?“ deb so‘rasa, odamlar cholga dashnom berib. „Nari bor, chol, ikki pulingga nima keladi“, debdi. Shu vaqtda Ayoz kelib:

— Ota, menga bering. Sizning aytgan narsangizni men olib beray, — deb ikki pulga bitta handalak olib, cholga beribdi. — Ota, ikki pulga uch xil yeydigan ovqat mana shu.

Chol:

— Bu handalakni bir kishi yeydi, handalak bir xil narsa, yana ikki xili qani? — debdi.

Ayoz:

— Ey, ota, shu ikki pulga uch xil yeydigan narsa olib keling, degan odamga olib borsangiz! „Mening aytganim mana shu edi“, deb etini o‘zi yeydi, po‘chog‘ini echkiga beradi, urug‘ini tovuqqa beradi, — debdi.

Chol:

— Xo‘p, bolam, bo‘lmasa, siz hech qayoqqa ketib qolmang, mana shu choyxonada turing, otingiz nima? — debdi. Yigit:

— Otim Ayoz, — debdi.

Chol handalakni olib uyga borgandan keyin qiz handalakni so‘yibdi, otasi bilan yeb to‘yibdi, po‘chog‘ini molga, urug‘ini tovuqqa beribdi. Shu bilan darrov bir tandir patir bilan ancha chuchvara qilib pishirib, bir laganga tushirib, zich qilib terib, ustidan moy quyib, betiga patirni qoplab, dasturxonga o‘rabdi. Bir kampir qo‘shnisini chaqirib:

— Xolajon, mana shu dasturxonni olib, bozor boshiga borib, choyxonadan: „Shu yerda Ayoz degan yigit bormi?“ deb so‘rang. „Ha, men“ desa, shuni bering. Qo‘lingizdan dasturxonni olayotganda siz unga: „Havo qorong‘i, yulduz zich, oy butun“, deb qo‘liga bering, deb tayinlabdi va kampirni jo‘natibdi. Kampir yo‘lda ketayotib o‘z-o‘zicha: „U u yoqda, bu bu yoqda, bilib o‘tiribdimi“, deb dasturxonni ochib, chuchvaradan yeb, siyraklatib, moyni ichib, patirning yarmini yeb boshqatdan dasturxonni o‘rab choyxonaga boribdi. Ayozni so‘rabdi:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Ayoz degan yigit kim? — debdi.

— Ha, men, — debdi Ayoz. Kampir dasturxonni berayotib:

— Shu dasturxonni sizga birov berib yubordi. Havo qorong'i, yulduz zich, oy butun, — debdi. Ayoz ichkariga kirib, dasturxonni ochib qarasa, chuchvara juda siyrak, moyi yo'q, patir yarimta. Ayoz laganni bo'shatib, kampirning qo'liga berib aytibdi:

— Bu dasturxonni sizga kim bergan bo'lsa, unga borib ayting: „Havo yorug', yulduzlar siyrak, oy yarimta ekan", deng, — debdi.

Kampir laganni olib, qizning oldiga boribdi. Qiz: „Nima dedi?" deb so'rabdi. Kampir aytibdi:

— Yigit laganni bera turib: „Havo yorug', yulduz siyrak, oy yarimta", deng, dedi.

— Shu yuborgan narsamni yo'lda ochib, chetroq joyga qochib, yog'ini ichib, chuchvara, patirning yarmisini yebsiz. Shunday ham badnafslik bo'ladimi? — degan ekan. Kampir hayron bo'lib, uyalib uyiga chiqib ketibdi. Qiz Ayozni chaqirtiribdi, unga tegmoqchi bo'libdi, Ayoz olmoqchi bo'libdi.

Ayoz to'y qilib, cholga kuyov bo'lgan ekan. Cholning biroz yeri bor ekan, Ayoz yana eski chorig'ini kiyib, ekin ekib, dehqonchilik qilib yura bersin, indamay tura bersin. Endi ikki og'iz gapni podshodan eshiting.

Podsho otxonaga chiqib, otlariga qarab: „Olib kelinglar!" deb, dahshat bilan vazirlariga buyruq beribdi. Vazirlar nima olib kelishini bilmay, podshoning oldiga bora olmay qo'rqib yurishibdi. Shunda bir odam vazirlarga aytibdi:

— Ayozning oldiga borib maslahat qilinglar. U Iqon degan qishloqda dehqonchilik qilib yuribdi. Bu buyruqning tugunini hech kim yecha olmaydi, Ayoz yechib beradi, — debdi.

Vazirlar shoshilgancha qishloqqa borib, Ayozning hovlisini topib, eshigini qoqib chaqirishgan ekan, Ayoz chiqib:

— Xo'sh xizmat?! — debdi. Vazirlardan biri:

— Podsho bizga dahshat bilan „Olib kelinglar!" dedi. Nima olib borishimizni bilmay hayronmiz, shunga nima maslahat berasiz, so'ragani keldik, — debdi.

Ayoz:

— Podsho qayoqqa qarab turib „Olib kelinglar" dedi, — deb so'rabdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Vazirlar:

— Otxonadagi otlarga qarab aytdi.

— Gapingizga qaraganda podsho ovga chiqib kelgan. Shunda otning uzangisi, yo ayili, yoki yuganining biror joyi uzilgan. Endi sizlar bitta sarroj olib borsalaringiz bo‘ladi, — debdi.

Bular podshoning oldiga bir sarrojni olib borishibdi.

— Mana, taqsir, bu kishi sarroj, — deyishibdi. Podsho:

— Xo‘p bo‘lmasa, uzangi uzilib, ayillar to‘zib ketgan edi, ot abzalining butun kam-ko‘stini tayyorlab qo‘ying, — deb sarrojga tayinlabdi. Sarroj ketgandan keyin podsho vazirlarga qarab:

— Sizlar buni o‘z aqllaring bilan olib kelganlaring yo‘q. Ochig‘ini aytinglar, buni sizga kim aytdi, — debdi.

Shunda vazirlar turib:

— Taqsir, rostini aytsak, ilgarigi vaziringiz Ayoz Iqon qishlog‘iga ketib qolgan ekan. Daraklab uni topib, shuning aqli bilan olib keldik, — deyishibdi.

Podsho:

— Shu bir og‘iz gapning mazmunini yecha olmay, sarson bo‘lib, qishloqqa borib Ayozning gapi bilan ish qilibsizlar. U dedinglar, bu dedinglar, xullas, Ayozni mening oldimdan ketkazdinglar. Ko‘pdan ko‘p aql chiqadi, ozdan oz aql chiqadi. Hali ham bo‘lsa, Ayozni oldirib kelishimiz kerak, — debdi.

Podsho Ayozni oldirib kelgandan keyin, vazirlar yana uni g‘ash ko‘rib, nima qilishlarini bilmay qolishibdi. Kunlardan bir kun vazirlar yig‘ilib podshoga:

— Taqsir, sizga Ayozning o‘zi vazir bo‘lib tura qolsin. Bizga javob bering! — deyishibdi. Podsho:

— Bo‘lmasa men Ayozga bir ish buyuraman. Ayoz u ishning uddasidan chiqmay, bu yerga kelmaydigan, hech narsa demaydigan bo‘lib ketadi, — debdi.

Ertasi ertalab Ayoz podshoning oldiga ta’zimga kiribdi. Podsho:

— Men senga bir ish buyuraman, agar shu ishning uddasidan chiqa olmaydigan bo‘lsang, bu yerga kelma, birov ish o‘rgatgin desa, o‘rgatma, — debdi. Ayoz:

— Xo‘p, —debdi.

Podsho:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Menga tepasi osmonga yetmaydigan, tagi yerga tegmaydigan qilib imorat soladigan usta topib kel, — debdi.

Ayoz podshoning qilgan ishiga, aytgan gapiga xafa bo‘lib uyiga borganda, xotini:

— Muncha rangingiz olingan, qovog‘ingiz solingan. Sizga nima bo‘ldi? — deb so‘ragan ekan, Ayoz aytibdi:

— Ey, xotin, chaqimchilar gap chaqishtirib, meni podshoning ko‘ziga ko‘p yomon ko‘rsatib qo‘yishdi. Podsho meni shuncha ovora qilib, yana „Tagi yerga tegmaydigan, tepasi osmonga yetmaydigan qilib imorat soladigan usta topib kel“, — dedi.

Xotini:

— Bu gapga xafa bo‘lsangiz ham bo‘ladi, xafa bo‘lmasangiz ham bo‘ladi. Men sizga o‘sha podsho aytgan ustani topib beraman. Siz bugun dalaga chiqib, ikkita jo‘r to‘rg‘ayning bolasini topib keling. Men shuni o‘n besh kunda usta qilib beraman, — debdi.

Ayoz hayron bo‘lib: „Qani olib kela beraychi, nima qilar ekan“, deb dalaga chiqib ikkita jo‘r to‘rg‘ayning bolasini olib kelibdi. Xotini jo‘r to‘rg‘ayni olib, qafasga solib, kecha-yu kunduz qafasning yoniga o‘tirib: „loy, g‘isht, loy, g‘isht“, deb jo‘r to‘rg‘ayning qulog‘iga ayta bergan ekan, jo‘r to‘rg‘ay ham o‘n besh kun ichida „loy, g‘isht, loy, g‘isht“ deydigan bo‘lib qolibdi. O‘n besh kundan keyin xotini Ayozning qo‘liga jo‘r to‘rg‘ayni berib:

— Mana, qafas bilan podshoning oldiga boring, jo‘r to‘rg‘ayning oyog‘iga ip bog‘lab uchiring, u yog‘ini o‘zingiz bilasiz, — debdi.

Ayoz xotinining so‘zi bilan podshoning oldiga borib, ta’zim qilibdi. Podsho:

— Nimaga kelding? —deb so‘rabdi.

Ayoz:

— Siz aytgan ustani topib keldim, — deb jo‘r to‘rg‘ayning oyog‘iga ip bog‘labdi-da, qafasdan chiqarib yuboribdi. Jo‘r to‘rg‘ay osmonga chiqib: „Loy, g‘isht, loy, g‘isht“ deb sayray beribdi. Ayoz podshodan so‘rabdi:

— Taqsir, bu nima deyapti?

— Loy, g‘isht, loy, g‘isht, — deyapti.

— Loy, g‘isht deyayotgan bo‘lsa, siz aytgan usta mana shu. Endi loy bilan g‘isht yetkazib beradigan mardikorni topib bersangiz siz aytgan imoratni solib beradi, — debdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Podsho noiloj, nima qilishini bilmay, yana Ayozni o‘ziga vazir qilib olgan ekan.

Kunlardan bir kun podshoning tobi qochib, xalqni so‘rashga madori qolmay, o‘rniga kimni qo‘yishni bilmay: „Yosh bo‘lsa ham o‘g‘lim-da“, deb, o‘z o‘g‘li bilan Ayozni chaqiribdi:

— Ayoz, sen vazir, o‘g‘lim, sen podsho. Ikkoving men tuzalgunimcha xalqni so‘rab turasan, — debdi. Keyin o‘g‘lini yoniga chaqirib olib: — Ayoz juda bilgir odam, bitta-yarimta chaqimchining so‘ziga kirib, uni o‘ldirib yuborma. Agar juda g‘ashing keladigan bir gap gapiradigan bo‘lsa, shu gapni surishtirib, ma’nosini bilib, shunga qarab hukm chiqar, — deb tayinlabdi. Besh-olti kundan keyin podsho o‘libdi. Kun o‘tibdi, oy o‘tibdi. Bir kun shahzoda Ayozdan so‘rabdi:

— Mening zarbim qalay, xalqqa ozor beryapmanmi? — deganda Ayoz turib javob beribdi.

— Xalqni so‘rashingiz juda yaxshi. Bunga mening e’tirozim yo‘q, ammo zarshunosligim yo‘rig‘idan ko‘nglingizga qattiq olmasangiz bir so‘z aytaman.

— Otamning qilgan nasihati hurmati, har qanday gap gapirsang ham ko‘nglimga qattiq olmayman, — debdi shahzoda.

— Agar ko‘nglingizga olmaydigan bo‘lsangaz, siz podshoning o‘g‘liga o‘xshamaysiz, asli sizning otangiz novvoymikan, deb xayol qilaman, — debdi Ayoz. Ayozning bu gapiga shahzodaning g‘azabi kelibdi.

Ayozni o‘ldirmoqchi bo‘libdi. Shunda Ayoz:

— Taqsir, arzimni aytay, bu gapni aytishga aytdim-u, endi nima qilay. „Har qanday gap gapirsang ham ko‘nglimga qattiq olmayman“ deganingiz uchun aytgan edim. Siz ichkariga kirib, onangizdan so‘rab chiqing, onangiz nima der ekan. Undan keyin bilganingizni qiling, — debdi.

Shahzoda Ayozning bu gapi bilan onasining yoniga kiribdi. Ayoz bilan bo‘lgan voqeani aytib, haqiqatni so‘rabdi.

— Jon bolam, men otang bilan yigirma yil umr qilib, to‘qqizta qiz tug‘dim. O‘g‘il ko‘rmadim. Yana homilador bo‘lib oy-kunim yaqinlashganda, otang: „Sen menga o‘g‘il tug‘ib bermading. Bu safar ham o‘g‘il bo‘lmay qiz bo‘lsa, jahl ustida seni o‘ldirib qo‘ymayin, men ovga chiqmoqchiman, o‘g‘il tug‘sang mening orqamdan xabar yubor, bordi-

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

yu, qiz tug‘sang, kelgunimcha uyni bo‘shatib qc‘y“, degan edi. Mening oy-kunim yetib yana qiz tug‘dim. Men otang aytgan gapning yo‘rig‘idan bolani yo‘rgaklab, boshim oqqan tomonga ketmoqchi bo‘lganimda, momo-kampir meni qaytardi. Qo‘limdan o‘n besh tilla bilan bolani olib ketib, bir to‘lponday o‘g‘il bola olib kelib berdi. Momo-kampirdan so‘rasam, bu bola Abdusattor novvoyning bolasi ekan. Bolam, sen o‘sha Abdusattor novvoyning o‘g‘lisan, unda yurgan qiz mening qizim, — debdi onasi. Shahzoda onasining oldidan chiqib, Ayozni chaqirib:

— Zarshunosligingga balli, mening otam novvoy ekan. Sen buni qayoqdan bilding? — deb so‘rabdi.

— Siz o‘rningizdan turasiz, asta-sekin yurasiz, ko‘pincha, novvoyxonaga borasiz. Novvoyxonaga ko‘p kirganingiz uchun, otangiz novvoymikan, deb xayol qilib edim.

Shahzoda bu gapni eshitib:

— Bor, podsholigimni o‘zingga berdim, men novvoyxonada otamning kasbini qilaman, — deb podsholikni Ayozga tashlab ketgan ekan.

Shu bilan Ayoz o‘zi podsho bo‘lib, o‘zining donoligidan xalqni odillik bilan so‘rab, mamlakatda adolat o‘rnatgan ekan.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Hotam

O‘tgan qadim zamonda, quyosh chiqar tomonda bir kambag‘al odam yashagan ekan. Uning Hotam degan 14 yoshli o‘g‘li bor ekan. Kambag‘al o‘lgandan keyin uning xotini o‘g‘li Hotamni boqolmay Dadaboy degan kambag‘alga topshiribdi. Dadaboy ham Hotamni boqolmay bozorga olib borib, Jalol degan boyga sotibdi. Jalolboy Hotamni uyiga olib borib ishlatib yura beribdi.

Oradan ikki-uch yil o‘tibdi.

Jalolboy qirq tuyaga mol ortib karvonlarga qo‘shilib, uzoq bir shaharga jo‘nab ketibdi. Hotam yo‘lda Jalolboyning xizmatini qilib yuribdi.

Karvon kecha-yu kunduz yo‘l yurib, bir cho‘l-u biyobonda ketayotgan ekan, qorong‘i tushibdi. Cho‘lda bir vayrona qo‘rg‘on bor ekan, Jalolboy karvonlarga, „Shu qo‘rg‘onda tunaylik“, debdi.

Savdogarlar: „Bu cho‘l-biyobon bo‘lsa, o‘g‘rilar kelib tag‘in bizga ziyon-zahmat yetkazmasin“, deb qo‘rqishibdi va yo‘lga ravona bo‘lishibdi.

Jalolboy o‘z xizmatkorlari bilan shu qo‘rg‘onga qo‘nibdi. Ovqat yeb bo‘lgach, boy xizmatkorlari bilan bir hujraga kirib yotibdi. Hotam esa, otlar va mollar yonida qo‘liga xanjar ushlab poyloqchilik qilibdi. Yarim

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

kechada bir katta qora dev qo‘rg‘onga kirib kelibdi-da, boy yotgan hujraga qarab yura boshlabdi. Hotam devni ko‘rib turgan ekan. Sekin orqasidan borib xanjar bilan devning kallasini uzib tashlabdi.

Devning kallasini dast ko‘tarib qo‘rg‘ondan chiqibdi va xandaqqa tashlabdi. Hotam yana otlar va tuyalar yoniga kelib yotibdi. U o‘zicha o‘ylabdi: „Men-ku buni o‘ldirdim, lekin bu dev yolg‘iz bo‘lmasa kerak. Sheriklari ketidan qidirib kelishlari va bizga ziyon yetkazishlari mumkin. Men buning oldini olishim kerak, albatta“.

Hotam bu sirni hech kimga bildirmasdan qo‘rg‘ondan tashqariga chiqib, u yoq-bu yoqqa qarabdi: „Dev shu tomondan kelgan bo‘lsa kerak, deb tusmol bilan qarshisidagi tog‘ga qarab jo‘nabdi. Hotam yo‘l yurib, yo‘l yursa ham mo‘l yurib, tog‘ga yetibdi. Qarasa, tog‘ning bag‘rida bir g‘or bor emish. Shu g‘orning ichida bir sir yo‘qmikan, deb g‘orning ichiga kiribdi. Bir tomondan yorug‘lik ko‘rinibdi. O‘zini bir chekkaga olib quloq solibdi. Ichkaridan: „Bizning sherigimiz shu vaqtgacha kelmadi. Nima bo‘ldi ekan, hammamiz borib undan xabar olishimiz kerak“, degan tovush eshitilibdi.

Hotam xanjarini yalang‘ochlab mahkam ushlagan holda g‘orning og‘zida o‘zini panaga olib turibdi. Devlar birin-ketin g‘ordan chiqa boshlabdilar. Hotam g‘ordan chiqqan birinchi devning kallasini uzib tashlabdi. Qolgan devlarning ham birma-bir kallasini olib tashlay beribdi.

Hotam devlarni saranjomlab bo‘lgach, g‘orning ichkarisiga kiribdi. U yoq-bu yoqqa qarasa bir eshik ko‘rinibdi. Eshikni ochib ichkariga kirsa, bir chiroyli bog‘, unda gullar ochilgan, qushlar sayragan, shohona supalar yasatilgan, bir supada qip-qizil cho‘g‘day gilamlar, ko‘rpachalar ustida to‘rt chiroyli qiz uxlab yotibdi. Hotam qizlar uyg‘onib ketmasin, deb sekin supaning bir chetiga borib o‘tiribdi. Biroz vaqt o‘tgach, qizlardan biri cho‘chib uyg‘onibdi. Hotamni ko‘rib hayron bo‘libdi:

— Ey, odamzod, bu joy to‘rt devning makoni-ku, qanday qilib kelib qoldingiz, hozir devlar keladi, ular ko‘rsa o‘n joningizdan bir joningiz ham qolmaydi. Bu yerdan tezroq keting! — debdi.

Hotam qizga:

— To‘rt devning ajali mening qo‘limda edi. Bugun hammasini o‘ldirdim. Sizlar kim bo‘lasizlar, bu yerda nima qilib yuribsizlar? — deb so‘rabdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Bularning so‘zidan uxlab yotgan qizlar ham uyg‘onib, o‘rinlaridan turib o‘tirishibdi. Qizlardan biri:

— Biz to‘rt podshoning qizimiz. Bizlarni devlar shu yerga olib qochib kelgan. Birimizning kelganimizga uch yil, ikkinchimizga ikki yil, uchinchimizga ikki yarim yil, to‘rtinchimizga to‘rt yil bo‘lgan, — debdi.

Qizlar Hotamga o‘z ahvollarini hikoya qilib berishibdi. Hotam ularni tashqariga olib chiqib, o‘ldirilgan devlarning jasadlarini ko‘rsatibdi. Qizlar Hotamning botirligiga qoyil qolib, minnatdorlik bildirishibdi.

— Bizni ham o‘zingiz bilan birga olib keting, — deb yalinishibdi.

— Men sizlarni hozir olib keta olmayman. Sizlar hozircha shu joyda yashab turinglar. Men ishimni bitirib qaytgach, sizni bu g‘ordan olib chiqib o‘z uylaringizga olib borib qo‘yaman, — deb javob beribdi Hotam. Qizlar xursand bo‘lishibdi.

Hotam g‘ordan chiqib, g‘orning og‘zini katta tosh bilan bekitib qo‘yibdi va qo‘rg‘onga qaytib kelibdi. Birozdan so‘ng, tong otibdi. Qo‘rg‘ondagilar turguncha choy qaynatib tayyor qilibdi. Jalolboy va uning xizmatkorlari erta bilan nonushta qilib yo‘lga tushibdilar. Hotam kechasi bo‘lib o‘tgan sirni hech kimga so‘zlamabdi. Karvon bir necha kun yo‘l yurib bir shaharga yetibdi, saroyga tushishibdi. Ertasi boy mollarini bozorga olib chiqibdi. Shahar suv quygandek jimjit, shodlik alomatlari ko‘rinmaydi. Odamlar xafa, hech kimning mol bilan ishi yo‘q. Jalolboy hayron bo‘lib bir odamdan:

— Bu shaharda nima voqea bo‘lgan, odamlar xafa, bir-biri bilan so‘zlashmaydi? — deb so‘rabdi. U odam esa:

— Shahrimiz podshosining Malika degan qizi bor edi, bundan uch yil ilgari uni devlar olib qochib ketgan. Yurtning azamatlari qizni shu vaqtgacha hech qayerdan topa olmaydi, shuning uchun shahar xalqining tinchligi buzilgan, — deb javob beribdi.

Jalolboy bozordan saroyga qaytib kelib eshitgan gaplarini Hotamga so‘zlab beribdi.

— Bu shaharda savdomiz yurishmadi, endi boshqa shaharga jo‘naymiz, — debdi Jalolboy va shu kunning ertasigayoq tong otishi bilan mollarini tuyalarga ortib boshqa shaharga jo‘nabdi. Karvon bir necha kun yo‘l yurgandan keyin, boshqa bir shaharga yetib boribdi. Karvonsaroyga tushib dam olishibdi. Ikkinchi kuni Jalolboy bozorga chiqibdi. U shahar xalqining

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

ham qovog‘i soliq, barchasi qayg‘uda ekan! Bu yerda ham savdoning mazasi bo‘lmabdi.

Jalolboy odamlardan bu holning sababini surishtirib ko‘rsa, shahar podshosining Huriniso degan qizi bor ekan. Uni ham devlar bundan ikki yil ilgari olib qochib ketgan ekan. Xafa bo‘lgan podsho savdo-sotiq ishlarini to‘xtatib qo‘ygan ekan. Boy savdoning yurishmaganidan xafa bo‘lib saroyga qaytib kelibdi. Shahardagi voqeani Hotamga aytib beribdi. Boy ikkinchi kuni mollarini tuyaga ortib bu shahardan ham jo‘nab qolibdi.

Yo‘l yuribdi, yo‘l yursa ham mo‘l yuribdi. Cho‘l-biyobonlarni kezib karvon bir shaharga yetib, saroyga tushibdi.

Bu safar Jalolboy bozorga bormay, saroybondan shahar ahvolini so‘rabdi.

Saroybon:

— Podshohimizning Poshshoxon degan bir qizi bor edi. Devlar olib ketganiga ikki yarim yil bo‘ldi. Shahar xalqi qizni qidirish bilan ovora. Shu sababli do‘konlar berk, savdo ishlari to‘xtab qolgan, — debdi. Boy buni eshitib, juda xafa bo‘libdi. Bozorga chiqmay, shu kunning o‘zidayoq boshqa shaharga jo‘nabdi.

Ko‘p kunlar, oylar yo‘l yuribdi. Bir shaharga bir kunlik yo‘l qolganda, yuklarini tushirib, ot va tuyalarni xashakka qo‘yibdi. Xizmatkorlariga tayinlab, o‘zi shaharning ahvolini bilib kelish uchun Hotam bilan birga ot minib yo‘lga chiqibdi. Shaharga borguncha kech kiribdi. Ikkisi shahar darvozasidan kirmay, chetdagi bir kambag‘al kampirning uyiga kelib, bir kecha yotib ketish uchun joy so‘rashibdi. Kampir rozi bo‘libdi. Boy kampirning uyiga kirib o‘tiribdi. Hotam esa, otlar yonida qolibdi. Jalolboy kampirdan shahar ahvolini so‘ragan ekan. Kampir:

— E, bolam, shaharning ahvolini so‘rab nima qilasiz? Podshohimizning oy desa og‘zi bor, kun desa ko‘zi bor juda chiroyli bir qizi bor edi. Uning oti Dilorom edi. Bundan to‘rt yil burun Diloromni devlar olib qochib ketgan, uni yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo‘lgan odamlar kecha-yu kunduz qidiradi, hech qayerdan topolmaydi. Podsho, hatto shaharga kelgan yo‘lovchilarni ham to‘xtatib o‘z qizini topib kelish uchun yuboradi. Buning uchun qancha yasovullar tayinlab qo‘ygan. Shaharning ahvoli ana shunaqa, o‘g‘lim, — debdi. Shunday debdi-yu, Diloromning suratini Jalolboyga ko‘rsatibdi. Jalolboy suratni ko‘rishi bilanoq qizga oshiq-u beqaror bo‘lib hushidan ketibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Hotam uyga kirsa, Jalolboy yiqilib behush bo‘lib yotganmish. Kampir bo‘lgan voqeani so‘zlab, Diloromning suratini unga ko‘rsatibdi. Hotam suratni qo‘liga olib ko‘rishi bilanoq, g‘ordagi qizlardan biri shu Dilorom ekanligini bilibdi. Hotam Jalolboyga suv sepib hushiga keltirib, hol-ahvol so‘rabdi. Boy aytibdi:

— Men shu podsho qiziga oshiq bo‘lib qoldim. Nima bo‘lsa ham uni qidirib topishim kerak.

— Buni topish bir gap bo‘lar, siz avval podshoning saroyiga boring, agar qizni topsak, sizga beradimi, yo‘qmi, shuni biling. Agar qizini sizga beradigan bo‘lsa, uni men topaman-da, to‘g‘ri o‘z shahrimizga olib ketamiz, — debdi Hotam.

Jalolboy Hotamning bu so‘zidan xursand bo‘libdi. Ertasiga o‘rnidan turib podshoning o‘rdasiga boribdi. Podshoning huzuriga kirib, o‘zining kim ekanligini va nima uchun kelganligini aytibdi. Podsho qizi Diloromni topib kelgan kishiga bermoqchi ekanligini aytibdi. Boy qizni topib kelish uchun muhlat olib, kampirning uyiga qaytib kelibdi. Podsho bilan oralarida o‘tgan so‘zni Hotamga aytib beribdi.

Hotam bilan Jalolboy yo‘l yurib, yo‘l yursalar ham mo‘l yurib, podsho qizlari yashagan g‘orga kelishibdi, otlarini bog‘lab, g‘orning ichidagi gulzorga kirishibdi. Jalolboy qizlar orasida turgan Diloromni tanib, yana hushidan ketibdi. Hotam unga suv sepib o‘ziga keltiribdi.

Hotam Diloromga qarab:

— Singlim, endi sizni bu yerdan olib ketgani keldim. O‘z uyingizga, ota-onangizning yoniga borasiz. Tayyorlaning! — debdi. Dilorom xushvaqt bo‘lib ketishga hozirlanibdi.

Hotam boshqa qizlarga:

— Men Diloromni ota-onasiga olib borib topshiraman, sizlar shu yerda yashab turinglar, keyin sizlarni ham olib ketaman, — deb ularni tinchlantiribdi, so‘ngra Hotam, boy va Dilorom birga yo‘lga chiqibdilar. Yo‘l yurib, bir necha muddatdan so‘ng shaharga yaqinlashganda Hotam ulardan ilgari ot chopib, shaharga kiribdi. Podsho saroyiga borib Diloromning kelayotganidan xabar beribdi. Podsho qizining sog‘ va salomat kelganiga xursand bo‘lib kutib olibdi. Bir necha kun to‘y-tomosha qilibdi. Kunlardan bir kun podsho Diloromni yoniga chaqirib:

— Qizim, kim qizimni topib kelsa, o‘shani kuyov qilaman, deb ahd qilgan edim. Bu ahdimni butun xalq biladi. Seni Jalolboy degan

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

odam topib keldi. Endi men Jalolboyni o‘zimga kuyov qilaman, nima deysan? — debdi.

— E, ota, — debdi Dilorom, — meni devning qo‘lidan qutqargan odamga bersangiz roziman. Lekin meni qutqargan Jalolboy emas. Meni devdan qutqarib olib kelgan odam Hotamdir. Ahdingizga muvofiq, Hotamga tegishim kerak.

Podsho bu so‘zni eshitib hayron bo‘libdi, Jalolboy bilan Hotamning oldiga chiqib, Diloromning so‘zini aytibdi. Hotam o‘rnidan turib podshoga.

— Hurmatli hukmdor, men hali yoshman, hozir uylanadigan vaqtim emas. Diloromni devlar qo‘lidan men xalos qilgan bo‘lsam ham xo‘jamning istaklari yerda qolmasin. Shuning uchun meni ma’zur tutib qizingizni xo‘jamiz Jalolboyga bersangiz, — debdi.

Podshoga bu so‘z ma’qul tushibdi, qirq kecha-yu qirq kunduz to‘y-tomosha qilib, qizini Jalolboyga beribdi. Podsho o‘z vazir-vuzarolarini chaqirib, ularga:

— Men endi qarib qoldim, podsholigimni Jalolboyga berdim, — debdi va kuyovini podsho etib tayinlabdi.

Hotam podshoga:

— Endi menga ruxsat bersangiz, men ketay, — debdi.

— Hotam, siz ketmang, menga yaxshilik qildingiz, sizni ham uylantirib qo‘yay, — debdi Jalolboy. Hotam bu shahardan ketish uchun podshodan yana javob so‘rabdi. Oxiri podsho roz. bo‘libdi. Hotam shahardan chiqib, qizlar turgan g‘orga yo‘l olibdi. G‘orga bir kunlik yo‘l qolganda, bir suvning bo‘yida ust-boshlari yirtilgan, oyoqlari qavargan uch yosh yigitning uxlab yotganini ko‘ribdi. Hotam: „Men bu yigitlarning hol-ahvolini bilay, agar qo‘limdan kelsa yordam beray“, deb o‘ylabdi, uxlab yotgan yigitlarning yoniga kelibdi. Birozdan keyin yigitlar uyg‘onishibdi. O‘rinlaridan turib, Hotam bilan so‘rashishibdi. Hotam ulardan:

— Siz kim bo‘lasiz, bu cho‘l-biyobonlarda nima qilib yuribsiz? — deb so‘rabdi.

Yigitlardan biri:

— Biz Kan’on podshosining o‘g‘illari bo‘lamiz. Otamiz uch podshoning uch qizini bizga fotiha qilib unashtirib qo‘ygan edi. Bundan uch yil burun bir qizning otasidan, ikki yil burun ikkinchi qizning

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

otasidan, ikki yarim yil burun uchinchi qizning otasidan otamizga „Qizimni devlar olib ketdi, kelin kerak bo‘lsa, o‘g‘lingiz qidirib, topib olsin“, degan mazmunda xat keldi. Biz o‘sha xabarni eshitgandan beri uch qizni qidirib yuribmiz. Bugun suv bo‘yida yotganimizga ham uch kun bo‘ldi. Qizlardan xabar topolmay, sarson-u sargardonmiz, — debdi.

Shunda Hotam yigitlarga qarab:

— Har biringiz o‘z qallig‘ingizning otasidan, qizni topib, devlardan qutqarsangiz, qizini sizga berishi haqidagi va’dani tasdiqlaydigan tilxat olib kelingiz, siz kelguningizcha men shu yerda turaman. Kelganingizdan keyin qizlarni topishga qo‘limdan kelgancha yordam beraman, — debdi. Yigitlar „Xo‘p-xo‘p“, deb har biri o‘z qallig‘ining yurtiga jo‘nabdi.

Bir qancha kun o‘tgandan keyin yigitlarning har biri uch podshodan rozilik xatini olib kelishibdi va Hotamga ko‘rsatishibdi. Hotam uch yigitni boshlab qizlar yashab turgan g‘orga olib boribdi. G‘orga kirib yigitlarga qizlarni ko‘rsatibdi. Yigitlar ularni ko‘rib xursand bo‘libdilar. Hotam qizlarga qarab:

— Ana, singillarim, sizlarning ham o‘z yurtingiz, ota-onangiz oldiga borish vaqtingiz yetdi. Qani, tayyorlaninglar, — debdi.

Qizlar sevinishib, Hotamga minnatdorlik bildirib, kerakli narsalarni olib, yigitlar bilan g‘ordan chiqibdilar. Ular yetti kishi bo‘lib Malikaning shahriga borishibdi. Hotam Malikani otasi podshoga topshirib, uni devlardan qanday qilib qutqarganini birma-bir so‘zlab beribdi. Podsho Hotamning botirligi va uddaburroligiga qoyil qolib, qimmatbaho in’omlar beribdi. Podsho qizi Malikani o‘z va’dasiga binoan Kan’on podshosining o‘g‘liga qirq kecha-yu qirq kunduz to‘y qilib beribdi. Shahzodani o‘z o‘rniga podsho qilib tayinlabdi.

Hotam Huriniso, Poshshoxonlarni ham o‘z yurtlariga olib borib, ota-onalariga topshiribdi. Ular Hotamga minnatdorlik bildirib, izzat-hurmat qilibdilar. O‘zlarining va’dalariga muvofiq ular ham to‘y-tomoshalar qilib, qizlarini Kan’on podshosining ikki o‘g‘liga beribdilar. O‘z podsholiklarini ham topshiribdilar. Shunday qilib, Dilorom, Malika, Huriniso, Poshshoxon o‘z qo‘shganlari bilan murod-maqsadlariga yetibdilar.

Oradan bir necha kun o‘tgach, uch shahzoda yig‘ilishib Hotamdan maslahat so‘rabdilar. Katta shahzoda:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Endi biz Kan'onga borib ota-onalarimizni ko'rib kelsak, nima maslahat berasiz? — debdi.

Hotam ajablanib:

— Podshoning vazifasi mamlakat ishlari bilan shug'ullanishdan iborat. Siz kechagina podsho bo'ldingiz, bugun esa ota-onamizni ko'rib kelamiz, deb o'tiribsiz. Avval davlat ishiga qaranglar. Sizlar xat yozib beringlar, men ota-onalaringizga olib borib, sizning sog'lig'ingizni, murod-maqsadga yetganingizni bildirayin, — debdi. Shahzodalar xat yozib, Hotamni uch kunlik yo'lgacha kuzatib qo'yibdilar. Hotam bir necha kun yo'l yurib bir tog'ning bag'rida otdan tushib buloq yonida dam olibdi. Shu payt buloq yonidagi chinorning shoxiga ikki kaptar kelib qo'nibdi. Kaptarlar o'zaro so'zlashibdilar.

Biri:

— Mana shu tog'ning orasidagi bir uyda bir shahzoda necha oydan beri behush bo'lib yotibdi. U parilar podshosining qiziga oshiq bo'lgan ekan. Shu sababli parilar uni jinni qilib qo'ygan, — debdi.

Ikkinchisi aytibdi:

— Ey, buning davosi juda oson. Mana shu chinordan yuz qadam narida bir buloq bor. Buloqning yonida ikkita chinor bor. Chinorning bargini qaynatib ichirilsa, shahzoda shu zamon o'ziga keladi.

Shu suhbatlardan so'ng kaptarlar uchib ketibdi.

Hotam o'tirgan yeridan yuz qadam olg'a qarab yuribdi, buloq bo'yidagi ikki katta chinorning barglaridan terib olib xurjunga solibdi, otni minib kaptar aytgan tog'ning orqasiga boribdi. Tog' bag'rida bir uy ko'ribdi. Uning yoniga borib otdan tushibdi, uyga kirib qarasa, o'n sakkiz yoshlarda bo'lgan, qaddi-qomati kelishgan bir yigit uxlaganday behush bo'lib yotgan emish. Uyda boshqa hech kim yo'q ekan. Uydan chiqib u yoq-bu yoqqa qarabdi. Hovlida boshqa bir uy bor ekan. Undan ikki xotin yugurib hovliga chiqibdi va Hotamning oldiga kelib salom beribdi.

Hotam xotinlardan:

— Bu bola nima uchun behush bo'lib yotibdi? — deb so'rabdi. Xotinlardan biri:

— Bu bola besh oydan beri behush bo'lib yotibdi, lekin sababini bilmaymiz, biz shu bolaning holidan xabar olib turamiz, — debdi. Hotam xotinlardan bir choydish so'rab, unga chinordan olib kelgan

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

barglarni solib qaynatibdi. So‘ngra uni bolaning og‘ziga tomizibdi. Birozdan keyin behush bo‘lib yotgan bola o‘ziga kelibdi, ko‘zini ochib, o‘rnidan turibdi. Bola yana chinor bargining suvidan ichibdi. Hotam bilan ko‘rishib, o‘z boshidan o‘tgan sirlarni aytib beribdi:

— Men Ibrohim degan shahzodaman. Kunlardan bir kun sayr qilib parilar podshosining bog‘iga borib qoldim. Bog‘da parilar podshosining qizini ko‘rib behush bo‘lib yiqilibman. Shundan boshqa hech narsani bilmayman, — debdi. Hotam shahzodaga:

— Endi seni otang oldiga olib borib qo‘yaman. O‘zim bir ish bilan Kan’on shahriga ketayotibman, ishni bitirgach, qaytib kelib senga parilar podshosining qizini topishga yordam qilaman, — debdi.

Hotam shahzodani olib borib ota-onasiga topshiribdi, o‘zi Kan’on shahriga qarab jo‘nabdi.

Bir necha kun yo‘l yurib, yo‘l yursa ham mo‘l yurib, Kan’on shahriga yetibdi. Podsho saroyiga borib, shahzodalarning xatini shohga topshiribdi. Xatda shunday deyilgan ekan:

„Ota, biz sog‘-salomatmiz. Qizlarni topa olmay, necha vaqt sarson bo‘lib yurdik. Cho‘l-biyobonda azob-uqubatlar chekib yurganimizda shu xatni sizga olib boruvchi Hotam degan yigit bizga uchrab qoldi. Bizlarni murod-maqsadimizga yetkazdi. Siz Hotamni yoningizda olib qolsangiz juda yaxshi bo‘lar edi“.

Podsho xatni o‘qib bo‘lgach, Hotam bilan boshqatdan quchoqlashib ko‘rishibdi. Uni izzat-hurmat qilibdi. Oradan bir-ikki kun o‘tgach, Hotam podshodan ketishga ijozat so‘rabdi:

— Men sizga ijozat bermayman, — debdi podsho. — Sizni o‘z bolalarimday ko‘rib, yonimda olib qolaman. Uylantirib qo‘yaman. O‘zim endi qarib qoldim. Sizni o‘rnimga podsho qilaman. Ketmang, bolam!

— Hurmatli podshohim, hozir mening bir qancha ishlarim bor, shu ishlarni bitirganimdan keyin, uylanish to‘g‘risidagi fikringizga ko‘narman. Chala qolgan ishlarimni tugatib kelishga ijozat bering, — deb iltimos qilibdi Hotam.

Podsho Hotamni yonida olib qolish uchun ko‘p urinibdi. Oxiri nochor ruxsat beribdi. Bir necha kun yo‘l yurib, cho‘l-biyobonlar kezib, shahzoda Ibrohimning shahriga kelibdi. Podsho Hotamning kelganini eshitib yoniga chaqirib, ziyofat qilibdi. Bir qancha vaqt suhbat qilib o‘tirganlaridan so‘ng Hotam podshoga:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Endi Ibrohim bilan menga javob bering, va'daga muvofiq, shahzodaning baxt qushini izlaylik, — debdi. Hotam bilan shahzoda Ibrohim podshodan javob olib, yo'lga ravona bo'libdi. Bir necha kun yo'l bosib, parilarning bog'iga yetishibdi. Hotam otdan tushib shahzodaga aytibdi:

— Siz shu joyda turing, men bir bog'dan xabar olib chiqay.

Shahzoda otlarni olib qolibdi.

Hotam bog'ga kirib gulzorlarni aylanib yuribdi. Yurib-yurib bir hovuz yoniga kelibdi. Hovuz yonida katta bir chinor bor ekan. Chinorning yonida yashirinib o'tiribdi. Bir necha vaqtdan keyin qo'liga chelak ushlagan bir kampir hovuzdan suv olib, Hotamni ko'rmay, yana ichkariga kirib ketibdi. Hotam sekin eshik yoniga borib quloq solibdi. Uyning ichida ikki ayolning so'zlashgani eshitilibdi. Bir kampir ikkinchisiga aytibdi:

— Esingizda bormi, bundan uch-to'rt oy ilgari men jodu qilgan shahzoda, o'sha tuzalib, bugun yana bog'ning eshigiga kelib turgan ekan. Hozir chiqib jodu qilib keldim. Endi tuzalishi mahol. Lekin dunyoda bir dori bor, o'sha bilan tuzatish mumkin: u ham bo'lsa, Hirot podshosining xazinasida. Uni podsho hech kimga bermaydi.

Ikkinchi kampir:

— Hirot shahrida bir ajdaho paydo bo'libdi. U kuniga bir odam bilan bir qoramolni yeydi. Yaqinda navbat podshoning qiziga keladi. Ajdahodan podsho qizini kim qutqarsa, dorini o'sha kishiga berishi mumkin. Lekin ajdahoni hech kim o'ldira olmaydi, — debdi.

Birinchi kampir aytibdi:

— Ajdahoni o'ldirish yo'li juda oson. Hirot shahrining bir chetida zaharlangan ikki chinor bor. O'sha chinorni g'o'la-g'o'la qilib kesib, maydalab talqon qilib, bir ho'kizning terisiga solib ajdahoning keladigan yo'liga qo'yadi. Ajdaho suvdan chiqib ho'kizni damiga tortadi. Shundan zaharlanib o'ladi, — debdi.

Ikki kampir ovqatlanishga o'tiribdi.

Hotam sekin bog'dan chiqib, shahzoda yoniga borsa, u og'zidan ko'pik sochib, bexush bo'lib yotgan emish. Ahvoli avvalgidan og'ir emish. Hotam shahzodani otga o'ngarib ilgarigi yotgan joyiga olib boribdi. Yigitni yotqizibdi, tashqariga chiqib bir cho'ponni ko'rib, uni oldiga chaqiribdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

«Ayoz» ertagiga ishlangan rasm

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Ota, — debdi cho‘ponga Hotam, — bir yilga qanchadan ishlab yuribsiz?

— Bir yilga besh tilladan ishlab yuribman, — debdi cho‘pon.

Hotam aytibdi:

— Men sizga kuniga bir tilla beraman. Bir oylik xizmatim bor. Uyda bir yigit yotibdi, shunga qarab turasiz.

Cho‘pon rozi bo‘libdi.

Hotam cho‘ponga besh tilla berib, o‘zi Hirotga qarab jo‘nabdi. Yo‘l yurib, yo‘l yursa ham mo‘l yurib, Hirot shahriga yetibdi. Hotam Hirot podshosining huzuriga kirib, salomdan so‘ng:

— Bir shahzoda behush bo‘lib yotibdi. Sizning xazinangizda joduni qaytaradigan dori bor ekan. Shu doridan bersangiz, olib borib shahzodani o‘ziga keltirsam, katta yordam qilgan bo‘lar edingiz, — debdi.

— Men dorimni hech kimga bermayman, — debdi podsho, — kimda-kim mening qizimni ajdahodan qutqarsa, o‘shanga dorini ham, qizimni ham beraman.

Hotam:

— Agar va’dangizda tursangiz, qo‘limdan kelgancha harakat qilib, qizingizni ajdahodan men qutqaraman, — debdi.

Podsho:

— Qancha-qancha polvonlar kelib, ajdahoni yenga olmagan, sen bir yosh bola bo‘lsang, qanday qilib uni yengasan? Senga rahmim keladi, qo‘y, baloga giriftor bo‘lib yurma, doridan picha beray, olib keta ber, — debdi.

Hotam:

— Mardning ishi muhtojlarga ko‘maklashish, nochorlarni og‘ir ahvoldan qutqarishdir. Men boshingizga tushgan bir falokatni eshitib turib, sizlarni ajdahodan qutqarmay, bu shahardan ketmayman. Menga ijozat bering, ajdahoni o‘ldirganimdan keyin xizmatlarim evaziga dorini olib ketaman, — debdi. Podsho Hotamning botirligiga qoyil qolib:

— Mayli, ijozat berdim, — debdi.

— Podshohim, — debdi Hotam, — menga beshta odam bering, — ular shahringizning bir chetidagi ikkita katta chinorni g‘o‘la-g‘o‘la qilib kesib, maydalab tolqon qilib bersinlar. Yana o‘nta mol so‘ydirib ularning terilarini butun holda bering! — debdi. Podsho rozi bo‘libdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Shu ondayoq beshta xizmatchisini chaqirib:

— Sizlar Hotamning aytganlarini bajaringlar, — debdi. Yana bir necha xizmatkorlarini chaqirib:

— Sizlar o‘nta mol so‘yib, terilarini butun holda Hotamga keltirib beringlar!— debdi. Hotam beshta odamni olib, to‘g‘ri shahar chetidagi ikki chinorning tagiga boribdi. Chinorlarni kesib, g‘o‘la-g‘o‘la qilib, maydalab tolqon holida mollarning terisiga tiqib ho‘kiz shakliga keltiribdi. Ularni ajdahoning suvdan chiqadigan joyiga olib borib qo‘yibdi, Hotam bilan podshoning qizi tepalikda tomosha qilib turibdi. Birozdan keyin ajdaho daryodan chiqib, „ho‘kiz“ni damiga tortibdi-yu, shu ondayoq zaharlanib o‘libdi. Qiz o‘zini o‘limdan qutqazgan bahodir yigitga minnatdorchilik bildiribdi, qiz bilan Hotam sevinishib, podshoning oldiga borishibdi. Podsho ishonmay, ajdaho tomonga vazirlarini yuboribdi. Vazirlar borib haqiqatan, ajdahoning o‘lganini ko‘rib, podshoga xabar berishibdi. Podsho Hotamning qilgan ishiga qoyil qolib:

— Ey, botir, endi men senga qizimni beraman, seni bu shahardan hech qayerga yubormayman, — debdi.

Hotam:

— Ey, podshohim, men hali yoshman, uylanmayman, dorini bersangiz, kelgan izimga qaytaman, — debdi. Podsho ko‘nmasdan:

— Seni hech qayerga yubormayman, — deb turib olibdi.

— Podshohim, — debdi Hotam, — bo‘lmasa menga dorini bering, men olib borib o‘rtog‘imni hushiga keltirib, uni murod-maqsadiga yetkazib, keyin qaytib kelaman, uylanish masalasini esa bafurja maslahatlasharmiz. — Podsho bu so‘zni ma’qul topib, odamni hushiga keltiradigan va behush qiladigan dorilarni Hotamga beribdi. Hotam bir necha kun yo‘l bosib shahzodaning yotgan joyiga kelibdi. Unga dorini hidlatib hushiga keltiribdi. Shahzodaga turli ovqatlar berib, uni darmonga kirgizibdi. Bir-ikki kun dam olgandan keyin Hotam shahzodani parilar bog‘iga olib boribdi. Bog‘ning bir chetida otdan tushib:

— Shahzoda, siz shu yerda otlarga qarab turing, men bog‘ga kirib chiqay, — debdi. Hotam bog‘ga kirib, aylanib, kampirlar yashaydigan uyning eshigi yonida yashirinib quloq solibdi. Hech qanday tovush eshitilmagach, eshikni ochib ichkariga kiribdi. Ikki kampir uxlab yotgan ekan. Sekin kampirlarning yoniga borib, behush qiladigan dorini iskatibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Ularning oyoq-qo‘llarini bog‘labdi. Kampirlarning birini hushiga keltirib:

— Sen kimsan, bu yerda nima qilib yuribsan? — debdi. Oyoq-qo‘li bog‘langan kampir:

— Sen meni bo‘shat, aytganingni bajo keltiraman, — debdi.

— Yo‘q, — debdi Hotam, — oyoq-qo‘llaringni yechmayman, avval kimligingni aytasan, bo‘lmasa, kallangni olaman.

Kampir yalinibdi, yolvoribdi, Hotam bo‘sh kelmabdi. Axiri kampir aytishga majbur bo‘libdi.

— Bu bog‘ parilar bog‘i. Parilar podshosining uch qizi va uning uch kanizagi bu yerga yilda bir marta kelib o‘ynab-kulib ketishadi. Biz ularga ovqat tayyorlab beradigan xizmatkorlari bo‘lamiz.

Hotam:

— Bu yerga kelgan odamlarni qanday qilib o‘ldirasizlar? — deb so‘rabdi.

— Jodu qilib o‘ldiramiz, — deb javob beribdi kampir.

Hotam cho‘ntagidan behush qiladigan dorini olib, kampirga iskatib, uni behush qilibdi. Endi ikkinchi kampirni hushiga keltiribdi.

— Sen ayt, parilar podshosi qanday qilib, qachon va qay vaqtda keladi? — deb so‘rabdi Hotam.

Kampir:

— Parilar podshosining to‘rtta qizi, qirqta kanizagini bir qancha devlar taxtda ko‘tarib keladilar.

Hotam devlarning kelish vaqtini bilib olgandan keyin yana kampirni behush qilib qo‘yibdi. Ularning ust kiyimlarini yechib olib uydan chiqibdi, bog‘dagi ikkinchi bir hujraga kirsa, uchta yosh yigit ilik qoqib o‘tirgan emish. Hotam ulardan:

— Siz kim bo‘lasiz, bu joyda nima qilib o‘tiribsiz? — deb so‘rabdi. Yigitlardan biri:

— Ey, aka, siz bu joyga qanday qilib kelib qoldingiz? Tezda chiqib keting! Bu yerda ikkita jodugar kampir bor. Sizni ham jodu qilib o‘ldiradi, — debdi. Hotam:

— Qo‘rqmang, kampirlarni behush qilib qo‘ydim, — debdi. Yigitlar sevinib Hotamga o‘z boshidan kechirgan voqealarni so‘zlab beribdilar. Ulardan biri:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Men bir podshoning o‘g‘liman, bular vazirlarning o‘g‘illari. Biz tomosha qilib yurib shu bog‘ga kirib qoldik. Men parilar podshohining katta qiziga oshiqman, bular esa ikki o‘rtancha qiziga oshiq. Jodu bilan bizni xizmatkor qilib qo‘ydi. Biz har kuni ilik qoqib ikki shum kampirga palov qilib beramiz, — debdi. Hotam ularga:

— Xafa bo‘lmanglar, men sizlarni ham murod-maqsadingizga yetkazaman, — debdi. Hotam tashqariga chiqib, shahzoda Ibrohimni ham ilik qoqib o‘tirgan yigitlar oldiga olib kiribdi va ular bilan tanishtiribdi. Hotam va yigitlar birgalashib ichkaridagi boshqa bir hujraga kirishibdi. U yerda parilar podshosi qizlarining qirqta kanizagi bilan tushgan suratlarini ko‘ribdilar. Shahzoda Ibrohim sevgan qizining suratini ko‘rib behush bo‘lib yiqilibdi. Hotam uni hushiga keltiribdi. Ular bog‘ning ichkarisiga borishibdi. Gulzorlar orasidagi bir shohona supada ko‘rpachalar solig‘liq, dasturxonlar turli mevalar, xilma-xil ovqatlar bilan to‘la ekan. Ilik qoqib o‘tirgan shahzoda Hotamga aytibdi:

— Parilar podshosining qizlari qirq kanizagi bilan shu supada o‘tirib ovqatlanadilar, so‘ngra o‘yin-kulgi qilib qaytib ketadilar.

— Qani bo‘lmasa, — debdi Hotam, — Hammamiz dasturxondagi ovqatlardan yeb qorinlarimizni to‘yg‘azib, parilar kelishini kutamiz.

Yigitlar o‘tirib ovqatlanishibdi. Hotam ikki vazirning o‘g‘liga:

— Siz ikkingiz jodugar kampirning kiyimini kiying, kampirlarga o‘xshab, parilar xizmatini qilishga tayyorlaning, — debdi. Ikki vazir o‘g‘li kampir suratiga kiribdi, ikki shahzoda esa, ovqat pishirib tayyorlabdi. Hotamning o‘zi bir eshik orqasiga yashirinib qilichini yalang‘ochlab turibdi.

Parilar kela boshlabdi. Kampirlar suratidagi yigitlar peshvoz chiqib:

— Kelinglar, kelinglar, hamma yoq tinchlik, kichik eshikdan kira beringlar!— debdilar.

Parilar podshosining buyrug‘iga muvofiq hamisha avval devlar kirar ekan, keyin podsho bilan qizlari, kanizlari kirar ekan. Devlar kichkina eshikdan birma-bir kira boshlabdi. Hotam eshikdan kirgan devning boshini birma-bir kesib tashlay beribdi. Shunday qilib Hotam hamma devni o‘ldiribdi. Peshvoz chiqqan yigitlardan biri parilar podshosiga:

— Podshohim, siz bu tarafdan kiring! — debdi. Podsho qizlari va qirq kanizi bilan boshqa eshikdan kiribdi. Ovqat tayyorlagan shahzodalar

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

ovqatni suzib, podshoning oldiga olib kelayotganlarida, yaxshi ko‘rgan qizlarini ko‘rib qolib hushlaridan ketib qolibdilar. Buni ko‘rgan podsho: „Bu yerga chetdan odam kirib qolgan ekan-da“, — deb qahri kelibdi: —Jallod! — deb qichqiribdi:

Hotam qilichini yalang‘ochlab podshoning oldiga kelibdi.

— Ha, mana men jallod, sizning jallodlaringizni qirib tashlab, o‘rniga o‘zim qoldim, — debdi. Podsho hayron bo‘lib:

— Bu nima deganing, qani, qayerda o‘ldirding? — debdi. Hotam:

— Ko‘rishni istasangiz, yuring! — deb podshoni boshlab olib borib, o‘lib yotgan devlarni ko‘rsatibdi. Podsho Hotamning botirligiga ajablanibdi. Birgalashib qizlarining oldiga boribdi. Hotam podshoga qarab, yigitlarni ko‘rsatib:

— Mana bu shahzodalar sizning to‘rtta qizingizga oshiq-u beqaror bo‘lib, ularga yetishish umidida turli mashaqqatlarga uchrab, jodugar kampirlar qo‘lida abgor bo‘libdilar. Qizlaringizni shu shahzodalarga berasizmi, yo‘qmi? — debdi. Podsho Hotamdan qo‘rqqanidan katta qizini shahzoda Qosimga, ikki o‘rtancha qizini ikki vazirning o‘g‘liga, kenja qizini esa shahzoda Ibrohimga nikohlab beribdi.

Hotam ikki shahzoda va ikki vazirning o‘g‘lini qalliqlari bilan o‘z yurtlariga jo‘natibdi. O‘zi esa, Hirot shahriga ketibdi. Hirot podshosi Hotamni sevinib kutib olibdi. Ertasiga to‘yni boshlamoqchi bo‘lganida Hotam:

— Podshohim, — debdi, — men uylanishdan avval o‘zimning ota-onamni topib kelay, ruxsat eting!

Podsho rozi bo‘lib, Hotamni kuzatib qolibdi. Hotam Hirot shahridan chiqib, to‘g‘ri Jalolboy turgan shaharga boribdi. Jalolboy uni hurmat bilan kutib olibdi. Bir necha kundan keyin Hotam Jalolboydan:

— Mening ota-onam kim edi, ular qayerda? — deb so‘rabdi.

— Men sizning otangizni tanimayman, — deb javob beribdi Jalolboy, — shahrimizda Dadaboy degan chol bor edi. Men sizni o‘sha kishidan sotib olgan edim.

Hotam o‘z shahriga qarab jo‘nabdi. Bir necha kun yo‘l yurib, o‘z shahriga yetib kelibdi. Ertasiga bozorga borib bir kosib choldan:

— Ey, ota, bilasizmi, shu shaharda Dadaboy degan chol bormi? — deb so‘rabdi. Kosib o‘ylab turib:

— Ha, o‘g‘lim, bor, — debdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Hotam:

— Otajon, agar sizga malollik kelmasa, Dadaboy akaning uyiga borib chaqirib kelsangiz, — debdi. Kosibning xizmat haqiga besh tilla beribdi. Kosib tillani ko‘rib xursand bo‘lib, do‘konini Hotamga qoldirib, shoshganicha Dadaboy akaning oldiga borib, uni olib kelibdi.

Hotam cholni mehmon qilibdi. So‘zlashib o‘tirib:

— Ota, siz bundan bir necha yil ilgari Hotam degan bolani shu shaharlik Jalolboyga sotgan ekansiz. Hotam sizga ko‘pdan-ko‘p salom aytdi. Ham biroz sovg‘a berib yubordi, — deb yonidan o‘n tilla chiqarib beribdi. — Shu Hotamning ota-onalari qayerda? -- deb so‘rabdi. Dadaboy sevinganidan yig‘lab yuboribdi:

— O‘g‘lim, men uning otasini tanimayman. Lekin onasini bilaman. Onasi o‘g‘lini boqa olmaganidan menga bergan edi. U shahardan uzoq bo‘lmagan qishloqda bir boyning qo‘lida xizmat qiladi, deb eshitgan edim, — debdi-da, Dadaboy uyiga qaytibdi.

Hotam ertasiga onasi yashagan qishloqni axtarib ketibdi. Yo‘lda so‘rab-so‘rab qishloqni topib, boyning uyiga boribdi. Boy Hotamni ko‘rib: „Bir katta savdogar bo‘lsa kerak“, deb otini bog‘lab, mehmonxonaga olib kiribdi. Hotam salomlashib, boyga:

— Sizning qo‘lingizda Adolatxon degan bir kampir oqsoch bo‘lib ishlar ekan, o‘g‘li biroz sovg‘a berib yuborgan edi, shuni beray deb kelgan edim, — debdi. Boy kampirni chaqiribdi. Adolatxon yugurib mehmonxonaga kiribdi. Hotam o‘rnidan turib:

— Ona, men sizning o‘g‘lingiz Hotamning oldidan keldim. Sizga biroz sovg‘a berib yuborgan edi, — deb yonidan yigirma tilla chiqarib beribdi. Ona Hotamga tikilib:

— Bolam, siz Hotamning o‘zi emasmisiz. Sizning ko‘z-qoshlaringiz, qarashlaringiz Hotamnikiga o‘xshaydi, — deb yig‘lab yuboribdi.

Hotam ham o‘zini tuta olmay yig‘lab, onasini quchoqlab:

— Ona, men o‘g‘lingiz Hotam bo‘laman, — debdi. Boy hayron bo‘lib, turgan joyida qotib qolibdi. Hotamni mehmon qilibdi. Ona-bola o‘sha kechasi gaplashib chiqishibdi. Ertasi ular shaharga qarab yo‘l olishibdi.

Hotam shahardan bir hovli olib, onasi bilan yashay boshlabdi. Bir-ikki kun o‘tgach, onasidan so‘rabdi:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Ona, mening otam kim edi? Hozir qayerda?

Onasi yig‘lab yuboribdi:

— Ey, bolam, sening otang bir kambag‘al Nishonboy degan polvon edi. Bir kun otang sayildan Misr podshosining Temurbek degan polvoni bilan kurashib, uni yenggan. Podsho o‘z polvonining bir kambag‘aldan yengilganiga g‘azablanib, otangni dorga osib o‘ldirgan, — debdi. Hotam buni eshitib juda xafa bo‘libdi.

— Ona, — debdi Hotam, — otam gunohsiz o‘lgan ekan, men bolasi bo‘la turib uning o‘chini olmasam, bu dunyoda tinch yashay olmayman.

— Jon bolam, — debdi onasi, — o‘lganning orqasidan o‘lib bo‘lmaydi. Podshodan o‘ch olaman, deb sen ham bir baloga duchor bo‘lma, necha yillar sening dardingda qon yig‘lab senga intizor bo‘lib zo‘rg‘a yetishganimda, yana meni tashlab ketasanmi, qo‘y bolam, — deb yolvoribdi.

Hotam:

— Yig‘lamang, ona! Siz meni duo qilib, ijozat bering! — deb yalinibdi. Onasi yig‘lab-yig‘lab axiri oq fotiha beribdi. Hotam bir necha kun yo‘l yurib, Misr shahriga kirib boribdi. Shaharning chetrog‘idagi bir eshikni taqillatibdi. Hovlidan bir kampir chiqibdi. Hotam u kampirdan bir kecha qo‘nib ketishni so‘rabdi. Kampir:

— Bolam, biz juda kambag‘almiz, otingizga cho‘p solishga ham qurbimiz kelmaydi, — debdi. Hotam:

— Ona, undan g‘am yemang, bir kecha qo‘nishga ruxsat etsangiz bo‘lgani, — debdi. Kampir ruxsat beribdi. Hotam hovliga otini bog‘lab uyga kiribdi. Kampir choyga olov yoqibdi. Hotamning bergan puliga oziq-ovqat olib kelibdi. Kechqurun ovqat yeb o‘tirishganda kampir birdan yig‘lab yuboribdi.

— Ey, ona, nima uchun yig‘laysiz? — deb so‘rabdi Hotam.

— Eh, bolam, — debdi kampir, — mening ham senga o‘xshagan Rahimjon degan o‘g‘lim bor, hozir zindonda yotibdi. Podsho uni dorga osmoqchi.

— Nima uchun dorga osadi? — deb so‘rabdi Hotam. Kampir:

— Nimasini aytasan, bolam. Podsho ko‘pkari choptirganda mening o‘g‘lim ham ot minib borib ko‘pkari chopgan edi. Nima bo‘libdi-yu falokat bosib podshoning bir ko‘pkari chopgan odami

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Rahimjonning oti ostida qolib o‘libdi. Shunga podshoning qahr-g‘azabi kelib zindonga solibdi. Endi uni o‘ldirmoqchi, — deb o‘ksib yig‘labdi. Hotam:

— Xafa bo‘lmang onajon, baxti bo‘lsa qutular, — deb kampirni yupatibdi. Kecha o‘tibdi. Ertalab nonushta qilib o‘tirganida:

— Onajon, — debdi Hotam, — men sizga bir so‘z aytaman, hozircha hech kimga bildirmang.

Kampir:

— Ayt bolam, ko‘chaga gap tashiydigan odam emasman, — debdi.

Hotam:

— Men sizning o‘g‘lingizni zindondan qutqarishga harakat qilaman. Siz bozorga borib, menga qalandarlar jandasi hamda sapoyil sotib olib kelib bering! — debdi-da, pul beribdi. Kampir paranji yopinib bozordan Hotam aytgan narsalarni keltirib beribdi. Hotam qalandarlar jandasini kiyib, sapoyilni qo‘lga olib, ko‘chalarda maddohlik qilib yuribdi. Odamlardan yig‘ilgan pullarni kambag‘allar gadoylarga ulashibdi. Hotamning aytib yurgan baytlari adolat, haqiqat to‘g‘risida ekan. Bu gaplar podsho qulog‘iga yetibdi. Podsho „qalandar“ni olib kelib zindonga solibdi. Hotam zindonda Rahimjon bilan topishib, do‘stlashibdi. Ikkisi maslahatlashib zindonda lahim kavlay boshlashibdi. Bir necha kundan keyin yer yuziga tuynuk ochilibdi. Hotam bilan Rahimjon va boshqalar zindondan ozod bo‘libdilar. Hammasi maslahatlashib, qurollanib, kechasi podsho saroyiga hujum qilibdi.

Podshoni taxtdan ag‘darib, o‘ldirishibdi. Rahimjonni podsho qilib ko‘tarishibdi. Hotam Rahimjonning onasi oldiga kelib bo‘lgan voqealarni aytib beribdi. Kampir sevinib, Hotamni quchoqlab:

— Bolam, umringdan baraka top, murodingga yet! — debdi. O‘z o‘g‘li Rahimjonni ko‘rib quvonibdi. Hotam bu joydan ketmoqchi bo‘lganini Rahimjonga aytibdi. Rahimjon Hotamga:

— Do‘stim, agar siz ketsangiz, men ham ketaman. Menga podsholik kerak emas, — debdi.

— Yo‘q, — debdi Hotam, — siz podsholikdan ketmang, men kelgunimcha, uyingiz yonidan bir imorat soldiring. Men onamni ko‘-chirib olib kelaman va shu shaharda yashayman.

Rahimjon juda xursand bo‘libdi. Shu kunning o‘zidayoq bir qancha ustalarni chaqirib imoratni boshlab yuboribdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Hotam yo‘lga chiqibdi. Yo‘l yuribdi, yo‘l yursa ham mo‘l yuribdi, oxiri Hirot shahriga yaqinlashib qolibdi. Yo‘lda ro‘parasidan kelayotgan yo‘lovchidan shahardagi ahvolni so‘rabdi. Yo‘lovchi:

— Shaharda katta urush bo‘layotir. Podsho qiziga bir podshodan sovchi kelgan ekan. Podsho „Qizimni unashtirib qo‘yganman“, deb sovchilarni qaytargan ekan. Sovchi qo‘ygan podsho lashkar to‘plab kelib jang qilayotibdi, — debdi. Hotam shaharga bostirib kelgan qo‘shinga qarshi jang qilayotganlarga qo‘shilibdi. Mardlik ko‘rsatib, o‘z yonidagi jangovar yigitlar bilan bosqinchi shoh lashkarini yengibdi. Qarorgohida o‘tirgan bosqinchi podshoni vazirlari bilan birga o‘ldirib, keyin Hirot shahriga kiribdi. Hirot podshosi Hotamning mardligiga qoyil qolib, uni xursand bo‘lib kutib olibdi. Qirq kecha-yu qirq kunduz to‘y qilib, qizini Hotamga beribdi. Hotam qizning shahrida bir oy turgandan keyin xotini bilan onasi yashagan shaharga boribdi. U yerda uch-to‘rt kun turgach, onasi va xotini bilan Misrga ko‘chib ketishibdi. Rahimjon Hotamni shod-xurramlik bilan kutib olibdi. Yangi imoratga joylashibdi. Hotam o‘z onasi va xotini bilan murod-maqsadiga yetibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Arab laqqi

Qadim zamonlarda Buxoroning bir podshohi bo‘lib, uning mol-u dunyosi ko‘p ekan. Farzandlari ham ancha ekan. Podsho kayf-u safoni, o‘yin-kulgini yaxshi ko‘rar, uning saroyida ko‘p hofizlar, cholg‘uchilar, qiziqchilar ham bor ekan. U biror joyga borguday bo‘lib qolsa, ahli san’atni ham o‘zi bilan olib yurar ekan. San’atkorlar ichida keksa bir chol ham bor ekan. Bu cholni kishilar Arab laqqi deb atashar ekan. Arab laqqi ham boshqa san’atkorlar qatorida birga yurar va podsho so‘ragan vaqtda, bir-ikki kalima kulgili latifa aytib, o‘tirgan kishilarni kuldirib qo‘yar ekan, xolos. So‘ramasa, eshik yonidan nari ketolmay, podsho so‘zini kutib o‘tirar ekan. Arab laqqining kiyishga kiyimi, yeyishga ovqati ham bo‘lmagani uchun u borgan joylardagi „aziz“ mehmonlar oldidan ortgan oshni non orasiga qo‘yib, uyida kutib o‘tirgan kampiriga keltirar ekan. Chol bilan kampir nihoyatda kambag‘al va qashshoq holda yashar ekanlar. Ularni kishilar na to‘yga, na tomoshaga va na ma’rakaga aytar ekanlar. Buning ustiga farzandlari ham yo‘q ekan. Chol bilan kampir uyda o‘tirganlarida uzoqdan-uzoq hasratlashib dardlashar ekanlar.

Arab laqqi kunlarning birida podsho va uning mulozimlari bilan juda uzoq yuribdi, charchaganidan butun hayotiga la’natlar o‘qibdi. Uning hayotdan noroziligi to‘g‘risidagi xabar podshoga borib yetibdi. Maishat

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

kayfini surib o‘tirgan podsho cholni oldiga chaqirtirib, arzini so‘ramoqchi bo‘lganida, chol unga qulog‘ini tutibdi. Atrofda o‘tirgan o‘nlab kishilar chol bilan podsho o‘rtasida bo‘lib o‘tgan gapni eshitmay hayratda qolibdilar.

Oradan ko‘p o‘tmay chol bilan kampirning turmushlari yaxshilanibdi. Kampirni yon qo‘shnilardan tashqari, Buxoroning ko‘zga ko‘ringan boylari, amaldorlari to‘ylariga ayta boshlabdilar. Hayitlarda allaqanday noma’lum kishilar chol uyiga qimmatbaho sovg‘alar keltira boshlabdilar. Qisqa vaqt ichida Arab laqqining ombori g‘alla bilan to‘libdi, molxonasiga sigir, qo‘sh ho‘kiz, otlar bog‘lanibdi. Chol bilan kampirning kiyimi ham shoyi bo‘libdi, shunday qilib chol bilan kampir juda boyib ketibdilar. Kunlarning birida buning xabari podshoga yetibdi. Podsho cholni oldiga yana chaqirtirib, uning boyib ketish sababini so‘rabdi. Arab laqqi shunda podshoga qarab:

— Hazrati oliylari, men buning sabablarini oldin hech bilmagan edim, keyin-keyin tushuna boshladim. O‘zingizga ma’lumki, mening rahmatlik otam sizning rahmatlik otangiz davrida xizmatkor edi, men bo‘lsam yoshligimda hofizlik qilar edim, yoshim ulg‘aygach, kishilaringiz: „Tovushing buzilibdi, qaribsan“, degan gaplar bilan hofizlikdan chetlashtirdilar, oxiri kunim o‘tmagach, to‘pchiboshiga arz qildim, so‘ngra u meni yana davlatingiz soyasida hikoya aytib yurishga ijozat olib berdi. Ana shundan buyon yigirma yil o‘tdi. Bir marta arab hikoyasini aytganimda, „Arab hikoyalarini buzib aytadigan laqma“ deyishdi. Undan keyin nomim Arab laqqi bo‘ldi. Bir kuni charchab, holdan ketib, la’natlar aytganimni eshitib, sababini so‘ramoqchi bo‘lganingizda sizga qulog‘imni tutdim. Siz qulog‘imga shivirlab, qarg‘ishim sababini so‘radingiz, atrofdagi o‘tirgan kishilar bundan xavfsiradilar. Ana shu kundan boshlab qonunsiz ish qiluvchi qozingiz, hokimingizdan tortib oddiy soliqchingizgacha menga sovg‘a bera boshladilar. Ular ikkovimizni sirdosh deb o‘yladilar va o‘zlarining gunohlarini berkitish uchun meni rozi qilib turdilar. Bo‘lgan ish shu. Kim biladi, menga o‘xshaganlar juda ko‘p. Har bir kambag‘aldan siz kabi podshohlar hol so‘rab, qulog‘ini tutsa, ko‘p yaxshi kunlar kelar edi, — degan ekan.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Navoiy bilan yamoqchining o‘g‘li

O‘tgan zamonda bir yamoqchi bo‘lgan ekan. Uning yolg‘iz o‘g‘li bo‘lib, maktabga qatnar ekan. Bir kun maktabga ketayotib, yigit katta bir boloxonada o‘tirgan chiroyli qizni ko‘rib, unga oshiq-u beqaror bo‘lib qolibdi. Oradan bir necha kun o‘tgach, qiz ko‘rinmay qolibdi. Yigit sevganini bir ko‘rishga zor bo‘lib, ko‘p azoblanibdi. Bir kun yigit kechqurun maktabdan qaytib kelayotganida beixtiyor boyning darvozasidan kirib, tashqari hovlidan o‘tib, to‘g‘ri ichkari hovliga qarab yuribdi va birdan qizni ko‘rib yuragi o‘ynab ketibdi. Es-hushini yig‘ib: „Men qayerga kirib qoldim“, deb orqasiga qaytibdi. Shu payt tashqaridan boyning tovushi eshitilib qolibdi. Yigit nima qilishini bilmay, o‘zini boyning mehmonxonasiga uribdi. Boyning mehmonxonaga burilganini sezgan yigit tezlik bilan mehmonxonadagi gilamni yig‘ishtira boshlabdi. Boy hovliqib jahl bilan yigitga:

— Sen kimsan, nima qilyapsan? — debdi.

Yigit:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Men o‘g‘riman, gilam o‘g‘irlash uchun kelgan edim, — debdi.

Boy g‘azablanib yigitning ikki qo‘lini bog‘lab qozixonaga olib boribdi. Shu payt qozining yonida Alisher Navoiy suhbatlashib o‘tirgan ekan.

Boy qoziga avval salom berib, keyin:

— Taqsir, sizning oldingizga o‘g‘ri tutib keldim. Mehmonxonaga kirsam, bu yigit gilamni yig‘ishtirib olib chiqib ketayotgan ekan. Ushlab olib huzuringizga keltirdim. Endi buni jazolasangiz, — debdi.

Qozi yigitdan:

— Ey, yigit, nimaga o‘g‘irlik qilding, ayt! — debdi.

Yigit:

— Men gilam o‘g‘irlash uchun kirib, gilamni ko‘tarib ketay deb turganimda, boy buva kelib qoldilar. Qo‘lga tushdim, — debdi.

Qozi yigitning qo‘lini kesishga buyuribdi. Navoiy so‘roq-javobni eshitib, razm solib turgan ekan, tikilib qarasa, yigit tanish ko‘rinibdi. Mahallasidagi Normat yamoqchining o‘g‘li. Buning qo‘lidan o‘g‘irlik kelmaydi. Navoiy o‘ylab, yigitning bu ishida boshqa sabab bo‘lsa kerak, debdi-da, qoziga:

— Taqsir, ijozat bersangiz, yigitdan bir og‘iz gap so‘rasam. Sizlar chiqib tursangizlar. So‘rab aniqlasam, — debdi.

Qozi bilan boy tashqariga chiqib ketgach, Navoiy yigitga qarab:

— O‘g‘lim, seni yaxshi taniyman, otang yamoqchi, sening qo‘lingdan o‘g‘rilik kelmaydi. To‘g‘risini ayt, nima bo‘ldi, balki senga yordam qilarman, — debdi.

Yigit avval uyalib, aytmabdi. Navoiy qistay bergach, aytishga majbur bo‘libdi.

— Ey, ota, men boyning qiziga oshiqman. Bundan boy ham, qizi ham xabarsiz. Bir necha kundan beri qizni ko‘ra olmay qiynaldim. Bugun bexosdan boyning uyiga kirib qolibman. Qizni ko‘rgach, o‘zimga kelib, ichkari hovlidan qaytib chiqib ketayotganimda, boyning tovushini eshitib qoldim. O‘zimni mehmonxonaga urib, gilamni yig‘ishtira boshladim. O‘zimni o‘g‘ri deb tanitdim, taqsir, mening bundan boshqa ilojim yo‘q edi. Aslida o‘zingiz bilgan kambag‘al Normat yamoqchining o‘g‘liman. Boy ming so‘raganimiz bilan qizini menga bermaydi. Nima qilay axir, ota! — deb yig‘labdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Shunda Navoiy:

— Bo‘ldi, o‘g‘lim, yig‘lama, otang o‘rniga ota bo‘lib boyning qizini olib berganim bo‘lsin! — debdi va qozi bilan boyni chaqiribdi.

— Taqsirlar, u yigitni va uning otasini men yaxshi bilaman. Bu yigitning qo‘lidan o‘g‘rilik kelmaydi. Bu yigit sizning qizingizga oshiq bo‘lib qolgan ekan, boy. Endi siz hozir uyingizga borib, to‘y harakatini qila bering. Men o‘z nomimdan qizingizga sovchilar yuboraman. Bu juma o‘tib kelasi juma to‘y bo‘ladi. Bu bola mening farzandim. Siz bilan biz quda bo‘ldik, boy bobo! — debdi. Boy ham, qozi ham hayron bo‘lib, turgan o‘rnida qotib qolibdi.

Shunday qilib, Navoiy yamoqchining o‘g‘liga boyning qizini olib beribdi. Yamoqchining o‘g‘li boyning qiziga uylanib, murod-maqsadiga yetibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Navoiy bilan mardikor

Bir o‘spirin yigit mardikorchilik bilan kun kechirar ekan. U yurgan yo‘lida odamlar o‘rtasida bo‘lgan janjallarni bostirib, birovning aravasi loyga tiqilib qolsa, „ha-ha“lashib chiqarishib, xalqqa yordami tegib turar ekan. Bu yigitdagi xislatni ko‘rgan Alisher, uni hurmatlab, qachon ko‘rsa undan oldin salom berib o‘tar ekan. Yigit Alisherning bu hurmatiga ajablanib: „Men erta-yu kech odamlarning janjallarini bostirib, loyga botgan aravalarini chiqarishib yuraman, umrimda namoz o‘qimaganman, ro‘za tutmaganman, Alisher meni bunchalik hurmat qiladi. Bu yurishimdan foyda yo‘q. Bola-chaqam bo‘lmasa, menga dunyoning nima keragi bor“, deb pirga qo‘l beribdi. Xudojo‘y kishi bo‘lib, mardikorchiligini tashlab, bir masjidning jilovxonasida erta-yu kech hech kim bilan ishi bo‘lmay, toat-ibodat qilib o‘tiradigan bo‘libdi.

Bir kun yigit jilovxonada tasbeh o‘girib o‘tirgan ekan, Alisher bir yigit bilan gaplashib, jilovxona oldidan o‘tib qolibdi. Yigit ko‘nglida: „Alisher juda karomatli odam ekan, mening namozxon bo‘lib, toat-ibodat qilishimni avvaldan bilib, meni hurmat qilar ekan“, deb o‘rnidan turib, ta’zim bilan salom beribdi. Alisher salomiga alik olish

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

u yoqda tursin, aftiga ham qaramay o‘tib ketibdi. Yigit: „Alisher yonidagi yigitning gapiga berilib, meni payqamay qolgan bo‘lsalar kerak“, deb o‘ziga tasalli beribdi. Oradan uch-to‘rt kun o‘tar-o‘tmas, Alisher yana o‘sha yigit bilan gaplashib kelaveribdi. Yigit o‘rnidan turib salom beribdi. Alisher yana indamay o‘tib ketaveribdi, yigit hayron bo‘lib, Alisherdan:

— Taqsir, bir umr peshonam sajdaga tegmay, baqirib-chaqirib yurganimda salom berib o‘tar edingiz, endi men erta-yu kech toat-ibodat qilib o‘tirib, sizga salom bersam, alik olmaysiz. Buning sababi nima? —deb so‘rabdi. Shunda Alisher:

— Sen, o‘sha baqirib-chaqirib yurganingda xalqqa foydang tegib yurar eding, endi bo‘lsa ertalabki nonushtang bilan kechqurungi ovqatingning g‘amida ertadan kechgacha xalqqa ko‘z tikib o‘tirasan. Salomingga alik olmasligimning sababi shu! — debdi.

Navoiyning bu so‘zlari yigitga qattiq ta’sir etib, u o‘zining avvalgi ishini ham davom ettiradigan bo‘libdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi



«Ziyod botir» ertagiga ishlangan rasm

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Navoiy bilan cho‘pon

Navoiyning yoshligida otasi o‘lib ketgan ekan. Otasi o‘lgandan so‘ng o‘z shahrida turolmay, Navoiy Samarqandga borib, madrasada o‘qibdi. Ko‘p qiyinchiliklar bilan o‘qishni tamomlab, yana o‘z shahriga qaytibdi. Ot-ulovsiz piyoda yurib, bir necha kun deganda bir tog‘ga kelibdi. Bu joyda bir mo‘ysafid cho‘pon bilan uchrashibdi.

Navoiy cho‘ponni darrov tanibdi. Cho‘pon o‘zini ko‘tarib katta qilgan, otasining qo‘yboqari ekan. Chol ham Navoiyni tanib: „Tushimmi, o‘ngimmi?“ deb ko‘rishibdi. Darrov belbog‘idan ikkita non chiqarib, Navoiyni sut bilan mehmon qilibdi. Navoiy cho‘pondan:

— Bu qo‘ylar kimniki? — deb so‘rabdi. Chol:

— Bolam, bu qo‘ylarning hammasi sizniki, siz u yoqdaligingizda otangizdan qolgan mollar har kimning qo‘lida qolib edi. Otangiz hayot vaqtida 200 qo‘yni sizga atab menga topshirgan edi. Bu qo‘ylar bolalab hozir 700 dan oshdi. Otangizning vasiyatini o‘z o‘rniga qo‘yganim uchun xursandman, bu qo‘ylarni endi sizga topshiraman, — debdi.

Navoiy bir kecha cho‘ponning uyida mehmon bo‘libdi. Ertasi qo‘ylardan ikki yuzini ajratib cholga beribdi:

— Ota, siz ham bola-chaqalik odamsiz, mana bu qo‘ylarni xizmat haqingiz uchun oling!

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Cho‘pon Navoiydan juda xursand bo‘libdi. Shundan so‘ng Navoiy qolgan besh yuz qo‘yni haydab bozorga olib ketibdi. Bu qo‘ylar juda semiz bo‘lgani uchun atrofini xaridorlar o‘rab olibdilar. Odamlar Navoiydan:

— Qo‘yingiz necha pul? — deb so‘raganlarida, Navoiy:

—Men qo‘yimni nasiyaga sotaman. Shu shart bilanki, pulini podsho o‘lgan kuni berasizlar. Shu shartimga ko‘ngan kishi bittadan yetaklab olib ketaversin! — debdi.

Bozordagi odamlar darrov talashib, qo‘ylarni bittadan yetaklab olib ketibdilar. Shu kuni podshoning amaldorlari podshoga bu xabarni yetkazibdilar.

— Ey, podshohi olam, nima deysiz, bugun bozorga bir qalandarsifat yigit kelib besh yuz qo‘yni xalqqa nasiyaga tarqatib yubordi. Pulini podsho o‘lgan kuni berasizlar, deb sizga o‘lim tiladi, — debdilar. Shunda podsho g‘azablanib:

— Boringlar, o‘sha qalandarni mening huzurimga hozir qilinglar, — deb buyuribdi. Amaldorlar darrov bozorga borib Navoiyning qo‘lini orqasiga bog‘lab, podshoning qoshiga olib kelibdilar, podsho qarasa, yoshligida birga o‘qigan do‘sti Navoiy ekan. Podsho Navoiyga:

— Nima uchun shuncha qo‘yni xalqqa berib yubordingiz, mening o‘limimga shunaqa rozimisiz? — debdi. Shunda Navoiy:

— Ey, podshohim, men chakki ish qilganim yo‘q. Sizning podsho bo‘lganingizni eshitib, qo‘ylarni tarqatib yubordim. Shunday ham berib yuborishim mumkin edi. Biroq ba’zi bir odamlar tekin moldan hazar qilishadi. Shuning uchun qo‘yning pulini podsho o‘lgan kuni berasizlar, deb aytdim. Endi qo‘ylarni olib ketgan odamlar: „Ishqilib podshohimiz o‘lmasin. Podsho o‘lsa, Navoiy pulini qistaydi“, deb sizni duo qilib yurishadi, — debdi.

Navoiyning bu donoligiga podshoning zavqi kelib, uni o‘ziga vazir qilib olibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Ibn Sino va jinni

Bir podshoning Alovuddin degan yaqin qarindoshi bor ekan. Alovuddin asab kasalligiga yo‘liqib, jinni bo‘lib qolibdi. Xayolida go‘yo u ho‘kiz bo‘lib qolgan ekan. Kecha-kunduz u ho‘kizdek mo‘rar va:

— Men ho‘kizman, men ho‘kiz, — deb bo‘kirar ekan.

Uni qancha tabiblar boqib, udda qilisha olmabdi. Kasali kundan kun zo‘rayib ketaveribdi. Oxiri shu darajaga yetibdiki, u hech narsa yemay, ichmay:

— Men ho‘kizman, qassobni chaqiringlar, meni so‘ysin, — deb mo‘rar ekan. Bir necha kun o‘tib, o‘lar holatga yetibdi. Qarindosh-urug‘lari nima qilishni bilolmay dovdirab qolishibdi.

Oxiri ular podsho huzuriga borishibdi va Alovuddinni Ibn Sinoga ko‘rsatishni iltimos qilishibdi. Podsho Abu Alini chaqirtiribdi.

Abu Ali kelib Alovuddinning qarindosh-urug‘laridan uning qachon kasal bo‘lganligi, kasallikning qanday kechishi haqida batafsil so‘rab olibdi. So‘ng ishning nimadaligini tushunibdi-da:

— Bemorga qassob keldi deb aytinglar, — debdi, — hozir kelib seni so‘yadi, denglar.

Ertasiga Abu Ali katta bir pichoq va qayroq tosh olib kasal tepasiga kelibdi. Ibn Sinoni pichoq bilan ko‘rgan jinni xursand bo‘lib ketibdi:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— O, qassob, men ho‘kizman, meni darrov so‘ygin-da, mehmonlarga qovurma qilib ber, — debdi.

— Ha, men ham xuddi shunga keldim, hozir so‘yaman, — debdi Abu Ali toshga pichog‘ini qayrab.

— Buni bog‘ga olib chiqinglar, — debdi xizmatkorlarga, — arqon bilan bir jom ham olib chiqing.

Shunday qilishibdi.

Bog‘da Abu Ali arqon bilan kasalning oyoq-qo‘lini bog‘latibdi. Tomog‘i tagiga jomni qo‘yibdi va bo‘g‘ziga pichoqni qadab, o‘zi bir qo‘li bilan uning sonlarini silab turib birdan:

— E... bo‘lmas ekan, — debdi, — Sen juda ozg‘in ekansan-ku! Mana qara, quruq suyak bo‘lib qolibsan... Sendan hech nima go‘sht chiqmaydi, chiqqanini ham yeb bo‘lmaydi. Mehmonlar bunday qovurmani yeyishmaydi. Men seni so‘ymayman, yaxshisi borib semizroq mol topib so‘yaqolay, yechinglar buni! — debdi.

Bu so‘zlarni eshitgan telba hiqillab yig‘lay boshlabdi.

— Meni so‘ying, so‘yaqoling, — deb yalinibdi Abu Aliga.

— Sen semizroq bo‘lganingda so‘yardim, — debdi Abu Ali. — Quruq suyak mol kimga kerak? Bu ahvolda go‘shting kimga kerak. Agar sen biroz semirsang, shundagina men kelib so‘yishim mumkin, shundagina seni so‘yib go‘shtingni hammaga tarqataman.

— Xo‘p, xo‘p, — debdi kasal, — men semiraman.

— Sen o‘zing semirolmaysan, — debdi Abu Ali. — Men o‘zim seni boqib semirtiraman. Keyin so‘yaman. Buning uchun men nima bersam hammasini yeyishing va ichishing kerak bo‘ladi.

— Xo‘p-xo‘p, — debdi yana kasal.

Ibn Sino unga foydali ovqatlar buyuribdi. Ovqat bilan kerakli dori-darmonlar ham, davo o‘tlar ham beribdi.

Shunday qilib, Ibn Sino aytgan ovqatlarni yegan sayin kasalning asabi ham, sog‘ligi ham joyiga tushib, butunlay tuzalib ketibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Johil podsho va Abu Ali

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir podsho bor ekan. Uning bir suyukli xotini va bir qizi bor ekan. Podshoning xotini bedavo dardga chalinib, qattiq kasal bo‘lib, yotib qolibdi.

Podsho mamlakatning barcha qishloq va shaharlaridan tabiblar chaqirtirib, xotini dardiga davo topishni buyuribdi. Ularning davolashlari ham, dori-darmonlari ham zoye ketibdi. Bemor hech tuzalmabdi. Uning ahvoli kundan kunga og‘irlashib, oxiri dunyodan ko‘z yumadigan bo‘libdi.

O‘lim haq ekanligini tushungan xotin erini chaqirib, unga oxirgi istagini bildiribdi.

— Taqdir ekan, mening hayotim quyoshi botmoqda, men olamdan o‘taman, — debdi xotin. — Siz boshqaga uylanasiz, faqat bir istagim bor: xushaxloq, rahmdil, bolajon va mehribon bir ayolga uylaning, toki u qizimning ko‘z yoshini oqizmasin.

Podsho va’da beribdi. Xotin dunyodan o‘tibdi. Oradan bir necha yillar o‘tib ketibdi. Bir kuni qizi podshoga:

— Otajon, nega uylanmaysiz? — debdi.

— Qo‘rqaman, qizim, — debdi podsho. — Uyimizga begona xotin kelib, seni xafa qilib qo‘ymasin, deb qo‘rqaman. Agar kelgan ayol sen bilan chiqisha olmasa, men onang ruhi oldida gunohkor bo‘laman.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Agarda sen mening uylanishimni juda-juda istasang, unda o'zing bir xotin top, u sening didingga mos bo'lsin va senga o'z onangdek mehribon bo'lsin.

— Xo'p bo'ladi, — debdi qiz va otasiga yoqadigan xotin izlab ketibdi. So'roqlay-so'roqlay bir juvonni topibdi-da, otasini uylantiribdi.

Darhaqiqat, juvon xuddi otasi aytgandek, bag'rikeng, ko'ngli saxiy, barchaga mehribon ayol ekan. Qizni o'z farzandidek ko'ribdi. Ular ona-boladek totuv yashab ketishibdi.

Ammo taqdirni qarangki, bu baxtli va osuda hayot ham uzoqqa cho'zilmabdi. Oradan bir yil o'tar-o'tmas bu xotin ham kasalga chalinibdi. Uning o'ng tomoni falaj bo'lib qolibdi. Uning o'ng qo'l, o'ng oyog'i ishlamay qolibdi, o'ng ko'zi ko'rmas, o'ng qulog'i eshitmas ekan.

Podsho bosh tabibni chaqirtiribdi. U barcha tabiblar va shogirdlari bilan maslahatlashib, dori-darmon qilibdi. Lekin hech nafi bo'lmabdi. Podshoga xabar berishibdi. Podshoning g'azabi qo'zib ketibdi.

— Bu qalloblar xalqdan pul undirishni bilar ekanlar, xolos, — deb shovqin solibdi u, — xalqni shilib yeydilar-u, ularning muolajasidan hech kimga naf yo'q. Ular faqat yarmi kasal bo'lgan xotinimni ham tuzata olmabdilar. Bunday bilimsiz tabiblar kimga kerak?! Qirq kun muhlat beraman: yo xotinimni tuzatishadi, yo mamlakatdan hammasini quvib chiqaraman!

Buni eshitgan tabiblar oyog'i kuygan tovuqday pitirlashib qolishibdi. Tabibboshi ularni yig'ib maslahat boshlabdi:

— Bu podshoh bekor gapirmaydi, — deyishibdi ular. — U aytganini qiladi. Bir chora topmasak, bizlarni sarson-u sargardon, xalq oldida sharmandayi sharmisor qiladi. Keyin hech kim bizga kelmay qo'yadi.

Maslahat janjalga aylanib, uzoq davom etibdi. Har biri o'zining gapini ma'qullab, o'zganikini rad etar ekan. Shunday qilib ular uzoq vaqt bir qarorga kelisha olmabdi. Oxiri ulardan biri:

— Falon joyda bir shahar bor. O'sha yerda Abu Ali ibn Sino ismli yosh tabib yashaydi. U tibbiyot ilmini juda yaxshi bilar emish, biz bilmaydigan narsalarning ko'pidan xabardor bo'lsa kerak. O'shanga odam yuborib, maktub bilan murojaat etsak, ajabmaski, holimizga achinib yordamga kelsa. U, albatta, bu dardning davosini topsa kerak.

— Juda yaxshi, — deyishibdi hammalari.

Shu zahotiyoq xat yozishibdi-da, oralaridan ikki kishini vakil saylab Abu Ali shahriga chopar qilib yuborishibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Maktub borib yetishi bilan Ibn Sino ertasigayoq yo‘lga chiqib, shaharga yetib kelibdi.

Tabiblar uni kutib olib, podsho saroyiga olib borishibdi. Ular podsho taxti oldida yer o‘pib salom berishibdi va:

— Biz olampanoh zavjiyalarini muolaja etgali keldik, — debdi tabibboshi. — Bergan muhlatingiz qirq kun to‘lmasdan burun ayolingizni sog‘-salomat ko‘rgaysiz, degan umid bilan keldik.

— Inshoolloh, — deyishibdi qolgan tabiblar.

— Anavi navqiron yigit kim? — debdi podsho bir chekkada indamay turgan Abu Aliga ishora qilib. Men uni birinchi ko‘rishim.

— Bu buxorolik olim Husayn, — deyishibdi ular. — Xotiningiz dardining davosini shu yigit biladi.

— Xo‘p, unday bo‘lsa, sizlar nima qilib yuribsiz, barchangiz yo‘qoling bundan. Abu Alining o‘zi qolsin.

Hammalari chiqib ketishibdi. Podsho avval ham Abu Ali haqida eshitgan ekan. Endilikda esa, shunday donishmand olimning kelganiga o‘zida yo‘q sevinib ketibdi. Ibn Sinoga alohida uy ajratish, ikki xizmatkor va ikki joriya ajratish haqida buyruq beribdi. Ular Abu Alining aytganini darhol bajo keltirishar ekan.

Ikki kundan keyin podsho Abu Alini haramga olib kelibdi.

Ibn Sino bemor xotin bilan parda orqasidan suhbatlashib, uning kasali nimada ekanini bilib olibdi va podshoga yuzlanib:

— Xotinlar hammomini yoqishga buyuring, — debdi. — Hammom qizishi bilan bemorni olib kirib yotqizishsin va yolg‘iz qoldirib chiqib ketishsin. So‘ng nima qilish kerakligini aytaman.

Hammomni yoqib, bemorni issiqxonasiga olib kirib yotqizib chiqishibdi. Abu Ali esa cho‘rilardan birini chaqiribdi. Uni erkakcha kiyintiribdi, mo‘ylov yopishtiribdi va:

— Ana endi hammomga kigin-da, bemor xotinga yopish. U dodlab qochsa, qo‘lidan mahkam ushlab o‘zingga tort, — debdi.

Cho‘ri xuddi shunday qilibdi. U hech kimga ko‘rinmay bemor yoniga kiribdi. Podsho xotini „erkak“ kishini ko‘rib, cho‘chib ketibdi va baqira boshlabdi. Bir qo‘lini yerga tirab o‘rnidan qo‘zg‘alibdi. Cho‘ri esa uning qo‘lidan mahkam ushlab bag‘riga torta boshlabdi. Bemor undan qutulib qochishga intilibdi. Qattiq vahimadan ko‘zlari ola-kula bo‘lib, qandaydir kuch-quvvat paydo bo‘libdi. Falaj qo‘l-oyoqlari ham harakatga kelibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Podsho bo‘lsa o‘zining qabulxonasida o‘tirar ekan. Bir mahal uning ko‘ngliga shubha tushibdi. „O‘z qo‘lim bilan jufti halolimni yalang‘ochlab hammomda qoldirishga buyruq berdim“, deb o‘ylabdi u, „sinalmagan bu tabib kirib uni yalang‘och ko‘rsa nima bo‘ladi?! Unda bu xotin menga harom bo‘ladi-ku!“ Podsho shunday xayollar bilan joyida ham tinch o‘tirolmay hammom tomon yo‘l olibdi. Hammom tomiga chiqib, gumbazdagi darchadan qarabdi. Ne ko‘z bilan ko‘rsinki, bir erkak kishi xotinini og‘ushiga tortayotgan emish. Xotini esa unga qarshi olishayotgan emish.

— Yo Allox, — deb tomdan sakrab tushibdi podsho. — Men nima qilib qo‘ydim?! Sharmanda bo‘ldim-ku! Endi bu isnodga qanday chidayman?!

Ammo xotinining begona erkakka qarshi olishyotganini o‘ylab biroz tinchlanibdi. Birozdan keyin yana o‘zini o‘zi koyiy boshlabdi: „Sharmandalik evaziga tuzalishining nima keragi bor?! Yo‘q, bo‘lmaydi, endi u menga harom! Boshqa erkak uni yalang‘och ko‘rsa-yu, men uni xotin qilsam? Yo‘q, endi unday xotin menga kerak emas! Men uni ham, Abu Alini ham o‘ldiraman. Har ikkisining ham boshini uzaman!..“

Podsho shunday o‘ylar bilan o‘z xonasiga kirib ketibdi. Devorda osig‘liq qilichini olib, hammomga yuguribdi. Jahl bilan hammom eshigini ochib ichkariga qadam tashlabdi.

Qilich ko‘tarib kirgan podshoning vajohatini ko‘rgan cho‘ri xotin ishning tagiga yetibdi va tezda mo‘ylovini yulib tashlab, boshidagi sallasini olib yerga uribdi. Soch o‘rimlari yelkasiga tushibdi.

Podsho hayron qolib qo‘lidagi qilichi tushib ketibdi. Bemor xotin ham hayratidan lol qolibdi. Uchalasi biror so‘z deyolmay bir-birlariga qarab turishibdi.

Podsho o‘ziga kelgach, tez-tez qadam tashlab hammomdan chiqib ketibdi. To‘ppa-to‘g‘ri taxtiga borib o‘ltiribdi-da, Ibn Sinoni chaqirtiribdi.

— Abu Ali, — debdi podsho, huzuriga tabib yetib kelgach, — Bu nima qilganing? Bu nayrangbozlikning siri nimada? O‘takamizni yording-ku!

— Shunday qilmasam bo‘lmasdi, shohim, — debdi Abu Ali. — Xotiningiz dardining davosi shul edi. U qattiq hayajon yo qo‘rquvga tushmasa, tuzalmas edi. Jufti halolingizni nomahram erkak yalang‘och ko‘rmasin, deb shunday hiyla ishlatdim. Cho‘ri xotinni erkakcha kiyintirib hammomga kiritdim. Mana, bemor xotiningiz shifo topdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Podsho o‘zida yo‘q suyunganidan Abu Aliga behad sovg‘alar beribdi, ular orasida ikki g‘ulom va ikki kanizak ham bor ekan.

— Yana nima istaysan? — debdi Abu Aliga. — Tila. Barcha istagingni bajo keltiraman.

— Olampanoh, — debdi Abu Ali, — Menga hech narsa kerak emas. Eshitishimga qaraganda, saroyingizda katta kutubxona bor emish. Unda „kimyo“, „limyo“, „simyo“ fanlariga oid kitoblar bor emish. Bu kitoblarda sir ko‘p. Arablar bu ilmlarni „Kulluhu sirrun“, ya’ni dunyoning „hamma sirlari“ deganlar. Menga ruxsat etsangiz, men kutubxonangizga kirib, shu kitoblarni o‘rgansam.

Podsho kutubxona kalitini Abu Aliga tutib, debdi:

— Mana ol, borib hammasini o‘qi, xohlagan joylarini yozib ol.

Abu Ali juda sevinib ketibdi. U uzoq vaqt kutubxonadan chiqmay, kitob mutolaa qilibdi, kerak joylarini ko‘chirib, yozib olibdi. Oxiri u har biri ming sahifalik beshta kitobni ajratib olib, rosa yodlabdi va qo‘shimchalar qilib, to‘ldirib, qayta yozib chiqibdi. So‘ngra u podsho huzuriga kelib:

— Shohim, men o‘z shahrimga ketmoqchiman, onam menga intizor bo‘lib kutib o‘tirgandir, ijozat bersangiz u bilan diydor ko‘rishsam, — debdi.

— Yo‘q, — debdi podsho, — sen shu yerda qolib, doim mening yonimda, menga shifokor bo‘lishing kerak.

Abu Ali indamay g‘amgin uyiga yo‘l olibdi.

Podshoning qizi bu gapdan xabar topib, otasi yoniga yetib kelibdi.

— Otajon, — debdi qiz, — agar siz Abu Alining bu yerda qolib ketishini istasangiz, uni o‘zingizga kuyov qilib oling.

— Yo‘q, — debdi podsho, — men unday qilolmayman. U sening tenging emas. Unday qilsam a’yonlar va boyonlar mendan kuladilar.

Podshoning bu gapi Abu Ali qulog‘iga yetibdi va unga qattiq botibdi. U podsho huzuriga bir xizmatkorini yo‘llab debdi:

— Bor, podshoga borib ayt, men bunda turolmayman. Ilm-u fanning qadriga yetmaydigan, nodon, johil amaldorlarni olimlardan yuqori qo‘yadigan podsho qo‘l ostida bir kun ham yashay olmayman!

Shu so‘zlar bilan xizmatkorini jo‘natib, o‘zi kechasi shahardan chiqib ketibdi.

Abu Ali qochib ketaversin, endi so‘zni podshodan eshiting.

Xizmatkor borib Abu Ali so‘zlarini podshoga yetkazibdi. Uning g‘azabi qo‘zib:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Boring, o‘sha tiliga kuchi yetmagan yaramasni mening huzurimga olib keling! — deb buyuribdi.

Navkarlar yugurib borishibdi. Ammo „Karvon o‘tib, manzil huvillab qoldi,“ deganlaridek, Abu Alidan nom-u nishon topisholmabdi.

— Abu Ali boshqa shaharga qochib ketibdi, — deyishibdi podshoga kelib.

— Nega endi uni qochirdinglar, kim qochirdi! — baqiribdi podsho. — Usiz endi men nima qilaman!

— Biz uning siz bilan achchiqlashib qolganidan bexabar qolibmiz, — deyishibdi mulozimlar. — Uning qochib ketishini xayolimizga ham keltirmabmiz. Agar bilganimizda ushlab qolardik.

Podsho Abu Alini tutish rejalarini o‘ylab o‘yiga yetolmabdi va qiziga:

— Endi nima qilamiz? — debdi.

— Hoziroq odam yuborib shahrimizdagi hamma naqqosh-musavvirlarni yig‘ing, — debdi qiz. — Ularga Abu Alining suratini qirq nusxa chizdiring. Keyin suratlarni sizning farmoningiz bilan qo‘shib barcha shahar hokimlariga jo‘natamiz. Ular rasmlarni shahar darvozalariga osib qo‘yishadi. Abu Ali paydo bo‘lsa, soqchilar uni tutib, shahar hokimiga topshirishadi. Hokim esa uning qo‘l-oyog‘ini bog‘lab sizga jo‘natadi.

— Barakala, qizim! — debdi podsho, — Juda yaxshi tadbir topding.

Podsho qizining aytganini bajo keltiribdi.

Ammo do‘stlari bu gaplarni Abu Aliga yetkazishibdi. U zudlik bilan podsho qo‘l ostidagi shaharlardan o‘tib ketibdi.

U qirq kecha-yu qirq kunduz yo‘l yurib, Alvand tog‘i etaklariga yetibdi. U yerga chodir tikibdi va barcha do‘stlari, shogirdlarini taklif qilibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Ziyod botir

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, o‘tgan zamonda bir podsho bor ekan. Uning bir qizi bor ekan. Nihoyatda sohibjamol, go‘zallikda tengi yo‘q, aqlli, hushyor qiz ekan. Uni kim bir marta ko‘rsa, yana bir ko‘rsam, deb orzu qilar ekan. Oti ham o‘ziga yarashgan Qamarxon ekan. Podsho qizini o‘g‘lidan ortiq ko‘rar ekan. O‘q otish, nayza sanchish, qilich urishda bu qizga barobar keladigan kishi yo‘q ekan.

Qamarxonga oshiq bo‘lganlarning son-sanog‘i yo‘q ekan. Boshqa el-yurtlardan ham shahzodalar, bekzodalar oshiq bo‘lib sovchi yuborar ekanlar, ammo qiz ularni yoqtirmas ekan. Qizning beradigan javobi bitta: „Erga tegmayman“, der ekan.

Podshoning saroyida bir usta ishlar ekan. U hamma hunarni bilar ekan. Uning yasagan asboblari podshoga juda ma’qul bo‘lganidan podsho uni saroydagi barcha ustalarga boshliq qilib qo‘ygan ekan. Xalq orasida ustaning obro‘si juda baland ekan. Saroy xizmatidagilarning kattasidan kichigi uni hurmat qilar ekan. Ustaning yigirma yashar navqiron o‘g‘li bo‘lib, xushsurat, o‘qigan, aqlli, botir ekan. Bu bolaning oti Ziyod botir bo‘lib, bahodirlikda dong chiqargan ekan. Ziyod botir ham podshoning qizi Qamarxonga oshiq ekan. Otasi o‘g‘liga o‘z hunarini o‘rgatar ekan: „O‘g‘lim, sen mening hunarimni o‘rganib ol, bir kuningga yaraydi“, der ekan.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Otasi Ziyod botir Qamarxonni sevib qolganini bilmas ekan. Yigit kechalari malikaning ishqida yig'lab chiqar ekan. Ziyod botir ko'p o'tmay, otasining hunarini o'rganib olibdi.

Bir kuni malika ustaga yangi o'q-yoy buyuribdi. Usta malikaning didiga yoqadigan o'q-yoy qilish uchun bor hunarini ishga solibdi. Ziyod botirning otasi tez kunda bitta o'q-yoy tayyor qilibdi. O'g'li ham otasidan yashirincha o'q-yoy tayyorlagan ekan. Tayyorlangan o'q-yoyni otasiga ko'rsatibdi. Otasi uni ko'rib juda hayratda qolibdi. O'q-yoy otasi tayyorlagan o'q-yoydan ancha yaxshi ishlangan ekan. O'q-yoyning qabzasiga ajoyib baytlardan naqshinkor qilib yozib qo'yilgan ekan. O'q-yoy shunday chiroyli chiqibdiki, uni qo'lga olib ko'rgan kishi hayron qolar ekan. Otasi juda xursand bo'libdi va o'g'lining peshonasidan o'pib: „Balli, o'g'lim, mening hunarimni o'rganib olibsan, endi to umringning oxirigacha hech kishiga xor bo'lmaysan", debdi. So'ng o'zi tayyorlagan o'q-yoyni qoldiribdi-da, malikaga Ziyod botir ishlagan o'q-yoyni yuboribdi. Malika o'q-yoyni ko'rib qoyil qolibdi. O'q-yoy o'zining o'ylaganidan ham ziyoda bo'lgani uchun ustaga sovg'alar beribdi.

Usta ancha keksayib qolgan ekan. Bir kun qattiq kasal bo'libdi, hech qanday dori-darmon kor qilmabdi, oxiri vafot qilibdi. Usta o'lgandan so'ng podsho Ziyod botirni chaqirib olib, uni otasining o'rniga tayinlab, ustalarga boshliq qilib qo'yibdi. Ziyod botir bu yangi xizmatini qilib yuraveribdi.

Kunlarning birida podsho haramga kiribdi, qizining bir o'q-yoyiga ko'zi tushibdi. O'q-yoyni qo'liga olib, ishlanishini tomosha qilib hayron bo'libdi, birdan uning qabzasiga tikilib qolibdi va Ziyod botirning naqsh bilan mayda qilib yozib qo'ygan baytlarini o'qibdi. So'ngra bu yozilgan baytni qiziga o'qib beribdi. Qizi ham hayron bo'libdi. Keyin podsho g'azablanib, Ziyod botirni chaqirib:

— Buni kim yozgan? — deganida, Ziyod botir:

— Men yozdim, — debdi. Podsho:

— Hali sen shunday yaramas ishlarni ham qilasanmi, ko'rnamak! — deb jallod chaqirib, uni o'limga buyuribdi.

Shunda vazirlardan biri podshoning oyog'iga yiqilib, Ziyod botirning gunohini so'rabdi. Podsho vazirning so'zini yerga tashlamay, Ziyod botirni o'limdan ozod qilibdi, lekin, shahardan tashqariga haydab yuboribdi.

Ziyod botir yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, cho'l-biyobonlardan oshib, bir hafta deganda bir tog'ga yetibdi. Bu tog' ko'kalamzor, odamning ko'nglini ochadigan xushhavo joy ekan. Ziyod botir tog'da aylanib yurib nariroqqa borsa, bir mo'ysafid chol necha ming yilqi-qo'ylarni o'tlatib yurgan ekan. Ziyod botir cholga salom beribdi. Chol yigitning charchab kelganini bilib, bir kosa qimiz uzatibdi va:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Qayerdan kelyapsan, o‘g‘lim? — deb so‘rabdi. Ziyod botir boshidan o‘tgan voqealarni birma-bir gapirib beribdi. Cholning rahmi kelib:

— O‘g‘lim, endi qayoqqa borasan? — deb so‘rabdi.

— E, ota, endi qayoqqa borar edim. O‘z yurtimdan judo bo‘lgan bir g‘arib-u musofirman. Hozir boshim og‘gan tomonga ketayotibman, — debdi Ziyod botir.

— Men shu tog‘ xalqining molini boqaman, — debdi chol, — ota-bobodan tortib hammamiz shu kasbni qilib kelamiz. Topganimga qanoat qilsang, menga o‘g‘il bo‘laqol.

Ziyod botirga bu gap ma’qul tushibdi:

— Otajon, agar siz shuni xohlasangiz, men jon-u dilim bilan qabul qilaman, — debdi.

Shunday qilib, Ziyod botir cho‘ponga o‘g‘il bo‘lib, qo‘ylar-yilqilarni boqib yura beribdi. Ziyod botir bu yerda palaxmonga tosh solib otishni juda yaxshi mashq qilibdi. Yirtqich hayvonlar mollarni talasa, bir tosh bilan urib o‘ldiraveribdi. Ziyod botirdan tutingan otasi ham xursand bo‘libdi. Har yili bir qancha mollarni yirtqich hayvonlar nobud qilar ekan. Ziyod botir borganidan so‘ng mollar tinchib qolibdi. Ziyod botirning ta’rifi butun tog‘ xalqiga yoyilib ketibdi. Odamlar Ziyod botirga „Sangdoz[1] botir“ deb nom beribdilar. Oradan ikki yil o‘tibdi. Ziyod botir shu yerda otasi bilan mol boqib yuraversin. Endi gapni podshoning qizi Qamarxondan eshiting.

Qamarxon Ziyod botirni sevib qolgan ekan, ichida: „Agar otam meni erga bersa, shunga bersa“, deb yurar ekan. Otasi Ziyod botirni shahardan haydab yuborgandan keyin yorug‘ dunyo Qamarxonning ko‘ziga qorong‘i bo‘lib, erta-yu kech Ziyod botirni yodlab, kechalari yig‘lab, tong ottirar ekan. Ammo dardini hech kimga aytmas ekan. Qamarning qirq kanizi bo‘lib, ularning boshlig‘i Humoyun degan bir qiz ekan. Qamarxon o‘z sirini axiri shunga aytibdi. Malika o‘z xafaligini tarqatish uchun tez-tez ovga chiqib turibdi. Bahor kunlarining birida otasidan ijozat olib, yigitlar kiyimini kiyib, qirq kaniz bilan ovga chiqibdi. Bir necha kun yurgandan so‘ng bir o‘rmonga yetibdi. Tustovuq va turli qushlarni ovlabdi, lekin tuzukroq ov uchramabdi. Qamarxon boshqa bir joyga borib qarasa, osmon bilan o‘pishgan baland bir tog‘ni ko‘ribdi. Qiz tog‘ga chiqib ketayotgan paytda oldidan bir bo‘ri chiqib qolibdi. Qamarxon bir o‘q bilan bo‘rini o‘ldirib, bitta qizning qo‘liga berib, oldinga qarab yurgan ekan, bir kiyikning o‘tlab yurganini ko‘ribdi. Kiyikning qulog‘iga tilla halqa osilgan, shoxiga tilladan muhr bosilgan, bo‘yniga har xil asl

---

[1] **Sangdoz** — tosh otar.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

toshlar taqilgan ekan. Qamarxon kiyikni yaxshi ko‘rib qolibdi. Qizlarga „Shu kiyikni o‘rab olib, tiriklay tutinglar, kiyikni hech kim qochirmasin, agar kimki qochirsa, yuziga qora surtib, ovdan haydanglar“, debdi.

Qizlar Qamarxonning aytganini qilib qo‘llariga kamand olib, kiyikning atrofini o‘rabdilar. Humoyun o‘rtaga tushib kiyikka kamand tashlabdi. Kiyik chap berib, malikaning yonboshidan o‘tib ketibdi. Malika ketmaket uch marta kamand tashlabdi, kiyikni ilintirolmabdi. Qizlardan uyalib, achchig‘i kelib, kiyikning orqasidan quva ketibdi. Kiyik ham otgan o‘qday vizillab, uchar qushday pirillab keta beribdi. Malikaning mingan oti uchqur otlardan ekan. Shunday bo‘lsa ham kiyikka yetolmabdi, lekin kiyikning ketidan qolmabdi. Kiyik ham, ot ham nihoyatda charchabdi. Kiyik to‘ppa-to‘g‘ri bir g‘orga kirib ketibdi. „Ha, seni endi tutdim“, deb malika sevinib, g‘orga kirib qarasa, g‘or teshik ekan, kiyik undan chiqib ketibdi. Qiz yana otga minib, kiyikning orqasidan qorama-qora quvib ketaveribdi. Kiyik tog‘ yoqalab ketayotgan paytda Ziyod botirga duch kelib qolibdi. Ziyod botir shu tog‘da yilqilarini o‘tlatib yurgan ekan. Palaxmonga tosh solib, kiyikning shoxini mo‘ljallab uribdi. Tosh kiyikning bir shoxini uchirib yuboribdi. Jonivor kiyik til tortmay o‘libdi. Ketmaket malika ham quvib kelibdi, qarasa, kiyik o‘lib yotibdi. G‘azab bilan qilichini qinidan sug‘urib:

— Hoy, nomard cho‘pon! Mening maqsadim kiyikni tiriklayin tutmoq edi. Sen nega birovning ovini otding! — deb qilichni aylantirib, otining boshini Ziyod botir tomonga buribdi, otga bir-ikki qamchi berib, Ziyod botirni o‘ldirish uchun kelayotgan paytda tog‘ning bir chekkasidan bir yo‘lbars chiqib, qiz tomon yuguribdi. Malikaning oti yo‘lbarsni ko‘rishi bilan qo‘rqib orqasiga tislanibdi. Malika ot ustidan uchib ketibdi. Qilichi chap qo‘lining tirsagiga tegib, yerga yiqilibdi.

Ziyod botir yo‘lbars paydo bo‘lishi bilanoq palaxmonga tosh solib, mo‘ljallab turgan ekan. Yo‘lbars malikaga chovut solmoqchi bo‘lib sakraganda, Ziyod botirning otgan toshi yo‘lbarsning boshiga tegibdi va uni o‘ldiribdi. Ziyod botir malika yoniga kelib qarasa, yuziga niqob tutgan bir chiroyli yigit otdan yiqilib, behush bo‘lib yotgan emish. Qilichi qo‘lidan tushib, yerga sanchilib qolgan emish. Darrov ko‘ylagining yengini yirtib olib qizning yarasini bog‘lab qo‘yibdi. Yigit: „Insof yuzasidan ish qilishim kerak, bu bechora bekorga o‘lib ketmasin“, deb suv keltirib, uning yuziga sepibdi. Qiz shunda ham o‘ziga kelmabdi. Botir: „Uning yuzidan niqobini olib, ozgina suv ichirib ko‘ray-chi“, deb qarasa, qora sochlari jingalak-jingalak bo‘lib ketgan Qamarxon ekan. Yigit o‘zini yo‘qotib qo‘yibdi.

Birozdan so‘ng u o‘ziga kelib:

— E, pari, boshingni ko‘tar, turgil, meni kuydirmagil. Sen meni chopsang chop, ammo behush yotib o‘ldirmagil, — deb shuncha yalinsa

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

ham, qiz hushiga kelmabdi. Bir fursatdan keyin qiz o‘ziga kelibdi. Qarasa, tepasida cho‘pon ko‘z yoshlarini to‘kib turgan emish. Qiz tikilib yigitni tanibdi. Sevinganidan yana hushini yo‘qotib qo‘yibdi. Shu paytda Qamarning kanizaklari uni qidirib kelib qolibdilar. Qarasalar, bir yo‘lbars o‘lib yotgan emish. Malika behush, bir cho‘pon tepasida dam-badam suv berib turgan emish. Qizlar darrov otlaridan tushibdilar. Humoyun yugurganicha kelib, malikaning boshini tizzasiga olib, ko‘zidan yosh to‘kib turgan paytda malika yana hushiga kelibdi.

Humoyun malikaning qo‘lini yechib, yarasiga dori surib, uni yana bog‘lab qo‘yibdi. Malikani saroyga olib qaytishmoqchi bo‘lganlarida u unamabdi:

— Men to tuzalgunimcha shu yurtdan ketmayman, — debdi. O‘sha yerda bir buloq yonida ikki tup katta daraxt bor ekan, ikki botmon yerga soya berar ekan. Malikani o‘sha yerga yotqizib qo‘yishibdi. Malika „Ziyod botir meni tanirmikin“, degandek qilib undan so‘rabdi:

— Siz bu yerda qachondan beri cho‘ponlik qilasiz?

Ziyod botir „Qamarxon meni tanimaganga o‘xshaydi, rostini aytib qo‘ya qolay“, deb:

— Sizning otangiz haydab yuborgandan beri, — debdi. Malika Ziyod botirga kulimsirab qarabdi. Botir sevinganidan yuragi o‘ynab ketibdi. Malika Ziyod botirdan uzr so‘rab:

— Haqiqatan ayb menda, sizni otamdan so‘rab, azobdan qutqarib qololmadim, — debdi.

— Ayb sizda emas, otangizda, — debdi yigit.

Ziyod botir terisiga sig‘may, quvonib, cho‘pon otasini chaqirib kelibdi. Otasi „Bu aziz mehmonlarni ziyofat qilishimiz kerak“, deb qishloqdan bir katta qozon keltirib, bir necha qo‘yni so‘yib, qozonlarga olov yoqib yuboribdi. Cho‘pon qizlarga:

— Chanqagandirsizlar? — deb choralarda[1] qimiz quyib berib turibdi. Oradan bir qancha kun o‘tibdi. Malikaning yarasi ham tuzala boshlabdi.

Endi so‘zni malikaning otasidan eshiting.

Malika ovga chiqib ketgandan keyin besh kun o‘tibdi, malikadan darak bo‘lmabdi. Otasi bir pahlavonni chaqirib, unga bunday debdi:

— Besh kun bo‘ldi, haligacha malikadan darak yo‘q, borib bir xabar olib kel-chi, qayerda ekan? Uni qayerda uchratsang ham olib kel.

Bu pahlavon malikani sevar ekan. Shuning uchun ham podshoga astoydil xizmat qilib yurar ekan. Podshoning so‘zini eshitib pahlavon benihoyat xursand bo‘libdi. U yigitlar bilan otlanib „Malikani qayerda yolg‘iz topsak, u bilan suhbat quramiz“, deb bir xum sharob olib,

---

[1] **Chora** — yog‘och tog‘oracha.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

safarga chiqibdi. U besh kun deganda malikani topibdi. Qarasa, malika Ziyod botir bilan suhbat qilib o'tirgan emish. Buni ko'rib pahlavonning joni chiqib ketibdi. Bir narsa degani malikadan qo'rqib, otdan tushibdi, ular bilan so'rashib bo'lib malikaga:

— Otangiz sizdan xavotir olib, meni yubordilar, — debdi.

Shunda pishib turgan sho'rvani suzib, mehmonlarga tortishibdi. Pahlavon ham olib kelgan sharobini o'rtaga qo'yibdi. Qizlardan bir-ikkisi kosagul bo'lib sharobni quyib turibdi. Malika ham ko'pdan beri xumor ekan. Malika sharob ichganidan keyin Ziyod botir ham ichibdi. Pahlavon bir-ikki kosa sharob ichgandan so'ng boshi aylanib ko'zi qizaribdi, arzimagan narsadan bahona topib, Ziyod botirga do'q qilibdi.

„Mening so'zimni nega qaytarasan!" deb o'rnidan turib, Ziyod botirga bir musht uribdi. Ziyod botir achchiqlanib, pahlavonni bir urgan ekan, chakagi tushib, og'zidan ko'pik oqib, o'sha ondayoq o'libdi. Pahlavonning yigitlari Ziyod botirga yopisha ketibdilar. Ziyod botir jang qilib, ularni yengibdi. Jang tugagandan keyin malika: „Endi bu yerda turib bo'lmas, boshqa bir yurtga ketaylik" debdi, keyin qizlarga javob berib:

— Otam meni so'rasa, „Malika boshqa yurtga ketgan", deb aytinglar, — debdi.

Malika qizlar bilan xayrlashibdi, qizlar xafa bo'lib, shaharga qaytibdilar.

Ziyod botir va malika cho'pon otasi bilan xayrlashib, har ikkalasi ikki otga minib yo'lga ravona bo'libdi. Ular ov qila-qila bir necha kun deganda bir shaharga boribdilar. Bu shaharning nomi Hirot ekan. Ana shu yerda Sulton Husayn mirzo podsho ekan. Bular kelib bir saroyga tushibdilar. Bir necha kun o'tgandan keyin Ziyod botir qizni nikohlab olish uchun odam axtaribdi. Shu saroyga yaqin joyda bir shayx bor ekan. Botir shayxnikiga boribdi. Shayx uyda yo'q ekan. Uning o'g'li chiqibdi. Ziyod botirning so'zini eshitib. „Men o'zim nikohlab qo'ya qolay", debdi va Ziyod botir bilan saroyga kelibdi. Nikoh paytida ko'zi qizga tushib: „Attang, shunday chiroyli qizni nikohlab qo'ldan berib qo'ydim", deb afsuslanib, uyga qaytibdi.

Qiz dardida Ziyod botir bilan og'ayni bo'lib qolibdi.

Shayxning o'g'li:

— Musofirni siylamoq kerak, deganlar, — deb ularni tez-tez ko'rgani kelib turibdi. Ziyod botir qiz bilan maslahatlashib, bir temirchiga shogird tushibdi. Temirchiga uning xizmati yoqib qolibdi. Temirchi qarasaki, yigit o'zidan ham hunarmand usta, insofli odam ekan.

Uni o'ziga sherik qilib olibdi.

Bir kuni shayxning o'g'li Ziyod botirga qarab:

— Birodar, siz saroyda yotmang, men o'z mahallamdan bir hovli topib qo'ydim. Shuni sizga olib beraman, — debdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

«To‘lg‘onoy» ertagiga ishlangan rasm

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Ziyod botir hovlini ko‘rib yoqtiribdi. Ishlab orttirgan puli bor ekan, pulni naqd sanab berib, hovlini olibdi. Hovliga xotini bilan ko‘chib kelibdi. Keyin shayxning o‘g‘li Ziyod botirga:

— Xotiningiz yosh, siz ishga ketgan paytda u yolg‘iz qoladi. Biznikida bir yaxshi kampir bor, o‘zi befarzand. Shu kampirni siznikiga yuborsam qanday bo‘ladi? — deb so‘rabdi.

Ziyod botir undan xursand bo‘lib, rozilik beribdi.

Shayxning o‘g‘li bir makkor kampirni topib, unga bir qancha pul beribdi va „Ishqilib shu Qamarxonni yo‘ldan chiqaring“, deb uni Ziyod botirning uyiga oborib qo‘yibdi.

Kampir Qamar bilan ona-boladay bo‘lib ketibdi. Kampir erta-yu kech qo‘lida tasbeh, ibodat qilar ekan. Qamar eri ishga ketgandan keyin gilam to‘qir, zeriksa, ashula aytar ekan. Kampir asta-sekin qizning pinjiga kirib, shayxning o‘g‘lini maqtay boshlabdi. Qamar makkor kampirning harakatini sezib qolibdi. Erini kampirning aytganlaridan xabardor qilibdi. Shunda Ziyod botir:

— Men ham o‘ylagan edim-a, bu menga nega muncha do‘st bo‘lib qoldi, deb, do‘stlik bu yoqda ekan-da, mayli, hozircha indamay turginchi, yana nima der ekan, — debdi.

Ertasiga makkor kampir yana shayx o‘g‘lidan gap boshlab:

— Sizni u kishi juda yaxshi ko‘rar emish, shu kishi bilan bir gaplashsangiz nima qiladi? — debdi.

Qamarning achchig‘i kelib, kampirning lunjiga bir tushiribdi. Kampir g‘o‘ldirab, shayx o‘g‘lining yoniga boribdi va bo‘lgan voqeani aytib beribdi. Shayxning o‘g‘li achchiqlanibdi. Odam o‘ldirib yurgan bir kishisi bor ekan, uni chaqirib:

— Bu kecha hech qayerga borma, bir ish bor, shuni bajarasan, — debdi.

Shayxning o‘g‘li yarim kechada xizmatkori bilan Ziyod botirning uyiga kelibdi. Bularning uxlaganini bilib, ikkisi devordan oshib tushibdi, u Ziyod botirni o‘ldirib xotinini olib chiqib ketmoqchi ekan. Qamar odam sharpasini sezib, Ziyod botirni uyg‘otibdi. Ziyod botir o‘rnidan turib qarasa, ayvon oldida ikki odam turgan emish. Yostig‘i tagidan xanjarini olib, shayxning xizmatkori bilan olishibdi. Qamar yugurganicha borib, shayxning o‘g‘lini bir musht urib, lunjini shishirib qo‘yibdi. Ziyod botir esa, shayx o‘g‘lining odamini o‘ldirib, unga hamla qilmoqchi bo‘lib turgan shayx o‘g‘lini ham dast ko‘tarib yerga uribdi, lekin shayxning o‘g‘li yalinib-yolvora bergandan keyin, uni bo‘shatibdi. Shunda shayx o‘g‘li Ziyod botirning oyog‘iga yiqilib, ikkinchi bunday noma’qulchilik qilmaslikka so‘z beribdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Malika „O‘ldiraylik“, desa ham, Ziyod botir: „Mayli, ketsin bu nomard! Ikkinchi bunday ishni qilmasin!“ deb uni uydan chiqarib yuboribdi.

Shayx o‘g‘li bu yerdan chiqqandan keyin „Nega shuni podshoga borib aytmayman?“ deb, lunjini tang‘ib, podsho saroyiga boribdi.

Sulton Husayn mirzo o‘z yaqinlari bilan o‘tirgan ekan, ular orasida buning otasi shayx ham bor ekan. Shayxning o‘g‘li podshoga ta’zim qilib:

— Shohim, yaqinda yurtimizga bir bepadar yigit bir qiz bilan kelgan edi. Men ularni durust odam deb nikohlab qo‘ygan edim. Keyin hovli ham olib berdim. Shu kecha ko‘chadan o‘tib ketayotsam, shu hovlida bir qancha yigitlar o‘rtasida haligi bepadarning xotini o‘ynab turgan ekan. Achchig‘imga chidolmay yigitni chaqirdim va „Bu nima buzuqlik, uyalmaysanmi?“ degan edim, u menga bir musht soldi. Shohim, shu yaramas yigitni shahardan badarg‘a qilishga farmon berishingizni so‘rayman. Buning kasofati hammamizga tegmasa deb qo‘rqaman, — debdi.

Podsho g‘azablanib:

— Uni shahardan haydab yuborish bir yoqda tursin, hozir chaqirtirib o‘ldiraman! — debdi va odam yuboribdi. Podsho yuborgan kishilar Ziyod botir bilan Qamarxonning qo‘llarini orqalariga bog‘lab olib kelishibdi. Podsho Qamarni ko‘rishi bilanoq o‘zini yo‘qotib qo‘yibdi.

Lekin ularni yaramas ish qiladigan odamga o‘xshatmabdi.

Podsho Ziyod botirdan:

— Sen bu qizni qayerdan olib kelgan eding? — deb so‘rabdi. Ziyod botir:

— O‘zidan so‘rang, — debdi.

Podsho saroyni holi qoldirib, Ziyod botirga:

— Sen qizni tashlab ketaver! — debdi.

Ziyod botir unamabdi. Podsho achchiqlanib:

— Jallod! Olib chiq buni, dorga os, — debdi. Botirni jallodlar olib chiqib o‘ldirmoqchi bo‘lganda Ziyod botir chaqqonlik bilan ular qo‘lidan chiqib qochibdi va to‘ppa-to‘g‘ri haligi temirchi ustaning uyiga borib, bo‘lgan voqeani unga so‘zlab beribdi. Temirchi „Falon joyda bir g‘or bor, sen o‘sha yerga borib turasan, men shaharda nima gap bo‘lganini ertaga borib senga aytaman“, debdi.

Endi gapni malikadan eshiting:

Podsho Qamarga yaxshi gapirib: „Men sizni malikalarning malikasi qilay, siz men bilan bo‘ling“, deb ko‘p yalinsa ham bo‘lmabdi. Podsho g‘azablanibdi. Podshoning bog‘ida yashirin bir zindon bor ekan, uni hech kim bilmas ekan. Qamarni shu zindonga solibdilar. Ziyod botirning qochganini eshitib, uni ko‘p qidiribdilar, lekin topa olmabdilar. Ertasiga kechqurun temirchi usta Ziyod botir yashiringan g‘orga borib, ikkisi uzoq maslahat qilishibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Ziyod botir:

— Endi nima qilamiz, bir tuzukroq yo‘l ko‘rsating, — debdi.

Temirchi o‘ylab-o‘ylab:

— Bir yo‘l bor, — debdi, — u ham bo‘lsa podshoning vaziri Alisher Navoiy bilan uchrashasan, butun sirni unga aytasan, dardingga o‘sha kishi davo topa oladi.

Ziyod botir „Xo‘p“, deb yarim kechada g‘ordan chiqib, Navoiyning uyiga boribdi. Eshikda turgan mulozimga salom berib:

— Men Navoiy hazratlarinikiga uzoq yerdan mehmon bo‘lib keldim, — debdi.

Navoiy kechalari uxlamasdan ishlar ekan. Mulozim Navoiy huzuriga kirib: „Bir mehmon yigit uzoqdan sizni ko‘rgani kelibdi“, degan ekan, Navoiy:

— Chaqir, kirsin! — debdi.

Ziyod botir Navoiy bilan ko‘rishib-so‘rashib bo‘lgach, boshidan o‘tgan voqealarni birma-bir bayon qilibdi. Navoiy uni yupatib:

— Xotirjam bo‘ling, podsho Qamarni o‘ldirmaydi, men uning xabarini ertaga olib kelaman, — debdi.

Navoiy ertasi podsho saroyiga borgan vaqtida bog‘ga kiribdi. U podshoning shu yerda yashirin zindoni borligini bilar ekan. Bog‘ni aylanib yurganda uni bog‘bon ko‘rib qolibdi, Navoiyga ta’zim qilib bir dasta gul tutibdi. Bu kishi ham bog‘bonlik, ham zindonbonlik qilar ekan. Bu sirni hech kim bilmas ekan.

Navoiy bog‘bonga qarab:

— Qizdan xabar olib turibsizmi? Yoshlik qilib tag‘in o‘zini o‘zi o‘ldirib qo‘ymasin, — debdi. Bog‘bon:

— Ha, taqsir, xabar olib turibman, podshoning o‘zlari ham hozir kelib ketdilar, — debdi.

Shu bilan Navoiy xotirjam bo‘lib, uyga qaytibdi va Ziyod botirga qizning sog‘-salomatligini bildiribdi. O‘zi shu kundan boshlab odamlarga podsho bog‘iga tomon lahim kovlatibdi. Uch kun deganda lahim kovlanib bo‘libdi. Navoiy Qamarni zindondan chiqaribdi, o‘z uyiga olib borib, unga bir yaxshi joy tayin qilibdi. So‘ngra Ziyod botirga.

— Sening birodaringman, Qamar bajonidil singlim, mening uyimda bir umr tursangiz ham bemalol, birov sizlarga daxl qilmaydi, — debdi. Qamar bilan Ziyod botir xursand bo‘lib Navoiyning uyida yashabdilar. Oradan uch yil o‘tibdi. Qamar bir o‘g‘il tug‘ibdi. Bolasi yuradigan bo‘libdi. Bir kun Navoiy bog‘dan chiqib ketayotganda bola yo‘lda suv o‘ynab turgan ekan. Navoiy uni ko‘tarib, qo‘liga gul berib, Ziyod botirning eshigi oldiga yetganida ichkaridan Ziyod botirning ovozi eshitilibdi:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Nega yig‘laysan, onangni sog‘inganing bilan borib ko‘rolmaysan. Qo‘y, yig‘lama, yuragimni ezma!

Navoiy buni eshitib hovliga kiribdi. Qamar ko‘z yoshini artib o‘rnidan turib, Navoiyga salom beribdi. Navoiy:

— Xafa bo‘lmang, singlim, yana bir oy sabr qiling, yurtingizga o‘zim oborib qo‘yaman, otangizga ham tushuntiraman, — debdi.

Oradan bir oy o‘tibdi. Navoiy podshodan sayohat bahonasi bilan ijozat olib, o‘zining yaxshi sirdosh yigitlaridan to‘rttasini hamroh qilib, safar jabdug‘ini rostlabdi. Yigitlar bir hafta ilgari Qamar bilan Ziyod botirni shahardan chiqarib, bir tog‘ning bag‘riga qo‘yib kelishibdi. Navoiy bir haftadan so‘ng yo‘lga chiqibdi. Qamar bilan Ziyod botirni olib, to‘ppa-to‘g‘ri ularning yurtiga jo‘nabdi.

Bir necha kun yo‘l yurib, yo‘l yursalar ham mo‘l yurib, axiri Qamarning yurtiga yetibdilar. Podsho Navoiy kelganini eshitib bir qancha mehmonlarni chaqiribdi. Navoiyni bir necha kun mehmon qilgandan keyin:

— Xush kelibsiz, xizmat, — debdi podsho. Navoiy:

— Sizdan ikki gunohkorning gunohini kechishingizni so‘ragani keldim. Shularning gunohini o‘tsangiz, bir necha kun turaman, bo‘lmasa hozir qaytib ketaman, — debdi. Podsho:

— Agarda gunohkorlar otamni o‘ldirgan bo‘lsalar ham siz tufayli ularning gunohini kechdim, kim ekan ular? — debdi.

Navoiy Qamar bilan Ziyod botirni chaqiribdi Qamar kelib, otasiga o‘zini tashlabdi.

Podsho sevinganidan hushidan ketayozibdi.

— Qayerda eding, bolam? — deb yig‘lab yuboribdi. Qamar yo‘qolganidan so‘ng podshoning darak solmagan joyi qolmagan ekan.

Navoiy bularning boshiga tushgan hamma kulfatlarni birma-bir aytib beribdi.

Podsho shahar xalqiga yetti kun ziyofat beribdi. U Ziyod botirni o‘ziga lashkarboshi qilib tayinlabdi. Ziyod botir tog‘da cho‘ponlik qilib yurgan otasini chaqirtirib kelib, bir bog‘ olib beribdi. Ziyod botir xalqqa mehribonlik qilib, kambag‘al, och-yalang‘och, beva-bechoralarga qo‘lidan kelganicha yordam qilibdi. Navoiy bir necha kun turgach, Hirotga qaytibdi, Ziyod botir bilan Qamarxon shod-xurramlik bilan umr kechiribdilar.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

To‘lg‘onoy

O‘ratepa begi xalqdan oq uylikka qorachiriq[1] odam so‘rabdi. „Qo‘qon bizning ustimizga hujum qilib kelmoqchi emish. Biz o‘z g‘amimizni yeylik“, deb xalqqa xabar qilibdi. O‘ratepa begi qorachiriq so‘raganda qirq urug‘dan so‘rabdi, bo‘lagi unga tobe emas ekan, bermabdi. Xalqqa xabar yetgandan keyin xalq maslahat qilibdi.

— Endi bunga odam bermasak, bek-da, nima qilsa qiladi. Bunga kimni yuborsak, kim borar ekan? O‘ziga bahuzur boy-badavlat kishilar hech mahalda bormaydi. Bunga ro‘zg‘orini o‘tkazolmaydigan kambag‘allar boradi. Ular bu yerda nima tirikchilik ham qilardi?

Shunda har o‘n uyga bir odam uchun pul yig‘ib bermoqchi bo‘lishibdi. U vaqtda xalq o‘troq emas, bir yerda bir yil yashasa, bir yerda olti oy yashar ekan. Shunda Nazar degan bir kambag‘al yigit bu xabarni eshitgandan keyin, „Bola-chaqam bilan men borayin, bu yerda bog‘-u chor-bog‘im qolayotibdimi? Bedananing uyi yo‘q, qayga borsa pitpildiq“, deb bormoqchi bo‘lib boydan ikkita eshak olibdi. Puldor odamga bu hech gap emas, uning bola-chaqasini sotib olib jo‘natibdi.

---

[1] **Qorachiriq** — *Qora cherik* so‘zining shevada aytilishi, quyi tabaqali askarlik.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Haligi kambag‘alning bo‘yi yetib qolgan To‘lg‘onoy degan qizi bor ekan, buni bir kambag‘alning Pardavoy degan o‘g‘liga unashtirib qo‘ygan ekan. Endi berib ketaylik desa, Pardavoyda bir ko‘rpa bilan bir yostiq qilib olguday hech narsa yo‘q. Boylardan olgan pulidan qilib beray desa, o‘ziga kerak bo‘ladi, „Kel-e, debdi. Pardavoy ham taqdirdan ko‘rsin, taqdirga tan berib qolar. Agar qizimning taqdiri shu yoqqa tortsa, birovi bir nima berib olar. Qizimni tashlab ketsam, yovgarchilik bo‘lsa, „ota-onam o‘lib ketdimi?“ deb ko‘ngli alog‘da bo‘lar, nima bo‘lsa ham birga bo‘lgani ma’qul“, deb janda-junda ko‘rpalarini eshakka ortib, bolalarini ergashtirib, har urug‘dan jo‘nagan kishilarga qo‘shilib, O‘ratepaga qarab yo‘l olibdi.

Bir necha urug‘lardan chollar, beli bukchayib, qulog‘i tikrayib qolgan kampirlar ham ketib borar ekan. Necha kun yo‘l yurib, bir kun O‘ratepaga yetibdi. O‘ratepa begi bularning kelganini eshitib, sipohi odamlaridan qo‘shib, qorachiriqqa borgan odamlarni haydab, Qo‘qon atrofiga o‘tkazib, „Qo‘qondan kelgan yovga sizlar ko‘ndalang!“ deb qaytibdi.

Qorachiriqqa borgan odamlar bir nechtasi yerto‘la qazib, bir nechtasi qamishdan kapa qilib: „Hay, oq uylikka ham keldik, yeb yotadigan ovqatni g‘amlab kelganmiz, boylarning pulini olganmiz, zarur bo‘lsa, O‘ratepaga boramiz, bo‘lmasa bunda turamiz. Qo‘qonlik kelganda nima qilamiz? Hamshahar kambag‘almiz-da. Qo‘qon xoni kelganda, qasd qilganda bizdan bitta eshak oladi-da. Bizning ro‘zg‘orimizda ho‘kiz shoxiga ilib chiqquday narsa bo‘lmasa, to‘shab o‘tiradigan narsamiz yo‘q, turishimiz shu. Yovgarchilik, agar fe’li ketib, beklar haydab kamonning damiga tutib, bola-chaqa nobud bo‘lib ketmasa, bir kunimiz o‘tib turar“, deyishibdi. Kambag‘allar choyini qaynatib yotibdi. Oradan ikki oy o‘tibdi. Qo‘qon xoni hujumga otlanibdi.

U vaqtda beshta-o‘nta yo‘riqchiga chiqib turadigan odamlar bo‘lar ekan. Shu bekning odami moli u bekka o‘tsa, o‘lja qilib olib ketar ekan. Shunda qo‘qonlik O‘ratepaga yov bo‘libdi. „O‘ratepani olib qo‘yadi“, deb Qo‘qon xoniga qarshi chiqib, O‘ratepa begi ham saf tortib turibdi. Chodir chamanini tikib, Qo‘qon beklari nayzasini olib maydonga kiribdi.

O‘ratepa begidan Ollanazar botir ham maydonga kirib, qo‘qonlikning ko‘p botirlari bilan olishibdi. Shunda kam-kam o‘yin qizib, qiy-chuv to‘polon bo‘libdi. Kim o‘lib, kim qolganini bilib bo‘lmabdi. Oq uyliklardan ham borgan bir necha dadilrog‘i ko‘rinish berib, balandroq yerda turib, shovqin qilib yurgan yosh bolalar, ayol, bola-chaqalar ko‘pi qamishning ichiga kirgan. „Odamlar bilan aralashib kirib tursam, Qo‘qon odamining

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

ko‘ziga tushib qolsam, meni o‘lja qilib olib ketib qolar“ deb, To‘lg‘onoy odam bor yerdan qochib, hech kim ko‘rmas deb, bir qamishzorga kiribdi. O‘rtasiga kirgani cho‘chib, biror jondorga yo‘liqib qolmayin, deb chetroqda turibdi. Qancha fursatdan keyin sibizg‘a, karnayning tovushi kelibdi. Karnay tortganda yov ikki yoqqa ayrilibdi. Ovqat vaqti bo‘libdi. Shu vaqtda To‘lg‘onoy chiqib ariqning bo‘yida bet-qo‘lini yuvib, suv ichib turgan ekan, boshida zarrin dastor, belida tilla kamar, unga qilich bog‘lagan bir sipohi kelib qolibdi.To‘lg‘onoy seskanib, badani qaltirab qo‘rqibdi. U So‘fibek degan kishi ekan. U turib aytibdi.

— Yaxshi bola ekansan, qo‘rqma. Sening oting nima?

— Mening otim To‘lg‘on, — debdi To‘lg‘onoy. Shunda So‘fibek aytibdi:

— To‘lg‘on ekansan, sen mendan hadik olma. Men tahorat qilib peshin o‘qiyin, sen otga qarab tur. Peshinni o‘qib bo‘lgandan so‘ng sen bilan gaplashib, o‘zim yaxshi joyga olib boraman.

Sipoh dastorlarini qo‘yib, etiklarini yechib, kamar, qurol-aslaha va kiyimlarini ham yechib tahorat qila beribdi. To‘lg‘onoy yuragini bosib olib, sho‘xligi kelib:

— Men sizning kiyimlaringizni kiyib ko‘rayin, menga ham yarashar, — deb yechib qo‘ygan etigini, to‘nlarini kiyib, tilla kamar bilan belini bo‘g‘ib, boshiga zarrin dastorini qo‘yib:

— Qalay, sizday sipohi bo‘ldimmi? — deb unga qarabdi. So‘fibek ko‘rib:

— Kiyim yarashib ketibdi, balli qaddingdan, sipohiliging mendan ham basavlat bo‘libdi. Har gap bo‘lsa namoz o‘tmasin, otni ham minib tur, men namozdan qutulayin, — deb namoz o‘qishga kirishibdi. U namozni boshlaganda To‘lg‘onoy: „Bu ikki yoqlama foyda qiladigan ekan, xudojo‘ylik qilib, xudoning qarzidan qutulmoqchi. Buning fe’li, namozdan qutulgandan keyin meni ham aylantirmoqchi. Endi namozdan foydalangani bas-da, buning“ deb, To‘lg‘onoy otning boshini burib, jo‘nay beribdi. Otga qamchi urib, har zamon burilib qarabdi. Namoz buziladi, deb u hech qayoqqa qaramabdi. Namozdan forig‘ bo‘lib, yuziga fotihani tortib, tasbeh o‘girib, o‘rnidan tursa, ot-aslaha, To‘lg‘on yo‘q. „Bu qayoqqa ketdi? Kulib turgan xushro‘y bola edi, biror yerda, qamishning chetida yashirinib turgan bo‘lmasin“, deb chet-tevaraklarni ham qarab, darak topmabdi. Otning izi Jizzax tarafiga chiqib ketgan ekan. Endi qaytib beklarning qoshiga borolmabdi. Yalangoyoq chopib chiqib, bir balandlik yerdan qarabdi, hech daragini topmabdi. Shunda yugurib-yelib, to‘ni-

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

ning ikki etagini qaytarib, „Bu qanday alomat bo'ldi?“ deb, har tomonga qarab, qanday jondor ko'rinsa so'rab, chopib yuraveribdi. Ko'ziga bir echki ko'rinibdi. „Peshinni o'qidim, echki, chordevordagi qo'tir echki, shu yerdan To'lg'on o'tdimi?“, deb so'rabdi. Undan o'tib, chopib borayotgan ekan, bir kampir ko'rinibdi:

Daryoda yuzadi kema,
Yetti urug'laring tamma[1]
Zingrayib turgan jon momo,
Bu yerdan To'lg'on o'tdimi?

Do'mbiraning boshi burma,
Shayton meni yo'ldan urma,
So'fibekni abgor qilgan
To'lg'onjonni ko'rgan bormi?

Yugurib-yelib ancha yuribdi, ko'p abgorlikni ko'ribdi, yer to'zon bo'lib, iz bekilibdi, qayoqqa yurarini bilmay, So'fibek sharmanda bo'libdi. Ot-anjomidan ayrilibdi. To'lg'ondan quruq qolibdi. Sharmanda bo'lib qaytibdi. Ko'zidan yosh oqib, beklar qoshiga borolmay, o'ylab, sipohi tengdoshlarimga qanday ko'rinish beraman, deya yayov manziliga ketibdi.

To'lg'on qistab mingan oti
Mirzacho'lga yo'lni tortti.
To'lg'onni ko'rgan xaloyiq,
Amirning mahrami depti.

Endi To'lg'onoy tavakkal qilib, sipohning yo'rg'asini minib, o'roqchi, mashoqchi ko'rsa, „Bu amirning mahrami“, deb yo'ldan chiqib, chetda turib, o'z kayfida yo'l yurib, „Ota-onam unda qoldi, urush tarqasa, o'lmasa to'rt-besh oy o'tsa o'zi borib qolar-da“, deb qistov bilan yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, qo'shbarmoqdan o'tib, Jizzaxga yaqinlashib yetib qolibdi. Ko'nglida: „Endi saroyda, har joyda qo'nib yotmayin. Bu ot-u anjom bilan ko'rgan odam meni tek odam demas, bu Jizzax begining qo'rg'oniga kirib, arkning ostida, jilovxonasiga ro'para

---

[1] **Tamma** — urug' nomi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

bo‘lib ko‘rayin“, deb gavjum qo‘rg‘onning darvozasidan kirdi.Sipohlar ko‘rib „Ot yo‘l tortib, ter qotib kelgan, bu Muzaffarxonning mahramidir“, deb ko‘rgandan oldiga yugurib, xizmat qilib, bekka xabar beribdilar. Bek kelib ko‘rishib ketibdi. Joyni orasta sozlab, har turli taomlar tortib, xizmat qilib, shu kecha kutibdi. Bek so‘rabdi:

— Qay tarafdan kelayotibsiz?

To‘lg‘onoy aytibdi:

— O‘ratepa begi bilan Qo‘qon xonining urushi bor ekan, ariza olib borib, shularning urushini bosib, tinchlik berib kelayotibman.

Erta bilan choyni ichib bo‘lgandan so‘ng, otini tayyorlab, otiga mindirib, bek odam qo‘shib, Jizzaxning Garimjo‘sh tog‘idan oshirib, soy ichiga katta yo‘lga tushirib qo‘yibdi.

To‘lg‘onoy qistab yo‘l yurib, Yangiqo‘rg‘onga bir tushib o‘tib, Oqtepaning bozori qizigan vaqtda, kun og‘ayin deganda bozorga kirib boribdi. Oqtepani aylanib ko‘rib, qassoblik, g‘alla bozorlarida otliq yurib ekan, samovarchilikda odamlar gap qilibdi. „Bu amirning mahrami nimaga kelib ot ustida hamma yerni ko‘rib yuribdi, bir gap bormikan?“

Qayoqqa qarab yursa, odamlar nima voqea ekanini bilmay, tomosha qilib yuribdi, lekin u hech kimga hech narsa gapirmabdi.

Peshin vaqtida bozordan qaytibdi. „Bu odam qayerga boradi“, deb hammaning ko‘zi bu sipohida bo‘lib yuribdi. Borib-borib bir Pardavoy deganning yomon hovlisiga kiribdi. Odamlar aytibdi: „Bu Pardavoy kambag‘al bir ish qilgan ekan-da, hech kimdan so‘ramay, shuni izlab yurgan ekan-da“.

To‘lg‘onoy hovlisiga kirgan hamono, Pardavoy ko‘rib, ko‘zi tushgandan „Endi o‘ldim“, deb somonxonaning to‘riga kirib, chirik somonga o‘zini ko‘mib, „Topmay ketar-da“, deb damini chiqarmay yotibdi. Shunda To‘lg‘onoy:

— Pardavoy uydami? — deb tomning oldiga yetibdi. Yon yoqda odamlar qarab turibdi. Qari enasi bor ekan, uydan chiqib:

— Bolam, Pardavoyda nima ishingiz bor, ikki oycha bo‘ldi, Pardavoy o‘roqchilik, mashoqchilik qilib ketdi, „Bir shum ovqatni o‘tkazaman“, deb yurgandir, —deb, kampir qo‘rqib, — dam-badam nima qilasiz? — deb so‘rayveribdi.

To‘lg‘onoy otdan tushibdi. Otni o‘zi boylab, uyga kirmoqchi bo‘libdi. Kampirning ham xayoli qochib: „Bir balo bo‘ldi, bizga bu kun ham ko‘p ekanmi?“ deb turibdi. To‘lg‘onoy bir qoziqqa kamar, qilichlarini osib qo‘yibdi. So‘fibekdan kiygan kiyimlarining hammasini yechib tashlabdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Mana men kimga o‘xshayman? — deb so‘rabdi. Kampir qarasa, To‘lg‘onoy ekan.

— To‘lg‘onoymisan? — deb kampir To‘lg‘onoyni bag‘riga bosib, ko‘rishib eshikka chopib chiqib:

— Ho, Pardavoy, To‘lg‘onoy kelib qoldi, sipohi emas ekan, — debdi.

Buni eshitib: „U nega kelsin, meni aldab chaqirayotgandir. Ayol shunday bo‘ladimi, yonboshida qilichi osilgandi“, deb quloq solib yotibdi. Onasi borib, ustidan somonni supurib tashlab, Pardavoyning qo‘lidan ushlab:

— Chiqib ko‘r, ketgan davlating — To‘lg‘onoy kelibdi, — debdi.

Undan keyin Pardavoy onasi bilan chiqib ko‘rsa, boyagi ot boyloqli turibdi. Ketgandan beri qo‘li ishga bormay yurar ekan. Endi To‘lg‘onoyni ko‘rib, vaqti xush bo‘libdi. Enasi turib:

— To‘lg‘onoy keldi, to‘rt-besh tanga puling bormi? Bozorga borib bir narsa xarajat qilib kelsang. Kambag‘alchilik, hech narsaning tayini yo‘q, — debdi. Kambag‘alning ahvoli bir-biriga ma’lum bo‘ladi. Bular tashvishga tushib qolganini ko‘rib, To‘lg‘onoy:

— Bizning otni olib borib, o‘tishiga bozorga soting. Undan keyin pulini xarajat qilavering, — debdi. Bu so‘zni eshitib, Pardavoyning dimog‘i chog‘ bo‘lib, otni minib, ot bozorga borib, o‘tishiga otni sotibdi.

Xarajat qilib, uyiga kelibdi. Ko‘rpa-to‘shagiga kerakli narsalarni ham olib kelibdi. Hamma kam-ko‘stini sozlab: „To‘lg‘onoyning nikohi hammaga ma’lum bo‘lsin“, deb bir kichikroq to‘y qilib, besh-o‘n odamga osh beribdi.

Shunday qilib, Pardavoy bilan To‘lg‘onoy murod-maqsadiga yetibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Ikki tabib

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonda Buxoro shahrida kambag‘al Ahmad supurgichi bo‘lgan ekan. Uning xotini va bir o‘g‘li bor ekan. Qiynalsa ham er-xotin o‘g‘lini maktabga beribdi. O‘g‘li odobli, aqlli, zehnli bo‘lganidan qiyinchiliklarni yengib, maktabni bitirgach, madrasaga kiribdi.

Otasi har kuni supurgi boylab sotib, bolasini qo‘llab turibdi. Nihoyat o‘g‘li madrasani ham yaxshi tamomlabdi. Bolaning nomi Odil ekan. Odilni o‘qitgan mullalar uning qobiliyatiga qoyil qolibdilar. Ota-onasi endi og‘zimiz osh-ga yetdi, deb suyunganlarida, mudarrislar „Bola hali yosh, domlalik unga to‘g‘ri kelmaydi“, deb unga ish bermabdilar. Lekin bola idrokli bo‘lib, domlalar bilmagan narsalarni bilar ekan. Odil ishsiz qolganidan ota-onasi qayg‘urib, o‘g‘liga hunar o‘rgatishga ahd qilishibdi. Odilga ham bu gap ma’qul tushibdi.

Otasi maxsido‘z kosib o‘rtog‘iga shogirdlikka bermoqchi bo‘lib, o‘g‘lini yetaklab ketayotsa, Yusufboy tabib ularni do‘konga taklif qilib, hol-ahvol so‘ragach:

— Bu bola kim? — debdi.

— O‘g‘lim, ismi Odil, yaqinda madrasani tugatdi, mudarrislar yosh, deb ish berishmadi. Shuning uchun o‘g‘limni maxsido‘z o‘rtog‘imga

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

shogirdlikka olib ketyapman, — debdi Ahmad aka. Yusufboy tabibning farzandi yo‘q ekan, u:

— Ahmad aka, o‘g‘lingizni menga shogirdlikka bersangiz. Dori tayyorlash va tabibchilikni o‘rganadi. Men o‘zim sizga yordam qilib turaman, o‘g‘lingiz ham xabar olib turadi. O‘g‘lingizni o‘zimga o‘g‘il qilib olsam. Kampirim ham xursand bo‘lardi. Uyingizga tez-tez yuborib turaman, — debdi. Ahmad aka o‘ylab ko‘rib, rozi bo‘libdi. Yusufboy tabibnikida o‘g‘lini qoldirib, o‘zi qaytib ketibdi. Yusufboy tabib Odil bilan suhbatlashib, do‘konidagi dorilarning nomlari bilan tanishtirib, narxlarini aytibdi, do‘konni qanday tutish to‘g‘risida ham tushuntiribdi. Bir necha kun o‘tmay tabibning ishi yurishib ketibdi. Yusufboy tabib ham „O‘g‘lim qutli keldi“, deb suyunibdi. Yusufboy tabib oqko‘ngil odam ekan, u Odilning ota-onasiga yordam berib turibdi. Odil esa tabiblik hunarini o‘rgana boshlabdi. Yusufboy tabibning shon-shuhrati butun shaharga tarqalibdi.

Kunlardan bir kun shu shaharning qozisi o‘g‘lini Yusufboy tabibning oldiga olib kelib:

— Shu o‘g‘limga hunaringizni o‘rgatsangiz, — deb iltimos qilibdi. Qozi o‘g‘lining odamlarni tuzatishini emas, balki ko‘proq mol-dunyo topishini o‘ylab shunday qilgan ekan. Yusufboy tabib ham yo‘q deya olmasdan qozining o‘g‘lini shogirdlikka olibdi. Uning ismi Jobir ekan. Jobir tabiblikka unchalik qiziqmasa ham, otasidan qo‘rqqanidan o‘rgana boshlabdi. Yusufboy tabib ham Odil bilan Jobirga birdek qarar, ikkalasiga ham tabiblik sir-asrorlarini birdek o‘rgatar ekan.

Oradan bir necha yillar o‘tibdi. Odil bilan Jobir bir-biridan qolishmaydigan tabib bo‘lib yetishibdilar.

Kunlardan bir kun Yusufboy tabib ikkala shogirdini oldiga chaqirib:

— O‘g‘illarim, mana, ikkalang ham tabiblikni o‘rganib oldilaring. Endi senlarga nasihatim shuki, puli yo‘q ekan deb dori bermasdan kambag‘al, beva-bechoralarni qiynamanglar. El-yurt oldida ta’naga qolmanglar. Aql bilan ish qilib, manmanlikka berilmasdan, bir-biring bilan maslahatlashib ish tutinglar. Endi sizlarga ruxsat, tabiblik qilaverishinglar mumkin, — deb ularga oq fotiha berib jo‘natibdi. Oradan bir necha kun o‘tgandan keyin Yusufboy tabib olamdan o‘tibdi.

Odil ustozining o‘lganini eshitib, borib ta’ziyasi o‘tguncha ustozinikida bo‘libdi. Jobir eshitsa ham qadam bosmab-di. Ikkalasi bir shaharda tabibchilik qilishar ekan. Odil kambag‘al, beva-bechoralarga rahmdillik qilib, dori-darmonlarni tekinga berib yuborar ekan. Boylardan esa ikki hissa oshiq olar ekan. Jobir Odilning obro‘si ko‘tarilib ketayotganini ko‘rolmabdi. Otasining gapiga kirib, kunlardan bir kun Odilning oldiga kelib:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Odil, senga bir maslahat bilan keldim. Menimcha ikki tabibga bir shahar torlik qiladi, shaharda yo sen, yo men bo‘lishim kerak, — debdi. Odil unga:

— Shahar keng, senga hech zararim tegayotgani yo‘q, seni ham menga zararing tekkani yo‘q. Undan ko‘ra, kelishib ishlayversak bo‘lmaydimi? — debdi. Jobir unga:

— Kel, bo‘lmasa baxtimizni sinaymiz: bir-birimizni mehmon qilamiz. Birinchi bo‘lib sen biznikiga kelasan, oldingga nima taom qo‘ysam yeysan. Keyin men senikiga mehmonga boraman, men ham nima bersang eb, nima ichirsang ichaman. Nima bo‘lsa peshanamizdan ko‘ramiz. Shunga nima deysan? — debdi.

Odil ham noiloj rozi bo‘libdi. Oradan bir necha kun o‘tgandan keyin Jobir Odilni uyiga chaqiribdi. Odil esa mehmondorchilikka bormasdan avval besh-o‘n chelak sut olib kelib qo‘yibdi. Keyin mehmon bo‘lib, Jobirning uyiga boribdi. Jobir Odilning oldiga dasturxon yozibdi va dasturxonni noz-ne’matlar bilan to‘ldirib tashlabdi. Ziyofat orasida bir piyola zahar olib kelib Odilning qo‘liga beribdi. Odil zaharni ichibdi-yu, uyiga ketibdi. Odil uyiga borib, chelakdagi sutlarni ichib, oshqozonini tozalab, zaharlanishdan qutulib qolibdi. Oradan bir necha kun o‘tibdi. Shart bo‘yicha Odil Jobirni mehmonga chaqiribdi va oldiga dasturxon yozibdi. Mehmonni juda yaxshilab ziyofat qilibdi. Jobir ham uyiga sutni g‘amlab kelgan ekan. U sergaklanib, Odil qachon zahar berishini kutibdi. Odil esa Jobirga zahar bermasdan oldiga yaxshi taomlar qo‘yib, yaxshi so‘zlar bilan kuzatibdi. Jobir o‘zining qilgan ishiga pushaymon bo‘lib, Odildan uzr so‘rabdi.

Shundan keyin bir-biriga ozor bermasdan, bir-biri bilan maslahatlashib ish qilibdilar.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Xurshid bilan Laylo

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir zamonlarda Misr mamlakatida bir podsho o‘tgan ekan. Uning otini Abdulaziz shoh der ekanlar. Shohning Abdukarim degan vaziri ham bor ekan. Abdulaziz shoh bilan Abdukarim vazir juda inoq ekanlar.

Ular yoshlikda madrasada birga o‘qishgan, ayniqsa, Abdukarim nihoyatda tirishqoq ekan. O‘zi kambag‘al oilasidan bo‘lishiga qaramay, butun kuch-quvvatini ilmga berar, uni chuqurroq o‘zlashtirishga harakat qilar ekan. Abdukarim vazir har vaqt shohga:

— Bu dunyo o‘tar dunyo, yaxshilik qilsang ham o‘tadi, yomonlik qilsang ham o‘tadi, xalq bizning onamiz bo‘ladi. Shuning uchun xalqqa yaxshilik qilmoq kerak. Yomonlik qilish har kishining qo‘lidan keladi, ammo yaxshilik qilish har kimning qo‘lidan kelavermaydi, — der ekan. Ular har bir ishni bamaslahat bajarishar ekan. Mamlakat ham o‘sha davrda tinch va obod ekan. Lekin ular dunyoning bir kamchiligidan nihoyatda xafa ekanlar. Shoh ham, vazir ham befarzand ekan.

Kunlardan bir kun shohning saroyiga bir qalandar kelibdi. Shoh qalandarni o‘z oldiga chaqirib olib, unga:

— Ey qalandar, siz jahongashta odamsiz, ko‘p shahar va qishloqlarni kezgansiz. Ko‘p odamlarni duo qilasiz. Menga farzandsizlikning chorasini aytib berolmaysizmi? — debdi. Qalandar:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Bilaman, — deb qo‘ynidan ikki olmani chiqarib, birini shohga, birini vazirga berib, duo qilibdi. — Biringizga xudo o‘g‘il, biringizga qiz beradi, ammo ikkovingiz bir-biringiz bilan quda bo‘lasiz, — deb qalandar shoh bilan vazirdan in’om va ehsonlar olib jo‘nab ketibdi.

Olmani yeganlaridan so‘ng shohning xotini o‘g‘il tug‘ibdi. Otini Xurshid qo‘yishibdi. Vazirning xotini qiz tug‘ibdi, uning otini Laylo qo‘yishibdi. Bolalar birga tarbiya ko‘rib, birga o‘sishibdi. Xurshid bilan Laylo bir mayiz topsalar bo‘lishib yer ekanlar, ittifoqlik, mehr-muhabbat kundan kunga kuchayib boraveribdi. Laylogul qizlar maktabida o‘qisa, Xurshid o‘g‘il bolalar madrasasida o‘qibdi.

Yildan yil, oydan oy, kundan kun o‘tib, Xurshid bilan Laylo ham o‘qishni tugatibdi. Ular o‘n sakkiz yoshga kiribdilar. Shoh o‘g‘li Xurshidni uylantirish harakatiga tushibdi. Vazirning qizi Laylogulga sovchi yuboribdi. Vazirning qizi sovchilarga:

— Shahzoda Xurshidning ko‘ngli menda bo‘lsa, o‘zim bilan gaplashsin. Mening bir shartim bor. Agarda qabul etsa, men ham roziman, — debdi. Sovchilar qizning aytgan so‘zlarini Xurshidga yetkazibdilar. Xurshid vazirning uyiga boribdi. Mehmonxona o‘rtasiga parda tutilgan ekan. Pardaning orqasida o‘tirgan Laylogul shahzodaning tovushini eshitib, „Assalomu alaykum, shahzoda!“ debdi. Shundan keyin ikkisi hol-ahvol so‘rashibdi. Bular maktabga kirganlaridan so‘ng, bir-birlari bilan ko‘risha olmagan ekanlar. Laylogul Xurshidning taklifiga shunday debdi:

— Men qarshi emasman, biroq bir shartim bor. Agarda qabul etsangiz to‘yga roziman. Shartim shu: har kuni ertalab uyingizga boraman, kech bo‘lmasdan o‘z uyimga ketaman, — debdi.

Shahzoda qizning bu shartiga hayron qolib, nima javob qaytarishni bilmay qolibdi. So‘ng Xurshid aql-hushini bir joyga to‘plab, shartini qabul qilay, uyimga borgach, boshqa chorasi topilib qolar, — deb o‘ylabdi. Xurshid Laylogulga:

— Shartingizni qabul etdim, — debdi.

O‘n besh kun to‘y bo‘libdi.

Shahzoda uchun qator uylar juda yaxshilab bezatilgan ekan. Ammo bu uylarning birontasida ham kelinchak Laylogul ko‘rinmas ekan. Laylogul esa, o‘z shartiga muvofiq, to‘yning ertasigayoq erta bilan nonushtaga kirib kelibdi. Xurshid shoshilganicha Layloni kutib olibdi-da, uyga boshlabdi. Ular qator uylarni bir-bir tomosha qilib, o‘n birinchi uyga kiribdilar. Kanizak qizlar dasturxon yozibdilar. Dasturxon noz-ne’matga to‘la emish. Ular suhbatlashib o‘tirib, kunni kech qilibdilar. Laylogul boshiga

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

paranjisini yopinib, otasining uyiga jo‘nab qolibdi. Xurshid og‘zini ochib, qizning ketidan qarab qolaveribdi.

Bu ahvol har kuni takrorlanaveribdi. Ko‘pincha, Laylogul parishon bo‘lar, Xurshidning gaplariga ham e’tibor bermas ekan. Xurshid nima gapligini bilolmay, og‘ir ahvolda qolibdi.

Kunlardan bir kun Xurshid o‘ylab-o‘ylab maktabdosh do‘sti Abdumutalning oldiga boribdi. Do‘sti madrasa hujrasida turar ekan. Xurshidni xursand bo‘lib kutib olibdi. Abdumutal sayohatga ketgani uchun ular anchadan buyon ko‘rishishmagan ekan. Abdumutal Arabistonning ko‘p shaharlaridan tashqari, Hindiston, Peshovur kabi uzoq mamlakatlarda bo‘lganini gapirib beribdi.

Abdumutal o‘ttiz ikki yoshlarda bo‘lib, ancha ziyrak yigit ekan. Xurshidning xafaligini kelgan zamon sezibdi. Ular ovqatlanib, choy ichib, suhbatlashib o‘tiribdilar. Abdumutal sekin gap boshlabdi:

— Do‘stim Xurshid, siz shohning o‘g‘lisiz. Hamma narsa siz uchun tayyor. Husn, aql, idrok, ilmda Arabistonda yakka-yu yagona vazirning qizi sizning xizmatingizda bo‘lsa-yu, tag‘in nega xafa ko‘rinasiz?

— Mening xafaligimni qaerdan bildingiz? -- deb so‘rabdi Xurshid.

— Hech kimdan, lekin betlaringiz sarg‘ayganidan, xayolingiz parishonligidan gumon qilaman, — debdi u. Xurshid do‘stiga hozirgi ahvolini bir boshdan aytib beribdi. Abdumutal bu so‘zlarni eshitib, qo‘liga qog‘oz-qalam olib, qandaydir duo yozib, Xurshidning qo‘liga beribdi.

— Mana shuni xotiningiz uydan chiqib ketayotganda peshanangizga yopishtirib oling. Qizning orqasidan boravering. U sizni ko‘rmaydi. Ketidan borsangiz, hamma sir-asrordan xabardor bo‘lasiz, — debdi Abdumutal.

Xurshid xursand bo‘lib, qog‘ozni olib, o‘rtog‘iga minnatdorchilik bildirib, uyiga qaytibdi. U kechani uxlamay o‘tkazibdi. Erta bilan nonushtaga Laylogul yetib kelibdi. Kundagidek ikkisi birgalashib nonushta qilibdilar. Xurshid har kuni qani endi kech bo‘lmasa-yu, Layloning husniga to‘ysam, deb niyat qilar ekan. Bugun esa tezroq kech bo‘lsin, buning sirlarini tezroq bilib olay, deb o‘z-o‘zidan hovliqar ekan.

Nihoyat, Layloning ketar vaqti bo‘libdi. U paranjisini yopinib jo‘nab qolibdi. Xurshid ham vaqtni g‘animat bilib, peshanasiga do‘sti yozib bergan xatni yopishtirib, xotini ketidan ketaveribdi. Laylogul to‘g‘ri otasining hovlisiga kiribdi. Onasi uni ko‘rib:

— Ha, keldingmi, qizim, — deb quchoqlab ko‘rishib, ikki yuzidan o‘pibdi. Boshidan paranjisini olib, ayvondagi mixga osib qo‘yibdi. Kanizak

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

qiz xitoyi laganda osh olib kelibdi. Dasturxon atrofida vazir, Laylo, uning onasi o‘tiribdilar. Xurshid ham bexavotir o‘tirib olibdi. Hammalari ovqatga qo‘l uzatibdilar. Onasi bir suyakni Layloning oldiga qo‘yibdi. Uni Xurshid qo‘liga olib go‘shtini yegan ekan, ichidan oshiq chiqib qolibdi. U oshiqni olib, tozalab, cho‘ntagiga solib qo‘yibdi. Oshni yeb bo‘lib, ustidan bir piyoladan choy ichibdilar. Laylo o‘rnidan turib:

— Oyi, men ketdim, — deb boshiga paranjisini yopinib jo‘nabdi. Xurshid ham uning ketidan ketaveribdi. Laylo borib-borib bir darvozani qoqibdi.

— Olmagul, Olmagul! — deb chaqiribdi. Darvoza ochilibdi. Hovlida bir kelishgan chiroyli qiz olma to‘ldirilgan kumush laganni ko‘tarib turgan ekan. Laylogul olmadan birini olibdi. Uning ketidan Xurshid ham bitta olma olibdi.

Laylogul Olmagulga:

— Do‘stim, tezroq ketaylik! — debdi. U qiz ham boshiga paranjisini yopinib chiqibdi. Hovlidan uch kishi indamasdan jo‘nabdilar. Borib-borib Olmagul yana bir darvozaning halqasini qoqibdi. Darvoza ochilibdi. Laylo: — Anorgul! — deb chaqiribdi. Bir qiz qo‘lida bir laganni anorga to‘ldirib ko‘tarib chiqibdi. Anordan Laylo bir dona, Olmagul ham bir dona, Xurshid ham bir dona olibdi. Anorgul laganni qo‘yib, boshiga paranjisini yopinib chiqibdi. Endi bular to‘rt kishi bo‘libdilar. Ular gapirishib, xaxolab kulishib borar ekanlar. Kulganda Olmagul og‘zidan olmagul, Anorgul og‘zidan anorgul to‘kilar edi. Xurshid ham birga kulishib borayotganidan ular xabarsiz ekanlar. Qizlar shahardan tashqariga chiqibdilar. Nihoyat, tevaragi baland devorlar bilan o‘ralgan bog‘ga yetibdilar. Bog‘ning darvozasi qizil yog‘ochdan yasalgan ekan. Anorgul darvozaning halqasini qoqqan ekan, ikki haybatli dev chiqib ochibdi. Devlar qizlarga qarab ta’zim qilishibdi. Xurshid ham ular orqasidan bog‘ga kiribdi. U bog‘ga qarab hayron bo‘libdi. Bog‘da yilning to‘rt faslini ko‘rish mumkin ekan: bog‘ning bir tomoni bahor — daraxtlar gullaganmish, ikkinchi tomoni esa yoz, mevalar pishib, tagiga tushib yotganmish. Uchinchi tomoni kuz, daraxtlarning bargi sarg‘ayib yerga tushayotganmish... To‘rtinchi tomonida esa hovuzdagi suv muzlab, qor pag‘a-pag‘a bo‘lib yog‘ib turgan ekan. Bu ajoyib bog‘ni ko‘rib Xurshid hayron qolibdi. Qizlar bog‘ning o‘rtasidagi yo‘ldan uzoqda ko‘rinib turgan qo‘rg‘on tomonga yuribdilar. Qizlar yasatilgan qirq uydan o‘tib, nihoyat, qirq birinchi uyga — saroyning bekasi Guliqahqah parining oldiga kiribdilar. U Ko‘hiqofdagi parilar podshosining qizi ekan. Guliqahqah pari Laylogulni yaxshi ko‘rib, unga yaqinroq bo‘lish niyatida shu yerga

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

bog‘ yaratgan ekan. Laylogul parining izmidan chiqa olmas, Xurshidni qanchalik sevmasin, har kuni uni tashlab ketishga majbur ekan.

Anorgul bilan Olmagulga Guliqahqah pari Laylogulga xizmat qilasizlar, deb tayinlagan ekan.

Laylogul bilan dugonalari Guliqahqah pari oldiga kirganlarida u tilla taxt ustida yonboshlab yotgan ekan. Guliqahqah pari qizni ko‘rib, o‘rnidan turibdi va u bilan quchoqlashib ko‘rishibdi. Keyin yoniga o‘tqazibdi. Ular bir-birlaridan hol-ahvol so‘rashibdi. Dasturxon yozilibdi. Maylar suzilibdi. Xurshid ham qizlar bazmini tomosha qilib o‘tiribdi.

Musiqalar chalinibdi, qizlar navbati bilan raqsga tushibdilar. Oradan ancha vaqt o‘tgach, Guliqahqah pari o‘yinni to‘xtatib, qizlarga:

— Charchadinglar, endi borib cho‘milinglar! — debdi. Ularning hammasi bog‘ga chiqishibdi. U yerda marmar toshdan ishlangan katta hovuz bor ekan. Hovuzning suvi nihoyatda tiniq ekan. Suv tagidagi qimmatbaho toshlar ko‘zga ko‘rinib turar ekan. Hamma qizlar yechinib, hovuzga o‘zlarini tashlabdilar. Ular bir-birlariga suv sepishib, kulishib cho‘milishar ekan. Xurshid shu paytdan foydalanib, xotini Laylogulning kiyimini olib qo‘yniga solibdi.

Hamma qizlar cho‘milib bo‘lib, o‘z kiyimini kiyibdi. Biroq Laylogul kiyimini topolmay hayron bo‘libdi. Bog‘ning ichi va tashqarisini rosa qidiribdilar.

Ko‘ylak ham, bironta odam ham topilmabdi. Parilarning hammasi hayron bo‘libdi. Bu yerda bunaqa hodisa hech bo‘lmagan ekan. Bundan Guliqahqah pari nihoyatda xafa bo‘libdi. O‘zicha: „Buning tagiga yetmagunimcha, topmagunimcha qo‘ymayman“, — debdi g‘azab bilan.

Pari devlarni chaqirib:

— Laylo, Anorgul, Olmagullarni uylariga olib borib qo‘yinglar! — deb buyuribdi.

To‘rt dev to‘rt oyoqlik katta tosh taxtani keltirib ayvonga qo‘yibdi. Uch qiz Guliqahqah pari bilan xayrlashib taxtaga chiqib o‘tirishibdi. Xurshid hammadan avval chiqib o‘tirib olibdi. Devlar tosh taxtani osmonga ko‘tarib uchishibdi. Qizlar o‘rgangani uchun churq etishmabdi. Xurshid esa ko‘zini chirt yumib olibdi. Devlar taxta toshni yerga qo‘yishibdi. Qizlar tushib uy-uyiga jo‘nabdi. Xurshid ham uyiga kelib, kaniz qizlardan birini chaqirib, „Uyda yotaman, Laylo kelsa, meni uyg‘otasan. Lekin seni so‘ksam, ursam ham ko‘nglingga olmagin“, deb tayinlabdi.

Erta bilan nonushta vaqtiga Laylogul yetib kelibdi. Uyga kirib kunda o‘tiradigan joyiga borib o‘tiribdi. Laylo Xurshidni uyning bir burchagida

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

kiyimlarini yechmasdan mast uyquda yotganini ko‘ribdi. Shu vaqt kanizlardan biri shoshilganicha kirib, Xurshid yoniga borib:

— Shahzodam, turing, kelin oyim keldilar! — deb uyg‘otaveribdi. Xurshid o‘rnidan tura solib:

— Ey, la’nati, yaxshi tush ko‘rayotgan edim, meni uyg‘otib, tushimni chala qilding, bor, bir kosa tiniq suv olib kel! — deb do‘q uribdi. Kanizak xitoy chinnida buloqning toza, tiniq suvidan keltirib qo‘yibdi. Xurshid Laylodan:

— Meni kechiring, uxlab qolibman, — deb uzr so‘rabdi. Undan keyin kanizga:

— Hozir suvga qarab turib bu kecha ko‘rgan tushimni aytaman, ta’birini to‘g‘ri aytasan, — debdi.

— Tushimda, — debdi u, — xotinim Laylogul uydan chiqib, to‘g‘ri o‘z uyiga boribdi. Oyisi bir lagan osh keltirib qo‘yibdi. Oyisi Laylogulning oldiga qo‘ygan suyakni tozalab, ichidan chiqqan oshiqni cho‘ntagimga solib qo‘yibman. Shu tushim rostmikan? — deb cho‘ntagidan bir dona oshiqni chiqarib dasturxon ustiga tashlabdi.

Undan keyin Xurshid Laylogul o‘z uyidan chiqib ketgani, Olmagul bilan uchrashgani, uning laganidan bir dona olma olib qo‘yniga solganini aytibdi. U qo‘ynidan olmani olib dasturxon ustiga qo‘yibdi. Keyin Laylogulning Anorgul bilan uchrashgani, undan bir dona anor olganini aytibdi. Keyin ular bilan Guliqahqah parining to‘rt fasllik bog‘iga borgani, devlar bilan uchrashgani, Guliqahqah parining uyida qizlar bazmi bo‘lgani, undan keyin gulbog‘dagi hovuzda qizlarning cho‘milgani, u yerda yo‘qolgan Laylogulning kiyimini olib qo‘yniga solganini aytib, ko‘ylakni olib yoniga qo‘yibdi.

Xurshid boshini ko‘tarib Laylogulga qarabdi. Laylogul goh Xurshidga, goh dasturxon ustidagi olma, anorga tikilib qarar, biror og‘iz gapirishga ham madori qolmagan ekan. Xurshid kulib, indamay Laylogulga qarab turaveribdi. To‘satdan yuz bergan bu sirlarning ochilishiga Laylogul chiday olmabdi. Shartta o‘rnidan turibdi-da, paranjisini yopinib chiqib ketibdi. Xurshid ham peshonasiga xatni yopishtirib, uning ketidan jo‘nabdi. Laylogul to‘g‘ri Guliqahqah parining oldiga boribdi. Bugungi voqeani unga birma-bir aytib beribdi.

Guliqahqah pari qizning so‘zlarini diqqat bilan tinglabdi-da, o‘ylab turib:

— Sen ko‘p diqqat bo‘laverma. Men ertaga azon vaqtida tosh taxtaga o‘tirib, eringning hovlisiga boraman. Agar u kitob o‘qib turgan bo‘lsa, yaxshi — senga ruxsat beraman. Qaytadan to‘y qilamiz. Agar men borgan

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

choqda u g‘aflat uyqusida bo‘lsa, hovlisiga tosh tashlayman. Shahzoda Xurshid uy-joyi bilan yer ostiga kirib ketadi, — debdi va Laylogulga qarabdi. — Rozimisan?

Qiz hech narsa demabdi. „Borib Xurshidga xabar bersam, pari sezib qolib meni nobud qilishi mumkin. Unga xabar bermasam, uxlab qolsa, pari uni nobud qilishi mumkin. Unda Xurshiddan ajralaman, endi nima qilish kerak?“ deb Laylogul bir qarorga kelmasdan o‘rnidan turib, ketmoqchi bo‘libdi.

Guliqahqah pari Layloga qarab:

— Bu kecha shu yerda qolasan, — debdi. Xurshid bu yerda bo‘lgan so‘zlarning hammasini eshitib uyiga jo‘nabdi. Xurshid bu kecha uxlamabdi. U sahar vaqtida o‘rnidan turib, yuvinib, toza va yangi kiyimlar kiyib, kitob o‘qib o‘tiribdi. Nihoyat, hovli tepasida „g‘uv-g‘uv, g‘uv“ degan ovoz eshitilibdi. Xurshid bu ovoz Guliqahqah parining uchar tosh taxtasi ekanligini sezgan bo‘lsa ham, o‘zini bilmaslikka olib, boshini kitobdan ko‘tarib qaramabdi.

Guliqahqah pari hovli ustida aylanib, shahzoda Xurshidni gilam ustida kitob mutolaasida o‘tirganini ko‘ribdi. Haqiqatan, shahzoda Xurshid go‘zal, aqlli yigit ekan. Laylogulga munosib ekan, deb Guliqahqah pari o‘z bog‘iga uchib ketibdi. U Laylogulni chaqirib:

— Bor, Xurshidga ayt, to‘yni boshlasin, to‘yga men o‘zim ham boraman, — debdi.

Laylogul xursand bo‘lganicha yugurib Xurshid qoshiga boribdi. Qiz kelsa, u bechora hali ham kitob o‘qib o‘tirgan ekan.

— Turing, shahzoda, kitobni yig‘ishtiring, avval to‘yni boshlaylik, — deb kulibdi Laylogul. Xurshid Laylogulga parining ruxsat berganini, endi ular doim birga bo‘lishlarini eshitib, juda sevinibdi. Shu kuniyoq to‘y boshlanibdi. To‘yning uchinchi kuni parilar bilan birga Guliqahqah ham kelib, kuyov-kelinga oq fotiha beribdi.

Sevishganlar murod-maqsadlariga yetibdilar.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Besh jonlini bejon qilgan Bahodir

Bor ekan-da, yo‘q ekan, och ekan-da, to‘q ekan, bir vaqtlar o‘z soyasidan ham cho‘chiydigan, chumchuq „pir“ etsa, yuragi „shuv“ etadigan Bahodir ismli qo‘rqoq bir kishi o‘tgan ekan. Bahodir qo‘rqoqligi ustiga yalqov ham ekan. Uning bu kamchiliklari hammaga ma’lum bo‘lgani uchun uni shu atrofda yashovchilar Bahodir qo‘rqoq deyishar ekan.

Bahodir qo‘rqoqning otasidan qolgan bog‘i bo‘lib, hatto shu bog‘dagi mayda-chuyda ishlarni ham qilgisi kelmas ekan.

Bir kuni uning xotini bog‘ga kirsa, pishgan uzumlarni arilar talayotgan emish. Xotinining jahli chiqib, erining yoniga kelibdi-da:

— Men bu uyda turmayman endi, jonimga tegdi. Bu nima degan gap, axir. Erkak kishi bo‘la turib, loaqal pishib yotgan uzumni arilardan qo‘riqlay olmasangiz. Men qaysi birini qilay. O‘lar bo‘lsam o‘lib bo‘ldim-ku! — debdi.

Bu so‘zlar Bahodirga ta’sir qilib, chor-nochor o‘rnidan turibdi-da, bog‘ga kiribdi. Qarasa, haqiqatan ham yetilib pishgan har bir bosh uzumning atrofi g‘uj-g‘uj ari emish. U arilarni haydash uchun qo‘lida ro‘mol ko‘tarib kirgan ekan. Bir bosh uzumga yopishgan arilarni haligi ro‘mol bilan urgan ekan, shu zahotiyoq arilardan bir emas beshtasi jonsiz bo‘lib yerga tushibdi. Bahodir suyunganidan qah-qah urib kulib

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

yuboribdi. Ularning rostdan o‘lganiga ishonmay, ro‘mol bilan ushlab bir yerga to‘plabdi-da, xotinini chaqirib kelib ko‘rsatibdi:

— Ko‘rdingmi, xotin, bir urishda beshtasini bejon qildim-a!

— O‘ho‘, — debdi xotini kesatib, — juda katta ish qilibsiz-ku. Yana bironta kishi bu ishingizni bilib qolmasin, olib ketib qoladi-ya.

Shu zahotiyoq uning miyasiga bir fikr kelibdi-yu, to‘g‘ri qozining huzuriga yuguribdi.

— Ko‘rdingizmi, qozi, — debdi u hovliqib, — meni qo‘rqoq deyishadi. Bir urishda beshtasini bejon qildim.

— Xo‘sh, nima demoqchisiz? — deb so‘rabdi qozi hayron bo‘lib.

— Bularni bejon qilgan — men. Ishonmasangiz xotinimni chaqirib kelay.

— Xo‘p, ishondim, muddao nima?

— Haqiqatan ham bu ishni men qilganligimga hech kim ishonmaydi. Siz muhtaram zotlarining muhringizdan ortiqroq dalil yo‘q. Shu voqeani tasdiqlab, ikki enli xat bitib bersangiz.

Qozi bu kishi hazillashyapti-ku, ketidan bironta qiziq voqea chiqib qolar, degan maqsadda qog‘ozga nimalarnidir yozib, uning qo‘liga beribdi.

Bahodir yoshlik vaqtida harflarni zo‘r-bazo‘r tanib olgan ekan. Bunday o‘qib qarasa, xatda: „Bir urishda besh jonlini bejon qilgan Bahodir — qahramon“, deb yozilgan emish.

Bahodir xatni o‘qib bo‘lgandan keyin yalqovligini ham esdan chiqarib, suyunganicha qozixonadan chiqib ketibdi. Qozi bo‘lsa nima bo‘layotganiga tushunolmay hayron bo‘lib, uning orqasidan qaragancha qolaveribdi.

— Mana bu hujjatni o‘qi-chi, xotin, — debdi uyiga borgach Bahodir, — qani endi biron kishi meni qo‘rqoq deb ko‘rsin-chi!

— Voy qahramon-ey, — debdi xotini kesatib, — koshki sizni hech kim bilmasa, qo‘rqoqligingiz butun qishlog‘imizga ma’lum-ku.

Bu so‘zlardan xafa bo‘lgan Bahodir jahl bilan uydan chiqib, boshqa bir shahar tomonga yo‘l olibdi. Shaharga yetib borguncha kech kirib qolibdi. Bahodir vahimaga tushib, qayoqqa borishini bilmay ketayotsa, yo‘lda kishilar to‘p-to‘p bo‘lib, bir uyga kirib ketishayotgan emish.

Bahodir ham ko‘chada qolishdan qo‘rqib, bir guruh odamlarga qo‘shilibdi-da, shu xonadonga kiribdi.

Bu uy shahardagi badavlat kishilardan birining uyi bo‘lib, u mehmon chaqirgan ekan. Mehmonlarni kutib olayotganlar qaddi-qomati kelishgan, to‘ladan kelgan, kiyimlari ham durustgina bu notanish kishini ko‘rib, „Aytilgan mehmon bo‘lsa kerak“, deb o‘ylashibdi-da, ichkariga taklif

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

qilishibdi. Bahodir uyga kirib mehmonlar bilan biroz suhbatlashgach, avvaliga rosa maqtanibdi, keyin esa ularga qozidan olgan muhrli hujjatini ko‘rsatibdi.

Xuddi shu kunlarda shahanshohning sayrgoh bog‘ida bir dahshatli sher paydo bo‘lib, bironta ham kishi bog‘ga kira olmayotgan ekan.

Mehmonlar bu qahramon haqida darhol shohga xabar berishgan ekan, shoh uni saroyga olib kelishni buyuribdi.

Shoh Bahodirga sher haqida gapirib beribdi, falokatdan qutqarsang, katta sovg‘alar beraman, deb va’da qilibdi. Bahodir qarshilik qilmoqchi ekan, shoh uning so‘zlariga quloq solmay, xizmatchilarga qahramonni bog‘ga kirgazib yuborishni buyuribdi. Xizmatchilar bog‘ darvozasini sekingina ochishibdi-yu, uni ichkariga kirgazib yuborishibdi. Bahodir: „Meni bu yerga ajal haydab kelgan ekan-da“, degan xayol bilan eshikdan kiribdi-yu, qo‘rqqanidan o‘takasi yorilguday bo‘lib, bir daraxtning tepasiga chiqib ketibdi. „Endi nima qilaman, xayr, xotin, xayr, birodarlarim“, debdi o‘zicha.

Biroz o‘tirgandan keyin atrofga alanglab, bunday pastga qarasa, Bahodir o‘tirgan daraxtning tagida haligi sher yotgan emish. U birdaniga „oh“ deb yuzini qo‘llari bilan berkitgan ekan, daraxtdan to‘g‘ri sherning ustiga yiqilib tushibdi. Beparvo yotgan sher birdaniga vahimaga tushib, o‘rnidan tura solib qochmoqchi bo‘libdi. Bahodir nima qilarini bilmay, sherning yollariga yopishib, mahkam ushlab olibdi va uning ustida bog‘ni aylanaveribdi.

Darvoza tirqishidan kuzatib turgan xizmatkorlar shohga darhol bu hodisani xabar qilishibdi. Shoh Bahodirning mardligiga hayron qolibdi: „Nahotki sherdan ham baquvvat lashkarlarim bardosh bera olmagan ish shu kishining qo‘lidan kelsa?!“

Sher bog‘ni aylana-aylana oxiri suv chiqadigan quvurga o‘zini urib, tashqariga chiqib ketibdi.

Xizmatkorlar kirib qarashsa, „qahramon“ ikki qo‘lida sherning yolini ushlagancha, peshanasi qon, yerda hushsiz bo‘lib yotgan emish. Uni darhol saroyga olib borishibdi. Bahodir saroyga borgach, o‘ziga kelib, shohga o‘dag‘aylabdi.

— Quvurni berkitib qo‘ysanglar bo‘lmasmidi. Sherni endigina charchatib, pichoq uray deganimda qochib qoldi. O‘zi ham juda katta va zo‘ravon ekan-da, — deb gerdayib qo‘shib qo‘yibdi Bahodir.

Shoh unga qanchadan qancha in’omlar bergandan keyin, saroyda lashkarboshi bo‘lib xizmat qilishni taklif etibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Bahodir besh-olti kun aysh-ishrat qilib dam olish, undan keyin boylik orttirib, uyga ketishni o‘ylabdi-da, rozilik bildiribdi.

Bahodir saroyda atigi bir haftagina yashab, juda ko‘p hodisalarning guvohi bo‘libdi: begunoh kishilarning kallalarini olish, boylik orttirish deysizmi, aysh-ishrat, buzuqchiliklar deysizmi, dangasalik deysizmi — hammasi shu yerda emish. „Dangasa deb meni emas, bularni aytsa bo‘lar ekan“, deb o‘ylabdi Bahodir. Axir ular qo‘llarini sovuq suvga urmas, hatto kiyimlarigacha xizmatkorlar kiygizib qo‘yishar ekan-da.

Shundan keyin Bahodir o‘zining qilmishlariga pushaymon bo‘lib, mehnatsevar xotinining ahvoliga achinibdi. Tezroq saroydan qochib, o‘z uyiga borishga, qo‘rqoqlikni tashlab, chaqqonlikda xotini-yu qolgan hamma tanish-bilishlarini qoyil qoldirishga qaror qilibdi.

Shu payt birdan shohning saroyida yana shov-shuv ko‘tarilibdi. Qo‘shni yurtning podshosi shohning qizini so‘ratibdi va uni xotinlikka bermasa, urush qilish niyatida ekanligini aytibdi. Shoh bo‘lsa qizini boshqa o‘lkaning shahzodasiga unashtirib qo‘ygan ekan.

— Yana bir mushkulimizni oson qil, — debdi shoh „qahramon“ni chaqirtirib, — shu balodan ham bizni qutqar.

Bahodir bo‘lsa: „O‘z obro‘yim bilam ketsam bo‘lmas ekanmi, jang u yoqda tursin, ot minishning uddasidan chiqa olmasam-u, endi bu g‘alvani qarang“, deb o‘ylabdi.

Bahodir noiloj „Xo‘p“ deyishga majbur bo‘libdi. Keyin u nima qilarini bilmay, shohga:

— Menga bir pud yelim kerak, — debdi.

— Yelim nimaga kerak? — deb qiziqib so‘rabdi shoh.

— Maqsadim dushmanni batamom qirib tashlab, bu diyorlarga qaytish yoki bir tomchi qonim qolguncha yov bilan olishishdir. Ko‘p jang qilib, anchagina tajriba orttirdim. Egarni otga, o‘zimni egarga mahkam yopishtirib qo‘ymog‘im kerak. Nega desangiz, qilich bilan dushmanni goh tepasidan, goh yonidan, goho tagidan urishga to‘g‘ri keladi. Undan keyin, shunday shoshilinch vaqtlarda oyoq ham jim turmay, duch kelganini yiqitib tursin. Qizg‘in jang paytida otdan sirg‘alib tushib qolmaslik uchun o‘zimni mahkamlab qo‘ysam zarar qilmaydi. Ammo buni biror kimsa bilmasligi lozim.

— Puxta o‘ylangan, — debdi shoh bu gapni eshitib. Keyin xizmatkorlariga bir pud yelim olib kelishni buyuribdi.

Yelimni ham, otni ham keltirishibdi. Bahodir o‘zi aytgandek qilib otga yopishibdi. Birozdan so‘ng tashqariga chiqqanlarida Bahodirning

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

miyasiga: „Endi fursatni qo‘ldan bermay, qochish kerak. Bo‘lmasa jang maydonidan jasadimni topib kelishadi“, degan fikr kelibdi.

Baxtga qarshi unga bergan otlari faqat jang uchun miniladigan bo‘lib, boshqa hech qanday ishga ishlatilmas ekan. Undan tashqari, ko‘pdan beri jang bo‘lmagani uchun, ot ham minilmay, ancha asovlanib qolgan ekan. Shuning uchun ham ot saroy darvozasidan chiqishi bilan Bahodirni to‘g‘ri jang maydoniga boshlab qolibdi. „Qahramon“ orqaga qaytarishga rosa urinibdi-yu, lekin hech qanday natija bo‘lmabdi.

Yo‘lda ketayotganida shoxi egilib yotgan bir qayrag‘ochni ko‘rib qolibdi. Jon talvasasida qayrag‘ochga osilib qolib, otning o‘zini jo‘natib yuborishni mo‘ljallabdi-da, o‘sha daraxtga jon-jahdi bilan yopishibdi. U o‘zini otga yelim bilan mahkam yopishtirib olgan emasmi, qayrag‘och ham sinib ketgan ekan, ot zo‘rlik qilib Bahodirni olib ketibdi. Qayrag‘ochning kattakon shoxi ham ular bilan sudralib keta beribdi.

Uzoqdan bu voqeani kuzatib turgan dushmanlar: „Iye, bu qahramon qayrag‘ochniki yerdan sug‘urib oldi, bizning holimizga voy“, deb orqalariga qaramay, qochib qolishibdi. Keyinda qolib ketgan bir nechta dushman esa, yerga sudralib kelayotgan chinor shoxining tagida qolib ketibdi.

Bu safar ham Bahodir — „Qahramon“ jangdan shuhrat qozonib qaytibdi. Shoh bo‘lsa Bahodirni o‘ziga vazir qilib tayinlamoqchi bo‘libdi.

— Yo‘q, — deb e’tiroz bildiribdi Bahodir. — Men dangasalik qilib yotgan paytlarimda podsho yoki vazir bo‘lib olib rohatda yashasam, derdim. Men noto‘g‘ri o‘ylagan ekanman.

Bahodir o‘z boshidan kechirganlarini ochiq-oydin gapirib berganida, saroydagi kishilarning og‘zilari ochilib qolibdi.

— Men, — debdi Bahodir, — sizga qilgan xizmatlarim evaziga bir narsani iltimos qilaman. U ham bo‘lsa, ijozat bersangiz, uyimga ketsam.

Shoh qahramonga oltinlar berib, hurmat bilan kuzatishni buyuribdi. Bahodir oltinlarni olib, uyiga sog‘ va salomat qaytib boribdi.

Shundan keyin Bahodir chindan ham qahramon nomini olibdi, qo‘rqoqlik va dangasalikni tashlab, xotin, bola-chaqasi bilan mehnat qilib, baxtli hayot kechiribdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Dod

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bundan ko‘p yillar ilgari ikkita o‘qimishli ziyrak yigitlar o‘tgan ekan. Ulardan birining ismi Komiljon, ikkinchisiniki Homiljon ekan.

Komiljon qorachadan kelgan, o‘rta bo‘yli, kipriklari uzun-uzun, kelishgan yigit ekan. Homiljon ham chiroyli, shahlo ko‘z, qoshlari Komiljonnikiga qaraganda qalinroq, ammo o‘ziga oro bermaydigan yigit ekan.

Yigitlar amakivachcha bo‘lib, yoshlikdan birga o‘sishgan, madrasada ham birga ilm olishgan ekan.

Komiljon bilan Homiljon o‘qishni davom ettirish maqsadida boshqa bir shaharga borishibdi. Yigitlar kelgan shaharda yaqindan beri qaroqchilar paydo bo‘lgan, ular aholining mol-mulkini talayotgan ekan. Bu qaroqchilar shunday usta ekanlarki, shu vaqtgacha ularni hech kim ko‘rmagan, shahar ahliga esa qilgan ishlarigina ayon ekan, xolos. Qaroqchilarni tutish uchun alohida mirshablar tayinlangan bo‘lsa ham, bu mirshablar ularni tutishning uddasidan chiqa olishmagan ekan. Chunki qaroqchilarning shahar ichida maxfiy ma’lumot berib turadigan kishilari bo‘lib, o‘zlari esa shahar chekkasida yashar ekanlar. Shuning uchun ham ular mirshablar bo‘lmagan kunni poylab, mo‘ljallagan kishilarining xonadonini sovurib ketishar ekan.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Bu shaharga Komiljon bilan Homiljonning kelganliklari haqidagi xabar ham qaroqchilarga darrov borib yetibdi. Ular bu yigitlar savdogar bo‘lishsa kerak, degan xayolda ularni ko‘z ostiga olib qo‘yishibdi.

Komiljon bilan Homiljon shaharning markaziy ko‘chasidagi uylardan biriga joylashibdi va hech narsadan xabarlari yo‘q, o‘z ishlari bilan ovora bo‘lib yurishaveribdi.

Ular har kuni kechasi allamahalgacha kitob o‘qib o‘tirishar ekan. Kunlarning birida yigitlar odatdagidek kitobdan ko‘z uzmay o‘tirishganida eshik taqillabdi. Komiljon o‘rnidan turib eshikni ochishi bilanoq, o‘n-tacha kishi uyga kiribdi-yu, begunoh yigitlarni ura-ura, oyoq-qo‘llarini bog‘lab, qimmatbaho narsalar va oltin qidira boshlashibdi.

Ko‘p tintuvdan keyin hech narsa topolmagan qaroqchilardan biri do‘q qilib:

— Hoy, ablahlar, oltinlarni qayerga yashirgansanlar? — debdi.

— Sizlarga oltin kerak bo‘lsa, bizlarga jon kerak, — debdi arqonning siqig‘idan badanlari qaqshayotgan Komiljon xayoliga bir fikr kelib, — oyoq-qo‘llarimizni bo‘shatinglar, o‘zimiz topib beraylik.

Ularning qo‘rboshisi bo‘lsa kerak, baland bo‘yli, shopdek mo‘ylovli, ko‘zlari chaqnagan bir kishi: „Bularni bo‘shatinglar“, deb buyruq beribdi yigitlariga. Qaroqchilar darhol bandilarning oyoq-qo‘llarini bo‘shatishibdi.

— Bizdagi oltinlar asli sizlarniki bo‘lishi kerak, — debdi Komiljon oyog‘ini uqalarkan, — mayli, rozimiz.

— To‘g‘ri, do‘stim, oltinlar asli shularniki bo‘lmog‘i lozim, — debdi Homiljon bir narsani sezgandek.

Qaroqchilar xaxolab kulishibdi.

— Biz bunaqasini hech ko‘rmagan edik, — debdi qaroqchilardan biri.

— Nega g‘alati qilib gapiryapsan, yigit? — deb so‘rabdi haligi shop mo‘ylovli kishi, — yoki ketishi naqd bo‘lganidan joningni asrayapsanmi? Qani, tezroq ko‘rsat.

— O‘lim-ku haq, — deb javob beribdi Komiljon, — lekin bu oltinlarning qissasi shuni talab qilar edi. Oldin oltinlar turgan yerni ko‘rsatay, keyin uning tarixini gapirib berarman.

Komiljon ularni boshlab chiqib, hovlining bir burchagini ko‘rsatib, o‘sha yerni qazishni buyuribdi. Shundan keyin ikki kishi u yerni qazish uchun qolib, qolganlar Komiljonni yana uyga olib kirishibdi. Shunda:

— Qanday qissani gapirmoqchi eding? — deb so‘rabdi qo‘rboshi qiziqib.

— Haligi, bizning gapimizni eshitib, bundayini ko‘rmagan edik, dedinglar. Agar oltin qissasini eshitsanglar bormi, hayron qolar ekansizlar-da, — deb gapga aralashibdi Homiljon.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Qani, gapir!

— Shunday ham bo‘lar ekan, — xuddi chindan bo‘lgan voqeani gapirib berayotgandek jiddiy tusda gap boshlabdi Komiljon, — otam juda ham qashshoq kishi ekanki, asti qo‘yaverin g. Chor-nochor kun kechirar ekanmiz. Otam bechora yegani nonn , ichgani suvni zo‘rg‘a topib kelar ekan. U juda ko‘p ishlar qilib ko‘ribdi. Ammo bilgan hunarlarining hammasi ham bir-biridan og‘ir tuyulaveribdi. Buning ustiga yoshi ham ancha qaytib qolgan ekan.

— Deraza yoniga boray, — deb ijozat so‘rabdi Komiljon, — ko‘nglim biroz behuzur bo‘lyapti.

— Mayli, boraqol, — debdi qo‘rboshi. Komiljon deraza yoniga borib, uni qiya ochibdi-da, to‘yib nafas olgandan keyin gapida davom etibdi:

— Hamma ishni ham bir-bir qilib ko‘ribdi, oxiri bo‘lmagach, o‘rmondan o‘tin olib kelib sota boshlabdi. Otamning bir hamrohi bo‘lib, u ham o‘rmonga doim dadam bilan birga borar ekan.

Haligi yer kovlayotgan qaroqchi yigitlar ham ishni qo‘yib bu kambag‘alning qo‘liga oltin qayerdan kelib qolganini bilgilari kelib, eshik yoniga o‘tirib, „qissa“ga quloq sola boshlashibdi.

— Kunlarning birida, — deb davom etaveribdi Komiljon, — otam bilan hamrohi bir to‘nkani qazib chiqarishayotganda shundaygina yonlaridagi yer o‘pirilibdi. „Bunda ne hikmat bor ekan?“ degan xayolda haligi yerni galma-galdan qazishibdi. Birozdan keyin ketmonlari bir sopolga tekkandek bo‘libdi. Qarasalar, xum emish. Ko‘p urinib haligi xumni chuqurdan chiqarib olishibdi. Dadam tepada-yu, o‘rtog‘i pastda — o‘rada ekan. Otam xumning og‘zini ochib qarasa... xum to‘la oltin emish.

Shunda dadam: „Butun umrim-ku qashshoqlikda o‘tdi. Endi hamrohimni o‘radan tortib olsam, u podsholikka xabar bersa, yana hech narsasiz qolaveramanmi?“ deb o‘ylabdi. Shu xayol bilan u sherigiga arqon tashlamay turibdi. Hamrohi bechora bo‘lsa to‘xtovsiz: „Qani, arqonni tashlamaysanmi?“ deb baqirayotgan emish. Oxiri dadam arqon tashlamaslikka qaror qilib, sekin-asta uyiga jo‘nabdi.

Bu gapni eshitgan qaroqchilar bir xum tillalik bo‘ldik, degandek bir-birlari bilan ko‘z urishtirib olishibdi.

— Sherigi dadamning fe’li buzilganini sezgan, shekilli, — deb gapida davom etibdi Komiljon, — oxirgi kuchini to‘plab, ovozining boricha chaqiribdi. Dadam yana o‘raning og‘ziga kelibdi-da: „Nima gaping bor?“ debdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

„Shuncha birga yurib, qashshoqligimizdan sen menikiga bormading, men senikiga, — debdi u. — Mayli, mening yoshim qaytib qoldi, o‘limimga roziman. Ammo senga bir vasiyat qilay, shuni bajar. Uyim falon yerda. Birgina o‘g‘lim bor, uning ismi Dod. Unga tilladan uch-to‘rt tanga berib, mening uyga qaytib bormasligimni aytib qo‘y. Bechoralarning ko‘zi to‘rt bo‘lib o‘tirmasin“.

Dadam ma’yus bo‘lib, cho‘ntagiga besh-oltita oltin solib, hamrohining eshigini topib boribdi.

„Dod, hoy Dod“, — debdi sekingina. Uydan hech kim chiqmabdi. „Dod“, debdi birozdan so‘ng yana qattiqroq tovush bilan. Hech kim ovoz bermasmish.

(Qaroqchilar bir qiziq hodisa ro‘y bergan bo‘lsa kerak, degan xayolda butun fikrlarini bir yerga to‘plab, Komiljonning gaplariga quloq solib o‘tirishganmish.)

Otam eshikning bir tabaqasini ochib, „Dod“ deb baqiribdi. Ovoz chiqmasmish. (Shunday deb turib, Komiljon derazani katta ochib olibdi.) Keyin ovozining boricha „Dod“, „Dod“, deb baqiraveribdi.

(Tevarak-atrofda ko‘rinayotgan odam sharpasi Komiljonga yana ham quvvat bag‘ishlabdi.)

— „Dod“, „Dod“, der emish otam. U qilgan ishiga pushaymon ekan. Uydan ovoz chiqmagandan keyin yana qattiq xafa bo‘lib, ko‘z-yoshi to‘kibdi-da, „Dod“, „Dod“, deb baqiraveribdi.

Bu vaqt ichida atrofdagi kishilar „Dod“ degan tovushni eshitib, o‘zi nima gap ekan, deganlaricha, har kim qo‘liga tushgan narsani olib, shu tomonga yugurib kelaveribdi. Qo‘riqchilikda turgan mirshablarga ham darhol xabar yetib, bir zumda ular ham shu yerda hozir bo‘lishibdi-yu, uyning atrofini o‘rab olishibdi.

Mirshablar xalqning yordamida qaroqchilarni tutib olishibdi.

Komiljon bilan Homiljonga bo‘lsa katta sovg‘alar berishibdi, ularning fahm-u farosatlariga qoyil qolishibdi.

Shundan keyin xalq tinch hayot kechira boshlabdi. Yigitlar bo‘lsa, maqsadlariga yetib, ona yurtlariga sog‘-salomat qaytib ketishgan ekan.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

To‘qqiz dangasa

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonda o‘nta aka-uka qarindoshlar bor ekan. Ularning to‘qqiztasi dangasa, bittasi abjir, hammasining kasbi aravasoz ekan.

To‘qqiz dangasa shahar bozorining o‘rtasida, bir abjir bo‘lsa shaharning bir chetida yashar ekan. Shahar o‘rtasida yashovchi dangasalar kamhafsalalikdan bir kunda bir aravani zo‘rg‘a yasar ekanlar. Shahar chetida yashovchi bir abjir bo‘lsa, bir kunda to‘qqizta arava yasar ekan.

Kunlar o‘taveribdi. Bozordagi xalq to‘qqiz dangasa yasagan arava yomon, deb, bir abjir yasagan aravalarni juda yaxshi, deb maqtar ekanlar. Bu maqtov og‘izdan og‘izga ko‘chib, birga ikki qo‘shilib, abjir aravalarining narxini oshirib, dangasalarning aravalari narxini pasaytiribdi. Borib-borib oxiri dangasalarning aravasiga xaridor topilmay qolibdi.

To‘qqiz aravasozning boshi qotibdi. Ular xayolga cho‘mibdilar. Kunlarning birida dangasalar boshlarini quyi solib, bellarini bukib arava sozlayotganlarida, ulardan biri sheriklariga qarab:

— Topdim!.. — deb qichqirib yuboribdi. To‘rt dangasa mix qoqqancha, uchtasi g‘ildirakni, bittasi to‘qmoqni ko‘targanicha qotib qolibdi.

— Hozir borib abjirni ishga solaman, ishimizni maqtayman, — debdi haligi. — Har birimiz kuniga to‘qqiz aravadan, to‘qqizovimiz sakson

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

bir arava yasaymiz, deyman, pulimiz ko‘pligidan nima qilishimizni bilmay qoldik, seni sherik qilishni lozim topdik, yur biznikiga, bu yerda ter to‘kib, kulfat tortib yurma, ukamizsan, bizning uyga borib oyog‘ingni uzatib yot, deb aytaman. U ko‘nadi, o‘zim bilan birga olib kelaman, bir necha kun bizda turadi. Bu vaqt ichida aravalarimizni pullab olamiz.

— To‘g‘ri aytasan, — debdi ikkinchi dangasa, — abjir yasagan aravalarni ham o‘zimiz chiqarib sotamiz.

Bu maslahat dangasalarga ma’qul tushibdi. Shundan keyin ularning biri abjirnikiga boribdi.

— Abjir uka, biz senga achinyapmiz. O‘ylab qara, bir non bilan qorning to‘yadi-yu, sen bo‘lsang ertadan kechgacha tinmay ter to‘kasan. Nima azob? Qo‘y bularni. Biznikiga yur. O‘zing bilasan, to‘qqiz aravasozmiz, kuniga sakson bir arava qilamiz, aravalarimizning narxi joyida. Yur, biz bilan birga bo‘l.

Dangasa u deb, bu deb, xullas, ko‘ndiribdi.

— Borsam boraqolay, — debdi abjir.

O‘zi yasagan to‘qqiz aravaga mol-mulkini ortib, dangasalarning uyiga ko‘chib boribdi. Dangasalar unga alohida uy ajratib beribdilar. Shundan keyin abjirning uyiga har kun mehmonlar kela boshlabdi, akalar ham ziyofatning quyug‘ini yer ekanlar.

Oradan ancha vaqt o‘tgach, abjirning puli tugab qolibdi.

U ko‘p o‘ylab turmay, uyida arava tuzatmoqchi bo‘libdi. Ammo abjirni kuzatib yurgan dangasalardan biri uni o‘zlari bilan birga ishlashga ko‘ndiribdi. Birga ishlay boshlabdilar.

Yozning issiq kunlari ekan. Dangasalar issiqni vaj qilib, o‘zlarini salqinga uribdilar. Ish boshida abjirning yolg‘iz o‘zi qolibdi, ammo u tinch turmay, peshanasini tang‘ib olib, ishini davom ettiraveribdi.

Kechqurun aravalarni sanab chiqibdi. Bir o‘zi yasagan arava to‘qqizta, dangasalar yasagan arava bitta, hammasi o‘nta emish. U ajablanibdi, lekin indamabdi. Bozorda dangasalarning aravalarini hech kim olmabdi. Abjir yasagan aravalar esa qo‘l-qo‘lga tegmay, birpasda tamom bo‘libdi.

Abjir avval achchiqlanibdi, keyin dangasalarni yaxshiroq ishlashga o‘rgata boshlabdi, ammo dangasalarning bo‘yinlari ishga yor bermas ekan.

Abjir ishyoqmaslarni tashlab ketibdi. Dangasalar: „Endi nima qilsak ekan?“ deb ko‘p o‘ylashibdi.

Biri yana hiyla topib, nari-beri ishlayotgan sheriklariga qarabdi:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Topdim! — deb baqiribdi. Dangasalarning biri mix qoqqancha, oltitasi arava o‘qini g‘ildirakka solmoqchi bo‘lgancha va bittasi to‘qmoqni ko‘targanicha qotib qolibdi.

— Bugun kechasi abjir yasagan aravalarga o‘t qo‘yamiz, ertaga bozorda bizning aravalardan boshqa arava bo‘lmaydi, narxi ham oshadi! — debdi haligi dangasa.

Ular kechasi abjirning aravalariga o‘t qo‘yib yuborishibdi.

Abjir uyida yo‘q, arava pullarini yig‘gani qishloqqa ketgan ekan. Ertalab eshagiga minib, bir xurjun tilla bilan uyga qaytayotsa, yo‘lda tanish yo‘lovchi uchrab qolibdi. U, achinib, aravalarning yonib kul bo‘lganini aytibdi.

— O‘tgan ishga salavot! — debdi abjir va hech narsa bo‘lmaganday yo‘lida davom etibdi. U dangasalarning uylari oldidan o‘tayotganda, juda xursand kishiday, ashula ham ayta boshlabdi.

Dangasalar bu vaqtda aravalarini bozorga olib chiqmoqchi bo‘lib turgan ekanlar. Abjirning ashulasi eshitilganda, ular hayron bo‘lishibdi.

— Salom, abjirvoy, ahvollar qalay? Tinchlikmi?

— Tinchlik, — debdi abjir.

— Aravalaring yonibdi, deb eshitdik, rostmi?

— Rost, aravalarimni ko‘zim qiymagandan yondirolmay yurardim, baxtimga allaqanday insofli odamlar topilib, aravalarimni yondirishibdi. Menga arava kuli zarur edi, juda xursand bo‘ldim.

— Arava kuli zarur edi, deysanmi?

— Ha, asti so‘rama, bozorda arava kulini tillaga almashyaptilar. Mana, ko‘rib turibsan, — abjir tagidagi xurjunini ko‘rsatibdi, — kulni tillaga alishtirib kelyapman. Dangasalar hayron qolishibdi. Abjir boshqa hech so‘z aytmay jo‘nab ketibdi.

Dangasalarning boshlari qotib, avval ko‘p tortishibdilar, keyin o‘z aravalariga o‘t qo‘yibdilar. Aravalar yonib kul bo‘libdi.

Keyin dangasalar aravalarining kulini xurjunga solib, bozorga jo‘nashibdi.

Bozorda odam ko‘p ekan. To‘qqiz dangasa eshaklariga ikki ko‘zi to‘la kul xurjunlarni ortib, bozorga kirib kelishibdi.

— Arava kuli oladigan bormi?

— Yaxshi aravalarning kuli!

— Bir xurjun kulning bahosi bir xurjun tilla. Kep qoling, opqoling, ho-hoy...

Hamma hayron bo‘libdi. To‘qqiz dangasa baravar baqiraveribdi.

Avval odamlar ichaklari uzilib kulishibdi, keyin kaltak olib dangasalarni bozordan haydab chiqaribdilar.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Bu dangasalarga juda alam qilibdi. Shunday jahllari chiqibdiki, abjirdan qasos olmoqchi bo‘libdilar. Yarim kechada abjirning uyiga boribdilar. Devordan oshib, hovliga tushibdilar. Abjir uyida yo‘q ekan. Nima qilishni bilmay, abjirning eshagini kaltaklabdilar, eshak yiqilib, o‘lib qolibdi.

Dangasalar qo‘rqib, uylariga qarab qochibdilar.

Ertasiga ertalab abjir uyiga kelsa, eshagi o‘lib yotgan emish. Ko‘p xafa bo‘libdi, eshagini aravaga ortib jo‘nabdi.

Dangasalar poylashsa, abjir eshakni aravaga ortib qishloqdan chiqib ketyapti, ishning oxiri nima bo‘lishini kutib turishibdi.

Abjir dalada katta bir xirmonga ro‘para kelibdi. Bu xirmon sudxo‘r Salimboyniki bo‘lib, xirmon boshida xuddi Salimboyning o‘zi nonushta qilib o‘tirgan ekan.

Abjir dam olmoqchi bo‘libdi. Eshakni xirmonga to‘g‘rilab turg‘izib qo‘yibdi. Uzoqdan qaralsa, eshak kappalab bug‘doy yeyayotganday ko‘rinar emish.

Buni ko‘rib Salimboy juda g‘azablanibdi, eshakka qarab do‘q urib baqiribdi.

Eshak bo‘lsa, uning nazarida, bug‘doyni kappalab yeyaveribdi. Salimboy hech nimaga qaramay, eshakka yaqin kelib tayoq bilan bir uribdi.

Eshak yiqilibdi, bu choq uzoqdan abjirning dod-faryodi eshitilibdi.

— Eshagimni o‘ldirib qo‘yding, boy!

Boyning quti o‘chib ketibdi. Yalina boshlabdi.

— Jon abjirjon, dodlama. Eshagingning ajali yetgan ekan. Endi o‘zingdan o‘tar gap yo‘q, bo‘lar ish bo‘ldi. Qo‘y, hech kim bilmay qo‘yaqolsin.

— Yo‘q, eshagimning xunini to‘laysan. Bo‘lmasa seni omon qo‘ymayman, — debdi abjir qo‘liga katta tayoq olib.

— To‘xta, eshagingning xunini to‘layman, nima talab qilasan?

— Oltin, — debdi abjir.

— Qancha?

— Bir xurjun.

Boy rozi bo‘libdi.

Abjir tillani olib, uyiga qaytibdi. Yo‘lda dangasalarga duch kelibdi.

— Salom berdik, abjirvoy!

— Alik oldik, dangasalar!

— Ahvollar qalay? Qanaqa yangiliklar bor?

— Yangiliklar ko‘p, — debdi abjir, — shu kechasi eshagim o‘lib qolgan edi, o‘ligini bir xurjun tillaga almashtirib kelyapman.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Dangasalar uning xurjunini titib ko‘rishibdi. Xurjun to‘la tillani ko‘rib, ko‘zlari kosasidan chiqib ketayozibdi.

Abjir xayrlashib, jo‘nab qolibdi.

Dangasalarning rosa ichlari kuyibdi. Bir yo‘la boy bo‘lmoqchi ekanlar, bittadan eshakni o‘ldirib, jasadini ortib bozorga jo‘nashibdi.

— O‘lgan eshak oladigan bormi? Tillaga alishtiramiz!

Xalq rosa kulibdi, keyin g‘azabga kelibdi:

— Bu qanday noma’qulchilik! O‘likni ham sotadimi!

Xalq ularni urib-urib bozordan haydabdi.

Yalqovlar juda ham g‘azablanibdilar. Abjirning uyiga qarab yo‘l olibdilar.

Abjir uyda yotar ekan, birdan tapir-tupur oyoq tovushi eshitilibdi. Qarasa, to‘qqiz dangasa uning uyiga bostirib kelayotganmish. Abjir qochibdi, dangasalar quvib ketibdi.

Dalada abjir qo‘y haydab kelayotgan qo‘ychi boyga uchrabdi.

— Hoy, qayoqqa qochayotibsan? — deb so‘rabdi boy.

— Ey, xabaringiz yo‘qmi, meni podsho qilib ko‘tarmoqchilar.

— Podsho qilib ko‘tarmoqchi bo‘lganlariga qochyapsanmi? O‘lma, oshqovoq. Meni podsho qilib ko‘tara qolsinlar, — debdi.

— Unday bo‘lsa kiyimlaringizni yeching. Mana mening kiyimlarim, kiying, — debdi abjir. Ikkovi kiyim-boshni almashtiribdilar. Keyin qo‘ychi boy asta-sekin yugurib, abjirdan uzoqlashibdi.

Bu vaqt hansirashib dangasalar kelib qolishibdi, qo‘ychi boy kiyimidagi abjirdan so‘rashibdi:

— Shu yerdan bir qochoq o‘tdimi?

— O‘tdi, — debdi abjir.

— Ko‘p bo‘ldimi?

— Yo‘q, hozirgina o‘tdi, — abjir bir qo‘lini peshanasiga qo‘yib, — huv ana, qochib ketyapti, — debdi. Dangasalar qochoqni ushlab, qo‘l-oyog‘ini boylashibdi, qopga solib daryoga otishibdi.

O‘z ishlaridan xursand bo‘lib, uylariga qaytishibdi. Oradan ko‘p o‘tmay, qo‘ychi boyning mingdan ortiq qo‘ylarini haydab, abjir o‘z uyiga qaytib kela boshlabdi. Abjirni tirik ko‘rgan dangasalar o‘zlarini yo‘qotib qo‘yishibdi.

— Ha, — debdi bir shum dangasa, — qayerdan kelyapsan?

— Hech so‘ramang, — debdi abjir uh tortib. — Dilkash odamligimni o‘zingiz bilasiz, lekin ko‘rolmaydiganlar ko‘p, ularning yordami bilan davlatmand bo‘ldim.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Qanday qilib? — deb so‘rashibdi dangasalar. Abjir voqeani so‘zlay boshlabdi:

— Bugun ertalab allakimlar uyimdan to dalagacha quvib borishdi, keyin ushlab, qo‘l-oyog‘imni boylab daryoga tashlashdi. Daryoga cho‘kib ketdim. Voy-voy... Daryo tagida qo‘ylar shuncha ko‘p ekanki, asti so‘ramang, hayron qoladi kishi...

Daryo tagiga tushganimda qo‘ylar menga yalina boshladilar, „Bizga xo‘jayin kerak, agar sen xo‘jayin bo‘lsang, qancha istasang, shunchamiz seniki bo‘lamiz, sen bilan yer yuziga chiqamiz“, dedilar. Shunda men: „Menga mingtangiz kifoya“, deb aytdim. Darrov mingta qo‘y qator bo‘lib, men bilan birga daryoning labiga chiqdi. Mana ko‘rib turibsizlar, — deb qo‘ylarni ko‘rsatibdi, — o‘sha qo‘ylar — shular.

Dangasalarga toza alam qilibdi.

— Birodarimiz abjirvoy. Biz senga doim yaxshilik qilib kelamiz, bizni daryoga elt, bizga ham qo‘ylardan olib ber, — deyishibdi.

— Vaqtim yo‘q, bo‘lmaydi, — debdi abjir. Dangasalar ko‘p yalinishibdi. Shundan keyingina abjir:

— Bo‘lmasa, mayli, yuringlar, — debdi. Daryo labiga borishibdi. Abjirning qo‘ylari daryo labida o‘tlab yurishgan ekan. Dangasalar qo‘ylarning suvdagi aksini ko‘rib yanayam sevinishibdi.

— Voy-voy, anavi semiz qo‘ylarni ko‘ring-a. Munchayam ko‘p ekan.

— Voy, bu hali bir qismi, — debdi abjir. Dangasalar shoshib qolibdi. Har qaysisi suvga oldinroq tushib, badavlat bo‘lishga intilarkan.

Abjir ularga: „Qoplarga tushinglar“, debdi. Xash-pash deguncha dangasalar to‘qqiz qopga kirib olib, qoplarning og‘zini mahkam bog‘-lattirishibdi. Dangasalar o‘zlari yumalab, daryoga tushib, cho‘kib ketishibdi.

Shu bilan Abjir yigit murod-maqsadiga yetibdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Zulxumor

Bor ekan-da, yo‘q ekan, och ekan-da, to‘q ekan. Qadim zamonlarda yoshini yashab, oshini oshagan bir chol bilan kampir o‘tgan ekan. Ularning husnda yagona, qizlarning sarasi, ko‘zlarining oq-u qorasi, bitta-yu bitta Zulxumor ismli qizlari bo‘lgan ekan.

Zulxumor yoshlik chog‘laridanoq aqlli, chaqqon, xushchaqchaq ekan. U har ishda onasiga ko‘maklashar, yumushda har qanday chaqqon kishiga tenglashar ekan. O‘n ikki-o‘n uch yoshlarida biram charx yigiradigan bo‘libdiki, asti qo‘yavering. Keyinroq u hatto onasiga charx yigirtirmaydigan, kampirni charxning yoniga ham keltirmaydigan qilib qo‘yibdi. Bu ishdan uning ota-onalari shod bo‘lib, bir burda non topilib, qornilari to‘qligi uchun dard-u g‘amlarga yot bo‘lib kun kechiraverishibdi.

Kunlar o‘tibdi, yillar bo‘lsa birining ketidan biri quvib ketaverib, qiz o‘n sakkiz yoshga chiqdi deganda otasi, yana bir yildan keyin onasi vafot etishibdi. Uyda qizning yolg‘iz o‘zi qolibdi, ko‘z yoshi to‘ka-to‘ka, axir tolibdi.

Ularning uyi yaqinida bir sayrgoh bor ekan. Kunlarning birida qiz uyda zerikibdi-da, kechki payt ko‘ngil chigilini yozib, sof havo olgani shu sayrgohga chiqib dam olibdi. Uning yonidan o‘tgan ham, ketgan ham

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

bir nazar tashlamay o‘tolmabdi, lekin yoniga kelib biron og‘iz so‘z deyishga hech kimning yuragi betlamabdi. Qizga juda ham kelishgan, qaddi-qomati endigina to‘lishgan, yigirma ikki-yigirma uch yoshlar chamasidagi bir yigit oshiq-u beqaror bo‘lib qolibdi, qadamini uning izidan solibdi. Oxiri Zulxumor uyiga kirib ketayotgan paytda, undan yaqin kunlarning birida ko‘rishish uchun va’da olibdi.

Oradan ikki-uch kun o‘tgandan keyin qiz yana sayrgohga chiqib, bu safar boshqa bir yigitga ro‘para bo‘libdi. Bu yigit ham qo‘yarda-qo‘ymay Zulxumorning va’dasini olibdi.

Uchinchi marta ham xuddi shunday hodisa yuz berib, Zulxumor uchinchi yigitga ham so‘z beribdi. Endi Zulxumorni qo‘yaturib, yigitlardan hol so‘raylik.

Hammalari ham oshiq-u beqaror, „Qachon bo‘lar ekan u qiz menga yor“, deb kunlarni sanayverishibdi. Oxiri ular kutgan kun ham yetib kelibdi.

Sayrgohning kunbotar tomonidagi chinor tagiga bir-birlariga yot, ko‘ngillari to‘la oh-u dod uch yigit to‘planishibdi. Ular bir-birlaridan nima gap, deb so‘rashay desa, tillari bormay, uchovlarining ham ko‘zlari nigoron bo‘lib turaverishibdi.

Oxiri ulardan birining toqati toq bo‘lib, ikkinchisiga:

— Do‘stim, mabodo ilinganimiz bir qarmoq emasmikan, sizni ham aldagan o‘sha qiz bo‘lmasin? — debdi.

— Iye, to‘xtang, nima deyapsiz, — deb so‘zga aralashibdi uchinchisi, — aytayotganlaringiz Zulxumor bo‘lmasin, ha, ishqilib qoyil qilibdi, o‘lmasin.

Hammalari ham bir zumgina o‘yga tolishibdi, so‘ng birgalashib qizning kulbasi tomon yo‘l olishibdi.

— Aqlim bovar qilmayapti, — debdi ikkinchi yigit gap ochib, — nahotki... hammamiz ham aldangan bo‘lsak.

Ular eshikni taqillatishgan ekan, boshqa bir qiz chiqib, ta’zim bilan hammalarini ichkariga taklif etibdi.

Uch yigit kirishga ham hayron, kirmaslikka ham, eshik yonida bir-birlariga qarashib, kiramizmi, kirmaymizmi degandek bosh qashlashib, oxiri birinchi yigit ichkariga yo‘l boshlabdi.

Ular uyga kirib qarashsa, Zulxumor ko‘rpa-to‘shak qilib yotgan emish, yonida tabib unga nimalarnidir uqtirayotgan emish.

Tabibning gaplarini ma’qullayotgan rangi-ro‘yi za’faron Zulxumor ularni ko‘rib, boshini ko‘taribdi. Yigitlar qizni ko‘p bezovta

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

qilmaslik uchun tezgina uning atrofiga o‘tirishibdi. Yerga qarab, yigitlardan uyalib:

— Sizlarni ko‘p ovora qildim, — debdi Zulxumor. — Hech biringizga yo‘q degani tilim bormadi, sizlarni ranjitgani ko‘nglim bo‘lmadi. Hech qaysingizni aldamoqchi emasdim. Endi bo‘lar ish bo‘ldi. Har biringizga bittadan shartim bor, shu shartni bajargan yigitga bo‘lay mayli yor.

Yigitlar qizning shartiga quloq solishibdi.

— Biri shuki, — deb davom etibdi Zulxumor, — o‘lkamizdan juda uzoqda, g‘or ichida, ya’ni ancha katta tuzoqda uzoq yillardan beri saqlanib kelgan bir ko‘zgu bor. Bu oddiy emas, sehrli ko‘zgu, agar bu ko‘zgu kimning qo‘liga tushgudek bo‘lsa, shu dunyodagi istagan yeri va kishisini ko‘ra oladi. Shuni olib kelish kerak. Ikkinchisi bu ham o‘sha o‘lkaga qo‘shni, bir g‘or ichida uchar gilam saqlanar emish. Uning ustiga o‘tirgan kishi ko‘z ochib-yumguncha istagan joyida hozir bo‘larmish. Bu gilam xislatlarga boy emish, shu shartni bajarmoqchi bo‘lgan yigitga ikki oy muhlat beray.

Tabib gapga aralashib, qizdan iltimos qilibdi:

— Uchinchi shartni, qizim, men aytsam, — debdi. Bunga qiz rozi bo‘libdi, yigitlar ham ko‘nishibdi.

— Uchinchi shart shuki, — debdi tabib, — mashriq tomonining falon yerida bir yurt bor. U mamlakatga Qoraxon podsholik qiladi. Uning qo‘l ostida behisob boylik, yer-suv, bog‘-rog‘ bor. Xon saroyida bir tup ajoyib olma o‘sadi. Qaddi juda baland, uning soyasi har qanday daraxtni ham to‘sadi. Shu daraxtning uchida yarmi qizil, yarmi oq bir dona olma bor. Shu olmani albatta keltirish kerak, qiz shu olmani yesa shifo topadi.

Yigitlarning uchovlari shartlarni o‘zaro bo‘lishib olib, yo‘l anjomlarini hozirlab, murodimga yetamanmi, yo‘qmi degan xayolga tolib, to‘g‘ri o‘sha tomonlarga yo‘l olishibdi. Hammalari ham yo‘l yurib, yo‘l yurishsa ham mo‘l yurib, oxiri birin-ketin mo‘ljal qilgan manzillariga yetib borishibdi.

Olma keltirgani borgan yigit Qoraxon saroyiga yaqinlashibdi, ulkan daraxtni ko‘rib aqli shoshibdi. U olma uzoqdan ko‘zga tashlanmabdi, „Yo‘q ekan“, deb yigitning ko‘zi yoshlanmabdi. Aksincha, u: „Qanday bo‘lmasin shu olmaga yetaman, dildorimga eltaman“, deb umid qilibdi.

Qoraxon saroyiga kirish juda ham mashaqqat ekan. Darvozalarda bo‘lsa doim soqchilar turarkan. Saroyga kirishning yo‘lini axtarib, haligi yigit o‘n kecha-o‘n kunduz turli xil reja tuzibdi. Oxiri, o‘n birinchi kechada darvozabonlarni behush qilib, saroyga o‘tib olibdi va olma daraxtining tagiga yetib boribdi. Ko‘p o‘ylab o‘tirmay, jon-jahdi bilan daraxtga

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

tirmashibdi. Tabibning aytganini qilib, pastga qaramay, tolganini ham, charchaganini ham bilmay, o‘zini ayamay yuqoriga ko‘tarilaveribdi.

Bu yigit murodiga yetay deb qolibdi, olmani qo‘lga olib, qaytib ketay, deb qolibdi. Endi gapni ko‘zguga ketgan yigitdan eshitaylik.

U yigit yo‘l yurib, yo‘l yursa ham mo‘l yurib, aytilgan g‘orga yetib boribdi. Qorning ichiga ko‘z tashlab, hayron qolibdi. „Tavakkal, — debdi u, — bir boshga bir o‘lim, qaytib ketsam izza bo‘laman, uyat o‘limdan qattiq degan gap bor“.

Shunda u qilichini mahkam ushlab, g‘orning ichiga kiribdi. U biroz yo‘l bosgandan keyin o‘ngga, so‘ng so‘lga qayrilibdi. Bir joyga kelib qarasa, g‘ordagi ko‘zgu turgan yerni bir ulkan dev qo‘riqlab yotgan emish, uning yonida murda chanoqlari to‘dalanib qolgan emish.

„Bu qanday balo ekan, — deb o‘ylabdi yigit, — bu dev bilan olishib ko‘zguni qo‘lga kiritish qiyin bir muddao-ku, endi nima qilay, harna bo‘lsa ham orqaga qaytma-yu, mardlik ko‘rsatay“. Yigit devni turtib uyg‘otibdi.

Dev g‘oyibdan paydo bo‘lib qolgan bu yigitni dast ko‘tarib yerga uraman, degan ekan, yigit chaqqonlik qilib, qilich bilan uning shoxini urib sindiribdi, devni shaxtidan tushiribdi.

— Men, — debdi dev, — sening xizmatingdaman, nima buyursang, hammasini ado etaman.

— Sen qo‘riqlab yotgan shu g‘or ichida ko‘pdan beri po‘lat sandiq saqlanar ekan, uni olmoq faqatgina sening qo‘lingdan kelarkan. To sen shuni olib bermaguningcha murodimga yetmayman, bu diyorni tark etib, o‘z o‘lkamga ketmayman.

Dev chor-nochor eshikni ochib, ichkariga yo‘l olibdi. Uni yigit ostonada kutib qolibdi. Ko‘p vaqt o‘tmay dev kichik bir sandiq bilan chiqib, yigitga ta’zim qilibdi.

— Sandiqni och, — debdi yigit.

— Nariroq qoch, — debdi dev.

Dev sandiqni ochgan ekan, uning ichida kattakon ilon behush, kulcha bo‘lib yotganmish. Dev ko‘zguni olganida ilon boshini ko‘taribdi, dev esa sandiqni darhol yopibdi. Shunda birdan hamma yoq charog‘on bo‘lib ketibdi, yigitning ko‘ngli yorishibdi.

Yigit aql-hushini bir yerga to‘plab, ko‘zguga bunday qarasa, bir sherigi mashaqqat bilan uchar gilamga yetishibdi-yu, kirsa chiqmas g‘orning ichida qayoqqa borishini bilmay, sarson-sargardon bo‘lib yurgan emish. Ikkinchisi bo‘lsa daraxt tepasida olma uzayotgan emish. Qiz to‘shakda

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

holdan toyib yotganicha joni uzilayotgan emish, yonida tabib yigitlarni kutib dam qizga, dam yo‘lga tikilib o‘tirgan emish.

„Endi nima qildim, — deb o‘ylabdi yigit, — ko‘zguni olib borganim bilan dardga shifo bo‘lmaydi, baribir qizning ham ko‘ngli to‘lmaydi“.

— Endi, — debdi u, devga ko‘zguni ko‘rsatib, — vaqtni boy bermay, meni tezlik bilan o‘sha uchar gilamni olib, kirsa chiqmas g‘orning ichida yurgan yigitning yoniga olib bor, ikkovlashib u yigitni halokatdan qutqaraylik, keyin ixtiyoring o‘zingda, qayerni xohlasang, mayli bora qol.

— Bo‘lmasa ko‘zingni yum, — debdi dev, — o‘zingni shamollardan ehtiyot qil.

Yigit uning aytgan gaplariga ko‘nib, hammasiga bardosh beribdi. Dev ko‘p vaqt o‘tmay yigitni hamrohi turgan joyga olib kelibdi.

Dev g‘orga kiradigan yashirin yo‘l borligini bilar ekan, bu yerga u ko‘p martaba kirgan ekan, yigitni g‘orning tashqarisiga qo‘yib, dev uning hamrohini g‘or ichidan olib chiqibdi. Ikkinchi yigit ko‘zgulik yigitni ko‘rib hayron bo‘libdi. Do‘sti bo‘lsa uni voqeadan voqif qilibdi.

— O‘ylab turmaylik bo‘lmasa, — debdi gilamli yigit, — iloji boricha tezroq olmazor bog‘ga uchib boraylik, hamrohimizni olib, qizning dardiga davo bo‘laylik.

Shunday qilib ikkovlari olmazor bog‘ tomon parvoz qilishibdi, ko‘p o‘tmay u yerda hozir bo‘lishibdi. Uchinchi sheriklari ham ko‘zguga qarab voqeadan xabardor bo‘libdi, uchar gilamni ko‘rib, ko‘ngli to‘libdi.

Oradan ko‘p vaqt o‘tmay uchovlon osmonga ko‘tarilishibdi, hali qizning joni bor ekanida uning yoniga yetib borishibdi, Zulxumoroyni o‘lim changalidan qutqarib olishibdi.

Olmani yeb, birozdan so‘ng qiz ko‘zini ochibdi, to‘lishgan oydek har tarafga nur sochibdi. Bunday qarasa, uchala yigit ham tepasida unga ko‘z tikib turgan emish, hammalari ham mo‘l yo‘l bosib o‘z burchlarini ado etishgan emish. Qiz hayron bo‘lib, ne qilay, degandek tabibga boqibdi. Uning bu ishi yigitlarning uchoviga ham yoqibdi. Mo‘ysafid-tabib voqeani yigitlardan batafsil eshitgandan so‘ng, gap boshlabdi:

— Qizim, endi mening bir narsa deyishim mushkul. Shunday bo‘lsa ham maslahat tariqasida ikki og‘iz so‘z aytay. Avvalo, bu uch yigit o‘z burchini ado etdi, balli ularga. Hammalari inoq bo‘lib, seni o‘limdan qutqarishdi. Qizim, agar biri ko‘zguda hamma sirdan voqif bo‘lmasa, sen dardingga shifo topa olmasding, chunki o‘z joningni o‘zing saqlab qololmasding. Ikkinchisi gilam bilan yetkazib keltirmasa-chi, unda ham

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

holingga voy edi, yotaring tuproq joy edi. Uchinchisi agar olma keltirmaganda, gilam, ko‘zgu bu dardingga davo bo‘lmasdi. Ana, qizim, endi o‘zing hal et bu yog‘ini, hech birining ko‘nglini ranjitma.

— Bolalarim, — debdi mo‘ysafid yigitlarga qarab, qo‘llarini taroq qilib soqolini tararkan, — Zulxumorga bir vazifa yuklamoqchiman, ham shu bilan uni yana sinamoqchiman. U sizlardan biringizni tanlab yor bo‘lsin, ammo bu ishdan sizning ham ko‘nglingiz to‘lsin. Qolgan ikki yigit uni singlim deysizlar, butun umr bir-birlaringni unutmaysizlar.

Yigitlar bu shartga ko‘nishibdi, qizning javobini eshitib, ko‘ngillari to‘libdi.

Endi sizga shunday bir jumboq, mayli hozir toping, mayli yo kechroq: shoshmay bir o‘ylab ko‘ring-chi! Qiz qanday javob berib, kimga yor bo‘ldi. Qolganlarining ko‘ngli ne bilan to‘ldi?

Javob:

— Siz, — debdi qiz, ulardan biriga qarab, — ko‘zguni olib keldingiz, qahramonlik, shon-shuhrat nima — bildingiz. Mana endi qo‘lingizda ko‘zgu muhayyo, yo‘q ekan demang bu qizda hayo, istagan yeringizni ko‘ra olasiz, ko‘nglingiz ne istasa bila olasiz — qayerda qanday fasl va kim qanday ish bilan band va kimlar xursand — hammasi ham ko‘zguda ko‘rinadi sizga.

Siz ham ne mashaqqat-la gilamga yetishdingiz, ne-ne nodonlar bilan rosa ham aytishdingiz, unda ikki do‘stni ham olib keldingiz, albatta, sizga ham „Ha“ demaklik lozim.

Endi bu do‘stingiz-chi, olma keltirdi, xolos. Lekin u ham va’dasini bajardi qo‘yib ixlos. Men tufayli ko‘p mashaqqatlar chekdi. Shularning evaziga u menga uylansin... Chunki u bechorada na ko‘zgu bor, na gilam, har kim molin olsin-u, u yigit bo‘lsin men bilan.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

TO‘PLAMDAGI ERTAKLARNI AYTUVCHI VA YOZIB OLUVCHILAR

Jovur chol — To‘plovchi: *Rahmatilla Yusuf o‘g‘li*. Samarqand viloyati, Nurota tumani. 1948-yil. Inv. 1090. Nashrga tayyorlovchi: *Zubayda Husainova*.

Jonon piyola — Aytuvchi: *Ismoiljon Otaxonov*. Andijon. 1940-yil. Inv. 592. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul*.

Quloqboy — Aytuvchi: *Jiyanboy Ko‘chim o‘g‘li*. Yozib oluvchi: *Ernazarov*. Samarqand. 1927-yil. Inv. 681. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul*.

Bahrom va Sherzod — Aytuvchi: *Qahhor Mahkamov*. Yozib oluvchi: *M. Alaviya*. Piskent. 1935-yil. Inv. 202. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul*.

Murqumomo — To‘plovchi: *Ulfatxon Turg‘unova*. Andijon, 1957-yil. Inv. 1412 Nashrga tayyorlovchi: *M. I. Afzalov*.

Hunarning xosiyati — To‘plovchi: *X. Qulmatov*. Andijon. 1957-yil. Inv. 1412. Nashrga tayyorlovchi: *Zubayda Husainova*.

Opa-uka — Aytuvchi: *Abdullaxo‘ja*. Namangan. 1928-yil. Inv. 78. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov, X. Rasul* va *Zubayda Husainova*.

O‘ynang, kuchugim, o‘ynang — Aytuvchi: *Tojiboy Yusupov*. Yozib oluvchi: *Jo‘raboy Toshmirzayev*. Andijon. 1957-yil. Inv. 1397. Nashrga tayyorlovchi: *X. Rasul*.

Kulsa — gul, yig‘lasa — dur — Aytuvchi: *Nazira Abdullayeva*. Yozib oluvchi: *Buyuk Karim*. Xiva shahri, 1936-yil. Inv. 599. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul*.

Cho‘pon Ali — To‘plovchi: *Qumri Islomova*. Andijon. Inv. 1406, Nashrga tayyorlovchi: *X. Rasul*.

Zumrad va Qimmat — Aytuvchi: *Mo‘tabarxon Hakimxonova*. Yozib oluvchi: *M. Alaviya*. Piskent, 1945-yil, Inv. 941. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul*.

Oltin olma — To‘plovchi: *Feruza Sultonova*. Toshkent, 1957-yil, Inv. 1420. Nashrga tayyorlovchi: *M. I. Afzalov*.

Bola — podshodir — Aytuvchi: *Murod Shoir Otaboy o‘g‘li*. Toshkent viloyati, Guliston tumani. 1957-yil. Inv. 1422. Yozib olib, nashrga tayyorlovchi: *M. I. Afzalov*.

Tan sihatlik — tuman boylik — Aytuvchi: *Muhiddin G‘aniyev*. Toshkent. 1957-yil. Inv. 1419. Yozib olib, nashrga tayyorlovchi: *M. I. Afzalov*.

Dono qiz — To‘plovchi: *Munavvar Azizova*. Andijon. 1957-yil. Inv. 1403. Nashrga tayyorlovchi: *M. I. Afzalov*.

Bo‘z bola — Aytuvchi: *Sobir Hoshim o‘g‘li*. Yozib oluvchi: *G‘ulom Zafariy*. Termiz. 1926-yil. Inv. 1371. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul*.

Vafo — Aytuvchi: *Sh. Shamsuddinov*. Yozib oluvchi: *X. O‘teshev*. Toshkent. 1957-yil. Inv. 893. Nashrga tayyorlovchi: *Zubayda Husainova*.

Mahmud yamoqchi — To‘plovchi: *G‘ulom Soliyev*. Andijon. 1957-yil. Inv. 1409. Nashrga tayyorlovchi: *X. Rasul*.

Nurilla boyvachcha — Aytuvchi: *Murod shoir Otaboy o‘g‘li*. Toshkent viloyati, Guliston tumani, 1957-yil. Inv. 1421. Yozib olib, nashrga tayyorlovchi: *M. I. Afzalov*.

Noshud bola — To‘plovchi: *Fathulla Abdullayev*. Toshkent. 1956-yil. Inv. 1372. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul*.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Hunarli yigit — Aytuvchi: *Tojiboy Rasulov*. Yozib oluvchi: *Hojinisa Shokirova*. Toshkent. 1945-yil. Inv. 933. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul*.

Boy bilan novcha — Aytuvchi: *Xo'jamqul Do'stmurod o'g'li*. Yozib oluvchi: *Nazar Qosim Mirza o'g'li*. Samarqand viloyati, Zomin tumani, 1928-yil. Inv. 59. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul*.

Zolim podsho — Aytuvchi: *Nasriddin Zabihullayev*. Yozib oluvchi: *Jamoliddin Asomiddinov*. Toshkent. 1944-yil. Inv. 164. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul*.

Baliqchi bola — Aytuvchi: *O'rinboy Mamajonov*. Yozib oluvchi: *Zaytuna Karimova*. Qo'qon. 1950-yil. Inv. 1123. Nashrga tayyorlovchi: *Zubayda Husainova*.

Karimboy bilan xizmatkor — Aytuvchi: *Shohimardon*. Qashqadaryo viloyati. Shahrisabz. 1927-yil. Inv. 427. Nashrga tayyorlovchi: *Zubayda Husainova*.

Botir — Aytuvchi: *Tohir Zoirov*. Yozib oluvchi: *Jamoliddin Asomiddinov*. Toshkent. 1944-yil. Inv. 181. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov X. Rasul* va *Zubayda Husainova*.

Soqi mumsik bilan Boqi mumsik — Andijon. 1957-yil. Inv. 1395. Nashrga tayyorlovchi: *M. I. Afzalov*.

O'pka qishlog'i — Aytuvchi: *Ochil aka*. Farg'ona viloyati, Kirov tumani. 1935-yil. Inv. 737. Yozib olib, nashrga tayyorlovchi: *M. I. Afzalov*.

Dehqon. — To'plovchi: *Zohir Qo'chqorov*. Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz. 1956-yil. Inv. 1262. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul*.

Kanizak bilan podsho — To'plovchi: *M. I. Afzalov*. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul*. Inv. 1385.

Tuhmat balosi — Aytuvchi: *Nurali Nurmat o'g'li*. Yozib oluvchi: *A. Shokirov*. Toshkent. 1937-yil. Inv. 700. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov, X. Rasul* va *Z. Husainova*.

Xasis boy bilan Abdurahmon o'g'ri — Aytuvchi: *H. Otaboyev*. Andijon. 1947-yil. Inv. 1040. Yozib olib, nashrga tayyorlovchi: *Sobirjon Ibrohimov*.

Guliqahqaq — Aytuvchi: *Fayzi Qori qizi*. Yozib oluvchi: *M. Alaviya*. Piskent. 1926-yil. Inv. 53. Nashrga tayyorlovchi: *Zubayda Husainova*.

Tentak podsho — Aytuvchi: *Mahsum*. Yozib oluvchi: *S. Ibrohimov*. Farg'ona. 1935-yil. Inv. 1025. Nashrga tayyorlovchi: *M. I. Afzalov*.

Oltmish og'iz yolg'on gap — Aytuvchi: *Olmoqul Jo'rayev*. Qashqadaryo viloyati, Kitob tumani, Shotir qishlog'i. 1955-yil. Inv. 1246. Yozib olib, nashrga tayyorlovchi: *M. I. Afzalov*.

Alvasti — To'plovchi: *Zohir Qo'chqorov*. Qashqadaryo viloyati. Shahrisabz. 1956-yil. Inv. 1264. Nashrga tayyorlovchi: *M. I. Afzalov*.

Avom folchi — Aytuvchi: *Haqberdi*. Yozib oluvchi: *M. I. Ernazar o'g'li*. Jizzax. 1927-yil. Inv. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul*.

Baxtli kal — Aytuvchi: *Salim Maqsudov*. Yozib oluvchi: *Sobirjon Ibrohimov*. Andijon. Baliqchi tumani. 1935-yil. Inv. 568. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul*.

Ayyor bilan sodda — To'plovchi: *Rahmatullayeva*. Andijon. 1957-yil. Inv. 1390. Nashrga tayyorlovchi: *M. I. Afzalov*.

Yetti ahmoq — Andijon. 1957. Inv. 1394. Nashrga tayyorlovchi: *M. I. Afzalov*.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kuygan chol — To'plovchi: *M. Mo'minova*. Andijon. 1957-yil. Inv. 1416. Nashrga tayyorlovchi: *M. I. Afzalov*.

Topqinchilar — Aytuvchi: *Nurali Nurmat o'g'li*. Yozib oluvchi: *K. Sarimsoqov*. Toshkent. 1937-yil. Inv. 670. Nashrga tayyorlovchi: *Zubayda Husainova*.

Xasis boy va uning o'g'illari — To'plovchi: *O. Hakimova*. Jalolobod. 1957-yil. Inv. 1411. Nashrga tayyorlovchi: *Zubayda Husainova*.

Qirq yolg'on — Aytuvchi: *Nurali Nurmat o'g'li*. Inv. 673. Nashrga tayyorlovchi: *Zubayda Husainova*.

Garang — Aytuvchi: *Nurali Nurmat o'g'li*. 1937-yil. Inv. 127. Yozib olib, nashrga tayyorlovchi: *M. I. Afzalov*.

Donishmand cho'pon — Aytuvchi: *Sharif Musayev*. Yozib oluvchi: *Nuriddin Sharipov*. Toshkent. 1941-yil. Inv. 195. Nashrga tayyorlovchi: *Zubayda Husainova*.

Ahmoq jo'ralar — Aytuvchi: *Ahror To'raboyev*. Samarqand viloyati, Urgut tumani, G'us qishlog'i, 1957-yil. Inv. 1298. Yozib olib nashrga tayyorlovchi: *M. I. Afzalov*.

Chol bilan kampir — Aytuvchi: *Hasan Ibrohimov*. Namangan viloyati. Chust tumani. 1935-yil. Inv. 436. Yozib olib, nashrga tayyorlovchi: *M. I. Afzalov*.

Qozining makri — Aytuvchi: *Nasriddin Zabihullayev*. Yozib oluvchi: *Jamoliddin Asomiddinov*. Toshkent. 1946-yil. Inv. 170. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov, X. Rasul* va *Z. Husainova*.

Ikki o'rtoq — Aytuvchi: *Qurbonboy Hojiniyozov*. Yozib oluvchi: *H. T. Zaripov*. 1930-yil. Inv. 429. Nashrga tayyorlovchi: *Zubayda Husainova*.

Yamoqchi bilan Shog'arib — To'plovchi va nashrga tayyorlovchi: *Sobirjon Ibrohimov*, Andijon. 1957-yil.

Mulla Tappak — Aytuvchi: *R. I. Barishnikova*. Andijon. 1957-yil. Inv. 1415. Nashrga tayyorlovchi: *M. I. Afzalov*.

Botmon daxsar — To'plovchi: *Mirkarim Osimov*. Toshkent. 1930-y. Inv. 875. Nashrga tayyorlovchi: *Zubayda Husainova*.

Andijonlikning hikoyasi — To'plovchi: *Mirkarim Osimov*. Toshkent. 1930-yil. Inv. 878. Nashrga tayyorlovchi: *Z. Husainova*.

Eralixon va uch o'g'ri — Aytuvchi: *M. M. Qodiriy*. Yozib oluvchi: *Sharif Rajabov*. Xorazm viloyati, Xiva. 1932-yil. Inv. 613. Nashrga tayyorlovchi: *Z. Husainova*.

Qaysi yerda chivin yo'q — Aytuvchi: *Sulton ota*. Yozib oluvchi: *A. Eshev*. 1930-yil. Inv. 883. Nashrga tayyorlovchi: *Z. Husainova*.

Bajarib bo'lmaydigan buyruq — Aytuvchi: *Hamidjon Mamajonov*. To'plovchi: *Zaytuna Karimova*. Farg'ona. 1946-yil. Inv. 1141. Nashrga tayyorlovchi: *Zubayda Husainova*.

Lofchining qizi — To'plovchi: *Mamajon Mahsumov*. Namangan. 1935-yil. Inv. 267. Nashrga tayyorlovchi: *Zubayda Husainova*.

O'g'ri va podshoh — Andijon. 1957-yil. Inv. 1413. Nashrga tayyorlovchi: *X. Rasul*.

Zulm va qasos — To'plovchi: *M. Mahsumova*. Andijon. 1957-yil. Inv. 1390. Nashrga tayyorlovchi: *X. Rasul*.

Uch yolg'onda qirq yolg'on — Aytuvchi: *Hasan Xudoyberdiyev*. Yozib oluvchi: *H. T. Zaripov*. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul*.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Rustam — Aytuvchi: *Mulla Mo'min Yoqubov.* Yozib oluvchi: *Buyuk Karim.* 1940-yil. Inv. 138. Nashrga tayyorlovchi: *Zubayda Husainova.*

Doro va Iskandarbek — Aytuvchi: *Abdug'afur Shukurov.* Yozib oluvchi: *Fathulla Abdullayev.* Qashqadaryo viloyati. Kitob tumani. 1957-yil. Inv. 1368. Nashrga tayyorlovchi: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul.*

Shoxli Iskandar — Aytuvchi: *Nasriddin Zabihullayev,* yozib oluvchi: *Jamoliddin Asomiddinov.* Toshkent. 1944-yil. Inv. 151. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul.*

Luqmoni hakim — Aytuvchi: *Nurali Nurmat o'g'li.* Yozib oluvchi: *A. Shukurov.* Toshkent. 1941-yil. Inv. 202. Nashrga tayyorlovchi: *M. I. Afzalov.*

Kimyogar — To'plovchi: *M. Ahmedov.* Toshkent. 1957-yil. Nashrga tayyorlovchi: *M. I. Afzalov.*

Ayoz — Aytuvchi: *Nurali Nurmat o'g'li.* Yozib oluvchi: *A. Abdulahat.* Toshkent. 1938-yil. Inv. 478. Nashrga tayyorlovchi: *Zubayda Husainova.*

Hotam — Aytuvchi: *Adolatxon.* Yozib oluvchi: *Shamsiya Angarova.* Andijon. 1939-yil. Inv. 689. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov, X. Rasul* va *Z. Husainova.*

Arab laqqi — To'plovchi: *M. Ahmedov.* Toshkent. 1957-yil. Nashrga tayyorlovchi: *M. I. Afzalov.*

Navoiy bilan yamoqchining o'g'li — Toshkent. 1957-yil. Inv. 884. To'plab, nashrga tayyorlovchi: *M. I. Afzalov.*

Navoiy bilan mardikor — Aytuvchi: *Sheroziy.* Yozib oluvchi: *Buyuk Karim.* Xorazm viloyati. Xiva. 1936-yil. Inv. 607. Nashrga tayyorlovchi: *M. I. Afzalov.*

Navoiy bilan cho'pon — To'plovchi: *M. I. Afzalov.*

Ibn Sino va jinni — To'plovchi va nashrga tayyorlovchi: *M. Mahmud.*

Johil podsho va Abu Ali — To'plovchi va nashrga tayyorlovchi: *M. Mahmud.*

Ziyod Botir — Aytuvchi: *To'rajon ota.* Yozib oluvchi: *Jamoliddin Asomiddinov.* Toshkent. 1944-yil. Inv. 187. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul.*

To'lg'onoy — Aytuvchi: *Fozil Yo'ldosh o'g'li.* Yozib oluvchi: *Buyuk Karim.* 1936-yil. Inv. 566. Nashrga tayyorlovchilar: *M. I. Afzalov* va *X. Rasul.*

Ikki tabib — Qayta ishlab, nashrga tayyorlovchi: *M.I.Afzalov.* 1971-yil.

Xurshid bilan Laylo — Qayta ishlab, nashrga tayyorlovchi: *M.I.Afzalov.* 1971-yil.

Besh jonlini bejon qilgan Bahodir — To'plovchi: *M. Aliyev.* Nashrga tayyorlovchi: *M. Mahmud.* 1964-yil.

Dod — To'plovchi: *M. Aliyev.* Nashrga tayyorlovchi: *M. Mahmud.* 1964-yil.

To'qqiz dangasa — To'plovchi: *M. Aliyev.* Nashrga tayyorlovchi: *M. Mahmud.* 1962-yil.

Zulxumor — To'plovchi: *M. Aliyev.* Nashrga tayyorlovchi: *M. Mahmud.* 1964-yil.

I z o h: „O'zbek xalq ertaklari" to'lpamiga kirgan „Ayiq polvon", „Dunyoda yo'q hunar", „Oltin qiz", „Murqumomo", „Mahmud yamoqchi", „Cho'pon Ali" kabi bir necha ertaklarni Andijon pedagogika instituti, folklor etnografiya to'garagiga qatnashuvchi talabalar adabiyot o'qituvchisi, filologiya fanlari kandidati Hoshimjon Razzoqov rahbarligida to'plaganlar.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

MUNDARIJA

Jovur chol 5
Janon piyola 9
Quloqboy 18
Bahrom va Sherzod 27
Murqumomo 32
Hunarning xosiyati 38
Opa-uka 41
O‘ynang, kuchugim, o‘ynang! 45
Kulsa — gul, yig‘lasa — dur 49
Cho‘pon Ali 54
Zumrad va Qimmat 56
Oltin olma 61
Bola — podshodir 63
Tan sihatlik — tuman boylik 64
Dono qiz 65
Bo‘z bola 67
Vafo 76
Mahmud yamoqchi 79
Nurilla boyvachcha 81
Noshud bola 87
Hunarli yigit 90
Boy bilan novcha 95
Zolim podsho 99
Baliqchi bola 103
Karimboy bilan xizmatkor 107
Botir 109
Soqi mumsik bilan Boqi mumsik 112
O‘pka qishlog‘i 114
Dehqon 115
Kanizak bilan podsho 118
Tuhmat balosi 120
Xasis boy bilan Abdurahmon o‘g‘ri 129
Guliqahqah 136
Tentak podsho 143
Oltmish og‘iz yolg‘on gap 145
Alvasti 150
Avom folchi 153
Baxtli kal 165
Ayyor bilan sodda 172
Yetti ahmoq 174

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kuygan chol 175
Topqinchilar 177
Xasis boy va uning o‘g‘illari 182
Qirq yolg‘on 183
Garang 193
Donishmand cho‘pon 196
Ahmoq jo‘ralar 199
Chol bilan kampir 203
Qozining makri 206
Ikki o‘rtoq 213
Yamoqchi bilan Shog‘arib 214
Mulla Tappak 222
Botmon daxsar 225
Andijonlikning hikoyasi 227
Eralixon va uch o‘g‘ri 231
Qaysi yerda chivin yo‘q 233
Bajarib bo‘lmaydigan buyruq 234
Lofchining qizi 235
O‘g‘ri va podshoh 236
Zulm va qasos 238
Uch yolg‘onda qirq yolg‘on 243
Rustam 249
Doro va Iskandarbek 259
Shoxli Iskandar 264
Luqmoni hakim 266
Kimyogar 277
Ayoz 280
Hotam 295
Arab laqqi 314
Navoiy bilan yamoqchining o‘g‘li 316
Navoiy bilan mardikor 319
Navoiy bilan cho‘pon 321
Ibn Sino va jinni 323
Johil podsho va Abu Ali 325
Ziyod botir 331
To‘lg‘onoy 341
Ikki tabib 347
Xurshid bilan Laylo 350
Besh jonlini bejon qilgan Bahodir 357
Dod 362
To‘qqiz dangasa 366
Zulxumor 372

To‘plamdagi ertaklarni aytuvchi va yozib oluvchilar 378

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

O‘ 16 **O‘zbek xalq ertaklari.** K.III/Tuzuvchilar: M. Afzalov, X. Rasulov, Z. Husainova.T.: „O‘qituvchi“ NMIU, 2007. — 384 b.

I. Afzalov M. (Tuzuvchi)

BBK 82. 3(5U)

O‘ZBEK XALQ ERTAKLARI

III jildlik

III jild

„O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2007

Texnik muharrirlar
T. Greshnikova, S. Tursunova

Kompyuterda sahifalovchi
N. Kuzayeva

Musahhihlar
M. Ibrohimova, N. Jumayeva

IB № 8888

2006-yil 15-dekabrda original-maketdan bosishga ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/8. Kegli 12 shponli. Tayms garn. Ofset bosma usulida bosildi. Shartli b. t. 44,64+3,72 rangli vkl. Nashr t. 30,75+2,21 rangli vkl. 10 000 nusxada chop etildi. Buyurtma № 165.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining „O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent — 129, Navoiy ko‘chasi, 30- uy. // Toshkent, Yunusobod dahasi, Murodov ko‘chasi, 1- uy. Shartnoma № 12—163—06/3.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT — 2007

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

ABDULLA QODIRIY

O'TKAN KUNLAR

Roman

"SHARQ" NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT — 2007

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
Q—53

Tahrir hay'ati:

Omonulla YUNUSOV *(hay'at raisi),* Bobur ALIMOV, Said AHMAD, Ahror AHMEDOV *(hay'at raisi o'rinbosari),* Naim KARIMOV, Tohir MALIK, Murodjon MANSUR, Omon MUXTOR, Umarali NORMATOV, Anvar OBIDJONOV, Shuhrat RIZAYEV, Nosir FOZILOV, Islom SHOG'ULOMOV, Ibodulla SHOYMARDONOV, Erkin MALIKOV *(hay'at kotibi),* O'tkir HOSHIMOV.

Qodiriy, Abdulla.

O'tkan kunlar. Roman. /«Asr oshgan asarlar» turkumi / Tahrir hay'ati: Omonulla Yunusov va boshq. — T.: «Sharq», 2007. — 384 b.

Yangi «Asr oshgan asarlar» turkumi «XX asr o'zbek romani» turkumiga kirgan asarlar va boshqa o'qimishli qissalar, romanlarni saralash mevasi. Abdulla Qodiriydek buyuk so'z san'atkori tamal toshini qo'ygan Yangi o'zbek adabiyoti yaratgan, Zamon sinoviga dosh bergan, So'z sehriga oshufta elga manzur bo'lgan eng sara asarlarni tortiq etadi. Xalqning bolakaydan tortib turfa yoshdagi vakillari ma'naviy va madaniy ehtiyojlarini qanoatlantiradi, kitob javonidan joy oladi. Turkumni «O'tkan kunlar» bilan boshlanishida ham ma'naviy vorislik namoyon bo'ladi.

BBK. 84. (5U)I

ISBN 978-99-43-00-166-4

325837

© «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2007.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Yozg‘uchidan

Modomiki, biz yangi davrga oyoq qo‘ydik, bas, biz har bir yo‘sunda ham shu yangi davrning yangiliklari ketidan ergashamiz va shunga o‘xshash dostonchiliq, ro‘monchiliq va hikoyachiliqlarda ham yangarishg‘a,[1] xalqimizni shu zamonning «Tohir-Zuhra»lari, «Chor darvesh»lari, «Farhod-Shirin» va «Bahromgo‘r»lari bilan tanishdirishka o‘zimizda majburiyat his etamiz.

Yozmoqqa niyatlanganim ushbu — «O‘tkan kunlar», yangi zamon ro‘monchilig‘i bilan tanishish yo‘lida kichkina bir tajriba, yana to‘g‘risi, bir havasdir. Ma’lumki, har bir ishning ham yangi — ibtidoiy davrida talay kamchiliklar bilan maydong‘a chiqishi, ahllarining yetishmaklari ila sekin-sekin tuzalib, takomulga yuz tutishi tabiiy bir holdir. Mana shuning daldasida havasimda jasorat etdim, havaskorlik orqasida kechaturgan qusur va xatolardan cho‘chib turmadim.

Moziyg‘a[2] qaytib ish ko‘rish xayrlik, deydilar. Shunga ko‘ra mavzu’ni moziydan, yaqin o‘tkan kunlardan, tariximizning eng kirlik, qora kunlari bo‘lg‘an keyingi «xon zamonlari»dan belguladim.

Abdulla Qodiriy (Julqunboy)

---

[1] Y a n g a r m o q — yangilanmoq.
[2] M o z i y — o‘tmish, o‘tgan zamon.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Birinchi bo‘lim

1. OTABEK YUSUFBEK HOJI O‘G‘LI

1264-inchi hijriy, dalv[1] oyining o‘n yettinchisi, qishki kunlarning biri, quyosh botqan, tevarakdan shom azoni eshitiladir...

Darbozasi sharqi-janubiyga qaratib qurilg‘an bu dong‘dor saroyni Toshkand, Samarqand va Buxoro savdogarlari egallaganlar, saroydagi bir-ikki hujrani istisno qilish bilan boshqalari musofirlar ila to‘la. Saroy ahli kunduzgi ish kuchlaridan bo‘shab hujralariga qaytqanlar, ko‘b hujralar kechlik osh pishirish ila mashg‘ul, shuning uchun kunduzgiga qarag‘anda saroy jonliq: kishilarning shaqillashib so‘zlashishlari, xoxolab kulishishlari saroyni ko‘kka ko‘targudek.

Saroyning to‘rida boshqalarg‘a qarag‘anda ko‘rkamrak bir hujra, anovi hujralarga kiygiz to‘shalgani holda bu hujrada qip-qizil gilam, uttalarda[2] bo‘z ko‘rpalar ko‘rilgan bo‘lsa, munda ipak va adras ko‘rpalar, narigilarda qora charog‘ sasig‘anda, bu hujrada sham’ yonadir, o‘zga hujralarda yengil tabi’atlik, serchaqchaq kishilar bo‘lg‘anida bu hujraning egasi boshqacha yaratilishda.

Og‘ir tabi’atlik, ulug‘ g‘avdalik, ko‘rkam va oq yuzlik, kelishgan, qora ko‘zlik, mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabz urgan bir yigit. Bas, bu hujra bino va jihoz yog‘idan, ham ega jihatidan diqqatni o‘ziga jalb etarlik edi. Qandog‘dir bir xayol ichida o‘lturg‘uchi bu yigit Toshkandning mashhur a’yonlaridan bo‘lg‘an Yusufbek hojining o‘g‘li — Otabek.

Saroy darbozasidan ikki kishi kelib kirgach, ulardan biravi darboza yonidag‘i kimdandir so‘radi:

---

[1] D a l v — 22 yanvar — 22 fevral.
[2] U t t a — u yerda.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Otabek shu saroyga tushkanmi?

Bizga tanish hujra ko‘rsatilishi bilan ular shu tomonga qarab yurdilar. Bu ikki kishining bittasi gavdaga kichik, yuzga to‘la, ozroqqina soqol-murtlik, yigirma besh yoshlar chamaliq bir yigit bo‘lib, Marg‘ilonning boylaridan Ziyo shohichi deganning Rahmat otliq o‘g‘lidir, ikkinchisi: uzun bo‘ylik, qora cho‘tir yuzlik, chag‘ir ko‘zlik, chuvoq soqol, o‘ttuz besh yoshlarda bo‘lg‘an ko‘rimsiz bir kishi edi. Bu yigit yaxshig‘ina davlatmand bo‘lsa ham, lekin shuhrati nima uchundir boyligi bilan bo‘lmay, «Homid xotinboz» deb shuhratlangan, kishilar Homid orqasidan so‘zlashkanda uning otig‘a taqilg‘an laqabni qo‘shib aytmasalar, yolg‘iz «Homidboy» deyish ila uni tanita olmaydirlar. Homidning Otabek bilan tanishlig‘i bo‘lmasa ham Rahmatka yaqin qarindosh— Ziyo shohichining qaynisi, Rahmatning tog‘asi.

Ular hujraga kelib kirdilar. Otabek kelguchilarni ulug‘lab qarshiladi.

— Bizni kechirasiz, bek aka, — deb Rahmat uzr aytdi, — vaqtsiz kelib sizni tinchsizladik.

Otabek ularga yuqoridan joy ko‘rsatar ekan, yoqimliq bir vaziyatda:

— Tinchsizlamadingizlar, bil’aks quvontirdingizlar,— dedi, — shahringizga birinchi martaba kelishim bo‘lg‘ani uchun tanishsizliq, yolg‘izliq meni juda zeriktirgan edi.

Shu orada hujraga bir chol kirib ul ham mehmonlar bilan so‘rashib chiqdi. Bu chol Hasanali otliq bo‘lib, oltmish yoshlar chamasida, cho‘ziq yuzlik, do‘nggiroq peshonalik, sariqqa moyil, to‘garak qora ko‘zlik, oppoq uzun soqollik edi. Soqolining oqlig‘iga qaramasdan uning qaddida keksalik alomatlari sezilmas va tusida ham uncha o‘zgarish yo‘q edi.

Otabek mehmonlarni tanchaga o‘tquzib, fotihadan so‘ng Hasanalidan so‘radi:

— Tuzukmisiz, ota?

— Xudoga shukur, — dedi Hasanali, — boyag‘idan bir oz yengilladim. Mazmuni is tekkan ekan.

— Ba’zi yumushlar buyursam...

— Buyuringiz, o‘g‘lim.

— Rahmat, ota, bo‘lmasa bizga choy qaynatib bersangiz-chi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Xo‘b, begim.

Hasanali chiqdi. Rahmat Otabek bilan yana bir qaytib sog‘liq so‘rashqandan keyin so‘radi:

— Bu kishi kimingiz bo‘ladir, bek aka?

Otabek Rahmatning savoliga javob bermay eshikka qaradi. Hasanalini hujradan uzoqlatib so‘ngra javob berdi:

— Qulimiz.

Bu so‘zdan nima uchundir Homid ajablangan edi.

— Qulingiz?

— Shundog‘.

Hasanalini bolaliq vaqtida Erondan kishi o‘g‘irlab kelguchi bir turkman qo‘lidan Otabekning bobosi o‘n besh tillo barobariga sotib olgan edi. Hasanalining Otabeklar oilasida qulliqda bo‘lg‘anig‘a elli yillar chamasi zamon o‘tib, endi Otabeklar oilasining chin bir a’zosi bo‘lib ketkan. Xo‘jasi Yusufbek hojiga, ayniqsa, xo‘jazodasi Otabekka itoat va ixlosi tom[1] bo‘lib, buning evaziga ulardan ham ishonch va hurmat ko‘rar edi. Hasanali o‘ttuz yoshliq vaqtida sotib olg‘an bir cho‘riga uylantirilgan bo‘lsa ham, ammo o‘g‘il-qizlari bo‘lmag‘an, bo‘lsalar ham yoshliqda o‘lib ketkanlar. Shuning uchun bo‘lsa kerak, Otabekka ixlos qo‘yib, unga o‘z bolasi kabi qarar: «O‘lganimdan keyin ruhimga bir kalima qur’on o‘qusa, bir vaqtlar Hasanali ota ham bor edi deb yodlasa, menga shunisi kifoya» deb qaror bergan va hozirdan boshlab Otabekka bu to‘g‘rida sipo-rishlar[2] berib, undan samimiy va’dalar olib yurg‘uchi oq ko‘ngil bir qul edi.

Hasanali ustida bo‘lg‘an haligi gapdan keyin Rahmat so‘radi:

— Toshkanddan nimalar keltirdingiz, bek aka?

— Arzimagan narsalar: gazmol, qalapoy afzali va bir oz qozon.

— Marg‘ilonda gazmol bilan qalapoy afzalining bozori chaqqon, — dedi Homid.

Otabek miqrozi bilan sham’ so‘xtasini kesib tuzatdi. Orada yotsirashka o‘xshash bir hol bor, nima uchundir bir so‘zlab ikki to‘xtar edilar. Bu o‘ng‘aysiz holatdan chiqish va, so‘zg‘a ulab yuborish uchun Rahmat tirishkandek ko‘rinar edi.

---

[1] T o m — to‘la, to‘liq.

[2] S i p o r i sh — topshiriq.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Marg‘ilonni qanday topdingiz, bek aka, xushlandingizmi, yo?..

Bu savolning javobiga Otabek ikkilangandek va o‘ng‘aysizlang‘andek bo‘ldi.

— Nima desam ekan... Marg‘ilonni har holda... xush ko‘rdim, Marg‘ilon Turkistonimizning to‘qug‘uchiliq hunarida birinchi shahridir.

Ikkilanib berilgan bu javobdan Homid bilan Rahmat bir-birlariga qarashib oldilar. Otabek bu holatni sezdi va o‘zining so‘zini kulgulikka olib izoh berdi:

— Kelgan kunimdan Marg‘iloning‘izni xushlamay boshlag‘an edim. Chunki tanishlarim yo‘q, musofirchilik bilinib qolayozg‘an edi. Endi bu soatdan boshlab Marg‘ilondan roziman, negaki, yo‘qlab kelguchi sizning kabi qadrdonlar ham bo‘lur ekan.

— Kechiringiz, bek aka, — dedi Rahmat, — men sizning Marg‘ilon kelganingizni bu kun otamdan eshitdim. Yo‘qsa, albatta sizni zeriktirmas edim.

— Aniqmi?

— To‘g‘ri gap, — dedi Rahmat, — otam Toshkand borg‘anlarida to‘p-to‘g‘ri sizning eshikingizga tushsinlarda, siz saroyga tushing. Bu taraf bilan sizdan o‘pkani biz qilsaq arziydir.

— Haqqingiz bor, — dedi Otabek, — ammo birinchidan, sizning havlingizni so‘rog‘lab topish menga qiyinroq ko‘rindi, undan so‘ng molimizni ortg‘an tuyakashlar shu saroyg‘a tayinlang‘an edilar.

— Har holda bu uzr emas.

Hasanali dasturxon yozib qumg‘on kirgizdi. Odatiy takalluflar bilan dasturxon va choyga qaraldi. Homid nonni shinniga bulg‘ar ekan so‘radi:

— Yoshingiz nechada, bek?

Otabekning labi qimirlamasdan choy quyib o‘tirgan Hasanali javob berdi:

— Bekka xudo umr bersa, bu yil hamduna bo‘lsa to‘ppa-to‘g‘ri yigirma to‘rt yoshga qadam qo‘yadilar.

— Yigirma to‘rt yoshga kirdimmi, ota? — dedi bek. — Chindan ham necha yoshga kirganimni o‘zim bilmayman.

— Yigirma to‘rt yoshga kirdingiz, bek.

Homid tag‘in so‘radi.

— Uylanganmisiz?

— Yo‘q.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Hasanali Otabekning yolg'iz «yo'q» bilan to'xtashiga qanoatlanmadi va bu to'g'rida o'z tomonidan izohlar berishni lozim ko'rdi:

— Bek uchun bir necha joylarga qiz aytdirmak istalingan bo'lsa ham, — dedi, — avval taqdir bitmaganlik, undan keyin bekning uylanishka bo'lg'an qarshiliqlaridan bu kungacha to'y qilolmay kelamiz. Ulug' xo'jamizning qat'iy niyatlari bu safardan qaytg'ach bekni uylandirishdir.

— Manimcha, uylanishdek nozik bir ish dunyoda yo'qdir, — dedi Rahmat va Otabekka yuz o'girdi. — Uylangach, xotining tab'ingga muvofiq kelsa bu juda yaxshi; yo'qsa, munchalik og'ir gap dunyoda bo'lmas.

Otabek Rahmatning bu so'zini samimiyat bilan qarshiladi.

— So'zingizning to'g'rilig'ida shubha yo'q, — dedi,— ammo shuni ham qo'shmoq kerakki, oladirg'on xotiningiz sizga muvofiq bo'lishi barobarida er ham xoting'a muvofiquttab'[1] bo'lsin.

— Xoting'a muvofiq bo'lish va bo'lmasliqni uncha keragi yo'q, — dedi Homid e'tirozlanib, — xotinlarga «er» degan ismning o'zi kifoya... ammo jiyan aytkandek, xotin degan erga muvofiq bo'lsa bas.

Rahmat kulib Otabekka qaradi. Otabek ham istehzolik tabassum orasi Homidga ko'z qirini tashladi.

— Uylanishdagi ixtiyorimiz, — dedi Rahmat, — ota-onalarimizda bo'lg'anliqdan, oladirg'an kelinlari o'g'illarig'a yoqsa emas, balki uning ota-onalari o'zlariga yoqsa bas. Bu to'g'rida uylanguchi yigit bilan er qilg'uchi qizning lom-mim deyishka haq va ixtiyorlari bo'lmay, bu odatimiz ma'qul va mashru' ishlardan emasdir. Masalan, men ota-onamning yoqdirishlari bilan uylandim... ammo xotinim ota-onamga muvofiq bo'lsa ham menga muvofiq emas, siz aytgandek, ehtimol men ham xotinimg'a muvofiq emasdirman... So'zingiz juda to'g'ri, bek aka.

Otabek Rahmatning so'zini ixlos bilan eshitdi va «sen nima deysan?» degandek qilib Homidga qaradi.

— Jiyan, — dedi Homid Rahmatka qarab, — boshlab uylanishing albatta ota-onang uchun bo'lib ulardan ranjib yurishingni o'rni yo'q. Xotining ko'nglingga

---

[1] Muvofiquttab' — ta'bga mos, munosib.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
muvofiq kelmas ekan, muvofiqini olib, xotinni ikki qil. Bunisi ham kelishmasa uchunchisini ol. Xotinim muvofiq emas deb zorlanib, hasratlanib yurish er kishining ishi emas.

Rahmat Otabekka kulimsirab qaradida, tog'asig'a javob berdi.

— Xotin ko'paytirib, ular orasida azoblanishning nima hikmati bo'lsin? — dedi. — Bir xotin bilan muhabbatlik umr kechirmak, manimcha, eng ma'qul ish. Masalan, ikki xotinliqning bittasi sizmi? Uyingizda har kuni janjal, bir daqiqa tinchlig'ingiz yo'q.

— Seningdek yigitlar uchun albatta bitta xotin ham ortiqchaliq qiladir, — deb kuldi Homid. — Ko'b xotin orasida azoblanish o'zi nima degan so'z? Qamchingdan qon tomsa, yuzta xotin orasida ham rohatlanib tiriklik qilasan. Men bu kungacha ikki xotin o'rtasida turib janjalg'a to'ygunimcha yo'q, ammo xotinni uchta qilishg'a ham o'yim yo'q emas.

— Sizga taraf yo'q, tog'a.

Homid mag'rur bir tusda Otabekka qaradi. Otabek uning so'zidan kulimsiragan edi.

Hasanali palovg'a urnash uchun tashqariga chiqdi. Otabek mehmonlarga choy quyib uzatdi. Homidning haligi so'zidan keyin oradag'i bahs kesilgan edi. Uchovlari ham bir narsaning xayolini surgandek ko'rinar edilar. Bir necha vaqt shu holda qolishib Rahmat tog'asidan so'radi:

— Mirzakarim aka qizini erga berdimi, eshitdingizmi?

Bu savoldan nima uchundir Homidning chehrasi buzildi va tilar-tilamas javob berdi:

— Bundan xabarim bo'lmadi. Gumonimcha, bermagandir.

Rahmat so'zdan chetda qoldirmas uchun Otabekni ham orag'a oldi:

— Bizning Marg'ilonda bir qiz bor, — dedi, — shundog' ko'hlikki, bu o'rtada uning o'xshashi bo'lmas, deb o'ylayman.

Homid bir turlik vaziyatda yer ostidan jiyaniga qaradi. Tog'asining holidan xabarsiz Rahmat so'zida davom etti:

— Shahrimizda Mirzakarimboy otlig' bir savdogar kishi bor, bu shuning qizidir. Balki siz Mirzakarim akani

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

tanirsiz, u bir necha vaqt Toshkandda qutidorliq qilib turg'an ekan?

— Yo'q... Tanimayman.

Homidning yuzidagi boyag'i holat yana ham kuchlanib go'yo toqatsizlang'andek ko'rinar edi, Rahmat davom etti:

— Uning havlisi poyafzal rastasining burchagidagi imoratdir. O'zi davlatmand bir kishi; Toshkand ashroflarining[1] ko'blari bilan aloqador bo'lg'anliqdan balki otangiz bilan tanish chiqar.

— Ehtimol, — dedi Otabek va nima uchundir g'ayriixtiyoriy bir tebrandi. Uning yuzida bir o'zgarish va vujudida bir chayqalish bor edi. Undagi bu o'zgarishdan Rahmat xabarsiz bo'lsa ham, ammo Homid uni yer ostidan ta'qib etar edi. Bu ta'qib Otabekdagi haligi o'zgarishni payqabmi yoki tasodifiymi edi, bu to'g'rida bir mulohaza aytish, albatta mumkin emas. Yana bir necha vaqt jim qoldilar.

— Endi biznikiga qachon mehmon bo'lasiz, bek aka?

Rahmatning bu so'zi bilan Otabek xayolidan bosh ko'tardi:

— Xudo xohlag'an vaqtda bo'larmiz...

— Yo'q, bek aka, — dedi Rahmat, — siz aniqlab bir kunni tayin qilingiz, biz bu yerga sizni taklif qilg'ali kelganmiz.

— Ovora bo'lmoqning nima zarurati bor?

— Bunda ovora bo'lish degan narsa yo'q. Iloji bo'lsa sizni bu saroydan havlig'a ko'chiramiz. Hozirga bir kunni tayin qilib bizga mehmon bo'ling-chi... Otam sizning bilan o'lturishib Toshkand ahvolotini so'zlashmakka mushtoqdirlar.

— Bu saroydan sizlarnikiga ko'chishim og'ir, — dedi Otabek, — ammo otangizning ziyoratlariga borishg'a har qachon hozirman.

— Sog' bo'ling, bek aka, boradirg'an kuningizni tayin qila olasizmi?

— Ma'lumingiz, kechalari bo'sh bo'laman, shuning bilan birga otangiz qaysi vaqtni ixtiyor qilsalar ijobat etishdan o'zga choram bo'lmas.

— Salomat bo'lingiz, — dedi Rahmat, — shuni ham sizdan so'rayin: o'lturishka begona kishilar ham aytilsa

---

[1] Ashrof — e'tiborli kishilar, ulug'lar.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
mumkinmi, ozor chekmasmisiz? Chaqirilg'anda ham o'zimizga yaqin va ahl kishilar bo'lur, masalan, Mirzakarim qutidor kabi.

Bu vaqt Otabekning tusiga ham haligidek o'zgarish chiqdi ersada, lekin sezdirmaslikka tirishib javob berdi:

— Manim uchun farqsiz.

Oshdan so'ng mehmonlar bilan xayrlashib chiqdilar.

2. XON QIZIG'A LOYIQ BIR YIGIT

Otabek o'zi bilan ko'rishgan mundaki ikki yot kishini tanimaganliqdan bir-ikki qayta ularni ko'z ostidan kechirdi. Buni payqag'an Ziyo shohichi Otabekka tanitdi:

— Amakilaringizni siz tanimag'andirsiz albatta, — dedi. — Bu kishi otangizning yaqin do'stlaridan Mirzakarim qutidor. Bu zot Andijon savdog'arlaridan Akram hoji.

Mirzakarim ismlik qirq besh-elli yoshlar chamasida qora qosh, qora ko'z, ko'rkam yuz, yaxshig'ina kiyingan bir kishi bo'lib, Akram hoji elli besh yoshlar orasidag'i bir keksa edi. Otabek qaytadan Mirzakarim qutidorni ko'zdan kechirdi.

— Ota qadrdonlari bilan tanishdirg'aningiz uchun rahmat, amak, — dedi va Akram hoji bilan Mirzakarim akaga tavozu'landi. — Otam sizlardek yaqin do'stlariga salom aytishni menga amonat topshirg'an edilar.

— Rahmat, sog' bo'lsinlar.

Majlis Ziyo shohichining uyida Otabekning mehmondorchilig'i uchun yig'ilg'an, yuqorida ismlari o'tkan zotlardan boshqa Homid, Rahmat ham Hasanali bor edilar. Tanishdirishdan so'ng Otabek bilan qutidorning ko'zlari bir-birlariga tez-tez uchrasha boshladilar. Qutidor nimanidir Otabekdan so'ramoqqa og'zini jo'plab tursa ham Akram hoji bilan Ziyo shohichining allanarsa to'g'risidag'i gaplari keti uzilmay davom etar edi. Ularning ko'zi uchunchi to'qnashishida qutidor kulimsirab qo'yib so'radi:

— Meni eslay olasizmi, bek?

Otabek diqqat va e'tibor bilan qutidorni kuzatib javob berdi:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Yo‘q, amak.

— Necha yoshg‘a bordingiz?

— Yigirma to‘rt yoshg‘a...

Qutidor o‘zicha nima to‘g‘risidadir hisob yuritdi-da:

— Voqi’an siz meni eslay olmassiz, — dedi. — Men Toshkandda qutidorlik qilg‘an vaqtimda siz taxminan besh-olti yoshliq bola edingiz... Go‘yoki, men Toshkandda kechagina turg‘andek va kechagina sizning havlingizda mehmon bo‘lg‘andekman... Ammo, haqiqatda, oradan o‘n besh-yigirma yil o‘tib, siz ham katta yigit bo‘lgansiz, umr — otilg‘an o‘q emish.

— Siz bizning havlida bo‘lganmisiz?

— Ko‘b martalab mehmon bo‘ldim, — dedi qutidor, — ul vaqtda bobongiz ham hayotda edilar.

Bu ikkisining so‘zlariga quloq solib chetda o‘lturgan Hasanali ham gapga aralashdi:

— Amakingiz bizning havlig‘a kelib turadigan vaqtlarida siz yosh bola edingiz, bek, — dedi. — Amakingiz sizni saroylarga ham olib tushar edilar.

Otabek uyaluv aralash kulimsirab qutidorg‘a qaradi:

— Taassufki, eslay olmayman, — dedi. Qutidor tag‘in nimadir aytmoqchi bo‘lg‘an edi, Akram hoji unga yo‘l bermadi.

— Hoji akamiz bu kunda qanday ish bilan mashg‘ullar?

Otabek:

— Toshkand begi yonida mushovir[1] sifati bilan turadilar.

— Azizbek bu kunda ham Toshkandga hokimdir?

— Shundog‘.

— Sotqi bek ketsin, Aziz bachcha deng, — dedi Homid va Akram hojiga qarab kuldi. — Yaqindag‘ina Musulmon cho‘loqning bazimi shu Aziz bachcha bilan qizir edi, — dedi, ulug‘ bir narsa kashf etgandek mag‘rur, majliska qarab chiqdi. Homidning zaruratsiz ayb tekshirishi majliska yotroq tuyilgan bo‘lsa kerak bir-birlariga qarashib oldilar. Bu o‘rinsiz tekshirish majlisni bir oz sukutga yubordi-da, so‘ngra Akram hoji savolida davom etti:

— Hokimingiz juda zolim emish, bu to‘g‘ri so‘zmi?

---

[1] M u sh o v i r — maslahatchi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— To‘g‘ri so‘z, — dedi bek. — Azizbek zulmidan aholi juda to‘yg‘an.

Otabekning bu javobidan yolg‘iz Akram hojigina emas balki, majlisning boshqa a’zolari ham ajablandilar.

Otasining valine’mati[1] bo‘lg‘an bir bekning zulmini iqror etish haqiqatan ham taajjubka loyiq edi. Azizbekning Turkiston xonlig‘ining eng zolim va mustabid sanalg‘an beklarining biri va uning o‘z qaramog‘ida bo‘lg‘an Toshkand aholisiga qilg‘an zulmlari Farg‘onaga doston, ammo Akram hojining bu savoli Azizbekning eng yaqini bo‘lg‘an bir kishining o‘g‘lini sinab ko‘rishlik uchun edi. Bu sinash natijasi Akram hojining taajjubini orttirdi va buning sirrini bilishka qiziqsindi:

— Otangiz Azizbekning mushoviri ekan, — dedi Akram hoji, — nima uchun uni bir oz bo‘lsa ham yo‘lg‘a solmaydir?

— Kechiringiz, amak, — deb Otabek kulimsiradi,— siz otamning mushovirlig‘ini boshqacharoq onglag‘ang‘a o‘xshadingiz... Bizning beklarga hukm vaqtida ham mushovir bo‘lmoq imkonsiz narsadir. Otam Azizbekning mushoviri va yaqin musohibi[2] sanalsa ham va lekin bu juz’iy ishlardaginadir, buning uchun sizga bir misol keltiray, bu ish shu yaqin oralardag‘ina bo‘ldi: Toshkanddagi jum’alik gap majlislaridan birida bir kishi Azizbekni maxtar va bu maxtovg‘a qarshi ikkinchisi «nega munchalik maxtaysan, Azizbekning asli bir bachcha-da» der. Ularning bu muzokaralarini chetda eshitib turgan xufiyalardan biri bu so‘zni Azizbekning qulog‘iga yetkazur. Ertasiga Azizbek mazkur ikki kishini o‘z huzuriga oldirib maxtovchig‘a ulug‘ mansab ato qilar va ikkinchisini o‘limga buyurar... Bu hukm majlisida hozir turgan otam mahkumning gunohini so‘raganida Azizbek jallodga baqirar: «Tezroq olib chiq!» Otam tag‘in qulliq qilg‘anida jallodg‘a buyurar: «Qo‘lingdag‘ini bo‘shatib, o‘rniga hojini olib chiq!» — Mana ko‘rdingizmi, otamning qadru qiymatini.

— Bo‘lmasa aholi xong‘a shikoyatnoma yozmaydirmi?

---

[1] V a l i n e’ m a t — aslida ne’mat egasi, boquvchi, qayerda «Xo‘jain» ma’nosida kelyapti.

[2] M u s o h i b — hamsuhbat.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Nechanchi shikoyatnomani so‘raysiz, — dedi Otabek, — Azizbekdan zulm, jafo ko‘rganlar bilan birgalikda endi o‘ninchi shikoyatnomamizni yuborg‘andirmiz... Lekin xonning yo‘lboshchisi bo‘lg‘an kishining o‘zi zulmda Azizbekdan bir necha zina baland o‘rinni ishg‘ol etkuchi kimsa bo‘lsa, biz qandog‘ qilayliq. Ammo shunisi ham borki, shu keyingi vaqtlarda Azizbek Qo‘qonning yorlig‘ va farmonlarini iltifotsiz qoldira boshladi. «Itoatdan bosh tortmasin...» degan mulohazada yozg‘an shikoyatlarimizdan markazning ko‘z yumishi ham ehtimoldir. Har holda Toshkand aholisi Azizbek istibdodidan ortiq to‘yindi, kimdan ko‘mak so‘rashg‘a ham bilmaydir.

Yusufbek hojining qanday odam ekani ayniqsa Akram hojiga onglashilib, bu to‘g‘rida ortiq bahs qilinmadi va so‘z boshqa xususlarga o‘tdi.

Ziyofat samimiyat bilan chaqirilg‘anliqdan dasturxon qadrlik mehmonga maxsus turlangan edi. Ziyo shohichi bilan o‘g‘li Rahmatning har zamon mehmonlarni dasturxonga qistashlari boshqalarning ishtahalarini ochishg‘a sabab bo‘lsa ham, ammo bizning Otabekka sira ham asar qilmas, xayollanib o‘ltirar edi. Ul nima to‘g‘rida xayol surib, qaysi to‘g‘rida o‘ylar edi — buni bilish qiyin bo‘lsa ham, biroq uning hozirgi ba’zi harakatlari diqqatni jalb etarlik edilar: xayol surar ekan, uning ko‘zlari ixtiyorsiz kabi qarshisidagi qutidorg‘a qaraydirlar, qutidorning ko‘zi o‘ziga tushdi deguncha ko‘zini undan olib dasturxondagi ko‘ngli tilamagan narsalarga urina boshlaydir... Otabekning bu holini majlisdagilar sezmasalar-da, ammo Homid uni ta’qib etkandek edi.

— Savdo bilan qanday shaharlarga bordingiz, bek?— deb qutidor so‘radi.

— O‘zimizning shaharlardan ko‘pini ko‘rdim, — dedi bek, — o‘ris shahardan Shamayga[1] ham bordim.

— Ha, ha, siz Shamayga ham bordingizmi? — deb Ziyo shohichi ajablandi.

— O‘tkan yil borg‘on edim, — dedi bek, — borishim noqulay bir vaqtga to‘g‘ri kelib ko‘b mashaqqatlar chekdim.

---

[1] Semipalat shahri. Xon zamonlarida Turkiston savdogarlarining o‘ris bilan olish-berish — savdo shaharlari bo‘lgandir *(mual.)*.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Chin savdogar siz emishsiz, — dedi qutidor, — biz shu yoshqa kelib hali o'zimizning kattaroq shaharlarimizni ham ko'ralmadik; siz o'risning Shamayigacha borg'ansiz.

— Yurgan daryo, o'lturgan bo'ryo emish, — dedi Akram hoji.

O'ris shaharlariga borib savdo qilg'uchilar Turkistonda juda oz hisobda bo'lib, chet ellarni ko'rgan Otabek majliska tansiqlandi. O'rislar to'g'risida allaqanday xayoliy rivoyatlar eshitib yurgan qutidor va Ziyo shohichilarning Otabekdan haqiqiy holni bilgilari kelib, undan Shamayda ko'rib, kechirganlarini so'radilar. Otabek Shamay xotirotini so'zlab berdi. O'rislarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotlarini eshitkuchilarni tongg'a qoldirib, ortiq tafsiloti bilan aytib chiqg'ach:

— Shamayga bormasimdan ilgari o'z hukmdorlig'imizni ko'rib; boshqalar ham shundaydir, deb o'ylar edim, — dedi bek, — lekin Shamay manim fikrimni ost-ust qilib, o'zimni ham butunlay boshqa kishi yasadi. Men o'risning idora ishlarini ko'rib, o'z idoramizning xuddi bir o'yinchoq bo'lg'anlig'ini iqror etishka majbur bo'ldim... Bizning idoramiz bu kungi tartibsizligi bilan ketabersa holimizning nima bo'lishig'a aqlim yetmay qoldi. Shamayda ekanman, qanotim bo'lsa, vatanga uchsam, to'ppa-to'g'ri xon o'rdasiga tushsam-da, o'risning hukumat qonunlarini birma-bir arz qilsam, xon ham arzimni tinglasa-da, barcha elga yorlig' yozib o'risning idora tartibini dasturilamal etishka buyursa, men ham bir oy ichida o'z elimni o'risniki bilan bir qatorda ko'rsam... ammo o'z elimga qaytib ko'rdimki, Shamayda o'ylag'anlarim, oshiqqanlarim shirin bir xayol emish. Bu yerda so'zimni eshitkuchi birov ham bo'lmadi, bo'lsalar ham: "Sening orzungni shu xonlar eshitadimi, shu beklar ijro qiladimi?" deb meni ma'yus qildilar. Ilgariroq men ularning gapiga bovar qilmay yursam, so'ngg'idan to'g'ri so'zni aytkanlarini bildim. Darhaqiqat, mozoristonda «hayya alalfalah»[1] xitobini kim eshitar edi.

Majlis Otabekning Shamay taassurotini maroq bilan eshitkan, shu kungacha hech kimdan eshitilmagan uning fikrlariga ajablangan edi. Istiqbol qayg'usi tushiga ham

---

[1] H a y y a a l a l f a l a h — qutqarilishga shoshilinglar, najotga kelinglar (azon chaqirig'i).

ГДБ Узбекистан
17ИНВ. № 223237

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

kirmagan bu Turkiston otalari Otabekning daruni dildan chiqarib aytkan gaplaridan hissasiz qolmadilar:

— Amiri Umarxondek odil poshsho bo'lsa, — dedi qutidor, — biz ham o'risdan oshib ketar edik.

Ziyo shohichi:

— Bizning bu holga tushishimiz o'z fe'li xo'yimizdan.

Akram hoji:

— To'g'ri.

Homid ham boshqalardan qolishmas uchun: «Xudo kofirning dunyosini bergan» deb qo'ydi.

— Manimcha, o'risning bizdan yuqoridalig'i uning ittifoqidan bo'lsa kerak, — dedi Otabek, — ammo bizning kundan-kunga orqag'a ketishimizga o'z ora nizo'imiz sabab bo'lmoqda, deb o'ylayman, boshqa xil aytkanda Ziyo amakining fikrlari qisman to'g'ri. Oramizda bu qo'rqunch holatka bahaqqi tushunadirg'an yaxshi odamlar yo'q, bil'aks buzg'uchi va nizo'chi unsurlar tomir yoyib, har zamon sodda xalqni halokat chuqurig'a qarab tortadilar. Bu kungi qora chopon[1] va qipchoq nizo'larini sizga bir timsol o'rnida ko'rsatayin: o'ylab ko'rilsin, bu nizo'lardan bizga qanchalik foyda va qipchoq og'aynilarg'a nima manfaat hosil bo'lmoqda?— Faqat bundan foydalang'uchilar ikki xalq orasig'a adovat urug'ini sochib yurg'uchi bir necha e'vogar boshluqlarg'inadir. Masalan, Musulmonqulni kim xolis odam, deb o'ylaydir? — Uning yurt uchun qon to'kishdan boshqa nimaga foydasi tegdi? Musulmonqul o'z g'arazi yo'lida orada yo'q nizolarni qo'zg'ab, kuyavi Sheralixonni[2] o'ldirdi, gunohsiz Murodxonni shahid etdi, qo'y kabi yovvosh Toshkand hokimi Salimsoqbekni o'ldirib, o'rniga Azizbekdek zolimni belguladi va o'zini mingboshi deb e'lon qilib, aqlsiz bir go'dakni (Xudoyorni) xon ko'tarib el yelkasiga mindi. Tuzuk, agar Musulmonqul bu ishlarni bir yaxshi maqsadni kuzatib qilg'anda, zolimlarni o'rtadan ko'tarib, yurtka osoyish berganda, unga kim nima deya olur edi? Holbuki, Toshkand tarixida misli ko'rilmagan Azizbek kabi vah-

---

[1] Qipchoqlar o'zbeklarni qora chopon, deb ataganlar *(mual.)*.

[2] Sheralixon Musulmonqulning singlisiga uylangan edi. Sheralixonning o'g'li Xudoyorxon, shu Musulmonqulning singlisidan tug'ildi. Musulmonqul yaxshi ish ko'rish uchun jiyani Xudoyorga qizini berib, o'ziga kuyav qilgan edi. Sheralixon Norbo'taxonning akasi, Hojibekning o'g'li *(mual.)*.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

shiyni faqat shu Musulmonqul qo'lidan oldi. Basharti, Musulmonqul chin inson bo'lsa, insondan vahshiy tug'ilganini hech kim eshitkan chiqmas. Modomiki, o'z g'arazi yo'lida istibdod orqali el ustiga hukmron bo'lg'unchilar yo'qotilmas ekanlar, bizga najot yo'qdir, magar shunday g'arazchilarni ular kim bo'lsalar ham ish boshidan quvlash va ular o'rniga yaxshi xolis odamlarni o'tquzish najotimizning yagona yo'lidir.

Otabek majliska tamoman yangi va eshitilmagan fikrlarni so'zlab ketdi, ular bekning og'zig'a anqayishib qolgan edilar. Darhaqiqat, o'z ora bitmas nizo'larning asli mansha'ini[1] ul yaxshi onglab tahlil qilar va durust qiymat berar edi. Uning shu yo'sun mulohaza va fikrlari majliska chuvalg'an ipning uchini topib bergandek bo'lib, lafzan bo'lmasa ham ma'nan ularning tahsin va olqishlarini oldi.

Otabek xufton namozi uchun tahorat olishg'a mehmonxonadan chiqg'an edi, uning keticha:

— Otaning bolasi-da, — deb Ziyo shohichi mehmonlarga qarab qo'ydi.

— Umri uzoq bo'lsin, — dedi Akram hoji, — yigitlarimiz ichida eng aqllig'i ekan... Agarda xon ko'tarish manim qo'limda bo'lsa edi, xon qilib Otabekni ko'tarar edim... O'zi o'qug'anmi?

Bu maxtovlar bilan terisiga sig'may ketkan Hasanali javob berdi:

— Toshkand Beklarbegi madrasasining[2] peshqadam mullabachchalaridan edi, lekin uch yilcha bo'ldi, xo'jamiz madrasadan olib savdo ishiga qo'ydilar.

— Xudo har narsadan ham bergan yigit ekan, — dedi qutidor.

Ahli majlis Otabekni ko'klarga ko'tarib maxtar edi, lekin Homid bu maxtashlarg'a ishtirok etmas va nimadandir g'ijing'andek ko'rinar edi. Shu orada qutidorning «uylanganmi?» deb Hasanalidan so'rashi Homidga yana boshqacha holat berdi. Hasanalining so'rag'uchig'a bekning qiz yoqdirmaslig'ini sabab ko'rsatib, shu kungacha uylanmay kelganligini tafsili bilan hikoya qilib berishidan so'ng ul toqatsizlang'andek bo'ldi:

— Balki begingizning tama'lari xon qizidadir, — dedi

---

[1] M a n s h a' — boshlanishi, kelib chiqish joyi.

[2] B e k l a r b e g i — Toshkentning oldi madrasalaridan, Eski Jo'va maydonida bo'lgan. 1923—1924-yillarda buzib yuborilgan.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

istehzo bilan Homid, — bundog‘ yigitlar uylanganlarida ham kishi qizini umr bo‘yi azob ichida o‘tkazadirlar...

Sababiga tushunish qiyin bo‘lg‘an bu istehzoga qarshi Hasanali sukut qilmadi:

— Men uning xon qizini olish maqsadi borlig‘ini bilmayman, — dedi kulimsirab, — biroq ul xon qizini olsa arzimaydirgan yigit emas... hatto zarxarid[1] quli bo‘lg‘anim holda menga ham qattig‘ so‘z aytishdan saqlang‘an bir yigit o‘z nikohida bo‘lg‘an ozod bir qizg‘a albatta zahmat bermas, deb o‘ylayman. Ba’zi xotin uradirgan va xotin ustiga xotin olib, xotinlarig‘a zulm qiladirg‘an hayvonsifat kishilardan bo‘lib ketishi menimcha ehtimoldan juda uzoqdir, inim mulla Homid...

Hasanali o‘tkan faslda Homidning o‘z og‘zidan xotinlarig‘a qarshi qamchi ishlatkanini eshitkan edi. Shunga binoan uning bu oxirg‘i jumlasi Homidni yerga qaratib, lom deyishka majol bermay qo‘ydi. Ziyo shohichi qaynisi Homidga «Tuzlatildingmi»? degandek qilib qaradi va Hasanalidan afu so‘radi:

— Kechirasiz, ota, — bizning Homidboy shunaqa qo‘lansa gaplar uchun yaratilg‘an odam.

Qutidor ham Hasanalining ko‘nglini ko‘tarib tushdi:

— Gapingiz to‘g‘ri, ota, — dedi, — Otabek xon qizig‘a loyiq bir yigit ekan.

Bahslashish uchun Homidga yo‘l qolmag‘an edi. Bir turlik iljayib yer tegidan Hasanaliga ko‘z tashladi.

Oshdan keyin boshlab Homid, so‘ngra boshqa mehmonlar tarqalishdilar. Otabek bilan qutidorning yo‘llari bir bo‘lg‘anliqdan birgalashib ketdilar. Qutidor havlisiga qayrilar ekan, bek bilan xayrlashdi:

— Albatta, birisi kun biznikiga marhamat qilasiz, tuzikmi?

— Xo‘b, amak.

— Bizniki mana shu burchakdagi eshik... Qaytag‘a bu kun biznikida qolsangiz bo‘lmasmi-a?

— Rahmat... Xayr, salomat bo‘lingiz.

Ular to‘xtab so‘zlashqan o‘rinlaridan xayrlashib uzoqlashg‘ach, shundagi bir burchakdan choponig‘a burkangan bir kishi chiqib, haligilar kelgan tomong‘a qarab yurdi...

---

[1] Z a r x a r i d — tilla barobariga sotib olingan (qul laqabi).

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

3. BEK OSHIQ

Saroy tinch uyquda, tun yarim. Hasanali hujraning uzun burama qulufini ochib ichkariga sham' yoqdi va bekning to'shagini yozib uning kirib yotishini kutib turdi. Ammo Otabek nima uchundir tez kira bermadi. Hujra eshigini ochilg'anidan, sham' yoqilib, o'rin yozilg'anidan go'yo xabarsiz kabi ustung'a suyalg'ancha qotib turar edi.

— O'rningizni yozdim, bek.

Otabek bu so'z bilan hujraga kirdi va borib to'shagi yonig'a o'lturdi. Hasanali bekning yeshinib yotishini kutib turar, chunki uni yotquzib yoqilg'an sham'ni o'zi bilan narigi hujraga olib chiqmoqchi edi. Biroq Otabek to'shagi yonig'a o'lturdida, yana o'ylab qoldi... Otabek bir necha kunlardan beri Hasanalining ko'ziga boshqacha ko'rinar edi.

Hasanali Otabekda shu kungacha ko'rilmagan qiziq bir holatka besh-olti kundan beri ajabsinib yurar edi. Hasanalini ajabsindirgan holat ham bekning shuning singari xayol ichida barchani unutib qo'yishi va boshqa ishlarga e'tibor va parvosizligi edi.

Hasanali bekning hozirg'i ipidan-ninasigacha bo'lg'an qiziq holini uzoq kuzatib turdi. Lekin Otabek xayol surishdan zerikmasa ham Hasanali kuzatishidan zerikdi.

— Menda yumushingiz yo'qmi?

Otabek bu gapni onglamadi shekillik, Hasanalining yuziga ko'tarilib qaradi-da, yana ko'zini bir nuqtag'a tikib qoldi. Bu holatdan Hasanalining andishasi ortib, bekning bunchalik angravlanishig'a qanday ma'no berishini ham bilmas edi. Otabek shu holda tag'in qanchag'achadir o'lturdi, nihoyat uyqudan uyg'ong'an kishidek so'chib o'zini kuzatkuchiga qaradi:

— Chiqib yotmaysizmi?

— Menda yumushingiz yo'qmi?

— Nima yumushim bo'lsin, sham'ni ham olib keting.

Hasanali sham'ni olib, o'z hujrasiga chiqdi. Uning hujrasi Otabekning bilan bir qatorda bo'lib, gazmol, poyafzal va shuning singari mollar ila to'lg'an va Otabekdan boshqa, alohida hujrada turishi ham shu mollarni saqlab yotish uchun edi. Hasanali o'rnini yozar ekan «tavba» deb qo'ydi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Yuqorida so‘zlang‘anidek, Otabekdagi bu holatni biror haftalardan beri payqasa ham hozirgidek andishaga tushmagan va bunchalik diqqat etmagan edi. Xo‘jazodasidagi bu holat uni har turlik mulohazalarga olib keta boshladi. To‘shagi ustiga o‘lturib, oq soqolini o‘ng qo‘li bilan tutamlab o‘ylar edi: savdo to‘g‘risida biror xato qildimi, Ziyo shohichinikida taomdan tuzukroq totinmadi, biror og‘rig‘i bormikan... Musofirchiliqda og‘risa... Ammo bu mulohazalarining bittasiga ham o‘zi qanoatlanmadi. Zero savdo to‘g‘rilari undan yashirin emas, og‘rig‘anda ham albatta shikoyat eshitar edi.

O‘ylab-o‘ylab bir narsaga ham aqli yetalmagach, o‘rnidan turib toqchada yonib turgan sham’ni o‘chirdi. Hujra orqa-o‘ngni ajratib bo‘lmasliq qorong‘ilandi. Qorong‘ida turtinib hujra eshigiga keldi-da, avaylab g‘ijirlatmay eshikni ochdi va sekingina tashqarig‘a bosh chiqarib saroyni kuzatdi. Kishi yo‘qliqqa qanoat hosil etib, mahsichan oyog‘ini ohista qo‘yib Otabek hujrasining yonida to‘xtadi, saroyni yana qarab chiqdi. Saroy qopqorong‘i, tinch uyquda, ammo bu tinchlikni saroy otxonasidagi otlarning kart-kurt xashak chaynashlari va atrofdagi xo‘rozlarning qichqirishlarig‘ina buzar edilar. Hasanali sekingina daricha ostig‘a yotib hujra ichiga quloq soldi. Hujra ichi tinch edi. Oradan uch-to‘rt daqiqa fursat o‘tib hujradan ship etkan tovush eshitmadi. Tag‘in bir necha daqiqa quloq uzmay turib, so‘ngra o‘rnidan qo‘zg‘almoqchi bo‘lg‘an edi, ichkaridan «ufff» degan ixrash eshitdi. Hasanalining quloqlari tikkayib o‘rnidan turdi, ko‘zi olalang‘an edi.

— Bek og‘riq, — dedi ko‘ngildan va jazmlanib hujra eshigiga yurib keldi. Eshikni ochib Otabek yonig‘a kirmoqchi edi. Eshikni itarishka borg‘an qo‘lini qoldirib «balki og‘riq emasdir» deb to‘xtaldi. Yana kiraymi, yo‘qmi, deb ikkilanib turg‘andan keyin yurib, o‘zining hujrasiga keldi. Ammo Otabek to‘g‘risidagi tashvishi boyag‘idan o‘n qayta ortqan edi. Yeshinib uxlarg‘a yotqan bo‘lsa ham bekning xususi uni ko‘z yumg‘ali qo‘ymadi. Bek to‘g‘risida har turlik xayollarga bormoqda edi. Yusufbek hojining «O‘g‘lim yosh, sen dunyoning issiq-sovug‘ini tatig‘an va manim ishongan kishimsan. O‘g‘limning har bir holidan xabar olib turish sening vazifangdir», deb ta’kidlashi, Otabekning onasi — O‘zbek oyimning yoshliq ko‘z bilan: «Seni xudoga,

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
Otamni senga topshirdim!» — deb yolborishlari, zorillashlari uning quloqlari ostida takrorlang'andek bo'lar edilar. Uxlab ketalmadi. Ko'ynakchan egniga choponini yopinib o'rnidan turdi, hujradan chiqib Otabek darichasi ostig'a yana kelib o'lturdi.

Tun ayoz, izg'iriq yel to'rt tarafka yugurib jon achitmakchi bo'lar edi. Hasanali yarim yalang'och holda junjayib daricha ostida, izg'iriq quchog'ida o'lturar erdi. Ul yegan sovug'ig'a iltifot etmas, vujudini izg'iriqqa topshirib, fikrini hujra ichiga yuborg'an edi. Hujra ichiga bir muncha quloq solib o'lturgandan keyin, uzun tin olib boshini tirqishdan uzdi, Otabekning pishillab uxlag'an tovshini eshitib bir darajada tinchlandi. Vasvasadan ariyozg'an bo'lsa ham o'rnidan qo'zg'almadi, nima uchundir tag'in ham sovuqqa junjib o'ltira berdi. Oradan yana bir necha daqiqa fursat o'tib, Hasanali tamom tinchlandi, ham turib ketmakchi bo'ldi va shu holatda ichkaridan uyqusirash eshitdi:

— «Qora ko'zlari, kamon qoshlari...»

— A-a-a, — dedi Hasanali va qaytadan qulog'ini tirqishg'a olib bordi. Endi uning butun borlig'i quloq bo'lib aylangan, o'zini unutib barcha diqqati hujra ichiga oqg'an edi. O'rtadan ko'b fursat o'tmadi, boyag'i uyqusirash yana takrorlandi:

— «Oy kabi yuzlar, kulib boqishlar, cho'chib qochishlar... Uff».

Hasanali uchun birinchida onglashilmay qolg'an ma'nolar bu keyingi gap bilan yeshildi. Hasanali endigi o'lturishni ortiqcha topib o'rnidan turdi, hujrasiga kirar ekan, boshini chayqab o'zicha so'zlandi:

— Bek oshiq!

O'rni ustiga choponini yopdi-da, ko'rpasi ichiga kirib o'lturdi va «chindan oshiqmi?» degan savolni ko'nglidan kechirdi. Tanish bo'lmag'an bir shaharda kimning bo'lsa ham qizig'a uchrashsin, besh-olti kun ichida bu yanglig' uyquda ham... masalaga bu jihat bilan qarab bekning ishqig'a ishongusi kelmas edi. Ammo ikkinchi tomondan qulog'i ostida bekning o'z og'zidan eshitilgan— «kulib boqishlar, cho'chib qochishlar...» jumlalari takrorlang'andek bo'lib xo'jazodasidagi bir necha kunlik o'zgarishka muhabbatdan boshqa hodisa, deb ma'no beralmas edi. Bu ikki turlik masalalarning o'ng-tersini aylandirib muhokama qildi va o'lchadi. Hasanalining

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

o‘zi tarozuning ishonmasliq pallasida bo‘lsa ham — «kulib boqishlar, cho‘chib qochishlar» hamon quloqlari ostida takrorlanar edilar. Tun tong otarg‘a yaqinlashg‘an, uning uyquliq miyasi hech bir turlik bu muammoni yesha bilmas edi. Ko‘b o‘ylasa ham bir qarorg‘a kela olmadi. Ammo ertaga bekning o‘zini sinab ko‘rmakchi bo‘lib ko‘zi uyqug‘a ketdi.

4. MARG‘ILON HAVOSI YOQMADI

Ertalabki choy hozirlang‘an. Otabek xomush o‘lturub, Hasanali ersa uning holini ta’qib etmakda edi. Oradag‘i so‘zsizlik bir piyoladan choy ichkuncha buzilmadi. Oxirida Hasanali Otabekning tusiga bir necha qayta ko‘tarilib qo‘ydi.

— Bir necha kundan beri xomushroq ko‘rinasizmi?

Otabek savol tashlag‘uchig‘a qarab oldi va tasdiq ishorasini berib:

— Bilmadim, — dedi va bir oz to‘xtab izoh berdi. — Xomushligim sizga ham sezildimi, bilmadim... Marg‘ilon havosi mizojimga to‘g‘ri kelmaganga o‘xshaydir...

— Aytkaningizdek, — dedi Hasanali. — Marg‘ilonning havosi buziq ekan, bir-ikki kundan beri manim ham ahvolim o‘zgarib boshladi. Marg‘ilondan tez jo‘namasaq men ham ishdan chiqadirg‘an o‘xshayman...

Bu gapdan keyin Hasanalining ko‘zi bekka tikilgan edi, agar tundagi uyqusirash Hasanalining o‘ylag‘an ehtimoliga to‘g‘ri kelsa, o‘zining haligi so‘zi Otabekka bir o‘zgarish berishida shubha qilmas edi.

Otabek boshi berk ko‘chada qolg‘ondek bo‘ldi, javobg‘a qiynaldi:

— Ketamiz, — dedi bir oz o‘ylang‘andan keyin, — mol baholari to‘g‘risida bitisha olmay turamiz — olg‘uchilar arzon so‘raydirlar. Shuning uchun tag‘in bir necha kun qolishimizg‘a to‘g‘ri kelarmikin. Bilmadim...

Hasanalining sinashi nihoyatiga yetkandek bo‘ldi, hatto yuqoridag‘i javobni eshitkan vaqtida nima uchundir o‘zini bir turlik kulgidan arang to‘xtatib qolg‘an edi. Yana o‘rtada xomushlik hukm surib, Hasanali ishni tuzikroq ochish va yo shu ko‘yi qoldirib ketaberish talashida edi. Hasanali bekning har bir siriga o‘zini mahkam deb hisoblag‘anliqdan, darhaqiqat,

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
Otabekka mahram bo‘lishg‘a loyiq bir mehribonchiliqqa ega bo‘lg‘anliqdan xo‘jazodasi bilan ochiq so‘zlashish fikriga keldi. Bir necha daqiqa muqaddima uchun reja qurib o‘lturgandan so‘ng tilga keldi:

— O‘g‘lim, Otabek.

— So‘zlangiz.

— Aytingiz-chi, men sizning kimingiz?

Otabek, Hasanalining maqsadig‘a tushunolmay majhul unga nazar tashladi:

— Sizmi? — deb kulimsiradi. — Otam bo‘lmasangiz ham meni otaliq muhabbati bilan suygan sodiq va mehribon bir kishimsiz — ya’ni ma’naviy otam.

— Barakalla, o‘g‘lim, — dedi Hasanali, — javobingiz o‘z o‘ylag‘animchadir. Endi sizdan shuni ham so‘rayin: xo‘jasig‘a sodiq bir qul, sizning ta’biringizcha, ma’naviy bir padar o‘z o‘g‘lig‘a yomonlik sog‘inarmi, bu to‘g‘rida javob beringiz-chi?

Otabek kutilmagan bu savoldan ajablandi:

— So‘zingizga tushunolmadim, ota, — dedi, — shundog‘ bo‘lsa ham javob beraman: bu kungacha siz yolg‘iz meninggina emas, bizning oilamizga otaliq mavqi’ida turib, yaxshiliqdan boshqani sog‘inmay kelasiz.

Hasanali tusini buzmadi:

— Ilgariroq balki shundog‘ bo‘lg‘andir, ammo endi, ayniqsa siz...

— Ayniqsa men... ochib so‘zlangiz.

— Ayniqsa sizning menga saqlag‘an ishonchingiz tugalganga o‘xshab, o‘zimdan qandog‘ kamchilik o‘tkaniga hayratdaman.

— Qiziq gaplar so‘zlaysiz, — dedi Otabek, taajjubi ortqan edi. — Menga qandog‘ yomonlik sog‘indingiz-ki, sizga ishonchim bitsin? Vasvasalanishning o‘rni yo‘q, mundan so‘ng ham sizning xayrixohona kengashlaringizga, ham vujudingizga muhtojman, amonatim, boshqam mundan keyin ham ona qornida saqlang‘andek sizda saqlanishig‘a ishonaman va bunga sizning ham amin bo‘lishingiz kerak, ota.

— Lekin... til bilan ko‘ngil boshqa-boshqadir, o‘g‘lim...

Otabek bu ters va qo‘rs muqobaladan toqatsizlandi:

— Yanglishasiz, ota.

— Yanglishmayman, bil’aks bilib, qanoatlanib so‘zlayman.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Tilim bilan ko‘nglimning boshqalig‘ini isbot qilingiz.

Hasanali ginalik qiyofada qoshlarini chimirdi va:

— Mendan yashirib yurgan bir sirringiz bor, — dedi.

— Sizdan yashirg‘on bir sirrim bor?

— Bor o‘g‘lim, bor, — dedi Hasanali, — agar da’vongiz to‘g‘ri bo‘lsa, menga chindan o‘z kishim deb qarasangiz o‘sha sirni yashirmangiz.

Otabek to‘satdan o‘zgarib, boyag‘i asabiylik holatini yo‘qotti, shundog‘ bo‘lsa ham o‘zini yig‘ib kulgan bo‘ldi:

— Hali shunaqa sizdan yashirin sirrim bormi?

— Bor.

— Bo‘lmasa, marhamat qilib kashfingizni so‘zlangiz.

Hasanali piyolani og‘ziga ko‘tarib, choyni ho‘pladi, kashfini ochti:

— Marg‘ilong‘a kelgan kunlardan boshlab sizda qiziq bir holat bor, — dedi, — siz bu holatni «Marg‘ilon havosi yoqmadi» deb ta’bir qilsangiz ham men mundan boshqa narsalar payqayman...

Otabek o‘ziga qattig‘ tikilib turg‘an Hasanalidan yuzini chetka burishka majbur bo‘ldi. Go‘yo bu sehrgar chol hamma sirrni betdan o‘qub olar edi. Hasanalini hamon o‘ziga tikilib turg‘anini bilib, manglayini qashig‘an bo‘ldi:

— Xo‘sh, davom etingiz...

— Bu sirringizni mendan yashirmoqchi bo‘lasiz, — dedi tamom qanoat bilan Hasanali, chunki, endi o‘z kashfiga juda ishong‘an edi. — Xayr, yashirmoqqa ham balki haqqingiz bordir... ammo shu ko‘yi sir saqlash bilan birar natijaga yetish mumkinmi?

— ...

Otabek qip-qizil qizarib gunohkorlardek yerga qarag‘an edi. Hasanalining yuziga padorona tarahhum[1] tusi kirib, keksalarga maxsus ohangdor bir tovush bilan bekning ustidagi og‘ir yukni ola boshladi:

— Aybi yo‘q, o‘g‘lim, — dedi, — muhabbat juda oz yigitlarga muyassar bo‘ladig‘an yurak javharidir. Shuning bilan birga ko‘b vaqtlar kishiga zararlik ham bo‘lib chiqadir. Shuning uchun kuch sarf qilib bo‘lsa ham unitish, ko‘b o‘ylamaslik kerakdir.

Bu keyingi gap bilan Otabek ko‘tarilib Hasanaliga

---

[1] T a r a h h u m — rahm, shafqat.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
qaradi va uzoq tin olib yana yerga boqdi. Go‘yo buning ila «unitish mumkin emas» degan qat’iy so‘zni aytkan edi. Orag‘a so‘zsizlik kirdi. Ikkisi ham fikrga tolg‘an edi. Hasanalining ortiqcha berilib o‘ylag‘an kezda soqolini qayirib tishlaydigan bir odati bo‘lib, hozir ham soqolini yamlash bilan mashg‘ul edi. Uzoq o‘ylag‘andan so‘ng ishning ochilmay qolg‘an qismini yeshishni boshqa vaqtg‘a qoldirmoqchi bo‘ldi. Chunki Otabek shuning o‘ziga ham yaxshigina qizarinib, bo‘rtingan edi.

5. KIROYI KUYAVING SHUNDOG‘ BO‘LSA!

Poyafzal bozori va uning burchagidagi havli... O‘qug‘uvchi albatta bu havlining egasi bilan tanish chiqar. Ko‘rimsiz, chirk bosib qorayg‘an, juda ko‘b xizmat qilib keksaygan, ochib-yopqanda anvo’i — turlik dodi-faryod qiladirg‘an, bunda sanalg‘an sifatlarini bir yerga jamlab natija chiqarg‘anda «sharti ketib, parti qolg‘an» bir darbozaning ostonasidan uch-to‘rt qadam ichkariga kirilsa Buxoro zindonlaridan birini his etilur va qorong‘u yo‘lakning nihoyatidagi yorug‘liqqa tomon oshiqilur. Qoqilib-suqilib yo‘lak zindonidan qutiling‘ach bir ulug‘ ariq yoqasig‘a, o‘rdadek havliga chiqilur va rohat tin olinur. Havlining kun chiqarida kun botishig‘a qaratib soling‘an, uncha maxtarliq bo‘lmasa ham ammo zamonasining olding‘i binolaridan hisoblang‘an bir ayvon bilan bir uyga ko‘z tushadir. Sahn va binolar kishi zotidan bo‘sh, shuning uchun bu havli oilaning tashqarig‘i qismi — mehmonxona ekanligi onglashilur. Sahnning tun va kun botar jihatlari kichkina hujralar bilan o‘ralg‘an va bu hujralarning barcha eshiklari yopiq va qulflang‘an holda bo‘lib mollar bilan bandligi va uy egasining davlatlik kishi bo‘lg‘anlig‘i bilinur. Havlining janub tarafi do‘konlar orqasi, ammo katta tup gilos yog‘ochlari qoplab yotadirlar.

Endi biz tashqari havlini qo‘yib mehmonxonaning yonidan ichkariga kiramiz. Ichkari havlining yo‘lagi ham nargisidek usti va bag‘ri yopiq — qorong‘u, yo‘lakning nihoyatiga borib o‘ngga yurilsa axtaxonaga, chapka yurilsa birinchi martaba kirganimizdek ulug‘ bir havliga chiqarmiz. Havlining to‘rt tarafi turlik ehtiyoj binolari bilan va to‘rdagi binoning ikki biqini katta uylar bilan

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

o‘ralg‘an bo‘lib, shu ikki uyning orasig‘a o‘lturgan koshinkor va naqshin chorxari ayvon bu havlining birinchi martaba ko‘zga chalinadirg‘an ortiqliqlaridandir. Shu chorxari ayvonning o‘rta bir yerida, ustiga atlas ko‘rpalar yopilg‘an tanchaning to‘rida devorga suyanib, avrasiga qora movut sirilgan sovsar po‘stin kiyib bir kishi o‘lturadir. Bu kishi bilan ikkinchi martaba tanishib o‘lturmaymiz, chunki, bu odam o‘qug‘uchi bilan tanishqan — Mirzakarim qutidor. Tanchaning ikki biqinida ikki xotin: bulardan bittasi ichidan atlas ko‘ynak, ustidan odmi xon atlas guppi kiygan, boshig‘a oq dakanani xom tashlag‘an, o‘ttuz besh yoshlar chamaliq go‘zal, xush bichim bir xotin. Yuzidan muloyimlik, eriga itoat, to‘g‘riliq ma’nolari tomib turg‘an bu xotin qutidorning rafiqasi — Oftob oyim, ikkinchisi yetmishlardan o‘tkan bir kampir. Oftob oyimning onasi — Oysha bibi. O‘choq boshida qo‘polg‘ina, qirq besh yoshlar chamaliq yana bir xotin choy qaynatib yuradir. Bu xotin ersa oilaning cho‘risi — To‘ybeka. Biz bular bilan tanishishni shu yerda qoldirib ayvonning chap tarafidagi daricha orqalik uyga kiramiz, ham uyning to‘riga soling‘an atlas ko‘rpa, par yostiq quchog‘ida sovuqdan erinibmi va yo boshqa bir sabab bilanmi uyg‘oq yotqan bir qizni ko‘ramiz. Uning qora zulfi par yostiqning turlik tomonig‘a tartibsiz suratda to‘zg‘ib, quyuq jinggila kiprak ostidag‘i timqora ko‘zlari bir nuqtag‘a tikilgan-da, nimadir bir narsani ko‘rgan kabi... qop-qora kamon, o‘tib ketkan nafis, qiyig‘ qoshlari chimirilgan-da, nimadir bir narsadan cho‘chigan kabi... to‘lg‘an oydek g‘uborsiz oq yuzi bir oz qizilliqg‘a aylangan-da, kimdandir uyalg‘an kabi... Shu vaqt ko‘rpani qayirib ushlagan oq nozik qo‘llari bilan latif burnining o‘ng tomonida, tabi’atning nihoyatda usta qo‘li bilan qo‘ndirilg‘an qora xolini qashidi va boshini yostiqdan olib o‘lturdi. Sariq rupoh atlas ko‘ynakning ustidan uning o‘rtacha ko‘kragi bir oz ko‘tarilib turmoqda edi. Turib o‘lturgach boshini bir silkitdi-da, ijirg‘anib qo‘ydi. Silkinish orqasida uning yuzini to‘zg‘ig‘an soch tolalari o‘rab olib jonso‘z[1] bir suratka kirgizdi. Bu qiz suratida ko‘ringan malak qutidorning qizi — Kumushbibi edi.

Kumushbibi bir necha kundan beri sovuq havo

[1] J o n s o‘ z — jon o‘rtovchi, azob beruvchi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

tegdirib, bosh og‘rig‘i va ko‘z tinishka o‘xshash og‘rig‘lardan shikoyat qilib yurar, shuning uchun onasi «tinch uxlasin, ortiq urinmasin» deb bu kun namozga ham uyg‘otdirmag‘an edi.

Kumush, kiyinib uydan chiqdi, To‘ybeka tomonidan hozirlanib berilgan issig‘ suv bilan yuzini yuvdi. Uyiga kirib artinib, tuzatingach ayvonga chiqdi. Ayvondagilarga salom berib otasining yonig‘a kelib o‘lturdi.

Qutidor qizini kuzatdi:

— Tuzikmisan, qizim?

— Yo‘q, otajon, boshim hamon og‘rib turadir.

Qutidor qizining peshonasini ushladi:

— Ey-ha, Kumush, hali issig‘ing bor, — dedi. — O‘zingni teja qizim, o‘rningni qalin qilib burkanib yot, terlasang yorisharsan, qizim. To‘ybeka, Kumushning choyini oqlab ber-chi.

Oftob oyim erining so‘zini kuchlab tushdi:

— Issig‘i bor, yuzi ham qizarib bo‘rtib turibdir.

O‘zining ruhsiz tovushi bilan Oysha buvi ham gapka aralashdi.

— Nax kechasi bilmapsiz, nax meni qo‘rqitib enkatenkamni chiqardi. Isitmasi aralash allanuchka so‘zlarni aytib chiqdi...

Kumushbibi yalt etib buvisiga qarab qo‘ydi.

— O‘sha harorati g‘ariza[1]niki hammasi, — dedi qutidor. — Men bu kun birar hakimdan so‘rab qaraychi... Ol qizim, shu piyoladagi choyingni ich-chi, — dedi va tag‘in bir qayta qizini kuzatdi.

Choyni ichib bo‘lg‘andan keyin qutidor fotiha o‘qub o‘rnidan turdi:

— Men senga aytib qo‘yay, Kumush, — dedi turar ekan qutidor Oftob oyimg‘a, — bu kunga bir mehmon aytkan edim. Cho‘ringni chiqarib mehmonxonani tozalat. Anovi yangi qoplag‘an ko‘rpalaringni ber, tanchaga o‘shani yopsin. Katta gilamni ham chiqar, uyingda mevalaring bor edimi?

— Bor.

— Bor bo‘lsa yaxshi. Bir ozdan so‘ng et olib kirguzarman, varaqi pishirib qo‘yingiz.

Oftob oyim varaqi pishirishdan u kungi mehmonning uncha-muncha kishi bo‘lmag‘anlig‘ini bildi.

---

[1] Harorati g‘ariza — tabiiy harorat, isitma.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Qanaqa mehmon edi?

— Sen tanimassan, toshkandlik bir yigit, tag'i shu yerda-gi uch-to'rtta og'aynilar. Tuzikmi, aytkanlarimni uqdingmi?

— Uqdim-uqdim.

Kumushbibi otasining so'ziga iltifot qilmadi. Qutidor do'koniga jo'nag'andan keyin Oftob oyim To'ybekani mehmonxonag'a buyurdi va o'zi xamir qilishg'a o'lturdi. Kumushbibi xomush edi. Bir narsa to'g'risida o'ylarmidi yoki bosh og'rig'isi kuchlikmidi, har holda namozshom gul kabi yopiq edi. Qarshisida o'lturg'an buvisining o'tkan-ketkandan qilg'an hikoyalariga erinibgina quloq berar va ko'nglini ochish uchun aytilgan qiziq so'zlarga iljayish bilan javoblanar edi.

Kumushbibi o'zining bir soatcha vaqtini shu ko'yi kechirdi, so'ngra o'rnidan turib kichkina latif oyoqlarig'a otasining yaqindag'ina olib bergan qala kavshini kiydi va oshxona yumishi bilan qorishib yotqan onasining oldig'a bordi.

Kumushbibi endi o'n yettini qo'yib o'n sakkizga qadam bosqanliqdan bo'yi ham onasig'a yetayozg'an, ammo jussasi onasig'a ko'ra to'laroq edi. Onasining yumishig'a bir oz qarab turg'anidan keyin tashqarig'a tomon ketdi. Ayvonning bir chetidan mehmonxonada gilam to'shab uringan To'ybekaga qarang'an bo'ldi-da, ayvonning o'rta ustuniga kelib suyandi. Endi boyag'ig'a qarag'anda bir oz yengillangansumon, jon olg'uchi qora ko'zlari harakatlana boshlag'an, bo'g'riqqan qizil yuzlari ochilinqirag'an edilar. Ayvon ustuniga suyang'ach, qora qiyig' qoshlarini chimirib ko'cha yo'lak tomong'a qaradi, bir oz qarab turdi-da, ayvondan yerga tushib yo'lak tomong'a, ariq bo'yig'a ketdi. Suv bir do'konning ostidan chiqib, bu havlida uch-to'rt quloch chamasi ochiq havoda oqar va ko'prik-tom ostig'a ketar edi. Kumushbibi ariq bo'yidan bir o'rinni ko'zladi-da, sakrab narigi yuziga o'tdi va cho'nqaydi. Uning ko'zlari muloyimg'ina suv ustiga og'dilar. Ariqning musaffo tiniq suvi yovoshg'ina oqib kelar, Kumushbibining qarshisig'a yetkanda go'yoki, uning ta'zimi uchun sekingina bir charx urib qo'yar, o'z ustida o'lturgan sohiraning[1] sihriga musaxxar[2] bo'lg'an kabi tag'i bir kattaroq doirada

[1] S o h i r a — sehrchi qiz.

[2] M u s a x x a r — sehrlangan, taslim bo'lgan, bo'ysungan.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

aylangach, ohistag'ina ko'prik ostig'a oqib ketar edi. Ariq suvining nihoyatsiz bu harakatini uzoq ko'zdan kechirib o'lturg'ach, qo'l uzatib suvdan oldi va yuzini yuvdi. Uning yuzini o'pib tushkan suv tomchilari bilan ariq harakatka kelib chayqaldi, go'yoki suv ichida bir fitna yuz bergan edi... Ikkinchi, uchinchi qaytalab yuz yuvishda bu fitna tag'i ham kuchaydi...

Nozik oyoqlar toldilar shekillik, sadaf kabi oq tishlarini bir-ikki qaytalab chaydi, ariq bo'yini va uning suvlarini tashlab ketdi.

Boyag'ig'a qarag'anda anchagina yengillanib ichkariga kirdi, harakatlari ham bir muncha o'zgargan edi. Oysha buvi undagi bu o'zgarishdan so'yindi:

— Yengil tortdingmi, qizim?

— Shukur...

— Endi ortiq urinma qizim, tinch o'ltur.

* * *

Qish kunlari bir tutam, «ha, deguncha» kech bo'ladir. Bu kun ham «ha deguncha»ga ham qolmay kech bo'lg'an, mehmonlarning kelishkaniga yarim soatlab vaqt o'tkan edi. Qutidor mehmonlarni ixlos va samimiyat bilan kutar, ziyofat quyuq-suyuqlari bilan to'la-to'kis davom etar edi. To'ybeka ichkari bilan tashqarig'a[1] yugurib dasturxon yangilar, choy tashir edi. Xizmat tugalayozg'andan keyin To'ybeka o'zining sovub qolg'an oshini yemak uchun Oftob oyimlar yonig'a o'lturdi.

So'zdan so'z chiqib Oftob oyim To'ybekadan so'radi:

— Mehmonlar qanaqa kishilar ekan, tanidingmi?

— Nax siz yosh mehmonni ko'rmabsiz, dunyog'a kelmabsiz, — dedi To'ybeka o'ngu ters osh chaynab, — bir chiroylik, bir aqllik, tag'in o'zi hammadan yuqorida o'lturadir; hali yigirma ham bormag'andir, mo'ylabi ham endigina chiqa boshlag'an... Nax bizga kuyav bo'ladigan yigit ekan, — dedi va Kumushka qarab kulib qo'ydi. Bu so'zdan Oftob oyim ham kulimsirab qizig'a qaradi:

— Ana, Kumush, sen eshitdingmi, opangning so'zini, To'ybeka senga er topqan, sen bo'lsang boshim og'riydir deb yotasan.

Kumushbibining sezilar-sezilmas kulimsirashidan yoqutdek irinlari[1] ostidagi sadafdek oq tishlari ko'rinib

[1] Cho'ri xotinlarda kishidan qochish rasmi yo'q edi *(mual)*.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
ketdi ersa-da, biroq uning bu holi tezlik bilan tundliqqa alishindi.

— Qolg'an xizmatlaringizning bittasi endi menga er topish edi.

To'ybeka Kumushning tundlanishini elamadi:

— Ey... singlim, hali sen bilmaysan, — dedi, — u yigitni bir ko'rgin-da, hu, deb ketabergin... sen tugil, shu yoshim bilan menim ham unga tekkim keldi, — dedi va xaholab yubordi.

Kumushbibi chirt etib yuzini To'ybekadan o'girdi.

— Tezroq tegib qoling.

— Koshki edi tegalsam, — dedi To'ybeka, — men uning bir tukiga ham arzimayman. Ammo sen bo'lsang uning bilan tenglashar eding. «Teng-tengi bilan, tezak qopi bilan». Xa-xa-xa!..

To'ybekaning shuningdek hangomalari boshqa vaqtlarda Kumushni yaxshigina kuldirsa ham hozir unga yotishib kelmadi shekillik, achchig'lang'an ko'yi yotish uchun uyiga kirib ketdi. Oftob oyim «bachcha-machchadir» deb o'ylag'an edi. Shuning uchun bu to'g'rida so'z ochmadi.

— Tashqaridan xabar olingizchi, opa, — dedi Oftob oyim, — choy kerak bo'ldimikin.

To'ybeka nari-beri oshini yeb tashqarig'a chiqib ketdi. Oradan daqiqa vaqt o'tkan yo o'tmagan edi, hovliqib ayvonga keldi:

— Tuf-e, qurib ketsin jonim chiqib ketdi-ya!

Bir soatdan beri joynamozdan qo'zg'almay tasbih ag'darib o'lturgan Oysha buvi To'ybekani boshdan-oyog' kuzatib yana ishiga mashg'ul bo'ldi. Oftob oyim iltifotsizgina kulimsirab tanchadan so'radi:

— Nima bo'ldi, nega muncha qo'rqish?

To'ybeka damini rostlab ustunning tegiga o'lturdi:

— Pochchamdan dasturxonni olib qoqish uchun gilosning yonidan o'tarmanmi, allakim baloga turtinib ketdim. Qo'rqqanimdan oz qoldiki, dodlab yuborsam... Chamasi mehmonlarg'a qarab turg'an ekan.

— Kimbalo ekan?

— Qorong'uda yaxshi ajratolmadim, tusini g'ira-shira anovi qora Homidg'a o'xshatdim. Tag'i umi-boshqami — xudo bilsin, shatir-shutir qildi-da, chiqib ketdi.

---

[1] I r i n — lab, dudoq.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

* * *

Qutidor mehmonlarni jo'natib yotish uchun yeshinar ekan, Oftob oyim so'radi:

— Chiroylik yigit, aqllik yigit, deb maxtiy-maxtiy To'ybekaning ichagi uzildi, u kim edi?

— Mehmonimiz o'sha edi, — dedi qutidor, — toshkandlik Yusufbek hoji otlig' yaqin oshnamning o'g'li.

— To'ybekaning maxtag'anicha bormi, o'zi?

— Bor, — dedi qutidor va g'italandi[1], — xudo kishiga o'g'il bersa shundayini bersin-da.

Oftob oyim kula-kula To'ybekaning Otabek to'g'risida so'zlagan gaplarini va Kumush bilan bo'lg'an mojarosini so'zlab chiqdi. Qutidor ham kulgidan o'zini to'xtatolmas ekan:

— Tentagingning aqli balo, kiroyi kuyaving shundog' bo'lsa, — dedi.

6. TOSHKAND USTIDA QONLIQ BULUTLAR

Bu kunlarda Marg'ilonda shunday xabar chiqib qoldi. «Toshkand hokimi bo'lg'an Azizbek Qo'qong'a qarshi bosh ko'targan. Xon tomonidan xiroj (zakot, soliq) uchun yuborilg'an devon beklarini o'ldirgan!» Ikkinchi kun bu xabar tag'i ham boshqacha to'n kiydi: «Musulmonqul Normuhammad qushbegiga besh ming sipoh qo'shib, Toshkand ustiga jo'natqan!»

Bu xabarlar xalq tomonidan juda oddiy, ortiqcha sovuqqonliq bilan qarshi olindilar. Bu voqi'aga hech kim ajabsinmadi va bunda favquloddaliq ko'rmadi. Xalq bunga haqli edi, chunki, bunday tinchsizliklarni endi ko'ra-ko'ra juda ham o'rganib qolg'an, bu kun bo'lmasa ertaga o'zining botir boshisining, oftobachasining, xullas, kim bo'lsa ham beklaridan birining shunday tinchsizlik chiqarishig'a «mumkin va bo'ladirg'an ish» deb qarar edi. Ammo biz Otabekni bu to'g'rida xalq bilan birgalashtira olmaymiz. Chunki ul bu xabarga sovuqqonliq bilan qaray olmas edi va qaray olmadi. Bu xabarni eshitar ekan, yeb turgani og'zida, yutkani bo'g'zida qoldi: bunday o'zboshimchalik orqasidan o'zining ochiq ko'zi,

[1] G'italanmoq — jonlanmoq.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

o‘tkir zehni orqaliq mudhish, falokatlik manzaralar ko‘rar, millatini — xalqini — musulmonini qo‘rqunch jar, tegsiz jahannam yoqasida, yiqilish oldida topar edida, seskanib «o‘zing saqla tangrim!» der edi. Bu xabarni eshitkandan so‘ng gangib esini yo‘qotdi. Yarasi yangilandi:

— Oq bilan qorani ajratolmag‘an fuqaroning bir necha g‘arazgo‘ mustabidlar kayfi yo‘lida bir-birisining qonig‘a tashna bo‘lishlari va natijada istiqbolning vahim ko‘rinishlari!

Shunday qayg‘ular ichida bo‘kib o‘lturar ekan, Hasanali qo‘lida bir maktub bilan hujraga kirdi. Maktubni Otabekka uzatib — «Toshkanddan emish, otangizdan bo‘lsa kerak» dedi. Otabek xatni ochdi: katta qog‘ozda, yo‘g‘on qalam bilan yozilg‘an uzun bir maktub edi. O‘qudi (aynan):

«Huvalboriy[1] ...ko‘zimizning nuri, belimizning quvvati, hayotimizning mevasi o‘g‘limiz mulla Otabekka yetib ma’lum va ravshan bo‘lg‘aykim, alhamdulilloh biz duogo‘y padaringiz, mushtipar onangiz va yaqin do‘stlaringiz munda Xaq taoloning hifzi himoyatida sihhat va salomat bo‘lib ko‘z nurimizning duoyi jonini subhi shom, balki aladdavom[2] rabbulolamindan rajo[3] va tamanno[4] etmakdamiz. Janobi Haq bod fursatlarda[5], yaqin va sa’id[6] soatlarda to‘kis-tugallik birlan diydor ko‘rishmakka nasib va ro‘zi qilsin, omin yorabbulolamin. Ba’dab[7] so‘zimiz: o‘g‘lim, Marg‘ilong‘a sihhat va salomat yetish maktubingni olib haq taolog‘a shukurlar qildik. Bizning Toshkanddan ahvol so‘rasang, balki Marg‘ilong‘a ham eshitilgandir, munda Azizbek qandog‘dir bir kuchka tayanib Qo‘qong‘a isyon etdi. Xazina hisobini olish uchun kelg‘an devon beklarini o‘ldirib o‘rda darbozasiga osdi, bunga qarshi Qo‘qon ham tinch yotmag‘an bo‘lsa kerak. Bu kun Kirovchidan[8] besh ming sipoh ila Normuhammad qushbegini Toshkand ustiga buyurilg‘anlig‘in eshitdik. Fuqaroning tag‘in qandog‘ ko‘rguliklari bor ekan, o‘g‘lim!

---

[1] H u v a l b o r i y — ul tangri, ul yaratguchi.
[2] A l a d d a v o m — doimo, hamisha.
[3] R a j o — umid, tilak.
[4] T a m a n n o — istak, xohish.
[5] B o d f u r s a t — tez vaqtda, tezlikda.
[6] S a ’ i d — baxtli.
[7] B a ’ d — keyin, so‘ng.
[8] K i r o v c h i — Qurama bilan Telov orasida katta bir qishloqdir *(mual.)*

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kechagina qonliq qilichini fuqaro ustida yurguzib turg'an Azizbekka uning tig'i zulmi bilan qora qonig'a belanilgan o'g'lining, otasining, onasining, og'asining mazlum gavdasi tuproq ostida hali chirib bitmay turib bu kun xalq yana Azizbekka, o'sha qonxo'rg'a o'z qoni bilan yamin[1] etdi; Azizbekni to o'zining bir tomchi qoni qolg'unchaliq himoya qilmoqqa ond ichdi. Azizbekning buyrug'i bilan kecha o'rda tegiga barcha Toshkand xalqi yig'ilg'an, bu yig'inda ulamolar ham bor, fuzalo ham bor; xulosa, shaharning har bir sinfidan ham hozir edi. Azizbek o'rda qorovulxonasidan turib fuqarog'a salom qildi. Azizbekning salomiga musharraf bo'lg'unchilarning ko'zlaridan yoshlar oqmoqda edi. O'g'lim, sen bir qadar oq bilan qorani ajrata olasan, yozg'anlarimni diqqat bilan o'qi.

Azizbek o'rda darbozasig'a osilg'an ikki gavdani ko'rsatib so'radi:

«Fuqaro! Ko'rasizmi bu ikki gunohkorni, nima uchun bu jazog'a mustahiq[2] bo'ldilar?»

Xalq:

«Bilmaymiz, taqsir».

Azizbekning o'zi javob berdi:

«Bular Musulmon cho'loqni sarkardalaridan, qipchoqlarning yo'lboshchilaridan va qora choponning dushmanlaridan bo'lgan ikki to'ng'izning gavdalari! Men bularni siz qora chopon fuqarom tomonidan o'ch uchun o'ldirdim, siz qora chopon og'aynilarning qipchoq qo'lida shahid bo'lg'an qarindoshlaringizning ruhlarini shodlandirmoq uchun o'ldirdim! Yoki bu harakatim adolatdan emasmi, fuqaro!»

Xalq javob berdi:

«Adolat! Xo'b qilg'ansiz, taqsir! Qipchoqlarning jazolari shunday bo'lmog'i kerak!»

Azizbek maqsadg'a ko'chdi:

«Siz qora choponliqlarg'a xolisona qilg'an bu xizmatimga qarshi albatta qipchoqlar qasdimg'a tusharlar, meni Toshkand hokimligidan azl[3] etmakchi va qo'llaridan kelsa hatto o'ldirmakchi bo'lurlar! Siz bu ehtimolga qandog' qaraysizlar?!»

Xalq o'zining quyidag'i javobi bilan ko'kni ko'tardi:

---

[1] Yamin — ont, qasam.

[2] Mustahiq — munosib, loyiq.

[3] Azl — bo'shatish, mansabdan tushirish.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

«Bir tomchi qonimiz qolg'uncha yo'lingizda jon beramiz! Qipchoqlarda had bo'lg'aymiki, biz tirik turg'an joyda sizning bir tola mo'yingizni xam qilsinlar!»

Azizbek xalqqa tashakkur aytib yarasini yordi:

«Rahmat fuqaro! Eshitamanki, qipchoqlar Normuhammad qushbegi qo'l ostida Toshkand ustiga harakat boshlag'an emishlar. Bunga qarshi bizning hozirlanishimiz kerakmi, yo'qmi fuqaro?!»

Xalq:

«Kerak, albatta kerak, taqsir! Agar ruxsat bersangiz, bu kundan boshlab qo'rg'onlarni tuzata beramiz!»

Azizbek:

«Rahmat fuqaro! Orqamda sizningdek fuqarom turg'anda menga hech bir qayg'u yo'qdir!»

Xalq:

«Siz omon bo'lib osoyish o'ltirsangiz, qipchoqqa yo'l bermaymiz, taqsir! Qo'rg'on tuzatishka fotiha beringiz, taqsir!»

Azizbek fotiha berdi. Xalq urush hozirlig'ig'a kirishdi. Ana, o'g'lim, bizning xalqning holiga yig'lashni ham bilmaysan, kulishni ham! Har holda Toshkand ustiga yana qonliq bulutlar chiqdi, ishning oxiri nima bilan tinchlanar — bu bir xudog'ag'ina ma'lumdir. Boshqa so'zlardan ham ortiqroq esingga shuni solib o'tayki, siyosat to'g'rilarida o'ylanibroq so'zla!

Arzimagan sabablar bilan talaf[1] bo'lgan jonlarni hamisha ko'z oldingda tut! Sen bilan manim ko'ngillarimizdagi yaratg'uchig'ag'ina ma'lum bo'lib, ammo Farg'onada meni Azizbekning sherikidir, deb o'ylashlari va seni bir fitnachining o'g'li, deb tanishlari ehtimoldan yiroq emasdir, shu jihatlarni mulohaza qilib oyog' bos! Bu tinchsizlik vaqtida sen bilan manim hayotimizning tahlika ostida bo'lg'anlig'ini unutma! Shuni ham aytib qo'yayki, bu tinchliksiz bosilmag'uncha Toshkandga kelmasliging maslahatdir. Toshkand tinchlangandan keyin (agar salomat bo'lsam) o'zim xabar yuborurman. Munda barcha yoru do'st salomat, mendan Hasanaliga salom ayt! Addoi[2] otang Yusufbek hoji. Toshkand, 27-dalv oyida 1264-yilda yozildi».

Otabek maktubni tugatib, tushunmay o'tkan jum-

---

[1] T a l a f — nobud bo'lish.

[2] A d d o i — duo qiluvchi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
lalarini qayta ko‘zdan kechirar ekan, Azizbek voqi’asi ustiga kelganda ixtiyorsiz «tulki» deb yubordi.

«...bosilmag‘uncha Toshkandka kelmasliging maslahatdir!» — bu jumlani o‘qug‘anda, — undog‘ bo‘lsa sira tinchimangiz, — dedi-da, yovoshg‘ina iljayib qo‘ydi...

7. MAJBURIYAT

Qo‘qondan har kun deyarlik xabarlar kelib turar edi. «Qo‘qon sipohi tomonidan Toshkand o‘raldi» degan xabarga endi o‘n besh kunlab vaqt o‘tgan edi. Ammo hanuz — «Toshkand olindi» degan gap yo‘q edi.

Kechadan beri kishilar og‘zida: «Normuhammad qushbegi yaralangan, Qo‘qon yigitidan bir yarim mingi qirilgan» degan xabar yurib ketdi. Chamasi, Azizbek osonliq bilan jon beradigan ko‘rinmaydir.

Anovi yarasining ustiga Toshkand foji’asi kelib qo‘shilg‘ach, Otabek tag‘in ham xayolchanlangan, tag‘in ham xomushligini ortdirgan edi. Hatto ba’zi kunlar hujrasidan tashqarig‘a chiqmas, kishilar bilan so‘zlashmas, boshqacha aytkanda kundan-kunga go‘shanishinlikka yaqinlashib borar edi.

Bu kun ertalabki choydan so‘ng Hasanali kechagi fikrini chinlab amalga oshirmoqchi bo‘ldi. Chunki Otabekdagi o‘zgarish — kundan-kunga rangining siniqib borishi, hujradan chetka chiqmasligi, xomushligi va boshqalar Hasanalini yaxshig‘ina qo‘rquvg‘a solg‘an, o‘zining faqat tomoshachig‘ina bo‘lib yurishidan rizosizlangan edi. Durust, ul Otabekning muhabbatiga voqif bo‘lg‘anidan beri bir daqiqa ham uni o‘zining ko‘z o‘ngidan uzoq tutmag‘an: mahbubasi kim, kimning qizi, birar ebini qilsa mumkinmi? — Mana shuningdek masalalarni tekshirib, bilib ham o‘ylab kelgan edi. Ammo bu to‘g‘rida Otabekning ko‘magiga chinlab bel bog‘lashdan uni ba’zi ehtimollar to‘xtatib: «Otabek yosh, yoshlar muhabbati uchar qush, balki, bu kun-erta unutib ham yuborar» kabi mulohazalarda bo‘ling‘an edi. Nihoyat, Otabekdagi o‘ychanliq va o‘zgacha hollarning kundan-kunga kuchayib borishi Hasanali haligi mulohazadan voz kechdirib, boshqa yo‘sunlarni qaratmoqqa majbur etdi.

Garchi uning qarori bir nuqta ustida to‘xtag‘an bo‘lsa ham shu holda tinib turmadi, yana yuz turlik boshqacha

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
yo‘sunlarni o‘yladi, ming turlik xayollarga borib qaytdi, ammo ularning bittasini ham Otabek og‘rig‘ig‘a em deb topmadi va nihoyat:

— Ko‘ray-chi, qadamim muborak bo‘larmikin, — deb qo‘ydi.

Kechlik oshni o‘tkazgach, Hasanali o‘z hujrasidan kiyinib chiqdi-da Otabek yonig‘a kirdi. Otabek «Boburnoma» mutolaasi bilan mashg‘ul edi. Ba’zi bir ehtimollarga qarshi o‘zining niyatini bildirmay:

— Menda yumishingiz yo‘qmi, bek? — deb so‘radi Hasanali. — Hammomga bormoqchi edim...

Otabek ko‘zini kitobdan uzmay javob berdi:

— Yumishim yo‘q, boraveringiz.

Hasanali chiqdi. Qosh qorayib, qorong‘u tushayozg‘an edi. Havo bulut, achchig‘, sovuq yel to‘rt tomong‘a yugurar, onda-sonda qor uchqunlarini quvlab ziriqtirar edi. Eruv vaqtida yarim beldan loy kechishka to‘g‘ri keladigan ko‘chalarning loyi qatqaloqlang‘an, shuning uchun yurguchi qiynalmas, aksincha ola-chalpoq qor pag‘alarini bosishdan vujudga kelgan oyoq ostidag‘i «g‘arch-g‘urch» tovushlari kishiga bir turlik kayf, musiqaviy yengillik berar edilar. Do‘konlar yopiq bo‘lsalar ham choyxonalar ochiq, kishilar o‘rtaga gulxan solib, choyxonachining bachchasini gohi o‘zlariga xon ko‘tarib va gohi «xon qizi» deb ham qo‘yadirlar. Xon saylag‘uchilar orasida yosh yigitlar bor bo‘lg‘anidek, katta sallalik mullanamolar, yetmish yoshliq keksalar ham ko‘rinadirlar... Qish kechalari juda uzun, shuning uchun choyxonalar obod; xalq lazzatlanib bachchaning tabarruklangan choyini ichadir, husniga tamosho qilib xudoning qudratiga hayron qoladilar...

Hasanali Ziyo shohichining tashqarisig‘a kelib kirdi-da, mehmonxona darichasiga qaradi. Daricha tirqishidan ko‘rilgan yorug‘liq mehmonxonada kishi borliqni bildirar edi. Hasanali tuzatinib oldi va ichkariga kirdi. Ziyo shohichi namoz o‘qumoqda bo‘lib, mehmonxona chet kishidan xoli edi. Bu tasodufdan Hasanali so‘yindi va Ziyo akaning namozni bitirishini kutib o‘lturdi. Ziyo shohichi yonig‘a salom berib joynamozdan orqasiga qarab qo‘ydi. Fotihaga qo‘l ko‘tardi. Fotihadan so‘ng kelib Hasanali bilan so‘rashdi:

— Keling ota, tinchlikmi?

— Shukur, tinchlik.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Tancha tevaragiga ulturishdilar. Bir muncha vaqt so‘zsiz edilar. Ziyo shohichi bu vaqtsiz tashrifka tushuna olmay «nima qilib yurasan?» degandek etib, bir necha qayta Hasanaliga qarab oldi.

— Ajablanmangiz, boy aka, kelishimda bir majburiyat bor.

— Sizni Otabek yubordimi?

— Yo‘q, o‘zim keldim, boy aka.

Ziyo shohichi yana tushuna olmadi. To‘g‘risi ham Hasanalining bu kelishi Ziyo aka uchun yot bir ish edi. Chunki, Hasanali Otabekning quli. Qullar bilan jiddiy muomalada bo‘linmoq, ayniqsa Ziyo shohichilardek odamlarg‘a favqulodda bir ish. Buning ustiga majburiyat ostida o‘zicha kelishi...

Ziyo akaning boshi qotib oxirda so‘radi:

— Majburiyatingiz?

Hasanali kulimsirab oldi:

— Majburiyatimni eshitsangiz, balki ishonmassiz.

— Xo‘sh.

— O‘zingizga ma’lumki, — dedi tuzuklanib Hasanali, — Marg‘ilon kelganimizga yigirma besh kun, bir oylar chamasi fursat o‘tdi. Shundan beri Otabek dardmand.

Ziyo aka ajablangan edi:

— Qanday dardmandlik, Otabek sog‘-ku?

— To‘g‘ri aytasiz, — dedi Hasanali, — ammo men ham uning dardiga bir necha kunlab tushunmay yurgan edim.

— Xo‘sh, dardi?

— Muhabbat.

— Muhabbat?

— Muhabbat! — deb takrorladi Hasanali. — Shu yigirma besh kunlik bir muddatning ichida ul butunlay odamgarchilikdan chiqayozdi. Bu o‘rtada qanday tashvishlarga tushmadim, so‘rasangiz.

— Kimga muhabbat qo‘yg‘an, xabaringiz bo‘ldimi?

— Bo‘ldi. Qutidorning qizig‘a.

— Ha, ha-a! — deb yubordi Ziyo aka va bir oz o‘ylang‘adan keyin so‘radi, — buni siz aniq bilasizmi?

— Aniq bilaman.

— O‘zi aytdimi?

— O‘zi aytmasa ham shunga yaqinlashtirdi.

— Otabek qizni qayerda ko‘rgan?

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Afsuski, buni bila olmadim.

Hasanalining kelish majburiyati va nima uchun kelganligi Ziyo akaga yaxshi onglashildi ersa-da, yana shunday bo‘lsa ham so‘radi:

— Endi nima qilmoqchisiz?

— Huzuringizga kelishimning bosh sababi ham shundandir, — dedi Hasanali. — Bu to‘g‘rig‘a siz qanday yo‘llar ko‘rsatasiz va nima kengashlar berasiz, albatta shunga qarab bir ish qilamiz, deb xizmatingizga keldim.

Ziyo aka o‘ylab qoldi. Qiziq gap, deb bir-ikki qayta nos otib oldi. Bu orada Hasanali boshdan-oyoq hikoyani so‘zlab chiqdi.

— Nozik gap, — dedi oxirda Ziyo aka, — agar biz Otabekni bu yerdan uylandirib qo‘ysak, hoji bizdan xafa bo‘lmasmikin?

— Ko‘b yashang, boy aka. Qulingiz ham bu to‘g‘rida ko‘b o‘yladim. Xafa bo‘lsa nima chorakim, biz shu ishka majbur bo‘lg‘an bo‘lsaq. Shuning bilan birga Yusufbek hoji ham unchalik aqlsiz kishilardan emaski, bu gapka xafa bo‘lsa. Ammo men qutidor ko‘nadimi, yo‘qmi, deb bu tomonni o‘ylab turibman?

Ziyo aka yana o‘ylanib bosh qashindi:

— Aytkaningizdek masalaning bu tarafi ham nozik,— dedi, — ammo qutidorning Otabekka qarashini yaxshi bilsam ham o‘rtada yirog‘liq masalasi bor... Qizimni musofirga bermayman, deb qo‘yarmikin, bilmadim...

— Menimcha qutidorning oldidan bir yo‘li o‘tilsin,— dedi Hasanali, — agarda ko‘nib xo‘b desaku xayr, ko‘nmagan taqdirda bu xabarni Otabekka yetkuzsak, zora, shuning bilan ko‘ngli sovib tushsa.

Hasanalining bu so‘zi Ziyo akaga ham ma’qul bo‘lib tushdi:

— Bo‘lmasa, qutidornikiga qachon borilsin, deysiz?

— Bundagi ixtiyor sizdadir.

Ziyo aka o‘ylab turdi-da, yuziga kulgi chiqardi:

— Hozir boramiz, — dedi, — biz ham umrda bir sovchiliq qilayliq.

Ziyo aka kiyinish uchun qo‘zg‘algan edi. Hasanali undan so‘radi:

— Manim ham birga borg‘anim ma’qulmi yoki yolg‘iz o‘zingiz?

Ziyo aka qo‘l silkib:

— Sizning borishingizdan zarar yo‘q, — dedi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

8. QUTLUG‘ BO‘LSIN!

...Ziyo shohichining kulib aytkan so‘zlariga qutidor sira ham tushunmas va kutilmagan mehmonlarning kelish sababini so‘ramoqdan iymanar edi.

— Olovni qo‘yaturib, qudalarga dasturxon olib chiqingiz.

Ziyo shohichining bu kulguligidan so‘ng qutidor tanchaga olov qalashni qo‘yib dasturxon buyurish uchun ichkariga qo‘zg‘aldi. Uning ketidan Hasanali: «Taqdir bitkan bo‘lsin-da», — deb qo‘yg‘an edi, shohichi qat’iy qilib: «Inshooloh bitar, shundog‘ yigitni kuyavlikka qabul qilmag‘an bir kishini biz odamg‘a sanamaymiz» — dedi.

Qutidor qaytib chiqdi... Ziyo aka bilan Hasanali ma’noliq qilib bir-birlariga qarashib olmoqda edilar. Qutidor, ayniqsa Ziyo akaning og‘zini poylab, ko‘ngli chaqirilmag‘an mehmonlardan tushunmog‘i qiyin bo‘lg‘an bir ma’noni sezmakda edi. Oradagi so‘zsizlik uzoqqa cho‘zilabergach, qutidor Hasanalidan so‘radi:

— Bek salomatmi?

Ziyo aka so‘z o‘nqovi kelganini payqab Hasanalining jim turishiga ishorat qildi va o‘zi javob berdi:

— Bizning sizga chaqirilmag‘an mehmon bo‘lishimiz ham Otabekning sog‘lig‘i uchundir.

Qutidor bu javobdan bir narsa tushunolmadi va shuning uchun qaytalab so‘radi:

— Otabek sog‘mi?

— Bu kungacha Otabek salomat, — dedi Ziyo aka salmoqlab, — ammo bekning mundan keyingi sog‘lig‘i sizning qo‘lingizda qolg‘ang‘a o‘xshaydir.

Qutidor yana tushunolmay taajjub bilan mehmonlarga qarab oldi.

— Tushunolmadim...

— Ya’ni Otabek bu kungacha salomat, — dedi Ziyo aka yana. — Ammo mundan keyingi sog‘lig‘i sizning qo‘lingizda...

— Menim qo‘limda?

— Sizning ixtiyoringizda.

— Otabek kabi bir yigitning sog‘lig‘i har bir aqlli kishi uchun maqsad bo‘lsa ham, — dedi taajjub bilan qutidor, — lekin so‘zingizning shunisi qiziqdirkim, bir yigitning sog‘lig‘i ikkinchi bir kishining ixtiyorida bo‘lsin.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Ziyo aka boyag‘i vaziyatini buzmadi:

— Ajablanmangiz, o‘rtoq, — dedi, — bekning mundan keyingi sog‘lig‘i sizning ixtiyoringizda; bu o‘yin emas — to‘g‘ri gap.

Qutidor to‘sindan muddaoning kim va nima to‘g‘risida bo‘lg‘anlig‘ini payqab qoldi va o‘zida bir turlik o‘ngg‘aysizlik sezdi. Ziyo aka To‘ybekaning yozgan dasturxonini tuzatib, kulchalarni sindirdi. Hasanali bilan qutidorni nong‘a taklif qilib o‘zi maqsadni ochiqroq onglatmoqchi bo‘ldi:

— Muhabbat degan narsa juda oz kishilarga nasib bo‘ladirg‘an bir durri bebahodir, — dedi Ziyo aka. — Qadrdoningiz Yusufbek hojining o‘g‘li Otabek — bir necha kunlardan buyon pinhoniy bir dard bilan og‘rir edi. Ko‘rinishda uning quli, ammo haqiqatda Otabekning ma’naviy padari bo‘lg‘an Hasanali ota uning maxfiy dardining asli omilini izlaydir, bekning o‘zi bo‘lsa o‘z holi to‘g‘risida hech narsa sezdirmay dardin yashiradir. Shundog‘ qilib xo‘jasiga ixloslik Hasanalining tajribalik kuzatishidan bekning maxfiy dardi uzoqqa qocholmay natijada sir ochiladir... Shari’at ishiga sharm yo‘q, deydirlar o‘rtoq, agarchi siz bilan menga bir muncha og‘irroq bo‘lsa ham yana so‘zlab o‘tishga hojat bor: kunlardan bir kun taqdir shamoli yuradir-da bir kimsaning iffat pardasi ostida o‘lturgan qizining yuzidagi niqobini ko‘tarib ikkinchi tomondan bizning Otabekni shu afifaga[1] ro‘baro‘ qiladir. Shu daqiqadan boshlab bekda u afifaga qarshi bir ishq, ham chin bir ishq tug‘uladir...

Ziyo shohichi o‘z tomonidan ham yana bir muncha gaplarni qo‘shib chatib, so‘zini tugatdi. Qutidor yaxshig‘ina o‘ng‘aysizlangan edi. Qutidorgina emas, sovchilar ham o‘ng‘aysizlangan edilar. Masalaning noziklig‘iga uchavlari ham tushunarlar va shuning uchun ittifoq qilgandek chuqur bir sukutka ketgan edilar.

Garchi muddao kun kabi oshkora bo‘lgan bo‘lsa ham nima uchundir qutidor yana o‘zini tag‘ofilga solib so‘radi:

— U kimning qizi emish?

Ziyo shohichi qutidor tarafidan o‘ziga beriladirgan shu savolni kutib turg‘an edi.

---

[1] A f i f a — pokiza qiz.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

.— Sizning karimangiz, — dedi.

Qutidor o'zining joysiz savolidan o'kinib yerga qaradi. O'rtada tag'in so'zsizlik, o'ngg'aysizlik boshlandi. Bir necha fursat shu yo'sun jimgina o'lturishkandan keyin yana Ziyo shohichining o'ziga gapirishka to'g'ri keldi:

— Biz, o'zimizning bu kelishimizda sizning uchun dunyoga orzug'uliq bir o'g'ul hadiya etkanimizdek, inshoolloh, qaytishimizda ham Otabek uchun mujassamai iffat bo'lg'an bir rafiqa tuhfa qilarmiz.

Bu so'zdan keyin Hasanalining yuragi bezillay boshladi. Chunki shu daqiqada qutidor og'zidan yo rad va yo qabul javobi eshitar edi. Ikkinchi tomonda, kutilmagan bu sovchiliqqa ishonishnida, ishonmasnida bilmay shoshib o'lturgan qutidor ham o'zining og'zig'a tikilib turg'uchi ikki kishiga qanday javob aytish uchun garangsigan edi.

— Otabek kabi bir yigitni o'g'ul qilish sharafiga noil bo'la olsam o'zimni eng baxtlik otalardan sanar edim, — dedi nihoyat qutidor, — ammo bu to'g'ridagi hamma ixtiyor o'z qo'limda bo'lmay orada ko'krak suti berib o'sdirg'an xotin ham bor... Bu ish uchun yolg'iz o'zim qabul javobi bersam-da, onasi bir chekkada qoldirilsa, ehtimol, puxta ish qilmag'an bo'larmiz. Agar maslahat ko'rsalaringiz bu to'g'rida uning bilan kengashib ko'rar edim...

Qutidorning javobidan samimiyat va ixlos ma'nolari tomib turar edi. Javobni eshitkan sovchilarning tomiriga umid qonlari yugurib ketdi.

— Bu ot savdosi emas, umr savdosi, birodar, — dedi Ziyo aka, — yangamiz bilan kengashingiz, Otabek va otasi to'g'rilarida bilganlaringizni so'zlangiz, shundan keyin xo'b o'ylashib bizga javob beringiz.

Shu gapdan keyin qutidor mehmonlarni qoldirib ichkariga kirdi. Kumushbibi uxlashqa yotqan edi. To'ybeka bo'lsa o'zining o'choq boshi yonidag'i uychasini titratib hurrak otar edi. Qutidor uy eshigini ochar ekan ayvonda o'zini kutib o'lturgan Oftob oyimg'a dedi:

— Sham'ni olib kir-chi oldimga.

Uy jihozga g'oyatda boy, go'yo muzaxona tusini berar edi. Taxmonda turlik rangda atlas va shohilardan qoplang'an ko'rpalar, taxmon toqchalarig'a uyilgan par yostiqlar, qator-qator xitoyi jononlar: kosalar, ko'zalar, chinni choydishlar, laganlar, kumush qinlik xanjar va

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
qilichlar, qalqon va siparlar, dorga soling'an turlik-turlik er va xotin kiyimlari: po'stin, chakmon va boshqalar, qip-qizil gilam va shohi ko'rpachalar kishi ko'zini qamashdirar darajada edilar.

Oshiqib og'zini poylag'an Oftob oyimg'a qutidor bir iljayib qo'ydi-da:

— Xotin, sen hali eshikdagi sovchilardan xabarsizdirsan? — dedi.

Oftob oyim erining «sovchi» xabarini oddiygina qarshiladi, chunki endi ikki-uch yildan beri uylariga kun sayin sovchilar jamoasi yog'ilib yotqanliqdan bu sovchilar ham o'shalarning birisidir, deb o'ylag'an edi:

— Xayrlik bo'lsin, kimlar sovchi?

Qutidor yana bir kulib qo'ydi:

— Ziyo shohichi, tag'in senga noma'lum bir kishi.

Oftob oyim bu kungi sovchilarning qutidorg'a boshqacharoq o'zgarish berganlarini payqadi va buni erining samimiyat ham oshiqishidan sezdi:

— Kim uchun kelganlar?

— Bundan o'n besh kunlar ilgari biz bir toshkandlik savdogar yigitni mehmon qilg'an edik, balki esingdadir?

— Esimda bor, To'ybekka maxtab kirgan yigit.

— O'lma, xotin, — dedi qutidor, — ana shu yigit uchun kelganlar.

Bu so'zdan Oftob oyim bezong'lab tushti va eriga qarshi rizosizlik vaziyatini oldi:

— Musofir-ku?

Oftob oyimning bu so'zi bilan qutidor bosh qashib oldi va umidsiz bir tovushda:

— Men ham shunisiga hayron bo'lib qoldim, — dedi.— Yo'qsa o'zi ayni biz qidirg'an, har to'g'rida ham yetuk bir yigit edi.

Oftob oyim boshqa xotinlarimizdek erining ra'yi va xohishini, umuman butun shaxsini ehtirom qilg'uchi bir xotindir. Shuning uchun erining hozirg'i ra'yini garchi o'z tilagiga bus-butun zid topsa ham yolg'iz «musofirlik» masalasi bilangina gapka xotima bermay, boshqa taraflardan ham kamchiliklar topib asoslik suratda qutidorning Otabekka tomon haroratlanayozg'an yuragiga sovuq suv sepmakchi bo'ldi:

— O'zi qanday kishining o'g'li, otasi sizga tanishmi?

Oftob oyimning bu savoli o'zi uchun zararlik bo'lib chiqdi. Chunki qutidor, Yusufbek hojining qanday kishi

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
bo‘lg‘anlig‘ini, bu kunda qaysi ishda ekanligini va o‘ziga bo‘lg‘an munosabatini mayda-chuyda tafsilotlari bilan so‘zlab chiqib, so‘zi oxirida: «Yigitning naslini aybsitib bo‘lmaydir, to‘g‘risiga ko‘chkanda bu yigit naslan bizdan allaqancha yuqorida turadir», deb qo‘ydi.

Oftob oyim endi ikkinchi turlik yo‘l bilan ketdi:

— Uylanganmi, yo‘qmi?

— Uylanmagan. Buni qaysidir bir majlisda uning qulidan eshitkan edim.

— Yoshi nechalarda bor?

— Ko‘b bo‘lsa yigirma besh yoshlarda bo‘lur, bo‘lmasa yigirma ikki-yigirma uchlardan oshqan emas.

— Nima majburiyatda bizga kuyav bo‘lmoqchi, Toshkanddan qiz topilmag‘anmi?

— Topilsa ham yoqtirmas ekan, — dedi qutidor va o‘ngg‘aysiz holatda voqi’ani shipshitib chiqdi. Masalaning bu yanglig‘ boshlanishiga va buning ustiga erining moyillanishiga Oftob oyim nima deyishni bilmay qoldi. Tuzik, erining maylini anchagina dalil va sabablarga suyanib bo‘lgan bir mayl ekanini onglag‘an, kuyav bo‘ladirg‘an yigitni o‘zlarig‘a o‘g‘ulliqqa loyiq bir kimsa ekanini ham yaxshi tushungan edi, ammo hozir bu gaplardan ham ilgariroqda «musofirlik» masalasi turar; bir necha yillardan beri muvofiq kuyav izlay-izlay nihoyat Toshkandlik bir musofirga berish xo‘rlig‘i Oftob oyim uchun og‘ir edi.

— Endi qanday kengash berasan, xotin?

Oftob oyim o‘z fikrini ochiq aytishka yuraksina olmas, erining ko‘ngli olinishidan qo‘rqar, ammo — «musofir» masalasiga jonu dildan qarshi edi.

— Siz muvofiq ko‘rgan bir ishqa qarshi tushib, ra’yingizni qaytaraolmayman, — dedi ko‘b o‘ylag‘andan keyin Oftob oyim, — chunki nima bo‘lg‘anda ham sizning otaliq ismingiz bor, ham ko‘broq ixtiyor sizning qo‘lingizdadir. Men albatta ko‘zingizning oqu qorasi bo‘lg‘an yolg‘iz qizingizni yaramas, bo‘lmag‘ur kishiga tutib berarsiz, deb bilmayman. Bu jihat bilan bu ishka rizolig‘im bilinsa ham biroq qarshilig‘im shundadirki, kuyav toshkandlik bo‘lg‘andan so‘ng qizingizni o‘zi bilan birga olib ketar va siz bilan meni yolg‘iz bolamizdan ayirar... Bunga qolg‘anda sizni bilmasam-da, ammo mening bunday judoliqqa sira toqatim yo‘qdir... Mana shu tarafni yengilroq o‘ylag‘anga o‘xshadingiz, jonim.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— So‘zlaring to‘g‘ri, xotin, — dedi o‘ylab qutidor, — lekin taqdir bitkandanmi, nimadan bo‘lsa ham bu yigitka qarshi ko‘nglim jizillab turadir. Bu fikrim senga ma’qul tushadimi, yo‘qmi, har holda biz endi uzoq o‘ylashib o‘lturmayliq-da, o‘z xohishimizcha qilib javob beraylik: masalan, sovchilarg‘a rizolig‘imizni bildirib, ammo Kumushni Marg‘ilondan olib ketmaslikni shart qilaylik. Agar shartimizni qabul qilsalar yolg‘iz bolamiz ikki bo‘lib — ayni bizning muddaomiz; yo‘q, qabul qilmasalar ul vaqtda kinalari o‘zlaridan bo‘lsin, mana bu maslahatka nima deysan, xotin?

— Musofirlig‘i?

— Biz ta’nani kuyav qilmaymiz, — dedi qutidor, — bizga chin yigit kerak, xalq «musofirga berdi» deb so‘z qilsa — qilsin.

Oftob oyim eridagi maylni boshdayoq payqagan edi, shuning uchun tilar-tilamas «o‘zingiz bilasiz» javobini berdi. Javobni olib qutidor sovchilar oldig‘a chiqdi va ma’lum shartni ularga e’lon qildi. Bu shartni Otabek ismidan Ziyo shohichi qabul etib qutidorni Otabekdek bir yigitni kuyav qilishi bilan tabrikladi va shu takallufsiz sovchilik ila umr savdosi bitkan hisoblandi. Ikki yoshning muhabbatlik, uvalik-juvalik bo‘lishlarig‘a duo qiling‘ach sovchilarg‘a zarrin to‘nlar kiydirildi. Hasanali qutidorga o‘zining minnatdorchiligini aytib tugata olmas, so‘z oralarida uni duolar bilan g‘arq etmakda edi.

— To‘nlar muborak bo‘lsin!

— Sizga kuyav o‘g‘ul muborak bo‘lsin!

Qutidor ixlos va samimiyat bilan:

— Qutlug‘ bo‘lsin! — dedi.

9. QARSHILASH

Bu kungi kutilmagan tun Hasanali otani gangitkan, uning keksa ko‘zlari uyqu bilan tamom chaplashib olg‘an edilar. Ul bu xabarni ertaga ertalab qaysi yo‘sun bilan bekka bildirish yo‘llarini o‘ylar edi. Bu favqulodda so‘yinch xabarni bekning qaysi yo‘sunda qarshilashini o‘ylar edi. Bu xabarni eshitish bilan Otabekda ko‘riladirgan o‘zgarishlarni, hollarni, harakatlarni... barchasini birma-bir ko‘nglidan kechirar edi. Bu gapni eshitgach, haftalab hujra ichidan chiqmay yotqan bekni

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

ko‘chalarda, bozorlarda, qutidor uylarida shodlanib, ruhlanib yurganini ko‘rar edi. Bu o‘ylarni tugatkandan keyin uning ko‘zlari uyqu sari yumila boshlab, qarshisig‘a Otabek kelib to‘xtar edi: «Ota, men sizning bu qilg‘an yaxshilig‘ingizni sira unutmasman» deb minnatdorlik qilg‘andek bo‘lar edi. Hasanali uyg‘onib ketar va qaytadan shu to‘g‘rida o‘ylab boshlar edi: «Bechora. Suyganing to‘g‘risida o‘ylay-o‘ylay boshlaring og‘rib, ohlar tortib yotadirgandirsan... Yordamching yo‘qlig‘idan umiding kesilib, hasratingni kimga aytishni bilmaydirg‘andirsan. Qayg‘irma begim. Hasanali otang u to‘g‘rida ham seni yodidan chiqarmadi... Bu kecha sening qayg‘uliq kechalaringning eng keyingisi va oydinliq ham she’riyatlik tunlaringning arafasidir, begim».

Hasanalining ko‘zlari tag‘in uyqug‘a ketar, qarshisig‘a Otabek bilan ko‘hlik, ko‘rkam bir qiz kelib chiqar va ikkisi unga qarab iljayishar edilar: «Bizning chin otamizsiz» degandek bo‘lar edilar. Hasanalining yana uyqusi qochar edi. Yoshim oltmish to‘rtka yetdi, o‘g‘ul-qizim bo‘lmadi... Dunyodan charog‘chisiz boraman... Darvoqi’ Otabek menga o‘g‘ulliq qilmasmi, xotini menga qiz bo‘lmasmi, ularning bolalari meni «bobo» deb ketimdan yugurmasmikinlar? Tuproq ostlarida unutilib yotqan kezlarimda: «Bir vaqt Hasanali otamiz ham bor edi», deb yodlasalar, yaxshiliq bilan eslasalar yetar menga shu».

Tunlar uzoq, tongni otdirib, Otabekni quvondirishg‘acha sabr chidamas, ko‘z yumishg‘a haligidek xayollar mone’ bo‘lar edilar. Shu yo‘sun yarim uyqu holatda tongni otdirib so‘yintirish soatlari ham yetdi.

Choydan keyin hujrasiga chiqib ketkan Hasanali qo‘ltug‘ida bir narsa bilan kirib bek qarshisig‘a o‘lturdi. Otabekdagi sukut, xayol, fikr kabi holatlarni yulib, yulqib olib, ular o‘rniga chechak donalari ekib, umid suvlari sepmakchi edi. Hasanali:

— Endi muborak bo‘lsin sizga, — dedi.

Otabek tushunolmay Hasanaliga qaradi. Hasanali iljaygan ko‘yi qo‘ltug‘idag‘i zarrin choponni olib sandal ustiga qo‘ydi.

— Bu qanday chopon? — deb so‘radi bek.

— Muborak bo‘lsin, dedim-ku.

— Nima muborak bo‘lsin?

— Sizga iffatlik va sevimlik rafiqa bilan qutidordek qayin ota, Hasanaliga kelin.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Otabek qiziq holatda qoldi: bir turlik titrab ketdi, ko‘zlari qinidan chiqar darajaga yetdi. G‘ayri-ixtiyoriy qo‘zg‘alib o‘lturgandan keyin so‘radi:

— Bu nima degan so‘zingiz?

— Nima deganimni so‘ramangiz va deganimga ishonaberingiz, — dedi kulib Hasanali, — men sizni qutidorning qiziga uylandirishka qaror qilib, qarorimni ham bu kun kechasi Ziyo shohichi bilan amalga oshirdim... ya’ni qutidorning qizig‘a sizning uchun unashib keldik.

Otabek gangib shoshib so‘radi:

— Qaysi qizig‘a unashib keldingiz?

— Qutidorning yolg‘iz qizig‘a, — dedi Hasanali, — bundan xotirjam’ bo‘lingiz, bek. Ziyo shohichi ertalabki choyni ichib borarman degan edi, biz uning bilan hali to‘y kengashlarini qilamiz.

Otabek tusida xursand va xafaligi majhul bir holat bor edi. Unashish masalasiga qarshi tushmaganidek, so‘yinchini ham oshkor qilmadi...

* * *

Kumushbibi uyqudan turib, favqulodda bir holga uchraydir:

— Bir kechada hammaning tushiga «to‘y» kirib chiqg‘an.

To‘y uchun yangi ko‘rpalar qoplamoqchi bo‘ladilar, par to‘shaklar olmoqchi bo‘ladilar, kuyav uchun qanday kiyim yarashmog‘i ham bahs qilinadir. Oftob oyim erga oltin kamar olmoqqa buyuradir... Tavba, demak chora yo‘q: Oftob oyimlarning kuyavlari kim, qaysi qizlarini erga beradirlar, ularning Kumushdan ham boshqa qizlari bormi? — Ularning qizlari yolg‘iz, demak Kumush erga beriladir... Tushunarlik gap emas:

— Erga kim tegadir?

— Kumush.

— Kumushbibi kuyavni yoqtiradirmi, yo‘qmi? Bu to‘g‘rida uning fikrini bilish kerak emasmi?

— So‘zlash ham kerak emas, bildirish ham.

— Nega?

— Chunki odat shul! Kumush ota-ona yoqtirg‘an kishiga rozi bo‘lish uchun majbur!

Kumushbibi kuyavning kim bo‘lg‘anlig‘ini To‘ybekaning shu so‘zlaridan so‘ng payqab oldi:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Mana, bekachim, — dedi kulib To‘ybeka. — To‘ybeka opangni sen hech narsaga sanamaysan. Biroq uning nafsilamrda karomati bor. Opang bir narsani tiliga va yo ko‘ngliga oldimi, darrav farishtalar «omin!» deydirlar. Anovi kungi yosh mehmonni senga maxtasam achchig‘landing, ammo kelib-kelib bu kun seni o‘shanga berdilar... Endi mundan keyin To‘ybeka opangg‘a ixlos qo‘y, bekachim!

Bu xabarni eshitkuchi Kumushbibining qora ko‘zlari jiq yoshg‘a to‘lib, kipraklari yosh bilan belandilar.

— Yig‘lama bekachim, — dedi To‘ybeka, — biz bilamiz sizning ko‘z yoshlaringizning nimaga ekanin: erlar so‘yinganda kulsalar, sizga o‘xshash qizlar yig‘laydirlar; sizning yig‘lag‘aningiz — quvong‘aningiz... Meni erga berganlarida senga o‘xshash men ham yig‘lag‘an edim, ammo ichimdan nikoh kunining tezroq kelishini kutakuta o‘lgan edim.

— Toqatim tugadi, opa, — dedi Kumush, — ortiq so‘zlamangiz.

— So‘zlamayman, — dedi To‘ybeka, — lekin sirasini so‘zlayman... Oh, ko‘rsang edi bir kuyavni. Qanday chiroylik, qanday aqllik ekanini bilar eding, bekachim. Yulduzingiz nax bir-biringizga to‘g‘ri tushkan ekan, ikkingizning ham bir-biravingizdan kamligingiz yo‘q.

Kumushbibi ortiq chidalmadi, qo‘rqunch bir tovush bilan hayqirdi:

— Oh, o‘laman, ko‘b so‘zlama!

Kumushning bu tovshiga Oftob oyim bilan Oysha kampir uydan yugurishib chiqdilar:

— Nima bo‘ldi, nima bo‘ldi?

Kumushbibi onasi bilan bibisining uydan chiqishlari ila boshini sandalning ko‘rpasiga burkab, yotib oldi. To‘ybeka juda qo‘rqqan edi:

— Qallig‘i to‘g‘risida so‘z ochqan edim, men bilan urishdi.

Oftob oyim To‘ybekani qarg‘ab berdi:

— Sen aqlsiz o‘lgur, Kumushni uyaltirg‘ansan! Tinch yursang seni birav bir nima qiladimi? Bor, ishingga bor!

Onalar Kumushning bu hayqirig‘ini uyalg‘anga yo‘ydilar-da, yana uyga kirib bisot kavlashka, to‘y hozirligini ko‘rishka mashg‘ul bo‘ldilar.

Kumushbibi bir necha fursatkacha shu ko‘yi burkanib yotdi. So‘ngra o‘rnidan turib tashqari havliga qarab

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

ketdi. Ko'b yig'lag'anliqdan ko'zlari qizarg'an, qovoqlari shishkan, yuzlar bo'rtkan edi. Ammo bu o'zgarishlar uning husnini, latofatini bir zarra ham kamitmay balki, o'n qayta oshirg'an edilar. Tashqarig'a chiqg'andan keyin ayvonning tumshug'iga kelib o'lturdi va o'ng qo'lining kaftiga yuzini olib fikrga toldi. Shu holda uzoq qoldi. Shundan keyin ul qo'lini yuzidan bo'shatdi-da, entikib dam oldi va kimnidir izlagandek, kimnidir kutgandek tevaragiga qarab qo'ydi...

— Ariq bo'yi, sirlik ariq bo'yi.

Yoshliq ko'zlar ariq bo'yig'a tushib, nozik oyoqlar ariq bo'yi tomong'a harakatlandilar. Ul ariq bo'yig'a yetkach, ma'lum o'ringa sakrab o'tdi-da, cho'nqaydi. Bir hovuch suv olib yuzidan to'kib tushirdi va ohistagina yo'lak tomong'a qarab olg'andan keyin suvning oqishig'a ko'zini tikdi. Kumushning dardini hech kim bilmas, uning xayoliga hech kim tushunmas, magar shu ariq bo'yi tushungandek, bilgandek... Sirlik ariq bo'yi unga nimalarnidir so'zlar, undan nimalarnidir tinglar, bunga chetdan hech kim voqif bo'la olmaydir-da, bo'lmog'i ham mumkin emas.

Ko'zlaridan oqqan marvarid tomchilarini shu sirlik ariq suvi bilan yuvdi, bir martabagina yuvdi emas — qaytalab-qaytalab yuvdi. Boyag'i achchig'idan bir muncha tinchlanib, ko'z qizilliqlari ketkan holda bitta-bitta bosib ichkariga qaytdi.

10. TO'Y, QIZLAR MAJLISI

Qutidorning tashqarisig'a er mehmonlar, ichkarisiga xotin mehmonlar to'lg'anlar, ular quyuq, suyuq oshlar, holva, nisholdalar bilan izzatlanadirlar. Tashqarida bir qo'sha sozandalar dutor, tanbur, g'ijjak, rubob, nay va amsoli[1] sozlar bilan dunyoga jon suvi sepib shaharning mashhur hofizlari ashula aytadirlar. To'y juda ham ruhlik...

Ichkarida xotinlar majlisi: onalarcha aytkanda, ular qum-tuproqdek ko'b, biroq majlisning borishida tartib yo'q, havli yuzi va uylar xotinlar bilan to'lg'an, qaysi havli yuzida bir tovoq oshni yeb o'lturadir, kim

[1] Amsol — o'xshashlar, monandlar.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

yig‘lag‘an bolasini ovitish bilan ovora, birav yor-yor o‘qub, tag‘in bittasining quvonchi ichiga sig‘may xaxolab dunyoni buzadi, xullas bag‘-bug‘ yetti qat ko‘kdan oshadir...

Oftob oyim qayg‘uliroq, tusi bir oz siniqqansumon... Mehmon kutib charchag‘anidanmi, nimadan bo‘lsa ham juda kalavlagan, ba’zan qiladirg‘an ishidan ham yanglishib ketkani, masalan, uyga kirmakchi bo‘lib tavanxonaga kirib qolg‘ani ko‘riladir. To‘yga kelgan xotinlarning «To‘ylar muborak, kuyav o‘g‘ul muborak!» deb so‘rashlarig‘a ham ishonchsiz bir ohangda «Qutlug‘ bo‘lsin», deydir.

Oftob oyim donxonaning eshigidan turib xotinlar orasidan kimnidir o‘z yonig‘a chaqirdi. Yoshi ellidan oshqan, kulgusi ichiga to‘lib toshqan bir xotinni duvurdan[1] chiqib, o‘ziga qarab yurganini ko‘rgandan keyin donxonag‘a kirdi. Xotin ham ichkariga kirgach, Oftob oyim eshikni qiya bekladi-da, qayg‘uliq bir boqish bilan xoting‘a qaradi.

— Nega qayg‘uliq ko‘rinasan, Oftob?

Oftob oyim uzoq tin olib eshikka qaradi va yarim tovush bilan:

— Shu choqda ichimga charog‘ yoqsalar ham yorimaydirda, egachi, — dedi va ko‘ziga jiq yosh oldi.

— Nega?

— Qizim to‘g‘risidan...

— Qizingga nima bo‘ldi?

— Unashilg‘anig‘a bu kun yettinchi kun, — dedi Oftob oyim, — shundan beri Kumushingiz tun ham yig‘laydi, kun ham, sababini so‘rasam sira javob bermaydir-da, do‘lonadek ko‘z yoshisini oqiza beradir. Bu kun tag‘in yig‘isi oshib tushdi. Haytovur yalinib, yalpog‘lanib arang hammomga yubordiq.

Xotin Oftob oyimning bu gapidan hayron bo‘ldi va o‘ylab so‘radi:

— Nimabalo, kuyaving ko‘rksizmi?

— O‘zim ko‘rmadim, — dedi Oftob oyim, — ammo ko‘rguchilarning so‘zlariga qarag‘anda o‘xshashsiz ko‘rkam, tengsiz aqlli bir yigit emish... Otasining o‘zi yigitni yaxshi ko‘rib kuyav qilg‘an edi.

— Kumushning o‘zi yigit to‘g‘risidan hech narsa bilmaydirmi?

[1] D u v u r — xotinlar va bolalarning g‘ala-g‘ovur suhbati va harakati.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Biladir, — dedi oyim, uning oldida biz jo‘rttaga kuyavni maxtashamiz, lekin bu maxtovlarni eshitgusi kelmay, qaytag‘a yig‘isinig‘ina ortdiradir.

Xotinning ham bu gapdan hayrati ortdi va bundan qanday sir borlig‘iga aqli yetmadi. Oftob oyimni yupatish uchun o‘tkan-ketkandan va boshda yig‘lab erga tekkan qizlarning chimildiqda yigit bilan apoq-chapoq bo‘lishib ketkanlaridan hikoya qildi:

— Qayg‘irma, Oftob, — dedi, — kuyaving bunchalik suluv bo‘lsa, gap-so‘zda tenggi bo‘lmasa, hali chimildiqda qizingning pechak guldek bo‘lib eriga chirmashqanini ko‘rarmiz.

— Oh, opajon, — dedi umidsizcha oyim, — manim bunga ko‘nglim chopmaydir.

— Chopsin, Oftob. Men bunday yig‘loq qizlarning ko‘pini ko‘rdim, shunday qizlarning uyalmay-suyalmay chimildiqda hatto yigitdan ham ortdirib harakat qilganlarini ham ko‘rdim, sening qizing ham shularning bittasi, qayg‘irma Oftob.

— Ilohi shunday bo‘lsin-da.

— Bo‘ladi-bo‘ladi, — dedi kulib xotin, — shoshmachi, Oftob. Agar qizing men aytkandek o‘zgarib ketsa menga nima berar eding?

— Sizga bosh-oyog‘ kiyim.

— So‘zingdan qaytma, Oftob. Pechak guldek bo‘lib eriga chirmashqanini ko‘rarmiz hali, xudo ko‘rsatsa, bor, o‘ynab-kulib mehmonlaringni kut!..

Shundan keyin ikavi donxonadan chiqib xotinlar orasig‘a kirdi.

* * *

Qizlar majlisi — gullar, lolalar, to‘tilar, qumrilar majlisi! Bu uyda — Kumushbibining tog‘asining uyida qizlar majlisi, gullar majlisi!

Bu uyga o‘ttuz-qirq chamaliq qizlar yig‘ilg‘anlar, yig‘ilishdan maqsad: qizlar o‘zlarining eng latif, eng go‘zal bir a’zolarini bu kun xotinliq olamiga uzatmoqchidirlar. Bu uzatish majlisini jonlik, ruhlik o‘tkazmak uchun barcha qizlar o‘zlarining eng asil, eng nafis kiyimlarini kiyib, favqulodda yasanib, husn olamini yana bir qat, yana bir qayta bejabdirlar. Agar bu uyga kirib, bu majlis a’zolarini bir martaba ko‘zdan kechirsangiz,

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
hozirdanoq aytib qo‘yish mumkin-ki, albatta esingiz chiqib ketar:

— Bu gulmi, ko‘hlik? Yo‘q narigisi! Undan ko‘ra bunisi! Barisidan ham o‘ttasi!.. Ana shunday qilib esdan ham ajrarsiz, gul tanlashda bir qarorg‘a kelalmay el ichida kulgiga ham qolursiz, rasvo ham bo‘lursiz.

Mana, majlis a’zolari shunaqangg‘i bir-biravidan o‘toq malaklar, parilar edilar. Majlisning shoirlari, o‘yinchilari, childirma va dutorchilari — barchasi ham hozir bo‘lib faqat Kumushbibigina hammomdan qaytmag‘an edi. Shuning uchun majlis ochilmag‘an, ochilsa ham ruhsizroq, Kumush kelgach, majliska ruh kirishiga barcha ishonadir va uni to‘zimsizlanib kutadir.

Kimdir, oradan bittasi «kelishdi!» deb yubordi. Barcha qizlar uyning darichasi yonig‘a uymalashib havlig‘a qaradilar. Chindan ham ul yonida ikki yangasi bilan kelgan edi. Shu choqda bizga Otabek kerak edi! Nega desangiz, ul kelsin edi-da, suyganini bir ko‘rsin edi: hammom bilan ul... faqat jong‘ina so‘raydir, majruh ko‘kslarga o‘qqina otadir... Boshdag‘i oq shohi ro‘ymol, ichdagi oq shohi ko‘ynak, ustdagi oq kumush zarrin sirilgan po‘stin, baqbaqalarni o‘rab o‘pib turg‘an yoqa qunduzlarining kelishkani, solinib tushkan qora jinggila sochlarning bo‘yin tevaragiga chirmashqani, xom nuqra yuzlarning bo‘g‘riqqani...

Yangalar Kumushni havlidan turib qizlarg‘a topshirdilar:

— Mana Kumushbibi — sizlarga, qizlar! Kumushning ko‘nglini yaxshilab ochinglar, qizlar!

Ikki-uch qiz chopib havlig‘a tushdilar-da, Kumushbibidan paranjini olib uyga boshladilar. Yangalar Kumushni qizlarg‘a topshirib ketdilar. Havli er va xotindan bo‘sh, yolg‘iz qizlarg‘agina xoslanib qoldi.

Kumushbibi boshlag‘uchi qizlar bilan uyga kirdi, undan ongqan atir islari bilan uy to‘ldi. Qizlar o‘zlarining bir turlikkina so‘zlashishlari bilan Kumush ila ko‘risha boshladilar:

— Esonmisiz, sarupolar muborak?

Kumushbibining qizlarg‘a bergan javobi eshitilar-eshitilmaslik edi:

— Qutlug‘...

Kumushbibi uyning to‘riga o‘tquzildi. Qizlar uyning tevaragiga o‘lturishib olg‘andan keyin orag‘a nima

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

uchundir bir jimjitlik kirdi. Qizlar ma'nolik qilib yer ostidan Kumushka qaraydirlar. Majlisda bir xil ma'yusiyat. /Qizlar nimani o'ylaydirlar va nima to'g'risida ma'yuslanadirlar, bu ersa qizlarning bizga noma'lum bo'lg'an ichki sirlaridir.

Qizlar ipka chizilg'an guldek uy tevaragini olg'anlar, buning ustiga yovoshliq, o'ychanliq ularning tuslariga ma'naviy bir husn va jiddiyat berib, birga yuz husn qo'shqan edi. Agar biz shu kezda zarshunosliq uchun yeng shimarsak, ya'ni gulni guldan ajratadurg'an bo'lsaq boyag'idek esankirab, mutaraddid[1] qolmaymiz, chunki Kumushbibi lolalar isidagi bir gul va yo yulduzlar orasidag'i to'lg'an oy edi.

Orada hamon boyag'i jimjitlik hukm surar edi.

Har bir majlisning jonlandirg'uchi, idora qilg'uchi bir-ikki qahramoni bor bo'lganidek, bu qizlar majlisi ham shunday qahramonlardan holi emas edi. Majlisni bunchalik ruhsizlanib, ma'yusiyat ichida qolishig'a Gulsinbibi chidab turolmadi:

— Biz nima uchun yig'ildiq-da, nimaga yer chizishib o'lturamiz! — dedi. — Biz bu yerga aza ochqali keldikmi?

Gulsinning yonig'a Xonimbibi qo'shilishdi:

— Ko'b o'ylashmang, o'rtoqlar! — dedi, — baribir bu gap hammamizning ham boshimizda bor! Tur Savra! Havlig'a olov yoqib childirmangni qizit! Anorgul, sen dutoringni ol! Kumushbibi, siz uncha xayol surmang kulib o'lturing. Baribir ertaga joysiz chekkan qayg'ingizdan o'kinarsiz! — dedi-da, majlisni ost-ust kuldirib yubordi. Kumushbibi ham ixtiyorlik, ixtiyorsiz bu kulgulikka tortilib, uning yovoshqina iljayishidan yoqutdek lablari ostidagi sadaf kabi oq tishlari bir oz ko'rinib qo'ydilar.

Shu gapdan keyin majliska kutilmagan bir ruh kirdi. Anorgulning qo'lidag'i dutor «O'rtoqlar» kuyini tanlarga larza berib, tarona qildi. Xonimbibi qizlarg'a qistatib o'lturmay o'rnidan sakrab turdi-da, o'ynab ham ketdi. Dutor yonig'a childirmaning chertmagi kelib qo'shilg'andan keyin bazm tag'in ham jonlandi. Chapaklar ham ko'tarildi. O'yin qizib borar edi, uning daricha eshiklari beklanib toqchalarg'a sham' yoqil-

[1] M u t a r a d d i d — taraddudlanish, ikkilanish

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

g‘andan so‘ng, bazmning ruhi yana oshdi. Yel bilan o‘ynashib yong‘an sham’ nuri qizlarni allaqanday ajib holatka qo‘ymoqda, majlis ersa «Alif laylo» hikoyalaridagi «parilar» bazmini xotirlatmoqda edi. Dutor «Ifor» kuyini chalib, childirma ham nozik yo‘l bilan unga qo‘shilisha bordi. O‘yin ham bir turlik nazokat kasb etib, Gulsinbibi yo‘rg‘alay ketdi. Dutor ko‘ngilning allaqanday ingichka joyini qitiqlaydir, childirma yurakni nimagadir oshiqdirib, Gulsin qizning yo‘rg‘alashi borliq a’zoni zirillatadir. Bazm juda qiziq, juda ko‘ngillik edi.

Kumushbibini ham bu qiziq bazmdan boshqalardek hissa oladir, so‘yinib quvonadir, deb o‘ylanmasin, chunki vujudi qizlar bazmi ichida bo‘lsa ham xayoli allaqayoqlarda uchib yurgandek, ko‘zlari o‘ynag‘uchi qizlarda bo‘lsa ham, ammo haqiqatda boshqa bir narsani ko‘rgandek... Ko‘rinishdan natija chiqarib aytkanda, bu qiziq majlis uning uchun bazm o‘rnini emas, aza joyini tutqandek...

Ikki soatlik qiziq bir bazmdan so‘ng qizlar charchadilar-da, o‘yinni to‘xtatdilar. Gulsin bilan Xonimbibi endi dutor bilan qo‘shiqqa o‘lturdilar. Gulsin o‘zining qo‘ng‘uroqdek tovshi bilan «Yig‘larman» kuyidan boshladi:

O‘rtoqlarim, qo‘lg‘a olsam torimni,
Beixtiyor yodlaydirman yorimni!

Ikkinchi qaytarib aytishda unga Xonimbibi qo‘shilishdi. Bir turlik, bir ohanglik nafis, musiqaviy tovushlar kishining borliq vujudiga, qon tomirlarig‘a ajoyib bir o‘zgarish bergan edilar. Shu choqqacha mo‘ltayib, xayol ichida sho‘ng‘ib o‘lturg‘an Kumushbibi bir seskandi-da, qo‘shiqchi qizlarg‘a qaradi.

Qizlar ikkinchi baytka o‘tdilar:

Bir ko‘rinib yag‘mo[1] qilg‘an ko‘nglimni,
Qaytib yana ko‘ralmadim norimni!

Shu vaqt kutilmagan joyda Kumushning ikki ko‘zi jiq yoshga to‘lg‘an edi. Uchunchiga o‘tdilar:

Agar ko‘rsam edi yana yorimni,
Bag‘ishlardim hama yo‘qu borimni!

[1] Ya g‘ m o — asir, talon-taroj.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

To‘rtinchi:

Bilurmikin, bilmasmikin u zolim:
Kunlar-tunlar tortqan ohu zorimni!

Kumush toqatsizlang‘an edi...

Beshinchi:

Chindin ayting o‘rtoqlarim menga siz,
Qayta boshdan ko‘rarmanmi yorimni?

Keyingi:

Ketdi toqat, ketdi sabrim... ketdilar...
Sindirarman urib yerga torimni!

Bu keyingi baytka quloq solg‘uchi qolmadi. Chunki yonidagi qizg‘a osilib yig‘lay boshlag‘an Kumushbibiga har kim taajjubda, har kimning ko‘zi, qulog‘i shunda edi.

— Nima bo‘ldi, Kumush?

— Nega yig‘laysiz, Kumush opa?

— Birar joying og‘riydirmi, Kumush?

Kumushbibi o‘z ustiga duv yig‘ilg‘an qizlarga ko‘zini ochib qaradi-da, hushyor tortqanlardek bir harakat qilib qo‘ydi va tez-tez cho‘ntagidan ro‘ymolini olib ko‘zyoshisini quritdi.

— Nega yig‘lading-a?

Bu savolni berguchi Gulsinga Kumush kuch bilan iljayib qaradi-da:

— O‘zim... — dedi.

— Voy sho‘rginangga sho‘rva to‘kilsin, Kumush! — dedi Gulsin, — men shunday erni topib teksam boshim ko‘kka yetar edi!

Gulsinning gapiga qizlar kulishdilar. Kumush juda xafa ko‘ringanlikdan uning ko‘nglini ochmoqqa to‘g‘ri kelar edi. Shuning uchun boshqa o‘yinlarni qo‘yaturib majlisning eng qiziq tarafi bo‘lib sanalg‘an lapar aytishka ko‘chdilar. Gulsin kuyav ro‘lini o‘ynar, Xonimbibi Kumush ro‘lida, ikkisining bir-birisiga qarab o‘qishqan laparlari barchani kuldirib, ichaklarni uzar darajada. Biroq Kumushning tishining oqini ko‘rish juda qiyin, uning hamma ishi faqat mungg‘ayib xayollanishqina...

Qizlarg‘a to‘yxonadan oshlar, tavanlar kelib tortildi. Oshdan keyin yangalar kelib, qizlardan Kumushni so‘radilar. Qizlarning, «Yo‘q, biz Kumushbibini sizlarga

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
bermaymiz!» deb o‘ynab aytkan so‘zlari Kumushbibiga chindek bo‘lib eshitilar, yangalar bilan uydan chiqar ekan, ko‘mak so‘rag‘andek qizlarg‘a termulib qarar edi. Shu yo‘sun qizlar o‘zlarining bir o‘rtoqlarini xotinliq dunyosiga uzatib, majlisdan tarqalishdilar.

11. KUTILMAGAN BAXT

Kumushbibidan vakolat olish ham juda qiyin bo‘ldi. Domlaning: Sizkim Kumushbibi Mirzakarim qizi, o‘zingizni toshkandlik, musulmon Otabek Yusufbek hoji o‘g‘liga bag‘ishlamoq vakolatini amakingiz Muhammadrahim Yo‘ldosh o‘g‘liga topshirdingizmi? degan so‘rog‘i olti, yetti qaytarilg‘andan keyin, shunda ham yangalar qistog‘i ostida arang uning rizolig‘i olindi.

Kechki soat beshlarda qutidorning havlisi to‘rt ko‘z bilan kuyav kelishini kutadir. Kuyav uchun palovlar, quyuq-suyuq oshlar, necha turlik ne’matlar hozirlanib, bular ham kuyavning intizorida turadirlar. Nihoyat, soat besh yarimlarda kuyav keldi. Yigirma-o‘ttiz chog‘liq yosh yigitlar — Rahmatning o‘rtoqlari, ular orasida Otabek — kuyav ko‘rindi: boshida simobi shohi salla, ustidan qora movut sirilgan sovsar po‘stin, ichida o‘zining Shamayda tiktirgani osmoni rang movut kamzul, movut shim: oyog‘ida qalapoy afzali, belida Kumushbibining usta qo‘li bilan tikilgan shohi qiyig‘... Yuzlar qizil, og‘iz irpaygan, ko‘zlar o‘ynab allakimni qidiradir. Oshlarini yeb bo‘lsalar ham jo‘rttaga kuyav ko‘rish uchun o‘lturg‘an mahalla kishilari bir-birlarini turtishib: «Tuzuk-tuzuk, kuyavlikka arzigundek, chakki chakkiga tushmapti, olmayu-anor» deyishdilar. Tomda kuyav kutib o‘lturg‘an xotinlar ichidan Oftob oyimning egachisi oshiqib singlisi yonig‘a tushdi-da: «Oftob, darrav isiriq hozirla, kuyavingni yomon ko‘zdan o‘zi asrasin!» dedi. Qutidor eshik ostida qo‘l qovishtirib mehmonlarni kutib oladir, yer ostidan kuyaviga ko‘z qirini tashlab, kishiga sezdirmay o‘zicha kulimsirab qo‘yadir. Mehmonxona ayvonida oq soqolliq, ko‘rkam siymo va og‘ir tabi’atlik domla bilan Ziyo shohichi, Hasanali, qiz vakili va tag‘in bir necha kishilar o‘lturadilar. Yigitlar kuyavni domlalar qarshisig‘a kelturib to‘xtatqandan keyin Otabek vakili bo‘lg‘an Ziyo shohichi

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

bilan Kumush qiz vakili Muhammadrahim oralarida mahr masalasi ochiladir. Ko'b tortishqandan so'ng quyidag'i mablag'lar mahr qilib belgulanadirlar: uch yuz oltin pul, mundan keyin olib berish va'dasi bilan Marg'ilondan o'radek bir havli, sog'ish uchun sigir, asbobi ro'zgor... Bunga Otabek ham o'z rizolig'ini bildiradir. Domla xutba boshlaydir. Forsiycha o'qulg'an hamd, salovot va boshqalardan so'ng xutba eng nozik bir o'ringa kelib to'xtaydir: «Sizkim Otabek Yusufbek hoji o'g'li Kumushbibi Mirzakarim qizini o'zingizga shar'iy xotinliqqa qabul qilasizmi?» — fors tilida so'ralg'an bu savol Otabeknnig kulgusini qistatib, ko'nglidan kechiradir:

— Qabul qilasizmi-ya?

Ul birinchi so'roqdayoq — «uchib, qo'nib qabul qilamiz» deb javob bermakchi bo'lsa ham biroq xalqning — «o'lib turg'an ekan» deb qiladigan ta'nasidan cho'chib, javob bermaydir. Yana bir qayta yuqoridagi «siz kim falonchi...» jumlasi domla tarafidan takrorlanadir. Kuyavlarga uchunchi so'roqda javob berish odat hukmida bo'lsa ham, Otabek bu takallufka chidalmaydir. Go'yo uchinchi so'roq o'rnig'a «Endi olmas ekansiz Kumushbibini...» deb majlis buziladirg'andek seziladirda, hamma tovshini qo'yib, barchag'a eshitdirib «Qabul qildik!» deb yuboradir.

Domla alhamdulilloh, alhamdulilloh... bilan nikohni tugatib majlis tomonidan kelin bilan kuyavning haqlarig'a duo boshlanadir, hamma duog'a qo'l ko'tarib, hatto tomdag'i tomoshachi xotinlarg'acha «omin»ga ko'maklashadirlar va shundan keyin nikoh majlisi yopiladir. Yigitlar kuyavni mehmonxonag'a olib kiradirlar, ziyofat boshlanadir.

Otabekda bir daqiqag'a bo'lsin to'zim bo'lmag'an bir vaqtda bir necha soatlarga qarab cho'zilg'an bu tomoq majlisi bilan albatta ul yaxshi chiqisha olmaydir. Xuftanga yaqin bana'ji[1] bir ishtiho bilan yeyilib bo'shatilg'an lagan, tovoqlar olinib dasturxonlar yig'ildi. Bizningcha bir yarim soat, Otabekcha allaqancha yil hisoblangan bir fursat o'tib, nihoyat, yangalar kuyav so'radilar. Ikki yoshg'a muhabbatlik umr so'rab fotiha o'qilg'andan so'ng Otabek ichkariga uzatildi.

---

[1] B a n a' j i — och qoringa.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Hasanali mehmonxona ayvonida bekni kutib turar edi:

— Endi kuyavlik muborak bo‘lsin, begim?

— Qutlug‘ bo‘lsin.

Hasanali boshdan-oyoq bekni kuzatdi, otaliq muhabbati bilan bekning orqasini siladi va yoshli ko‘zlari bilan duo qilib unga ruxsat berdi. Otabek yangalar kutib turg‘an tarafka yurdi. Ul hozir qiziq holatda edi: bu nima gap, tushimi, o‘ngimi, nima gaplar o‘tib, nimalar bo‘lmoqda, bo‘lib turg‘an ish haqiqatmi?

Biz ichkariga kiramiz: havlining ikki tomoni to Kumushbibining uyigacha qator kuyav kutkan xotinlar, bola-chaqalar bilan to‘lg‘an. Ba’zan kutkuchi xotinlarning qo‘lida yonib turg‘an sham’, kuyav tushadirgan uy to‘y mollari bilan juda ham bejalgan. Yuqorida yozilib o‘tilgan qutidor uyining aksar jihozlari shu uyga, Kumush qiz uyiga ko‘chirilgan. Bir bulargina emas xotin-qizlar qo‘li bilan chatib ishlangan turlik ziynat chodirlari bilan ham bejalgan, shipda katta qandil, qandilda o‘ttuzlab sham’lar yonib uyni sirlik bir holatka qo‘yadirlar. Burchakda qizlar majlisida ko‘rilgan oq kiyimlar bilan Kumushbibi turadir... Uning husni bejalgan uyning oqlari, ko‘klari, sariqlari va qizillari bilan tovlanib xayoliy bir siymoda... Ko‘z yoshlarini oquzib yangasining so‘ziga quloq osmaydir. Tashqaridan eshitilgan «kuyav! kuyav!» so‘zi bilan tag‘in ham uning ko‘z yoshisi ko‘payib tusi ham o‘zgardi. Yangasi Kumushni shu holda qoldirib o‘zi yugirganicha eshikka chiqdi. Kuyav kelar edi: ikki tomonni sirib olg‘an xotin-qizlar o‘rtasidan Otabek kelar edi. Uning ketidan Oftob oyimning egachisi isiriq tutatar edi. Xotinlar qo‘llarida sham’ bilan unga qarar va kuzatib qolur edilar. Kuyav uyning yonig‘a yetdi. Uning yuzi uyatidan juda qizarg‘an, qochqali joy topolmas edi. Shu kezda uyning eshigi ochildi-da, yanga tomonidan qarshilandi.

— Kiringiz, bek.

Otabekning yurak urishi ehtimol yangasiga ham eshitilar edi... Otabek uyga kirgandan keyin yangasi tashqari chiqib, eshikni o‘zi ko‘rarlik qiya qilib yopdi... Uyning to‘rida yonini Otabekka berib ro‘ymolining uchini tugibmi, yirtibmi Kumushbibi turadir va kim keldi, deb yonig‘a qaramaydir. Ro‘ymol tugish bilan mashg‘ul latif qo‘llarni chet qo‘l kelib siqdi:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Jonim!

Kumushbibi begona qo‘ldan seskandi va qo‘llarini qutqazmoqqa tirishib:

— Ushlamangiz, — dedi ham siquvchi qo‘ldan qutilish uchun orqag‘a tislandi.

Titrag‘an va qovjirag‘an bir tovushda:

— Nega qochasiz? Nega qaramaysiz? — dedi bek. Kumushbibi shu choqg‘acha qaramag‘an va qarashni ham tilamagan edi. Majburiyat ostida, yov qarashi bilan sekingina dushmaniga qaradi... Shu qarashda bir muncha vaqt qotib qoldi. Shundan keyin bir necha qadam bosib Otabekning pinjiga yaqin keldi va esankiragan, hayajonlang‘an bir tovush bilan so‘radi:

— Siz o‘shami?

— Men o‘sha, — dedi bek. Ikkisi ham bir-birisiga beixtiyor termulishib qoldilar.

Kumushbibi og‘ir tin olib:

— Ko‘zlarimga ishonmayman, — dedi.

Otabek ko‘zlarini to‘ldirib qarab:

— Men ham, — dedi.

Shu vaqt ikki lab o‘z-o‘zidan bir-birisiga qovishdi... Kichkina nozik qo‘llar yelka ustiga, kuchlik qo‘llar qo‘ltiq ostig‘a yopishtilar.

Kumushbibi Otabekning yuziga uzoq tikilib turdi-da:

— Kutilmagan bir baxt, — dedi va o‘zining otidek bir narsaning tovshi kabi qilib kulib yubordi. Bu kulish havlilargacha eshitildi. Qiya ochilib turg‘an uy eshigi ham qattiqqina beklandi. Kumushbibi Otabekning qo‘lidan ushlab quyida yozib qo‘yilgan dasturxon yonig‘a boshladi:

— Siz bo‘lg‘anlig‘ingizni ilgaridan bilganimda boshqacha qarshilar edim, — dedi.

— Boshqa deb o‘yladingizmi?

— O‘ylash qayerda, siz bo‘lursiz, deb ko‘nglimga ham kelmagan edi, — dedi-da, tag‘in kulib yubordi.

Dasturxon yonida Kumushbibining latif bilagiga Otabek oltin uzuk solur ekan, ul yerga qarag‘an holda edi.

— Men sizga hech narsa ham hozirlamag‘an edim...

— Hozirlamag‘aningiz uchun o‘kinasizmi?

— ...

— O‘kinmangiz, — dedi bek, — sizdan bir narsani so‘rasam ayamassiz?

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Ayamayman.

Otabek Kumushbibining lablari ustidagi qora xolig'a ishorat qilib:

— Shu yerdan bir o'pish bersangiz, siz ham katta esdalik hozirlag'an bo'lur edingiz, — dedi.

Kumushbibi qizarindi.

* * *

Otabek Marg'ilon kelganning ikkinchi kuni poyafzal bozorida bo'lg'an edi. Asr namozning vaqti o'tib borg'anliqdan ul shundagi do'kondorlarning birisidan tahorat olish uchun suv so'radi. Ko'chadagi suv ariqning tegidan sayoz oqar, shuning uchun undan foydalanish qulay emas edi. Do'kondor unga suvning qulay o'rnini ko'rsatdi: «Mana shu burchakdagi darbozadan ichkariga kirsangiz, ariqning yuza joyini topib tahorat olursiz», dedi. Otabek do'kondorning ko'rsatishicha qutidorning tashqarisig'a kirdi. Shu vaqt tasodufan nima yumish bilandir mehmonxonadan chiqib kelguchi farishtaga ko'zi tushdi. Kumush ham ariq yoqasig'a kelib to'xtag'an chingilin[1] yigitka beixtiyor qarab qoldi. Ixtiyoriy emas, g'ayri ixtiyoriy ikkisi ham bir-birisidan bir muncha vaqt ko'z ololmadilar. Oxirda Kumush nimadandir cho'chig'andek bo'ldi, yengilgina bir harakat bilan o'zini ichkari yo'lak tomong'a burdi. Bu burilishdan uning orqa-o'ngini tutib yotqan qirq kokillari to'lqinlandilar. Kumush ichkariga qarab chopar ekan, yo'l ustidan ariq-bo'yida qotib turg'an yigitka yana bir qarab qo'ydi va bu qarashda unga yengilgina bir tabassum ham hadya qildi... Kumush ichkariga kirib ko'zdan g'oyib bo'ldi, lekin Otabek yana bir necha daqiqa yerga mixlangandek qotib turdi... Oxirda ko'zini katta ochib o'tkan daqiqada uchrashkani xayoliy go'zalni istab xayollandi. Biroq haqiqat boshqacha edi. Tahorat olmoq uchun ariq bo'yig'a o'lturdi. Ammo ko'zi xayol yashiring'an yo'lakda edi. Tahoratlanib bo'ldi, yana ko'zini o'sha tarafdan uzolmadi. Artinib olg'andan keyin yana oyog' ustida to'xtab qoldi. Yashiring'an go'zal ikkinchi qayta ko'rinmadi, ehtimolki, Otabekni ipsiz bog'lab, o'zi qaysi burchakdan bo'lsa ham asirini tamosha qilar edi.

[1] Chingilin — ixcham, bejirim.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Ko‘b kutdi, asr namozini qazo qilib kuch bilan qutidor uyidan chiqdi va shu daqiqadan boshlab unda muhabbat mojarosi tug‘ilg‘an edikim, bu yog‘i o‘qug‘uchimizga ma’lumdir. Kumushbibining yuqorida «Siz o‘shami!» deb so‘rashi shunga binoan bo‘lib, ammo unga masalaning onglashilmay qolishi va chin baxtni bil’aks kutib olinishi qiziq edi. Shunday qilib ikki yoshning birinchi ham sof muhabbatlari qovishish bilan natijalandi.

12. CHAQIMCHILIQ

— Bu kun yetti kun... Otabek qutidorning qizig‘a uylandi.

Ul bu xabarni Qo‘qondan qaytishda eshitkan edi. O‘zining qiyofasiga yarasha qo‘rqunch yo‘llar izlar ekan, quloqlari tegida «...qizig‘a uylandi» jumlasi takrorlanib turg‘andek bo‘lar edi.

Uning Qo‘qondan qaytishi ikkala xotini uchun ham ulug‘ bir falokat bo‘ldi. Chunki arzimagan bir sabab bilan ikkalasi ham yaxshig‘ina tayoq yeb oldi. Shuning uchun ikki kundash uning oldig‘a kirishdan qo‘rqib, yana to‘g‘risi — uning sovuq aftini ko‘rishdan jirkanib havlining chet-chetida yurarlar, ikki kundash bilittifoq unga o‘lim so‘rarlar: «Qo‘qonda o‘lsa, o‘ligini itlar yesa biz achinarmi edi», deyarlar edi.

Ul o‘lturgan ko‘yi nima to‘g‘risida bo‘lsa ham juda bosh og‘ritib o‘ylar edi. Shu choqda uning tusidan yirtqichliq, bir gunohsizning ustiga hujumga hozirlang‘an vahshiylik belgulari ko‘rilur edi. Har holda ul yaxshiliqqa emas, qandog‘ ham bo‘lsa bir vahshiylikka yo‘llar, rejalar izlar edi. Oxiri uning yuzida istehzolik bir iljayish ko‘rildida, bir narsaga qaror qo‘yg‘andek bir harakat yasadi va o‘rnidan sakrab turib qoziqdag‘i kirlab ketkan sallasini qo‘lig‘a oldi va havliga chiqdi. Tashqarisida besh do‘konlab ish to‘qib turg‘an xalfa shogirdlariga ba’zi ta’limotlarni bergach, bir ulug‘ darboza orqaliq ko‘chaga yurdi. O‘ralib bitmagan sallasini tuzata-tuzata tor, kirdi-chiqdilik ko‘chalar bilan shaharning kunbotar tomonig‘a, beklar mahallasiga qarab ketdi.

Beklar mahallasining boshlanishida, janubga qaratib qurilg‘an ulug‘ bir darbozaning yonida ikki nafar miltiq

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
va qilichlik yigit so‘zlashib turar edilar. Bularning yonig‘a bizga ma’lum kishi kelib to‘xtadi va ulardan so‘radi:

— Bek uydamilar?

So‘zning beliga tepkani uchun yigitning birisi o‘shshayib so‘rag‘uchig‘a qaradi, ikkinchisi qo‘llari orasidag‘i miltig‘i bilan ichkariga ishorat qilib javob berdi:

— Bor!

Darbozadan ichkariga kirilgach, saroy kabi bir havli, ayvonda o‘n beshka yaqin yarog‘liq yigitlar to‘nkalardan gulxan solib, isinib o‘lturmakda edilar. Ul to‘rdagi ayvon orqaliq yuriladirgan uyning eshigida turg‘uchi yigit og‘asining yonig‘a bordi va qo‘rboshi bilan uchrashmak orzusida bo‘lg‘anlig‘ini aytib undan kirishka ijozat so‘radi. Yigit og‘asining rahbarligi bilan ichkariga kirdi: boshig‘a ko‘k salla chulg‘ag‘an, egniga O‘ratepaning bosmasidan chakman, beliga kumush kamar bog‘lab kumush qinlik qilichini tizasiga bosqan, qora tanlik bo‘lsa ham ko‘knorimi, taryakmi iste’molidan yuzi sarg‘ayg‘an qirq-elli yoshlar chamaliq bir kishi yorliq-sumon bir yozuvni o‘qub o‘lturmoqda edi. Qo‘rboshi kelguchining salomiga e’tiborsizg‘ina javoblang‘an bo‘ldi-da, ruhsiz bir tovush bilan:

— Nima qilib yuribsiz? — deb so‘radi.

— Taqsir, sizga arz bor.

Yigit og‘asi kelguchini qoldirib chiqdi. Kelguchi eshik yonida oyog‘ ustida qo‘l bog‘lab turar edi.

— Qanday arzing bor?

— Taqsir... ijozat bersangiz o‘ltursam...

— Xo‘b, o‘ltur.

Kelguchi ko‘p tutulib tusi o‘ngg‘an gilam ustidan yurib borib, qo‘rboshi qarshisig‘a tavozi’ bilan o‘lturdi. Qo‘rboshi qo‘lidag‘i yozuvni buklab qo‘ynig‘a tiqdi-da, kelguchini yer ostidan kuzatdi:

— Qáyerliksan?

— Taqsir... shu yerlik, marg‘ilonlik.

— Oting nima?

— Taqsir... Homid.

— Nima kasb qilasan?

— Ustakorlik.

— Yaxshi, arzingni gapir?

Homid o‘zining tovshig‘a yasama bir ohang berib arzini boshladi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Janobi padari arus[1] shahanshohi Musulmonqul bahodir zamoni adolatlarida ham, — dedi Homid, — qora choponliqlar hanuz tinch yotmay yurtni qipchoq og'alarig'a qarshi oyog'landirmoqchi bo'ladirlar, ishni yana tadbirsiz qora choponlar qo'lig'a olib mamlakatni buzg'unliqqa solmoqchi bo'ladirlar... Biz bunday buzuqilar yolg'iz Toshkanddagi Azizbek bilan uning yo'lboshchisi bo'lg'an Yusufbek hoji, deb bilgan edik. Biroq ularning urug'i bizning Marg'ilong'a ham sochilg'an ekan.

Qo'rboshining ko'zi ola-kula keldi:

— Nima deysan? U kim ekan Marg'ilonda?!

— Bittasi mashhur buzuqi toshkandlik Yusufbekning hozirda Marg'ilonda turg'uchi o'g'li — Otabek ismlik bir yigit, ikkinchisi uning hammaslaki va qayin otasi bo'lg'an Mirzakarim qutidor.

— Hali-ya?

— Shundog', taqsir.

— Sen bu gapni qayog'dan bilding?

— Shu kunlarda ularning bir majlislarida bo'lg'an edim, taqsir...

— Xo'sh, xo'sh, majlisda?

— Majlisda ko'b gaplar o'tdi, taqsir, — dedi Homid, — majlisning boshlug'i bo'lg'an Otabek qipchoqlarning zulm va ta'addisini[2], qipchoqlaridan ishni olmoq uchun Toshkandda Azizbek va o'z otasi boshliq bilfe'l ish boshlag'anlarini so'zlab, Marg'ilonning ham mundan so'ng oyoqqa qalqishi kerakligini aytdi... Majlis ahli, ayniqsa Mirzakarim uning so'zini kuchlab tushdi. Agar bu ishning oldini olinmasa, hukumat va mamlakat uchun natija qo'rqunchdir, taqsir.

— Majlis kimnikida edi?

Homid tarafidan kutilmagan bir savol. Homid o'ziga berilgan bu savol qarshisida taraddudlanib qoldi. Chunki majlis o'rnini aytsa pochchasi bilan jiyani Rahmatning ham qo'lg'a tushishlari aniq va buning bilan ul o'z oyog'iga bolta qo'ygan bo'lar edi. Shu mulohaza yuzasidan ul tutiliqdi:

— Majlis o'rni yodimda yo'q, taqsir.

Mantiqsiz bu javobga qarshi qo'rboshi achchig'i bilan baqirdi:

---

[1] P a d a r i a r u s — qaynota.

[2] T a' a d d i — adovat, zo'ravonlik.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Yodimda yo‘q?!

Homid garangsidi va bir xil siniq tovushda:

— Esimda bo‘lsa ham nozik bir joy edi, taqsir, — dedi.

— Nozik bir joy edimi! — deb qo‘rboshi zaharxanda qildi. — Agar aytmasang o‘sha muttahamlar tiqiladirg‘an chuqurg‘a sen ham tashlanasan.

— Kechiringiz, taqsir.

Qo‘rboshi yirtqichlardek bo‘kirdi:

— Kechirish yo‘q!

Homid uchun eng keyingi choradan boshqa iloj yo‘q edi — cho‘ntak kavlashka tutindi va yuz mashaqqat bilan yonchig‘ini chiqardi. Yonchiqdan o‘nga yaqin oltinlarni sanoqsizcha olib, qo‘rboshig‘a uzatdi:

— Taqsir... sizga atag‘an nazrimiz edi...

Homid kavlana boshlag‘andanoq qo‘rboshining ustidan sovuq suv sepilgan edi. Ul oltinlarni yonig‘a solib joylag‘ach, tovush ham eski holiga qaytib, so‘zlar ham muloyim tortdi.

— Demak, nozik joy edi, degin Homidboy.

— Taqsir...

— Badbaxtlar shunday maslahat qildilarmi hali?

— Taqsir... Bu ishning oldini olinmasa natija yomon albatta.

— Albatta, biz o‘sha buzuqilarning jazolarini berarmiz... Men hozir borib bekka arz qilay, shu kechadan qoldirmay qo‘lg‘a olamiz muttahamlarni, — dedi qo‘rboshi.

Homidning chehrasi ochilib ketkan edi. Qo‘rboshi o‘zining imo va ishorasiga o‘tkanlikdan uning ko‘zida o‘ch olish quvonchlari va undan keyingi Homidning o‘ziga ma’lum bo‘lg‘an bir baxt umidlari o‘ynar edilar. Qo‘rboshi tokchadan davot, qalam olib oldig‘a qo‘ydida, yozuvg‘a hozirlanib so‘radi:

— Ayt-chi, Homidboy, muttahamlar kimlar edi?

— Bittasi toshkandlik Yusufbek hojining o‘g‘li — Otabek.

Qo‘rboshi yozdi:

— Ha-ha! Hali Yusufbek hojining o‘g‘li degin. Bizning Marg‘ilonni ham qong‘a botirmoqchi ekan-da, muttahamlar, ikkinchisi?

— Shu kunlarda Otabekka qizini bergan marg‘ilonlik Mirzakarim.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Pes-pesni qorong'ida topqan ekan, uchinchisi?

— Otabekning quli — Hasanali.

— To'rtinchisi?

Homid bir oz o'ylab javob berdi:

— Bilmadim... Hozir Marg'ilondami, yo'qmi, andijonlik Akram hoji.

Qo'rboshi yozdi:

— Ish katta ekan, tag'in?

— Endi yo'q, taqsir, — dedi Homid va so'ziga shuni ham qo'shdi, — Otabek bilan Mirzakarim qo'lg'a olinsalar ilonning boshi yanchilgan hisoblanib, o'zgalarning qo'lidan ish keladirgan odamlar emas, taqsir.

Qo'rboshi yozuvni bitirib qo'yniga tiqdi — «Bo'lmasa ish bitdi, ertaga erta bilan mojaroni eshitarsan», — dedi. Homid o'rnidan turib qo'rboshig'a qulliq qilib chiqdi.

13. QAMOQ

«Yormozor» mavzi'ida shahar qo'rg'onig'a tiralib soling'an o'rda. O'rda darbozasining sahni botmonlab hisoblang'an mevazor bo'lib, bunda olma, o'rik, nok va tut yog'ochlari xilig'ina bor edilar. Darbozaning ikki biqinini o'rab olg'an loyig'a gullar, naqshlar tushirilib ishlangan sakkiz gazlar yuksaklikda o'rda qo'rg'oni, darbozaning ikki burjida[1] alachami, bo'zdanmi uzun choponlar kiyib, boshlarig'a quloqchin qo'ndirg'an, qayish kamar ustidan qilich tiqinib miltiqlarig'a suyang'an ikki yigit ko'rinadirlar — bular navbatchi o'rda qorovuli, qorong'i tushishka yaqinlashqanliqdan qiya yopilib turg'an darbozani kimdir, ichkaridan bittasi zichlab yopdi-da, kuch sarf qilib darbozaning zo'r zanjirini sharaq-shuriq etib bog'ladi. Hozir bizga o'rda ichiga kirish mumkin bo'lmag'ani uchun qo'rg'onning tashqari tegrasida aylanib turayliq: darbozaning so'l biqinig'a qarab ikki yuz adim ketsak qo'rg'on devori tugalab, burja yetiladir. Qo'rg'on burjiga qorovul turish uchun maxsus manora shakilli joy yasalg'an bo'lsa ham hozirda navbatchidan xolidir. Shundan keyin bir bo'shliq yer bilan qo'rg'onning janubiga qarab ketiladir.

[1] B u r j — qal'a va qo'rg'on devorining burilish joylariga va darboza yonlariga qurilgan soqchilar turadigan qorovulxona.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

To‘rt yuz adimlab borilg‘ach, qo‘rg‘onning sharqi-janubi burjiga yetilib, bu burjini ham anovisidek qorovulsiz topiladir. Bu burjdan qarag‘an kishiga qo‘rg‘onning g‘arbi-janubi burji ham ko‘rinib, shu yo‘sunda o‘rdaning to‘rt burjini aylanib chiqilsa bir ming olti yuz adim bosilg‘an bo‘lib o‘rdaning g‘arb tomonidan biz tanishqan o‘rda darbozasig‘a kelinadir.

Hozir qorong‘i ham o‘bdan tushkanliqdan kishi-kishini tanimasliq darajada edi. Boyag‘i darboza ustida ko‘ringan qorovullar hamon qora haykal kabi qotib turar edilar.

Shahar ichidan o‘rda darbozasig‘a qarab kelmakda bo‘lg‘an bir necha ot oyog‘larini eshitib qorovullardan bittasi — «tuyoq tovshimi?» deb, ikkinchisiga savol tashlab qo‘ydi. Ikkinchi qorovul mo‘ralab-mo‘ralab yo‘lg‘a qaradi:

— Uch otliq ko‘rinadir.

— Vaqtsiz kelguchi kim ekan?

— Bunday vaqtda qo‘rboshidan boshqa kishi kelmas edi, ehtimol, o‘shadir.

Darvoqi’, qo‘rboshi o‘zining ikki yigiti bilan yetib keldi va otidan qo‘nib jilovini yigitining qo‘lig‘a berar ekan, qorovullarg‘a buyurdi:

— Darbozani ochsinlar!

Qorovullar ichkariga xabar bergandan so‘ng darboza ochilib qo‘rboshi ichkariga kirdi. O‘rdaning tevarak masohatini[1] biz chamalab ko‘rgan edik, shuning uchun o‘rdaning qay daraja keng bo‘lishi ham bizga qiyosan ma’lum. Ammo o‘rdaning ko‘proq qismi darboza tomonida qoldirilib, janubka tortilg‘an xatti mustaqim[2] bir devor bilan bo‘lingan edi. Narigi tomon o‘rdaning ichkari qismini tashkil etib, unda bek — hokim oilasi turar edi. O‘rdaning tashqarig‘i qismining uch tarafi (janub, sharq, g‘arb) binosiz, faqat qo‘rg‘on devorlarining zinalari edi. Ammo imorat qismi darboza bilan bir qatorda bo‘lib, so‘l biqinida devonxona, uning qatorida bo‘yiga qirq, eniga yigirma olchin joy olg‘an o‘n besh darichalik kattakon chorzari uy, ichida elli chog‘liq bek yigitlari gulxan solib o‘lturar edilar. Bu uyning qatori oshxona, otxona va shuningdek, hojat uylarini tashkil etar edilar.

[1] Masohat — sath, yuza, maydon.

[2] Xatti mustaqim — to‘g‘ri chiziq.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Qo‘rboshi darbozabon yonida to‘xtab, undan so‘radi:

— Bek ichkaridamilar?

Darbozabon darbozani kuchanib yopar ekan, javob berdi:

— Bilmadim, taqsir.

O‘rdaning charog‘chisi darboza yaqinidag‘i mash’ala yog‘ochig‘a o‘t berib, butun o‘rda ichi yorib ketdi. Qo‘rboshi darbozaning o‘ng tarafiga qarab yurdi. Bu tomonda nihoyatda ziynatlanib bino qiling‘an oliy imoratlar bo‘lib, shahar ustalarining hamma san’at va mahoratlari shu binolarda gavdalanur edi. Qo‘rboshi birinchi eshik yonida turg‘an yarog‘liq qorovuldan o‘tib, kichikrak, naqshliq bir uyga kirdi. Ikkinchi eshikdan o‘tib, ulug‘ bir zolga chiqdi. Zol juda nafis ishlangan edi: oltin qandildagi ellilab sham’larning nuri bilan munaqqash devorlarning oltin, kumush, ko‘k-qizil, oq-pushti, sariq-qora gullari yulduzlardek yashnab, uyga bir xayoliylik berar edilar. Uyning ostig‘a to‘shalgan qizil lola gullik gilam kishini go‘yo bir chamanda his etdirar edi. Zolning to‘rida, kichkina haldor bir eshikcha yonida, atlas ko‘rpacha ustida o‘n besh yoshlar chamaliq, qizil duxobadan kiyingan ko‘rkam bir o‘g‘lon palov yeb turar edi.

Qo‘rboshi eshikdan kirar ekan, o‘g‘long‘a qarab kulimsiradi:

— Ha, Ahmadxon, siz shu yerda ekansiz, — dedi.

Ahmadxon joyidan qo‘zg‘almadi:

— Men hamisha shu yerda, qani, oshg‘a.

— Rahmat. Qushbegi ichkaridadirlar?

— Ichkaridalar, — dedi Ahmadxon, — men to‘yib qoldim, kelsangiz-chi.

— Bo‘lmasa, tabarruk qo‘lingiz bilan bitta oshatsangiz.

Ahmadxon qo‘lig‘a siqquncha osh olib qo‘rboshig‘a tutti, qo‘rboshi ixlos bilan Ahmadxonning qo‘lidan oshadi. Ul oshnig‘ina emas, hatto Ahmadxonning qo‘lini ham oshaydirg‘an edi.

Ko‘b fursat o‘tmadi. To‘rdagi kichkina eshik ochilib ichkaridan to‘la yuzlik, o‘siq qoshliq, og‘ir qarag‘uchi ko‘zlik, siyrak soqol, o‘rta bo‘yliq, ustidan kimxob to‘n kiyib, beliga qilich osqan qirq besh yoshlar chamasida bir kishi ko‘rindi. Ahmadxon bilan qo‘rboshining o‘rinlaridan turib ta’zim qilishlaridan bu zotning kim ekanligi

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
bilinar edi. Bu kishi kelib atlas ko‘rpacha ustiga o‘lturdi va o‘zining salmoq tovshi bilan:

— Qalay, Xoliqbek, — dedi, — yurtlaringiz tinchlikmi, o‘lturing.

— Xudog‘a shukur, davlatlari ko‘lankasida, — deb qo‘rboshi tavozi’landi va qo‘l qovushtirib qushbegining yaqinig‘a cho‘kkaladi. Ahmadxon bo‘sh laganni dasturxoni bilan ko‘tarib qushbegi kirgan eshikdan chiqdi.

— Kechagi o‘g‘rilar nima bo‘ldi, qo‘lg‘a tushirdingizmi?

— Davlatlari ko‘lankasida... O‘g‘rilardan bittasi tutildi, davlatlari yori[1] bersa qolg‘anlari ham ushlanur, deb o‘ylayman.

— Boshqa nima xabarlar bor?

Qo‘rboshi yuziga jiddiylik holati berdi:

— Davlatlari yori bersa hukumatimiz uchun qo‘rqunch bo‘lg‘an buzuqilar uyasini topqandekman, — dedi.

Qushbegi o‘ziga o‘ng‘aysizliq bermakda bo‘lg‘an qilichini tizasiga olib hamon sovuqqonliliq bilan so‘ra-di:

— Qanday buzuqilar uyasi?

— Qanday buzuqilar uyasi bo‘lsin, taqsir, — dedi qo‘rboshi, — dunyoda qora choponliqlardan ham kuchlirak buzuqilar bo‘ladimi?

Qushbegi ko‘tarilinqirab oldi va ko‘zlari bir oz kattaroq ochildi:

— Xo‘sh?

— Ma’lumingiz, ulardan Azizbek bilan Yusufbek Toshkandda bilfe’l isyon chiqarib yotadirlar. Biroq ular shuning o‘zigagina qoniqmay, Marg‘ilonni ham buzish fikriga tushkanlar va shu maqsadda bu yerga odam ham ko‘ndirganlar.

— Odami kim, tanidingizmi?

— Tanidim, taqsir, — dedi qo‘rboshi mag‘rur bir ohangda, — Yusufbek hojining o‘g‘li va o‘zimizning Marg‘ilondan ham yana bir necha buzuqilar.

— Yusufbek hojining o‘g‘li?

— Taqsir... ismi Otabek.

Qushbegining ko‘zi yondi... Manglay etlari tirishib, so‘l qo‘l bilan soqolini tutamlab fikrga ketdi. Bu xabar unga boshqacha ta’sir bergan edi: Toshkandning Qo‘qong‘a qarshi isyon qilg‘an bir zamonida, isyonchi-

[1] Yo r i — ko‘mak, yordam.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

lardan biri ham birinchisi bo‘lib tanilg‘an Yusufbek hojidek bir kimsaning o‘z o‘g‘lini Marg‘ilonga yuborib, bunda ham isyon chiqarish qasdida bo‘lmog‘i uningcha juda yaqin va shubhasiz edi.

— Ul hozir qayerda turadir?

— Mirzakarim qutidor ismlik bir kishinikida.

— Mirzakarim bilan qanday aloqasi bor emish?

— Barakalla, taqsir, — dedi qo‘rboshi, — Otabekning Marg‘ilondan topqan eng yaqin kishisi shu qutidordir. Mundan bir necha kun ilgari Otabekka o‘z qizini berib kuyav ham qilibdir. Aytishlaricha, Otabekning barcha rejalari shu qutidor bilan kengashib bo‘lar ekan.

— Ularning tevaragiga kimlar yig‘ilg‘an?

Qo‘rboshi qo‘ynidag‘i yozuvni olib qushbegiga uzatdi:

— Hozircha menga ma’lum bo‘lg‘an buzuqilar shunda.

Qushbegi yozuvg‘a ko‘z yugurtirib ro‘yxatdagi kishilarni darhol keltirishga buyurdi. Qo‘rboshi qulliq qilib chiqg‘ach, yana bir qayta yozuvni o‘qub fikrga toldi.

* * *

O‘tabboy qushbegi[1] hozirgina ichkari o‘rdadan qaytib chiqg‘an edi. Shu orada qo‘rboshi kirib unga qulliq qildi:

— Keltirdim, taqsir. Biroq ikkisini topolmadim.

Qushbegi chidamsizlik bilan:

— Otabekni-chi? — deb so‘radi.

Qo‘rboshi muzaffarona javob berdi:

— Tutdim, taqsir, qutidorni ham.

— Olib kiringiz.

Qushbegi tinchlandi, qo‘rboshi dahlizdan tashqarig‘a ishorat berdi va qaytib qushbegiga ruxsat qullig‘i ado qildi va undan izn olib o‘lturdi. Eshikdan ikki qurollik yigit muhofazatida Otabek va qutidor ko‘rinib bekka qulluq qildilar. Qushbegi yarog‘liq yigitlarni qaytishg‘a buyurib, gunohkorlarni yovoshg‘ina qilib o‘z oldig‘a chaqirdi. Otabekda tushunmaslikdan boshqa o‘zgarish sezilmasa ham qutidor juda qo‘rqqan, rangi o‘chkan edi. Ikkisi tenglikda qushbegiga qarshi cho‘kkaladilar.

[1] O‘tabboy qushbegi qipchoq beklarining tuzuklaridandir. Bu kishi Marg‘ilonda 1263—67-hijriy yillar orasida bek bo‘lib turdi. Musulmonqulning azlidan so‘ng uning o‘rniga mingboshi (harbiya va bosh vazir) bo‘lib belgulandi. Marg‘ilonda O‘tabboydan qolg‘an osor ham bor *(mual.)*.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Otabekni ortiqcha bir diqqat bilan ko‘z tegidan o‘tkargach, qushbegi so‘radi:

— Otabek degan sizmi?

— Taqsir, man.

— Toshkandlik Yusufbek hojining o‘g‘lisiz?

— Taqsir.

— Hozir Marg‘ilonda turasizmi?

— Taqsir.

— Marg‘ilon kelganingizga ko‘b bo‘ldimi?

— Qirq kunlar chamasi.

— Marg‘ilonga nima yumish bilan kelgan edingiz?

— Savdogarchilik bilan, taqsir.

— O‘zingiz yolg‘izmi?

— Bir kishim bor edi.

Qushbegi qo‘lidagi ro‘yxatka qarab oldi va davom etdi:

— Hasanali kim bo‘ladir?

Otabekdagi boyag‘i tushunmaslik bir shubhaga alishindi. Ammo parvosizcha javobini beraverdi:

— Qulimiz bo‘ladir, Toshkanddan kelgandagi yo‘ldoshim shu siz aytkan Hasanali edi.

— Hasanali bu kunda qayerda?

— Marg‘ilonda.

— Siz bilan birga turadimi?

— Yo‘q. Saroyda bir muncha mollarimiz bo‘lar edi, saroyda mollarg‘a qarab turadir.

— Bu kishi kimingiz?

— Qayin otamiz.

— Ko‘bdan berimi?

— Bu kun sakkizinchi kun...

— Ilgari o‘zingiz uylangan edingizmi?

— Yo‘q.

— O‘zingiz toshkandlik bo‘laturib nima majburiyat ostida Marg‘ilondan uylandingiz?

Bu savoldan Otabek bir oz o‘ng‘aysizlanib to‘xtadi. Ammo bu o‘ng‘aysizlanishdan qushbegining oldida boshqa bir haqiqat ochilg‘andek bo‘ldi:

— Javob beringiz.

— Taqdir, taqsir.

Qushbegi bir oz o‘ylab olib yana savol berdi:

— Marg‘ilonda kimlarni taniysiz?

— Marg‘ilonda uch-to‘rt kishidan boshqa odamni tanimayman.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Akram hojini tanirsiz?

— Taniyman. Uning bilan bir necha majlislarda o‘lturishkan edim.

— Bu kunda Akram hoji oshnangiz qayerda?

— Bilmadim, taqsir, — dedi va qayin otasig‘a qaradi.

Qutidor javob berdi:

— Akram hoji bu kunlarda Andijonda bo‘lsa kerak, taqsir.

— Xo‘b. Otabek, siz javob beringiz: Akram hoji bilan bo‘lg‘an majlislaringiz kimnikida edi?

Otabek bunday so‘roqlarning bekorga emasligini payqab, buning tegida qanday bo‘lsa ham bir gap borlig‘ig‘a ishondi:

— Birinchi majlisimiz mundan bir oy chamasi burun Ziyo aka deganning uyida, ikkinchisi (qutidorg‘a imo qilib) bu kishinikida bo‘lg‘an edi. Shu majlislarda Akram hoji ham bor edi.

— Ziyo akanikida bo‘lg‘an majlisingizga kimlar ishtirok qildi?

— Men, Ziyo shohichi, bu kishi (qutidor), — dedi va bir oz o‘ylanib oldi, — Ziyo akaning o‘g‘li — Rahmat, Akram hoji, Hasanali, Homid ismlik yana bir kishi.

Homid ismini eshitkan qo‘rboshi tasdiq qilg‘andek bir harakat yasab qo‘ydi. Qushbegi qo‘rboshig‘a yer tegidan ko‘z yuborib oldi-da, davom qildi:

— Ikkinchi majlisingizda kimlar bo‘ldi?

— Ikkinchi majlisimizda boyag‘i kishilargina bo‘ldi. Faqat Homid yo‘q edi.

— Boya, Marg‘ilon kelganimga necha kun bo‘ldi, dedingiz?

— Qirq kunlar chamasi.

— Yaxshi, — dedi qushbegi, — aytingiz-chi, qirq kunlab Marg‘ilonda qolishingizning sababi nima edi?

— Ma’lumki, hozir Toshkand qamal (muhosara) holatidadir. Shunday vaqtda Toshkandga qaytish o‘zi aqlsizlik bo‘lar edi.

— Qorachoponchi bo‘lg‘aningiz uchun, — dedi istehzo qilib qushbegi, — qipchoq og‘aynilardan qo‘rqdin-gizmi?

— So‘zingizga tushunolmayman, — dedi kulib Otabek. Bu gapni oddiy kishiga aytkandek qilib so‘zladi. Qutidor uning bu aytkan gapidan emas, kulishidan nihoyat darajada qo‘rquvg‘a tushib o‘zida issiqliq-

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

sovug‘liq bir holat his etkan edi. Hokimlarga garchi to‘g‘ri bo‘lg‘anda ham dag‘alroq so‘z aytish o‘limni tilash bilan teng edi. O‘tabboy qushbegi zamona hokimlarining tuzugi bo‘lsa ham, ko‘p bo‘lmasa ozroq ularning ta’siri bunda ham bor edi. Otabekning bu gapidan qizishdi:

— Qipchoq dushmani bo‘lg‘an otangiz Yusufbek hojini unutdingizmi? Otangizning sizga bergan vakolati qayerda qoldi?

— Qipchoq dushmani kim, otam kimga qanday vakolat bergan, xudo haqqi uchun ochib so‘zlangiz, yo‘qsa yorilaman, taqsir!

— O‘zingizni tag‘ofulga[1] solmangiz, bek yigit, — dedi qushbegi, — otangizning kim ekanini, sizni Marg‘ilonga nima uchun yuborg‘anini, qutidor bilan munda qanday ishlar qilmoqda bo‘lg‘anlig‘ingizni, barchasini hujjatlari bilan bilamiz. Siz marg‘ilonlik og‘aynilarni qipchoqlarg‘a qarshi oyoqlandirmoqchi bo‘lasiz, buni ham yaxshi bilamiz!..

Otabek
Qutidor } Yo ollo!

Otabek azbaroyi bo‘g‘ilib ketkanidan ko‘kimtil tovlang‘an, qutidor bezgaklardek titray boshlag‘an edi. Otabek o‘zini kuch bilan yig‘ishtirdi:

— Bunda zo‘r tuhmat bor, taqsir, — dedi, — otamni qipchoq dushmani va meni Marg‘ilon og‘aynilarini isyonga hozirlash uchun kelgan, deb o‘ylaysizmi?

— O‘ylamaymiz, ammo yaxshi bilamiz. Qutidorning sizga nima uchun qizini berib, kuyav qilg‘anig‘a ham yaxshi tushunamiz.

Qutidor suratdek qotib qoldi, Otabek bo‘lsa o‘zidagi hayajonni kuch hol bilan tarqatishg‘a tirishar edi. Qushbegi bilan qo‘rboshi bu ikki gunohkorni ta’qib etar, ulardagi har bir harakatni o‘zlaricha bir narsaga yo‘yar edilar.

Uch-to‘rt daqiqalik sukutdan keyin Otabek tilga keldi:

— Biz bu daqiqada sizning fikringizcha go‘yo bir ig‘vogar, go‘yo bir isyonchi bo‘lib tanilib turibmiz, — dedi bek, — chindan ham shundog‘ kishilarmizmi, yo‘qmi, buni albatta sizning tekshirishlaringiz, haqiqat-

[1] T a g‘ o f u l — bilib bilmaslikka olish.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

laringiz ko‘rsatar. Men sizning qilichingiz ostida o‘limdan qo‘rqib yoki sizga xushomad uchun so‘zlamay hukumat kishilarimiz orasida tushunadirg‘an bir odam bo‘lg‘anlig‘ingiz vajidan otamning ham o‘zimning qanday fikr va maslak kishisi ekanligimizni aytib o‘tmakchi bo‘laman: biz na qipchoqlarg‘a tarafdor bir kishi va na shaharlik og‘aynilarg‘a. Bu ikki firqa[1] bizning nazarimizda bir-birisidan mumtoz, idora ishida biri-biridan ortiqroq xalqlar emasdir. Shunga binoan Turkiston xalqlarining istiqbollarini bu ikki firqaning bittasiga havola qilish baayni qo‘yni bo‘riga topshirish qabilida bo‘ladir. Nega desangiz, har ikki tomonning ish boshig‘a intilgan kishilarining ko‘kragiga qo‘l solib ko‘rsangiz, birisining faqat el talamoq, boyliq ortdirmoqqag‘ina bo‘lg‘an g‘arazini, ikkinchisining ko‘rkli xotinlar, yuqori turmishlar uchun bo‘lg‘an maqsadinig‘ina ko‘rib, ikki oradan «elni tinchitay, el ham rohat-tirikchilik qilsin» degan uchunchi bir oliy maqsadni charog‘ yoqib axtarsangiz ham topolmassiz. Mana biz, taqsir, shu keyingi ishda ko‘rilmasa ham faqat shirin xayollardagina yurgan oliy firqag‘a o‘zimizda tarafdorlik his etamiz. Otamning Azizbekka yaqin turishi qipchoq dushmani, qora chopon tarafdori bo‘lg‘anidan emas, balki boyag‘i maslakka bir xizmat qilmoq uchundir. Taassufki, otamning Azizbekdan bo‘lg‘an umidi bo‘shka ketdi: bu kun ul o‘zining yaramas xayoli yo‘lida xondan yuz o‘girdi va bu orada qancha gunohsizning qoni to‘kilishiga sabab bo‘lmoqdadir. Manim bu so‘zlarimga ishoning-ishonmang, ixtiyor albatta sizdadir. Ammo bundog‘ eng jo‘n bo‘hton bilan qoralanishimg‘a vijdonim qarshisida so‘ng daraja muazzabman[2], taqsir!

Qushbegi Otabekning bu gaplaridan yaxshig‘ina taraddudga tushkan edi, ammo — «Azizbekning otalig‘i va kengashchisi» bo‘lg‘an Yusufbek hojining o‘g‘li bo‘lishi uning miyasini qotirg‘an, balki, bu gaplar shunday ehtimollarga qarshi dastur qilib berilgan bo‘lmasin, degan fikrga kelgan edi. Otabekning yuqoridag‘i gaplaridan so‘ng bo‘lg‘an undagi o‘zgarish ham faqat bu ishni yaxshilab tekshirish va hozirdan bir hukm bermaslikkina bo‘ldi.

— Har holda sizning yaxshi niyatlik kishilar

[1] F i r q a — guruh, bo‘lak.
[2] M u a z z a b — azobdaman.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
bo‘lmag‘anlig‘ingiz ko‘zimiz o‘ngidadir, — dedi qushbegi,— shuning uchun to haqiqat oshkor bo‘lg‘unchalik har ikkingiz zindonda qolarsiz.

Otabek bir so‘z aytmay sukut qildi. Qutidor «chora yo‘qmi?» degandek qilib kuyaviga qaradi. Qushbegining ishorati bilan yigitlar hozir bo‘lib, gunohkorlar zindonga jo‘natildilar. Qushbegining — «Ertaga uyida majlis qurilg‘anlarni va bu majlisda ishtirok qilg‘an boshqalarni ham qo‘lg‘a olib, huzurimga keltiringiz!» degan amridan so‘ng qo‘rboshi ham ruxsat olib chiqdi.

14. NAJOT ISTAB TOSHKANDGA

Bu kun sakkiz kundan beriga — «kutilmagan bir baxt» egasi bo‘lib olg‘an Kumushbibi uchun bu hol kutilmagan bir baxtsizlik, kutilmagan bir falokat edi. Endigina «Bekni uylantirdim, suyganiga qo‘shib quvontirdim», deb bu uylantirishning husni va qubhini[1] tuzukrakkina o‘ylay olmag‘an Hasanali uchun ham bu voqi’a kichkina gap, ozg‘ina qayg‘u emas edi. Ko‘zining oqu qarosi, yolg‘iz qizini maxtovlik kuyavga berib, qizi bilan kuyavining bir daqiqa ham bir-birlaridan ajrasha olmag‘anlarini ko‘rib ko‘ynagiga sig‘may yurgan Oftob oyim uchun kuyavigina emas, hatto erining ham bu vartaga[2] tushmog‘i chiday olarliq bir hol emas edi. Kumushbibi o‘zining «kutilmagan bir baxti» uchun ishonmag‘anday bo‘lib yurar edi. Chindan ham mundan keyin qaytadan qovishmog‘iga ishonmay qo‘ydi. Hasanali «qutildim» degan edi, yana tog‘dek qayg‘ug‘a tutildi. Oftob oyimning so‘yingani ichiga tushdi.

Kumushbibi bilan Oftob oyimning bu falokatka qarshi topqan-tutqanlari yolg‘iz ko‘z yoshi to‘kishkina bo‘ldi. Bu falokatning og‘irlig‘i yana o‘zining tog‘dek kattaligi bilan Hasanalining ustiga tushdi. Kumushbibi eri bilan otasining najotlarini kimdan kutishni bilmas edi-da, qora ko‘zlarini jiq yoshg‘a to‘latib — «endi nima qilamiz?» degandek Hasanaliga termular edi. Qutidor oilasida boshqa er zoti bo‘lmag‘anliqdan Oftob oyim qarindoshlaridan «jonkuyar» deb tanilg‘an kishi

---

[1] H u s n i v a q u b h i — yaxshi va yomon tomoni.
[2] V a r t a — girdob, halokatli joy.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kumushning tog‘asi Ahmadbek bo‘lib, ul ham umrining ko‘pini Qo‘qondami, Xo‘janddami o‘tkarar, shuning uchun undan ham yori kutish uzoq gap edi. Mana bu jihatdan ham Kumush va onasining birdan-bir ishong‘anlari yana Hasanalining o‘zi edi.

Barcha og‘irliq Hasanalining ustida. O‘zingning tug‘ilib o‘sqan yeringda og‘a-inilaring, bilish-tanishlaring bo‘lib har nuchikda ulardan shuningdek og‘ir kunlarda so‘z bilan, ish bilan bir yordam ola bilasan. Ammo bizning Hasanali Toshkandda emas — Marg‘ilonda, musofaratda, kishilarini tanimag‘an bir shaharda. Boshda Hasanali Ziyo shohichi bilan uning o‘g‘li Rahmatdan yaxshig‘ina umid tutkan, har holda ulardan boshqa tayanarliq kishim yo‘q, deb o‘ylag‘an edi. Baxtka qarshi bu fikrdan ham tezda qo‘l yuvdi: Ziyo aka bilan Rahmat ham qo‘lg‘a olindilar va Hasanalining o‘zi ham qidirila boshlandi. Hasanali va Kumushbibilarning qayg‘ulari yana bir qat oshti, qo‘rqunchi ustiga qo‘rqunch qo‘shildi. Hasanali ham Otabeklar bilan birlikda birinchi kun qo‘shilib qamalg‘an bo‘lar edi, biroq uning saroyda bo‘lishi ulardan ajralib qolishig‘a sabab bo‘lg‘an edi. Qo‘rboshi yigitlari tomonidan Hasanali ham qidirilib boshlang‘ach, ulardagi «balki bu kun, erta bo‘shatib yuborarlar» degan umid ham bo‘shg‘a chiqdi. Boshda Hasanali o‘z erki bilan hukumatka topshirilib, mahbuslarga jazo kelsa birlikda tortib, qutilish muyassar bo‘lsa birga qutilishg‘a o‘ylab qarag‘an edi. Uning bu fikriga Kumush bilan onasi qarshi tushdilar: «Sizning ozod yurishingiz mahbuslar uchun balki foydali bo‘lar», dedilar. Hasanalining o‘zi ham ularning ra’yini muvofiq topdi. Biroq uning tashvishi ikki qat oshdi: har daqiqa hadukda, qo‘rboshi yigitlaridan qochib yashirinishg‘a, har soat joy yangilashka majbur edi.

Hasanali kunlarini tomoqsiz, tunlarini uyqusiz kechira boshladi: Otabeklar nega qamaldilar, qanday gunohlari bor ekan? Otabekning ipidan-ninasiga bo‘lg‘an sirri unga ma’lum emasmidi? — Bu jihat bilan o‘ylag‘anda «Qutidorlarning birar ishlari balosiga qoldiyov», deb fikr qilar edi. Bu falokatni umumiyroq tekshirib boshlasa, xalq og‘zida maqol o‘rnida iste’mol qiling‘an «Ajalingning yetishi qilg‘an yozig‘ingdan[1] emas —

[1] Yo z i q — gunoh, ayb.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
bek akangning qonsirashi» degan gap ko‘ngliga tushar edida, beixtiyor uflab yuborar edi.

Oradan besh kunlab o‘tdi, mahbuslar zindon balosidan qutila olmag‘anlaridek, ularning qamalish sirlari ham hech kimga bilinmadi. Hasanali shu besh kun ichida mahbuslarning najotlari yo‘lida qora pullik ish chiqara olmag‘anidek, bundan keyin ham bir ish qila olishig‘a ko‘zi yetmay qoldi. Chunki qo‘rboshi yigitlaridan saqlana olishning o‘zi ham unga katta vazifa darajasida edi.

Nihoyat, Marg‘ilonda turish fikridan qaytib, Toshkand jo‘nash xayoliga tushdi. Bu kunlarda ham Toshkand tinchsizligi bir taraflik bo‘lmag‘an, hanuz Toshkand Qo‘qon sipohlari tomonidan muhosara holatida ekanligi to‘g‘risidagi xabarlar kelib turmoqda edi. Hasanali bu gaplardan xabarsiz emas, Toshkandga kirib olishning qay daraja qo‘rqunch bo‘lg‘anlig‘i ham uning ko‘z o‘ngida edi. Ish shundog‘ bo‘lsa ham ul Toshkand jo‘nash uchun o‘zida bir majburiyat his etar, najot yo‘llarini endi Toshkanddan izlamasa boshqa chora yo‘q edi. Qarorni shunga berib, bu fikrini Kumush bilan Oftob oyimg‘a so‘zladi. Ularda epaqalik bir miya, Hasanaliga yo‘l ko‘rsatadirg‘an ixtiyor qolmag‘an, topqanlari faqat yig‘i edi. Hasanalining «Siz bilan manim qo‘llarimizdan bir ish chiqadirg‘an o‘xshamaydir. Nima bo‘lsa ham men Toshkand borib, najotni o‘sha yerdan izlamasam bo‘lmas», deyishiga qarshi Kumushbibi bir xil siniq tovushda:

— Marg‘ilondan topilmag‘an najot Toshkanddan topilsinmi? — dedi.

— Biz endi shunga majburmiz, qizim, — dedi Hasanali, — qayin otangiz ehtimol buning birar chorasini topar.

— Biz endi shunday qolaberamizmi, agar zolimlar... — dedi-da Kumush so‘zining oxirini aytalmay o‘krab yubordi. Hasanali ham o‘zini kuch hol bilan yig‘idan bosar ekan, Kumushni yupatdi:

— Unday bo‘lmag‘ir xayollarga tushmang, qizim, — dedi, — qushbegi boshqalarg‘a qarag‘anda insoflik hokimdir. Xudo xohlasa, men Toshkanddan qaytquncha ular ham zindondan qutilurlar.

Bu kun kechasi ul yo‘l tayyorliqlarini ko‘rdi. Minib ketishi uchun qutidorning saman yo‘rg‘asini belguladi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
Ertasi ertalab Marg'ilonning Qo'qon darbozasidan birinchi galda chiqg'uchi Hasanali bo'ldi.

15. TOSHKAND QAMALDA

Bu kun Toshkand qamalining elli birinchi kuni. Sovuq bir oz yumshab tushkan, quyosh ochiq havoda harakat etmakda edi. Yerlar erib, hamma yoq shilt-pilt loy, qo'rg'on kungiralaridagi qirovlar bo'g'qa aylanib ko'kka ko'tarilmakda edilar.

Bu kun tongdan boshlab, Toshkandning Samarqand darbozasi tomonidan bo'lg'an qo'qonlilarning hujumlari o'zlari uchun so'ng darajada halokat bilan tugalgan. Qo'qon sipohlari endigi hujumgacha shikastrextlarini tuzatish, yaralarini bog'lash, damlarini olish uchun qo'rg'on yonidan qayoqqadir, qo'shlariga[1] ketkanlar. Qaramoqqag'ina emas, so'zlashka ham dahshat: Kamolon darbozasi bilan Samarqandg'acha bo'lg'an qo'rg'on ostlari (bu ikki darboza oralari besh yuz adim keladir) boshsiz va ishtondan boshqasi tunalgan inson gavdalari bilan to'libdir. Bu ochiq mozoristonni qo'rg'on kungiralari ustida mudofaadan so'ng charchab, quyoshda jilinib[2] o'lturgan sallalik, qalpoqlik va popoqlik Toshkand mudofi'lari ming turlik shodliqlar ichida tomosha qiladirlar. Bu ikki darboza orasida ikki xil holat hukm suradir — qo'rg'on ostlarida jahannam dahshati bilan yalang'och, boshi tanidan olinib qora qonig'a belangan odam gavdalari yotib, qo'rg'on ustida ikkinchi kishilar dunyo shodlig'i ichida suzadirlar.

Qo'rg'on ustidagi qahramonlardan bittasi kula-kula bir sarkardani otib o'ldirganligini so'zlab: «Padar la'natini o'zim xo'bam otdim-da, otning ustidan uch gaz ko'tarilib yiqildi!» deydir. Tag'in bittasi o'liklar ichidan kimnidir ko'rsatib: «Ana, ana, hov ana! O'sha qipchoqqa o'q tegib o'lib o'lalmay, yurib yuralmay ingrab yotqan ekan. Qilichim bilan boshini shartta kesib, belidagi oltin kamari va ustidagi kimxob po'stunini olib chiqdim!» deydir. Har kim bu kungi urushdagi o'zining erliklari bilan, qo'lg'a tushirgan oltin kamari, yoqut ko'zlik

---

[1] Q o' sh — vaqtincha qo'nish joyi.
[2] J i l i n i b — isinib.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

uzugi, sovsar po'stuni, kumush qinli qilichi va boshqa o'ljalari bilan maxtanadir.

Shu vaqtda qo'rg'on ustidan qo'shiq tovshi eshitiladir:

Zamoning zamon bo'lsin — yor,
Aziz beging omon bo'lsin — yor.

Dardiga davo topmay — do'st,
Normating yonib o'lsin — yor![1]

Biz endi shu o'liklar yoni bilan qo'rg'on bo'ylab bir oz ilgariga yursak olti gaz yuksaklikda, besh gaz kenglikda, ikki yoni sakkiz gazlik qo'rg'on devori bilan o'ralg'an, kunbotarg'a qaratib qurilg'an Samarqand darbozasi yonida to'xtarmiz. Tevaragimizdan dushmanning hujum qilish qo'rqunchi bo'lg'anliqdan biz ortiqcha chidamsizlik bilan darbozani qoqa boshlarmiz:

— Ochingiz bek aka, tezroq ochingiz!

Darboza beklari bizga iltifot qilmay o'ltura beradirlar. Bizning o'n besh daqiqaliq jon achchig'ida qaxshag'animizdan keyin darbozabonlardan bittasi zerikib sekingina qo'rg'on devoriga chiqadir-da, mo'ralab bizga qaraydir. Ul bizni aniq toshkandlik bo'lg'animizga ishonsa darbozaga solingan nortuyaning boshidek qulfni ming mashaqqat bilan ochib, zanji-rini tushuradir. Biz o'zimizni ichkariga olg'ach, darbozabon o'zining hazmi ko'targan qadar bizga po'ng'illaydilar-da, darbozani berklash harakatiga tushadir. Endi biz darbozaning hay'atiga qaraymiz: oshlangan qo'y po'stagidan po'stun kiyib, beliga butun bir bo'zdan belbog' bog'lag'an va belbog'ig'a yarim gaz chamaliq kalid osqan, turkman popoqlik bir kishi. Shundan keyin biz darbozaning o'ng tomoniga qarab yuruymiz. Darbozadan o'n besh adimlar narida, shiyponga o'xshash to'rt tarafi ochiq bir binoda darboza beklari gulxan solib, chilim chakib o'lturadirlar. Biz qo'rg'onning osti bilan ilgarilashda davom etamiz. Endi biz boyagi mudofi'larni[2] ichkaridan ko'ramiz: mudofi'lar qo'rg'onning eng yuqorig'i pog'onasida o'zlarining turlik tus va bichiqdagi kiyimlari bilan qaysilari

---

[1] N o r m a t — Normuhammad qushbegi: Toshkandni muhosara qo'qonlilar — qipchoqlar amiri lashkari *(mual.)*.

[2] M u d o f i ' l a r — xalq ichidan chiqgan merganlar bo'lib, shuning uchun ularning yosh va kiyimlari ham turlichadir. O'rda yigitlari yolg'iz bekning muhofazatida edilar. Qo'rg'onlar muhofazati xalq qo'lida edi *(mual.)*.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

shashvar tutib, qaysilari miltiq ushlab, qo'rg'on kungirasiga suyanib, boshlarini quyoshg'a berib o'lturadirlar. Qo'rg'onning Kamolon darbozasigacha bo'lg'an qo'ruq[1] o'rinlari shuningdek mudofi'lar bilan to'lg'an bo'lib, o'ziga bir turlik ko'rinish tashkil etadir.

Kamolon va Samarqand darbozalarining o'rta bir yeri bo'lg'an qo'rg'on ostida kimxob to'n kiyib, simobi salla o'rag'an, beliga kumush bog'lab, qilich taqing'an bir bek oldidagi bir uyum narsaga ishorat qilib yonidagi bir yigitka nimanidir uqdirmoqda edi. Biz yana elli-oltmish adim yurib haligi so'zlashib turg'an beklar yaqinig'a borsaq, qo'rg'on tashqarisida ko'rgan dahshatlarimizni o'zining ko'lagasida qoldiraturgan yana bir «dahshatlar tepasi»ga ko'zimiz tushadir-da, qo'rquvimizdan soatlab hushimizni yo'qotib qo'yishga majbur bo'lamiz.

Uch-to'rt yuz inson boshidan turg'uzilg'an bir tepa.

Qarichg'a keladirgan uzun soqollar, boshdag'i xun olud[2] siyrak sochlar, bo'zarg'an yuzlar, qong'a belanib, yarim ochiq holda qorachiq o'rnini qo'rqunch bir oqliq bosqan ko'zlar dunyoga va shu hayotka la'nat uqug'andek qaraydirlar. Ayniqsa bir bosh, ehtimolki, hali yigirma yilni ham o'tmagandir, murti ham chiqmag'an. Xun olud quyuq qoshlari ostidagi yarim ochiq ko'zlari kimnidir izlagandek qaraydir... Yarim ochiq irinlari ichidagi oq tishlari bilan tilini g'archcha tishlagan-da, go'yo shu turmushda, shu besar[3] xalq ichida tug'ilg'ani uchun «attang» o'quydir.

Bu boshlar uyumi ustida turg'an qo'rg'on begisi yonidag'i yigitka boshlar orasidan birini ko'rsatib, o'z tanishlaridan bir bekning boshi bo'lganlig'ini so'zlaydir. Shu paytda Kamolon darbozasi tomonidan yarog'lang'an uchta otliqning ot choptirib kelganlari ko'rilib, qo'rg'on ustida o'lturgan mudo'filar ichida olag'ovur qo'pti:

— Hudaychi[4], Sulaymon hudaychi! — deyishdilar.

Hudaychi qo'rg'on begi qotig'a[5] yetib, bek hazratlari-

---

[1] Q o' r u q — mudofi'lar qo'rig'ida saqlab turiladigan joy.

[2] X u n o l u d — qonga belangan.

[3] B e s a r — boshi aylangan aqlsiz.

[4] H u d a y c h i, u d a y c h i — adyutant ma'nosida bo'lib, odatda xon kelish oldidan xalqni ogohlantirib o'tkuchi bekdir. Azizbek o'ziga xudaychi belgulagan edi *(mual.)*.

[5] Q o t — huzur, old.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
ning hozir yetib kelishlariga bashorat berdi, yana otining boshini burib yigitlari bilan orqag'a qaytdi. Hudaychiboshining xabaridan bu kungi ulug' muzaffariyatni qutlag'ali Azizbekning kelishi ma'lum bo'lar edi.

Hudaychi jo'nag'ach, qo'rg'on begining paytavasiga qurt tushib, tipirchilab qoldi va u yoqdan-bu yoqqa yugira boshladi:

— Hoy qo'rg'on ustidagi azamatlar! Hozir bo'lingiz, yasov tortingiz, bek keladirlar! Hoy Husaynbek, darbozabonlarga yugir, hozir tursinlar! G'anibek yuzboshi, siz yigitlaringizni tartiblangiz! Yasovulboshi, hozir bo'lingiz!

Qo'rg'onning qo'ruq o'rnidagi qahramonlar harakatka keldilar, yuqori qo'ruqdan bir pog'ona quyig'a tushib saf-yasov tortdilar. Shovqin-suron orasida qo'rg'on begi ot ustida qo'rg'onning u boshidan-bu boshig'a chopib:

— Hozir bo'l, yigitlar! Tartibingni tuzat, salomga tayyorlan! — deb qichqirib yurar edi. Qahramonlar qo'llaridag'i miltiq, shashvar, oybolta, qilich va nayzalari bilan tizilishib oldilar. Safning o'rta yeridan yashil bayroq ko'tarildi. Shuning bilan Aziz parvonachining istiqbolig'a lozim va vojib[1] bo'lg'an barcha tartib va tantanaga hozirlanilg'an bo'lindi.

16. AZIZBEK

Oradan uch-to'rt daqiqa o'tkandan keyin Kamolon tarafidan bir yuz chamaliq sarkarda va yigitlari bilan Azizbek ko'rindi. Tilla jabduqli qizil ayg'irg'a mingan, quyosh yog'dusi bilan turlik tuska kirib tovlanadirg'an, yoqa va etaklariga oltin uqa tutilgan kimxob to'n kiyib, belidagi oltin kamarga kumush qinli jazoiri qilich osqan, boshig'a oq shohidan salla o'rab, oyoqlarini kumush uzangiga tiragan, siyrak qoshlik, cho'qqi soqol, bug'doy ranglik, qirq besh-elli yoshlar chamaliq bir kishi edi. Uning orqasidan qora otg'a otlanib, zangori movutdan uqalik to'n kiygan, kumush kamarning o'ng tomonig'a qilich, so'lig'a to'fangcha qistirg'an, boshig'a barra popoq kiyib, jin yalag'an deganlaridek qoshsiz, qoramtil yuzlik, ikki chakagining ustida bir oz, iyagida bir oz siyrak, ko'rimsiz qora soqolliq, ko'zlari ichiga botig'roq,

[1] Vojib — bajarilishi majburiy, farz.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

ammo qon quyilg‘ansumon bir kishi kelar edi. Bu kishi Azizbekning amri lashkari va o‘ng qo‘li bo‘lg‘an Rayimbek dodxoh edi. Uning qatoridag‘i ikkinchi kishi kichikroq saman otka otlanib, ustiga Buxoroning ola bayroq matasidan chopon kiyib, kamar o‘rniga choponi-ni tugmalagan, boshig‘a katta salla o‘rab, qamchi sopi bilan egarning qoshig‘a takya qilg‘an; to‘la ko‘rkam yuz-lik, katta malla ko‘zlik, uzun mosh-guruch soqollik mul-lanamo bir zot bo‘lib, bu kishi yaroqsiz edi. Azizbek orqasidan kelguchi bu ikki otliqdan so‘ng sipohlar turku-mi boshlanib, zangor movutdan tizzagacha tushkan kalta kamzul, qizil movutdan shim, oyog‘ida sag‘ri etik, bosh-da Rayimbek dodxohning boshidag‘idek popoq, ammo ust tomoni qizil movutdan, oq qayishdan kamar, so‘lig‘a qilich osilib, o‘ng tomoniga to‘fangcha qisti-rilg‘an har qatorda to‘rttadan otliq kelmakda edilar. Sipohlarning keksaliklari to‘g‘risidagi nuqsonni e’tiborga olinmasa, ko‘rinish muntazam edi.

Qo‘rg‘on ustida yasov totqan qahramonlar qo‘l bog‘lab ikki bukilgansumon ta’zim bilan Azizbekni ilga-riga o‘tkaza boshladilar. Azizbek ularga qarshi oltin sop-lik qamchisini ko‘kragiga ko‘ndalang qo‘yib boshi bilan ham javob ishorasi berib oldinlar edi. Shu kezda boshlar uyumi yonida turg‘an qo‘rg‘on begisi otidan yerga tushib jilovini qovushtirilgan qo‘llari orasig‘a oldi. Boshlar uyumi bilan Azizbek orasi qirq-elli ot adimi qolg‘an edi. Azizbek qahramonlarning salomlariga javob qaytarishni ham unutib, ko‘zini kesik boshlarga tikdi. Azizbekning orqasidag‘i sarkarda va sipohlar ham bu dahshat uyumi-ga egarga qiyshiq o‘lturib tomosha qilib kelar edilar. Azizbek kishilari bilan boshlar yonig‘a kelib to‘xtadi.

Azizbek bir muncha vaqt boshlarni tomosha qilib turdi-da, qarshida qo‘l bog‘lag‘an qo‘rg‘on begiga qarab iljaydi:

— Barakalla g‘ayratlaringizga, — dedi Azizbek, — bu kun qipchoqlarg‘a rustamona javob berib, o‘zlarini ham itdek qirg‘ansiz. Bunchalik g‘ayrat ko‘rsatkan fuqaro-larga rahmat, dunyo turguncha tursinlar!

Azizbek tashakkurini bitirgach, hudaychi qo‘rg‘on ustidagi qahramonlarg‘a hamma tovshini qo‘yib qich-qirdi.

— Bek janoblari bu kungi rustamona g‘ayratlarin-gizga rahmat aytib, haqlaringizga duo qiladirlar!

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Mudofi'lar dunyoni buzib javob berdilar:

— Qulliq taqsir, qulliq! Taqsirimiz dunyo turguncha turib, soyai davlatlari boshimizdan kam bo'lmasin!

Azizbek qamchisini ko'ndalang qo'yib mudofi'larga qulliq qildi va hudaychiga buyurdi:

— Qo'rg'on begiga kimxob to'n, yuzboshilarg'a atlas chopon, boshqa yigitlarga uch tangadan pul in'om berilsin.

Hudaychining xabaridan so'ng mudofi'lar javob qaytardilar:

— Davlatlari ziyoda bo'lsin!

Xazinachilar sipohlar orqasidan ikki otni yetaklashib hudaychi yonig'a yetdilar. Bir otning ustiga choponlar ortilg'an, ikkinchi otdag'i katta xurjinning ikki ko'zi liq tanga edi. Boshlab hudaychi ot ustidan bir kimxob to'nni olib, qo'rg'on begiga kiydirdi. Qo'rg'on begi to'nni kiyib Azizbek haqiga uzun duo qildi. So'ngra hudaychi bir yigitka to'n qo'ltiqlatib, ikkinchi yigitka tangalardan oldirib qo'rg'on begi bilan birga qahramonlar yonig'a chiqdi. Qo'rg'on begining ko'rsatishicha kimga uch tanga pul, kimga adras chopon ulashilib boshlandi.

Azizbek ot ustida boshlar uyumi tevaragida aylanib Rayimbek dodxoh va ola-bayroq to'nlik kishiga o'zining tanish sarkardalaridan bo'lg'an kimlarningdir boshlarini ko'rsatmakda, tirik vaqtlarida nima ishlarda bo'linib va qora choponlilarg'a qanday zulmlar qilg'anlarini so'zlamakda edi. Azizbekning bu gaplarini Rayimbek dodxoh samimiy eshitsa ham olabayroq to'nlik odam «taqsir, taqsir» bilan javob berib, boshlar uyumidan jirkangansumon egarining qoshig'a ko'zini tikib turmoqda edi.

Yarim soatlik bir fursatdan keyin qo'rg'onning boshdan-oyoq yasov tortqan qahramonlariga in'omlar ulashilib bitdi-da, hudaychi o'zining quruq xurjini bilan Azizbek qotig'a kelib qulluq qildi. Azizbek qarshisida qo'l bog'lab turg'an qo'rg'on begidan so'radi:

— Yigitlaringizning barchasi ham quruq qolmadimi?

— Davlatingiz soyasida, taqsir.

— Qipchoqlarning bu kungi hujumi qay vaqtda bo'ldi?

— Tong yorir-yorimas Oq tepa[1] tomonidan to'p ota

---

[1] O q t e p a — Samarqand darbozasining g'arbida bir mavzi' ismi *(mual.)*.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

boshladilar, — dedi qo‘rg‘on begi, — o‘n besh daqiqa o‘tar-o‘tmas otliq qipchoq qo‘shinlari ko‘rinib Samarqand darbozasiga yugirdilar. Shungacha men ham davlatingiz soyasida ikki darboza oralarig‘a merganlarni yayratqan edim. Boshlab Samarqand darbozasi qo‘rug‘idan otishg‘a buyurdim. Merganlar o‘n besh daqiqa orqasini uzmay miltiqqa o‘t berib turdilar. Qipchoqlar bizning tomondan otilg‘an miltiq o‘qlarig‘a chidalmay, Samarqand darbozasini tashlab, Kamolon darbozasiga yuzlandilar. So‘ngra davlatlari ko‘lankasida Kamolon qo‘rug‘idag‘i merganlarni ishka qo‘ydim. Bir soat chamasi otishqandan so‘ng yov bizning o‘qimizg‘a chidalmay, ikki darboza orasida uch-to‘rt yuz o‘lik qoldirib, qochishg‘a majbur bo‘ldi. Bizdan yolg‘iz besh kishi o‘lib, to‘qqiz kishi yaralandi.

Azizbek juda zavqlang‘an edi, yana bir qayta barakalla o‘qub, so‘radi:

— Normat qipchoq ko‘rindimi?

— Yo‘q taqsir: qo‘rg‘on yaqinig‘a yo‘lamadi, yo‘lag‘anda...

— O‘shanga hozir bo‘lmoq kerak.

— Davlatlari yori bersa, albatta bizning muddao ham shunda...

Azizbek o‘z og‘zi bilan mudofi’larga «Men sizlardan rozi!» deb qichqirdi va mudofi’larning qiy-chuv duolari ostida sipohlari bilan Samarqand darbozasiga tomon harakat qildi.

Bu kun Azizbek g‘olibiyat daldasida qo‘rg‘onlardan bir aylanib chiqmoqchi edi. Shuning uchun Samarqand darbozasidan o‘tib qo‘rg‘on osti bilan Chaqarg‘a qarab yurishdilar. Qo‘rg‘on Chaqarning chuqur jarlik arig‘ig‘a taqalib tugalar edi. Chaqar suvi ustiga qo‘rg‘on tiklash mumkin bo‘lmay, jarning usti qo‘rg‘ondan tabi’iy bo‘sh edi. Ammo jarning narigi tomoni bir tepadan iborat bo‘lib, janub biqini ma’lum Chaqar suvi bilan, g‘arbi Bo‘z suv va Ko‘kcha arig‘i bilan o‘ralg‘an burun kabi bu tepa qo‘rg‘onsiz ham dushmanning hujumiga o‘ngg‘aysiz edi. Tepa ustida sipoh turishi uchun bir necha binolar soling‘an, janubi-g‘arbig‘a qaratib bir, g‘arbg‘a qaratib bir va shimoli-g‘arbig‘a qaratib yana bir; barisi uchta to‘p qo‘yilg‘an edi. Bu tepa ustida doimiy to‘pchi va qorovullar turar edilar.

Azizbek sipohlari ila jarga tushdi va suv kechib hali-

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

gi tepaga yuzlandi. To'pchi, qorovullar ko'zdan kechirilib, ularga bir necha tangadan in'om berildi. Shundan keyin tepaning kun chiqishig'a qarab qaytdilar. Chunki tepaning boshqa tomonlari yuqorida aytilgandek bir necha terak bo'yi jarlik bo'lg'anliqdan Ko'kcha darbozasiga o'tish uchun Suzuk ota mozori yaqini bilan Ko'kcha arig'ig'a tushilar va undan keyin Ko'kcha qo'rg'onlarig'a qaytib kelinur edi.

Ko'kcha qo'rg'onlari qo'rug'ida anovi qo'rg'onlarnikidek mudofi'lar ko'b bo'lmasa ham, yo'q ham emas edilar. Hudaychi Azizbekdan ilgariroqda qo'riqchilarni ogohlantirib borar, miltiq, shashvar tutkan yosh va keksa muhofizlar uni salomlab qarshi olar edilar va Azizbekning «Rahmat fuqarolarim!» so'zini eshitib yaxshig'ina taltayishib qolar edilar. Shu ravishda Ko'kcha, Chig'atoy, Sag'bon, Qorasaroy, Taxtapul, Labzax darbozalarini o'tib, eng keyin Qashqar darbozasiga yetdilar.[1] Qashqar darbozasi o'rdaga yaqin bo'lg'ani uchun munda muhofiz va sipohlar talayg'ina bor edilar. Ularning salomlariga ko'milib, Azizbek Qashqar darbozasining muyushiga yetkan ham edi, tashqaridan kimningdir darbozani oshig'ich taq-taq urgani eshitilib, Azizbekning oti hurkibmi, qo'rqibmi ketiga burulib to'xtadi. Boshqalar ham to'xtashg'a majbur bo'ldilar. Azizbek qarshisida qo'l bog'lab turg'an darboza begig'a baqirdi:

— Nega qarab turasan, darboza ustiga chiq, kim ekan u it?! Darboza begi yugurib qo'rg'on devoriga chiqdi:

— Taqsir, bir chol!

— Darbozangni ochib, ichkariga ol! — dedi Azizbek. Darboza ochildi. Tashqaridan saman otini yetaklab Hasanali kirdida, kutilmagan ish ustidan chiqg'ani uchun qo'rqib, Azizbekka salom berdi.

17. YUSUFBEK HOJI

Rayimbek dodxohning yonidagi bizga tanish olabayroq to'nlik kishi Hasanalini ko'rishi hamono:

— Ha-a-a, bizning Hasanali-ku! — dedi, — kel, Hasan ko'rishaylik, Otabek esonmi?

[1] Toshkandning bulardan boshqa yana Qo'qon, Qaymas va Beshyog'och ismlik darbozalari bo'lib, hammasi o'n ikki darbozadir. Qaymas darbozasi bu kungi Tuproqqo'rg'onning eski shahar muyulishida (O'qchi mahallada) *(mual.)*.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Hasanali kelib ko‘rishdi, Yusufbek hoji ko‘rishar ekan, Azizbekka dedi:

— Bu bizning kishimiz taqsir, Marg‘ilondan keladir.

Azizbek labini tishlab qoldi. Chunki darboza taqillatib, otini hurkitkan Hasanalini jallodg‘a topshirish niyati, albatta yo‘q emas edi. Yusufbek hojining so‘ziga javob bermay yo‘lida davom etdi. Hasanali sipohlar orqasidan, Yusufbek hoji Azizbek ketidan o‘rdag‘a qarab yurdilar. O‘rda darbozasiga yetkandan keyin kutib turg‘an o‘rda begi Azizbekning qo‘ltig‘idan olib otdan tushirdi. Azizbek o‘rda ichiga kirmakda ekan, Yusufbek hoji otdan qo‘nib so‘radi:

— Menga ruxsatmi, bek?

Azizbek yo‘l ustidan hojiga qaradi:

— Ruxsat, ertaga choyni o‘rdaga kelib iching.

— Yaxshi, taqsir.

Yusufbek hoji sipohlardan birining qo‘ltiqlashi bilan otig‘a minib, narida kutib turg‘an Hasanaliga qarab yurdi. Sipohlar ham o‘rda ichig‘a ot yetaklashib kira boshladilar.

Yusufbek hoji Hasanalining vaqtsiz ham Otabekka qaytishidan tashvishlangan va qanday bo‘lsa ham bir falokat yuz berganiga ishongan edi:

— Nega vaqtsiz kelding, Otabek sog‘mi? — deb so‘radi.

Yusufbek hoji Hasanaliga yetmasdanoq bu savolni berdi, Hasanali eshitmadimi yoxud eshitsa ham eshitmaganga solindimi, har nuchuk javob bermadi.

— Nega indamaysan?

— Otabek salomat...

— Bo‘lmasa, nega vaqtsiz kelding, Otabek qani?

Otabekning qamalishidan xabar berish Hasanali uchun juda og‘ir tuyilgan edi. Nihoyat ko‘zidagi yoshini artdi-da:

— Otabek Marg‘ilon hokimi tarafidan qamaldi, — dedi.

— Nega, nega? — dedi hoji, otidan sachrab yiqilishga yetkan edi. — Sababi nima?

— Sababi ma’lum emas.

— Astag‘firulloh, — deb qo‘ydi hoji, o‘zini bir oz to‘xtatqan edi.

Hasanali Otabekning Marg‘ilon borg‘anidan tortib, qamalishig‘acha bo‘lg‘an hikoyalarini so‘zlab ketdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
Yusufbek hoji bekning uylanishini ham oddiy gaplar qatorida eshitib o'tkardi.

— Marg'ilonda turib bir ish chiqarishg'a ko'zim yetmagandan keyin Toshkand kelishka majbur bo'ldim, — dedi Hasanali va shu gap bilan mojaroni so'zlab tugatdi. Hoji vaqi'ani eshitib, chuqur bir mulohaza ichida borar edi. Uning qanday kishi bo'lg'anini Toshkandning yetti yosharidan yetmish yosharig'acha bilganlikdan guzar va mahallalarda unga duch kelgan kishilar joylaridan turib salom berarlar, hoji bo'lsa javob qaytarishni bilmas, go'yo kishilarni ham ko'rmas edi. Nihoyat shu holda ko'b yurgach, orqasida kelmakda bo'lg'an Hasanaliga qarab otining boshini burdi va:

— Otabek bilan birga qamalg'anlarni necha kishi deding? — deb so'radi.

— Uch kishi: biri Mirzakarim qutidor, ikkinchi Ziyo shohichi, uchunchi Rahmat.

— Yaxshi, sen bu to'rtavining o'lturishlarida bo'lg'anmiding?

— Bo'lg'an edim.

— Nima va qaysi to'g'rilarda so'zlashdilar, Otabek qipchoqlarg'a qarshi so'zlamadimi?

— So'zlamadi. Boshqalarning ham bu to'g'rida so'zlari bo'lmadi.

— Ularning majlislarida bo'lmagan vaqting ham bo'ldimi?

— Har bir o'lturishlarida men hozir edim.

— Yaxshi, sen ular bilan qay yerlarda o'lturishding?

— Birinchi martaba Ziyo akanikida bo'ldiq, ikkinchi...

— To'xta, Ziyo akanikida mehmonlar necha kishi edilar?

— Qutidor, Otabek, andijonlik Akram hoji, men, Ziyo akaning qaynisi — Homid degan birav. Ziyo aka va uning o'g'li... Hammasi yetti kishi.

Yusufbek hoji otining yolini qamchisi bilan tarar ekan, uch-to'rt daqiqa o'ylab qolib, so'ngra so'radi:

— Ikkinchi o'lturish qayerda bo'ldi?

— Ikkinchi o'lturish Ziyo akanikidan ikki kun so'ng qutidornikida bo'ldi. Bu majlisda ham o'sha birinchidagi kishilar edilar. Yolg'iz Homid yo'q edi.

— Tag'in qayerda o'lturishdingiz?

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Boshqa joyda o‘lturishmadik... Mundan yigirma kundan keyin to‘y bo‘ldi. To‘yda albatta bunday so‘zlar gapurishilmaydir.

— Ikkinchi majlisingizda kim hali, Homid dedingmi, nega yo‘q edi?

— Bilmadim, nega yo‘q edi... Qutidor aytmagan bo‘lsa kerak.

— Qamalg‘uchilar: Otabek, qutidor, Ziyo aka, Rahmat, shundog‘mi?

— Shundog‘, hoji.

— Seni ham qo‘rboshi yigitlari qidirdilar?

— Qidirdilar.

— Akram hoji Andijon ketkan edi. Shuning uchun uni topolmadilar, shundog‘mi?

— Shundog‘.

— Homidni-chi?

— Uni qidirmadilar shekillik... Otabek qamalg‘andan so‘ng alla qayerda ko‘rgandek bo‘laman.

— Bizga kelin bo‘lmishni, go‘zal, dedingmi?

— Ilohi Otabek salomat qutilsin, muhabbat qo‘yg‘anicha bor...

— Kelinning suluvligi Marg‘ilonda ma’lum ekan-mi?

— Ma’lum ekan, tillarda doston ekan.

— Homid uylangan yigitmi, bildingmi?

— Uylangan. Bizning hujraga kelganda, ikki xotini borlig‘ini o‘z og‘zidan eshitkan edik.

— Homid sizning hujraga nima uchun kelgan edi? — deb so‘radi hoji, — nega buni boya so‘zlamagan eding?

— Esimdan chiqibdir, — deb uzr aytdi Hasan, — Homid Rahmat bilan birga Otabekni Ziyo akanikiga taklif qilg‘ali kelgan edi va biz ularga osh-suv qilib jo‘natqan edik. Ammo ularning unday-bunday so‘zlari bo‘lmag‘an, to‘g‘rilikcha kelib ketkan edilar.

— Yaxshi, o‘sha Homidni sen qanday odam, deb o‘ylaysan?

— Qo‘lansa so‘zlik, ichi qoraroq bir yigit edi, — dedi Hasanali, bir oz borg‘ach so‘radi. — Otabekning ishini og‘ir, deb o‘ylamassiz?

Hoji javob bermadi. Ul javob bergali ham qo‘rqar edi. Uningcha ish juda nozik, g‘oyatda qo‘rqunch edi. Chunki, Marg‘ilon zindonida yotguchi qipchoq dushmani bo‘lg‘an Azizbek otalig‘ining o‘g‘li edi. Toshkandning isyon chiqarg‘an bir zamonida Otabekdek

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
bir yigitning Marg'ilonda qanday gunoh bilan bo'lsa-bo'lsin ushlanishi har jihatdan ham mudhish edi.

Ul o'g'lining qutilishi yo'lida har bir mulohaza ko'chasiga kirib chiqmoqda, ammo har birisidan ham bo'sh va umidsiz qaytmoqda edi. Eng so'ng o'g'lig'a hujum qilg'an bu falokatning tadbiridan aqli ojiz qoldi, miyasi ishlashdan to'xtadi va shundan so'ng — «Parvardigoro, keksaygan kunlarimda dog'ini ko'rsatma», dedi va ko'z yoshlari bilan soqolini yuvdi.

— Hasanali, zinhor uning qamalg'anini onasi bilmasin.

— Albatta.

Shundan so'ng otlarini yetaklashib ichkariga kirdilar.

18. JAR

... Bu kun soat o'n ikkida Otabek ila qutidorning isyonchiliq gunohi bilan dorg'a osilishlarini jarchi shaharga xabarlab yurar va xalq og'zida Otabeklarning emish-memish hikoyalari edi.

Homid ila birgalashib kirgan mirshabni qo'rboshi tashqarig'a chiqmoqg'a buyurdi-da, Homidni o'lturishka imladi.

Qo'rboshi nimanidir so'zlamoqchi bo'lsa ham, negadir uning tili osonlik bilan harakatka kelmas va o'zi ham bir turlik o'ngg'aysizliqda edi. Nihoyat qo'rboshi o'ziga bir turlik jasorat berdi:

— Bobolar: «Dunyoniki miri kam ikki» deganlar, — dedi, — to'g'risi ham shundog': o'zingni yuz yoqg'a ursang ham tiriklikning yana bir boshqa yamog'i chiqib turadir...

Tuyg'un[1] Homid qo'rboshining nima maqsadi borlig'ini payqadi:

— To'g'ri so'zlaysiz, taqsir, — dedi, — dunyoniki hamisha mirikam ikki, shu yetishmaslik balosidan to'yib, ba'zi vaqtlarda kishining dunyodan chiqib ketkusi kelib qoladir. Yaxshikim, dunyoda oshna, og'ayni degan kimsalar bor... Agar shular bo'lmasa-chi, kishi allaqachon dunyodan chiqib ketadir. Shuning uchun men og'ayni-

[1] Tuyg'un — sezgir.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

larni ko‘zlarim ustida tutaman, ularni muhtojliq chog‘larida ko‘rsam, o‘zimni garav qo‘yib bo‘lsa ham ehtiyojdan chiqarishg‘a tirishaman.

Qo‘rboshi tizasi ustiga ko‘ndalang qo‘yg‘an qilichining ikki tarafidan bosib, bir qo‘zg‘alib qo‘ydi:

— Bali, bali, mulla Homid, munday og‘aynilarning sadaqasi ketsang ham arzir, — dedi tomoqlarini qirib qo‘ydi. — Shu kunlarda o‘g‘ilchalarning yoshi yetib, sunnati nabiyunani[1] bajo keltirish taqozo etadir... To‘y keraklaridan ko‘pini tadorik qilg‘an bo‘lsam ham, yetishmagan yerlari ham ko‘b. Shuni sizning kelishingiz oldida o‘ylab o‘ltirar edim...

— Bek aka, — dedi Homid va tusiga yasama kulish chiqardi, — siz achchig‘lansangiz ham aytay: beklar zoti kishiga sira ham oshna bo‘lmas ekanlar. Ayniqsa siz hamon o‘zingizning beklig‘ingizga borib, istig‘nongizni[2] eskicha olib borasiz... Boshingizda shunchalik qayg‘ingiz bo‘lur emish-da, bir og‘iz menga aytmas emishsiz?

Qo‘rboshi Homidning zakovatiga qoyil bo‘lib iljaydi:

— Yo‘q, yo‘q, mulla Homid, — dedi, — bu yoqda gap bor: hukumat xizmatida turg‘aningdan keyin yuz yoqning mulohazasini qilar ekansan...

— Tuzik, bek aka, ammo manim oshnachilig‘im tamom boshqachadir, — dedi Homid va yonchig‘ini chiqarib bir qo‘lidan ikkinchi qo‘lig‘a oltinlarni sanab tushira berdi. Qo‘rboshining ko‘zi oltinlar ustida o‘ynab bular barakasida qiladirg‘an sunnat to‘yisini, Marg‘ilon beklari oldida ortdiradirg‘an obro‘sini o‘ylamoqda edi. Oltinlardan yigirmatasi ajratilgach, sanoqqa ishonmay ko‘rib turg‘anim tushmi, deb uyqusiradi. Homid oltinlarni uzatdi, — mana, bek aka, bu arzimagan oltin xolis oshnalig‘imizning bog‘lanishidir, yana yetmagani bo‘lsa qarab turmasmiz.

Qo‘rboshi titrab, qaxshab oltinlarni joyladi. Homiddan nihoyatda xursand edi:

— Xo‘sh, mulla Homid, endi bu kungi hangamalardan so‘zlashayliq, — dedi bek. — Pochchangiz ila jiyaningizning bu ishka oralashib qolg‘anlari yomon bo‘ldi-da.

Bu so‘zdan Homidning yuziga qayg‘irish alomati chiqdi va e’tibor bilan qo‘rboshining og‘zig‘a qaradi.

---

[1] Sunnati nabiyuna — payg‘ambarning yo‘l-yo‘rig‘i.

[2] Istig‘no — e’tiborsizlik, kibrlanish.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Qo'rboshi davom etdi:

— Bu ikki begunohning qamalishlarig'a ham o'sha yaramas sabab bo'ldi. Yo'qsa ularni qamoqqa olishg'a qushbegi buyurmas edi. Ammo kechagi qushbegiga so'zlag'an so'zingiz Otabek ila qayin otasini o'limga mahkum qilganidek, pochchangiz ila jiyaningizni bir qadar oqlaydilar. Shuning uchun men borg'an so'ng bo'ladirg'an hukm majlisida ehtimol qarindoshlaringizni qutqazishg'a muvaffaq bo'lurman. Har holda qarindoshlaringizning qattig' jazo tortishlari shubhalikdir, siz payqadingizmi, yo'qmi kecha men jarchig'a bu kungi osilg'uchilarni Otabek ila Mirzakarim bo'lg'anlig'ini ta'yinlagan edim.

— Marhamatingizga qulluq, — dedi Homid, — ammo shundog' bo'lsa ham qarindoshlarim to'g'risida xavfdaman... Buning boshqacharog' bir ebini topib bo'lmasmikin?

Boyag'i mukofotlar qo'rboshini chinlab bosh og'ritishg'a majbur etar edi. Bu to'g'rida ul ancha o'ylab oldi:

— Kecha qushbegi oldida Otabeklarni qay ravishda ayblab so'zlag'an edingiz, tag'in bir eshitib ishning rejasini olay-chi?

— Qushbegiga so'zlag'anim shunday edi — «Otabek aytdi: endi bizning Toshkand xalqi qipchoqlarning jabru zulmi va tadbirsiz idorasi ostida yotib juda to'ydi. Boshlab Toshkanddan qipchoq balosini yo'qotish uchun Azizbek va otam boshliq isyonga tayyorlandilar. Shu maqsadda Marg'ilon og'aynilarini ham qipchoqlarg'a qarshi oyoqlandirmoq uchun meni bu yerga yubordilar. Biz tokay qipchoqlar qo'l ostida ezilamiz va bir hovuch dalatoblarg'a bosh egamiz, dedi. Otabekning bu so'ziga qutidor va Akram hojilar qo'shilishib, unga bu yo'lda yordamlashmakchi bo'ldilar. Ammo men bo'lsam bu gapka qarshi tushib: sizlarning bu fikrlaringiz yanglishdir, biz uch yil bo'yi janobi O'tabboy qushbegining qo'l ostlarida yashab hech bir zulm ko'rmadik. Shu holda hukumat ustiga iqdomimiz[1] kufroni ne'mat[2] bo'lur, dedim. Otabek menga qattig' so'zlar aytdi. Pochcham ila jiyanim bo'lsa manim fikrimda edilar, ammo uyimizga kelgan mehmon, deb ularga ochiq qarshilik qilmadilar. Bu majlisdan keyin men bir necha vaqt Otabek va

[1] I q d o m — qadam bosish; osti qilish.

[2] K u f r o n i n e'm a t — qadrini bilmaslik, ko'rnamaklik, nonko'rlik.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

yo‘ldoshlarining qonlari to‘kilmasin, deb bu gapni ichimga solib yurdim. Biroq Toshkandda Azizbek va Yusufbek hojilar isyoni boshlang‘andan so‘ng, o‘zimning bu ishimni hukumatimiz uchun xiyonat bilib, qo‘rboshi janoblariga xabar berdim. O‘zimning sodiqona bu xizmatim evaziga janoblaridan ojizona o‘tinchim shulki, bu sirni sizlarga bildirguvchi men bo‘lg‘anlig‘imni o‘zlaridan boshqa kimarsa bilmasin, hatto muttahamlar ham sezmasinlar» — mana, faqirning Otabeklarni ayblashim va qarindoshlarni oqlashim xulosasi shundan iboratdir.

— Barakalla, — dedi qo‘rboshi, — sizning bu gaplaringiz juda ham o‘rinlik tushkan, men ishonamankim, Ziyo aka bilan Rahmat qutulurlar.

— Buni nimaga suyanib aytasiz?

— Suyanchig‘ingiz ma’lum, — dedi qo‘rboshi, — qushbegiga Otabek ila qutidorni osmoq fikrini bergan bu so‘z, pochchangiz bilan jiyaningizni nuchuk qutqarmasin.

— Pochcham bilan jiyanim ilgarigi so‘roqda qanday javob bergan edilar, buni xotirlay olasizmi?

— Ularning javoblari kechagi sizning oqlashingizg‘a sira ham qarshi kelmaydir. Chunki ular majlisda bunday so‘z bo‘lmadi, deb tondilar. Bu ersa o‘z uylariga kelgan mehmonlarni rioya[1] qilishlari bo‘lib chiqadir-da, yana ish sizning oqlashingizg‘a yopishib keladir.

Homid tag‘in bir mulohazaga tushkan edi. Uning bu holini kuzatib turg‘an qo‘rboshi:

— Endi ortiq o‘ylamangiz, mulla Homid, — dedi, — orada siz qo‘rqarliq hech bir ish yo‘q.

Homid nimadir aytmakchi bo‘lar edida, o‘ng‘aysizlanib to‘xtar edi. Bir kuni qayta og‘zini jo‘plab qarasa ham yana so‘zlay olmadi. Qo‘rboshi uning bu holidan xabar topdi:

— Gapuring, gapuring, munda yot kishi yo‘q.

Qo‘rboshining bu so‘zi daldasida Homid jasoratlandi:

— Bu kun hukm majlisida pochcham ila jiyanim so‘zlaridan yanglishib ketsalar nima bo‘ladir?

— Nega yanglishsinlar, ular bilganlaridan ortiqni albatta so‘zlamaslar. O‘lim degan narsa ko‘z o‘ngiga kelib to‘xtag‘andan keyin Otabekdek mehmonlar rioyasi

---

[1] R i o ya — hurmatlash; andisha.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

ko‘ngildan yuvilur, so‘zning to‘g‘risini aytishka majbur bo‘lurlar va ish ham sizning ayblash, oqlashlaringiz ruhiga kelib to‘xtar.

Homid yana ham o‘ngg‘aysizlanib tushdi, o‘zining ichki sirriga shu choqg‘acha tushuna olmag‘an qo‘rboshig‘a la’natlar o‘qur ekan:

— Ayblash, oqlash so‘zlarimning ruhini siz bir yoqqa qo‘yabering-da, ishning ichki tomonini mulohaza qiling, qo‘rboshi aka, — dedi.

Xoin ila sotilg‘an ko‘zlar to‘qnashdilarda, birbirisidan ma’no olishdilar va oraga bir necha daqiqa so‘zsizlik, jimjitlik kirdi. Qo‘rboshi chindan ham bu o‘ringacha Homidning ichki sirriga muttali’[1] bo‘lmag‘an, qo‘lig‘a kirgan oltinlarni ham yolg‘iz uning qarindoshlarining qutilishlari yo‘lidagi choychaqalar, deb bilar edi. Ammo endi ilgari va hozirda kissaga tushkan oltinlarni Otabek ila qutidorning qon baholari ekanligini sezib vijdoni to‘lqinlanayozdi va mutaraddid bo‘ldi. Qo‘rboshining bu holi Homidni ma’lum ikki yo‘l ustida qoldirgan edi. Bu ikki yo‘l ustida qolgan Homid sarosima edi. O‘zini jahannamga yuborish va najotka chiqarish ixtiyori qarshisidag‘i bekning qo‘lida edi. Unga tez-tez qarar va hol tili bilan unga yana ko‘b oltinlar va’da qilar edi. Bu va’dalarni Homidning yuzidan o‘qug‘an qo‘rboshi — «ikki kishining xun baholari!» qichqirmoqqa bo‘lgan vijdon sadosini eshitib o‘lturmadi:

— Endi bunga qarshi qanday yo‘llar ko‘zlaysiz?

Homid o‘zining najot tomonig‘a og‘ishqanini sezib entikdi:

— Qushbegiga qilg‘an ayblash, oqlash yo‘llarimni pochcham ila jiyanimga tushundirish kerak, deb o‘ylayman.

— Tushundirsak, tag‘in yaxshi.

— Rahmat, bek aka, undog‘ bo‘lsa vaqt qochirmasdan ularning yonlarig‘a tushib, to hukm vaqtig‘acha uqdira olasizmi?

— Mumkin, o‘zingiz tushsangiz yana yaxshi.

Homid boshini chayqadi:

— Otabek ila qutidorlarninggina emas, hatto pochcham ila jiyanimning ham manim bu ishlarda ishtirokim borlig‘ini bilmasliklari kerakdir.

---

[1] M u t t a l i ’ — xabardor, ogoh.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Ma'qul. Ammo bunda sizning maqsadingizg'a qarshi bir gap borkim, hukm chog'ida qushbegi sizni yo'qlasa nima bo'ladir? Bu taqdirda ular sizning bu ishni omili bo'lg'anlig'ingizni bilmaslarmi?

Masalaning bu tomoni ham Homid uchun yomon edi. Farishtadek sof holda qolmoqchi bo'lg'an Homidning bu hol sirrini ochar, yuzidagi niqobini olishg'a, raqiblar ila yuzma-yuz kelishka majbur etar edi:

— Hukm majlisida bo'lmaslig'imni uhdangizga ololmaysizmi?

— Uhdaga olmoq qiyin, — deb bosh chayqadi qo'rboshi, — ammo bu bir ehtimolginadir, chunki, qushbegining bir narsaga qaror bergach, ortiq tekshirib o'lturadirgan odati yo'qdir.

Homid uzoq o'ylab turmadi, yuzidagi sovuq bir o'zgarish ichida:

— Mayli, basharti yuzlashmoqqa to'g'ri kelganda ham men hozir, — dedi, shundan so'ng ajralishdilar.

19. HUKMNOMA

O'tkir, qonsirag'an xanjarini beliga osib, oyboltasini ko'targan jallod qushbegining hukmiga muntazir edi. Qushbegining o'ng tomonida qo'rboshidan tortib shahar a'yonlari, qarshisida Otabek, qutidor, Ziyo shohichi va uning o'g'li Rahmat — gunohkorlar va ularning orqasida muhofiz yigitlar.

Otabek bilan qutidorning gunohlari ulug' bo'lg'anliqdan qo'llarida kishan, Ziyo aka bilan Rahmatning qo'llarida bu narsa yo'q edi. Qutidorning yuziga o'lik tusi kirgan, Otabek bo'lsa garangsigan qiyofatda. Anovilar o'zlarini bir muncha tetik tutmoqda edilar.

Qushbegi o'zining yozilib qo'yilgan hukmnomasini qo'lig'a olib o'qishg'a hozirlandi. Hamma tip-tinch, yerga qarag'an edi:

«Menkim Marg'ilon hokimi O'tabboy qushbegi o'z hukmimni xoqon ibni xoqon janobi oliy Xudoyorxon ismi shariflaridan eshitdiraman...»

Xudoyor ismini eshitkuchi a'yon uning ta'zimi uchun o'rinlaridan turib yana o'lturdilar.

Qushbegi hukmini o'qudi: «E'timodlik[1] bir kishining

[1] E'timod — ishonch.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

shahodatiga binoan toshkandlik Yusufbek hojining o‘g‘li — Otabek, bu kunda xonimizg‘a qarshi bosh ko‘targan Aziz parvonachi va o‘z otasining vakolatlari bilan Marg‘ilon kelib, bu yerdagi fuqarolarni ham xon janobig‘a qarshi oyoqlandirmoqchi bo‘lg‘an Otabekning bu harakati ululamir[1] bo‘lg‘an janobga bog‘iyliq[2] bo‘lib, uni, ya’ni Otabek Yusufbek hoji o‘g‘lini o‘lim jazosi bilan jazolash taqozo etadir. Ikkinchi, Otabekka yo‘lda ko‘makchi bo‘lib yurgan Marg‘ilon fuqarosi Mirzakarim qutidor ham shu jazoga sazovor tutiladir. Ziyo shohichi bilan o‘g‘li Rahmat bu bog‘iyliqdan xabardor bo‘laturib, vaqtida hukumatka ma’lum qilmag‘anlari uchun bir yildan zindon jazosiga mahkum bo‘lurlar!»

— Haqsiz jazo, — deb Otabek kulimsirab qo‘ydi... Qutidor bo‘lsa chin o‘lik tusiga kirgan edi.

Ziyo aka bilan o‘g‘li zindong‘a jo‘natildilar va Otabek bilan qutidor jallod qo‘lig‘a topshirildilarda, shuning ila hukm majlisi tamom bo‘ldi.

Oradan o‘n daqiqa chamasi fursat kechkan edi, qushbegining a’yonga so‘zlab o‘lturgan hikoyasini tezroq bitishini kutmakda bo‘lgan qo‘rboshi nihoyat chidalmay o‘rnidan turdi va:

— Dor ostig‘a borib hukm ijrosi vaqtida hozir turishimg‘a ijozatlari bo‘ladirmi? — deb so‘radi. Ul bu so‘zni tugatar-tugatmas o‘rda qorovuli Pirmat ko‘rindida, qushbegiga qulluq qildi:

— Bir xotin kishi arzim bor deydir, kirsinmi?

Qushbegi qo‘rboshig‘a ruxsat ishorasini berib, Pirmatka dedi:

— Kirsin.

O‘xshamag‘an yerda bir xotinning arzgą kelishi qo‘rboshining ko‘ngliga shubha soldi. Majhula[3] xotinning qanday arzi bo‘lg‘anlig‘ini bilib ketishka tilasa ham qushbegidan ruxsat olib qo‘yg‘ani uchun mahkamadan chiqishga majbur edi. Qo‘rboshi mahkama eshigidan dahlizga chiqar ekan, eskigina paranjiga o‘ralg‘an bir xotin qushbegi to‘g‘risig‘a to‘xtab, bukilib ta’zim qildi. Xotinda hayajon va entikish holatlari bor edi. Shuning uchun qo‘rboshining boyag‘i shubhasi yana kuchaydi,

---

[1] U l u l a m i r — buyuk amir.
[2] B o g‘ i y — isyonchi.
[3] M a j h u l a — notanish, noma’lum.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
qushbegining ko‘zidan yo‘qolib turish maqsadida o‘zini eshikning orqasiga olib ketmay to‘xtadi.

Xotin shoshilib kavshini yeshdida, eshik ostida nimanidir paranji ichidan oxtarindi. Xotinning bu harakatiga tushunolmay ajablangan qushbegi:

— Ichkariga kirib arzingizni so‘zlang, opa, — dedi.

Xotin ichkariga kirdi va qushbegi oldig‘a borib unga nimadir berdida, orqasig‘a qaytib eshik yonig‘a kelib turdi. Xotinning berib ketkan narsasi uch, to‘rt buklangan bir qog‘oz edi. Qushbegi sekin-sekin qog‘oz taxtlarini ocha boshladi...

— Xudo rizosi uchun tezroq. Yo‘qsa... ikki gunohsizning qonlarig‘a botarsiz!

Xotinning bu so‘zidan a’yon bir-birlariga qarashdilar. Qushbegi tez-tez qog‘oz taxlarini ochib bitirdi va yo‘g‘on qalam bilan yozilgan uzun bir maktubni o‘qumoqqa oldi. Maktubni o‘qub chiqish uzoqqa cho‘zilg‘anliqdan nihoyatda toqatsizlashgan edi. Oxirda qushbegi maktubning so‘ngrog‘ig‘a kelib to‘xtadi-da, chaqirdi:

— Pirmat, Pirmat!

Pirmat yugurib kirdi.

— Labbay, taqsir!

Qushbegining tovshida shu choqg‘acha eshitilmagan bir holat bor edi:

— Darrov haligi osilish uchun yuborilg‘an gunohkorlarning orqasidan ot bilan yugir! Dor ostidan bo‘lsa ham qaytarib kel! Buyrug‘imni qo‘rboshig‘a aytsang unar!

Pirmat qulliq qilib dahliz tomong‘a qaradi:

— Qo‘rboshi ham shu yerdalar, — dedi.

— Chaqir!

Dahlizdan qo‘rboshi kirib qulliq qildi.

— Xizmat, taqsir.

— Yaxshi, siz ketmagan ekansiz, — dedi qushbegi, — Pirmat bilan borib, darhol boyag‘i gunohkorlarni qaytarib kelingiz.

Shubhasini bekorga bo‘lmag‘anini sezgan qo‘rboshi yonida tik turg‘uchi xoting‘a qarab oldi:

— Sabab, taqsir?

— Sababini surishtiradigan vaqt emas, chop dedim, chop!

Qo‘rboshi qulliq qilib Pirmat bilan chiqdi. Uning

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

keyinidan qushbegi «padar la'nat» deb so'kinib a'yonlarga qaradi. Endi xotinning hayajoni bir oz bosila tushkan edi. Qushbegi qo'lidag'i xatni yana o'qushg'a tutindi. A'yoni shahar bunchalik ishka yaragan qushbegining qo'lidagi maktubga va uni keltirguchi xotinga qarashmoqda edilar. Qushbegi maktubni ikkinchi marta-ba o'qub chiqib xotinga qaradi:

— O'lturingiz, singlim, — dedi.

Xotin o'ltirmakchi bo'lg'an edi paranji ichidan uning atlas ko'ylaklari va nafis oq qo'llari ko'rinib ketdi. Qushbegi yer ostidan xotinni kuzatdida, qo'lidag'i maktubning orqa, o'ngini tekshirib qaradi. Maktub anchagina uring'an, qog'ozi shaloqlang'an edi. So'ngra xotindan so'radi:

— Qutidor bilan Otabekning kimi bo'lasiz, singlim?

— Qutidorning qizi, Otabekning xotini.

Bu so'zni eshitkuchi a'yon bir-birlariga qarashib qo'ydilar.

— Buni nega ilgariroq olib kelmadingiz?

Qushbegining bu savolidan Kumushbibi qo'rqunch bir ma'noni ongladi. Go'yo «ish o'tkan so'ng kelibsan» degandek tushungan edi. Shuning uchun ul titroq bir ovoz bilan so'radi:

— Endi yaramaydimi?

— Yo'q, yo'q, qizim, — dedi qushbegi, — men nega kecha va o'tkan kunlarda olib kelmadingiz demakchiman.

Kumushbibi bir entikib qo'ydi va o'zini to'xtatib:

— O'zim ham bu maktubni shu bukun ko'rdim, — dedi.

— Maktubni ilgari ko'rmagan edingizmi?

— Ko'rmagan edim.

— Maktub qaerda ekan?

— Uning eski kamzulining cho'ntagida ekan[1].

Shu gapdan keyin qushbegi maktubni o'ziga yaqin o'lturg'an Azim ponsad boshig'a uzatdi:

— Siz ham o'qub ko'ring-chi, ponsad, — dedi va Kumushdan so'radi, — o'qug'anmisiz?

— O'qug'anman.

---

[1] Bu maktub o'tkan fasllarning bittasida yozilib o'tkan edi. O'quguchi Yusufhojining Toshkand tinchsizligi chog'ida Otabekka yozgan xatini xotirlasa kerak *(mual.)*.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Eringizning hukumatka qarshi harakatini ilgari ham bilar edingizmi?

— Qanaqa harakatini?

— Masalan, biz otangiz bilan eringizni nima uchun osmoqchi bo‘ldiq?

— Haqsiz, gunohsiz!

— Bu maktub bilan eringizni o‘limdan qutila olishini sizga kim aytdi?

— O‘zim bildim.

— Bo‘lmasa ilgaridan eringizning o‘sha harakatini ham bilar ekansiz-da?

— Yo‘q, taqsir, — dedi Kumush. Qushbegining maqsadig‘a endi tushunib olgan edi, — men onam bilan to shu kungacha ularning nima gunoh bilan qamalg‘anlarini bilalmay hasratda edik. Faqat bu kun kishilarning og‘zidan eshitib bildikki, siz uni Toshkanddan isyon chiqarg‘ali kelguchi, deb gunohkor qilur ekansiz. Onam bilan manim baxtimga kutmagan joydan mo‘’jizadek bu maktub topildi-da, men xizmatingizga yugirdim... — Kumush so‘zini tugata olmadi, chopishidan halloslagan Pirmat dahlizdan ko‘rinib, bekka qulluq qildi:

— Dor yonidan qaytishdilar!

Kumushbibi sachrab Pirmatning yuziga qaradi va uzoq tin olib qo‘ydi. Shu choqg‘acha xat o‘qub o‘lturgan ponsadboshi maktubdan yaxshi asarlangan edi. Maktubni yonidag‘ig‘a berar ekan, qushbegiga dedi:

— Bu xat toshkandlik Yusufbek to‘g‘risidagi fikrimizni tamom o‘zgartadir, taqsir! Uning Azizbek tomonliq bir kishi ekanligi Farg‘onaning har bir xos[1] va omi og‘zida naql qilinsa ham ammo hech bir kimsa uning ichiga kirib chiqmagandir. Har kimning ko‘nglidagini yolg‘iz bir xudodan boshqa kim bilsin!

«Yov qochsa botir ko‘payar» qabilidan shu choqg‘acha lom demay o‘lturgan shahar a’yonlari ham masalani onglab, so‘zga aralasha ketdilar:

— Xudo haqni nohaq qilmadi, bechora yosh yigitning haqsizga qoni to‘kilmadi.

— Qutidordek qo‘ymizoj bir odamning bunday zo‘r ishka oralashqanlig‘iga aql ham bovar qilmas edi.

Go‘yo bu so‘zlar Kumushbibining o‘chkan charog‘ini qaytadan yoqarlar, umid osmonining yo‘qolib, yashi-

---

[1] X o s — yuqori tabaqa, amaldorlar.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

rinib ketkan yulduzlari yana qaytadan o‘z o‘rinlariga kelib qo‘ng‘andek bo‘lurlar, uning ko‘z o‘ngida joy olgan qoraliqlar shu yoqila boshlag‘an najot sham’lari partavi bilan o‘z-o‘zlaridan yo‘qolg‘andek ko‘rinarlar edi.

Dahliz eshigi ostida bir durkum oyoq tovushlari eshitilib qo‘rboshi ko‘rindi.

— Kelishdilar, taqsir, kirsinlarmi?

Qushbegi javob berish o‘rniga maktubni olib ko‘rpacha ostig‘a yashirdi va Kumushbibini tanbihladi: «Majlisda manim ruxsatimdan boshqa so‘zlashingiz otangiz bilan eringizning o‘limlarini tilashingizdir, tushundingizmi?» Kumush qabul ifodasini bergandan so‘ng qushbegi dahlizda qarab turg‘an qo‘rboshig‘a «Kirsinlar» dedi.

Kumushbibi ularni boya yo‘l ustida, yigitlar orasida ko‘rgan bo‘lsa ham biroq dahshat ichida faqat o‘rdaga qarab yugira bergan edi. Endi «Kirsinlar» jumlasini eshitgach, yuragi ortiqcha sho-pirinib ketdi, uning istiqbolig‘a turishni va bo‘ynig‘a osilib yig‘lashni tilasada, qarshisidagi «olabo‘jilar» bunga moni’ edilar. Shu vaqt yigitlar oldida, qo‘llarida kishan bo‘lg‘ani holda Otabek bilan qutidor kirdilar.

— Yigitlar, siz chiqingiz! Qo‘rboshi, siz kishanlarni yeshingiz! — deb buyurdi qushbegi.

O‘zining mundan keyingi ko‘rguliklarini foji’alar vodiysida ko‘rgan qo‘rboshi boshlab kishan kalidini qutidor qo‘lig‘a soldi. Kalidni burar ekan, uning qo‘li dirdir qaltiramoqda edi. Homidning noma’lum bir g‘arazi yo‘lida qurbon qilinayozg‘an va bu g‘arazda o‘zining ham ishtirokining borlig‘ig‘a qoyil[1] bo‘lg‘an qo‘rboshi ishni bu yanglig‘ akslanishidan sirning ochilg‘anini muqarrar bilib, o‘zini shu soat jallod qo‘lig‘a topshirilishini aniq kutmakda edi. Ming balo bilan qutidor qo‘lini bo‘shatib, gal Otabekka yetdi. Otabek qo‘llarini bo‘shatg‘uchi qo‘rboshining buncha-lik titrab, qaltirashidan o‘z raqiblaridan bittasi shu kishi bo‘lg‘anini o‘yladi. Garchi o‘zining najoti hali qorong‘u ersa-da, qo‘rboshini bir sinab ko‘rish uchun hamma kuchini ikki ko‘ziga yig‘dida, unga qaradi. Favqulodda dahshat kasb etkan uning ko‘zlari qarshisida qo‘rboshining gunohkor ko‘zlari chiday

[1] Q o y i l — iqror.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
olmadilar-da, yerga boqdilar, Otabekning bu sinashi o‘z fikrining to‘g‘ri bo‘lishi bilan natijalandi.

Qushbegining buyrug‘i bilan ikki gunohkor tiz bukib o‘lturdilar. Qo‘rboshi ham to‘rbasini yo‘qotqan gadoydek qushbegining chap yonig‘a, Kumushbibining yuqorisig‘a borib o‘lturdi. Otabek va qutidorning ko‘zlari Kumushbibiga tushkan bo‘lsa ham o‘z qayg‘ulari bilan bo‘lib unga iltifot qilmag‘anlar, hokim mahkamasida paranjilik xotinning nima qilib yurganlig‘idagi favqulloddalik ham eslariga kelmagan edi. Dor ostidan qaytish sirri, qo‘ldan kishanlarni olinish sababi ularni juda shoshirg‘an, shuning uchun qushbegining og‘zig‘a qarag‘an edilar. Qushbegi bo‘lsa negadir uzoq o‘ylab o‘lturar, tezda gap ochmas edi. Bu holda butun majlis ahli qabziyatda[1], qirq quloq bo‘lib uning og‘zig‘a tikilgan edilar. Ammo bu holga qo‘rboshi jonu dildan tarafdor, shu holda bir necha kunlab emas, yillab so‘zsiz qolishni tilar edi.

— Otabek, — dedi qushbegi so‘z boshlab, — qo‘lg‘a oling‘an kuningiz menga o‘zingiz bilan otangizning qanday kishilar bo‘lg‘aningizni, ya’ni maslakingizni so‘zlag‘an edingiz. Ammo biz o‘shal so‘zlaringizga dalil va isbotsiz ishona olmaymiz. Sizni dor ostidan qaytarib kelishimiz ham o‘shal da’vonigizga birar isbotingiz bormi yoki quruq bir gapmi, deb hukmning ijrosini bir oz fursatka to‘xtatishdir. Endi siz o‘shal da’vongizni isbot qila olasizmi?

— O‘shal kungi manim so‘zlag‘anlarim, otam bilan manim ichki sirlarimiz edi, — dedi bek, — albatta bunga guvoh va isbot topish qiyindir. Agarda otam kelib manim so‘zimni quvvatlag‘anda ham bari bir siz, o‘g‘lini qutqazish uchun so‘zlaydir, der edingiz-da, ig‘vogarlarning gapiga ishonib o‘z hukmingizni qila berar edingiz.

Yashindek so‘qqan uning bu so‘zlaridan qushbegi o‘zini arang to‘xtatdi:

— Demak, o‘sha so‘zlaringizni isbot qilish uchun hujjatingiz yo‘q?

— Yo‘q... Isbot uchun vijdonimdan boshqa shohidim yo‘q.

— Yaqin orada Toshkanddan birar narsa olg‘anmidingiz?

---

[1] Q a b z i ya t — diqqat bo‘lish, dilgirlik.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Ya'ni nima?

— Masalan xat.

Otabek ko'b o'ylay olmadi, butun borlig'i bilan harakat qilib qichqirdi:

— Oldim, oldim! Isbotim ham bor!

A'yoni shahar uning bu holiga chidab turolmay ko'zlariga yosh oldilar.

Otabek yana dedi:

— Odam qo'shsangiz men keltiray guvohimni!

— Tinchlaningiz, Otabek, — dedi qushbegi, Otabek bir oz o'zini yig'ib olg'andan keyin so'radi, — nima olg'an edingiz?

— Maktub.

— Kimdan?

— Otamdan.

— Qachon?

— Toshkandda isyon boshlanish oldidan.

— Undan keyin-chi?

— Olmadim.

— Otangiz o'sha xatida nimalardan bahs qilar edi?

— Tushunmagan Toshkand xalqini Azizbekning makriga uchkanidan, eng oxirda... — asarlanib to'xtab oldi, — manim shu holga tushmog'imni karomat qabilidan so'zlab, menga bir muncha nasihatlar ham qilgan edi.

Otabekning bu so'zidan keyin ponsadboshi — «endi bo'lar» degandek qilib qushbegiga qaradi. Qo'rboshi ersa Otabekning ustida hali bunchalik tergashlar borlig'i uchun o'zini bir oz to'xtatib qoldi. Qushbegi ko'rpacha ostidan xatni olib Otabekka ko'rsatdi.

— Bu qanaqa maktub, taniysizmi?

Otabek ko'rguchi ko'zlariga ishonmag'andek:

— Taniyman, — dedi, — ta'rifini sizga so'zlag'anim, otam maktubi! Taajjub, buni sizga kim keltirdi, taqsir?

Qushbegi yengilgina iljayib Kumushbibiga ishorat qildi:

— Najot farishtasi, — dedi. Qutidor bilan bek yalt etib Kumushka qaradilar. Endi Kumush ortiq chidab turolmadi:

— Otajon, men qizingiz!

Otabekning qulog'ig'a eshitilgan bu tovush uning yuragini ingichka yeriga borib tekkan edi. Esini yo'qotib turg'an qayin otasig'a qaramay:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Sizmi, Kumushmi? — deb so‘radi.

— Men, men!

Bu savol-javob ila ikki vujudning hamma hasratlari, alamlari bir-birlariga onglashilg‘an, ikki tovushning bir-birisiga kelib qo‘shilishidan ikkisiga ham til bilan onglatib bo‘lmasliq bir hol yuz bergan edi.

— Bu senmi, qizim?

— Men, otajon!

Bu o‘ringacha boshqa bir mulohazada o‘lturgan qushbegi ularning so‘zlarini bo‘lib, Otabekdan so‘radi:

— Qulingiz Hasanalini nega shu kungacha topib bo‘lmadi?

— Qamalg‘an kunimdan beriga undan xabarim yo‘q, taqsir, — dedi-da, Otabek Kumushka qaradi.

— Bu kun o‘n ikki kun; Hasanali ota Toshkand ketmishdir, shundan beri undan darak bo‘lmadi, — dedi Kumush.

— Toshkand ketishka uni nima majbur qildi? — deb o‘rinsiz bir savol bergan edi qushbegi, Kumushbibi uning nima uchun ketkanligini aytib qanoatlantirdi.

Masala yana xat ustiga o‘tib, Otabek qushbegidan so‘radi:

— Qo‘lingizdag‘i maktub bilan ehtimol biz oqlang‘an chiqarmiz? — Qushbegidan tasdiq ishorasini olib davom etdi. — Hozir biz sizning adolatlik hukmingizdan bir narsani so‘raymiz: ul shuldurkim, bizning to‘g‘rimizda yomon maqsad bilan sizga chaqimchiliq qilg‘uchi ig‘vogar va g‘arazgo‘lar bu majliska hozirlansinlarda, o‘zlarining mash’um kashflarini va yo ko‘rgan-eshitkanlarini isbot qilib bizni qayta boshdan dor ostig‘a yuborsinlar. Bil’aks isbot qilolmas ekanlar, bizga qazig‘an chuqurlarig‘a o‘zlari yiqitilsinlar! Adolatingizdan bizning talabimiz shul! — dedi va qo‘rboshig‘a qaradi. Uning yuzida qo‘rqish va iztirob alomatlari ko‘rdi.

— Talabingiz o‘rinlik, — dedi qushbegi, — ammo xasmingizni[1] bu majliska hozirlash uchun vaqtimiz ozdir va lekin bu kun uni qo‘lg‘a olarmiz va birisi kun beshovingizni bir yerga jam’lab o‘z hukmimizni berarmiz, — dedi. Kumushbibiga yuzini o‘girdi. — Qizim, sizning bunchalik zakovat va jasoratingizga otangiz bilan

---

[1] X a s m — dushman, raqib.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

eringiz har qancha tashakkur aytsalar va· o‘zlarining mundan so‘ngg‘i umrlarini sizning baxshishingiz[1], deb bilsalar arzir. Men ham sizning bu xizmatingiz evaziga eringiz bilan otangizni hozirdan boshlab ozod qildim. Ammo Otabek ish bir taraflik bo‘lg‘uncha o‘zining qochmaslig‘i uchun kafil berishka majburdir.

Hamma mol va mulki bilan qutidor Otabekka kafil bo‘ldi va qushbegining haqig‘a duo qilib, uchavlari mahkamadan birgalashib chiqdilar.

— Ziyo aka bilan o‘g‘li Rahmatni bo‘shatingiz, so‘ngra anovini qo‘lg‘a olingiz! — degan amrni olib, qo‘rboshi ham siljidi. Shuning ila bu kungi hukm majlisi tamom bo‘lib, shahar a’yonlari taajjub ichida tarqala boshladilar.

20. ISTIQLOL[2] DARDI

Yetmish kunlik bir muhosaradan keyin uch ming sipohni bir yarim mingga tushurib, bir yarim ming sipohni Toshkand qo‘rg‘onlari ostida qurbon berib, Normuhammad qushbegi quruq qaytishg‘a majbur bo‘ldi.

Bu yetmish kunlik qamal vaqtida Azizbekning sodiq fuqarolari bo‘lg‘an toshkandliklar aztahidil unga xizmat qilib, jonbozliq ko‘rsatib, nihoyat qipchoqlarni umidsiz Qo‘qong‘a qaytarishg‘a noil bo‘ldilar. Noil bo‘ldilar, ammo o‘zlari ham yaxshig‘ina bo‘lib qoldilar. Yetmish kunlik bir qamal, yetmish kunlik chetdan va eng ozi qishloqlardan munosabatni uzib turish, albatta Toshkandni bo‘ldirib qo‘yg‘an edi. Bu yetmish kunlik bir qamal Toshkandning hali yig‘ishtirib kira olmag‘an donlarini, ekinlarini yov qo‘lida qoldirdi. Savdo ishlari butunlay to‘xtab, savdogarlar zo‘r falokatka uchradilar. Kosib, faqir xalqning holi juda yomon edi: nonsiz, donsiz, kiyimsiz, suvsiz,[3] alohozalqiyos[4]siz bo‘lib eng oxirgi chekka yetkandagina qamal balosidan «yaltirasin, qaltirasin» muzaffariyat bilan qutildilar. Xalq o‘zining bu yet-

---

[1] B a x sh i sh — karam, marhamat.

[2] I s t i q l o l — mustaqillik.

[3] Toshkandka suv beradirgan «Solor» arig‘i qipchoqlar tarafidan bo‘g‘ilgan, hatto tegirmon ishlari yorg‘uchoqqa qolgan edi *(mual)*.

[4] A l o h o z a l q i yo s — shunga qiyosan, shunga muvofiq.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
mish kun ichida tortqan mashaqqat va azoblarini qipchoqlar ustidan chalg'an g'alabasi bilan bir daraja yuvdi-da, kasbiga, ekin-tikiniga urinib ko'rishni o'yladi, to'g'risi o'ylay ham olmadi...

Azizbek, mundan keyingi Toshkandning mustaqil hukmdori Azizbek! Qipchoqlarg'a chalg'an g'alabasi uchun ul terisiga sig'maydir... Ul endi «Qipchoqlar Toshkandni olib qolsalar...» degan mudhish xavfdan qutilg'an, ul endi Toshkand va atrofining xoni, xoqoni! Endi duxoba va atlaslar ustidagina o'lturmoqqa qanoatlanmay o'z sha'niga, o'z qudratiga muvofiq tojlar, taxtlar yasamoqchi. O'zining eski mahramiga ko'ngli to'lmay boshqa bir o'yinchi, ashulachi, husndor bir mahram topmoqchi va o'zining bu mashhur mahrami bilan yer yuziga (Turkiston va Buxoroga) dong', shuhrat chiqarmoqchi!

Azizbek endi juda xotirjam' edi. Qipchoqlarning qaytadan Toshkand ustiga kelishlarini ehtimol ham tutmas edi. Chunki o'zining qipchoqlarg'a bergan zarbasini ularga yuz yilsiz o'ngg'alish bermas, deb bilar edi.

Hamma ish joyida, lekin bir narsagina ko'ngilning ingichka yerini jarohatlaydir. Azizbek ko'ziga hozir yorug' dunyo qorong'u, bu qorong'uliq ichida boyag'i shirin xayollar, ishlatiladirgan toju taxtlar va boshqalar ko'rinmay qoladirlar: yetmish kunlik qipchoq urushi ming turlik yo'llar bilan yig'ilg'an xazinani barbod bergan, xazina qipchoqlar ustidan g'alaba va istiqlol mastliklari yo'lida qurig'an, fuqaroning jon otib, qipchoqlarni qirib yo'g'ganlari uchun in'omlarga, ehsonlarga va oziq-ovqatlarg'a qurbon qiling'an.

Mana shu edi Azizbekning ko'z o'nglarini qorong'ulatadirg'an jarohat!

Bu ishning kengashiga emas, berilgan qarorni amalga oshirib berishlik uchun Yusufbek hojiga yigit yuborib, hozir uni to'rt ko'z bilan kutib o'lturar edi. Nihoyat yarim soatlik bir kutishdan so'ng Yusufbek hoji eshik ostidan ko'rindi. Azizbek odatiy qarshilash yonig'a bir navozish[1] ham ilova qilib, hojiga yuqoridan joy ko'rsatdi. Bu favqulodda navozish sababini o'ylamoqqa hojining vaqti yo'q, chunki o'zining qayg'usi o'ylashqa, fikrlashqa yetarlikdir. Ko'zining oqu qorasi bo'lg'an Otabekning holi nima

[1] N a v o z i sh — saylash, marhamat.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

kechti, qorong‘i zindonlarda, rutubatlik, zax yer ostlarida ochlikdan, tashnalikdan, sovuqlikdan aziz ko‘kragini yerga berib jon berdimikin? — Zolim beklar, qonxo‘r hokimlar, rahmsiz jallodlar, mash’um dorlar va qo‘rqoq xalqlar orasida keksa otasini, mushtipar onasini ko‘ralmay dunyodan ketdimikin?

— Mana shunday ming turlik vasvasalar ichida qarshisidag‘i Azizbekni ham unutmoqda edi. Azizbek bo‘lsa «javohir qadalg‘an tojlar, oltin taxtlar, nozanin parivashlar, dong‘dor mahramlar» haqidag‘ina o‘ylar edi.

— Hoji, — dedi Azizbek so‘z ochib, — manim sizni o‘rdag‘a chaqirg‘anim sababini albatta bilmagandirsiz?

Yusufbek hoji xayolidan ko‘z ochdi:

— Taqsir... chaqirishingiz albatta fuqaroning tinchlig‘i, raoyoning[1] rohati, hukumatning barqaror turmog‘i uchundir.

Hojining bu so‘zi Azizbekni yashindek urdi. Uning ko‘z o‘nglari qorong‘ilanib, haligi shirin xayollar tag‘i qorong‘iliqda yashirindilar. Ul ortiqcha o‘ng‘aysizlandi va tilar-tilamas:

— Shundog‘... — dedi va bir oz o‘ylanib qolgandan keyin: — yetmish kunlik qamal bilan xazinamiz juda g‘ariblandi, hatto shu keyingi kunlarda sipohlarning ozig‘i uchun ham qiynalib qoldiq. Mana shu to‘g‘rilarda sizni kengashka chaqirg‘an edim, — dedi.

— Ma’qul, taqsir.

— Men bu to‘g‘rida bir qarorg‘a ham kelib qo‘ydim.

— Qarorlari muborak bo‘lg‘ay.

— Qarorim shundan iboratdirkim, ertadan boshlab yurtka o‘ttuz ikki tangadan soliq sochasiz.

Yusufbek hoji yurt besaranjomlig‘i va o‘g‘ul qayg‘usi bilan asabiylashkan edi. Azizbekning bu ablahona qaroriga qarshi qizishdi. Azizbekning bu zolimona buyrug‘ig‘a qarshi qattig‘ so‘zlar aytishka o‘ylasa ham achchig‘ini qanday kishiga aytilishini o‘ylab, o‘zini bir oz yig‘di.

— Taqsir, amringizga qarshi tushadirg‘an joyim yo‘q, — dedi, — lekin shunisini bir oz o‘ylamoq kerakki, yurt yetmish kun qamal kechirdi. Onadan tug‘ma azoblar, ochliqlar o‘tkardi va o‘tkarmakda. Menga qolsa bu kunlarda o‘ttuz ikki tanga emas, o‘ttuz ikki qora pul solish ham og‘irdir. Yurt besh-o‘n kun orqa-o‘ngini

---

[1] R a o yo — hukmdorning qo‘l ostidagi xalq.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
olsin, so'ngra... — Hoji so'zini tugata olmadi, hojining ters so'ziga chidalmagan Azizbek vahshiylarcha hayqirdi:

— Nima deysan?!

Hoji ishning bunchalik yomong'a ketishini o'ylamag'an edi. Shu daqiqada ishning oldini olmasa, endi gap faqat Azizbekning jallod chaqirishig'a kelib qoldi:

— Taqsir, siz yig', der ekansiz ertaga emas, bu kundanoq yig'a boshlayman. Yurt qani bermasinchi? Faqat menga sizning buyrug'ingiz kifoyadir.

Bu so'z Azizbekka sihr kabi ta'sir qildi, dahlizda turg'uchi yigit orqaliq jallod chaqirishg'a jo'blangan tili o'z zarariga harakatlandi:

— O'rda begiga ayt, hojiga bir kimxob to'n chiqarib kiydirsin! — dedi.

* * *

Yusufbek hoji egnida kimxob chopon bilan o'rdadan chiqdi. O'rdadagi «Chopon muborak bo'lsin!» deb so'rag'uchilarg'a istehzo iljayishi ostida bir turlik muhmal javob berar edi. Ul o'rda ko'prugidan o'tar ekan, boyag'idek qilib o'zicha yana bir kulimsirab qo'ydi va telbalarcha o'z-o'ziga so'zlanib ketdi: «O'ttuz ikki tangadan soliq yig', emish... Bir haftadan keyinga qolmasin emish... Soliq yig'ishda qarshiliq qilg'anni darraga yotqizish, muvofiq ko'rilganda osdirish haqqi ham menga berilgan emish... Go'yo Yusufbek ham o'zidek bir qonxo'rg'a, bir zolimga aylansin emish... Men qonxo'rliq uchun xudoning farz qilg'an hajini ado qilmadim; oldimda o'g'lum bor, menda boshqalarning o'g'lini darraga yotqizish chog'ida ko'ndalang keladirgan vijdon bor, din bor, diyonat bor. Bizning xalqni yer yutsin. Azizbekning tulkiligiga uchdida, uning kechagi zulmlarini unutdi, yetmish kunlab bir zamon jon berib, jon olib nihoyat xizmat haqqi uchun o'ttuz ikki tanga mukofot, eng keyingi burda noningni ham ber!»

21. INQILOB

Yusufbek hoji ustida boyag'i kimxob to'ni bilan Shayxantahurning Zanjirlig'iga yetib, guzarda yig'ilib o'lturgan va o'ziga salom berish uchun o'rinlaridan turgan xalqqa xitob qildi:

— Uying kuysin, musulmonlar! Yaxshi deb yo'lida

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
jon berganing Azizbek, bu kun senlarga yaxshilig'ingni o'ttuz ikki tanga soliq bilan qaytarmoqchi bo'ldi. Hozir senlarga ikki yo'l: o'g'ul, qizingni sotib bo'lsa ham o'ttuz ikki tangani Azizbek xazinasiga to'lash yoki es borida etakni yopib Azizbekni oradan ko'tarish... Uying kuydi, musulmonlar!

— O'ttuz ikki tanga!

Xalq Yusufbek hojidan bir zarra yomonliq yoki bo'lmag'ir bir kengash eshitmagan va shuning uchun ul qayoqqa yursa, shu yoqqa borishqa hozir turar edi. Ayniqsa o'ttuz ikki tanga dovrug'i guzar ahlining yuraklarini uyushdirib, buni eshitish bilanoq isyonga qo'l qo'ydilar.

Boshlab Zanjirliq xalqi ko'chalarga chip[1] tashlash, Azizbekka qarshi urush hozirligi ko'rish xayoliga tushdi. Yusufbek hoji to Eski Jo'vaga yetkuncha o'zining yuqoridag'i so'zini ko'y, guzar xalqig'a takrorlab kelmakda edi. Eski Jo'vada azim bir jamoat yig'ib, Azizbek bilan bo'lgan mojarosini so'zladi va ustidagi kimxobni ko'rsatib istehzo tariqasida:

— Soliqni bermangiz demayman, chunki sizning itoatingiz menga bundog' to'nlar berar! — dedi.

Xalq nihoyatda qizishdi. Go'yo birisi quvrag'an to'qayg'a o't turtdi. Ho'lu quruq deganlaridek kattakichik barobar yonmoqqa oldi.

— Yaxshilig'imizni unutdi, do'ng'iz! O'ttuz ikki tangani yaxshilab beraylik biz unga! Ozi bir oy o'tmasdanmi, andishasiz?! — degan so'zlar eshitila boshladi. Darrov uch kishini Sebzor, Ko'kcha va Beshyog'och dahalariga xabar uchun jo'natildi. Yo qirilib bitish va yo Azizbekni oradan ko'tarishka fotiha o'qildi.

Orada bir soat ham o'tmadi, butun do'konlar yopilib, Toshkand ko'chalari chiplar bilan to'ldi. Barcha yarog'langan, urushka hozir edi. Shaharning olalanish xabari o'rdaga ham eshitildi. Ishni kichkina deb o'ylag'an Azizbek shahardan ahvol olish uchun Rayimbek dotqoni elli chog'liq yigit bilan buyurdi. Ahvol olg'uchilar Zanjirliqqa yetish bilan naq ishning qay darajaga yetkanini payqadilar: ko'chalar chip bilan to'lg'an, chip orqalari shashvar, miltiq, xanjar, nayza ushlagan olomon bilan liq edi. Rayimbek dotqoning

[1] Ch i p — gov. barrikada ma'nosida *(mual)*.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

«Chiplarni yig‘ishtiringiz, o‘zlaringiz tarqalishingiz!» deb aytkan yaxshi so‘ziga quloq solg‘uchi bo‘lmadi. Dotqo dag‘allik qilgan edi, olomondan bittasi miltiq otib, ikki sipohni yiqib ham qo‘ydi.

Kechki soat to‘rtlar, asrdan bir oz ertaroq hukumat askari bilan xalq orasida urush boshlandi. Yarim soatlik otish, chopishdan so‘ng sipohlar Zanjirliq olomonlarini qochirib, Baland masjid chipiga yetdilar. Jon achchig‘ig‘a uchragan Azizbek o‘rdaga bir muncha sipoh qoldirib, butun kuchini yig‘ishtirg‘an holda Rayimbek dotqo ko‘magiga yetishdi. Buning ila sipohlar tag‘in ham kuchayib, olomonni Xadraga qarab surishka muvaffaq bo‘ldilar. Xadra chipida qonliq urushlar boshlandi. O‘ttuz ikki tanga soliq xavfida olomon ham Beshyog‘och, Sebzor, Ko‘kcha dahalaridan o‘ziga har zamon yarog‘liq yordamlar olib turmoqda edi.

Bu kun kechasi Toshkand qon ichida, mahallalarda bo‘lg‘an hukumat kishilari xalq tomonidan o‘ldiriladirlar, uylariga o‘t qo‘yilib mollari talong‘a tushadir. Shaharning yuraklik yigitlari Xadra chipiga qarab chopadirlar, yuraksiz va keksalar guzar va mahallalarga to‘nkalardan gulxan solib, «o‘ttuz ikki tanga» qayg‘usida olomong‘a muzaffariyat tilaydirlar.

Yarim kechalar vaqti olomon Xadradan Eski Miskarlikka qarab surilishka majbur bo‘ldi. Kutilmagan bu surilishlar Yusufbek hojini katta tashvishka solib qo‘ydi. Mundan so‘ng xalqning o‘ziga ishonib turolmay Toshkandni ololmay qaytqan Normuhammad qushbegiga yordamga yetib kelish uchun chopar yugurtirdi.

Eski miskarlikda ikki taraf ham tong otdirdilar. Ertalab yana qonli urushlar boshlandi. Ammo xalq endi o‘zini ancha tutib qolgan va har daqiqa to‘rt tarafdan yangi kuchlar olib turar edi. Shuning uchun sipohlar bir adim ilgari bosolmay qoldilar. Ammo xalq sipohlarni bossa bosqundek tovranar[1] edi. Bu holdan nihoyatda bo‘g‘ilg‘an Rayimbek dotqo qilich yalanglab, sipohlar oldida olomong‘a qarab yugurdi. Biroq uning bu g‘ayrati o‘zi uchun halokat bilan natijalanib, Usta Mo‘minjon ismlik bir miltiq ustasining otqan o‘qi bilan ko‘kragidan yaralanib yiqildi[2].

[1] T o v r a n m o q — harakat qilmoq, tirishmoq.

[2] Rayimbek Qozoqboybiy o‘g‘li. Beshyog‘och daha, Laklakxona mahallalik *(mual.)*.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Rayimbek dotqo Azizbek hokimiyatining tiragi edi. Uning qatlidan so‘ng sipohlardan ruh tushti. Hatto Azizbekning buyrug‘ig‘a ham quloq solmay to‘sto‘ska qochib boshladilar. Nihoyat Azizbek ham yonidag‘i qirq, ellik sodiq kishilari bilan qochib, o‘rdaga qamalishg‘a majbur bo‘ldi. Yusufbek hoji boshliq yer va ko‘kka sig‘mag‘an muzaffar xalq o‘rda tevaragini qurshab tushdi. Azizbek tezda berilmagani uchun minglab xalq o‘rda atrofidan siljimay, hatto oshsuvlarini ham shunda yeb xotirjam’ yotib oldilar.

Azizbek uchun kutilmagan falokatlar yuz bergan edi. Qochib qutilish mumkin bo‘lg‘ani holda tuzoqqa tush—kandek o‘rdaga ham qamalib bergan edi. Nima qilsin, qanoti yo‘qki uchib qutilsa... Qamalishining ikkinchi kuni o‘rda tomiga chiqti, eng keyingi, ham eng pastarin chorani ko‘rmakchi edi bu xoqon. Boshlab fuqarog‘a salom berdi, so‘ngra siniq va ojiz qolgan bir tovush bilan xalqqa uzr aytdi:

— Endi o‘zimning qilmishlarimdan pushaymon bo‘ldim... Men sizlarning qilg‘an yaxshiliqlaringizni unutqan ekanman... Sizlar o‘zlaringizning bu ishlaringiz bilan manim ketkan aqlimni yana miyamga o‘rnatdingiz... Rahmat fuqaro... Gunohimni kechiringiz, qilmishlarimdan pushaymon bo‘ldim, fuqaro!

Ammo xalq bunday yolborishlarg‘a, tavba-tazarru’larga quloq solmadi, chunki ish o‘tkan, g‘isht qolipdan ko‘chkan edi:

— Endi esing kirdimi, o‘g‘ri? Burundan o‘ylab ish qilsang boshingda bu balolar yo‘q edi! Sen bizlarga nima ishlarni qilmading? Kun sayin necha gunohsizlarni osdirg‘an, kesdirgan, bolalarimizni yatim, onalarimizni qon yig‘latqan sen emasmisan? Xanjaringni xayf ko‘rib mahallarga[1] chayon solig‘i solg‘an, og‘alarimizni chayon zahri bilan o‘ldirgan kim edi? Ket to‘ng‘iz, ket, tavba qilish zamoni o‘tdi, taqdiringga sen ham tan ber! — der edi xalq.

Xalq shuningdek gaplar bilan yuz yoqdan unga hujum qilib, hatto adabsiz so‘zlar bilan ham so‘kar edi. Azizbek hamon «Tavba qildim, fuqaro!» jumlasi bilan uzrini aytib turar edi:

— Siz yaxshilarim, bu qisqa o‘ylashingiz bilan o‘z

[1] M a h a l — joy, mahalla.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
oyog‘ingizg‘a o‘zingiz bolta urib, yana qipchoqlar qo‘liga qaram bo‘lasiz! Manim tavbamni loaqal o‘zlaringiz uchun qabul qilingiz!

Azizbekning bu so‘zlaridan keyin olomon tag‘i qizishib, quyidagi so‘zlari bilan ko‘kni ko‘tardi:

— Ikki qayta aldanish yo‘q! Sendek itdan bizga qipchoq yaxshi!

Xalqning bu javobi ishning ne darajaga yetkanini onglatarliq edi. Shu gapdan keyin Azizbek tamom umidsizlanib, dunyolarcha ma’yusiyat ichida tomdan tushib ketdi.

Yusufbek hojining Normuhammad qushbegiga yuborg‘an chopari Kirovchi yaqinida unga yetkan va qushbegini tamomi sipohlari bilan Toshkandga qaytarg‘an edi. Alamzada qushbegi bu so‘yinch xabardan uchib-qo‘nib Azizbekning o‘rdaga qamalishining uchunchi kuni karnay-surnay bilan yetib keldi. Olomon yonig‘a qipchoq sipohlari kelib qo‘shilg‘andan keyin o‘rdaga bosib kirdilarda, Azizbekni ushlab ham oldilar.

Yetmish kun bir muddat ovora qilib, minglab kishi qonini to‘kishka sabab bo‘lg‘an Azizbekni Qo‘qong‘a olib borib topshirish Normuhammad qushbegi uchun qiymatli edi. Ul o‘rdada o‘lturar ekan, bunday ulug‘ dushmanni qo‘lg‘a tushirishning bosh omili bo‘lg‘an Yusufbek hojiga o‘z minnatdorchilig‘ini aytib tugata olmas, uning bu xizmatini xon bilan Musulmonqulg‘a so‘zlab, unga katta bir martaba olib berishka va’dalar berar edi. Albatta Yusufbek hojiga bu va’dalarning hech ahamiyati yo‘q, faqat ul o‘g‘lining sog‘lig‘ini bilsa va Marg‘ilon zindonidan uning qutqarilishig‘a va’da olsa, uning uchun dunyolarcha martaba va hurmat edi. Qushbegining va’dasiga iltifotsiz quloq berib turdi-da:

— Iltifotingiz uchun rahmat, qushbegi, — dedi. — Men endi dunyodan o‘tayotgan bir kishi; endigi mansablarg‘a uncha qiziqa olmayman. Agar manim qilg‘an xizmatim shunday iltifotlarga loyiq ko‘riladigan bo‘lsa, jon janobidan so‘raydirg‘an bir necha tilaklarim bor.

— So‘rangiz hoji, xon bermaganda ham olib berishka men kafil.

— Manim birinchi xolis tilagim, albatta mazlum xalq tilidan bo‘ladir: mundan so‘ng Toshkand hokimlig‘iga har qanday bo‘lmag‘ir odam qo‘yilmasin.

— Jon janobining hamma maqsadi ham shunda.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Chunki, biz Azizbek kabilardan xalqnig'ina emas, balki, o'zimizni ham qiynatdirmoqdamiz.

Toshkand bekligi to'g'risida ko'b muzokara va musolahadan[1] keyin Yusufbek hoji o'z yarasi ustida to'xtaldi. Ul birinchi martaba o'laroq o'zining ichki kasalini hoziq[2] deb Normuhammad qushbegiga ochdi. So'zlar ekan, yuragi mash'um bir ehtimolning dahshatidan titrar, tili ham osonliq bilan harakatlanmas edi. Zero o'zining bu o'tinchini qush uchkan so'ng otilmoqchi bo'lg'an sopqon qabilidan hisoblar va foydasiz bir iltimos deb cho'chir edi.

— Agar manim bu xizmatim jon janobining marhamatiga loyiq ko'rilur ekan, — dedi hoji, — menga eng manzur bo'lg'an mukofot — o'g'limning ozod qilinishidir. Dunyo mojarosidan qo'l yuvmoqchi bo'lg'an bir otag'a keksaygan kunlarida farzand dog'ini ko'rmaslikning o'zi ham ulug' mukofotdir, — dedi va ko'ziga yosh oldi. Bundan qushbegi ham nasibasiz qolmay mutaassir[3] Yusufbek hojiga tasallo berdi:

— Qo'rqmangiz hoji, — dedi, — Marg'ilon hokimi o'rinsiz qon to'kuvchi kishi emasdir. Qo'qonga borg'ach, birinchi ishim o'g'lingizni qutqarish bo'lsin, joysiz qayg'ulanmangiz, hoji.

— Qulluq, qushbegi, agar bu xizmatni o'z zimmangizga olur ekansiz, ustimga katta minnat qo'yg'an bo'lasiz... Biroq men qo'rqamankim, siz Qo'qong'a borib yetkuncha ish vaqtidan o'tsin...

Qushbegi ham bu to'g'rida o'ylab qoldi va hojining ehtimolidan cho'chib, shu soatda bir maktub bilan Qo'qong'a chopar yubormoqchi bo'ldilar, bu ishning muvofiq kishisi albatta Hasanali bo'lg'anliqdan chopar bo'lib belgulandi. O'n besh kunlardan beriga shunday xizmatni kutib yotqan Hasanali otning boshini Qo'qon tomong'a qarab qo'ydi-da, daqiqa ichida ko'zlarga ko'rinmas bo'lib ketdi.

Bir kun keyin Normuhammad qushbegi ham bir muncha sipohni Toshkandda qoldirib, Qo'qong'a jo'nash harakatiga tushdi. Toshkand olomonining talablari bilan Azizbekning ikki oyog'idan arqon bilan bog'lab otning chovig'a sudratma qildilar.

---

[1] Musolaha — sulh tuzish, kelishish.
[2] Hoziq — biluvchi, tushunuvchi.
[3] Mutaassir — ta'sirlangan.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Sipohlar Qo‘qong‘a qarab harakat qilar ekan, Qo‘qon darbozasiga to‘lg‘an xalq Azizbekning ot oyoqlari ostida sudralib ketishiga huzurlanib tomosha qilar edi.

22. «BIR G‘ARIBI BECHORA»

Bu tarixdagi xon o‘rdasi Qo‘qonning bu kunda Xoda bozor atalg‘an o‘rnida edi[1]. Ro‘monning o‘n uchunchi faslida Marg‘ilon o‘rdasining ta’rifi yozilg‘anliqdan va bu o‘rdaning ham tashqarig‘i aylanasi o‘sha o‘rda qabilidan bir tusda, bir uslub va bir vus’atda[2] bo‘lg‘anliqdan bu o‘rinda yana qog‘oz qoralash ortiqchadir. O‘rda darbozasi, navbatchi qorovul, darboza sahnining kengligi — barchasi ham o‘shal o‘rda singari, ammo buning tashqarig‘i ko‘rinishidag‘i ortiqlig‘i to‘rt burchida qadalib turg‘an navbatchilari edi. O‘rda darbozasidan ichkariga kirilgach, bundagi tuzilish Marg‘ilondag‘idan tamoman deyarlik boshqacha bo‘lib chiqar, shunga binoan bu yer bilan tanishmoq ehtiyoji tushar edi.

O‘rdaning ichkarigi o‘ng, chap biqinlari sipoh turish uchun soling‘an binolar va sahnida biz Toshkandda ko‘rib tanishqan ravishcha kiyimlik sipohlar (yigitlar) turkim-turkim bo‘lib, ponsad boshilar qaramog‘ida qilich urish mashqini ta’lim olmoqda edilar. O‘rdaning belidan, ya’ni shimoldan sharqqa qarab bir xatti mustaqim bilan devor va bul devorning ikki tarafini barobar — ling[3] tashlanib, o‘rdaning ichkari qismig‘a xon saroyiga kiriladirgan darboza qurilg‘an edi. Bu darboza eskirgansumon ko‘rinsa ham asli yaratilishdag‘i nafislik, me’moriy san’atkorlik o‘chayozg‘an bo‘lsa ham, biroq undagi ivir-jivir sirlar, o‘yma naqshlar hali ham kishini hayron qoldirarlik edilar. Ayniqsa darbozaning ikki biqinidag‘i «o‘girmagul» tarzi bilan ishlangan guldastalar, darboza ravoqidag‘i ganchdan qabartirilib yasalg‘an bo‘rtma naqshlar, gullar hali o‘zlarining nafosatlarini unchalik yo‘qotmag‘an edilar. Quyosh g‘arbga qarab og‘qan, uldastalar ustiga qo‘ndirilg‘an oltin hilol alomat-

---

[1] Bu kungi ma’lum o‘rdani Xudoyorxon o‘zining ikkinchi xonliq davrida bino qildirgandir, eski o‘rdadan hozir nishona yo‘q *(mual.)*.

[2] V u s ’ a t — kenglik.

[3] L i n g — ark, ravoq, toq.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

lari quyosh nuri bilan ko'zni elitarlik darajada yashnar edilar. Darbozaning ikki yonidag'i maxsus ishlangan qorovulxona — sufachalarda ikki nafar navbatchi turar edi. Navbatchidan o'tib, darbozaga kirilsa gunbaz ravishida yo'lak, o'ngg'a yurilsa devonxonag'a, so'lg'a ketilsa xon mahkamasiga chiqiladir-da, mahkama bo'sag'asida yana haligidek ikki nafar navbatchiga uchrashiladir. Marg'ilon o'rdasida ko'rganimizdek bir dahliz, ammo bu o'zining naqshlari, gullari, anvo'i sirlari, oliyliq va ko'rkamligi bilan Marg'ilonnikini ko'lagada qoldirarliq edi ersa-da, eskirganligi uning ortiqlig'ig'a xalal bermakda edilar. Dahlizdan ichkariga qaralsa bir munaqqash va muzayyan zol, ikki tomonida xonning shog'ovul boshilari, yasovul boshilari, dasturxonchi va oftobachilari, tunqator va parvonachilari otaliq va mehtarboshilari va tag'i alla qancha vazir-vuzarolari qator tizilishib o'lturmakda edilar. Zolning uchunchi darichasidan narig'i tomon bir yupqa munaqqash devor bilan ajratilgan bo'lib, ichkariga kiriladirgan eshiksiz bir yo'l, bu yo'l bilan haligi devor ikkiga ajralib, har bir bo'lim devorning o'rtasida kishi boshi sig'arliq bir tuynuk, bu tuynuklar yonida qo'lig'a oybolta ushlagan ikki nafar jallod qotib turar edilar. Shu jallodlar orasidan o'tib uchunchi bo'limga kirilsa, qarshida yarim gazlar yuksaklikda to'rt oyog'liq oq marmardan yasalg'an taxt ustida oltin kamarga taqilg'an oltin sopliq qilichini tizasi ustiga ko'ndalang qo'yib, qizil duxobadan tikilgan po'stun kamzul ustidan adras to'n kiygan, boshig'a simobi shohi salla o'rag'an o'n sakkiz yoshlar chamaliq, cho'ziqqina yuzlik, bug'doy ranglik xon o'lturar edi. Bu Xudoyor edi. Xonning so'l tomonidag'i oltin hallik kursi kishidan bo'sh, o'ngdagi — ichki saroyga kiradirgan eshikcha yonidag'i kursi ustida O'ratepa chakmani ustidan qayish kamar bog'lab, soddag'ina qilich taqing'an, boshig'a oq barra popoq kiyib, basharasidagi burni yuzi bilan bir qatorda deyarlik tekis yaratilg'an, o'rtacha soqol, qisiq ko'z, bug'doy rang, o'rta yoshliq bir qirg'iz — Musulmonqul o'lturar va hozirg'ina hudaychi tarafidan o'ziga topshirilg'an ariza va maktublardan ochib o'qur edi. O'qub turg'an arizasi ahamiyatsiz bo'lsa kerak qog'ozni ikkiga yirtdi-da, oyog'ining ostig'a tashladi va ikkinchi maktubni ochdi. Bunisi O'sh hokimi tarafidan yozilgan edi:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

«Davlatimiz stuni, padari arus[1] shahanshohi Musulmonqul bahodir huzurlariga nomai humoyun[2] barobari O'sh madorisotida tahsilda bo'ling'an faqir qirg'iz tullobig'a[3] marhamat buyurg'anlari hadoyo[4] tullobning darajai ilmiyalarini imtiyozan taqsim qilindilar. Ashaddu[5] faqir va ehtiyojda avqoti[6] talx[7] mururiga[8] majbur va masbur[9] o'lg'an qirg'iz mullalari padari arus shahanshohining altofi[10] shohonalaridan riqqatka[11] kelib obidiyda[12] qildilar va Haq taolo dargohi vasi'asidan[13] aduvi[14] badkirdorlariga[15] zafaryob[16] bo'lmoqlarini va Zolona[17] yashab Amir Temur Ko'ragondek jahongir bo'lmoqlarig'a duo va niyoz etdilar. Ba'da xotiri otir[18] oliylarig'a maxfiy qolmag'aykim, shahar va atrof ellarimiz davlati azimai qaviyalari[19] soyai himoyatida nobob bid'ahdlar xavotir va xavfidan tinchdir. Noma oxirida yosh shohimiz janobi xoqoni xavoqin, sultoni salotin hazratlariga padari arus shahanshohining panohi himoyatlarida ko'b yillar davru davron, ofiyat[20] va salomatlik tilab navkarlari...»

Musulmonqul Xudoyorga O'sh ahvolini so'zlab, uchunchi maktubni ochdi, bu maktub xususiy bir kishidan bo'lsa kerak, muhr va o'zga takalluflardan xoli edi:

«Mazlumlar dodig'a, maqhurlar[21] faryodig'a o'zining adolatlik qilichi bilan yetishquchi Musulmonqul qipchoq xizmatlariga... ko'zlarim zulm yoshi bilan jiq, ko'nglim davlat xoinlari qo'rqunchidan titragan bir holda qalam tebrataman. Davlatning sodiq bir fuqarosi, ixloslik bir yigi-

---

[1] P a d a r i a r u s — qaynota.
[2] H u m o yu n — muborak, qutlug'.
[3] T u l l o b — talabalar.
[4] H a d o yo — hadyalar, sovg'alar.
[5] A sh a d d u — o'ta, nihoyatda.
[6] A v q o t — vaqtlar.
[7] T a l x — achchiq, yomon.
[8] M u r u r — o'tkazish, kechirish.
[9] M a s b u r — sabr qiluvchi.
[10] A l t o f — lutflar, karamlar.
[11] R i q q a t — ko'ngil bo'shliq, ko'ngil yumshoqlik.
[12] O b i d i y d a — ko'z yoshi.
[13] V a s i ' a — keng.
[14] A d u v — dushman, yov.
[15] B a d k i r d o r — yomon niyatli.
[16] Z a f a r yo b — g'alaba qiluvchi, g'olib.
[17] Z o l o n a — «Shohnoma» asaridagi 100 yildan ortiq yashagan Zol obraziga nisbat berilib — uzoq vaqt yashamoq mazmunida.
[18] X o t i r i o t i r — dili ravshan, beg'ubor.
[19] A z i m a i q a v i y a — kuchli va qudratli.
[20] O f i y a t — tinchlik, omonlik.
[21] M a q h u r —qaho-g'azabga duchor bo'lgan.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

ti davlat ustiga o'zining mudhish zarbasini tashlab turg'an bir bad'ahd o'g'lini o'shandog'ki otasining vakolati birlan ikkinchi bir tinch, ulug'larg'a mute', farmonbardor[1] bir shahar ahlini oyog'landirmoq bo'lg'an edi. Uni isbotlari, shohidlari birlan dor ostig'a tortquchi sodiq bir qulni ko'klarga ko'tarish o'rniga qamamoq va oyog'ig'a zulm zanjirini urmoq bo'ladirlar... Musulmonqul janobidek bir bahodirdan andisha qilmay uning dushmanlarini sarfaroz[2] aylab do'stlarini g'amgin qiladirlar.

Maktubning tumanlik ma'nosiga tushuna olmag'an Musulmonqul bu o'rinda to'xtadida, maktubning oxirig'a ko'z tashlab oldi:

«Bungacha manim hayajon va qayg'u orasida yozg'an yo'llarima balki tushunmagandirsiz, buning uchun g'azablanmay bu gunohimni sizga sodiq bir qullig'im yo'lig'a kechirursiz. Bu kundagi Toshkand isyonining boshliqlaridan bo'lg'an Yusufbek hoji Azizbek nonko'rning mashvarati[3] birlan marg'ilonliqlarni ham janobingizga qarshi oyoqlandirmoq maqsadida o'z o'g'lini munda yuborg'an ekan. Faqir sodiq qulingiz bu e'vagar yigitning tevaragiga o'z tarafdorlarini yig'ib qurg'an bir majlislariga rost kelib va uning Marg'ilonga nima uchun kelganligini payqab, nihoyatsiz xavfka tushdim. Uning so'zlari qipchoqlarni yo'qotib, hukumatni shaharliklar qo'lig'a olish edi. Qipchoqlar xayrixohi kamina qulingiz bu sirni ichimga yutolmay, bir necha vositalar birlan Marg'ilon hokimi O'tabboyga bildirdim. O'tabboy qushbegi Yusufbek hojining o'g'li bo'lg'an mazkur Otabek bilan uning tarafdori va qayin otasi Mirzakarim otliq kishini qo'lg'a olib zindon qildi. Qushbegining chaqirishi bilan huzuriga hozir bo'lib, Otabek og'zidan nimaiki eshitkan bo'lsam bir-bir so'zlab berdim. Xolis shahodatim so'ngida Otabek bilan qayin otasi Mirzakarimni qushbegi osib o'ldirishka buyurdi. Ammo O'tabboyning kisai xiyonatiga Mirzakarimning havlisidan kelib tushkan bir xalta oltinlar barobariga dor ostig'a yetkan e'vogarlarni o'limdan ozod qildi, davlatning sodiq qullaridan bo'lg'an kaminai xolisni muttahamlar yeriga zindon qilmoq va osib o'ldirmoq bo'ldi. Chunki kamina qulingizning sizga shikoyat qilishimdan benihoyat qo'rqar erdi. Ammo davlatlari yori berib, sadoqatlik xiz-

[1] F a r m o n b a r d o r — buyruqni bosh tovlamasdan bajaruvchi.
[2] S a r f a r o z — xursand, yuksak.
[3] M a s h v a r a t — kengash, maslahat.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

matkorlaringizdan bo'lg'an Marg'ilon qo'rboshisining yordami birlan O'ttaboyning changalidan arang qutilishg'a muvaffaq bo'ldim...»

Maktubning shu yeriga yetkanda Musulmonqul xatdan bosh ko'tardi. Hozir uning kipriksiz qisiq ko'zlariga o'tlar yonmoqda edi. Qichqirdi:

— Chilim!

«Shundog' qilib sizning o'z kishingiz bo'lg'an O'tabboy tuz haqingizni unutdi. Bir hamyon oltin deb dushmanlaringiz tarafiga o'tdi. Sizning xayrixoh qullaringizdan bo'lg'an biri o'z shahrini tashlab Qo'qon qochmoqqa va ulug' dargohingizga sig'inmoqqa majbur bo'ldi. Men, xolis qulingiz o'zimning sadoqatim evaziga bunday mukofot olg'anim uchun qayg'irmayman va lekin O'tabboy va Otabek kabi xoinlarni kundan-kunga kuch olib davlati shahriyorig'a dahshatlik bir falokat tug'dirishlaridan qayg'iraman. Bu maktub sodiq bir qulning xolis sadoqatidan bir namunadir. Men shuning ila shoyad o'z bo'ynimdag'i vazifani ado etkan bo'lurman. Shoyad davlat dushmanlarini o'z oyog'laridan yitib[1] ketishlariga sabab bo'lg'an bo'lurman.

O'zimning bu xizmatim evaziga bir mukofot olish muddaosida bo'lmag'animdan va nimaiki janoblari yo'lida mashaqqat chekkan bo'lsam o'zimning bir vijdoniy vazifam deb bilib, bu maktubda o'z otimni yozishg'a ham tilamadim. Yosh xonimizga tinch va shavkatlik davr, davlat xoinlariga o'lim tilab bir g'aribi bechora».

Musulmonqul nihoyatda tutoqqan edi. Hozirgi borliq alamini tamakudan oladirg'andek hudaychi keltirgan chilimga yopishdi-da, shig'-g' etdirib, sarxonani sindirish darajasiga yetkuzib tortdi. Og'zidan pag'a-pag'a tutun chiqarar ekar, xatning mazmunini Xudoyorg'a so'zladi. Toshkand ustiga yuborg'an sipohlari bilan Normuhammad qushbegini nihoyat Toshkandni ololmay qaytish xabarini eshitib, so'ng darajada ma'yusiyat ichida o'lturgan Musulmonqul uchun bu maktub yara ustiga tuz sepish qabilidan tag'in ham alamlik bo'lib tushkan edi.

— Xudaychi!

— Labbay taqsir!

— Mirzani chaqir! — dedi Musulmonqul, so'ngra

---

[1] Y i t m o q — yo'q bo'lmoq.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

qo‘lidagi maktubni taxig‘a solar ekan, Xudoyorg‘a dedi: — Eshitdingizmi, o‘g‘lim! Azizbek bilan Yusufbek bizga nimalar qilmoqchi bo‘ladirlar? O‘zimizning sodiq kishimiz, deb o‘g‘lag‘an O‘tabboy ham dushmanlarimiz bilan birgalashib boshlag‘an... Xayr qo‘llaridan kelganni qilib ko‘rsinlarchi, biz ham mundan keyin o‘shandoq ko‘rnamaklar bilan qiladirg‘an muomalamizni bilarmiz.

O‘z saltanatiga raxna solishdan iborat bo‘lg‘an bu xabarlardan Xudoyorxonning mutaassir bo‘lg‘anlig‘i belgusiz, ul bu gapni eshitmasdan ilgari qanday bo‘lsa, hozirda ham shu holda o‘zgarishsiz edi. Musulmonqulning yonib turg‘an, o‘tdek tutoqib so‘zlag‘an gapini sukut bilan kechirmaslik uchungina bo‘lsa kerak quruq va shirasiz qilib:

— Hammadan ham O‘ttaboyni aytingiz, ablah bir odam ekan, — dedi, — meni siylamag‘anda ham sizni rioya qilsa kerak edi.

— Yaxshiliq qilg‘an kishingdan hech bir yaxshiliq qaytmas ekan, — dedi Musulmonqul. — Jumladan, bittasi ko‘z o‘ngimizda — Azizbek. Men uni yoshlig‘idan boshlab o‘z qo‘limda o‘stirdim, Toshkand hokimligidan Salimsoqbekni olib[1] uning o‘rniga hokim tayinladiq. Biroq shunchalik yaxshiliqlarimizg‘a qarshi natijada bizga yog‘iy[2] bo‘ldi, bo‘lsin; ul Toshkandning o‘zigagina qanoatlanmay Marg‘ilon bilan ham ish qilmoqchi bo‘lsa, bunisini ham biz ko‘raylik.

Mirzaboshi kirib xong‘a qulliq qildi va Musulmonqulg‘a qarab qo‘l bog‘ladi. Musulmonqul yana xumori bo‘lg‘an edi — «Chilim!» deb tashqarig‘a qichqirdi, so‘ngra mirzoboshig‘a dedi:

— Hozir Marg‘ilon hokimi O‘tabboy qushbegiga bir xat yozib, chopar bilan yubor. Xatni olg‘an zamon Yusufbek hojining o‘g‘li Otabek deganni olib huzurimizga kelsin!

Mirzobashi qulliq qilib orqasi bilan yurib chiqdi.

---

[1] Salimsoqbek Sheralixonning katta o‘g‘li, Xudoyorning o‘gay akasidir. Uning taxt da’vo qilishidan qo‘rqib, Musulmonqul o‘ldirtirgan edi. Chunki yosh Xudoyorxon bo‘lib turgan fursatda Musulmonqul o‘z bilig‘icha ish qilabilar, loaqal Xudoyor esini tanig‘uncha davr sura olur edi *(mual.)*.

[2] Yo g‘ i y — yov.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

23. MUSULMONQUL

Arkoni davlat[1] yig'ilib, Xudoyor taxtiga mingan, Musulmonqul xon bo'lmasa ham xonliqdan-da yuqori bir kuchka molik bo'lg'an siyosat kursisiga o'ltirgan edi. Boshlab otaliq kirib xong'a salom berdi va uning haqig'a uzun duo qilib chiqdi. Otaliqdan so'ng o'zga a'yon birma-bir kirib, duo qilib chiqa boshladilar. Duoxonlarning eng so'ng'ida xudaychi ko'rindi, salom va duodan keyin yuzini Musulmonqulg'a o'girib:

— Marg'ilon hokimi O'tabboy qushbegi huzuri oliylarig'a kirish uchun izn so'raydir! — dedi.

Hamma fikri zikri O'tabboy ustidagina qolg'an Musulmonqul bu xabarni eshitish bilan kuchlik bir tin olib hudaychiga qaradi:

— Yolg'iz o'zimi yoki yonida kishilari ham bormi? — deb so'radi. Hudaychi yana bir qulliq qildi:

— O'n chog'liq yarog'liq yigitlari ham bor.

— Tag'in-chi?

Yarog'siz yana bir yigit ham ko'rindi.

— O'tabboyning o'zini huzurimizga kirgiz, — dedi Musulmonqul, qulliq qilib chiqa boshlag'an hudaychini yana to'xtatib so'radi: — O'tabboyning yigitlari o'rdaning tashqarisidami, ichkarisida?

— Taqsir, ichkarisida.

— Yaxshi, qushbegi bizning yong'a kirgandan so'ng o'rda yigitlari ularga hozir bo'lsinlar!

Hudaychi qulliq qilib chiqdi. Uning ketidan Musulmonqul tovshig'a muzaffariyat ohangi berib xong'a dedi:

— O'g'rilarning ikkisi qopqonga tushdi, xon!

— Tole'imiz.

Qushbegi kirdi. Xong'a ikki bukilib ta'zim qilg'ach, kelib uning qo'lini o'pdi. O'tabboyning muloqoti[2] uchun Musulmonqul ham go'yo hech narsa ko'rmagandek o'rnidan turib uning bilan quchoqlashib ko'rishdi. O'taboy Musulmonqulning ko'rsatishi bilan xonning chap tomonidag'i kursiga o'lturdi. Ul Musulmonqulning samimiy muloqotidan qo'rquvliq yuragini bir qadar

---

[1] A r k o n i d a v l a t — davlat arboblari.
[2] M u l o q o t — uchrashish, ko'rishish.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

to‘xtatib olg‘an edi. Kursidan yana turib xong‘a qulliq qilib boz[1] o‘lturdi. Musulmonqul qushbegini yer tegidan kuzatar ekan so‘radi:

— Yurtlaringiz tinchliqmi, o‘zingiz ham sog‘-misiz?

— Alhamdullilloh, yosh shohimizning davlatlari va husni tavajjuhlari[2] soyasida yurtimiz tinchliq, fuqaromiz javobi oliyning duoyi jonlari bilan mashg‘ullar.

Xudoyor ozg‘ina ishorat bilan unga tashakkur bildirdi. Bunga qarshi qushbegi kursidan qo‘zg‘alib qulliq qildi. Musulmonqul murtini silab nimaningdir mulohazasida edi. Uning bu holi birar daqiqag‘a cho‘zilg‘anliqdan Xudoyor bilan qushbegi uning og‘zig‘a tikilgan edilar.

— Sizning xabaringiz bo‘ldimi, yo‘qmi biz Toshkand ustiga yuborg‘an Normuhammad qushbegidan juda yaramas bir xabar oldiq, — deb Musulmonqul O‘tabboyga qaradi, undan xabarsizlik javobini olg‘ach, so‘zida davom etti; — Normuhammad qushbegi uch ming sipoh bilan yetmish kun Toshkandni qamab yotib, nihoyat bir ish chiqara olmay odamlari bilan qaytmoqqa majbur bo‘libdir. Azizbek bilan Yusufbek hojilarning aztahidil qarshiliqlari bizning kishilarni quruq qaytarishg‘a majbur qilibdir. Mana shuning uchun mundan keyin bizning boshqa bir yo‘l bilan ish ko‘rmagimiz taqozo qiladir... Kecha biz kimdandir Yusufbek hojining o‘g‘li bo‘lg‘an Otabek deganni sizning Marg‘ilonda deb eshitdik. Mundan so‘ngg‘i Toshkand to‘g‘risida ko‘radirgan tadbirlarimiz uchun uning keragi bo‘lur, deb o‘ylab siz bilan birga uni huzurimizga chaqirg‘an edik... — Bu joyda qushbegi Musulmonqulni to‘xtatdi-da, kuldi, so‘ngra Xudoyorg‘a dedi:

— Otabek ustida ancha mojarolar bo‘lib o‘tdi. Buning hikoyasi uzun, alhol mingboshining ra’ylarini eshitaylik... davom qilingizchi.

— Otabek o‘zingiz bilan birgami? — deb so‘radi Musulmonqul, birgalik javobini olib, tamom xotirjam’ bo‘lg‘an holda davom etdi: — Yuqorida aytkanimdek minba’d[3] tadbir yo‘li bilan Azizbekni yo‘qotishdan

---

[1] B o z — yana.
[2] T a v a j j u h — yuzlanish, xayrixohona qarash, g‘amxo‘rlik.
[3] M i n b a’ d — bundan keyin.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

boshqa choramiz yo‘qdir. Bizning bu keyingi rejamiz yo‘lida ish beradirgan kishi bo‘lsa ul ham menga qolsa shu Otabek bo‘lur. Chunki boshqalarg‘a qarag‘anda uning Toshkand borishi va Azizbekning yaqin odamining o‘g‘li bo‘lg‘ani uchun uning bilan aloqada bo‘lishi, zahar berish va yo boshqacha bir yo‘l bilan uni oradan ko‘tara olishi, unga eng qulay bir ishdir. Og‘riqning tuzalasi kelsa emchi o‘z oyog‘i bilan kelur, deganlaridek, Otabekni Marg‘ilonda bo‘lish xabarini eshitib xon bilan men juda quvonishdiq... mana sizni chaqirishdan bo‘lg‘an maqsadimiz shudir. Yana sizning bu haqdag‘i ra’yingiz nima bo‘lsa eshitamiz.

Musulmonqulning bu so‘zlariga O‘tabboy qushbegi tamom ishong‘an, ammo Xudoyor ersa uning ilgarigi maqsadini yaxshi bilganlikdan bu so‘ngg‘i gaplar bilan nihoyatda taraddudga tushkan edi. To‘g‘risi ham Musulmonqulning bu keyingi gapi kishini mutaraddid[1] qilmay qo‘ymas edi.

— Bu fikringiz menimcha ham ma’qul, — dedi qushbegi, — ammo bunda bir gap bor, ul ham: Otabek bu vazifani o‘z bo‘yniga oladimi, yo‘qmi masalasidir. Chunki Otabekning Azizbek tarafdori bo‘lg‘anlig‘iga shu o‘rtada o‘zim tegshirgan bir ish meni shubhaga tushuradir. Shundog‘ki, mundan yigirma besh kunlar ilgari, qo‘rboshimning xabar berishi bilan Azizbek tarafidan Marg‘ilonda to‘polon chiqarg‘ali kelgandir, deb o‘ylab, yonidag‘i bir necha kishilari bilan zindonga soldirdim. Uning Yusufbek hojining o‘g‘li bo‘lishi ham o‘sha mulohazamning to‘g‘rilig‘iga meni ishontirar edi. Yana qo‘rboshig‘a Otabek ustidan shikoyat qilg‘uchining shahodati bilan bu shubhamga ishonib, mundan besh kun ilgari Otabek bilan uning qayin otasi Mirzakarim degan marg‘ilonlikni o‘lim jazosiga hukm qildim. Gunohkorlarni dor ostig‘a olib ketkanlariga bir muncha fursat o‘tkan edi, mahkamaga bir xotin hozir bo‘lib, qo‘limga bir maktub berdi. O‘qub qarasam, Azizbek Toshkandda Qo‘qong‘a qarshi isyon chiqarmog‘i bo‘lib yurgan fursatda Yusufbek hoji tomonidan o‘g‘li Otabekka yozilg‘an bir maktub bo‘lib manim qo‘l, oyog‘imni bo‘shashdirdi. Chunki bu maktub Yusufbek hojining Azizbekka

[1] M u t a r a d d u d — o‘ylanib qolmoq, ikkilanmoq.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
tamomdan qarshi bir kishi bo‘lg‘anlig‘ini onglatar edi. Gunohkorlarni dor ostidan qaytarishg‘a majbur bo‘ldim. Men faqat shu maktub dalolatiga bovar qilib, gunohkorlarni bo‘shata bermay, qo‘limdan kelgancha yana tekshirib tergadim. Otabekning so‘zlari kishini tamom ishontirarliq darajada maktubga muvofiq edi. Shundog‘ bo‘lsa ham faqat Mirzakarimni ozod qilib, keyingi tergashlar tamom bo‘lg‘unchaliq Otabekni kafilga berdim. O‘zining biror adovati uchun bunday gaplarni qo‘zg‘atib yurgan bo‘lmasin, deb haligi menga shahodat berganni ushlab Otabek va boshqalar bilan yuzlashdirmoqchi bo‘lganimda nima sababdandir ul qochdi. Shu kungacha uni topib bo‘lmadi. Muning qochishi garchi bu shahodatning birar adovat yuzasidan bo‘lg‘an si’oyat[1] ekanini onglatar edi ersa ham men yana hanuz Otabekni kafolatda saqlar edimki, janobi oliydan bu xabar yetdi. Darhol Otabekni yigitlardan o‘ratib saodatxonai shahanshohiga jo‘nadim. Otabekning Marg‘ilon mojarosi shundan iborat bo‘lib, manimcha Otabek ustida hali shunday tergovlar borayotqan bir vaqtda unga bundog‘ javobgarlik vazifani topshirish qalay bo‘larikin, deyman...

Musulmonquldek makkor tulkining o‘ylag‘anlarini qushbegining to‘g‘ri so‘zlari ost-ust qilib, uning O‘tabboy to‘g‘risidag‘i sui zanlari bir muncha ozayib tushdi. Ammo Musulmonqulning ikki kishi ustiga yo‘nalgan qahru g‘azabi o‘zining borliq dahshati bilan faqat Oybek ustiga tikildi va Toshkand qo‘rg‘onlari ostida qurbon bo‘lg‘an sipohlarining qonini Azizbekning o‘ng qo‘li bo‘lg‘anning o‘g‘lidan olmoqchi bo‘ldi.

— Yusufbek hojining maktubi yoningizdadir?

— Taqsir, — dedi qushbegi, maktubni olib Musulmonqulg‘a uzatdi. Musulmonqul o‘nda-so‘nda maktubga ko‘z yugurtirib chiqdi-da, zaharxanda ichida O‘tabboyg‘a qaradi:

— Yusufbek hojining qurg‘an hiylalariga tushunmaguchi ehtimol Marg‘ilondan topilmag‘andur! U tulki o‘z o‘g‘lini Marg‘ilonda to‘polon chiqarish uchun, deb yuborishidayoq har bir ehtimolga qarshi bu maktubni yozib bergan, bunga Marg‘ilon kalvaklari tushunmasalar ham biz tushuna olamiz! — dedi va mag‘rur bir tusda

[1] S i’ o ya t — chaqimchilik.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
Xudoyorg'a qarab qo'ydi. Qushbegi uning bu istehzosini yutishka majbur edi. Chunki ozg'ina tildan toysa o'zining ham Otabek qatoriga kiritilishini yaxshi onglar edi. Sukut qildi:

— Hudaychi!

— Qulingiz!

— Haligi qushbegi bilan birga kelgan yigitni huzurimizg'a hozirla!

Musulmonqulning apti ortiq dahshatlik bir holga kirgan, taxt ustiga qo'ndirilg'an jonlik Xudoyor haykal ham sukutda, o'zining nima bo'lishig'a tushunmagan O'tabboy ham borliq, yo'qliq holatda...

Otabek hudaychi orqasidan kirib xong'a ta'zim qildi va qo'l bog'lab to'xtadi. Otabek Musulmonqul otini, uning yirtqichlig'ini yaxshi bilsa ham, ammo shaxsan o'zini ko'rmagan, shuning uchun xonning yonidag'i xoqong'a iltifot etmadi. Uning bu iltifotsizligi Musulmonqulg'a asarsiz qolmadi-da, achchig'i ustiga achchig', kek ustiga kek qo'shildi va shular ichida yasalib chiqg'an bir istehzo iljayishi va bir tovush bilan:

— Manga qarang, bek yigit, — dedi. Otabek o'ziga qarag'ach: — Siz kim bo'lasiz? — deb so'radi. Ul hanuz boyag'i masxara holatda edi.

— Men Otabek.

— Dunyoda Otabekdan ko'pi bormi, siz qanday Otabek?

— Otabek Yusufbek hoji o'g'li.

— Ha-a-a, shundog' deng-chi... Toshkandlik Yusufbek hojikim, Azizbegimizning gumashtasi bo'lg'an zoti sharifning o'g'illari?

Otabek bu cho'ltog' supurgini tanidi va uning istehzolarini payqadi. U bundan so'ngg'i ko'rguligini tamom ma'nosi bilan onglab, ma'nosiz bu savollarga javob berib o'lturishdan sukutni xayrlik topdi. Go'yo o'zining bu sukuti bilan Musulmonqulg'a ma'nolik bir javobni ifoda qilar edi. Chindan ham Musulmonqul bu sukutdan tahqirlandi, tutuni ko'kka ko'tarilar ekan baqirdi:

— Nega javob bermaysan?!

— Siz meni qanday tanig'an bo'lsangiz-bo'lingiz, men o'shandog' kishining o'g'li, — dedi bek. — Men bilan otam siz bilan qushbegiga bir necha turlik bo'lib tanilsaqla, o'z vijdonimiz oldida bir turlikkinadirmiz!

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Shuning uchun siz tilagan tarafingizga hukm qilingizda, buyrug'ingizni beraveringiz!

Musulmonqulning yuzidagi boyag'i achchig'lar yerini bir zavqlanish vaziyati oldi. Kulimsirash ichida Otabekni kuzatar ekan:

— Dav yuraging bor ekan, yigit... Hayfki, gunohing bo'yningda[1], — dedi va chaqirdi: — Jallod!

Eshik yonida kutib turgan oyboltaliqlar harakatlandilar:

— Xanjarimiz qonsirag'an!

Jallodlarning oldida kirgan hudaychi xong'a arz qildi:

— Toshkanddan bir chopar bor, huzuringizga kirish uchun izn so'raydir!

Xudoyor Musulmonqulg'a qaradi. Musulmonqul ersa Otabekni jallodga topshirish uchun o'nglang'an tilini qisishg'a majbur bo'ldi. — Kirsin! — dedi va o'zidan amr kutib turgan jallodlarga: — Bir ozdan so'ng, — dedi, chiqib turmoqqa ishorat qildi. Negaki, choparning Toshkanddan bo'lishi bu hukmda bir oz shoshmasliqni istar, chopar vositasi bilan ham bu hukm ehtimol haqlik bir hukm bo'lib chiqar va Musulmonqul ham loaqal o'z umrida bir marta ba bo'lsa-da, o'rinliq qon to'kkan bo'lar edi.

Otabek garangsigansumon devorga suyangan, mundagi allaqanday ma'nolarni onglatqan taxt, toj, xon, bek kabi lash-lushlar uning ko'z o'ngida qora pullik qadru qiymatsiz... To'g'risi ul ajib bir tabi'atka kirgan, uning vujudi quruq va hissiz... Yo'q, ul sezsa-da, bilsa-da, go'yo oyog', qo'li bog'lanib bo'g'izlanishga hozirlangan bir qo'y kabi qayralayotgan pichoqqa butunlay parvosiz, qo'rquvsiz tomosha qilar edi. Bu turmish, bu hokimiyat, cheki ko'rinmagan bu qorong'iliq... uning uchur sira qiziqarliq emaslar: ul yo'q edi — tinch edi, ul keldi — tinchimadi, ul yana yo'q bo'lsa ehtimol yana tinchir edi. Mana shuning uchun ham ul bezraygan edi. Faqat... faqat shu turmishdagi biravgina uning ko'nglidan tezroq yuvilmas va yuvilishi ham qiyindek...

---

[1] Musulmonqulning o'zi ham favqulodda yuraklik edi. 1853-m. tarixida Musulmonqul qo'qonlilarga asir tushib, uni to'pdan otib o'ldirish uchun dordek bir narsaning ustiga o'tquzurlar. Ikkinchi tomondan to'pka o't berish kutiladir. Shu vaqtda kishilar Musulmonquldan so'raydilar: «Endi qalaysan, cho'loq?" Musulmonqul kulibkina javob beradir: «Alhamdulilloh, hali ham sizlardan yuqori bir yerda o'lturibman!" *(mual.)*.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Nihoyat, bundan ham qutilg'andek bo'ldi. Ammo... ammo so'ng nafasida uning bilan vido'lashsa, bo'g'zig'a xanjar botar ekan, uning yuziga qarabqina ko'zi nursizlansa... Uning hamma orzusi shu edi hozir.

Hudaychi choparni boshlab kirdi. Chopar nomani tiz bukib Xudoyorg'a topshirg'ach, orqasiga qaytib, ko'zini devordagi bezrayganga tashlamasunmi... Ul o'zining xon huzurida bo'lg'anini ham unutdi-da, o'zini Otabek ustiga tashladi, Toshkand choparining bu kutilmagan harakati xonni, Musulmonqulni, qushbegi ham hudaychini va olding'i zolda o'lturgan a'yonni bir hayratda qoldirg'an edi. Otabekning tasallo berishi bilan Hasanali undan qo'l tortdi ersada, biroq undan hayajon, yig'i hali arimagan edi.

— Adab! — deb qichqirdi Musulmonqul, so'ngra o'ziga qarab qo'l bog'lag'an Hasanalidan so'radi, — sen kimning chopari?

— Normuhammad qushbegining.

— Qayerdan?

— Toshkanddan, taqsir.

Musulmonqul taajjub ichida o'ziga Xudoyor tomonidan uzatilg'an nomani oldi. Ochib kishi eshitarlik qilib o'qudi:

«Yosh xonimizg'a va padari arus shahanshohi Musulmonqul bahodir huzurlariga. Yosh shohimizning baxt va tole'lari ruhsiz tanlarimizga qayta boshdan ruh, ma'yus ko'ngillarimizga qaytib chiqmasliq umid bag'ishladi. Faqir qullari mundan to'rt kunlar ilgari Toshkanddan sipohlar bilan umidsiz qaytishga majbur bo'lib, ul to'g'rida huzurlariga xabar ham yuborg'an edim. Shu holda biz sipohlar bilan Kirovchi yaqinig'a yetkan ham edik, orqamizdan bir chopar Toshkandda Azizbekka qarshi isyon boshlang'anini, bizni ko'mak uchun Yusufbek hojining Toshkandga chaqirg'anlig'ini so'zlab, uning ismidan bir maktub berdi. Men darhol sipohlarni Toshkand qaytishga buyurdim-da, xabar olg'ani ikkinchi kuni Toshkandga yetdim. Biz Toshkandga kirganda Yusufbek hoji boshliq olomon Azizbekni o'rda ichiga qamab yotar ekanlar. Olomon, ayniqsa, Yusufbek hoji bizni juda yaxshi qarshiladilar. Biz borg'andan keyin o'rdaga bosib kirdik-da, Azizbekni ushlab oldiq. Boshda men Yusufbek hojini balki, Toshkand bekligi uchun ta'malanur deb o'ylag'an edim. Ammo uning butun o'rda va xazina, ashyo va yaroq-

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

larini manim qo'limg'a topshirishi bu fikrimni bo'shka chiqardi. Yusufbek hoji nihoyatda ta'masiz, xalq manfaatini kuzatkuchi bir odam ekan. Binoan alayhi[1] uning to'risidag'i bizning sui zanlarimiz[2] xato bo'lib chiqadir. Uning Azizbekka qarshi xalqni oyoqlandirishi ham bizning Toshkanddan jo'nashimizning ikkinchi kuni Azizbekning nechog'liq siqilg'an xalq ustiga o'ttuz ikki tangadan chochkan solig'i bo'libdur. Toshkand xalqi Azizbekning hiylasiga aldanib, bizga yog'iyliq qilg'ani uchun pushaymon va uning zulmidan qutilg'ani vajdan xursanddir.

Men Yusufbek hojining bunchalik katta xizmati evaziga xon hazratidan ulug' bir martaba olib berishka va'da bergan edim. Ul bunga qarshi uzr aytib, Toshkandga insoflik bir bek belgulansa, manim uchun kifoya, dedi. Uning xon janobidan kutkan bir marhamati bor ekankim, shu yaqinda savdo bila Marg'ilonda yurgan yolg'iz o'g'lini nomalum bir sabab ila O'tabboy qushbegining qamag'anlig'ini eshitibdir. Uning bu xizmatini birar mukofotka arzigulik ko'rsalar, o'shal qamoqda bo'lg'an o'g'lini ozod etmas uchun xon hazratlarining iladirg'an inoyatlari har bir narsadan ham unga azizroq bir mukofot bo'lur. Faqat qulingizcha ham Yusufbek hojining davlatimiz ustiga qo'yg'an bu minnati kichkina gap emasdir. Binoan alayhi uning o'g'li garchi o'lim jazosig'a sazovor bo'lsa ham, marhamati shohonaning jo'shg'a keltirilishi biz navqarlariga ham muvofiq ko'riladir. Vaqtincha Toshkand bekligiga Qo'shdodqoni belgulab, yoniga bir muncha sipohlar berdim. O'zim Azizbekni olib tezda xizmatlariga yursam kerak, Normuhammad qushbegi, muhr".

Musulmonqul maktubni tugatdi-da, uyatsiz ravishda Otabekka qarab iljaydi va hudaychiga buyurdi.

— Ikkita zarrin to'n keltir!

Otabekning mo'jiza qabilidan so'ng daqiqalarida ikkinchi qayta qutilishni ko'rgan O'tabboy qushbegi beixtiyor yoqasini ushladi. Xudoyorxon ham yirtqich qayinotasining changalidan qutilg'anini tabrik qilg'andek Otabekka kulib boqdi.

Musulmonqul oqsoqlanib, o'z qo'li bilan Otabekka zarrin to'n kiyguzar ekan:

---

[1] B i n o a n a l a y h i — shunga binoan.
[2] S u i z a n — gumon, taxmin, shubha.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Otangizning katta xizmati soyasida o‘limdan qutilg‘aningizdek zarrin to‘nliq ham bo‘ldingiz, — deb yana bir qayta uyatsizlandi.

Tag‘in bir necha kun turib qaytmoq uchun Otabek Marg‘ilong‘a, Hasanali ota Yusufbek hojini tinchitish uchun Toshkandga jo‘nadilar.

Birinchi bo‘limining so‘ngg‘i

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

U Z R[1]

Ro'mon deb sizga taqdim qilingan bu narsa dunyog'a kelishi bilanoq baxtsizlikka uchray boshlag'an edi: besh yillab bosila olmay yotdi. Nihoyat, bu kun bosilishi muyassar bo'lg'anida ham turlik zarbalarga uchradi; imlosi uchto'rtta imlochilarimiz tomonidan tuzatilib (!) ajoyib bir quroq holiga keldi, musahhihlarimizning musohalalari[2] orqasida texnika jihati ko'z ko'rib quloq eshitmagan bir yo'sunda chiqdi. Bularning sababi bosilish chog'ida o'zimning hozir bo'la olmag'anlig'im bo'ldi. Ammo bu o'rinda o'zimning jaholatim to'g'risida aytib turishni lozim ko'rmayman-da, faqat o'qug'uchilarning afvularini so'rayman.

Ro'monning ikkinchi bo'limini bunday xatolardan sof bo'la olishig'a va'da bera olmasam-da, ammo bosilish taqdiri noshir qo'lida bo'lg'anlig'ini bildirib qo'yaman.

---

[1] Ro'monning birinchi bo'limi 1925-yilda, ikkinchi va uchinchi bo'limi 1926-yilda alohida muqovalarda nashr etilib, ushbu uzrnoma 1925-yilda chiqqan birinchi bo'limiga ilova qilingan edi. Bu bo'lim 1926-yilda qayta nashr etiladi. Qo'lingizdagi kitobga birinchi bo'limning 1926-yildagi qayta nashrini oldik.

[2] M u s o h a l a — beparvo, bee'tibor qarash.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Ikkinchi bo‘lim

Azizbek Toshkanddan jo‘natildi. Uning yeriga Qo‘qondan Normuhammad qushbegi belgulanib keldi.

Azizbekni qo‘lg‘a tushurib berish bilan qipchoqlar nazdida ham Yusufbek hojining qadru qiymati yuqorilang‘an edi. Ammo o‘zining mansab suymasligi vajhidan yana eskicha «Yusufbek hoji» bo‘lib qola berdi. Shuning bilan birga Azizbek yonida qanday mavqi’ tutkan bo‘lsa, Nor-muhammad qushbegi oldida undan ham yuqoriroq va ma’noliroq e’tibor qozondi. Uning har bir ra’yiga Normuhammad qushbegi qonunan majbur bo‘lmasa-da, ammo ma’nan bir majburiyat his etar edi: o‘rinsizga kishi o‘ldirishlar, vaqtsiz ham o‘rinsiz soliq solishlar, behuda o‘rda usrofotlari, bo‘lmag‘ur taqiqlar va ortiqcha diniy takallufotlar bir muncha ebka olindilar.

Uch yillab Azizbek istibdodida ezilgan Toshkand xalqi erkin nafas oldi: savdo-sotiq, ekin-tikin va kasbikor ko‘tarilib boshladi. Odamlar jonlang‘andek bo‘lib bu holni:

«Zamon-zamon dorilamon,
Normat to‘ram bo‘lsin eson!» —

deb boshlag‘an ularning ashulalari ham ifoda qilar edi[1].

1. OTA-ONA ORZUSI

O‘zbek oyim elli besh yoshlar chamaliq, chala-dumbul tabi’atlik bir xotin bo‘lsa ham, ammo eriga o‘tkirligi bilan mashhur edi. Uning o‘tkirligi yolg‘iz erigagina emas, Toshkand xotinlarig‘a ham om edi. O‘zga xotinlar uning soyasiga salom berib to‘ylarida, azalarida, qisqasi,

[1] Normuhammad qushbegining Toshkanddagi beklik davri taxminan 1270 dan — 73-yil hijriygachadir. Zamona beklarining hushyorrog‘idir. Otam xon zamonlarida o‘zi ko‘rib kechirgan o‘nlab beklar ichidan shu Normuhammadni chiqarib: «Yurtni tinch tutdi, ko‘b yaxshi odam edi, xudo rahmati» deb qo‘yar edi *(mual.)*.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

tiq etgan yig‘inlaridag‘i uylarining to‘rini O‘zbek oyimg‘a atag‘an edilar. Bir bugina emas, qiz chiqaraturg‘an, o‘g‘ul uylantiradirg‘an, sunnat to‘yi qiladirg‘an xotinlar o‘z to‘ylarini O‘zbek oyim kengashidan tashqari jo‘nata olmas edilar. O‘zbek oyim aralashqan to‘ylik xotinlarning ko‘ngillaridagi orzu havaslari ham erlari tomonidan kamchiliksiz bajarilar, chunki «O‘zbek oyim shundog‘ buyurdilar» degan so‘z erlar uchun ham farz kabi eshitilib, O‘zbek oyimning aytkanicha hozirlik ko‘rila boshlanar edi. Bu tomondan qarag‘anda O‘zbek oyimning o‘tkirligi erlar tomonidan ham tasdiq etilganligini iqror qilishg‘a to‘g‘ri keladir.

O‘zbek oyim uncha-muncha to‘yu azalarga «kavshim ko‘chada qolg‘an emas» deb bormas edi. Shuning uchun xotinlar o‘z to‘ylarini O‘zbek oyim ishtiroki bilan o‘tkazib olsalar, o‘zlarini shaharning eng baxtlik xotinlaridan sanab «maning to‘yimni bek oyim o‘z qo‘llari bilan o‘tkazdilar» degan jumlani majlislarda iftixor o‘rnida so‘zlab yurar edilar. O‘zbek oyimning obro‘si yolg‘iz shular bilangina cheklanib qolmas, uni o‘rda xonimlari ham ehtirom qilib o‘zlarining «onaxonlari» deb bilar edilar. Shunga ko‘ra qaysi bir vaqtlarda o‘rda yasovullari Yusufbek hojining eshigiga arava ko‘ndalang qilib «o‘rda begi oyim buyurdilar”, deb O‘zbek oyimning yasanib chiqishini kutar edilar. Bu tomon bilan qaysi bir majlislarda O‘zbek oyim xotinlarning eslarini ham chiqarib yuborar edi: «Kecha o‘rda bek oyimdan menga arava kelgan ekan, fe’lim aynab turg‘an edi, bormay aravadan bo‘sh qaytardim... Bo xudo, o‘rda bekachi bo‘lsa o‘ziga, dedim» der edi. Ikkinchi vaqtda: «O‘tkan kun o‘rdaga borg‘an edim; xonimlar yotib qolasiz deb qo‘ymadilar, noiloj bir kecha yotib keldim”, deb so‘z orasig‘a qistirib ketar edi. Bu so‘zlarni eshitkuchi xotinlar o‘zlarining qandog‘ bir xotinning suhbatiga noil bo‘lg‘anlarini o‘ylab, O‘zbek oyimning ehtiromini tag‘in ham kuchaytirar edilar.

Ul o‘z uyida o‘lturg‘anida ham ustidagi atlas ko‘ynak bilan adras mursakni, oq shohi dakana bilan kahrabo tasbihni qo‘ymay, qish kunlari tanchadan par yostiqqa suyalib, yoz kunlari ayvonning to‘riga yoslanib Hasanalining xotini bo‘lg‘an Oybodoqqa, cho‘ri qiz Hanifaga xamirni achitmaslikni, palovni qirmoch oldirmasliqni tanbihlabkina o‘lturar edi.

Otabekning Marg‘ilondan uylanib qo‘yishi otasi

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

uchun uncha rizosizlikka mujib[1] bo‘lmasa ham, ammo uning o‘g‘ul to‘yisidan boshlab, Toshkand qizlarini ost-ust qilib u «buning qizi yaxshi bo‘lsa ham, uy-joylari yaramas ekan; buning uy-joylari tuzik bo‘lsa ham, qizi ko‘rksiz ekan; buning qizida, uy-joylarida tuzik, biroq zoti pas ekan» deb qiz, quda, uy, joy, nasl va nasab tekshirib yurg‘uchi O‘zbek oyimning Otabekni uylandirib buning orqasidan ko‘raturgan orzu-havas, to‘yu tomoshalarini shartta kesib qo‘yg‘an bu uylanishka nima deyishi va qanday qarashi albatta ma’lum edi. Bittayu bitta o‘g‘li Marg‘ilon degan joyda, allakimlarning qo‘lida, asli noma’lum kishilarning qizig‘a uylansin-da, bu kun-erta o‘g‘lumning orzu-havasini ko‘raman, deb entikib o‘ltirg‘an va o‘g‘ul boqib katta qilg‘an ona — O‘zbek oyim ikki qo‘lini burniga tiqib qarab qolabersin...

Bu xabarni Hasanalidan eshitkan kunlari ul bu ishka chidab turolmadi: «Endi menga mundog‘ o‘g‘ul kerak emas... Oq sutimni oqqa, ko‘k sutimni ko‘kka sog‘dim... Endi Toshkandga kelmasin ul o‘zboshimcha betiyuq!” deb baqirib-chaqirib, yig‘lab-sixtab, dardu hasratni boshig‘a kiyib oldi. Oradan o‘n besh kun o‘tar-o‘tmas Marg‘ilondan Otabek keldi. Uch oylab ko‘rmagan o‘g‘lini quchog‘ig‘a olib ko‘rishmak o‘rniga undan yuzini o‘gurib, san kimsan, keldingmi, deb so‘ramadi va salomiga alik ham olmadi. Go‘yo uxlamoqchi bo‘lg‘an tovuqdek hurpayib oldi. Otabek onasining araziga allaqachon tushungan, ham shu holni Marg‘ilondayoq kutkan edi. Bir-ikki qayta uzr aytib ko‘rgandan so‘ng O‘zbek oyimning epaqag‘a kelishiga ishonmay qoldi va shuning uchun ul ham go‘yo bilmagan, tushunmagan kishidek yuriy berdi.

Turg‘an gap, Otabekning Marg‘ilong‘a uzoq bormay turishi mumkin emas edi. O‘rtadan ikki hafta o‘tar-o‘tmas otasig‘a allaqanday bahona ko‘rsatib, yo‘l hozirlig‘ini ko‘ra boshlaydir va onasig‘a bildirmayoq Marg‘ilon jo‘naydir. O‘zbek oyim o‘g‘lining «o‘lganni ustiga chiqib tepish» qabilidan bo‘lg‘an bu harakatidan tutuni ko‘kka chiqib, borliq qahru g‘azabini eri ustiga to‘kadir: «Siz qarib esingizni yeb qolibsiz, o‘g‘lingizni marg‘ilonliqqa topshirib qo‘yib, yana el ichida boshingizni ko‘tarib yurmakchi bo‘lasizmi?..» deydir.

---

[1] M u j i b — sabab.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Yusufbek hojining qiziq bir tabi'ati bor: xotin bilangina emas, umuman uy ichisi bilan har qanday masala ustida bo'lsa bo'lsin uzoq so'zlashib o'lturmaydir. Otabekmi, onasimi, Hasanalimi, ishqilib uy ichidan birartasining so'zlari va yo kengashlari bo'lsa, kelib hojining yuziga qaramasdan so'zlab beradilar; maqsad aytib bitkandan so'ng sekingina ko'tarilib uning yuziga qaraydirlar. Hoji bir necha vaqt so'zlag'uchini o'z og'zig'a tikiltirib o'lturg'andan so'ng, agar ma'qul tushsa «xo'b» deydir, gapka tushunmagan bo'lsa «xo'sh» deydir, noma'qul bo'lsa «durust emas» deydir va juda ham o'ziga noma'qul gap bo'lsa bir iljayib qo'yish bilan kifoyalanib, mundan boshqa so'z aytmaydir va aytsa ham uch-to'rt kalimadan nariga oshmaydir. Uy ichi uning bu fe'liga juda yaxshi tushunganliklaridan ko'pincha bir og'iz javob olish bilan kifoyalanadirlar. Ammo Otabek bilan birar to'g'rida so'zlashmakchi bo'lsa, uni aksar mehmonxonaga chaqirib yoki chaqirtirib oladir. O'zbek oyim yuqoridag'i o'zining itob[1] va xitobiga eridan bir iljayib qo'yish javobini olib dami ichiga tushadilar va chor-nochor o'ttuz kunlab bir zamonni o'zicha marg'ilonliqni qarg'ash bilan kechiradir. Otabek Toshkandga qaytib kelib, «endi araz bitkandir» degan o'yda onasig'a salom beradir. Araz bitish qayerda, O'zbek oyimning o'g'lig'a qarshi kinasi tag'in bir necha qat ortqan, ammo bu gal salom berguchiga bir qaraydir-da, «O'g'lim, menga salom berib nima qilasan, marg'ilonliq onangning duosini ol!» deb yuzini chetka o'guradir. Ul onasining bu kinoyasini kulgulik bilan kechirib, yana eskicha arazda qolaveradirlar. Otabek yana o'n besh kunni o'tkazib, tag'in bir nozik sababni o'rtag'a tashlab onasining ruxsatisiz Marg'ilong'a jo'nab soladir. Tag'in O'zbek oyimning rangi o'chkan, qoni qochqan: tovoqni kosaga, cho'michni piyolaga urib dodi faryod: «Siz otamisiz, nimasiz axir, o'g'lingizni tiyib olish sira esingizga keladimi? O'g'lingizning bu ishi bechiz emas: marg'ilonliq sihr qildimi, jodu qildimi, haytovur siz shu yo'sunda yuruy bersangiz, erta-indin o'g'uldan ajralasiz. Bu kalvak o'g'lingiz marg'ilonliqning eshigida qul bo'lib yotib oladir...» Ammo Yusufbek hoji xotinning so'zini bu gal ham elamaydir, faqat: «Qo'yaber, xotin, o'zi sog'

---

[1] I t o b — ta'na, malomat.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

bo‘lsa, bir kun esini topar», deb qo‘yadir. Bir yarim oylar vaqtni Marg‘ilonda o‘tkazib, tag‘in Otabek Toshkandga keladir. Tag‘in ona-bola oralarida kina-kudurat... Tag‘in araz... O‘n besh kun o‘tmasdan yana Andijon safari, yana O‘zbek oyimning fig‘oni falakka... Marg‘ilonliqning sihrchi-joduchisiga o‘lim tilash; meni o‘g‘limdan ajratsa o‘zi ham suyganidan ajrasin, qarg‘ish...

Nihoyat oradan bir yil chamasi vaqt o‘tib Marg‘ilong‘a qatnash yetti-sakkizga yetkach, O‘zbek oyimning g‘idi-g‘idisi bilan bo‘lsa kerak Yusufbek hojida ham bir o‘zgarish ko‘rila boshlaydir. Xotinining: «O‘g‘ul o‘sdirishni, o‘g‘ul tiyishni bilmaysiz» deb shiltalashiga: «Nima qil, deysan endi?» deb so‘raydir.

— Biz Otabekni Toshkanddan uylandirib boshini bog‘lamasaq, kun sayin uning Marg‘ilon yugirishidan qutila olmasmiz. Toshkanddan uylansa suv quyg‘andek tinar-qolar; Marg‘ilon balosini esidan ham chiqarar... — deydir O‘zbek oyim. Ya’ni hamisha yuragini shopirtirib, miyasini mashg‘ul qilg‘an muddaoni aytib solish fursatini qochirmaydir.

— O‘g‘ling qaytsin-chi, bo‘lmasa...

Erining bu so‘ziga O‘zbek oyim ortiqcha qizishadir, labi-labiga tegmay bobillab beradir:

— Siz shu kungacha barcha ixtiyorni o‘g‘lingizga topshirib, bolani bola qilmadingiz, bir xudbin qildingiz... O‘g‘ul o‘sdirish bu turda bo‘lmas; ul tilasin-tilamasin shartta-shartta tilaganingizcha qilingizda, qarab turaberingiz. Siz o‘zingizning shu «o‘g‘ling bilar» degan gapingiz bilan qancha yaxshi joylardan qolib, nihoyat marg‘ilonliq balosig‘a yo‘liqdingiz... Endiki ixtiyor manda: ul kelguncha bir yaxshi joyga unashayin-da, kelgandan so‘ng to‘yni ham jo‘natib yuborayliq!

— Turatur-chi...

Hojining bunchalik bo‘sh kelishi O‘zbek oyimg‘a qanot-quyruq bergandek bo‘ldi va mundan so‘ng tinib-tinchib turolmadi. Shu gapning ikkinchi kuni Hasanalini qo‘yarda-qo‘ymay arava qo‘shdirib shaharning to‘rt tomonig‘a qiz ko‘rish uchun yurib ketdi. Marg‘ilonliq kelinning ta’rifini Hasanalidan ko‘b eshitkan edi. Otabekning ko‘nglini o‘sha go‘zal marg‘ilonliqdan sovitish yo‘lida undan ham ko‘hlik, undan ham suluk qiz topish ko‘yiga tushdi. Shunga ko‘ra unga uncha-muncha

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
qiz yoqmay, shahardagi ko'b eshiklarni sanashg'a to'g'ri keldi. Yettinchi martaba ko'chaga chiqishda Olim ponsad deganning qizi yoqa tushib hojiga arz qilindi. Hoji boshda xotinining bu gapiga kuldi, undan keyin «turatur, o'g'ling kelsin», dedi. O'zbek oyimning bobillashi kuchayabergach: «Nima qilsang o'zing bil, basharti o'g'ling ko'nmasa men zo'rlamayman!» dedi. O'zbek oyim eriga yalinib boshladi:

— Bir so'zlig'ingizni qo'ying, er; o'zi aslzoda, loaqal bir og'iz o'g'lingizga aytib o'tishka va'da bering-chi,— dedi.

— Yaxshi. Va'da ham berayin, ammo san unashmay tur.

— Unashmayman, lekin o'g'lingizga unashdiq, deb eshitdirarmiz... Tuzikmi?

— Ma'qul.

Shu o'lturishdan so'ng O'zbek oyim juda ham jonlanib ketdi va ertasiga Olim ponsadnikiga qarab yana arava qo'shdirdi. Bu ikkinchi sovchiliqda go'yo qudachalardek qarshi olindi. Olim ponsadboshilar: Yusufbek hojig'a quda bo'lar ekanmiz, deb juda ham tipirlashib qolg'an va izzat-ikromni haddan oshirg'an edilar. Yegan og'iz uyalar qabilidan O'zbek oyim ham muomalani qudalarcha qildi, hatto: «Bek otangiz bilan men so'zni bir joyiga qo'ydiq. Faqat ish Otabekning kelishiga qoldi» deb qo'ydi. Kechqurun uyga qaytib bu aytkan so'zini hikoya qilg'an edi, hoji labini tishlab qoldi va: «Sanga sira aql bitmay ketar ekan-da», dedi.

Bir oylab kechikkandan so'ng Otabek qaytib keldi va bu kelishining vijdon azobi va tilamagan bir taklifni eshitish uchungina emas, balki qabul qilish uchun bo'lg'anlig'ini payqadi. Ul bu gapni onasining ilgarigi achimsiq so'zlarini va arazlarini tugalganidan va o'rniga chuchuk so'zlar, silliq muomalalar bitib «eson-sog' keldingmi, bolam»laridanoq sezgan edi. Bunday bo'lmag'ur taklifni eshitmas uchun o'zini chetka olib, otasi, ayniqsa onasig'a yo'liqishdan qochib yurishka majbur bo'ldi. Ikki oradag'i bu qochish-quvish ishi uzoqqa cho'zilmay, bir kun mehmonxonada ota-o'g'ul so'zlashib o'lturganning ustiga O'zbek oyim kelib kirdi va o'lturmasdanoq hojiga imlab qo'ydi. Bu imqo'qni Otabek payqamag'an bo'lsa ham lekin anuv gapni aniq shu majlisda ochilishig'a ko'zi yetib, chiqib ketishning ilojini qilolmadi. O'zbek

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
oyim kelib kirgandan so‘ng Yusufbek hoji bir necha vaqt o‘ylab qoldi. O‘zbek oyim depsinib-depsinib eriga qarab olar edi. Anchagina so‘zsiz o‘lturg‘andan so‘ng hoji muloyimona so‘z ochdi.

— O‘g‘lim, hali san eshitdingmi, yo‘qmi haytovur biz saning ustingdan bir ish qilib qo‘ydiq...

Otabek ma’lumki, ularning «qilib qo‘ygan yoki qilmoqchi bo‘lg‘an ishlarini» albatta bilar edi. Shundoq ham bo‘lsa bilmaganga solindi:

— Aqllik kishilarning o‘g‘ullari ustidan qilg‘an ishlari albatta noma’qul bo‘lmas, — dedi.

Hoji o‘g‘lining bu javobidan yerga qaradi va nima deb davom qilishni bilmay qoldi. Istehzo aralash xotinig‘a qarab oldi. Yana orag‘a jimjitlik kirdi. Bu so‘zsizlik ma’nosig‘a O‘zbek oyim tushuna olmag‘an edi. Bir oz qarab o‘lturg‘ach, yuragi qaynab ketkandek bo‘ldi:

— Biz saning uchun Olim ponsadboshining qizig‘a unashib qo‘ydiq... Endi san bilan to‘y maslahatini qilishmoqchi edik...

Otabek onasig‘a bir og‘iz so‘z demay, ma’nolik qilib otasig‘a qarab oldi. Hoji uyatliksumon «shundog‘» deb qo‘ydi.

— Sizlarni ranjitib bo‘lsa ham bir martaba uylangan edim-ku? Endi...

— San uylansang biz ranjirmidik? — dedi kulib hoji.

— Ranjimasalaringiz...

Hoji tuzuklanib o‘lturib oldi:

— Bu ranjishdan emas, hojatdan o‘g‘lim.

— Nima hojat?

—Hasanalining so‘ziga qarag‘anda, qayin otang qizini Toshkandga yubormas ekan. O‘g‘il o‘sdirib katta qilg‘an onangning bo‘lsa oldig‘a kelin qo‘yg‘usi keladir...

Otabek onasig‘a qaradi:

— Bu kungacha kelinsiz ham yashab keldingiz, bundan keyin ham shusiz turib bo‘lardi-ku, — dedi.

O‘zbek oyim marg‘ilonliq tomonidan sihrlangan o‘g‘lig‘a qarshi qizishib ketdi. Bir yillardan beri ichiga yig‘ib-kelgan kinasini to‘kib berdi:

— Man sani bu umid bilan boqib katta qilmag‘an edim... San bizning naslimizni ko‘tarish o‘rniga, yerga urib bulg‘ading. Biz sani Marg‘ilon andisiga bunchalik mukkadan ketishingni o‘ylamag‘an edik, adabsiz...

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
o‘zingga qolsa shu marg‘ilonliqni xoting‘a hisoblab ketaberar ekansan-da, uyatsiz!..

Otabek ham qizishdi:

— Xotin bo‘lmasa nima, axir?!

— Qoshliq, ko‘zlik bir andi!

— Andi deganingiz nima o‘zi?

Yusufbek hoji o‘g‘lini bosish o‘rniga javob ber, degandek qilib iljaygan holda xotiniga qaradi. O‘zbek oyim «andi» ma’nosini bildirib, andilarning sihrini rad qilish uchun bir oz tutiliqib qiynaldi:

— Andi... andi... o‘zi xitoymi, nima balo... o‘zi qalmoqdan tarqag‘an bo‘ladir... Tushunmagan bo‘lsang, lo‘lilarning bir toyifasi...

Bu javobga Yusufbek hoji o‘zini xaxolab kulishdan to‘xtata olmag‘anidek, Otabek ham kulib yubordi. Xotinining tirnoq ostidan kir izlab va da’vosining isboti uchun g‘o‘ldirashidan ortiqcha kulib kayflangan Yusufbek hoji ko‘ziga chiqg‘an yoshlarni artar ekan, jiddiyat bilan o‘g‘lig‘a dedi:

— O‘g‘lim, san onangning gapiga achchig‘lanma. Ul har narsa desa faqat Marg‘ilondan uylanganingga qarshilig‘idan aytadir. Ammo mendan so‘rasang, Marg‘ilondag‘i na qudamiz va na kelinimizni hech bir vajh bilan kamsita olmayman, balki bizga quda bo‘lmoqqa eng muvofiq kishilar edi, balli o‘g‘lim, deyman. Saning tinib-tinchishing, o‘sib-unishing uchun quvonmag‘an ota-ona sog‘qa hisoblanmaydir. San bunga yaxshi ishon. Ammo bizning hozirgi ba’zi bir ra’ylarimiz sanga yotishib kelmas ekan, bunga haqqing ham bor, lekin ikkinchi tarafdan bizni ham haqsiz tashlab qo‘yma. O‘g‘lim, bizning sandan boshqa umid nishonimiz, hayot quvonchimiz yo‘q. Dunyoda ko‘rib o‘taturg‘an barcha orzumiz, havasimiz faqat sangagina qarab qolg‘an. Biz xudoi taolog‘a minglab shukur aytamizkim, san boshqalarning farzandidek eslik-hushlik bo‘lding; kishilardek sen bilan iftixor qilolmasaq-da, san orqalik xijolat chekmasimizga ishondik. Ayniqsa onangning saning tufayli kechiraturgan umidlari tobora ortib bordi. Bu kun onang saning oldingg‘a tiz cho‘kib va onang ko‘ngli uchun men ham orag‘a tushib sandan so‘raymiz: san o‘z xohishing yo‘lida uylangan ekansan, rafiqang sanga muborak bo‘lsin. Eslilik da’vosida yurgan ota-onang tilagi albatta shundan boshqa bo‘lmas. Shu bilan birga sa-

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

ning sababi vujuding bo'lg'an bir kishi o'z hayoti ichida bolasi orqaliq bir orzu-havas kechirmakchi... Uning bu orzusig'a haq berasanmi, yo'qmi yana ixtiyor o'zingda...

Hojining bu so'zi O'zbek oyimg'a nechog'liq yoqqan bo'lsa, Otabekni shu qadar yerga qaratqan edi. Hoji o'zidan oshirib so'zlag'an bu so'zlarini shu gap bilan tamomladi:

— Bilgan topib so'zlar, bilmagan qopib, deganlaridek, onangning aytmakchi bo'lg'an so'zi faqat shu edi. Boyag'i gaplari bo'lsa o'z haqqini himoya yo'lida uning popisalarigina bo'lib, mendan ham ko'ra onangning fe'lini o'zing yaxshi bilasan...

Otabek hamon sukutda, O'zbek oyim bo'lsa boshi bilan «shundog'» ishorasini berar edi. Yusufbek hoji yuqorida o'tkan gaplarni quruq va asossiz so'zlamag'an, balki shu turmushning rukn va asosini bir daraja aytib o'tkan, Otabek esa buni shu muhitning bir o'g'li bo'lib eshitkan edi. To'g'risi ham ul dadasi tomonidan so'zlangan haligi qonung'a qarshi chiqish uchun lozim bo'lg'an kuchka molik emas; bas, kuchsizlikning natijasi esa sukut edi. Ul bir tomondan shunday orzu-havas uchun bola o'sdirg'an ota-onani mukofotlandirmakchi va otasi aytkan xijolat chekdirmayturg'an o'g'ullardan bo'lmoqchi edi ersa ham, ikkinchi yoqdan o'zini asir etkan shahlo ko'zlar unga nafratlanib qarag'andek bo'lurlar, go'yoki vafosiz, va'dasiz, deb qichqirarlar edi. To'g'risi ham uni ota-ona mukofotiga qarshi oyoqlandirmoqchi bo'lg'an narsa haligi ko'zlargina, ammo uning bu isyonnamo harakatidan boshqa unsurlar qidirish va chiqarish o'rinsiz tushar edi. Ota-ona orzusini ifo etishdan[1] bir soniya ham o'zining ko'z o'ngidan xayoli ketmagan anuv ilohiy muhabbat uchun hech bir turlik kamchilik kelmasiga ishonsa ham hozir uning yuragini boshqa bir haqiqat tirnay boshlag'an va vijdonini faqat shu masalagina o'rab olg'an edi. Otabekcha eng nozik sanalg'an bu masala qaroshidag'i javob kutib o'lturg'uchilarni nihoyat zeriktirdi.

— Bizni kutdirma, o'g'lim.

Otabek mag'lub bir boqish bilan bu so'zni aytkuchi otasig'a qaradi va yalinchoq bir ohangda javob berdi:

— Men sizlarning orzularingizni bajarishka — agar

[1] I f o e t m o q — ado etmoq, bajarmoq.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
xursandchilig'ingiz shu bilan bo'lsa — har vaqt hozirman. Ammo bir bechoraga ko'ra-bila turib jabr ham xiyonat...

Hoji o'g'lining maqsadig'a darrov tushuna olmadi va so'radi:

— Kimga, xotiningg'ami?

— Yo'q, sizning oladirg'an kelinингizga. O'g'lingizning vujudi bilan orzuingizni qondirish oson bo'lsa ham kelinингiz qarshisida meni bir jonsiz haykal o'rnida tasavvur qilingiz.

Yusufbek hoji yalt etib xotinig'a qaradi. O'zbek oyimning bo'lsa oladirg'an keliniga e'timodi yuqorilig'idan o'ylab-netib turmadi:

— Mayli, bolam; buyoqni hozir san o'ylamay qo'y, — dedi.

Otabek bir og'iz so'z aytmay sukut qildi, Yusufbek hojining esa o'g'lining so'zini to'g'rilig'ig'a, keyindan yuz ko'rsataturg'an ko'ngilsiz ishlarga aqli yetsa ham, ammo bir mulohaza yuzasidan istiqbolning qorong'i ishlarini hozir uncha mulohaza qilib ko'rmadi:

— Juda to'g'ri aytasan, o'g'lim; biroq onangning bir mulohazasizligiga boshdayoq men labimni tishlab qolg'an edim. Hozirda ham shu holda qolmoqqa majburman, — dedi va: — Biz hozir andi-shaning bandasi, men emas onang biravni ishondirib qo'yg'an: bizning oiladan lafsizlik chiqishi menga ma'qul ko'rinmaydir.

Otabek ota-ona orzusig'a o'z ta'biricha jonsiz haykal bo'lib rizoliq berdi. Ammo o'z rizolig'ining sharti qilib to'ydan ilgari Marg'ilon borib kelishni va bir daraja ularga aytib o'tishni, shundan so'ng to'y boshlashni ahd qildi. Ishning yengil ko'chishiga so'yingan ona Otabekning bu shartiga lom demasdan ko'ndi va orzuliq to'yni tez boshlash uchun o'g'lini Marg'ilon ketmakka qistay boshladi.

2. UNUTMAYSIZMI?..

Uning bu galgi Marg'ilon yo'liga qo'zg'alishi ortiqcha bir og'irliq bilan, ikkilanish bilan o'ralg'an edi. Kumushbibi uchun dunyoga sig'masliq bir shodliqning, ko'rguchi ko'zlariga ishona olmasliq bir baxtning bu gal

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

ko‘tarib bo‘lmayturg‘an bir qayg‘u, chidab bo‘lmayturg‘an bir hasrat bo‘lib borishini ul yaxshi tushunar edi. Har bir gal Marg‘ilon borg‘anida olib boraturg‘an nafis sovg‘alari bu gal juda zaharlik, ortiqcha alamlik bir sovg‘ag‘a aylangan, Kumushbibi bu sovuq kundash sovg‘asini ko‘rganda ehtimol... nimalar bo‘lar va qandog‘ hollarga tushar edi. Bu mudhish sovg‘ani ehtimolki, uning ota-onalari ham qabul qilmaslar: birdan-bir yolg‘iz qizlari uchun bunday gapning yarashmasini aytib: «Sovg‘ang ham kerak emas, o‘zing ham» degan javob bilan yuziga ham ururlar. Mana, uning bu galgi og‘ir harakati va qo‘zg‘alishig‘a nimalar sabab edi.

Bu og‘riqqa orzu egalarining qistoqlari nihoyat berdi. Ya’ni chor-nochor bu tuturiqsiz sovg‘ani ko‘tarib yo‘lg‘a tushishka majbur bo‘ldi.

Otning boshini o‘z ixtiyoriga qo‘yg‘an, ilgarigidek yurak oshiqishlari ichida otni tez yurishka qistamay suvga tushkan nondek bo‘kib-bo‘shashib, yuz xil sovuq, yaramas xayollar qo‘lida ezilib, o‘zining dunyoda bormiyo‘qmilig‘ig‘a ham tushunmay keta beradir.

Hozir ko‘klam kunlari: qirlar, tog‘lar, soylar; ko‘k-qizil, oq-qora, sariq-zangor, pushti-go‘las va tag‘in allaqancha ranglik chechaklar bilan ustlarini bejab, qishi bilan to‘nggib[1] arang yetishkan oshiqlarig‘a yangi hayot, yangi umid beradilar. Qish bo‘yi alla qaysi go‘r ostlarida junjib chiqg‘an qush zotlari: chumchuqlar, chittaklar, to‘rg‘aylar, sa’valar va boshqa allaqancha qush durkumlari o‘z to‘plari bilan vijir-vijir, chug‘ur-chug‘ur sayrab kuladirlar, yer yuzini tutkan chechak gilamlari ustini o‘pib yalaydirlar, yotib cho‘qiydirlar, sapchib uchadirlar... uzoq-uzoqdan kakku qush ham arzi vujud qiladir: «kakku-kakku».

Poyonsiz qirlarning nihoyatsiz bijir-bijir ko‘rib to‘ymasliq ko‘k gilamlari va ularning dimog‘larg‘a majburiy iskatkan davo islari, yoqimliq hidlari har qandog‘ ishdan chiqayozg‘an hayot egasini ozg‘ina bo‘lsa ham epka ola biladirlar. Shuningdek, bu chechak qirlari o‘z bag‘rida suzib borg‘an Otabekni ham o‘ziga qaratmay qo‘ymaydir. Uning fikri anuv qorong‘uliqlar ichida suzma ham ko‘zi chechak va sabzalar tomoshasida, dimog‘i hidlar istishmomida[2], qulog‘i qushlar nag‘masi-

[1] To‘nggmoq — muzlamoq.
[2] Istishmom — hidlash, iskash.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

da bo‘ladir. Nima bo‘lsa ham tevaragidagi ko‘klam bejaklarini ko‘zdan kechira boradir. Bora-bora fikri ham shu ko‘rinishlardan hissa olmoqqa boshlaydir.

— Hov ana bir qaldirg‘och, to‘g‘rig‘a qarab o‘qdek otilib boradir, uchkan yo‘lida vijir-vijir sayrab ham qo‘yadir. Qaldirg‘ochning qayg‘usi yo‘q, suyganining oldig‘a tezroq yetish uchun shoshadirg‘andir: sayrog‘i ham suyganining ko‘rish shodlig‘i uchundir... Baxtlik qaldirg‘och: olg‘an sovg‘asi ham qo‘rqunch emasdir, ota-onasining ham orzu-havaslari yo‘qdir. Ularning turmush qonunlari juda yengil, ikav-ikav, suygan-suyganni oladirlar-da tog‘larda, yerlarda, ko‘klarda uchib yuruyberadirlar. Men ham shu qaldirg‘ochdek uning sari otilib, vijir-vijir sayrab uchar edim.

Uning qaldirg‘ochliq qanoti ota-ona mukofoti bilan qayrilg‘an. Unga uchkali erk bermaydir-lar. Lekin hayvon uning qayrilg‘an qanotig‘a qaramasdan o‘zining eski adim tashlashida qirlar, tog‘lar oshib suvlar kechadir; yetti-sakkiz qayta borib kelgan tanish shahariga intilgandan intila beradir. Bu oshishlar, bu kechishlar o‘zga vaqtlarda Otabek uchun huzur va oshiqish bag‘ishlag‘an bo‘lsalar, bu gal uni nafratlandiradirlar, bormay qaytish fikri halidan-hali ko‘ngliga kelib turadir.

Uzoqda qo‘sh haydab yurgan yigitning ashulasi eshitiladir: «Ikki yorni ajratuvchi bu falakning gardishi!» Ruhlik, kuchlik ko‘krakdan chiqg‘an bu ashula tevarakni zir-r etdirib yuborg‘andek, Otabekka ham boshqacha bir ta’sir beradir. Go‘yo bu dehqon uning istiqbolidan hikoya qilg‘andek bo‘ladir. Bu bayt dehqonning og‘zidan yana takrorlanib tag‘in tevarakni yong‘iratadir.[1] Endi Otabekning ko‘nglidan bir gap ham o‘tib ketadir: «Ikki yorni ajratquchi bu falakning gardishi emas, ota-onaning orzusi!» O‘zining sirlik ma’nosig‘a Otabekning istiqbolini olib ko‘ringan bu bayt nihoyat uni yig‘latadir. Ko‘z yoshlari yuzi orqaliq egarining qoshig‘a va otining yolig‘a toma boshlaydir...

* * *

Marg‘ilong‘a to‘rt qo‘nib kirar edi, bu gal oltinchi qo‘nishda yetdi. Tevarakdan asr azoni eshitilgan vaqtda otdan qo‘ndi. Otini qutidorning yo‘lagiga yetaklar ekan,

[1] Yo n g‘ i r a m o q — yangramoq.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
negadir yuragi o‘ynab ketdi. Bu gal o‘z odatidan o‘n kunlar chamasi kechikkani uchun «balki kutib o‘lturg‘andir» deb o‘ylab haligi yurak o‘ynog‘isi tag‘in ham kuchaydi va yo‘lakdan mehmonxona havlisig‘a chiqg‘ach, ixtiyorsiz otining bo‘ynig‘a suyalib to‘xtamoqqa majbur bo‘ldi.

Chindan ham ul ayvonning oldida kutib o‘lturgan edi. Xayolot ichida Otabekning kelib kirganini sezmay ham qoldi. Nihoyat, qora ohu ko‘zlarni to‘ldirib bunga qaratib olg‘ach, o‘rnidan turdi-da, ichkari havlisig‘a burilib keta berdi. Bu burilish ma’nosig‘a Otabek allaqachon tushunib qolg‘an, bu o‘zining kechikib uni zoriqdirg‘ani uchun... Kechikish uchun bunchalik araz qilg‘an bu go‘zalning kundash uchun qandog‘ holga tushmog‘i ma’lum edi. Otabek tamom bir esankirashda qoldi. Otini axtaxonag‘a bog‘lab, sovg‘a-salom to‘ldirib kelgan ipak xurjinni ko‘tarib ichkariga kirdi. Suyukli kuyavni yo‘lakda ko‘rgan Oftob oyim qilib turg‘an yumishini uloqtirib Otabekning oldig‘a yugurdi, jonini ming tasadduq qilib ko‘rishkach, kechikkani uchun nechog‘liq tashvishlar tortib va qandog‘ tushlar ko‘rganini labi-labiga tegmay so‘zlay ketdi. Allaqayoqlarda yurgan To‘ybeka ham yugura kelib so‘rashmoqqa uyalsa ham, ammo «chiroylik yigit»ning qo‘lidag‘i xurjinni oldi.

Oftob oyim yugura-yugura qat-qat ko‘rpachalar solib, kuyavni o‘lturishka taklif qildi va qarshilashni har galgidan ham oshirib yubordi. Lekin Otabek bu qarshi olinishlarg‘a juda ishonchsiz qarar, bu kun bo‘lmasa ertaga «ota-ona orzusi» bilan bu siylanishlarni birdan o‘zgarib ketmagiga imon kelturib, qaysi yo‘sunda o‘lturib olg‘anini ham payqamas edi. Oftob oyimning bir qancha yaxshi tilaklar bilan bo‘lg‘an duosiga ham ishonchsiz qo‘l ko‘tardi va mash’um «orzu»ning bundog‘ yaxshi duolarni ost-ust qilishini o‘yladi. Fotihadan keyin Oftob oyim tovoqni xurmaga, xurmani tovoqqa urushdirib kuyavga qatiq olib chiqdi va Otabekning ichmaganiga ham qo‘ymay «ichingiz, yo‘l g‘uborini oladir» deb qistay boshladi. So‘ngra To‘ybekani choy qaynatishg‘a buyurib o‘zi kuyavi bilan so‘rashdi:

— Otangiz, onangiz salomatlarmi?

— Shukur, sizga salom aytdilar.

— Hasanali otam sog‘mi, nega siz bilan kelmadi?

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Shukur, sog‘, ba’zi ishlar bilan bo‘lib kelolmadi,— bu javobni berish homono ko‘nglidan kechdi: «Nega yolg‘on gapirasan, Hasanali to‘y harakatlari bilan mashg‘ul emasmi...»

Otabekning kirib o‘lturganiga bir necha daqiqa fursat o‘tkan bo‘lsa ham hamon Kumush uydan chiqmadida, arazini qattig‘ ushlagancha o‘lturib oldi. Oftob oyim kuyavi yuzida ko‘rilgan o‘ychanliqni Kumushning uydan chiqmag‘anlig‘ig‘a yo‘yib qizini chaqirdi:

— Kumush! Qallig‘ing keldila-ya, chiqib so‘rashishni ham bilmaysan!

Oftob oyimning shu yo‘sun chaqirishi uch-to‘rt qaytalab bo‘lsa-da, Kumush eshitmaganga solinib arzimagan narsalar bilan shug‘ullang‘an bo‘lib chiqa bermadi. Otabekning yuzidagi o‘ychanliqqa razm qo‘yg‘an sayin Oftob oyimning haligi shubhasi ulg‘aya bordi, kuyavning ko‘zini shamg‘alat qilib qizining oldig‘a kirdi va shivirlab Kumushni urisha boshladi: «Esingni yedingmi qizim, ering sani deb Toshkand degan shahardan kelsayu, san kim keldi deb oldig‘a chiqmasang. Tur, chiqib so‘rash, arazlab ketib qolsa nima qilasan?» Oftob oyimning bu keyingi so‘zi chindan ham Kumushni o‘ylatib qo‘ydi: «...Ketib qolsa nima qilaman?» degan jumlani ko‘nglidan kechirdi-da, onasidan ilgariroq go‘yoki, ayvon toqchasidan bir narsa oladirg‘andek bo‘lib, o‘ziga termulib turg‘an Otabekka yer ostidan sekingina bir kulib boqdi va toqchadag‘i keraksiz bo‘lg‘an bir piyolani olib, yana uyga kirib ketdi.

O‘zbek oyimning sihirchi-joduchi deb qarg‘ashi ham hikmatsiz bir gap emas. Kumushbibining bu kulib qarashi Otabekka ajib bir inqilob yasag‘an edi. Undagi oniy bu o‘zgarish juda qiziq va sira ishonmasliq edi. Ul bu yer tegidan bir kulib boqish ta’siri bilan ustidagi tog‘dek bosib yotqan «orzu»ni ag‘darib solg‘an va qushdek yengil tortqan edi. Uning oniy bu o‘zgarishi shundan iborat edi: «Ularning orzu va rizoliqlari, bu rizoliq sharofati bilan topiladirg‘an savob, yurtning yuqori-quyi gaplari — barchasi ham Kumushning yolg‘iz shu birgina kulib qarashi oldidan o‘tabersin!»

Oniy bu o‘zgarishdan so‘ng taraddudsiz shu qarorni ko‘nglidan kechirdi: «Ularning orzularini bularga so‘zlamayman-da, Toshkandlariga ham bormayman».

Undagi bu o‘zgarish oniy bo‘lg‘anidek juda jiddiy

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
ham edi. Ko‘ngliga necha kunlardan beri uzala tushib yotqan bu chigil «bir kulib boqish» sihri bilan yeshilgan va Marg‘ilonda doimiy turg‘unliqqa deb tugilgan edi... Bu o‘zgarishdan keyin onadan tug‘ma bo‘lib yengil tortdi, go‘yoki mundan so‘ng o‘ziniki bo‘lg‘andek qilib ishonch va sokit[1] ko‘zlari bilan uyga qaradi. Shu vaqt uy ichidagi sitamgar pari o‘zining sihirlik ko‘zlari bilan Otabekka yana kulib qarab turar edi-da, go‘yoki shu kulish bilan o‘z sihrining qaysi darajalarda kuchlik bo‘lg‘anini so‘zlab faxrlanar edi.

* * *

O‘rtadan o‘n besh kunlar vaqt o‘tdi. Kumushning qaytalab so‘rashig‘a:

— Chindan-chindan: mundan so‘ng Toshkand bormayman, — degan javobni berar edi. Kumush bu gapka ajablanar, to‘g‘risi, shodlanar edi.

* * *

Marg‘ilon kelganning yigirmanchi kuni. Otabek hozirg‘ina qayoqqadir chiqib ketkan edi. Qutidor odatig‘a qarshi bozordan kunduz soat uchlarda qaytib keldida, Otabekni so‘radi, yo‘qlig‘ini bilgandan so‘ng xotinini mehmonxonag‘a boshlab chiqdi.

— Tinchlikmi? — deb so‘rag‘uchi Oftob oyimg‘a so‘yinch va yo quvonchlig‘i bilinmagan bir vaziyat bilan javob berdi:

— Tinchlik.

Mehmonxonada eru xotin yonma-yon o‘lturishdilar. Oftob oyim bu boshi-oyog‘i yo‘q ishdan yorilar darajasiga yetayozgan edi.

— Otabekdan hech bir so‘z eshitdingmi? — deb so‘radi qutidor.

— Qanday so‘z eshitay, har qachon so‘zlaydir, albatta men eshitaman.

— Toshkand to‘g‘risida hech gap aytmaydimi?

— Toshkandga bir gap bo‘lg‘anmi?

— Toshkandga hech gap bo‘lmag‘an, — deb kulimsiradi qutidor. — Manim muddaom boshqa to‘g‘rilarda. Qizingdan ham hech gap eshitmadingmi?

— Hech gap... Ha, aytkandek kecha, erining mundan

---

[1] S o k i t — tinch, osuda, xotirjam.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

keyin Toshkand bormaslig'ini so'zlag'andek bo'lg'an edi.

Qutidor bir ishka tushungandek ko'zini o'ynatib oldi va so'radi:

— Endi Toshkand bormas emishmi?

— Bilmadim; chinmi, chin emasmi, haytovur qizingizdan eshitkandek bo'lg'an edim. Nima, ota-onasi bilan urishib kelganmi?

— Yo'q, — dedi qutidor va cho'ntagidan bir narsani ola-ola aytdi, — men bu kun Toshkanddan qiziq bir xat oldim.

— Kimdan?

— Qudangdan, — dedi qutidor va xatni ocha-ocha,— shuni sanga o'qub bermakchiman, — dedi.

— Axir o'zi nima gap? — deb so'radi Oftob oyim.

— Eshitsang bilasan.

«Qudamiz Mirzakarim qutidorg'a va qudachamiz xonimg'a yetub ma'lum bo'lg'aykim, bizlar munda sog'-salomatdirmiz va ul jonibdagi[1] siz hurmatlik va izzatliklarni parvardigori olamdin sihhatlaringizni saloti xamsa[2] oldida so'rab turmoqdamiz. Ba'da maxfiy qolmag'aykim, kuyav o'g'lingiz xizmatlariga yuborilg'an edi. Inshoolloh, salomat yetkan bo'lsa kerak. Ammo siz hurmatlularga ma'lumdir, bizning shul Otabekdan o'zga farzandimiz bo'lmay, dunyoda o'zimizdan keyin qoldiraturg'an tuyoqimiz va ko'z tikkan orzu-havasimiz, umid hadafimiz[3] faqat shul Otabekdir. Muhtaram siz burodarimizning shul yagona o'g'limizni farzandlikka qabul qilib, ammo bizning kelin bolamizni Toshkandga yubormag'anlari bizning janoblaridin bo'lg'an minnatdorlig'imizni va yana o'g'limizg'a bo'lg'an marhamatlarini bir oz tugallay olmadilar. Ammo kaminalari bu xususdagi aybni sizning ustingizga butunlay yuklay olmaymiz, zeroki, bizning boshimizda bo'lg'an «yolg'iz tuyoqliq» savdosi sizning ham boshingizda bordir. Nachukkim, Otabekning ko'p umri Marg'ilonda o'tib, bizlarni ham siz o'ylag'an og'irliqqa solmoqdadir. Birodari aziz, siz manim bu so'zlarimdin xafa bo'la ko'rmangiz, zeroki, faqiringiz bu so'zlarni bir yo'sin kelish vajhidin yozib o'tdimiz. Dunyo orzu-havas uyi derlar. Yuqorida bayon qiling'anidek va o'zlari bilganlaridek, ayniqsa qudachalarining dunyoga kelib kutkani shu yolg'iz

[1] Jonib — tomon, taraf.
[2] Saloti xamsa — besh vaqt namoz.
[3] Hadaf — nishon.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

o'g'ulning orzu-havasidir. Janoblari bul ishka haq berurlarmi, yo'qmi, ammo azizlarning ruxsatlarini olmasdanoq Otabekni Toshkanddan ham taalluqdor qilmoqchi bo'lib, bul ma'niga ba'zi harakatlarini qilib qo'ygan erdik. Ammo bizlarning bul ra'yimizga o'g'lingiz qarshi tushib harchand rad qilsa ham nihoyatida onasining so'zini yerda qoldirmasliq uchun qabul qilg'an erdi. Ammo bul to'g'risidag'i siz janoblarining ruxsatlaringiz ba'dida javob bermakchi bo'lib, xizmatlariga ketkan erdi. Siz hurmatlular bul ma'nini savob toparsizlarmi-yo'qmi, bu jihati yana marhamatlaringizga bog'liqdir. Bu maktubni yozishdan qasdimiz[1] shulkim, Otabekning u ikkinchi taalluqqa aslo ra'yi bo'lmay va yana sizlarga aytmay bul tarafda bizlarni xijolat chekdirib qo'yarmi, deb o'yladiq. Burodari kiromi, siz dunyo ko'rgan bir kishisiz, onasining bu talabini xo'b mulohaza qilib ko'ringiz, bu to'g'ridag'i ra'yi o'g'lingizga qarag'anda ham faqirlaricha sizlarda bo'lg'ani vajhidin albatta ko'ndirishka sa'y va ko'shish[2] qilursiz, deb ishonamiz. Otabekning ikkinchi taalluqi to'g'risida kelin bolamizg'a bildirilmasa xo'b erdi. Bizlarning xursandchiliklarimiz yo'lida Otabek bilan birga Toshkand tushib, o'z qo'llari bilan to'yimizni o'tkazishingizga ishonib Yusufbek hoji va qudachalari. 17-nchi savr[3] oyida 1265-inchi hijriyada yozildi».

Qutidor xatni o'qub bitirdida, xotinig'a qaradi. Oftob oyimg'a bu xat muzlik suvga sho'ng'utib olish ta'sirini bergan va o'lturgan yerida sirra bo'lib qotib qolg'an edi. Otalar uchun bundog' gaplar unchalik yomon ta'sir bermasa-da, xotinlarg'a qanday asar qilishi bilgulukdir. Oftob oyim uchun go'yoki qizining birar aybi uchun bu ishka majbur bo'ling'andek, Kumush esa endi eriga suyumsiz, ishdan chiqg'an va burchakka tiqilg'an uvadadek bo'lib ko'rina boshlag'an edi. Maktubni eshitkan quloqlari yanglish eshitkandek bo'lar edi.

— Tag'in o'qub ko'ringiz-chi...

Qutidor xotinining so'zidan kuldi:

— Qaytarib o'qishning foydasi yo'q, xatning maqsadi san onglag'andek, — dedi.

Oftob oyim boshi yanchilg'an ilondek to'lg'andi:

— Qizim ustiga kundash?!

---

[1] Q a s d — maqsad, niyat.
[2] S a ' y va ko'shish — harakat qilmoq.
[3] S a v r — 22-aprel — 21-may.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Qutidor qafaska yangi soling'an qushdek urinmakka olg'an xotinini bosmoq bo'ldi:

— Ortiqcha urinma, ilgari haqiqatka tushun-chi...

— Haqiqati nimasi?

— Bunda gap bor.

— Nima gap bor?

— Agar bu ishda kuyavingning ham izi sezilganda edi, san emas man ham bu gapka chidamas va qizim ustiga tushkan bu og'ir masalani tinchlik bilan qarshi olmas edim. Ammo bunda kuyavingning ishtiroki ko'rilmay, shuning ila manim damim kesilib qoldi. Hali uning qizingg'a: «Mundan keyin Toshkand bormayman», deb aytkanini so'zlab eding-a?

— Yolg'onmi, chinmi, — dedi Oftob oyim tilar-tilamas, — eshitkandek bo'lg'an edim.

— Eshitkandek bo'lg'an bo'lsang ham bu so'z chindir, — dedi qutidor, — nega desang, xatining mazmunidan ham onglashiladirkim, bu ikkinchi uylanishka Otabek butunlay qarshi bo'lib, faqat bu gap qudalaringninggina ishlaridir. Shuning uchun kuyavingning uylanishini qizing ustiga chin ma'nosi bilan kundash deb bo'lmaydir.

Oftob oyim kutmagan joyda qutidor tamoman Otabekni ikkinchi uylantirish tarafida turib so'zlar va o'lganning ustiga chiqib tepar edi.

— Agar Otabek bu ikkinchi uylanishka rizo bo'lsa edi, birinchidan ruxsat olish uchun Marg'ilong'a kelib yurmas...

— Shoshmang-chi, — dedi Oftob oyim, — o'zingizcha nimani so'zlay yotibsiz?

— Bu ikkinchi uylanishda Otabekning rizosizligini.

— Kuyavingizning rizolig'i bo'lmasa xudo xayrini bersin, vassalom.

— Gap unda emas-da, — dedi kulib qutidor.

— Nimada? — dedi qizishib Oftob oyim. — Qizingiz ustiga kundash balosini o'z qo'lingiz bilan yuklamakchi bo'lasiz shekillik!

Qutidor sovuqina qilib kulib qo'ydi:

— Tushunmay yotibsan, xotin.

— Hamma gapka tushunib turibman.

— Tushungan bo'lsang bu xatka nima deb javob beramiz?

— Bizga ma'qul emas, deng.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Ma'qul emas, deyish bilan ish bitmaydir, birarta dalil ko'rsatish kerak.

— Toparsiz, axir dalilni.

Qutidor tamoman to'nni teskari kiyib olg'an xotinig'a qarab boshini qashib oldi:

— Xatda ikkinchi uylantirish uchun bo'lg'an sababni qizimizni Toshkand yubormag'anlig'imizda ko'rsatiladir, — dedi qutidor. — San aytkancha kuyaving Toshkanddan ikkinchi uylanmasin-da, Kumushni qudalaring oldig'a turg'un qilib yuborayliq, tuzikmi?

— Nega men yolg'iz qizimni Toshkandga yuboray, — dedi ko'zini olalandirib, — biz qizimizni berishda Marg'ilondan tashqarig'a olib ketmas va'dasi bilan berganmiz.

— Bu gaping to'g'ri-ya, — dedi qutidor, — men ham Kumushni Toshkand yubormoqqa qarshiman. Gap bu yerda: biz Otabekdan bu va'dani olg'an choqda, «Ota-onang'dan kechasan, ikkinchi uylanmaysan» degan va'dani ham olg'anmi edik?

— Bunday va'dani bergan bo'lsin-bo'lmasin, — dedi entikib, — suyub olg'andan so'ng ikkinchi uylanish so'zini ham og'zig'a olmasin.

— Kim aytdi sanga, og'zig'a oldi, deb?

— Hech kim aytmagan bo'lsa ham siz orag'a tushmang deyman, o'z oyog'ingizga o'zingiz bolta qo'ymang, deyman.

— Pichoqni o'zingga ur, og'rimasa boshqag'a, degan bir gap bor, — dedi jiddiy vaziyatda, — mendan ham san yaxshiroq tushunib turibsanki, agarda bizning rizoligimiz bo'lmas ekan, Otabek sira ham ikkinchi uylanmaydir. Masalan, biz ikav — qudalarning o'rnida bo'lib, yolg'iz o'g'limiz boshqa bir shaharda, biz tanimag'an bir qizg'a uylanib qolg'anda — o'ylab qara, chiday olurmi edik. O'g'limiz ko'nmaganda ham o'z shahrimizdan ikkinchi uylantirishka kirishmasmi edik. Bu tilagimizga qarshi tushib o'g'limizni o'z shahri va o'z uyida olib o'lturg'uchi qudalarimizg'a la'nat o'qub o'lim tilamasmi edik?

Bu so'z Oftob oyimni bir oz o'ylatib qo'ydi. Lekin hali ham oyoq uzatmag'an edi.

— Endi nima qilmoqchisiz?

— Nima qilar edim, — dedi qutidor, endi hamma ixtiyorni o'z qo'lig'a olib qo'yg'an edi, — Otabek

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
ko‘nmaganda ham ko‘ndirib, o‘zim birgalashib Toshkand tushaman...

— Qizingiz bechoraga...

— Qizimga hech gap yo‘q. Hali ham izzati, hurmati o‘z qo‘lida.

— Qurib ketsin shu dunyoning ishlari!

— Qizingni Toshkand jo‘natishka ko‘n bo‘lmasa.

Oftob oyim javob berish o‘rniga o‘krab-o‘krab yig‘ladi.

* * *

Qayin ota, qayin ona, kuyav... Bu uch burchaklik o‘lturmishdan Otabek ko‘nglida necha turluk shubha tug‘ilmoqda edi. Bu odatdan tashqari chaqiriq nega mehmonxonag‘a bo‘ldi? Nega Kumush bu o‘lturishka chaqirilmadi? Qayin onasi nega unga termulib boqadir? Qutidor tomonidan shu orada ul kutmagan bir savol ham tashlanib qo‘yildi.

— Otabek, uyalmay, tortinmay javob beringiz; bu gal Toshkanddan chiqishingizdagi asl maqsadingiz nimaga edi?

Otabek tarafidan kutilmagan bu savol uni shoshirdi va nima deb javob berishni bilmay qoldi.

— O‘zim... sizlarni ko‘rish uchun.

— To‘g‘risini so‘zlangiz, bek, — qutidor bu gapni yarim jiddiy qilib kulib aytdi. Chunki Otabekni shu yo‘sun ba’zi yoqlardan ta’min etmakchi va unga bu to‘g‘rida jasorat bermakchi edi.

— Aytdim-ku.

— To‘g‘ri aytmadingiz...

Otabek shoshqan holda edi:

— Toshkanddan chiqg‘animdagi maqsadni so‘zlash sizlarga bir behuzurlik berganidek o‘zimga ham og‘ir... U to‘g‘rida qat’iy bir qarorg‘a kelganim uchun sizlarga so‘zlab o‘lturish ham foydasiz, — dedi.

Oftob oyim eriga qarab oldi, qutidor yovoshqina bir tovush bilan so‘radi:

— So‘zlash og‘irmi?

— Mengagina emas, hammamizga ham og‘ir...

— Agarda biz rizoliq bersamiz-chi?

Erining bu jasoratiga qarshi Oftob oyimning yuziga rizosizliq belgusi chiqdi. Otabek ersa seskanib uyqudan uyg‘ong‘andek bo‘ldi va ikkilanib so‘radi:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Siz nimaga rizoliq berasiz?

— Bu gal Toshkanddan nima maqsadda chiqg'an bo'lsangiz — o'shanga.

Otabek xijolat bilan ter chiqardi:

— Toshkanddan nima maqsadda kelganimni bilasizmi?

— Bilamiz, — deb kuldi qutidor.

— Sizni bunday ishka rizoliq uchun kim va nima majbur etadir?

— Hech kim majbur qilmaydir, — dedi kulib qutidor, — majbur qilg'an narsa: shunday kunlar uchun o'g'ul o'sdirg'an ota-onaning rizoliqlarig'ina, balki sizni ham shu gap majbur qilar.

— Otam bilan onamning rizoliqlari uchun shundan boshqa sabab qurib qolg'anig'a nima deyishimni ham bilmayman. Garchi Toshkandda ekan chog'imda bu rizoliq yo'lig'a bel bog'lang'an bo'lsam ham, endi bu bel bog'lashni butunlay o'rinsiz bo'lg'anig'a tushundim...

Oftob oyim oz qoldiki, «to'g'ri!» deb qichqirsin. Ammo qutidor xotinig'a xo'mrayib qaradi.

— Qisqaroq o'ylaysiz, Otabek, — dedi, — otangiz bizga murojaat qilmag'anda edi, biz bu ishda betaraf qolsaq bo'lar edi. Hozirda biz ham sizning so'zingizga qo'shilsaq siz emas, yomon otliq biz bo'lamiz.

— Uning mulohazasini qilmang.

— Nega qilmayliq?

— Hamma aybni manim ustimga yuklab javob yozingiz.

Qutidor kuldi va so'radi:

— Toshkandda ekan chog'ingizda otangizning taklifini qabul qilg'an edingizmi?

— Qabul qilg'an edim.

— Bizning ruxsatimizni olg'ali Marg'ilong'a ham kelgan edingiz, shundog'mi?

— Shundog'...

— Barakalla, Marg'ilong'a kelib bu gapdan aynadingiz-a?

— Aynadim...

— Endi Toshkandga Marg'ilondan aynab borasiz?

— ...

— Mana ko'rdingizmi, faqat bu ishda bizgina yomon otliq bo'lamiz. O'zingizning shu xatongiz uchun ham bu gapni qabul qilmoqqa majbursiz.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Otabek nima deb aytishdan ojiz qoldi va o‘zining bolaliq harakatidan seskandi va xijolat orasida so‘radi:

— Otam sizga qachon xat yozg‘an edi?

— Kecha oldim. Demak, ko‘ndingiz?

— Men bu gapka durustlab o‘ylamasdan javob beralmayman.

— Qancha o‘ylasangiz ham javobingiz birgina bo‘lishi kerak; ya’ni rizoliq.

Qutidorning bu so‘zi juda ham qat’iy edi. Bu qat’iyatni onglag‘uchi ko‘ngildan chiqarayozg‘an bu masalani chinlab o‘ylamoqqa majbur edi. Nima bo‘lg‘anda ham ko‘nglining bir chekkasini kirlatib yotqan bu «ota-ona orzusi» bir tomondan qaralg‘anda juda yengil ko‘chkan edi. Ammo ikkinchi tomondan masalaning yeshilmagan o‘rinlari ham bor edi.

— Yaxshi, — dedi, — men sizning taklifingizga ko‘nayin, ammo ko‘nishning va rizoliqning zaruri qizingizda emasmi?

Shu choqqacha mungg‘ayib o‘lturgan Oftob oyim yalt etib eriga boqdi, yana cheksiz bir mehribonchiliq nazari bilan Otabekka qaradi.

— Siz qizimizning andishasini qilib o‘lturmangiz, bek, — dedi qutidor, — bu ishni eng yaxshisi unga bildirmaslikdir, keyinroq o‘zi ko‘nikib ketar, bu taraflardan tashvish lozim emas.

— Yo‘q, — dedi bek, — men bu ishka basharti ko‘nganimda ham qizingizdan yashirmayman.

— Nega?

— Negaki uning rizolig‘ini olmasdan turib, bu ishka oyog‘ qo‘yishim mumkin emas.

— Agar ko‘nmasa-chi?

— Ko‘nmasa, men ham ko‘nmaslikka majburman.

Bu uzil-kesil so‘zdan qutidor o‘ylab qoldi. Oftob oyim bo‘lsa, qizining qadrini bunchalik arshlargacha ko‘tarmakda bo‘lg‘an yigitka o‘zida cheksiz muhabbat, poyonsiz ehtirom sezmakda va nima uchundir yig‘lag‘usi va kuyavi yuzidan o‘pkusi kelmakda edi.

— Tuzik, — dedi qutidor, — uning rizolig‘ini o‘zingiz olmoqchimisiz?

— Yo‘q, negaki qizingiz uchun haqorat bo‘lg‘an bu so‘zni aytish manim qo‘limdan keladirgan ish emas, — dedi. Eru xotin bir-birlariga qarashib qo‘ydilar. Keyingi so‘zni aytib bitirgach, Otabekning ko‘ziga yosh kelgan

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
edi. O‘zining holidan uyaldi shekillik, ularning oldidan turib tashqarig‘a chiqdi. Ul chiqg‘andan so‘ng eru xotin yana yarim soatcha janjallashib o‘lturdilar.

* * *

Xuftan namozidan so‘ng yangilangan tashvishlarni bir oz unutdirar umidi ila poychirog‘ yonig‘a o‘lturib, Fuzuliy devonini varaqlar edi. Ammo Fuzuliyning rang-barang she’rlari ustida qanoatlanib to‘xtamas, hamon varaqlag‘andan-varaqlar edi. Shoirning nafis she’rlari hozir uning uchun tuzsiz so‘zlar yig‘indisidan boshqa bir narsa ham emas edilar. Ul shu vaqt to‘sindan kitobni yopdi-da, ayvong‘a quloq soldi. Chunki hozirgina so‘zlashib o‘lturgan Kumush bilan onasining tovushlari o‘chkan edi. Ul bu holdan shakllandi. Ayvondan ona-bolaning qayoqqadir yo‘qolg‘anlarini payqag‘ach, tusida o‘zgarish bo‘lg‘ani holda qaytib kelib o‘lturdi. Nima uchundir hozir unda birar foji’aga tushkuchining holati bor edi. Kishi iztirobka tushkan kezlarda tilab emas, ixtiyorsiz ba’zi bir yo‘sunsiz ishlarga urinadir. Shuningdek, ul ham jiddiy bir ravishda Fuzuliy muto-laasiga berildi.

Ul o‘zining shubhasidagi gapka qoni’[1], oradan yarim soatlab emas, bir soatlab vaqt o‘tib borg‘an bo‘lsa ham bu unga zerikarlik emas, tez kelgandan kelmagani yaxshi; yaxshiliqmi, yomonliqmi haytovur bo‘ladirg‘an ko‘ngilsiz gapni kechikkani yaxshi... Fuzuliyni yaxshilab o‘qush kerak. Shuning uchun ham ma’nolik she’rlardan boshini ko‘tarmaydir-da, go‘yoki aytarsiz kitobka mixlangan...

Kumushning uyga kelib kirgani ham unga sezilmay qoldi. Ul qushlar kabi latif tovush chiqarmasliq qilib gilam ustidan yurib keldi-da, sekingina sham’ yonig‘a — Otabek qarshisig‘a o‘lturdi. Uning ko‘ynagining chiqarg‘an yengilgina shamoli bilan yonib turg‘an sham’ «lop» etdi-da, ko‘rishkandek, o‘ynashqandek bo‘ldi. Bu holdan kitob ustiga mukkadan ketib o‘lturg‘uchi cho‘chib ko‘tarilib qaradi. Qarshisida: Fuzuliy ta’biricha sebi zanaxdoni[2] negadir qizarib, novaki mijgoni ko‘z yoshlari bilan juftlangan haligi pari edi... Birinchi qarashdayoq kutkan ishining to‘g‘rilig‘ig‘a inondi va

[1] Q o n i ’ — qanoat qilgan.
[2] S e b i z a n a x d o n — bag‘baqa.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

osiylar[1] kabi ko'zini yerga tikdi. Ul Kumushdan itobomiz so'zlar, achchig' xitoblar kutar; birinchi itobdayoq ota-ona gunohiga tavba qilishg'a hozirlanar edi. Ammo ish ul kutkuncha chiqmadi. Kutilmagan joyda, go'yoki uni bu og'ir holdan qutqarmoqchi bo'lg'andek:

— Fuzuliy yaxshi kitob, — dedi Kumush, — men ham yolg'iz qolg'an kezlarimda bu kitobdan boshimni ololmas edim, sizammi?

Bu oliyjanob go'zalga nima deyishni bilmas, qayerdan so'z boshlashqa hayron edi:

— Kim yig'latdi sizni?

— Yig'labmanmi?

— Ko'zingiz, kiprakingiz...

— O'zi shunaqa...

— Yig'latg'an men emasmi?

— Kitobni nega yopdingiz? Ochib o'qung, men eshitay.

— Ota-ona rizolig'ini bir tomchi ko'z yoshingizga arzitdimmi?

— Men rozi, men ko'ndim, — dedi daf'atan Kumush, bu so'zni nimadandir qo'rqg'andek shoshib aytdi.

— Ko'ndingiz... nega, a?

Otabek hayrat va taajjub ichida edi.

— Negaki, — dedi Kumush, — men sizga ishonaman...

— Shuning uchun...

— Shuning uchun ko'ndim...

— Ko'nglingiz farishtalar ko'nglidek.

— Sizning ham ko'nglingiz...

Ikki jon, ikki yurak go'yoki bittadek bir-birisini onglar, birisidan-birisiga o'tib yurar edi shu vaqt.

— Bo'lmasa nega yig'ladingiz?

Bu savoldan Kumush bir muncha o'ngg'aysizlanib, uyat aralash bir tabassum bilan:

— O'zim... — dedi va keyinidan o'zining hamma tilak va shartlari ma'nosini jam'i bo'lg'an, — menim unutmaysizmi? — degan so'rog'ini berdi. Ul nima deb aytishka so'z topolmay qoldi. Chunki yurak sirini ifoda qilarliq jumla topish mumkin emas edi. Javob berish o'rniga o'zicha so'zlandi:

---

[1] O s i y — gunohkor.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

«Ota-ona orzusi...»

— Bilaman, — dedi ovutquchi tovush bilan Kumush.

— Manim orzumni ham bilasizmi?

Kumush Otabek yaqinig'a surildi va tirsaklari bilan uning tizzasiga yonboshlab erkalandi...

* * *

Qutidor tarafidan ertaga Toshkand jo'nash e'loni berildi. Ikkisining hamma vaqtlari sham' yonida so'zlashib kechdi...

3. QOVOQ DEVONANING BELBOG'I

Och qoring'a salimsoq yeb, ko'kchoy ichishdan zerikkan kishilar choyxonaga Qovoq devonaning kirishi bilan unga so'z qota qoldilar:

— Keling-keling, devona!

— Bir kosa choylaring bormi, xo'vari?

— Bor-bor, avliya, bitta bachcha bo'lsangiz idishi bilan sizniki.

Qovoq devona deganimiz o'rta yosh, siyrak soqol, qotma, kun issig'lig'ig'a qarshi o'chakishkandek boshig'a eski telpak, egniga paxtasidan boshqasi to'zib ketkan guppi chopon kiyib, yangi bo'z belboqni besh-olti aylandirib bog'lag'an va unga besh-oltita chilim qovoqdan tortib to suvqovoq, nosqovoq va tomosha qovoqlarg'acha osqan; qovoqlarning og'irlig'idan arang harakat qiladirg'an o'z zamonasining mashhur bir devonasi edi. Bu devona Toshkandning barchasiga ma'lum; beklardan, boylardan; qisqasi, shaharning katta-kichigidan o'ziga ixlosmandlar ortdirg'an va ko'blarning tarafidan qilg'an karomatlari rivoyat etilgan bir majnun edi. Shahardagi har kim uning oshnasi, karomati bilan beparvo bo'lg'anlar ham uning qiziq harakatlariga va tutal so'zlariga qiziqar edi. Bu choyxonadagilar ham shu keyingi sinfdan edilar.

Birarta ixlosmand qo'lidan boplab tomoq yegan bo'lsa kerak, hozir o'shaning chanqovini bosmoq fikrida edi.

— Bachchang kim, bachchang? Onam meni bachchalik uchun tug'mag'an... Choyingdan ber, choyingdan!

— Onangiz sizni nima uchun tuqqan?

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Xonning qo‘yini boqish uchun, qovoqlarni belga taqish uchun; choyingdan berchi, xo‘vari!

Devonaga bir piyola choyni ichishka ham tinchlik bermadilar. Ulardan bittasi ko‘zni shamg‘alat qildida, belidagi qovoqdan bittasini yulib ham qochdi. Ish yomonga aylandi. Quvlab tutolmadi. So‘ngra kelib yana bir kosa choyni ichdi va unga-bunga qovog‘i to‘g‘risida iltimos qilib qaradi. Bo‘lmag‘ach, qovog‘ini qo‘msab ho‘ngir-ho‘ngir yig‘lamoqqa oldi. Ermakchilarning kutkani ham faqat uning yoshi mishig‘ig‘a, mishig‘i tupugiga qo‘shilib yig‘lashi edi.

Qovoqni yulib qochqan tomdan kelib sufaning ustidagi so‘riga qovoqni osdi va o‘zi tushib devonaning yonig‘a keldi:

— Qovoq o‘g‘risini ushladingizmi, devona?

— Yo‘q, uka! Qovog‘imdek shishib o‘lsin, qochqancha ketdi!

Birav Eski Jo‘vada ko‘rganligini va qovoqqa minib ketayotqanini so‘zladi. Ikkinchisi «zap qovoq edi-da» degan edi, uchinchisi «attanga» deb qo‘ydi. Devonaning o‘pkasi shishib ketdi. Ermakchilar uning yuragiga galmagal o‘t yoqar edilar.

— Qovog‘ingizning o‘zi bu iqlimda yo‘q narsa edida,— dedi birav. Devona qovog‘ining tarjumai holini so‘zlab berdi:

— Dadam musallas qovoq, oyim mosh qovoq, men bel qovoq... — dedi. Kulishdilar. Ermakchilardan bittasi yuqorida osilg‘an qovoqni ko‘rsatib ajablandi:

— Iyi-iyi, anuv kimning qovog‘i-ya?

Devona suyukli qovog‘ini so‘rida ko‘rib quvona ketdi:

— Voy xo‘varingni... jinnilar, voy esi yo‘q xo‘varilar! Qovog‘imni ber jinnilar!

— Tuzik-tuzik, avliya. Qovog‘ingizni tushirib bersam nima berasiz?

— So‘rag‘aningni ol, jinni... Oyim qishlog‘ig‘a bek bo‘l, tentak: tilla jabduqliq ot min, jinni...

— Men Oyim qishlog‘ining bekligi uhdasidan chiqolmayman. Qovoqlaringizning kasbini aytib bersangiz bo‘ladi manga. Devona bu shartka ko‘ndi, qovoq tushirilib, devonaning qo‘lig‘a eson-omon tegdi. Mahbuba ortiqcha bir ehtiyot va e’tibor bilan belga — boshqa yo‘ldoshlari yonig‘a tugildi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Qani, endi bo'lsin, devona!

Qovoq devona belidagi qovoqlardan bitta egri maymog'ini ko'rsatib: — Manov Musulmon cho'loq, — dedi, uning yonidag'i kichkina tomosha qovoqni turtib: bunov, Xudoybachcha (Xudoyorbachcha), — dedi, suv qovog'ini erkalab «Nor kalla» (Normuhammad qushbegi), — dedi. Qolg'an ikkita silliq qovoqchalarni «nosqovoq, yupqa tomoq», deb qo'ydi. Ermakchilar kulishdilar. Bu qovoq o'g'rilari ichidan tezroq qochib qutilish uchun ketishka intilgan edi, biravi ushlab qoldi.

— To'xtang hali, gap bor! — devona so'kinib to'xtadi.— Manavi belingizdagi belboqni qayerdan o'g'irlab oldingiz?

— Qo'y, juvonmarg bo'g'ur!

— O'tkan kuni o'g'irlatqan belbog'ing shu emasmi, Karimqul? — deb yonidag'ig'a qaradi ermakchi.

— Ha, ha, xudda o'g'irlatqan belbog'im, tutdik o'g'rini!

Qovoq devona xudda belbog'idan ajrayturg'andek ikki qo'li bilan beliga yopishdi.

— Saniki bu emas, tentak!

— Yo'q, xudda maniki shu, yesh, bo'lmasa mirshab chaqiraman.

— Xo'varingni... nima deydi, bu!

— To'g'ri ayt, buni qayerdan o'g'irlading?!

Devona belbog'ining tuguniga aztahidil yopishqani holda:

— O'g'irlamadim, tentak, hoji pochchangni to'yidan oldim, jinni! — dedi.

— Hoji pochchang kim? Yolg'on so'zlama, o'g'ri!

— Hoji pochchangni tanimaysanmi, tentak?

— Toshkandda hoji pochchadan ko'pi bormi, o'g'ri?

— Esing ketibdi, jinni... Yusufbe hojing-chi. Axir; to'y bo'ldi, bazm bo'ldi, o'g'ul uylandi... qo'y, juvonmarg, bo'g'ur!

Devona ermakchilar qo'lidan arang qutilib chiqdi. Ammo ularning ichidagi ko'zini bog'lag'an bir kishi nima uchundir devonaning orqasidan ergashdi. Choyxonadan anchagina uzoqlashqan edilar.

— Devona! — deb chaqirdi haligi ergashuvchi.

Devona o'ziga qarab kelguchi bu ko'z og'rig'ini tanidi. Suyukli qovoqlar ustiga kelgan balo bo'lmasin uchun, ketar ekan, qovoqlarini ehtiyotlab ushladi:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Nima deysan, ko‘z og‘rig‘i?

— Qo‘rqmangiz, devona! — dedi ko‘z og‘rig‘i va adimlarini tezlatdi.

— Nima ishing bor?

— To‘xtang.

Devona arang to‘xtadi. Ko‘z og‘rig‘i uni cho‘chitmas uchun naridan turib yonchig‘ini kavliy berdi.

— Sizga nazrim bor.

Bu so‘zni eshitib, devona yo‘lg‘a tushdi. Ko‘z og‘rig‘i uning ketidan yugirdi va:

— Mang! — deb pul ko‘rsatdi. Devona iltifotsiz ketabergan edi: — To‘xta deyman! — deb do‘q urdi. Devona narida to‘xtadi:

— Kelma, kelma, ko‘z og‘rig‘i!

Ko‘z og‘rig‘i o‘n adimcha narida turdi:

— Hali, kim o‘g‘lini uylantirdi, deding?..

— Kim uylantirdi, deding?

— Aytding-ku choyxonada!..

— Aytding-ku choyxonada...

— Belboqni qayerdan olding?

— Buving berdi.

— To‘g‘ri ayt!

— To‘yga keldingmi?

— To‘yga keldim...

— Yusufbenikigami?

— Yusufbenikiga.

— Belbog‘ing yo‘qmi?

— Yo‘q.

— To‘y o‘tkanda kelibsan.

— Yusufbe qaysi o‘g‘lini uylantirdi?

— Nechta o‘g‘li bor?

— Nechta o‘g‘li bor!

— Bitta... Qorategindan keldingmi, opang omanmi?

— Omon... qachon uylantirdi?

— O‘zing uylanganmisan?.. Qorategindan necha kunda kelding?

— Besh kunda. Qachon uylantirdi?

— Eshakka minibmi, yayov?

— Eshakka minib.

— Nashang bormi?

— Bor.

— Qitta ber-chi.

— Beraman, oldin ayt; qachon uylantirdi?

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— To‘y o‘tkanda kelibsan, tentak... Manga-chi, bir tog‘ora osh tegdi.

— Bozordan osh olib bersam yeysanmi?

— Yuzingga qachon chechak chiqdi?

Ko‘z og‘rig‘i bu tutal so‘zlardan asabiylashib ketdi:

— Qachon uylantirdi deyman?

— To‘y o‘tkanda kelibsan dedim-ku... Bir hafta bo‘ldi, o‘n kun bo‘ldi, bir oy bo‘ldi. Ha, ha, charlari endi bo‘lar emish... charlarga bor. Qorategin.

— Toshkanddan uylantirdimi?

— Xi, xi, xi, ahmoq. Toshkanddan bo‘lmay, Qorategindan uylantirsinmi?

Shundan keyin ko‘z og‘rig‘i choyxonaga qaytdi...

4. JODUGAR HINDI

Qayin otasining og‘rig‘an kasalidan tuzala olmay va yo tezroq o‘lib tiriklarni qutultirmay «charlar» balosi bilan o‘zini ipsiz bog‘lang‘ani uchun so‘ng chekda siqilg‘an, shunga ko‘ra onasig‘a achitib so‘zlamakda edi:

— O‘ylab-boqing onajon! Bir bechora sizning orzuingizni deb, qizi ustiga kundash yukladi va birgalashib to‘yingizni o‘tquzishdi. Ish kuchidan qolib, o‘n kunlab Toshkandda yurdi. Nima bo‘lg‘anda ham biravning yaxshilig‘ini bilish kerak edi.

O‘zbek oyim o‘zining bir haftalik so‘zini takrorlar edi:

— Endi nima qil deysan bolam, o‘tquzmay ketishing uyat.

— Uyat deysiz-da, uyatka o‘zingiz tushunmaysiz.

O‘zbek oyim o‘g‘lining ters so‘zidan qizishdi.

— Juda hovliqa berma, o‘g‘lim. Charlar ham o‘tar, andining yuzini ham ko‘rarsan!..

— Onajon, — dedi Otabek, — sizning zaharlik so‘zlaringizga nima deyishka ham hayronman... Billoki, maning hovliqishim siz aytkancha bo‘lsa... xotinimnig‘ina emas, uning ota-onalarini andishasida shoshaman. Ularning ko‘ngillariga gap kelmasin degan mulohazada hovliqaman. Men sizning orzungizga butunlay qarshi tushib, Toshkandingizni tilga olmasliqqacha borg‘animda o‘sha bechoralar sizning rioyangiz bilan meni bu yerga sudrag‘andek qilib olib

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

keldilar... Uyatni bilsangiz, eng ozi shuning andishasi kerak emasmi?

— Bo'lmasa charlarni kutmagin-da, yugira qol, — dedi O'zbek oyim, — marg'ilonliqning o'kchangdan[1] urg'anlig'i aniq ekan.

Otabek kamoli bo'g'ilg'anidan sukut qilishg'a majbur bo'ldi, chunki bu orzu havas onasi yarani har zamon kattaroq ocha borishg'a juda ham usta va bu ustaliq uning barcha kutkanlarining kundan-kunga bo'shka chiqa borg'anlig'idan edi. Ayniqsa unga hozir butun ma'nosi bilan sir onglashilib, marg'ilonliqning jodusini juda ham kuchlik ekaniga imon keltirdi. O'g'lining orzu-havasini ko'rdi — ko'rish bo'lsa — orzulag'andan ortiq. Biroq bu orzu-havas orqasidan kutilgan marg'ilonliq balosidan o'g'lini qutqarish masalasi uning tilagicha bo'lib chiqmadi-da, yana marg'ilonliqning sihri o'tkirlik qildi... Nikoh kuni Otabekning kiyimlarini juhud domladan o'qutishlar, marg'ilonliqdan sovitib toshkandlikka isitishlar — barchasi ham hozir o'z ajzlarini[2] unga iqror qilar edilar. Keyingi «beshbosh» domlaning bergan tutatqi, ezib ichki, duo va tumorlari ham negadir ta'sir asarini sezdirmadilar...

O'zbek oyim marg'ilonliqning domlasini kuchlik ekanida shubha qilmasa ham, ammo bir ishka juda hayron edi: juhudning qilg'an jodusini — juhud, musulmon domlanikini — musulmon daf' qila olur edi; nega bular asar qilmaydi sira? — Hozir O'zbek oyim buning sirrini o'ylab topolmas edi. Bu boshi berk ko'chada ul uzoq qamalib qolmadi — buning sirrini daf'atan topdi, ham juda to'g'ri topdi: «Marg'ilonliqning domlasi juhud ham emas, musulmon ham emas — hindi! Hindilarning ham hannosi[3]: bas, hannosining sihrini na musulmon domlasi qaytarsinu, na juhud. O'shal hindining o'zi qaytarmasa, o'zga iloj yo'q!»

Nima qilmoq kerak? Toshkandda birarta hindi domlasi yo'qki, ilojini qilib bersa... Endi xotin boshi bilan marg'ilong'a murojaat qilsunmi?

Boshqa tushkanni ko'z ko'rar, degan so'z bor. O'zbek oyim ham boshig'a tushkan bu kulfatni ko'rishka majbur edi: «Shu galdan qoldirmay Otabekning

---

[1] O' k ch a — xayol, o'y fikr.
[2] A j z — ojiz, kuchsiz.
[3] H a n n o s — xudodan ham qo'rqmaydigan, qasamdan qaytkan, makkora.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
yonig'a Hasanalini qo'shib Marg'ilong'a yuboraman, Hasanali u yerdagi hindi domlag'a uchrashib, Otabek ustidagi sihr-jodularni yeshdirsin... Hindi har qancha olsa ham mayli, bisotdan u-buni sotib pul qilib beraman».

Otabek onasining qarshisida boyag'i sukutka ketkanicha jim o'lturar edi. O'zbek oyim haligi kashfiyotdan qutilib bu to'g'rida so'ngg'i qarorini ham berib bo'lg'ach, Otabekka dedi:

— O'g'lim... yangi uylangan oting bor. Manim oldimda o'lturib nima qilasan? Bechora yolg'iz o'lturibdir.

Otabek onasig'a bir qarab oldi-da, javob bermadi.

— Bor, bolam, bor. Yaxshi emas bu ishing... — O'zbek oyim so'zini bo'lib daricha yonig'a kelib to'xtag'an Oybodoqqa qaradi.

— Sutchoy tayyor bo'ldi, suzib kiraymi?

— Ikki kosani kelinlik uyga ber, men bilan Hasanalinikini shu yerga keltir.

Oybodoq keta boshlag'an edi, Otabek uni to'xtatdi:

— Manikini ham shu yerga olib kir, — dedi. Oybodoq O'zbek oyimg'a qaradi. O'zbek oyim o'g'lig'a xo'mraydi. Otabek xo'mrayishg'a iltifot qilmay, Oybodoqqa «shundoq qil» ishorasini berdi.

— Bo'lmasa kelinnikini ham shu yerga berib, o'zini chaqir. Hasanali uyida ichsin, — dedi O'zbek oyim. Oybodoq ketkach, o'g'lidan so'radi: — bu nima qiliq, bolam?

— Qiliq emas.

— Kelin bilan birga ichsang nima bo'lar edi? Biravning bolasini munchalik xorlash yaxshi emas.

— Bundan xorlag'anliq chiqmaydir. O'zini shu yerga chaqirdingiz — ish bitdi.

O'zbek oyim tag'in nimadir aytmakchi edi, Oybodoq dasturxon ko'tarib kirib qoldi.

— Kelinga aytdingmi?

— Aytdim.

Dasturxon yozilib, tushlik choy keldi. O'zbek oyim kosasiga non tashlab ko'zi eshikda, ya'ni kelinni kutar edi. Kelin eshikdan ko'ringach, o'g'lig'a «qarshi ol» degandek qilib qarab qo'ydi. O'n yetti yoshlar chamaliq, kulchalik yuzlik, oppoqqina, o'rtacha husnlik Zaynab qayin onasining tilak va sha'niga loyiq tavozi' — odoblar

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

bilan bitta-bitta bosib dasturxon yonig'a keldi. Qayin ona tomonidan «o'lturing» ruxsati berilganidan so'ng, qisilib-qimtinib tovush chiqarmayg'ina o'lturdi. O'zbek oyimning ko'zi o'g'lida. O'g'li bo'lsa choyga non ho'llab yemoqda edi. Bir-ikki qayta xo'mrayib-xo'mrayib o'g'lig'a qaradi-da, uning ko'zini uchrashdira olmag'andan keyin, unga so'z qotishg'a majbur bo'ldi:

— Charlaring ham bo'la qolmadiki, qayin otangni borib ko'rsang. Yoki charlarsiz ham ko'ra qolasanmi?[1]

Zaynab ko'zini eriga tikib qoldi. Otabek salqing'ina onasig'a javob berdi:

— Ko'rsam bo'ladir... — dedi va kulimsiragansumon Zaynabka qaradi. Zaynab ham kulgan bo'ldi. Shu kichkinagina kulimsirash O'zbek oyimni ancha tinchitdi. Ammo musohaba shuning bilan to'xtalib, orag'a yana boyag'i jimjitlik kirdi. O'g'lining miridan sirini ajratib o'lturg'uchi ona yana olazarak og'rig'ig'a yo'liqdi. Zaynabning ko'zi tez-tez Otabekka tushar, u bo'lsa xo'r-xo'r choyni ichar edi. Bu holdan O'zbek oyim ich-etini yeb, yutkan luqmasining mazasini ham bilmas, qisqasi o'lturish so'zsiz, go'yo tuzsiz va ma'nosiz edi. Bu ma'nosizlik tadbirini ko'rish yana O'zbek oyim ustida:

— Kelin poshshog'a tilla uzuk buyurdingmi?

— Buyurdim. Erta-indin bitib qolar. — Otabek so'zni cho'zmoqqa yo'l qo'ymadi. Ammo onasi gapdan gap chiqarib, so'zga so'z ulamoqchi edi:

— Tilla chochpopugingiz bor edimi?

Zaynab eriga qaradi va iymanibgina javob berdi:

— Yo'q.

— Yo'q bo'lsa olib beraman, — dedi Otabek. O'zbek oyim anchagina jonlanib oldi. Tag'in undan-mundan so'z urintirmoqchi bo'lg'an edi, uncha muvaffaqiyatlik chiqmay boshladi. Sutchoydan so'ng qumg'onda choy keldi. Zaynab birinchi piyolaga quyib o'rnidan turdi va qayin onasig'a ikki qo'llab uzatdi, ikkinchi piyolani to'ldirib o'rnidan turmoqchi bo'lg'an edi, uni Otabek to'xtatdi.

— Mundan keyin choy berishda o'rningizdan turib o'lturmang, — dedi. — O'lturgan yeringizdan bersangiz ham bo'ladir.

---

[1] Toshkand odaticha «charlar» bo'lmasdan turib, kuyav qayin ota, qayin onaga ko'rinmaydir *(mual.)*.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Lekin bu gap qayin onag'a yoqmadi, e'tiroz qildi:

— Nega undog' deysan, bola. O'rindan turib choy berish odamzodning ziynatidir, kelinlarning bor-yo'g'i kelinligi ham shunda-ku!

— Sizning uchun ham o'lturib choy bersin, demayman; ammo bu takallufning menga keragi yo'q, — dedi va qo'lidag'i choyni tez-tez ichib bo'shatdi. Fotiha o'qub o'rnidan turar ekan: — Albatta, sizga o'rnidan turib choy berishi lozim... — dedi va chiqdi. Bu gapni Zaynab chinga hisoblag'ani uchun boshqa narsa payqamag'an, ammo O'zbek oyim bo'zarib qolib darav esiga hindining jodusi kelib tushkan edi.

Shu o'lturishdan bir soatcha keyin O'zbek oyim uyni xolilatib Hasanalini o'z oldig'a chaqirtirib kirdi. Hasanali bu chaqirtiriqdan bir narsa ham sezmagan, chunki, xo'jabekasining ichki sirriga uncha oshno emas; charlar maslahatidir, deb o'ylamoqda edi. O'zbek oyim uyning eshigini beklab keldi-da, Hasanalining yaqinrog'ig'a o'lturdi va yarim tovush bilan muddaoni ocha boshladi.

— Endi ish Toshkand domlalari bilan bitaturg'anga o'xshamaydi... O'ylab qarasam, Marg'ilonliqning domlasi hindi ekan. Shuning uchun noiloj sani oldimg'a chaqirtirdim. San ham odamsumon gapimga tushunib, bu to'g'rida aqling yetkancha zehningni yugirtirgin... O'zingga ma'lumki, kundan-kunga marg'ilonliqni unutish o'rniga har soat unga esi boradir. Bu hollarning barchasi o'sha hindining jodusidan bo'lib, muakkillar[1] Otabekning bo'ynidan sirtmoq solib Marg'ilong'a tortadirlar...

Hasanali xo'jabekasining ko'bdan beri domlaxo'ja bilan sargardon bo'lib yurishini bilsa-da, ammo uning «hindi, sirtmoq solib tortish» kabi so'zlariga tushunmadi. Bekasining fe'li xo'yini yaxshi bilgani uchun, ya'ni uning qarg'ashidan qo'rqib tushunmaganligini bildirmadi-da, «qani gapning tegi qaerg'a borar ekan», deb jim, quloq solg'an bo'lib o'ltura bedi. Ammo O'zbek oyim so'zini haligi yerda to'xtatib: «San shunga nima kengash berasan?» degan savolni berdi.

— Men nima der edim... Siz nimani ma'qul ko'rsangiz shuda, — dedi. Hasanalining tushunmaslik orqasida

---

[1] M u a k k i l — farishta.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
bergan bu javobi O‘zbek oyimg‘a nihoyatda yotishib keldi:

— Barakalla, Hasan. Ana shuning ilojini o‘zing qilasan.

— Yaxshi...

— Erta-indin charlar bo‘lib o‘tsa, albatta Otabek Marg‘ilong‘a yugiradir. Shu vaqtda san ham bir narsani bahona qilib birga Marg‘ilon borasan-da, qaerdan bo‘lsa ham o‘sha hindini topasan va nazrini berib yaxshilab qaytartiriq qildirasan...

— Kimni?

— Kimni bo‘lar edi, Otabekni-da.

— Nega?

— Tushunmadingmi?

— Tushunish bo‘lsa — tushundim... Shunchaki aniqlab olmoqchiman-da.

— Marg‘ilonliq-ku Otabekni hindi domladan o‘ziga bog‘latib qo‘yibdir. Ana shuni san ham payqab yurgandirsan-ku?

— Payqamag‘an bo‘lsam ham ammo maqsadingizga endi tushundim, — dedi kulib Hasanali. — Niyatingiz Otabekni marg‘ilonliq kelindan sovitish.

— Barakalla, — dedi O‘zbek oyim, — sovitishgina emas, uning changalidan Otabekni uzil-kesil qutqarish.

Hasanali hayron bo‘ldi. Chunki xo‘jabekasining marg‘ilonliqqa munchalik adovati bor deb o‘ylamas edi.

— Nega endi?

— O‘g‘limni marg‘ilonliqlarning qo‘lig‘a berib qo‘ymayman-da, axir. Burun Toshkandda xotini bo‘lmag‘an bo‘lsa — endi bor, mundan keyin andi kelinga bizning muhtojligimiz yo‘q...

— Xayr, endi nima qilmoqchisiz?

— Nima qilishim kundan ham ravshan, — dedi O‘zbek oyim va tamom qanoat va ishonch bilan boyag‘i maqsadni takrorladi: — o‘zingga aytkanimdek, Marg‘ilondag‘i hindi domlaning o‘zidan bir martaba qaytariq qildirsaq marg‘ilonliqning sir-jodulari botil[1] bo‘lib, Otabek o‘z-o‘zidan andini taloq qilib yuboradir...

— Siz marg‘ilonliq hindi domlaning o‘g‘lingizga qilgan jodusini qaerdan bildingiz?

O‘zbek oyim bu savol bilan o‘zining kashfidan bir oz shubhalandi-da, ishonchsizroq qilib:

[1] B o t i l b o ‘ l m o q — buzilmoq, bo‘shashmoq.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— O‘zim bildim, — dedi.

— O‘zingiz qayoqdan bilasiz, axir birav aytkandir sizga?

— O‘z aqlim bilan topdim.

Hasanali o‘zini tutolmay kulib yubordi:

— Lekin shunga qolg‘anda aqlingiz bir oz yanglishibdir...

— Nega?

— Negaki ikki o‘rtada sihirchi hindi ham yo‘q, sihir qildirg‘uchi marg‘ilonliq ham, Otabek ham sihirlangan emas.

— Nega bo‘lmasa Otabek hadeb uylansa ham Marg‘ilonga oshiqaberadir?

— Buning sababini hali ham bilmaysizmi?

— Bilaman, sihir-jodu quvvati.

— Joduni kim qildiradir?

— Qayin otasi, qayin onasi, qolabersa xotini.

— Yanglishasiz, oyi.

— Nega yanglishaman?

— Sihir-jodu qilishdan ularning maqsadi nima, deb bilasiz?

— Kalvak o‘g‘limning aqlini o‘g‘irlab, pulini yemakchilar.

— Pulini yemakchilar? — deb kuldi Hasanali. — Marg‘ilonlik qudalaringizning davlati oldida biznikini yo‘q, desa bo‘ladir. Undan keyin men yaxshi bilamanki, ular Otabekka uch pullik ham ro‘zg‘or qildirmaydirlar. Buni o‘zim yaxshi bilganimdek o‘g‘lingizning o‘zidan ham «ularning ro‘zg‘or qildirmag‘anlaridan juda siqilaman» degan so‘zini necha qayta eshitdim. Shuni ham yaxshi bilmoq kerakkim, o‘sha jodugor qudalaringiz yomon kishilar bo‘lg‘anlarida Otabekni Toshkanddan uylantirish siz o‘ylag‘ancha qulay ish bo‘lmas edi. O‘g‘lingizning Marg‘ilon borg‘andan so‘ng va’dasidan aynaganini albatta hojidan eshitkan bo‘lsangiz kerak...

O‘zbek oyim yengilayozgan bo‘lsa ham, ayniqsa Hasanalidan til qisib qolg‘usi kelmas edi. Go‘yoki shuncha o‘tkan gaplarga qiymat bermagandek:

— Men buning sirrini endi xo‘b bilib oldim, — deb qo‘ydi.

Hasanali kuldi.

— Bilsangiz ham yanglish onglabsiz, chunki buning sirri siz o‘ylag‘ancha emas.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Qandog‘?

— O‘g‘lingizning har zamon Marg‘ilong‘a oshiq-mog‘i... ayniqsa bu gal qayin ota, qayin onalaridan andisha qilibdir. Undan keyin...

— Undan keyin?

— Undan keyin katta keliningiz o‘g‘lingizning ko‘z ochib ko‘rgani.

— Ko‘z ochib ko‘rgani? — dedi O‘zbek oyim va istehzolanib kuldi. — Zaynab o‘sha marg‘ilonliqcha bo‘lmapti, degin?

— Men qayog‘dan bilay... Ehtimol o‘g‘lingizcha shundaydir...

— O‘zing ularning ikkisini ham ko‘rgansan, indallo[1] so‘zla: ulardan qaysi birisining husni ortiq?

Hasanali bu savol qarshisida nima deb aytishka bilmay qoldi...

— Muhabbat degan narsa husnga qaramaydir.

— Qaraydirmi, yo‘qmi, sandan uni so‘rayotqanim yo‘q. Qaysi birisi ko‘hlikrak deb so‘rayman?

Hasanali qiynaldi va gapni boshqag‘a chalg‘itish uchun:

— Endi maslahat nima bo‘ldi? — deb so‘radi.

— Oldin so‘zimga javob ber-chi, yer yutkur!

— Savolingiz qiziq, nima deb javob berishga hayronman... To‘g‘risini aytaymi?

— To‘g‘risini!

— To‘g‘risini indallo so‘zlasam, — dedi va qiynalib to‘xtadi, — har bir gulning isi o‘z yo‘lig‘a.

— To‘g‘risini deyman!

— Anuv keliningizning o‘lsa o‘ligi ortiq...

— Gapirma-gapirma, — dedi O‘zbek oyim, — boshda shu marg‘ilonliq balosiga o‘zing sababchi bo‘lg‘anmisan, hali ham o‘shaning tomonini olib so‘zlaysan! Sandek soqoli uzun, aqli qisqadan kengash so‘rab o‘lturg‘an men ham ahmoq!

Hasanalining chalg‘itishi va hayron bo‘lishi O‘zbek oyimning tabi’atini yaxshi bilgani uchun edi. Ul o‘z xohishiga teskari kelgan haqiqatni ko‘rmaydirgan qiziq bir tabi’atka molik edi.

— O‘zingiz to‘g‘risini so‘zlatib, tag‘in nega mendan xafa bo‘lasiz, oyi, — deb muqobala qila boshlag‘an edi, O‘zbek oyim yana gurullab ketdi:

---

[1] I n d a l l o — xudo haqqi, rost.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Bo‘ldi-bo‘ldi... tuzingni ichib, tuzlig‘ingga tupurganni xudoy ko‘tarsin, — dedi.

Hasanali xo‘jabekasining qarg‘ish va koyishi ostida kula-kula uydan chiqdi.

Bu musohaba ko‘rinishda O‘zbek oyimg‘a uncha o‘zgarish bermagandek sezilsa ham, lekin ruhan uni ancha bo‘shashdirg‘an edi.

* * *

Shu gapdan bir hafta chamasi keyin va charlar kutishning o‘n beshinchi kunlari edi. Otabek mehmonxonada toqchadag‘i kitoblar orasidan qandaydir bir kitobni axtarar ekan, Hasanali uning yonig‘a kirdi.

— Panjshanba kun charlar emish, xabarini berib ketdi.

Otabek kitoblardan birini sug‘urib oldi va varaqlar ekan, «charlari ham qursin», deb qo‘ydi. Ko‘nglidan kechirdi: — «Bu kun dushanba bo‘lsa, tag‘in orada to‘rt kun bor».

— Mana bu xat ham sizga emish, — dedi-da, Hasanali unga bir maktub uzatdi, — boya birav berib ketkan edi, — dedi va shoshib-pishib qazo bo‘layozg‘an asr namozini o‘qush uchun joynamoz yozdi. Otabek maktubning unvoniga ko‘z tashladi: «Toshkandda... mahallasida turg‘uchi Otabek Yusufbek hoji o‘g‘lig‘a tegsin». Kim tomondan yozilg‘anligi unga ma’lum bo‘lib, qo‘lidag‘i kitobni toqchag‘a qo‘ydi va shoshapisha xatni ochdi.

Katta qog‘ozda tussizroq siyoh bilan yozilg‘an uzun bir xat. Uning ko‘zi yozuv ustida suzdi. Suzgan sayin negadir uning tusida ulug‘ bir o‘zgarish, vujudida bir titroq voqi’ edi. Bu xat unga so‘yinch berar edimi, dahshatmi o‘zidan boshqag‘a majhul edi. Shu majhul o‘zgarishlarning so‘ng chekiga borib yetkandan keyin xatdan ko‘zini oldi va ixtiyorlikmi, ixtiyorsizmi, haytovur bor tovshicha «qo‘rqutmoqchi!» deb yubordi. Bu so‘z bilan Hasanali ham nari-beri namozini bitirdida, joynamozdan burilib qaradi:

— Nima gap?

— Hech gap yo‘q, — dedi Otabek va esankirash vaziyatida unga qaradi:

— Qo‘rtqutmoqchi, dedingiz-ku, xat kimdan?

— Xatmi? — dedi va shuning ila bir oz esini o‘ziga

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
yig‘ib olg‘andek bo‘ldi, — xat keliningizdan... Qo‘r-qutmoqchi bo‘lib ba’zi bir kinoyalarni yozibdir...

Bu gapni aytkandan so‘ng xatni buklay berdi. Hasanali fotiha o‘qub Otabek yonig‘a keldi.

— Kinoyalar yozishi kechikkaningiz uchundir, — dedi. Otabek tasdiq ishorasini bergandek bosh silkib qo‘ydi.

— Ayniqsa shu gal kechikishingiz bechora kelinga og‘ir tushib kinoyalar yozishg‘a majbur bo‘lg‘an, — dedi Hasanali: — Anig‘i ham bechoraga juda og‘ir, «kundash — xotin zotining o‘lumi» deganlar. Endi, nima bo‘lg‘anda ham orangizda oz qoldi, charlarni o‘tkaza jo‘naysiz-da. Otabek javob bermadi, chunki Hasanalining keyingi so‘zidan rizo bo‘lmag‘an edi.

Hasanali uni tinchitish uchun: — Agar ko‘nglingiz tinchimasa, — dedi kulib, — siz ham kinoyalik bir xat yozib beringiz. Xat keltirguchi ertaga xabar olib o‘tishini bildirgan edi.

Otabek bu so‘zdan bir oz jonlang‘andek bo‘ldi. Chunki uning ko‘ngliga bu kinoyalik maktubni jo‘rttaga yozilg‘an bo‘lg‘anlig‘i kelib tushgan edi.

— Bu gap to‘g‘rimi? — deb so‘radi.

— To‘g‘ri. Ertaga erta bilan kelib, xat bo‘lsa olib ketmakchi edi.

— Yaxshi, — deb kulimsiradi Otabek, — ertalab kelsa xat beraman.

Hasanali mehmonxonadan chiqg‘ach, o‘zini to‘xtatib olg‘ani holda ikkinchi qayta xatni ko‘zdan kechirdi:

«Vafosizga. Men o‘zimning bu maktubimni ko‘z yoshlarim bilan yozaman. Negaki hozirda manim yolg‘iz ko‘z yoshlarimgina emas, butun borlig‘im siyohdir. Men endi og‘izlardag‘i «vafo» so‘ziga ishonmayman. Chunki men o‘zimning vafosiga ishong‘anim bir yigitdan ulug‘ vafosizlik ko‘rdim. Uyatimdan ko‘zlarimni ocholmayman. Negaki yeru ko‘klar, tog‘u toshlar va dunyodagi barcha narsalar manim aldang‘anim uchun kulib masxara qilg‘andek qaraydirlar... Bu kunimdan, bu hasratimdan qutilish uchun o‘zimga ajal chaqiraman. Lekin ajal ham men sho‘rlikdan nafratlangandek, go‘yo ul ham menga vafosizlik qiladir.

Begim, garchi achchig‘lansangiz ham aytishka majburman: sizda vijdon, insof, rahm, va’da, vafo, yaxshiliqni bilish, boring-chi, odamgarchilikdan hech gap yo‘q emish.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Bil'aks siz: hiylakor bir tulki, og'zi qon bir bo'ri, rahmsiz bir jallod, uyatsiz bir yigit!

Sizni hiylakor dedim: esingizda bormi, sodda otamni, go'l onamni qandog'lar qilib aldadingiz? Yodingizda bormi, sham' yonida meni aldab aytkan so'zlaringiz, bergan va'dalaringiz, «manim orzum» deb qilg'an xitoblaringiz, to'kkan ko'z yoshlaringiz?.. Bas, bu hiylalar, bu makrlar sizdan boshqa kimda topilsin?

Sizni og'zi qon bir bo'ri dedim: chunki sizda rahm yo'q. Siz o'zingizning zaharlik tishlaringiz bilan mazlumlar ko'ksini, bayovlar bag'rini chok etasiz; yangi ochilg'an gullarni, endi bosh tortqan lolalarni vaqtsiz so'ldirasiz, ochilib bitmay o'ldirasiz!

Sizni uyatsiz dedim: ilgarigi vahshatingiz bilan o'zingizning haqqingiz bitkanligini bilaturib ham yana uyalmay-qizarmay vijdonsizlar amrini berasiz va uyatsizlig'ingizni yana bir qat ortdirasiz!

Men sizning ba'zi bir da'volaringizga hayron qolaman: otam Toshkandda ekan chog'da bu gapni aytishka uyalg'an emishsiz... Go'yo buning ila nomuslik bo'lib ko'rinmakchisiz shekillik?!

Onam ba'zi vaqtlarda:

Yangi yor topqanda do'stlar, eskidan kechmoq kerak,
Eskini o'lgan sanab, latta kafan bichmoq kerak

baytini o'qub qo'yar, men bo'lsam ul vaqtlarda buning ma'nosiga tushunmas edim. Ammo... endi bu baytni kimga aytilganiga va uning ma'nolariga xo'b tushunmakdaman. Tashlandiqliqning so'ng o'tinchi qilib sizdan shuni so'rayman: uchunchi yor topqanda ikkinchi bechoraga ham shunday uyatsizlik qilinmasa edi. Bu tilagim uchun ajablanmangiz, chunki, «pichoqni o'zingga ur, og'rimasa o'zgaga sol», deydirlar.

Sizga yangi yor, menga uyatsizlikning qurboni bo'lish muborak. Kumush emas, Tuproqbibi yozdim. 17-javzo, 1265-inchi yil Marg'ilon».

5. XIYONAT

Qutidorning Toshkanddan yolg'iz qaytib kelishi Kumushni ancha entikdirgan edi. Ammo Otabekka voqi' bo'lg'an uzr masalasi bir qadar uni tinchitdi. Ishonar-

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

ishonmas shubha va vasvasalardan bir oz aridi: «Ul meni unutmagan, va'dalari chin, so'zlari to'g'ri... Ul ham meni suyar ekan...» deb burung'i odati bilan gohi erining yo'lig'a chiqib kutmakka ham boshladi.

Otasining kelishining sakkizinchi kuni edi. Ul bu kechasi ko'rgan ba'zi bir tushlarini uning bu kun kelishiga yo'ydi-da, ertalabdan turib sochlarini yeshdi. Sochlari orasidag'i chigillarini diqqat bilan tarab, jom yonig'a o'lturdi. Uning nafis qora sochlari orqa-o'ngiga to'zg'ib ajib bir manzara berdilar. Sochini qatiqlab va sovunlab yuvgach, onasidan ikkita qilib o'rdirdi. Oftob oyimning: «Nega qirq kokil qilmaysan?» deb so'rashig'a: «Qizingiz endi qizlik davridan o'tib, kelinlik davriga kirdi. Qizingizning mundan so'ng kuyavingizdan boshqa sovchilari ham yo'q», deb kuldi. Ammo bu ikki o'rim soch qirq kokiliga qarag'anda juda ham o'ziga kelishib tushib, unga yana bir qayta ulug'vorliq va oliyliq bag'ishladilar. Sochini o'rdirg'andan keyin uyiga kirdi-da, kiyimlar taxlangan toqcha yonig'a to'xtadi. Ravoqliq toqchada uning o'n besh chamaliq asl ko'ynaklari uyulgan edi. Sariq rupoh atlasini kiyishka chog'lab ko'rgan bo'lsada, biroq ko'ynakni olg'an yerida bu fikridan qaytdi. Qizilni... ko'kni... olma gullini... qisqasi qaysi birisini kiyishka taraddudlandi. Ko'ynaklar ichida o'ziga yarashmaydirg'ani yo'q: oq olma uchun bargi ham, guli ham bir... Uning o'ziga sariq atlas xush kelsada, biroq hozir o'z xohishini bir yoqqa qo'yaturib Otabek ko'nglicha kiyinishka qaror berdi. Chunki Otabek ko'pincha qora ko'ynak kiyishka qistar edi. Sovsar guli qora atlas ko'ynagini kiyib, boshig'a zangor shohi ro'ymolini soldi va marvarid ko'zlik kichkina oltun halqani qutidan olib qulog'ig'a taqdi. Shu soddagina yasanishdan so'ng, ikkinchi toqchada tirog'liq turg'an ko'zgi yonig'a bordi. Ko'zgi ichidan to'zg'ib, chuvalib ko'ringan soch tolalarini to'g'rilab o'zini kuzatdi. Ko'zgi ichidan ko'ringan malak o'z egasini ham kayflandirib sekingina iljayib qo'ygan edi, narigi yoqdag'i fitnai davron ham sadafdek oq tishlarini yoqut kabi irinlari orasidan ko'rsatkandek bo'ldi. Bu husnga otaliq vazifasini o'tag'andek ko'ringan latif burni yonidag'i qora xolini tabiiylig'ig'a ishonmag'andek qashib ko'rdi va ko'zgi yonidan jo'nadi. Jo'nar ekan, «...chiroylik bo'lsa ham menikidek xoli yo'qdir», deb ko'nglidan kechirdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kechki olov vaqtida tashqari hovlisida u-buga ovora bo‘lib yurar edi. Bu kungi ko‘rgan tushi uni ortiq ishontirgan, shuning uchun To‘ybekaning tashqari hovlida qiladirg‘an yumishini ham o‘zi bajarmoqda, To‘ybekadan suv sepdirib o‘zi yer supurar ekan, quloqlari yo‘lak tomondan eshitiladirgan oyoq tovushlarida edi.

Havlidagi ikir-chikir ishlarni tamomlag‘ach, ayvonning oldig‘a o‘lturib tuzatindi, tuzatinar ekan yo‘lakdan yurib kelmakda bo‘lg‘an bir oyoq tovshini eshitib yuragi nima uchundir oshiqinib-shopirinib ketdi. Oyoq tovshi ichkariga yaqinlag‘an sayin ul o‘zida titroq aralash bir hol sezar edi. Nihoyat, yo‘lakdagi oyoq tovshi tugalib, Kumush kutmagan joyda paranjilik bir xotin kelib chiqdi. Kumush uzoq bir entikib qo‘ydi.

Xotin Kumushka qarab kelar edi. Ul yerdan bichib olg‘andek pak-pakana, burni yuzi bilan barobar deyarlik tep-tekis, ko‘zi qoqqan qoziq o‘rnidek chup-chuqur, og‘zi qulog‘i bilan qoshiq solishar darajada juda katta, yuzi qirq yillik og‘riqlarnikidek sap-sariq, qirq besh yoshlar chamasida bir xotin edi. Kumushbibi o‘ziga tomon kelguchi bu dahshatlik xotinni umrida birinchi martaba ko‘rar edi. «Nima qilib yuribti bu och arvoh!» deb o‘yladi. Xotin o‘n adimlab uzoqdan yuziga sovuq va tushda qo‘rqarliq bir kulgi tusi berdi. Dimog‘i bilan «qix» etib qo‘ydi.

— Xi-xi-xi, aylanay sizdan, poshsha qiz! Mirzakarimboyning havlilari shumi? — deb so‘radi. Kumush «shu» javobini bergandan so‘ng o‘zi bilan ko‘rishmakchi bo‘lg‘an bu xotin oldig‘a ikki adim yurib tilar-tilamas yelkasini tutdi. Uning to‘g‘ri mavzun[1] qomatiga yerdan bichib oling‘an mudhish xotinning qo‘llari zo‘rg‘a yetdi-da, «esonmisiz, poshsha qiz» deb so‘rashdi. Xotin paranjasi bilan ayvonning oldig‘a o‘lturib olg‘ach, «uff» deb chayqaldi va «ancha yo‘l ekan, tinkalarim qurib ketdi-ya?» deb shikoyatlandi.

— Mirzakarimboyning havlilari aniq shumi?

— Shu.

— Siz kimlari bo‘lasiz boyning?

— Men, qizlari.

— Qix... sizga bersam ham bo‘lar ekan, — dedi xotin

[1] M a v z u n — benuqson, xushbichim.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

va yonchig'idan bir xat chiqardi. — O'g'lim Toshkand bilan Marg'ilon orasida qatnab oliq-sotiq qiladir. Bu gal Toshkanddan qaytishida birav unga shu xatni berib, Mirzakarimboyning havlilariga tez yetkuzib berasiz, deb iltimos qilibdir. Qix, xi-xi, aylanay sizdan poshsha qiz, qix... Maxtang'uliq bo'lmasin, o'g'lim ham o'zimga o'xshash biravning xizmati yo'lida o'lib qutiladir: bu kun tush vaqtida Toshkanddan keldi-da, onasi bilan so'rashishni ham bilmay shu xatni qo'limg'a tutqizdi. «Jon ona, o'zim yo'lda juda urinib keldim, sanga adabsizlik bo'lsa ham darrav Mirzakarimboynikini so'rog'lab shuni eltib ber, berguvchi tez berasiz deb o'tingan edi», dedi. Men ham ko'ngilchangman, aylanay poshsha qiz, kasaldan yaqinda turganim uchun bir qadam bosishg'a toqatim bo'lmasa ham savobdan quruq qolmayin, deb surgala-surgala havlingizni so'rog'lay-so'rog'lay topqunimcha o'lib bo'ldim... qix... — dedi. Kumush xatni xotinning qo'lidan olib rahmat aytdi va xatning unvoniga[1] ko'z tashladi: «Marg'ilon shahrida sokin[2] Mirzakarim qutidor havlisig'a».

— Yanglishmabsiz, oyi.

— Nega yanglishay aylanay sizdan, poshsha qiz. Ulug' dargohlaringizni ko'chadagi har kim bilar ekan, — dedi xotin va yaltoqlanib o'rnidan turdi. — Endi men ketaqolay, bolag'inam yo'ldan och kelib, bir qoshiq issiqqa zoriqib o'lturgandir.

— Ichkariga kiring, choy qaynatayliq.

— Rahmat, poshsha qiz. Anchon icharmiz choy bo'lsa... qix. Bir ko'rgan bilish, ikki ko'rgan tanish, deydirlar...

Kumushbibi xotinni ortiqcha qistab o'lturmadida, yo'lakkacha kuzatib bordi. Xotin yo'lakka burilar ekan qayrilib to'xtadi:

— Bu dunyoda shunaqa hojat chiqarishlardan topqanmiz, agar Toshkandgami, Qo'qong'ami otangizning xat-patlari bo'lsa o'g'lim bajonudil olib ketadi. Shu o'rtalarg'a kelib qolsam xabar olib o'taymi? — deb so'radi. Kumushning «yo'q» deyishka og'zi bormay «maylingiz, og'ir kelmasa» deb javob berdi. Xotin yo'lakka burildi. Kumush ayvon tomong'a qaytar ekan

---

[1] U n v o n — adres.
[2] S o k i n — turuvchi, yashovchi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

oshiqib xatni ochti. Xat kichikroq qog‘ozda o‘lchavlik so‘zlardan iborat edi.

«Kumushbibi binti[1] Mirzakarimboyga — zavji[2] toshkandlik Otabek Yusufbek hoji o‘g‘lidan. Otangiz Toshkandda ekan vaqtida men bu ishni ochmoqqa og‘irsing‘an, to‘g‘risi uyalg‘an edim. Ma’lumingiz Toshkanddan uylanganimdan so‘ng yolg‘iz boshimg‘a ham Toshkanddan, ham Marg‘ilondan ikki xotin ushlab turish og‘irliq qila boshladi. Shuning uchun bu ikki xotinning birisidan kechishka to‘g‘ri kelib, nihoyat turmishim uchun yengil va orzumga muvofiq bo‘lg‘an bir narsaga qaror berdim. Ul ham toshkandlik xotinim bilangina qolib, sizni taloq qilish edi. Maktubni olg‘an kuningizdan boshlab o‘zingizni mendan begona va nikohimdan tashqari hisoblasangiz bo‘ladir. Manim bu taloq xatimni albatta shariat peshvolari shar’iy hisoblab iddangiz[3] bitish bilan sizga boshqa er qilmoqqa ixtiyor bersalar kerak. Otabek Yusufbek hoji o‘g‘li.

13-inchi javzo[4], 1265-inchi yil, Toshkand».

...Ul bu maktubni o‘zining so‘ng tomchi kuchi bilan o‘qub tamom qildi-da, jonso‘z[5] bir tovush ila «uyatsiz!» deb qichqirdi va yerga yiqilib o‘zidan ketdi... Yiqilishda qo‘lidan chiqg‘an qog‘oz parchasi shamol bilan uchib borib boshi yonig‘a tushdi. Yo‘lak panasidan mudhish bashara chiqib bir-ikki qayta unga kulib qarag‘ach, yo‘qoldi...

Bozordan qaytqan qutidor yerda hushsiz yotqan qizi ustiga dahshat ichida yugurib keldi. Chakkasini zax yerga berib yiqilg‘an va kesak kabi hissiz qizini jon holatda quchog‘ig‘a oldi. «Qizim... Kumush... ko‘zingni och!» Ammo Kumushdan javob yo‘q edi. Dahshati yuz daraja ortqan holda Kumushni ko‘tarib olib ichkariga yurdi. Uyda Oftob oyim bilan To‘ybeka qiychuv qo‘pordilar. Ayvong‘a yotqizg‘an bo‘lsalar ham Kumushni o‘ziga keltirish chorasini bilmay, to‘g‘risi nima chora ko‘rishni eslari topmas edi. Barakat bersinki, esi yarim bo‘lsa ham To‘ybeka umrida birinchi ish qildi: sovuq suv keltirib Kumushning manglay va ko‘ksiga sepkan edi, seskanib

---

[1] B i n t — qiz.

[2] Z a v j — kuyov.

[3] I d d a — erdan ajragan yoki eri o‘lgan xotinga homiladorligi aniqlanguncha shariat bo‘yicha erga tegish man qilingan yuz kunlik muddat.

[4] J a v z o — 22-may — 21-iyun.

[5] J o n s o‘ z — jon o‘rtovchi, azob beruvchi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
o‘ziga keldi. Hushdan ajralayozg‘an bechoralar bu holdan so‘ng bir oz jonlang‘andek bo‘ldilar. Kumushni sovuq ter bosib bir necha vaqt jim yotdi, shundan keyin ohistag‘ina o‘nglanib yotib olg‘ach, ko‘zini ochdi.

— Nima bo‘ldi qizim, ko‘zingga bir narsa ko‘rindimi?

Kumush ko‘zini yumdi-da, entikib qo‘ydi. Javob bermadi. Bu savol otasi tomonidan ham berilgandan so‘ng:

— Meni tashqaridan kim olib keldi? — deb so‘radi.

— Men, qizim!

— Yonimda hech narsa ko‘rmadingizmi?

Qutidor bu savoldan boshqa gap tushundi:

— Yo‘q, qizim, sen o‘zing yolg‘iz yotar eding.

— Shundoq yo... — dedi. So‘zining so‘ngg‘ini aytalmadi.

— Gapur, gapur, qizim.

— Yonimda bir xat bor edi... meni bu holg‘a qo‘yg‘uchi shu xatdir, — dedi, bu so‘zni nihoyatda kuchlanib aytdi.

Vaqt xuftanga yaqinlashg‘an edi. Qizining haligi javobi bilan sabrsizlikka tushkan qutidor qo‘lig‘a sham’ olib tashqarig‘a chiqdi va yerdan xatni oldi. Qizini bunchalik falokatka solg‘an xatni olg‘an yeridan qo‘zg‘almayoq o‘qub chiqdi. Xat haqiqatan jonso‘z edi. Qutidorning ham oz qoldikim, hushi boshidan uchsin... So‘ng chekda xo‘rlang‘an va favqulodda chayqalg‘an yuragi bilan ixtiyorsiz «makkor, insofsiz!» dedi. Ko‘z o‘nglari qorong‘ulanib bir necha vaqt serraygancha qoldi. Yana «yaxshiliqni bilmagan haromzoda» deb qo‘ydi. Boya bu xatdan xabarsiz edi. Endi qizining oldig‘a kirib, uning betiga qarash unga juda ham og‘irlashqan, chunki bu foji’aning bosh omili deb o‘zini tanig‘an edi. Borib ayvonning oldig‘a o‘lturdi va boshini qo‘llari orasig‘a oldi. Bu xo‘rlik, bu odatdan tashqari uyatsizlik bechora qutidorni juda ezgan; nima qilmoqg‘a, xo‘rlang‘an, tahqir etilgan qizini ne yo‘sunda yupatishka, bu qora kunlarni qandog‘ qilib o‘tkazishka bilmas edi. Shu holda ne vaqtg‘achadir qoldi. Erining kechikishidan xavfka tushib, Oftob oyim uning yonig‘a chiqqanda ham ul boyag‘i holda edi.

Eru xotin qizlarining yonig‘a kirdilar-da, uning oyoq tomonig‘a o‘tib sekin-sekin o‘lturishdilar. Anchagina

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

bir-bilariga qarashib qolg'ach, Oftob oyim olg'an taassurotini ichiga yutaberishka chidalmadi-da, yog'murdek ko'z yoshini to'ka berdi. Qutidor ham xotinini kutib turgandek ko'z yoshlari bilan soqolini yuvmakka oldi. Ko'zi yumuq bo'lsa ham ularning hozirgi hollarini sezib yotg'an Kumushningda qaynab chiqg'an ko'z yoshlari ikki chakkasidan yostiqg'a oqib tusha boshladi. Shu choqda na uchundir toqchada yonib turg'an sham' ham lip-lip qildi-da, o'chdi... Shuning ila bu havlini chin ma'nosi bilan qorong'uliq bosdi.

* * *

Bu voqi'aning uchunchi kuni Kumushbibi yillab yotg'uchi og'riqlardek sarg'ayib ozg'an, endigina g'unchadan chiqayozgan bu yosiman gulni xoin qo'llarning zahri so'litkan, fasod o'chog'ining uyatsiz mufsidlari[1] husn bog'ining bu yangi erkasini ishong'an va ko'z tikkan jihati ismidan tahqir qildirib umidsiz bir vujud yoki jonsiz bir haykal holig'a qo'yg'an edilar. Uning ko'zlarida doimiy bir ma'yusiyat, arimas bir huzn,[2] har onda bir entikib chayqalish edi. Oftob oyim ham so'ng chekda xo'rlang'an esa-da, lekin unga bu xo'rliqdan burun u-bu bilan qizini ovitish, uning ko'nglini ochib bu sovuq, uyat gapni unutdirish, har holda ko'zining oqu qorasi bo'lg'an Kumushni birar kasalga chalinmaslig'i yo'lida tirishish muhimroq edi. Va ikki gapning birida «Ortiq o'ylama, qizim... Esingdan chiqar, endi xafa bo'lg'aning bilan sira foydasi yo'q», der edi. Kumush bo'lsa hushsizlarcha onasining og'zig'a ag'rayar va har qachon ma'yus edi. Kumushning bu holi bechora onaning yuragini uzar, yuz xil vasvasalarga solar edi.

— Kumush, — dedi Oftob oyim tushlik choydan keyin, — qaytag'a tog'angnikiga borib kelmaymizmi?

— Nima qilamiz tog'amnikida?

— Nima qilar edik. O'ynab kulamiz, qayg'ularingni ko'chaga tashlaymiz.

Kumush onasining so'ziga nima uchundir kuldi va «mayli» dedi.

— Tur bo'lmasa, yuz-qo'lingni yuvib otlan, xudo o'lim bersin uyatsiz eringga.

---

[1] M u f s i d — fasod qiluvchi, buzuqi.
[2] H u z n — hazin, mung.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kumush muloyimg'ina qilib onasig'a qarab oldi. O'rnidan turib To'ybeka hozirlab bergan obdasta yonig'a yuvinish uchun o'lturdi.

Ular tamoman yo'lg'a hozirlang'an edilar, yo'lak tomondan o'tkan kun xat keltirgan xotin ko'rindi. Kumushning ko'ziga bu xotin ofat kabi ko'rinsa ham, ammo ikkinchi tarafdan ul so'yindi. Onasini kelguchi xotin bilan tanishdirib, kim bo'lg'anlig'ini so'zladi.

— Xi-xi, aylanay boyvuchchalardan... Shundog' qizimnikiga o'tkan edim, qix... alva'ddayn[1], deb yo'l ustidan burilib kirdim... deb puchuq xotin so'zlanib kelar edi. Ona-bola qo'lg'a olg'an paranjini yerga qo'yishg'a majbur bo'ldilar. Xotin Kumush bilan ko'rishkach, aching'ansumon so'radi: — Ha, aylanay, poshsha qiz, sizga nima bo'ldi, juda o'zingizni oldirib qo'yibsiz?

Puchuqqa joy ko'rsatib, Oftob oyim javob berdi:

— Bir-ikki kundan beri tobi yo'q.

— Xudoy saqlasin, xudoy saqlasin, — dedi xotin, — qix... bevaqt kelib sizlarni yo'ldan to'xtatdimmi... xayr, xudo singlimni yomon ko'zdan asrasin, — deb fotiha o'qudi.

— Xush kelibsiz, — dedi Oftob oyim...

— Xushvaqt bo'linglar, aylanay, qix... — dedi xotin va Kumushka qarab davom etdi, — anuv kungi so'zingiz bilan yo'ldan qayrilib kirgan edim. Ertaga o'g'lim Toshkand jo'namoqchi, otangizning xat-patlari bo'lsa... qix.

Kumush javob berish o'rniga onasig'a qaradi. Qizining qarashidag'i ma'noga tushungan Oftob oyim «yuboraturg'an xatimiz yo'qdir», deb javob bedi. Bu so'z bilan puchuq xotin g'ilt etib Kumushka qarab qo'ydi. Kumush onasini unga xabarsiz ko'rsatib javob berdi:

— Otamning xatlari yo'q, meniki bor, ozg'ina kutishka vaqtingiz bo'lsa, yozib berar edim.

Puchuqning kelishidan maqsadi faqat shu yozib beriladirgan xatgina edi. Kumushning o'tinchi unga moy kabi yoqib tushdi:

— Yozib bering aylanay, poshsha qiz, boraturg'an joyimdan kechiksam-da, savobi bor-ku, qix... — dedi. Kumush xotindan minnatdor bo'lib uyiga xat yozish uchun kirdi.

---

[1] A l v a'd d a y n — va'dasiz bo'lmayin.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

* * *

Yuqorida Otabek tomonidan oling'an maktubning haqiqati mana shu yo'sun xiyonatning natijasi edikim, biz endi xiyonat qahramonlari bilan o'qug'uchini tanishdiramiz.

6. ISITMA ORASIDA

Saratonning ikkinchi kuni... Marg'ilonning shimolida bo'lg'an B... mahallasining kunchiqar tomonida janubga qarab burulg'an tor ko'chaning yuqorig'i burchagida otining tizginini ushlagani holda bir yigit kiyimiga o'lturgan chang-to'zonlarini qoqar edi. Yigitning uzoqqina yo'ldan kelganligi, uning kiprak va qoshlarig'a, ham endigina chiqa boshlag'an soqol-murtlariga o'lturg'an to'zonlardan bilgulik edi. Yigirma ikki yoshlar chamasida bo'lg'an bu yigit sariq tanlik, ukkining ko'zidek chaqchayib, o'ynab va yonib turg'an qizil ko'zlik, yuziga parchinlangandek yuza (puchuq) burunlik, manglayi qancha tashqarig'a o'sib chiqg'an bo'lsa, yuzi o'shancha ichkariga ketkan, qisqasi vaqtsizroq yaratilib qolg'an bir maxluq edi. Burchakda yerdan ikki yarim gazlar yuksalikda kunbotishg'a qaratib qurilg'an ikkita ko'rimsiz bir betlik eshiklar yuzlariga yopiq holda edilar.

Ma'lum yigit boshidag'i qalpog'ini qo'lig'a oldida, haligi eshiklarning o'ng tomonidag'isini ochib, oti bilan ichkariga yurdi. Eshik ortiqcha tor bo'lg'ani uchun ot siqilibkina o'tdi-da, endi uzung'ina usti ochiq yo'lak boshlandi. Yo'lakdan so'ng havli edi. Havlining sharq va janub tomonlari buzilib-yorilib yotqan eski xaroba imoratlar bo'lib, havli yuzi turlik axlatlar bilan bulg'anch, go'yo yillardan beri tozalanmag'an, supurgi ko'rmagandek edi. Havlining o'rta yerida pakanagina baliq tut o'sib, ostig'a kul va boshqa axlatlar to'plang'an edi. Havlining kunbotar tomonida xarobaliqdan ozg'ina berida bo'lg'an, boyag'i yo'lakka tiraltirib soling'an ikki darichalik bir uy, bu uy qatorida bir ayvon bo'lib, shuning ila bu havlining tikkaygan binosining hisobi tamom edi. Bu xonadonning oshxonasi bo'lmag'ani uchun bo'lsa kerak haligi ayvonning bir burchagiga o'choq qurulg'an. Tutunlar bilan ayvon deganimiz qob-qora is, go'yo ayvon bo'lg'anig'a ond ichmakda. Buning ustiga

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

o‘choq boshidag‘i tovoq-qoshiqlar, tog‘ora va qozonlar tartibsiz ravishda iflos yotarlar, qozon tevaragida uymalashmakda bo‘lg‘an uch-to‘rtta tovuqlar mundagi iflosliknі yana bir qat oshirmoqda edilar. Ayvonning narigi yonidag‘i daricha orqaliq uyga kirilur edi. Uyning yarmisi quruq yer — qora shibdan iborat bo‘lsada, ammo to‘rida chaqich bog‘lab yiltiramakda bo‘lg‘an — kir, yulduz kabi ilma-teshuk jafokash oq kiyiz, ham taxmondag‘i eski sandiq ustiga yig‘ib qo‘yulg‘an bir to‘da paxtasi chiqg‘an uvadalar ko‘rpa-yostiq otini o‘z ustilariga olur edilar. Bitta toqchadag‘i cheti uchkan, qoni qochqan uch to‘rtta piyola va bir qora qumg‘onni, ikkinchi toqchadag‘i umrida yuvinib ko‘rmagan qora mis barkashni, bo‘sh qoziqlar ko‘ngli uchun osilg‘an bittagina kir dasturxonni tilga olish bilan bu havlining butun jihoz-amloki ro‘zg‘orini[1] yozib chiqilg‘an bo‘linur, burchakdagi toqchada qattig‘ non mujib o‘lturg‘uchi sichqonni ko‘rsatib o‘tilmasa, bu uyda boshqa jonliq zot ham ko‘rinmas edi. Qarshidag‘i bo‘g‘oti tushib o‘rtasi yemirilgan, devorlaridan baqa sallasi unib chiqg‘an xaroba binolarning o‘nda-so‘nda ko‘rilmada bo‘lg‘an eski naqshlaridan va sirlaridan bu oilaning ilgarida davlatlik bir xonadon bo‘lg‘anlig‘i, ammo bu kunda ortiqcha faqirlikda yashag‘anlig‘i onglashilur edi.

Yigit otini tut yog‘ochig‘a bog‘lab, uyga tomon yurgan ham edi, burchakdagi xaroba uydan o‘zini tuzatib o‘qug‘uchining qutidor havlisida ko‘rgani pakana xotin go‘yo onalarning «ziyondosh albasti»laridek xunuk qiyofada yigitka qarab yugirib kela boshladi. Xotin yigit bilan eson-sog‘liq so‘rashqach, ikkisi uyga kirdilar. Yigit to‘nini yeshib uyning to‘riga irg‘itdi, boshidan qalpog‘ini olib qoziqqa ildi. Shundan so‘ng, ikkisi ham o‘lturishdilar.

— Qalay, — deb so‘radi xotin, — ishing o‘ngidanmi?

— Chakki emas.

— O‘zi hozir shu yerda edi. Eblab kelsa shu edi, deb tashvishlanib o‘lturdi. San kelur oldingdag‘ina chiqub ketkan edi.

— Uyga ketdimi?

— Bilmadim, kelib qolsa kerak. O‘zi ham qatnay-qatnay o‘layotibdir, kecha qayta kelib-ketdi, qix...

---

[1] A m l o k i r o‘ z g‘ o r — ro‘zg‘or boyliklari.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Nimadan tashvishlanadir?

— Ishni aytkanimdek qilolmasa, hamma mehnat to‘rt pul, deydir.

Yigit kulimsirab olg‘ach, so‘radi:

— O‘zimizning ishlar qalay?

Bu savoldan xotinning yuziga umidsizlik tusi kirdi:

— Bilmadim, do‘stdanmi, dushmandanmi haytovur olding ochilmay turadir, sovchiliqqa chiqmag‘an kunim yo‘q, qix... Yomon qo‘shnini yer yutsin; Marayim kudingchi[1] bo‘shashqandek bo‘lg‘an edi, uni ham qo‘shnilar o‘lgur aynatibdilar... Homidboy bo‘lsa bu kun unashsalaring ertaga to‘yni boshlaymiz deydir, qix... — Bu so‘zdan yigitning ko‘zlari olayib allanechuk tuska kirdi.

— Qaysi qo‘shni ekan, u?

— Qurib ketsin, yomon qo‘shnilar, qix... Man sanga qaysi bir qo‘shnini tutib beray, hammasi ham aynatar emish.

— San manga o‘sha... ni ko‘rsatib ber, tobini olib qo‘yay o‘sha onangni...

Ikkisi shu mojaroda edilar. Yo‘lakdan kirishdayoq tutka bog‘lang‘an o‘zining otidan odamning kelganini bilgan Homid ayvondan aylanib kirishka sabri chidamay, darichadan oshib uyga kirdida, yigit bilan quchoqlashib ko‘risha ketdi. O‘lturar-o‘lturmas Homid undan so‘ray boshladi:

— Xo‘-o‘-o‘sh, Sodiq polvon, ishlar qanaqa, Toshkandda nima gaplar bor?

— Nima gaplar bo‘lsin. Toshkandda tinchlik. Bahona bilan Toshkandni ham ko‘rib oldiq.

— Eshigini topa oldingizmi?[2]

— Topdim. Aytkaningizdek, uning eshigini Toshkandda har kim bilur ekan.

— Bulmasa, xatni ham topshirg‘andirsiz?

— Topshirdim.

— Bali sher, xatni qo‘lingizdan kim oldi?

— Bir chol.

— Yuzi cho‘ziqroq, chakkasi siqiqroq choldir.

— Xuddi o‘zi.

— Xatini ham ololdingizmi? — dedi va sabrsizlanib Sodiqning og‘zig‘a tikildi. Sodiq yuziga mag‘rur bir tus

---

[1] K u d i n g — matoni o‘rib tekislash.

[2] Farg‘onada havlini eshik deydilar *(mual.)*.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

va ovozig'a muzaffariyat ohangi berib «xatini ham oldim», javobini aytdi. Bu javobdan so'ng Homidning og'zining tanobi juda ham qochqan va Sodiqning yelkasiga qoqa boshlag'an edi. Sodiq qo'ynidag'i xatni olur ekan, ishlatkan hiylasini hikoya qildi:

— Xatni cholg'a berdim-da, ertaga Marg'ilon ketaman, xat bersalaringiz bemalol, dedim. Chol bir oz o'ylab olg'andan keyin, hozirg'a xatimiz yo'q, sizga malol kelmasa erta bilan bir xabar olib ketmaysizmi, o'zingiz hozirda qayerda turibsiz, deb so'radi. Man og'irsing'ansumon o'ylanib oldim va xo'b, dedim, qo'shxonam uzoq bo'lsa ham bir xabar olib o'tarman, dedim. Ishning o'nglanishiga quvonib, bir kechani choyxonada kechirib, ertasiga va'da vaqtig'a yana bordim, imon topkur otam xatni muzdek qilib tayyorlatib qo'yg'an ekan, Marg'ilon qayerdasan, deb bir ot, bir qamchi jo'nay soldim.

Homid xatni olur ekan, Sodiqning yelkasiga qoqib «rahmat, rahmat», deb qo'ydi va: «Biz ham sizning harakatingizda», degan so'zni ham qo'shib qo'ydi. Xatni ochar ekan, Homidning yuzida quvonch aralash bir jiddiyat mushohada etilar edi.

«Umidim yulduzi, orzum chechagi, hayotim tiragi Kumushimga!

Kinoya va achchig'lar bilan to'liq bo'lg'an maktubingizni oldim. Xatni yozg'an chog'ingizda tamom bir o't ichida, g'azab dengizida suzg'anlig'ingiz gavdalanib ko'z o'ngimdan o'tdilar. O'tdilargina emas, hatto menga shunchaliq ta'sir etdilarkim, go'yo malikasining g'azabiga uchrag'an qul qay darajada es-hushidan ayrilsa, qilar ishidan, o'ylar o'yidan yanglishsa, maning-da hozirgi holim buning yuz daraja yuqorisig'a yetdi. To'g'risi zahar olud maktubingizga odamlarcha tushuna olmadim va tushunishka ham luzum ko'rmadim, chunki g'azab ustida aytilgan so'zlar aqlli kishilarcha loyiqi muhokama va mutolaa bo'lolmas, gulxandan so'ng alanga hisobini hech bir vaqtda olinmas. Lekin maktubingizning bir o'rniga nima ma'no berish uchun tamoman ojiz qoldim: «Ilgarigi so'zingiz bilan o'zingizning haqqingiz bitkanligini bilaturib ham yana uyalmay, qizarmay vijdonsizlar amrini berib qo'yasiz-da, uyatsizlig'ingizni yana bir qat oshirasiz...» va «Otam Toshkanda ekan kezda bu gapni aytishka uyalg'an emishsiz», «go'yo buning bilan nomuslik, uyatchan bir yigit bo'lib ko'rinmakchisiz shekillik?!»

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Bu so'zlaringiz bilan nima demakchi bo'lasiz, taningiz sog'mi? Durust, man otangizga birga ketalmasligimni, charlarni uch-to'rt kun kutib qolishimni bir necha vaqt aytalmay yurdim va nihoyat otangiz ketishka ruxsat so'ray boshlag'ach, otam orqaliq uzrimni aytirdim, bas, bunda qanday uyatsizlik bo'lsin, gumonimcha isitmangiz qattig' ushlag'an ko'rinadir va bu telbalarcha maktubingizni isitma orasida yozg'on o'xshaysiz...»

Homid maktubning bu o'rniga yetkanda ixtiyorsiz xaxolab yubordi-da, «voy ahmoq» deb qo'ydi. Puchuq xotin bilan Sodiq kulib unga qarasalar ham ul iltifotsiz o'qushida davom etdi:

«Maktubni isitma orasida yozg'aningizg'a tamoman qanoat qildim. Shuning uchun sizni ayblashka haqqim yo'q, ham siz ma'zursiz.[1] Bu kinoya va zaharlik maktubni yozishg'a sizni majbur etkan, meni hiylakor tulki, og'zi qon bo'ri, uyatsiz yigit... va tag'in alla qancha martabalarga mindirilishlarimning bosh omili albatta otangizdan ham eshitkan bo'lsangiz kerak, shu kungacha charlar balosi bilan tutqun bo'lishim orzu-havas qayin otasining og'rib yotish shumligidir. Nihoyat sizning achchig' xatingiz barakasida bu kun charlar xabari ham kelib qoldi. Siz maning bu xatimni o'qub, gunohlarimni yarlaqab[2] turg'an kezlaringizda, albatta man Marg'ilon yo'lida bo'lsam kerak. Onangizning o'quyturg'an bayti maning sha'nimga tamoman teskari, chunki ota-ona orzusi hech bir vaqt yangi yorlik vazifasini o'tay olmas va hamisha boshqalarning orzu-havasi bo'lib qola berar. Siz o'zingizni tuproq bilan tenglashdirmakchi bo'lg'ansiz, lekin man hozir Kumushka ham qanoatlanmay Oltinbibi deb atamoq fikriga tushdim...

Borlig'im muhabbatingiz alangasi bilan tutashqani holda zavjingiz Otabek. 26 javzo, 1265-nchi yil. Toshkand».

Maktubning bosh tomonini o'qug'anda Homidning yuzida ko'rilgan shodlik o'zgarishlari xatning oxiri bilan negadir yuvilg'andek va shodliq o'rnini chuqur bir mulohaza olg'andek bo'ldi. Bir-ikki daqiqaliq fikrdan so'ng Otabekning *«Siz maning bu xatimni o'qub gunohlarimni yarlaqab turg'an kezlaringizda, albatta man*

---

[1] M a ' z u r — uzrli, kechirarli.
[2] Ya r l a q a sh — kechirmoq, afv etmoq.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Marg'ilon yo'lida bo'lsam kerak...» jumlasini ko'zidan o'tkazdi-da, Sodiqdan so'radi:

— Toshkanddan chiqg'aningizga necha kun bo'ldi?

— Olti kun.

Sodiqning javobi uning ustidagi yukni tag'in ham og'irlashtirg'andek sezilib ul boshini quyiga engashtirdi va chuvoq soqolini tuzatib fikrda qoldi. Homiddagi keyingi o'zgarishdan xabarsiz taxmondag'i uvadalarni tuzatish bilan ovora bo'lib yurgan puchuq xotin Homidning yonig'a o'lturib, xunuk bir iljayish orasida so'radi:

— Qalay, Homidboy, ishlar o'ngdanmi? Poshshanisaga endi sovchiliqqa boraveramizmi?

Homid umidsizcha boshini chayqadi va salmoqqina qilib javob berdi:

— Ishimiz hali u darajaga yetkan emas, biz hozir faqat sovchining yo'lidag'i birinchi g'ovnig'ina buzdiq.

Homid puchuq xotin orqaliq Kumushning xatini oldirish bilan o'zining birinchi martaba yuborg'an xiyonatnomasini favqulodda bir muvaffaqiyat bilan natijalanganligini sezib, Otabek ko'kragiga ham qo'l solib ko'rmak va uning Kumushbibiga bo'lg'an munosabatini bilib, ham shunga qarab ish yuritmak uchun Kumushning maktubini Sodiq orqaliq Toshkandga yuborg'an, Sodiq esa o'qug'uchig'a ma'lum maktubni Otabekka topshirib, Otabekning Kumushka yozg'an maktubini ham olib kelgan ediki, yuqorida bu xat Homid tomonidan o'qulib o'tdi.

Otabekning bu maktubi ortig'i bilan o'zining Kumushka bo'lg'an munosabatining hamon eski holida boqiylig'ini e'lon qilar va o'zining osonliq bilan raqibka berilmasligini so'zlar edi. Bu yo'lda birinchi qadamini muvaffaqiyat bilan bosqan Homid keyingilarini birinchidek ketishi uchun qayg'ulanar edi. Bu kun-erta Otabek kelar-da, Kumush bilan topishar. Xiyonatnomaning o'ziniki bo'lmag'anlig'ini isbot etib, Homidning o'ylag'an ishini yana keyinga siltar yoki butunlayga Homidning umidini uzar — mana bu ochiq, ko'rinib turgan ehtimol emas, haqiqat oldida ul hayron va bunga qarshi tadbir o'ylash bilan garang edi. Ul bu to'g'rida uzoq o'ylab turmadi, bir narsaga qaror qo'yg'an kabi fikrdan ko'zini ochdi va puchuq xoting'a dedi:

— Jannat opa, bir chilim beringiz-chi, — Jannat opa

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
chilim solish uchun qo‘zg‘alg‘ach, Sodiqqa dedi: — Inim Sodiqboy, ishimiz juda xom hali.

Sodiqning qizil ukki ko‘zlari o‘ynab javob berdi:

— G‘am yemang, aka, xom bo‘lsa o‘bdan pishitarmiz, o‘lmasak.

Sodiqning bu javobi Homidning ishonchini moylag‘andek bo‘ldi, to‘ppisini boshidan olib namatka tashlag‘ach, minnatdorlik ohangi bilan:

— San bilan Jannat opam tirik bo‘lsalaringiz pishitarmiz, albatta! — dedi va Jannat opa qo‘lidag‘i chilimni olib takir-tukir qilib pishitdi va shi-g‘-g‘-g‘ etdirib sarxonani sindirib yuborar darajada ichiga tortg‘ach, og‘zidan chiqg‘an pag‘a-pag‘a tutunlar orasida chilimni Sodiqqa uzatib, Jannat opag‘a dedi: — Opa, siz tag‘in bir martaba qutidorning uyiga xat olib boraturg‘an bo‘ldingiz...

— Qix, jonim bilan aylanay. Sodiq olib kelgan xatnimi?

Homid kuldi.

— Yo‘q, opa, agar bu xatni olib borsangiz, shunchalik qilg‘an ishlarimiz birpul degan gap bo‘ladir. Ilgarigi gal yozdirib berganimdek o‘z rejamizga muvofiqlab Otabek tilidan yana birini o‘martirib beraman.

— Xi-xi-xi, aylanay, qix... Man bu ishlarni qayoqdan bilay, Homidjon.

— Albatta bilmaysiz. Lekin mundan so‘ng yaxshi bilmog‘ingiz kerak, ozg‘ina yanglishib ketsangiz ham hamma qilg‘anlarimiz shamolg‘a uchadir, undan so‘ng... — to‘satdan bu o‘rinda Homidning esiga o‘zining bir xatosi kelib tushdi: birinchi gal Otabek tilidan yozg‘an soxta xatini uning qo‘l yozuvini mulohaza qilmasdan yuborg‘an va bu kungacha bu sirni qutidor, Kumushbibilar tomonidan sezilib qolishidan qo‘rqib kelmakda edi. Endi bu ikkinchi soxta xatni yozdirishda garchi hozir Otabekning qo‘lyozmasi o‘z qo‘lida bo‘lsa ham yana qo‘rqunchi yo‘q emas edi. Endigi xatni nihoyatda ehtiyot bilan nusxaga qarab yozdirishni ko‘nglidan o‘tkazdi-da, yana qaysi to‘g‘ridadir uzoq o‘ylab olg‘ach, Sodiqqa dedi:

— Inim Sodiqboy, sizga ham yana katta bir xizmat bor, basharti...

— Kishining xizmatidan qochqan yigit emasman!

Homid Sodiq bilan Jannat opag‘a qarab oldi va: —

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Shundoqmi? — deb ishonmag'ansumon takror so'radi, undan ijobiy javob olg'ach, yonini kavlashdira berib: — Jannat opa, — dedi Sodiq horib qorni ochib kelgan ko'rinadir, man ham ertadan beri tomoq yegan emasman, biz Sodiq bilan so'zlashib o'ltursak-da, siz mana shu pulga guzardan chiqib bir chorak[1] et keltirib, sho'rba qilib bersangiz. — Jannat opa paranjisini yopinib etka ketdi, so'ngra Homid Sodiqdan takror so'radi:

— Kishining xizmatidan qochqan yigit emasman, deng-chi? — negadir Homid Sodiqning takror-takror: «qochqon odam emasman, sinamasdan xizmatini aytabering», deyishiga ishonmas edi. Nihoyat:

— Basharti sizga buyuradirg'an xizmatim bu kungacha qilg'an ishlaringizdan tamoman boshqa va og'ir bo'lsa-chi», — dedi. Sodiq Homidning maqsadig'a tushungandek bo'ldi va o'ylab turmay:

— Odam o'ldirishmi? — deb so'radi. Homid Sodiqqa ishonmag'ani holda bir daqiqa chamasi qarab turdi, so'ngra tevaragiga alang'lab olg'ach, hazil tariqasida:

— Basharti odam o'ldirish bo'lsa-chi? — deb so'radi.

— Bu kungacha ikkitasini joylashdirdim, uchunchiga o'tsa nima qiladi? — dedi Sodiq va mag'rur kulib qo'ydi. Bu so'zdan so'ng Homid ustidagi yukni otqandek so'lish olib qo'yg'an edi.

— Man kishining xizmatini unutaturg'an yigit emasman, — dedi Homid va davom qildi, — o'g'ul bola uchun o'g'ul bolalig'im, yomon uchun yomonlig'im bor, basharti shu xizmatni bajarib berishni bo'yningga olsang, ond bilan aytamanki, davlatimning yarmisi saniki bo'lsin!

Sodiq o'lturgan joydan qo'lini Homidga uzatib «qaytmaysizmi?» deb so'radi. Homid qo'lini olib «so'z ham bir, xudo ham bir» javobini berdi.

Shu kunning ertasidan boshlab, Sodiq qutidorning eshik oldi tevaragida Otabekni kutmakchi, ul kelib yo'lakka kirdi deguncha orqadan borib uning ishini saranjomlamoqchi edi. Sodiqning fikricha, bu ishni darbozadan tashqarida bajarish muvofiq bo'lsa ham, nima uchundir Homid bunga ko'nmay qutidorning uzun qorong'i yo'lagini qulay bilmish edi. Sodiqning «qay vaqtda kelar ekan?» savoliga:

---

[1] B i r ch o r a k — uch yarim-to'rt qadoq chamasi toshdir *(mual.)*.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Albatta, shaharning darbozasi ertalab ochilib, shom bilan yopiladir, gumonimcha ertalab Qo'qondan chiqsa, asr vaqtlarida Marg'ilong'a kiradir, — dedi va so'z oxirida orada so'zlanib o'tilgan shartni yana ta'kidladi.

— Yaxshi o'yla, Sodiq. Olam hodis qo'lg'a tushib qolsang, so'roq kezida aybni faqat o'z bo'yningga olib, orag'a meni qotishtirmaysan.

— Xotirjam' bo'ling, Sodiq deganingiz bunday xumsalikni jallodning qo'lida ham qilmas, azbaroyi xudo.

— Undan so'ng ikkinchi shart: bu sir faqat ikkimizning oramizdag'ina qoladir, o'zing ham sezgan bo'lsang kerakkim, Jannat opani etka ovora qilishim uni ham bu sirdan tashqarida tutish uchun edi.

— Ko'nglingizni mendan juda to'q tutabering, aka! Avg'oni xanjaringizni beraman degan edingiz-a?

— Sho'rba pishguncha kelturaman, — dedi Homid va ketdi.

7. QUVLANISH

Uchinchi kundan buyoqqa qutidorning eshigi tevaragidan Sodiq ayrilmas edi... hozir kechki soat yettilar bo'lib qolg'ani uchun bu kun ham uning kelmasligiga qaror bergan va ketishni chog'lar edi, lekin uzoqdan kelguchi birar otliqni ko'rsa balki shu bo'lmasin, deb yana kutib qolar edi. Ahvol bilish uchun bo'lsa kerak, Homid ham otiga qiyshiq minib o'tib ketdi. Savol nazari bilan qarag'an edi, Sodiq boshini chayqab javob berdi. Nihoyat qutidor ham kundagi vaqtda bozordan qaytib uyiga kirdi. Vaqt shomg'a yaqinlashib qolg'anliqdan bitta-yarimta do'konlar ham yopilib, o'tkunchilar ham siyraksib qoldilar. Shuncha kutkanning o'n daqiqasi deb bo'lsa kerak, ul hamon shu o'rtada aylanib yurar edi.

Poyafzal rastasining sharqqa qarab tortilg'an ko'chasi boshidan bir to'da yigitlar munga qarab kelar edilar. Boshda ul kelguchilarni tanimag'an edi, yigitlar yaqinlashib kelgach, o'zining o'rtoqlari ekanini bilib o'ngg'aysizlana boshladi. O'zini ulardan yashirish uchun qutidorning yo'lagini jo'blag'an ham edi, yigitlardan bittasi: «Bu yerda Sodiq nima qilib yuribdir» deb yubordi, ikkinchi yigit «Sodiqboy, Sodiqboy!» bilan chaqirishg'a

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
tutinib, shuning ila Sodiq burilg‘an joyida to‘xtab qolishg‘a majbur bo‘ldi.

— Nega bu yerda tegirmonchining ishsiz qolg‘an eshagidek junjayib o‘lturibsan, Sodiq? — dedi bir yigit. Boshqalar buning so‘ziga kulishdilar. Sodiq ham kulgiga ishtirok qilib, yigitlarning yaqinig‘a keldi.

— Biravda ishim bor edi, shuni kutib o‘lturibman.

— Sodiq dedi haligi yigit va Sodiqdan «ha» javobini olg‘ach, — burningmi Risolat xolamning rapidasi? — dedi. Yigitlar tag‘in ko‘chani ko‘tarib kulishib yubordilar.

— Jur, bazmga!

— Qanaqa bazmga?

— Shamshodbekning bazmiga, hali Shamshodbekning to‘yidan xabaring yo‘qmi? Jur, Sodiq jiyanim, basharangmi, do‘lda qolg‘an tappimi?

Sodiq ikkilanib javob berdi:

— Man keyinroq boraman.

— Eh xumsa, — dedi yigit va ariqdan sakrab Sodiqning yonig‘a o‘tdi. Andijondagi Qaymoqxon ham kelibti, bazmi jamshid desang-chi, jur! — Yigit Sodiqni sudray boshladi. Boshqalar ham uning orqasidan itara ketdilar. Sodiq o‘rtoqlarining jabri ostida ilojsizgina borsa ham, lekin ikkinchi tomondan kutkanini bu kun ham kelmasligiga qarori ham yo‘q emas edi. O‘n-o‘n besh otlamdan so‘ng o‘rtoqlarig‘a itartirib o‘lturmasdan o‘z ixtiyoricha yuriy boshladi. Ko‘chaning janubiga qarab borar edilar. Oradag‘i g‘arbg‘a qarab tortilg‘an ko‘chani ham bosib to‘g‘rig‘a o‘ta boshlag‘an edilar, uzoqdan ot yeldirib to‘g‘rig‘a kelguchi otliqni ko‘rgan Sodiq ko‘chaning o‘rtasida to‘xtadi. Haligi mushtumzo‘r yigit uni bir turtdi-da: — «Yur, yur, itbachcha, jinni-minni bo‘ldingmi?» deb sudray boshladi, boshqalar ham unga to‘rt tomondan chug‘urchiqdek yopishdilar. Shunday qilib «bechora» Sodiqni o‘z xolig‘a qo‘ymay ko‘chadan anchagina nariga surgab ketdilar. Ular bu ko‘chadan o‘ttuz-qirq adimlab uzoqlashg‘an ham edilar, haligi uzoqda ko‘rilgan otliq to‘riq yo‘rg‘asini qarsillatib katta ko‘chaga chiqdi va yigitlar kelgan tomong‘a — shimolga burildi. Sodiq ketar ekan, otliqqa burilib qaradi. Hasanalidan xat olg‘ani borg‘anida otxonada ko‘rgan qora to‘riq otni tanig‘ani on qo‘ltug‘ig‘a kirib olg‘an ro‘dapodan qutilishg‘a tirishib boqdi, lekin uhdasidan

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
chiqolmag‘ach, ko‘zini yirtqichlarcha chaxchaytirib «it emgan da’yus!» dedi qo‘ltug‘idag‘i jonlik kishanga...

* * *

Uyoq-buyoqdan shom azoni eshitila boshlag‘an edi. Ma’lum otliq qutidorning darbozasida otini to‘xtatdida, o‘ng oyog‘ini uzangudan uzdi. Shu vaqtda shom namozidan qolmas uchun shoshilishib qutidor ham yo‘lakdan chiqib keldi. Otini ko‘chaning o‘rtasida qoldirib, qayin otasi bilan ko‘rishmak uchun yugirgan kuyavi oldida namozini ham unutkan qutidor dag‘-dag‘ titrab to‘xtag‘an edi. Ko‘rishmak uchun o‘ziga uzatilg‘an qo‘lni bo‘sh havoda qoldirib, darbozasi yonig‘a bordi. Bunday muomala oldida Otabekning qanday holda qolishi izohka uncha muhtoj bo‘lmasa kerak. Ul turgan joyida qoziqdek qoqilib qolg‘an edi. Qutidorning oldig‘a yurishnida bilmas, so‘zlashka ham tili kelmas edi.

— Bu qanday harakat, ota?

Qutidor titroq va hayajonli bir tovush bilan:

— Uyatsizga maning uyimdan o‘rin yo‘q, uyatsiz bilan so‘zlashishka ham toqatim yo‘q... Boringiz, maning eshigim yonida to‘xtamangiz! — dedi-da, o‘zini ichkariga oldi va darbozani yopib shildir-shildir zanjirini bog‘lay boshladi...

Otabek esini boshig‘a yig‘ib, mixlang‘an yeridan qo‘zg‘alg‘anda shom namozi o‘qulib bitkan, kishilar uylariga qayta boshlag‘anlar edi. Ul moshinavori kelib otig‘a mindi va «chuh» dedi, lekin ot qo‘zg‘almadi. Ikki-uch qamchidan so‘ng tolg‘a bog‘lang‘an tizgin shart etib uzilib ketkach, boya yurib ketkan otini o‘tkunchilardan bittasining bog‘lab turg‘anini esladi. «Chuh» dedi. Ot ko‘chaning sharqig‘a qarab ketdi.

Bu ketishda uning hushi o‘zida deb aytish qiyin, shuning uchun otning boshini qayoqqa qarab solg‘ani ham belgulik emas, ehtimolki unga hozir ot yursa bas bo‘lg‘ay. Ot ko‘chaning ayrilishig‘a yetib «endi qayoqqa yuramiz» degandek to‘xtag‘an edi, egasi yana «chuh» deb javob berdi. Ot shimolga qarab burildi. Bu ko‘cha bilan uzoq yurgach, oltinchi faslda o‘qug‘uchi bilan tanishdirilg‘an B... mahallasiga chiqib, ot yana qay tomonga yurishni so‘rab to‘xtadi.

— Chuh.

Ot ko‘chaning sharqig‘a yurib o‘qug‘uchig‘a ma’lum

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
burchakdagi ikkita eshikdan ham yana shimolga burib, tor ko'cha bo'ylab uzoq ketdi. Vaqt xuftanga yaqinlashib qolg'anliqdan qorong'i o'bdan tushkan edi. Ot o'zining bu galgi to'xtashida egasining chuh-chuhiga ham sirt berib turib oldi va Otabek ko'zini ochib yo'l qarashg'a majbur bo'ldi. Otning tor ko'chaning nihoyatiga yetib yo'lsizlikdan to'xtalg'anini onglag'ach, o'tkan ishlardan o'ziga hisob bera boshladi. Qayin otasi eshigida otini yo'lga solg'anini bir oz eslasa ham boshqasini bilmas edi. Har holda Marg'ilonning chetrog'idagi boshi berk ko'chada va katta bir darboza yonida turg'anlig'ini tushundi. Otning boshini burishni-da, burmasni-da bilmay bir oz o'ylab to'xtadi. Ul o'ylab turg'anda darboza ichkarisidan ikki kishining xayrlashib ajralishqanlari sezilar edi. Ichkaridagi oyoq tovushi darbozaga yaqinlasha bergach, ul chiqg'uchig'a xalaqit bermas uchun otining boshini chetka burdi. Otabek to'xtag'an o'rin to'rt tomondag'i imoratlar bilan o'bdan qorong'i, shuning uchun darbozadan chiqg'uchining faqat boshidag'i oq sallasidan o'zgasi ko'zga ilinmas edi. Chiqg'uchi darboza yonida turg'an otliqdan cho'chibmi va yo o'zichami so'radi:

— Kim otda turg'an?

— Man, — dedi Otabek va o'zining mantiqsiz javobidan o'ng'aysizlanib tuzik javob berishka og'zini jo'blag'an ham edi, chiqg'uchi «siz kimsiz?» degan savol bilan uni to'xtatib qo'ydi.

— Man... bir musofir g'arib, — deb javob berdi-da, negadir tomishka intilgan ko'z yoshisini kuch bilan to'xtatib qoldi. — Marg'ilong'a shom vaqtida kirgan edim, ko'zlagan joyimni topolmay adashdim...

— Qani bo'lmasa, juring biznikiga, mehmon, — aytkuchining so'z ohangidan o'rtoqliq bo'yi kelib Otabekning dimog'iga ursa ham:

— Rahmat sizga, aka, — dedi, lekin uning bu so'zi ham o'rinsiz ketkan edi.

— O'zingiz adashdim, dedingiz-ku, tag'in qayoqqa bormoqchi bo'lasiz?

— Sizga og'ir kelmasa...

— Og'irlig'i yo'q, yuringiz, — dedi va olding'a tushib Otabekka yo'l boshladi: — Man ham sizga o'xshagan bir g'arib.

Otabek kishi orqasidan ketdi, oldinma-keyin

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

so‘zlashmasdangina ko‘chaning oyog‘ig‘a qarab borar edilar. Anchagina yurgach, boshlovchi «otingizga ham joy bor», deb qo‘ydi. Otabek javob bermadi. Shu ko‘yi so‘zsizgina ko‘chaning burilishiga yetdilar-da, kishi Otabekni to‘xtashg‘a buyurdi, o‘zi shoshilib o‘qug‘uchig‘a ma’lum Jannat opa eshigining chap tomonidag‘i ikkinchi eshikni ochish uchun qulfni timiskiladi. Eshikni ochishi bilan:

— Otdan qo‘ningiz, mehmon, — dedi otni Otabek qo‘lidan olg‘ach, — siz xurjiningizni olib yo‘lakdan to‘g‘rig‘a kiraberingiz, — dedi. Otabek xurjinni ko‘tarib eshikka kirdi, usti yopiq qop-qorong‘i yo‘lakdan o‘tib kattagina bir havliga chiqdi va xurjunni havlining o‘rtasig‘a eltib qo‘ydi. Kishi otni burchakdagi usti yopiq oxirg‘ami, sufagami bog‘lag‘ach, kelib xurjinini oldi.

— Qani ayvong‘a, — deb yo‘l boshladi. Kishi Otabekni o‘tquzg‘ach, tokchadan sopol lagan bilan qovuqni olib chaqmoq surtdi. Sham’ yoqildi. Bu kishi qirq yoshlar chamaliq, qonsiz yuzlik, siyrakkina soqollik, qo‘y ko‘z, ko‘b vaqt madrasa riyozatini chekkannamo, qotma, uzun bo‘ylik bir odam edi. Ayvonning polos va asboblarida uncha boyliq ko‘rilmasa ham puxta, ozoda, chirk yuqturilmag‘an yo‘sunda yig‘ishtirilg‘anlig‘idan egasining rind[1] tabi’atlik ekaniga shahodat bermakda edi. Ayvonning so‘l tomonida ko‘rilgan bir eshik ila uymi, hujrami, borlig‘i bilinar edi.

Uy egasi Otabekni yaxshilab ko‘z ostidan o‘tquzg‘ach, so‘radi:

— Qorningiz albatta ochdir, mehmon? — Otabekdan javob kutib turmay o‘zi hukum ham berib qo‘ydi. — Yo‘l bilan albatta ochiqqansiz, savzi-piyoz va go‘shtlarim hammasi tayyor, faqat o‘choqqa olov yoqsam, xolos, o‘zim ham hali xo‘rak qilg‘anim yo‘q, ko‘b emas ozg‘ina, bir chimdimgina qilaman. — Otabekning uzriga quloq bermay oshg‘a urnashka oldi. Otabek endi o‘tkan ishlarni ko‘z o‘ngidan o‘tkuza boshlag‘an edi. Bu kungi besh daqiqa orasida bo‘lib o‘tkan voqi’ani hech bir yo‘sun bilan miyasiga sig‘dira olmas, chindan bo‘lg‘an ish deb o‘ylashg‘a aqli bovar qilmas edi. Lekin quloqlari ostida hozirg‘ina aytilgan «Uyatsizga maning uyimdan o‘rin yo‘q... Boringiz, eshigim yonida to‘xtamangiz!»

---

[1] Rind — nozik, sinchkov.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

so‘zining sadosi qanday bo‘lsa ham unga bir haqiqatni ochiq so‘zlar va nafsida sezilgan xo‘rlanish va hayajon buni tasdiqlar, bugina emas yuziga yopilg‘an darbozaning, shildir-shildir qilib bog‘langan zanjirning sadosi ham bu haqiqatni ta’kidlar edi. Bundan so‘ng Kumushning zaharlik muammo maktubi bir sidira ko‘z o‘ngidan o‘tib ketdi. Maktubdagi tushunishi qiyin bo‘lg‘an nukta[1] va ishoratlar yana bir qayta zahar sochib o‘tkandek bo‘ldilar. Lekin bularning barchasini yig‘ib ochiq-oydin bir natija chiqarish kuchidan ojiz, go‘yo isitma vaqtida bo‘laturg‘an tuturiqsiz, bog‘lanishsiz aljibilji holatni kechirib, ishni bir-birisiga bog‘lay bilmas edi. Ammo hozirgi daqiqada unga eng ochiq ta’sir etkan narsa: «Boringiz, eshigim yonida to‘xtamangiz!» jumlasi bo‘lib, to‘lqinlang‘an izzati nafsi hamisha «qora ohu ko‘zlarni» ko‘rishka o‘rganmish yurak ko‘zini xo‘rlik pardasi bilan yashirishg‘a tirishar edi. Voqia’n tug‘ilib erkalikdagina o‘skan, hayotning dag‘al muomalasidan begona, faqat uning chuchuk so‘zlarinigina tinglab kelgan Otabekka bu xo‘rlik turmishdan birinchi zarba edi. Shuning uchun Kumushka bag‘ishlang‘an yurak tuguni-ni yeshilg‘an holda ko‘rar, go‘yo marvarid tugilgan harir ro‘ymol o‘g‘irliqdan so‘ng oyoq ostlarida bo‘m-bo‘sh yotqandek va egasi shu o‘g‘irlang‘an javohirotining alamini chekib turg‘andek edi.

Uy egasi oshg‘a savzi bosib, Otabek yonig‘a keldi, ul boshqa hissiyot va fikrlarini vaqtinchag‘a unutib, o‘zini tetiklikka oldi. Uy egasi Otabek yonig‘a o‘lturar ekan, so‘radi:

— Sizniki qayerda, mehmon?

— Toshkanddan, mulla aka.

— Ismingiz?

Otabek manglayini qashib olg‘ach, javob berdi:

— Shokirbek...

— Marg‘ilong‘a birinchi kelishingizmi?

— Birinchi kelishim...

— Savdo vajhi bilan kelgandirsiz? — uy egasi Otabekning qiyofat va ust-boshidan savdogarga o‘xshatqan edi.

— Yo‘q... Man asli Qo‘qong‘a kelgan edim, ammo Marg‘ilonda otam tanishlaridan bittasida ozroq olasimiz

[1] N u k t a — sir, sirli ibora.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
bo‘lib, shu kishiga uchrashib ketayin, deb Marg‘ilong‘a o‘tkan edim, — Otabek o‘zining yolg‘onlashidan o‘ng‘aysizlanib bir oz to‘xtab oldi: — bu kishining qayerda turishi manga ochiq ma’lum emas edi va Marg‘ilonda boshqa tanishim bo‘lmag‘anliqdan va vaqtning kechligidan adashib qoldim...

Uy egasi kuldi:

— Nasibdan qochib bo‘lmaydi, Shokirbek; bu kun kechasi menga mehmon bo‘lishingiz bor ekan. Uchrashaturg‘an kishingizning oti nima?

— Komilboy...

Uy egasi o‘ylab turdi-da:

— Bizning bu yaqinlarda bunday kishi yo‘q, ehtimol nariga dahadadir, — dedi va turib oshig‘a qarab ketdi. Otabek o‘zining qip-qizil yolg‘onlashidan vijdoni oldida qizarindi. Ammo ul bir tomondan bunga majbur ham edi, chunki uning qutidor bilan qamalish va o‘lumga hukm etilish tarixi butun Marg‘ilong‘a mashhur bo‘lib, haqiqiy ismini yashirmay aytkanda, ehtimolki boshqa sirlarni ham ochmoqqa to‘g‘ri kelar edi. Uy egasi qozon yonig‘a ketkach, ul ham o‘rnidan turib havlig‘a tushdi. Ayvonning narigi yoni bilan sharqqa qarab kirilaturgan bir yo‘lak orqaliq bir boqchag‘ami, maydongami chiqilishini bilib shu yoqqa yurdi va kichikrak bir mevazorga chiqdi. Kechaning qorong‘ilig‘i ustiga mevalarning quyuq yaproqlari qo‘shilishib, bu maydon ayniqsa Otabekning hozirgi ko‘ngliga yaqinlashib kelar edi. Uning ko‘ngil mevasi bu kungi qora voqi’a bilan qanday o‘ralib, yo‘qolib ketgan bo‘lsa, bundagi daraxtlar ham o‘z mevalarini kecha rangi bilan bo‘yab, yashil yaproqlari ila ko‘mgan edilar, ya’ni bunda o‘skan daraxtlar qanday meva beradir — ajratish qiyin edi. Ul shu qorong‘izor bilan qo‘shilishib ketkandek va qorong‘iliqning quchog‘iga kira borg‘andek mevazorning ichkarisiga yuriy bordi. Va nihoyat butoqlari bag‘rig‘a solinib tushkan bir daraxtning ostig‘a o‘lturdi va bu o‘lturishda uzoq fursat qotib qolg‘andek harakatsiz edi. O‘n besh daqiqalardan so‘ng ichiga yel qamalg‘an puvvakdek ufff etib yuborgach, o‘rnidan turdi. Boqchaning kunbotari bilan xarobazor imoratlarni yonlab yurdi.

Otabek ayvong‘a qaytib kelganda, uy egasi oshni damlab bo‘lib ayvonda kutib o‘ltirmakda edi.

— Otingizga ozroq johori berib qo‘ydim.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Rahmat, mulla aka, — dedi Otabek, uy egasi nimadir so'zlamakchi bo'lsa ham o'ngg'aysizlang'an sumol Otabekka tikilib-tikilib qo'ymoqda edi.

— Kasbim to'qug'uchiliq, Shokirbek, — dedi uy egasi. Otabek so'zni tugalmaganligini bilib, uning og'zig'a qarab turar edi:

— Doim zaxda o'lturib ishlaganimdanmi yoki o'zimning tabi'atimda zaiflik bormi, ish qilib nima bo'lsa ham ko'p vaqtdan beri bedarmon tortib yuribman,— dedi va davom etdi, — goho ko'krak ham og'rib qo'yadir. Yaqinlarda tabiblarga ko'rsatkan edim, qoningiz oz, qimiz iching, xo'rak oldidan maviz[1] isti'mol qiling, deb kengash berdilar. Ularning kengashi bo'yuncha uch-to'rt kun qimiz va maviz iste'mol qilib boqqan edim, voqi'an bir muncha foydasi ham ma'lum bo'ldi. Sizga buni so'zlab shuni aytmakchimanki, osh oldidan bir-ikki piyola maviz ichib yuborsam, albatta bunga sizning qarshilig'ingiz bo'lmas-a? — dedi va kuldi.

— Qanday qarshilig'im bo'lsin, siz ma'zursiz.

Uy egasi iljaygan holda hujraga kirib, o'zining ta'biricha may emas, bir ko'vacha mavizni olib chiqdi, toqchadan piyola olg'ach, kelib Otabekning yonig'a o'lturdi. Mavizni piyolaga chulduratib quyar ekan, mehmonga yer ostidan mo'ralab kulimsirab qo'ydi.

— Sizning ham ichkaningiz bormi?

— Yo'q.

To'g'risi ham Otabek ichkulukdan qattig' hazar qilar va bu kungacha mayni o'ziga dushman kabi ko'rib kelar edi. Uy egasi quygan piyolasini simirib yuborg'ach, sezdirmaslik qilib seskanib qo'ydi va:

— Aniq ichmaganmisiz? — deb yana so'rag'an edi, Otabek boshni chayqash bilan kifoyalandi.

— Qattig' uzr bo'lmag'anda ichmagan ham ma'qul, — dedi va ikkinchi piyolani to'ldirar ekan, davom qildi,— lekin bu narsa bir tomondan kishining salomatligiga foyda bersa, ikkinchi jihatdan tiriklikning qayg'u va alamlarini-da unutdirib turar ekan. Boshimg'a o'lguncha unuta olmasliq qayg'u-hasratlar tushdi, Shokirbek. Ayniqsa keyingi yillarda o'zimga hech bir qayerdan ovinchoq topolmay, nihoyat shu achchig' suv bilan ovinaturg'an xolg'a kelib qoldim, — dedi va uzoq

[1] M a v i z — mayiz (uzumdan yasalgan may).

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
tin olib to'lg'izg'an piyolasini oldig'a qo'ydi. Ikkisi ham bir necha vaqt sukutda qoldilar. Ul ikkinchi piyolani ichkach, Otabekni diqqat bilan kuzatib chiqdi.

— Agar yanglishmasam, siz ham bir oz qayg'uliroq ko'rinasiz mehmon, bir piyolani ichib yubormaysizmi?

— Rahmat, mulla aka, — dedi Otabek, ammo o'zida ta'rifi so'zlanib o'tilgan narsaga bir ehtiyoj seza boshlag'an va o'zini ham ma'zurlar qatorig'a qo'yayozgan edi. Uning bu holini uy egasi sezdimi yoki sinab ko'rmakchi bo'ldimi, haytovur, uchunchi piyolani to'ldirib Otabekka uzatdi:

— Qo'limni qaytarmang, mehmon. Ikkimiz ham ma'zur ko'rinamiz.

Otabek uzrini aytib, piyolani olmay turg'an edi, ul ham piyolani uzatqancha kulib turaberdi.

— Man mavizni tamom shar'iy qilib tayyorlayman, tunov kun mahallamizning oxunlari ham halollig'iga fatvo berib ketdilar.

Otabek piyolani olishg'a majbur bo'ldi. Uy egasining aytkanidek maviz juda ham tiniq, yaxshi chiqg'an ko'kchoy kabi musaffo edi. Piyolaga uzoq qarab turmay ichib ham yubordi. Och qoring'a tushkan o'tkir may vijj etdirib me'dani qaynatdi-da, tomoq ostini lovullatmoqqa oldi. Otabekka birinchi piyolani ichirg'andan so'ng, uy egasi oshni suzishka ketdi.

8. BAXT VA BAXTSIZLIK

Oshni suzib keltirgach, mehmonni oshg'a taklif qilishdan burun yana toqchadagi ko'vachani olib bir piyolani to'ldirdi va Otabekka uzatdi.

— Iching buni ham, so'ngra oshni yeymiz, — dedi. Bu gal uncha qistatishqa to'g'ri kelmadi, birinchi piyola bilan uning ko'z o'nglari jimirlashmakka va o'zida bir yengillik his etmakka boshlag'an va bu ikkinchi piyola go'yo «meni ichsang tag'in ham yengil tortasan», der edi. Otabekning ikkinchi piyolasidan so'ng oshg'a o'lturdilar. Bitta «don» hazmini ham tasavvur qilmag'an uning me'dasi ketma-ket tushib turg'an luqmalarni e'tirozsiz qabul qilmoqda edi. Bunday ishtihoni, ehtimolki, ul o'z umrida birinchi martaba ko'rgandir. Tomoq orasida uy egasining bergan savollariga yaxshi javob berganidek,

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
o‘zi ham ba’zi so‘zlarni to‘qib yubormoqda, boyag‘i oz so‘zliliklar o‘rnini ezmalik bo‘lmasa ham mo‘’tadil bir hol olg‘an edi.

Oshdan so‘ng lagan va dasturxonni yig‘ishtirib olg‘uchi uy egasiga sarxush va qizarg‘an ko‘zlari bilan uzoq qarab qo‘ydi. Bu qarash unga minnatdorliq va tashakkur qarashi edi. Uy egasi Otabekning yonig‘a ikkita yostiq olib qo‘ydi va bittani o‘z yonboshig‘a ham oldi.

— Yonboshlangiz bek, — dedi, boshlab o‘zi yonboshladi. Otabek ham unga ergashdi. Ikkisining orasidag‘i sham’ yel bilan o‘ynashibg‘ina nur separ, ikkisi ham so‘z qo‘yishqandek sham’ga ko‘z tikib qanday o‘yg‘adir berilgandek ko‘rinar edilar. Bir necha vaqtdan so‘ng uy egasi ko‘zini sham’dan oldi va yer ostidan Otabekni kuzatkach, so‘radi:

— Uylanganmisiz, bek?

Otabekning kayfi kuchlikmi edi yoki so‘zni onglamay qoldimi, haytovur shu onda javob berolmadi.

— Uylanganman.

So‘rag‘uchi bir oz to‘xtab olg‘ach, yana so‘radi:

— Xotiningizga muhabbatingiz bormi?

Otabek bu savol qarshisida garangsib qolg‘andek bo‘ldi, voqi’an orag‘a og‘ir savol tushkan edi, bilintirmaslik qilib uflab oldi.

— Muhabbatim yo‘q.

— Yaxshi ekan, — dedi uy egasi. Otabek uning bu so‘ziga tushuna olmay, «nega?» degandek qarab turar edi.

— So‘zimga ajablandingiz shekillik?

— Yo‘q, — dedi Otabek, lekin uning taajjubi uy egasiga ochiq ko‘rinib turar edi.

— Balki muhabbat baxtlik kishilar uchun yaxshidir, lekin o‘z tajribamcha, baxtsiz kishi uchun badbaxtlikdir. Masalan, siz agar chindan ham xotiningizg‘a muhabbatsiz bo‘lsangiz, o‘zingiz ham iqror qila olasiz: uyga kirsangiz xotiningiz bordek, ko‘chaga chiqsangiz yo‘qdek, bas, sizga xotinning og‘irlik va yengilligi birdak. Shundoq emasmi?

— Shundoq, — dedi Otabek, ammo muhabbat to‘g‘risida so‘zlangan bu so‘zlar uning kayflik ko‘zini ocha yozdilar.

Uy egasi davom qildi:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Men bu so‘zlarni o‘z holimdan chog‘lab aytaman, ehtimolki men yanglisharman, — dedi va uzoq tin olg‘ach, so‘radi: — Siz uylanganda o‘zingiz yoqtirib uylandingizmi yoki oradag‘ilarning yoqtirishlari bilanmi?

Otabek so‘rag‘uchining qanday muddaosi borlig‘ig‘a tushunmay qoldi.

— Onamning yoqtirishi bilan.

— Barakalla, — dedi uy egasi va, — manimcha, hamma balo o‘zing ko‘rib, suyib uylanishda, — dedi va eshitkuchisi kutmagan joyda sukutka ketdi. Otabek bir ko‘ynakni o‘zidan burun yirtkan kishi to‘g‘risida go‘yo o‘z sarguzashtining eski tarixini mulohaza qila boshlag‘an, qarshisida o‘lturg‘uchini-da, qayin ota eshigidan quvlang‘an kishi deb bilgan edi. Qayin otang sani ham quvladimi, deb aytmasa ham shunga yaqin bo‘lg‘an «suygan xotiningiz sizni tashlab ketdimi?» degan savolni berdi. Uy egasi boshini chayqadi:

— Tashlab ketishka — ketdi, lekin o‘z ixtiyoricha emas, — dedi. Otabek bu so‘zdan so‘ng buning ham qayin otasi yoki qayin onasi tomonidan zulm ko‘rganiga ishong‘an edi.

— Yomon odamning yuzi qursin, — deb qo‘ydi, bu so‘z uy egasiga tushunarlik bo‘lmadi shekillik, Otabekka savol nazari bilan qarab oldi.

— Ezmalik bo‘lsa ham boshimdan o‘tkanlarni so‘zlab beraymi, mehmon? — dedi.

O‘z sarguzashti bilan farqsizg‘a o‘xshab ko‘ringan bu hikoyani eshitishka uning ishtiyoqi ortqan edi:

— Siz so‘zlamasangiz-da, men so‘zlatmoqchi bo‘lib turar edim.

— Manim sarguzashtimda siz kutkan qiziqliq yo‘q. Lekin shunday bo‘lsa ham so‘zlab berayin, — dedi va yostiqni ko‘kragiga qo‘yib olg‘ach, hikoyasini boshladi:

— Men o‘zim asli qo‘qonliqman. Ota-onamdan yoshliqda yatim bo‘lib, tog‘amning qo‘lida o‘sdim. Yoshim 17—18 larga borg‘andan so‘ng o‘z kunim o‘zimga qolib, bir o‘rtog‘imning kengashi bilan bundan yigirma yillar burun Marg‘ilong‘a kelib, bu kungi ustakorimning otasig‘a to‘quvchiliq hunariga shogird tushdim. To‘rt yil chamasi qilg‘an xizmatimdan so‘ng haligi ustakorga xalfa bo‘lib ishlay boshladim. Boshqa yigitlardek ortiqcha o‘rinsiz sarflarim bo‘lmag‘ani uchun oz zamon ichida uch-to‘rt tilla pullik ham bo‘ldim. Ishimga

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

ixlos bilan qarag'anim uchun maning to'qug'an ishlarim o'zgalarnikidan qadrlik yurar va xalq orasida ham otim «usta Alim kichkina» bo'lib shuhratlangan edi. Ma'lumki, bofandalar[1] oldig'a ko'pincha xotin-qizlar kelib, yangi nusxa qidirib yuriydirlar. Maning to'qug'an ishlarim va chiqarg'an nusxalarim hammaga maqbul, ayniqsa xotin-qizlar uchun mashhur bo'lib, har doim to'quv do'konim yonidan xotin-qizlar ayrilmas edilar.

Kunlardan bir kun hali kishidan qochar darajaga yetmagan o'n uch-o'n to'rt yoshlar chamaliq do'ndiqqina bir qiz kelib, men chiqarg'an yangi nusxa shohidan so'radi. Qizning so'rag'an nusxasi to'qilib va sotilib ketkan edi. Shuning uchun «yo'q» deb javob berdim. Qiz ko'zini jovdiratib turib, «maning uchun to'qib berolmaysizmi?» deb so'radi. Men qizning yuziga qarab, «mumkin emas opa, bir kiyimlik shohi deb nusxa bo'yash og'ir», dedim. Qiz so'zni aylantirib mendan va'da olishg'a tirishar edi. Men so'z orasida yana unga qarab oldim. Yonimdag'i xalfalardan bittasi qizg'a o'la[2], «to'qib bering, usta, opani xafa qilmang!» deb qo'ydi. Uchunchi qarashda o'zimda qizg'a qarshi bir yaqinliq his etkan, unga uzoqqina qarab qolishg'a majbur bo'lg'an edim. Garchi qiz aytkan nusxani tayyorlash og'ir bo'lsa ham qandaydir bir kuch ta'sirida haligi qizg'a va'da berib yuboribman. Ul chiqib ketkach, qanday va'da berganimni o'ylab ko'rib, va'da kuni kelsa to'quy olmadim derman, degan so'zni ko'nglimdan o'tquzdim, lekin qizning gunohsiz o'ynab turg'an qora ko'zlari, qizil olmadek taram-taram yuzlari hamon ko'z o'ngimda ko'rinib turar edilar va «maning uchun to'qib berolmaysizmi?» so'zi quloq ostimda takror aytilgandek bo'lar edilar.

Bir necha kun shu yo'sun ikkilanib yurg'ach, nihoyat o'zimga tushunilmagan bir savq[3] ostida va'damni ifoga ham boshlabman, bir kiyim shohi, deb o'ttuz kiyim bo'laturg'an ipakni bo'yash, tanda, arqoq, go'la mashaqqatlari ko'zimga hech ko'rinibdir. Va'damdan ikki kun ilgariyoq shohini to'qib, uning kelar yo'lini poylar edim, ul kelmas edi. Nihoyat va'da kuni ham kelib o'tdi, kelmadi. Sizga shuni ham aytib qo'yayki, bir ko'rgan

---

[1] B o f a n d a — to'quvchi.
[2] O' l a — tomon.
[3] S a v q — yo'nalish.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
kishingizning tusini albatta uzoq fursat xotiringizda tutolmaysiz, lekin bu qiz to‘g‘risida man tamom boshqacha holatda bo‘ldim: shundoqki, uning qoshini, ko‘zini, tusini, qo‘g‘urchoqdek qaddini ko‘z o‘ngimda tuta-tuta tamom bir yillik bilishlardek bo‘lib qolibman. Uning tovush ohanglari qulog‘im xotirasida u daraja yaxshi saqlanmag‘an bo‘lsa-da, ammo «maning uchun to‘qib berolmaysizmi?» so‘zini hozirg‘ina eshitkandek bo‘lar edim.

Va’da kunidan uch-to‘rt kun o‘tib ketkan bo‘lsa ham hanuz ul kelmas edi. Men uning ko‘chasini so‘rab qolmag‘animdan xafa bo‘lar edim. Chunki, shohini o‘zim eltib berishka ham endi hozirlanib qolg‘an edim. Bu kutish kunlarimda na uchundir yonimdag‘i xalfa shogirdlar bilan bo‘laturg‘an muomalalarim ham o‘zgara boshlag‘an, ya’ni so‘zlarim dag‘al va tundlikka aylangan, go‘yo buning ila Alining kekini Validan olar edim.

Nihoyat va’daning beshinchi kuni qiz keldi. Qizni ko‘rish bilan men borliq-yo‘qliq holatda qolg‘an, bir necha zamon maning uchun so‘z topish ham qiyinlashqan edi. Qiz shohini so‘ramay menga termulib turar edi. Uning minnatdorchiligini faqat shohi bilan olmoqchi bo‘lg‘anim uchun bu hol menga og‘ir keldi. «Nega va’daga kelmadingiz?» dedim. Qiz o‘ng‘aysizlanib, gunohkorlarcha ko‘zini yerga tikkani holda so‘radi:

— Shohini sotib yubordingizmi?

Yonimg‘a qo‘yib o‘lturg‘an shohini qizg‘a uzatdim. Ul shohining orqa-o‘ngini ag‘darib ko‘rdi va: «Yaxshi to‘qibsiz», deb menga umidsizcha qarab qo‘ydi. Shohini menga berib qo‘lidagi mayda chaqalarni oldimg‘a to‘kdi.

— Shohingiz qancha pullik?

Men javob o‘rniga chaqalarni sanab chiqdim, bitta oltmish pullik tangasidan boshqasi bir pullik, besh pullik zang bosqan chaqalar bo‘lib, ko‘p vaqtlardan beri yig‘ilib kelganligi ma’lum edi. Bergan puli shohining yarim bahosini qoplar-qoplamas bo‘lg‘anlig‘ini aytdim.

— Tag‘in qancha kerak? — deb so‘radi.

— Uch tanga, — dedim. Qizning o‘ychan yuzini yana qayg‘u bosdi. Men uning yuzidan katta husndor qizlarda ko‘riladigan bir ulug‘liq tomosha qilar edim va uning o‘z va’dasiga kela olmag‘anlig‘i sirrini onglar edim. Bu yosh farishtani bu holda qoldirishg‘a ko‘nglim bo‘lmadi va dedim:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Qolg‘anini qachon olib kelasiz? — Bunga ham tez javob bermadi va javobsizlik bilan yana o‘z holini menga arz qilg‘andek bo‘ldi.

— Pul topqanda keltirasizmi? — dedim-da, uning javobini kutmay qo‘liga shohini tutqazdim. Qiz menga ishonmay boshlag‘an edi:

— Menga ishonasizmi?

Men ishonch bildirib o‘lturmadim:

— Uyingiz qayerda?

— Ch... mahallasida.

— Kimning qizisiz?

— Sharif miltiqchining qiziman.

— Otangiz qarib qolg‘anmi?

— O‘lgan. Onam bor.

— Akangiz yo‘qmi?

— Yo‘q. Bitta kichkina o‘g‘ul ukam bor.

— Ismingiz nima?

— Saodat.

Shundan so‘ng Saodatni shohi bilan jo‘natib yubordim. Saodat maning bu ishimga ishonmayg‘ina chiqib ketdi. Xalva shogirdlar: «Tuziksiz-ku usta», deb menga piching otishdilar. Ammo men Saodat uchun har bir og‘irliqni ko‘targundek ko‘rinar edim...

Uy egasi bo‘lg‘an usta Alim hikoyasini to‘xtatib, Otabekdan so‘radi:

— Hikoyam uzayib ketdi shekillik, zerikdingizmi?

Otabek uni ortiqcha bir e’tibor bilan eshitar edi, sarxushchasiga:

— So‘zlay beringiz, — dedi.

Usta Alim davom etdi:

— Menga uch tanganing ahamiyati yo‘q edi. Ammo Saodat bilan bog‘lanib turishim uchun bu uch tanga ming tanganing ishini qilar edi. Oradan o‘n kunni o‘tkuzib, uch tanga bahonasi bilan Saodatning uyiga bordim. Saodat xolasining uyiga ketkan ekan, onasig‘a o‘zimni tanitib, devor orqaliq anchagina so‘zlashdik: eri o‘lib erkaksiz qolg‘andan, ip yigirib ovqat o‘tkarganidan va qizining kengashmasdan shohi buyurg‘anidan hasrat qilib ketdi; so‘zining oxirida yana bir hafta kutib turishimni iltimos qildi. Bir haftadan so‘ng aloqani uzib qo‘yish maning tinkamni quritaturg‘an bo‘lg‘ani uchun ishni boshqa rejada yurgizmakchi bo‘lib aytdim: — O‘zingiz ip yigirib, kun ko‘rib turgan bo‘lsangiz, sizga

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
uch tanga emas, uch pul berish ham og'ir ekan, agarda sizga ma'qul bo'lsa ko'nglimga bir gap keladir, shundoq-ki, siz erkaksiz bo'lg'aningizdak, men ota-onasiz yolg'iz yigitman.. Ko'pincha kir yuvdirish va yirtiq-yamoq vajh-laridan qiynalaman. O'sha sizdagi pul evaziga bir necha vaqt kir-pirimga qarab, yirtiq-yamog'imni yamab bersangiz, qandoq bo'lar ekan... Kampir bu so'zimni mamnuniyat bilan qabul qildi va ertasi kunga kirlarimni olib kelish uchun Saodatni yubormoqchi bo'ldi. Shundoq qilib bu kun bog'lanishni yaxshi asoska qurib qaytdim. Ertasiga Saodat kelib kirlarimni olib ketdi. Uch kundan so'ng yuvilgan kirlarni keltirib, to'quv do'ko-nimning yonida anchagina qarab o'lturdi. Men uning kelishi uchun har hafta panjshanba kunini belguladim. Kundan-kun Saodatka qattig'roq bog'lana borg'animni onglar edim, panjshanbani hayit singari qarshilar edim. Oradan uch-to'rt hafta o'tkandan so'ng qo'lig'a «oying-ga eltib ber» deb yigirma-o'ttiz chaqa pul ham berdim. Saodat bilan aloqa qilg'animning to'rtinchi oyida rama-zon hayiti keldi. Fitir ro'za bahonasi bilan Saodat uchun sakkiz tepki xon atlas, onasi bilan ukasiga bo'z ko'ynak qilib, Saodatlarning uyiga o'zim chaqirib bordim. Saodat meni yo'lakdan qarshiladi va gunohsizcha qo'limdan tutib ichkariga boshladi. Men: — Saodat, esingni ye-dingmi, onang mendan qochmaydimi? — dedim. Saodat tortishida davom etib:

— Qochmaydi, o'zi menga ustakang kelsa qochmay-man, degan.

Men Saodatning yo'lboshchilig'i bilan ichkariga kirdim. Ayvonning oldida Saodatning onasi ip yigirib o'lturar ekan, qizining qo'lida begona yigitni ko'rgach, hayron bo'lib qolg'an edi. Saodat meni havlining o'rtasi-da qo'yib onasining oldig'a yugurdi va:

— Ustakam-ku! — dedi. Onasi nari-berida dakanasi-ni tuzatib o'rnidan turdi. Salom-alikdan so'ng so'rashdiq. Saodat tegimga ko'rpacha yozdi, men qo'ynimdag'ini olib o'rtaga qo'ydim. Fotihadan so'ng bir oz yotsirashib, uyalishib ochilisholmay qoldiq. So'ngra kampir Saodatning manim to'g'rimda aytatur-gan so'zlaridan muqaddima qilib dedi:

— Saodat sizni xudda o'z akasidek yaxshi ko'radir, tunov kun iroqi sobun olg'il, deb o'ttuz pul bergan ekan-siz. Sobunni olib kelgach, yotib uyqusi kelmadi, voy

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
ustakamdan aylanay, voy ustakamning umrini xudo baxtimga uzun qilsin, deb butun tongni tong otdirib duo qilib chiqdi.

Bu so‘zni kampir so‘zlar ekan, men o‘ng‘aysizlanib ketib yer ostidan Saodatka qarab qo‘ydim. Saodat qizarib-bo‘zarib chetka burilib olg‘an edi. Kampir davom etdi: — Munchalik bizning holimizg‘a qayishg‘aningiz uchun besh vaqt namozning oldida men ham haqqingizga duo qilishni unutmayman va hafta sayin qilib turg‘an marhamatingizni ko‘rib o‘ylayman: xudo bandasiga mehribon, holimizning rahmini yeb saxovatlik bu yigitni bizga uchratdi deb, ko‘nglingizdagi har na tilagingiz o‘ziga ayyondir. Siz yatimlarning rahmini yesangiz, sizning g‘amingizni o‘zi yesin. Kampir bir uflab olg‘ach, dedi: — Manglayim sho‘rlik ekan, bolam, Saodatning Qayumjon otliq bir akasi bor edi, yoshi yettiga chiqib, otasi rahmatlik endigina to‘y qilaman deb turg‘anda, qizamiq degan bir falakat kasal bilan og‘rib dunyodan o‘tdi, buning ustiga Saodatning otasi ham marhum bo‘lib bizlarni ora yo‘lda qoldirib ketdi. Loaqal shu bola bo‘lg‘anda ham edi, biz bu yo‘sun og‘ir kunlarga qolmasmi edik, deb o‘ylayman, — ko‘z yoshisini artib so‘zini bitirdi. — Bandasining qo‘lidan kelaturgani oh-vohdan nariga o‘ta olmas ekan, bolam!..

Men ko‘ngil ko‘targan bo‘ldim:

— Oldingizda yosh bo‘lsalar ham qizingiz va o‘g‘lingiz bor ekan, bu kun bo‘lmasa ertaga axir siz ham yorug‘liq kunga chiqib qolarsiz, ona, — dedim va kelturgan narsamni kampirning oldig‘a surib: — Shu arzimag‘an narsani Saodat bilan ukasiga hayitlikka olib kelgan edim, bu aybim uchun albatta mendan koyimassiz, dedim.

— Odamgarchilig‘ingizdan o‘rgulay, — dedi kampir va og‘zig‘a kelgan so‘zlar bilan duo minnatdorchilik qila boshladi. Boyag‘i so‘zdan keyin uyalg‘anicha bizdan uzoqroqda o‘lturgan Saodat sekingina bizning yong‘a keldi va qog‘ozg‘a o‘ralg‘an kiyimlikni ochib atlasni oldi. «Bu mengami?» deb mendan so‘radi va javobimni kutib ham turmay yo‘llik bo‘zni oldi. «Bu Sayfiga», dedi. Uning orasidag‘i odimi bo‘zni ko‘rub: «Bu oyimga», dedi. Saodat bu narsalarni juda oddiy qilib ko‘rdi va soddacha haligi so‘zlarni aytib qo‘ydi. Go‘yo bu narsalarni ilgaridan kutkan edi. Atlasni yaxshilab ko‘rib chiqg‘ach,

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
yoqtirg‘andek bo‘ldi, bir menga va bir atlaska qarab turib nimadir aytmakchi bo‘lsa ham aytalmadi. Men nima demakchi bo‘lg‘anlig‘ini sezgan edim. Bu orada biz kampir bilan hasratlashib turg‘an edik, ul kelib so‘zni bo‘ldi:

— Ustaka, — dedi, men qaradim. — Ro‘zamisiz?

— Ro‘zaman.

— Ro‘za bo‘lmasangiz choy qaynatar edim, — dedi. Onasi kuldi.

— Choyni hayitda kelganimda qaynatib berarsan, — dedim.

— Hayitda kelsangiz osh ham qilib berar edim, — dedi va onasig‘a qaradi.

— Akangga har narsa qilsang ham arziydir, qizim,— dedi kampir va na uchundir ko‘ziga yosh oldi, men ham arang ko‘z yoshimni to‘xtatib qoldim.

— Bo‘lmasa bu kun iftor qilaqoling. — Saodatning bu so‘ziga onasi ham qo‘shilishdi. Men uzr aytdim. Lekin haqiqatda esa, Saodat bilan birga o‘lturib iftor qilishni ko‘ngil istay boshlag‘an edi. Uzoq so‘zlashib o‘lturdim, bu uydan chiqib ketkim kelmas, bir soat orasida tamoman ochilib-sochilib ketkan Saodatning bolalarcha qilig‘ini ko‘rib to‘ymas edim. Saodat goh men bilan, goh atlas bilan mashg‘ul, boyag‘i uyalib turishini bir yoqqa yig‘ishdirib qo‘yg‘an, onasi bilan meni kuldirib, anchagina ko‘tarilib qolg‘an latif ko‘kragi ustiga «senginadan aylaniy!» deb atlasni bosib quchoqlar edi. Men bo‘lsa go‘yo atlas emas, quchoqlang‘uchi o‘zim bo‘lg‘andek kayflanar edim.

Men kampir bilan xayrlashib chiqa boshlag‘an edim, Saodat «Panjshanba kun boraymi», deb so‘radi. Men kampirning oldig‘a qaytib bordim-da, aytdim:— Saodatingizning bo‘yi cho‘zilib qolg‘an ko‘rinadir, mundan so‘ng maktabdan bo‘shag‘an vaqtida Sayfini yuborsangiz qalay bo‘lar ekan va qo‘lim bo‘shag‘an kezlarda o‘zim ham kelib turarman, — dedim. Go‘yo kampir ham mendan shu so‘zni kutib turg‘an ekan, hamiyatimga va aqlimga tahsin o‘qudi va qizig‘a qaradi. «Ana, eshitdingmi ustakangning so‘zini, endi vaqt-bevaqt ko‘chaga ham chiqaberma!» dedi. Men chiqaturib Saodatka qarag‘an edim, mendan o‘pkalagansumon ko‘rindi. Ammo maning bu so‘zim bekorga emas, balki xalfa shogirdlardan ba’zilarining unga yomon ko‘z bilan qarag‘anlarini payqag‘anim uchun edi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Shu yo‘sunda Saodatning onasi ham mendan qochmay qo‘yib, aloqamiz tag‘in ham qattig‘lashdi. Kutmagan bu muvaffaqiyatim bir necha kungacha ko‘zimdagi uyquni ham qochirib qo‘ydi. Uch-to‘rt kun go‘yo bu kun-erta Saodatka uylanaturg‘an kabi hovliqib ham yurdim.

Uncha-muncha narsani ayamag‘anim uchun bo‘lsa kerak, tez zamonda go‘yo Saodatlar oilasining boshlig‘i holini olib qoldim. Jum’a kunlari masallig‘ni ko‘tarib Saodatlarnikiga borar, Saodatning qo‘lidan osh qildirib yeb qaytar edim. Saodat kundan-kunga o‘sib borar, shu nusbatda husniga husn qo‘shilar va men battar uning maftuni kesilar edim. Shu holda oradan ikki yil chamasi fursat o‘tib ketib, Saodat ham o‘n olti yoshlarg‘a yetib qoldi. Endi maning oshiqona termulishlarim ma’nosini ongliy boshlag‘an, negadir «aka» deb qilaturg‘an xitoblarnida tark etkan edi. Ikki yildan beri kampirning oldig‘a sovchi kirguzishni o‘ylab kelgan bo‘lsam-da, ammo nima uchundir Saodatdek qizg‘a uylanish baxtiga erishmakni o‘zimga tasavvur qilolmas edim. Bu to‘g‘rida bo‘lgan hamma umidim Saodatning onasidan edi, balki o‘zi so‘z ochar va yokim orag‘a kishi qo‘yar, deb kutar edi. Orag‘a boshlab o‘zim sovchi qo‘yishdan o‘ngg‘aysizlanar, to‘g‘risi o‘zimga tushunilmagan bir xavf ostida bu jasoratdan mahrum edim.

Bir kun odatimcha Saodatlar uyiga borg‘an edim. Osh-suvdan keyin kampir Saodatni o‘choqboshi yumishiga yuborib, menga qarab kuldi:

— Saodatka bir yaxshi joydan kuyav chiqib qoldi. Kecha unashsak unashkundek ham bo‘lg‘an edik, biroq sizning maslahatingizni olayin, deb sovchilarni qaytardim, — demasinmi, ustimdan bir chelak sovuq suv quyg‘andek entikdim, qanday javob berishka tilim kelmay qoldi. Uzoq vaqt kesak kabi harakatsiz qolg‘ach, kuch orqasida tilimni bazo‘r shu so‘zga harakatlantirdim:

— Joyi yaxshi bo‘lsa, o‘ylab ko‘rish kerak...

Kuyavning kimning o‘g‘li bo‘lg‘anlig‘ini va qanday kasb qilishini sharh qila boshlag‘an edi, sabrim tamom bitdi:

— Undog‘ bo‘lsa, kecha sovchilarni bekor qaytaribsiz,— dedim. Kampir manim bu kinoyamga tushunmag‘an edi:

— Kuyavning tegi-taxti menga ma’qul bo‘lishka

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

bo‘ldi-ya, faqat endi ish sizning kengashingizga qarab qoldi, siz Saodatka ota bo‘lmasangiz ham lekin otaliqdan yuqori ishlarni qilib kelasiz. Endilikda Saodatni uzatishda ham otalig‘ingizni ayamangiz, — dedi. Bu so‘z bilan yana o‘lganning ustiga chiqib tepilgandek bo‘ldim.Chayon kabi meni zaharlamakda bo‘lg‘an kampirning to‘g‘ri so‘zini eshitib turishka ortiq to‘zalmadimda, ertagacha o‘ylab javob berishni aytib kampirning oldidan chiqdim.

Chiqg‘ach, oyog‘i kuygan tovuqdek to‘rt tomong‘a yugura boshladim. Epaqalik bir gap esimga kelmas edi. Nihoyat, aqlimni boshimg‘a yig‘ib, sirrimdan voqif bir oshnamg‘a kengash soldim. Ul uzoq o‘ylab turmay, ertasi kunga tomonimdan sovchi bo‘lib kampirning oldig‘a bormoqchi bo‘ldi. Lekin butun tuni bilan ko‘zimga uyqu kelmay, tikanga ag‘nag‘an kabi azoblanar edim va sustligim uchun o‘z-o‘zimni so‘kar edim...

Usta Alim hikoyasini bu yerga yetkuzgach, sham’-ning so‘xtasini miqroziladi va og‘zini poylab turg‘uchi Otabekdan «zerikmadingizmi?» deb so‘rab olib, davom etdi:

— Sovchini yuborib tinchiy olmadim, ishka qo‘lim bormas va bir joyda to‘xtab turolmas, u yerdan turib bu yerga o‘lturar, ming turlik xayol bilan dovdir sifatiga kirgan edim. Yuborgan kishim tezda qayta bermagach, bir-ikki bora Saodatlar eshigi yonig‘a borib keldim. Nihoyat, miyam shishib Saodatning uyi yaqinida bo‘lg‘an bir yong‘oqning soyasida o‘lturg‘an edim, sovchim chiqib qoldi-ku: yuragim orqamg‘a tortib ketdi. Va olding‘a tushib yuriy berdim, chunki sovchig‘a uchrashib haqiqatni onglash ham menga dushvor[1] mushkul kelgan edi.

— Shoshma-shoshma, ho, kuyav! — dedi sovchim. Hazilmand bo‘lg‘ani uchun ishning chappa ketkaniga ishong‘an, uning bu «kuyav» degan so‘zini kinoyaga yo‘yg‘an edim, ketaberdim. Ul orqamdan tez yurib yetdi:

— Qani, to‘nni yesh! — dedi va to‘nimni o‘ziga torta boshladi.

— Yuragim yorilishg‘a yetdi, hazillashma! — dedim. Haqiqatan so‘zi chin ekan, og‘zidan o‘pdim. Jiq

[1] D u sh v o r — qiyin, og‘ir, mushkul.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

to‘lg‘an ko‘z yoshimdan ham uyalib turmadim. Sovchim yo‘l bo‘ylab kampir bilan bo‘lg‘an hikoyasini so‘zlab ketdi: Saodatka bir yildan beri har kun deyarlik sovchilar qatnar, kampir hammasiga ham boshi bog‘liq, deb javob berib kelar ekan. Shuning barobarida maning og‘zimni poylar yoki kishi qo‘yishimni kutar ekan. Nihoyat, bir tarafini chin va bir tarafini so‘z olish muddaosi bilan kechagi so‘zni menga aytgan va shunga qarab ish qilmoqchi bo‘lg‘an. Uzun so‘zning qisqasi kampirning javobi: bir qizim emas, yuz qizim bo‘lg‘anda ham usta Alimga nazir tortdim — bo‘libdir.

Terimga sig‘mas edim; ikki yillik yurak dardim nihoyat hoziqini topqan edi. Bir necha kun uyalib kampirning oldig‘a bormay yurgan edim, o‘g‘li orqaliq yo‘qlatdi. Bordim. Lekin borishimdag‘i sezgularimni sizga bu til bilan tushuntirolmayman. Men borliq yo‘qliq eshikdan kirganimda, Saodat kir yoyar edi. Meni ko‘rgach, qizarinib ketdi va yoyilg‘an kir ortig‘a yashirinar ekan, shahlo ko‘zlaridagi sezilar-sezilmas tabassumning farqig‘a bordim.

Kampir bilan uyalishibkina to‘y to‘g‘rilarini so‘zlashdik. Kampir ortiqcha takalluflar qilishg‘a yo‘l qo‘ymasa ham, ammo o‘zim Saodatning ko‘ngli o‘ksimasin uchun to‘yni katta qilishg‘a tarafdor edim. Kampir bilan to‘y va nikoh kunlarini muqim qilg‘ach, men ketishka turdim. Saodat kir yonida menga bir ko‘ringandan so‘ng, qaytib ko‘rinmagan edi. A, men bo‘lsam yana uni bir ko‘rmakchi va o‘ziga bir-ikki og‘iz so‘z aytmakchi edim. O‘choqboshida qozon yuvar ekan, to‘g‘ri oldig‘a yurib bordim. Ul meni sezmadimi yoki sezsa ham bilmaganga solindimi, haytovur orqasi o‘gurug‘liq engashkan holda ishka mashg‘ul edi. Bir o‘rim bo‘lib tushkan uzun qo‘ng‘ur sochi uning harakati bilan qo‘ltug‘i ostida o‘ynoqlar edi. Anchagina orqasidan tamosho qilib turg‘ach:

— Saodat, — dedim. Qaradi. O‘choqda yong‘an olov issig‘idanmi yoki uyatidanmi uning yuzi qip-qizil olma edi. Qo‘lidagi sochig‘i bilan oldimg‘a yaqin kelib to‘xtadi. — Eshitdingmi, — dedim. Yerga qaradi. Uni ortiqcha uyaltirmas uchun eshikka qarab yuriy boshladim-da: — Maylimi? — deb so‘radim. Javob o‘rniga:

— Osh yemay ketasizmi? — dedi. Bu uning ikkinchi turlik qilib aytilgan «mayli» javobi edi. Bir bugina emas,

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
qirq yillik qadrdon xotin tomonidan eriga qilinaturg'an mehribonchiliqning eng lazzatlisi edi. Chiqar ekanman, «Osh yemay ketasizmi?» so'zining kayfiga tamom mas bo'lg'an edim.

Usta Alim shu so'ngg'i so'zlarini aytib bitirar ekan, Otabekning qoshlari chimirilib, go'yo o'zining ham shu yo'sun xotiralarining abadiy qaytib kelmaslik — yo'qliqg'a chiqqanlig'ini yana bir karra onglar edi. Usta Alim davom etdi:

— O'n kun orasida hozirlikni bitirib to'y qildiq. Nihoyat, Saodat meniki bo'lib, saodatlik kunlarim boshlandi. Saodatka bo'lg'an muhabbatim bir daraja sizga ma'lum bo'lg'anliqdan u kunlardagi mas'udiyatimni ham shu o'lchavg'a solib bila olasiz.

Rafiqam Saodat chin sa'ida[1] edi. Bu yil o'zimga kutmagan darajada bir kuch va istiqomat[2] ortdirib, to'y bilan tugalgan boylig'imni qaytarg'an edim. Turishka Saodatlar uyi ortiq torliq qila boshlag'anliqdan shu havlini (Jannat opa havlisig'a ishora qilib) hozirg'i qo'shnimizdan sotib olishg'a muvaffaq ham bo'ldim. Qayin onam, qaynim va eru xotin shu havlig'a ko'chib kelib tura boshladiq. Kundan-kunga Saodatka bo'lg'an muhabbatim oshqandek kasbim ham unumlik bo'la boshlag'an, uylanishimning ikkinchi yili haligi qo'shnimizdan o'zingiz ko'rgan boqchani ham sotib olg'an edim. Uylanishimning uchunchi yili Saodat yuklik bo'ldi. Eru xotin birimiz ota va birimiz ona bo'lmog'imizni o'ylab quvonar edik. Kechalari yotib uyqumiz kelmas edi. Nihoyat, Saodatning oy-kuni yaqinlashdi... — Usta Alim uzoq tin olishdan so'ng davom etdi: — ... yaqinlashdi... lekin abadiy baxtsizlik kunlarim, manhus[3] soatlarim ham yaqinlashdi... — dedi va so'zdan to'xtadi.

— Davom qilingiz, — dedi Otabek, usta Alim bir uflab olg'ach:

— Saodat boladan qiynalib uch kungacha azoblandida, to'rtinchi kuni o'ldi, — dedi.

Otabekning kayfi tarqag'andek bo'lib, ko'zlarini zo'raytirib ochdi va o'zini yostiqdan olib o'lturg'ach, so'radi:

— O'ldi?!

---

[1] S a ' i d a — baxtiyor, qutli.
[2] I s t i q o m a t — dadillik, mustaqillik, barqarorlik
[3] M a n h u s — navhsga qolgan, badbaxt.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Usta Alim ko‘z yoshisini artib:

— O‘ldi, — dedi va davom etdi: — dunyog‘a kelib ko‘rgan birdan-bir quvonchimdan ayrilg‘an edim. Hayotning hamma umrimga kifoya qilarliq mudhish zarbasini shodliq ichida qarshilag‘an edim. Oylar bo‘yincha ko‘z yoshimni yomg‘ur kabi to‘kdim. Chunki menga bundan boshqa bir ovinchoq qolmag‘an edi. Ko‘z yoshlarimning tiyilmag‘anini ko‘rgan qayin onam Saodatning vafotining ikkinchi yili meni zo‘rlab uylantirdi. Lekin bu ikkinchi xotin menga Saodat bo‘lolmadi. Haqiqatan saodatim ko‘milgan edi. Keyingi yillarda futurdan keta boshlag‘an qayin onam qizidan yigirma oy so‘ng, o‘n bir yoshliq o‘g‘lini menga tashlab dunyodan o‘tdi. Qayin onamning vafotidan so‘ng, biylik[1] o‘z qo‘lig‘a qolg‘an keyingi xotinim fahsh[2] suratda ro‘zg‘orimni to‘zita boshladi. O‘g‘riliqcha va to‘g‘riliqcha qimorboz akasiga in’om qilishg‘a kirishdi. Kundan-kunga ishim keyin ketib, ishlaganim ro‘zg‘orga uchurvoq ham bo‘lmay boshladi. Yomon xotinning shum qadami bilan uyimdan baraka ko‘tarilganligini va barcha barakalarimni rafiqam Saodat bilan birga ko‘milganligini onglab, keyingi xotinimni taloq qildim. Endi uchunchi yildirki, xotinsiz yashayman va uylanishni ham o‘ylab ko‘rmayman. Chunki marhuma Saodat bilan kechirgan kunlarimning totli xotiralari menga abadiy lazzat bag‘ishlag‘anlaridek, ham achchig‘-achchig‘ yig‘latadirlar. Uylanishimga kengash berguchi o‘rtoqlarimg‘a: — Men endi dunyodan o‘tkan kishi, bu kun bo‘lmasa ertaga yor qabri ustida yong‘an sham’da o‘zini halok qilg‘uchi bir parvona, — deyman.

Endigi o‘ylag‘anim faqat qaynimni uylantirish, so‘ngra... so‘ngra yuzni yoruq qilib Saodat quchog‘iga kirish... — dedi va darmonsizlang‘an kabi yostiqqa yonboshladi. Ustaning bu so‘ngg‘i so‘zi Otabekni ortiq asarlantirgan, ko‘z chuquri bir-ikki qayta yosh suvi bilan to‘lib chiqg‘an edi.

Ikkisi ham uzoq jim qoldilar. Otabek o‘z qayg‘usini butunlay deyarlik unutib qo‘yg‘an, qarshisidag‘i yerga singibkina yotqan mujassam ishqdan ko‘z uzolmay boshladi. Ustaning moziysida emas, holida ulug‘ bir ma’no

---

[1] B i y l i k — hukmronlik.
[2] F a h sh — qabih, xunuk, yaramas.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
ko‘rar edi. Ammo uning istiqbolida bir bo‘shliqdan o‘zga hech gap uchrata olmasa-da, yana ulug‘ bir ma’no ko‘rgandek bo‘lar edi. O‘z istiqbolini ham shu ustaniki qabilidan ko‘rmakchi bo‘lsa-da, buning uchun bir narsa kamdek, yetishmag‘andek kelar, ikkinchi usta Alim bo‘lish uchun bir «o‘ldi» so‘zigina oradan topolmas edi. Keyinroq bu «o‘ldi» so‘zini qo‘shqan bilan ham usta Alim bo‘lish qiyinlig‘ini onglay boshladi, chunki Otabek Kumush tomonidan so‘kilgan va tashlang‘an edi. Holbuki, Saodat so‘kmagan va tashlamag‘an, balki erining bir gunohi sababidan yosh umrini xazon qilg‘an va usta Alim qayin otasi tomonidan hayvoncha quvlanmag‘an... va qayin ota tomonidan kuyav yo‘lig‘a tuzoq qo‘yilib, Saodatni chiqarib olish fikriga tushilmagan, ya’ni orag‘a shaytanat oralamag‘an... Bu so‘ngg‘i fikrni ul o‘ylamag‘an joydan ilhom qabilidan to‘qib olg‘an edi, ya’ni o‘zining Toshkanddan uylanishiga qutidor tomonidan rizoliq berilishini, hatto uning to‘yni o‘z qo‘li bilan o‘tkazib kelishini ilgaridan hozirlanib kelingan tuzoq, deb tushungan edi. Muhokamasi shu yergacha kelib yetkach, usta Alim darajasiga yetish uchun o‘zida hech bir munosabat ko‘rmadi... Usta Alim yozib bergan o‘ringa kirib yotar ekan, o‘z-o‘ziga aytar edi: «Quvlanishg‘a, tahqir etilishka loyiq ko‘rilgan Otabek usta Alim bo‘lishg‘a ham sazovor emas!» Ul uyqug‘a ketar ekan, yuragi bolalarini uchurib ketkan karrukning uyasidek bo‘m-bo‘sh edi.

* * *

Otabek ertagi namozga turg‘anda ko‘zi Shamshodbekning bazmidan azonda qaytib kelib, dong qotib uxlab yotqan Sayfiga tushdi. O‘n besh yoshlar chamasida bo‘lg‘an bu yigit o‘zining o‘tkur husni bilan Saodatdan xabar berar edi.

Bir-ikki piyola choy ichkan bo‘ldi-da, usta Alim bilan xayrlashdi.

9. UNUTOLMASA NIMA QILSIN?

Bu gal Otabekning kutilmagan ravishda Marg‘ilondan tez qaytib kelishini O‘zbek oyim o‘zining juhud domladan qildirg‘an jodusining hind sihrini yengganligi,

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
deb so‘yingan edi. Biroq Otabekning ko‘pisincha mehmonxonada yotib qolishi uni bu to‘g‘rida shubhaga tushurib qo‘yg‘an va bunda qanday hikmat borlig‘ini bevosita bilib olish uchun birarta romchi domlag‘a borish fikriga tushkan edi. Yusufbek hojining bo‘lsa bunday mayda ishlarni tekshirib yurish uchun fursati ham yo‘q, uning Normuhammad qushbegi yonidan bo‘shag‘an vaqti ponsad va beklarnikida kengash va ziyofatlar bilan tugalar edi. Uning diqqatini jalb etkan narsa bo‘lsa, ul ham Otabekning tadbirsiz siyosat va ahmoq boshliqlar mavzu’idan olib qilaturg‘an shikoyat va hasratini keyingi kunlarda jim-jit bo‘lib ketkanligi edi. Bu kunlarda Otabekka eng yaqin turg‘an kishi Hasanali ota edi. Chunki Otabek bu keyingi kunlarini mehmonxonada o‘tkazganlikdan Hasanaliga ham uning yonig‘a kirishka va bir muncha so‘zlashib o‘lturishka to‘g‘ri kela boshlag‘an edi. Shuning uchun Otabekning qayg‘ulik hollari, uyqusiz mutolaada o‘tkan tunlari va umuman undagi o‘zgarishlar bu to‘g‘rida Hasanalini o‘ylatsa-da, sababini so‘rashg‘a botirlig‘i yetmas va so‘rashni ham foydasiz deb bilar edi. Chunki ul Otabekdagi bu hollarning sirrini bilgandek, muhabbati orasig‘a cho‘b bo‘lib tushkan keyingi uylanishi alamidan deb qaror qo‘yg‘an edi.

Otabekning orzuliq kelin oldig‘a kirmasligi vajhidan O‘zbek oyim achchig‘landi, nihoyat achchig‘ig‘a chiday olmag‘an bir kuni mehmonxonada Otabek yotar o‘rnini yozib turg‘an choqda kirib keldi va yozilg‘an o‘rinni buzib yig‘ib tashladi va:

— Mehmonxonada yotaberib nima qilasan, ichkariga kirib yot! — deb jekirdi. Lekin o‘g‘li endi ilgarigi Otabek emas edi, onasining jekirug‘ig‘a quloq solmadi-da, qaytadan o‘rinni yozib boshladi. O‘zbek oyimning g‘azabi tag‘in ham alanga oldi:

— So‘zimni eshitasanmi, kar?!

Otabek sovuqqina qilib javob berdi:

— Kar emasman, lekin sizning bu taklifingiz oldida ham kar, ham ko‘rman. Bu to‘g‘rida siz endi ortiqcha bosh og‘ritmang!

— Insofsiz, adolatsiz!

Otabek zaharxanda bilan so‘radi:

— Men boshda sizga nima degan edim?

— Nima degan eding?

— Kelinингiz mendan yaxshiliq ko‘rmas, demaganmi

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
edim? Siz bilan otam bunga ko'nmaganmi edingiz, siz buni inkor qilasizmi?

— Ota-onamdan va'da olg'anman, deb shunday xoting'a jabr qilib yura berasanmi?

— Keliningizga jabrni xohlamasangiz va o'zingiz aytkan insofka qaytsangiz, eng oson bir yo'l bor, — dedi va onasidan ma'lum «nima?» deb bilaturgan savolni kutib to'xtadi. Ammo O'zbek oyim so'roq o'rniga labini tishlab boshini ikki yelkasiga tebratdi. — Siz so'rashni tilamasangiz-da, men aytay: keliningizga jabrni xohlamasangiz mendan taloq qildiringiz va bir bechoraga bu yo'sun azob berib yurmangiz! — dedi va bir oz to'xtab davom etdi. — Siz bilgan insofni men ham bilaman. Bir bechorani faqat sizning kayfingiz uchun azob emas, chekkan xo'rlig'ini o'ylab har kuni bir qat etdan tushaman... Agar o'z kayfingizdan kechsangiz, yaxshi bilingizkim, bir emas ikki jonni azobdan qutqarg'an bo'lasiz, onajon! — dedi.

O'zbek oyim o'g'lining bunchalik qat'iy ketishini kutmagan edi va bu yo'sun qattig' muomalani-da Otabekdan birinchi martaba ko'rar edi. So'z qaytarishg'a o'rin topolmadimi va yo janjalning ulg'ayishidan qo'rqdimi, haytovur uzoqqina istehzolanib qarab turg'ach, «esingni yebsan, bolam», dedi-da, mehmonxonadan chiqdi.

Otabek yolg'iz mehmonxonada yotib kun kechirish bilangina qolmadi. Kechalari allaqayoqlarg'a ketib, yo'qolaturg'an odatlar ham chiqardi va bir-ikki qayta ortiqcha mast bo'lg'an holda qaytib, Hasanalini tamom hayratda qoldirdi. Ul Otabekka nasihat qilishni ham bilmas va bu sirni biravga aytish uchun ham hayron edi.

Bir kun kechasi ul yangi odati bo'yicha allaqayoqqa ketkan edi. Hasanalining ko'ngli bu kun ham bir ishka guvohlik bergandek bo'lib, ichkarida yotkusi kelmadi, o'rinni mehmonxonag'a yozib, darbozani zanjirlab keldi. Agar bu kun ham ul o'sha holda qaytsa, bir narsa demakchi, ya'ni qo'lidan kelgan nasihatni qilmoqchi edi. Uxlamay kutib o'lturdi. Ammo ul tungi soat o'n bir bo'lsa ham kelmas, o'n ikkida ham daraksiz edi. Nihoyat, kuta-kuta uyqusi tang qilg'ach, o'rniga cho'zilib kipragini kipragiga ulab yotdi va uxlab ketganini o'zi ham sezmay qoldi. Oradan noma'lum bir muddat o'tib darbozaning so'naqasiz taqillashidan cho'chib uyg'ondi va yo'lakka yugurdi. Qorong'uda zanjirni

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

timiskilar ekan, «kim?» deb so‘radi va javobig‘a «mmm-man» degan sarxush tovushni eshitdi. Bu tovush uning yuragini uyushdirib yuborg‘an va «bu kun ham shunaqa» degan so‘zni ko‘nglidan o‘tquzg‘an edi. Zanjirni tushurib, darbozaning bir tabaqasini ochishi hamono shu tabaqag‘a suyalib turgan Otabek Hasanalining oyog‘i ostig‘a yiqilib tushdi. Hasanali bu kungi kayfning o‘tacha ketkanligini payqag‘an, yo‘lakni tutib ketgan ichkulik isidan o‘qchiyozg‘an edi. Otabekni suyab mehmonxonag‘a kelturar ekan, ikki ko‘zi ichkari havlining eshigida, chunki Yusufbek hojining tunlari tashqarig‘a chiqaturg‘an odatining shu vaqtg‘a to‘g‘ri kelib qolishidan yuragi taka-puka edi. Otabekni yeshintirar ekan, rizosiz bir ohangda dedi:

— O‘g‘lim, sizga shu shaytoni ishning nima zarurati bor?

Otabek mastlarcha kuldi:

— Mmmenga zarurati bo‘lmasa kkkimga bor?!

— Nima bo‘lg‘anda ham men bu ishingizdan rozi emasman, — dedi Hasanali va qanday javob eshitishini kutib turdi. Otabek o‘rniga yotib olg‘ach, kuchlik qilib bir uflab oldi. Hasanali undan javob kutar ekan, bir ozdan so‘ng javob o‘rniga xurrak tovshini eshitdi... Otabekning kutilmaganda bu yanglig‘ yaramas ko‘chalarga kirib ketishiga hech bir turlik ma’no beralmay boshi qotsa ham, ammo uning ko‘z o‘ngidan ignaga zo‘rlab taqilg‘an ip nariga ketmas edi. Undan so‘ng, ikki oylardan beri Marg‘ilonni tilga olmasliqda uni bir oz shubhaga tushirib, «oralaridan birar sovuqchiliq o‘tdimi ekan», deb ham ko‘nglidan kechirdi. Otabek bilan birga choy ichish maqsadida ertalab Oybodoqning damlag‘an choyig‘a bormay, Otabekning uyg‘onishini kutib yurdi. Otabek tushka yaqin uyg‘ong‘ach, Hasanali choy hozirladi. Dasturxon yozib o‘zini kutib o‘lturgan Hasanali yonig‘a qisinib-qimtinib Otabek keldi. Tundagi holi esiga tushib bo‘lsa kerak, boshini yerdan ko‘tarib Hasanaliga qaramas va bir og‘iz bo‘lsin so‘z aytmas edi. Otabekning bu holi Hasanalining nichka yuragiga qattig‘ ta’sir etkan va o‘ylab qo‘yg‘an nasihatlarni unutib, bekzodani bu og‘ir holdan qutqazish fikrigagina tushkan edi.

— Yoshlik — beboshlik, degan ekan mashoyixlar, — deb kulib qo‘ydi Hasanali va: — uy ichidan bitta-yarimtasi sezib qolmag‘ay deb juda xavotirda bo‘ldim...

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Haytovur hech kim payqamapti, — dedi. Otabek tashakkur etkansumon Hasanaliga kulib qaradi va o'zining bu ketishidan rizosizlik bildirgan kabi entikib tin oldi. Hasanali so'zni urintirib Otabekni o'z holig'a qo'ymas edi. Unar-unmasdan bahs qilib, nihoyat, bu unar-unmasning oxirig'a shu savolni ham ulab yubordi:

— Bu gal Marg'ilong'a kechikdingizmi?

Biz yuqorida ham turtib o'tkan edikkim, Otabek na Yusufbek hojig'a, na O'zbek oyimg'a va na Hasanaliga Marg'ilondan tez qaytib kelish sababini aytmagan, Marg'ilon bilan uzil-kesil aloqasi uzilganligini churq etib so'zlamagan, so'ralmag'an so'zga javob berilmas qabilidan jim-jit alamini ichkulukdan olibg'ina yurgan edi. Ikki oydan beri birinchi martaba Marg'ilon to'g'risidan so'ralg'an savol ham faqat shu Hasanalining keyingi so'zi bo'lib, sirni ochish o'nqovida kelgandek edi. Lekin javob tamom haqiqatka mug'oyir[1] va kishini hayratka solarliq bo'ldi:

— Bu kun jo'namoqchi bo'lib turibman, — dedi.

Hasanalining shubhasi bo'shka chiqdi. Choydan so'ng ul o'zining so'zini amalda ko'rsatib, otasidan ham ruxsat olib qo'ydi va peshindan keyin yo'lg'a chiqish uchun hozirlik ham ko'ra boshladi. Uning sirrini bilguchi va «Endi Marg'ilonda nima qilasan?» deb so'rag'uchi orada bo'lmag'anidek, ul bu so'roqni o'z-o'ziga ham berib qaramag'an edi. Go'yo burung'idek Marg'ilon yo'lig'a oshiqib hozirlanar edi...

Yigirma kun o'tar-o'tmas Marg'ilondan qaytib keldi. Bu borishdan birar ish chiqara oldimi-yo'qmi, bu to'g'rini biz kelasi fasllarning biridan o'rganarmiz.

Kelib Toshkandda bir hafta chamasi turdi, so'ngra yonig'a Hasanalini olib Oqmasjid[2] shahriga jo'nadi. Ul ikki yildan beri to'xtab qolg'an savdogarchilik ishini qaytadan boshlamoqchi edi...

10. BIZDA KIM KO'P YIG'LAYDIR?

G'ayri mashru'[3] taloq xati tekkaniga olti oylarcha fursat o'tib ketkan edi. Kumushning go'zallik ta'rifini

[1] M u g' o y i r — qarama-qarshi.
[2] O q m a s j i d — Qizil O'rda.
[3] G' a y r i m a sh r u ' — shari'atga zid.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

g‘oyibona eshitib, og‘zining suvi kelguchi xotinliq va xotinsiz orzumandlar «yotib qolg‘uncha, otib qol!» so‘ziga amal qilib, qutidornikiga sovchilarni turna-qator yubora boshlag‘an edilar.

Albatta, bunda shubha yo‘qdirkim, Kumushning erdan chiqg‘an xabarini Kumushning o‘zidan ham ilgari tushungan va Otabekdan ham ilgari sezgan Homidning sovchisi boshqa sovchilarning muqaddimasi, yoz boshida kelaturgan qaldirg‘ochlarning yo‘lboshchisi edi. Homidning sovchisi bir martaba kelish bilangina qanoatlanmadi, uch-to‘rt qaytalab kelib qutidorg‘a Homidning kuyav o‘g‘ul bo‘lish niyatida ekanligini arzu-niyoz qila boshladi. Natijada Homidboyning sovchisig‘a berilgan javob shu bo‘ldi: «Biz Homidboyni o‘zimizga kuyav o‘g‘ul qilishdan hech bir mone’lik ko‘rmaymiz. Ammo qizimiz mundan so‘ng er qilmasg‘a qattig‘ isror[1] etadir. Shunga ko‘ra Homidboy bizni kechirsin». Boshqa sovchilarg‘a ham javob shu edi. Qutidor bilan Oftob oyimning bu javoblari o‘zlaricha emas, balki Kumushning ko‘ngliga qarab berilar edi.

Biroq Kumushbibining «Man endi er qilib bo‘ldim, mundan so‘ng erga ehtiyojim yo‘q», degan qat’iy javobig‘a ular uzoq quloq solib turolmadilar, chunki uning bu isrorini «chidamasning so‘zi» deb onglar va tuzukrak joyi chiqg‘anda, erga berishka ham hisoblari yo‘q emas edi. Shunga ko‘ra, kelgan sovchilarning o‘zlariga yoqmag‘anig‘a gunohning barini Kumushning bo‘yniga ag‘darib javob berar, ammo ikkinchi yoqdan tuzukrak joyini ko‘zlar edilar.

Kutilmagan yerga shaharning eng olding‘i a’yon va sarvatdorlaridan[2] bo‘lgan Salim sharbatdor deganning Komilbek ismlik o‘g‘lidan sovchilar kelib qoldi.

Ota-otaning kutkanlari shunday tegu taxtlik kuyav bo‘lg‘ani uchun birinchi martaba sovchilarni yaxshi so‘zlar va quyuq-suyuq oshlar bilan jo‘natib, ikkinchi kelishka o‘ylashib javob beraturgan bo‘ldilar. Eru xotin uzoq o‘ylashib turmay (chunki o‘ylashturg‘an joy emas edi) sovchining ikkinchi kelishida javob berishka qaror qo‘ydilar. Kumushning qarshi tushmagi to‘g‘risida, albatta, ularning shubhalari yo‘q edi. Shuning bilan birga ota-onaning so‘zini yerda qoldiradi, deb ham o‘ylamas edilar.

---

[1] I s r o r — qattiq kirishish, ahd qilish.

[2] S a r v a t d o r — badavlat, davlatmand.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

* * *

Kuz kunlarining oyog‘i va qish kunlarining boshi edi. Daraxtlardagi sariq barglar to‘kilib tugalgan, yer yuzi o‘zining qishqi sariq kiyimini kiygan edi. To‘rt tomonining o‘ralg‘anlig‘i soyasida yaproqlarini to‘kilishdan saqlab qolg‘an bu gilos yog‘ochlari ham bu kun tungi qora sovuqqa chidalmay, yelning ozg‘ina harakati bilanda barglarini shirt-shirt uzib tashlamoqda edilar. Havo ochiq bo‘lib, quyosh tuzukkina ko‘tarilgan, ammo uning o‘zi ham bu kun uncha ta’siri yo‘q, bu kungi qora sovuq quyosh kuchini-da keskan edi.

O‘rta eshikdan Kumushbibi ko‘rindi. Burung‘i to‘lalig‘i ketib ozg‘inlang‘an va lekin bu ozg‘inliq uning husniga kamchilik bermay, bil’aks yuqorilatqanlar. Kamon qoshlari ortiq mavj urib o‘zini ko‘rsatkan, bir oz bota tushkan shahlo ko‘zlar tag‘in ham tim qoraliq, tag‘in ham nurlilik kasb etkan edilar. Bu kungi sovuqqa qarshi kiyib olg‘an sovsar po‘stinining yoqalig‘i kishining hasadini ortdirib, nafis bag‘baqalarni o‘pib yotar edilar. Biroq unda bir kamchilik bordek ko‘rinar edi: shahlo ko‘zlar burung‘idek o‘ynab turmas va so‘ng chekdagi bir og‘irliq bilan harakatlanar edi. Bir tomondan qarag‘anda bu og‘irliq-da unga bir oliylik, ulug‘vorliq bag‘ishlag‘andek. Kelib ayvon muyishig‘a o‘lturdi-da, ko‘zlarini og‘irg‘ina harakatlandirib, ketma-ket chip-chip etib to‘kilmakda bo‘lg‘an hazonlarg‘a qaradi va har bir yaproqni yuqoridan kuzatib yerga qo‘ya bordi. Ul yerga tushkan har bir yaproqda o‘zining tarjumai holini o‘qur, o‘zini-da mavqi’idan ayrilib, hechka chiqib turg‘an shu xazonlardan ayira bilmas edi. Ayira bilmadi-da, latif ko‘kragini to‘rt enlik ko‘tarib tin oldi va ko‘zlari jiq yoshg‘a to‘ldi. Yeng ichidan bir-birisiga o‘tquzilg‘an ikki qo‘lini barobar ko‘tarib ko‘z yoshini artar ekan, ichkari havlidan Oftob oyim chiqib kelar edi. Ul yer ostidan qizig‘a ko‘z qirini tashlab mehmonxona eshigini ochishg‘a tutindi. Oftob oyimning orqasidan Oyshabibi ham ko‘rindi, kelib Kumush yonida to‘xtab so‘radi:

— Nima qilib tashqarida o‘lturibsan?

— O‘zim, — dedi Kumush qoshlarini chimirib, chetka yuzini o‘girdi.

— Mehmonxonaga kirsang, sen bilan ikki og‘iz maslahatimiz bor edi.

— Nima maslahatingiz bor?

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Oldin kir, bolam, — dedi kampir va Kumushning yelkasiga qoqib turg'izdi. Ular ichkaridagi sovchi xotinlarni yolg'iz qoldirib, Kumushning so'zini olish uchun tashqarig'a chiqg'an edilar. Ammo Kumush bo'lsa sovchilarning oldidan rizosizlig'ini onglatqandek bir namoyish bilan ketkan edi. Ul mehmonxonag'a kirgandan so'ng ham tersayib tokchalardan nedir axtarg'andek yurina boshladi.

— Tokchada san qidirg'an narsa yo'q, kelib yonimizg'a o'ltur, — dedi Oftob oyim.

— O'lturganimdan sizga bir pullik foyda yo'q, sovchingizga o'zingiz bilgan javobni beravering!

Oyshabibi qizig'a ma'nolik qilib bir qarab oldi:

— Bolam, axir ikki og'iz gap eshit-chi oldin! — dedi.

Kumush o'ltura bermagach, Oftob oyim qizishdi.

— Qizim, saning bu qarshilig'ingdan muddaong nima?!

— Siz bilan otamg'a muddaomni necha qaytalab aytdim-ku: mundan so'ng bu ishni xohlamayman.

— Dunyodan toq o'tasanmi?

— Toq o'tamanmi, yo'qmi, buni tangri biladir.

— Man saning hali ham o'sha uyatsiz eringdan ko'ngil uzolmag'aningni bilaman. Saning bu xomtama'lig'ing koni bolalig'ingdir. San yaxshi bilki, mundan so'ng otang ul uyatsizga o'z uyidan joy bermaganidek, uyatsizning o'zi ham uzil-kesil sani tashlag'andir. Agar so'zimga ishonmasang mana buni o'qub qara, dedi-da, Kumushka bir qog'oz uzatdi va davom etdi. — Biz buni san unga xat yozg'aningdan so'ng javob o'rnida olg'an edik. Biroq o'sha vaqtda bu uyatsizning birinchi taloq xatisi ham sanga yetib ortqanliqdan bunisini sandan yashirg'an edik. Hamon-da saning umiding kesilmagani uchun bu xatni ham ko'rsatmakchi bo'ldim! — dedi. Kumush qog'ozni onasidan oldi:

«Matluqam[1] Kumushbibiga. Manim birinchi xatim bilan sizning menga qilaturg'an erkaliklaringizga bir chek qo'yilg'an kabi edi. Lekin bunga tushunmabsizmi va yo tushunishka tilamabsizmi, haytovur yana ham eski erkaliklaringizni tark etmabsiz. Xatingizni o'qur va o'zimni kulgidan to'xtata olmas edim. Orzuga ayb yo'q, deydirlar. Chekdan oshib qilg'an hujumlaringiz eski qadrdonlig'ingiz

[1] Matluqa — taloq qilingan.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

otig'a kechiriladir. Endilikda sizga mendek vafosiz va hiylagar bo'lmag'an yangi er topilg'ay edi, deb addoi Otabek Yusufbek hoji o'g'li, 26 javzo, 1265-nchi yil, Toshkand».

Maktub uning yurak jarohatini qaytadan tirnab tashlag'an edi. Ko'z yoshini duv-duv to'kib, xatni o'z taxig'a soldi va o'zidan javob kutib turg'an achasi bilan onasig'a dedi:

— Men bu uyatsiz yirtqich bilan yarashmoq uchun umid tutmayman, shuning bilan birga er ham qilmayman!

— Nega? — deb so'radi onasi.

— Negami? — dedi Kumush va yig'lag'an ko'yi javob berib boshladi: — Negaki men o'zimning suygan va muhabbat qo'yg'an erimdan buncha uyatsizlik, bu yanglig' vafosizlik ko'rdim. Endi er degan shu bo'libdimi? Mundan ko'ra dunyodan toq o'tkan yaxshiroq, yolg'iz yurgan tinchroqdir. Shuning uchun qizingizg'a er otidan so'zlamang-da, yafroq kabi titrayturg'an yuragiga dahshat ham solmang!

Bu so'zdan so'ng Oftob oyimning onaliq ko'ngli erib ketkan, ichkarida javob kutib o'lturg'uchi sovchilarg'a qanday bahona topib kirishni-da o'ylab ulgurmag'an edi:

— Yig'lama, — dedi. Kumushni mehmonxonada qoldirib onasi bilan chiqdi.

* * *

Salim sharbatdorniki qutidorg'a nihoyatda ma'qul tushib qolg'an edi. Shuning uchun xotini va qizidan so'rab o'lturmay bir kun do'konidan erkak sovchilar bilan bitishib ham keldi va xotinig'a «men bu kun fotiha qilib keldim, nima bo'lg'anda ham endi qizingni ko'ndirmasang bo'lmaydir», dedi. Ammo Oftob oyimning er otini eshitkanda titray boshlayturg'an qizi bilan uchrashmoqqa aslo toqati yo'q, erining bu so'zini eshitkanda tamom o'zini yo'qotqan edi. Ul qizini ko'ndirish uchun qutidorg'a va'da berganda o'z holini ikki yoqdan o'qtanilg'an xanjar orasida qolg'uchig'a o'xshatar, qaysi tomong'a qimirlasa ham muhlik[1] yara olishini aniq bilar edi. Shu kundan so'ng bechora onaning og'ir kunlari boshlandi. Eriga bergan va'dasini aslo bajara bilmas, bul haqda qizig'a og'iz ochib so'zlay

[1] M u h l i k — halok qiluvchi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
olmas edi. Har kun bozordan qaytib kelib birinchi so‘zi «ko‘ndirdingmi?» bo‘lib qolg‘an eridan tuni bilan koyish eshitar va kunduzlari Kumushka og‘iz ochishg‘a yuraksina olmay azoblanar edi.

Bir necha kundan so‘ng qutidor ham endi o‘z xatosini onglag‘an, chunki har kun deyarlik Salim sharbatdornikidan kelib to‘y kunini so‘rag‘uchi kishiga turlik-turlik bahonalar ayta berib zerikkan va uyatidan do‘konga tushishni-da tark qilish fikriga kelayozgan edi. Bir kun do‘kondan nihoyatda achchig‘lanib qaytdi va Oftob oyimni umrida eshitmagan so‘kishlar bilan so‘kdi: «Qizingni deb shaharda bosh ko‘tarib yurolmayturg‘an bo‘ldim. Ko‘ndirsang ko‘ndir, bo‘lmasa mendan umidingni uz, men endi sanlarning dastingdan shahardan qochib ketmasam bo‘lmaydirg‘an darajaga yetdim!» dedi. Ertasi kun bechora ona qizig‘a mash’um mavzu’dan so‘z ochishg‘a majbur bo‘ldi. Qizining yonig‘a o‘lturib so‘zlash o‘rniga yum-yum yig‘lay boshladi. Kumush esa onasini bu holg‘a solg‘an sirdan voqif, shuning uchun yig‘i sababini so‘rab o‘lturmay, ul ham ko‘z yoshisi bilan yuzini yuvmakka tutindi. Ona-bola uzoq yig‘lashdilar, ko‘z yoshlari bitkuncha bo‘zlashdilar.

— Bu kunlardan ko‘ra dunyog‘a kelmagan bo‘lsam edi. Bu tirikligimdan ko‘ra, o‘lib ketkan bo‘lsam edi! — dedi oxirda Oftob oyim.

— Yanglish so‘zlaysiz, onajon! — dedi Kumush va: — Siz dunyoda turishka loyiq edingiz, lekin sizning dunyodan to‘yishingizga va qon-qon yig‘lashingizga sababchi men bo‘ldim. Men siyoh baxt dunyog‘a kelmagan bo‘lsam edi, sizga munchalik kulfatlar, munchalik anduhlar ham yo‘q edi. Shuning uchun siz tangridan so‘rangkim, tezroq men mash’umani mahv[1] etib, sizga uch-to‘rt kun tinchlik bersin, onajon! Sizni bu holda ko‘rishka va o‘z tilagim yo‘lida sizni qurbon etishka ortiq toqatim bitdi. Tashlandiq bu qizingiz, qo‘lma-qo‘l yurg‘uchi bu o‘yinchiq qizingiz kimu, sizdek bir mehribon onani qon yig‘latish kim? Yig‘lamangiz, ona. Sizning to‘kib kelgan ko‘z yoshlaringizning bir tomchisig‘a ham bu tashlandiq qizingiz arzimas, siz otamg‘a maning rizolig‘imni tashvishlanmay bildiraveringiz. Ul ham kishilar oldida bu baxtsiz qizining ta’nasiga qol-

[1] M a h v — yo‘q qilmoq.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

masin. Siz manim yuzimga ezilib qaramangiz, o'ylamay-netmay rizolig'imni bildiraveringiz! — dedi va yuziga to'zg'ib tushkan sochini to'g'rilab olg'ach, davom etdi: — Agar siz menga ortiq achinsangiz, rizolig'imning bir sharti qilib to'yni kelasi kuzga bo'lishini aytib o'tingiz, agarda otam baxtsiz qizining bu tilagini qabul etsa-etsun, bo'lmasa manim bu tilagim ham sizning bir tomchi ko'z yoshingizga arzimas, onajon, sizning shodlig'ingiz yo'lida har bir og'irliqlarg'a bu baxti qaro qizingiz rozidir, onajon!

Oftob oyim Kumushning bu so'zlariga to'zib turolmay, qizini bag'rig'a bosib quchoqladi, ona-bola tag'in shiddatlik ravishda ko'z yoshig'a ko'mildilar...

* * *

Oftob oyimning qat'iy isroriga binoan qutidor ham qizining shartini qabul etkan. Qudalar ham kelasi kuzgacha kutishka rozi bo'lg'an edilar. Demak, kelasi kuzga qutidor Salim sharbatdor kabi bir kishiga qudalashib olg'anidek, Kumushbibi ham Otabek o'rniga Komilbekni almashdirar edi.

11. «NAVO» KUYI

Xalqimiz ta'biricha, bu zamonlar «musulmonobod» bo'lsa-da, biroq bu tantanalik ta'birni buzib qo'yaturg'an ishlar ham yo'q emas edi. Xon musulmon, bek musulmon, xalq musulmon, buning ustiga yurish-turish ham musulmoncha, hukmlar ham shari'atcha edi. O'g'irliq qilg'an uchun qo'l kesiladir va yo dorg'a osiladir. Zoni bilan zoniyalar[1] ham peshtoqdan tashlanadirlar, ichkulik ichkan uchun qirq darra uriladir. Rais afandi mulozimlariga darra ko'tartirib, namozsizlarni tekshiradir, farzi ayn bilmaganlarni urdiradir edi. Ish shunchalik nozik bo'laturib ham o'g'rilar o'z tirikliklari orqasidan qolmaydirlar. Esh aka bilan Tosh akaning uylari orqasidan teshilib mollari o'g'irlana beradir, peshtoqdan qopqa bo'g'ilib tashlanmoq uchun fohishalar ham yetishib turadirlar. Butun umrida peshonasi sajda ko'rmaganlar ham ko'b, ammo farzi aynning bosh tomonidan to'rt-besh jumlani har kim qiynalmasdan

[1] Z o n i, z o n i y a — buzuq er va xotin.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

sayriy olar edi. Ko'b kishilarning uylarida musallas bilan bo'zalar xumlab qaynab yotsa, ikkinchi tomonda rasmiy suratda ichkulik sotish bilan tiriklik qilg'uchilar ham yo'q emas edilar. Toshkandning Chuqur qishloq degan yerida qozoqlar tomonidan ochilg'an va hamisha rustamnamo[1] kishilar bilan ayqirib yotqan bo'zaxonalar ham yo'q emas edi.[2]

Besh oylab Oq masjid safarida yurib ketkach, Otabek to'g'ri shu Chuqur qishloq bo'zaxonalaridan biriga kelib tushkandek bo'ldi. Uni kunduz kunlari bo'zaxonada uchratib bo'lmasa-da, ammo bo'zaxonag'a kelmagan kechasi juda oz edi. Bo'zagar Otabekning kim bolasi ekanligini yaxshi bilgani uchun hamma ishni uning tilagiga qarab qilar, ul keldi deguncha oddiy bo'zaxo'rlar yonig'a o'tquzmay o'zining maxsus hujrasiga olib kirar, boshqalarg'a berilaturgan loyqa bo'zadan bermay, bo'zaning guli bilan mehmon qilar edi.

Hozir ham ul shu bo'zaxonada edi. Endi uchunchi kuvachani tugatib, to'rtinchini chaqirg'an edi. Bo'zagar kirdi:

— Bo'za beraymi, bek? — deb so'radi.

— Bering, — dedi va: — mashshog'ingizni ham kirgizing!

Vaqt yarim kechadan ham og'qan, kunduz kunidan beri ichishib charchag'an xo'randalar baqirishib-chaqirishib tarqalishqan edilar. Bo'zaxona tinchigan edi. Qo'lma-qo'l yurib charchag'an mashshoq ham bo'shab, Otabekdan katta-katta ehsonlar ko'rgani uchun, vaqtning kechligiga ham e'tibor qilmay kirgan edi. Mashshoq Otabekning sarxush qo'lidan bir piyola bo'zani ichkach, dutorini chertib so'radi:

— Qanday kuyni chalay, bek aka?

Otabek sarxush tovush bilan jiddiygina qilib javob berdi:

— Bilsangiz, haydalish kuyini chalingiz, ajralish kuyini chalingiz!

Mashshoq ajabsing'an edi:

— Dunyoda bunday kuylar borlig'ini umrimda birinchi martaba eshitaman, bek aka!

— Dunyoda bunday kuy yo'q deb o'ylaysizmi, siz

---

[1] R u s t a m n a m o — dono, aqllik, davlatmand, zabardast.

[2] Bu bo'zaxonalar Mallaxonning 1273-nchi yil Toshkand hokimligi vaqtida barham berildi *(mual.)*.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
eshitmagan bo‘lsangiz, maning eshitkanim bor... Bilmasangiz, bilgan kuyingizni chalingiz!

Mashshoq dutorini sozlar ekan, yana so‘radi:

— Bu kuylar yangi chiqg‘anmi?

— Yangi chiqg‘an.

— Qayerda eshitdingiz?

Otabekning kayfi tarqag‘andek bo‘lib, mashshoqqa qaradi:

— Bu kuylarni Farg‘onaning Marg‘ilonida eshitdim... — dedi.

Dutorni sozlash uchun reza kuylardangina olib turg‘an mashshoq, Otabek kutmagan joyda «Navo»dan boshlab yuborg‘an edi. Kuyning boshlanishi bilanoq uning vujudi zirr etib ketkandek bo‘lib keyingi piyolasini bo‘shatdi va ixtiyorsiz ravishda dutorning munglik tovshig‘a berildi. Dutor tovshi qandaydir o‘zining bir hasratini so‘zlag‘andek, hikoya qilg‘andek bo‘lib eshitilar edi. Yo‘q, bu hasratni ul o‘z tilidan so‘zlamas edi — Otabek tilidan so‘zlar edi... Otabekning ko‘z o‘ngidan o‘tkan kunlari birma-bir o‘tib boshladilar-da, nihoyat «anuv» xotiralari, «anuv» hangomalari ham ko‘rinish berib o‘tdilar... Yo‘q, o‘tmadilar... uning ko‘z o‘ngida kelib to‘xtadilarda, shu ko‘yi turaberdilar... Dutor bu ko‘rinishni uning ko‘z o‘ngiga keltirib to‘xtatqach, bu foji’aga o‘zi ham chidab turolmag‘andek yig‘liy boshladi... Dutor quruqqina yig‘lamas edi, balki butun koinotni zirr etdirib va xasta yuraklarni dirr silkitib yig‘lar edi... Otabek ortiq chidab turolmadi-da, ro‘ymoli bilan ko‘zini yashirib yig‘lamoqqa kirishdi... Ul ko‘z yoshlarini to‘xtatmoqchi bo‘lar edi. Biroq hozirgi ixtiyor o‘zida emas edi — hamma ixtiyor dutorning hazin «Navo»sida, toqatsiz yig‘isida edi... Dutorning nozik torlaridan, tilsimlik yuraklaridan chiqg‘an «Navo» kuyi o‘z nolasiga tushunguchi Otabekdek yigitlarga juda muhtoj edi. O‘z dardiga tushungan bu yigitka borg‘an sayin dardini ochib so‘zlar, yig‘lab va ingrab so‘zlar edi... Eshitkuchi esa dunyosini unutib yig‘lar, kuchini yig‘ishtirib yig‘lar va hasratu alamini ko‘z yoshisi bilan to‘kib yig‘lar edi...

Nihoyat «Navo» kuyi uning butun tanidagi suvlarini ko‘zi orqaliq to‘kdirdi-da, falakning teskari harakatidan shikoyat etib qo‘ydi va dunyoda yolg‘iz hasratkina bo‘lmag‘anligini bildirgandek o‘zining «savt» kuyini yer yuziga shodliq va so‘yinch yog‘dirib arz eta boshladi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

«Navo»ning sihirlik «savt»i Otabekning ko‘z yoshlarini quritdi-da, bir yengillik bag‘ishladi. «Navo» bilan yuvilib ketkan uning umid gulzorida yangi chechaklar unib chiqdi...

* * *

Bu o‘lturishdan so‘ng ul bir oylab bo‘zaxonag‘a kelmay ketdi. Marg‘ilondan qaytib kelgach, yana eski odatida davom eta boshladi...

* * *

Otabekning o‘sha voqi’adan so‘ngg‘i Marg‘ilon qatnashlari faqat natijasiz quruqqina bir qatnash edi. Bu qatnashning har birisida usta Alimnikiga tushar, ammo hanuz undan o‘zining sirrini yashirib, Andijondan qaytib kelishini va yo borishini va yo‘l ustidan ko‘rib ketish uchun kirganini aytib usta Alimni minnatdor qilar edi. Ul Marg‘ilonda ko‘b to‘xtamas, bir kun, uzoqqa tortilsa ikki-uch kun turib qaytar, ba’zi vaqtlarda yo‘l ustidan «Xo‘ja Ma’oz» mozorini ham tunab ketar edi. Uning o‘n kunlab yo‘l mashaqqatini o‘z ustiga olib, Marg‘ilonda qilaturg‘an ishi shu mashaqqatlar evaziga arzug‘uliq edimi, yo‘qmi, o‘qug‘uchi buni quyidan onglar:

Marg‘ilondan natijasiz, tamoman bo‘shka qaytib Toshkand kelgach, Kumushni unutkandek bo‘lib uch-to‘rt kun u-bu bilan ovinib yurar, so‘ngra hafta, o‘n kundan so‘ng yana Marg‘ilon to‘g‘risida o‘ylab boshlar, o‘ylab o‘yining tegiga yeta olmag‘ach, o‘zini qayoqqa urishini bilmay qolar, shundan so‘ng hamma alamini Chuqur qishloqqa havola qilib, o‘n-o‘n besh kun bosim ichkanidan so‘ng ichkulukdan ham lazzatlanmay qolar va shuning yonida uning ko‘ngli bir narsaning bo‘yini olg‘andek sezinar, go‘yo Marg‘ilon borsa bir gap bo‘laturg‘andek, bormay qolsa keyinchalikda o‘zi o‘kinaturg‘andek... Shundan so‘ng to‘satdan Marg‘ilon yo‘lig‘a tushib qolar, yo‘lda borar ekan, o‘zini to‘rt ko‘z bilan kutib turg‘andek sezilgan Marg‘ilong‘a har nimadir, bir soat ilgariroq yetish uchun oshiqar edi. Lekin... lekin Marg‘ilon darbozasidan kirishi ila uning holi o‘zgarib boshlar, yuragi qinidan chiqar darajada o‘ynamoqqa olur, ayniqsa poyafzal rastasiga yaqinlashgach, uning bu iztirobi shiddatlanur, poyafzal rastasining yaqini bilan bunchalik o‘zgarishda qolg‘an Otabek ras-

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

taning o‘zida qanday holg‘a tushmog‘ini tasavvurdan ojiz kelur va rasta ko‘rindi deguncha otining boshini chapka burib yuborar va orqasidan kimningdir «...boringiz, eshigim yonida to‘xtamangiz... uyatsiz!» tovshi eshitilgandek bo‘lar edi... O‘z-o‘ziga «haqiqatan men uyatsiz», deb qo‘yar va shuning ila hamma kutilgan-kuzatilgan gaplar, besh kunlik yo‘l mashaqqatlari havog‘a ketar, hatto xayolda emas, haqiqatda o‘ylab qo‘yg‘an qayin otasi bilan xotinini shari’atka chaqirish fikri ham unutilar va yo‘qolur, «hiylagarning yuzini qozixonada ko‘raymi, o‘zi ham qursin, yuzi ham!» der edi-da, otini to‘g‘ri usta Alimnikiga qarab solar edi.

Otabek usta Alimni juda yuqori darajaga qo‘yg‘anidek, uning majlisi bilan ham ancha yengillashar, o‘n yillardin beri usta Alim yuragida saqlang‘an va qabrg‘a ham birga ketishi kutilgan ishq tarixini qayta-qayta eshitkusi kelaberar, usta Alim ham o‘zining o‘lgan Saodati to‘g‘risidag‘i ipidan-ignasigacha bo‘lg‘an xotiralarini takror-takror hikoya qilib, hikoyasi oxirida: «Peshonamga sig‘madi-da, o‘ldi», deb qo‘yar, bu so‘z Otabekning ham yuragiga sovuq suv sepkan ta’sirini berib, ul ham ko‘nglidan: «Manim ham peshonamga sig‘madi-da, tiriklayin o‘ldi» degan so‘zni o‘tquzar edi. Shu holda ikki-uch kun usta Alimnikida turg‘ach, eng so‘ngg‘i martaba Marg‘ilon bilan xayrlashkan kabi shaharning har bir narsasiga alvido nazari bilan boqar va boshi og‘qan tomong‘a ketkandek Marg‘ilonning o‘ng‘ay kelgan darbozasig‘a qarab yo‘l olur edi. Qo‘qonda bir-ikki kun, Kirovchida uch-to‘rt kun, Qurama, Telov va shuningdek, qishloqlarda ham bir necha kunlab qo‘na-qo‘na nihoyat, Toshkandga kelib yetar yana... yana...

Otabekning Marg‘ilong‘a borib kelishi shu yo‘sunda edi. Uning sirri o‘zidan boshqa hech kimga ma’lum bo‘lmag‘anliqdan, orada uning holig‘a kulguchi va undan hisob olg‘uchi birav ham yo‘q, faqat ul hamma hisobni o‘z yuragidan olib, o‘z yuragiga berar edi. Shu yo‘sun oromsizlik va besaranjomlik ichida uning oy-kunlari o‘tib turar edi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

12. JONSO'Z BIR XABAR VA QO'RQUNCH BIR KECH

Agar olg'an hisobimiz to'g'ri chiqsa, bu gal uning Marg'ilong'a quruq qatnab yurishining yettinchi qaytasi edi. 1267-inchi yilning kuzi — bu voqi'ag'a o'n sakkiz, o'n to'qquz oylar o'tib ketkan edi.

Ertalabki choydan so'ng, usta Alim o'zining qaynisi bilan oshxonasi yonig'a yangigina qurg'an to'quv do'konlari yonida ipakka ohor berish ila ovora edi. Ammo ul bo'lsa, do'konxonaning ustuniga suyalgan ko'yi qandaydir bir o'y bilan mashg'uldek ko'rinar, ustaning Toshkand to'g'rilarida bergan savollariga «shundoq, ha, yo'q, albatta» kabi qisqa javoblar bilan qarshi turar edi. Ul shu ko'yi yarim soatlar chamasi so'zsizlik so'nggida, so'zsizgina ko'cha eshik tomong'a chiqib keta boshladi, usta Alim ko'zini ishidan uzib so'radi:

— Yo'l bo'lsin, Shokirbek?

Otabek yo'lak yonidan javob berdi:

— Shaharni bir aylanib kelmakchiman.

— Juda yaxshi, — dedi usta va: — ammo peshindan kechka qolmang, men oshni damlab sizni kutib o'lturaman, tuzikmi?

— Tuzik, — dedi Otabek va yo'lakdan o'tib eshik oldig'a — ko'chaga chiqdi. Chiqishi bilan narigi eshikdan Sodiq ham ko'rinib qoldi-da, Otabek bilan to'qnash keldi. Sodiq iltifotsizgina unga qarab olg'ach, shosha-shosha o'ngdagi tor ko'chaga yurib ketdi. A Otabek to'g'rig'a, katta ko'chaga qarab yurdi. Havo bulut edi.Oq bulutlar bo'lg'anliqdan quyoshning nuri uncha kesilmagan, quyosh to'r ro'ymol ichida o'lturg'an kelinlar kabi yer yuziga suzilib qarar edi. Bulutlarning ohistagina sayridan sezilar-sezilmas hafif[1] bir shamol yurib, yengilgina bir izg'iriq ham yuzga kelib to'qunar, bu izg'iriq kishiga uncha rohatsizlik bermasa-da, lekin qayerdadir dog' qilinmoqda bo'lg'an zig'ir moyining achchig' isini dimog'qa kelturib urishidan kishiga bir behuzurlik hosil bo'lar edi. Otabek yo'lning ayrilishig'a borib to'xtag'an edi. Yuzidan ikkilanish holati sezilar edi. Bu holat ikki yo'l ustida voqi' bo'lg'anliqdan onglanmog'i yengil,

[1] H a f i f — yengil, mayin.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

chunki bir tomonda poyafzal rastasining yo'li, ikkinchi yoqda to'g'ri ko'cha edi. Uzoq to'xtab turmay sobit va kuchlik adimlar bilan poyafzal rastasiga yurdi. Garchi bu ko'cha uning yuziga qizarib-oqarish va bo'zarib-sarg'ayish tuslari berar edi, yana har holda ul sobitqadam edi, o'sha voqi'adan so'ng, onalar ta'biricha, «ilon chiqg'an» bu ko'chaga birinchi kirishi, birinchi jasorati edi. Ko'chaning burilishida yana bir oz uning adimlari sekinlashsa ham, lekin oldinlashini qo'ymay boraverdi. Uzoqdan qutidorning tilsimlik darbozasi ko'rinib turar edi... Darboza yonidag'i mash'um tol daraxti ham nomuborak bir ishka guvohlik bergan kabi bo'lar edi. Borliq kuchini asabiyat markaziga yig'ib, tag'in bir qayta darbozaga qarab oldi. Bu qarashida butun o'tkan kunlarini yana bir qayta xotirlag'andek bo'ldi va ihtizozot[1] orasida uflab yubordi. Ko'ringan gilos yog'ochlarining ostida bir vaqtlarda kimdir birav uni kutib olar edi, endichi... Endi kimni kutar ekan?— degan savol miyasini shipirib ketdi... Ul Kumushni tamoman o'z muhabbatida boqiy deb bilar va otasining zulmiga mahkum, deb tushunar edi. Shuning uchun ko'ringan gilos yog'ochining kuz bilan sarg'ayg'an bargidek Kumushning za'faron yuzini ko'rdi, o'zi uchun emas, uning qalbi parchalang'andek bo'ldi. Hozir ul kutilmagan bir jasoratka molik bo'lg'an kabi edi. Kiraymi, deb o'yladi, bevosita o'zi bilan onglashaymi, deb jasoratlandi... Lekin... lekin darbozaning qarshisidag'i mash'um tol yog'ochi unga qarab kulgandek bo'lar edi: «Boringiz, eshigim yonida to'xtamangiz, orsiz...»

Ul darbozaga yaqinlashayozgan edi, nimadandir cho'chib chetka burildi. Chunki darbozadan chiqib qolg'an ikki kishini ko'rib, bularning birini qayin otasi bo'lib chiqmog'idan hurkkan edi. Haytovur chiqg'uchilar begona odamlar bo'lib, oldinga toba yuriy boshladilar. Boyag'i «...orsiz» jumlasi bilan uning kirish fikri tamoman so'ngan edi. Ammo «biravlar» to'g'risida nima bo'lganda ham bir gap eshitmak havasi tug'ilg'an edi. Bu chiqg'uchilar garchi qutidorning iti haqida bo'lsa-da, bir ma'lumot beralar-ku, deb o'yladi va ularga yetib olish uchun adimlarini kengaytirdi. Ulardan uch-to'rt adim berida borar edi. Baxtka qarshi ular churq etmaygina ketar edilar.

---

[1] Ihtizozot — titrash, qaltirash.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Nihoyat, yuz adimcha borgandan so‘ng, ulardan so‘z eshitishka to‘g‘ri keldi; birisi ikkinchisiga dedi:

— To‘y bilan nikohni bu kunga qilg‘animiz yaxshi bo‘ldi.

— Nima, juvonga ham to‘y boshqa, nikoh boshqa bo‘larmidi? Bordi-keldi bitta juvon qizi bor-ku, munga to‘yni boshqa, nikohni boshqa qilamiz deganiga hayronman.

— Axir qutidor ham boobro‘ odam-da, — dedi birinchi kishi.

Jonso‘z bu xabarni eshitkan Otabeknnig hushi boshidan uchkan kabi bo‘ldi-da, adim uzgan joyida mixlangandek qotib qoldi. Go‘yo ustidan bir chelak qaynag‘an suvni ag‘darg‘an edilar-da, butun terisi oyog‘iga sidirilib tushkan edi... Besh daqiqalab yo‘l ustida esankiragan, hushsizlangan ko‘yi qotib turg‘ach, moshinavori[1] birdan yurib ketdi... «Kishining xotinini taloqsiz chiqarib ol-da, bu kun erga ber», dedi va telbalarcha nima uchundir kulib qo‘ydi, o‘z-o‘ziga so‘zlanib Marg‘ilon ko‘chalarida tentaklarcha yugura boshladi. Uning bu kungi holig‘a qarash yuraklarni yorg‘anidek tasvirga ham qalam kuchi ojizdir...

* * *

Oyning o‘n beshlari bo‘lsa-da, havoning bulutlig‘i bilan oy ko‘rinmas, chin ma’nosi bilan qorong‘i kuzning qorong‘i bir tuni edi. Bir necha yuz yillardan beri yashab favqulodda zo‘rayib ketkan «Xo‘ja Ma’oz» mozorining chakalagi bu qorong‘iliqqa bir manba’ kabi edi. Kuchlik bir yel turg‘an, qandaydir bir ishka hozirlang‘an kabi to‘rt tomong‘a yugurib yurar edi. Mozor chakalagining bir burchagida tutab yotg‘an to‘nka yonida sochlari o‘sib soqolig‘a qo‘shilib ketkan bir devona bu mudhish qorong‘iliqqa qarshi kurashkan kabi gulxanni yondirishg‘a tirishar, gulxan tavaragidan aylanib qo‘lidag‘i kasavi bilan to‘rt tomonidan kovlar edi. Yel borg‘an sayin kuchlana bordi, chakalak tartibsiz holg‘a kirib ketdi, bitta-yarimta to‘kilmay qolg‘an yaproqlar shitir-shitir to‘kilishka oldilar, qarg‘a va zog‘chalar ayni uyqu zamonida tinchsizlagani uchun yelga qarshi namoyish qilg‘andek g‘o-g‘u bilan chakalak ustidan aylana

[1] M o sh i n a v o r i — mashinalno, o‘z-o‘zidan, beixtiyor.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

boshladilar. Yel kuchaygandan kuchayib borar va shu nusbatda mozor ichi ham yana bir qat qo‘rqunch holg‘a kirar edi, yel ketma-ket bo‘kurar, bunga chiday olmag‘an shox-shabbalar qars-qurs sinar, keksa yog‘ochlar g‘iyq-g‘iyq etib yolborish tovshi chiqarar edilar. Yel ortiqcha bir g‘azab ustida edi, yer yuzidagi tikkaygan narsani bukib-yanchib tashlamoqchi bo‘lg‘andek pishqirar edi. Chinorlardan birisini yerni titratib yiqitdi, devonaning gulxanini ham to‘nka-po‘nkasi bilan ko‘tarib chakalakning ichiga otdi. Butun mozor ichini o‘t uchquni ila to‘ldirib, yana ko‘rinishka boshqacha bir tus berdi. Mozorni bu holg‘a solg‘andan so‘ng go‘yo shuning uchun g‘ayratlangandek bir oz pasaya tushdi, och qolg‘an sher kabi pishqirib bo‘kirishlari bosilg‘andek bo‘ldi. Yarim soat chamasi jonsarakka uchrab uchib yurishka majbur bo‘lg‘an qarg‘alar yelning g‘azabi bosilg‘anini bir-birlariga xabar bergandek g‘o-g‘u bilan eski o‘rinlariga qo‘na boshladilar. Ko‘kni o‘rab olg‘an qora bulutlar ham to‘s-to‘ska bo‘linib, oy ham qora parda ichidan yarim yuzini ochib yer yuziga mo‘ralab qo‘ydi. Gumbazning qarshisidag‘i ikki tup keksa chinorning iskelet kabi quruq shoxlarig‘a yel bilan allaqayoqlarg‘a uchub ketkan boyqushlar to‘pi ham kelib qo‘na boshladilar. Oy parchalang‘an qora bulutlar bilan bekinmachoq o‘ynag‘an kabi hali ko‘rinib, hali yashirinar edi. Ul yer yuziga kulib qarag‘anda mozorning chakalak qismiga aytarlik o‘zgarish bera olmasa-da go‘riston qismidagi do‘mboq qabrlarni va ularning ustidagi marmar qabr toshlarini chuqur bir sukut ichida ekan, taqdim qilar edi. Boyqushlar uyasi bo‘lg‘an ikki tup chinorning qarshisida gunbazga ro‘baro‘ qilib soling‘an ayvon-ziyoratxona bor, ammo oy tik ko‘tarilganlikdan ziyoratxona ichi qop-qorong‘i[1] edi. Chinor shoxlari tasbeh kabi chizilg‘an boyqushlar bilan to‘lg‘an. Ular oy nuridan uncha xursand emaslar, chunki oy yer yuziga kulib qaray boshlasa, ular boshlarini kaftlari ichiga oladirlarda, dum-dumaloq bo‘lib siqilib ketadirlar. Oy bulutlar ostig‘a kirsa, ular rohatlang‘an kabi chig‘-chig‘-chig‘, ki-ki-ki qilib sayrab ham yuboradirlar. Bu vaqt shu boyqushlar sayrog‘i ichidan ingranish kabi bir tovish ham eshitilgandek bo‘ladir.

[1] «Xo‘ja Ma’oz» ustiga solingan gunbaz va ziyoratxona ham masjid 1265-inchi yilda O‘tabboy qushbegi tomonidan bino qilingandir *(mual.)*.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Masjid manorasidan ruhoniyyat yog'dirib munglik azon tovshi eshitildi-da, uyqu quchog'ida yotqan tabi'at uyg'onib javob bergan kabi jong'irab ketdi. «Ollohu akbar»ning so'ngg'i takrorida Otabek ziyoratxona ayvonidan tushdi-da, shildirab oqib turg'an ariq yonida tahorat olishka o'lturdi...

13. KULIB QARAMAG'AN BAXT

Endi uning umidi ortig'i bilan uzilg'an esa-da, yuragining yonishi bosilurliq emas edi. Ilon chaqqan kishidek dovdir va besaranjom ko'zlari bilan tevarakka bejo-bejo nazar tashlar edi. «Nihoyat, otasi o'z muddaosiga yetdi, qizini yangi kuyavga topshirib tinchlandi, kecha kechasi u...» der edi-da, mundan keyingi og'ulik haqiqatini bir turlik ham o'ziga singdira olmas va buni o'ylamaslikka tirishib va o'zini alaxsitmoqqa o'la tevaragiga bejo-bejo nazar tashlar edi.

Endi Marg'ilon qatnab yurishlarg'a xotima berilgandek va Marg'ilon ham undan «tag'in mendan nima ilinjing bor?» deb so'rag'andek bo'lar edi. Ul «Xo'ja Ma'oz»dan chiqib to'g'ri usta Alimnikiga qarab borar edi va u yerdan otini minib umrlikka Marg'ilon bilan vidolashmoqchi edi esa-da, oshna bir kimsa uning ko'z o'ngiga ko'ringandek va begona rahmsiz bir yigitning quchog'idan qutilish uchun undan imdod[1] so'rag'andek bo'lar edi.

Usta Alim eshigiga yetayozdi. Tom bir ma'yusiyat ichida boshini quyi solg'an edi, o'tib turg'uchlarni payqamas, laxja cho'g' kabi yonib turg'an yurak o'ti bilan sarxushdek edi. Qarshidag'i Sodiqning eshigidan chiqg'uchini ham payqamay qoldi va bir qarab olsa ham tanimag'an edi. Otabek usta Alimnikiga kelib kirgach, Sodiqnikidan chiqg'uchi Homid uning orqasidan qarab yo'l ustida qotib qoldi...

* * *

Shokirbekning kecha ertalab chiqg'anidan beri daraksiz ketishiga tashvishlanib o'lturgan usta Alim uni yo'lakda ko'rishi bilanoq so'radi:

— Eyyy, barakalla sizga, Shokirbek, qayog'larda

[1] I m d o d — ko'mak, yordam.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
qolib ketdingiz? Juda ham tashvishlandim-da o‘zim... Nega bir kunda bunchalik o‘zingizni oldirib qo‘ydingiz?

Chindan ham ul o‘zini tanilmaslik darajada oldirg‘an, o‘lat tekkan kishilardek ko‘zlari ichiga cho‘kib ketkan edi. Kirtaygan ko‘ziga kuch bilan kulgi tusi berdi.

— «Xo‘ja Ma’oz»ga borg‘an edim...

— Nima uchun?

— Tunashka.

Usta Alim taajjub ichida yana bir qat uni kuzatib chiqdi:

— Tunadingiz?..

Otabek ayvon peshonasiga o‘lturar ekan, ustani shubhada qoldirmas uchun dedi:

— Ko‘bdan beri bir tunasam, degan xayolim bor edi.

— Buzrukdan so‘rayturg‘an tilaklaringiz bor ekanda,— dedi usta Alim va kuldi. Bu vaqt ikkisi ham yo‘lakda yurib kelgan oyoq tovishig‘a qaradilar. Qo‘pol qilib boshig‘a salla o‘ragan, ustag‘a o‘xshash rangsizgina bir yigit kirib kelar edi. Usta Alim kelg‘uchining istiqboli uchun o‘rnidan turdi: «Eyy, usta Farfi, keling-keling, bormisiz!» dedi. Usta Farfi salom berib, usta Alim bilan ko‘rishdi. Otabek ko‘rishishga hozirlanmagan ham edi, ammo kelguchining o‘zi qo‘l uzatdida, «salomatmisiz, mehmon» deb ko‘rishib oldi. Ayvong‘a o‘lturgach, fotiha o‘quldi. Usta Alim kelguchini xush omadi qilar ekan:

— Siz ham kelar ekansiz-a, usta Farfi, — deb piching otib qo‘ydi. Sog‘u salomatlik so‘ralib bo‘ling‘andan so‘ng usta Farfi qarshidag‘i yangi qurilg‘an to‘quv do‘konlariga ishorat qilib dedi:

— Ishlar katta-ku, usta. Do‘konlarni ham qurib yuboribsiz.

— Do‘konni qurg‘animizg‘a endi o‘n besh kuncha bo‘lib qoldi. Fotiha o‘qishg‘a kelarmisiz, deb kutdim, shu choqg‘acha daragingiz bo‘lmadi.

— O‘zingizning boshingizdan o‘tkan, usta, — dedi biravning kafilini olg‘andan so‘ng ishni tashlab chiqish qiyin, jum’aning sharofatlari bilan oshna-og‘aynilarnikiga borilmasa boshqa iloji yo‘q, axir o‘zingizning ham boshingizdan o‘tkan-ku.

— Yo‘q-yo‘q, — deb kuldi usta Alim, — men sizga o‘xshab do‘konning ustida sira tuxum bosqan emasman, simkorni[1] ko‘zim qiymaydir desangiz, men ishonar edim.

[1] S i m k o r — shogirdlarga ishbay asosida to‘lanadigan ish haqi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Bu gapingiz to‘g‘ri, — dedi kulib usta Farfi, — jo‘jalari tushkir yildan-yilga ko‘payib boradirlar, qozonni suvga tashlag‘an kunimiz janjal.

Usta Alim dasturxon yozish uchun hujrasiga kirganda usta Farfi Otabekka qaradi.

— Sizniki qayerdan, mehmon?

— Toshkanddan.

— Juda yaxshi, qani yuqoriga chiqing, mehmon, — dedi. Otabek rahmat aytib joyidan qo‘zg‘almadi. Usta Farfi uni yana bir qat ko‘zdan kechirib olg‘ach, cho‘kkalashini buzib chordana qurib oldi. Dasturxon yozilib, ertangi nonishta uchun damlab qo‘yilg‘an choy olinib kelindi. Usta Alim Shokirbekni yuqorig‘a chiqishg‘a qistasa ham ul kavshini yeshmay eskicha o‘ltura berdi. Undan-bundan so‘zlashib choy ichishka boshladilar. Usta Alim bilan usta Farfining so‘zlaridan ilgarida bir ustakornikida ishlaganliklari, mundan yigirma kunlar burun usta Alimning ustakor bilan nima uchundir urishkanligi va shundan so‘ng o‘z uyiga do‘kon qurib o‘zicha ishlay boshlag‘anlig‘i onglashilar edi. Usta Farfi undan achchig‘lanish sababini so‘rasa ham ul qanoatlandirarlik javob bermas, faqat «yomon odam ekan, to‘ng‘iz» bilan kifoyalanar edi. Shu vaqt Otabek qo‘lidag‘i piyolasini bo‘shatdi-da, usta Alimga dedi:

— Endi menga ruxsat berasiz, usta. Men jo‘nayman.

Usta Alim ajabsinib unga qaradi va:

— Nega tag‘in ketmakchi bo‘lib qoldingiz? Uch-to‘rt kun turmoqchi emasmi edingiz? — deb so‘radi.

— Marg‘ilondag‘i ishlarim bitib qoldi, o‘zim ham zerikib boshladim...

— Bo‘lmasa choy tugalsin, shundan so‘ng sizga ruxsat,— dedi usta Alim va bir piyola choy to‘ldirib berdi. Otabekning izn so‘rashi bilan bo‘linib qolg‘an savolini usta Farfi davom etdirdi:

— To‘g‘risini aytingiz-chi, usta, nima uchun ustakor bilan achig‘lashdingiz?

— U sizga aniq aytmadimi?

— Aytmadi. So‘rasam, gapni boshqa tarafka chalg‘itadi.

— Imonsiz, aytishka uyalg‘an, — dedi usta Alim va kimgadir nafratlanib qarag‘andek bujmayib qo‘ydi.

— Haytovur siz bilan achchig‘lashqan sababini so‘rasam, gapni chetka buradi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Usta Alim qo‘lidag‘i piyolasini qult etib bo‘shatdi-da, ustakori bilan achchig‘lashish sababini so‘zlab berdi:

— Men Homidning qaynim Sayfiga yomon ko‘z bilan qarab yurganini sal-pal sezib yurar edim... Urishaturg‘on kunimizning ertalabida Sayfini ilgariroq ishka jo‘natdim-da, o‘zim nimagadir urinib kechroq qolib bordim. Darbozadan kirishim bilan ishxona ichidan kimningdir yig‘lab-yolborg‘an tovshini eshitib ajabsindim va ishxona eshigini ochib kirsam, imonsiz Homid qaynimg‘a zo‘rliq qilib turg‘an ekan. Eshik ochilish bilan cho‘chib Sayfini bo‘shatdi-da, menga qaradi. Men achchig‘imdan nima deyishni bilmay qolg‘an edim. To‘ng‘uz ishxonadan chiqib boshlag‘an edi: «Sen bilan otangg‘a yigirma yillab xizmat qilib, nihoyat sendan ko‘rgan yaxshilig‘im shu bo‘ldimi?» dedim. Churq etmay chiqib ketdi. Nimagadir, siz, Karim va Ortiqboylar ham ishxonaga kelmagan ekansizlar. To‘ng‘uz vaqtdan foydalanib Sayfiga yopishqan ekan. Mana, oramizdan o‘tkani shul. Uning orqasidan men ham Sayfini olib chiqib keldim-da, ikkinchi uchrashmay uyga do‘kon qurish harakatiga tushdim, — dedi. Usta Farfi ham ustakorning bu qilig‘idan nafratlangan edi:

— O‘bba padarla’nati, hali shunaqa ish qildi dengchi? O‘zi odam emas, hali bu uning hunarlarining eng pachog‘i, — dedi va tovshini sekinlatib davom etdi: — badbaxt, aqllar ishonmasliq darajada bo‘lgan har bir yomonliqlarni qilar ekanki, biz bilmas ekanmiz.

Otabek usta Alimning hikoyasini iltifot bilan eshitkan edi. Shuning uchun undan so‘radi:

— Bu qanday Homid, qora cho‘tir kishi emasmi? Men hali uni qo‘shningiz uyidan chiqg‘an holda ko‘rgan edim.

Usta Alim ajabsinib Otabekka qaradi:

— O‘sha-o‘sha, siz uni qayoqdan taniysiz?

— Uning bilan allaqayerda so‘zlashkanim bor edi.

Usta Farfi Otabekka kulgi aralash qarab olib dedi:

— Bo‘lmasa, uning qo‘lansa so‘zlariga xo‘b zavqlang‘andirsiz.

Otabek ma’nolik qilib iljaydi. Ularning so‘zi shu yerga yetkanda ro‘ymolda tugiglik bir narsa ko‘targani holda Sayfi kirib keldi, salomdan so‘ng usta Farfi bilan ko‘rishdi va Otabekka qarab dedi:

— Kecha sizni kuta-kuta oshlarimiz sovib qoldi, bek aka.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Men bu kungami, deb o'ylabman, — dedi kulib Otabek.

Sayfi hovliqib bir narsa deyishka hozirlanar edi:

— Bu kun kechasi hammomning og'ilida biravni o'ldirib ketibdirlar, — dedi.

— Kimni? — deb so'radi usta Alim.

— Kim ekanini bilmadim.

Usta Farfi javob berdi:

— Kelishimda qo'rboshilar boshliq o'lukni aravaga ortar ekanlar, o'ldirilgan Salim sharbatdorning o'g'li bechora Komilbek.

— Tavba, — deb qo'ydi usta Alim va so'radi: — o'ldurg'uchi ushlanganmi?

— Ushlanish qayog'da, o'lukning o'zini qidira-qidira zo'rg'a yarim kechada topqanlar, — dedi usta Farfi. Otabek bu xabarni sovuqqina eshitib o'lturar edi va fotiha o'qub turishka hozirlanar edi.

— Gumondor bormi? — dedi usta.

— Gumondor-ku yo'q, ammo bechoraning o'lumi juda qiziq kunga to'g'ri kelishi ajib, — dedi usta Farfi va davom etdi: — Kecha Komilbekning Mirzakarim akaning qizi bilan nikohlari bo'lmoqchi ekan. Bechora nikohdan ikki soat chamasi ilgariroq yonig'a bir o'rtog'ini olib hammomga borg'an va bir onda hammom ichidan yo'qolg'an, hatto uning yonidag'i kishi ham qayoqqa ketkanini sezmay qolg'an. Qiznikida hamma tajammulni[1] tayyorlab, Komilbekning otasidan tortib nikoh qilaturg'an qoziyu quzzotlarg'acha kuyavni kutib o'lturar ekanlar. Bir vaqtda haligi birgalashib hammomga tushkan yigit hovliqib qiznikiga kelgan, kuyav kutib o'ltirganlar kuyavdan darak so'rasalar, ul ulardan kuyavni so'rag'an va voqi'ani aytib, hammomda kiyimlarini ham qoldirib bir onda yo'qolg'anini xabar bergan. Shundan so'ng nikoh-nikohda, osh-oshda qolib kuyavni qidirib ketkanlar. Nihoyat, yarim kechada hammomning tahoratxonasi yonidag'i bir og'ilning oxiridan qonig'a belashib yotqani holda topqanlar. Bechora tahorat uchun og'ilg'a kirganda tovush chiqarmasliq yeriga xanjar urib, oxirg'a tiqib ketkan ekanlar. Juda qiziq gap... Kim o'ldirg'an va nima uchun o'ldirilgan hech kim bilmaydir,— dedi.

Otabek tamom onglashilmag'an bir holatda qolg'an

---

[1] T a j a m m u l — kerakli narsalar.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

edi. Bu xabardan quvonishg'a-da bilmas va xafalanishg'a ham yo'l topmas edi. Raqibning o'ldirilishi uning tamom so'nib bitkan umidini yana qaytarg'andek bo'lsa ham, nima uchundir ul bu ishdan o'ziga tinchlik ortdira olmag'an, aksincha tinchsizlana boshlag'an edi. Bu foji'adan ortiqcha asarlangan usta Alim «voy bechora-bechora», der edi.

— Birarta dushmani borlig'i ma'lumdir, axir? — deb so'rab qo'ydi.

— Albatta bordir, — dedi usta Farfi va Otabekka qarab qo'ydi. Bu qarashdan Otabek borliq-yo'qliq holg'a kirgan edi. Usta Farfi davom etdi: — Dunyoda qanday odam yo'q, deb o'ylaysiz, kishining rizqig'a tupurganlar, oxiratini o'ylamag'anlar hamma yoqda ham to'lib yotibdir, — dedi, yana Otabekka qarab oldi... Otabek yorilish darajasiga borib qaytdi... Usta Farfining bu keyingi qarashini usta Alim payqag'an edi va usta Farfining bu to'g'rida bir narsa bilib-da, so'zlashka Otabekdan mulohaza qilib to'xtadimi, deb o'ylag'an edi:

— So'zlay beringiz Farfiboy, bu kishi o'zimiznikidir, — dedi.

— Nimani so'zlay berayin?

— Komilbekning dushmani to'g'risida bilganingizni.

— Men sizga bir narsani bilaman, dedimmi? — dedi va kulib Otabekka qaradi: — bu odamning o'smoqchilashini qarang-a?

Bu so'z bilan Otabek bir oz yengillashdi.

— Menga bir-ikki qayta qarab olg'aningiz uchun bilsangiz ham so'zlashka mendan yotsindingizmi, deb usta o'yladilar shekilli, — dedi Otabek.

— To'g'risini aytsam, siz bu to'g'rida bir narsa bilasiz, lekin so'zlashka Shokirbekdan cho'chib turasiz, — dedi usta.

— Quruq tuhmatni qo'ying-chi, — dedi usta Farfi.

— Quruq tuhmat emas, bilib tuhmat, — dedi usta va:— Shokirbek siz o'ylagan kishilardan emas, aslo tap tortmay so'zlay bering, — dedi.

— Astag'firulloh, — deb kulib qo'ydi usta Farfi va bir oz o'ylab olg'ach dedi: — Siz bilan menga shu narsaning nima zarurati bor, usta!

— Avvalo so'zlamayturg'an bo'lg'andan so'ng puk berish[1] kerak emas, tildan ilingandan keyin bizga zaru-

[1] P u k b e r i s h — bildirib qo'yish, oshkor qilish.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
rati bo'lmasa ham bilganni aytish kerak, — dedi usta Alim.

Ayniqsa ustadan ko'ra ham Otabek sabrsizlana boshlag'an edi. Hozirgina o'ylab turg'an jo'nash masalasi ham uning esidan chiqg'an, chunki raqibining qotili kim ekanligini bilib olish hammadan ham unga qiziq va ahamiyatli edi.

Usta Farfi endi aytmasa bo'lmaslig'ini ongladi, shuning uchun Sayfiga ishonmag'ansumon qaradi:

— Jiyan, sen yoshsan hali, sening og'zingga ishonch yo'q, — dedi va: — bir oz do'koningga borib tur, achchig'ing chiqsa ham.

Usta Alim ham qaynisini turishka ishorat qildi va o'radan savzi olib to'g'rashga buyurdi. Bola ketgach, usta Farfi ohistagina dedi:

— Agar gumonim to'g'ri bo'lsa, Komilbekning qotili Homiddir.

Bu so'z Otabekni ajabsintirg'andek, usta Alimga ham g'arib eshitilgan edi.

— Homid deysizmi?! — deb so'radi usta Alim.

— Homid, — dedi, yana sekingina usta Alimdan so'radi: — siz Umarbekni Homidg'a yaqin do'st ekanligini bilarsiz, albatta?

— Bilaman, hamma vaqt yurish-turishi o'shaning bilan edi.

— Bali, — dedi usta Farfi, — O'sha Umarbek bilan oralarig'a yaqinda bir sovuqliq tushdi-da, mundan o'n kuncha ilgari Homidning bir mudhish vahshati to'g'risida Umarbekdan bir sir eshitdim. Homid Komilbekni o'ldirganda ustida bo'lmag'an bo'lsam ham, ammo haligi eshitkan sirimnnig dalolatiga qarab albatta Komilbekning qotili Homid degan fikrga tushdim... Siz mundan uch yilcha ilgari Marg'ilon kelib Mirzakarim akaning qizig'a uylangan Otabek ismlik toshkandlik bir yigitni haligi qayin ota bo'lmish Mirzakarim aka bilan qamalib, osilishg'a hukm qiling'anlarida dor ostidan qutqarilish voqi'alarini xotirlaysizmi?.. Albatta yodingizda bo'lsa kerak, hov, biz Sariboyning do'konida choy ichishib o'lturg'an edik-ku, yodingizga tushdimi?

— Esimda bor, esimda bor, — dedi usta Alim va Otabekdan so'radi, — balki siz tanirsiz, Toshkandda mashhur bo'lg'an Yusufbek hoji deganning o'g'li.

— Taniyman, — dedi Otabek va hikoyani buncha

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
uzoqdan solg‘ani va o‘z ustida gap yurgizgani uchun tong ajab ichida usta Farfining og‘zig‘a qarab qotqan edi.

Usta Farfi yarim-yarim tovishda davom etdi:

— Ana shu yigitning olg‘an xotini juda ham nozanin bir qiz bo‘lib, bu qizg‘a bizning Homid ham xaridor ekan. Halig‘i Otabek qizg‘a uylanib qo‘yg‘ach, bizning Homid tikanga ag‘nab, oradan Otabek bilan Mirzakarim akani ko‘tarish fikriga tushkan va bo‘lmag‘an chaqimchiliqlar bilan ularni dor ostig‘acha tortishg‘a muvaffaq bo‘lg‘an... (So‘z bu yerga yetkanda, Otabek bilintirmaslik qilib bir entikib qo‘ydi). Usta Farfi davom etib dedi: — Ammo xudoning haqini nohaq qilmaslig‘i soyasida bir maktub sababi bilan kutmagan joyda dor ostidan najotka chiqg‘anlar. Bular oqlang‘ach, Homidning o‘zi qamalaturg‘on bo‘lib ammo qo‘rboshining yordami orqasida Qo‘qong‘a qochib qutilg‘an va ul yerda ham tinch yotmay O‘tabboy qushbegini poraxo‘rlikda ayblab, Musulmon cho‘loqqa ariza bergan, — dedi va so‘zini bu yerda to‘xtatib ustadan so‘radi: — O‘zingiz ham bilsangiz kerak, Homid bir kecha yo‘qolib, uch oylab bedarak ketkan va uni qo‘rboshi yigitlari qidirib yurgan edilar.

Usta Alim tasdiq ishorasini berib:

— So‘zlay beringiz, — dedi. Ammo Otabek bu dahshatlik haqiqatni eshitmakda bo‘lg‘an quloqlarig‘a ishonmas va o‘zini kuch orqasida tutib turar edi.

Usta Farfi tovshini sekinlatib davom etdi:

— Homidning Musulmon cho‘loqqa bergan arizasidan so‘ng Otabek bilan O‘tabboy qushbegi Qo‘qong‘a chaqiriladirlar-da, so‘roqdan so‘ng yana oqliqqa chiqadirlar.

Ammo Homid uch oylab Marg‘ilon kelalmay yurgach, nihoyat yana qo‘rboshining yordami bilan kelishka ham muvaffaq bo‘ladir. Biroq Homid hanuz tinch yotolmaydir. Fursati kelishi bilan yana bir yomonliq qilmoqqa, qutidorning qizini o‘ziniki etishka o‘ylab yuradir. To‘ng‘izning baxtiga bu fursat ham to‘g‘ri kelib, yana yomonliqqa yuz qo‘yadir. Shundoqki, Otabekning Toshkanddan ham uylanganini bilib, uning tilidan bir taloq xati yozdiradi-da, Mirzakarim akanikiga kirguzadir.

Otabek o‘zini nechog‘liq bosib ushlab kelgan bo‘lsa ham, lekin endi ichidan qaynab toshib ketkan hissiyotini bosolmadi — «vijdonsiz, to‘ng‘uz!» dedi-da, ixtiyorsiz o‘rnidan turib ketdi. Usta Alim ham o‘zini tinch

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

tutolmadi, «Badbaxt, kofir!» deb qo'ydi. Otabekning o'zgarishidan usta Farfi shubhaga tushayozg'an bo'lsada, lekin usta Alimning ham unga qo'shilishi uni o'ylatib turmadi, Otabek qaytib o'rniga o'lturg'ach, ul davom etdi:

— Bu soxta taloq xati to'g'risida Otabekning nima qilg'anlig'i Homidga ham ma'lum bo'lmaydir. Lekin ish Homidning o'ylag'anicha natijalanib, bir necha vaqtdan so'ng Mirzakarim akaning qizini taloq qilinishi xabari chiqib qoladir. Oradan uch-to'rt oyni o'tkazub, bizning Homid Mirzakarim akanikiga sovchi kirguzadir. Ammo Mirzakarim aka uning sovchilarini quruq qaytaradir. Bir necha vaqtdan so'ng, Homidning soxta taloq xatisi bilan eridan chiqg'an qiz Komilbekka beriladir va nima uchundir to'ylari bir necha vaqtka kechikib qoladir-da, oradan birar yilni o'tkazib, nihoyat, kecha ularning to'y va nikoh kunlari ekanki, Komilbekning hammomda o'ldirilgan xabarini eshitib turibmiz. Mana men yuqoridag'i sabablarga binoan Komilbekni o'ldirguchi aniq Homid, deb o'ylayman, — dedi.

Usta Alim boshini chayqab:

— Bundan shubha yo'q, nax Homidning o'zi, — dedi va o'zicha: — Eh, essiz musulmonchiliq, shunchalik ham insofsizlik bo'ladimi, o'zingning bir emas ikkita xotining bo'laturib, tag'in bir yigitning haloliga ko'z olaytirish... Yana o'zingning bo'ying yetmasligini bilaturib ham, ikki orada bir gunohsizning qonini to'kish — eh, shayton bolasi! — deb qo'ydi.

— Bu bir it! — dedi usta Farfi, tomdagi luqmani o'zi ham yeyolmaydir, boshqag'a ham yedirmaydir, nax itning o'zi!

Otabek o'z hayotidagi foji'alarning manba'i bo'lg'an bir habisni[1] nihoyat birinchi martaba tanib turar edi. Bu palid dushmanga qarshi o'zida qo'zg'alg'an bitmas-tuganmas nafrat va g'azab hissiyotini sirining fosh bo'lishidan qo'rqib ichiga yutishka majbur edi. Shundoq bo'lsa ham ichda qaynag'an hissiyot o'z sharpasini uning yuziga ochiq tashlab turmoqda, ko'zi o't kabi yonar va yuzi yuz xil tuska kirar edi.

Anchagina oradan so'z kesilib qolg'andan so'ng usta Farfi dedi:

— Siz bilan men shu choqg'acha Homidning bunday

[1] H a b i s — yaramas, iflos, nopok.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
ishlari bor ekanidan xabarsiz yurganimizga hayron qolaman.

— Hayron qolishg'a o'rin yo'q, — dedi usta Alim, — siz-ku yaqinda kirib ishlay boshladingiz. Ammo men yigirma yillab shuning uyida qolib sira ham Homidning ichidagiga tushuna olmas edim va hamisha ko'zimga dimlangan qorong'u o'radek qo'rqunch ko'rinar edi, — dedi va bir oz to'xtab olg'ach, bir narsa topqandek harakat yasadi. — Bu gaplarning bosh omili albatta Homid bo'lsa ham, lekin bunda uning boshqa yordamchilari ham bor ko'rinadir, yodingizda bormi, ko'pincha chaxchayg'an ko'zlik bir yigit ishxonamizga uni so'rab borar edi?

— Bilaman, bu kunda ham Homid bilan sermuomala, oti Sodiq bo'lib, sizning qo'shningiz emasmi?

— Otangga rahmat! Ana shu yigit bilan uning onasi bu ishda Homidning eng ishonchlik yordamchilari bo'lsa kerakki, ul ikki yildan beri shu qo'shnimnikiga hamisha qatnab qolg'on edi. Sodiqlar o'z ovqatlarini ham o'tquzolmag'an holda faqirlikda yashab yil sayin menga oz-oz yerlaridan sotib tiriklik qilar edilar. Bir yilcha bo'ldi, birdan suv olib qoldilar va Sodiq uylanib ham qo'ydi. Men haytovur bechora yo'lini topib oldiyov deb yurar edim. Endi bilsam, Sodiqni uylantirguchi ham shu Homid ekan, — dedi va Otabekdan so'radi: — Siz hali Homidning qo'shnimnikidan chiqib ketkanligini so'zlab edingizmi? — Otabek tasdiq ishorasini bergach, negadir bir entikib qo'ydi. Haqiqatan usta Alimning bu keyingi so'rog'i uni entiktirarlik edi. O'tkan kunlarini zahar bilan bulg'ab kelgan bu mudhish dushmaniga qaysi yo'sun bilan javob qaytarish yo'llarini izlab turg'an choqda bu savol berilib, Homid bilan boyag'i uchrashishini unga xotirlatqan va endi ham kulib qaramag'an baxtig'a la'nat o'qutqan edi. Ul o'zining hozirgi hayotini-da ulug' tahlika ostida bo'lg'anlig'ini va bu tahlikaning o'tkandagilarga qarag'anda tamoman boshqacha bir dahshatda bo'lishini onglar edi.

Usta Alim oshxonag'a borib osh qilish harakatiga tushkan edi. Otabekning to'satdan ketish harakatiga tushib qolg'anini ko'rib:

— Bek, shuncha o'lturganning qatorida yana yarim soatka tahammul[1] qilsangiz, oshni yeb yo'lg'a tushasiz. Mana men, savzini ham bosdim, — dedi.

---

[1] T a h a m m u l — sabr, bardosh, chidam.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Otabek qaytib o‘lturmadi va havlining o‘rtasidan turib uzr aytdi:

— Rahmat, usta, men bu kun oshig‘ich yurib, ertalab jo‘nab ketgan yuklarning ketidan yetib olmasam bo‘lmaydir.

— Oshni tashlab ketsangiz xafa bo‘laman, qirqqa chidagan qirq biriga ham chiday oladir.

— O‘lturing-o‘lturing, mehmon, — dedi usta Farfi.— Oshg‘a savzi bosildi — pishdi!

— Men ustaning oshini birinchi martaba yeb yotqanim yo‘q, agar savdogarchilik omon bo‘lsa, har o‘n besh kunda bir kelib ustaning jonig‘a ham tegaman, — dedi Otabek va boqchag‘a qarab yuriy berdi.

Usta Alim oshg‘a savzi bosish bilan ovora edi:

— Men sizni zo‘rlamayman, lekin yo‘l ustida qorningiz ochib qolsa, o‘zingizdan o‘pkalang, — dedi.

Otabek maydonda otini supirib egarlar ekan, maydonning g‘arbidagi xaroba uyning devoridan bir bosh ko‘tarilib munga qarab turar edi. Mundan uning xabari bormidi, yo‘qmi, lekin ul bu tomong‘a qaramasdan otini egarlash bilan mashg‘ul edi. Ul egarlanib bo‘ling‘an otini havlig‘a qarab yetaklay boshlag‘anda, havliga qarab turg‘an bosh ham devordan quyig‘a tushib yo‘qoldi. Ul otini havlining o‘rtasig‘a qantarib qo‘yib ayvondag‘i xurjun va po‘stunini olar ekan, usta Farfi bilan xayrlashdi. Otni Sayfi yetaklagani holda usta Alim Otabekni ko‘chaga uzatib chiqdi va uning qo‘ltug‘idan olib otka mindirar ekan, o‘pkalash ohangida dedi:

— Oshni tashlab ketkaningizni unutmang, bek.

Otabek egarga o‘lturib olg‘ach so‘radi:

— Xafa bo‘ldingizmi?

— Nega xafa bo‘layin, ammo yo‘lda ochiqib qolishingiz uchun sizga achinayotibman.

— Tayyor oshni tashlab ketib, yo‘lda ochliqdan qiynalishimni o‘zim ham tushunib turibman, usta, — dedi Otabek va, — biroq tuyakashlar bilan Andijonda bu kunga uchrashish uchun va’dalashkan edim, ularga yetib olib yo‘l xarajatlar uchun bir oz aqcha bermasam, ya’ni o‘z rohatimni ko‘zlab sizni oshingizni kutib qolsam, besh kishini ko‘ra-bila turib och qo‘yg‘an bo‘laman.

Usta Alim otning jilovidan qo‘lini olib so‘radi:

— Andijon o‘tkan kezlaringizda yo‘l ustidan kirib turishka va’da berasizmi?

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Bo‘lmasa-chi, — dedi Otabek, — shu o‘n besh kunning ichida sakkiz tepki atlasdan loaqal ikki ko‘ra yig‘ib qo‘yingiz, yodingizdan chiqarmangiz!

— Yodimda bor, xotirjam’ bo‘lingiz!

— Xayr, xo‘sh!

— Yaxshi qol, Sayfi!

Saman yo‘rg‘a yo‘lga tushdi, chovig‘a odatdan tashqari bir-ikki qayta kelib tushkan achchig‘ qamchi zarbi bilan bir onda ko‘zdan g‘oyib bo‘lib ketdi. Otabekni uzoqlatib usta Alim uyga kirgan ham edi, Jannat opaning eshigi ochildi-da, Sodiq ot yetaklagan holda chiqib keldi. Ul otqa minar ekan, eshik ichida ko‘ringan Homid — «tezroq!» — degan amrni berdi. Sodiq ham Otabek izicha otini haydab yubordi...

Usta Alim Otabekni kuzatib kelib, ayvon peshonasiga o‘lturar ekan:

— Tabi’ati juda qiziq yigit-da, — deb qo‘ydi.

Usta Farfi so‘radi:

— Bu yigit bilan qanday oshnalig‘ingiz bor?

— Men sizga o‘zog‘i yili bir yigitning Homidning darbozasida adashib yurganligini va men bilan birga havlig‘a kelib bir kun yotib ketkanligini so‘zlab edim shekillik?

— Ha, ha, hali o‘sha yigit shumi?

— Shu. Shundan beri har bir Marg‘ilon kelganida va Andijon o‘tkanida maning oldimg‘a kirmasdan ketmaydir. O‘zi juda og‘ir va aqllik yigit, buning ustiga qiziq tabi’ati ham bor, — dedi.

— Qizig‘i qanaqa, — deb so‘radi usta Farfi.

— Juda qiziq, — dedi usta va kechagi voqi’ani so‘zlab chiqdi. — Kecha ertalab shaharni bir aylanib kelayin deb chiqib ketkan va tushlik oshka yetib kelish uchun va’da ham bergan edi. Men va’da vaqtig‘a oshni damlab o‘lturibman-o‘lturibman, sira kelsa-chi! Nihoyat, sizdan sal ilgariroq kelib turg‘an edi. So‘rasam: «Xo‘ja Ma’oz»ni tunab qoldim, deydir. Ko‘zi uyqusizliqdan bir qarich ichiga tushib ketibdir. Juda ham tabi’ati qiziq yigit.

— Yaxshi yigit ekan, — deb qo‘ydi usta Farfi.

Oshni yeb bo‘lg‘anlarida u yoq-bu yoqdan jum`a tovshi kela boshlag‘an edi. Shuning uchun choy ichib o‘lturishka to‘g‘ri kelmay usta Farfi usta Alimdan ilgariroq namozi jum’aga qo‘zg‘aldi va eshikdan chiqishi

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
bilan o‘z uyidan kelayotqandek ko‘ringan Homidga uchrashdi.

— Ha, usta Farfi, baxay? — dedi Homid.

— Usta Alimnikiga kelgan edim.

— Bo‘lmasa ziyofat quyuq ekan-da!

— Quyuq! — dedi kulib usta Farfi, — usta Alim o‘z uyiga do‘kon qurg‘an ekan, gilalab[1] yurmasin deb fotihaga kelgan edim.

— Shundoqmi! — deb qo‘ydi Homid. Birgalashib keta boshladilar.

— Bo‘lmasa usta Alim o‘z uyiga do‘kon quribdir, deng-chi!

— Do‘kon quribdir.

— Arvoh piri bermasdan-a?

— Qishda arvoh piri qilib bermoqchi! — dedi usta Farfi. Yana bir necha daqiqag‘a oradan so‘z kesilib qoldi.

— Osh qilib bergandir?

— Albatta.

— Boshqa mehmon ham bor ekanmi? — deb so‘rab qo‘ydi Homid. Usta Farfi Otabekning Homid bilan uchrashg‘anini xotirlag‘an edi.

— Toshkandlik bir savdogar mehmoni ham bor ekan,— dedi. Masjidga yaqinlashib qolg‘an edilar. Homid yana nimanidir so‘ramoqchi bo‘lsa ham, usta Farfi shoshib masjidga burildi.

14. RAQIB IZIDAN

O‘n olti-o‘n yetti kunlik oy oq bulut ichidan qo‘toslanib[2] ko‘rinar edi. Hamma xuftan namoziga kirib ketkan, ko‘chalar suv quyg‘andek tinch edi. Ko‘chaning bu tinch paytidan foydalang‘an kabi usta Alimning eshigi yonig‘a kelib to‘xtag‘an kimsaning kim ekanligini bilish uchun oy yoruqlig‘ig‘a qarshi tushkan bo‘g‘ot xalal berar edi. Bo‘g‘ot panasida va eshik halqasida qadalib bir muncha vaqt nimanidir kutib turg‘an bu kishi nihoyat, avaylabgina eshikni ochib o‘zini yo‘lakka oldi. Tag‘in anchagina eshikning ichkarigi qismida turg‘ach, ochishidag‘i ehtiyot bilan eshikni yopdi.

[1] G i l a — gina, xafagarchilik.

[2] Q o‘ t o s l a n i b — yaltirab, jilvalanib.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Oy yoruqlig‘i uch burchak ravishda yo‘lakka tushib turar edi. Bu noma’lum kimsa oyoq uchi bilan yurib keldi-da, mo‘ralab ayvong‘a qaradi. Ayvonning tokchasida sham’ yonib, Sayfi o‘rin yozish bilan ovora edi. Noma’lum kimsa yo‘lakning qorong‘i qismig‘a o‘zini olib, ko‘zini Sayfidan uzmay tura boshladi, Sayfi o‘rnini to‘shab bo‘lg‘andan so‘ng ayvonning peshonasida yozilib yotqan dasturxon va laganni ko‘tarib hujraga kirdi. Yo‘lakdagi majhul kimarsa go‘yo shuni kutib turg‘andek oyog‘ uchini onda-sonda tashlab o‘zini maydon ichiga oldi...

Bargi to‘kilib quruq shoxlari bilan qolg‘an maydon ichi tumanlik oydin, majhul kishi yuzini oyding‘a berib, xaroba uy ostida qadalib turg‘anliqdan uning kim ekanligini tanish oson edi. Bu alamzada, zulmdiyda yuz eng so‘ngg‘i kurashka hozirlang‘an bir yigit edi...

Otabek xaroba uy devori yonida so‘ng chekdagi bir e’tibor bilan ichkariga quloq solmoqda edi. Ichkaridan o‘tin yorib o‘choqqa o‘t qalash harakatlari eshitilar, gohi xotin kishining tovshi ham kelib qo‘yar edi. Ul bir-ikki qayta ohista adimlar bilan xaroba uylarning u boshi bilan bu boshig‘a borib keldi, ya’ni ichkariga oshib tushmak uchun qulayroq o‘rin chog‘lar edi. Xaroba imoratlarning o‘rta bir yeridagi raxnadan oshib tushish qulayroq bo‘lg‘ani uchun shuning ostig‘a shumshayib o‘lturdi. O‘lturishi hamono qayoqdandir oyoq tovshi eshitkandek bo‘ldi-da, sekingina o‘lturgan joyig‘a yerga singgandek qilib yotib oldi. Oyoq tovshi to‘xtab narigi yoqdan usta Alimning tovshi keldi. Usta Alimning xuftandan qaytib kelganligini ongladi va uning maydonga kirish ehtimoli bo‘lg‘anliqdan shu ko‘yi yotaberdi.

Vaqt juda sekin harakat qilar edi. Ul o‘zining har bir yurak tepishini sanag‘andek o‘tkuzar edi. Kuzning yoqimsiz shamoli o‘pkani qichitib, yo‘talni qistatar, ul chalqancha yotqan ko‘yi og‘zini o‘ramlab ko‘mak kutkan kabi ko‘kka ko‘zini tikkan edi.

Oradan bir-bir yarim soatlar chamasi vaqt o‘tib ketdi. Tevarakdan «jannat qushlari»ning birinchi tovshi qichqirilib o‘tdi, shu kezda xaroba havli tomondan bir necha oyoq tovushlari eshitildi-da, ul o‘rnidan turib quloq solishg‘a majbur bo‘ldi. Bir muncha vaqt onglashilmag‘an so‘zlashish tovushlari kelib turgach, darichaning g‘iyq etib ochilishidan so‘ng, bu tovushlar

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
yana ham uzoqlashdilar. Otabek devorg'a intildi va sekingina yuqorig'a ko'tarildi. Buzuq uyning darichasidan narigi qatordag'i ayvon va undagi o'choqda yonib turg'an o't ko'rindi. Ammo ochiqqina bo'lib uy ichidan kishilar tovshi kelar edi. Ul o'marilmasliq etib devor ustiga mindi va osong'ina xaroba uy ichiga o'zini oldi. Chunki uy tomi o'pirilib ostig'a bosqanliqdan uyning sahni juda ham yuza edi. Avaylab uch-to'rt adim bosdida, uyning buzuq darichasi yonig'a kelib to'xtadi va mo'ralabqina havli yuziga qaradi. Qarshidag'i uyning har ikki darichasi ham yopiq, ammo tirqishlaridan sham' yoruqlig'i ko'rinar va boyag'ig'a qarag'anda sekinroq bir tovushda g'o'ng'ir-g'o'ng'ir so'zlashish eshitilar edi. Oradan o'n besh daqiqa chamasi fursat o'tib tovushlar bir oz yuqorilashib kelmakka boshladi. Bu orada uydan qo'lig'a lagan ushlagan bir xotin chiqdi-da, qozondan laganga bir narsani ko'tara berdi. Otabek go'yo shuni kutib turg'andek uzoq bir tin oldi va o'zini chetka burdi. Xotin lagan bilan uyga kirib ketkach, ichidan taqing'an xanjarini qinidan sug'urib oldi-da, damini oyding'a solib boqdi va xanjarining uchini yonboshidan orqasig'a o'tquzib ushladi, yana uyni kutib to'xtadi. Xotin yana chiqg'an va toboqlarg'a sho'rba suza boshlag'an edi. Uyga bir-ikki qatnab suzilgan sho'rbalarni tashib bitirgan, uyning eshigini bekladi-da, kirib ketdi.

Otabek havlining o'rtasig'a, tut yog'ochining yonig'a kelib to'xtag'an va janubda kishi yo'qmi, deb alang'lar edi. Ul bu to'g'rida bir qanoat hosil etkach, bitta-bitta bosib kishilik uyning yo'lak tomonidag'i darichasi yonig'a yetdi va o'zini so'ng chekda ehtiyotlab daricha ostig'a o'lturdi. O'lturishi hamono dimog'ig'a ichkulik bilan sho'rba isi kelib urdi. Uydagilarning so'zlarinigina emas, hatto tomoq chaynashlarini ham eshitsa bo'lar edi. Ichkaridan kimdir birav shap-shap etib chaynab der edi:

— Endi menga berma, Sodiq, Mutal polvong'a beraver!

Otabek bu tovushning kimniki bo'lg'anlig'ini bilgan edi.

— Hadeb menga beraverasanlarmi, oralatib Jannat opamga ham berib qo'y, xa-xa-xa!

— Bizning kampirga bersang qaytarmasdan icha beradir!

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Bersa ichaberaman, qix... o'zim xotin bo'lsam ham Mutal polvonlarning o'nini qochiraman, qix...

Bu so'zdan so'ng, uy ichini kuchlik bir kulgi tovshi qopladi. Kulgi bosilg'ach, so'z boshlandi:

— Endi shuni ichasiz, Homid aka!

— Yo'q, Sodiqboy inim, men juda ham bo'lib qoldim, o'zi ham juda kuchlik chiqg'an ekan.

— Ichmasangiz qo'ymayman, nekin...

— Mutal polvonga ber! Siz oling-chi shuni!

— Aniq ichmaysizmi? Kumush opamning salomatligiga ham ichmaysizmi?

Bu so'zni eshitkan Otabek ixtiyorsiz o'rnidan turib ketdi. Jannat opaning xi-xi-xi qilib kulgan tovshi eshitildi.

— Orag'a nozik bir ismni kelturib solmasang, xudo haqqi ichmas edim. Qani, bo'lmasa ber-chi, Kumush apangning salomatligi hammadan ham menga kerakdir.

— Xa-xa-xa, nozik joydan ushladimmi?

Otabek bu so'zlarni eshitar ekan, zo'rg'a-zo'rg'a o'zini darichaga hujum qilishdan bosib qolg'an edi. Orada bir muncha mayda so'zlar so'zlangach, kimningdir ufff, deb yuborg'ani eshitildi.

— Tag'in nima bo'ldi, Homid aka?

— Bu kungi gap juda ham meni cho'chitib qo'ydi-da, Sodiqboy!

— Maning gapimga nima uchun ishonmaysiz, axir! Yuz martaba sizga aytib yotibman-ku, xumsani darbozadan chiqardim, tag'in qanchag'acha orqasidan borib to karvonlarga qo'shilib ketkuncha kutdim, so'ngra qaytib keldim, deb. Agar o'sha ketishi bo'lsa, bu kun xudda Qo'qong'a borib yetkan.

— Ey, san bilmaysan, uka!

— Nekin manga qolsa, shu ishdan hech bir qo'rqaturg'an gap yo'q, usta bilan tanishlig'i bo'lsa, uning uyiga mehmon bo'lg'andir, savdogarchilig'i bo'lsa Marg'ilong'a kelgandir, axir ketib turg'andag'i so'zini o'z qulog'ingiz bilan eshitdingiz-ku!

— Bu mulohazang tuzik-ku, biroq men bilan achchig'lashqan bir kishinikida mehmon bo'lishi boshni qotiradir, tag'in sizlarning havlilaringiz yonida...

— Agar sirringizdan usta Alimning xabari bo'lsa, ul vaqtda qo'rqsangiz ham arziydir. Ammo menga qolsa u xumpar (Otabekni aytadir) Marg'ilonda xotini borlig'ini ham unitib yuborg'an, deb o'ylayman.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Maning bu sirrimni sizdan boshqa hech kim bilmaydir. Umarbek bilan bir oz nari-beri bo‘lib qolg‘an edik, haytovur tag‘in orani ochib yubordiq.

— Undoq bo‘lsa tag‘in nimadan qo‘rqasiz?

— Men uning Toshkand ketishini ko‘z bo‘yash uchun bo‘lg‘an hiylami, deb qo‘rqaman.

— Xayr, ketmagan ham bo‘lsun: ul holda o‘zingiz aytkandek qilib to‘ppa-to‘g‘ri ertaga Salim sharbatdorning oldig‘a boraman-da, o‘g‘lingni Mirzakarim akaning ilgarigi toshkandlik kuyavi o‘ldirdi, men o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim, deyman. Ana undan so‘ng xumsaning holig‘a maymunlar yig‘lasin! Agar ul sirringizni bilgan bo‘lg‘anda ham allaqachon kelaturgan ishka tushunib olib, Marg‘ilondan dumini xoda qildi, desangiz-chi!

— Qix... Sodiqning gapi jo‘yalik, — deb qo‘ydi Jannat opa.

Otabek bu so‘z dahshatidan titrab ketkan edi. Sodiq davom etdi:

— Endi ishning bo‘ladirg‘anini o‘ylash kerak, sizning qo‘rqoqlig‘ingizni ko‘rib, mana Mutal polvon ham uxlab boshlabdir.

— Uxlag‘anim yo‘q, hez, doringdan quy-chi!

— Mutalboy o‘rtoq, — dedi Homid, — biz biravning yaxshilig‘ini unutaturg‘an kishi emasmiz. O‘rtog‘ingiz Sodiqboy men bilan birgalashib kamlik ko‘rmadi, avvali xudo, qolabersa men uni uylantirib qo‘ydim... Men birav bilan oshnachiliq qilsam, hatto, undan jonimni ham ayamay, ko‘nglini olmoqg‘a tirishaman.

Sodiq:

— Mutalboy sizni o‘bdan yaxshi biladir, Homid aka! Sizning qanday xizmatingiz borlig‘ig‘a ham qong‘an... Ammo uning sizdan bir iltimosi bor ekan.

Homid:

— Nima iltimosingiz bor, Mutalboy?

Mutal (sarxush):

— Bitta ya-ya-ya -rimtadan uch-to‘rt t-t-tanga q-q-qarz-larim bor edi, Homid aka.

Homid:

— Oshnaliq degan uch-to‘rt tanga bilan bog‘lana olmaydir, Mutalboy! Men sizga hali aytib qo‘ydim: maning oshnalig‘im oshnadan jonni ham ayamasliq bilan bo‘ladir. Uch-to‘rt tanga emas, muhtoj bo‘lsangiz o‘ttuz-qirq tanga ham so‘ray bering!

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Jannat opa:

— Ilohi Homidboy murod-maqsadig'a yetsin, qix. Oshna-og'aynidan dunyo ayamaydir!

Bir oz vaqt tanga tovshi eshitilib turg'ach, Homidning ovozi keldi:

— Mana, Mutal polvon, hozirga oz bo'lsa ham shuni olib turarsiz, ammo xizmat haqingiz o'z yo'lig'a bo'ladir.

Sarxush:

— R-rahmat, H-homid aka, siz j-jonni ayamasangiz, m-men ham yo'lingizga boshimni tikdim, jamshidning arvoyi!

Sodiq:

— Bizning Mutalboy ham quruq yigit emas!

Homid:

— Dasturxonni yig'ishtirib olingiz-chi, Jannat opa!

Lagan-tovoqning bir-birisiga tekkan tovshi eshitilib, Otabek o'zini ohistagina yo'lakka oldi. O'choq boshida bir-ikki daqiqa chamasi tovoq-qoshiq va oyoq tovshi eshitilib turg'ach, Jannat opa havlig'a tushib keldi va qo'lidag'i dasturxonni tut ostig'a qoqib ketdi. Otabek qaytib kelib daricha ostig'a o'lturgan ham edi, Homidning shu so'zini eshitib qoldi.

— Eshikning zanjiriga bir qarab kelingiz-chi, imon topkur Jannat opa!

Sodiq:

— Qo'rqasiz-da, Homid aka, eshikni o'zim zanjirlaganman.

Homid:

— San hali yoshsan, inim Sodiqboy, siz chiqaberingiz, Jannat opa!

Otabek uchun vaqt ortiq tang va qo'rqunch edi. Xaroba uyga boray desa, Jannat opaning ko'rib qolishi aniq edi. Eshikni ochib chiqib ketay desa, o'lturishning maqsadi hali ochilmag'an bo'lib, butun mashaqqati shamolg'a ketar edi. Joni halqumig'a tiqilib tevaragiga alang'ladi va yo'lakdan nariroqda usta Alimning devorig'a suyog'liq turg'an zanbilga ko'zi tushdi. Zanbilning ostig'a yashirinish juda ham xavfli edi esa-da, ammo o'lturishning maqsadig'a qonmay ketish undan ham xatarlik edi. Sir fosh bo'la qolsa, uch dushmanga barobar hujum qilishni bo'yniga olib qo'ydi. Uy eshigi ochila boshlag'anda zanbilning ostig'a kirib olg'an edi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
O'zini nechog'liq siqib g'ujanak qilg'an bo'lsa ham, ammo bir qarash bilan zanbil ostida kishi borlig'ini bilish uncha qiyin emas edi. Zanbil ostida xanjarini qisimlab, go'yo sichqonni poylag'an mushukdek hujumga hozirlanib yotar edi.

Jannat opa yo'lakka tomon yurib keldi-da, zanbil ostidag'ini payqamay yo'lakka burildi. Oydindan eshikning zanjirligi aniq ko'rinib turar edi. Shuning uchun eshik yonig'a borib o'lturmay yo'lakning yarmidan qaytdi. Qaytishi hamono yuqoridan uchib o'tkan bir-ikki moshak qushning chev-chev-chev degan tovshini eshitib ko'kka qaradi. Shimol-sharqig'a to'g'ri otilib o'qdek uchib borg'an moshak qushlarg'a qarag'anicha yo'lakdan uy tomonig'a qayrilib ketkanini o'zi ham sezmay qoldi. Jannat opa ayvong'a chiqqanda, Otabek ustidagi zanbil to'rt enlik yuqorig'a ko'tarilib, tag'in sekingina uni bosib tushkan edi. Jannat opa eshikni ochib, uyga kirganda, ul ohistagina zanbil ostidan chiqdi, uning yurak tepishi hali ham shiddatlik edi. Daricha yonig'a yurib keldi-da, hamon hujumga hozirlang'andek ichkariga quloq solib turdi. Jannat opaning «eshik zanjir» degan tovshini eshitkach, rohat tin oldi va daricha yonig'a cho'nqaydi.

Homid:

— Bo'lmasa, dushanba kuni kechasiga bo'lsin!

Sodiq:

— Biz qaysi kunga desangiz ham hozirmiz!

Mutal:

— Menga qolsa, shu topta borsaq deyman!

Homid:

— Yaxshisi dushanba kun, undan nariga o'tkani ham yaramag'andek, berisi ham foydasiz bo'ladir, chunki bir-ikki kun bunga hozirlik ham kerak.

Sodiq:

— Tag'in qanaqa hozirligi bor?

Homid:

— Olib chiqg'andan so'ng, uni Marg'ilon ichida olib turib bo'lmaydir: to rom qilg'uncha birarta qishloqg'a yuborishka to'g'ri keladir. Olib chiqishimiz dushanba kechasining qaysi paytiga to'g'ri kelishini ham hozirdan aytib bo'lmaydir. Olib chiqg'an zamon Marg'ilondan chiqarilib yuborilmasa, kunduz kuni chiqarish tag'in xavflik. Kechasi ma'lum, Marg'ilon darbozalari yopiq

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
bo‘ladir. Shuning uchun birarta darbozabonni qo‘lga olib qo‘ymog‘imiz, albatta, kerak...

Sodiq:

— Yaxshi maslahat, qutidornikiga qanaqa qilib tushamiz?

Homid:

— Masalaning bu yog‘ini ham o‘ylashimiz kerak ekan hali!

Sodiq:

— Eng yaxshisi darbozasidan kirish!

Mutal:

— Darbozasidan kirib bo‘lmasa, tomidan oshib tushamiz!

Sodiq:

— Ha-ha-ha, balli, Mutal to‘ram!

Mutal:

— Kulishingni bejo qilma, hez Abdikarim! San hali dunyog‘a kelib nimani ko‘rding-ku, sanga kulish tushib qoldi! Bu bosh dunyoga kelib nimalarni ko‘rmadi-a? Bunaqanggi qochiriq ishlarni endi qilib turipti, deb o‘ylaysanmi? Eyxa-x-x, Mutal akang nimalarni qilmadi? Xa-xa-xa... Musulmonsan otangning arvoyi, Homid aka! Bir kuni Jonkeldiboy hasratini qilib Hotam to‘raning o‘g‘lini yaxshi ko‘rganligini, diydoriga to‘yolmay besar bo‘lg‘anini arz qilib qoldi-ku, yonimda Qalandar polvon bor edi, Jonkeldiga, bo‘lmasa o‘n oqta[1] ber bizga, biz Qalandar bilan birga do‘ndiqchangni muhayyo qilib beraylik, dedim. Jonkeldi o‘lib turg‘an ekan, quloq qoqmay xo‘b, dedi. Biz qalandar bilan tunni yarim qildiqda, Hotam to‘raning havlisiga keldik. Ishning ebini jo‘blab qarasaq juda kashal[2], devor — tosh hamin![3] Oshib tushishning sira o‘nqovi yo‘q. Bu ishkalni ko‘rgan Qalandarning tarbuzi qo‘ltug‘idan tushib «besh oqtani qaytarish uvol-ku?!» dedi. O‘zimning sal shunaqanggi kayfim balandroq edi, xanjarchamni qinidan sug‘urib oldim-da, to‘g‘ri Hotam to‘raning darbozasig‘a borib chaqira boshladim. Bu ishimdan jon-poni chiqib ketkan Qalandar yonimg‘a kelib turta boshladi: «Hoy, Mutal, sanga nima bo‘ldi?» Men Hotam to‘rani chaqira berib «tovshingni chiqarma, xoting‘a o‘xshag‘an yigit», dedim.

[1] Oq tang‘a *(mual.)*.
[2] K a sh a l — chatoq.
[3] H a m i n — hammayoq.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Qalandar yonimda turolmadi, meni yolg‘uz qoldirib ura qochdi. Bir vaqtda haligi Hotam to‘ra darboza orqasig‘a kelib «kim» dedi. Men tovshimga shoshilishqan tus berib «Men, men, oching tezroq!» dedim. Bechora go‘l to‘ra darbozani ochib yuborishi bormi, lip etib o‘zimni ichkariga oldim va Hotam to‘rani qo‘lidan ushlab havlig‘a boshladim. Bechora endi meni tanig‘an, avzog‘imning buzuqlig‘ini ham payqag‘an edi. Ke-kirdagiga xanjarimni tirab: «Joningdan umiding bormi, yo‘qmi, noinsof!» dedim. Juda tili shishib qolg‘an edi xumsaning — «bovv-bovv» deb g‘o‘ldirab javob berardi... «Bir bechora o‘g‘lingni deb ko‘kragini zaxka berib yotsin-da, san tinchkina o‘g‘lingni olib yot!.. Qani o‘g‘ling, yotqan joyini ko‘rsat!» dedim. Hotam to‘ra dir-dir qaltirar edi, shu ko‘yi uni ayvong‘a o‘zim yetaklab bordim-da, o‘g‘lini ko‘rsatdi. Bolani uyqu aralash turg‘uzib kiyintira boshlag‘an edim, bir tomondan ona-si dodlab qoldi-ku, xanjarimni olib unga yugirdim. «Tovshingni o‘chir, mochaxar... o‘g‘lingni o‘limg‘a olib borayotqanim yo‘q, nihoyati bir piyola choy ichadi-ku keladi!» dedim. Qisqasi, ilgari dahshat berib, keyinidan yaxshi gaplar bilan ularni ishontirib, bolani olib chiqdim va Jonkeldiga topshirib ketdim... Baxtimga o‘sha kuni bitta ham mirshab yo‘liqmadi. Ey-y, Sodiqcha, san hali nimani ko‘rding-ku, nimangga ishonding, buzoq bo‘g‘uzlag‘andek qilib bir-ikkitani so‘ygan bilan odam bo‘lding-qo‘ydingmi? Gap bilan bo‘lib zang‘ar kayf ham tarqab ketdi, qani, quy-chi bir-ikkini!

Homid:

— Sizga qoyilman, Mutal polvon, sizning shuna-qangi ishlaringizni bilib yurganim uchun bu yerga chaqirtirib keldim-da!

Mutal:

— Shuni bilgan bo‘lsangiz bas, bu ishni menga top-shirib qo‘yabering!

Homid:

— Sodiq aytkandek darbozadan kirishni xohlamay-man, chunki mirshablarning oyog‘ usti.

Mutal:

— Bo‘lmasa havlining orqasidan tushamiz!

Homid:

— Orqasi havlidir?

Jannat opa:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Qix, haligi oti qursin... Malikboyning maydoni-da!

Homid:

— Juda yaxshi ekan. Bo‘lmasa tomig‘a shoti yetarmikin?

Jannat opa:

— Qix, juda balan.

Mutal:

— Balan bo‘lsa, zarari yo‘q, osoni uyning tegidan teshamiz, qo‘yamiz!

Homid:

— Qiyin bo‘lmasmikin?

Mutal:

— Hammadan ham osoni teshish, mo‘ljalini yaxshi olsaq bas.

Homid:

— Bir-ikki soatda uni teshib bo‘larmidi?

Mutal:

— O‘zi maydonmi, axir?

Jannat:

— Maydon, qix.

Mutal:

— Yaqinida odam yo‘qmi?

Jannat:

— Yo‘q, qix.

Mutal:

— Bali, mo‘ljalni olib bersalaring, ertadan boshlab qazig‘anim bo‘lsin.

Homid, Sodiq:

— Bali, rahmat, polvon!

Majlisning so‘zi shu yerga yetkanda Otabek o‘rnidan turib yo‘lakka keldi. Eshik zanjiriga qo‘lini olib borg‘ani holda o‘ylanib to‘xtadi va eshikni ochmay orqasig‘a qaytdi. Xaroba uy orqaliq usta Alimnikiga chiqib ayvon yonida to‘xtadi, ularning xurrak va pishillashlariga qanoat hosil etkach, oyog‘ uchi bilan yo‘lakka o‘tdi va eshikni ochib chiqdi...

* * *

O‘z og‘zidan eshitkanimizdek Sodiq uni, Homidning ta’limoticha Qo‘qon darbozasidan chiqarib to karvonlarga qo‘shilib olg‘uncha ta’qib etib borgan edi. Otabek bu ta’qibni juda yaxshi sezganlikdan Sodiq yo‘lda qolg‘andan so‘ng ham yana bir bekat olding‘a borg‘an va

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
ikkinchi bekatdan yo‘lni chaplab, Toshloq darbozasi orqaliq yana qaytib Marg‘ilong‘a kirgan edi.

Usta Farfining Homid va o‘zi to‘g‘rilaridag‘i mudhish hikoyasini eshitkach, Marg‘ilonda qolish va qayin otasining uyiga borib onglashish o‘rniga juda oshig‘ichliq bilan Marg‘ilondan jo‘nab ketkan bo‘lib ko‘rinishi albatta o‘rinsizga emas edi. Chunki Komilbek o‘ldirilgan bir kunda Homidning ko‘z o‘ngida qolishi, bilaturib, o‘z-o‘ziga qabr qazish, qabrg‘ina emas nomusni barbod berish va qotilliq ismini olib xalq oldida sharmanda bo‘lish bo‘lur edi, nuchukkim, biz yuqorida Sodiq og‘zidan eshitkanimizdek Homid bu tuhmatdan ham qaytmas va o‘z tuhmatini mahkama oldida mantiqiy ravishda isbot ham qila olur edi. Mana ul shu mudhish, boshqa tushmog‘i aniq turg‘an halokatning daf’i uchun Marg‘ilondan oshig‘ich chiqib jo‘nag‘an edi. Orqasidan qiling‘an ta’qibni payqashi esa avvalo bu uning bir mulohazasi bo‘lg‘an edi, ikkinchi, otini egarlar ekan, devordan o‘zig‘a qarag‘an bosh bilan bu mulohazasini chinga chiqishini bilgan edi. Uchunchi, ko‘chada usta Alim bilan xayrlashar ekan, qo‘shnining yo‘lagida ko‘ringan kishi ko‘lagasi yana ta’qib etilishini ta’kidlagan edi.

Marg‘ilondan ikkinchi bekatka qo‘nib, choyxonada bir-ikki choydish choy ichib uzoq o‘ylag‘an va Marg‘ilong‘a qaytish quruq tuhmatka qolish bilan farqsiz ekanligini yana bir qat tushungan edi esa-da, Homidni maydonda muzaffar holda qoldirib ketishni hech bir turlik yuragiga sig‘dira olmag‘an, g‘ayri rasmiy yashirinib bo‘lsa ham Marg‘ilonda turishka va turib Homidning mundan so‘nggi rejalarini o‘rganishka va shunga qarab kurash boshlashg‘a qaror bergan, shom bilan asr oralarida Marg‘ilong‘a kirgan edi. Kelib birinchi kelishida tushkan saroyga joylashqan va joylashib tinchiy olmag‘an, ya’ni ta’qibini bu kundanoq boshlashg‘a qaror bergan. Homidning yomonliq korxonasi usta Alimning qo‘shnisinikida bo‘lg‘anlig‘i uchun hech bir taraddudsiz yo‘lni to‘g‘rilab Sodiqnikiga solg‘an ediki, biz mundan keyingi gaplarni yuqorida ko‘rib o‘tdik.

Usta Alimning eshigini ochib chiqg‘ach, Sodiqning yo‘lagiga quloq solib g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘ir kelgan tovushni eshitdi va sekin-sekin yo‘lg‘a tushdi.

Dushman bilan betma-bet uchrashmoq kuni belgulanganlikdan o‘zining bu kungi kutilmagan muvaffaqiyati

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
to‘g‘risida hech bir taajjublanmas, faqat dushanba kun kechasi bilan miyasi mashg‘ul edi. Dushanba kun kechasi bir emas, uch dushman bilan kurash to‘g‘risidag‘ina o‘ylar edi. Bu birga uch masalasi bir oz uning miyasini qotirg‘an; kishilar yollash, hukumatka bildirish, qutidorni xabardor qilib qo‘yish mulohazalarigacha kelib yetkan bo‘lsa ham, ammo izzati nafsi bu qo‘rqoqliqqa tamoman zid turar edi. Bora-bora bu mulohazasini tamoman ko‘nglidan chiqarib tashladi; na kishilar yollayturg‘an, na hukumatka bildiraturgan va na qutidorni xabardor qilaturg‘an bo‘ldi. Chunki raqib bilan dildorning uyi orqasida tanho olishmoq, yor oyog‘i ostida qonlik tuproqqa qorishmoq — uning uchun juda lazzatlik va shoirona tuyila boshlag‘an edi. Saroyga kirar ekan o‘zicha: — Shirin o‘lim, — deb qo‘ydi.

Garchi kechagi tun «Xo‘ja Ma’oz»ni tunab uyqudan qolg‘an edi, ammo uzoq vaqt bu kungi gaplarni o‘ylab yotdi. Ul uxlab ketar ekan, o‘zini goh qong‘a belanib yotqan holda, goh Kumushni erkalab turg‘an holda ko‘rar edi.

15. DUSHANBA KUN KECHASI

Bu kungi kech Otabek bilan Homidning hayot va mamot masalalarini o‘zining qora quchog‘ig‘a olg‘an qorong‘i bir tun edi va bulardan qaysi birlarining so‘ng soatlari yetkanligi shu qorong‘i tun kabi qorong‘i edi. Otabek bu ikki holdan tabi’iy birisini bu soat o‘zining ko‘z o‘ngida ko‘rar va shunga hozirlanar edi esa-da, ammo Homidning xayoli faqat gulgina iskar, gul sayriga oshiqinar edi...

Olti qarich kenglikda uzundan-uzoq tor ko‘cha, tor ko‘cha boshida kichkinagina bir eshikcha edi. Shom bilan xuftan o‘rtasida bu ko‘cha boshig‘a bir yigit kelib to‘xtadi-da, tevaragiga kishi bilmas qilib razm soldi. Ko‘chada hech kim qolmag‘an, yo‘l oyog‘i bosilg‘an edi esa-da, ul uzoqqina qarshisidag‘i darboza ichlarini, tom ustlarini, devor raxnalarini kuzatdi va qanoat hosil etib tor ko‘chaga ohista-ohista yo‘l oldi. Tor ko‘chaning yarmisig‘a yetkach, to‘satdan orqasig‘a qayrilib qaradi... Uning harakati bir narsadan shubhalanib emas, ammo orqadan dushman ta’qibi bo‘lmadimi uchun edi. Kichkina eshikcha yonig‘a yetkanda tag‘in haligidek

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
orqasig'a qarab qo'ydi. Bir oz o'ylab to'xtag'ach, eshikning o'ng tomonidag'i devorning buzuq yeridan sekingina ko'tarilib maydong'a mo'raladi. Eshikning qulf va zanjiri bo'lmay yuziga yopiq holda turg'an bo'lsa ham ul eshikka taqilmadi, mashaqqatlanib devorga mindi. Oy shom yeb yaxshig'ina qorong'i tushkan bo'lsa ham maydon ichining daraxtsizligi uchun tikkaygan cho'b ham ajraturliq edi. Maydonni kishidan xoli bilgach, sekingina devordan o'zini maydonga oldi.

Maydon ikki tanob kenglikda bo'lib, janubi qutidor va qo'shnisining imoratlari orqasidan va boshqa uch jihati ham shunga o'xshash binolardan iborat edi. Maydonga yozda nimadir ekilgan, chuqur-chuqur jo'yaklar tortilg'an va yer yomg'ur bilan ivib, bo'kib oyoq ko'tarib bosishg'a imkon bermas, har bir oyoq uzg'anda uch chorak loy barobar ko'tarilur edi. Qiynala-qiynala maydonning janubiga o'tdi. Uning chap qo'li tomonida bir uyning orqa devori bir bo'yra eni kesib tushirilgan bo'lib qorayib ko'rinar edi. Ul bu kesilgan o'rinni o'tkan kun kechasi kelib ko'rib ketkani uchun qaytadan qarab turmadi esa-da, lekin uning bu binog'a iltifotsiz qarashi mumkin emas edi. Bu tegi kesilgan bino Kumushning o'z uyi bo'lib, bu uy ichida Otabekning saodatlik kunlarining shirin xotiralari saqlanar va shu daqiqada ham uning hayot tiragi bo'lg'an Kumushbibi o'lturar edi. Otabek ko'zini to'ldirib binog'a qaradi, go'yo bu qarashda ul dunyo malaki bilan vidolashar edi. Uzoqqina binog'a qarab olg'ach, qo'ynig'a qo'l solib bir qog'oz oldi, xayol ichida qog'ozning taxlarini tuzikladi-da, qaytarib yana qo'ynig'a tiqdi. Shundan so'ng binog'a yana bir ko'z tashlag'ach, maydonning kunbotarig'a yurib, o'n besh adimlab haligi joydan yiroqlashdi. Tom shuvog'ig'a loy oling'an zovur shekillik o'rinni kechagi kelishida biqinish uchun belgulab ketkan edi, kelib shunga tushdi-da, qo'lini chakkasiga qo'yib yoni bilan yotib oldi. Garchi osti kesilgan bino bilan Otabek tushib yotqan loyxona bir-birisiga ro'baro' edi. Ammo imoratlarning ko'lagasi va kechaning o'tacha qorong'ilig'i orqasida loyxonada kishi bo'lg'anlig'ini payqash qiyin edi.

* * *

Tun yarim bo'lib, olding'i uxlag'anlar endi bir uyquni olg'an edilar. Maydon eshigi ochildi. Biri orqasidan biri

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
yurib ikki ko‘laga maydonga kirdi. Buni payqag‘an Otabek xanjarini qinidan chiqarib qo‘lig‘a ushlag‘ach, yuz tuban yerga uzandi... Ikki ko‘laga so‘zsizgina osti kesilgan bino yonig‘a kelib to‘xtadilar. Kelguchilarning biri Sodiq va ikkinchisi Mutal edi. Tumshug‘ini yerga tirab yotqan mushukdek bo‘lib Otabek ularni kuzatar edi.

To‘xtag‘ach, shivirlab Sodiq so‘radi:

— Teshilayozg‘anmikin?

— Ozg‘ina qolg‘andir, deb o‘ylayman, negaki, paxsaning enidan bir gaz chamasi joy ochilg‘an!

Mutal tovshini baralla qo‘yib so‘zlar edi, shuning uchun Sodiq dedi:

— Tovshingni sekinroq chiqarsang-chi!

Mutal belidan teshasini olar ekan, unga javob berdi:

— Hali shundan ham qo‘rqasanmi, balki hali ashulamni ham aytib yuborarman!

— Jinnilig‘ingni qo‘y, Mutal aka! Men ham yoningda turaymi?

— Turasanmi, yo‘qmi — ixtiyor o‘zingda!

Mutal kovakka kirib kovlashka tutindi.

— Teshani qattig‘ solma, — dedi Sodiq.

— Menga o‘rgatma, o‘zim bilaman.

Sodiq Mutalning ehtiyotsizligidan qo‘rqdi shekillik, bir oz Mutalning ishiga qarab turg‘ach, dedi:

— Bo‘lmasa, men eshik yonig‘a borib turay, teshildi deguncha hushtak ber.

— Tuzik, hali Homid kuyaving qayog‘da qoldi?

— Ko‘chaning boshida poylab o‘lturgandir. Hushtagingni eshitkach, uni ham chaqiraymi?

— Chaqir, — dedi Mutal va shitir-shitir kesak tushira berdi.

Sodiq eshikdan chiqg‘an ham edi, Otabek sekingina boshini ko‘tardi-da, Mutal sari shuviy[1] boshladi. Mutal esa yemirilib tushkan kesaklarni tashqarig‘a surish bilan ovora edi... Shu vaqt uning qo‘ltug‘i ostidan uzatilg‘an qo‘l hiqildog‘idan ombir kabi siqib oldi... Mutal kuchli edi, ammo Otabek undan ham kuchlik edi. Sapchib hiqildog‘ini ajratish uchun bo‘lg‘an Mutalning birinchi harakati bo‘shka ketdi-da, chap biqinig‘a o‘tkir xanjar g‘achcha botirildi... Ammo ul hamon bo‘shalishg‘a

[1] Sh u v i m o q — emaklamoq.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
kuchanar edi va kuchli qo‘l battarroq uni siqar edi. Uch daqiqalik kurashdan so‘ng Mutal bo‘shashdi, ilgarigi kuchanishlardan qoldi va bir-ikki daf’a to‘lg‘anib jimgina jon berdi. Otabek eshik tomondan ko‘zini uzmag‘ani holda Mutalni sudrab o‘zi biqing‘an loyxonag‘a olib bordi va qo‘rqibqina hiqildoqdan qo‘lini oldi. Mutalning boshi shilq etib loyxonag‘a tushdi-da, mangulik uyquga ketkanligi ma’lum bo‘ldi... Otabek bitta-bitta teshilgan bino yonig‘a kelib eshik tomong‘a hushtak berdi, javob hushtagi eshitilgach, teshuk ichiga kirib o‘lturdi. Teshukning yuqorisidan bir oz tuynuk ochilgan bo‘lg‘ani uchun ichkaridan quloqqa yengilcha pishillash eshitilar edi... Sodiq yaqin yetkan edi, kesmadan uzoqroqda turib shivirladi:

— Teshdingmi, Mutal?

— Teshdim, beri kel.

Sodiq kesma yonig‘a kelib engashdi. Engashishi hamono qo‘l hiqildoqqa to‘g‘ri kelgan edi va xanjar qornig‘a botirilgan edi... Sodiq qo‘lidag‘i xanjarini bir-ikki qayta solib ko‘rsa ham tegdirish uchun kesmaning tubanlig‘i xalal berdi, lekin o‘zi tetuk edi. Otabek sapchib kesmadan chiqdi va bor kuchi bilan Sodiqni bosib tushdi... Bosib tushishi hamono allaqaysi yeri achishkandek sezildi... So‘l qo‘li Sodiqning hiqildog‘ida, xanjarlik qo‘li Sodiqning xanjarlik qo‘lida edi... Bir oz kuchini yig‘ib olg‘ach, hiqildoqni bor kuchi bilan siqa boshladi. Sodiq xirillar, shunday bo‘lsa ham qo‘lidag‘i xanjarni bo‘shatmas edi. Eshik tomondan Homid ham ko‘rinib qoldi... Vaqt tang kelgan edi... Sodiqning ko‘kragini qochirib xanjarlik qo‘lini bo‘shatdi va Sodiqning ko‘kragiga soldi. Sodiqning xanjari bir-ikki qayta uning orqasiga kuchsiz-kuchsiz kelib tekkan edi. Xanjarini ikkinchi urishda Sodiq bo‘shashdi va qo‘lidan xanjari tushdi.

— Homid akangga juda ham mehribon ekansan, Sodiq! — dedi bosib yotqan joyidan Otabek. — Joningni ham unga qurbon qilding!

Sodiq ingranib qo‘ydi.

— Kim xirillaydir? — dedi yaqinlashib kelgan Homid.

— Tezroq keling, Homid aka, Otabekni o‘ldirdik! — dedi shoshib Otabek.

— Ah! — deb yurib keldi Homid.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Otabek Sodiqni qoldirib, Homidning xanjarlik qo‘lini ushlab oldi:

— Mutal o‘ldi. Sodiq ham o‘lim yoqasida. Enda siz bilan ikkimizgina qoldiq!

Homid qo‘lini bo‘shatishka tirishar ekan, Otabek salmoqqina qilib dedi:

— Ortiqcha oshiqmangiz, Homidboy, men sizning xanjarlik qo‘lingizni bo‘shataman hozir, ammo shungacha siz bilan ikki og‘iz so‘zim bor!

Homid hanuz qo‘lini bo‘shatishg‘a kuchanar edi.

— Kuchanmangiz, Homidboy!

— Mard yigit bo‘lsang, qo‘limni qo‘y!

— Oshiqma, qo‘yaman, — dedi Otabek. Shu choqda oyog‘ ostida yotqan Sodiq ko‘tarilib-ko‘tarilib o‘zini otmoqda edi. Otabek Sodiqdan nariroqqa Homidni boshladi. Homid tig‘izliq bilan surildi. Xanjarlik qo‘li bilan tuynukka ishorat qilib, Otabek so‘z boshladi:

— Siz mendan ham yaxshiroq bilasizki, shu uyda sizni allaqancha mashaqqatlarg‘a solg‘an, cheksiz jonivorliqlar ishlatkan va hisobsiz tillalar to‘kdirgan, nihoyat, shu daqiqag‘a keltirib to‘xtatqan birav uxlaydir. Agarda sizning manim tilimdan yozib bergan taloq xatingiz durust hisoblanmasa, bu uxlag‘uchi manim halol rafiqam bo‘lib, ikki yildan beri men ham uning ko‘yida[1] sargardonman. Demak, siz bilan maning oramizda shu birav uchun kurash boradir. Lekin siz shu choqqacha manim ustimdan muvaffaqiyat qozonib keldingiz: qora choponchi, deb dor ostilarig‘acha olib bordingiz, Musulmonqul qo‘lig‘a topshirdingiz, bu ishlaringiz foydasiz chiqg‘ach, ismimdan taloqnoma yozib, ikki yillab rafiqamdan ayirib turishka muvaffaq bo‘ldingiz, bu orada gunohsiz bir yigitni ham o‘ldirdingiz. Nihoyat, o‘g‘riliq yo‘lig‘a tushib ikki yigitingizni manim qo‘limda halok qildingiz... Endi menga javob beringiz-chi: bu yomonliqlaringizda siz haqlimi edingiz?

— Haqli edim! — dedi Homid va siltab xanjarlik qo‘lini bo‘shatib chalqancha yiqildi. Ul qo‘lini bo‘shatqan choqdayoq Otabek ishini to‘g‘rilag‘an, ya’ni Homidning qornini shir etdirib yorib yuborg‘an edi. Homid holsizlanib yotar ekan, uni besh qadam naridan kuzatib tek turg‘uchi Otabek zaharxanda ichida «haqlimi eding?» deb so‘radi. Kuchanib «haqli edim!» dedi

[1] K o‘ y — yo‘l, ishq, muhabbat.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
Homid va qo'lidag'i xanjarni Otabekka otdi, xanjar Otabekning yonig'a kelib tushdi...

Otabek kushxona o'rnidan eshikka qarab qo'zg'alg'an edi, Homiddan besh-olti qadam narida yotqan Sodiqning «hmmm» degan tovshi eshitildi. Otabek ko'ngli allanechuklangani holda maydondan chiqdi...

16. O'ZNI TANITISH

Ertasi kun butun Marg'ilon deyarlik Malikboyning maydonida voqi' bo'lg'an ishka juda hayron edi:

— Mutal bilan Sodiq bo'lsa shaharning tomteshar yigitlaridan, ular qutidornikiga o'g'riliq uchun borg'an bo'lsalar borg'andirlar... Lekin shaharning katta boylaridan hisoblang'an Homidning ishi qiziq. Xayr, Homidning o'g'riliq hunari ham bor bo'lsin, bularni kim o'ldirgan? Qutidor bo'lsa ertalab uyqudan turg'ach, bu hangamani bilibdir, juda ajoyib!

* * *

Kuch choshkohga yetkanda Otabek saroy darbozasidan chiqdi. Ul o'zining so'l qo'lini doka bilan o'rab bog'lag'an va ko'kragiga ko'tarib ushlagan edi. Kecha Homid xanjarlik qo'lini siltab tortqanda, xanjar uning bosh barmog'i orasini suyakka yetkuncha shipirib ketkan edi. Uning oyog' olishida ham bir oz oqsoqlanish sezilar edi.

Saroydan ancha uzoqlashqan edi, qarshidan o'ziga qarab kelguchi Rahmatni ko'rdi va chor-nochor so'rashmoqqa to'g'ri keldi:

— Ha, mulla Rahmat, salomatmisiz?

Rahmat oshiqibg'ina uning bilan ko'rishdi:

— Qachon keldingiz, bek aka?

— Kelganimga bir-ikki kun bo'ldi... Nega xafa ko'rinasiz, mulla Rahmat?

Rahmat uflab oldi:

— Eyyy, bek aka, bizning boshka tushkanni dushmaningizga ham ko'rsatmasin!

Otabek ajabsinish tusi ko'rsatib so'radi:

— Nima bo'ldi, uy-ichingiz bilan salomatmisiz?

— O'zingiz bilasiz, bultur padar marhum bo'lg'an edilar, bu kun yana boshimizg'a o'lim tushaturg'an

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
bo‘lib qoldi, tog‘am Homidni allakimlar chavog‘lab ketibdirlar.

Otabek ko‘zini olalantirg‘an bo‘ldi:

— Qayerda, kimlar, yarasi qo‘rqunch emasmi?

Rahmat voqi’ani qayerda bo‘lg‘anlig‘ini so‘zlab turmadi:

— Yarasi yomon, hushsiz holda hiqillab yotibdir. Qornini tikdirmakchi bo‘lg‘an edim, jarroh bo‘lmaydir, dedi.

—Chavog‘lag‘uchini aytmadimi?

— Til bo‘lsa aytadi-da, — dedi Rahmat, — ul yiqilib yotqan joyda yana ikki yigitning o‘lugi bor ekan... Shulardan zarb olg‘anmi deb o‘ylayman.

— Xudo shifo bersin! — dedi Otabek.

Ajralishdilar.

Otabek usta Alimning ko‘chasiga burilg‘ach, Sodiq eshigida uch-to‘rtta bel bog‘lag‘an kishilarni tobut yasash bilan mashg‘ul ko‘rib tinchsizlanib ketdi. Usta Alimning yo‘lagiga kirar ekan, Jannat opa bilan yana bir xotinning yig‘i tovushlarini eshitdi...

Janozaga tahorat olish uchun obdasta yonig‘a o‘lturgan usta Alim Toshkand jo‘nab ketkan Shokirbekni oradan uch-to‘rt kun o‘tmay qaytib kelishiga ajabsingan edi:

— Keling-keling, Shokirbek... Toshkand jo‘namag‘anmi edingiz?!

Otabek ayvonning oldig‘a o‘lturar ekan, kuldi:

— Toshkandga borib keldim...

Usta Alim uning hazilini fahmladi-da, tahorat ola-ola qiziq voqi’adan so‘z ochdi:

— Marg‘ilondan ketmagan bo‘lsangiz, o‘zingiz ham eshitkandirsiz Shokirbek, siz bilan menga tarjimai hollari ma’lum bo‘lg‘an Homid bilan Sodiqni va tag‘in Mutal degan yana bir yigitni Mirzakarim akaning havlisi orqasida o‘ldirib ketibdirlar. Yomonlar o‘z jazalarini topibdirlar.

— Eshitdim, — dedi Otabek va tag‘in kulib qo‘ydi.

Usta Alim uning bu kulgisiga e’tibor qilmag‘an edi, so‘zida davom etib so‘radi:

— Siz bularni kim o‘ldirgan deb o‘ylaysiz?

— Siz-chi? — dedi Otabek va tag‘in iljayib qo‘ydi.

— Menga qolsa, — dedi usta Alim, — o‘ldirguchi albatta Mirzakarim akaning kuyavi Otabekdir... zap ish

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
qilg‘an-da, men unga qoyilman. Men uning O‘tabboy qushbegiga qilg‘an muomalasini eshitib, yuragiga bali degan edim... zap yigit ekan-da!

Otabek o‘ng‘aysizlanib ketdi. Usta Alim yuz-ko‘zini artib Otabekning qo‘lini olib ko‘rishmakchi bo‘lg‘an edi, ko‘zi o‘ralg‘an dokaga tushdi:

— Qo‘lingizga nima qildi, Shokirbek?

— Pichaq kesib ketdi...

— Yomon kesdimi?

— Sal.

Usta Alim Otabekning yonig‘a o‘lturdi va:

— Nega Toshkand jo‘namadingiz, birarta mone’ chiqib qoldimi? — deb so‘radi.

— Mone’ chiqib qoldi...

— Qanday mone’? — dedi usta.

— Mone’mi? — dedi Otabek va kulimsirab: — Men sizga bir katta gunoh qilib ketkan edim... Yo‘lda bora-turib gunohimdan o‘kindim-da, sizga tavba qilg‘ali Qo‘qondan qaytdim... Agar siz gunohimni kechirsangiz, men shu daqiqada Toshkand jo‘nayman.

Usta Alim ajablanib Otabekka qaradi:

— Hazillashasiz...

— Hazillashmayman, agar siz kechiraturgan bo‘lsangiz, gunohimni ham hozir iqror qilaman.

Usta Alim kulimsirab so‘radi:

— Qani iqror qilingiz bo‘lmasa.

— Ilgari kechirishka va’da berib qo‘yingiz.

— Menga qolsa sizning hech gunohingiz yo‘q... Menga noma’lum gunohingiz bo‘lsa kechirdim.

— Rahmat, — dedi Otabek va so‘radi: — men kim?

— Sizmi, siz Shokirbek!

Otabek uyat aralash kulib qo‘yib dedi:

— Ana usta, manim borliq gunohim sizning shu kungacha meni Shokirbek, deb bilishingizdagina!

— Bo‘lmasa, siz kim?

— Gunohimni kechirgansiz-a?

— Kechirganman.

— Men siz bilgan Shokirbek emas, toshkandlik Yusufbek hojining o‘g‘li va marg‘ilonliq Mirzakarim akaning kuyavi — Otabek!

Usta Alim bir oz o‘zini keyinga tashladi va ko‘ziga jiq yosh chiqardi.

— Siz-a? — dedi. Kelib Otabekni quchoqladi... Bu

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
favqulodda holg'a tushuna olmay qolg'an Sayfi ishini to'xtatib do'konxonadan qarab turar edi. Usta yig'lag'an holda Otabekni quchoqlab o'pdi-da, ayvonga ko'rpacha sola boshladi.

— Nima qilmoqchi bo'lasiz, usta? — deb Otabek so'radi.

— Men o'zimning yangi mehmonimni ko'rpachaga o'tquzmoqchi bo'laman, — dedi kulib usta Alim.

— Men sizning ko'rpachangizga ko'b o'lturganman, endi menga ortiqcha takallufingizning hojati yo'q.

— To'g'ri so'zlamaysiz, Otabek, bu kungacha manim ko'rpachamda o'lturib yurgan Shokirbek otliq bir yigit edi. Endi men o'zimning yangi mehmonim bo'lg'an Otabekni siylamoqchi bo'laman... Qani, Otabek, ko'rpachaga chiqingiz!

Otabek ustaning latifasiga kuldi-da, ko'rpachaga chiqib o'lturdi. Bu vaqt Jannat opaning «shahid o'lgan bolam» deb yig'lag'an tovushi eshitildi-da, Otabek gunohkor bir yuz bilan usta Alimga qaradi. Ul esa Otabekning bu qarashidag'i ma'noni sezgan edi:

— Zap qilg'ansiz, Otabek, — dedi usta, — yomonlarning jazosi shunday bo'ladir... Yoningizda kishilaringiz bor edimi?

— Yo'q.

Usta Alim Otabekka tushuna olmay qarab turg'ach, so'radi:

— Uch dushmanga qarshi yolg'iz o'zingiz?

— Yolg'iz o'zim! Xudo yomong'a jazo beraturgan bo'lsa, shundoq bo'lar ekan.

Usta Alim tamom ajabda qolg'an edi:

— Subhonolloh! Qanday yuragingiz bor ekan, Otabek! Qo'lingizdan boshqa yeringizda jarohat yo'qmi?

— Yo'q. Bo'ksam ustiga bir oz xanjar uchi tegib o'tkan bo'lsa ham ahamiyatsiz.

— Xudoga shukur, Otabek! Sizning bu ishingizdan qayin otangizning xabari bor edimi?

— Yo'q edi. Bu ishni hozirg'acha bir o'zim va bir tangri bildi. Endi bu sirni bilguchilarning uchunchisi siz bo'ldingiz!

— Astag'firulloh! — deb qo'ydi usta Alim, — raqibingiz Homidni birinchi martaba usta Farfi orqaliq tanig'aningizmi?

— Birinchi martaba tanishim, — dedi uflab olib

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Otabek, — bunga ham sizning bilan bo'lg'an oshnalig'im ko'mak berganlikdan sizga minnatdorlik qilishdan ojizdirman.

— Sizning aqllar ishonmaslik qahramonlig'ingizg'a yuragim qinidan chiqish darajasiga yetdi! Otabek, Homidning bu keyingi rejasini qayerdan bildingiz?

Otabek kuldi.

— Xudog'a shukurlar bo'lsunki, manim tortqan ohlarimni quriqqa yubormay, kutmagan yerdan sirni bildirdi. Men sizga hikoyamni boshidan so'zlab beraymi va yo Homidning rejasini bilishimniginami?

— Boshidan so'zlangiz, Otabek! — dedi hovliqib usta Alim va ish to'qish ila mashg'ul Sayfini savzi to'g'rashqa buyurdi.

Usta Alimni hikoya tinglamak uchun hozirlang'an ko'rgach, Otabek dedi:

— Tahoratning sababi yodingizdan ko'tarildi shekillik!

— Ko'tarilgani yo'q, Otabek, yomonning janozasidan yaxshining hikoyasi foydalik ko'rinadir... Qani, so'zdan keling!

Otabek o'zining chin do'stig'a birinchi marta Marg'ilon kelishidan tortib hikoyasini so'zlab ketdi. Uning uch yil ichida boshidan o'tkanlarini bir soatlik vaqtga cho'zilib, Sayfi oshni suzib kelganda yo'lda uchrashqan Rahmat bilan hikoyasini tugatdi. Usta Alim Otabekning yelkasiga qoqib der erdi: — Sizda chin yurak bor, do'stim. Bu yurakingiz bilan hech vaqt dard qolmaysiz, Otabek! Ammo mendan chin ismingizni yashirib kelganingiz uchun sizni ayblay olmayman. Biroq jum'a kun kechasi Homid izidan manim havlimga kirib, menga o'zingizni bildirmay ketkaningizga xafa bo'laman, xudoy ko'rsatmasin bir falokat yuz berganda nima bo'lar edi?

Oshdan so'ng usta Alim shunday fotiha o'qudi:

— Dushmanlaringizning yo'q bo'lg'anlari chin bo'lsin, suyganingiz bilan endi mas'ud yashang!

Otabek tashakkur etdi. Tag'in bir oz choy ichib so'zlashqandan so'ng, Otabek daftaridan ikkita xat chiqarib dedi:

— Sizga og'ir kelmasa, bir xizmat topshirmoqchiman, usta!

— Buyuringiz!

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Otabek qo'lidag'i xatlarni uzatib:

— Men shu soatning ichida Toshkand jo'nashg'a majburman. Shuning uchun siz bu xatlarni qayin otamnikiga o'z qo'lingiz bilan eltib berasiz.

Usta uning bu gapiga tushunolmay qoldi:

— Nega endi Toshkand jo'naysiz, o'zingiz...

— O'zimga mumkin emas, chunki... ikki tomong'a ham o'ngg'aysiz. Men hozir ketishka majburman, balki o'zingiz ham onglarsiz.

— Ongladim, — dedi usta va: — gap-so'z bosila-yozg'ach, kelmakchimisiz?

— Balki... — deb to'xtadi Otabek, — xatlarning birisi qayin otamg'a, ikkinchisi unga, — dedi.

— Xo'b.

— Qayin otamg'a yozg'anim qisqa bo'lg'ani uchun siz unga mendan eshitkanlaringizni so'zlab qondirarsiz. Qutidor bilan ishingizni tugatib qaytishingizda uning xatini berarsiz, tuzikmi?

— Ma'qul.

— Uchrashqaningiz to'g'risida menga ma'lumot yozsangiz, tag'in minnatdor qilar edingiz...

— Bosh ustiga.

Shundan so'ng ikkisi quchoqlashib ko'rishkach, vidolashdilar.

Otabek eshikdan chiqg'anda Sodiqni ko'mib kelgan kishilar qur'on o'qub tarqalmoqda edilar.

17. XAYRIXOH QOTIL

Mirshablar tomonidan qo'rboshi mahkamasiga so'roqqa olib ketilgan qutidor qaytib yo'lakdan kirishi bilan ming xil tashvishda o'lturg'uchi Oftob oyim bilan Kumushka qaytib jon kirgan kabi bo'ldi. Kumush otasining oldig'a qanot yozg'an kabi yugirib, uning soqolini silar ekan, so'radi:

— Sizga zarar bermadilarmi, otajon?

— Yo'q, qizim.

Oftob oyim erining bu so'zini eshitishi bilan Xo'ja Bahovaddin yo'lig'a o'gurib qo'yg'an yetti tanga pulini To'ybekaga berib, darrov eshonnikiga jo'natdi va shundan so'ng eridan so'radi:

— Sizga ayb qo'ya olmadilarmi?

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Xudoyg'a shukur, oqlandim, — dedi qutidor. — Chindan ham menda qanday ayb bo'lsunki, o'zimiz ham bu hangamani uyqudan turib payqag'an bo'lsaq. Uyimiz ostini yomonlar teshkan bo'lsalar ham ammo kishi sig'masliq bo'lg'anlig'i meni oqliqqa chiqardi. Lekin kishi sig'aturg'an bo'lib teshilganda ham meni ayblay olmas edilar, zeroki, uyimiz ostini teshkan muttahamlar albatta yaxshi niyat bilan teshmagan bo'lib, molimiz va jonimiz qasdida ekanliklari ma'lum edi. Basharti qotil men bo'lib ko'ringanimda ham molim va jonim qurug'ida o'g'rilarni o'ldirganligim uchun yana gunohkor bo'lmas edim. Har holda bu foji'a bizga zararsiz bo'lib o'tdikim, buning uchun haq taologa qancha shukur qilsak ham ozdir, — dedi va ayvong'a chiqib tanchaga o'lturg'ach, Kumushdan so'radi: — achang kelmadimi?

Oftob oyim javob berdi:

— Qattig' og'rib qolibdir, — va so'radi: — kimlar o'ldirib ketkanini bila olmadingizmi?

Qutidor ajabsinib xotinig'a qaradi:

— Qiziq so'z aytasan-a! — dedi. — Bu ishka butun shahar hayron. Qilni qirqqa yoradirg'an donolar ham bir narsa to'quy olmaydirlar... Ammo manim ko'nglimga keladirgani shulki, bizning molimizg'a ko'z olayturg'an o'g'rilar besh-olti kishi bo'lib, uyni teshayozg'an vaqtlarida oralarig'a nizo tushib, bir-birlari bilan pichoqlashqan bo'lsalar kerak.

Kumush otasining bu kashfiga qarshi tushdi.

— Bu gapingiz to'g'ri emas, ota, — dedi.

— Nega to'g'ri emas?

— Negaki, bir-biravlarini o'ldirishib, bizga zarar bermasdan quruqqina ketmas edilar.

— Tong otib qolg'andir yoki ular ham holdan toyg'andirlar, — deb javob berdi qutidor.

— Bu orada Homid nima qilib yuribdir, o'ziga tuzikkina boy kishi emasmi edi? — dedi Oftob oyim, bu vaqt Kumush sekingina onasig'a qarab olg'an edi.

— Homid tiynati[1] buzuq bir yigit edi, — deb javob berdi qutidor. —Ehtimolki, uning topqan davlati o'g'riliq orqasidadir, kishining davlatiga qarab hukm yurutish qiyin.

— Xudoyimdan o'rgulayki, — dedi Kumush entikib va dahshatlanib, — yomonlarning jazasini o'zi bergan.

[1] T i y n a t — xulq, fe'l.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

O‘g‘rilar teshib oldimg‘a chiqg‘anlarida men nima qilar edim? Oh, otajon! Men ajalimdan besh kun burun o‘lar edim. Qizingizdan ajralur edingiz!.. Meni g‘aflat uyqusi bosmag‘an bo‘lsa, nega bir gazlik paxsani kesar emishlar va boshimdan tuynuk ochar emishlar-da, men hech narsa sezmas emishman.

Oftob oyim boshini chayqab:

— Shuni ayt, qizim! — dedi.

Qutidor:

— Xudoning qanday hikmatlari bordirkim, shu kecha-kunduzlarda bizning tevaragimizda qonli voqi’alar ko‘rila boshladi: bu kun nikoh deganimizda Komilbekni hammomda o‘ldirib ketdilar (Kumushbibi yuzida bir yengillik ko‘rildi), kecha uyimiz orqasida bir emas, uch kishi o‘ldirildilar. Xudo oxirini baxayr qilsin endi...

— Inshoolloh, ishning oxiri xayrlikdir, otajon,— dedi Kumush, — chunki bizning molimizga ko‘z olaytirib yomon niyat bilan uyimiz orqasini teshkuchilarni yer bilan yakson etdirishi istiqbolimizning xayrlik follaridandir, otajon!

— To‘g‘ri aytasan, qizim, — dedi qutidor.

Kumush o‘zining qo‘ng‘uroqdek tovshi bilan davom etdi:

— Bu maqtullar[1] kimlar bo‘lsa bo‘lsin, bizning uyimiz orqasig‘a yaxshi niyat bilan kelguchi kishilar emas va bularni tuproqqa qorishdirg‘uchi ham bizga xayrixoh bo‘lg‘an qotil va yo qotillardir... Bizga muncha yaxshiliq qilg‘an kishi kim bo‘lsa ham xudo ajrini[2] bersin! — dedi.

Qutidor qizining so‘zini kuchlab tushdi.

— Bizga yomon niyati bilan qarag‘an bo‘lsalar, xudo jazalarini berdi. Bizga xayrixoh bo‘lg‘anlarning ham xayri jazalarini berar, — dedi.

Kumushbibi bu qo‘rqunch uyda yota olmaslig‘ini bildirgani uchun Oftob oyim To‘ybekadan Kumushning buyumlarini ikkinchi uyga tashita boshladi. Qutidor esa butun kun mehmonxonasig‘a kelib-ketib turg‘an ko‘ngil so‘rag‘uchi oshna, yor-do‘stlari bilan ovora bo‘ldi.

* * *

Shomdan so‘ng qutidor endigina mehmonlardan bo‘shab ichkariga kirgan edi, mehmonxona yig‘ishtirib qolg‘an To‘ybeka qutidor yonig‘a kelib dedi:

[1] M a q t u l — o‘ldirilgan, qatl qilingan.

[2] A j r — evaz, mukofot, qaytariq.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Sizni bir kishi chaqiradir.

— Qanaqa kishi, tanidingmi?

— Tanimadim.

Qutidor erinibgina tashqariga chiqdi-da, mehmonxonada o'lturg'uchi tanish bo'lmag'an kishi bilan sovuqqina ko'rishib so'radi:

— Xizmat?

Usta Alim qutidorg'a kulimsirab olg'ach:

— Ruxsatsiz mehmonxonangizga kirganim uchun kechirasiz, — dedi.

— Aybi yo'q, mulla, — dedi qutidor va qarshima-qarshi ulturishdilar.

— Yomonlar suiqasdidan salomat qutilishingiz muborak bo'lsin!

— Tangriga qulluq bo'lsin! — dedi qutidor. Mehmonxona qorong'ilanib ketkani uchun havli supirib turg'uchi To'ybekaga darichadan turib buyurdi: — Sham' yoqib chiq, To'ybeka!

Sham' chiqishini kutkandek usta Alim boshini quyi solib o'lturar edi. Qutidor «nima yumishing bor menda» degandek qilib unga savol nazari bilan ko'z tashlar va qur'on tinglovchi kishidek bo'lib o'lturg'uchi majhul kishidan taajjublanar edi. Nihoyat, sham' kelib tokchaga qo'ndirilg'ach, usta Alim muroqabadan[1] boshini ko'tarib qutidorg'a qaradi:

— Mendan taajjublandingiz, — dedi va qo'ynidan maktublarni chiqarib bittasini qutidorg'a uzatdi, — mendan ham bu maktub ajibroqdir, — deb kuldi. Qutidor xatning unvoniga ko'z yugirtirib chiqg'ach, usta Alim aytkandek taajjub ichida xatni ochdi... O'qub bitirgach, ul dahshat va taajjub ichida toshdek qotib qolg'an edi... Agarda uning yonida usta Alim bo'lmag'anda edi, ehtimol ul qay va qatlarg'acha serrayib qolar edi.

— Jon va oilangiz dushmani bo'lg'an bir badbaxt endi o'z qilmishining jazasini ko'rdi, burodarim Otabek ularning totiqlarini xo'b boblab berdi, — dedi usta Alim va davom etdi: — shuning bilan sizning najib[2] oilangiz dahshatlik foji'a davrlarini kechirib, endi ma'sud kunlar arafasiga yetdi. Xatni o'qub sizning dahshatlanishingiz emas, quvonishingiz, dushmaningizni yuz tuban qilg'ani uchun haq taolog'a shukur aytishingiz kerakdir!

[1] M u r o q a b a — mushohada qilish.

[2] N a j i b — ulug'.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Qutidor hushini boshig'a yig'ayozdi va uflab tin olg'ach, hayajon ichida so'radi:

— Men bilan Otabekni qamatdirg'an va dor ostlarig'a yuborg'an Homidmi?

— Homid.

— Taloq xati yozg'uchi Otabek emasmi?

— Hosho va kallo[1], Otabek munday gapdan xabarsiz. Uning otidan taloq xati yozg'uchi ham shu badbaxt Homid.

Mundan so'ng qutidor turib ichkariga yugirdi, yarim yo'ldanoq tanchada o'lturg'uchi Oftob oyim bilan Kumushka qichqirdi:

— Sir ochildi!

Ikkisi ham sachrab qutidorg'a qaradilar-da, birdan so'radilar:

— Nima, qanday sir?

Qutidor tanchaga borib o'lturmadi-da, ayvon peshonasidan turib, qo'lidag'i xatni yuqori tovush bilan o'qub chiqdi:

«Muhtaram qayin otamizg'a!

Siz bilan meni qorong'i zindonlarg'a tushirib, dor ostlarig'acha tortkan, buning ila o'zining vahshiyona tilagiga yeta olmag'andan keyin manim tilimdan soxta taloq xati yozib darvoza yonidan haydattirishka muvaffaq bo'lg'an va bir gunohsizni shahid etkan Homid ismlik bir to'ng'uzni nihoyat, ikki yillik sargardonligim so'nggida yordamchilari bilan tuproqqa qorishdirishg'a muvaffaq bo'ldim... Sizning shonli havlingiz yonida voqi' bo'lg'an bu kurash albatta sizni va uy-ichingiz ham yor-do'stlaringizni anchagina tinchsizlikka qo'yg'an bo'lsa kerak. Na choraki, yomonlarni sizning havlingiz orqasida rafiqam qasdida bo'lg'anlari paytida uchratishg'a to'g'ri keldi va men bu ishka majbur qoldim. Buning uchun albatta meni kechirarsiz umididaman. Faqat sizning tinchsizlanishingiz va mardumning yuqori-quyi so'zi bo'lmasa sizga boshqa zarar bo'lur, deb o'ylay olmayman. Sizdan bu ulug' gunohim uchun afu so'rab, haydalg'an o'g'lingiz Otabek Yusufbek hoji o'g'li».

Ammo qutidor «haydalg'an» so'zini tashlab o'qudi. Maktub o'qulib bitkanda Oftob oyim, ayniqsa, Kumush

---

[1] Xosho va kallo — shaksiz, shubhasiz.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
qutidorning boyag‘i holig‘a tushgan edilar. Kumushning bu daqiqadag‘i holini qalam bilan chizib ko‘rsatish albatta mumkin emas edi. Ul titrar edi, ko‘karar edi, to‘lg‘anar edi... Hozirgi eng kuchlik hissiyotini hissiyotning a’lo ifodachisi bo‘lg‘an yosh bilan to‘kar edi.

Qutidor o‘z tomonidan ham izoh berib chiqdi:

— Men bilan Otabekni qamatib dor ostig‘a yuborg‘uchi, Otabek tilidan soxta taloq xati yozib bir-birimizdan judo etkuchi, Komilbekni o‘ldirguchi, uyimiz orqasini teshib Kumush qasdida bo‘lg‘uchi — hammasi ham shu battol Homid ekan... Ammo badbaxtni ikki kishisi bilan tuproqqa qorishdirib ketkuchi Otabek ekan!

Oftob oyim titrag‘an tovush bilan:

— Uyatsiz Homid, — dedi.

Kumushbibi:

— Bechora begim, — deb qo‘ydi.

Uchchavi ham yurakni to‘xtatib olish uchun anchagacha jim qoldilar.

— O‘zi esonmikin? — deb so‘radi oxirda Kumush.

— Xatig‘a qarag‘anda sog‘, — dedi qutidor.

Oftob oyim so‘radi:

— O‘zi qayerda emish, xatni sizga kim kelturdi?

Bu savoldan qutidorning esiga mehmonxonada o‘lturgan usta Alim tushkan edi. O‘rnidan irg‘ib turdi-da, xotinig‘a javob bermasdan tashqarisig‘a chiqdi. Ul usta Alimning qarshisig‘a o‘lturganda, mehmonxonaning yuqori darichasi ostig‘a Oftob oyim bilan Kumush xat keltirguchining so‘zini eshitish uchun kelib to‘xtag‘an edilar.

Qutidor uzr aytdi:

— Kelturgan xabaringiz ta’sirida sizni unutayozibman...

— Men buni payqadim, — dedi usta Alim kulib,— shu yo‘sinda makkor Homidning iblisona dasisasi[1] bir oilani tamom ishdan chiqarayozg‘ankim, bu to‘g‘rida ayniqsa sizga so‘zlash ortiqchadir. Ammo arslon yuraklik Otabek ham badbaxtni shundog‘ yanchib tashladikim, bu juda oz kishilar qo‘lidan kelaturgan ishdir.

— O‘g‘rilarni o‘ldirganda Otabekning yonida necha kishisi bo‘lgan? — deb so‘radi qutidor.

---

[1] D a s i s a — makr, hiyla, nayrang.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Usta kuldi:

— Otabekning tanho o‘zi! — dedi.

— Uch kishiga tanho o‘zi? — qutidor ishonmag‘an edi.

— Azamatning yolg‘iz o‘zi! — deb usta Alim ilgarigi so‘zini qaytaladi.

— Astag‘firulloh... Nega menga bu to‘g‘rida xabar bermagan?

— Sizga xabar berib o‘lturishni yigitlik otig‘a eb bilmay, hatto menga ham bir narsa sezdirmagan. Men hali bu nuqsoni uchun ayblasam: «Men o‘zimning ashaddiy dushmanim bilan tanho kurashib yo jon bermakka va yo jon olmaqqa qaror bergan edim. Shuning uchun hech kimga ham bildirmadim», deydir.

Qutidor bir tomondan dahshatka tushsa, ikkinchi jihatdan Otabekning dov yuragiga hayron qolar edi.

— O‘ziga jarohat olmag‘anmi? — deb so‘radi qutidor.

— Bo‘ksasi bilan qo‘lidan yaralang‘an bo‘lsa ham zararsizdir.

Usta Alim qutidorning ba’zi bir e’tirozlariga qarshi Otabekning qutidor tomonidan quvlang‘anidan tortib, shundan beri Marg‘ilong‘a yetti-sakkiz martaba kelib ketkanini, har bir kelishida o‘zining uyiga kelib tushkanini va qalin o‘rtoq bo‘lib olg‘anlarini, shundoq bo‘lsa ham Otabekning o‘zidan chin ismini yashirib yurg‘anini, jum’a kuni usta Farfidan birinchi martaba o‘z raqibini tanishini, nihoyat bu kungina unga chin ismini ochqanini so‘zlab chiqdi.

— Taloq xati-ku soxta ekan, — dedi qutidor, — nega biznikiga bir kelgani bilan qaytib kelmadi ekan?

— Chunki uning so‘ziga qaraganda, siz uni og‘irroq tariqa bilan darbozangiz yonidan jo‘natqan ekansiz, — deb izohladi usta. — Toshkanddan uylanishida sizning bilfe’l bosh qo‘shishingizni faqat qizingizni undan chiqarib olish uchun qurilg‘an bir hiyla ekan, deb o‘ylab, qaytib eshikingizga oyoq bosmag‘an, hatto xotinini qozig‘a chaqirish to‘g‘risida fikri bo‘lsa ham, siz bilan uchrashishdan qochib bu fikridan ham qaytqan, ya’ni sizning qizingiz bo‘lg‘ani uchun suygan xotinidan ham kechmakka qaror bergan.

Qutidor hali ham Otabekning ruhiga tushuna olmag‘an edi:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Mendan o‘zi xafa bo‘lg‘an bo‘lsa, orag‘a kishi qo‘ysa ham bo‘lar edi.

— Shundog‘ qilsa ham bo‘lar edi, — dedi kulib usta Alim, — men hali undan shunday deb so‘rasam, «O‘zimga ishonmag‘an kishi kishi so‘ziga kirarmidi, deb o‘yladim», deydir. Kuyavingizning qiziq tabi’atini shundan ham yaxshi bilib olsangiz bo‘ladirkim, shu choqqacha ota-onalari ham bu foji’adan xabarsiz ekanlar.

— Qiziq yigit, — dedi qutidor, — mendan ham katta nodonliq o‘tkan.

— Hammasi ham taqdirning ishi, amak, bu orada siz bilan manim hech bir ixtiyorimiz yo‘q.

— Albatta yo‘q, — dedi qutidor va so‘radi: — o‘zi siznikidami?

— Bu kun peshinda Toshkand jo‘nab ketdi.

Qutidor tushuna olmag‘an edi:

— Nega-nega? — deb so‘radi.

— Nega... sababini men ham yaxshi tushuna olmadim.

— Qaytib keladirgan vaqtini aytkandir?

— Bu to‘g‘rini so‘rag‘an edim, muhmalroq javob berdi,— dedi usta va yonini kovlab xatni oldi. — Bu xat karimangizga bo‘lsa kerak, endi menga ruxsat, — dedi va fotiha o‘qub o‘rnidan qo‘zg‘aldi.

— Men sizga dasturxon yozdirishni ham unutqanman, qo‘zg‘almangiz!

— Rahmat, amak, hozircha meni kechirib turasiz, ammo bapirja kattaroq ziyofatni unutmaysiz, — deb kuldi usta Alim. Qutidor uni ko‘chagacha kuzatib chiqdi.

Kumushbibi daricha orqasidan hamma gapni eshitib olg‘an va hissiyotini yum-yum yig‘lab o‘tkargan edi.

* * *

Oftob oyim Kumush bilan boshlashib ichkariga kirar ekan, so‘radi:

— Homidning yomonlig‘ini bizga ulashdirib yurgan puchuq xotinning shumligi o‘z boshig‘a yetib, o‘lganlarning bittasi o‘shaning o‘g‘li ekan, bildingmi?

— O‘lganidan menga nima foyda, — dedi Kumush.

Oftob oyim qizig‘a ajablangan edi.

— Foydasini ko‘rib turibsan-ku, axir.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Foydasi Toshkandga ketib qolg‘animi?

— Ketib qolg‘an bo‘lsa, tag‘in bir kun kelar.

— Kelmaydi, — dedi o‘ksib Kumush, — uning hamma harakati dushmanidan o‘chini olish uchun ekan.

— Kim aytdi sanga?

— Xat olib kelganning so‘zidan payqadim.

Oftob oyim kuldi:

— Ering sani tashlab ketmas, qo‘rqma qizim, — dedi, — saning boshingg‘a tikilgan bu balolarni o‘zining shirin jonidan kechib daf’ qilg‘an Otabek, seni sira ham unutmas, sanga yozg‘an xatini otangdan olib o‘qub ko‘rchi oldin.

Kumushbibi yig‘idan qizarg‘an ko‘zini katta ochib so‘radi:

— Menga xat yozg‘anmi?

— Haligi kishi sanga atab dadangga bir xat berdi-ku, bilmadingmi?

— Bilmadim, — dedi. Chunki ul usta Alimning «muhmal javob berdi» so‘zini eshitkach, tamoman o‘zini unutib, berilgan xatni payqamay qolg‘an edi.

Ikki yildan beri suratini ko‘z o‘ngidan ketkuza olmag‘an, Otabekning yuzini ko‘ralmay, so‘zini eshita olmasa ham yozg‘an xatini o‘qub eshitish Kumush uchun katta qiymatka molik edi. Otasining yo‘lakdan kirishi bilan latif ko‘kragi kuchlik tin olish ila ko‘tarilib tashlandi-da, go‘yo Otabek bilan uchrashaturg‘andek yuragi o‘ynamoqqa boshladi. Qutidor kelib tanchaga o‘lturg‘ach, o‘ziga «amonatni topshiring» degan kabi qarab turg‘an Kumushka xatni uzatdi:

— Sanga xat.

Kumushbibi uyalib-netib turmadi va kimdan, deb ham so‘rab o‘lturmadi, darrov tokchada yonib turg‘an sham’ yonig‘a borib xatni ocha boshladi. Sham’ qarshisida qizarg‘an shahlo ko‘zlari, yosh bilan sing‘an jinggila kipriklari, chimirilg‘an to‘sdek qora qoshlari uni allaqanday bir holga qo‘yg‘an edilar. Qoshi ustiga to‘zg‘ib tushkan sochlarini tuzatib xatni o‘qudi:

«Oy yuzlik rafiqam, qunduz qoshlik ma’shuqam Kumush xonimga!

Shayton ustasi bo‘lg‘an Homidning manim otimdan sizga yozg‘an taloq xatisi ila menga qarshi yonib ketkan yurakingizning nafrat o‘ti ehtimol endi o‘cha tushkandir.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Soxta taloq xatini olg'an so'ngingizda menga xitob qilib yozg'an fikrlaringizdan ehtimol endi qaytayozg'andirsiz... Bu xatni yozar ekan, muhabbatingiz bilan to'luq bo'lg'an yurakim mudhish bir haqiqat ehtimolidan yafroq kabi titrar va o'zining to'lib-toshqan hasratlarini, faryodlarini ifodasidan adashar edi... Sizga ochib so'zlay, go'zal rafiqam: go'yo manim bu maktubim sizning Komilbek uchun hasratlik yoshlar to'kkan, o'tlik ohlar tortqan chog'ingizda erishar-da unutilg'an, eskirgan bir yurakning arzini tinglay olmassiz va yonib turg'an yurak o'tingiz bilan kuydirarsiz...

Ammo xatimni o'qumasangiz-da va marhumingiz uchun tortqan ohingiz o'tida kuydirsangiz-da, manim uchun farqsizdir. Nega deysizmi? Chunki siz manim shar'iy rafiqamsiz — yaxshiliq bilan-da va yomonliq bilan-da men buni isbot qilishg'a hozirman!

Uyingiz orqasida qilg'an adabsizliklarim, xunxo'rliklarim uchun meni kechiringiz... Chunki men bu vahshiylikni ishlashda ixtiyorsiz edim: hayotingizning, nomusingizning saqlanishi buni taqozo etar edi... Albatta men ishonamankim, siz manim bu yaxshilig'im uchun minnatdorlik qilarsiz. Lekin men bu minnatdorlikka o'zimni sazovor hisoblay olmayman.

Men o'shal kuni kechasi dushmanlardan birini o'ldirdim-da, so'ng darajada zaiflandim, ikkinchi dushmandan yengilishimni va ko'yingizda jon berishimni aniq bilib rohatlanib ketdim... Manim uchun ko'yingizda va oyog'ingiz uchida jon berish juda shirin edi va ko'bdan beri g'oyam edi. Shuning uchun yaqinrog'ingizda o'lmak uchun, o'lar ekanman, so'ng daqiqamda yana bir martaba bo'yingizni olib o'lish uchun dushman tomonidan uyingizga ochilg'an tuynukchaga kirdim. Kirdim-da, sizni bo'yingizni oldim, xafif tin olg'andag'i latif uxlag'an tovshingizni eshitdim... Shu vaqt subhonolloh... o'zimda kutilmagan bir kuch sezgan edim, ikki emas, ikki yuz dushmanga muqobala[1] etishka o'zimda qudrat ko'rgan edim... Men o'zimga bag'ishlang'an kuch manba'ini juda yaxshi onglar edim, mendagi bu o'zgarish manba'i uy ichida uxlag'uchi bir malak edi... Siz edingiz!»

---

[1] M u q o b a l a — qarshi turish.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kumushbibi xatning bu o‘rniga yetkanda qizarinib, bir oz o‘qushdan to‘xtab oldi va davom etdi:

«Shundan so‘ng ikkinchi dushmanni tuynukdan chiqmayoq ishini bitirdim. Bizning foji’amizning asl omili bo‘lg‘an Homid esa go‘yo manim qo‘limda mushuk kabi o‘yin bo‘lg‘an, uni kulib turib, o‘ynab turib tilimlagan edim...

Esingizda bormi, meni dor ostidan qutqarib, menga yangi hayot bag‘ishlag‘aningiz? Bu kecha ham bu ikkinchi o‘limdan qutqarg‘uchi va ikkinchi martaba menga hayot bag‘ishlag‘uchi yana siz bo‘ldingiz! Shuning uchun minnatdorlik etkuchi siz emas, men bo‘lishg‘a tegishman!

Sizdan emas, otangizdan bir o‘pkalashim bor: soxta taloq xatini manim o‘z qo‘lim bo‘lib, bo‘lmag‘anini ajrata olmag‘an. Gumonimcha bu soxta xat sizga ham ko‘rsatilmagan o‘xshaydir, chunki, ayniqsa, sizning ko‘z o‘ngingizdan bu haqiqat qutila olmas edi... Har holda taqdirning bunchalik o‘yinlari turg‘an bir zamonda biz nima ham qila olur edik? Bu to‘g‘rida mendan ham o‘tkan joylari bordirkim, sizning birinchi martaba menga yozg‘an xatingiz ma’nosidan dahshatlik suratda o‘zimni tag‘ofilg‘a solg‘an va xat kelturguchini surishtirmasdan javob xati berib yuborgan edim. Shuning ila sizni-da, o‘zimni-da Homid qo‘lida o‘yin bo‘lmog‘imizg‘a katta yo‘l ochqan edim.

Ba’zi ehtimollarga qarshi siz bilan ko‘rishmak menga muyassar bo‘lmadi. Umrimda birinchi martaba ko‘ngil orzusig‘a qarshi bordim. Chunki manimcha oradag‘i qora tikon supirilgan edi. Mundan so‘ng hamisha meniki edingiz. Men Toshkandda yurarman, ammo ko‘zim o‘ngida sizning haykalingiz! Ajabo, busiz menga mumkinmi?!

Zavjingiz Otabek».

Kumushbibi xatni o‘qub tugatdi-da, yugirgilagancha uyiga kirib ketdi. Uning bu harakatidan qutidor bilan Oftob oyim ajabsinishib bir-birlariga qarashg‘an edilar. Kumushbibi qo‘lida ikkinchi bir maktub ko‘targanicha uydan chiqdi-da, sham’ yonida ikki xatni bir-birisiga solishtirib ko‘rdi. Bu xat Homidning Otabek tilidan yozg‘an taloqnomasi edi. Bu ikki xat birinchi qarashdayoq ikki kishi tomonidan yozilg‘anliqlarini o‘z og‘izlaridan so‘zlab turar edilar.

Kumushbibi ikki xatni qator ushlab otasig‘a ko‘rsatdi:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Bularga qarangiz, ota! Bizni nechog'liq g'aflat bosqan ekan, — dedi.

Qutidor qizining maqsadig'a tushunib ikki turli qo'lni darrav payqab oldi:

— Vijdonsiz, iblis, imonsiz, kofir, — deb qo'ydi.

Kumushbibi Otabekning xatini buklab cho'nchagiga soldi-da, soxta xatni sham'ga tutib yondirar ekan, otasidan so'radi.

— Shu voqi'adan so'ng kuyavingiz aniq kelganmi edi?

— Kelgan edi, qizim.

— Bechorani nega haydadingiz-da, nega meni, loaqal oyimni bu kelishdan xabardor qilmadingiz?

— Men uning kelishini boshqa gapka yo'yib, sizlarga bildirmagan edim...

— Qizimizni taloq qilg'an bir kishini Toshkand degan joydan eshikingizga kelishi sizga g'arib[1] tuyulmag'anmi edi? — deb yana so'radi Kumush.

Qutidor uyalish va o'kinish orasida:

— Jaholat kelsa, aql qochadir, qizim, — deb qo'ydi.

Oftob oyim bilan qutidor Homidning iblisona ishlariga «tavba-tavba» deb muqobala qilsalar ham, ammo Otabekning favqulodda yurakini so'z orasida «baraka topkur, umring uzoq bo'lg'ur» bilan qarshi olar edilar. Kumushbibi esa butunlay boshqa qayg'uda edi. Eru xotinning so'zlari Otabekning Toshkandga ketib qolishi to'g'risig'a kelib taqaldi-da, Oftob oyim Kumushdan so'radi:

— Senga kelishidan aytkanmi?

Kumushbibi siltalash nazari bilan ularga qaradi va keskin ohangda javob berdi.

— Aytmagan!

Eru xotin ma'nolik qilib bir-birlariga qarashib olg'ach, orada uzoqqina sukut boshlandi. Kumush qutidorg'a savol nazari bilan bir-ikki qayta qarab ham qo'ydi.

— Kelib qolsa yaxshi, — dedi nihoyat qutidor, — kelmasa, Toshkandga o'zimiz tushamiz-da, — deb xotinig'a qaradi.

Bu so'z Oftob oyimg'a yoqmag'anliqdan yuzini chet-

[1] G' a r i b — ajab, taajjub.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
ka burdi. Ammo Kumush otasidan rozi qolib, onasig'a qaradi.

— Qizing har qaysi yerda bo'lsa ham sog' bo'lsin, — dedi xotinig'a qutidor. — Eriga topshirib, sen bilan manim tinchkina duo qilib o'lturganimiz ma'qul o'xshaydir.

— Endi qizingizning bir kami kundash balosi edimi? — dedi sapchib Oftob oyim. Qutidor xotinig'a kulib qaradi:

— Eri yaxshi bo'lsa, kundash balosi nima degan gap?

— Eri ming yaxshi bo'lsin, baribir kundash kundashligini qila beradir. Mashoyixlar bilmasdan «kundash» demaganlar.

Qutidor qizig'a qarab kuldi va xotinini yupatdi:

— Hamma vaqtga emas, qo'rqma.

— Menga qolsa bir kunni ham ko'b ko'raman, kundash bilan kechirilgan kun — kunmi?

— Kuyavingning shuncha qilg'an jonbozlig'ini unutdingmi?

— Nega unutay, — dedi Oftob oyim. — Kelsin. Mana bosh usti, bolam bir emas ikki. Uldurki,[1] qizimni kundash ustiga yuborishg'a tish-tirnog'im bilan qarshiman.

— Besh-olti kunga ham-a?

— Necha kunga?

— Menga qolsa bitta-ikkita bolaliq bo'lg'uncha tursin, deyar edim. Sen bunga ko'nmasang, bir-ikki oy turib kelsin, loaqal. Bir yigit qizingni deb ikki yillab sarson bo'lg'anda qizingni ikki oylik kundash azobidan hayf ko'rish juda uyat, axir!

Qutidor «bitta-ikkita bolaliq» so'zini aytkanda Kumush qizarinib yerga qarag'an edi. Oftob oyim erining keyingi so'zi bilan anchagina bo'shashdi:

— Bir oydan ortiqqa men rozi emasman, shunda ham kuyavimning yaxshilig'i uchun, — dedi.

— Ana endi o'zingga kelding, xotin.

— O'zimga kelsam-kelmasam shartim haligi, shunda ham o'zim birga borib kelaman.

— Albatta, o'zing birga borasan, qudalaring bilan tanishmog'ing ham zarur.

---

[1] Uldurki — shundoqki.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Qachon yubormoqchi bo‘lasiz endi? — deb so‘radi Oftob oyim. Qutidor bir oz o‘ylab olg‘ach, Kumushka qarab javob berdi:

— Otabek bilan ketma-ket chopishmog‘imiz ham uncha ma’qul ko‘rinmaydir. Undan so‘ng qish kuni arava safari ham qulay ish emas. Shuning uchun oradag‘i uch oy qishni o‘tkazib jo‘narmiz, — dedi. Kumushning uch oy muddatni eshitgach, juda ham hurpayib ketkani uchun bo‘lsa kerak, — balki o‘zi ham birar oylarda kelib qolar, — degan so‘zni-da qo‘shib qo‘ydi.

Ikkinchi bo‘limning so‘ngg‘i

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Uchinchi bo‘lim

1. MUSULMONQUL ISTIBDODIGA XOTIMA

Musulmonqulning aholi ustiga bo‘lg‘an jabru zulmi haddan tashqari ketdi. Uning istibdodi o‘zga shaharlarga uncha sezilmasa ham, ammo markaz — Qo‘qon odamlarini juda to‘ydirdi. Uning o‘z kayficha oyda emas, haftada solib turg‘an soliqlari fuqaroning terisini shilsa, arzimagan sabablar bilan qora chopon beklarini osdirib, kesdirib turishi xosni (xavosni) ham esankiratdi. Otig‘ag‘ina xon bo‘lib o‘lturg‘uchi Xudoyor ham osdirish, kesdirish va yorlaqash o‘z ixtiyorida bo‘lg‘an Musulmonqul maydondan olinmagan fursatda o‘zining qo‘g‘irchoq sifat yuraberishini tushundi. Ko‘bdan beri unga yuragida kek saqlab kelib, ammo ne tariqada najotka chiqishini bilmadi. Chunki ul suyanadirg‘an Qo‘qon beklarini «mana» deganlari Musulmonqul va kishilari (qipchoqlar) tomonidan osilib kesilganlar, qolg‘anlari tovush chiqarishg‘a majolsiz edilar. Atrof shahar va qishloq beklari ham aksar qipchoqlardan, ya’ni Musulmonqulning o‘z odamlaridan, ulardan bir ish kutish yana mumkin emas.

Shahar xalqining har bir tabaqasi deyarlik Musulmonqul dakkisini yeb kelgan, magar ulamo xalqi undan juda rozi, zeroki Musulmonqulning birinchi istinodgohi[1] o‘zining qipchoqlari bo‘lsa, ikkinchisi ulamolar edi. Ul ulamo orqaliq o‘z zulmini mashru’ bir tuska qo‘yg‘an, o‘zi uchun zararlik unsurlarni yo‘qotishda shu ulamolardan «ululamirga bog‘iyliq» degan fatvoni olishni unutmag‘an edi. Ulamoning bu yanglig‘ istibdodni «bog‘iyliq» rangi bilan bo‘yab berishi mukofoti uchun Qo‘qon va Andijon kabi shaharlarga ma’lum madrasalarni bino qilg‘an va bu madrasalarga xizmati

---

[1] I s t i n o d g o h — tayanchgoh.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

bilan tanilg'an ulamodan mudarrislar ta'yinlag'an edi. Ammo Musulmonqulg'a yaqinlasha olmag'an, ya'ni uning xizmat va marhamatidan chetda qolg'an «nimcha»[1] ulamolar ham yo'q emas edilar.

Aztahidil Musulmonqulning otalig'idan qutilishni va mustaqil ravishda hukmron bo'lishni orzu etkan Xudoyor, nihoyat keyin qayin otasi bilan kurashda o'ziga birinchi istinodgoh qilib shu keyingi sinf ulamoni oldi. Musulmonqul balosidan qutilg'andan so'ng Xudoyorning ularga qiladirg'an in'om va ehsonlari, beradirgan mansablarining naqddek va'dasi barakasida bu keyingi tabaqa — Qo'qon mullalari harakatka keldilar.

Musulmonqul tarafdori ulamolar uning siyosatini shari'atqa qancha mutobiq[2] ko'rsatib kelgan bo'lsalar, bu keyingilar ham o'shancha xilofi shar'iy ekanligini isbotka kirishdilar.

Boshda bu harakat albatta «yeng ichida» bo'ldi va bu harakatning boshida Xudoyorning o'zi turdi. Birinchi galda yashirin ravishda Toshkand, Andijon, Marg'ilon va o'zga shaharlarning ishonchlik ulamo va beklariga Musulmonqul istibdodidan qutulishda ko'mak berish uchun murojaatnomalar yo'llanildi. Bu murojaatnomalarda Musulmonqulning nomashru' ishlari, Qo'qon odamlariga qilg'an jabru zulmlari sanalgan, keyingi vaqtlarda xonning o'zi ham bu zulmlar qarshisida chidab tura olmasliq holg'a kelganligi so'zlanilg'an, agarda boshqa shahar ulamo va ashrofidan ko'mak bo'lg'an taqdirda bilfe'l Musulmonqulg'a qarshi ko'tarilishka hozir turilg'anlig'i aytilgan edi. Ikkinchi galda Qo'qon sipohlarining qipchoqdan boshqa qismig'a yashirin ravishda, umuman anovilarg'a qarshi tashviqot yurgizilib boshlang'an edi.

Andijon, Marg'ilon, Namangan kabi shaharlardan «xon bu ishni maslahat ko'rsalar, biz yordamga hozirmiz» degan quruq va'dalar kelib, ammo Toshkanddagi Yusufbek hoji to'dasidan amaliy choralarini ham ko'rsatilib yozilg'an javob maktubi oling'an edi.

Maktubda aytilar edi:

«Siz Xo'qand ulamoyi kiromlarining Musulmonqul xunxo'rlig'idan faryodga kelib va shari'ati mustafoni orag'a vosita qilib yozg'an maxfiy xatlarini oldiq. Biz

[1] N i m c h a — ilmi chala.
[2] M u t o b i q — muvofiq, uyg'un.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Toshkand ulamo va ashrofidin domla Solihbek oxund, mulla Yusufbek hoji, sarkardalardin Qosim va Niyoz qushbegilar, Karimqul va Muhammadrajab qo'rboshi ham Qambar sharbatdorlar bir orag'a o'lturishib voqi'an Musulmonqulning zulm va taaddasi Xo'qand fuqarosi va ayni zamonda bo'lak shahar va qishloq, kent aholisi ustiga ham bag'oyat oshib borg'anlig'ini muzokara va mukolama[1] qilishdiq. Biz faqirlari ham Musulmonqul harakati behudasini shari'atga xilof, yurt va el uchun muzir,[2] xaloyiqning osoyish va umr guzaronlig'i[3] vajhiga xalaldir deb bildik. Bul ma'niga ul tojdor amiralmo'minin muvofaqat[4] ko'rsatsalar ul beparhez[5] g'osibi[6] taxtu saltanatning haydalmog'i behroqdir[7] va yana Toshkand mardumlari bul to'g'rida haqiqat tomonida sobit qadam bo'lmoqqa til berishurmiz. Basharti siz kiromlar ul beparhez zolimning mingboshiliq vazifasidin tard[8] etishka azdilu jon bel bog'lag'an bo'lsalaringiz, biz faqirlarning aqli qosirimizg'a[9] bir andisha keladir. Andog'ki, Toshkand Xo'qand hukumatidin yuz o'girgan bo'lib xudnafsiga[10] mustaqillik e'lon qilsin. Bu taqdirda itoatdin bosh to'lg'ag'an Toshkand ustiga albatta Musulmonqul zolim qo'shin tortar. Ushbu qo'shin orasig'a siz kiromlar o'z odamlaringizni ko'broq kirguzishka ko'shish qilib va yana janobi tojdor ham birga kelsinlar. Qo'shin Toshkandga yetkan ba'dida bizlar tashqaridin va sizlar ichkaridin bo'lib Musulmonqulni oradin ko'targaymiz. Bul maslahat faqirlarning aqli qosirlarimizg'a ko'b tafakkurlar ba'dida kelib, yana ra'yi savob o'zlarida bo'lg'ay. Ammo bul taqdirda qon to'kilmasdin muddao husulg'a[11] kelurmu deb o'ylaymiz. Boz maxfiy qolmag'aykim, Toshkand begi bo'lg'an zot borasida andisha lozim ermas, zero ul odam fuqaroning osoyishi yo'lida jonbozliq qilg'uchi kishidir. Bizlar limaslahatan[12] nima desak, ul bo'yin to'lg'amas. Inshoolloh, bu andishamiz kiromlarga

---

[1] Mukolama — suhbat.
[2] Muzir — zararli.
[3] Guzaronlik — yashash, hayot kechirish.
[4] Muvofaqat — hamfikrlik.
[5] Beparhez — andishasiz, yuzsiz.
[6] G'osib — bosqinchi.
[7] Beh — yaxshi, ma'qul.
[8] Tard — olib tashlamoq, haydamoq.
[9] Qosir — qisqa.
[10] Xudnafsiga — o'ziga.
[11] Husul — hosil bo'lish, qo'lga kirish.
[12] Limaslahatan — maslahat yuzasidan.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

ma'qul tushkan taqdirda janobi tojdorning hamray'larini olmoq va imkoni bo'lsa ul janobning ismi shariflaridin bizlarga pisandnoma yozmoq marjudir.[1] *Toki bizlar ishonch birlan muddaog'a shuru'*[2] *qilayliq».*

Bu xat Xudoyorning qo'lig'a tekkandan keyin xatda ko'rsatilgan tadbirni juda ma'qul topdi va tezlikda o'z ismidan tashakkur va pisandnoma yo'lladi. Ijobatni olg'andan so'ng yuqorida mazkur Toshkand ashroflari bir majlis qurib o'lturishka Normuhammad qushbegi (Toshkand hokimi)ni ham chaqirdilar. Majlisda xondan va ulamodan oling'an murojaatnomani o'qub Normuhammad qushbegiga eshitdirdilar. Majliska yig'il-g'anlardan Yusufbek hoji va domla Solihbek oxundlar qushbegining pir, deb inobat qilg'an odamlari bo'lg'anlari uchun elning osoyishi va mamlakatning obodlig'i nomiga bu taklifni, ya'ni Qo'qong'a qarshi isyon etkan bo'lib turishni ul o'z bo'ynig'a oldi. Bundan onglashiladirkim, Normuhammad qushbegi ham o'zining valine'mati bo'lg'an Musulmonqulning tutkan siyosatini yurt manfaatiga xilof deb bilibdir.

Uzoqlamay Normuhammad qushbegi Qo'qondan bosh toblab o'z oldig'a mustaqil hukumat e'lon qilg'an bo'ldi va Yusufbek hojilarning o'ylag'an tadbirlari ayni kutkan natijalarni bera boshladi. Itoatdan bosh tortqan Toshkandga qarshi Musulmonqulning tepa sochi tik turib, adab berish niyatida safar jabdug'ini tuzdi. Toshkandga qarshi ayniqsa g'azablangan bo'lib ko'ringuchi Xudoyor ham bu safarning tadorikini barobar ko'rishdi va Musulmonqul bilan birlikda Toshkand ustiga chiqdilar. Yo'l ustida ham Toshkand bilan yashirincha so'z olishib, xatti-harakat chizishib turishdilar.

Musulmonqul ilg'ori[3] Chirchiq bo'yiga kelib yetkanda, qushbegi boshluq Toshkand yigitlari ham suvning berigi yuzida yov kutib turg'an edilar. Tush chog'ida ikki yov bir-birlarig'a qarshi kelishdilar. Qo'qonliqlar dam bermayino Toshkand qo'shuni miltiqlarg'a o't berdi. Musulmonqul kutmagan joyda qo'shunidan bir durkumi o'z ustiga hujum boshlab va bir firqasi Toshkand yigitlari tomoniga qochib o'tdi. Musulmonqulning o'z yigitlari

[1] M a r j u — umid qilmoq.
[2] Sh u r u ' — boshlash, ishga kirishish.
[3] I l g' o r — qo'shinning old qismi, avangard.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
(qipchoqlar) sarosimalikda qolib, Musulmonqulning mudofaasini-da va qochishni-da bilmay qoldilar. O'z ustiga chug'irchiqdek yopirilib kelmakda bo'lg'an qo'qonliq va toshkandliklarga qarshi o'zida kuch yo'qlig'ini bilgan Musulmonqul bir ot va bir qamchi arang qo'shundan chiqib qochdi va bir qancha yo'lg'acha quvlandi. Boshluq orqasidan qochmoqchi bo'lg'an qipchoq yigitlariga munodi[1] nido qildi:

— Qipchoq og'aynilar! Bizning hamma adovatimiz Musulmonqulg'a edi! Siz og'aynilar ilgari xon yonida qandog' xizmatda bo'lg'an bo'lsalaringiz, endi ham o'sha vazifada qolaberasizlar va lekin Musulmonqulg'a tarafdorlaringiz bo'lsa, tinchlikcha qo'shindan chiqib ketsin!

Qipchoq yigitlari ham bir yerga uyushib, o'z taraflaridan munodi qo'ydilar.

— Biz Musulmonqulni tanimaymiz! Bizning boshlug'imiz Xudoyorxondir!

Shundan so'ng qipchoq va o'zbek birga aralashib ketdi, go'yo hamma adovat Musulmonqul bilan birga ketkandek bo'lib, ikki xalq bir-biri bilan ko'rishdi. O'n minglab xalq yangidan Xudoyorg'a itoat izhor etib, chin xonlik bilan uni muborakbod qilishdilar. Toshkand xalqi izzat-ikrom ostida xonni va Qo'qon sipohini shaharga tushurib, o'rdada uch kun ziyofat berdilar. Ziyofat asnosida ittifoqning foydalari, tarqoqliqning zararlari so'zlanildi. Qushbegi va Yusufbek hojilarning taklifi bilan Musulmonqul o'rniga O'ttaboy qushbegi (Marg'ilon hokimi) mingboshi belgulanib, to'rtinchi kun Xudoyorxon qo'shuni bilan Qo'qong'a qaytdi.

* * *

Qish chiqar oldi. Musulmonqul voqi'asidan yigirma kunlar chamasi keyin edi. Muhammad Rajab qo'rboshining uyidan ikki-uch qaytalab kishi kelabergandan keyin, Yusufbek hoji ilojsiz qolib borishg'a majbur bo'ldi.

Yig'inda Muhammadniyoz qushbegi, Qosim mingboshi, Qambar sharbatdor, Karimqul ponsadlardan tortib Toshkandning yetuklik ashrof va a'yonidan o'n beshlab odam bor edi. Mehmonlar uchun meva-cheva,

[1] M u n o d i — jarchi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

quyuq-suyuq tortildi. Ziyofat to'kun edi. Yemak asnosida Niyoz qushbegi so'zlab yig'inning maqsadi bilan ahli majlisni tanishdira bordi:

— Og'alar, inilar! Bilindiki, og'aynilar bir tan, bir jon bo'lsalar qipchoq kasofatidan qutilish uncha qiyin tushmas ekan. Mundan bir oy ilgari biz qanday holda edik? Musulmonqulning omonsiz qilichi og'aynining bo'g'zida edi. Xudo hoji akamizning umrini uzun qilib, bola-chaqasining egaligini ko'rsatsinki, avvalo uning aqllik tadbiri, undan keyin og'aynining bir yoqadan bosh chiqarishi soyasida Musulmonqul balosidan yengilgina qutildik. Ammo bu qutilishni chin qutilish deb bo'lmaydi. Nega desalaringiz, oq it bo'lmasa, qora it tovoq-qoshiqqa tegmakda. Hali biz sahroyi qipchoq elidan uzil-kesil qutilg'animiz yo'q. Anovi Musulmonqul bo'lmasa, boshqa Alimqulning[1] bosh ko'tarishi aniq, — dedi qushbegi va dasturxondan cho'qinib davom etdi. — Normuhammadning ra'yini deb, hamma ixtiyor o'z qo'limizda bo'lgani holda, O'tabboyni mingboshi belgulab yuborduq... Bu ham o'zimizning eng katta xatolarimizdin. Men o'sha kundan beri o'z-o'zimdan bo'g'ilib yuriyman: Musulmonqulning iti bo'lmasa, o'zimizdan mingboshi bo'larliq odam qurib qoluvdimi, deyman. Yo'q, og'alar, temirni qizig'ida suqib qolish kerak! Qachong'acha biz bu sahroyi itlar bilan sanu manga borishib yuramiz? Yaxshisi shulki, bu bosh og'rig'larni bir varakay oradan ko'tarib tinchishaylik. Biz shu yerdagi og'aynilar bilan kengashib bir gapka to'xtab qo'ydiq. Ammo bu maslahatning hoji akamizga ham ma'qul tushmog'ida shubha qilmaymiz. Bu o'yimizga xon ham bir narsa demasa kerak. Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, O'sh va boshqa yerlarning og'aynilari ham bu gapdan bosh to'lg'amaslar. Nega desangiz, qipchoq degan iflos barchani ham jonidan to'ydirdi, — dedi va nosqovog'ini qoqa-qoqa bir otimini tilining tegiga tashladi.

Yusufbek hoji haligi gap so'zlang'anda qo'lidag'i piyolasini chayqatib og'ir bir holat kechirgan va chuqur bir sukutka ketkan edi. Boshqalar bo'lsa Niyoz qushbeginig so'zidan keyin bir ko'zdan deyarlik hojining yuziga tikilgan edilar. Hoji miq etmay o'ltura bergach, Qambar

[1] Alimqul (1833—1865) Andijon atrofidagi qirg'iz-qipchoq qabilalaridan birida tug'ilgan. Qo'qon xoni Muhammad Sulton Saidning otalig'i (murabbiysi va maslahatchisi). Ruslarga qarshi kurashgan lashkarboshilardan biri. Toshkentning Sho'rtepa mavzi'ida bo'lgan jangda halok bo'lib, Shayxantohur qabristoniga dafn qilingan.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
sharbatdor o‘zining xipcha tovshi bilan qushbegining gapini kuchlab tushdi:

— So‘zingiz juda to‘g‘ri, qushbegi, — dedi, — siz aytkandek, bizga ikki yo‘l bor: qipchoqni qirib yo‘yish va yoki butunlay qipchoq qo‘lida qolib ketish.

Yusufbek hoji ko‘tarilib Qambar sharbatdorga qaradi va majlisni yer ostidan kuzatib chiqib, yana jim qoldi.

Karimqulponsad hojini turtmak maqsadida:

— Kengashlik ish tarqamas, deganlar. Hoji akamiz o‘ylashib javob bersinlar-chi, axir, — deb qo‘ydi.

— Bilmadim... — dedi nihoyat hoji, — sizlarning muddaonglarga tushunmadimmi yoki tushunsam ham o‘zimga yotishib kelmadimi, hayronman.

Niyoz qushbegi boshini qashib oldi:

— Nimasiga hayronsiz, hoji!

— Maqsadlaringiz Qambarbekning aytkanidek qipchoqni kesishmi?

Qushbegi ikkilanmay javob berdi:

— Kesish!

— Sizlarni, — deb istehzolanib kuldi hoji, — bu ishka nima va kim majbur qiladur?

Qushbegi yoronlarig‘a qarab oldi:

— Savolingiz qiziq, — dedi, — sababi bizlardan ham ko‘ra sizga ma’lum bo‘lsa kerak-ku.

— Durust aytasiz, — dedi hoji boshidagi sallasini olib, — Musulmonqulni haydamoqqa majbur bo‘lg‘an edik — haydadiq. Barcha yomonliq o‘shaning boshi bilan birga ketkandek qipchoq og‘aynilar ila totuklashdik, qipchoqlarning eski adovatlari bitdi... Bas, bizga tag‘in nima kerak?

Hojining bu gapi majlisni bir-birisiga alanglatib qo‘ydi. Ammo qushbegi sirni boy bermas uchun tirishkandek qilib kuldi:

— Musulmonqul endi tinch yotar, deb o‘ylaysizmi?

— Albatta, o‘ylamayman, lekin Musulmonqulni tinchimaydir deb ho‘lu quruq qipchoqqa tig‘ tortish hech bir aqlg‘a sig‘adirg‘an gap emas. O‘zingiz qushbegi ayting-chi, biz bu kungacha yomonliqni kimdan ko‘rdik? Qipchoq otlig‘ xalqdanmi yoki uning sanog‘liq bo‘lg‘an bir necha kishilaridanmi?

— Nafsilamrni aytkanda, biz qipchoq deganning har birisidan ham dakki yeb kelamiz.

— So‘ngizda yanglishliq bor, qushbegi! Agar siz naf-

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
silamrga qarasangiz ikki xalqni bir-birisiga sovuq ko‘rsatib, adovat tuxumini sochib kelguchi bir nechagina odam bor... Menga qolsa mamlakatni tinchitish uchun shular to‘g‘risida o‘ylash kerak. Nainki, to‘rtta muttahamni deb butun bir xalqqa hujum qilish!

— Siz aytkandek, yomon to‘rttagina emas, hoji! Sahrodan kelgan har bir qipchoq bizning yelkamizga minmakchi. Bizning tovog‘imizga tumshug‘ini tiqmoqchi— bunga qolganda ishni bir oz yengil o‘ylab turibsiz, hoji aka!

Qosim mingboshi:

— Hoji akamning hamma gaplari faqat rahmdillikdan aytiladir, — dedi, — ammo o‘ylash kerakki, qipchoq bu kungacha ozg‘ina og‘aynining qonini to‘kdimi? Anovi kun Marajabbek bilan hisoblashib ko‘rsak, Qo‘qonning o‘zidan ikki yilning ichida yetmish sakkiz bek o‘ldirilibdir. Hali bu hisobka fuqarodan o‘ldirilgan bechoralar kirmaydir.

— Men bu haqiqatlardan tonib turg‘anim yo‘q, mingboshi. Ammo biz senga sen, deb javob bermasak, bizniki aql va insof doirasidan chiqmasa deyman...

Oradan birav hojining so‘zini bo‘ldi:

— Aql, insof bilan ish qila-qila endi juda to‘ydik.

Hoji sukut qildi, o‘zining shunchalik gaplarini havog‘a ketib turg‘anini, majlisning Niyoz qushbegi ruhida borganlig‘ini yaxshi sezdi. Mundan boshqa Niyoz qushbegining bunday bir fikrga kelishi uchun uni nima majbur qilg‘an — buni ham ochiq ongladi. Niyoz qushbegining barcha kinasi O‘tabboyning mingboshi belgulangan kunidan boshlang‘anini, «men turg‘an yerda, qipchoq mingboshi bo‘lsinmi!» degan kek orasida bu fikr faqat uning tomonidan maydonga chiqarilg‘anlig‘i Yusufbek hojining mulohazasidan o‘tdi. Majlisning boshqa a’zolarig‘a bo‘lsa, ish yo‘g‘idan yumish chiqarishqa talabgor bekorchilar, deb qaradi.

Albatta, el foydasidan ko‘ra o‘z manfaatini olding‘a surg‘uchi bu cho‘talchi beklarga qarshi hojining sovuqqonliq saqlay olishi va asabiylashmasligi mumkin emasdi.

— Beklar, — dedi, — manim hamma mulohazam yurt, el manfaati nuqtasidan turib aytiladir. Men hech bir vaqt inkor qilaolmaymankim, yolg‘iz o‘z g‘arazi yo‘lida ish qilg‘uchi palid kishilar qipchoqlar orasida bor

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
bo‘lg‘anidek, bizda ham yo‘q emas... Balki anovilarda o‘nlab bo‘lsa, bizda yuzlab bor. O‘zi bizning ko‘zimizga itdek sovuq ko‘ringan qipchoq bachcha Normuhammadning el uchun qilib turg‘an to‘g‘ri xizmatini men o‘z umrimdagi Toshkand beklari orasida birinchi martaba ko‘raman. Buni siz, yaxshilar ham inkor qila olmassiz. Bas, ayb qipchoqda emas, balki uning manfaati shaxsiyasi yo‘lida ish ko‘rguchi boshliqlarida va qipchoqlar o‘ylag‘andek gunoh qora choponlilarda bo‘lmay, balki uning uch-to‘rt ma’nisiz beklarida!.. Burodarlar! O‘rus o‘z ichimizdan chiqadirg‘an fitna-fasodni kutib, darbozamiz tegida[1] qo‘r to‘kib yotibdir. Shunday mashhar kabi bir kunda biz chin yovg‘a beradirgan kuchimizni o‘z qo‘limiz bilan o‘ldirsak, sen falon deb qirilishsaq holimiz nima bo‘ladir. Bu to‘g‘rida ham fikr qilg‘uchimiz bormi? Kunimizning kofir qo‘lig‘a qolishi to‘g‘risida ham o‘ylaymizmi yoki bunga qarshi hozirlik ko‘rib qo‘yg‘anmizmi?!

Hoji o‘zini tutolmay ko‘z yoshisini oq soqolig‘a quyib davom etti:

— Mana, burodarlar! Siz o‘z qipchog‘ingiz uchun qabr qazig‘an fursatda, sizga ikkinchilar tobut chopadir. Biz qipchoqqa qilich ko‘targanda, o‘rus bizga to‘p o‘qlaydir. Siz dunyoda o‘zingizning yagona dushmaningiz qilib qipchoqni ko‘rsangiz, men boshqa yovni har zamon o‘z yaqinimg‘a yetkan ko‘raman! — dedi va ro‘ymoli bilan ko‘z yoshisini artib o‘rnidan turdi. — Agarda dunyodan o‘tayozg‘an bir keksangizning maslahatiga quloq bersalaringiz bu fikringizdan qayting, burodarlar! Illo Yusufbekni o‘ldig‘a chiqarib, bu shum ishingizdan meni tashqarida hisoblangiz! — dedi va majlisning o‘lturing, to‘xtang so‘ziga quloq solmay, o‘lturishni tashlab chiqdi.

Hoji darbozadan chiqmag‘an ham edi, Niyoz qushbegi xaxolab kulib yubordi:

— Voy vahmang qurg‘ir, hoji! Bu kun ko‘knori ichkan ekan, shekillik! — dedi.

Boshliqdan kulgiga ruxsat berilgach, boshqalar ham kulishib, orada ola-g‘ovir boshlandi.

— Yo‘q, — dedi Qambar sharbatdor, — hoji akaning yoshi qaytib, ko‘ngli juda ham bo‘shashib ketibdir!

---

[1] Oqmasjid yoki Olmota yonida demakchi *(mual.)*.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Voy xo‘vari hoji, — dedi Niyoz qushbegi, — oldidag‘i ovni ko‘rmay, uzoqdagi yovni ko‘radir!

— Xudda-xudda!

Muhammad Rajab qo‘rboshi boshini chayqab Niyoz qushbegiga qaradi:

— Men sizga aytib edim-a, qushbegi, — dedi, — hojini har narsaga ko‘ndirsangiz ham bu gapka ko‘ndirolmassiz, deb.

— Men uni kela bermay ovora qilg‘anidan ham payqag‘an edim.

— Kecha bir oz xomsigan[1] edi, — dedi Karimqul ponsad.

— Ish buzildi-da, — deb qo‘ydi Muhammad Rajab qo‘rboshi.

— Nega buziladir? — deb so‘radi qushbegi.

— Sirrimiz ochildi, albatta hoji tinch yotmaydir.

— Sirrimiz hali ochilg‘an emas, — dedi ishonch bilan qushbegi, — agar biz shu o‘lturgan og‘aynilar boyag‘i gapda sobit qolsaq, sirrimizni yana yashirib ketish mumkin.

— Masalan? — deb so‘radi Qambar sharbatdor.

— O‘sha so‘zimiz — so‘z, ittifoqimiz — ittifoqmi?

Majlis tasdiq ishorasini berib:

— Albatta-albatta! — deyishdi.

— So‘z bitta bo‘ladirgan bo‘lsa, — dedi qushbegi, — hojining ishi juda oson, biz hozir so‘zni bir joyga yetkuzamiz-da, birimiz hojining oldig‘a borib, maslahatingizni muvofiq ko‘rdik, biz yanglishqan ekanmiz, deymiz. Albatta, hoji ishonadir-da, hech kimga so‘zlamay qo‘yadir. Biz bo‘lsak, yeng ichida hozirlik ko‘ra beramiz, ana xolos.

— Ma’qul gap, to‘g‘ri maslahat!

— Ma’qullikka ma’qul, — dedi qushbegi, — ammo gap bu yerdaki, biz aniq ishka bel bog‘laymizmi?

— Bog‘laymiz, bog‘laymiz!

— Barakalla, — dedi qushbegi, — ma’lum bo‘ladirki, hammamiz ham yakdil ekanmiz, endi boshqa gapka o‘tsaq ham bo‘ladir.

— Xonni ko‘ndirib bo‘larmikin? — deb so‘radi Qosim mingboshi.

Qushbegi kuldi:

---

[1] Xomsimoq — shubhalanmoq.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Xon ko'ngan hisob, — dedi.

Bu gap majliska uncha onglashilmadi shekillik, ajablanib bir-birlariga qarashdilar.

— Izoh, qushbegi, izoh!

Qushbegi izoh berdi:

— Men xonni Toshkanddan jo'natish oldida uning xoli vaqtini topib, bu fikrimni bir daraja arz qilib o'tkan edim, — dedi, — bu fikrim xonga juda ma'qul tushkan bo'lsa kerak, so'zimni e'tibor bilan tinglab turdi va javobida: «Yaxshi. O'ylashib, tadbirlari bilan menga fikringizni yozing, men ham o'ylab ko'rarman», dedi. Menga qolsa bu to'g'rida bizdan xabar kutib xonning uyqusi ham kelmay yotqandir: bizga faqat ishning o'naqayini topib xondan tasdiq etdirishgina qolgan.

— Xon tayyor ekan bo'lmasa, — dedi kulimsirab Qambar sharbatdor.

— Tayyor ekan, tayyor ekan!

Shundan keyin ishning o'naqayi to'g'risida muzokara va mubohasa boshlandi. Har kim bir turlik fikr bayon qilib, uzoq bosh og'ritdilar va natijada xonga quyidagi noma yozildi:

«Tojdori musulmonon, xoqon ibni xoqon shahanshohi navjuvon, toji sari xushbaxton huzuri humoyun oliylariga arzi ubudiyat[1] adosidan so'ngra biz faqirulhaqir sadoqatpeshai benazir qullaridin arzi bandalik shuldurkim, navkarlari doimulavqot[2] ul janobga qipchoq xaloyiqi beparxezidin birar osibi[3] yetarmu deb harosidadirmiz.[4] Va yana ul haromzoda sahroyilarning ro'yi zamindin[5] taroshlamay[6] turib, ul janobi oliyning ta'mini amniyatlari[7] ham biz qullaricha ko'b xavfu xatar ostida bo'lg'andek taxmin qilinadir. Shul mulohaza va andishalar ba'dida biz Toshkand qullaridin bir nechalarimiz bir yerga jam' bo'lishib, duru-daroz[8] tafakkur va tahayyurlar[9] so'ngg'ida azbaroyi ul shahanshohning ko'b zamonlar boshimiz soyabon bo'lmoqlari umidida bar taqdir ul tojdorning xotiri otir daryo

[1] Ubudiyat — bandalik, qullik.
[2] Doimulavqot — hamma vaqt.
[3] Osib — ziyon, zarar, kulfat.
[4] Haros — qo'rquv.
[5] Ro'yi zamin — yer yuzi.
[6] Taroshlamoq — tozalamoq.
[7] Amniyat — tinchlik, omonlik.
[8] Duru-daroz — uzundan-uzoq.
[9] Tahayyur — hayratlanish.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

muqotirlariga[1] pisand tushib ijobat og'oz[2] qilsalar, bir ma'nini xo'b va sadoqat maqosidig'a[3] mahbub[4] deb bildik. Andog'ki, ul xaloyiqi g'assoblarni[5] o'n besh sinni solidin bolig'[6] va yetmish yoshidin quyi har bir erkak zotini bilotarahhum[7] qatli om[8] qullaricha sazovordir va illo ul murtaddin[9] badtar jobir[10] va bexiradlardin[11] janobi tojdorg'a xarro'z balki har soat xavf bordir. Ammo bul taqrirni[12] o'shal muayyan qatli om soati yetmag'uncha har bir bexirat va bog'iy bo'lmog'i yaqin majhul odamlardin po'shida[13] tutilmog'i marjudir. Va lekin ul tojdor bir soati sa'idi muzaffarni muayyan aylab qalamravlaridagi[14] barcha shahar va ko'ylar, qishloq va kentlarning sadoqati zohir va qalbi tohir[15] qullarig'a maxfiy nomalar ko'ndirib, sakbachchalarning qatli omig'a amri oliylarini darig' tutmag'aylar[16]. Ammo Xo'qandi firdavs monandning[17] o'zida ul shaqovatpeshalar[18] behad va behisob nufuska molik bo'lg'anlari vajhidin biz Toshkand navkarlarining i'onati[19] beshakku shubha vojibdur. Siz shahanshohi, o'shal soati muzaffarni ta'yin aylab, biz qullarig'a xabar yuborsalar, bunda lozim bo'lg'an odamimizni qoldirib va yana har qayusimizg'a tegishlik bir yuz, ikki yuz va besh yuz yigitimizni olib, xaloyiq ko'zida go'yo janobi tojdorning Musulmonqul falokatidin ozodliqg'a chiqib mustaqil sohibi toj bo'lg'anlarini muborakbod qilmoq uchun yurgan bo'lib, i'onatlariga yetarmiz va darbozadin kirishimiz on faj'atan ul galai saklarga[20] hujum boshlab, qatli omga qilich tortarmiz. Va yana maxfiy qolmag'aykim,

---

[1] M u q o t i r — qatra, tomchi.
[2] O g' o z — boshlanish, kirishish, ibtido.
[3] M a q o s i d — maqsadlar, muddaolar.
[4] M a h b u b — do'st.
[5] G' a s s o b — zulmkor, bosqinchi.
[6] O' n b e s h s i n n i s o l i d i n b o l i g' — o'n besh yoshdan yuqori.
[7] B i l o t a r a h h u m — berahm, shafqatsiz.
[8] Q a t l i o m — qirg'in.
[9] M u r t a d — dindan qaytgan.
[10] J o b i r — jabr qiluvchi, zolim.
[11] B e x i r a d — aqlsiz, idroksiz.
[12] T a q r i r — qaror.
[13] P o' s h i d a — yashirin, maxfiy.
[14] Q a l a m r a v — mulk, qo'l ostidagi yerlar.
[15] T o h i r — pokiza, pok.
[16] D a r i g' t u t m o q — ayamoq.
[17] F i r d a v s m o n a n d — jannat sifat.
[18] Sh a q o v a t p e s h a — kulfat keltiruvchi.
[19] I ' o n a t — yordam, ko'mak.
[20] S a k — it.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Toshkandning alhol beklik mansabida o'lturg'uchi qipchoq Normuhammad borasida qandog' farmon berg'aylar, bul ma'nida ham ishoratini darig' tutmasalar qullarini andishadan ozod qilg'an bo'lg'aylar. Ushbu boloda[1] mazkur mahzi[2] samarayi sadoqat aqli qosirlarimiz xususi natijasini biz qullarig'a ushbu nomani qosidi[3] qo'lidin savob va xato, rad va ijobat, pisand va nopisand javobini irso[4] qilsalar va yana o'z fikri bosavoblarini izofa[5] qilib, qusur va xatolarimizni tanbeh etsalar, biz navkari bejavhar[6] va bosadoqati befarosatlarni dunyo-dunyo shodu xurram qilib, ul soyaboni marhamat va mehriboni boshafqatning xizmatlariga kamari xizmatni berk[7] bog'latqan bo'lur edilar, huval-lohul-musta'in.[8]

Sadoqatingiz majlisiga jam' bo'lg'uchi navkarlaringiz (imzolar)".

Bu noma ertasi kun xonga yuboriladirg'an bo'lib, bunga maxsus kishi belgulandi. Majlisning qo'rqunchi Yusufbek hojidan bo'lg'an uchun unga soxta qarorni eshitdirmak to'g'risig'a Muhammad Niyoz qushbegining o'zi bevosita majlisdan chiqib ketdi. Shuning ila bu majlis tarqaldi.

2. QORONG'I KUNLAR

Otabek Marg'ilondan qaytib kelgandan keyin o'n kunlar o'tkazib usta Alimdan bir xat olg'an edi. Usta Alim xatida qutidorg'a uchrashqanini hamma maydachuydalarigacha yozib kelib aytar edi: *«Siz xiyonatni payqag'uncha qayin otangizg'a qandog' kina saqlab kelgan bo'lsangiz, ul ham sizga o'shandog' kinalik ekan. Meni va oilamni tahqir etdi deb, bu haqoratni umr bo'yi unuta olmasligini tushunib, o't ichida yurar ekan. Mendan haqiqati holni onglab juda shoshib qoldi, hatto hushi boshidan uchdi. Ichkaridan aniq ma'lumot bera olmasam ham, ammo ularning ham qayin otangiz holig'a tushkan-*

---

[1] B o l o — yuqori.
[2] M a h z — xolis, sof, toza; faqat.
[3] Q o s i d — elchi, xabarchi.
[4] I r s o l — yuborish, yetkazish.
[5] I z o f a — qo'shimcha.
[6] B e j a v h a r — zoti past, nasabsiz.
[7] Be r k — mahkam, qattiq.
[8] H u v a l-l o h u l-m u s t a ' i n — Olloh ko'mak beruvchidir.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

larini mulohaza qildim. Qayin otangiz sizning o'tkan holingizning og'irligini tasavvur qilolmag'anidek, dushmanlaringizga bergan javobingizni taqdir etish uchun ham so'z topolmas edi. Har holda orangizdag'i kinaning dushmaningiz bilan birga supirilg'aniga shubha yo'q".

Maktubning yana bir o'rnida: *«Sizning qayerda bo'lg'anlig'ingizni so'rag'an edi, men bilganimni aytdim. Kelarmikin degan edi, bunga ham o'zingizning o'shal muhmal javobingizni berdim. Fikrimcha, qishda bo'lmag'anda ham, ko'klamga chiqib o'zlari Toshkand tusharlar, deb o'ylayman".*

Xatning oxirida: *«Sizdan bir kun so'ng Homid o'ldi. Haytovur bir og'iz so'zsiz to'ng'iz qo'pibdi. Men o'lar chog'ida ham sizga bir tuhmat to'qirmi, deb qo'rqqan edim. Qutidorg'a hech bir jarima ortmabdirlar. Maqtullarning egalari hech kimni tutib ko'rsatolmag'anlari uchun mahkamalar ham ishni tekshirmay qo'ydilar. O'ylashimcha, hech kim bilmaganda ham, sirni o'lgan Sodiqning onasi bilsa kerak edi. Ammo uning ham dami ichida, so'rag'anlarg'a xudodan ko'rdim, deb javob berar emish. Bul xotinning qo'lidan har bir ish keladir deb o'ylab, o'tkan kun qayin otangizg'a aytdim: begona xotinni uyingizga yo'latmasinlar va chetdan kelgan taomni yemasinlar deb. Har holda yomondan xazar lozimdir"*, deb yozar edi.

Bu xatdan keyin Marg'ilondan tiq etkan xabar bo'lmadi va oradan ikki oylab fursat o'tib ketdi. Shuning uchun Otabekning kunlari quyosh botib chiqg'an sayin bir onglashilmovchiliqg'a, qorong'uliqg'a kira borib, har soat achchig' va yo chuchuklig'i noma'lum bir hol kechirib boshladi. Ba'zi kezlarda ul umid quchog'ida shoshib qolar edi va ikkinchi vaqtda yaramas — qora xayollar bilan entikar edi.

Umidlangan kezlarda:

— Oy tuynukdan tubanroqda, bu kun bo'lmasa erta — chimmati qo'lida, paranjisi ustida, sarig'mi, qorami atlas ko'ynagi egnida darbozadan kirib kelgandek va o'pkalangandek...

Ikkinchi bir vaqtda kimningdir quyidagi gapini eshitar edi:

— Ul o'zining dushmanlarini o'ldirish uchungina Marg'ilong'a qatnab yurg'an ekan, hisobini tugatdi-da, bedarak ketdi, qoldi. Tuzukroq joyi chiqsa berib qolayliq Kumushni... umri ham o'tib boradir.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Ana shu qora xayol uni chindan yonib turg'an bir o't ichiga tashlar va shu choq o'zini muvoxazaga[1] boshlar edi: «Men nega ikki yil sarson bo'lib yurdim-da, bu sarsonlig'ning natijasiga borib chiqg'anda shunday ahmoqliqqa tushdim?" der va Marg'ilon yo'lini ko'zlar edi. Ammo endi unga Marg'ilon borish o'naqayi sira kelmas: «Men nega keldim-da, endi nega boraman va nima deb boraman? Qizingizni Toshkand olib tusharsiz deb ketkan edim... Siz olib tusha bermaganigizdan keyin o'zim qaytib keldim deyaymi?" Otabek mana shunday chuchmal azoblar ichida keyingi kunlarini kechira boshladi.

Oy to'lmasdan Marg'ilon qatnab turg'uchi o'g'lini endi uch oylab qo'zg'almay qolishi uchun O'zbek oyim eskicha yana quvonib ketdi. «Keyingi qildirg'an issig'-sovug'im kor qildi shekillik, birato'lasig'a Marg'ilonni tiliga olmayoq qo'ydi. Endi xotinig'a isib, mehmonxonada yotishni ham barham bersa... har nuchukda duodan qolmayliq", deb Zaynabni domlanikiga qistar edi.

Otabek keyingi vaqtlarda savdoga yurishni tark qilib qo'yg'ani uchun Hasanali ishsiz qolg'an, uzun kun uyda bekor zerikkanlikdan hojiga aytib bir muncha dastmoya bilan guzardan baqqolliq do'kon ochgan edi. Otabek ko'pincha mehmonxonasidagi kutubxonadan uni-buni o'qub o'lturar, o'qushdan zerikkan kezlarida Hasanalining do'koniga chiqar va guzardan ham zerikkandan keyin boshi og'qan yoqlarg'a, Salor bo'ylarig'acha ketar va gohi Chuqur qishloq tomonlarig'a ham tushar edi. Ammo tushkani bilan burung'icha ichmas, ikki-uch, ortib ketkanda to'rt oyoq[2] ila kifoyalanar, ko'z o'nglari oz-oz jimirlashkan, turlik xayollari bir muncha tarqalg'an holda qaytar va lekin Hasanali ham uning bu kayfini juda siyrak seza olur edi.

O'tkan kun Chuqur qishloqqa tushkan edi. Asr vaqtlarida qaytib guzarga keldi-da, xayolat bilan Hasanali do'koniga o'lturdi. Otliq, yayov o'tkinchilar to'rt tomong'a qatnab turardilar, uning bu kungi kayfi o'tacharoq ketkan bo'lsa kerak, ularni g'ira-shira ko'zga ilgandek qaraydir.

Hasanali bir-ikki uni kuzatkandan keyin so'radi:

— Marg'ilong'a nega ketmay yuribsiz?

---

[1] M u v o x a z a — koyish.

[2] O yo q — katta piyola.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Bu savoldan uning kayfi tarqalg‘andek bo‘lib, ko‘zlari moshdek ochildi.

— Havsala yo‘q...

— Qayin otangiz ko‘nsa, ko‘chingizni olib kelsangiz ham ma’qul edi qatnab yurg‘andan...

— Qaydam...

Ilgari shunday savol chog‘larida o‘zining yolg‘on javoblaridan juda xafalanar, Hasanaliga o‘tkan gaplarni birin-birin aytib bergusi va «manim uylanishimga sen sabab bo‘lg‘an eding, endi uni mendan ajratdilar”, deb undan o‘z dardiga davo istagusi kelar edi. Hozir o‘zidan xafalik, o‘ng‘aysizliq sezmagan bo‘lsa ham boshig‘a «o‘zim borolmasam-da, Hasanalini yuborishim va kezini topib o‘tkan gaplarni otag‘a hikoya qilishim kerak edi”, degan fikr keldi. Bora-bora bu fikr uning boshig‘a jiddiy o‘rinlashib oldi, shu to‘g‘rida chinlab o‘ylab ketib kayfi ham tarqalayozdi. Do‘konni yopib, Hasanali bilan birga ketdi — yo‘lda, mehmonxonada birga o‘lturib osh yedi, dasturxon ustida uning o‘ylag‘ani faqat shu bo‘lib qoldi. Biroq bu fikr qaror tusiga kirib keta olmadi, daqiqa sayin tarqalib borg‘an kayfidek turlik mone’larg‘a uchray boshladi:

— Hali Marg‘ilonda ishlar qalayikin? Ular yana aynab qolmag‘anmikinlar? Marg‘ilondan bir narsa payqamay turib, kishini ovora qilishg‘a arzirmikin?..

Bu kun quyosh ochiq havoda kezishi uchun jim-jim tovlanib, yer yuziga kulib qaradi. Ikki kundan beri quyosh betini qoplab, turlik yerlarga jon suvi sepish ila charchag‘an bahor bulutlari burchak-burchakka tarqalib borar edilar. Uyalaridan chiqish bilanoq chumchuqlar chirqillashib, musichalar kukulashdilar. Anovi ar-ar terakka uya qo‘yishg‘a o‘ylag‘an bir juft karruklar ham vijir-vijir qilishib kengash ochdilar. Podachining tovshini eshitib, dalaga oshiqg‘an onasig‘a ergashib qashqa buzoq ham mag‘rab yubordi. Modasiga tegishkani uchun tomdagi kaptar ham bo‘qog‘ini chiqarib raqibining tevaragida yag‘rin bera boshladi... Qisqasi bu kun uyg‘onishdanoq butun koinotning yaxshi tush ko‘rib turg‘anlig‘i sezilar edi.

Bahorning bu kungi sihirlik kuni Otabekni ham qitiqladi. Choyini naridan-beri tugatib, Hasanali ketidan guzarga chiqdi. Ul guzarga chiqg‘anda Hasanalining qo‘shnisi bo‘lg‘an Ali erinibkina do‘kon taxtasini tushir-

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

makda edi. Otabekni ko‘rish bilan do‘kon ochishni to‘xtatdi:

— Bu kun bo‘shmisiz, bek aka?

— Bo‘shman.

— Bo‘sh bo‘lsangiz, Ming o‘rukka[1] — qimizga borar edik, — dedi Ali. — To‘la qozoq biyalarini yayloqqa solibdir.

— Do‘koningiz-chi?

Ali tushirgan taxtasini qaytadan joyig‘a qo‘yaberdi:

— Dunyoning ishi bitar emishmi, bek aka. Xo‘b desangiz, do‘konni yopaman.

Otabek yarqirab chiqib kelgan quyoshg‘a qaradi:

— Yoping bo‘lmasa, — dedi.

Otabek Hasanalining do‘koni vositasida Ali bilan yaqinda tanishqan edi. Ul ichi kirsiz, serkulki, ochiqqina bir yigit bo‘lub, bek bilan go‘yo ko‘b yillardan beri bo‘lg‘an tanishlarcha muomala qilar edi.

Bekga bu tasodif juda qulay keldi. Chunki uydan chiqishdanoq uning qasdi bu kunni dalada o‘tkizmak edi. Et oldilar-da, yayovlashib Ming o‘rukka ketdilar.

«Ming o‘ruk» mavzi’i otidan ham ma’lum, bunda ming chog‘liq o‘ruk daraxti o‘sqan uchun bo‘lib, Shiblining suvidan boshlab to Salor arig‘ig‘acha qator-qator o‘ruklar edi. Salorning narigi yog‘i biydek qir, endigina ko‘m-ko‘k o‘t gilami unib chiqg‘an edi. Ming o‘rukning etagi bo‘lg‘an Salor bo‘yicha uch-to‘rtta qozoq o‘tovlari tikilgan edilar. Ikkisi Salor bo‘yig‘a yetib, To‘la qozoqning kelinchagiga etni sho‘rva qilish uchun berdilar.

Ali o‘tovdan kiygiz olib, Salor bo‘yiga yozdi. Kelinchak yostiq, ko‘rpacha tashlab berdi, Otabek hordiq chiqarib yaslandi.

Quyosh ozorsizg‘ina qizdirar edi. Yengilgina eskan shamol dimog‘qa turlik o‘lan islarini kelturib urar edi. Bir necha qaldirg‘och Salorning oqishi bo‘ylab uchar va uchkan ko‘yi «valfajri» o‘qur edilar[2]. Poyonsiz qirning yuqori-quyi o‘rinlari yakrang ko‘kat va ko‘z ilg‘amaydirg‘an uzoqliqlari tumanlangansumon ko‘rinish berar

---

[1] M i n g o‘ r u k — Yangi shaharning bu kungi taxta bozor va qo‘y bozor o‘rinlaridir *(mual.)* Hozirgi Oloy bozoridan Yunusobodgacha bo‘lgan mavze.

[2] Avom e’tiqodicha *(mual.)* Qur’onda «Fajr» surasi (fajr — subh, tong yorug‘ligi) tong bilan qasamyod etaman so‘zi bilan boshlanib fijr-r-r so‘zi bilan tugagani uchun xalqda qaldirg‘ochning sayrog‘ini shunga o‘xshatib «valfajri»ni o‘qiydi, deydilar.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
edilar. Qushlar, qurtlar sayrashi tabiiy bir soz xizmatini o'tab kishiga ifodasi qiyin bo'lg'an bir sezgi solar edilar.

Otabek tabi'atning shu ko'rkam va latif ko'rinishiga maftun bo'lib, bir oz yotqandan keyin «ul ham bo'lsa edi", deb o'yladi va uzoq tin olib qo'ydi.

Bu kunning ko'rkamligidan olg'an taassurotini Ali ichiga sig'dirolmadi:

— Zap yaxshi kunmi! — dedi.

Otabek ham shu go'zallikni o'ziga tatitmay turg'an dardidan shikoyatlandi:

— Shunday kunlarda kam-ko'sting bo'lmasa...

— Sizning ham kam-ko'stingiz bormi? — deb Ali kulimsiradi.

— Yo'q, deb o'ylaysizmi?

— Hammada bo'lg'anda ham, sizda yo'q deb bilaman.

— Masalan?

— Masalanmi, — dedi kulib Ali, — sizning bilan otangizning obro'si qushbegida ham yo'q, davlat to'g'risida bo'lsa, ochiqarlik yerda emassiz... Ikkita to'tidek xotiningiz bek akam uchun sochini tarab o'lturadir... tag'in qanaqa kamu ko'st?

Kishining baxtini yuzakigina ko'rib hukm qilg'uchi Ali unga qiziq ko'rindi va kulib:

— To'g'ri aytdingiz! — dedi.

— Shukur qilish kerak, bek aka, — dedi Ali va o'zining baxtsizligidan, topqanini ro'zg'ordan ortdirolmay, shu kungacha uylanalmay kelishidan hasrat qilib ketdi. Otabek uning hasratini diqqat bilan eshitdi, hayotning zarbasi har kimning o'z darajasiga qarab va lekin istisnosiz[1] bo'lg'anlig'ini tushundi.

— Dunyoning ishi shunaqa ekan, mulla Ali, — deb uni yupatib qo'ydi. Ikkisi ham bir necha vaqt jim qoldilar.

— Marg'ilonliq xotiningizdan bolangiz bordir?

— Yo'q...

— Bo'lsa ham turmadimi, uylanganingizga ancha yil bo'lg'an shekillik?

— Turmadi.

Ali Otabekning kami ko'stini shu bolasizliqdan deb o'ylag'an edi:

---

[1] I s t i s n o — mustasno.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Bolasizliq uchun xafa bo‘lish kerak emas, hali yoshsiz, bek aka!

Otabek javob bermadi. Korsonda[1] qimiz keldi. Bek bir-ikki zarangni[2] ichkandan keyin, yamlanib ko‘kka qarab yotib oldi. Ali bor tovshini qo‘yib ashula qildi:

Ko‘zlarim yo‘l ustida, kelmadi yor,
Ushbu keng dunyo ko‘zimga bo‘ldi tor.
Qay qaroqchi oldi yorimning yo‘lin,
Mundagi baxtsiz yigit yo‘l uzra zor...

— Qo‘shilishmaysizmi, bek aka?

— O‘zingiz yaxshi aytasiz, to‘xtamang!

Ali borliq ovozi ila hamma hunarini ishlatib, g‘azal tugalguncha ashulani aytib bordi.

— Tuzikmi, bek aka?

— Yaxshi ashulachi ekansiz!

— Undog‘ bo‘lsa ustidan buni ichib yuboring, — dedi kulib, bir zarang qimiz uzatdi. Bek qimizni bir simirishda bo‘shatdi-da, entikib uzoq qirg‘a qaradi, uzoq qarab turdi-da, yuqoridag‘i baytni o‘qub og‘iz ichidan ming‘illadi.

Ko‘zlarim yo‘l ustida, kelmadi yor,
Qay qaroqchi to‘sdi yorimning yo‘lin...

— Qo‘qong‘a ketkan sipohlardan darak eshitdingizmi, bek aka?

Otabekning xayoli bo‘linib, Aliga qaradi:

— Eshitmadim.

— Manim akam ham ketkan edi... Oy borib, omon kelishsunlar-da!

— Akangiz yigitmidi?

— Yo‘q, mergan edi. Qo‘qon ketayotgan o‘rtoqlarig‘a qiziqib, borma deganga ko‘nmadi. Urush ehtimoli yo‘qmi, shunchaki fotiha uchun ketishkandirlar-a?

— Kim bilsin, — dedi bek va bir oz o‘ylab qolg‘andan keyin, — bo‘lmas, — deb qo‘ydi.

Korsondagi qimiz tugab, sho‘rva ham ichildi. Dasturxonni yig‘quvchi kelinchakka o‘g‘ul tilab duo qiling‘andan keyin, qo‘lig‘a o‘ttuz chaqa surma puli berdilar va qirni aylanish, binafsha terish uchun turib ketdilar.

---

[1] K o r s o n — yog‘ochdan ishlangan katta tovoq.

[2] Z a r a n g — zarang yog‘ochidan o‘yib ishlangan kosa.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

3. QIPCHOQQA QIRG‘IN

Kechki soat to‘rtlarda Qoymas darbozasidan qaytib shaharga kirdilar-da, darbozadan o‘n adim narida boshi tanidan oling‘an uch kishining gavdasiga yo‘liqdilar. Otabek bu holga tushunmadi, chunki ahyonda osiladirg‘on gunohkor Eski namozgoh doriga elitilar edi. Shunga ko‘ra darbozabonni hujrasidan chaqirib so‘radi:

— Bular qanday gunohkorlar ekan?

Darbozabon bekni tanib qo‘l qovishtirdi:

— Taqsir, qipchoqlar.

— Gunohlari nima ekan?

Darbozabon yotgan gavdalarga qarab oldi va bekning yaqinig‘a keldi:

— O‘zlari bilarlar-ku, taqsirimning... begimga aytkulugi yo‘q...

— Gunohlari nima, axir?

— Axir qipchoqlar-da, to‘ram.

Otabek diqqatlandi:

— Qipchoqlar ekanini bildim, ammo gunohlari nima deb sizdan so‘rayapman!

Darbozabon qo‘l qovishtirg‘ancha Otabekka ajablanib qaradi:

— Aniq xabarlari yo‘qmi taqsirimning? — deb yana so‘radi.

— Yo‘q!

— Voy-boyov taqsir, bu kun ertalabdan beri ko‘ringan qipchoqni so‘yib yurdilar-ku. Gunohlari surishtirilmadi, taqsir, — dedi va o‘luklarning yonig‘a yurib kelib izoh berdi, — manovisini uyidan olib chiqib so‘ydilar, manovisi manim yonimda turg‘an darbozabon edi — rahmatlik. Manovisini tanimayman va lekin o‘zi qipchoq bo‘lsa kerak. Otabek dahshatlanib yonidag‘i Aliga qaradi, Ali esa yotqan jonsiz gavdalarga qarab labini tishlab turar edi.

— Kimlar o‘ldirdi? — deb Otabek dahshat ichida darbozabondan so‘radi.

— Bu yerga kelguchilar yigirma chog‘liq edilar, o‘zimizning Toshkand yigitlaridan ham bor, qo‘qonliqlar ham ko‘rinadilar. O‘zlari ham qipchoqni qidiraberib hamma yoqni tozayam g‘alvir qilib yubordilar-da, taqsir... Qo‘qonga ketkan beklardanmi, xondanmi, ishqilib,

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
shunaqa buyruq kepti-da, taqsir... Bizlar xizmatkor odam — nimani bilaylik, to‘ram!

Otabek masalaga tushungandek bo‘ldi va dahshat ichida Ali bilan yo‘lg‘a tushdi. O‘ttiz qadam bosmay tag‘in ikki o‘lukka uchradilar. O‘n adimda bir jonsiz gavda...

Endi Ali so‘ramay chidamadi:

— Nauzanbilloh[1], bu nima degan gap, bek aka?!

— So‘ramang!

— Yo‘g‘-a, — dedi Ali, — axir hammasi ham gunohkormikin?

— Gunohkor!.. — deb zaharxanda qildi bek, — Musulmonqulni bilarsiz, albatta?

— Nega bilmay, ikki oy ilgari qochig‘ini ham ko‘rdim...

— Bilsangiz, — dedi bek, — bularning hammasi o‘shaning gunohiga o‘ldirilg‘an o‘xshaydir!

— Shu ham gapmi, xudoyo tavba!

Adim sayin bir o‘lukka uchrar edilar. Ali sanab kelar edi, guzarga yetkanda sanoq yetmishdan ortdi. Hali bu birgina to‘g‘ri ko‘chaning hisobi bo‘lib, keng Toshkandning o‘zga ko‘chalarini ham hisobga olg‘anda faji’ bir adad tashkil etishi ma’lum. Guzarning ichiga kirganda qator chizilg‘an qirq chog‘liq o‘luklarni ko‘rdilar...

Kun asrdan og‘ib shomga yaqin, shuning uchun guzardagi do‘konlardan ochug‘i uch-to‘rtta, jumladan, Hasanali ham yarim ochiq do‘konni oldida o‘lturar edi.

— Sog‘ keldingizmi, bek! Biz bu yerda yuz xil vas-vasaga tushib tashvish tortdiq, — dedi Hasanali.

Otabek boshqa xayolda edi. Hasanalining so‘zini go‘yo eshitmagandek so‘radi:

— Bu kun dadam qayerda edi?

— Sizdan keyin o‘rdaga ketkan edilar. Bir soatdan keyin shoshqannamo qaytib keldilar-da, sizni so‘radilar, shundan so‘ng qayoqqa ketkanlarini bilolmadim.

— Qachondan boshlab qipchoqni so‘ydilar?

— Otangizni kelishi bilanoq, — dedi Hasanali va entikib foji’ani hikoya qildi. — Ey... bek, rahmsizlik bunaqa bo‘lar ekan... Xudda qiyomat bo‘ldi! Bechoralar nima gunoh qildilarkin? Uyida halol kasbini qilib o‘turg‘anlarg‘acha tutib so‘ydilar... Ey bechoralar, qan-

---

[1] Nauzanbilloh — xudo saqlasin.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
day gunohlari bor ekan?! Yigitlar tutib kelturib turadilar, jallod bosh kesib boradir. Bu nogahoniy qazodan eslari chiqib ketkan bechoralar yig'lashadilar... Ayniqsa bir bo'yoqchi... xudda xum yonidan tutib kelganlar — qo'li bo'yoq... Ey xudo, men nima gunoh qildim, deb yig'laydir... Chidab bo'lmadi, do'konini yopib qochdim, ko'plar ham qochdilar... tag'in bir...

— Bas, — dedi Otabek. Hasanali hikoyadan to'xtadi, chunki bekning yuragi ezilib oqish darajasiga yetib, Ali Ota bilan xayrlashmasdanoq qochqan edi...

Uyga borib kechki oshni ham yemadi va otasig'a ham uchrashmadi, go'yo shu yirtqichlar dunyosidan yashiring'andek oq kundayoq to'shagiga yotib, ko'rpasiga burkanib oldi. Uning bu holiga uy ichi tushunganlari uchun, nima qildi, deb so'ramadilar va yonig'a ham kelmadilar...

Yusufbek hoji ertalab choyni Otabek bilan birga ichish uchun mehmonxonag'a chiqdi. Otabek tersaygancha kelib choyg'a o'lturdi, otasiga salom bermadi. Chunki ul o'z otasini qipchoq qirg'inining bosh omillaridan deb qaror qo'yg'an edi. Choy yarimlay yozdi. Oradan churq etkan so'z chiqmadi.

Nihoyat, o'g'lig'a yengillik berish niyatida hoji tilga keldi:

— Xafa bo'lma, o'g'lim.

— Sizlarga o'xshab, — dedi istehzolanib, — quvonaymi?

Hoji o'g'lining qandog' fikrda va nima uchun tersayganini bildi.

— Yanglishasan, o'g'lim.

— Rajabbeknikidagi majlisda, — dedi zaharxanda bilan, — bu yirtqichlarning rejachisi kim edi?

Hoji entikdi va:

— Rajabbeknikida bo'lg'an majlisni sen bilasanmi?.. — deb so'radi.

— Bilaman.

— Bilsang, — dedi hoji, — manim ustimga mundog' tuhmat orttirishdan uyal, bola!

— Rajabbeknikida bu kengash bo'lmag'anmidi?

— Bo'lg'an edi.

— Bo'lg'an bo'lsa, tag'in nega o'zingizni quruqqa olasiz?

Yusufbek hoji boladan kulgandek qilib iljaydi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Ba'zi yengil muhokamalaring onangnikidan qolishmaydir, Otabek! — dedi. — Majlisdan xabaring bo'lg'an bo'lsa, kim qaysi fikrda qolg'anini ham bilarsan?

— Yo'q.

— Majlisda nimadan bahs qiling'anini-chi?

— Majlisda nima muzokarasi bo'lg'anini ham bilmayman va lekin o'sha majlis faqat qipchoqlarga qatliom uchun yig'ilgan ekan, deb kecha ishondim. Majlisingiz a'zolarining sizdan boshqasi nega yigit to'plab, Qo'qong'a ketdilar va ular Qo'qong'a yetmaslaridanoq nega bu vahshat boshlandi?

— Bu muhokamang to'g'ri. Ammo otangni ham shu jonivorlar orasig'a qo'shib o'ltirishing qisqalig'ingdir,— dedi. Ko'ziga yosh oldi. — O'zing o'ylab ko'r o'g'lim, o'z qo'limiz bilan o'zimiznikini kesishimizdan mamlakat uchun qanday foyda bor? Basharti men bu vahshatka ishtirok qilg'an bo'lsam, qaysi aql va qanday manfaatni kuzatib qo'shilishqan bo'laman? Agarda manim yurt so'ramoqqa va shu vosita bilan boylik orttirmoqqa orzum bo'lsa, boshqalardan ham ko'ra o'z o'g'limg'a — senga ma'lum bo'lmasmidi? Nega har bir narsaga yetkan aqling shunga qolg'anda oqsaydir. Nega yong'an yurakimga yana sen ham zahar sochasan?!

Titralib va to'lqinlanib aytilgan bu so'zlar Otabekni o'kintirdi, o'lganning ustiga chiqib tepish qabilidan bo'lg'an o'z hujumining haqsiz ekaniga tushundi.

Yusufbek hoji bitta-bitta yotig'i bilan majlis haqida bayon qilib, o'zining qarshi tushkanini va ularga uqdira olmag'andan keyin, majlisni tashlab chiqib ketkanini so'zlab kelib dedi:

— Biror soatlar so'ng orqamdan Niyoz qushbegi kelib mendan afu so'radi va majlisning u fikrdan qaytqanini, o'zlarining xatog'a ketkanlarini aytdi. Men xursand bo'lib, bu ishning zararini yana isbot qilib chiqdim. Niyoz men bilan xayrlashar chog'ida: «Jon hoji aka, endi gap shu yerda qolsin, bitta-yarimta eshitgudek bo'lsa, biz yerga qararliq bo'lmayliq, o'lturishning katta iltimosi sizdan shul", dedi. Men bu iblisona aldovga uchib, bu to'g'rida na senga va na Normuhammad qushbegiga og'iz ochmadim va ularning Qo'qong'a fotiha uchun qo'zg'alishlaridan hech bir shubhalanmadim... Eh, shaytonlar!

Hoji bir oz to'xtab davom etdi:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Kecha ertalab o‘rdaga borg‘an edim. Sahn yuzida uch-to‘rt yuz musallah[1] yigitlarni biravini kutkan holda ko‘rdim va iltifotsiz qushbegi mahkamasiga kirdim. Kirsam, Qo‘qong‘a ketkan Qayum ponsad uch-to‘rtta yigiti bilan qushbegining qarshisida turibdir. Qushbegi qo‘lida bir qog‘oz ushlab, go‘yo es-hushidan ayrilgan kabi qotib o‘ltiribdir. Meni eshikdan ko‘rib, so‘zsiz-nesiz qo‘lidag‘i qog‘ozni menga cho‘zdi va boshini tebratib qo‘ydi. Men bir narsaga ham tushunmagan holda borib qog‘ozni oldim... O‘qudim-o‘qudimda, manim hushim boshimdan uchib, qushbegi holiga tushdim. Bu qog‘oz xonning yorlig‘i edi va bunda taxminan shunday gaplar bor edi:

«Biz Turkiston mamlakatining xoni o‘z qalamravimiz va saltanatimiz uchun qipchoq toifasini muzir deb bildik. Bu yanglig‘ hukmimizni o‘z qalamravimizda bo‘lg‘an barcha beklarimizga, hokim va qo‘rboshi va dahboshilarimizga bildirib buyuramizkim, ushbu farmonimizni olg‘an on darhol o‘n besh yoshdan to yetmish yoshg‘acha bo‘lg‘an qipchoq er zotini qilichdan kechirgaylar va hech bir silai rahmni vosita qilmag‘aylar. Ushbu hukmimizni yeriga yetkuzishda sustlik qilg‘an mansabdor bizg‘a itoatdan bosh tortqan hisoblanib, eng qattig‘ jazoimizg‘a mahkum qilinur. Bu hukmimizni ijro etkuchi Toshkand hokimi Normuhammad qushbegiga marhamati shohonamiz shuldurkim, garchi sizning qipchoq qavmig‘a mansubiyatingiz bo‘lsa ham, Musulmonqulni haydashda bizga unutilmasliq xayrixohliqlar va xizmatlar ko‘rsatdingiz, binoan alayhi siz bu jazodan ma’fudirsiz[2] va sadoqatingizda boqiy qolib amrimizni ijro etishingizda shubha qilmaymiz!»

Qushbegiga qaradim, ul ham manim og‘zimg‘a qarab turar edi. «Buyruqni qachon oldingiz?» deb so‘radim. Ul javob o‘rniga Qayum ponsadga imladi.

«— Men olib keldim», — dedi Qayum ponsad.

«— Siz Qo‘qondan olib keldingizmi?» — deb so‘radim. Chunki sen aytkandek besh-olti kunda Qo‘qong‘a borib-kelish sira aqlg‘a sig‘mas edi.

«— Biz beklar bilan Qo‘qon yo‘lida edik, — dedi Qayum, — yo‘l ustida xondan ushbu yorliq kelib qoldi. Niyoz qushbegi menga yigit qo‘shib bu hukmnomani ijro qilishda yordam bermak uchun jo‘natdi».

---

[1] M u s a l l a h — qurollangan.

[2] M a’ f u — avf etilgan, kechirilgan.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Bu so‘z menga hamma shaytanatni ochib berdi va o‘zimning iblislar tomonidan aldang‘animni bildim:

«— Ertadan boshlab hukmni ijro qilsaq qalay bo‘larkan?» — deb qushbegiga qaradim.

«— Men ham shuni o‘ylab turib edim...» — dedi qushbegi va Qayumga qaradi.

Qayumning ustodlari ishni keyinga siltashimizni ilgaridan ko‘rib qo‘yg‘an ekanlar:

«— Ertaga qo‘yib bo‘lmas!» — dedi Qayum.

«— Nega?», — dedim.

«— Negaki ertagacha qipchoqlar qochib bitadirlar».

Men Qayumning so‘ziga quloq solmadim-da, qushbegidan ertaning kengashini so‘rag‘an bo‘ldim. Bu holdan achchig‘lang‘an Qayum yonimg‘a kelib o‘lturdi.

«— Ovora bo‘lmangiz, hoji aka», — dedi.

Uning bu harakatidan achchig‘im qistadi:

«— Sizning bilan manim bu ishka aralashmoqqa haqqimiz yo‘q!» — dedim.

«— Sizniki bo‘lmasa to‘g‘ri, ammo meniki bor!» — dedi Qayum.

«— Buyruq kimning otig‘a?» — dedim.

«— Qushbegining!»

«— Bas, siz bilan men faqat u yordam so‘rag‘andag‘ina ketman ko‘taramiz, boshqa daxlimiz yo‘q!» — dedim.

Qayum zaharxanda bilan yonini kavlab ikkinchi bir buyruq chiqardi va menga berib: «O‘qungiz!” — dedi. O‘qudim.

«— Bas, birinchi buyruqni siz olg‘an ekansiz, nega yana qushbegidan fotiha kutib o‘lturibsiz?!» — dedim o‘t ichida.

«—Har narsa bo‘lg‘anda ham ulug‘imiz, deb siylab turg‘an edim...» — dedi Qayum.

«— Egasini siylagan itiga suyak tashlar, qilmoqchi-siz-da, barakalla!» — dedim. «— Boringiz, ustodlaringizning vasiyatini bajaringiz!»

«— Xafa bo‘lmangiz, hoji aka!» — dedi Qayum va qo‘limdan qog‘ozni olib qushbegidan so‘radi: «— Nima deysiz endi, bek?»

«— Manim kengashimga kirsangiz, ertadan boshlayliq!» — dedi qushbegi,

«— Sira iloj yo‘q, qushbegi! Chunki barcha shahar va

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

kuylarga ham faqat shu — bu kunga, deb buyurg'an ekan!»— dedi Qayum.

Qushbegi bilan men go'yo tog' ostida bosiriq bo'lg'an edik. Boshimizg'a hech bir gap kelmas edi. Qayum o'rnidan turg'an holda qushbegidan javob kutar edi. Qushbegi ko'b fursat qotib o'lturg'andan keyin, Qayumga qo'li bilan chiqishg'a ishorat qilib: «— Bilganingizni qilaberingiz», — dedi. Qayum yonidag'i yigitlari bilan mahkamadan chiqdi. Uning chiqishi bilan qushbegiga dedim:

«— Endi nima qilamiz?»

«— Nima qilar edik?»

«— Axir qarab qolaberamizmi, vaqt tang! Qarshig'a biz ham yigit chiqarayliq!»

«— Qo'yaberingiz, hoji!»

«— Bechora gunohsizlar kesilabersinlarmi?!»

«— Kesilabersinlar!» — dedi qushbegi. Men iztirob ichida unga tushunolmay qolg'an edim. Ul yig'i ichida tilga keldi:

«— Mamlakatning tinchlig'i qipchoqlarni kesish bilan hosil bo'lsa, mayli, kessinlar! Yurtning obodlig'i gunohsiz qipchoqning qizil qonig'a qolg'an bo'lsa mayli, o'ldirsinlar!

Agarda najotimiz qipchoq tuxumini quritishda bo'lsa — meni ham ossinlar!

Bu palidlarning marhamatiga men ham muhtoj emasman!»

Hozir inodning[1] o'rni emasligini harchand uqdirmoqchi bo'ldim, ko'nmadi. Noiloj, yolg'iz o'zim chiqib qo'limdan kelgancha qipchoqlarni qochirishga harakat qildim, tevarakka kishilar yo'lladim. Ammo to'rt yuz jallodning qarshisig'a chiqg'an bir kishining uhdasi albatta bir kishicha edi. Muttahamlar ko'b bechoraning yostig'ini quritishg'a muvaffaq bo'ldilar, — dedi hoji.— Mana, Otabek, haqiqat shul, kishi tushunmasdan turib biravga tuhmat to'qimaydir.

Otabek o'zining o'rinsiz gapidan uyalg'annamo yerga qaradi va bir muncha vaqt fikrga ketib o'lturg'andan so'ng so'radi:

— Yirtqichlarning bu qirg'indan qanday muddaolari hosil bo'larkin?

---

[1] I n o d — o'jarlik, qiyiqlik.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Maqsadlari juda ochiq, — dedi hoji, — bittasi mingboshi bo‘lmoqchi, ikkinchisi Normuhammad o‘rnig‘a minmakchi, uchinchisi yana bir shaharni o‘ziga qaram qilmoqchi. Xon ersa Musulmonqulg‘a bo‘lg‘an adovatini qipchoqni qirib alamdan chiqmoqchi. Menga qolsa o‘rtada shundan boshqa hech gap yo‘q, o‘g‘lim. — dedi va bir oz to‘xtab davom etdi: — Men ko‘b umrimni shu yurtning tinchlig‘i va fuqaroning osoyishi uchun sarf qilib, o‘zimga azobdan boshqa hech bir qanoat hosil qilolmadim. Ittifoqni ne el ekanini bilmagan, yolg‘iz o‘z manfaati shaxsiyasi yo‘lida bir-birini yeb, ichkan mansabparast, dunyoparast va shuhratparast muttahamlar Turkiston tuprog‘idan yo‘qolmay turib, bizning odam bo‘lishimizg‘a aqlim yetmay qoldi. Biz shu holda ketadirgan, bir-birimizning tegimizga suv quyadirg‘an bo‘lsaq yaqindirki, o‘rus istibdodi o‘zining iflos oyog‘i bilan Turkistonimizni bulg‘atar va biz bo‘lsaq o‘z qo‘limiz bilan kelgusi naslimizning bo‘ynig‘a o‘rus bo‘yindirig‘ini kiydirgan bo‘larmiz. O‘z naslini o‘z qo‘li bilan kofir qo‘lig‘a tutqin qilib topshirquchi — biz ko‘r va aqlsiz otalarg‘a xudoning la’nati albatta tushar, o‘g‘lim! Bobolarning muqaddas gavdasi madfun[1] Turkistonimizni to‘ng‘uzxona qilishig‘a hozirlang‘an biz itlar yaratguchining qahriga albatta yo‘liqarmiz! Temur Ko‘ragon kabi dohiylarning, Mirzo Bobur kabi fotihlarning, Forobiy, Ulug‘bek va Ali Sino kabi olimlarning o‘sib-ungan va nash’u namo qilg‘anlari bir o‘lkani halokat chuqurig‘a qarab sudrag‘uchi albatta tangrining qahrig‘a sazovordir, o‘g‘lim! Gunohsiz bechoralarni bo‘g‘izlab, bolalar yatimxonalarini vayron qilg‘uchi zolimlar — qurtlar va qushlar, yerdan o‘sib chiqg‘an giyohlar qarg‘ishig‘a nishonadir, o‘g‘lim!..

4. OY ETAK BILAN YOPILMAS

Choy tugalgan edi. Otabek fotiha o‘qub, o‘rnidan qo‘zg‘almoqchi bo‘ldi.

— Turma!

Yusufbek hoji tarafidan berilgan amirona buyrug‘ Otabekni qaytadan o‘lturib qolishga majbur etdi va

[1] M a d f u n — dafn qilingan.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
otasig'a «nima xizmatingiz bor?" degandek qilib qaradi. Yusufbek hoji bir so'z demasdan sallasini olib tizzasiga qo'ydi, bosh qashinishib yana sallasini kiydi. Dadasining salla olib bosh qashinishi keyinidan ko'pincha o'zini bir tergov ostida ko'rar edi. Shuning uchun yana bir marta-ba dadasiga qarab qo'ydi.

Chini bilan ham hojining tusidagi boyag'i hasrat va qayg'u alomatlari yo'qolib, ularning joyini sharq otalig'i vaziyati oldi.

— Marg'ilonda nima ishlar qilding?

Kutilmagan bu savolga Otabek nima deb aytishini bilmay qoldi. Javob o'rnig'a xavfli tomong'a qaradi.

— Sendan so'rayapman, Otabek.

— Sizga xabar berguvchi nima ishlar qilg'animni ham aytkandir...

— Jo'n odamlar qatorida odam o'ldirib yurdim, degin? Otabekning yuzida kulimsirash bilindi.

— Jo'n odamlar qatorida emas, — dedi, — majburlar qatorida, zo'rlanganlar qatorida...

Hoji o'g'lining kinoyasiga tushunmadi:

— Odam o'ldirish uchun seni kim zo'rlab majbur qildi?

— Hali bilmaysizmi?

— Bilmayman, — dedi hoji, — aytishlariga qara-g'anda seni hech kim majbur qilmag'an.

— Meni zo'rlag'an va majbur qilg'an edilar, dada, — dedi zaharxanda bilan. — Yo'qsa, sizning o'g'lingiz bo'lg'an bir yigitning sha'niga albatta odam o'ldirish uyat va nomusdir.

— Kim seni majbur qildi, axir?

— Siz, onam!

— Esing o'zingdami, yigit?

— O'zimda, — dedi o'g'ul, — siz o'zingizning orzu-havasingiz yo'lida meni majbur qildingiz va dushman-larimga yo'lni katta qilib ochib berdingiz, men bu jonivorliqni xoh-noxoh ishlashka majbur qoldim.

— Shundog'mi, — dedi hoji o'z gunohi o'kuliga tushkan holda, — undog' bo'lsa, bizni kechir, o'g'lim.

— Sizni gunohkor qilishga va gunohingizni kechish-ka manim haqqim yo'q, dada. Lekin gunohsiz bo'laturib, ham yana muvahaza ostig'a tushkanim uchun o'zimni mudofaa qilishga majburman...

Hoji labini tishlab, boshini chayqadi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Xom sut emgan bandamiz, — dedi, — xayr, bu aybniku bizning bo‘ynimizg‘a qo‘yasan, darhaqiqat qo‘yishga haqqing ham bordir... Ammo oralaringg‘a yomonlar oralag‘an ekan, shuncha muddatdan beri nega meni xabardor qilmading? Yoki bunda ham birav seni indamaslikka majbur qildimi?

— Hech kim majbur qilmadi, — dedi, — ammo meni shu vartaga tashlag‘an do‘stlarimdan... ko‘mak so‘rash ham ma’qul ko‘rinmadi...

Hoji boshini quyi soldi. O‘g‘lining keyingi so‘zi unga juda ta’sir qilg‘an edi... Nima qilsinki, Otabek to‘g‘ri gapni aytar edi...— Biz seni Toshkanddan o‘ylantirsakda, — dedi nihoyat hoji, — katta xotiningdan ajratish fikrida emas edik. Agar sen shu xayol bilan bizdan siringni yashirib kelgan bo‘lsang, katta ahmoqliq qilibsan, bolam.

Otabek dadasining bu keyingi so‘ziga qarshi hech narsa demadi, go‘yo hamma alamini yuqoridag‘i ikki jumla bilan chiqarib yuborgandek jimgina somi’lik[1] darajasiga tushdi. Ammo natijani tezroq eshitib olish uchun uning yuragi qaynag‘an oshdek shopirilar edi.

Hoji davom etdi:

— Kishining boshig‘a bir ish tushkanda, darrov biravdan kengash va yordam so‘raydir. Hatto ota-onasidan ham sir saqlag‘an bir yigitni o‘z o‘g‘lum bo‘lib chiqg‘ani menga qiziq ko‘rinadir. Qayin otang menga bir xat yozibdir, o‘qub-o‘qub mazmuniga tushunolmay hayron bo‘laman. Oy sayin Marg‘ilon borib turar edi-ku, deb o‘ylayman. Xatni ikki-uch qayta o‘qib chiqg‘andan keyin, bilsam haqiqat shu emish... Mirzakarimning yozg‘anig‘a qarag‘anda bir muncha yanglishiq undan ham o‘tkan ko‘rinadir va lekin sening bolalig‘ing oldida uniki holvadir... Yaxshiki, bu aqlsizlig‘ing boshqalarning boshiga ko‘ringan... O‘zing ayt, agar menga shu kasalingni bir og‘iz bildirsang, men qayin otangg‘a xat yozmasmi edim, Hasanalini yuborib haqiqatni ochmasmidim va bu taqdirda odam o‘ldirib yurishlarga qanday hojat qolar edi?

Otabekning boshig‘a bu gaplarning bir harfi bo‘lsin o‘rnashmas va o‘zi kutkan natijaga borib yetish uchungina qiynalar edi.

---

[1] S o m i’ — eshituvchi, tinglovchi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Shunchalik ishlarni qilib, nega oxirda qayin otangg'a yo'liqmay kelding?

— Shunga majbur edim.

— Marg'ilong'a endi qachon borasan?

Otabek o'ylanib qoldi. Chunki bu «qachon borish» masalasini yaxshilab yeshmak kerak edi va uni yeshmak ham qiyin edi, uzoq o'ylang'andan keyin:

— Ma'lum emas, — dedi.

Garchi bekning yuragi hozir bo'lsa ham Marg'ilong'a qarab uchishka tayyor edi. Biroq uning yuragidan ham kuchlik bo'lg'an yana bir narsa bu «borish» masalasini chuvaltirib «ma'lum emas» bir holga qo'yg'an edi.

— Qayin otang kelin bolani olib shu hafta ichi yo'lg'a chiqmoqchi ekan, — dedi hoji, — tarixiga qarag'anda xatning yozilg'anig'a o'n kunlab bor, ehtimolki, erta-indin kelib qolsalar, to'rdagi uyni bo'shatdirib, polos yozish kerak edi...

Ul bu gapni eshitar ekan borliq, yo'qliq — ish qilib allaqandog' qiziq bir holat kechirdi. Issig' bir narsa badaniga tegib ketgandek hurkinib qo'ydi va «nihoyat, endimi?" degandek qilib entikdi. Ko'z o'ngidan biravning surati o'tib sarxushlandi va til bilan onglatib bo'lmasliq bir sog'inish chidamsizligi ichida bu ivir-jivir holatdan gangib ko'z ochdi. Ko'z ochdi, biroq o'ziga «nima deysan?" deb qarab turg'uchi otasig'a muvofiq javob berishni bilmadi. Yusufbek hoji esa o'g'lining bu sustlikka o'xshab ko'ringan holini yomong'a yo'ydi. Marg'ilon degan shahardagi katta o'zini kichik olib qizi ila kelayotgan Mirzakarim akaga o'g'lining xo'rliq keltirishidan cho'chidi. Shunga binoan Otabekni epaqag'a olish uchun unga kulki tuyulgan bir qancha nasihatlarni chizdi:

— O'g'lim, — dedi, — siylag'anni siylash kerak, endi senga qadrsizlang'an bo'lsalar, ammo bizning qoshimizda ularning qadr-qiymatlari yuqori, qutidor bo'lsa ko'z ochib ko'rgan qudamiz, xotining bo'lsa bosh kelinimiz. Agar sen meni otam deydirgan bo'lsang, shularning ko'nglini olmoqqa tirish. Qayin otangdan meni quvladi, deb ko'ngling olinmasin, chunki u bechora ham bir shaytonning vasvasasi bilan bu xatoga tushkan. Har holda hurmatlarini bajo keltir, Marg'ilon degan shahardan sening yuzingni, deb keladirlar.

Otasining bu so'zlari go'yo uning istiqboli uchun

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
yaxshi ta'minotlar berar, go'yo majburiyat ostida ota nasihatini quloqqa oladirg'andek bo'yin egib o'lturar edi.

— Agar ularning kelish kunlarini aniq bilsak, — dedi hoji, — sen yo'ldan qarshilab kirar eding.

Otabek javob bermadi.

— Har holda o'ttasi kun mo'ljal, sen chiqmasang ham Hasanali chiqsin yo'lg'a.

— Mayli chiqsin, — dedi Otabek.

5. MAKTUB

Hoji shundan keyin o'g'lidan bir daraja qanoatlandi va choyga fotiha o'qub, o'rnidan turar chog'ida yonidan bir xat chiqarib uzatdi:

— Xatning ichidan chiqdi. Kelindan — senga bo'lsa kerak, — dedi.

Otabek maktubni olib otasining ketishini kutib qoldi. Xat sakkiz buklanib, qizil ipak bilan bir-ikki yeridan chatilg'an va Otabekka atalg'an edi. Otasining uzoq-lashishini kutar ekan, yuragi yomonlag'an otdek tipirchilar edi. Tikilgan ipaklarni so'kdi va maktubni ochib och ko'zini ishka qo'ydi:

«Yusuf savdosida beqaror Zulayho ismidan, Majnun ishqida yig'lag'an Layli otidan — sizga boshimdag'i sochlarimning tuklaricha behad salom. — Mendan — haddu-hisobsiz gunoh, sizdan — kechirish. O'tkan ishga salavot. Chunki shu ikki yil ichida kechirgan qora kunlarni eska olish manim uchun o'sha kunlarni qaytadan boshdan kechirishlik singari, ul kunlarni siz unuting, unutmang, ammo men unutdim. Shuning uchun so'zimni o'zimni oxirg'i, ham chin baxt islari hidlagan tariximdan boshlayman.

Siz — qochoqsiz, nari-beri til uchida menga bir narsa yozg'andek bo'lib qochqansiz, ikki yil bo'ldi Marg'ilon kelib yurishlaringizni men o'zimcha yeshdim, lekin topib yeshdim: sizning barcha mashaqqatlaringiz — dushmanlaringizdan o'ch olish uchun bo'lg'anini ongladim. Yo'qsa, meni ko'rar edingiz, ko'rgingiz kelmaganda ham boshqalar sizni ko'rar edilar, to'yar edilar... Men kabi baxtsiz, men kabi g'ovg'asi ko'b sizni zeriktirib, jondan to'ydirg'an bo'lsa ajab emaski, qocha boshlag'ansiz... Qochsangiz qochib ko'ringiz, ammo men bu kundan boshlab

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

biravlarni quvishqa bel bog'ladim: otam bilan onam rafoqatlarida[1] xizmatingizg'a — cho'riliqingizg'a erta-indin yuraman, suyganingiz kundoshim oldida qadru-qiymatimning nima bo'lishini ham bilaman... Siz olijanobsiz: eski qadrdonliq hurmatiga ko'ngil uchun kulib boqarsiz... Loaqal shugina bilan ham baxtsizni mas'uda qilarsiz. Ammo... suyganingiz — kenjangizning jerkishlaridan, qarg'inishlaridan behad qo'rqaman, o'zimda yo'q qo'rqaman. Shu yaqin oradag'i uning bilan bo'ladirg'an mas'ud daqiqalaringizda xudo yo'lig'a va'da olingiz — meni og'ritmasin, raqibam keldi deb o'ylamasin. Nihoyati maqsadim ikki do'stka bir cho'rilik va shu munosabat bilan biravlarini ko'rib yurish...

Xatim oxirinda shuni ham aytib qo'yay: o'ch qaytib, men ham ko'chadan haydalmasam edi, degan xavf hamisha ko'nglimda. Agar xudo yarlaqab eshikingizda o'rinlashib olsam, uyog'ini o'zim bilar edim...

Erta-indin ko'zimga yo'l ko'rinur,
Yo'l bosishliq ko'ngilga bir umr ko'rinur...

3-inchi hamal, Marg'ilon, Kumushingiz yozdi».

Otabekning suyunchi ichiga sig'masliq, o'zini yo'qotib qo'yg'an holda iljayar edi. Xatni ikkinchi qayta o'qub chiqib yana so'yina boshlag'an edi, kechagi manzaralar unga ko'rinish bergandek bo'ldilar. Ul seskandi, ko'z o'ngidan kechagi mazlum gavdalar birma-bir o'tib, ul oshig'ich ravishda xatni bukladi va ulardan yashirg'andek cho'nchagiga tiqdi, irg'ib o'rnidan turib ketdi...

Ko'chani bir aylanib kelgandan so'ng, boyag'i manzaralardan bir oz qutilg'andek bo'lib yana maktub esiga tushdi. Mehmonxonaning darichasiga qiya turg'an holda xatni yana o'qub chiqdi. Lekin bu gal ham xat boyag'idek so'yinch emas, kechagi mazlumlarga ta'ziya tutqandek og'ir ma'no berdi: *«Ammo... suyganingiz — jekirishlaridan, qarg'inishlaridan behad qo'rqaman...»* Boya nima uchun so'yinganiga o'z-o'zidan hayron bo'la boshladi. Chindan ham maktubning muncha ko'chirilgan jumlasi, o'ylab qarag'anda, hech qanday quvonchg'a yo'l qo'ymasliq darajada qora ma'nolik edi. Bu jumla kelasidagi onglashilib bitmagan, lekin bo'lishi aniqg'a

[1] Rafoqat — hamrohlik, yo'ldoshlik, eshlik.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
o‘xshag‘an yaramas va tinchsiz bir hayotning go‘yo muqaddimasi edi...

Otabek Kumush aytkandek kundash, ya’ni Zaynabdan uncha qo‘rqmasa ham, ammo dardning eng davosizi bo‘lg‘an onasi to‘g‘risida yuragi titradi. Umrining eng qiymatlik kunlarini og‘ulag‘an, ikki yil bo‘yi davosiz dardga mubtalo qilg‘an, yaramas va ishonchsiz yo‘llarda sanqishig‘a sabab bo‘lg‘an o‘z onasi emasmidi? Va raqiblarga, dushmanlarga yo‘l ochib bergan shu onaning orzusi emasmidi?

Butun shaharni alg‘oq-dalg‘oq qilib ko‘hliq qiz qidirg‘an, nihoyat chiroylilikda tanho, aqllilikda yakto topib, to‘ylar, tomoshalar, orzu va havaslar bilan o‘g‘lig‘a «xotin bu bo‘libdir!» degan iftixor va mag‘ruriyat ila taqdim qilg‘an suyukli kelini ustiga go‘yo o‘chakishkandek bo‘lib keladigan Marg‘ilon parisiga nima va qanday muomala qilar edi.

Kumush kundashning jekirishidangina cho‘chig‘an bo‘lsa, Otabek bu cho‘chishni o‘zining ko‘lagasida qoldiraturg‘on onasi to‘g‘risida tamom aqlini yo‘qotib qo‘ydi.

6. O‘ZBEK OYIM — OG‘MA, ZAYNABNING DARDI

Yusufbek hoji chala-dumbul tabiatlik xotinining fe’li xo‘yini yaxshi bilgani uchun o‘tkan voqi’larni, ya’ni Otabek sirlarini unga ochmasliqqa qaror bergan bo‘lsa ham, ammo marg‘ilonliq kelin va qudalarning kelishlaridan xabar berishni lozim deb topdi. Chunki xotinining marg‘ilonliq kelinga bo‘lg‘an adovatini Otabekdan ham yaxshiroq bilar va uning «O‘g‘lingiz Marg‘ilondan uylanmadi, bir balodan uylandi!» deb qiladirg‘an shikoyatlarini hamma vaqt eshitar, doimo issig‘-sovuqchi domla, xo‘jalarnikida bosh og‘ritib yurishini ham bilar edi. Shuning uchun o‘z tarafidan O‘zbek oyim tushkurni yaxshilab ebka olmoq, yuz qizaradirg‘an ishlarga qarshi choralarni ko‘rmak fikriga tushdi.

Cholu kampirning har bir o‘lturishlarida so‘z O‘zbek oyim tomonidan boshlandimi, albatta noqobil o‘g‘ul bilan marg‘ilonliq «andi» kelin ustida bo‘lar va uning uchun eng ahamiyatlik masala faqatgina shugina bo‘lib ko‘rinar edi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Boshqa kezlarda kampirning bu to‘g‘ridag‘i dod-hasratini kulgulik bilan va kam havsalalilik bilan eshitsa ham, ammo bu gal O‘zbek oyimning o‘sha eski ashulasini ortiqcha bir to‘zimsizlik orasida kutar edi. Kampirning dardi g‘o‘zada, sichqonning ko‘zi donlik ko‘zada, deganlaridek, bizning O‘zbek oyimizning ham dardi bo‘zada edi. So‘z urindi, so‘zdan — so‘z chiqdi, nihoyat hojining kutkanidek o‘g‘ul hasrati ham boshlandi:

— Ahmoqingiz bir oz esini yig‘qan ko‘rinadir, — dedi O‘zbek oyim, — haytovur uch oydan beri Marg‘ilonni esidan chiqarib qo‘ydi.

Hoji kuldi:

— Issiq-sovug‘ing kor qilg‘andir...

— Bilmadim... Har nechuk suv quyg‘andek bo‘ldi, qoldi. Ilohim em tushkan bo‘lsin...

— Ilohi em tushsin, — deb kuldi hoji.

O‘zbek oyim erining istehzosiga tushunib qoldi va labi-labiga tegmay bobillay ketdi:

— Nega kulasiz? — deb depsindi, — bu kungacha kulib-ku, o‘g‘lingizdan ajrala yozdingiz. Endi nega siz ham... xudoyo tavba qildim...

— Zo‘ri behuda miyon shikanad.

— Ilohi tojikingiz qursin! — dedi O‘zbek oyim, — men to‘g‘risini aytsam, bu gaplarning hammasiga siz sabab bo‘lmoqdasiz, er. Yakkash kulish, yakkash kulgi! Undan ko‘ra o‘g‘ul-qiz o‘sdirishg‘a uquvim yo‘q, deb ayting!

Hoji tag‘in kuldi:

— Ha, uquvim yo‘q, oyimcha!

— Kuling-e, kuling! Xudo o‘lim bersin kulguga! — dedi O‘zbek oyim va achchig‘i bilan yuzini chetka o‘girdi.

— Menga qara, xotin, — dedi hoji jiddiy tusda. O‘zbek oyim qaradi. — O‘rinsiz chiransang, beling sinadir, deydi tojiklar. Shunga o‘xshash o‘zing joysiz chiranganingdek, meni ham o‘z yoningg‘a tortmoqchi bo‘lasan.

— Bo‘lmasa manim barcha harakatlarim o‘rinsiz ekan-da?

— O‘rinsiz.

— Nega o‘rinsiz bo‘lar ekan?

— Sening muddaong, — dedi hoji, — marg‘ilonliq

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
kelinni o‘g‘lingdan ajratib yuborish va bu kelining bilan qoldirish — shundog‘mi?

— Albatta shundog‘!

— Mana bu harakatingni o‘rinsiz chiranish, deydilar. Nega desang, bilfarz[1] o‘g‘lingni oldingg‘a olsangda, undan so‘rasang «qaysi xotining bilan bo‘lishni xohlaysan? Xohlamag‘aningni qo‘y», deb. Ana shu vaqtda o‘g‘ling nima der edi? Nima deyishini o‘zing ham yaxshi bilsang kerak, xotin!

— Bilaman, — dedi O‘zbek oyim, — marg‘ilonliqning domlasi kuchlik. O‘g‘lim bechoraning boshini aylantirib, ko‘nglini xippa o‘ziga bog‘lag‘an.

Yusufbek hoji o‘zini kulgidan yana to‘xtata olmadi:

— Yaxshi, — dedi, — sen ham-ku uch yildan beri Toshkanddagi hamma domlaxo‘jalarning eshigiga birma-bir kirib-chiqding. Bas, sen ham nega o‘g‘lingning ko‘nglini Zaynabka xippa qilib bog‘lay olmading?

O‘zbek oyim erining bu savolidan hayron bo‘lib turmadi:

— Marg‘ilonlikning domlasi sihirchi hindi edi. Men bo‘lsam, bu yerdan hindi domla topa olmadim.

Hoji endi kulmadi. Chunki xotinining holiga achina boshlag‘an edi.

— Bundog‘ aqlsiz ishlarni qo‘yayliq, xotin, — deb muloyimona so‘zlab ketdi, — bir oz aqlg‘a yon berib ish qilg‘an kishi hech bir vaqt dard qilmaydir. Modomiki, ikkimizning yolg‘iz ishonchimiz shu o‘g‘limiz ekan va uning sog‘liq, shodlig‘i bizning tirikligimizning tiragi ekan, bas, bizga lozimi uning xursandlig‘i nima bilan bo‘lsa, shuni axtarishdir. Men yaxshi bilamanki, sen bu ishlarni faqat o‘g‘lingni ayag‘aningdan qilasan va senda shundan boshqa hech bir maqsad yo‘q, bu tarafdan qarag‘anda seni ham ayblab o‘lturish oson emas... Shuni yaxshi bilg‘ilkim, o‘g‘lingning oy sayin Marg‘ilong‘a qatnab turishi seni xafa qilsa, meni ham sendan battar achchig‘imni qistatar, hatto ba’zi kezlarda so‘kib yuborish darajalarigacha borib qaytar edim. Ammo sening jahlingni chiqarib kulishim bo‘lsa, faqat «o‘lganimdan kulaman, yuzimni yerga suraman» qabilidan bo‘lib, bunga sen tushunmas eding. Nihoyat sen aytkandek jonim hiqildog‘img‘a yetdi-da, o‘g‘lingni bu gal Marg‘i-

[1] B i l f a r z — farazan, aytaylik.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
long‘a borma, deb yo‘ldan qaytarib qolg‘uchi ham men — o‘zim bo‘ldim...

O‘zbek oyim boshini tervatib so‘zni eshitib kelar edi. Bu keyingi so‘zni eshitkandan keyin boshini ko‘ksigacha yetkuzib, «barakalla, rahmat» degandek qilib qo‘ydi.

Hoji davom etdi:

— Manim bu to‘xtatib yubormay qo‘yg‘animdan xabarsizlig‘ing uchun bo‘lsa kerak, ko‘ngling dom-laxo‘janing duosiga ketib qoldi va men sening so‘zingdan kuldim. Chunki haqiqatda buning sababchisi o‘zim edim...

O‘zbek oyim eridan o‘pkaladi:

— Nega axir meni xabardor qilmaysiz?

— Bu to‘g‘rida menda ham ayb bor, — dedi hoji, — sen bilan o‘zimning muddaolarimiz bir, deb o‘ylag‘anim uchun Otabekni koyib to‘xtatqanimdan so‘ng seng‘a kengash olmasdanoq qudalaringga bir xat yozg‘an va kelin bolani Toshkandga olib kelishlarini so‘rag‘an edim. Haytovur so‘zimni yerda qoldirmag‘an o‘xshaylar, bu kun qudadan bitta javob xati oldim. Aqlli kishilarning sadag‘asi ketsang ham arziydir: «Shu choqqacha sizlarga ayttirmasdanoq ziyoratlaringizga borishimiz kerak edi. Xatingizni o‘qub nihoyatda xijolat chekdik, ayniqsa kelin bolangiz bek oyimg‘a qaysi yuz bilan qarayman, deb yuzini yuldi. Bu adabsizligini borg‘andan so‘ng albatta yuziga solmaslar, deb ishonamiz», deydir...

O‘zbek oyim eriga anqayg‘ancha qarab turar edi. Haqiqatan ham hojining ustalig‘i O‘zbek oyimdek dumbul tabi’atlik xotinlarni gangitarlik edi.

Ul xotinining javobini kutib o‘tirmasdanoq, tom ustiga tom yopa bordi:

— Qaysi uyni bo‘shatdirsaq ekan? — deb so‘radi va javob kutmasdan, — qudalaringni nima bilan kutishni bo‘lsa o‘zing bilasan: tuya so‘yib chorlag‘aningda ham kelmaydirgan kishilar, — dedi.

O‘zbek oyimning miyasi aynadimi yoki o‘zi aytgan sihirchi hindining duosi asar qildimi, har nuchuk uch yillik adovatlar va kina-kuduratlar barchasi ham allaqa-yoqg‘a qarab uchib ketdilar va ularning o‘rnini «ikki kelinlik bo‘lish» masalasi kelib oldi. Uzoq-yaqin xotinlarning «Hoy, O‘zbek oyimning marg‘ilonliq kelini ham kelibdur, xuddi to‘tining bolasi emish. Yuringlar, bir ko‘raylik», degan so‘zlari eshitilgandek bo‘ldi. Shu

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
chog‘qacha Zaynabka yalinib, yalpog‘lanib kun ko‘rib kelgan bo‘lsa, mundan so‘ng bir qo‘sha kelinni o‘zining oyog‘lari ostida yalinib yurgan holda ko‘rdi.

— Har nima bo‘lganda ham tegi nozik,— dedi oyim,— izzati uchun shu uyimizni bo‘shatib beramizmi?

— O‘zing bilasan.

— Biz to‘rdagi uyga ko‘chib o‘tsak ham bo‘ladir. Axir tegi nozik..

Uch yillik kina va adovat o‘rnida nihoyatda oliy marhamat va mehribonchilik kelib o‘lturgan edi. Uch yillik emas, uch daqiqalik o‘zgarishdan O‘zbek oyimning yuzi qizarmas va qizarishni ham bilmas, hatto o‘g‘ul-qiz o‘sdirishni bilmaguchi Yusufbek hojidan allaqancha yuqorilarda yurar edi. Yusufbek hoji esa xotinidagi bu kulgulik o‘zgarish uchun ajablanmadi va kulmadi, chunki bu kulki tabi’atka molik bo‘lgan xotin bilan endi o‘ttuz besh yillab birga yashar edi.

O‘zbek oyimni shu holga keltirgandan keyin undan so‘rab qo‘ydi:

— Zaynabka ham bu xabarni yotig‘i bilan aytib qo‘yamizmi?

— Siz bilan men bir ishni muvofiq ko‘rganimizdan keyin Zaynabka chikora[1], — dedi O‘zbek oyim. Mundan uch daqiqa ilgari saodati uchun tirishilgan orzuliq Zaynabning oqibati ham shu bo‘lib qolg‘an edi.

— Gap unda emas, — dedi hoji, — umr, murosa degan gaplar bor, ayniqsa kundashlik ishi qiyin, kosa kosaga tekkanda g‘idi-g‘idi gaplar ko‘paysa, bizga emas, o‘g‘lingga ham tatimay qoladir.

— Chaqir deysizmi?

— Chaqir.

O‘zbek oyim Zaynab bilan Otabekning kutilmagan ravishda ochilib so‘zlashib o‘lturganlari ustidan chiqdi.

— O‘g‘ul-qizning kengashimi?

Otabek kulimsirab Zaynabka qaradi, Zaynab esa tuzatinib o‘rnidan turdi va qayin onasiga joy ko‘rsatib:

— Shunaqag‘a o‘xshaydir, oyi. O‘g‘ul-qizning kengashi xudda shu kunga yig‘ilib qolg‘an ekan, — dedi va kulimsirab eriga qaradi.

O‘zbek oyim o‘lturmadi va uni-buni surishtirib, o‘ylab turmadi:

— Ikkalasiga bir pardan ko‘ylaklik ol! Birini past,

[1] Chikora — yo‘l bo‘lsin.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
birini baland qilma, bu xotining bo‘lg‘anda ul ham ko‘z ochib ko‘rganing... Zaynab, sen men bilan jurchi, hoji otang chaqiryaptilar, — dedi.

Tomdan tarasha tushkandek qilib so‘zlangan yuqoridag‘i gaplarga boshda ularning ikkavi ham tushunmadi. Ammo bir ozdan so‘ng Otabek aytilgan telva-teskari so‘zlarning ma’nosini onglab oldi, onasining nima bo‘lsa ham Marg‘ilon tarafka og‘ishqanini va o‘zining kuchlik bir dushmandan qutilayozganini bilib Zaynabni nima uchun chaqirilg‘anini ham payqadi. Zaynab esa bir narsa tushunmagan holda qayin onasi bilan chiqdi.

Qayin ona, kelin qarshisig‘a kelib o‘lturishkandan keyin, hoji Zaynabka qarab oldi.

— Bolam, Zaynab, — dedi, — biz Marg‘ilondagi opang ko‘chini olib kelmakchi bo‘ldiq... Sen shunga nima deysan?

Zaynab yalt etib qayin onasig‘a qaradi, chunki O‘zbek oyimning boyagi gapi endi unga onglashilg‘an edi. Do‘stni dushman yonida ko‘rib bilinar-bilinmas qilib entikdi.

— Men nima der edim...

— Gap nima deyish va nima demasingda emas, oyim!— dedi hoji, — gap shundaki, ul kelgan chog‘da egachi-singildek bo‘lib keta olasanmi, deb so‘ramoqchiman.

— Bo‘lib ketarmiz...

— Egachi-singil bo‘lib ketarsiz-a? — deb takror so‘radi qayin ota.

— Bilmadim...

— Nega tag‘in bilmay qolding?

Zaynab bir muncha vaqt o‘ylanib qoldi.

— Qars ikki qo‘ldan chiqadir, — dedi Zaynab, — men yaxshi bo‘lg‘anim bilan opam yomon bo‘lsa, hozirgi bergan va’damdan nima foyda bo‘lsin.

— Juda to‘g‘ri gapirding, bolam, sendan olg‘an va’dani undan ham olamiz.

Zaynab sukut qildi.

— Zaynab siz o‘ylag‘an kelinlardan emas, — dedi O‘zbek oyim, — xudog‘a shukur, aql-hushi boshida.

— Boshqa gaplarni ko‘nglingga kelturma, qizim. Marg‘ilonliq kelin bilan sening bizga hech bir farqlaring yo‘q, ikkavlaring ham bolamizning qo‘shog‘i — bolamizsiz!

Zaynab boshini irg‘atib qo‘ydi. Yusufbek hojining duosidan so‘ng, Zaynab Otabekning oldig‘a kirdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Otabek Zaynabning yuzidagi ma'yuslikni birinchi ko'rishdayoq sezdi. Bir oz jimgina qarshima-qarshi o'lturishdilar, ikkisiga ham so'z aytish o'ng'aysiz va allanarsa mone'dek edi.

— Nega chaqirg'an ekanlar? — deb nihoyat Otabek so'rab yubordi.

— Bilib turib so'raysizmi? — dedi Zaynab kuchlanib kulgan holda.

— Nimani bilib turib?

— Marg'ilondan keladirgan kishingizni.

Otabek qiyin holatda qoldi va og'zig'a shu gap keldi:

— Munda manim ixtiyorim yo'q... hamma ishni otam qilayotibdir.

— Otangiz qilsalar ham sizning ko'nglingizdagicha.

— Nima ko'nglimdagicha?

— Suyganingiz bilan birato'lasiga qo'shilib olish, albatta, sizning ko'nglingizdagicha...

— Men uni suyamanmi?..

— Albatta suyasiz...

Otabek o'zini tinch ushlagan holda:

— Yanglishasiz! — dedi.

— Hech yanglishmayman,— dedi Zaynab,— siz uylanishdayoq uni suyub olg'ansiz, meni bo'lsa... men: otaonangizning orzularicha, — dedi va ko'ziga jiq yosh oldi.

Otabek og'ir holga tushdi, bu to'g'ri so'z uni tamom esankiratdi va bu haqiqatka qarshi borish, ya'ni yolg'onlash yana og'ir edi. Shunday bo'lsa ham yolg'onlamay chorasi bo'lmadi:

— Boshda... suyub uylanganim siz aytkancha to'g'ri, ammo hozir undog' emas, — dedi.

— Ishonmayman.

— Nega ishonmaysiz, ishoning...

Zaynab bir oz unga qarab turg'andan keyin:

— Ishonmag'animnnig sababi bor, — dedi.

Otabek tinchsizlandi:

— Sababini... so'zlang...

— Menga uylanganingizga qancha bo'ldi?

— Ikki...

— Shu ikki yildan menga bo'lg'an aloqangiz bir zarra ham o'zgargan emas, — dedi Zaynab, — meni xotin o'rnida ko'rmaysiz!

— Bekor gap...

— Bekor gap emas, jonim, — dedi Zaynab qizishqan

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

holda. — Marg'ilondan qaytkandan keyingi kunlaringizni mehmonxonada kechirib kelishingizdan albatta tona olmassiz. Shu ham umid bilan bir yostiqqa bosh qo'yg'an edi, deb manim to'g'rimda o'ylab qaramaslig'ingizning sababi ham o'zingizga...

Zaynab so'zini bitira olmadi, chetka qarab ko'z yoshisini to'kdi. Otabek go'yo tog' ostida qolg'an edi.

— Siz tamom boshqacha tushunibsiz...

— Bo'lmasa, bu gaplarning sababi nima?

— Sababi juda ochiq, — dedi Otabek. Lekin nimani sabab qilib ko'rsatishni o'zi ham bilmas edi.

— Aytingiz axir?

— O'zingiz ham bilarsiz, deb o'ylayman.

— Men hech narsa bilmayman.

— Bilasiz!

— Xudo haqqi bilmayman.

— Bilmasangiz... — dedi bek, — bilmaganingiz yaxshi. Sizga o'z og'zim bilan iqror qilishg'a uyalaman...

— Mendan-a, xotiningizdan uyalasizmi?

— Uyalmayinmi?

— Uyalmang.

— Uyalmasam... mizojim zaif...

Zaynab ishonar-ishonmas unga qaradi.

— To'g'ri so'zlamadingiz...

— Ishonmasangiz o'zingiz biling, lekin haqiqat gap shu, sizdan uzoqda yurishimning sababi ham shunda.

— Ishong'animda ham bu hol tashqarida yotib yurishingiz uchun katta sabab bo'la olmaydir. Chunki men faqat shuning uchun sizdan o'pkalamayman, — dedi va ko'zini to'ldirib Otabekka qaradi. — Menga sizning mizojingiz kerak emas... O'zingiz!.. — dedi va yig'lab yolborg'an holda Otabekning quchog'ig'a o'zini tashladi. Otabek Zaynabning shu qadar yurak dardi borlig'ini birinchi martaba bilar edi. Bechora Zaynab jonsiz haykalni o'pib quchoqlar va yolborar edi.

7. QUDALARNI KUTIB OLISH

Kechagi kirgan savdogarlardan qudalarning bu kun aniq kirish xabarlarini bilgan edilar. Nariroqdan kuzatib kirish uchun Hasanali yo'l ustiga ketkan, Yusufbek hojining o'zi ish boshida turib, Oybodoqqa tashqari havlini

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
tozalatar edi. Ichkarida bo‘lsa, O‘zbek oyim qo‘shni xotinlardan bir nechasini hasharga aytib, hammani joy-joyig‘a qo‘ydirg‘an, havli yuzini ham yog‘ tushsa yalag‘undek holga kelturgan edi. Ammo o‘z uyini bo‘shatdirib, gilam solib qo‘yg‘anig‘a endi uch kunlab bor, qudalarning ziyofati uchun kerak bo‘lg‘an hamma narsalarni ham hozirlatqan, ular kelib tushdi deguncha, bo‘g‘izlatish uchun, deb bir g‘o‘non qo‘yni og‘ilning ustuniga qantattirib qo‘yg‘an edi. Kumush bilan Zaynabka atalib oling‘an xon atlaslarga ko‘ngli to‘lmay «har nuchukda tegi nozik, bu bo‘lsa endi ko‘p kiydi, atlasning yonig‘a yana bir xitoyi latta olingiz», deb marg‘ilonliqning ko‘ynagini bir qo‘sha qildirg‘an, bitta xitoy jujim mursakni kam ko‘rib, yonig‘a o‘zining qiymat baho zarrin mursagini va ikkita ro‘ymolga ham qoniqmay, o‘zining kelinligidan o‘rolmay qolg‘an qalmoqi sallachasini qo‘shqan edi.

Zaynab ham uncha xafa ko‘rinmas, qayin onasining buyruqlarini eski holicha bajarib yurar va hozirda uyga kirib olib mehmonlar kelib tushdi deguncha, oldilarig‘a yozish uchun dasturxon yasatar edi.

O‘zbek oyim hasharchi xotindan biriga tandirga o‘t qo‘yishni buyurdi-da, o‘zi Zaynabning oldig‘a keldi:

— Dasturxoning bitdimi, bolam? — deb so‘radi.

— Bitdi. Tashqarining asali kamga o‘xshaydir.

— Kam bo‘lsa, darrav ombordan keragicha olib chiq, undan keyin xamiringga o‘zing qara, Oybodoqning qo‘li tegmas, xamir gup berib ketibdi, — dedi va darichadan ko‘tarilib dasturxonlarni kuzatdi, — dasturxoning tuzik, varaqini esingdan chiqarma, — dedi va o‘rta yo‘lakda ko‘ringan Yusufbek hojini o‘ziga imladi. — Beri keling.

Yusufbek hoji boshida oq to‘ppisi va egnida oq olacha to‘ni bilan ustidan belini bog‘lag‘an edi. O‘zbek oyim yonig‘a sekin-sekin yurib keldi:

— Nima gap?

— Dasturxonlarimizga bir qarab qo‘ying-chi?

Hoji parvosizg‘ina qilib qarag‘an bo‘ldi:

— O‘zingga yoqsa bo‘pti, — dedi.

— Qassob aytkanmisiz, tag‘in ular kelgandan so‘ng shoshib qolmayliq.

— Qassob tayyor, hozir bo‘g‘izlatsaq bo‘lmaydimi?

— Yo‘q, — dedi O‘zbek oyim, — osh egasi bilan shirin. Ha, aytkandek, qudangiznikiga yuborg‘an kishingiz keldimi?

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Asal uchun shoshib borg'an Zaynab to'xtab qayin otasining og'zig'a qaradi.

— Borib keldi, — dedi hoji, — Alimbek dalasiga ketkan ekan, xotin qudalar kelishmakchi bo'lishibdir.

Zaynab asalga ketdi. Hoji O'zbek oyimning yonig'a yurib keldi va sekin so'radi:

— Zaynab xafa emasmi?

— Nimaga xafa bo'lar edi.

— Axir, so'rayman-da.

— Tuppa-tuzik, — dedi O'zbek oyim, — tashqaringizdan Oybodoq qutilayozdimi?

— Qutilib qoldi. Mahalladan ham uch-to'rtta kishi aytdim, oshni ko'proq qilish kerak.

— Xo'b.

Hoji uyon-buyong'a alang'lab olg'andan keyin so'radi:

— O'g'ling qayog'da, ko'rinmaydimi?

— Tashqarida edi-ku.

— Boya shuyoqqa kirgandek bo'lg'an edi.

— Guzar-puzarga chiqg'andir, — dedi O'zbek oyim.

Oybodoq tashqarini yig'ishtirib kirdi. Hoji mehmonxonaga chiqib ketdi. O'zbek oyimning amricha Oybodoq, Zaynab va hasharchi xotinlar kulcha yasashg'a o'lturdilar.

Kun tushdan og'qanda hamma saranjom oling'an edi. O'zbek oyim to'yga boradirg'an xotinlardek yasangan, egnida odimi xon atlas ko'ynak, boshida oq shohi dakana, ko'zida surma edi. O'zbek oyimning: «Kelinni xor tutar ekan demasinlar, sen ham o'zingni tuzat», deb aytkani uchun Zaynab ham tamom ipaklarga ko'milib yasang'an, kecha erga tekkan yangi kelinlar suratiga kirgan edi.

Zaynabning onasi — Mohira oyim, opasi — Xushro'ybibi va yangasi Hanifanisolar ham kelishdilar. O'zbek oyimning ko'ngil tortar qo'shnilaridan Karima otin, Sharofat chevar va Mahinabonular ham yasanib-tusanib chiqdilar. O'n chog'liq xotin bo'lishib sovutmachoq dasturxonga[1] o'lturishdilar. O'zbek oyim majliska—marg'ilonliq qudaning odamgarchilikni bilishidan, Otabekni Toshkanddan uylantirishga qarshi lom-mim demay, qaytag'a o'zi kuyavi bilan birga kelib, to'yni

[1] Sovutmachoq dasturxon — naridan-beri tayyorlangan, supta dasturxon.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
o‘tkazib ketkanidan, marg‘ilondag‘i obro‘sidan va davlatidan bahs qilib aytar edi:

— Bechoraning bori-yo‘g‘i peshonasidagi bolasi shu bizning kelinimiz. Otabekni o‘z bolasidan ham yaxshi ko‘rib, «O‘g‘lim bo‘lsa shundog‘ bo‘lar edi-da, mendan keyin hamma davlatim shuniki, ilohi omon bo‘lsin», der ekan.

Mohira oyim allanuchkalangani holatda javob berar edi:

— Ha, aylanay quda, qars ikki qo‘ldan chiqadir, deganlar... Buzoq yaxshi bo‘lsa, ikki onani ham emar ekan...

Quyoshning qizdirishidan changi chiqib ketkan havlig‘a suv sepib turgan Oybodoq tashqaridag‘i guldir-guldirni eshitdi va chopib mehmonlar o‘lturg‘an uyning darichasi yonig‘a keldi: «Kelishkanga o‘xshaydirlar», dedi. O‘zbek oyim gapirib turgan so‘zini yarim yo‘lda qoldirib, o‘rnidan turdi va mehmonlar ham unga ergashdilar. Zaynab bo‘zarg‘an holatda uyiga yugurib ketdi. O‘zbek oyim boshliq xotinlar havli yuzasiga tushdilar. Mohira oyim qizi Xushro‘yning qulog‘ig‘a nimadir shivirlab kulib qo‘ydi. O‘zbek oyim o‘rta eshikka borib yetmagan ham edi, narigi yoqdan qo‘shnining bolasi yugirib kirib qoldi.

— So‘yinchi bering, bek buvi, kennoyim keldila!

O‘zbek oyim cho‘nchagiga qo‘lini solib besh-o‘n pul olib berdi. Bola orqasidan Xasanali ko‘rindi:

— Qani oyi, ko‘rmanani bering-chi, men sizning qochqoq kelinigizni tutib keldim! — dedi va yo‘lakka qarab: — To‘xtang, to‘xtang, ilgari men so‘yinchimni undirib olay.

Yo‘lakdan Oftob oyim ko‘rindi. Paranjisi boshida, chashmandi qo‘lida edi. Hasanali O‘zbek oyim bilan tanishdirdi:

— Bu kishi qudachangiz — Oftob oyim bo‘ladirlar.

O‘zbek oyim Oftob oyim bilan salomlashib quchoqlasha ketdilar. O‘zbek oyimdan keyin boshqa xotinlar uning bilan ko‘rishib chiqdilar. Hammaning ko‘zi alongjalong‘ keldi. Kumushni axtarishar edilar. Kumush hali ichkariga kirgan emas. O‘zbek oyimning ikki ko‘zi yo‘lakda, Hasanali bir yo‘lakka va bir O‘zbek oyimg‘a qarab nima uchundir ko‘zini qisib qo‘yar edi. Xotinlar bilan ko‘rishib chetda turgan Oftob oyim qudasi yonig‘a

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
keldi: «Uyalib turg‘andir» deb kuldi. O‘zbek oyim kulimsirab yo‘lak tomong‘a:

— Hoy, posha kelin! — dedi, — bizlar kutib qoldiq-a, uyalmang bolam! Hasanalining ko‘rmanasi bo‘lsa tayyor!

Hasanali yo‘lakka qarab imladi. Qip-qizarg‘an holda Kumush ko‘rindi: paranjisi qo‘lida, qora atlas ko‘ynak egnida, zangor latta mursak ustida, oq shohi ro‘ymol boshida edi. Shahlo ko‘zlari kulimsirashka yaqin holda uyatlik edilar.

Hasanali tanitdi:

— Mana bu kishi qayin onangiz — bek oyim bo‘ladirlar.

Kumush salom berdi va qo‘lidag‘i paranjisini yerga tashladi, yugirib kelib o‘zini O‘zbek oyimning qucho-g‘ig‘a oldi. O‘zbek oyim ham uni mahkam siqib quchoqlab olg‘an, yuzidan shap-shap o‘pib aylanib, o‘rgular va tikilib-tikilib nima uchundir yig‘lar edi... Kutib turgan xotinlar, Mohira oyim, Xushro‘y va Hanifalar Kumushni ko‘rgan on bir-birlariga qarashib lablarini tishlashdilar...

Qayin ona-kelin bir daqiqa chamasi ko‘rishib qoldilar. So‘ngra Kumush boshqalar bilan bir-bir ko‘ri-shib chiqdi. O‘zbek oyim har bir xotinni kim bo‘lganini unga tanitib bordi. Eng keyin orqadan Zaynab ko‘rindi. Chunki ul uydan endi chiqib kelgan edi. O‘zbek oyim kulib Kumushka qaradi.

— Qani, o‘zing tani-chi, kim ekan bu?

Kumush hayron bo‘lib qolmadi... Ipaklar ichiga g‘arq bo‘lg‘an Zaynabka qarab olib, unga tomon adim tashladi:

— Zaynab opam! — dedi. Zaynab ham kulimsiragan holda Kumushka yaqinlashib keldi... Ikki kundash «esonmisiz, omonmisiz, eson-omon yuribsizmi...» so‘z-lari bilan ozorsiz qilib bir-birining yelkasiga va qo‘ltiq ostig‘a qo‘l yuborishdilar. Ular ko‘rishib turg‘anda yo‘lakdan Yusufbek hoji ko‘rinib, qochadirg‘an xotinlar o‘zlarini chetka oldilar. Hoji ularning oldig‘a — yuzaga chiqg‘ach, Oftob oyim salom berib ro‘ymoli bilan tomog‘ ostlarini o‘rab oldi. Hoji qudachasi bilan so‘rashib:

— Barakalla, singlim! Haytovur charchamay kelding-larmi, men sizlarni ovora qildimov, — deb uzr aytib kul-gan va uyalib borg‘an qudachasig‘a yengillik bergan bo‘ldi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Qani, bek otasi, ko'rmanani bering-chi! — dedi O'zbek oyim Kumushni imlab.

Kumush uyalib zo'rg'ag'ina salom berdi va Yusufbek hojining yaqinig'a kelib bo'yin egdi. Hoji qo'li bilan Kumushning yelkasiga qoqib suydi va Kumushning manglayig'a tegizib olg'an o'z qo'lini o'pdi:

— Bizning Marg'ilonda ham shunday kelinimiz bor ekan-ku, biz bilmay yurg'an ekanmiz-da, — deb tevaragiga qarab kulindi va qo'lini duog'a ochdi. — Bizni shunchalik siylab kelibsizlar, bu yaxshiliqlaringiz bizdan qaytmasa, xudodan qaytsin. Olloh taolo yoshlarg'a tinch va barakatlik umr bersin. Ilohim, taqabbul duo[1]...

Hamma duog'a yuz siypashdilar. So'ngra Yusufbek hoji Kumush bilan Zaynabka qaradi:

— Men sizlarning ko'rishib turg'anlaringizni ko'rib juda quvondim, — dedi. — Mundan so'ng ham shu yo'sunda bir-birlaringizga egachi-singildek bo'lmoqlaringizni tilayman, — dedi va O'zbek oyimg'a:

— Qani, mehmonlarni ichkariga olinglar, — deb o'zi tashqarig'a burildi.

8. ZIMNAN ADOVAT

Shundan keyin O'zbek oyim olding'a tushib, qudasi bilan Kumushni uyga boshladi. Ularning ketidan boshqa mehmonlar yurdilar. O'zbek oyim yo'l ustidan Oybodoqqa:

— Tezroq choyingga qara, bechoralarning aravada ichagi uzulg'andir,— dedi va Oftob oyim bilan Kumushka,— men sizlardan juda xafaman,— deb qo'ydi.

Oftob oyim Kumushka qaranib javob berdi:

— Aytsangiz, aytmasangiz biz juda uyatlik bo'lg'anmiz.

Uyning dahliziga kirdilar. O'zbek oyim ularni to'rga taklif qildi:

— Qani, yuqorig'a! — dedi.

Oftob oyim to'rga harakat qilsa ham, Kumush boshqa mehmonlardan uyalib to'xtadi, O'zbek oyim uni qistab tushdi:

— Iymanma, Kumush otin, bu kun-erta bizga yangi

[1] Ilohim, taqabbul duo — ey xudoyim, duolarimizni qabul et.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
kelinsan, uchunchi kundan boshlab sen mug'ombirning boshingda tegirmon yurgizishni o'zim yaxshi bilaman! — dedi. Oftob oyim va keyindagilar kulishdilar. — Yana hali sen manim sobunimga kir yuvib ko'rganing yo'q! — deb qo'ydi. Bu gal Kumush ham kulimsirab oldi. To'rga Oftob oyim va Mohira qudachalar o'lturdilar. Oftob oyimning so'liga Kumush, Kumushning yonig'a Xushro'y, Mohira oyimning o'ngiga Hanifa, undan keyin Karima otin, Sharofat chevar va Mahinabonular qator chizilishdilar. Eng oyog'da O'zbek oyimning o'zi o'lturdi. Karima otin qo'l ochib duo qilg'andan keyin, O'zbek oyim «Xush kelibsiz» qildi. Mundan so'ng hammaning ko'zi ittifoq qilg'andek Kumushka tushdi. Kumush uyalib yerga qaradi. Bir necha vaqt jim qolishib Mohira oyim Oftob oyimdan so'radi:

— Marg'ilondan yetib kelguncha ham juda bir yerga yetkandirsizlar?

— Uncha charchag'animiz yo'q, — dedi Oftob oyim, — o'zi Marg'ilondan Toshkandgacha arava yo'li o'n kunlik ekan, biz charchamayliq, deb sekin-sekin o'n ikki kunda keldik.

— Yo'l loydir? — deb so'radi Mahinabonu.

— Loy emas, — dedi Oftob oyim, — yo'l juda yaxshi ekan — ikki yoqda ko'm-ko'k maysa, qirlarda lolalar, yo'lning juda ham tomosha vaqti ekan.

So'z navbati O'zbek oyimg'a keldi:

— Kelmaganlaringizda Otabekni endi sira ham yubormasliqqa qaror qo'yg'an edim, — dedi, — booo xudo, o'g'lim, uch yildan beri oy sayin Marg'ilong'a qatnab zerikmadingmi, endi ular ham kelsin axir, deb yo'ldan to'xtatqan edim.

Kumush Otabek ismini eshitkach, sekingina ko'tarilib qo'ydi. Oftob oyim Hasanalidan hamma sirni o'rganib olg'an, shuning uchun O'zbek oyimning dovdirashiga tushundi:

— Yuzimizga solmasangiz ham juda uyatlik bo'lg'anmiz, — dedi.

Zaynab dasturxon ko'tarib kirdi va mehmonlarga «Xush kelibsiz» aytkandan so'ng dasturxonni yozdi. Dahlizdan — Oybodoq qo'lidan yasalg'an barkashlarni olar ekan, bir-ikki qayta yer ostidan Kumushka ko'z yubordi va Kumushning ko'zi ham uning keyingi qarashida to'qnashib oldi. Barkashlar qo'yilib bo'ldi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
Oybodoq to‘rt choydish choyni mis tekligi bilan kirguzib berdi. Zaynab choydishlar yoniga mehmonlarga choy quyish uchun o‘ltirdi. O‘zbek oyim chiqib borg‘an Oybodoqni to‘xtatib so‘radi:

— Qassob kelganmikin?

— Boya kelgan edi. Oyimlardin fotiha olib bersangiz, qo‘yni chiqarib berar edim.

O‘zbek oyim qudachasig‘a qaradi:

— Fotiha berasizmi, quda!

Oftob oyim Mohira oyimg‘a qaradi.

— Fotiha beringiz, oyi!

— Qo‘y sizga atalg‘an, — dedi Mohira oyim. — Fotiha berish sizning haqqingiz, biz bo‘lsaq fotihani ko‘b berganmiz...

O‘zbek oyim ham «siz bering» degandek qilib Oftob oyimg‘a imladi. Oftob oyim uyalinqirab fotiha berdi. Oybodoq chiqg‘andan keyin dasturxonga qaradilar va «oling-oling» bilan bir-birlarini qistasha boshladilar. Boyag‘idek ko‘bchilikning ko‘zi Kumushda edi. Ayniqsa O‘zbek oyim suqlanib unga qarar va tomoqqa qistar edi:

— Ol bolam, ol! Men tomoqdan uyalaturg‘an kishini yomon ko‘raman. Yoki eshikdan kirishingdanoq sansiray boshlag‘anim uchun xafa bo‘ldingmi?

— Xafa bo‘lish emas, so‘yindim, — dedi Kumush va dasturxondan cho‘qindi.

Oftob oyim:

— Sansirashingiz uch yildan beri Kumushni bolam, deb yurganingizni bizga ochiq onglatdi. Ayniqsa men buning uchun sizdan minnatdorman.

Karima otin:

— Kishi o‘z bolasini sansiraydir, begonani ham sansirasin-chi.

Zaynab:

— Meni ham chimildiqdan chiqishim bilanoq sansiragan edilar...

O‘zbek oyim:

— Men yaqin ko‘rgan kishimni sizsiray olmayman.— deb maxtang‘an sumol bo‘lib oldi, — hoy Kumush, ol, jilla qurisa anuv varaqidan bir-ikkita ye, yuraging uzilg‘andir.

Kumush uzr aytdi:

— Charchadim shekillik, — dedi, — ishtihom bo‘g‘ilg‘ang‘a o‘xshaydir...

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

O‘zbek oyim kuldi:

— Ishtihong bo‘g‘ilg‘an bo‘lsa charchag‘aningniki emas eringni sog‘inganingniki, — dedi. Birdan hamma kulib yubordilar. Zaynab ham kulguga ishtirok qildi... Ammo Kumush yuzini chetka o‘girgan edi. Ehtimolki, qayin onasining zakovatiga ichidan tahsin o‘qur edi.

O‘zbek oyim Oftob va Mohira qudalarni dasturxong‘a qistadi:

— Oling quda, siz yoshlarni qo‘yabering, bularni yigit asrasa, siz bilan meni tomoq asraydir.

Yana kulgi boshlandi. Oftob oyim o‘zini tutolmay kular edi. Kumush ham ochiq kulib, kulgi orasida Zaynabka qarab oldi — Zaynab ham kular edi...

Kulgi bosilib tushkandan keyin, Zaynabning yangasi Kumushdan so‘radi:

— Begingiz bilan ko‘rishmaganingizga qancha bo‘ldi?

Kumush dahshatlanib onasig‘a qaradi. Oftob oyim javob berdi:

— Uch oy shekillik.

Xushro‘y o‘zining zolim ko‘zini o‘ynatdi:

— Ha, bo‘lmasa xolam aytkanlaridek ishtihongiz bo‘g‘ilg‘ani o‘shaniki.

— To‘g‘ri, to‘g‘ri! — deyishdi xotinlar.

— Men o‘zim bilaman, — dedi O‘zbek oyim, — jo‘rttaga Otabekni uch oy to‘xtatib qo‘ydim-ku, axir!

Kumushning ko‘nglidan kechdi: «Aniq bilasiz, jo‘rttaga to‘xtatdingiz!»

Oftob oyim kulib javob berdi:

— Jilla uniki bo‘lmasa kerak. Manim ham ishtihom bo‘g‘ilg‘andek...

O‘zbek oyimning esiga Otabek tushkan edi.

— Hoy, aytkandek, Otabekni ko‘rdingizmi? — deb Oftob oyimdan so‘radi:

— Yo‘q.

O‘zbek oyim Zaynabka qaradi:

— Tashqaridamikin?

— Yo‘q emishlar... — dedi Zaynab.

O‘zbek oyim ajablandi:

— Boya otang ham so‘rag‘an edilar... — dedi, — qayoqqa ketkan ekan, aqlsiz... Ertalab senga hech narsa demabmidi?

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kumush Zaynabning og‘ziga tikildi, Zaynab ham unga qarab oldi:

— Ertalab mendan ust to‘nlarini so‘rag‘an edilar,— dedi, — men to‘nni berib qayoqqa borishlarini so‘rag‘animda, bir joyda ishim bor, degan edilar...

Zaynab zimnan Kumushni chaqib oldi. Kumush loy kabi bo‘shashib, Oftob oyim ham og‘ir tortdi. Zaynabning qarindoshlari kulgan sumol bir-birlariga qarashib oldilar. O‘zbek oyim oradan o‘tkan sirni payqadi: «Birarta zarur ishi chiqg‘andir», dedi. Shu vaqt darichadan Hasanali ko‘rindi, qo‘lida bir mesh qimiz ko‘targan edi, darichadan turib mehmonlarni «Xush kelibsiz» qildi»[1] va qimizni uzatib Oftob oyimg‘a qarab kuldi:

— Qimizni kuyavingiz sizga kirgizdi.

Oftob oyimning hushi o‘ziga kelib, Kumushning yuziga qon yugirdi. Anovilar bo‘lsa, endi bularning holiga tushib bo‘zrayishdilar.

Qimiz bilan yengillashkan O‘zbek oyim Hasanalidan so‘radi:

— Qachon keldi?

— Hozir.

— Qayoqqa yo‘qolg‘an ekan, ahmoq?

Hasanali izoh berdi:

— Kecha hoji unga ish buyurg‘an ekanlar. Bilmadim, kecha nima bilan ovora bo‘lib xizmatni unutkan va bu kun ertalab esiga tushib mehmonlar kelguncha borib kelarman, deb shunga ketkan ekan. Boradirg‘an joyi uzog‘roqda bo‘lib, kechikkan va yo‘ldan kelaturib bu gunohiga ikki mesh qimiz olg‘an... Hali qimizni menga berib: «Kirib ayting, juda uyatlik bo‘ldim kechirsinlar», deydir, — dedi va kuldi.

Karima otin:

— Kechirilmaydir, qimiz o‘zi nima degan gap, — dedi.

Oftob oyim mehmonlarga qarab chiqg‘andan keyin Hasanaliga kulib javob berdi.

— O‘zimiz juda cho‘llab kelgan edik, shuning uchun kechirdik.

— Balli-balli! — dedi Hasanali, — men kechirganingizni chiqib aytaman.

— Chiqib ayting, — dedi Oftob oyim.

— Siz-chi? — deb so‘radi Hasanali Kumushdan.

---

[1] Xotinlar orasida quldan qochish yo‘q edi *(mual.)*.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kumush baqadek qotib o'lturgan Zaynabka qaradi va uyalinqirab javob berdi:

— Men ham kechirdim...

— Sizning ikki boshdan kechirishingizni o'zim ham bilar edim, — dedi Hasanali. Bo'g'oz-qisir uy ichini kulgi bosdi.

Kulgidan so'ng O'zbek oyim:

— Nega o'zi kirmadi? — deb so'radi.

— Qayin otasi bilan so'zlashib o'lturibdir...

Hasanali ketkandan keyin O'zbek oyim Oybodoqqa, qimizni mis tog'orag'a bo'shatishka buyurdi. Qo'y so'yilib tayyor bo'lg'an edi. O'zbek oyim qudachasining ra'yini so'radi:

— Nima buyurasiz?

— Mendan so'rab o'lturmang, mehmonlar nimani xohlasalar biz ham o'shanga yormiz.

O'zbek oyim tomoq buyurish uchun havliga tushdi. Zaynab mis tog'orog'a ag'darilg'an qimizni cho'michlab kosalarga quyib mehmonlarga tutdi.

9. HOJI ETAK SILKKAN

To'rda qutidor, uning yonida mahallaning imomi Yunus Muhammad oxund, yurt og'asi Pirnazar jallod[1] va Sotiboldi otalig' yana bir keksa o'lturar edilar. Pirnazar jallodning yonida Otabek va Sotiboldi akaning qatorida Yusufbek hoji edilar. Oyog'da Hasanali meshdan qimiz quyar edi.

So'z to'rtinchi kuni bo'lib o'tkan qipchoq qirg'ini ustida ketib, Yusufbek hoji bu to'g'rida so'zlar edi.

— Men biz xalqning odam bo'lishimizdan tamom umidimni kesib qo'ydim... Esimni tanig'animdan beri amal demay, mansab demay faqat shu musulmonlar manfaatini ko'zlab kelib, oyog'ida o'zini qushbegi, mingboshi olg'an uch-to'rtta manfaatparastlardan go'yo yosh bola kabi aldandim... Ululamir bo'lg'an kishi ham shu manfaatparastlarning xarob fikrlariga quloq berib, bizdek odamlardan bu to'g'rida bir og'iz kengash so'rashni unutdi. Holbuki, Musulmonqul balosidan uni najotka chiqarg'uchilarning bittasi biz edik. Natijada ersa

[1] Ilgarilardan jallodlik qilib, hozirda bu kasbni tashlag'an. Ammo jallod laqabi qolg'on *(mual.)*.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

so‘zi — so‘z, kengashi — kengash bo‘lg‘anlar shu uch-to‘rtta kalla buzarlar bo‘lib, bizga o‘xshag‘anlarning darajamiz yosh boladek aldanish ekan...

Yunus Muhammad oxund uning so‘zini bo‘ldi:

— Ey hoji, — dedi, — hamma fasod ululamirda, agar ululamir durust odam bo‘lsa, uch-to‘rtta muttahamning yomonlig‘i hech qayerg‘a bormas va buncha gunohsiz bechoraning qoni o‘rinsiz to‘kilmas edi. Janobi payg‘ambari xudo hadisi shariflarida aytadirlarkim, «Bismillahir-rohmanir-rohim qola an-nabiyu alay-hissalom: Izo vasada al-amru ilo g‘ayri ahlihi fantazir assoata, ya’ni ul sarvari koinot marhamat qilurlarkim, agar bir qavmning ishi noahl odamg‘a topshirilg‘an bo‘lsa, bas, o‘shal qavmning qiyomatini yaqin bil, ya’ni halokatiga muntazir bo‘l». Bas, bizning korlarimiz ham ko‘b fursatlardan beri noahl odamlarning qo‘lig‘a qolib va har zamon ul nobakorlar bizlarning boshimizg‘a anvo’i kulfatlarni soladirlar. Ilohi kori badlari o‘z boshlari birlan daf’ bo‘lg‘ay.

— Saddaqta yo rasulilloh[1], — dedi hoji va hadisni takrorladi: — «Izo vasada al-amru ilo g‘ayri ahlihi fantazir as-soata» — voy bo‘lsin biz badbaxtlarning holiga, — dedi. Bir oz ma’yuslanib to‘xtadi va domla tarafidan bo‘lingan so‘zini shu gaplar bilan tamomladi:

— Shu kungacha bo‘lmag‘anlarg‘a bo‘lishmoqchi bo‘lib umrimning nihoyatiga yetib qoldim, — dedi. Soqolini tutamladi. — Bu soqol shu el qayg‘usida oqardi. Bu ko‘ngil shu manfaatparastlar ta’sirida qoraydi. Yoshim oltmish beshka yetib bir vaqt bo‘lsin ibodatimni janobi haqqa bevosita yo‘naltirg‘animni va ko‘ngil ko‘zim ochilib qilg‘an sajdamni xotirlay olmayman. Bu aldanishim ersa, haq tarafidan bir tanbeh, bo‘lmag‘anlarg‘a bo‘lishmoqchi bo‘lg‘anim uchun bir kinoyadir. Endi mundan keyingi besh kunlik umrim dunyo mojarolaridan etak silkib to‘sha’i oxirat tadorikini qilmog‘im uchun g‘animat ko‘rinadir.

Bu so‘z majliska bir ma’yusiyat berdi. Ko‘b vaqt hammalari sukutda qoldilar. Hojining gapi ayniqsa Pirnazar akaga ta’sir qilg‘an edi. Ul o‘z hunari ruhida mulohazasini so‘zladi:

— Yomonlarni bitta-bitta, terib-terib bosh kesmasdan elni tinchitish qiyin, — dedi.

[1] Saddaqta yo rasulilloh — to‘g‘ri aytdingiz, yo payg‘ambar.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Bu so‘zdan keyin majlis ahli hojining og‘zig‘a qaradilar. Hoji kulib qo‘ydi, bir ozdan keyin:

— To‘g‘ri aytdingiz, jallod, — dedi, — bu taqdirda yoningizda o‘lturg‘an bizning o‘g‘ulni ham ko‘makingizga chaqira olasiz...

Hamma kulib yubordi. Qutidor yer ostidan Otabekka kulimsirab qaradi. Otabek dadasining kinoyasiga tushunib qip-qizil lavlagidek bo‘ldi. Yaxshiki qutidor va Hasanalidan boshqa hech kim bu kinoyaga tushunmas edi.

Pirnazar aka jiddiycha Otabekka qaradi.

— Otabek menga o‘xshag‘an jallodkina emas, amiri lashkar bo‘la oladir. Siz fotiha bersangiz va Otabek amr bersa men xudo haqqi yomonning boshini olishdan qaytsam, — dedi.

— Bizning kattadan-kichigimizning, — dedi hoji,— topqan-tutqanimiz faqat bosh olish... Biz o‘ylaymizki, go‘yo bosh olish bilan olam tinchiydir va biz o‘z xohlag‘animizni qila olamiz. Tuzik, jallod aytkanidek, yomonning boshini olmoqqa men ham qarshi emasman va lekin buning nozik shartlari bor: avvalo manfaati shaxsiyasidan kechib, faqat el baxti uchun bosh tikkanlar jamoasi kerak va bu jamoaning o‘z maslaki yo‘lida kuzatkan ma’lum bir nishonasi bo‘lmog‘i zarur. Ana shundan keyin haligi nishonaga qarab intilishda oyog‘ ostig‘a elashkan cho‘p-xaslarni supira borish lozim. Mana shundagina to‘kilgan qonlar o‘rinlik va mashru’, berilgan boshlar chin qurbon hisoblanadirlar. Yo‘qsa, sizning bosh olishingiz ham anovilarning qirg‘inidan farqlik bo‘lolmas, — dedi va bir oz to‘xtab olg‘andan keyin afsuslandi, — shu yoshg‘a yetib bu xalq orasida haligi jamoani uch-to‘rt nafardan ortiq uchratolmadim, afsus.

Yana bir muncha gaplar o‘tkandan keyin hammalari masjidga chiqib peshinni o‘qub kirish uchun qo‘zg‘aldilar. Otabek ham ko‘bchilik bilan birga qo‘zg‘alg‘an edi, Hasanali uni to‘xtatdi:

— Siz to‘xtangiz, Otabek, — dedi. Kishilar havli yuziga tushkandan keyin, — ichkariga bir kirib chiqmasangiz ayb bo‘ladir... Boyag‘i ishingizni bo‘lsa zo‘rg‘a yolg‘on-yashiq bilan ularning ko‘nglidan chiqardim.

Otabek nihoyatda bo‘shashqan holda qaytib o‘rniga o‘lturdi:

— Mayli, bo‘lmasa... — dedi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

10. HASANALINING HIYLASI

Kishi ortiqcha qo‘rqqanda gangib a’zosi harakatsiz va og‘riq holga tushadirkim, albatta buni biz qattig‘ qo‘rqqandan deb bilamiz. Darhaqiqat, bizning qarshimizg‘a yo‘lbars chiqsa, biz qattig‘ qo‘rqamiz, chunki bizni o‘lum kutadir, inson uchun dunyoda o‘lumdan qo‘rqunch narsa yo‘q. Binoan alayhi biz bundagi qo‘rquvni tabiiy hisoblaymiz. Ammo qizig‘i shundakim, bizni dunyo baxti kutkanda, bizga saodat bashorati berilganda nega biz o‘lum kutkandagi holga tushamiz va uzviy tashkilotimiz (o‘rganizmamiz) birinchidagi holatni kechiradir?

Otabek ham hozir shu keyingi holatka tushkan edi. Erta bilandan boshlang‘an bu holat Hasanalining keyingi so‘zi bilan tamom bir dahshat kasb etdi va hushsizlarcha o‘lturib qoldi.

Hasanali kirgandan so‘ng qilinadirg‘an muomalani ta’lim berdi:

— Onangiz bilan Zaynab anovi mojarolaringizdan xabarsizdirlar, buni qayin onangiz bilan kelinga ham uqdirib qo‘yg‘anman. Ular bilan so‘rashib, so‘zlashqaningizda, go‘yo uch oydan berigina ko‘rishmaganlardek bo‘lingiz.

Otabek bo‘zarib entikdi:

— Ul-ku oson... — dedi.

— Qiyini qaysi?

— Shu choqg‘acha tushunmadingizmi?

Hasanali Otabekning yuziga uzoq tikilib qoldi...

— Yigit emasmisiz, ey barakalla.

— Yigitlik bilan yurakni to‘xtatish...

Hasanali ham o‘ylab qoldi. Darhaqiqat, Otabekning hozirgi holi nozik edi. Hasanali bir necha qayta bosh qashinib va soqol tutamlab o‘ylandi. Nihoyat, o‘zicha kulindi:

— To‘xtang bo‘lmasa,— dedi,— men bir ish qilayki...

— Nima ish qilmoqchisiz?

— Siz hozir so‘ramang, ammo shu daqiqadan boshlab ixtiyoringizni menga topishtiring.

Otabek kuchlanib kuldi:

— Nima, axir? — deb yana so‘radi.

— So‘ramang, — dedi Hasanali, — siz tinchkina tahoratingizni olib, namozingizni o‘quy bering.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Hasanali shu so‘zni aytib mehmonxonadan chiqdi. Otabek Hasanali tarafidan tashir[1] etilgandek, turib taharat oldi va mehmonxonaga kirib «tarobih» boshladi... Oradan yarim soat chamasi vaqt o‘tkan edi, Hasanali ichkaridan chiqib keldi.

Otabek esa hanuz ruku’da[2], sujudda[3] edi.

— O‘qub bo‘lmadingizmi? — deb so‘radi darichadan.

Otabek yonig‘a salom bermasdan unga qaradi. Bu holga Hasanalining kulgusi qistab kelsa ham, o‘zini zo‘rg‘a to‘xtatti:

— Qani, men bilan yuring.

— Qayoqqa yuraman.

— Ichkariga.

— Tag‘inmi?

Hasanali kuldi:

— Endi kirsangiz bir martaba bo‘ladir, — dedi. — Siz... hozir o‘rta yo‘lakdan sekingina manim uyimga kirasiz... Xotinlar namoz o‘qub yotibdirlar, sizni hech kim ko‘rmaydir. Siz kirgandan keyin men eshikni ustingizdan yopib olaman-da, bir ozdan so‘ng oldingizg‘a kelinning yolg‘iz o‘zini kirguzaman... tuzikmi?

— Tuzik...

— Qani, turing tezroq!

Otabek turdi. Uchrashishka hali anchagina vaqt bor, shuning uchun uning yuragi tinch sumol edi. O‘rta yo‘lakka kirdilar. Oldinda borg‘an Hasanali to‘xtadi va uyning eshigini ko‘rsatib «o‘ting!» dedi. Otabek uning aytkanicha qilib o‘zini uyga oldi. Hasanali Otabekni uyga kirguzgandan so‘ng kelib eshikni qiyaroq ravishda yopdi va darichani narigi uydan qarag‘anda kishi ko‘rinmaslik qilib qiyg‘och ochdi. Shundan keyin ul o‘zicha nimagadir kulimsirab xotinlar oldiga ketdi.

Otabek kirguzilgan Hasanalining uyi Oybodoq ona tarafidan tozag‘ina yig‘ishtirilib, o‘rta hollik kishilarning uyidek asbob, jihozlar bilan ziynatlangan edi. Devorlar ganchlangan, shiplar sirlangan, oyog‘ osti alvon gullik kiyiz bilan to‘shalgan va taxmong‘a kirpo‘sh ko‘rpalar osilg‘an edi. Otabek kafshini dahlizga yeshdi-da, uy bo‘yicha bir-ikki qayta yurindi va entikib nafas oldi. Shu vaqt taxmong‘a osilg‘an kirpo‘sh o‘z-o‘zidan

[1] Tashir — sehrlangan.
[2] Ruku’ — namozda ikki bukilib turish.
[3] Sujud — boshni yerga qo‘yish.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

qimirlag'andek bo'ldi. Bu qimirlashni Otabek payqamadi. Haligi qimirlag'an kirpo'sh birdan ochilib ketib Otabek cho'chidi... Birav taxmondan unga qarab kulimsirar edi. Otabek titrar edi... Bir ozdan so'ng ikkisi ham o'zlarini bir muncha to'xtatdilar-da, bir-birlariga tomon yurishib keldilar va so'zsizg'ina quchoqlashdilar... Otabek sunbul islik sochlardan ruh olar, Kumush go'yo uning bag'rig'a singib ketkan edi. Bu hol bir daqiqa chamasi davom etkandan keyin bir oz ajralishqan ko'yi uyning oyog'ig'a yurib bordilar va tiza-batiza o'lturdilar... Birisi ham so'zlay olmas, faqat termulishar edilar. Necha daqiqag'acha shu holatda bo'ldilar. Nihoyat, Kumush kulgi aralash ko'ziga yosh oldi.

— Siz... qochqoqsiz, — dedi.

— Siz...

— Men?

— Siz quvloqsiz.

— Ajab qilaman, — dedi Kumush va shapalog'i bilan erining yuziga sekingina urib qo'ydi.

— Bu yoqqa ham...

— U yoqqa Zaynab ursin.

— Zaynabning... urishka haqqi yo'q.

Kumushning ko'zida haligacha ko'rilmagan bir shodliq o'ynadi:

— To'g'ri aytasizmi?

— To'g'ri aytaman!

— Mana bo'lmasa, — dedi Kumush. Otabekning ikkinchi yuzini ham silagandek qilib qo'ydi. Yana kulimsirashib, termulishib qoldilar...

— Biravning g'amida kuyib qaridim, — dedi Kumush.

— Bekor aytasiz... Meni aytsangiz to'g'ri.

— Siznimi? — dedi Kumush. — Siz endi qirchillabsiz![1]

— To'g'ri gapirmadingiz.

— To'g'ri gapirdim.

— Ammo siz...

— Men?

— Keyin aytaman...

Kumush o'pkaladi:

---

[1] Q i r ch i l l a sh — odatda qorg'a aytiladir. Masalan, qattig' sovuqda yoqg'an qor qirchillaydir. Shundan olib, ayni yetilgan yigitlarni qirchillama yigit, deydilar *(mual.)*.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Ayting hozir, — dedi va jodu ko‘zini allaqanday holatka qo‘ydi. Otabek javob o‘rnida Kumushning yuzidan o‘pdi... Kumush o‘zini qutqazib o‘rnidan turdi.

— Yaxshi qoling endi.

Otabek tushunolmay unga qaradi:

— Nima bo‘ldi sizga, qayoqqa borasiz?

— Marg‘ilong‘a...

— Bu kun kech bo‘lib qoldi, ertaga ketarsiz.

Kumush kulib Otabekning yuziga urdi:

— Bizning ovloqda ko‘rishkanimizni, — dedi, — oyim va Hasanali otamdan boshqa hech kim bilmaydir, ayniqsa Zaynabingiz bilsa yaxshi emas.

— Bilsa nima qiladir?

— Hech narsa qilmaydir... Yaxshi emas-da,— dedi,— bir ozdan keyin chiqib oyim bilan so‘rashing, kirmaganingiz uchun qayin onalaringiz so‘yinishib o‘layotiptilar.

Kumush yana bir kulib qarag‘andan keyin uydan chiqdi. Otabek endi tamom o‘zini bosib olgan, endigi yurak urishi faqat haligi farishta tomong‘a oshiqibqina edi. O‘zi yolg‘iz qolg‘andan so‘ng nimaga bo‘lsa iljaydi va Hasanaliga ilgarigidan ham quyuqroq o‘zida muhabbat sezdi. Shu daqiqadan boshlab kechiradirgan mas’ud kunlarini tasavvurdan ojiz va Zaynab to‘g‘risida o‘ylab ham qaramas, boshqa gap esiga-da kelmas edi. Oradan Kumushning uyga kirib olishi fursat o‘tkandan keyin, uydan chiqdi va parvosizcha mehmonlar o‘lturgan uyga bordi. Uning kelishini o‘z uyidan ko‘rgan Zaynab yugirgancha Otabek orqasidan mehmonlar oldig‘a kirdi. Uydagilar Otabek-ni ko‘rish ila o‘rinlaridan turganlar, faqat O‘zbek oyim «hap» etkancha o‘lturar edi. Otabek Oftob oyim bilan ko‘rishdi... Oftob oyim uni quchoqlab yuzidan o‘pdi va ko‘ziga yosh oldi... So‘ngra kichkina qayin onasi bilan, Zaynabning opasi va boshqalar bilan so‘rashib chiqdi va kulimsiragan holda Kumushka «esonmisiz...» deb qo‘ydi. Kumush ham «shukur» deb kulindi. So‘rashish tamom bo‘lg‘andan keyin o‘lturishdilar. Otabek onasining yonig‘a, Zaynab uning yonig‘a o‘lturdilar. Kumush Zaynabning bu qilig‘ig‘a g‘ijinib bir-ikki qayta yer ostidan unga ko‘z yubordi.

Fotiha o‘qulib kuyav qayin onag‘a uzr aytdi:

— Avvalo sizlar kelguncha qaytarman, deb ertalab bir gunoh qildim. Undan keyin mehmonxonadan qo‘zg‘alolmay ikkinchi uyatka qoldim...

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Oftob oyim:

— Bolamiznikini aybi yo‘q.

O‘zbek oyim:

— Qimiz kirguzib qayin onangning og‘zini ho‘llamag‘aningda nax balog‘a qolib eding, bolam.

Kulishdilar. Karima otin:

— Kumushoy bo‘lsa, sen erimni yashirg‘ansan, deb Zaynabning engka-tengkasini chiqardi.

Yana kulgu bir-biriga elashdi. Zaynabning boyag‘i ishiga Kumushning g‘ashi kelganini aytilmasa, hozir ul ham juda ochilg‘an, kular va yer ostidan Otabekka ko‘z qirini tashlar, Zaynab bo‘lsa Kumushni ta’qib etar edi. Majliska bir oz jimjitlik kirgandan so‘ng Otabek ham o‘z tomonidan bir kulgu to‘qumoqchi bo‘lib, Zaynab bilan Kumushka qarab oldi:

— Men bir ishka hayronman, — dedi.

— Nimaga? — deb so‘radi Mohira oyim.

— Nega Zaynab semizu Kumush ozg‘in?!

O‘zbek oyim javoblandi:

— Buning hikmatini mendan so‘ra, bolam, — dedi,— Kumushing o‘zingga o‘xshash serfikr ko‘rinadir, Zaynab bo‘lsa menga o‘xshash quvnoq.

Otabekni o‘ziga o‘xshatqani uchun Kumush qayin onasidan rozi bo‘ldi. Ammo Zaynab o‘zini Otabekdan chetka qoqqani uchun O‘zbek oyimga g‘ijindi.

O‘zbek oyimning bu fikriga Karima otin qarshi tushdi:

— Yanglishdingiz, oyi, — dedi, — bundagi farqni Yusuf-Zulayho qissalarini o‘qug‘an kishi biladir... Uch oy degan fursat ozg‘ina vaqt emas, Kumush xonimning ozg‘ani sog‘inishniki!

Karima otin qosh qo‘yaman, deb ko‘z chiqarayozdi. Ya’ni Otabek bilan Kumushni Yusuf-Zulayxoga o‘xshatib, Zaynab va qarindoshlarini o‘t ichiga tashlag‘an edi.

— O‘zbek oyimniki to‘g‘ri, — dedi Mohira oyim, — Zaynab quvnoq, Kumushnisa manim ko‘zimga ham serfikrga o‘xshab ko‘rinadirlar...

— To‘g‘ri-to‘g‘ri, — dedi Xushro‘y.

Kumush bilan Oftob oyim oradan kechkan sirga tushunib jim o‘lturar edilar. Kumush yer ostidan Otabekka rizosizcha ko‘z tashladi.

— To‘xtanglar-chi, — dedi Otabek, hamma unga qaradilar, — hech qaysilaringiz ham topolmadingiz.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Topolmag'an bo'lsaq o'zingiz ayting! — dedi Sharofat chevar.

— O'zlaringiz topolmag'andan keyin men aytib nima qilay?

— Men topdim, xax shayton! — dedi Karima otin, — qizil gulning ham o'z oldig'a, oq gulning ham o'z oldig'a isi bor, demakchi!

Hamma birdan kulishib:

— Xudda-xudda! — deyishdilar.

Otabek kulib o'rnidan turdi va «topolmadingiz, topolmadingiz» degancha uydan chiqdi. Kumush bilan Oftob oyimning ko'nggillari birdek bo'lsa ham bu kashfdan keyin Zaynab bilan Mohira oyim ancha yengillashdilar. Bu qiy-chuv orqasidan mehmonlarga quyuq-suyuq berildi.

11. KUMUSHNING SO'Z O'YUNI

Shomga yaqin mehmonlar tarqalishdilar. Mehmonxonada hoji, qutidor, Hasanali va Otabek qolg'an edilar.

Ichkarida O'zbek oyim mehmonlarni kuzatib bo'lib, Kumush bilan onasidan ho'ppak[1] olar edi.

— Men sizlardan juda xafa bo'lg'an edim. Sizlarni churuk lattaga tugib, tokchag'a tashlash darajasiga yetgan edim. Nahotki uch yil bo'lsayu — bir yo'li o'z bilgularingizcha kelmasalaringiz. O'g'lim bechora oy o'tmasdan bo'zchining mokisidek qatnab tursa... Axir manim ham o'zimga yarasha obro'm bor. Toshkandda kimsan, Yusufbek hoji deganing ko'chiman[2]. Xudoyorxon ham bir kun kechasi kelib bizga mehmon bo'ldilar... Qushbegining uy ichlari bo'lsa, bir ishni manim kengashimsiz qilmaydirlar... Shuncha obro' ko'rgan bir kishi kelib-kelib nahotki o'z qudasidan va kelinidan munchalik obro'sizlik ko'rsa... Shahardagi kattadan kichik ertayu kech quloq-miyamni yeydirki, hoy, marg'ilonliq keliningiz keldilarmi, nega shundog' keliningiz bo'laturib Marg'ilong'a tashlab qo'yibsiz? Men bo'lsam hech so'z topolmag'animdan aytaman: — Kelinimning onasi kasal emish... Ikkinchi vaqtda: —

---

[1] H o' p p a k — gina, o'pka.
[2] K o' ch — yuk, xotin (ko'chma ma'noda).

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kelinim bechora munglug'[1]... deyman. Endi ko'rsam miltiqning o'qidek, pushti gulning to'qidek kelinim bor ekan... Men bu adabsizga tag'in o'zim o'lturgan uyimni bo'shatib beribman-a, — der edi.

O'zbek oyimning dali-g'ulilig'idan Oftob oyim va Kumush unga juda o'zlashib olg'anlar, uning so'ziga goh kulib, goh uzr aytar edilar. Hozir uyda Otabek bo'lmag'ani uchunmi, nimadan bo'lsa ham har nuchuk Zaynab o'z uyida kuymalanishib yotar va mehmonlarni O'zbek oyimning tanho o'ziga tashlag'an edi.

Tokchalarga sham'lar yoqilib, vaqt xuftanga yaqinlashib qolg'andan so'ng uyga Otabek kirdi. Ul kirgandan keyin Oftob oyim bilan O'zbek oyim ular oldida o'ltirishni eb bilmadilar-da, sirlashish uchun boshqa uyga chiqib ketdilar. Ularning chiqib ketishini kutib turg'andek, qo'lig'a bir choydish choy ko'targani holda Zaynab kirdi va Otabekdan choy ichib, ichmasini so'radi. Otabek ichmayman, deb javob bergan edi, Kumush orag'a tushdi.

— Men ichaman, o'zingiz ham o'lturing.

Zaynab uncha qistatmadi, o'lturib Kumushka choy quyib bera boshladi. Kumush uni so'zga solib so'radi:

— Manim balo-qazodek yetib kelishim uchun xafa bo'lgandirsiz?

Zaynab Otabekka qarab oldi:

— Nega xafa bo'lay, — dedi, — siz kelmaganingizda ham o'zlari borar edilar...

— Bormas edilar! — dedi Kumush, — men bilan urishib kelgan edilar...

Otabek Kumushka yer ostidan kulib qaradi, Kumush ham kulib javob berdi.

— Shu kishi birav bilan urishadirlarmi? — dedi Zaynab, — ikki yildan beri menga bir og'iz qattig' so'z aytkanlarini bilmayman...

— To'g'ri aytasiz, — dedi Kumush, — bu kishi emas, men urishkan edim... Bu kishida sira gunoh yo'q va arazimizga bir to'ng'uz sababchi bo'lg'an edi.

— Kim balo ekan ul? — dedi Zaynab.

— Bizning shaharning eng yaramasi, — dedi Kumush va Otabekdan so'radi, — siz eshitdingizmi, yaqinda o'shani bir bek o'ldiribdir?

---

[1] M u n g l u g' — ojiz, mushtipar.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Otabek kulimsiradi:

— Eshitdim...

— O‘sha bekning haqiga eshitkan kunimdan beri duo qilib kelaman...

Zaynab so‘radi:

— Sizlarda qanday dushmanlig‘i bor ekan?

Otabek «endi nima deysan» degandek qilib Kumushka qaradi. Kumush bo‘lsa parvosiz javob berdi:

— O‘sha to‘ng‘iz uylanmakchi bo‘lib manim bir o‘rtog‘img‘a sovchi qo‘yib yurar edi... Men ersa o‘rtog‘imni unga tegishdan aynatkan edim. Aynatishim halig‘i to‘ng‘uzning qulog‘ig‘a yetib meni bu kishiga chaqibdir. Bu kishi bo‘lsa, nega biravni o‘rtasig‘a tushasan, deb mendan xafa bo‘ldilar...

«Bu kishi» Kumushning yolg‘on uyushdirishidan kuldi, Zaynab ersa erini oqlab tushdi:

— Ayb sizda ekan, — dedi, — siz ham nega biravning o‘rtasig‘a tushasiz?

— Ayb mendalikka menda, — dedi Kumush va Otabekka qaradi. — Nafsilamrga qarag‘anda ayb bizning oramizg‘a cho‘p bo‘lib tushkan xolamning qizi Zaynabda, shundog‘ emasmi? — deb so‘radi.

Otabek sachrab Kumushka yuz o‘girdi:

— Bu o‘rtag‘a Zaynabni nimaga kelturib tiqasiz, endi?

Kumush kuldi va eski holini buzmadi:

— Siz hovliqmang, bek, — dedi, — tunovi kun xolamnikiga borg‘an edim, xolam qizi Zaynabdan shikoyat qilib hamma gapni Homid cho‘chqaning qulog‘ig‘a yetkizguchi o‘z qizi Zaynab gumbaz bo‘lg‘anini birma-bir aytib berdi, bildingizmi?

Otabek zo‘rg‘a-zo‘rg‘a xaxolashdan o‘zini tutib qoldi:

— Nima bo‘lg‘anda ham ayb sizda, nega boshda o‘zingiz bu ishka aralashdingiz, axir? — dedi.

Zaynab:

— O‘zingizning aralashishingiz chakki-da, — deb qo‘ydi.

Kumush jiddiy tus oldi:

— Siz aytkandek Zaynab gumbazda ham ayb yo‘q, menga qolsa hamma gunoh bek otam bilan xon oyimda, — dedi. — Orzu-havaslik joyni qidirmasdan qizlarini bir kishiga berib qo‘ya qolsalar — albatta bu savdolar

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
yo‘q edi... Nahotki ikki yildan beri necha bechorani zir qatnatib ovora qilsalar, Toshkand qishlog‘i bilan Marg‘ilonning orasi ozg‘ina yo‘lmi, axir?

Otabek xaxolab yubordi:

— Hamon aybni o‘z bo‘yningizga olmaysiz, astag‘firulloh...

Zaynab Kumushdan:

— Bek otangiz bilan xon oyingiz kim?

— Haligi men aytkan o‘rtog‘imning ota-onalari... Orzu-havas qidirib bechora qizlarini qaritib qo‘ydilar.

— Nega siz tayyor kuyavdan o‘rtog‘ingizni aynatdingiz?

— Davlati bo‘lsa ham o‘zi teri namoyish edi... Kishi davlat uchun erga tekkandan yerga teksin...

— Albatta, — dedi Zaynab.

Otabek Kumushning so‘z o‘yuniga ajablanar va xoy shayton, degandek unga qarar edi.

Kumush yana tinchiy olmadi:

— Bizning urishib qolishimiz uchun Karim sandiqchining ham daxli bor, — dedi.

Otabek jo‘rttaga so‘radi:

— Qanday daxli bo‘lsin. Sizga qolsa, butun shahar daxldor ekan-da?

— Shoshmang jonim, — dedi Kumush, — nega o‘ylamay-netmay eshigiga bosh urib kelgan bir yigitni quvlab soladir?

— Astag‘firulloh... uning quvlanishig‘a ham Homid sabab bo‘lg‘an. Homidning yomonlig‘ig‘a ersa siz sabab bo‘lg‘ansiz...

Zaynab nimadir so‘ramoqchi bo‘lg‘an edi, Kumush unga yo‘l bermadi.

— U ham emas, bu ham emas, — dedi, — hammasi xudoning taqdiri.

Otabek:

— Ana endi to‘g‘ri aytdingiz.

Kumush:

— Ikki o‘rtada dum qidirib quloqdan ham ajralg‘an puchuq oyimning holi ham xudoning taqdiri!

Otabek kuldi. Zaynab keyingi so‘zlarga tushuna olmag‘an, shunga ko‘ra Kumushdan izohlar olmoqchi edi. Kumush unga izohlar uyushdirishni xohlamag‘anliqdan so‘zni chetka chalg‘itib yubordi:

— Necha yoshqa kirdingiz, Zaynab opa?

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— O‘n to‘qquzg‘a shekillik.

— Hali siz bola ekansiz, — dedi Kumush.

— Siz nechaga kirdingiz?

— Meni so‘ramang, men endi qarib qoldim...

Zaynab unga hasadlanib qaradi va kuchlanib aytdi:

— Hali yoshqa o‘xshaysiz-ku.

— Necha yoshqa kirgan deb o‘ylaysiz?

Zaynab Kumushning to‘lib yetmagan gavdasiga va o‘n olti yoshlar chamaliq g‘ubor tegmagan husniga hayron bo‘lib, mulohazasini aytishdan qo‘rqdi. Zaynabka qolsa ehtimolki Kumush o‘zidan ham yosh chiqar edi.

— Men qayoqdan bilay...

— Yigirmaga kirdim.

— Mendan bir yosh katta ekansiz.

— Sizdan albatta kattaman, — dedi Kumush.

Kumushning «albatta kattaman» degan so‘zini Otabek ichidan tasdiqladi, uning husndagina emas, aqlda va boshqada Zaynabdan necha barobar yuqorida ekanini o‘yladi. Orag‘a bir necha daqiqaliq so‘zsizlik kirdi. Otabek yer ostidan Kumushka nigoh tashlar, Zaynab gilamning popugini chirmab nimaningdir xáyolini surar, Kumush bo‘lsa hech kimga ham qaramay mudrag‘an sumol o‘lturar edi. Kumushni bu holda ko‘rib Otabekning yuragi achidi...

— Yo‘lda charchag‘an ko‘rinasiz, Kumush.

Zaynab gilamdan ko‘zini oldi, Kumush mudrashdan cho‘chidi...

— Qaydam...

— Biz ketaylik, siz tinchib uxlang, — dedi Otabek.

— Mayli... Xuftanni ham o‘quy olmaydirg‘an o‘xshayman.

— Zarari yo‘q, — dedi, — yolg‘iz qo‘rqmaysizmi... Yoningizda Zaynab yotsinmi?

— Zaynabnisa siz bilan yotsin... Men yolg‘izliqg‘a o‘rganganman...

— Onangizni chaqirib beraylik bo‘lmasa.

— Rahmat.

— Yolg‘iz yotib qolgangizni ayniqsa oyim eshitsa...

— Siz bilan Zaynabnisa yolg‘iz yotib qolg‘animni aytmasangiz, hech kim bilmaydir... O‘rin o‘shami?

Zaynab nimagadir juda ham quvonib ketdi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, Kumushni o‘rin yozishg‘a qo‘ymay o‘zi par to‘shakni olib yerga soldi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
Kumush mudrag'an ko'yi Zaynabka tashakkur aytib to'rdagi burchakka o'lturib oldi. Otabek berigi burchakdan turib uni qo'li bilan yanar va kulimsirab xo'mrayar edi. Kumush mudrag'an ko'yi, suzilgan ko'yi iljayib javob berar edi...

O'rnini solib bitirgandan keyin, Zaynab qanoatlanib uydan chiqmoqchi bo'lg'an edi, uni Kumush to'xtatdi:

— Zaynabnisa, — dedi, Zaynab qaradi, — bu kishini tashqarig'a chiqib yotishg'a qo'ymang, tuzikmi?

— Nimaga?

— Nimagaki, dadamning ko'ngliga gap keladir.

— Xo'b, — dedi Zaynab va eshitdingmi degandek qilib eriga qarab olg'andan keyin uydan chiqdi. Uning keticha Kumush Otabekka qattig' qilib aytdi:

— Qani, siz ham uyingizga!..

Zaynab juda ishong'an holda o'z uyiga borib yetdi.

— Chindan aytib yotibman, eshitasizmi?

Otabek o'zini g'aflatka solib Kumushning yonig'a bordi:

— Siz...

— Men?

— Siz quvsiz...

— Men quv emasman, — dedi kulib Kumush, — men hali urushig'liq holdaman, yarashqanim yo'q.

— Boya nimalarni so'zladingiz, sir ochiladimi, deb jonim bo'g'zimg'a keldi.

— Nega sir ochilsin? — dedi, — men siz bilan o'tkan ishlar haqida so'zlashmoqchi bo'lib turar edim — o'zi jo'rttaga kirib keldi. Men ham so'zimni to'xtatmay jo'rttaga boshqa yo'lda aytib chiqdim. Nima, bir narsa payqadimi?

— Payqamadi-ku... Shundog' bo'lsa ham men juda qo'rqdim.

— Hali shu yuragingiz bilan uch kishini o'ldirdingizmi, men ishonmayman, — dedi Kumush va Otabekning xanjar tekkan qo'lining chizig'ig'a ko'zi tushdi. — Pichoq yomon kesipti... Chumchuq so'ydingizmi? Qani chiqing, men yotaman.

— Yota beringiz.

— Sizning oldingizda yeshinaymi?

— Uyalsangiz men yuzimni o'girib turay, — dedi va yuzini chetka burdi.

— Qaramang bo'lmasa, — dedi Kumush yeshinar

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
ekan, — «bo‘lg‘ani yo‘q, bo‘lg‘ani yo‘q» degan so‘zni besh-olti qayta takrorladi va o‘ringa kirib olg‘andan keyin ham «bo‘lg‘ani yo‘q, bo‘lg‘ani yo‘q» deb kular edi.

Otabek nihoyatsiz «bo‘lg‘ani yo‘q» dan zerikib qaradi:

— Aldamchi.

— Bu aldashlar — aldash emas, siz hali qarab turing, qochqoq.

— Aniq qo‘rqmaysizmi yolg‘iz?

— Nega qo‘rqay, ikki yil yolg‘iz yotib, endi juda o‘rgandim... Ehtimol siz yolg‘izliqdan qo‘rqarsiz.

— Kinoyangiz...

— Bu kinoya emas, to‘g‘ri so‘zim, — dedi Kumush, — men bu holda yolg‘iz ham emasman...

— Bu nima degan so‘zingiz tag‘in?

— Ya’ni hamrohim bor, deganim — mendan qo‘rqmang, deganim...

Otabek yana tushunmadi...

— Hamrohingiz...

— Hamrohimmi? — dedi Kumush, — hamrohim biravning xayoli, biravning fikri. Bas, bundan ham yaxshi rafiq bormi? Ba’zi vaqtlarda bu yo‘ldosh uyqudan ham shirin.

Otabek «hamroh»ga tushundi va yotib Kumushning yuzidan o‘pdi:

— Lekin men bu so‘zingizga ishonmayman.

— Nega ishonmaysiz?

— Negaki, siz anovi... kechasi hamrohsiz edingiz... Pish-pish uxlar edingiz...

Kumush Otabekning yelkasiga qo‘lini tashladi:

— O‘shal vaqtlarda hamrohsiz uxlag‘anim to‘g‘ri, — dedi, — chunki biravlardan butunlay umidim kesilgan, hamrohim menga hamisha umidsizlikgina berar, dahshatimnigina ortdirar edi. Ammo o‘sha kunlarda uyqu menga juda shirin bir narsa bo‘lib qolg‘an, men uyqudag‘ina biravlarni ko‘rar va kunduzlari ham uyqu qidirar edim. Endi bo‘lsa yana yo‘ldoshim xayol... Tag‘in nima deysiz?

— Hech narsa demayman... Lekin siz ikki yil burung‘i Kumush emassiz.

Kumush ko‘rpaga burkanib oldi:

— Chiqing... uyqum keldi.

Otabek zo‘rg‘agina o‘rnidan turdi... Ul uzog‘lash-

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
qandan keyin Kumush sekingina yuzidan ko‘rpani oldi va mudroq ko‘zlari bilan Otabekka kulimsirab qaradi. Otabek havlidag‘i oyog‘ tovshini eshitib, tokchadag‘i sham’lardan uchtasini o‘chirg‘an edi, darichadan Zaynab ko‘rindi: «Hali ham shu yerda ekansiz, men sizni tashqarig‘a chiqg‘ansiz, deb o‘ylabman...» dedi. Otabek javob bermay qolg‘an sham’larni o‘chirdi. Zaynabning «hali ham shu yerda...» so‘zi bilan Kumushning ko‘zi uyqudan ochilib ketkan edi... Otabek eshikni yopib chiqdi.

12. KUNDASH — KUNDASHDIR

Kumush qayin otasi bilan qayin onasiga uch-to‘rt kunning ichidayoq o‘zini ko‘rsatib qo‘ydi, shirin va aqllik muomalalari bilan ularni o‘ziga maftun qildi. Yusufbek hoji «bu odam farzandi emas — farishta» der, orada Zaynab bo‘lmasa «farishta», deb atamoqqa ham hozir edi. O‘zbek oyim bo‘lsa eski kina va adovatlarni qaytib kelmas dunyosiga jo‘natdi. Tevarakdan marg‘ilonliq, kelinni ko‘rish uchun kelguchi xotinlarg‘a muomalani yana ham yuqoriroqdan turib qila boshladi. Har bir «kelinингiz ajabmi?» deb Kumushka suqlang‘uchi xotinlarg‘a, «Manim chin kelinim Marg‘ilonda edi-da!» der edi. Goho O‘zbek oyimning o‘zi ham Kumushning husniga va muomalasiga ajablana boshlar, hojini ovlog‘roqda uchratib qolsa, «alhazar, o‘g‘lingizdan — uylangan xotinini qarang», deb qo‘yar, hoji bo‘lsa, «o‘zing bilgan sihrchi hindi sening ham boshingni aylantiribdir...» deb iljayganda, O‘zbek oyim «rost, bu kelinning husnidan ham boshqa yana tag‘in bir alohida xosiyati borg‘a o‘xshaydir!» deb kular edi. Kumush o‘zini ko‘rgan kelguchi xotinlardan ko‘proq olqish olsa (albatta oshkora emas), xotinlarning jo‘nashi bilanoq darrov O‘zbek oyim Oybodoqdan isiriq tutatdirib avval Kumushka, undan keyin ko‘ngli qolmasin, deb Zaynabka soldirar, agar Otabek ko‘rinib qolsa, uni ham quruq qoldirmas edi.

Egasini siylag‘an itiga suyak tashlar, qabilidan qizlari tufayli qutidor va Oftob oyimlar ham juda yaxshi izzat ko‘rar edilar. Qutidor kelganidan beri bir soat ham uyda bekor qolmay, har kun Yusufbek hojining muxlislaridan birining uyida mehmon va hojining suhbatidan mamnun

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
edi. Oftob oyimni bo'lsa O'zbek oyim o'tqizg'ali joy topmas, quda so'zi o'rniga — singlim deb xitob qilar, oshni ham uning ra'yini so'ramasdan buyurmas edi.

Kelganlarining o'n beshinchi kunigacha shaharning kazo va kazo xotinlarini qabul qilib o'tkardilar. Ya'ni Oftob oyim Toshkandning yuz boshi oyimidan tortib, ponsadboshi, qo'rboshi to o'rda oyimlarig'acha tanishib oldi va ularning har birlaridan kutilmagan darajada izzat, hurmat ko'rdi. Bu oyimlarning har birlaridan — «albatta biznikiga mehmon bo'lmasdan ketmaysiz, egachi[1] degan takliflar ham hisobsiz edi. O'zbek oyimning lozim topishicha, bu takliflardan faqat o'n chog'lug'i ijobat etiladirgan bo'lib va birinchi martaba Normuhammad qushbegining xotini Sorabek oyimnikiga, ya'ni o'rdaga borilmoqchi edi.

O'n oltinchi kun mehmon oyog'i tovsillanib, O'zbek oyim Sorabek oyimga o'zlarining borishlaridan xabar yubordi va Hasanaliga aravani qo'shmoqqa buyurdi. O'rda oyimlarining turmushlarini ko'rmagani uchun Kumushning ham ular bilan birga borg'usi keldi va ertalab choy ustida Zaynab tilga kelturib, «Zaynabingiz ham boradimi» deb so'rag'anida, O'zbek oyim: «Zaynab bir martaba borish bo'lsa borg'an», deb javob berdi.

— Men-chi?

— Sen ham bormaysan.

Kumushning ma'yuslanib qilg'an sukutidan keyin, O'zbek oyim mundog' izoh berib chiqdi:

— Sen Toshkanddagi Yusufbek hojining kelini bo'lasan, bolam! Chorlamag'an joyga borish uchun sening kafshing ko'chada qolg'an emas, — dedi.

Otabek qayoqqadir ot minib ketgan edi. Yusufbek hoji bilan qutidor Solihbek oxundning Ko'kaldosh hujrasiga mehmon bo'lib ketganlar. Faqat bu kun uyda qoladirg'anlar — Kumush, Zaynab va Oybodoq edilar.

O'zbek oyim yo'lakkacha kuzatib chiqg'an Kumush bilan Zaynabka qarab arava yonidan kuldi:

— Ikki kundash uyni xoli topib tag'in yulishmanglar! Oybodoq, sen kundashlardan xabarsiz qolma!

Oftob oyim aravaga minar ekan:

— Xudoy saqlasin, oyi! Shukur, ikkalasining ham aql-hushi boshida! — dedi.

[1] Chorlashdan maqsad maxsus hozirlikdan so'ng chorlag'uchiga kiyimlar, sarpolar tikdirib mehmonga chaqirishdir *(mual.)*.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Bular kundash emas — egachi-singil-ku! — dedi otning jilovidan ushlab Hasanali.

— Meni tashlab ketkaningiz alamini Zaynabdan olmasam kimdan olay, — dedi kulib Kumush va darbozaning halqasi bilan o'ynar ekan: — a, yulishamizmi? — deb Zaynabdan so'radi. Zaynab javob bermadi.

O'zbek oyim Oybodoqqa ba'zi ta'limotlarni bergandan keyin kelinlariga:

— Tushda issig'siz qolmanglar! — dedi. Arava qo'zg'aldi.

Zaynab ilgariroq, Kumush keyinroq ichkariga qaytib kirdilar. Kundashining so'zsiz, nesiz o'z uyiga kirib ketkani uchun o'ylanib, bir oz havli yuzida to'xtadi, so'ngra bu ham o'z uyiga burildi.

Kundan-kunga Zaynabning susayib, o'ziga begonalashib borg'anini ul yaxshi onglar edi. Bu kun bo'lsa o'ynab aytkan so'zi javobsiz ham qoldirilib, bu hol yana uning miyasini qotirdi. Ko'nglida bir xiralik bilan borib daricha yonig'a o'ltirdi. Zaynabning hasadini qo'zg'atmas uchun Otabek bilan muomalada qilg'an ehtiyotlari zarracha foyda bermaganiga hayron, endi qaysi yo'sunda mirosani sozlash yo'llarini o'ylar edi. O'n besh kun ichidayoq buncha keskinlashkan Zaynabning ichki adovatining bir oyda qaysi darajalarga borib yetishini o'ylar va mirosa bu holda ketgan taqdirda bu uyda uzoq qola olmasini fahmlar edi. Lekin bu uydan chiqib ketishni, bir-ikki oylab Otabekni Zaynab qo'lig'a topshirib qo'yishni yana muvofiq ko'rmas, ya'ni Kumushda ham bir qizg'anchiqlik hissi uyg'ong'an... Fikri shu yerga yetkanda qaysi kunidir Otabekning Zaynabka boshqacharoq qilib kulib qarag'ani va Zaynabning shu vaqtdag'i oydek jozibalik to'la yuzi ko'ringandek bo'ldi... Bu ko'rinishdan so'ng ul sakrab o'rnidan turdi-da, tokchadag'i oynani oldi va o'ziga qaradi...

Ma'lumki, kishi oynaga boqqanda nechog'liq aybsiz bo'lsa ham o'zini bir kamchiligi orqaliq ko'radir. Shunga o'xshash bir qarashda Kumush ham o'z-o'zidan rozi qolmadi. Shahlo ko'zlar, o'siq jinggila kipraklar, qunduz qosh va qora xollar va boshqa latofatlar o'ziga pisand bo'lmadilar... O'zini Zaynabka qarag'anda siqiq, yosh, bolasifat ko'rdi... Oynani tokchag'a qo'yib Zaynabka chinlab hasadlangan holda kelib boyag'i o'rniga o'lturdi. Anchagina o'ylab o'lturg'andan keyin ko'ngliga «u meni

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
suysa bo‘ldi-da», degan gap keldi... O‘zining bu hukmiga rozi bo‘lmadi, go‘yo o‘zining suyilishi bir necha oyliqqag‘ina o‘xshar, Zaynabning to‘lg‘an oydek yuzi bu suyilishka shu besh-o‘n kunning ichidayoq xotima beraturg‘andek ko‘rinar edi. Shu ko‘rinish orasida Zaynabni yana o‘z ko‘zidan yaxshilab o‘tkarmakka va uning husn kuchini sinamoqqa qaror berib o‘rnidan turdi...

Kumush kirganda Zaynab daricha yonida to‘ppi tikib o‘lturar edi.

— Oyim aytkandek, — dedi kulib Kumush, — siz bilan yulishqali keldim.

Zaynab to‘ppisini qo‘yib o‘rnidan turdi:

— Men ham oldingizg‘a chiqaymi, deb turg‘an edim...

Kumush istehzo bilan kuldi:

— To‘ppi tikib o‘lturibsiz-ku, manim oldimg‘a chiqarmidingiz, barakalla sizga, — dedi. Zaynab bir sabab ko‘rsatalmay o‘ngg‘aysiz holda qoldi. Darhaqiqat, uning bu ishi ochiqdan-ochiq bolalarcha ketgan edi. Kumush uni o‘ngg‘aysiz holdan chiqarish uchun tikilgan to‘ppini yerdan olib ko‘rgan bo‘ldi.

— Chokni yaxshi tikar ekansiz, kimga?

— Biravga atag‘anim yo‘q, axir bittasi kiyar... O‘lturing.

Ikki kundash qarshima-qarshi o‘ltirishdilar. Kumush unga tikilib-tikilib qarar edi... Zaynab boyag‘i o‘ngg‘aysizliqdan hali chiqib yetmagan, qizarinqirab yerga boqqan edi. Bir-ikki daqiqani so‘zsiz kechirdilar.

— Chiqmag‘animni ham ko‘nglingizga olibsiz-da, — dedi nihoyat Zaynab.

— Nega ko‘nglimga olay, men yosh bolamanmi, — dedi,— kelganimga o‘n besh kun bo‘lmasdan o‘zingizni chetka tortib boshladingiz... Men siz bilan egachi-singil bo‘larmiz, deb o‘ylag‘an edim...

— Hali nima bo‘libmiz... Arzimagan gapni ham ko‘nglingizga olabersangiz...

— Bu arzimagan gapmi? — dedi Kumush, — uyda hech kim yo‘qlig‘ini bilaturib o‘zingizni chetka tortasiz... Bu esa yuzingni ko‘rishga toqatim yo‘q deganingiz bo‘ladir.

— Qo‘ying-chi... O‘zingiz har bir narsani ham ko‘nglingizga olaberar ekansiz... men unaqa emasman...

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Boshlanishda anchayin hazilga o‘xshab ko‘ringan bu kinaxonliq kutilmagan joyda bir tus olib ketdi. Kumush o‘n besh kunlardan beri yig‘ilib kelgan achchig‘ini bir varakay to‘kib soldi:

— Men ko‘nglimga olsam arziydirganini bilib olaman, — dedi.

— Oldingizg‘a chiqmag‘anim yuzingizni ko‘rmaslik uchun bo‘lg‘anini siz qayoqdan bildingiz, manim ichimga kirib chiqmag‘andirsiz-ku, axir?

Zaynab ham ancha qizishib oldi. Kumush undan ham oshib tushdi:

— Bilish uchun ichingizga kirib chiqishim shart emas... Ba’zi ishlaringiz ichingizdagini menga ochiq so‘zlaydir.

— Qaysi ishlarim?

— So‘ramang...

— Bilmagan bo‘lsam bildirib qo‘ying, axir.

— Aytsam yana achchig‘ingiz qistaydir...

— To‘g‘ri gap bo‘lsa achchig‘im sira qistamaydir...

Yaqinroqda yumish qilib yurgan Oybodoq eshitmasin uchun sekinroq tovushda:

— Qistamasa aytay, — dedi Kumush, — eringiz manim oldimg‘a kirsa, nega ishingiz bo‘lsa-bo‘lmasa kirib o‘ltirib olasiz-da, yolg‘iz qolg‘animda kirmaysiz?

— Shundog‘ deyarsiz, deb turg‘an edim o‘zim ham — dedi Zaynab,— kirishimni ham ko‘nglingizga olg‘an bo‘lsangiz, endi mundan so‘ng kirmaganim bo‘lsin.

— Qani, to‘g‘ri gapka achchig‘ingizning qistamag‘ani?

— Axir, eringiz bilan yolg‘iz o‘ltirg‘aningizda mundan so‘ng kirmayin deyapman-ku.

— Egrilikka olmang, Zaynab, — dedi Kumush, — men bu gapni yonimda erim bo‘lg‘anda kirma, deb aytmadim, balki boyag‘i so‘zimning isboti uchun aytdim...

Bu o‘rinda ikkisi ham jim bo‘ldilar. Oybodoq darichaga kelgan edi:

— Tushlik osh vaqti bo‘ldimi, nima tomoq qilsamikin?

Kumush Zaynabka qaradi:

— Nima tomoq buyuramiz?

— Sizdan so‘rayapti...

— Zaynabnisa yaxshi ko‘rgan tomoqni qilingiz, — dedi Kumush.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Lag‘mon qilaymi? — deb Oybodoq Zaynabka qaradi.

— Tomoqqa ishtihom yo‘q, o‘zingiz bilganingizcha qilabering.

Oybodoq ketdi. Uning keti bilan Zaynab «tavba» deb qo‘ydi.

— Tavba demang, Zaynab... Bu gaplar ayniqsa siz bilan menga kelishmasa ham azbaroyi meni yolg‘iz tashlab qo‘yg‘aningizdan aytdim... men sizning uyingizga butun umrga kelgan emasman... Atigi uch-to‘rt kun qayin ota, qayin onalarimni ko‘rib ketish uchungina kelganman. Shunchalikka bir-biravimizdan chetlashib, ming‘ayishib yurishimiz kishiga og‘ir kelar ekan.

Kumushning «uch-to‘rt kuni...» bilan Zaynab yorishib ketgandek bo‘ldi:

— Voy o‘lay, Kumush opa, — dedi Zaynab bo‘shashqan ohangda, — chindan ham ko‘nglingizga olibsiz deyman. Ko‘nglimda tariqdek yomonlig‘im bo‘lsa, ertagacha yetmayin.

«Ketish» so‘zini eshitib ond ichib boshlag‘an Zaynabka Kumush ichdan kulib qo‘ydi va «endi o‘lsam ham ketmay, sen qarab tur!» deb yandi.

Shundan keyin oradan gap-so‘z to‘xtag‘andek bo‘ldi. Kumush tizzasini quchoqlab nimanidir xayolida, Zaynab bo‘lsa qatimini uzun tortib to‘ppisini tikar edi. Anchagina shu holatda qatim tortqandan so‘ng Zaynab sekingina qarshisidag‘i g‘ayri rasmiy yovg‘a yovlarcha qaradi. Uzoqqina qarab turg‘andan keyin o‘ziga ham sezdirmaslik qilib entikdi, yana uch-to‘rt qatim tortti...

— Siz munchalik qo‘rqmasangiz ham bo‘lar edi...

Kumush bir oz javobsiz qoldi va surilib devorga suyaldi:

— Nimadan ham qo‘rqmasam bo‘lar edi?

— Axir... jek ko‘rmasangiz[1] ham... deyman-da...

— Men kimni jek ko‘ribman?

— Bilarsiz axir, kimni...

— Uyat, Zaynab!

— Sizniki ham uyat!

Yana ikki kundash hujumga hozirlanishqan xo‘rozlardek bir-birlarining ustlariga hurpayishdilar.

— Nimam uyat? — deb so‘radi Kumush.

---

[1] Jek ko‘rmoq — g‘ayirlik qilmoq, qizg‘anmoq.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Men erim bilan o'lturganda ustimga kirma, deyishingiz albatta uyat.

— Avvalo men bu so'zni sizning haligi qilig'ingizg'a qarshi aytdim. Agar siz buni chinga hisoblag'an bo'lsangiz, men ham sizdan chinda so'rayin: siz eringiz bilan o'lturganda men ustingizga kirdimmi?

Zaynab bu savolning javobiga qolg'anda bir oz tutiliqdi. Chunki, Otabek Zaynab yonida bo'lg'anda Kumushning kirganini xotirlay olmadi.

— Siz kirsangiz albatta ko'kragingizdan itarmas edim, — dedi Zaynab. — O'zingiz jek ko'rganingiz uchun meni ham o'zingizdek fahmlab kirmaysiz.

— Kishini bo'g'asiz, Zaynab! Gapka temirchilik yaxshi emas!

— Gapka temirchilikdan xudoy saqlasin, ota-bobom temirchi o'tkan emas.

— Kim sizga — otang temirchi deyapti?

— Axir so'zingizning sirasi shunga keladi-da...

— Tavba, — deb kuldi Kumush, — jek ko'rasan, deb bir aytasiz, o'zingdek fahmlaysan, deb uzib ulaysiz, sen qo'rqmasang ham bo'ladi, deb tag'in nina tiqasiz... Mana shuni gapka temirchi, deb aytadilar.

— Rost-da axir, siz qo'rqmasangiz ham...

— So'zlay bering.

— Axir...

Zaynab o'zining xatosini ongli va gapuralmay g'o'ldiradi. Kumush esa buni sezib Zaynabning o'z og'zidan iqror etdirish ko'yiga tushdi.

— Men tushundim, — dedi, — sen qo'rqmasang ham bo'ladi ering seni yaxshi ko'radi, demakchisiz.

Zaynab ishini to'xtatib bo'zrayg'ancha Kumushka qarab qoldi... Bu xatosini o'nglash uchun esiga hech gap kelmas edi:

— Axir... menga o'xshash sizni ham ishondirib qo'yg'andirlar.

— Sizni nimaga ishondirg'anlar?

— Axir... Men sensiz turolmayman, deb sizga ham aytkandirlar...

— Hech.

— Sizga aytmagan bo'lsalar... menga yuz qaytalab aytadirlar... U kishini sizga ham shunaqalar, deb o'ylabman...

O'zi aslo ishonmag'an shuncha yolg'on gaplarni boyag'i dovdirash holatida ilhom ravishda to'qib yubor-

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

di. Uning bu dovdir gaplari g‘alaba qozonmoqchi bo‘lg‘an Kumushni dovdiratti, boyag‘i oyna yonida tug‘ilgan shubhasi chinga chiqg‘andek bo‘ldi va muhokama xususiyatini yo‘qotdi. Zaynab to‘g‘ri aytadi, deb o‘yladi, agar uni yaxshi ko‘rmaganda Toshkandga kelishimni kutib o‘lturarmidi?..

Zaynab bu yolg‘onlash natijasidan qo‘rqib, o‘ngu ters ishiga yopishdi. Kumush moddiy hayotidan ayrilg‘an jonivordek bo‘shashdi. Oybodoq ona tarafidan ikki kundash o‘rtasig‘a qo‘yilgan tushlik bir necha vaqt sovib yotdi. Zaynabning qo‘rqa-pisa «oling, opa»sidan so‘ng ikki taraf ham lagandan chimchigan bo‘lishdilar-da, birin-sirin qo‘lni dasturxon chetiga artishdilar...

Shundan birar soat keyin Otabek qaytib Zaynab tomondan qarshi olindi. Ust to‘nini yeshib Zaynabka bergandan so‘ng, qaysi uyga kirish to‘g‘risida havli yuzasida bir oz taradudlanib qoldi. Tevaragida g‘ildirlab yurgan Zaynabning uyiga kiraberish uchun Kumushning mulohazasini qilar, Kumushning oldig‘a kirmak uchun Zaynabni o‘ylar edi. Kumush uyda ko‘rinmadi, shunga ko‘ra «uxlag‘andir», deb o‘ylab Zaynab bilan kirdi. Zaynab oyog‘i olti, qo‘li yetti bo‘lg‘an holda erini to‘rt qavat ko‘rpacha ustiga o‘tquzib, yoniga uchta par yostiqni uydi. Erining mahsisini artishka ko‘maklashib, yelpib qo‘ymoq uchun izn so‘radi. Otabek uzr aytib bunchalik mehribonchiliq ma’nosidan cho‘chib qo‘ydi. Otda kelgan bo‘lsa ham kunning issig‘lig‘idan bir piyola choyga muhtoj edi. Choy so‘zi og‘zidan chiqmasdanoq Zaynab o‘choq boshig‘a yugurib ketdi. Uning keti bilan Kumushning uyiga qaradi. Eshik va darichalar ochiq bo‘lsalar ham uyda birav ko‘rinmadi.

Kumush kelgandan beri Otabek kun sayin o‘zini siqiqroq bir doiraga kirib borg‘anlig‘ini sezar edi. Adimini sanab bosish, bir cho‘qib sakkiz yoqqa qarash kabi ehtiyotlarga ta’limotsizoq o‘rganib qolg‘an, buning ustiga bir xil o‘ngg‘aysizlig‘i ham yo‘q emas edi... Uning o‘tkan kunlari, ya’ni Kumushka Marg‘ilonda qiladirg‘an muomala va aloqasi Zaynabka qorong‘i, shu qorong‘iliqdan foydalanib Zaynab bilan muomalasi o‘zi tilagancha. Ammo endi o‘sha holatni davom etdirish mumkin emas edi. Kumushka kulib qarasa, Zaynabka ham shundog‘ qilmoqqa, unga qandog‘ muomala qilsa, bunga ham shundog‘ qilishg‘a majbur edi. Biroq buning birinchisi

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
yurakdan, ikkinchisi... Birinchisini tavsif qilib ko‘rsatish nuchukkim, biz shu o‘ringacha ko‘b qog‘ozlarni qoralab kelamiz, o‘qug‘uchini ham zeriktirmay orqamizdan ergashdirgandek bo‘lamiz, chunki Otabek va Kumush ishqlarida samimiyat, yana to‘g‘risi she’riyat bor edi. Ikkinchi masala ustiga o‘tib tahlil qilmoqchi bo‘lsaq, Otabekda majburiyatdan boshqa hech gap topolmaymiz, topgan bilan o‘qug‘uchig‘a qiziqarliq bir narsa chiqmaydir. Qahramonimizning hozirgi «majburiyati» sabablarini muhtaram o‘qug‘uchilar yaxshi his etsalar ham yana biz bir daraja o‘z tomonimizdan ularni sanab ko‘rsatamiz:

Din adolatka buyuradir va ota-onaning hurmatlari ko‘ndalang, majburiyatning eng kuchligi ham nozigi — mundan bir necha hafta ilgari Zaynab avval martaba yurak dardini ko‘z yoshlari ichida ochib berdi. Hammadan ham mana shu keyingisi Otabekni siqib tashlag‘an edi. Bu dard ayniqsa Otabekka uch yildan beri sinashta, ul bu dardning achchig‘-chuchugini uch yil bo‘yi totib kelar va shuning uchun ham boyag‘i og‘irliqni o‘z ustiga olmoqqa majbur edi...

Zaynab unga ikki piyola choyni ichirgandan so‘ng so‘radi:

— Sizni kech qaytarsiz, deb osh qoldirmag‘an edik, sovug‘roq bo‘lsa ham ozroq olib qo‘yg‘an edim... yesangiz?

Otabek ochiqib kelgan edi, «mayli, bering», dedi. Boyagi gap bilan yeyilmagan lag‘mon Otabekning oldig‘a keldi. Ustidagi qiymasi bilan laganning buzilmag‘anini ko‘rib Otabek so‘radi:

— O‘zlaring yemadinglarmi?

— Yedik. Kumush opa ham shu yerda edilar... Lag‘monni uncha xushlamas ekanlar, shekillik, yaxshi yemadilar... U kishi yemaganlaridan keyin men ham yeb o‘lturg‘ali iymandim...

— Yemagan bo‘lsangiz, siz ham olishing, — dedi bek.

Zaynab eridan iymanmay birgalashdi.

Xo‘rak orasi Otabek Zaynabdan so‘rab, Kumushning uxlab yotqanini bildi. Tomoqdan keyin Otabek ham bir oz uxlab olish uchun yotdi. Ko‘zi uyqug‘a borg‘ach, faqat shuni kutib o‘lturgan Zaynab qo‘lida yelpug‘ichi bilan yostiq yoniga keldi. Eri juda uxlab ketkandan so‘ng yelpiy boshladi... Yelpir ekan, Zaynabning ko‘zi Kumushning uyida edi...

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Zaynab o‘zining bu tasodufiy muvaffaqiyatini kundash nazaridan o‘tkuzib olmoqchi va boyag‘i da’vosini bir daraja amalda ham ko‘rsatmakchi edi.

Zaynab shu holda uzoq fursat erini yelpidi va natijada ma’lum ko‘rukni odatdan tashqari bir muvaffaqiyat ichida kundash nazaridan o‘tkazdi: nima yumish bilandir uydan chiqg‘an Kumush Otabekning yostig‘i yonida qo‘lig‘a yelpug‘ich ushlagan Zaynabka ko‘z qirini tashlab o‘tdi.

Birar soatdan keyin Otabek uyg‘ondi. Zaynab ham kundash yuragini un qilg‘uchi yel tegirmonini to‘xtatmoqqa majbur bo‘ldi.

Otabek uyga kirganda yostiq betini tartibsiz soch o‘rimlari bilan chulg‘atib Kumush uxlar edi. Otabek bir necha daqiqa uning uyquliq holatiga termulib qoldi va unga rohatsizlik bermas uchun sekingina orqasig‘a qaytdi. Uy eshigidan chiqar chog‘ida yana bir qarab oldi... Endi uyquliq ko‘z ochilg‘an edi.

— Tinch uxlay bering, men ketaman.

Kumush ko‘z yumish o‘rniga yostiqdan boshini uzdi va yerga tushkan ro‘ymolini o‘rab, o‘lturdi. Uning ko‘zi uyqudan qolg‘an kishilarning ko‘zidek qizarg‘an edi. Otabek qaytib kirdi.

— Nega qo‘zg‘aldingiz, uxlang, — dedi. Kumush javob bermadi, qovog‘i solig‘ edi. — Ko‘zingiz qizarib ketipti, uxlay olmadingizmi?

— Tobim yo‘q...

— Xudoy saqlasin, — dedi bek va Kumush yonig‘a o‘ltirdi, — qayeringiz og‘riydir?

— Bilmayman, — dedi. Ko‘zi tokchadag‘i allanarsalarda edi.

Otabek bu ters javobni hazil fahmlab kuldi va Kumushning manglayig‘a qo‘lini tegizdi:

— Nega bilmaysiz?

— Qo‘lingizni oling.

— Nega olay?

— Mendan hazar lozim...

— Sizdan hazar qilmayman...

Kumushning ko‘zida bir turlik g‘iltillash bor edi:

— Zaynabdan-chi? — deb so‘radi.

Otabek daf’atan javob beralmay havli tomong‘a qarab qo‘ydi:

— Buni... mendan ham siz yaxshi bilasiz.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Otabekning alang‘lab javob berishi Zaynabning boyag‘i da’vosini chinga chiqarg‘andek bo‘lib, Kumush juda ham to‘nini teskari kiydi va yuzini chetka burdi:

— Yalhaqlikni[1] qo‘ying.

Otabek bu holga tushunolmay, Kumushning ko‘ziga jiq to‘lg‘an yosh yana uni shoshirib qo‘ydi. Shundog‘ ham bo‘lsa kulimsirab:

— Uyqudan so‘l yoningiz bilan turibsiz, — dedi.

— Chunki manim o‘ng yonim bilan turg‘uzadigan kishim yo‘q...

— Adovat shuning uchunmi hali? — dedi bek va kulib yubordi.

Kumush ko‘z yoshisini artdi:

— Ha, shuning uchun.

— Shuning uchun bo‘lsa arzimaydi...

Kumush ko‘tarilib ketdi:

— Ikki yuzlamalig‘ingiz va til tegida til saqlag‘aningiz ham arzimaydimi?

— Tushunmay yotibman...

— Albatta tushunmaysiz va tushunishni ham tilamaysiz.

Ul Kumushdan munday ters gaplarni umrida birinchi martaba eshitar edi. Bir onda necha xil ehtimollarni o‘ylab chiqdi:

— Zaynab sizga bir narsa dedimi?

— Dedi, «Sensiz turolmayman» deb aytkan so‘zlaringizni ham dedi.

Unga nima bo‘lsa ham ikki kundash o‘rtasidan ancha gaplar o‘tkani bir daraja ma’lum bo‘lib, Zaynabning yolg‘on-yashiq gaplar bilan Kumush yuragiga o‘t yoqqanini payqadi. Ammo boyag‘i yarim jiddiy vaziyatini buzmay so‘radi.

— Zaynabning so‘ziga siz ishondingiz?

— Ishonmaydirg‘an gapmi?

— Yaxshi, men unga shunday deb aytkan ham bo‘layin, lekin shunda ham sizning xafalanishingiz menga qiziq tuyuladir. Ayniqsa sizdan bu gap...

Kumush indamadi. Otabek uning orqa sochidan tutib sekingina yerga bosdi:

— Qani gapuring-chi menga, orangizdan bir gap o‘tdimi, — deb so‘radi.

---

[1] Yalhaqlik — ikki yuzlamalik.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Ha o‘tdi, — dedi Kumush va chetka qarab kulimsiradi.

— O‘n besh kun bo‘lmasdan?

— Mendan boshqa xotin bo‘lsa Zaynabingiz bilan birinchi kundanoq arazlashar edi...

— Xudo xayringizni bersin...

— Kesatmang.

— Kesatmasam gapuring.

Kumushning raqobat o‘ti bir oz o‘cha tushkan edi, uch-to‘rt kunlik mojarodan yaxshig‘ina hasrat ochildi. Otabek hasratni yarim jiddiy tinglab bordi. Zaynabning keyingi so‘zi va so‘nggi yelpitish foji’alari ham hasrat qolipig‘a birma-bir kirib chiqdi. Hasrat tugalgandan so‘ng Otabekning yuzidagi boyag‘i yarim jiddiylik ketib, uning o‘rnini o‘ychanliq oldi. Ul shu holatda anchagina so‘zsiz qoldi va oxirda o‘zini natija kutib o‘lturg‘uchi Kumushka qarab kulib qo‘ydi.

— Nega kulasiz?

— Chunki yig‘lamoqqa arzimaydir.

Kumushning qoshlari chimirildi:

— Zaynabingizning bu qilig‘iga men chidalmayman.

— Chidash va chidamasni hozircha bir tarafka qo‘yib turayliq, — dedi Otabek, — ammo hammadan ilgari sizdan so‘rayman: menga ishonchingiz bormi?

— Bor, ham yo‘q, — dedi Kumush va kulimsirab bir oz o‘ylanib oldi, — Zaynabning haligidek gaplari kishini shubhaga solar ekan...

— Ammo sizni shubhadan chiqaraturg‘an hujjatlaringiz albatta yo‘q emas edi.

Kumush uyalg‘annamo yuzini chetka burdi, Otabek tovshini sekinlatib davom etdi:

— O‘tkan kun sizdan «Toshkandda qolasizmi, yo‘qmi?» deb so‘rag‘anim ham faqat shunga o‘xshash gaplar bilan siz xafalanmang, deb aytilgan edi. Agarda siz siqilar ekansiz, hali ham Toshkandda qolmasligingiz menga ma’qul ko‘rinadir. Chunki men sizni shuning singari o‘rinsiz ozor chekishingizni xohlamayman.

— Siz quvlamasangiz, men Marg‘ilong‘a bormayman.

Otabek kuldi.

— Agar siz shunga o‘xshash arzimagan gaplar uchun manim ustimga hujum qilabersangiz, albatta quvlayman.

Kumush bir xil o‘pkalangan boqishda:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Sizga ishonsam bo‘ladimi? — deb so‘radi.

— Yuragingizdan so‘rang.

— Yuragim... Yuragim ishonma, deydi.

— Bo‘lmasa bu yurak so‘zi emas.

— Albatta yurak so‘zi.

— Yuragingizning ishonma, deyishka birar vaji bordir?

— Bor.

— Bo‘lsa ayting.

— Yuragim: quvlanishg‘a kim sazovor, deb sizdan so‘raydi... Siz o‘z yuragingizdan olib javob bering.

Otabek maqsadga tushundi, daf’atan javob berishka hayron bo‘lib qoldi. Darhaqiqat, Kumush eng nozik joydan ushlag‘an edi.

Kumush Otabekdan javob kutib o‘lturmay yana dedi:

— Boshqalar yuragini sinab ko‘rishka qudratim yetmasa ham manim yuragim ikki narsani o‘z ichiga sig‘dira olmaydir...

— Sening yuraging ikki narsani o‘z ichiga sig‘diradir, demakchisiz.

— Demakchi emasman, — dedi Kumush, — chunki hech vaqt bo‘ladirg‘an gap emas...

Kumush hamon yuqorida aytilgan bir ma’nonigina ifoda qilmoqchi bo‘lar edi. Ammo Otabek Kumushning to‘sindan o‘zgarib ketkan xarakter qat’iyatiga va bir kundayoq, bunchalik masofani o‘tkan keskinlikka juda taajjubda, qarshisidag‘ining suratida emas, siyratida[1] qiziq bir o‘zgarish ko‘rar edi.

— Maqsadingizga yaxshi tushunaman, — dedi oxirda,— har jihatdan qaralg‘anda ham siz bu to‘g‘rida haqlisiz. Ammo o‘shang‘acha... balki buni o‘zingiz his etarsiz, deb o‘ylayman...

Kumush indamay qo‘ydi. Ehtimolki, ul keyingi masala to‘g‘risida erining fikrini bilib qo‘ymoqchi edi...

13. ESON BO‘LSAQ KO‘RISHARMIZ

Toshkandga kelishning yigirmanchi kunidan qutidor Marg‘ilong‘a qaytish fikriga tushdi. Hoji va Otabeklar yana bir necha hafta qolishg‘a qistasalar ham, bo‘lmay uzr aytdi: «Uy yolg‘iz, faqat To‘ybeka bilan Oysha ona;

[1] S i y r a t — ichki holat.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

hollari nima kechti, nima qo‘ydi ma’lum emas. Boshqa tarafdan o‘zimning savdo ishlarim ham o‘lda-jo‘lda, shunchalik mehmon bo‘ldiq. Bas, qilg‘an izzat va ikromlaringiz uchun rahmat», dedi. Hojining: «Endi kelin bolani yubormaymiz-da», deb kulishiga — «Manim bolam emas — sizniki, u yer ham bu yer ham o‘zining uyi, janobingiz nimani muvofiq ko‘rsalar, menga ham ma’quli o‘sha», dedi. Hoji birmuncha gap aylantirib, «O‘rtadan anovi gaplar o‘tmagan bo‘lsa edi, albatta bu yerda olib qolmas, zeroki, sizning bag‘ringizni bo‘sh qo‘yish insofdan bo‘lmas edi. Agar sizga og‘ir tushmasa yurtdagi gap-so‘z bosilg‘uncha birar yil Toshkandda tursin, so‘ngra Marg‘ilon borsin, derdim», dedi. Qutidorg‘a ham bu mulohaza juda ma’qul tushib «bu mulohazalari beandoza to‘g‘ri, albatta munda birar yil turishi lozim va lobid!» deb javob berdi.

Kumushning Toshkandda qolishig‘a otasi shunday yovosh qaradi, bu to‘g‘rida Oftob oyimning fikr va rizolig‘i bilan hisoblashish emas, hatto uni ko‘ngliga ham kelturib ko‘rmadi. Holbuki Marg‘ilondan chiqishda Oftob oyimning «Kumushni Toshkandda qoldirmaysiz!» deb qo‘yg‘an birinchi shartiga qayta-qayta qo‘l qo‘yg‘uchi shu qutidor edi. So‘zni cho‘zmoqqa hojat yo‘q: erlarimizning Oftob oyimlarg‘a qarashi hamisha shundan boshqa emas.

Qaytish xabari Oftob oyim qulog‘ig‘a yetishkandan keyin uning avvalg‘i uchrashishi qizi bilan edi. Chunki eriga qarag‘anda ham ko‘broq ixtiyorni qizida bo‘lg‘anini yaxshi bilar edi.

Shu xabarni Hasanalidan eshitishi ila to‘g‘ri Kumushning yonig‘a kirdi:

— Kumush, — dedi kulimsirab, — qaytar emishmiz, dadang aytibtilar.

Kumush qo‘lida nimadir tikib o‘lturg‘an edi. Ko‘zini ishdan olmadi:

— Qaytsalaringiz, xayr-xo‘sh.

Bechora ona qizining louboli[1] bu gapidan bo‘shashib ketdi va ne zaylda o‘lturib olg‘anini bilmadi:

— Nima deysan?

Kumush iljayib onasig‘a qarab qo‘ydi, yana ishini tika berdi:

---

[1] L o u b o l i — beparvo, beg‘am.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Ketsalaringiz xayr-xo‘sh.

— Sen-chi?

— Men qolaman.

Oftob oyim tushunolmay qizig‘a bir necha vaqt tikilib turdi. Kumush unga qaramay nina sanchar edi.

— Hazilingni qo‘y.

— Hazilim emas — chinim.

— Uyat emasmi?

Kumush kuldi:

— Nega uyat bo‘lsin?

— Qo‘y-chi!

— Qolsam o‘z erimniki, — dedi Kumush, — begona emaski uyat bo‘lsa...

Oftob oyim o‘t ichida qolg‘andek toblandi:

— Birav qol, demasa ham qolaberasanmi?

Kumush ishini yonig‘a qo‘yib endi onasig‘a qaradi:

— Avvalo bu yerda qolishimg‘a sizdan boshqa hech bir qarshi kishi yo‘q. Zaynab sizning yoningizg‘a o‘tsa ham, biroq uning xohishini menga ahamiyati yo‘q.

— Esing o‘zingdami, bola?

— O‘zimda, — dedi kulib, — man sizning qizingiz Kumush... Hozir Toshkandda o‘z erimnikida o‘lturibman...

— Erim, deb tuqqan onangdan kechasanmi, yuzsiz?

— Yo‘q, kechmayman, faqat bir necha vaqt sog‘inibqina yuraman.

Oftob oyim qizining bu gapini eshitib yig‘lab yubordi:

— Onangning o‘sha sog‘inishqa toqati yo‘q, — dedi, — man sani kundashlik uyga ishonmayman...

— Kundashim bitta bo‘lsa, do‘stlarim sakkizta.

Oftob oyim ko‘z yoshisini artdi:

— Kundash bilan hazil o‘ynama, qizim.

Kumush go‘yo Zaynab ustiga hujum yasayturg‘andek hurpaydi:

— Ul kundash bo‘lg‘anda men kundash emasmi?

— Ming qilg‘anda ham, — dedi onasi, — sen chin kundash bo‘lolmaysan.

— Nimaga?

— Nimagaki ering sen tarafda, chin kundashlik va chin dushmanlik Zaynab tarafda.

Kumush kulimsirab onasining qulog‘ig‘a shivirladi:

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Bu to‘g‘rida xotirjam’ bo‘ling.

— Nima uchun xotirjam’ bo‘lay?

— Agar Zaynab manga kundashlik qilabersa, kuyavingiz uning javobini bermakchi... Shuning uchun ham manim bu yerda qolishim ma’qul.

— Javobini bersa, qaytib kelishlik qochmas...

— Man ketsam, — dedi Kumush, — hech qachon Zaynabka javob bermaydir.

— Nega bermaydir?

— Shuning uchunki qudachangiz kelinsiz qolaman deb orag‘a tushadir, ammo men shu yerda bo‘lsam, albatta tiliga kaltak keladir.

Oftob oyim hamon oyog‘ uzatmadi, qizig‘a yalinib ko‘rdi:

— Yosh joning bor, qizim, — dedi, — biravga yomonliq sog‘inma, man bilan birga ket, nima qilishsa o‘zluk-o‘zi qilishsin... Zaynab ham umid bilan bir yostiqqa bosh qo‘yg‘an.

— Siz tushunmay yotibsiz, — dedi Kumush va eshikdan oyog‘ tovshini sezib gapni shu yerda to‘xtatdi. O‘zbek oyim so‘zlanib kirdi:

— Nega muncha shoshmoq, yov quvladimi, aqalli bir oy bo‘lsin... Marg‘ilon degan yurtdan ot-otlab, tuya qo‘mlab[1] kel emish-da bir oyg‘ina turmay ket emish! — Oftob oyim bilan Kumush uning hurmatiga o‘rinlaridan turdilar. O‘zbek oyim o‘ltura-o‘ltura so‘radi. — Hali eshitdinglarmi?

Eshitdik, — dedi Oftob oyim biz ham shuning mojarosida edik.

— Axir shu ham gapmi, xudda allakimlarga o‘xshab.

Oftob oyim uzr aytdi:

— Uyimiz yolg‘iz, shunchalik sizlarni ozor chekdirdik... Begona kishinikida ham yigirma kun turayliq-chi... Xudda o‘z uyimizdek yayrab-yashnadiq, sharofatlaringiz soyasida ko‘b kishilar bilan tanishdiq, izzat-ikromlaringiz ta’rifidan ojizmiz... Endi navbat sizlarning ham bizning shaharlarga borishlaringizg‘a keldi.

— Bekor gap, — dedi O‘zbek oyim, — hali qudalarimizni muddaodagidek siylay olg‘animiz yo‘q, shu holda jo‘natsaq bizning sha’nimizga yaxshi emas...

---

[1] Q o‘ m — tuyaning egari.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
Men qudamning oldig'a chiqaman, bizga nomus keltirmakchi bo'lsa ertaga jo'naybersin.

Oftob oyim takror uzr aytdi:

— Bizni uyaltirmoqchi bo'lsangiz mayli, chiqing, agar xursandligimizga qarasangiz, qo'ying. Kumushingiz ham; shuncha turg'animiz bas, endi Zaynabni olib oyimning o'zlari biznikiga borsinlar, deydi...

Ketish orasig'a Kumush ham kelturilib siqilg'ach O'zbek oyimning haligi odamgarchiliklari keyingi navbatka qoldi.

— Hali Kumush ham ketmakchimi?

Kumush kulimsirab onasig'a qaradi. Oftob oyim uzr aytdi:

— Shukur, sizning oldingizda Zaynabnisa bor. Manim bo'lsa qanot-quyrug'im shu Kumush. Ayniqsa, Kumushingizga javob bermasangiz bo'lmas, oyi.

O'zbek oyim Kumushka xo'mrayib oldi:

— Yo'q-yo'q Oftobbonu, — dedi, — sizlarga javob bersam-da, Kumushka yo'q.

— Shu galcha javob berasiz, men sizdan so'rayman.

— So'zingiz yerda qoladir, buv Oftob, bir oz andisha ham lozim, — dedi va Kumushka yuzini o'girdi, — uyat emasmi, kelin? Kecha kelding surilib, bu kun ketkin burilib.

— Menda ixtiyor yo'q, oyijon, — dedi Kumush, — sizlar nimani ma'qul ko'rsalaringiz menga baribir.

O'zbek oyim boshi bilan keliniga rizoliq bildirib «barakalla» deb qo'ydi. Oftob oyim qizig'a o'qrayinqirab yer tegidan qaradi:

— Albatta Kumush nima ham desin? — dedi, Kumushning ham haligidek qololmaslig'a faqat meni ko'zi qiymag'ani uchun... bo'lmasa albatta ketmas edi.

O'zbek oyim bir gapdan toymay: «Ketish uyat, Otabek, uch yil qatnag'anda qizingiz bir yilgina Toshkandda tursa nima qipti...» kabi so'zlarni o'zgarishsiz bir maqomda aytilib turg'andan keyin Oftob oyim boshqa yo'l tutmoqchi bo'lib, Kumushni uydan chiqib turishka buyurdi. Kumush chiqg'andan so'ng:

— Qizini menga qoldirishg'a ayadi demang, oyi, — deb qo'ydi, — munda boshqa mulohazalar ham yo'q emas...

— Ayting.

— Aytsam shuki, — dedi bechora ona, —

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kumushingizning fe'li xo'yi o'zimga ma'lum: erka o'skan, lavzi tez, kundashlikka chidaydirgan siyoqi yo'q, har kun Zaynabingiz bilan g'idi-bidi qilaberib sizni qiynab qo'yarmikin deyman... Bir kuni kelganda onasi qurg'ur bir og'iz aytmagan edi, deb mendan ranjirmikinsiz deyman... Tana buzoqning turqi tuqg'anig'a tamg'a deganlaridek, albatta menga ravshan... arazchi desangiz ham shu, ichi qoraliq desangiz ham shunda...

Shuncha to'qumadan O'zbek oyimning yuzida hech bir o'zgarish sezilmadi:

— Albatta unaqa gap har kimda ham bo'ladi, — dedi,— shukur, men bilan hoji otangiz tirik bo'lsaq, undog' gaplarga yo'l qo'ymaymiz. Zaynab bo'lsa xudoning yaratkan maxluqi; urish va araz degan gapni bilmaydir.

— Zaynabingizning fe'li albatta sizga ma'lum ekan, ammo men Kumushni sizga yaxshi, deb aytalmayman.

— O'z bolasini yomonlag'uchini, — dedi kulib O'zbek oyim, — men o'z umrimda birinchi martaba ko'rdim... Undan ko'ra bolamni senga ishonmayman, deb ayting.

— Nega ishonmayin, faqat qozonimdag'ini sizg'a suzib qo'ydim...

— Nima bo'lg'anda ham Kumushka javob yo'q.

— Xo'b qolsin, — dedi Oftob oyim, joni kuyib asabiylashkan edi, — Kumushdan har na yomonliq ko'rsangiz mendan o'pka qilmang.

— Qizingizg'a yomonliqni o'zingiz o'rgatib ketmasangiz sizdan o'pkam yo'q.

Ikki quda havli yuzasiga tushkanda Kumush sahn bo'ylab yurinib turar edi. Ular Zaynabning uyiga to'g'ri kirdilar. Zaynab ularni qarshilab o'tqazdi va achinish ohangida Oftob oyimg'a dedi:

— Qaytar emishsizlar, deb eshitdim. Birar oy ham turmas ekansizlar-da.

— Ancha turdik aylanay, buv Zaynab, — dedi Oftob oyim, — endi navbat sizlarning borishlaringizg'a qoldi.

Uchunchi so'zni O'zbek oyim oldi:

— Shuncha aytdim — bo'lmadi, yov quvlaptimi bilmadim. Oppoq oyingga qolsa, Kumush opangni ham birg'a olib ketmakchi.

Zaynab bir turluk holga tushdi. Kuchlangandek qilib:

— Ular nega ketsinlar! — dedi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Oftob oyim qudasig'a qarab qo'ydi:

— Ketmasa bo'lmaydir, buv Zaynab. Bir chekkasi sizning es-hushingiz joyida, manim Kumush opangizdan boshqa hech kimim yo'q, qolsa-ku mayli, biroq meni Kumushsiz o'ldi, deng. Shunga qolg'anda qayin onangiz bir oz tushunmay turiptilar.

Zaynab yer ostidan qayin onasig'a ko'z yubordi. O'zbek oyim hanuz tirtishib yotqan qudasig'a qarshi qizishdi:

— Qo'ying-chi, — dedi, — besh-olti kun qizsiz turg'an kishi bir narsa bo'ptimi?!

— Siz tushunmayapsiz oyi... hali tag'in dadasi biladilar.

— Men senga aytay, Zaynab, — dedi O'zbek oyim va endi qudasining gapiga quloq solmay qo'ydi, — oppoq oyingning hamma mulohazasi sendanga o'xshaydi. Zaynab siqilmasmikin, ikki o'rtag'a sovuqchiliq oralamasmikin, deb qo'rqadi. Men: Zaynab siz o'ylag'an kelinlardan emas, tegu taxtlik, aslzoda, Kumushni siylamag'anda ham bizni siylaydi, — desam ham unamaydi...

— Meni xudo uriptimi, — dedi Zaynab.

Oftob oyim qudasining keyingi gapidan ancha siqildi. Go'yo o'zi Kumushni qoldirishg'a tarafdor bo'lsa ham, faqat Zaynabning kundashlik qilishidan qo'rqib turg'andek ko'rsatilgan edi.

— Yanglishyapsiz, oyi.

— Yanglishsam, yanglishmasam Kumush bu uydan siljimaydir.

Oftob oyim bo'g'ilib, foydasiz tortishib o'lturishni tark qildi. Endi bu to'g'rida eriga murojaat qilmoqchi edi...

Marg'ilong'acha aravani Hasanali minadirgan bo'ldi. Chunki Marg'ilondan arava minib kelguchi yollanilg'an kishi bo'lib, Toshkandga kelishning ertasi kuni hisobini olg'an edi. Qudalarning qaytishi chinga aylangandan keyin, yo'l taraddudi boshlandi. O'zbek oyim bo'g'irsoq qovirtirish, talqon tuydirish, to'qoch yopdirish bilan mashg'ul bo'ldi.

Oftob oyim eridan ham qo'lini yuvib qo'ltug'ig'a urgan edi. «Hoji afandi birar yil tursin, deb aytdi. Endi bir yilni o'zimizcha ko'rmasak bo'lmas. Ikki oyog'imizni bir etukka tiqishimiz uyatka o'xshaydir» deyishi va so'zga quloq ham solmay — «mehmonxonada hoji bor,

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

sen bilan yo'lakda ezilishib o'lturolmayman, nomus!» deb burilib ketishi bechorani juda ham esankiratib tashladi. Oxirda Otabekka ham murojaat qilib ko'rdi. Undan ham asli maqsadni hosil qilolmay, faqat ularnikidan jo'yalikroq uzr eshitdi. Otabek qayin onasining fikriga qisman qo'shilib «Nima bo'lsa ham besh-o'n kun og'irliqni manim uchun o'z ustingizga olasiz. Agar men sizning talabingizni ma'qul qiladirg'an bo'lsam, ayniqsa qizingizning ko'ngliga shubha keladir... Sizga aytkulugi yo'q, bu to'g'rig'a manim aralashmog'im yaxshi bo'lmas. Kundash adovati borasidagi fikrlaringiz to'g'ri va lekin ish u darajalarga yetmas, deb o'ylayman... Juda bo'lmaganda Kumushning o'zini oldingizg'a jo'natarman, xotirjam bo'ling!» dedi.

Oftob oyim shu yo'sun har tarafdan ham umidsizlanib, mengravsib qoldi. Kumushni ko'rgan sayin allanuchka yuragi achir, judoliq kunlarini aslo tasavvur qilolmas edi. Kumush bo'lsa, onasining hozirgi holiga aching'andek, unga yaqinlashmay, chetlab yurar va ikkinchi tarafdan Zaynabning bir yarim qarich osilib ketkan qovoq-dudog'ig'a istehzolanib tomosha qilar edi.

Yo'l hozirliklari bitib, O'zbek oyimning Oysha kampirga atab tikdirgan sarupolari ham bitdi. Bu kun mehmonlarning eng so'nggi kechalari edi. O'zbek oyim yarim kechalargacha qudachasi bilan so'zlashib o'lturdi.

So'ngra Oftob oyim bilan Kumushni yolg'iz qoldirib o'z uyiga yotqali chiqdi. Ona-bola bu kechani birga kechirmakchi edilar. Oftob oyim qudasining ketidan qizig'a hayfsinib[1] qo'ydi.

— Onangni firoq o'tida yondirishdan uyalmading, qizim.

— Nega yonar ekansiz...

— Nega yonmayin axir, dunyog'a kelib sendan boshqa ovinchog'im bo'lmasa... Agar qo'limdan kelsa achib va yonib turg'an yuragimni senga ochib ko'rsatar edim... Koshki edi bir shaharginada bo'lsang.

Kumush onasining yuragidagi o'tni hozir sinamasdan ham his etkan, chunki yigirma yil o'z quchog'ida o'sdirg'an onadan ajralish uning o'ziga ham og'ir tuyulib boshlag'an edi.

— Besh-olti oy... hech narsa bo'lmas, oyi. Eson bo'lsaq tag'in ko'risharmiz.

[1] H a y f s i n m o q — achinmoq, afsuslanmoq.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Oftob oyim ko‘z yoshisini duv to‘kib yubordi. Nachog‘lik o‘zini qattig‘ ushlagan Kumush ham sirrini yashirolmadi... Ona-bola bir necha vaqt yig‘i ichida bo‘g‘ildilar.

— Qolishg‘a-qolding, — dedi oxirda ona, — ammo qayin ota va qayin onalaringg‘a xizmat qil, yaxshiliqni qo‘lingdan berma, ayniqsa, kundashingga yomonliq sog‘inma, yaxshiliqdir, yomonliqdir har nimaiki o‘zlari qilsinlar, zinhor sen aralashma.

— Manim nima ishim bor...

— Albatta ishing bo‘lmas... Shundog‘ bo‘lsa ham men kechagi so‘zingdan cho‘chib qoldim. Kundashingning ko‘rinishi bayovg‘a o‘xshasa ham, ammo o‘zi pismiq ekan... Bunday odamdan albatta hazar kerak. Agar oralaringg‘a savuqchiliq tushadirg‘an bo‘lsa, sen o‘chakishib yurma, yaxshisi qayin otangg‘a uzringni aytib, bu uydan ketish harakatini qil. Men bu to‘g‘rida ering bilan ham so‘zlashib qo‘ydim, tuzikmi?

— Tuzik.

— Xudoyg‘a shukr, qo‘lingda xating bor, o‘lg‘anning ustiga chiqib tepkandek xat-xabarsiz qo‘yma. Har bir o‘n besh kunda xat yozib eringga ber.

— Albatta, siz ham unutmang.

Bir oz jim qoldilar... Oftob oyim entikib og‘ir nafas oldi va ma’yusona Kumushka qaradi. Kumush o‘rinsizcha onasig‘a qarab iljaydi. Bu o‘rinsiz ishdan Oftob oyim achchig‘landi:

— Manim holim senga kulgimi, qizim?

— Yo‘q, — deb yana kulimsiradi Kumush, — bir-ikki kundan beri siz aytadirgan...

— Nima men aytadirgan?

— Axir... — deb qizarindi Kumush, — ko‘nglim aynar edi, deb aytar edingiz-ku...

Oftob oyimning ham yuzida bir kulimsirash ko‘rishdi:

— To‘g‘rimi?

— Bilmadim... — dedi, yerga qarab qizardi, — o‘tkan kundan beri ko‘nglim aynagandek bo‘ladi... Ayniqsa palov isidan ko‘nglim ketadi... Achchig‘ narsalar yegim keladi...

— Muborak bo‘lsin, — dedi Oftob oyim, kuldi. Kumush ijirg‘anib o‘zicha allanarsa so‘zlandi. Oftob oyim engashib Kumushning qulog‘ig‘a shivirladi, — bu

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
sirni eringdan boshqa hech kimga bildirma, qayin onang ham yengil xotin, ayniqsa kundashing seza ko'rmasin.

Kumush ma'qul ishorasini berdi. Ona-bola bir o'rin yozib yotdilar. Ko'b vaqtkacha Oftob oyimning ivir-shiviri nabira to'g'risida bo'lib qoldi. Ko'ziga uyqu kelmay «shuni ham ko'rar kun bo'larmikin?» deb edi.

Sahar paytida turib choy ichdilar. Subh namozini o'qub, arava qo'shildi. Aravaga chiqadirg'an maydachuyda tashilib bitdi. Ot jilovida Hasanali, arava yonida qutidor va hoji so'zlashib turar edilar. Otabek arava orqasig'a narvoncha chiqarib qo'ydi. Xotin-xalaj hamma yo'lakka yig'ilib, Oftob oyim birin-birin kuzatkuchi xotinlar bilan ko'rishib chiqdi. Eng so'ng Kumushni bag'rig'a bosib yig'lab yubordi. Kumush ham o'zini tutib turolmadi. Boshqalar ham yig'idan nasibasiz qolmadilar.

— Xudoyg'a topshirdim, Kumush, qazom yetib ko'ralmay o'lsam, mandan rozi bo'l!

— Siz ham, oyi!..

Qutidor ham ko'chadan yo'lakka kirib qizining manglayidan o'pdi:

— Ko'rishkuncha, qizim.

— Xayr, otajon.

Yo'lakka Yusufbek hoji yuzlanib umumiy duog'a qo'l ko'tarildi. Duodan so'ng Otabek to'riq yo'rg'ani chiqarib qutidorg'a tutdi. Oftob oyim yana bir qayta qizi bilan quchog'lashg'ach, Otabekning ko'magi bilan yig'lag'an ko'yi narvonchadan aravaga mindi va soyabon orqaliq olding'a o'tdi. Qutidor Yusufbek hoji bilan salomlashib quchoqlashg'andan keyin Otabekning qo'ltig'lashi bilan otqa mindi. Otabek ham aravaga, Oftob oyim yonig'a chiqib o'lturgach, umumiy «Ollohu akbar!» dan so'ng Hasanali otni yo'lg'a soldi.

Kumush darboza yonig'a chiqg'an edi:

— Xayr onajon! Manim uchun buvimni quchog'lab qo'ying. O'rtoqlarimg'a salom ayting!

— Xudoyg'a topshirdim, Kumush, yaxshi qoling, quda!

— Yaxshi boring, buv Oftob!

— Yaxshi qoling, buv Zaynab!

— Yaxshi boring, opoq oyi!

Arava ko'chadan burilg'uncha «yaxshi qoling, yaxshi boring, salom ayting» so'zlari takrorlanib turdi. Arava katta ko'chadan burilib, ko'zdan yo'qolg'ach, eng keyin-

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
da qolib yig'lag'an ko'yi Kumush ichkariga kirdi. Otabek bir necha bekatkacha mehmonlarni kuzatib borib, so'ngra qaytmoqchi edi.

14. XUSHRO'YBIBI VA ZAYNAB

Xushro'ybibi Zaynabning egachisidir. Mohirabonudan ikki o'g'ul va ikki qiz dunyog'a kelib, to'ng'uchi Azimbek, undan keyingisi Xushro'y (yoshlig'ida Xushro'y o'rniga Xushra der edilar), uchunchisi Karimbek va to'rtinchisi bizning Zaynab edi. Zaynab egachisi Xushro'ydan yetti yosh chamasi kichik edi. Garchi bu ikki egachi-singil bir qorindan talashib tushkan bo'lsalar ham, sajiya — xarakterda tanib bo'lmasliq darajada bir-birlaridan farqlik edilar. Sajiyadagina emas, surat va siymo vajida ham katta o'zgaliklari bor edi.

Xushro'y uzun bo'ylik, qotmaroq va zarcha tanlik edi. Zaynab qisqa bo'y, go'shtdor va oq tanlik edi. Xushro'yning harakati yengil va lavzi tez edi. Zaynab loppos va o'nta so'zga arang bitta javob qaytaradirg'an edi. Xushro'yning ko'zi o'ynab, har sekuntda o'n yoqqa alang'lar edi. Singlisi bo'lsa birav bilan betma-bet kelib so'zlashqanida ham ko'zini hamisha bir nuqtadan uzmas edi. Xushro'yga bolaliq chog'idayoq uy ichi va qo'niqo'shni «shaddod» deb ism berganlar, chunki ul kimdan bo'lsa-bo'lsin, aytkanini qildirmay qo'ymas, agar birarta ish uning tilagiga teskari ketsa shovqin-suronni xudda boshig'a kiyib olar edi. Shuning uchun Xushro'yning ra'yini bilmasdan qozon osilmas, unga yoqmagan gapka og'iz ochilmas, ul bor joyda qadam ham sanalib bosilur edi.

Zaynab egachisining aksicha o'z yaqinlaridan «pismiq» deb ism olg'an, onasi bo'lsa achchig'i chiqg'anda «ming'aymas o'lgur» deb uni qarg'ar edi. Ayniqsa quyida zikr qiladirg'an holimiz bu ikki opa-singilning xarakteridagi farqlarini ochib ko'rsatish uchun yetadir:

Mohira oyim har bir hayitdan birar oylar ilgari eriga aytib bolalarig'a kiyimlik oldirar edi. Oldirg'an kiyimlik Xushro'yg'a yoqmasa darrav yaramag'anini aytib almashdirib berishka dadasini majbur etar va ko'ngli-dag'ini hosil qilib tinchir edi. Ammo Zaynab bo'lsa

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

o‘ziga kelgan kiyimlikka qarshi boshda bir narsa demas, kiyimlik bichilib va tikilib ham arafa kunlari kelib yetkandan keyin hurpayib hech kim bilan so‘zlashmay qo‘yar edi. Mohira oyim qizining birarta ishdan norozilig‘ini payqab «Ming‘aymas, pismiq o‘lgur, tag‘in nima jin urdi seni?» deb so‘rag‘anida, Zaynab qovoq-dudog‘ini solib bir og‘iz ham javob bermas edi. Nihoyat ertaga hayit degan kuni Zaynabning hurpayishi yig‘i bilan almashar va yig‘i orasi maqsad ochilsa ham ko‘pincha natijasiz qolar edi. Birar joyga mehmondorchiliq uchun boradirg‘an bo‘lsalar, Xushro‘y hammadan ilgari e’lon etar edi: «Men ham boraman!» Albatta uni qoldirib ketish uchun endi hech kimda had yo‘q. Ikkinchi vaqt: «Men bormayman!» Bu taqdirda uni bir qadam siljitilsin-chi! Ammo Zaynab onasi bilan yangasi Hanifa bir joyga otlanadirg‘an bo‘lsalar, «boraman, bormayman» demas, ular ham yig‘lamag‘an bolag‘a sut berilmas qabilidan indashmasdan mehmondorchilikka ketar edilar. Kechqurun qaytib kelsalar bir burchakda Zaynab yig‘lab o‘lturipti:

— Nega yig‘laysan?

— Nega meni birga olib ketmadingiz...

Zaynabning shu fe’li balog‘atka yetib, erga tekkandan keyin ham o‘zgarmadi.

Otabekning Zaynabka bo‘lg‘an munosabatini o‘qug‘uchig‘a albatta so‘zlagulugi yo‘q. Eri unga oylab, yillab qaramay qo‘yg‘anida ham ul ih deb tovush chiqarmadi. Otabekning bu holiga qarshi chiqg‘uchi va Zaynabni yo‘l-yo‘ruqqa solg‘uchi yana faqat O‘zbek oyim ediki, buning sababi ham izzatlik o‘qug‘uchimizg‘a bir daraja ma’lum bo‘lsa kerak. Sut bilan kirgan jon bilan chiqar deganlaridek, O‘zbek oyimning o‘shal vaqtlardag‘i tashviqotlari ham uning tarafidan faqat «kelinlik» majburiyati ostida qabul qilinar, masalan, qayin ona — «falonchi domlag‘a borib mundog‘ qil, Zaynab», deb buyurmag‘uncha o‘rnidan qo‘zg‘almas va shuning bilan birga erining tashlab qo‘yishi to‘g‘risida onasi, egachisi va boshqa yaqinlarig‘a churq etib og‘iz ochmas edi. Zaynabning bu holiga hukman — «erining qarash va qaramaslig‘i uning uchun farqsiz edi» deb aytish albatta to‘g‘ri bo‘lmaydir. Chunki kundashining Toshkandga kelish xabarini eshitkan Zaynabni biz yuqorida Otabek quchog‘ig‘a tashlang‘an holda ko‘rib edik. Xulosa,

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Zaynabning bolaliq vaqti bilan hozirgi holini chaqishdirib qarasaq ko'ramiz; yosh Zaynab bir oy ilgari tikilib qo'yilgan kiyimning o'ziga yoqmag'anini faqat arafa kuni aytib, yig'laydir, bu kungi Zaynab o'zining muhabbatini eriga faqat kundashi kelib yetar oldida e'lon qiladir.

Biz yuqorida yosh Xushro'y bilan o'qug'uchini bir darajada tanishdirgan edik. Endi uning oila hayoti bilan ham tanishdirishka majburmiz:

Xushro'yning erga tegishi ham o'ziga o'xshash favqulodda bo'lg'an edi. Masalan aksariyat qizlarimiz ota-ona kimni muvofiq ko'rsa, shunga tegishka majburdirlar. Lekin Xushro'yniki mundog' bo'lmadi. Xushro'y o'n sakkiz yoshka yetkandan keyin unga sovchilar kela boshlaydirlar.[1] Tabiiy Xushro'yning fe'lini yaxshi bilgan ota-ona uning ra'yini olmasdan turib bir ish qilmoqdan qo'rqadirlar. Olim ponsadboshig'a ma'qul bo'lg'an necha yigitlar, Mohira oyimg'a yoqg'an qancha tegu taxtlik xonadonlar Xushro'y tomonidan rad qilina boradir. «Falonchining o'g'limi?» deb so'raydir Xushro'y va onasidan javob kutmay: «xudoy ko'tarsin erni. O'shanga tekkanimdan ko'ra, qaro yerga tekkanim yaxshi!» deydir. Bir necha vaqt shu yo'sun Xushro'yning ra'yiga qarab er-xotin zerikadirlarda, o'zlaricha bir joyga qudalashmoqchi bo'ladirlar. Ularning andishasini bilgan Xushro'y boshda bunga qarshi bir narsa demaydir. Ammo uzil-kesil fotiha o'qub, qudalashish uchun uylariga kelgan sovchi va quda xotinlarning oldilarig'a kelib betlariga aytadir: «Hali men ersirab qolg'anim yo'q, fotiha o'qub tashvish chekmay uylaringga jo'nay beringlar». Mohira oyim bu yuzsizlikdan yer yorilsa yerga kirgundek bo'ladir. Sovchilar ersa mundog' uyatsiz qizdan alhazar o'qushib jo'naydirlar. Albatta ota-onaning bunga qarshi choralari qarg'ish va ranjishdan nariga o'tolmaydir. Og'asi Azimbekning Xushro'y ustiga ko'targan mushti ham «nega meni urasiz, men falonlik qildimmi?» degan haqlik so'z bilan darmonsizlanadir.

Shu voqi'adan so'ng sovchilar oyoqi uziladir. Xush-

---

[1] O'ruslar Turkistonni bosguncha qizlar 18—20 yoshka to'lmasdan erga tega olmas edilar. Hatto kambag'allar qizi 25 gacha ham er kutar edilar. Buning sabablari: o'z ora urush va qirilishlar bilan erlar xotinlarga qaraganda oz edilar va ul zamonning xotin-qizlari hozirgidek azobda emas, erkinroq yashab, yaxshi urchir edilar *(mual.)*.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

ro‘y uchun hech kim og‘iz solmay qo‘yadir. Chunki boyag‘i sovchilar bu favqulodda muomalani ko‘ringan biravga doston qilib o‘quydirlar. Mohira oyim ta’naga til ochadir: «Endi dunyodan ersiz o‘tasan, qizim!»

Lekin Xushro‘y hanuz pinagini buzmaydir: «Er qurib ketkan emasdir, xohlasam ertagayoq erga tega olaman», deydir.

O‘rtadan bir necha vaqt o‘tib Azimbekning o‘rtoqlaridan bo‘lgan Nusratbek otlig‘ bir beknikidan xotin ustiga sovchilar keladir. Mohira oyim eridan fikr so‘rash o‘rnig‘a qizig‘a arz qiladir va Xushro‘y munga qolganda quloq qoqmaydir. Bu roziliqni eshitib otasi va og‘asi juda so‘yinishadirlar. Zero Nusratbek beklar ichida obro‘likroq kishining o‘g‘li va hozirgi tutib turg‘an ishi ham ancha dong‘lik bo‘ladir. Shuning uchun uning xotinliq bo‘lish kamchiligi ham e’tiborg‘a olinmaydir. Fotihaning ikkinchi haftasi to‘y-nikohlari bo‘lib, Xushro‘yning Nusratbek bilan chodirda qilg‘an birinchi muomalasidan til biriktirib erga tekkani xotinlarg‘a ma’lum bo‘ladir.

Xushro‘y chodirdan chiqmasdanoq choy tashib, xizmat qilib yurgan kundashiga kesatuq bilan hujum boshlaydir. Ikkinchi va uchunchi kunlarda to‘ppa-to‘g‘ri kundash ustiga sapchiydir. Hafta, o‘n kun o‘tmasdan erini o‘z tomonig‘a og‘ishdirib kundashi yonig‘a kirgizmayoq qo‘yadir. Ikkinchi va uchunchi haftalarda o‘choqboshini o‘z qo‘lig‘a olib kundashini ikkita yosh bolasi bilan tomoq vajidan ham siqa boshlaydir. Nusratbek bo‘lsa ko‘chaga chiqg‘anda beklik da’vosini qilib, uyiga kirganda Xushro‘ybekka mute’. Bechora katta xotin Xushro‘yning doimiy hujumiga mahkum qolib, eridan loaqal ikkita go‘daklari yuzi uchun bo‘lsin marhamat ko‘rmay azoblanadir. Ikkinchi oylardan boshlab Xushro‘y kundashini bo‘g‘ib urish odatini chiqaradir va o‘rim-o‘rim kundash sochini alafdek yulib olishdan ham tortinmaydir.

Tamom jonidan to‘ygan bechora kundash uchunchi oyg‘a chidab borolmay eridan taloq so‘raydir. Noiloj Nusratbek ham unga javob berishka majbur bo‘ladir. Alamzada bechora ikki go‘dakni eriga tashlab ketmakchi bo‘lg‘anida Xushro‘ydan ochiqchasig‘a shu gapni eshitadir: «Itdan bo‘lg‘an qurbonliqqa yaramas! Bolalaringdan umidingni uzgan bo‘lsang, itbachchala-

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
ringni bu uyda qoldir!» Xushro'yning og'zidan chiqg'an bu tahdid bechora onaning yuragini uyushdiradir. Darhaqiqat, Xushro'yning bu ishdan ham toymaslig'ini aniq bilib, yig'lay-yig'lay bolalarini o'zi bilan birga olib ketadir.

Xushro'y uch oy ichida tomir yoyib qolg'an bir oilani ildizi bilan yulqib tashlab tinchiydir. Mundan boshqa Nusratbek kabi bir odamni ham o'z ishoratiga qaratadir.

Endi yetti-sakkiz yil bor, ul o'z kayficha yashab keladir. Har narsadan ham mamnun, biroq... Shuncha muddatdan beri ona bo'lolmag'anidan xafa, hamma qayg'u hasrati ana shu tug'masliqda. Mundan ikki yilcha burun eri Nusratbek: «Olti yildan beri tug'maysan, ko'rsatmagan tovuping qolmadi. Endi nima qilamiz?» deb kulgan edi, Xushro'y erining maqsadi nima ekanini payqab: «Bolasiz kishi dunyoda turolmaydirg'an bo'lsa, bir oz zaharni boshlab sizga beraman, undan keyin o'zim yeyman!» dedi. Shundan keyin Nusratbek mundog' gapni ikkinchi gapirmay qo'ydi. Darhaqiqat, Xushro'yning bu so'zini hazil deb bo'lmas edi.

15. ESINI KIRGIZDI

«Kundashlik uyda kunda janjal» deganlar. Albatta buni aytkuchi kishi o'ylamasdan va bilmasdan aytmagandir. Jilla, har kuni janjal bo'lmag'anda ham haftada, o'n kunda bir to'polon chiqmasa albatta kundashni kundash, deb bo'lmas. Nega desangiz, bizning ba'zi bir kundashsiz, chiqitsiz oilalarda ham ikki, uch kunda tovoq-qoshiq sinib, tog'ora yangilanganini har qaysimiz bilamiz, bas, endi kundashlik oilalarimizga kelganda-chi, albatta yuqoridag'i — «kundashlik uyda kunda janjal» maqolini to'g'rig'a, chinga chiqarmasdan chora yo'q.

Men — yozg'uchi, «O'tkan kunlar» hikoyalarini otam marhumdan necha qaytalab eshitsam ham zerikmas edim, faqat bir joyigina meni zeriktirar edi. Bu kun men shu «O'tkan kunlar»ni qalamga olganimda ham o'sha o'zimni zeriktirgan faslini tashlab o'tishka majbur bo'ldim. Darhaqiqat, o'z oramizda kundash janjalini kim bilmasin? Arzimagan gap ustida dunyo buzg'an kundash to'polonlari kimning qulog'ig'a yoqsin? O'qug'uchining qimmatlik vaqtini ayag'animdek, qalamni ham bu g'idi-

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
bididan ozod qilishni muvofiq ko‘rdim. Meni kechirsinlar.

Zaynab xafaligi oshqan kezlarda qarindosh-urug‘larinikiga yurib chigilini yeshar edi. Uch-to‘rt oyning ichida ikki martaba egachisi Xushro‘ynikida ham mehmon bo‘lib ketdi. Ammo hozirgisi uchunchi martaba kelishi edi.

— Nuchuk xudo yarlaqadi! — deb Xushro‘y singlisini qarshiladi. Sunbula[1] oyining mo‘’tadil havosiga qaramasdan Zaynab marjon-marjon terlagan edi.

— Nega muncha o‘zingni oldirib qo‘yding, Zaynab! Uyingdan tinchmisan, ering eson-omon yuriptimi?

— Qurib ketsin, — dedi Zaynab va ko‘ziga yosh oldi. Xushro‘y achinish o‘rniga kuldi.

— Kel, ayvong‘a chiq, — dedi, — oyimnikida edingmi?

— Yo‘q.

— Uyingdan keldingmi?

— Ha.

Xushro‘y singlisini o‘tqazib cho‘risiga choy buyurdi. Fotihadan keyin «pochcham eson, omonmilar?» deb so‘rag‘uchi singlisiga:

— Pochchang o‘lsin! — dedi achchig‘lanib Xushro‘y, — Najmiddinbek deganning dalasiga ketkan edi. To‘rt kundan beri dovu daraksiz, o‘ldimi, qoldimi — bilmayman.

Zaynab uch-to‘rt oyning ichida kishi tanimasliq holga tushkan edi. Ilgarigi to‘lalig‘ining yarmisini yo‘qotqanidek tusiga qarimsiqlik kirgan, ko‘z harakatida ham bir besaranjomliq zohir va bularning ustiga har qachon unda ko‘rilgan «og‘irliq» o‘rniga asabiylikka yaqin bir vaziyat o‘lturg‘andek edi. Zaynab egachisining haligi gapiga rizosizliq bildirdi:

— Noshukur ekansiz, opa, — dedi, — pochchamdan nolishingiz yaxshi emas, sizning ham boshingizg‘a manim kunimni solsa nima qilar edingiz?

— Men ham Zaynab bo‘lsam, albatta solar edi, — deb kuldi Xushro‘y, — menga qolsa har kim o‘z nafsiga yaxshiliq yoki yomonliqni o‘zi hozirlaydir...

— Tavba deng, opa.

— Men shu choqg‘acha, — dedi Xushro‘y, — ban-

[1] S u n b u l a — 22-avgust — 21-sentabr.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
dasiga bosh egishni va bandasi oldida tavba qilishni or bildim va orlanishim orqasida har kimning ustida yurdim...

— Katta gapirmang.

— Katta gapirsam va gapirmasam, — dedi Xushro‘y,— manim fe’lim har kimga ma’lum va hammadan ham senga ochiq... Qo‘ychi bu gaplarni, o‘zing tinchmisan?

— Tinchligim qursin...

— Aytsang, aytmasang, — dedi opasi, — albatta tinchliging qurig‘an.

— Quritg‘an qurisin...

— Sening tinchlig‘ingni hech kim quritg‘an emas, Zaynab! Hamma jabrni o‘zing-o‘zingga qilayapsan!

— Hamisha shu gapni aytib qolg‘ansiz,— deb o‘pkaladi Zaynab,— dunyoda kim o‘ziga jabrni xohlaydir?

— Sen va senga o‘xshag‘anlar.

— Xudo urar...

— Aytsang, aytmasang xudo urib qo‘yipti.

— Shunday kunlarga men qolay dedimmi?

— Degansan!

Zaynab opasining istehzolik yuziga qaradi va uning nima demakchi bo‘lg‘anig‘a tushunolmadi:

— Degan bo‘lsam ayting...

— Sen manim qanday qilib erga tekkanimni bilasanmi?

— Bilaman...

— Bilsang bilganingcha tur, — dedi Xushro‘y, — endi kelaylik sening erga tegishingga: albatta tona olmassan, sening er qilishda tariqcha ixtiyoring va rizolig‘ing yo‘q edi, ehtimolki ixtiyor nima, orzu nima o‘zing ham payqamas eding. Balki ixtiyor va orzularing ham bo‘lg‘andir — biroq uni hech kim maydonda ko‘rmas edi. Shuning uchun tizgining oying bilan dadangning qo‘lida, boshqacha aytkanda ularning tuyaga ortqan yuki, kimga sotsa, qayerg‘a jo‘natsa ixtiyorsiz eding... Yodingda bormi, nikoh kunim men kulib, chaqchaqlab aravaga mindim, sen bo‘lsang, uydan yig‘lab chiqding va eringnikiga yig‘lab bording... Yaxshi, ering senga yoqdi, ammo ering faqat senga yoqqan bilan ish bitmasligini yana xotiringga keltirmading. Ering seni tashlab qo‘ydi, sen churq etmading, istiqboling to‘g‘risida o‘ylamading... Faqat g‘alvir suvdan ko‘tarilgandan so‘nggina, sen

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
o‘zingni har tarafka tashlay boshlading... Lekin endi bir ming toblansang ham natija o‘zingning fe’lingcha— bitta: sening uchun har kun bir o‘lim yoki o‘sha uydan boshingni olib chiqish.

Xushro‘yning rahmsiz muhokamasidan oqg‘an bu haqiqatlar Zaynabni yig‘latdi.

— Men shunday bo‘lar, deb o‘ylamag‘an edim...

— Sen o‘ylashni bilarmiding? — deb kuldi Xushro‘y.

— Birav o‘lay desa, siz kulasiz!

— Men yig‘lashni bilmayman! Kishilar yig‘lag‘anda, manim kulgim qistaydir.

— Manim o‘rnimda bo‘lsangiz, siz ham yig‘idan bosh ko‘tarmas edingiz...

— Sening yeringda bo‘lsam bilasanmi nima qilar edim, Zaynab, — dedi Xushro‘y, — dunyosini ost-ust qilar edim, bir tomchi yoshimni yuz tomchi zahar bilan qo‘shib tashlar edim.

Zaynab keyingi gap bilan egachisining yuziga ko‘tarilib qaradi va Xushro‘yning yuzida zolimona bir istehzo ko‘rdi.

— Yaxshi, — dedi Zaynab bir xil siniq tovushda, — hamma do‘stlaringiz sizga dushman bo‘lsin, uch yildan beri sizning so‘zingizni aytib yoningizda kelgan qayin onangiz ham dushmaningiz yonig‘a o‘tsin: hatto sizni tuqg‘an ota-onangiz ham «sabr qil, bolam!» deb quruq so‘z aytib o‘ltursinlar... Bas, shu holatda siz yig‘lamay nima qilar edingiz?

Xushro‘y pinagini buzmay yana kuldi:

— Dushman o‘zi nima degan so‘z? — dedi, — men senga boya ham aytdim: kishining dunyoda do‘sti yo‘q, magar nafsiga o‘zi do‘st; kishining dunyoda dushmani yo‘q, magar nafsiga o‘zi dushman! Masalan sen o‘zing: otangg‘a, onangg‘a do‘stim, deb ishonding, ammo ulardan nima yaxshiliq ko‘rding? Bu kun ularning «sabr qil, bolam!» deb bergan kengashlari sening yarangga malham bo‘larmi? Albatta, bo‘lmas. Boshdayoq ering senga qaramay qo‘ydi. Ammo sen qayin onangning va’dasiga va tag‘in allanarsalariga ishonding... O‘zing o‘yla, bolani ona tug‘adir, lekin unga muhabbatni ham ona tug‘ib beradimi? Albatta bu mumkin emas. Sen bechora shunga ham ishonding. Endi gap nima? Otang senga sabr yediradir, qayin onang bo‘lsa kundashing duosida... sen bo‘lsang yig‘i quchog‘ida...

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Sizdan o‘zimni chaqdirg‘ali kelgan emasman! — dedi yig‘lag‘an ko‘yi Zaynab, — o‘z uyimda ham tegmay chaqadirg‘an gazandalarim bor... Siz ham manim kuygan jonimga o‘t yoqmang-da, agar qo‘lingizdan kelsa, bu o‘rtang‘an singlingizni tinchiting.

— Sen hech tinchiy olmaysan...

— Har narsaga aqlingiz yetadi... Loaqal bu baxtsiz singlingiz uchun birgina bosh og‘ritsangiz-chi... Ustimga shu balo kelgandan beri eshigingizga necha qayta kelib quruq qaytdim, endigina siz ham...

Xushro‘y bir oz Zaynabning yuziga qarab turg‘andan keyin:

— Manim kengashimga yurasanmi? — deb so‘radi.

— Jo‘yalik bo‘lsa nega yurmay.

— Yursang, — dedi Xushro‘y, — chiq eringdan.

Zaynab o‘krab yubordi:

— O‘zim ham shundog‘ deyarsiz, deb turg‘an edim...

Xushro‘y:

— Negaki sening dardingning davosi, menga qolsa faqat shu.

— Qanday qilib chiqay, axir...

— Erdan chiqg‘anlar qanday qilsa, sen ham shunday qilasan!

Zaynab javob bermadi. Cho‘ri xotin o‘rtag‘a dasturxon yozib choy keltirdi, Xushro‘y xizmatchini o‘choqboshi yumishlariga buyurib choyni o‘zi quydi.

— Dasturxonga qara, Zaynab!

— Ishtihom bo‘g‘ildi...

— Manim aytkanimni qilsang ishtihong ham ochiladir.

— Erim... erimni ko‘zim qanday qiysin.

— Javob so‘rasang, — dedi kulib Xushro‘y, — seni taloq qilish uchun eringning ko‘zi qiyadimi?

— Bilmayman...

— Albatta yaxshi bilasan, qiyadi! Ammo sen ahmoqsan, ko‘rpangga qarab oyoq uzatishni, qars ikki qo‘ldan chiqishini bilmaysan!

— Etagingni qoqib ketaber, deysizmi?

— Chunki shundan boshqa chorang yo‘q!

— Sen hasratda o‘l, kundashing yayrab-yashnasin, shumi maqsadingiz?

— Hozir hasratda emasmisan, kundashing yayramaydimi?

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Tuzik, — dedi Zaynab, — lekin har qadamda uning huzurini buzaman, bir cho‘qitib o‘n qarataman.

Xushro‘y kuldi:

— Bundan nima chiqadi?

— Ishqilib kelgindini tinchitmayman.

— Sen tinchitmasang, — dedi Xushro‘y, — boshqalar seni tinchitar...

— U nima deganingiz?

— Ya’ni rohatini buzaversang, ering seni qo‘yar?..

Zaynab bu haqiqat oldida o‘ylanib qoldi. Xushro‘y o‘zining vahshiy ko‘zlari bilan singlisiga qarab kulimsirar edi. Bu kulimsirash orasi «qo‘lingdan nima keladi?» degandek bo‘lar edi. Zaynabning tusi shu choqg‘acha ko‘rilmagan ravishda o‘zgarib ketdi. Negadir tinmay oqib turg‘an ko‘z yoshisi ham quridi va tovshida ham hanuz eshitilmagan keskin bir ohang bor edi:

— Esimni kiritdingiz, opa, — dedi, — rahmat sizga.

— Rahmatingni menga aytma, — dedi Xushro‘y, — ishonsang yuragingga aytarsan...

16. OY-KUNI YAQIN EDI

Kumushning oy-kuni yaqin edi. Nabiralik bo‘ladirg‘an O‘zbek oyimning ishi boshidan oshqan, Kumushning oyi tug‘masdanoq ul beshik yasatish bilan mashg‘ul edi. Doyacha kim, aqiqaga nechta qo‘y kerak, nechanchi kunda to‘y o‘tkaziladir, nechta erkak, nechta xotin aytiladir va kimlar? Mana shuningdek masalalar bilan O‘zbek oyimning miyasi juda shishkan edi. Kumushda ko‘rilgan ba’zi nishonalarga binoan nabirasining o‘g‘ul bo‘lishida shubha qilmas — «o‘g‘ul tug‘asan, Kumush, men ham Otabekni senga o‘xshash yengil ko‘targan edim», der edi. Kumushni xizmatdan bo‘shatilib ba’zi o‘choq-boshi yumishlarini Zaynab idorasiga topshirilg‘anig‘a endi bir oylab bor.

O‘zbek oyim nabira masalasida qancha xursand bo‘lsa, Otabek shunchalik xafa, chunki Kumushni ko‘rgan sayin usta Alim foji’asini xotirlar edi. Yusufbek hoji ma’lum aldanishdan so‘ng yurt ishidan qo‘l yuvg‘an, ko‘b vaqtini mehmonxonada «Qur’on» va «Daloyil»[1]

[1] Daloyil — diniy kitobning nomi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

o‘qub kechirar, kundash orasi buzilib, o‘rtadan so‘z chiqg‘anini goho eshitsa, ikkala kelinni o‘z oldig‘a chaqirtirib, ularni qator o‘tqazar edi. Avvalo Kumushdan o‘pka qilib: «Oyim, har nima siz kattasiz, Zaynab yosh, kattadan-kichikka shafqat lozim, mundog‘ yaxshi emas!» va Zaynabka qarab: «Bolam Zaynab otin! Sizdan hali yoshlik g‘ururi ketmagan, lekin manim bolam bo‘lg‘anlig‘ingizni siz ham unutmang!» der va shuning singari yumshoq gaplardan keyin ikkisini duo qilib bir-birisiga salom berdirar — «ana, shundog‘ bo‘lsin, opoq qizlarim!» deb ketishka ruxsat berar edi. Ular ketkandan keyin albatta O‘zbek oyim eri yonig‘a kirar, hoji bo‘lsa xotinig‘a sizsirab: «Siz ikki kelin ushlashni bilmabsiz, Zaynabka jabr qilg‘an ko‘rinasiz, ayniqsa Zaynabning ko‘ngliga qarashingiz kerak, Otabekka ham nasihatingiz lozim!» der edi. O‘zbek oyim shunday kezlarda Kumushning yonini olib «Zaynabni xudoy ko‘tarsin, ayb o‘zida...» deya boshlasa, hoji uning og‘zini arang to‘xtatur: «Sekin-sekin, uyat! Qayin ona deganning adl turishi lozim. Zaynab siz bilan manim orzu havasimiz emasmidi?»

Ammo nabira masalasidagi O‘zbek oyimning ba’zi bir quyushqondan tashqari harakatlarini ham bosquchi yana hoji edi: «Zaynab bor, Zaynabni unutdingizmi. O‘z kelinigiz Zaynabni!»

Mundan o‘n besh kuncha ilgari Kumush onasig‘a bir xat yozg‘an edikim, ahamiyatiga ko‘ra biz bu o‘rinda ko‘chiramiz:

«Onajon, kuyavingizning yozg‘anlaridan tashqari men sizga shu bilan oltinchi xat yozdim. Ammo sizdan uchta va dadamdan ikkita xat oldim. Ayniqsa dadamning keyingi xatidagi qora xabar bilan dori dunyo[1] ko‘zimga toraydi. O‘lim haq, ammo bechora buvim jon berar ekan, yonida turib duosini olib qolmag‘anim uchun ko‘b hasrat chekdim. Ayniqsa musofirchiligim yomon asar qildi. Ko‘z yoshlarim bilan yuzimni yuvdim. Bu kun beshinchi kundan beri rahmatlik buvim arvohig‘a atab qur’on boshladim, xatim qilib bag‘ishlayman. Xudo g‘ariqi rahmat qilsin, sizga sabr bersin. Endi musofir qizingizning baxtiga siz o‘lmang, omin.

Ba’da ma’lum bo‘lsinki, alhamdulilloh kuyavingiz va

[1] D o r i d u n y o — dunyo tirikligi, tashvishi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

qudalaringiz salomatdirlar va ularning soyalarida men qizingiz ham o'ynab-kulib yuribman. Sizni va otamni juda sog'indim, agarda og'ir oyoq bo'lmasam edi, qish bo'lishig'a qaramasdan Marg'ilong'a jo'nar edim. Qudangiz — qayin onamning so'ziga qarag'anda, kelasi oyg'a ko'zim yorir emish. Qudangiz meni na yerga va na ko'kka ishonadir, o'n besh kundan beri qo'limni sovuq suvga ham urdirmay qo'ydi. O'zi go'yoki to'yga hozirlang'andek beshik yasab, sarpa tikib yuriydir... Manim bo'lsa nima uchundir yuragimda bir qo'rquv bor... O'tkan xatlarimda kundashim bilan mirosamiz kelishmay turganini kulguluk tarzida yozg'an edim. Nafsilamrda ersa, oramiz juda buzilg'an, men ham o'shal vaqtlarda chin kundashlik to'nini kiygan edim. Zaynabning bitmas xusumati esa g'olibo[1] manim ikki qatlig'im oshkor bo'lg'an kundan boshlandi. Sizning boshingizdan kundashlik savdosi o'tmagan bo'lsa ham tushunsangiz kerak: biz ikav agar qo'yib bersalar go'yo bir-birimizni yeb-ichmakchi edik... U kunlardagi holimdan o'zimga endi hisob berishka ham uyalaman... Yaxshiki, bizning mojarolardan qayin otam juda siyrak xabardor bo'ldi. Shundog' ham bo'lsa bu janjallar goho uning qulog'ig'a yetib qolar va biz ikki yov uning oldig'a chaqirilib nasihatini eshitar va lekin yana yomonlig'imizdan qolmas edik. Siz ranjisangiz ham aytay: qayin otamni o'z dadamdan ham yaxshi ko'raman. Bu yaxshi ko'rishim kuyavingizning dadasi bo'lg'ani uchun emas, balki uning nur ichiga cho'milg'andek bo'lib ko'ringan siymosini, oyim deb xitob qilg'andagi muloyim, beozor va muassir[2] so'zini yaxshi ko'raman. Ul nasihat uchun og'iz ochsa vujudim erib ketkandek va bir turluk uxlab huzurlang'andek. Qisqasi, Zaynab bilan janjallashishning o'zi bir huzur va janjaldan bo'shalg'ach, qayin otamning qarshisig'a o'lturib nasihat eshitish undan ham yaxshi huzur... Siz manim telba so'zlarimdan achchig'lanmang. Agar bu gapimning to'g'rilig'ini bilmakchi bo'lsangiz, Toshkand kelingizda, qayin otamning nasihatini o'z qulog'ingiz bilan eshiting-da, undan keyin so'zimga qiymat bering.

Shu yo'sun Zaynab bilan uyatsizcha ko'b olishdiq, bu it-mushuklikdan biz zerikmasak-da, kuyavingizning

---

[1] G' o l i b o — asosan.
[2] M u a s s i r — ta'sirli.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

jonidan to'ydirayozdiq. Mundan bir muncha ilgari ul biz ikki kundashning yuzimizga: «Agar shu holda davom etabersalaring ikavlaringga ham barobar javob berib qutilaman!» dedi. Uning bu tahdidi ikkimizga emas, balki bittamizgagina xos edi. Men bu tahdiddan albatta qo'rqmadim, ammo «Zaynab tushunib qolmasa yaxshi edi», deb qo'rqdim. Darvoqi' natija men qo'rqqancha bo'ldi. Zaynab bu tahdiddan so'ng onasining uyiga arazlagannamo ketib qoldi. Ulardan ham yaxshig'ina dakki yegan bo'lsa kerak, bir necha kundan so'ng yovoshqina bo'lib qaytib keldi. Endi shu voqi'aga ikki oy chamasi vaqt o'tdi va lekin oramizdan janjal chiqmadi. Men jo'rttaga ba'zi gaplarni teskarilikka olib ko'rsam ham ul churq etmaydir. Uning bu holi ersa manim uchun yaxshi emas, ul yana ko'b vaqt bizning oramizda tikan bo'lmoqchi...

Kelasi oydan juda yuragim uyushadir... Kechalari ko'kka qarab kelasi oy shu kunlarda yorug' dunyoda bormanmi, yo'qmanmi deyman... Oysha buvim marhum bo'lmag'anda shu oy ichi o'zingiz Toshkandga yetib kelar edingiz. Aza hamma vaqt topiladi desangiz, qizingizning ko'ngli uchun hali ham kelganingiz yaxshi. Dadamga manim arzimni aytsangiz, albatta qaytarmas. Mendan dadamga behad salom. Kelasi oydan qo'rqaman... Ko'rishalmasak mendan rozi bo'ling, dadam va boshqa yoru do'slar ham. Kumush yozdim. Toshkand, 1269-inchi yil 1-qavs[1] oyida».

Kumush o'z xatida yozg'anidek, darhaqiqat, Zaynab shu keyingi kunlarda yovoshka tortqan, o'n og'izg'a bir og'iz so'z qaytarmas, tinchkina, muloyimgina, ya'ni mundan bir yil burung'icha edi. Qayin ona tarafidan «Opangning ko'zi yorir vaqti yetdi, o'choqboshi ishlaringni endi o'z qo'lingg'a ol!» deb qiling'an taklifni mamnuniyat bilan qabul etib, hatto Oybodoq onani ham o'choqboshi yumishidan xalos eta yozg'an, unga faqat havli supurish, uy yig'ish va shunga o'xshash mayda ishlarnigina qoldirg'an edi. Zaynabdagi bu o'zgarish faqat haligi taraf bilangina qolmay, eri to'g'risida ham shundog' edi. Otabek o'z yonig'a kirsa — kirdingmi demas va kirmasa — kirmading demas edi. Erining ba'zi bir samimiyati qorong'uroq muomalalariga qarshi Zaynab ham muhmalrak qilib kulib qo'yar edi.

---

[1] Q a v s – 22-noyabr – 21-dekabr.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

* * *

Oy tug‘ib, mo‘ljal yaqin yetdi. Marg‘ilondan ham Oftob oyimning yo‘lg‘a chiqish xabari keldi. Lekin Kumushda ma’lum og‘riq boshlang‘an edi. Og‘riqning birinchi kuni Kumush hech kimga sezdirmay yurdi. Ammo ikkinchi kun buni boshlab Otabek, undan keyin O‘zbek oyim sezdi. Otabek ma’lum xavf ostida bu sirdan kishiga og‘iz ochish uchun o‘zida majol topmasa ham, O‘zbek oyim darrav Hasanalini mundan olti oy ilgari belgulanib qo‘yilg‘an doya xoting‘a yugurtirdi.

Doya kelgandan so‘ng ichkari havli erkak zotidan tozalandi. Kumushni o‘qtin-o‘qtin og‘riq ushlamakda, doya xotin va O‘zbek oyim unga o‘zlari bilgan udimlar bilan yordamlashmoqda edilar. Kechka tomon dard juda kuchayib ketdi, o‘qtin-o‘qtin dam-badamga alishindi.

Tashqarida Otabek yo‘q edi. Hasanali darboza bilan mehmonxona orasida qo‘lini-qo‘lig‘a ishqab yurinib turar va qayta-qayta axtaxonag‘a kirib to‘riq yo‘rg‘aning u yer, bu yerini supirar edi. Hoji bo‘lsa xursand va xafaligi noma’lum bir qiyofatda «Daloyil» o‘qur edi, har besh daqiqada ichkari tomong‘a quloq solib to‘xtar, goho darichadan Hasanalini chaqirib «tinchlikmi» deb so‘rar edi.

Ular masjiddan shomni o‘qub kirgach, ichkaridan Oybodoq kechlik olib chiqdi. Undan na Hasanali va na hoji og‘iz ochib hol so‘ramadilar. Taom ustida Otabekning yo‘qlig‘i ham his etilmadi. So‘zlashmas-dang‘ina lagandan bir muncha cho‘qig‘an bo‘ldilar-da, qo‘l artishdilar.

— Xuftan aytildimi? — deb so‘radi hoji.

— Eshitmadim... Chiqa bersak ham bo‘lar, — dedi Hasanali. Shu vaqt ichkaridan xotinlarning favqulodda qiy-chuv tovushlari eshitilib, ikkisining ham quloqlari tikkaydi va qo‘rqa-pisa bir-birlariga qarashdilar. Qiy-chuv orasidan zaif yig‘i tovshi ham kelib qo‘ydi... Ikkisi bir muncha kulimsirab oldilar, lekin shundog‘ bo‘lsa ham yana churq etib og‘iz ochmadilar. Oradan ko‘b fursat o‘tmadi, ichkaridan Oybodoq yugurib chiqdi va darichadan turib «so‘yinchi!» dedi. Hoji yonchig‘ini kavlay berib «alhamdulilloh» deb qo‘ydi. Hasanali ham iljayib yonchiq kavlashka tutindi va:

— O‘g‘ulmi, holva?[1] — deb so‘radi xotinidan.

[1] Toshkanda «qiz tug‘di» o‘rniga «holva tug‘di» deydirlar *(mual)*.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— O‘g‘ul!

— Barakalla.

Hoji kulimsirab qo‘lidag‘i uch-to‘rtta oq tanga bilan bitta tillani Oybodoqqa uzatdi — «Tangalarni o‘zing ol, tillani doyachaga ber!» dedi. Hasanali so‘yinchisini topshirg‘andan so‘ng duog‘a qo‘l ochdi: «Olloh taolo umri bilan bergan bo‘lsin». Shundan keyin xotirjam’ bo‘lg‘an holda xuftanga ketdilar.

Otabek mehmonxonaga yaqinlashishi bilan chaqaloq yig‘isini eshitib ixtiyorsiz ichkari havlig‘a tomon burildi va yo‘lakda onasig‘a yo‘liqdi. Qorong‘u bo‘lsa ham O‘zbek oyimning tusidagi shodliq belgulari ochiq ko‘rinib turar edi:

— O‘g‘ul muborak bo‘lsun, bolam!

— O‘zi tetikmi?

— Tetik!

— Oldig‘a kiraymi?

— Yo‘q, — dedi O‘zbek oyim, — chillalik uyga kechasi ko‘chadan kelib kirish yaxshi emas... Ichkari kirsang to‘g‘ri Zaynabning oldig‘a bor. Dadang shundami?

— O‘zi?..

— O‘zi yaxshi, xotirjam bo‘l, — dedi O‘zbek oyim, orqasig‘a qaytdi. Otabek ketiga burilib tashqari yo‘lakdan kirguchi dadasi bilan Hasanali sharpasini oldi va o‘ylanib to‘xtadi. Ayniqsa hozirgi paytda dadasi bilan to‘qnashish uning uchun bir oz o‘ngg‘aysizroq tuyulgan edi. Shu yo‘sun bir muncha vaqt yo‘lakda turib, so‘ngra ichkariga tomon yurdi. Zaynabning uyiga o‘tar ekan, bir necha qayta Kumush yotqan uy tarafka qarab oldi.

— O‘g‘ul muborak bo‘lsin!

Zaynab erini shu so‘z bilan kulib qarshiladi, Otabek ham kulimsirab «qutlug‘ bo‘lsin!» deb qo‘ydi. O‘lturgandan keyin Zaynab o‘zicha kulindi:

— Haligi... — dedi. «Haligi» dan keyin aytadirgan jumlasini unutib qo‘ydimi yoki o‘ylab qoldimi, nima bo‘lsa ham aytalmadi. Otabek uning og‘zini kulimsiragan holda bir oz kutib «xo‘sh, haligi...?» deb so‘radi.

— Haligi...

— Uyog‘i?

— Oti qursin... ha, aytkandek, oshingizni yeysizmi?

— Yeyman.

— Sovib qolmag‘an bo‘lsa — shu.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Otabek ertadan beri hech narsa yemab edi.

— Qandog‘ bo‘lsa ham, — dedi.

Hozir Zaynabning chehrasi ochiqroq ko‘rinsa ham, ammo bu ochiq chehraning zamirida uni jiddiyroq mashg‘ul qilg‘an yana bir gap bordek, ya’ni ko‘rinishdan shoshqanliq va yo shuning singari bir hol uning shu ochiq chehrasi ostig‘a yashiring‘andek edi. Zaynabning o‘n besh daqiqaliq muomalasida Otabek yuqorig‘i kabi «esdan chiqarish» holatiga bir necha qayta uchradi va oxirda so‘ramoqqa majbur bo‘ldi:

— Nega holingiz parishon?

Zaynab kuldi:

— Nega parishon bo‘lsin.

— Manim ko‘zimga parishon ko‘rinasiz.

— To‘g‘ri, — dedi Zaynab, — qo‘rqdim...

— Nimadan qo‘rqdingiz?

— Tug‘ishdan...

— Qiynaldimi?

— Qiynalish ham gapmi, — dedi Zaynab, — o‘z ko‘zingiz bilan ko‘rmaganingiz uchun ishonmaysiz.

— Oyim mundog‘ demagan edi-ku?

— Sizdan yashirg‘anlar.

Otabekning yuragi juda uyushib ketdi. Hatto kundashini parishoni xotir qilg‘an bu gap Otabekka qandog‘ ta’sir qilishi ko‘b tafsilga muhtoj emas. Bu to‘g‘rida Zaynabka yana savol tashlab tafsilot olishdan qo‘rqdi, ham uzoq o‘lturolmadi. Choyini naridan-beri ichib, o‘runini to‘shatib yotdi. Zaynab sham’ni o‘chirdi. Hali yotmoqqa vaqt erta edi — Zaynab Kumushlik uyga — xotinlar oldig‘a chiqib ketdi.

Otabek uxlash uchun yotqan bo‘lsa ham haligi gap uni ko‘z yumdirmay qo‘ydi, o‘ng, so‘l, chalqancha yotib boqar edi. Lekin Zaynabning «qiynalish ham gapmi?» jumlasi qulog‘i ostidan ketmas edi... Kumushning uyidan keti uzilmay kelib turg‘an xotinlarning g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘iri ham uning uyqusig‘a xalal berar va ora-chora go‘dakning yig‘lag‘an tovshi ham eshitilar edi. Bu ma’sum tovushqa qarshi unda bir xil yaqinliq — otaliq hissi qo‘zg‘alg‘andek bo‘lsa ham, ammo boshqa qora xayollar ichida tez yo‘qolur edi. Shu yo‘sun ivir-jivir, achchig‘ va chuchuk holat ichida uxlab ketdi. Bir-ikki kun miyonasidagi kechinmalar turlik rang bilan uning uyquliq

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
dimog'ida akslana boshladilar... Cho'chib uyg'ondi... Yonida Kumush... Zaynab yo'q edi. Uyquliq ko'zi bilan narigi uyga quloq soldi, hanuz boyag'i tovushni eshitdi va o'ng yonini bosib ko'rpaga burkandi, mundan keyin tinch uxlab ketdi...

Tush ko'rar edi: «Chamanda gullar ochilg'an emish... Bu gulshan uning o'ziniki emish... Ul rango-rang chechaklardan ko'zini ololmas emish. Tevarakka kelgan yovdan xavf bor emish... Xanjarini ushlab yovg'a qarshi chiqg'an emish... Yov qochqan emish... Yov orasida onasi ham bor, otasi ham ko'rinar emish... Qaytib chamanga kirsa bir sigir gulni bosib, yanchib o'tlab yurg'an emish... Bu holdan o'zini unutkan va qo'lidag'i xanjari bilan sigirga yugirgan emish... Sigir emas — sariq sochlik albasti emish... Darmonsizlang'an va xanjari qo'lidan tushkan emish... Dunyoni qorong'uliq bosqan emish...» Cho'chib uyg'ondi va o'z yonida uxlab yotqan Zaynabni ko'rdi. Haligi bosinqirashdan yuragi gup-gup urar va vujudini ter bosqan edi. Sekingina o'ng yonig'a ag'darilib havli tomong'a qarab yotdi. Uning ag'darilishi bilan Zaynabning ko'zi ohistag'ina ochilib yana yopildi.

Vaqt saharga yaqin, tevarakdagi xo'rozlar ketma-ket qichqirar edilar. Yaqin oradag'i objuvoz poyko'pining zarbi yerni silkitib-silkitib to'lqin berar edi. Narigi uyda yonib yotqan sham' nuri daricha tirqishidan milt-milt ko'zga ilinur, ammo ship etkan tovush eshitilmas edi. Ul qaytib uxlayolmadi. Kumushning kechagi qiynalishi to'g'risida xayollanib ketdi. Subh azoni aytilib, sekin-sekin tong yorib bordi, mahalla masjididan ham azon tovshi kelgach, ul tahorat olmoq uchun qo'zg'aldi.

Kumushning yonig'a kirish qulay bo'lsin, deb no-nishtani Zaynabning uyida qildi. O'zbek oyim tarafidan kirish uchun ruxsat berilgan edi. Choydan keyin doyacha Kumush yonidan bir oz vaqtg'a chiqib turdi. To'rga Kumush yotqizilg'an, uning oyog' tomonida O'zbek oyim chaqaloqni ko'tarib o'lturgan edi. Otabek kirganda o'zining siniqg'an yuzi, ichkariga botinqirag'an ko'zi bilan Kumush iljayib unga qaradi. Otabek tutilinqirab, «muborak bo'lsin!» dedi. Kumush javob o'rniga uyalib yuzini ko'rpaga yashirdi. O'zbek oyim:

— Berganga qulliq bo'lsin, o'ltur, — dedi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Otabek Kumushning bosh tomonig'a o'lturdi. O'zbek oyim fotiha o'qudi. So'ngra chaqaloqni Otabekka yaqinlashdirib, — toychog'imning ko'rmanasini chiqar, dadasi. — Otabek qizarib bolag'a qaradi, Kumush yuzini yana ko'rpaga yashirib oldi.

— O'zingiz tuzikmisiz?

— Shukur...

— Qiynalibsiz, deb eshitdim...

— Tug'moq hazilmi senga, — dedi O'zbek oyim.

Kumush Otabekni o'ziga imladi va qulog'ig'a shivirladi: «sizning gunohingizga...»

— Xo'rak qildingizmi?

O'zbek oyim:

— Kechadan beri ichiga issig' kirgani yo'q. Zaynabka aytay sutlik atala qilib bersin, — dedi.

— Albatta! — dedi Otabek va onasig'a bir tilla so'yinchi bergandan so'ng xotirjam'lik bilan uydan chiqdi.

Tushlikdan keyin Otabek mehmonxonada kitob mutolaa qilur, dahlizda Hasanali uzilgan ot asboblarini ulab tikar, Hoji masjidgami, boshqag'ami ketkan edi. Shu vaqt ichkaridan Oybodoq chiqib Otabek yonig'a keldi:

— Bek, siz uyga kirib chiqar emishsiz, — dedi.

Otabek kitobni belguluk qilib yopdi:

— Tinchlikmi?

— Tinchlik... darrav kiring-chi!

Otabek Oybodoq bilan ketma-ket ichkariga kirdi. Zaynab rangi o'chkan holda Kumushning uyidan chiqib kelar edi.

— Nima gap? — deb undan so'radi Otabek.

— Bilmadim, — dedi, — opam ko'ngillari aynab qusyaptilar...

Otabek eshik yonig'a kelgandan so'ng uydan bir necha xotin paranji yopinib chiqdilar-da, ul uyga kirdi. O'zbek oyim jom ushlag'an, Kumush jomga o'qchib qusar edi.

— Nima bo'ldi?

Kumush javob beralmadi.

— Bilmadim... boyatdan beri to'xtovsiz qusyapti, — dedi O'zbek oyim. Qusib charchag'an Kumush holsiz-

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
lanib boshini yostiqqa tashladi. O‘qchib yoshlang‘an ko‘zlari bilan eriga qarab oldi.

— Yoqmaydirg‘an xo‘rak bergansiz.

— Yoqmaydirg‘an hech narsa yegani yo‘q, — dedi onasi,— o‘sha ataladan boshqa xo‘rak qilmadi. Undan ham yarim kosagina ichdi. Qolg‘ani ana tokchada...

O‘zbek oyimning gapi tugamasdan Kumush yana jomga intildi. Otabek uning boshini tutdi.

— Tabib aytdiraymi?

— Aytdir. Manim ham ko‘nglimga shu kelib turgan edi.

Otabek Kumushning qusug‘i bitkuncha turdi-da, so‘ngra yugurib tashqarig‘a chiqdi. Hasanali hanuz boyag‘i ishda edi.

— Ota, siz yugurib tabibga boring-chi!

Hasanali ishini tashladi:

— Nima gap?

— Kelinингiz boyadan beri qusar emish.

Hasanali tabibga yugurdi. Otabek qaytib uyga kirdi. Chaqaloqni Zaynab ko‘targan, Kumush hamon qusmoqda... Kumush holsizlanib o‘zini yostiqqa oldi. Qovoq ostlari ko‘kargan, yonig‘a kelgan Otabekka ham qaramoqqa majolsiz edi.

— Tuzikmisiz?

— Ko‘nglim.

Otabekning hamma badani titrab ketdi, shundog‘ bo‘lsa ham o‘zini qattig‘ ushladi:

— Qatiq ichirib ko‘rdingizmi? — dedi onasig‘a.

— Yo‘q.

— Qatiq buyuring!

Oybodoq qatiq keltirguncha Kumush yana jomga intildi. Bir-ikki o‘qchib qusqandan keyin, Otabekning qo‘lidag‘i suv bilan og‘zini chaydi va piyoladagi qatiqdan bir-ikki ho‘plab, o‘zini yostiqqa tashladi. Harorati kuchlik, yurak urishi favqulodda tez edi. Otabek uning manglayini qo‘li bilan bosib ushlagan edi, bir oz tinchigandek bo‘ldi. O‘zbek oyim burchakda bola ko‘tarib o‘lturgan Zaynabdan chaqaloqni olib, uni jomni to‘kib kelishka buyurdi. Otabekni manglayida turg‘an qo‘li qizib ketib, ikkinchi qo‘lini almashdirishg‘a majbur bo‘ldi. Manglayida sovuqliq his etib Kumush ko‘zini ochdi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Ko‘nglingiz bosildimi?

Kumush javob o‘rnida yostiqdan qo‘zg‘aldi. Jom yo‘q edi. Otabek shoshib tokchadag‘i xitoyi norin tovoqni oldi. Kumush qusdi. Bu gal qusuq boyag‘i qatiq aralash ko‘kimtil va sarg‘imtil narsalar edi. Og‘zini chayg‘andan keyin Otabek qatiqni taklif qilg‘an edi, ichmadi va o‘zini yostiqqa otdi...

Tabib keldi xabarini eshitib, Otabek jonlang‘andek bo‘ldi. Uy eshigiga jom ko‘tarib kelgan Zaynab keyiniga qaytdi. O‘zbek oyim ham chaqaloqni ko‘tarib uydan chiqdi. Otabek tabibning hurmatiga turishni unutib Kumushning manglayini bosqancha o‘lturar edi. Tabib Otabekdan voqi’ani so‘rab bilgandan so‘ng Kumushning tomirini ko‘rib labini tishlab qoldi va tovoqdag‘i qusuqni hidlab qaradi:

— Bu kun nima xo‘rak qilg‘an ekan?

— Atala.

— O‘sha taomdan bir oz qolg‘ani bormikin?

— Bor! — dedi Otabek va boya onasi ko‘rsatkan joydan kosani olib tabib qo‘lig‘a berdi.Tabib kosadan barmog‘ig‘a bir oz elashdirib yaladi va darrav tuflab tashladi.

— Zahar ichibti!

Otabek sapchib ketdi, tusi qo‘rqunch holga kirgan edi...

— Bekor gap!

Tabib Otabekning hozirgi holatidan dahshatka keldi...

— Men hozir daf’i uchun doru yuboraman, — dedi va qo‘zg‘aldi. Otabek ham uning bilan birgalashib o‘rnidan turdi:

— Zaharni kim beradi?

Nima deyishka ham hayron tabib:

— Man... man... o‘zingiz o‘ylab ko‘ring-chi... Man darrav doru yuboray, darrav ichiring, tuzikmi? — dedi.

— Bildim, bildim! — dedi bechora Otabek. — Zaynab, Zaynab, Zaynab... Jalab! Yuboring, yuboring, darrav yuboring!

Tabib ketdi, Otabek telbalarcha yugurib Kumushning boshig‘a keldi, yuzini ochib manglayini bosdi va o‘pdi... Kumush ko‘zini ochib kuch bilan so‘l qo‘lini erining

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi
yelkasiga tashladi... Qo'lida chaqaloq bilan O'zbek oyim kirdi.

— Zaynabni chaqir, Zaynabni!

O'zbek oyim tabib so'zidan xabardor edi:

— Zaynab! Zaynab!

Zaynab yugurib uyga kirdi. Tusi murdadek oqarg'an edi. Otabek Kumushni qo'yib yerdagi atalani oldi:

— Ich muni, ich jalab!

Zaynab orqag'a tislandi... Otabek kosani unga otdi... Zaynabning kiyimi atala bilan belandi. Shuning ustiga dahlizdan Yusufbek hoji ko'rindi.

— Ket jalab, ket! Taloqsan, taloq!

«Taloq» so'zini eshitkan Kumushning ko'zi yarq etib ochilib, yana yumildi... Hoji voqi'ani tabibdan eshitkan, shuning uchun hozirgi fojia' sahnasidan ajablanib turmadi.

— Chiq, Zaynab, chiq! — dedi ul ham, — la'nat sendek xoting'a!

Zaynab chetlanib uydan chiqdi... Hoji Kumushning boshig'a kelib o'lturdi. Otabek va onasi oyog' ustida edilar, Kumushning ko'zi yumiq, sochlari yuzi ustida parishon edi. Hoji o'z qo'li bilan sochlarni tuzatib Kumushning ko'kimtil tovlang'an yuzini ko'rdi va manglayini bosdi...

— Oyim... Oyim!.. — dedi hoji. Kumush ko'zini ochib besaranjom unga nazar tashladi va tanib... qo'zg'almoqchi bo'ldi.

— Qo'zg'almang, oyim... qo'zg'almang!

Kumushning ko'z yoshisi chakkasidan oqib tushdi... Hoji ham o'zini to'xtatolmay, Kumushning yoshini artib, boshini siladi:

— Xudo shifo berar, bolam!

Kumush jomga qo'zg'aldi, Otabek kelib qo'ltiqladi, hoji ham uning boshini tutdi... Bu gal qusuq qong'a aylangan edi, burnidan ham bir necha tomchi qon oqdi... Qusub yotg'ach, ko'zi yarqillab ochilib ketdi va tevaragiga betoqat qarandi:

— Oyi... dada... — so'ngra, — begim, — deb ingrandi... Erining yuzini yuziga qo'ydi, uyalg'ansumon ko'zini yumdi...

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

* * *

Ertasi kun dafn marosimi bo‘ldi. Janozag‘a Toshkandning har bir mahallasidan deyarlik kishilar ishtirok qildi. Faqat maqtulaning eng yaqinlarig‘ina bu tantanaga yetib kelalmadilar.

Bechora ona, bechora ota!..

Uchunchi kun ular ham kelib yetdilar... Ularning hozirgi holini tasvir etish mumkinmi?!

Yettinchi kun xatmi qur’on qilinib xalqg‘a osh berildi va shu munosabat bilan chaqaloqqa «Yodgorbek» deb ism qo‘yildi.

Kumushning yaqinlarig‘ina emas, balki foji’adan xabardor bo‘lg‘an shaharning katta-kichigi Zaynabka beriladirgan jazoni erta-kech kutmakda edilar. Biroq foji’aning o‘ninchi kunlarida Zaynabning jinni bo‘lib, ochiq ko‘yi ko‘chada yurgan xabari va og‘asi tomonidan ushlanib kishanga soling‘an mojarosi eshitildi. Zaynabning jununi qozilar va tabiblar tarafidan ham tasdiq etilgach, uning ustidagi jazo ko‘tarildi. Darhaqiqat, aqldan ozib ko‘chalarda ochiq kezish va kishanga tushishning o‘zi ham Zaynab uchun kichkina jazo hisoblanmas edi.

Foji’aning yigirmanchi kunida yana xatmi qur’on qilinib, butun yurtka osh berilgandan so‘ng, bechora bolu paridan[1] ayrilg‘anlar Marg‘ilong‘a qaytish harakatiga tushdilar. Yodgorbek ham Oftob oyimning quchog‘ida ketmakchi, uning olib ketilishiga qarshi hech kim yo‘q edi.

Eng keyingi vido’lashish kuni yetdi. Otabek, qutidor va Oftob oyim (...) qabristonining ikki tup qurig‘an chinor yog‘ochi orasig‘a turg‘uzilg‘an yangi xishtin sag‘ana qarshisida to‘xtadilar. Sag‘ananing o‘ng boshidag‘i toshdan o‘yib yasalg‘an lavha ko‘zga chaqilib turar edi:

La ilaha illa-ollohu Muhammadu-rasul-ulloh
Hazihil markadul munavvaratu lil mazlumatil
mashhudati al-mag‘furati.
Kumushbibi binti Mirzakarim Marg‘inoniy, tarixi tavalludi 1248.
Vafoti 1269-yil hijriy, jumod-ul-avval.

---

[1] B o l u p a r — qanot.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Bu lavha bir dilporadan husn sanamiga yodgordir.
Bunda madfun kundash balosining namoyon bir qurbonidir.

Ayo charx, etding ortuq jabr bunyod,
Ko‘zim yoshlig‘, tilimda qoldi faryod.
Hayotim lolazoridin ayurding,
Yoqib jonim, kulim ko‘kka sovurding.

Bechora ona chidalmadi, qabrni quchog‘lab uvvos tortdi. Otabek ham qabr yonig‘a tiz cho‘kib, ko‘z yoshisi bilan tuproqni loy qila berdi... Qutidor lavha qarshisida edi. Lavhani o‘qub chiqgandan keyin ul ham piq-piq yig‘lab yubordi. Yarim soat chamasi shul holda qoldilar.

Qur’on o‘qushg‘a hech kimda majol yo‘q edi.

Qarshidag‘i binoga Yusufbek hoji tarafidan qo‘yilg‘an qori bularning holiga tushundi. Sekin-sekin qorixonadan chiqib keldi va narida o‘lturib qur’on o‘qudi. Oftob oyimning nolasi bosilsa ham, lekin ko‘z yoshisi tiyilmadi. Bir ulgina emas, anovlar ham shu holda edilar. Fotiha tortilg‘andan so‘ng qutidor va Oftob oyim qorig‘a pul berdilar. Qori ketkandan keyin har qaysilari o‘zlarini bosib alohida-alohida qur’on o‘qub bag‘ishladilar, so‘ngra ohista-ohista yo‘l olib qabr bilan vido’lashdilar. Go‘yo Kumush «mendan rozi bo‘ling!..» deb onasig‘a xitob qilar, Oftob oyim orqasig‘a qaray-qaray yig‘lab kelar edi...

Otabek ularni uyga qo‘yib, qabr yonig‘a keldi va tuni bilan shunda qoldi. Erta bilan Hasanali aravani qo‘shib tayyorlag‘an, mayda-chuyda aravaga tashilar edi. Eng keyinda Oftob oyim Kumushning kiyimlari bilan Yodgorbekni ko‘tarib chiqdi, keyinroq Yusufbek hoji bilan qutidor ko‘rindilar. Qutidor vidolashib aravaga chiqg‘anda ko‘cha tarafdan Otabek kela berdi, kelib otning jilovini ushladi va ot ustiga mingan Hasanaliga — «tushing otdan!» dedi. Hasanali otdan tushdi. Otabek irg‘ib otqa mindi va qutidordan so‘radi:

— Otni haydaymi?

Qutidor bilan hoji tushunisholmay bir-birlariga qarashdilar. Yo‘lakda turgan O‘zbek oyim darbozadan mo‘ralab qo‘ydi. Qutidor indamagani uchun Otabek o‘zicha otni haydab yubordi.

— Xayr!

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

— Xo‘sh!

Marg‘ilong‘a jo‘naydirg‘an Hasanali gangib ko‘chaning o‘rtasidan hojig‘a qaradi. Hoji yo‘lakdagi oyimg‘a yer ostidan ko‘z qirini tashladi... Otabek ortig‘a qaramasdan aravani haydar edi...

17. XOTIMA

Bir yildan so‘ng Otabek usta Alim bilan birga Toshkand keldi. Hoji va O‘zbek oyim og‘iz ochib undan ranjiy olmadilar. Ul mehmonlar kabi edi. Na otasi va na onasi bilan ochilib so‘zlashmadi. Usta Alim bilan bir hafta chamasi Toshkandda turib eng so‘ngg‘i kech yolg‘iz ko‘yi Kumush qabri yonida bo‘ldi. Kecha oydin, qabriston tib-tinch, uzog‘roqdan qur’on tovshi eshitilar edi. Ikki tub chinor butoqlarida qo‘nib o‘lturgan uchto‘rtta boyqushlar, qabr yonig‘a tizlangan Otabek va yuqori, quyi do‘mbaygan qabrlar bu tilovatka somi’ kabi edilar. Qur’on oyatlari qabriston ichiga og‘ir ohangda oqar edi. Qabr yonig‘a tiz cho‘kkan yigitning ko‘z yoshlari ham qur’on oyatlariga qo‘shilishib oqar edi. Birar soatdan keyin tilovat to‘xtaldi. Otabek holsizlanib oyog‘ uzra turdi va orqasidag‘i yarim yalang‘och ko‘lagani ko‘rib bir necha qadam qabr tomong‘a tislandi... Ko‘laga yaling‘an sumol unga yaqin yurib keldi...

— Kim bu?

— Men Kumush!..

Otabek tovush egasini tanidi. Bu majnuna Zaynab edi.

— Ket mundan!

— Men Kumush! — dedi yana Zaynab, ammo ketmay iloji qolmadi. Zeroki dunyodag‘i eng yaqin kishisi unga «ket!» amrini bergan edi. Zaynab orqasig‘a qaray-qaray Otabekdan uzoqlashdi. Otabek qaytib unga qaramadi, qabr yonig‘a tiz cho‘kdi...

Ertasi kun O‘zbek oyim yig‘lay-yig‘lay Yodgorbek uchun tikdirgan kiyimlarini o‘g‘lig‘a topshirdi. Otabek usta Alim bilan birga Marg‘ilong‘a jo‘nadi. Bundan so‘ng Otabek Toshkandga qaytib kelmadi, bir necha qayta O‘zbek oyimning o‘zi Marg‘ilon borib keldi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

1277-nchi yilning kuz kezlarida bo‘lsa kerak, Yusufbek hoji Qanoatshodan[1] bir xat oldi. Qanoatsho Avliyo otadan yozar edi.

«O‘g‘lingiz Otabek yana bir kishi bilan bizning qo‘shunda edi. Olmaota ustidagi o‘rus bilan to‘qnashmamizda birinchi safimizni shu ikki yigit oldi va qahramonona urushib shahid bo‘ldi. Men o‘z qo‘lim bilan ikkisini dafn etdim...»

Yusufbek hoji xatmi qur’on qilib yurtka osh berdi, O‘zbek oyim qora kiyib ta’ziya ochdi.

B i t d i

[1] Q a n o a t sh o — Hozirgi Tojikistonning Qorateginidan. Qo‘qon xonlarining bir nechasida amiri lashkar lavozimida, shuningdek Turkiston viloyatining hokimi bo‘lgan. Ruslarga qarshi kurashganlardan. Buxoroga elchi bo‘lib borganda amir Muzaffarxon tomonidan 1862-yilda qatl etiladi.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

YOZG‘UCHIDAN

Keyingi Marg‘ilon borishimda yaqin o‘rtoqlardan Yodgorbek to‘g‘risini surishtirib bildim: Yodgorbek ushbu asrning o‘n to‘qqiz va yigirmanchi ochliq yillari miyonasida vafot qilib, undan ikki o‘g‘ul qolibdir. O‘g‘ullaridan bittasi bu kunda Marg‘ilonning mas’ul ishchilaridan bo‘lib, ikkinchisi Farg‘ona bosmachilari orasida ekan. Bu kunda nomu nishonsiz, o‘luk-tirigi ma’lum emas, deydilar.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

MUNDARIJA

Yozg‘uvchidan 5
Birinchi bo‘lim 6
Ikkinchi bo‘lim 128
Uchinchi bo‘lim 270

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

«Asr oshgan asarlar»

ABDULLA QODIRIY

O‘TKAN KUNLAR

Toshkent
«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati
2007

Muharrir *Shoira Ergasheva*
Musavvir *Nilufar Hidoyatova*
Texnik muharrir *Ra’no Boboxonova*
Sahifalovchi *Mastura Athamova*
Musahhihlar *Y.Bizaatova, Sh.Xurramova*

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi

Diopozitivdan bosishga ruxsat etildi 30.07.2007. Bichimi 84x108¹/₃₂. «Tayms» garniturasi. Ofset bosma. Shartli bosma tabog'i 20,2. Nashriyot hisob tabog'i 24,0. Adadi 10000 nusxa. Buyurtma № 3828. Bahosi kelishilgan narxda.

«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi,
100083, Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41.

www.kitob.uz - Respublika bolalar kutubxonasi